



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



YANGI O'ZBEKISTONDA FILOLOGIK TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI

Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya MATERIALLARI II-JILD

CURRENT ISSUES, SOLUTIONS, AND PROSPECTS OF
PHILOLOGICAL EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN

International Theoretical and Scientific Conference
PROCEEDINGS
Volume - 2

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПУТИ РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ
РАЗВИТИЯ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ
УЗБЕКИСТАНЕ

Международная научно-теоретическую конференцию
МАТЕРИАЛЫ
Том - 2

24-oktabr, 2025



**“YANGI O‘ZBEKISTONDA
FILOLOGIK TA’LIMNING
DOLZARB MUAMMOLARI,
YECHIMLARI VA
ISTIQBOLLARI”**
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

“YANGI O‘ZBEKISTONDA FILOLOGIK TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI”

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

TASHKILIY QO‘MITASI

Tashkiliy qo‘mita raisi:

G‘.I. Muxamedov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

B.X. Eshchanov

S.B. Qorayev

D.B. Axmadjanov

O.A. Ortiqov

S.X. Gayupova

R.A. Ikramov

O‘.R.Saidov

N.D.Xolikova

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor.

Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor.

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor.

Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor.

Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘lim boshlig‘i.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri.

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini mudiri

Tashkiliy qo‘mita ishchi guruhi:

Davlatova A.D.

Sabitova T.

Kabirov M.T.

Tog‘ayeva G.J.

Muydinova A.U.

Shermatova U.Sh.

Rasulova R.B.

Mo‘ydinov Q.A.

Abdirimova I.K.

Duyseybayeva D.

Baykabilov U.

Bayzakov J.

Muxtarova Sh.

Raxmanova N.A.

Xikmatov X.S.

Quchqorov H.H.

Murodova F.

Bekmurodov T.

Komilova G.

Xayrullayeva R.

Achilova E.S.

Usmanova Z.I.

Murodova R.

Shayxislamov N.Z.

Arzikulova S.A.

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini professori

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini professori

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti v.b.

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini katta o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini katta o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini katta o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini katta o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

SO'ZBOSHI

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniyati, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining porloq hamda bebaho mevasi bo'lgan o'zbek tili dunyodagi eng boy va qadimiy tillardan biridir. Mustaqillik davrida ona tilimiz chin ma'noda davlat tili maqomiga ega bo'lib, xalqimizni erkin, ozod va farovon hayot barpo etish yo'lida birlashtiruvchi, safarbar etuvchi ulkan kuch sifatida maydonga chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qator farmonlar ona tilimiz rivojiga berilgan katta e'tibor namunasidir. Xususan, 2019-yilning 21-oktabrida qabul qilingan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra 21-oktabr sanasi yurtimizda "O'zbek tili bayrami kuni" deb belgilandi. Bugungi kunda o'zbek tili jamiyatimizning barcha jabhalarida keng qo'llanilib, xalqaro miqyosda, jumladan, kompyuter texnologiyalari va internet tizimlarida ham samarali foydalanilmoqda. Shu bilan birga o'zbek tilining xalqaro muloqot vositasiga aylangani, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan olib borilayotgan muzokaralar, uchrashuvlar hamda yuksak darajadagi rasmiy tadbirlarda qo'llanilayotgani barchamizda cheksiz faxr va iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Jumladan, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tilshunosligi va O'zbek adabiyotshunosligi kafedralari tomonidan "Yangi O'zbekistonda filologik ta'limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari" mavzusida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham davlat tilini rivojlantirish borasidagi yutuq va natijalarga ilmiy-nazariy baho berish, mumtoz adabiyot siymolarining qo'lyozma asarlarlarini chuqur o'rganish va tabdil etish borasidagi izlanishlar, tasavvufiy merosimizga yangicha yondashuvlarni shakllantirish, jadid ma'rifatparvarlarining qimmatli merosini keng targ'ib etish, shuningdek, respublikamizdagi mavjud filologik muammolar va ularning yechimlari bo'yicha xulosa hamda takliflar taqdim etish, yetakchi xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.

Anjumanning ustuvor yo'nalishlaridan biri – globallashuv jarayonlarida umumturkiy dunyoning tili va qadriyatlarini mustahkamlash, turkiy tillar oilasi o'rtasida xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgani alohida diqqatga sazovor.

Shu o'rinda konferensiya materiallaridan joy olgan ilmiy maqolalar ham bugungi jamiyatimiz tomonidan ilgari surilayotgan raqobatbardoshlik, sifatli ta'lim,

innovatsion muhit, ma'rifatparvarlik va ma'rifatchilik g'oyalariga hamohang bo'lib, yurtimizda ta'lim-tarbiyaga oid tadqiqotlar olib borayotgan barcha talaba, doktorant va izlanuvchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Anjuman materiallari sifatida tayyorlangan mazkur to'plam sohadagi muammolar, ularning maqbul yechimlari masalalariga bag'ishlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur anjuman doirasida shakllangan ilmiy hamkorlikning kelgusida yanada mustahkamlanib, yangi g'oyalar va loyihalar uchun zamin yaratishiga ishonch bildiramiz. Bu hamkorlik, shubhasiz, tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda ta'lim sohalarining yanada rivojlanishiga samarali hissa qo'shadi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori

G'.I. Muxamedov

1-SHO'BA: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

ТІЛДІ МЕНГЕРУДІҢ ДЕҢГЕЙЛІК ЖҮЙЕСІНДЕ ЛЕКСИКАЛЫҚ МИНИМУМНЫҢ ОРНЫ

Сүйінжанова Ж.К¹ Темирбекова Д.Б².

¹Филология ғылымдарының кандидаты,

Қожа Ахмет Ясауи атындағы Халықаралық қазақ-түрік университеті

zhanar.suinzhanova@ayu.edu.kz

²В02336 – Филология: қазақ филологиясы мамандығының
4-курс бітірушісі.

Андатпа. Бұл мақалада тіл үйрету жүйесіндегі лексикалық минимумның маңызы мен оның деңгейлік жүйедегі орны қарастырылады. Атап айтқанда, шет тілін немесе мемлекеттік тілді меңгеруде қолданылатын CEFR (жалпы еуропалық тіл меңгеру стандарты) жүйесінің контекстінде лексикалық минимум құрастырудың әдістемелік негіздері мен практикалық маңыздылығы талданады.

Түйін сөздер: лексикалық минимум, тіл үйрету, деңгейлік жүйе, CEFR, сөздік қор, тілдік құзыреттілік

Аннотация. В данной статье рассматривается значение лексического минимума в системе обучения языку и его роль в уровневом подходе. Особое внимание уделяется методологическим основам составления лексического минимума в контексте системы CEFR (Общеввропейские компетенции владения иностранным языком) и его практическому значению при обучении государственному или иностранному языку.

Ключевые слова: лексический минимум, обучение языку, уровневая система, CEFR, словарный запас, языковая компетенция

Abstract. This article explores the significance of the lexical minimum in language teaching and its role within the level-based system. The paper focuses on the methodological foundations and practical importance of compiling lexical minimums in the context of the CEFR (Common European Framework of Reference for Languages), particularly in teaching foreign or state languages.

Keywords: lexical minimum, language teaching, level-based system, CEFR, vocabulary, language competence

Тілді екінші тіл ретінде меңгертудің жаңа бір жүйесін іздеу, зерттеу, тәжірибеге енгізу сияқты маңызды мәселелер бүгінгі күні өзекті. Тілді үйретудің реті және соған сай тәсілдер жүйесі болатыны белгілі. Тілді екінші тіл ретінде меңгерту үшін ең алдымен сөздік қордың дұрыс әрі жүйелі өсу тәртібімен үйренуіне ерекше мән беру қажет. Алдымен тіл үйрету үдерісінде күнделікті жиі қолданылатын лексиканы анықтап алу маңызды.

Біріншіден, іріктелген сөздер тіл үйренушінің ең қажетті лексикасын меңгеруіне мүмкіндік туғызады, яғни, тіл үйретудің бастапқы сатысында тіл үйренуші өзінің жадын пассив сөздермен толтырмай, қарапайым қажеттілігін қанағаттандырады;

Екіншіден, анықталған лексикалық минимум әдістемелік тәсілдерді тиімді қолдануға, сол ең қажетті сөздер ауқымында ғана оңтайлы тәсілдерді табуға және оларды үйрету үдерісіне қолдануға оң ықпалын тигізеді. Мемлекеттік тілді халықаралық және ұлттық стандартқа сай жетілдіру мақсатында қазақ тілі деңгейлері бойынша лексикалық және грамматикалық минимумдар әзірлеу өте маңызды.

Қазақстан Республикасы тіл саясатын дамытудың 2023-2029 жылдарға арналған тұжырымдамасында қазақ тілін үйрету әдістемесіне байланысты ғылыми және оқу-әдістемелік еңбектерді жүйелеу, А1, А2, В1, В2, С1 деңгейлері бойынша лексикалық және грамматикалық минимумдар әзірлеу, минимумдар негізінде әр деңгейге оқулықтар мен оқу-әдістемелік құралдарын әзірлеу жұмыстары жоспарланған. Осыған орай, қазақ тілінің А1, А2, В1, В2, С1 деңгейлері бойынша белсенді лексика-грамматикалық минимумын құрастыру қолға алынды.

Жалпы әлемдік тілдерді оқыту тәжірибесінде қарапайымнан жоғары деңгейге дейін арнайы сөздікқор мен грамматиканы қолдану стандарттары қалыптасқан. Қазақ тілін деңгей бойынша оқытуда қолданылатын коммуникативтік жағдаяттарға сай лексикалық, грамматикалық тақырыптар, сөздікқор сараланып, лексика-грамматикалық минимум құрастырылды.

«Лексикалық минимум» термині әдістемелік ғылымда екі мағынада қолданылады. Біріншіден, лексикалық минимум деп шет тілін меңгерудің белгілі бір кезеңінде міндетті түрде игеруді талап ететін сөздер тізімін атайды. Екіншіден, қандай да бір шет тілін оқитын азаматтарға арналған біртүлді және екітүлді оқу сөздіктерін атайды.

Лексикалық минимум дидактикалық материалдың бір түрі ретінде тілдік білім беруді стандарттау дәуірінде ерекше мәртебеге ие.

Тіл үйрету жүйесінде лексикалық минимум лингводидактикалық тестілеудің тәуелсіз компонентіне, тіл үйренушілердің сөздік қорының даму динамикасын реттейтін және сол арқылы оқыту мазмұнының лексикалық компонентіне айналды.

Тіл үйрену тәжірибесінде лексикалық минимумдарды қатар үйрену міндетті түрде ұштасып отырады. Лексикалық минимум сөздік қордың кеңеюіне, белсенді және пассивті сөздік қордың қалыптасуына ықпал етеді. Лексикалық минимум қазақ тілін меңгерудің әрбір деңгейіне сәйкес келетін (A1, A2, B1, B2, C1) минимальды сөздер мен сөз тіркестерінің жиынын қамтиды. Минимум қазақ тілін өз бетінше үйренуге және қазақ тілін меңгеру деңгейін бағалауға бағытталған. Минимум тілді үйренудің әлемдік және еуропалық стандарттарының принциптеріне, сонымен қатар Қазақстан Республикасының қоғамдық-әлеуметтік ерекшеліктеріне сәйкес құрастырылған.

Лексикалық бірліктерді таңдаудың мақсаты қазақ тілінде жаза білу мен сөйлей білудегі қолданылатын белсенді сөздік қорын сараптау мен оларды жүйелеу. Осыған орай тілді үйренуші азаматтар үшін тіл үйренуде өз ойын пайымдап, оны айта біліп, сөздер мен сөз тіркестерді тақырыбына сәйкес мағынасы мен қолдану саласына қарай топтастыра білуі, сонымен қатар тілдік бірліктерді дұрыс қолдана алуы сияқты талаптар анықталады.

Әрбір деңгейдің лексикалық минимумы келесі принциптерге негізделген: жүйелілік, сабақтастық, дамытушы, коммуникация, нәтижелілік. Жүйелі құрастырылған лексикалық минимум тіл үйренушіге қазақ тілінің сөздері мен сөз тіркестерін дұрыс пайдалану, әртүрлі жағдаяттарда тілдесу тақырыбына байланысты лексикалық бірліктерді дұрыс пайдалану қабілеттерін қалыптастыруына ықпал етеді.

Отандық тәжірибеде бұған дейін А. Байтұрсынұлы атындағы Тіл білімі институты құрастырған *Жиілік сөздігі*, Қазақстан Республикасы Сауда және интеграция министрлігі Техникалық реттеу және метрология комитетінің

«Қазақ тілін меңгерудің коммуникативтік тілдік құзыреттіліктеріне қойылатын талаптарды айқындайтын ұлттық стандарттары», Қазтест орталығының «Қазақ тілін меңгерудің тақырыптық лексикалық минимумы (A1, A2, B1, B2, C1)», Ұлттық тілдік корпус жанында дайындалған деңгейлік лексика-грамматикалық минимумдар, Назарбаев

Зияткерлік мектептерінің лексика-грамматикалық минимумы лексика-грамматикалық минимум құрастырылуы барысында ескерілді.

2024 жылы Ш. Шаяхметов атындағы «Тіл-Қазына» ұлттық ғылыми-практикалық орталығы дайындаған «Қазақ тілінің лексика-грамматикалық минимумында» Жалпыеуропалық құзыреттіліктер жүйесінде (CEFR) көрсетілген A1, A2, B1, B2, C1 деңгейлеріне сай сөздікқор тізбесі ұсынылады.

Әр деңгей бойынша лексика-грамматикалық минимум құрылымы төмендегідей ретте ұсынылады:

- нұсқаулық;
- әліпби тәртібімен берілген жалпы лексикалық қор;
- ірі тақырыптарға топтастырылған сөздікқор тізбесі;
- кірме сөздер (халықаралық қолданыстағы сөздер) немесе резерв сөздер тізбесі;
- дайын сөйлесім құрылымдары (клишелер);
- фразалық тіркестер тізбесі;
- грамматикалық минимум.

Қазақ тіліне деген сұраныстың артуы тіл оқыту әдістемесінің жетілуіне ықпал етеді, яғни қолданысқа ұсынылып отырған лексика-грамматикалық минимум жан-жақты жүргізілетін сынама жұмыстарынан кейін қайта өңделіп, толығып отырады.

Лексикалық минимум. Әр деңгей бойынша жаңадан қосылған лексикалық бірліктер мен грамматика қою шрифтпен беріледі.

Сонымен қатар A1, A2 деңгейлерінде ортақ сөздер (үстеу, сан есім, есімдік, модаль сөздер т.б.) лексикалық минимумның жалпы тізбесіне енсе, B1 деңгейінен бастап ортақ лексикалық бірліктер жалпы тақырыптық лексикадан кейін бөлек беріледі. Клишелер мен фразалық тіркестер де деңгейлер бойынша іріктеліп, әр деңгейде жаңадан қосылған сөздер мен сөз тіркестерінде де жоғарыдағы қағидат сақталады. C1 жоғары деңгей болғандықтан клишелер берілмейді.

Лексикалық минимум тізбесінде кейбір омоним сөздер тақырыптарға байланысты қайталанып келеді. Мысалы, *ара - жәндік, ара - құрылыс құралы*. Бұндай жағдайда жақшаға түсініктемесі беріледі. Ал қолданысына байланысты сөз табы өзгертін сөздер, мысалы, *алтын – зат есім/сын есім* сияқты лексикалық бірліктердің сөз таптары таяқша арқылы көрсетіледі.

Лексикалық тақырыптарды тіл үйретуші іштей тақырыпшаларға бөлу, тақырып ішіндегі сөздерді топтастырып үйрету, грамматиканы бірге меңгерту

жұмыстарын тіл үйретуші қалауынша қолдана алады. Лексикалық минимум - оқу лексикографиясы мен лингводидактиканың ерекше күрделі объектісі. Минимизация принципі кез-келген ақпараттық жүйені құру процесін реттейтін әмбебап әдіснамалық принциптердің бірі болып табылады және оның білім беру жүйесінде маңызы зор.

Минимизацияның түпкі негізінде зерттелетін ең күрделі нысаны - тілдің сөздік құрамы жатады, сонымен қатар қысқарту әрекеттеріне қарамастан оның бойында негізгі қасиеттері ешбір өзгеріске ұшырамай сол қалпында сақталады. Бұл принцип кез-келген лингвистикалық сөздікті құрудың негізін құраушы болып табылады.

Ол тілдік бірліктердің сан жағынан ең аз жиынтығы, олар тілдің қысқартылған моделін құрастыруда және лексикалық минимумды құруда ерекше рөл атқарады.

Лексикалық минимум шетел азаматтарының тіл деңгейлерін анықтайтын сертификаттық тестілеудің міндетті құрамдас бөлігі ретінде қарастырылады.

Ғалымдар еуропалық ғылыми және оқу-әдістемелік әдебиеттерді талдап, лексикалық минимумның теориясы мен практикасындағы сөздіктерді іріктеу үшін мынадай негізгі критерийлер жиынтығы қолданылатынын көрсетеді, олардың екеуі - *жиілік* және *тақырыптық* топқа жататындығы, олар барлық классификацияларда айтылады және негізгі критерийлер деп танылады.

Көмекші критерийлер ретінде: - *стилистикалық шектеусіздік* (ауызекі лексика мен жаргонды алып тастау), *сөзжасамдық қабілет*, *құрылымдық құндылық* (тілдің туынды сөздерін қосу), *шектеусіз тақырыптық* (қандай да бір терминдерді алып тастау), *сөздіктердегі анықтамаларды тұжырымдау үшін анықтаушы сөздерді қосу*; «*қол жетімді сөздер*» (доступные слова) (les mots disponibles сөздігіне ену - ана тілінде сөйлейтіндердің санасында белгілі бір қарым-қатынас жағдайымен байланысты сөздер) .

Ағылшын тілінің лексикалық минимумын іріктеудің белгілі қағидаттары бар. Олар:

- тақырыптық іріктеу,
- жиілік;
- тілдік интерференция тұрғысынан қателерді болжау; семантикалық іріктеу;
- тіркесімділік қағидаты;
- стилистикалық шексіздік қағидаты;
- сөзжасамдық құндылық қағидаттары;

Тақырыптық іріктеу дегеніміз қандай да бір (a teacher, a housewife, a singer) тақырып бойынша қатынасуға еш мүмкіндік болмайтын арнайы сөздер мен тіркестердің мейлінше шектеулі мөлшері. Сөздер мен сөз тіркестерінің қолданыс (a teacher, a housewife, a pupil) жиілігі оқу сөздігі, оқулық пен анықтамалықтардың көмегімен анықталады.

Тілдік интерференция бойынша қатені болжау тіл үйренушінің ойының дұрыс әрі идиоматикалық тіркесіне қажетті лексикалық (a doctor, a dentist, an officer) минимумды іріктеуге көмектеседі.

Семантикалық іріктеу дегеніміз, іріктелетін сөздер ауызша әрі жазбаша (an engineer, a pupil, an economist) тілдесу тақырыбына сәйкес келетін мейлінше маңызды түсініктерді сипаттауы тиіс.

Тіркесім қағидаты кезінде лексиканың құндылығы басқа да сөздермен үйлесу мүмкіндігіне байланысты анықталады. Сөздің үйлесімділігі қаншалықты жоғары болса, қатынастық тұрғыдан ол соншалықты құнды болмақ (to work in an office, a teacher of Russian, to want to be a runner).

Сөзжасамдық құндылық қағидаттары – сөздердің префикс, аффикстердің көмегімен жаңа сөзді құрастыра алу қағидаты (a dancer, a worker, a jumper).

Лексикалық және грамматикалық минимум әзірлеуде осы жоғарыдағы халықаралық тәжірибе негізге алынды. Шетелдік ғалымдар тәжірибесіне талдау жүргізу, әр жылдары және әр тілде жасалған минимумдардың тиімді/тиімсіз тұстарын саралау, нақты зерттеуші-ғалымдардың еңбектері негізінде тың тұжырымдар ұсынылды. Лексикалық минимум әзірлеуде коммуникативті, когнитивтік, функционалды-семантикалық, жиілік, тақырыптық, әдістемелік, тіркесімдік және т.б. қағидаттары басшылыққа алынды. Грамматикалық минимум әзірлеу қағидалары: грамматикалық тіркесім, құрылымдық, функционалдық бағыт негізге алынды.

Лексикалық белсенді минимумды іріктеу оқу үрдісін жоспарлау және соған сәйкес оқу материалын әзірлеу кезінде оқытудың нақты мақсаты мен мазмұнын ескере отырып іріктелуі керек. Мәселен, ағылшын тіліндегі көптеген мамандық атаулары қазақ тілі мен орыс тіліндегі баламаларына фонетикалық әрі семантикалық жағынан ұқсас келеді. (architect – архитектор, an officer – офицер, an economist – экономист). Осындай лексикалық бірлікті тіл үйренушілер жеңіл есте сақтайды және мейлінше жиі қолданады. Белгілі бір тақырыпқа қатысты

лексикалық минимумды төмендегі ережелерге:

1. тіл үйренушілердің даму деңгейіне, ой-өрісіне;
2. сабақтың міндетіне;
3. қатынастың нақты жағдайына;
4. тіл үйренушілердің үйрену деңгейіне және т.б сүйене отырып іріктеуге болады.

Лексикалық минимум – тілді жүйелі түрде үйренудің, оқыту мен бағалаудың негізі болатын маңызды компоненттердің бірі. Ол тілді деңгейлік меңгеру жүйесінің ажырамас бөлігі ретінде танылып, оқыту процесін ғылыми негізде ұйымдастыруға жол ашады. Болашақта лексикалық минимумдарды жасақтау кезінде тілдік корпус деректері мен жиілік талдауларын пайдалану арқылы бұл бағыттағы жұмыстарды одан әрі жетілдіруге болады.

Пайдаланылған әдебиеттер:

1. CEFR – Common European Framework of Reference for Languages. Council of Europe.
2. ҚР БҒМ. Қазақ тілін деңгейлік оқыту стандарты.
3. Жанпейісова М.М., Тіл үйрету технологиясы. – Алматы: 2021.
4. Nation, I.S.P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.
5. Дүйсебаева Г. Тілдік минимумды құрастыру әдістемесі. // ҚазҰУ хабаршысы, 2020.

**TOPONIMLAR TARIXIY, GEOGRAFIK VA LINGVISTIK
MA'LUMOTLAR BERUVCHI DARAKCHILARDIR**
**(Jizzax toponimlarining ta'biri. prof. B. O'rinboyevning ma'lumotlari
asosida tahlil qilindi)**

A.S.Musayev

Jizzax davlat pedagogika universiteti dots.

a.musayev1962@gmail.com

Xarob kulba,
Va bir parcha yer,
Atrofiga tutilgan chetan.
Umr bo'yi bobom to'kdi ter
Qilgunicha shu yerni vatan...
(E.Vohidov)

Annotatsiya. Maqolada Jizzax viloyati hududidagi toponimlarning shakllanishi, ularning tarixiy, etnografik, lingvistik va ijtimoiy ahamiyati keng yoritilgan. Unda joy nomlarining Vatan tushunchasi, xalqning turmush tarzi, kasb-hunar faoliyati, qabila va urug' nomlari, shuningdek dehqonchilik, chorvachilik, temirchilik, kulolchilik kabi mashg'ulotlar bilan bevosita bog'liqligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Jizzax viloyati, toponim, toponimiya, tarixiy manbalar, etimologiya, kasb-hunar toponimlari, dehqonchilik, chorvachilik, Boburnoma, lingvistika, etnografiya.

Annotation. The article extensively covers the formation of toponyms in the territory of Jizzakh region and highlights their historical, ethnographic, linguistic, and social significance. It analyzes the direct connection of place names with the concept of homeland, the lifestyle of the people, professional activities, names of tribes and clans, as well as occupations such as farming, animal husbandry, blacksmithing, and pottery.

Keywords: Jizzakh region, toponym, toponymy, historical sources, etymology, professional toponyms, farming, animal husbandry, Baburnama, linguistics, ethnography.

Аннотация. В статье подробно освещается формирование топонимов на территории Джизакской области, а также их историческое, этнографическое,

лингвистическое и социальное значение. В ней анализируется прямая связь названий мест с понятием Родины, образом жизни народа, профессиональной деятельностью, названиями племён и родов, а также с такими занятиями, как земледелие, животноводство, кузнечное и гончарное ремесло.

Ключевые слова: Джизакская область, топоним, топонимия, исторические, источники, этимология, профессиональные топонимы, земледелие, животноводство, Бабурнама, лингвистика, этнография.

Vatanparvarlik tushunchasining asosi Ona-Vatandir. “Vatan” soʻzi otabobolarimizdan meros boʻlib, ona yurt maʼnosini anglatadi. Inson tugʻilib oʻsgan uy, mahalla, qishloq va shahar ham oʻziga xos vatan sanaladi, ular bir-birini toʻldirib turadi. Baʼzan boshpana ham vatan maʼnosida qoʻllanadi.

Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui – toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. [1:501]

Toponimlar ham til leksikasining tarkibiy qismi sifatida boshqa barcha soʻzlar kabi til qonun-qoidalariga boʻysunadi. Ular milliy tilimizdagi qadimiy fonetik, leksik va morfologik unsurlarni koʻproq saqlab qolgan boʻladi. Joylarning tabiiy-geografik sharoiti, aholining etnik tarkibi, kishilarning kasb-mashgʻulotlari, tarixiy shaxslar, maʼlum soha vakillari, shuningdek dehqonchilik, temirchilik, quruvchilik va kulolchilik singari faoliyat turlari toponimlar shakllanishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Joy nomlari tarix, etnografiya, geografiya va tilning qimmatbaho yodgorliklari boʻlib, jamiyat va madaniyat taraqqiyotining barcha bosqichlari haqida xilma-xil maʼlumot beradi hamda ajdodlarning tarixiy xotirasini saqlash boʻyicha muhim vazifani bajaradi. [2:3]

Jizzax viloyati juda qadimiy boʻlib, Forish, Jizzax, Baxmal, Gʻallaorol va Zomin tumanlarida qadimiy hamda tarixiy shaxslar nomi bilan bogʻliq toponimlar juda koʻp uchraydi. Bular: Safar ota, Qaraxon, Qoʻytosh, Parpi ota, Hasan kapa kabilar.

Choʻl hududlari oʻzlashtirilishi natijasida Doʻstlik, Mirzachoʻl, Arnasoy, Zafarobod, Paxtakor va Zarbdor tumanlarida yangi toponimlar paydo boʻlgan. Masalan: Adirobod (Zarbdor), Andijon (Zarbdor), Birlik (Zomin), Bunyodkor (Doʻstlik), Gulzor (Arnasoy), Zafarobod (Baxmal, Gʻallaorol). Ushbu nomlar mehnat bilan qoʻlga kiritilgan yutuqlar evaziga obod boʻlgan maskanlarni ifodalash uchun berilgan.

Tarixchilar ta'kidlashicha, Aleksandr Makedonskiy davri, arablar istilosi, shuningdek Temuriylar zamonidagi siyosiy urushlar va g'alabalar Jizzax viloyatining minglab tarixiy toponimlarida o'z ifodasini topgan.

Dashtu tog' kesishgan yerlarda ko'chmanchi chorvachilik bilan shu'illanish uchun oson ish emas, ko'chmanchilar o'z podalarini aralashtirib emas, alohida-alohida haydaganlar va har bir oila o'zining aniq belgilangan qishloq va yayloviga ega bo'lgan. [3:79]

Undan tashqari, Boburning "Boburnoma" asarida Jizzax va Jizzax viloyati toponimlari haqida ham fikrlari mavjud. "Kech nomozi digar **Ilon O'tida** tushib, ot o'ltirib etini shishlab, kabob qilib, otni lahza tindurib otlandik. Tonding burunroq **Xaliliya** kentiga kelib tushdik. **Xaliliyadin Dizak** kelildi, ul fursatda **Dizakda Hofiz** Muhammadbek do'ldoyning o'g'li Tohir do'ldoy edi. Semiz etlar va mayda ermaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar faravon. Andoq usrattin mundoq arzonlik va andoq baliyattin undoq amonliqqa keldik". [4:86]

Boburning "Boburnoma" asarida keltirilgan matnlarida **Ilonotdi, Jizzax, Xaliliya, Pishag'or** (Pashag'or), **Zomin, Roboti Xoja** toponimlari hozirgi kunimizda ham joy nomlari sifatida borligi ham muhimdir.

"Xo'jandtin otlanib Poshag'arg'a mutavajjih bo'ldim. **Zoming'a** yetgan fursatda isittim. Bovujudi isitma Zomindin otlanib ilg'or qilib, tog' yo'li bilan o'tub, **Roboti Xojaning** ustiga keldim-kim, g'ofilliqtta shotu qo'yib chiqib, **Roboti Xoja** qo'rg'oninikim, Shovdor tumanining dorug'anishini uldur, oilig'ay. Subh vaqti yetildi. Eli xabardor bo'ldilar. Yana yonib, hech yerda tavaqquf qilmay, **Pashag'org'a** kelildi." [5: 56]

Toponimlarning kishilik jamiyati uchun eng asosiy va zarur vazifasi — ularning manzil nomini ifodalashidir. Joy nomlari nafaqat manzilni ko'rsatadi, balki ko'plab ma'lumotlarni ham yetkazadi. Shu bois biz uchun muhim bo'lgan toponimlarning etimologiyasiga ozgina aniqlik kiritishga urindik.

Jizzax – viloyat markazi. O'rta osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Bu qal'aning asl nomi Dizak. X-asrlarda ham shunday deb atalgan. *Diz* - qadimgi so'g'd tilida "qal'a, istehkom, qo'rg'on" demakdir: *ak* – esa kichraytirish affiksi *-cha* qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Demak, *Dizak* – Jizzax "qal'acha" demakdir. Umuman *-ak* affiksi toponim yasovchi affiksdur: **Borazak, Xumdonak, Namdonak, Xisorak kabi**. [6:24]

Zomin –tuman va qishloq nomi. Zomin tumani 1926-yil 29-sentyabrda tashkil tipgan U Beshkubi, Gulshan, Duoba, Navoiy, Obihayot, Tinchlik, Toshkesgan,

Chorvador, Shirin, Yangi hayot, G'allakor kabi 11 ta qishloq fuqarolar yig'ini, Dashtabod, Zomin kabi 2 ta shaharchadan iborat. U qadimiy shaharlardan biri bo'lib, tarixiy asarlarda Sarsonda, Susanda, Sabza nomlari bilan yuritilgan. Uning qachon qurilgani va nomining etimologiyasi aniq emas. Zomin arab geograflaridan Istahriy, Ibn Havkal, Muqaddasiy (X asr) asarlarida ham tilga olingan. [7:27]

Pishag'ar – Zomin tumanidagi qishloq. Toponimni har xil izohlaydilar. Ba'zilar besh og'ar-besh suv, besh uzan desalar, boshqalari pesha g'or – o'zi, g'or yoni deb talqin qiladilar. Bizningcha, Pishag'or so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, pesh-old ma'nosini beradi. G'or (g'al-gol) tog' demakdir. Qiyoslang g'olcha-tog 'lik ma'nosidadir. Shunday qilib Pishog'or toponimi tog'oldi yoki tog'ning old tomonidagi qishloq. [8:44]

Rovot – Jizzax, Zarbdor tumanidagi qishloq. Toponim rovot, rabod, rabot shaklida yoziladi. Shunga ko'ra uning ikki xil ma'nosi bor. Birinchidan, shahar devori, shaharning tashqi qismi ma'nosida, ikkinchidan, chegara posti, istehkom, qo'rg'on degan ma'nosidadir. Ravot geografik termin bo'lib, katta territoriyaga tarqalgan. Forish, G'allaorol tumanlarida ham shunday qishloqlar bor. [9:44]

Bulardan tashqari, Jizzax viloyatidagi bu kabi kasbkor mazmunliy guruhiga birlashuvchi toponimlarni hunar nomi bilan aloqadorligiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

1.Ma'lum kasb yoki soha vakillari nomi bilan aloqador tarzda vujudga kelgan toponimlar: Chorvador Jizzax, Zomin), Baliqli (Forish), Bog'bon (Mirzacho'l), Bo'zaxona (Baxmal, Zomin), Dargat (Jizzax tumani), Yomchi (Forish), Isori (Forish), Madaniyat (Baxmal, G'allaorol, Jizzax), Mirzabuloq (G'allarol), Mukori (G'allaorol), Mullabuloq (Baxmal, G'allaorol), Navoiy (Do'stlik, Jizzax, Zarbdor, Zomin), Sanoatchilar (Zafarobod), Temiryazov (Zafarobod), Toshkesgan (Zomin), Toqchilik (Zomin, Jizzax tumani), Tutak (Zomin, Forish), Udarnik (Zarbdor), Ulug'bek (Jizzax, Zomin), Umar (Jizzax, Zarbdor), Ustato'p (Baxmal), Cho'lquvar (Arnasoy), Egarchi (Baxmal), Yangiovul (Zarbdor), Qassoblik (Jizzax shahri) kabilar. Masalan:

Chorva – G'allaorol tumanidagi qishloq. Aslida chor – po qismlaridan iborat bo'lib, to'rt oyoqli molar demakdir. Chorvachilik bilan shug'illanuvchilar qishlog'i. Jizzax, Zomin tumanlaridagi Chorvador qishlog'i nomi ham yuqoridagi ma'nodan kelib chiqib, chorvachi demakdir. [10:61]

Toshkesgan – Zomin tumanidagi joy nomi. Tosh kesuvchi, tosh yo'nuvchi, toshtarosh, sangtarosh toshkesgan demak. [11:52]

Umar – Jizzax, Zarbdor tumanlaridagi qishloq. Umoro – yuqori mansabli harbiy amaldor, harbiy boshliq. [12:55]

2.Dehqonchilik, bog'dorchilik faolyati bilan bog'liq holda yuzaga kelgan joy nomlari: Bo'ston (Baxmal, Zarbdor, Zafarobod, G'allaorol), Galaxirmon (Arnasoy), Ketmonchi (G'allaorol), Lalmikor (Zarbdor), Navbahor (Zomin), Olmazor (Baxmal), Oqoltin (Jizzax tumani), Paxtakor (Zomin, Mirzacho'l, Paxtakor), Paxtazor (Mirzacho'l), Paxtaobod (Jizzax tumani), Tozauruq (Zarbdor, G'allaorol), Chamanzor (Paxtakor), Yangibo'ston (Arnasoy, Zarbdor), Yangi bog' (Baxmal), Yangidala (Mirzacho'l), Quduq (Baxmal, Jizzax, Zomin, Forish), Qo'shchi (Zomin), G'allakor (Zomin) va boshqalar. Masalan:

Ketmonchi – G'allaorol tumanidagi qishloq. Ketmon dehqonchilikda, yer chopish, loy qilish va boshqa maqsadlarda ishlatiladigan ish quroli. Ketmon chopishda na'muna ko'rsatib ishlagan kishini ketmonchi deb atagan. [13:30]

Paxtazor – Mirzacho'l tumanidagi pasyolka. G'o'za ekilgan joy, g'o'za bilan band yer, dala. [14:44]

3.Temirchilik faolyati bilan bog'liq holda yuzaga kelgan toponimlar: Zargar (G'allaorol), Zartepa (Baxmal), Marjonbuloq (G'allaorol), Temirxon (Forish), To'pan (G'allaorol) kabilar. Masalan:

Zargar – G'allaorol tumanidagi qishloq. Zargar so'zi oltin, kumush kabi metallarni taqinchoq, bezak buyumlar yasovchi usta ma'nosida. Bundan tashqari, Qo'ng'iroq qabilasining Tortuli bo'limi shahobchasi zargar deb ataladi. [15:26]

To'pan – G'allaorol tumanidagi qishloq. To'pan – mayda chori yoki yirik kepak; qizigan temirga zarb bilan ishlov berganda ostiga to'kiladigan temir zarralari; chang, to'zon, tufon. To'pan umumturkiy to'por bo'lishi ham mumkin. [16:54]

4.Quruvchi va kulolchilik faolyati bilan bog'liq holda yuzaga kelgan toponimlar: Jusali (Forish), Koriz (Zomin, Forish), Ko'lba (Forish), Toshkesgan (Zomin), Xonbandi (Forish), Xonimqo'rg'on (G'allaorol), Chimqo'rg'on (Zafarobod, Forish). Jizzax viloyatining boshqa joy nomlari asosan qabila, ulug', tog'lar, soylar, suvlar, inson ismlari bilan bog'liq holatda shakillanganligini ko'ramiz. Masalan:

Ko'lba – Forish tumanidagi qishloq. Sopoldan, temir betondan qilingan quvurlarni xalq shevalarida g'ulva, g'ulba deb atalgan. Ariq orqali suv o'tkazish imkoniyati bo'lmagan joyda quvur o'rnatilib suv o'tkazilgan yerdagi qishloq ko'lba g'o'lbadir. [17:31]

Xonbandi – Forish tumanidagi qishloq. Xonbandi – qadimiy suv ombori, u 10-asr Pasttog'darasida bunyod etilgan. U Osmonsoy va Ilonchisoyni sel suvlarini

jamg'arib yozda ekinlar sug'orish uchun barpo etilgan. Ana shu joyda bunyod etilgan aholi punkti. [18:58]

Bu borada tarix, arxialogiya, etnografiya, antropologiya, numizmatika, toponimika, tarixiy tilshunoslik kabi ijtimoiy fan sohalarida keng k'lamli ilmiy ishlanishlar olib borilib, mutaxassislar ma'lum bir to'xtamlarga kelishmoqda. Ammo, bu o'zbek xalqining kelib chiqishi bilan bog'liq muammolar uzil-kesil yechimi topildi, degan so'z emas. Bu sohada hali tadqiq etilishi lozim bo'lgan ilmiy muammolar talaygina.

Xulosa qilib aytganda, Jizzax viloyati hududidagi toponimlar rang-barang, qiziqarli va o'ziga xosdir. Ularning ko'pchiligi kasb-hunar, dehqonchilik, bog'dorchilik, temirchilik, kulolchilik hamda qabila va urug' nomlari bilan bog'liq holda shakllangan bo'lib, linivistik atamalarda muhim o'rin egallaydi.

Bu toponimlar qadimiy davrlardan to hozirgi kunda qanday kasb-hunar va mashg'ulot bilan shug'illanayotganligi haqida qadimgiurug' nomlari haqida qimmatli ma'lumotni beruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2004. 8-tom. 501-b.
2. Jizzax toponimlarining ta'biri. Samarqand. 2007, 3-b.
3. Gumelev L.N. Qadimgi turklar. Toshkent. 2007, 79-b.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent, 1989. 86-b.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent, 1989. 56-b.
6. Jizzax toponimlarining ta'biri. Samarqand. 2007, 24-b, 27-b, 44-b, 61-b, 52-b, 55-b, 30-b, 44-b, 26-b, 54-b, 31-b, 58-b,

HARBIY HARAKATLAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALARNI IFODALOVCHI TERMINLAR

Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Jizzax davlat pedagogika universiteti,

a.dilnoza1981@gmail.com

Annotatsiya. O'tmishda Markaziy Osiyo xalqlari — o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqalar o'zaro hamda tashqi dushmanlarga qarshi olib borgan urushlari haqida qator yozma manbalar yaratilgan. Ularning ko'pchiligi XIV — XV asrlarga mansub bo'lib (masalan, Mahmud ibn Ali as-Saroyiyning "Nahjul-Farodis", Alisher Navoiyning "Tarixi Muluki Ajam" hamda "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari), ularda harbiy faoliyat bilan aloqador voqealar tasvirlangan. Ushbu manbalarda harbiy ishlar va uning tarkibiy tuzilmalariga oid ko'plab atamalar uchraydi. Maqolada ana shu terminlarning kelib chiqishi va ma'nolari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: atama, terminologiya, harbiy terminlar, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, "Nahjul-farodis", "Tarxi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo".

Abstract. In the past, a number of written sources were created about the wars waged by the peoples of Central Asia - Uzbeks, Tajiks, Turkmens, Kyrgyz, Karakalpaks and others among themselves and against external enemies. Most of them date back to the 14th-15th centuries (for example, the works of Mahmud ibn Ali as-Sarayi "Nahjul-Farodis", Alisher Navoi's "Tarihi Muluki Ajam" and "Tarihi Anbiyo va Hukamo"), which describe events related to military activities. These sources contain many terms related to military affairs and its structural units. The article provides brief information about the origin and meaning of these terms.

Keywords: term, terminology, military terms, own stratum, assimilated stratum, "Nahjul-Farodis", "Tarihi Muluki Ajam", "Tarihi Anbiyyah and Hukamo".

Аннотация. В прошлом был создан ряд письменных источников о войнах, которые вели народы Центральной Азии – узбеки, таджики, туркмены, киргизы, каракалпаки и другие – между собой и против внешних врагов. Большинство из них датируется XIV–XV веками (например, труды Махмуда ибн Али ас-Сарайи «Нахджуль-Фародис», «Тарихи мулуки аджам» и «Тарихи анбийя и хукамо» Алишера Навои), в которых описываются события, связанные с военными

действиями. В этих источниках содержится множество терминов, относящихся к военному делу и его структурным подразделениям. В статье даются краткие сведения о происхождении и значении этих терминов.

Ключевые слова: термин, терминология, военные термины, собственная страта, ассимилированная страта, «Нахджуль-Фародис», «Тарихи мулуки Ажам», «Тарихи анбиё ва хукамо».

Qadimgi turkiy va eski o'zbek yozuvi davridagi harbiy atamalar o'zbek tilshunosligida maxsus o'rganilgan [3]. Quyida XIV asr turkiy nasrining namunasi bo'lgan Mahmud ibn Ali as-Saroyiyning "Nahjul-Farodis" (1357-1358) va Alisher Navoiyning "Tarixi Muluki Ajam" (1488) hamda "Tarixi anbiyo va hukamo" (1480) asarlarida qo'llangan harbiy terminlar xususida to'xtalamiz.

Mazkur yodnomalarda harbiy tushuncha bilan bog'liq bir qancha istilohlar qo'llangan. Yodnomalar matnida qo'llangan harbiy terminlar tubandagi semantik guruhlardan iborat:

1. *Harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi shaxs tushunchasini ifodalovchi terminlar.* Qo'shinda faoliyat ko'rsatuvchi, jang olib boruvchi oddiy askar hisoblanmish *nāvkār* o'zlashmasining «jangovar safdosh, jangchi navkar» ma'nosida ilk bor "O'g'uznoma"da ishlatilgani aniqlangan [5]. Eski o'zbek adabiy tili obidalarida faol qo'llangan terminlar sirasiga kiruvchi, hozirgi o'zbek adabiy tilida eskirgan ushbu mo'g'ulcha leksema "harbiy xizmatkor, askar" [10, 3, 7] ma'nosida "Tarixi muluki Ajam" matnida quyidagicha ifodalangan: *...ul bir nāvkār oyli aña saltanat āyiniñ iktisābini munāsibdur deb öz mirāxurliyini buyurdi* [9, 735a12]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu termin eskirgan so'zlar sarasiga kiradi. Forscha-tojikcha *sipāh* istilohi "askar, qo'shin, lashkar" ma'nosida eski o'zbek tilida keng qo'llangan [8, 716a25]. Ushbu termin "qo'shin" ma'nosida XIX asrgacha qo'llanishda davom etgan bo'lib, Buxoro xonligida navkarlardan tashkil topgan nomuntazam qo'shin sifatida faoliyat ko'rsatgan [2, 36]. "Qo'shinning bosh qo'mondoni; asosiy boshqaruvchi shaxs" ma'nosi forscha-tojikcha *sipāhsālār* [18, 32] termini bilan ifodalangan [9, 730a25].

Harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi qarshi taraf ma'nosi asarlar matnida forscha-tojikcha *dušman* [9, 738a10] [1, 70:8], *aduv* [9, 738a22], *yanim* [9, 738a20], turkiycha *yāyi* [9, 734a16] terminlari yordamida ifodalangan. Eski o'zbek tilida "erkak, er; jasur jangchi" [11, 652] ma'nosida faol qo'llangan *erän* so'zi "Nahjul Farodis" asarida ham faol qo'llangan: *Emdi mundin yaxširaq yoq kim bizlar isti'dādi qilsaq taqī ol bizlarka kelmazdin burunraq biz anlarqa barsaq tep čerig isti'dādi qildilar, tört ming uruš*

erānlāridin āmāda qildilar [1, 69;6]. «Urush vaqtida dushman qo'liga tushib, ozodlikdan mahrum etilgan kishi» ma'nosidagi arabcha *asir* [10, I, 57] o'zlashmasi asarlarda ayni ma'noda qo'llangan [9, 737a15]. Eski o'zbek tilida otliq askarlar *atliq* // *atliq*, piyodalar esa turkiycha *yayay*//*yayaq* va forsha-tojikcha *piyāda* terminlari bilan yuritilgan [4, 16; 2, 11-37].

O'z qatlamga tegishli *atliq* termini «otlangan suvori» ma'nosida qo'llangan [9, 740b29]. *Yayaq* istilohi «piyoda jangchi» ma'nosidagi harbiy termin sifatida emas, balki «ulovsiz, yayov» ma'nosida qo'llangan [9, 733b6].

O'zbek tilshunosligidagi keng ko'lamdagi izlanishlar «qo'shin, lashkar» ma'nosini ifodalovchi *čerig* // *čerik* o'zlashmasining eski o'zbek adabiy tili obidalarida faol qo'llanishda bo'lganligini tasdiqlaydi [3, 7]. Ilk bor qadimgi turkiy runik bitiklar sirasiga kiruvchi «Kuli Chur» va «Mo'yun Chur» yodnomalarida ishlatilgan bu sankritcha (ksatrika) [7, 144] termin deyarli barcha manbalarda iste'mol qilinganligi bilan diqqatni tortadi [5, 29]. «Nahjul Farodis»da esa mazkur termin «buyuklik, ulug'vorlik» ma'nosidagi arabcha *azamat* so'zi bilan bog'lanib «qo'shinning kattaligi, qo'shinning ulug'vorligi» ma'nosida quyidagicha qo'llangan: *Qačan kim Payyambar alayhissalom bu čerigning azamatini kōrdi ersa, kōnjlinga hoš keldi* [1, 70;17].

2. *Qurol-yarog' tushunchasini ifodalovchi leksemalar*. «Nahjul farodis» asarida «nayza» ma'nosini ifoda etgan *sūnjū* (DTS, 517) termini *sančmaq* fe'liga bog'lanib quyidagicha ifodalangan: *Bu kāfirlar jūmlāsi qiličlarini čiqardilar, taqi qinlarini sindürdilär, taqi ot atmaqqa, sūnjū sančmaqqa māšgöl bolmadin bir yoli qilič birla hamla qildilar* [1, 71;16]. «Urush-jang qurollari, qurol-yarog'» ma'nosidagi arabcha *aslaha* [10, I, 58] termini TMA matnida *sipāhiylik* so'zi bilan bog'lanib «urush-jang uchun kerakli qurol-yarog'lar majmui» ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilgan [9, 729b6]. Shuningdek, asarlar matnida o'tkir tig'li qurol nomini bildiruvchi o'z qatlamga tegishli «pichoq, hanjar» ma'nosidagi *pīčaq* [12, II, 575]; «nayza» ma'nosidagi arabcha o'zlashmalar *habba* va *harba* [12, IV, 123-161]; qadimgi turkiy tilda faol ishlatilgan himoya vositasi (DTS, 413) «jangchining tanasini qilich, nayza va sh.k.tig'li qurollar zarbidan himoya qiluvchi moslama» ma'nosidagi [10, 5, 232] *qalqan*; «nayza, nayza uchi» ma'nosidagi *sinān* [12, III, 82] terminlari qo'llanilgan [9, 729b6]. TMAda qo'llangan «bir tig'li, g'ilof (qin) bilan yonga osiladigan, chopish, sanchish bilan yovga shikast yetkazadigan qurol» ma'nosidagi *qilič* [10, 5, 290] termini ko'chma ma'noda qo'llangan: *Ani qildi haq makri aylab sitez, Siyāsāt qiliči bilä rez-rez* [9, 729b17]. «Nahjul Farodis»da esa o'z ma'nosida tubandagidek ishlatilgan: *Abu Jahl 'alayhi'l-la'na aydi kim: Menim ra'yim ul turur kim tegme bir qabiladin bir yigit čiqsa taqi keča*

yatur yerinda barsalar, yaliq qilič birla barčasini ursalar [1, 19;15]. “Tosh otadigan qadimiy urush quroli” ma’nosidagi *manjāniq* termini eski o‘zbek tili yodgorliklarida *manjaniq* // *manjāniq* fonetik variantlarida keng qo‘llangani aniqlangan [2, 24-59]. Ushbu istiloh asarlar matnida “manjaniq, palaxmon” ma’nosida kelgan [9, 740a16]. TAdA “sovt, temir ko‘ylak, urush kiyimi” ma’nosi arabcha *zirh* [8, 719b27], “zirh ishlab chiqaruvchilik, sovt yasovchilik” ma’nosi *zirhgärlik* [8, 720a22] istilohlarida aks etgan. “Nahjul farodis”da “Qurol-aslahah” ma’nosidagi *silāh* termini *uruš erānlāri* birikmasi bilan bog‘lanib “qurol-aslahali urush jangchilari” ma’nosida quyidagicha qo‘llangan: ... *ön ikki miñ er erdilar; taqi ikki miñ er silahlig uruš erānlāri bar erdi* [1, 70;16].

3. *Harbiy harakatlar, usullarni ifodalovchi terminlar*. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan va «kechasi to‘satdan qilinadigan hujum; g‘orat, talon-taroj» ma’nosini ifodalovchi *šabixun* [12, III, 487] termini turkiycha *ur=* fe’li bilan birikib “qo‘qqisdan tunda hujum qilmoq” ma’nosini anglatgan [9, 738a15]. Ushbu termin Navoiy asarlarida qo‘llangan *hujum*, *hamla* va *tarid* istilohlari bilan ma’nodoshlik qatorini yuzaga chiqarsa-da, biroq aynan “tungi hujum” ma’nosi bilan ulardan farqlanadi.

Arabcha *musāliha* termini ikki qarshi taraf, ikki hukmdor o‘rtasidagi “kelishuv sulhi tuzish, yarashish” ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan [9, 742a3]. TAdA “urishuvchi tomonlar o‘rtasidagi yarashuv, yarash-yarash” ma’nosi arabcha *sulh* terminiga ham yuklatilgan [9, 739b27]. Ayni termin “Nahjul farodis” ham “tinchlik, kelishuv” [11, 306] ma’nosida faol qo‘llanishda bo‘lgan: *Payyāmbar ‘alayhis’s-salām sulhqa rāzi boldi...* [1, 45;11]. Mazkur ma’no turkiycha *yaraš* istilohi ko‘magida ham ifoda etilgan va ushbu turkiycha termin TAdA faol qo‘llangani bilan ajralib turadi [9, 742a4].

“Tarixi anbiyo va hukamo” matnida “toshbo‘ron, tosh yog‘dirish” ma’nosi forsha-tojikcha qo‘shma so‘z *sangbārān*, “o‘qqa tutish, o‘q yog‘dirish” ma’nosi esa *tirbārān* istilohi yordamida tubandagidek ifodalangan: *Soñra ani dārya asib, sangbārān va tirbārān qildilar, kār qilmadi va dāri ostiya ot yaqtilar, asar qilmadi* [8, 727b24].

«Qamal qilish, o‘rab olish, qurshab olish» ma’nosi arabcha *muhāsara* termini yordamida ifodalangan [9, 735b21]. *Halqa ur=* termini «atrofini o‘rab olmoq» ma’nosini anglatgan [9, 741b24].

4. *Harbiy inshootlar nomini bildiruvchi terminlar*. “Yer ostidagi zax va qorong‘u qamoqxona” ma’nosidagi *zindān* [10, I, 306] istilohi forsha-tojikcha o‘zlashma bo‘lib, eski turkiy tilda ham [7, 639] iste’molda bo‘lgan. Mazkur leksema “Tarixi

muluki Ajam”da ham ayni ma’noda qo’llangan [9, 736a12]. Tahlil etilayotgan termin asarlarda arabcha *hibs* o’zlashmasining ma’nodoshi sifatida voqelangan [9, 731a29]. “Dushman hujumiga qarshi mustahkam devor va xandaq bilan o’ralgan, mudofaa vositalari, istehkomlar bilan ta’minlangan shahar” ma’nosidagi arabcha *qal’a* termini [10, 5, 231] ning *qilā* ko’plik shakli “Tarixi muluki Ajam” matnida *hasanat* so’zi bilan bog’lanib, “mustahkam qal’alar, istehkomlar” ma’nosida istifoda etilgan: ...*Afrāsiyāb qilāi hasanatīdīn ilīklāy almadī* [9, 730b11]. “O’rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o’rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar qal’a” hamda “qal’a, shahar, qo’rg’on va sh.k.larni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor” ma’nosini ifodalovchi turkiycha *qor’yan* [10,5, 416] istilohi asarlar matnida “qo’rg’on, qal’a” ma’nosida qo’llangan [8, 708a10]. Arabcha *hisār* termini esa “tog’li hududlarda barpo etiladigan mustahkam qal’a, istehkom, qo’rg’on” ma’nosini bildirgan [9, 741b2]. Forscha-tojikcha *darband* [9, 739b29] terminining eski o’zbek adabiy tilida “istehkom, qal’a” ma’nosida qo’llanishda bo’lgani aniqlangan [2, 65]. Forscha-tojikcha “chuqur o’ra” ma’nosidagi *čāh* [10, 4, 513] termini asarlar matnida “chuqur, tubsiz chuqurlik” ma’nosida [12, III, 480] kelgan [9, 733a26]. Ushbu termin asarlar matnida “quduq” ma’nosini ham ifodalagan: *Va hamul ućurda ul čāh bašīnda bir karvān tušub, čāhya dalv salīb, anda birāv bar ekānīn bilib, Yusuf a.s.ni čāhdīn čiqardīlar* [8, 711a8,9]. Shuningdek, “minora, oqchilar minorasi” ma’nosi *minār* [9, 729b10] istilohi yordamida ifodalangan.

5. *Harbiy harakatlar bilan bog’liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar*. TMA leksikasida harbiy harakatlar bilan bog’liq tushunchani ifodalovchi terminlar o’ziga xos o’rin tutadi. Jumladan, *azimat qil*= [9, 730b7] “qo’shin tortib bormoq, yurish qilmoq” [12, I, 57]; *buz*= [9, 730b3] “tor-mor qilmoq, yengmoq, g’alaba qozonmoq” ma’nosida istifoda etilgan. Turkiycha *yaray qil*= [8, 712b2] fe’li “harbiy harakatlarga, jangga hozirlik ko’rmoq” ma’nosini ifodalagan. Shuningdek, asar matnida “asirga olmoq, bandi qilmoq” ma’nosi *asir qil*= [9, 731b20], *band qil*= [9, 732b24]; “zabt etmoq, egallamoq, qo’lga olmoq” (shahar yoki mamlakatni) ma’nosi *zabt qil*= [9, 732b24], *fath ayla*= [9, 733b24]; “yengmoq, g’alaba qozonmoq, tor-mor qilmoq” ma’nosi *bas*= [9, 740b9], *buz*= [9, 730b3]; qo’shin tortmoq” ma’nosi *sipāh tart*= [8, 718a22], “qo’shin to’plamoq” ma’nosi *sipah yasa*= [9, 737a17], *čerik yasa*= [9, 740b8]; “jang maydonida saf tortmoq, qo’shinni urushga shaylamoq” ma’nosi *masāf tüz*= [9, 730b20], “jang qilmoq, urushmoq” ma’nosi *uruš*= [8, 716b20], *masāf qil*= [9, 737a10], *razm qil*= [9, 730b20]; “yengilmoq, mag’lub bo’lmoq” ma’nosi *šikast tap*= [9, 731a28,29]; “yengmoq, g’alaba qozonmoq” *yalaba qil*= [1, 69;14]; “zabt etmoq,

egallamoq” [11, 466] ma’nosi *fath qil* = [1, 111;9] kabi qo’shma fe’llar yordamida ifodalangan. “Din yoki mazhab yo’lida va boshqa ayrim (hadislarda belgilangan) holatlarda halok bo’lish” ma’nosi “Nahjul farodis”da *šāhid bol* = qo’shma fe’li yordamida anglatilgan [1, 71;17]. “Din yo’lida qilinadigan urush, jang; musulmonlarning muqaddas urushi” ma’nosi *yazāt* termini orqali [1, 6;14], shu maqsadda qilinadigan urush esa *yazāt qil* = qo’shma fe’li orqali ifoda etilgan [1, 6;14]. “Jang, kurash va shu kabilarda kuch bilan olg’a tashlanish, hujum” ma’nosi *hamla qil* = fe’li yordamida ifoda etilgan [1, 69;14].

Asarlar matnida harbiy sohaga oid tushunchalarni o’zida mujassam etgan yana quyidagi terminlar mavjud: “urush, jang” ma’nosidagi *toquš* (DTS, 577) termini “Nahjul farodis”da bir necha o’rinda qo’llangan, jumladan, Islom tarixida nom qozongan, musulmonlar va Quraysh makkaliklari o’rtasidagi ilk jang bo’lmish “Badr jangi” quyidagicha esga olinadi: ... *ol sahābalar kim Badr toqušunda Payyāmbar alayhissalām hazratinda kim yazāt qildilar, anlar burun kirsunlar...* [1, 110;16]. Shuningdek, 625-yilda musulmonlarning makkaliklar bilan bo’lgan jangi haqida so’z ketadi, bu jang “Uhud toquši” sifatida tilga olinadi: ... *Aydī: Uhud toqušinda yazāt qilgan sahābalar kirsün...* [1, 110;2]. “Urush mahalida qo’lga kiritilgan o’ljalar” ma’nosi arabcha *yanāyim* [8, 717b29] istilohi yordamida ifodalangan. “Mudofaa, panoh” ma’nosi arabcha *himāyat* [12, IV, 181] termini orqali anglashilgan [9, 729a26]. Shuningdek, *nāvkārliq* [9, 740b5] termini “navkarlik, askarlik” *sipāhiylīq aslahasī* [9, 729b6] birikmasi “harbiylik, askarlik qurol-yarog’lari”; *sipāhsālārliq* [9, 731a9] istilohi “bosh qo’mondonlik, lashkarboshilik lovozimi”; turkiycha *yürüş* [9, 732b11] “yurish, harbiy yurish” [12, III, 585]; *uruš* [9, 732b14] “urush, jang” ma’nosida qo’llangan. “Yordam uchun yuborilgan harbiy kuchlar” ma’nosi arabcha *madad* [9, 732a12] hamda turkiycha *kōmak* [9, 739a28] terminlari orqali ifodalangan. “Boburnoma” matnida esa *madad* va *kōmāk* leksemalari “yordamchi harbiy qism” ma’nosida qo’llangan [2, 45].

TMAda harbiy ishora maqsadida qo’llangan vosita nomlari bo’lgan arabcha *alam* [9, 730a5], *livā* [9, 742b5] hamda forsha-tojikcha *darafš* [9, 730a10] istilohlari «bayroq, tug’, yalov» ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, XIV-XV asrlar yozma yodgorliklari tilida harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi shaxs, qurol-yarog’, harbiy usullar kabi tushunchalarni ifodalovchi, harbiy inshootlar nomini bildiruvchi bir qancha istilohlar qo’llangan bo’lib, yuqorida nomlari zikr etilgan asarlardan “Tarixi muluki Ajam” asari leksikasi harbiy soha bilan bog’liq o’z va o’zlashgan qatlamga mansub terminlarning

faol qo'llangani bilan xarakterlidir. "Nahjul-farodis" asarida esa muallif asosan o'z qatla mga oid harbiy soha terminlaridan istifoda etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nehjul fradis. I. Tipkibasim. Önsözün jazan Jānas Eckmann. Ankara, 1956. S. 458.
2. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблема лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990.
3. Дадабаев Х.А. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981;
4. Дадабоев Х. Қадимги туркий ёдгорликлардаги атамалар ҳақида // Адабий мерос. – Тошкент, 1998. – №1–2. – Б. 16;
5. Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.42.
6. Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – 237 б.
7. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – 675 с.
8. Навоий куллиёти, Сулаймония кутубхонаси, Фотиҳ фонди, Истанбул, № 4056 инвентарь рақамли қўлёзманинг электрон микрофильми, Китоби таворихи анбиё [8]. – Б. 705а-728 б.
9. Навоий куллиёти, Сулаймония кутубхонаси, Фотиҳ фонди, Истанбул, № 4056 инвентарь рақамли қўлёзманинг электрон микрофильми, Китоби таворихи мулук (ТМА]. – Б. 729а-743б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006. – 680 б; 2-жилд, 2007. – 688 б; 3-жилд, 2007. – 688 б; 4-жилд, 2008. – 606 б; 5-жилд, 2008. – 592б. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Том I, II. – Т., Фан, 1966-1971.
11. Фозилов Э. (тахрири остида) Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, I-IV. – Тошкент: Фан, 1983-1985. I – 1983, 646 б; II – 1983, 642 б; III – 1984, 622 б; IV – 1985, 636 б.

TELEGRAM MESSENGERINING TA'LIMDAGI DIDAKTIK VA TASHKILY FUNKSIYALARI

Ro'zimboyev Sarvar Saparboyevich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Urganch RANCH texnologiya universiteti.
sarvarbek210973@gmail.com

Samandarova Gulhayo Erkin qizi,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti,
gerda.dolson3029@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Telegram messengerining O'zbekiston ta'lim tizimida kommunikativ, didaktik va tashkiliy-pedagogik vosita sifatidagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda so'rovnomalar, kuzatuv va qiyosiy tahlil usullari asosida o'qituvchi hamda talabalar fikrlari o'rganilgan. Raqamli platformaning ta'lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari, afzalliklari hamda muammolari jihatlarini aniqlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, messenger, Telegram, masofaviy o'qitish, raqamli savodxonlik, pedagogik innovatsiya.

Аннотация. В статье анализируется роль мессенджера Telegram как коммуникационного, дидактического и организационно-педагогического инструмента в системе образования Узбекистана. В исследовании на основе методов анкетирования, наблюдения и сравнительного анализа изучены мнения преподавателей и студентов. Определяются возможности интеграции данной цифровой платформы в образовательный процесс, её преимущества и проблемные аспекты.

Ключевые слова: цифровое образование, мессенджер, Telegram, дистанционное обучение, цифровая грамотность, педагогические инновации.

Annotation. The article analyzes the role of the Telegram messenger as a communicative, didactic, and organizational-pedagogical tool in the education system of Uzbekistan. Using survey, observation, and comparative analysis methods, the study explores the views of teachers and students. The research highlights the potential for integrating this digital platform into the educational process, along with its advantages and challenges.

Keywords: digital education, messenger, Telegram, distance learning, digital literacy, pedagogical innovations.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, ular ta'lim jarayoniga ham, xususan, o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi va olib borilishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. 2020-yilgi pandemiya va majburiy izolyatsiya sharoitida O'zbekiston hududlaridagi ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining tashkil etilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari mahalliy pedagog xodimlarining masofaviy ta'limni amalga oshirishga nisbatan tayyor ekanligini ko'rsatdi [7]. Zamonaviy nashrlar mualliflari ta'kidlaganidek [4; 8], o'qituvchi ta'lim jarayonini shunday tashkil etishi zarurki, unda raqamlashtirish jarayoni "ta'lim jarayonining raqibi" emas, balki uning "hamkori"ga aylansin. Buning uchun, eng avvalo, talabalarni "telefonidan uzib bo'lmaydi" degan qarashdan voz kechib, uni samarali ta'limiy vosita sifatida qabul qilish lozim [3].

Tadqiqot metodologiyasi sifatida so'rovnoma, kuzatuv va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar O'zbekistonning bir necha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va talabalar o'rtasida o'tkazilgan empirik so'rovlar asosida yig'ildi. Tahlilda statistik ko'rsatkichlar va sifatli tahlil usuli birgalikda qo'llanildi.

Ko'p davlatlarda ta'lim tizimida masofaviy o'qitishni joriy qilish va uni rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri - ta'lim sifatini ta'minlagan holda, o'quv yurti hamda talabaning ta'lim xarajatlarini qisqartirishdir. Aslida, har qanday mamlakatda aholiga ta'lim berishdan asosiy maqsad - insonlarning iqtidorlarini, shaxsning ijodiy potensialini va umuman jamiyat rivojini ta'minlashdir. Bu maqsadga esa ta'lim xizmatlarini amalga oshirish bilan erishiladi [1].

Messenjer — bu tezkor xabar almashish dasturi yoki veb-xizmat bo'lib, unda nafaqat matnli xabarlar, balki fayllar, rasmlar, videolar almashish, shuningdek, ovozli va videokonferensiyalar o'tkazish imkoniyati ham mavjud. Bugungi kunda masofaviy ta'limni tashkil etishda keng qo'llanilayotgan platformalar – Moodle, Google Classroom, Edmodo, Microsoft Teams, Zoom kabi tizimlar yuqoridagi tamoyillar asosida ishlab chiqilgan. Ularning asosiy afzalliklari – foydalanuvchiga qulay interfeys, oson monitoring, baholashning turli shakllari, multimediya resurslarini integratsiya qilish imkoniyatidir [2]. Yuqoridagilardan tashqari Viber, WhatsApp, Facebook Messenger, Skype va Telegram ham eng mashhur messenjerlar qatoriga kiradi.

Mashhur messenjerlarning imkoniyatlarini o'rgangan holda, biz ularning kuchli va zaif tomonlarini ajratib ko'rsatdik. Masalan, Mail.ru ning kuchli tomonlari — bepul pochta, tezkor va qulay interfeys, cheklanmagan hajmdagi pochta qutisi, spam va viruslardan ishonchli himoya, mobil versiya va smartfon ilovalari, zaif tomoni esa —

pochtadagi reklama miqdorining ko'pligi hamda ma'lumotning sekin yuklanishi. Viber ko'plab emodzi, stiker va chat fonlarini qo'llab-quvvatlaydi, ochiq chatlar yaratish, barcha qurilmalarda bir vaqtda qo'ng'iroq qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, Viberning zaif tomonlari ham mavjud: xavfsizlik muammolari, spamning ko'pligi, foydalanuvchilar guruhi uchun videomuloqot imkoniyati yo'qligi hamda faqat ayrim formatdagi fayllarni yuborish cheklovi. WhatsApp esa yuqori tezlikda ishlaydi, foydalanishda soddaligi bilan ajralib turadi, ammo uning kamchiligi shundaki, guruhiy chatda bir vaqtning o'zida 100 nafargacha foydalanuvchi ishtirok etishi mumkin, bu esa Skypedan uch barobar kamdir.

Onlayn uchrashuvlar va videokonferensiyalar o'tkazish uchun eng mashhur xizmatlardan biri — Zoom o'zining barqaror ishlashi bilan ajralib turadi. Tashkilotchi ixtiyorida barcha vositalar mavjud: ekran namoyishi, interfaol doska, videokonferensiyani yozib olish imkoniyati. Biroq, afsuski, mazkur messenjer murakkab interfeysga ega va tez-tez xakerlik hujumlariga uchraydi [3; 9].

Messenjirlardan ta'limiy maqsadlarda foydalanish yangi ijtimoiy amaliyot sifatida shakllanmoqda va olimlar e'tiborini tortmoqda [6]. Shu jihatdan, o'qituvchi bu platformalarning didaktik imkoniyatlarini to'liq bilishi, o'z fani doirasida ularni moslashtira olishi zarur[2].

O'zbekiston sharoitida ta'lim muassasalarida, ayniqsa, **Telegram messenjeri** keng qo'llanilmoqda. Bu messenjer bugungi kunda eng ommabop raqamli platformalardan biri bo'lib, uning boshqa messenjirlardan ustun jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Ommaviy qo'llanish. Telegram mamlakatda eng ko'p ishlatiladigan messenjirlardan biri bo'lib, deyarli barcha talabalar va o'qituvchilar undan faol foydalanadilar.

2. Texnik soddalik va funksionallik. Guruh va kanallarni tezkor tashkil etish, matn, audio, video hamda havolalar almashish imkoniyatlari dars jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

3. Fayl almashinuvi imkoniyatlari. Platforma katta hajmdagi fayllarni hech qanday cheklovlarisiz yuborish imkonini beradi.

4. Ta'limiy kanallar yaratish. O'qituvchilar fanlarga oid ochiq yoki yopiq kanallar tashkil etib, dars materiallarini muntazam taqdim etishlari mumkin.

5. Interfeysning tanishligi. Talabalar o'zlari yaxshi biladigan platformada ishlash orqali yangi muhitga tez moslashadilar.

6. Multimedia imkoniyatlari. O'quv materiallarini turli shakllarda (matn, rasm, audio, video) taqdim etish talabalar e'tiborini oshiradi.

7. Mustaqil o'quv faoliyatini rag'batlantirish. Talabalar chatlar va forumlarda fikr almashib, bilimni mustaqil shakllantirish va tarqatish imkoniga ega bo'ladilar.

8. Motivatsion ta'sir. Talabalar yutuqlarining guruhda e'tirof etilishi ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi va ijtimoiy faolligini oshiradi.

9. Pedagogik yordamning kengayishi. O'qituvchi nafaqat auditoriyada, balki onlayn tarzda ham talabalar bilan uzviy aloqa o'rnatib, o'quv jarayonini uzluksiz davom ettiradi.

Telegram messenjeri nafaqat o'quv jarayonining didaktik va kommunikativ jihatlarini takomillashtiruvchi vosita, balki ta'lim muassasalarida tashkiliy-pedagogik boshqaruvni yengillashtiruvchi platforma sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Undan foydalanish jarayonida o'qituvchi, ma'muriyat, ota-onalar va talabalar o'rtasida doimiy axborot almashinuvi, muvofiqlashtirish hamda nazorat jarayonlari samarali amalga oshiriladi. Avvalo, tashkiliy masalalarning tezkor hal etilishi uchun Telegram guruhlarida o'qituvchilar jamoasi muntazam yig'ilishlar o'tkazadi. Bunda rejalashtirish, hisobot topshirish, dars yuklamalarini muhokama qilish kabi masalalar onlayn tarzda amalga oshiriladi. Bu jarayon ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlaydigan tashkiliy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, platforma orqali ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatish ham yo'lga qo'yilgan. Telegram guruhlarida orqali o'quvchilar davomati, baholari va xulqi haqidagi ma'lumotlar tezkor yetkaziladi. Bu esa o'quvchi faoliyatining monitoringini yengillashtirib, pedagogik hamkorlikni mustahkamlaydi. Telegram messenjerining yana bir muhim tashkiliy afzalligi o'quv mashg'ulotlari jadvalini kelishish va yangilash imkoniyatidir. Ma'muriyat tomonidan jadvaldagi o'zgarishlar guruhlar orqali bir zumda yetkaziladi, bu esa dars jarayonida vaqt yo'qotishning oldini oladi. Bundan tashqari, "Muvaffaqiyatlar kanali" orqali o'qituvchi va talabalar yutuqlari e'lon qilinib, ijtimoiy rag'bat tizimi shakllanadi. Natijada, jamoa ichida motivatsiya, raqobat va hamkorlik muhiti kuchayadi.

Umuman olganda, Telegram messenjeri ta'lim muassasasida pedagogik, tashkiliy va kommunikativ jarayonlarni birlashtiruvchi integrativ platforma sifatida faoliyat yuritadi. Uning qulay interfeysi, tezkor xabardorlik tizimi va ishtirokchilarning keng qamrovi ta'lim jarayonini raqamli boshqaruvning zamonaviy talablari asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Telegram messenjeri O'zbekiston ta'lim tizimida muhim kommunikativ va metodik vosita sifatida faol qo'llanilmoqda. Ushbu platforma o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni qulay, tezkor va norasmiy shaklda yo'lga qo'yib, o'quv jarayonining interaktiv va qiziqarli bo'lishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Telegramni ta'lim jarayonini to'liq raqamlashtirish vositasi sifatida emas, balki uni qo'llab-quvvatlovchi va integratsiyalovchi komponent sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Biroq o'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, Telegramdan foydalanishda bir qator muammolar va cheklovlar mavjudligi aniqlangan. Jumladan, pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi, o'quvchilar tomonidan onlayn etikaga to'liq amal qilinmasligi, ayrim hollarda texnik infratuzilmaning sustligi ta'lim samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishdagi murakkabliklar (28,9 %) va ta'limiy materiallarni tayyorlashning mehnat talabchanligi (27,7 %) ham o'qituvchilar tomonidan muhim kamchiliklar sifatida e'tirof etilgan. So'rov ishtirokchilarining 30,1 foizi Telegram messenjeri ta'lim samaradorligini oshirish imkonini bersa-da, u an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari, darsliklar va metodik materiallarning o'rnini to'liq bosa olmaydi, degan fikrni ilgari surgan. Chunki bevosita muloqot o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi hamda tarbiyaviy jarayonlarda muhim o'rin tutadi [5; 7; 8].

Shu bois, **Telegram messenjeridan ta'limiy faoliyatda yordamchi didaktik vosita sifatida foydalanish** zamonaviy raqamli ta'lim muhitida eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga samarali integratsiyalash imkonini berib, an'anaviy ta'limning afzal jihatlarini saqlab qoladi. Shu bilan birga, u o'quvchilarda kommunikativ, intellektual hamda axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga, ta'lim jarayonining interaktivligini va individual yo'naltirilganligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Telegram messenjeri O'zbekistonda masofali ta'limni tashkil etishda eng ko'p qo'llanilayotgan vositalardan biri sifatida ta'lim tizimiga chuqur kirib kelmoqda. U pedagoglar, talabalar va ota-onalar o'rtasidagi uch tomonlama muloqotni ta'minlab, ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, uning samarali qo'llanilishi uchun pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, onlayn etikani shakllantirish va texnik infratuzilmani mustahkamlash zarur. Ta'limni raqamlashtirish faqat yangi platforma yaratish emas, balki mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishdir. Shu nuqtai nazardan, Telegram messenjeridan

metodik jihatdan to'g'ri foydalanish O'zbekiston sharoitida masofali ta'limni takomillashtirishda eng maqbul yechimlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamadaliyev K.R. Raqamli texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari. // *Inter education & global study*. 2025. №4. B.208–212.
2. Xaydarov B.B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari // *Ilm-fan xabarnomasi*. – 2025. – T. 8. – № 1. – B. 400-403.
3. Власова Н.В. Мессенджеры как обучающая среда: статья для конкурса «Большая перемен@» // *Яндекс Дзен* [сайт]. – 2019. – URL: <https://zen.yandex.ru/media/digitalteacher/messendjery-kak-obuchaiuscaia-sreda-5d09078dee9efa00afeeba19>
4. Крашакова Т.Ю., Тубер И.И. Создание условий, обеспечивающих разработку и использование педагогами профессиональных образовательных организаций цифрового образовательного контента // *Инновационное развитие профессионального образования*. – 2020. – № 4. – С. 62–66.
5. Манапова О.Н., Занова Т.С., Милюков И.В. Повышение качества подготовки студентов технических специальностей среднего профессионального образования на основе интеграции традиционного и электронного образования в рамках реализации региональной инновационной площадки // *Инновационное развитие профессионального образования*. – 2021. – № 1 (29). – С. 78–88.
6. Муха В.Н. Проблематика повседневности и социальных практик в современной социологии // *Российское социологическое сообщество: история, современность, место в мировой науке: материалы научной конференции к 100-летию Русского социологического общества имени М.М.Ковалевского* (г. Санкт-Петербург, 10–12 ноября 2016 г.). – Санкт-Петербург : Изд-во ООО «Скифия-принт», 2016. – С. 322–324.
7. Сташкевич И.Р., Башарина О.В., Савельева С.В. Система непрерывного повышения квалификации работников ПОО Челябинской области в части освоения дистанционных образовательных технологий // *Современная высшая школа: инновационный аспект*. – 2020. – Т. 12. – № 4. – С. 40–50.

8. Шабунина Н.С., Ивандикова О.Е., Секерина И.И. Дистанционные технологии обучения студентов профессиональных образовательных организаций дисциплинам естественно-научного цикла // *Инновационное развитие профессионального образования*. – 2021. – № 1. – С. 57–62.

9. Рейтинг мессенджеров 2020 // Coba. — [сайт]. — 2020. — URL: <https://coba.tools/compilation/reiting-messendzherov-2018> (дата обращения: 21.06.2021).

O'ZBEK TILIDA ANTROPONIMLARNING IFODALANISHI**Madaminova Yulduz Kadamboyevna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning tarixiy shakllanish manbalari, morfologik tuzilishi hamda ijtimoiy-lingvistik funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda antroponimlarning ifodalanishidagi o'zgarishlar, ularning milliy qadriyatlar va madaniyat bilan bog'liqligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: antroponim, onomastika, ism, familiya, patronimika, lingvokulturologiya, semantika.

Аннотация: В статье анализируются лексико-семантические свойства антропонимов в узбекском языке, их исторические источники образования, морфологическая структура и социолингвистические функции. Также освещаются изменения в выраженности антропонимов в современной лингвистике, их связь с национальными ценностями и культурой.

Ключевые слова: антропоним, ономастика, имя, фамилия, отчество, лингвокультурология, семантика.

Abstract: This article analyzes the lexical-semantic properties of anthroponyms in the Uzbek language, their historical sources of formation, morphological structure and sociolinguistic functions. It also highlights the changes in the expression of anthroponyms in modern linguistics, their connection with national values and culture.

Keywords: anthroponym, onomastics, name, surname, patronymic, linguoculturology, semantics.

Tilshunoslikning onomastika sohasi insonlar, joylar va predmetlar nomini o'rganadi. Antroponimika esa onomastikaning inson ismlariga oid tarmog'i bo'lib, xalqning tarixiy, diniy va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim lingvistik qatlam hisoblanadi. O'zbek tili antroponimlari xalqning milliy ruhiyatini, dunyoqarashini, diniy e'tiqodini hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'zida mujassam etadi. Shu bois, antroponimlarning ifodalanishini lingvokulturologik va ijtimoiy-lingvistik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. O'zbek antroponimikasining ildizlari qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan boshlanadi. "Bilga", "Kultegin", "Alp

Er To'nga" kabi ismlar qadimiy turkiy davr antroponimlariga misoldir. Keyinchalik islom dini kirib kelishi bilan arab va fors tillaridan kirib kelgan ismlar (Muhammad, Abdulloh, Zaynab, Fotima va boshqalar) keng tarqalgan. XX asrda sovet davrining ta'siri ostida antroponim tizimida familiya va patronimik shakllar paydo bo'ldi (masalan: Karimov, G'ulomova, Rahmatullayevich). Mustaqillik yillaridan keyin esa o'zbekcha milliy shakllar (Karim o'g'li, Saodat qizi) yana faol qo'llanila boshlandi.

Antroponimika (yunoncha anthropos — "inson", onyma/onoma — "ism") — onomastikaning shaxs ismlari, familiyalari, patronimikalari, laqab va taxalluslarni o'rganadigan bo'limidir. Tilshunoslikda antroponim tushunchasi insonni boshqa shaxslardan farqlash, uni nomlash uchun xizmat qiluvchi til birligi sifatida talqin etiladi. Antroponimlar shaxsni identifikatsiya qilish bilan birga, uning milliy, madaniy, tarixiy va ijtimoiy mansubligini ham ifodalaydi.

Antroponimlarning tarkibiy qismlari. O'zbek tilidagi antroponimlar quyidagi tarkibiy elementlardan tashkil topadi: Ism — shaxsni bevosita nomlovchi asosiy birlik (masalan, Gulhayo, Behruz, Dilorom); Patronimika — ota yoki ona ismidan hosil qilingan shakl (Karim o'g'li, Saodat qizi); Familiya — oila yoki avlod nomini bildiradi (To'rayeva, Karimov); Laqab va taxallus — shaxsning jismoniy, ruhiy, yoki ijtimoiy xususiyatiga asoslangan nomlar (Temurbek — "kuchli", "jasur"; Fozil — "dono, donishmand"); Diminutiv (erkalovchi) shakllar — mehr-muhabbat, yaqinlikni bildiruvchi shakllar (Guli, Dildorxon, Oyijon). Har bir element o'zining leksik, morfologik va semantik xususiyatlariga ega. Masalan, "Gulbahor" ismida "gul" va "bahor" so'zlarining birikishi semantik jihatdan go'zallik, yangilanish va hayotni ifodalaydi.

Antroponimlarning leksik-semantik turlari. O'zbek tilida antroponimlar semantik jihatdan quyidagi turlarga ajratiladi: Tabiatga oid ismlar: Oybek, Quyosh, Bahor, Daryo; Ezgu sifatlarni ifodalovchi ismlar: Baxtiyor, Umid, Saodat, Jasur; Diniy nomlar: Abdulloh, Muhammad, Maryam, Yusuf; Tarixiy shaxs ismlari asosida yaratilganlar: Temurbek, Ulug'bek, Bobur; Murakkab (birikmali) ismlar: Gulnora, Dilnoza, Shohruh. Bu ismlar o'zbek xalqining dunyoqarashi, orzu-umidlari va qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvokulturologik fenomen sifatida e'tirof etiladi.

Morfologik va fonetik xususiyatlar. Antroponimlarning tuzilishida turkiy so'z yasash modellari (so'z birikmasi, qo'shimchalar orqali hosil qilish) faol ishtirok etadi. Masalan: Gul + bahor, Dil + shod, Oy + bek kabi birikmalar;

-xon, -bek, -jon, -gul, -oy qo'shimchalari bilan so'z yasash jarayoni o'zbekcha antroponimik tizimning milliy xususiyatini ko'rsatadi. Fonetik jihatdan esa

antroponimlar talaffuzga qulay, ohangdor va hissiy bo'lishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, boshqa tillarga transliteratsiya jarayonida (masalan, ingliz yoki rus tilida) ularning tovush tizimi moslashtiriladi: O'ktam → Uktam/Oktam, Shahzoda → Shahzoda/Shakhzoda kabi shakllar buning dalilidir. Antroponimlar shuningdek, sotsiollingvistik hodisa sifatida jamiyatlardagi ijtimoiy tabaqalanish, gender munosabatlari va avlodlar davomiyligini aks ettiradi. Masalan, Muhammad, Ismoil, Saodat, Dilfuza kabi ismlar ma'lum davrlarning madaniy ta'sirini ko'rsatadi.

Antroponimlarning jins (gender) bilan bog'liq morfologiyasi. O'zbek tilida erkak va ayol ismlari o'ziga xos morfologik belgilarga ega: Erkak ismlari: bek, boy, shoh, qo'zi, qo'sh, mir, maxsum kabi komponentlar bilan tugaydi (Oybek, Tursunboy, Boburshoh). Ayol ismlari: oy, gul, nisa, mo'min, jamol, dil, noza kabi so'zlar bilan shakllanadi (Guljamol, Oydil, Nozaxon).

O'zbek antroponimlarining tuzilma, morfologik va fonetik xususiyatlari xalqning til madaniyati, tarixiy tafakkuri va estetik didini aks ettiradi. Ular til tizimida nafaqat nominativ (nom beruvchi), balki sotsiokultural, estetik va psixologik vazifani ham bajaradi. Shu bois, antroponimlarning morfologik tuzilishini o'rganish o'zbek tilining so'z yasash, talaffuz va semantik imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Ma'naviy va estetik tushunchalar bilan bog'liqlik: Saodat, Umid, Ishonch, Orzigul kabi ismlar ota-onalarning farzandga nisbatan ezgu tilaklarini bildiradi. Bu holat o'zbek xalqining yaxshi ism – yaxshi taqdir degan qarashini namoyon etadi.

Tarixiy-madaniy davrlar ta'siri: Ismlar tarixiy jarayonlarga ham bog'liq holda o'zgaradi. Masalan, XX asr boshlarida arabcha ismlar ustun bo'lgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin milliy va tarixiy ismlar (Amir Temur, Bobur, Nodira, Zulfiyaxonim) qayta tiklandi.

Sotsiollingvistika antroponimlarni jamiyatlardagi ijtimoiy omillar, ya'ni mintaq, ijtimoiy mavqe, yosh, jins, etnik mansublik bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Har bir davr o'ziga xos ism qo'yish an'analarga ega. Masalan, sovet davrida Oktyabr, Kim, Lenara kabi ideologik ismlar tarqalgan bo'lsa, hozirda Imron, Asilbek, Jasmina kabi diniy va estetik ismlar ko'p ishlatiladi.

Hududiy (dialektal) xususiyatlar. O'zbekistondagi turli mintaqalarda ism variantlari farqlanadi: Qo'qon, Namanganda — Jo'ra, Abduvahob, Gulnor; Buxoro, Navoiyda — Juma, Mashrab, Nodirabegim; Xorazmda esa Allanazar, Matkarim, To'rabek kabi mahalliy shakllar uchraydi.

Jins va yosh bilan bog'liq xususiyatlar: Qizlarga odatda nozik, go'zallikni bildiruvchi ismlar (Gulchehra, Dilnoza, Aziza), o'g'il bolalarga esa kuch, jasoratni anglatuvchi ismlar (Sherzod, Bahodir, Jasur) qo'yiladi. Globalizatsiya ta'sirida Diana, Samir, Emil, Elina kabi xalqaro shakllar ham ommalashmoqda. Bu hol sotsiollingvistik nuqtayi nazardan til va madaniyat o'zaro ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbek antroponimik tizimi — bu milliy madaniyat, tarixiy xotira va tilning o'zaro uyg'unligidan tarkib topgan murakkab hodisadir. Uni chuqur o'rganish orqali: o'zbek xalqining madaniy identifikatsiyasi mustahkamlanadi; milliy nomshunoslik maktabi rivojlanadi; va zamonaviy lingvokulturologik tadqiqotlar uchun yangi ufqlar ochiladi.

Shunday qilib, antroponimika fani nafaqat tilshunoslikning bir bo'lagi, balki xalq ma'naviy merosini asrash va kelajak avlodning madaniy o'zligini shakllantirish vositasi sifatida ham muhim o'rin tutadi. Antroponimlarning morfologik tuzilishida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Ko'plab ismlar ma'noli so'zlardan hosil bo'lgan: Gulbahor ("bahor guli"), To'lqin, Baxtiyor, Dilshod va boshqalar. Ayrim ismlar esa sifatlovchi komponentlardan iborat bo'lib, insonning ichki dunyosi yoki orzu-umidini ifodalaydi. Fonetik jihatdan o'zbek antroponimlari boshqa tillarga transliteratsiya qilinayotganda o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, "O'ktam" ismi rus tilida "Uktam", ingliz tilida "Oktam" shaklida yozilishi mumkin. Bu holat xalqaro aloqalarda standartlashtirish muammosini keltirib chiqarmoqda. Antroponimlar faqat ism sifatida emas, balki madaniy-tarixiy belgining ko'zgusi sifatida ham muhimdir. Ism orqali xalqning e'tiqodi, estetik qarashlari, urf-odatlari va qadriyatlari namoyon bo'ladi. Masalan, Baxtiyor, Saodat, Umid, Sabohat kabi ismlar o'zbek xalqining ezgu orzu va tilaklarini ifodalaydi. Hozirgi davrda globalizatsiya jarayonlari natijasida o'zbek antroponimikasida gibril nomlar ham paydo bo'lmoqda. Masalan, xalqaro yoki inglizcha ohangdagi ismlar (Emir, Samir, Liana, Arsen) qo'llanish doirasiga kirib kelmoqda. Bu jarayon tilning zamonaviy ijtimoiy-madaniy rivojlanishini aks ettiradi.

O'zbek tilida antroponimlar xalqning madaniy va tarixiy xotirasini saqlovchi muhim til birliklaridir. Ular milliy an'analar, diniy qadriyatlar va ijtimoiy omillar asosida shakllangan bo'lib, bugungi kunda ham o'zgarib, yangilanib bormoqda. Antroponimlarning lingvokulturologik o'rganilishi o'zbek xalqining ma'naviy merosini chuqurroq anglash, ularni xalqaro miqyosda to'g'ri ifodalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E.A. O'zbek antroponimikasi asoslari. — Toshkent: Fan, 2000.

2. G'ulomov A. Onomastika va o'zbek tilining leksik tizimi. — Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Komiljonova I. O'zbek va rus tillaridagi antroponimlarning o'ziga xos xususiyatlari. — Toshkent: TDPU, 2022.
4. Raxmatova O.X. O'zbekcha antroponimlarning Xitoy tilida ifodalanishi. — CyberLeninka, 2022.
5. Nilufar M. Studying History of Uzbek Anthroponyms and Anthroponyms in the Work “Temur-name”. — Neliti, 2021.
6. Rajabov Y. Study of Historical Onomastics in Uzbekistan. — Tashkent: Academy Press, 2024.

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANILISHI**Yernazarova Asem Almas kizi,**

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 1- bosqich talabasi

e-mail:aseyernazarova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbek tilining sohada qo'llanishi vazifalari haqida so'z boradi. Talabalarga soha bo'yicha egallagan bilimlarni yozma va og'zaki ravishda o'zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish, sohada qo'llaniladigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo'llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlash, nutq uslublari, xususan sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, turkiy tillar, soha, nutqiy kompetentlik, mutaxassislik, og'zaki va yozma nutq, sohaviy terminlar, ko'nikma, malaka

Аннотация. В данной статье говорится о цели и задачах использования узбекского языка в различных сферах. Совершенствование навыков студентов письменно и устно излагать свои знания в данной области на узбекском языке, обеспечивать формализацию используемых в данной области терминов, основных понятий и официальных документов, используемых в данной области, стилей речи, особенно научного и официального в узбекском языке и применение их на практике.

Ключевые слова: непрерывное образование, тюркские языки, сфера, речевая компетенция, специальность, устная и письменная речь, отраслевые термины, навык, квалификация.

Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi yo'lida barcha sohalaridagi kabi ta'lim tizimida ham olib borilayotgan keng qamrovli ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, erkin, ijodkor va mustaqil fikr egasini tarbiyalab voyaga yetkazish hozirgi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Respublikamizda eng avvalo, ta'limga alohida e'tibor qaratildi. Chunki muhtaram Prezidentimizning: "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak" - degan fikrlari barchamizdan ona tilimizga, urf-odat va

qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga bo'lgan mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimizni talab etadi.

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e'tiborga olganda, til ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Til va tafakkur o'zaro ajralmasdir. Til fikrni, shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o'zida namoyon etadi. Til uzluksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo'ladi. Demak, til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalab bo'lmaganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi. Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo'ladi. Ongoingizda paydo bo'ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so'zlar vositasi orqali voqe bo'ladi. Til faqat kishilarga xos bo'lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo'lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog'liqdir. Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o'xshash narsa deb tushunish xatodir.

Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so'zlar, so'z birikmalari va jumlar orqali ifodalaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o'rganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o'rganish obyektidir. Demak, til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalab bo'lmaganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi. Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo'ladi.

O'zbek tili turkiy tillar guruhiga mansub bo'lib, u mustaqil til sifatida XI asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o'z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida, kishilik jamiyatida shakllangan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, davlat ishlarining, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamda olib borilyapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019- yil 21- dekabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatini, nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli

Farmoni, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019- yil 2-dekabrda 87-06 52 sonli xatida "2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi" va "Yo'l xaritasi" loyihasida davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, vazifalari sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish o'z ifodasini topgan. Bu hujjatlar davlat tilini o'rgatish va uni bilish darajasini yanada takomillashtirish uchun oliy ta'lim muassasalarida 2020-2021 o'quv yilidan boshlab "O'zbek tilini sohada qo'llanilishi" asosiy fan sifatida o'quv rejasiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, Davlat dasturi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida o'quv jarayoniga tatbiq etib kelinayotgan mazkur kurs "Davlat tili haqida"gi qonunning quyidagi moddalariga tayanadi: 7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Ma'lumki, yaqin vaqtlargacha hujjatlar asosan rus tilida rasmiylashtiriladi. O'zbek tilida esa ayrim hujjatlarga yuritiladi, ular ham rus tilidagi hujjatlar andozasiga asoslangan bo'lib, milliylikdan yiroq edi. Endilikda respublikamizdagi barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda yuritiladigan hujjatlar o'zbek tili qonun-qoidalariga mos ravishda rasmiylashtirilmoqda. Oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yosh mutaxassislar o'zlari ishga boradigan mehnat jamoalarida ish qog'ozlari, hujjatlarning mantiqiy to'g'ri yozilishi, yoki to'g'ri to'ldirilishi, ishoraviy, imloviy, uslubiy xatolarsiz, davr talabiga javob beradigan tarzda rasmiylashtirishlari lozim. Buning uchun esa bitiruvchi talabalarimiz nafaqat hujjatlar bo'yicha, balki yangi alifbo va imlo qoidalari bo'yicha ham yetarlicha tushunchaga ega bo'lishlari talab etiladi. Va shu maqsadda hozirda bu fan barcha o'quv yurtlarida o'qitilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
2. Abdurahmonova M., Fattoxova D., Xalmuxammedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
3. Ahmedova M.X., Gayubova K.A. "O'zbek tili". T. TATU, "Aloqachi", 2019

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5850 – son qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-40 son qarori.

6. Jiyanova N., Mo'minova O., Maksumova S. Nutq madaniyati. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2016. I-kitob

FARG'ONA VODIYSI VA QIRG'IZISTON SHEVALARIDA LEKSIK UMUMIYLIKLAR VA FARQLANISH XUSUSIYATLARI

G'aniyeva Ra'noxon Ilhomjon qizi

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Abdirimova Intizor Kamilovna**,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Chirchiq davlat pedagogika
universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani shevasi o'rganilib, uning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mahalliy misollar yordamida shevaning o'ziga xosligi aniq ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mintaqaviy shevalarning farqlari va ularning tilda tutgan o'rni haqida to'liq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani, sheva, dialekt, fonetika, leksika, grammatika, lingvistika.

Аннотация: В данной статье исследуется диалект узбекского района Ферганской области и на научной основе анализируются его фонетические, лексические и грамматические особенности. Специфика диалекта наглядно демонстрируется на местных примерах. Это также помогает составить полное представление о различиях региональных диалектов и их роли в языке.

Ключевые слова: Ферганская область, Узбекистанский район, диалект, фонетика, лексика, грамматика, лингвистика.

O'zbekistonning Farg'ona viloyati o'zining boy madaniy va til merosi bilan mashhur bo'lib, mintaqaning turli hududlarida turlicha shevalar mavjud. O'zbekiston tumani shevasi esa mintaqadagi dialektologik jihatdan alohida o'ringa ega. Sheva forsha ravish, tarz, yo'sin degan ma'nolarni bildirib, fanda biror tilning o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi.[1:4].

Sheva – bu hududiy lahjaning kichik shakli bo'lib, unda fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarning o'ziga xosligi mavjud. Bugungi kunda O'zbekistonda shevalar bo'yicha yetarli ilmiy tadqiqotlar kamligi sababli, Farg'ona viloyatining

O'zbekiston tumani shevasi tahliliga alohida e'tibor qaratish zarurati tug'ildi. Ushbu maqola shevaning asosiy lingvistik xususiyatlarini aniqlash, uni boshqa viloyat va tuman shevalari bilan taqqoslash, hamda mahalliy nutq namunalarini tahlil qilishga qaratilgan. O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan.

Lahjalarni ichida qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga Farg'ona viloyati aholisining shevasi kiradi. Qarluqlarning katta qismi VI asr o'rtalarida Sharqiy Turkistonni, Farg'onani, Toxaristonning ayrim hududlarini egallagan edilar. X asrda Yettisuvni ishg'ol qilgan va katta territoriyada hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, VIII-X asrlarda Ili daryosidan to Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan to Sharqiy Turkistongacha bo'lgan o'lkada yashagan barcha turkiy qabilalar qarluqlar hukmronligi ostida bo'lgan. Qarluqlarning tili shu o'lkadagi barcha qabilalar uchun umumiy til bo'lib qolgan. Yettisuv, Farg'ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torim daryolarigacha bo'lgan territoriyada qarluqlar bilan birga chigil, xalaj, yag'mo qabilalari ham yashaganlar. Uyg'uriar ham qarluqlar tarkibida bo'lgan. Chigil qabilasi IX-X asrlarda Ili daryosining janubida, Issiqko'l atroflarida yashaganlar.[2:42].

O'zbek tili dialektal o'ziga xosligiga qadimgi urug' va qabilalar tilining turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan.

O'zbek tili dialektologiyasi sohasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sobirov (2015) va Xudoyberdiyev (2017) Farg'ona viloyatidagi shevalarni keng o'rgangan bo'lsa, Karimov (2018) tilning fonetik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan. Nazarov (2016) va Mirzaev (2019) esa leksik jihatlarni tahlil qilgan. Bu maqolada ushbu manbalardan foydalanilgan, shuningdek, mahalliy aholidan olingan nutq namunalariga asoslangan an'anaviy dialektologik metodlar qo'llanildi.

Metodlar qatoriga hududiy nutq namunalarini yig'ish, fonetik tahlil, leksik so'zlarning qiyosiy tahlili va grammatik shakllarni taqqoslash kiradi. Mahalliy so'zlar va ifodalarning yozma ko'rinishi uchun maxsus lug'at ham shakllantirildi.

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani shevasining fonetik xususiyatlari.

Fonetik darajada O'zbekiston tumani shevasi Farg'onaning boshqa tumanlari shevalaridan sezilarli farqlanadi. Asosan undosh tovushlarning talaffuzi va undoshlar orasidagi almashinuvlar kuzatiladi.

Undosh tovushlar. Farg'onaning ko'plab tumanlarida "q" undoshi qattiq talaffuz qilinsa, O'zbekiston tumani shevasida bu tovush ba'zan yumshoq "k" sifatida aytiladi. Masalan, so'z "qiz" shevada "kiz" shaklida talaffuz qilinadi.

Unli tovushlar. Unlilar sohasida “o” unlisining talaffuzi an'anaviy o'zbek tilidan farq qiladi. Masalan, “bola” yoki “chay” so'zi shevada “bala” yoki “choy” shaklida aytiladi.

Intonatsiya va urg'u. Shevada urg'u ko'pincha so'zning oxirgi bo'lagiga tushadi, bu esa so'zning mazmunini o'zgartirmasada, nutqni o'ziga xos qiladi. Mahalliy aholi nutqida intonatsiya o'ziga xos, ko'proq ifodali va hissiy bo'lishi kuzatiladi.

Leksik xususiyatlar. O'zbekiston tumani shevasida ishlatiladigan ba'zi so'zlar Farg'onaning boshqa hududlaridan farqlanadi. Bular orasida mahalliy atamalar, xalq og'zaki ijodidan olingan iboralar va an'anaviy nomlar mavjud.

Misollar: “Chay” so'zi Farg'onaning ko'plab joylarida “non” o'rnida ishlatiladi, ammo O'zbekiston tumani shevasida “chay” aynan “choy” degan ma'noni anglatadi.

“Charqi” – quyiq ovqatlar solinadigan idish.

“Kulba” – kichik uy, hovli ma'nosida ishlatiladi, mahalliy aholi orasida keng tarqalgan.

Bundan tashqari, shevada ba'zi so'zlarning ma'nosi va qo'llanilish doirasi boshqacha bo'lishi mumkin.

Grammatik xususiyatlar. Grammatik tizimda ham O'zbekiston tumani shevasining o'ziga xos jihatlari mavjud.

Fe'l shakllari. Shevada hozirgi zamon fe'l shakllari ba'zan o'ziga xos qo'shimchalar bilan ishlatiladi. Masalan, “ketmoqdaman” o'rniga “ketyapman” shakli ko'proq ishlatiladi, bu esa tilning umumiy fonetik xususiyatlari bilan bog'liq.

Otlar va sifatlar. Shevada ot va sifatlarning ko'plik shakllari, ba'zan an'anaviy o'zbek tilidan farqli tarzda hosil qilinadi. Misol uchun, ko'plik qo'shimchasi “-lar” o'rniga ba'zan “-ler” qo'llaniladi.

Shaxs olmoshlari. Shaxs olmoshlari ba'zan qisqartirilgan yoki qo'shimcha tovushlar bilan talaffuz qilinadi. Masalan, “men” o'rniga “mən”, “sen” o'rniga “sən” talaffuzlari mavjud.

Mahalliy misollar. Quyida O'zbekiston tumani shevasida keng tarqalgan ayrim so'z va iboralarning misollari keltirilgan:

“U keldi” – shevada “U keldı” yoki “U keldi” shaklida aytiladi.

“Nima qilasan?” – “Nima qılasan?” yoki “Nime qilasən?” shaklida ishlatiladi.

“Non ol” – “Chay ol” yoki “Non al” shaklida ishlatiladi.

“Uyda nima bor?” – “Uyda nima bor?” degan ibora ko‘pincha “Uyda neme bor?” tarzida aytiladi.

“Bu yerda ko‘p odam bor” – “Bu yerda köp adam bar” shaklida ishlatiladi. O‘zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi ulaming fonetik jihatdan rang-barangligidadir. O‘zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifti, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o‘ziga xosligi jihatidan o‘zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan o‘xshashliklarga ham ega bo‘ladi.[3:52].

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani shevasi boshqa tuman shevalaridan fonetik, leksik va grammatik jihatdan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sheva undosh tovushlarning talaffuzidagi o‘zgarishlar, unli tovushlarning o‘ziga xosligi, mahalliy leksika va fe‘l shakllaridagi farqlar bilan xarakterlanadi. Bu sheva mintaqaning madaniy va tarixiy o‘ziga xosligini aks ettirib, tilshunoslikda katta ahamiyatga ega.

Shevaning o‘rganilishi nafaqat tilning turli shakllarini aniqlashda, balki xalq og‘zaki ijodini, mintaqaning madaniy merosini saqlashda ham muhimdir. Bu tadqiqot shevalarning ilmiy asosda hujjatlashtirilishi va o‘rganilishiga xizmat qiladi hamda kelajakda yanada chuqurroq tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi // darslik // T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.-4 b.
2. Шаниязов К.И. Этнической истории узбекского народа. Ташкент: Фан. 1974, с.42
3. То‘ychiboyev.B,Hasanov B.O‘zbek dialektologiyasi.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004-yil.- 52 b.
4. Xudoyberdiyev M. Farg‘ona viloyatining shevalari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017.
5. Nazarov R. Hududiy lahjalar va shevalar. – Samarqand: Fan, 2016.
6. Mirzaev S. O‘zbek tilining leksik xususiyatlari. – Toshkent: Tilshunoslik, 2019.
7. Abdullayev D. Sheva va dialektlar. – Toshkent: Fan, 2014.

XORAZM SHEVASIDA EKSPRESSIV NUTQ VOSITALARI: QARG'ISH VA OLQISHLARNING MADANIY ILDIZLARI

Rajabova Asal Murod qizi,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Abdirimova Intizor Kamilovna,**
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Chirchiq davlat pedagogika
universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm shevasida uchraydigan ekspressiv nutq vositalari – xususan, qarg'ish va olqishlarning lingvokulturologik xususiyatlari o'rganiladi. Shevada keng qo'llaniladigan ushbu nutq birliklari faqat tilshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki xalqning ma'naviy-ruhiy dunyosi, qadriyatlari va hayot tarzini aks ettiruvchi madaniy fenomen sifatida tahlil qilinadi. Qarg'ish va olqishlar xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lib, ularda xalqning axloqiy me'yorlari, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlari va diniy e'tiqodlari mujassam topgan. Maqolada Xorazm vohasining o'ziga xos sheviy o'zliklari, ularning madaniy ildizlari va xalq tafakkuridagi o'rni namoyon etiladi. Tadqiqot materiallari sifatida Xorazm viloyatining turli hududlarida yozib olingan og'zaki nutq namunalari foydalanildi.

Kalit so'zlar: Xorazm shevasi, ekspressiv nutq, olqish so'zlar, lingvokulturologiya, xalq og'zaki ijodi, madaniy tafakkur, muloqot, milliy qadriyatlar, nutq etiki.

Аннотация. В данной статье исследуются лингвокультурологические особенности выразительных речевых средств, встречающихся в Хорезмском диалекте – в частности, проклятия и аплодисменты. Эти единицы речи, широко используемые в диалекте, анализируются не только с лингвистической точки зрения, но и как культурное явление, отражающее духовно-духовный мир, ценности и образ жизни народа. Проклятия и аплодисменты являются неотъемлемой частью устного народного творчества, в них воплощены народные нравственные нормы, взгляды на общественные отношения, религиозные верования. В статье раскрываются специфические Шеви-язычники Хорезмского оазиса, их культурные корни и место в народном мышлении. В

качестве материалов исследования были использованы образцы устной речи, записанные в различных районах Хорезмской области.

Ключевые слова: Хорезмский диалект, выразительная речь, аплодисменты, лингвокультурология, устное народное творчество, культурное мышление, общение, национальные ценности, речевой этикет.

O'zbek tilining hududiy variantlari bo'lgan shevalar, xalq nutqining jonli namoyonidir. Ular o'zida nafaqat fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni, balki milliy tafakkur, madaniyat, urf-odat, qadriyatlar tizimini ham aks ettiradi. Shevalar milliy tilning jonli laboratoriyasidir; ular til rivojlanishining zamini va boy manbaidir.[1:47].

Ayniqsa, ekspressiv nutq vositalari, ya'ni qarg'ish va olqishlar orqali xalqning ruhiy olami, hayotga bo'lgan munosabati va madaniy yondashuvi yorqin ifodalanadi. Xorazm shevasi o'zining boy ekspressiv vositalari bilan ajralib turadi. Bu shevada ishlatiladigan qarg'ish va olqishlar, odatda, yuqori emotsional ohangda aytiladi, xalq donishmandligi va axloqiy qarashlarining namunasiga aylangan.

Qarg'ish va olqishlar xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy ideallarining mazmunli ifodasidir. Ular orqali inson o'zining qarshi yoki ijobiy munosabatini ifoda etadi, odatda, ijtimoiy holatga baho beradi yoki kutilayotgan natijaga nisbatan umid bildiradi. Qarg'ishlar o'zbek folklorining janrlar tarkibi tasnifotida "maxsus tur" deb nomlangan to'rtinchi tipga mansub janrlar sirasiga kiritgan. Asarning qaysi janrga mansubligini belgilashda eng muhimi, uning strukturasi, badiiylik darajasi, tasvir xarakteri va ijtimoiy-estetik funksiyasiga ahamiyat berish lozim.[2:129].

Nutq birliklari ekspressivlik, ya'ni ifoda kuchi jihatidan kuchli bo'lib, muloqotda emotsional ta'sirni kuchaytiradi. Shu bois, ular faqat lingvistik emas, balki madaniy, psixologik va sotsiologik jihatdan ham tadqiq etilishi lozim bo'lgan hodisalardandir.

Xorazm vohasi o'zbek adabiy tilining rivojlanishida alohida o'rin tutuvchi hududlardan biri bo'lishi bilan birga, o'ziga xos dialekt va lahja xususiyatlariga ega. Ushbu hududda shakllangan ekspressiv nutq vositalari — ayniqsa, qarg'ish va olqishlar xalq og'zaki ijodining muhim qismini tashkil qiladi. Ular qadimiy dunyoqarash, diniy e'tiqod, axloqiy mezonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bugungi kunda ham faol ishlatilmoqda. Ayni nutq birliklari orqali xalq o'zining ichki tuyg'ularini, umid va xavotirlarini, rozilik va noroziliklarini bildiradi. Shuningdek, bu vositalar jamiyatda axloqiy nazorat mexanizmi vazifasini ham bajaradi.

Ekspressiv nutq vositalarining turlari va ularning ma'naviy-ma'rifiy ildizlarini o'rganish, xalq tilining chuqur qatlamlariga kirib borish, o'z navbatida, til va madaniyatning o'zaro aloqalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorazm shevasidagi qarg'ish va olqishlar o'zbek xalqining qadimiy e'tiqodlari, xalqona tafakkuri va hayotiy falsafasini aks ettirganligi sababli, ular orqali nafaqat til o'rganiladi, balki xalq madaniyati, tarixiy tafakkuri, ma'naviy dunyosi ham o'z ifodasini topadi. O'zbek xalq olqishlarining o'ziga xos janr xususiyatlari va badiiyatini maxsus o'rgangan N.Qo'chqorovning tadqiqotlarida ham qarg'ish janri haqida to'xtab o'tilgan. U o'zining 1991 yilda e'lon qilingan "Xalq olqish va qarg'ishlarining tarixiylik prinsiplari" sarlavhali maqolasida B.Sarimsoqovning "O'zbek folklori ocherklari»dan o'rin olgan olqishlar va qarg'ishlar to'g'risidagi maqolasidagi tasnif, ya'ni:

1. Islomga qadar bo'lgan ma'jusiylikka aloqador e'tiqod va tasavvurlarning elementlarini tashuvchi....
2. Islomga xos tasavvur va e'tiqodlarni aks ettiruvchi
3. Bir paytning o'zida ham islomga qadar, ham islomga xos tasavvur va e'tiqodlarni o'zida qamrab olgan olqishlar»ni izchil emas deb hisoblaydi. [3:176].

Mazkur maqolada aynan Xorazm shevasida qo'llaniladigan ekspressiv nutq vositalari – qarg'ish va olqishlar asosida lingvokulturologik tahlil o'tkaziladi. Asosiy maqsad – bu nutq birliklarining lingvistik va madaniy asoslarini aniqlash, ularning xalq hayotidagi o'rnini ochib berish, jamiyatda tutgan funksiyalarini ko'rsatish va ularning zamonaviy muloqotdagi davomiyligini tahlil qilishdan iborat.

Xorazm shevasida ekspressiv nutq vositalari sifatida ishlatiladigan qarg'ish va olqishlar o'z semantik, pragmatik hamda madaniy jihatlar bilan ajralib turadi. Ushbu vositalar muloqotda ishtirokchilarning emotsional holatini ifodalash, ijtimoiy munosabatga baho berish va ta'sir o'tkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular, odatda, xalq og'zaki ijodida keng qo'llanadi va o'z ichiga uzoq tarixiy jarayonlar, diniy qarashlar, axloqiy me'yorlar va madaniy stereotiplarni oladi. Xorazm shevasida bunday birliklar nafaqat leksik jihatdan o'ziga xos, balki uslubiy va ekspressiv kuchi bilan ham ajralib turadi.

Qarg'ishlar salbiy emotsiyani bildiruvchi ekspressiv vositalar sifatida, odatda, kimgadir nisbatan norozilik yoki g'azabni ifodalash uchun ishlatiladi. Ular ko'pincha yomon oqibat tilash, do'q-po'pisa, la'nat yoki illat istashi kabi ma'nolarni anglatadi. Xorazm shevasida qarg'ishlar xalqning diniy e'tiqodi, qadimiy dunyoqarashi va axloqiy tamoyillariga asoslanadi. Masalan, "Boshingga do'zax o'ti tushsin", "Zax

o'lsin", "Jondan jirkan", "Tovuq yeb ketsin", "Uyinda jinlar to'y qilsin" kabi qarg'ishlar insonning ichki g'azabini ifodalaydi. Bu kabi iboralarda nafaqat til, balki xalqning tasavvuri, diniy dunyoqarashi va milliy mentaliteti ham o'z aksini topgan. Ayniqsa, jin, do'zax, la'nat, o'lim, jinnilik kabi obrazlar orqali insonning boshiga salbiy kuchlar yetishini istash holati aks ettiriladi.

Shu bilan birga, qarg'ishlar ba'zan kulgili yoki yumoristik tusda bo'lishi mumkin. Xorazm shevasida ishlatiladigan "O'ynab yurgan joyingda quduqqa tushib ket", "Etagingga it ilashsin", "Pishak yuragingni yeb ketsin" kabi iboralar tanqidiy, biroq hazil aralash tarzda aytiladi. Bu holat ekspressivlikning ijtimoiy va psixologik funksiyasini ham ko'rsatadi: u salbiy emotsiyani bo'shatish, muloqot muvozanatini saqlash va ba'zan ijtimoiy tartibni ta'minlash vositasiga aylanadi.

Olqishlar esa aksincha, ijobiy munosabat, duolar, yaxshilik tilash kabi ma'nolarni ifodalaydi. Xorazm shevasida olqishlar katta yoshdagilarning yoshlarga, ota-onaning bolalarga, yoki jamiyatning ijobiy faol a'zolariga nisbatan bildirgan roziligi sifatida ishlatiladi. Masalan, "Omading ochiq bo'lsin", "Xudo yo'lingni ochsin", "Yaxshi bo'l", "Ko'z tegmasin", "Og'zingdan balo ketsin" kabi olqishlar insonlarga nisbatan iliq munosabatni bildiradi. Bu kabi iboralar milliy axloqiy me'yorlarga asoslangan bo'lib, xalq orasida o'zaro hurmat, duoga ishonch va ijobiy niyatni ifodalaydi.

Xorazm shevasidagi olqishlar ko'pincha diniy tusga ega bo'ladi. "Alloh niyatini bersin", "Yuzing yorug' bo'lsin", "Farzanding rohatin ko'r", "Bir umr baxtli bo'lg'in" kabi iboralar xalqning diniy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi. Olqishlar orqali avlodlar orasida iliq munosabat, duolar orqali baraka tilash va ijtimoiy ijobiylikni rag'batlantirish madaniyati shakllanadi. Ayniqsa, ota-onalar bolalarga duolar, olqishlar aytilish orqali ularni ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashadi.

Qarg'ish va olqishlarning turlari ularning pragmatik vazifalari bilan ham bog'liq. Masalan, ogohlantiruvchi, jazolovchi, himoya qiluvchi, rag'batlantiruvchi, tasalli beruvchi, ishonch uyg'otuvchi, qo'rqituvchi yoki taskin beruvchi kabi funksiyalarga ega. Xorazm shevasida "Seni shayton urmasin", "Yomonlardan asrasin", "Balolardan panoh top" kabi iboralar ham qarg'ish, ham olqishga xos jihatlarni birlashtirgan murakkab ekspressiv birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan ular xalq tafakkurida ijobiy va salbiy kuchlarning o'zaro kurashini ifodalovchi semantik tuzilmalardir.

Xorazm shevasidagi bunday ekspressiv vositalarning shakllanishi va ishlatilishi tarixiy-madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq. Qadimdan Xorazm vohasi turli madaniyatlarga to'qnashgan, o'zbek, fors-tojik, arab, turkiy, zardushtiy madaniyatlar

o'zaro ta'sirlashgan. Bu esa, tilda ishlatiladigan iboralarning ma'no doirasini boyitgan, ularni chuqur semantik qatlamlarga ega qilgan. Masalan, "Yuzingdan nur yog'ilsin" yoki "Joning jannatda bo'lsin" kabi iboralarda islomiy aqidalar, ilohiylik va ruhiy poklik tushunchalari aks etgan bo'lsa, "Qop-qorong'i tunda yo'lingdan adash" kabi iboralarda qadimiy mifologik obrazlar, qorong'ilik va yo'qotish motivlari mujassamdir.

Shuningdek, bu nutq birliklari bugungi kunda ham ommaviy muloqotda, ijtimoiy tarmoqlarda, xalq orasida faol qo'llanilib, o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, og'zaki xalq ijodining turli janrlarida, to'y-maraka, motam marosimlari, duolar va nasihatlarda qarg'ish va olqishlar muhim rol o'ynaydi. Bu esa, ularning tirik til boyligi, o'zbek xalqining ichki dunyosi va madaniyatiga chuqur singib ketganligini ko'rsatadi.

Xorazm shevasida ekspressiv nutq vositalari sifatida namoyon bo'ladigan qarg'ish va olqishlar xalq tilining nafaqat emotsional, balki madaniy qatlamlarini ham ochib beradi. Ushbu nutq birliklari xalqning asrlar davomida shakllangan ijtimoiy tajribasi, axloqiy qarashlari, diniy e'tiqodlari va hayotiy falsafasining mahsuli sifatida til tizimida mustahkam o'rnatilgan. Qarg'ishlar insonning salbiy emotsiyalarini, olqishlar esa ijobiy niyatlarini ifoda etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solish, baholash, ogohlantirish, rag'batlantirish va taskin berish kabi turli kommunikativ vazifalarni bajaradi.

Xorazm shevasida qo'llaniladigan qarg'ish va olqishlar o'z tarkibida boy obrazlilikka, metaforik ifodalarga va diniy-madaniy simvollarga ega. Bu esa ularning chuqur semantik va funksional qatlamga egaligidan dalolat beradi. Xususan, qarg'ishlarda qorong'ilik, jin, do'zax, yovuz kuchlar kabi obrazlar orqali salbiy holatlar tasvirlansa, olqishlarda yorug'lik, duo, baraka, baxt-saodat kabi ijobiy tushunchalar ustuvorlik qiladi. Bu ikki turdagi ekspressiv vositalar xalq tafakkurida ezgulik va yovuzlik, umid va xavf, baraka va ofat kabi qarama-qarshi kuchlarning timsoli sifatida qaraladi.

Qarg'ish va olqishlar Xorazm shevasining fonetik va morfologik xususiyatlarini ham yoritadi. Ular ko'pincha og'zaki nutqda aniqlanadi va emotsional urg'u bilan aytiladi. Bu esa ularni nafaqat lingvistik jihatdan, balki psixologik, sotsiologik va antropologik nuqtayi nazardan ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ularning muloqotda tutgan o'rni, vaziyatga mos ishlatilishi, tinglovchiga ta'siri, vaziyatning ijtimoiy xarakteriga ko'ra o'zgaruvchanligi tadqiqotchilar uchun alohida qiziqish uyg'otadi.

Bugungi globallashuv davrida xalq tilining ana shunday boyliklarini o'rganish, ularni zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilish milliy madaniyat va til merosini saqlashda muhim qadamlardan biridir. Qarg'ish va olqishlar xalq tafakkurining to'g'ridan to'g'ri aksidir. Ular orqali inson o'zining shaxsiy munosabatini nafaqat bildiradi, balki atrofdagi insonlarga, jamiyatga ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, ularning to'g'ri ishlatilishi yoki noto'g'ri qo'llanishi ijtimoiy muhitga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm shevasidagi ekspressiv nutq vositalari — ayniqsa qarg'ish va olqishlar — xalq tilining, madaniy tafakkurining, tarixiy xotirasining tirik ko'zgusi hisoblanadi. Ular faqat nutqiy birlik sifatida emas, balki xalqning ijtimoiy hayoti, axloqiy tamoyillari va diniy qadriyatlarining lingvistik ifodasi sifatida o'rganilishi zarur. Tilshunoslik, etnolingvistika va lingvokulturologiya fanlari uchun bunday tadqiqotlar xalq tilining noan'anaviy qatlamlarini ochib berishda, xalq ruhiyatini anglashda, milliy o'zlikni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelajakda bu yo'nalishda yanada kengroq hajmda tadqiqotlar olib borish, boshqa hududlarning shevalari bilan qiyosiy tahlil qilish, olqish va qarg'ishlarning bolalar tarbiyasidagi, ta'lim tizimidagi, diniy-madaniy marosimlardagi o'rni va rolini chuqur o'rganish til madaniyatini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik oliygohlarda bunday tadqiqot natijalari o'qituvchi kadrlarning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Поливанов Э.Д. О языковой системе. – Москва: Издательство Академии наук, 1931. С-47.
2. Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари. Уч жилдлик. 1-жилд. – Т.: Фан, 1988, -Б.129.
3. Қо'чқоров Н. Олқиш ва қарғиш атамаларининг ясалishi // SamDU XXVI ilmiy- nazariy konferensiyasi materiallari. - Samarqand, 1992,-B. 176-178.
4. То'ychiboyev.Б,Hasanov B.O'zbek dialektologiyasi.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004-yil.
5. Reshetov V, Abdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. "O'qituvchi" nashri. Toshkent. 1978

O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH USULLARI

Ruziyeva Shoxsanam O'lmas qizi,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Chirchiq davlat pedagogika
universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirishga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan. Fikr ifodalash malakasining rivojlanishi nutqni yaxshilash, boyitish, badiiy bo'yoq berish kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, maqolada buyuk mutafakkirlarning nutq madaniyati bo'yicha bildirgan fikrlariga tayangan holda nutq o'stirish usullari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, nutq madaniyati, ona tili, ta'lim tizimi, o'qituvchi, o'quvchi, talablar, ijodiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье рассмотрены требования, предъявляемые к развитию речи учащихся на уроках родного языка. Развитие навыков выражения мысли выполняет такие задачи, как совершенствование речи, обогащение, художественная окраска. Также в статье раскрыты методы развития речи, опирающиеся на высказывания великих мыслителей о культуре речи.

Ключевые слова: речь, культура речи, родной язык, система образования, Учитель, ученик, требования, творческое мышление.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Yurtboshimizning: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - deb e'tirof etishlari o'zbek tili o'qituvchilari oldiga tashabbuskor, izlanuvchan, intiluvchan va raqobatbardosh bilim egalarini tarbiyalashdek dolzarb vazifani qo'ydi. "Davlat tili", "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" va boshqa hujjatlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga,

til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Har bir kadr, eng avvalo, o'z ona tilining chinakam sohibi bo'lmog'i lozim.

Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Shuni aytish lozimki, maktabda o'qitiladigan barcha o'quv fanlari o'quvchi nutqi ustida ishlashga yo'l ochadi. "Ona tili" o'quv fani sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, o'quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. Uni tilimizning go'zal olamiga olib kiradi, nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo'yoq berish, nafasat bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...".

Nutq o'stirish tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. O'qituvchi o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llashlariga yordm beradi.

O'qituvchi ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning ilmiy salohiyatini o'stirish bilan birga mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur qilish, kreativ yondashish ko'nikmalarini rivojlantirishi zarur. Buning uchun, avvalambor, o'qituvchining chiroyli nutqqa ega bo'lishi kerak. Chunki "o'qituvchining nutqi o'tmas, nochor bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, o'ziga ham azob, o'quvchi sho'rlikka ham azob. Ona tilida puxga, lo'nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, o'zni ham, so'zni ham qiynamaydigan ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimni yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan, ona tili milliy ma'naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir".

O'quvchi nutqiga bir qator muhim talablar qo'yiladi: Muhim talablardan biri nutqning nutq sharoitiga **mosligidir**. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Bu sharoit behad ko'p tarkibli, serqirra bo'lib, so'zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa-buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so'zlovchining maqsadi

va imkoniyatlarigacha bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Bunday nutqda fikr izchilligi, gaplarning o'zaro to'g'ri bog'lanishi, bog'lovchilar, olmoshlar, soha atamalari, ovoz tembi, ohang kabilarni to'g'ri qo'llashga alohida e'tibor berish lozim.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab **mazmundorlikdir**. Shuni unutmaslik kerakki, nutq nutq sharoitiga mos tushsa, u mazmunli bo'ladi. O'quvchi faqat bilgan narsalarini, o'zi xabardor bo'lgan voqea-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon qilishi mumkin. Aniq dalillar o'quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritilgan fikrigina o'zgalar diqqatini o'ziga tortadi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri fikrning **mantiqan to'g'ri, aniq va izchil** bo'lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytariq fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab uning boy va **rang-barangligidir**. Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, sinonimiyalaridan unumli foydalanishda, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, ulkan shoir va yozuvchilarning aforizmga aylanib qolgan iboralari va jumlaridan, badiiy asarlardan olingan parchalardan, o'zbek xalqining qochiriq so'zlari va ko'chma ma'noli so'zlaridan, ritorik so'roqli gaplardan foydalanishida namoyon bo'ladi.

Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bog'langan. Ma'lum bir mazmunni turli shakllarda bera bilish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlash nutqqa aniqlik kiritadi.

Ohangdorlik ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositasi sanaladi. Shuning uchun she'riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o'qiy olish malakasi ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi.

Nutqning grammatik jihatdan **to'g'ri qurilgan bo'lishi** ham unga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga

bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Nutqqa qo'yiladigan yana bir muhim talab uning **soddaligi va sofligidir**. Sodda nutq avvalo tushunarli bo'ladi. Nutqning tushunarli bo'lishi, bir tomondan, fikrni lo'nda, aniq bayon qilish, "tushunarli bo'lmagan g'aliz jumalardan saqlanishda namoyon" bo'lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajalariga ham bog'liqdir. Demak, o'quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilishi, ham o'zgalar fikri mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida tilga olingan talablar bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, o'quvchi yaxshi nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilish orqali erishadi. Shuning uchun ona tili darslarida nutqqa qo'yilgan talabni hisobga olib, ikkinchisini unutish yoki bir talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfda qoldirish mumkin emas. Bu talablarga doimiy va qat'iy amal qilinsagina nutq o'stirish samarali kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston. 2016. – 146 b.
2. Кудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Т.: 1993.
3. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. – T. 1999.
4. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: 1992. – 156 b.

SHAXSLARARO ONLAYN MULOQOTDA NUTQ ETIKETINING O'ZGARISHI

Axunova Diyora Urunboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazaruyasi va metodikasi mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

axunovadiyora22@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada shaxslararo onlayn muloqot jarayonida nutq etiketi me'yorlarining o'zgarishi, an'anaviy nutq madaniyatidan farqli jihatlari va zamonaviy kommunikatsiya vositalari ta'siri tahlil qilinadi. Internet tarmoqlarida keng tarqalgan qisqartmalar, emoji va yangi lingvistik vositalarning shakllanishi o'rganiladi. Shuningdek, yoshlar va pedagogik muhitda kuzatilayotgan ijobiy va salbiy oqibatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: onlayn muloqot, nutq etiketi, til madaniyati, kommunikatsiya, internet.

Annotation: The article analyzes the transformation of speech etiquette in interpersonal online communication, highlighting differences from traditional speech culture and the influence of modern communication tools. It examines the use of abbreviations, emojis, and new linguistic elements common in digital platforms. Special attention is given to both positive and negative effects observed among youth and in educational contexts.

Keywords: online communication, speech etiquette, language culture, communication, internet.

Аннотация: В статье рассматриваются изменения норм речевого этикета в межличностной онлайн-коммуникации, отличительные особенности от традиционной речевой культуры и влияние современных средств коммуникации. Анализируются распространённые сокращения, эмодзи и новые лингвистические формы, появляющиеся в интернет-среде. Особое внимание уделено положительным и отрицательным последствиям в студенческой и педагогической среде.

Ключевые слова: онлайн-общение, речевой этикет, культура речи, коммуникация, интернет.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida shaxslararo muloqotning katta qismi internet va mobil texnologiyalar orqali amalga oshmoqda. An'anaviy muloqot vositalari o'rnini ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron pochta va onlayn platformalar egallamoqda. Bu jarayon nutq etiketi — ya'ni muloqotda odob, xulq-atvor va til me'yorlariga amal qilish qoidalarini ham o'zgartirib yubordi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, shaxslararo onlayn muloqot jamiyatning barcha qatlamlariga, xususan, yoshlar, talabalar va o'qituvchilarning nutq madaniyatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu bois bu mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash, hamda kelgusida nutq madaniyatini rivojlantirish yo'llarini belgilash zarur.

ASOSIY QISM

Onlayn muloqot tushunchasi va xususiyatlari:

Onlayn muloqot — bu raqamli texnologiyalar orqali amalga oshadigan axborot almashinuvi bo'lib, u real vaqt rejimida yoki kechiktirilgan shaklda yuz beradi. Uning o'ziga xosligi shundaki, suhbatdoshlar ko'pincha bir joyda bo'lmasalar-da, tezkor aloqa o'rnatishlari mumkin.

Nutq etiketi va an'anaviy shakli:

An'anaviy muloqotda nutq etiketi salomlashish, murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish, xayrlashish kabi qat'iy shakllar bilan ifodalanadi. Bu me'yorlar asrlar davomida shakllangan bo'lib, insonlararo hurmatni ta'minlashga xizmat qilgan.

Onlayn nutq etiketi o'zgarishlari

Internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi natijasida nutq etiketi yangi shakllarni kasb etdi:

Qisqartmalar: masalan, "ok", "brb", "lol", "xayr" o'rniga "xay" kabi variantlar.

Emoji va stikerlar: hissiyotlarni ifodalashda matn o'rnini bosmoqda.

Til aralashuvi: inglizcha so'z va iboralar ("like", "sorry", "hi") o'zbek matnida faol ishlatilmoqda.

Rasmiylik darajasi pasayishi: hatto ilmiy yoki rasmiy yozishmalarda ham norasmiy elementlarning qo'llanishi.

Yoshlar va pedagogik muhitda kuzatilayotgan holatlar:

Talabalar va o'quvchilar orasida onlayn muloqot asosiy aloqa shakliga aylangan. O'qituvchilar ham dars jarayonida elektron platformalar orqali muloqot qilishmoqda. Bu esa nutq madaniyatida quyidagi o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda:

tezkor yozish uchun qisqartmalarni ko'payishi;

rasmiy muloqotda odob qoidalariga rioya qilinmasligi;

Ijobiy jihatlar

- Muloqotning tezkor va qulay shaklga kelishi;
- His-tuyg'ularni ifodalashning yangi vositalari (emodzilar, GIFlar);
- Masofadan turib ham doimiy aloqada bo'lish imkoniyati.

Salbiy jihatlar

- Nutq madaniyatining pasayishi, imlo va grammatik xatolarning ko'payishi;
- Hurmat-izzat tushunchasining zaiflashishi;
- Agresiv yoki nojo'ya ifodalar keng tarqalishi;
- Haqiqiy hayotdagi muloqot ko'nikmalarining sustlashishi
milliy til me'yorlarining buzilishi;
ijobiy jihat sifatida esa tezkor aloqa va fikr almashish imkoniyatlarining kengayishi.

Onlayn muloqotning noto'g'ri shakllari natijasida quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda:

hurmatsezlik, etiketsizlik holatlarining ko'payishi;
tilning buzilishi va milliy qadriyatlarning yo'qolishi;
yoshlarning og'zaki nutqida ham chat tilining kirib kelishi.

Zamonaviy talablar va yechimlar

Nutq madaniyatini saqlash va onlayn etikani rivojlantirish uchun quyidagilar muhimdir:

til me'yorlariga rioya qilishni targ'ib qilish;
o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan nazoratni kuchaytirish;
ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatli muloqotni targ'ib qiluvchi loyihalar ishlab chiqish;
rasmiy yozishmalarda qat'iy til qoidalarini joriy etish.

Onlayn muloqot zamonaviy jamiyatda muhim o'rin tutadi, ammo uning nutq etiketi me'yorlariga ta'siri ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. Nutq madaniyatini rivojlantirish, yoshlarni muloqot odobiga o'rgatish, internet tarmoqlarida milliy va madaniy qadriyatlarni saqlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Habibullayev O. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2015.

3. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
4. Shomahmudova N. O'zbek tilida nutq madaniyati masalalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
5. Yusupov U. Raqamli kommunikatsiya va lingvistika. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.

O'ZBEK TILIDA DINIY DISKURSNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Fayzullayeva Maftuna Odil qizi,

Toshkent gumanitar fanlar universiteti o'qituvchisi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi,
fmaftuna04@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida diniy diskursning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Diniy leksikaning o'rganilishi, diniy matnlarning lingvistik, pragmatik hamda funksional jihatlarini tahlil etilib, arab, rus, gruzin va serb tilshunosliklari misolida teolingvistika yo'nalishining shakllanishi yoritiladi. Maqolada o'zbek tilshunosligida diniy uslubning mustaqil yo'nalish sifatida rivojlanish jarayonlari, Qur'on, hadis va klassik asarlar asosida diniy terminlarning tizimlanishi, ularning semantik va tarixiy xususiyatlari ko'rsatilgan. Tadqiqotda diniy matnlarning yangi matn turi sifatida e'tirof etilishi hamda ularning tilshunoslikdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: diniy diskurs, diniy matn, teolingvistika, diniy leksika, diniy uslub, Qur'on, o'zbek tilshunosligi.

Annotation. This article analyzes the formation and development stages of religious discourse in the Uzbek language. It explores the study of religious vocabulary, the linguistic, pragmatic, and functional features of religious texts, and discusses the emergence of theolinguistics through the examples of Arabic, Russian, Georgian, and Serbian linguistics. The article highlights the evolution of the religious style as an independent direction in Uzbek linguistics, the systematization of religious terminology based on the Qur'an, Hadith, and classical works, and their semantic and historical characteristics. The study also substantiates the recognition of religious texts as a distinct type of text in modern linguistics.

Keywords: religious discourse, religious text, theolinguistics, religious vocabulary, religious style, Qur'an, Uzbek linguistics.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы формирования и развития религиозного дискурса в узбекском языке. Анализируется изучение религиозной лексики, лингвистические, прагматические и функциональные особенности религиозных текстов, а также становление теолингвистики на примере арабского, русского, грузинского и сербского языкознания. В статье

освещаются процессы развития религиозного стиля как самостоятельного направления в узбекском языкознании, систематизация религиозных терминов на основе Корана, хадисов и классических произведений, их семантические и исторические особенности. В исследовании также обосновано признание религиозных текстов как особого типа текста в современной лингвистике.

Ключевые слова: религиозный дискурс, религиозный текст, теоллингвистика, религиозная лексика, религиозный стиль, Коран, узбекское языкознание.

Bugungi kunda maxsus leksikaning, jumladan, diniy leksikaning tadqiqi tilshunoslik fanida qiziqarli va dolzarb muammolardan biridir. Bu turdagi leksikani tadqiq etish tilning tarixiy rivojlanishini o'rganish imkonini beradi, ya'ni o'tgan asr o'rtalarida V.V.Vinogradov ta'kidlaganidek, "so'z ma'nolari tarixiy o'zgarishining mohiyatini chuqur anglab yetmasdan" til lug'at tarkibi rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganish mumkin emas. Zamonaviy o'zbek tili qo'llanilishining jahon hamjamiyatida, shuning barobarida O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy, siyosiy jarayonlar ta'sirida o'zgarishlarga uchrayotgani ma'lum. Yillar davomida, tarixiy davrning tazyiqiga uchragan ma'naviy qadriyatlar, madaniy an'analar jamiyatda qaytadan rivojlana boshladi.

Inson ruhiyatidagi, fitratidagi o'z-o'zini anglashga bo'lgan qiziqish tufayli din va til o'rtasidagi masalalar dastlab faylasuflar, dinshunoslar, sotsiologlar, psixologlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. "Qadim zamonlardan din odamlarni boshqarish, ularni bitta maqsadga yo'naltirish vositasi, qolaversa, bilim va tarbiya berishning ibrat maktabi bo'lib xizmat qilib kelgan. Diniy muloqot qadim zamonlardan yashab kelayotgan bo'lsa-da, bu sohani ilmiy tadqiq qilishga bo'lgan izlanishlar nisbatan yaqinlarda paydo bo'ldi. Odamlar jamoa bo'lib yashar ekan, o'rtalaridagi har qanday munosabatni din asnosida hal qilishar edi, ilm-fan, odob-axloq, tarbiyani din orqali olishar edi. Shu sabablarga ko'ra, diniy leksika barcha davrlarda kishilik jamiyatining muhim ajralmas qismi hisoblanib keladi." [5:237] Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham Islom dini, uning jahon sivilizatsiyasida nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqlarida ushbu masalaga alohida to'xtaldilar: "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosqa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik

va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi." [11] Jahon tilshunosligida diniy matn, diniy leksikani turlicha jihatlardan o'rganish masalasida bir qator tilshunoslar izlanishlar olib borilgan. Xususan, N.Mechkovskaya, Yu.Mixaylova, K.Timofeev, P.Yakimov, R.Goryushina, S.Bulavina, I.Matey, G.Sklyarevskaya, M.Petuxova kabi tilshunoslar diniy leksikaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishgan. Sharqda din va til masalalarini o'rganish ancha oldin boshlangan bo'lib, "Arab tilshunosligi" atamasi ostida Qur'oni karimni lingvistik tadqiq qilish asnosida vujudga kelgan. "Arab tilshunosligi amaliy ehtiyoj natijasida, Qur'on nutqini to'g'ri talaffuz qilish ehtiyoji bilan, shuningdek, arablar va shuubiylar (eroniylar) o'rtasidagi arab tili yuzasidan mubohasasi jarayonida vujudga keldi." [4:30] Turkologiyada N.Suyargulov, A.Serikbaeva, R.Sharyafetdinov, Z.Yaxyaeva, Z.Xafizova, G.Abdullinalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham asosiy e'tibor Qur'oni karimni o'rganishga qaratilgan. O'zbek tilshunosligida ham diniy leksika bo'yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda xalqning milliy qadriyatlarining asosi bo'lgan diniy manbalar, nodir asarlar buzib talqin etildi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng diniy leksikani o'rganishga bo'lgan tadqiqotlarning olib borilishi qamrovining kengayishi kuzatildi. O'zbek tilshunosligida N.Uluqov, T.Yuldashev, Sh.Galieva, Sh.Sultonova, Sh.Yusupova, Sh.Amonturdiyevlar tomonidan diniy leksikaning tadqiqi amalga oshirilgan. N.Uluqovning dissertatsiyasi o'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi tadqiqiga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Dissertatsiyada diniy matnlar tarkibida uchraydigan arabcha ekzotizmlar tematik guruhlariga bo'lib tahlil qilingan. T.Yuldashevning dissertatsiyasida Navoiy va Boburning islom farzlariga bag'ishlangan asarlarida qo'llangan shar'iy atamalarning lisoniy xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotchi Sh.Amonturdiyeva dissertatsiyasida o'zbek tilidagi diniy matnlarning funksional-stilistik jihatlarini ochib berdi va diniy uslubning o'zbek tili funksional uslublarining alohida ko'rinishi sifatida mavjud ekanligi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Sh.Yusupovaning dissertatsiyasida esa diniy matnlarning lingvopragmatik jihatdan tadqiqi amalga oshirilgan.

Azim Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kitobida matnga quyidagicha ta'rif beradi: "Matn – yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst." [1:61] A.Hojiyevning matnga bergan ta'rifi umumiy ta'rif bo'lsa, E.Qilichev "Matnning lingvistik tahlili" kitobida matnga nisbatan kengroq ta'rif beradi: "Matn – hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtayi nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ – estetik axborotni

ifodalovchi murakkab tuzilma.” [6:43] Asosan matnning 7 ta turi bor hisoblansa-da, bugungi kunda diniy matnlar ham yangi matn turi sifatida e'tirof etilmoqda. Diniy mavzuda adabiy ifodalangan har qanday adabiyot yoki san'at diniy matn hisoblanadi. Diniy matnlarning yangi matn turi sifatida tan olinishi ularni lingvistik jihatdan keng o'rganilishiga turtki bo'lmoqda. Jahon tilshunosligida diniy matnlar ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, rus, gruzin, serb tilshunosliklari misolida buni ko'rishimiz mumkin. Ammo serb tilshunosligida diniy matnlar bo'yicha ko'p hollarda zamonaviy serb tilini emas, balki serb-slavyan va cherkov slavyan tillarini o'rganadigan tilshunoslar lingvistik tadqiqotlar olib borishgan. Bunga sabab qilib esa, zamonaviy serb tilida diniy matnlarning nisbatan kam uchrashi va ular cherkov slavyan tilidan tarjima qilinganligi ko'rsatiladi. Bunday matnlar bugungi kunga kelib tadqiqot markaziga tortilmoqda. Shu boisdan, serb diniy matnlar tadqiqi nisbatan kam uchraydi. Jumladan, filologiya fanlari nomzodi, Serb tili instituti ilmiy xodimi R.Baich (Levushkina) ning lingvistik tadqiqotlar loyihasi doirasida zamonaviy serb adabiy tili va serb-xorvat lug'ati asosida “Serb tilida diniy matn til maydoni” mavzusida Nijniy Novgorod diniy seminariyasining materiallarida nashr etilgan ishi mavjud bo'lib, u diniy matnlarni lingvistik atama sifatida serb tilshunosligida qabul qilish mumkinmi yoki yo'qligi haqidagi muhokama bilan boshlanadi. Unda har bir bibliografik birlik, har bir pravoslav diniy matn lingvistik tadqiqotlar uchun material bo'lishi mumkinligi aytiladi. R.Baich bergan ma'lumotlarga ko'ra, pravoslav diniy matnlari cherkov hayoti hodisalari va muammolarini, diaspora, apokalipsis, insonning esxatologik muammolari, pravoslav psixologiyasi, pravoslav nikohi va oilasi, ruhiy takomillashtirish, o'lim kabi masalalar diniy matnlarning asosiy mezonlarini tashkil etadi. Ya'ni shunday mavzular yoritilgan matnlar diniy matn hisoblanadi. Ko'rinib turibdi-ki, tadqiqotchi bu ishi orqali zamonaviy serb tilida diniy matnlarning o'rganilishiga doir dastlabki tadqiqotlarni o'tkazgan. U diniy janr atamasi ham mavjudligini aytib, A.K.Gadomskiy va I.V.Bugayevalar diniy janrlarni tasniflagani haqida to'xtalib o'tadi. Bundan tashqari, sarlavha tahliliga asoslanib ham matnlarni pravoslav diniy matni ekanligini bilishimiz mumkinligini aytib o'tgan tilshunos bunga sabab qilib sarlavhalardagi xudo, cherkov, imon, rabbiy, nasroniylik, ibodat, gunoh, yorug'lik kabi kalit so'zlar qo'llanilishi diniy matnlarning ramziy mezonlaridan biri hisoblanishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, diniy matnlar ustida rus tilshunosligida qilingan ilmiy ishlar ancha keng qamrovli bo'lib, ular matnlarni turli taraflama o'rganishgan. Rus tilshunosligining yana bir vakili Y.Balashova “Жанрово-стилистический анализ религиозного христианского дискурса” tezisida diniy matnlarni janr-stilistik

tahlilga tortish nutq ta'sirini hamda xristian diniy nutqi ritorikasining o'ziga xos jihatlarini tavsiflashga yo'naltirilgan. Unda xristian diniy matnlari korpus matnlar asosida tadqiq etilishi teologik matnlarni alohida maxsus tur sifatida kiritish kerak, degan xulosani beradi. Bu Injil matni hisoblanib, u diniy xristian nutqi maydonini to'la qamrab oladi. Teologik subkorpus matnlarni o'rganish ularni janrlarga bo'lish imkonini beradi. Har bir janr o'zining ritorik, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ega. Balashova matnlarning ko'p o'lchovli nutq tahlilini o'tkazdi. Tezisdan aytilishicha, xristianlarda diniy nutqning konseptual-aksiologik tizimi asosini Xudo va cherkov so'zlari tashkil etadi. S.F.Barishevaning "Религиозная метафора в современном медиадискурсе (на примере печатных СМИ)" (Zamonaviy media nutqidagi metafora (masalan, bosma ommaviy axborot vositalari)) nomli tezisining maqsadi diniy metaforalarning tematik yo'nalishlarini zamonaviy ommaviy axborot vositalarida aniqlashga qaratilgan. Cherkovning ijtimoiy hayotda roli oshib borishi natijasida zamonaviy mediada cherkov tushunchalari, diniy mavzular va syujetlarning dolzarblashuvi tadqiqot gipotezasi hisoblanadi. Barisheva madaniy-ma'rifiy gazetalardagi diniy metaforalarni 4 guruhga bo'lishni lozim topadi:

– Xushxabar (syujetlar, qahramonlar va dogmalar): Muqaddas kitoblarning syujetlari, Bibi Maryam yoki Yahyo surati, ruhning va samoviy kuchning mavjudligi haqidagi dogmalar. – Ma'bud va monastir fazoviy obyektlar sifatida. San'at ibodatxonasi, mahalliy monastir (Gnesinka haqida), ibodat qilingan devorlar (teatr haqida) singari an'anaviy manbalar bu guruh metaforizatsiyasini tavsiflaydi. – Belgilar: taraqqiyot belgisi, uslub belgisi hamda o'ziga xos piktogramma tasvirlari. – Xristian va monastir hayotining elementlari: vyatka, cherkov iyerarxiyasi va boshqalar. Barisheva tezisini: "Ommaviy axborot vositalari diniy va dunyoviy sohalarni birlashtiradi", - deb xulosalaydi. N.G.Nikolayevaning "Проблема "церковно-религиозного" стиля в современном русском языке" [2] maqolasida rus tilidagi cherkov-diniy uslubi masalasida so'z yuritiladi. Xususan, tarjima asarlar haqida gap boradi. Bunda esa, albatta, tarjima madaniyati an'analari inobatga olinadi. Tilshunos diniy tarjimalar tili va uslubini diaxronik tomondan o'rganadi. Yunon va qadimgi slavyan tillaridan zamonaviy tarjimalar amalga oshiriladi. Yunon tilidan qilingan tarjimalarda asl nusxadagi yunoncha so'zlarning shakllanishi va sintaksisining izi seziladi. Bunday taqlidda slavyan an'analari ko'zga tashlanadi. Chunki qadimgi slavyan tarjimalarida ma'lum miqdorda yunon matnlari uchraydi. Maqolada diniy uslubni oltinchi uslub sifatida kiritish haqida fikr-mulohazalar va bir necha sabablar keltiriladi va oltinchi funksional uslub konsepsiyasi o'quv nashrlariga ham kirib

kelganligini aytadi. Diniy uslubga ijtimoiy hayotning alohida sohasi sifatida qaraydi. Rus tilshunosligining yana bir vakili P.A.Yakimov ham “История некоторых лексем с религиозным компонентом значения в русской языковой картине мира” [3] maqolasi orqali diniy leksemalar mavzusini yanada ochib berishga harakat qildi. Maqolada dunyoning diniy manzarasini tasvirlovchi ba'zi leksemalar etimologik jihatdan tahlil qilingan. Lingvist qadriyatlar va diniy g'oyalarni o'zida mujassam etgan leksik birliklarning o'ziga xos semantikasi borligini ta'kidlaydi. Kontekstlarni tahlil qilib, leksemalarning leksikografik tavsifiga ishora qiladi. U “din” semantik maydoniga aloqador “dunyoni boshqaradigan oliy mavjudot” komponenti semasini Xudo leksemasi orqali ifodalanishini aytib, boshqa leksema bilan ifodalanganda ham uning diniy komponenti bir xil ma'noga ega – “Xudoga ishonish bilan bog'liq” ligini eslatib o'tadi. Leksik birliklarning bugungi semantik tuzilishi va ularning etimologiyasini o'rganish asosida guruhlariga bo'ladi: – Etimonning takibida diniy ma'no komponenti mavjud bo'lgan leksemalar bo'lib, bu guruhga jahannam leksemasi misol qilib keltiriladi. Jahannam – “gunohkorlar” abadiy azobga duchor bo'ladigan, ruhlar joylashgan joy. Bu so'zga mos do'zax teonimi hisoblanib, xristianlarda eng asosiy qiynoq turi olov bo'lganligi tufayli do'zax olov maskani sifatida tasvirlanadi. Jahannamning antonimi esa jannat leksemasidir, ammo bu leksemaning etimologiyasi haqida uncha ko'p ma'lumotlar mavjud emas. Uning etimoni Avesto nurlari bilan bog'liqlikda ko'rsatiladi. Jannatda solihlarning ruhi toabad saodatda va Allohga yaqinlikda yashaydilar. U yerda dastlab Odam Ato va Momo Havo yaratilgan. Bularning barchasi Avesto bilan chambarchas bog'liqdir.

– Etimonida bo'lmagan, lekin hozirgi semantik tarkibida diniy ma'no komponenti mavjud bo'lgan leksik birliklar. Bu guruhga esa gunoh leksemasi misol qilib olingan. Gunoh leksemasining etimologiyasi ko'rib chiqilganda diniy komponentga ega ma'nosi bilan bir qatorda, “xato, kamchilik” kabi bunday xususiyatga ega bo'lmagan ma'nosi ham borligi aniqlangan. – Etimonida ham, hozirgi semantik tarkibida ham diniy ma'nosi bo'lmagan leksemalar. Uchinchi guruhga kulol va gil so'zlari kiritiladi. Ular diniy ma'no komponentiga ega bo'lmasa-da, kontekst ichida diniy semani namoyon qila oladi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkin-ki, Alloh insonni loydan yaratgan, degan tasavvur borligi tufayli kulol va loy so'zlari kontekstda ramziy diniy ma'noga ega bo'lishi mumkin. Diniy tilshunoslikka qiziqish Gruziyada ham uchraydi. Bu sohada I.D.Kikvidze “Сопоставительная Теолингвистика: Предмет И Цели Исследования” [7:115] nomli maqolasida qiyosiy teolingvistika ustida ish olib boradi. Maqolada teolingvistikani mustaqil fan

sifatida kiritish to'g'risida muhokama yuritiladi. Ma'lum bir diniy jamiyat nutq ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi til tizimini turli tillar o'rtasida qiyoslab o'rganuvchi qiyosiy teolingvistika sinxron teolingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Maqolada gruzin va rus tillari taqqoslangan. Asosan, lug'at va frazeologiyalarga e'tibor qaratilgan. Gruzin va rus tillari solishtirilib, ularning farqli va umumiy xususiyatlari aniqlanadi. Taqqoslash natijalari semantik tomondan o'zaro bog'langan leksik birliklar semantik tarkibi va paradigmatic munosabatlari jihatidan farq qilishini ko'rsatdi. Rus va gruzin tillaridagi bayram va qo'shiq nomlari ko'rib chiqilgan. Masalan, Bahor bayrami – maslenitsa bayrami va rojdestvo qo'shiqlari – kerol qo'shig'i kabi leksik birliklar rus va gruzin izohli lug'atlaridan foydalanib tahlil qilinadi. Shuningdek, ekvivalenti bo'lmagan leksik birliklar ham borligi ularning o'sha til xususiyatlari va xalq madaniyatlari bilan bog'liqdir. Xususan, rus tilidagi cherkov qo'ng'irog'i nomlari rus madaniyati va cherkov an'analari bilan bog'liqdir. Rus tilshunosligida Ye.Ivanovning “Логомифия текстов религиозной мифологии массовой культуры” [9:46] maqolasi diniy mifologiya matnlari haqida bo'lsa, L. Dolgopolovalning “Средства выражения подлежащего в религиозных текстах древневерхненемецкого периода” nomli maqolasida qadimgi nemis davri diniy matnlarida mavzuni ifodalash vositalari haqida so'z yuritiladi. Maqolada 18-19-asrlarga oid nemis diniy matnlaridan “Евангельская Гармония”, “Татиана” asarlari tahlil qilinadi. Unda, asosan, mavzuni ifodalovchi vosita sifatida otli so'z birikmalari keltiriladi. Ko'pgina hollarda mavzu kanonik xususiyatlarini ko'rsatishi aytiladi. J.Kozielning “Перевод религиозной лексики в современном русском кинематографе на польский язык. Анализ на избранных примерах” [10:65] nomli maqolasi diniy leksikani zamonaviy rus kinematografiyasi bilan bog'lab o'rganilishi bilan qiziqarlidir. Tilshunos diniy lug'atni polyak tiliga tarjimasini misollar bilan tahlil qiladi. Dastlab diniy filmlarga murojaat kuzatiladi. Unda 1897-yildagi Lui Lumierning “Iso Masihning hayoti va azoblari” va Jorj Meliesning “Suvda yurgan Masih” kabi kartinalarida diniy motivlar mavjudligi tasdiqlangan. Keyingi o'rinlarda esa Nikolay Dostalning “Rohib va Jin” hamda K.Serebryanikovning “Shogird” filmlari tahlil qilingan. Ularda diniy elementlar turlicha shaklda namoyish etiladi: og'zaki yoki vizual. Ba'zi o'rinlarda diniy masalalarning boshqacha talqinlari ham kuzatiladi.

Muqaddas islom diniga e'tiqod va hurmat, insonlarni ruhan, jismonan va ma'nan poklikka da'vat etuvchi diniy asarlarni o'rganish va ularni tahlil etish islom aqidalariga e'tiqodlar boshlangan paytlardayoq shakllangan. Dastlab Qur'oni karimni tabdil va tahlil qilish natijasida falsafa, ruhshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik fanlariga

doir dastlabki ilmiy qarashlar paydo bo'lib, buning natijasida keyinchalik esa Basradagi va Kufadagi tilshunoslik maktablari tashkil etildi. Din va tilshunoslik o'rtasidagi munosabatlarning o'rganilishi va chuqurlashishi negizida dunyo tilshunosligida yangi bir soha – diniy tilshunoslikning kelib chiqish ildizlari va xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan teolingvistika yo'nalishi maydonga keldi. Ushbu sohadagi dastlabki ilmiy qarashlar Devid Kristall, Jan-Per van Noppen, Uilyam Samarin kabi olimlar tomonidan aytib o'tildi. [8:148/156] G'arbda teolingvistika atamasi ilk bor belgiyalik tilshunos olim, «teolingvistikaning otasi» Jan-Per vann Noppen tomonidan 1981 yilda fanga olib kiritilgan. Olim «Teolingvistika» deb atalgan maqolalar to'plamini yaratib, teolingvistikaning rivojlanishiga dinshunoslar, tilshunoslar, faylasuflar, psixologlar, antropolog va sotsiologlar xizmat qilishlarini ta'kidlaydi. Teolingvistikaning vujudga kelishi va rivojlanishida din, til va tilshunoslikning nazariy masalalarini chuqur o'rgangan olim D.Kristall dunyo tilshunosligida teolingvistikaning alohida soha sifatida o'rganilishi va rivojlanishi uchun ulkan hissa qo'shgan tilshunos sifatida e'tirof etildi. «Teolingvistika» terminini sohaga oid terminografik lug'atlarda aks ettirgan olimlardan biri aynan Devid Kristaldir. U o'zining «Lingvistika va fonetika lug'ati» kitobida teolingvistika terminini «... til bilan diniy qarashlar va diniy amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi ilm uchun ishlatiladigan termin» sifatida izohlaydi. Bu teolingvistika terminiga D.Kristall tomonidan berilgan birinchi ta'rif edi. Mustaqillik yillaridan boshlab diniy mazmundagi asarlar nashrlari keng yo'lga qo'yildi, buning samarasi o'laroq, o'zbek tilshunosligida ham diniy asarlarning tuzilishi, muqaddas Qur'on oyatlarining tafsiri, hadislar va ularning sharhlarini o'rganish bilan bir qatorda diniy uslubning fonetik, leksik xususiyatlarini talqin qilinishi bilan bog'liq tadqiqotlar maydonga keldi. 2000 yillarda arabcha shar'iy iymonga oid atamalarining izohi, talqini va ularning inson ma'naviyatini oshirishdagi o'rni va vazifalariga oid diniy mazmundagi ilmiy asarlar ham yaratildi. Shu ma'noda T.Yuldashevning nomzodlik dissertatsiyasi o'zbek tilida diniy atamalarining shakllanish tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosqichni boshlab berdi. Dissertatsiyada A.Navoiyning «Siroju-l-muslimiyn» va Boburning «Mubayyin» asarlarida qo'llangan shar'iy atamalar birinchi marta jamlanib atroflicha tahlil etildi. Mazkur asarlardagi shar'iy atamalar leksik-semantik, geneologik, grammatik jihatdan tahlil etildi. Har ikki asarda qo'llangan shar'iy atamalarni tahlil etish, o'zaro chog'ishtirish orqali Navoiy va Boburning o'zbek atamashunosligiga qo'shgan hissasi ko'rsatib berildi. Ushbu asarlar insonlarning e'tiqod, farz, namoz, ro'za, haj, turli ahkomlar, Yaratganning subutiy

sifatlariga doir bo'lgan tushunchalarini yanada oydinlashtirib boyitishlari, aniqlashtirib o'rganishlari uchun katta ahamiyatga ega ekanliklari alohida talqin qilinadi. Diniy adabiyotlarda hamda farz, ibodatlarda qo'llaniladigan arabcha, forsha atamalarining keng xalq ommasiga tushunarli va qo'llanishda oson bo'lishini ta'minlash uchun yaratilgan yana bir muhim qo'llanmalardan biri professor Muxtorxon Umarxo'jaevning «Diniy atama va iboralar» izohli lug'ati diniy atamalar lug'aviy ma'nolarini izohlashga bag'ishlangan bo'lib, diniy tushuncha va tasavvurlarni yanada boyitish, ularning asl mohiyatini tushunib yetish hamda ma'nolariga mos tarzda o'z o'rnida qo'llashda dolzarb muhim amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Diniy matnlarning lingvistik tadqiqiga bag'ishlangan yana bir tadqiqot Sh. Yusupovanning «Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi» mavzuidagi tadqiqot ishida Qur'on tafsiri, hadislar, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ma'ruzalari, Alixonto'ra Sog'uniyning «Tarixi Muhammadiy» asari va ba'zi diniy-ommabop nashrlar misolida diniy matnlarning ba'zi uslubiy, funksional va lingvopragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi, matn haqidagi ta'riflar va qarashlar keltirilib, diniy matnga ta'rif beriladi. «Diniy matnlar – diniy an'analar bilan bog'liq, dinning markaziy tushunchalarini o'zida aks ettiradigan, diniy e'tiqod, diniy ko'rsatmalarni jamlaydigan matn turidir». [13:12] O'zbek tilidagi islom diniga oid og'zaki va yozma diniy matnlarni bir necha guruhlarga bo'lib tasniflaydi. Kishilik jamiyatining ilk shakllanish davrlarida tiriklik va hayot qoidalari aks etgan muqaddas diniy adabiyotlar (Qur'on, Injil)ning nozil bo'lishi hamda hadislarining tartibot qilinishi, yaratilishi haqida gap ketganda, diniy matnlar qadimgi xoqon, podshohlarning davlat tuzilishi to'g'risidagi qonunlari, ko'rsatmalari, rasmiy nomalar va yorliqlardan ham ancha oldin paydo bo'lganligini bilish mumkin. Eramizdan avvalgi davrlarida qadimgi sanskrit tilida yozilgan hind vedalari ham diniy matnlarning ilk namunalari bo'lib, eramizdan avvalgi 1700 – 1100 yillarda yaratilgan, deb taxmin qilinadi, vedalarning juda ham qadimiy davrlarga borib taqalganligi uchun hinduiylikda vedalar insonlar tomonidan yaratilmagan, deb aytilgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” ham qadimiy diniy asarlardan biridir. Muqaddas Qur'onning nozil bo'lishi, hadislarining to'plab talqin qilinishi diniy matnlarning qadimgi davrlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Sharqda din va til masalalarini o'rganish ancha oldin boshlangan bo'lib, dinga oid lingvistik qarashlar “arab tilshunosligi” atamasi ostida Qur'oni karimni tadqiq qilish asnosida vujudga kelgan. «Arab tilshunosligi amaliy ehtiyoj natijasida, Qur'on nutqini to'g'ri talaffuz qilish ehtiyoji bilan, shuningdek, arablar va shuubiylar (eroniylar) o'rtasidagi arab tili yuzasidan mubohasasi jarayonida vujudga keldi». Muqaddas Qur'onni tabdil va tahlil

qilish, Qur'on oyatlarini ma'nolarini izohlash, mazmunini sharhlab yetkazish amaliy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan. Sharqdagi ushbu jarayon – din va tilshunoslik kesishuvidagi masalalari g'arbdagi teolingvistikaning mustaqil tarmoq sifatida shakllanishidan ancha oldin VII - VIII asrlarda vujudga kelganligini ko'rsatadi. Islom ma'rifati va madaniyatining kirib kelishi va keng yoyilishi arab tilining o'rganilishini taqozo etgan. Mumtoz arab tili Qur'onni o'rganish vositasi sifatida keng tarmoq otgan. Islom dinini mukammal egallashni xohlagan kishilarning arab tilini mukammal bilishlari shart deb belgilangan. Bu esa din va tilshunoslik ilmining bir-biriga uzviy bog'liq holda shakllanib rivojlanishi natijasida din va tilshunoslik kesishmasidagi yangi tarmoq – diniy uslubning paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B.61.
2. ISSN 0321–3056 Известия Вузов. Северо-Кавказский Регион. Общественные Науки, 2008. № 6
3. ISSN 1991-5497. Мир Науки, Культуры, Образования. № 1 (44), 2014.
4. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.30.
5. Qo'shoqova B. Diniy leksikani o'rganishda turli yondashuvlar. TDPU Ilmiy axborotlari jurnali. 2020-y., 6-son – 237-b.
6. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. – Buxoro, 2000. – 43-b.
7. Раздел 3. Язык — политика — культура. Код ВАК 10.02.19. – С.115–118.
8. Crystal D. A liturgical language in a linguistic perspective. – New Blackfriars, 1964, 46(534), – P. 148–156.
9. Язык и религия: тез. докл. Междунар. науч. конф. (УрФУ, 15с17 сентября 2021 г.) / Отв. ред. Т. В. Ицкович. Екатеринбург: Издательский дом «Ажур», 2021. – С.46.
10. Язык и религия: тез. докл. Междунар. науч. конф. (УрФУ, 15–17 сентября 2021 г.) / Отв. ред. Т. В. Ицкович. Екатеринбург: Издательский дом «Ажур», 2021. – С.65

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
12. Отв. ред. Т. В. Ицкович. Екатеринбург: Издательский дом «Ажур», 2021. – С.65
13. Yusupova Sh. Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg'ona, 2021. – 12-b.

INTERTEKSTUALLIKNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI. INTERTEXTUALITY IN UZBEKISTAN LINGUISTICS LEARNING

Imomova Ismigul Sirojiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail ismigulimomova@gmail.com
[+998950659622](tel:+998950659622)

Annotatsiya: Dunyo tilshunosligida ham intertekstuallik hodisasi turli fan tadqiqotlarining nazariy asosi sifatida doimo olimlarda qiziqish uyg'otib kelgan. Mazkur maqola o'zbek tilshunoslikda har doim muhim masalalardan biri hisoblangan intertekstuallik va uning turlari muammosiga bag'ishlangan. Intertekstuallik tushunchasining yuzaga kelish sabablari, bu borada qilingan ishlar, o'zbek tilshunosligida o'rganilishi, dramatik asarlar misolida ochib berilgan. Bundan tashqari tadqiqot ishimizda intertekstuallikni o'zbek va jahon tilshunosligida o'rganilishi masalalari haqida ma'lumot keltirilgan. Ushbu termin tadqiqot ishimizda dramatik asarlardan allyuziv nomlar, iboralar va boshqa turlari haqida misollar keltirilgan holda nazariy va amaliy asoslar bilan izohlangan. Bunday misollarni keltirilishi asar mazmunini boyitishga, ekspressivlikni ta'minlashga xizmat qilgan. O'zbek va jahon adabiyotida o'rganilishi darajasi maqolada qiyosiy tarzda tahlil etib berilgan.

Kalit so'zlar: intertekstuallik, matnlararo aloqa, dramatik matnning ekspressivligi, allyuziya, intertekstuallik nazariyasi, iboralar

Abstract: The phenomenon of intertextuality is also a subject of interest in world linguistics, has always been of interest to scholars as a theoretical basis for their research. This article is devoted to the problem of intertextuality, which is considered one of the most important issues in Uzbek linguistics, and its various problems. The reasons for the emergence of the concept of intertextuality, the work done in this regard, its study in Uzbek linguistics, using the example of dramatic works, are revealed. In addition, our research work provides information on the issues of studying intertextuality in Uzbek and world linguistics. This term is explained in our research work with theoretical and practical foundations, using examples from dramatic works. To ensure expressiveness. The degree of its study in Uzbek and world literature is analyzed in the article in a comparative manner.

Keywords: Intertextuality, intertextual communication, expressiveness of dramatic text, allusions, theory of intertextuality, phrases

O'zbek tilshunosligida turli yo'nalishlarida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Matn va uning xususiyatlarini o'rganish XX asr o'rtalariga kelib paydo bo'la boshladi. Badiiy matn tarkibiga boshqa kiritilgan matnlar va ularning birliklari intertekstuallik nomi bilan o'rganilmoqda. Matn yozuvchining ma'lum maqsadi tufayli boshqa bir matn bilan o'zaro kesishadi, ya'ni o'zga matnning muayyan qismlaridan tarkib topadi. Intertekstuallik hodisasi bir necha asrlardan buyon ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Bu atamani dastlab 1967-yili fransuz olimasi Y.Kristeva "Baxtin, so'z, dialog va roman" risolasida ilmiy termin sifatida qo'llanilgan [1: 36]. Amaliy izlanishlarni ko'radigan bo'lsak, intertekstuallikning ikkita tushunchasi mavjud: keng va tor. R.Bart, M.Baxtin, M.Gresse, C.Grivel, Y.Kristeva, M.Riffaterlar keng tushuncha sifatida nomlash tarafdorlaridir. Ular har qanday matnni faqat intertekst sifatida tushunishadi, chunki intertekstuallik universal madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, oldingi matnlarni va ularning ba'zi tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Natijada matn umumiy, universal matnning bir qismiga aylanib, o'ziga xosligini yo'qotadi. Intertekstuallik cheksiz matn nazariyasi sifatida namoyon bo'ladi, u har bir alohida fragmentda intertekstualdir. Yuliya Kristeva har qanday matn avvalgi matnlarning g'oya va mazmunlarini o'zlashtirgan holda shakllanishi, u matnlararo dialog mahsuli ekanini ta'kidlaydi. M.Baxtin esa matnlar hech qachon yolg'iz bo'lmaydi, ular o'zidan oldingi va keyingi matnlar bilan muloqotda bo'ladi deb hisoblaydi. G.Genette fikricha, intertekstuallik boshqa matnlarning yangi matn tarkibida yashirin yoki ochiq holda namoyon bo'lishi jarayonidir. Tor yondashuv tarafdorlari I.V.Arnold, N.S.Valgina, I.P.Smirnov, P.X.Torop, N.A.Fateev intertekstuallikni matn qurish prinsipi sifatida emas, balki faqat ma'noni yuzaga chiqarish vositasi sifatida tushunadi. I.V. Arnold intertekstuallikni "matnga boshqa yoki o'zgartirilmagan qo'shtirnoq, ishora, eslatmalar ko'rinishida kiritish" deb tushunadi [2: 440]. Rus olimi I.P.Smirnov esa atamani matnlar o'rtasidagi aloqa va muloqot asosida izohlaydi. Unga ko'ra, badiiy matn ichki mazmunini boshqa matnlar bilan aloqadorlik orqali boyitadi. Olim intertekstuallikni uch jihatda ko'rib chiqadi: g'oyaviy, semiotik va kommunikativ [3: 18]. "Intermatn va uning she'riy til evolutsiyasi jarayonlaridagi roli" (1999) monografiyasida N.A.Kuzmina intertekstuallikka quyidagi ta'rifni beradi: "Bu obyektiv ravishda mavjud bo'lgan, vaqt o'qi bo'ylab o'zini o'zi qayta tiklashga qodir bo'lgan inson ijodiy faoliyatining mahsulidir". Umuman olganda, intertekstuallik hodisasining ko'plab dolzarb masalalariga shu paytgacha soha vakillari tomonidan yechim topgani yo'q.

Intertekstuallik masalasiga nisbatan lingvistik va adabiy yondashuvlarni farqlash ham juda muhim. T.Y.Avetova bu borada turlicha qarashlarni ochib beradi. U lingvistik yondashuv asosida u mualliflar matnlarining bir-biriga “adabiy ta’siri”ni o’rganishni, adabiy yondashuv bilan esa intertekstni o’quvchi pozitsiyasidan tahlil qilish va tanib olish jarayonini tushunishni ilgari suradi. N.Pige-Gro ushbu muammoga bag’ishlangan taqriz va tahliliy monografiyasida o’zidan oldingi ijodkorlar tajribasini umumlashtirib, boshlang’ich adabiyotning intertekstualligini har qanday umumiy va tarixiy chegaralardan tashqarida bo’lgan “badiiy yozuvning asosiy hodisasi” deb ataydi [4: 133]. Ko’plab muhokamalarga sabab bo’layotgan bu sohadagi asosiy muammolardan yana biri “intertekstuallik” va “intertekst” atamalarini farqlash masalasidir. Chunonchi, S.A.Stroikov, Y.S. Stepanov L.Gruzberg, E.Polityko I.K.Sidorenko bu ikki tushunchani farqlamaydi. N.Pige-Groning izohi esa quyidagicha: “Intertekstuallik bu bir matnni boshqasiga qayta yozish qurilmasi, intertekst esa asar bilan o’zaro bog’liqligidan yoki unga kiritilganligidan qat’iy nazar, berilgan asarda aks ettirilgan matnlar to’plamidir. Intertekstuallik matndan tashqari aloqalarni tashkil qilish usuli va intertekstni o’qish vositasi bo’lsa, intertekst ma’lum bir matn makonida ishtirok etgan matnlar tizimidir” [4: 103]. I.K.Sidorenko tilshunoslik nuqtayi nazaridan yangi “intertekstema” atamasini olib kirishga va tasniflashga harakat qildi: “matn mazmuni tarkibining darajalararo relyatsion (korrelyativ) segmenti, grammatik (morfemik – so’z shakllantiruvchi, morfologik, sintaktik), leksik, prosodik (ritmik-intonik), matn tarkibidagi ritmik-intonik aloqadir”. Boshqacha aytganda, intertekstema matnda turli shakllarda kuzatilishi mumkin bo’lgan “begona ovoz”dir.

Intertekstuallik atamasi o’zbek tilshunosligida dastlab M.Yo’ldoshevning tadqiqotlarida uchraydi. Uning doktorlik dissertatsiyasida intertekstuallik hodisasi, uning badiiy matndagi o’rni va o’zbek badiiy matnlarida uchraydigan turlari haqida ma’lumot berilgan. D. Xudoyberganova esa badiiy matnning antroposentrik tadqiqiga bag’ishlangan doktorlik dissertatsiyasida bevosita intertekstuallik tarkibiga kiruvchi presedent birliklarga urg’u bergan. Z.Saliyeva o’zbek va ingliz tillaridagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosi haqidagi tadqiqotida bu hodisani intertekstuallikning bir ko’rinishi sifatida baholagan. Tarjimashunos, adabiyotshunos olim M.Xolbekovning ham intertekstuallik yuzasidan bir qancha maqolalari e’lon qilingan. O’zbek olimlari ham asosan badiiy matnlardagi intertekstuallik hodisasiga e’tibor qaratishgan. Bugungi davrda ham intertekstuallik bo’yicha bir qancha ilmiy ishlar qilinib kelinmoqda.

Tilshunoslikda olimlar intertekstuallikga quyidagicha ta'rif berishgan. "Intertekst" – muayyan matn ichida keladigan matn yoki uning parchasi, qismlarini anglatuvchi atama, ya'ni matn tarkibida uning muallifiga tegishli boshqa matn yoki umuman o'zga matndan olingan parchadir. Intertekstuallik bevosita matnlararo shu hodisani anglatuvchi atama sanaladi. Ma'lumki, badiiy matnda intertekst sifatida muqaddas kitob va hadislar, folklor namunalari, boshqa bir yozuvchining asarlaridan parchalar keng qo'llaniladi [6; 45].

Badiiy matnda intertekstuallik hodisasi adabiy asarlarni yanada boyitib, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va mazmundorligini ta'minlaydi. Intertekstual elementlar, masalan, allyuziya, reministsiya, epigraf, oksimoron, pretsedent birliklar, geminatsiya, tagma'no, iboralar, maqollar, matallar, alliteratsiya, assonans, ko'chimlar, parafraza, iqtibos va ellipsis badiiy matnning ekspressivligini oshirishda, qo'shimcha ma'lumot berishda va asarning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [6; 38]. Dramatik asarlarda ham intertekstuallikning turlari uchraydi. Quyida ayrim intertekstual vositalarning badiiy matnni yoritishdagi ahamiyati haqida so'z yuritamiz va misollarni ko'zdan kechiramiz. Iboralar boshqa lisoniy birliklardan obrazlilik va modal munosabatni yuqori darajada yuzaga chiqarishi bilan ajralib turadi. Ana shu jihatdan ularning badiiy asardagi o'rni va ahamiyati juda muhim. Iboralar fikrni ifodalashning obrazli va ta'sir quvvati kuchli bo'lgan vositasi sifatida qadimdan ma'lum bo'lgan, ularning ifoda imkoniyatlari, jumladan, uslubiy xususiyatlari ko'plab tadqiqotlarda tahlil qilingan. O'zbek tilidagi iboralarning uslubiy xususiyatlarini chuqur o'rgangan olim B.Yo'ldoshev bu haqida shunday yozadi: «Frazologik birliklar so'zlardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi» [7, 16]. Demakki, iboralar voqelikka subyektning shaxsiy munosabatini ko'rsatib berishga xizmat qilar ekan, ularning badiiy tildagi mavqei beqiyosdir. Zulfiya asarlari tilining uslubiy xususiyatlarini tadqiq etgan tilshunos olim S.Karimov e'tirof etganidek, yozuvchilarning o'z ijodlarida frazeologik birliklardan – xalq tilining emotsional-ekspressiv jihatdan boy bo'lgan qatlamidan – foydalanishi har qanday muallifning badiiy mahoratini namoyon qiluvchi muhim ko'rsatkichdir [8, 42].

Xalqning asrlar davomida shakllangan va to'plangan ruhiy ma'naviy zaxirasi, ajdoddan avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari, urf-odatlar, oliy insoniy munosabatlari namunasi sifatida badiiy adabiyot muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun shoir va yozuvchilar asarlari tili va uslubi, ularning badiiy til vositalaridan foydalanish mahoratlarini o'rganish tilshunoslik ilmi uchun doimo

dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida badiiy adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan shoir va yozuvchilar tili va ularning individual mahorati, ularning asarlaridagi personaj nutqi va uning muallif nutqiga munosabati va unda emotsionallik, ekpressivlik, modallik, obrazlilik kabi xususiyatlarning namoyon bo'lishi kabi muammolar ancha keng tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi" dramasida ham frazeologik birliklar emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qilib kelmoqda. Asarda ayniqsa Boy nutqida o'ziga xos iboralar qatnashgan. Misol uchun Qani, qozi domla, gapni kalta qiling, nima dedingiz? [9, 152] Boyning naqadar tajang va ziqna odam ekanligi manashu iborada gapni kalta qiling- gapni cho'zmaslik degan ma'noni bildiradi. Bu orqali yozuvchi Boyning ruhiy holatini tasvirlab bergan. Qozi boyni xotirjam qilish va tinchlantirish uchun quyidagi iborani qo'llaydi: Xotirjam bo'ling, boy. Qodirqul dodhoning bunaqanggi ishlarga suyagi yo'q. Suyagi yo'q iborasi hunarini mukammal biladi, egallagan ma'nosida kelgan. Boy qoziga nisbatan: Balki hovridan tushib qolgan bo'lsa ajab emas! gapidagi hovridan tushmoq iborasi-jahlidan tushmoq, g'azabi pasaymoq ma'nosida kelgan bo'lib, bunda boy G'ofirni jahldan tushib qolgandir degan ma'noda qo'llanilgan. Asarda asosan boy va kambag'allik o'rtasida tafovut ketgan. Ayniqsa, boy nutqida bunday holatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Boy tomonida turgan Hasan ham boyning aytganini qilib G'ofirga nisbatan quyidagi iborani qo'llaydi: Tilingni tiy, ahmoq! Bilasanmi, kimlar bilan gaplashayapsan! Manashu gapning o'zida ham tabaqalanish bor boylarning oddiy aholi ustidan hukmronligi va ustidan kulishi ochib berilgan. Tilingni tiy iborasi orqali Hasan G'ofirga nisbatan boyning aytganlariga ko'nishini, hech narsa demasligini aytib o'tgan. Quloq qoqma! Boyni hurmat qil deb qozi yana bechora G'ofirga nisbatan aytilgan. Hech narsa dema boy nima desa ham rozi bo'lgini deb ta'kidlaydi. G'ofir hech qachon o'z xotinini boyga berishni istamaydi. U puldan boylikdan ko'ra ishq-muhabbat yo'lida qurbon bo'lishlikni xohlaydi. Hoy, Rahima o'lgur, qachondan beri tiling chiqib qoldi? Deb Hojiona Rahima xolaga qaratgan iborasida Rahima xola o'z qizini tarafini olib gapiradi va bu holat kampirga yoqmaydi. Asarda boyning xotinlaridan biri Xonzodaning qanchalar jirkanch inson ekanligi, ushbu yo'lda hattoki, bir bolani ham nobud etganligi asarda ochib berilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kristeva Y. Baxtin, soʻz, dialog va roman. // Fransuz semiotikasi: strukturalizmdan poststrukturizmgacha / trans. fransuz tili bilan, kompozitsiya, kirish. Art. G.K. Kosikova. N.: IG Progress, 2000. – B. 36.
2. Арнольд, И.В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность / И.В.Арнольд. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 1999.
3. Смирнов И.П. Порождение интертекста (Элементы интертекстуального анализа с примерами из творчества Б.Л.Пастернака). – СПб., 2005. – С. 14.
4. Пьеге-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности. – М.: ЛКИ, 2008. – С. 133.
5. Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Fil. fan. fals.dok.diss.-T., 2021.
6. Пьеге-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности.–М.: ЛКИ, 2008.– С. 133.
7. Yoʻldashev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional-uslubiy xususiyatlari. Filol.fan.d-ri ...diss.avto-ref. – Toshkent, 1993.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т., 2008.

O'ZBEK TILIDAGI SINONIM VA ANTONIMLARNING FUNKSIONAL TABAQALANISHI

Isroilova Mohigul Akramovna

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti 1-kurs doktoranti

E-mail: isroilova.mokhigul@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi sinonim va antonim birliklarining funksional tabaqalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tilning leksik-semantik tizimida sinonimiya va antonimiya hodisalari semantik yaqinlik va qarama-qarshilik asosida shakllansada, ularning qo'llanishi kontekst, uslub, pragmatika va nutqiy vazifa nuqtai nazaridan farqlanadi. Maqolada sinonimlarning uslubiy (rasmiy, so'zlashuv, poetik), emotsional-ekspressiv va ijtimoiy konnotatsiyalarga ega turlari misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, antonimlarning mutlaq, gradatsion va kontekstual turlari hamda ularning stilistik va semantik funksiyasi o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sinonim va antonimlar o'zbek tilining ekspressiv va kommunikativ imkoniyatlarini boyitishda muhim vosita sifatida qaraladi hamda ularning funksional tabaqalanishini o'rganish til tizimining ichki dinamikasini chuqur anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, leksik-semantik tizim, sinonimiya, antonimiya, funksional tabaqalanish, stilistik qatlam, kontekstual ma'no, pragmatik yondashuv, mutlaq antonim, gradatsion antonim, uslubiy sinonimlar, semantik munosabatlar, nutqiy vazifa.

ANNOTATION

This article analyzes the functional stratification features of synonymic and antonymic units in the Uzbek language. Although the phenomena of synonymy and antonymy in the lexical-semantic system of the language are formed on the basis of semantic similarity and opposition, their usage varies depending on context, style, pragmatics, and communicative purpose. The study highlights, through examples, stylistic (formal, colloquial, poetic), emotional-expressive, and socially connotative types of synonyms. It also examines absolute, gradational, and contextual types of antonyms, along with their stylistic and semantic functions. According to the research findings, synonyms and antonyms are considered important tools for enriching the

expressive and communicative potential of the Uzbek language. Studying their functional stratification provides deeper insight into the internal dynamics of the language system.

Keywords: Uzbek language, lexical-semantic system, synonymy, antonymy, functional stratification, stylistic layer, contextual meaning, pragmatic approach, absolute antonym, gradational antonym, stylistic synonyms, semantic relations, communicative function.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются особенности функциональной стратификации синонимических и антонимических единиц в узбекском языке. Несмотря на то, что явления синонимии и антонимии в лексико-семантической системе языка формируются на основе семантической близости и противоположности, их употребление различается с точки зрения контекста, стиля, прагматики и речевой задачи. В статье на примерах освещаются стилистические (официальные, разговорные, поэтические), эмоционально-экспрессивные и социально-коннотативные типы синонимов. Также рассматриваются абсолютные, градационные и контекстуальные типы антонимов, а также их стилистическая и семантическая функция. По результатам исследования, синонимы и антонимы рассматриваются как важные средства обогащения экспрессивных и коммуникативных возможностей узбекского языка, а изучение их функциональной стратификации позволяет глубже понять внутреннюю динамику языковой системы.

Ключевые слова: узбекский язык, лексико-семантическая система, синонимия, антонимия, функциональная стратификация, стилистический слой, контекстуальное значение, прагматический подход, абсолютный антоним, градационный антоним, стилистические синонимы, семантические отношения, речевая функция.

Kirish

O'zbek tilining leksik-semantik tizimi nihoyatda murakkab va rang-barang bo'lib, u so'zlar orasidagi semantik munosabatlar asosida tahlil qilinadi. Bu munosabatlarning eng muhim turlaridan biri — sinonimiya va antonimiya hodisalaridir. Sinonim va antonimlar tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, uslubiy boylikni ta'minlash, kontekstga mos tanlovni amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Ayniqsa, ularning funksional tabaqalanishi masalasi tilshunoslikda alohida ilmiy e'tiborni talab etadi[1].

Sinonimlar va antonimlarning funksional tabaqalanishi deganda, ularning turli nutqiy vazifalar, uslublar, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va mintaqaviy omillarga ko'ra farqlanishi tushuniladi. O'zbek tilida bu hodisa keng ko'lamda namoyon bo'ladi. Sinonimlar ko'pincha bir xil yoki yaqin ma'noni ifodalovchi so'zlar to'plami sifatida qaralsa, ularning qo'llanish doirasi, uslubiy yo'nalishi va konnotativ qiymati jihatidan farqlanishi ularni funksional jihatdan tabaqalashtiradi. Antonimlar esa semantik qarama-qarshilik asosida tashkil topgan bo'lsa-da, ularning qo'llanilishi ham turli kontekstlarda farqlanadi[2].

O'zbek tilshunosligida sinonimlarning funksional tabaqalanishiga oid dastlabki tahlillar professor Sh. Raxmatullayevning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. U sinonimlarni semantik, stilistik, uslubiy va emotsional-ekspressiv jihatdan tahlil qilgan holda, ularni bir necha guruhlariga ajratgan. Masalan, "qattiq" so'zining sinonimlari — "mahkam", "mustahkam", "kuchli", "qat'iy" so'zlari semantik jihatdan yaqin bo'lsa-da, ularning uslubiy va kontekstual vazifalari farq qiladi. "Mahkam" va "mustahkam" texnik yoki fizika ob'yektlariga nisbatan qo'llanilsa, "qat'iy" odatda shaxsiy sifat, qaror, fe'l-atvor kabi abstrakt tushunchalarni ifodalaydi. Bu esa sinonimlarning kontekstga bog'liq funksional tabaqalanishini yaqqol ko'rsatadi[3].

Shuningdek, sinonimlar adabiy va dialektal, rasmiy va so'zlashuv, poetik va nutqiy uslublarda ham farqlanadi. Masalan, "ko'z" so'zining sinonimi sifatida "nigoh", "chashma", "ko'zim" kabi so'zlar ishlatiladi. "Nigoh" — poetik, badiiy nutq uchun xos bo'lsa, "ko'z" — adabiy tilga mansub, "ko'zim" esa so'zlashuv uslubida tez-tez uchraydi. Bu tabaqalanish har bir sinonimga xos ma'no soyasini va emotsional ta'sirini yaratadi[4].

Antonimlar ham o'zbek tilida nafaqat semantik, balki funksional jihatdan tabaqalanadi. Ularning asosiy vazifasi — ma'no qarama-qarshiligini ifodalash, lekin bu qarama-qarshilik har doim ham mutlaq emas. O'zbek tilida antonimlar ko'pincha stilistik antonimiya, gradatsion antonimiya, kontekstual antonimiya kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, "yaxshi" — "yomon", "katta" — "kichik", "oq" — "qora" kabi juftliklar mutlaq antonimlar sanaladi va asosan neytral uslubda qo'llaniladi[5]. Ammo "oq" — "qora" antonim juftligi badiiy adabiyotda ko'pincha ramziy ma'noda — yaxshilik va yomonlik timsoli sifatida ishlatiladi. Bu esa ularning stilistik funksiyasini kengaytiradi.

Gradatsion antonimlar esa o'zaro nisbiy qarama-qarshilikni bildiradi. Masalan, "issiq" — "iliq" — "sovuqqina" — "sovuq" kabi so'zlar o'zaro nisbiy darajadagi antonimiya hosil qiladi. Bu holat ularning kontekstga mos ravishda tanlanishini, demakki, funksional tabaqalanishini taqozo etadi[6].

Kontekstual antonimlar esa doimiy antonim juftlik bo'lmasa-da, muayyan nutqiy vaziyatda qarama-qarshi ma'no kasb etadi. Masalan, "tepalik" va "cho'qqi" so'zlari ba'zan sinonim sifatida ishlatilsa-da, boshqa holatda biri boshqa birining ziddi bo'lib chiqadi — "tepalik" (pastroq) — "cho'qqi" (eng yuqori). Bu esa antonimlarning ham dinamik va vaziyatga bog'liq funksional xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi[7].

Zamonaviy tilshunoslikda sinonim va antonimlarning funksional tabaqalanishini pragmatik jihatdan o'rganish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu yondashuvda sinonim yoki antonimning tanlanishi nutq ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va emotsional holat bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan, rasmiy nutqda "vafot etdi" so'zi ishlatilsa, norasmiy suhbatda "o'ldi" shakli ishlatiladi. Har ikki so'z bir semantik maydonga mansub bo'lsa-da, ularning stilistik qiymati turlicha[8].

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi sinonim va antonimlar o'zlarining semantik yaqinligi yoki qarama-qarshiligidan tashqari, turli uslubiy, kontekstual, pragmatik va ijtimoiy funksiyalar asosida tabaqalanadi. Bu tabaqalanish ularning til tizimidagi roli va ahamiyatini yanada oshiradi, tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi, matn tuzilmasiga stilistik rang-baranglik baxsh etadi. Sinonim va antonimlarning funksional tabaqalanishini o'rganish orqali nafaqat leksik tizimni, balki tilning ichki dinamizmi va ijtimoiy-lingvistik xususiyatlarini ham chuqur tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirzaahmedov M. *Hozirgi o'zbek tilida antonimlar*. Toshkent: Fan 1986-yil.
2. Yo'ldoshev M. *Hozirgi o'zbek tilining leksikologiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2006-yil.
3. G'anieva N. *Hozirgi o'zbek adabiy tili: leksikologiya va frazeologiya*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti 2008-yil.
4. Umarov S. (1999). *O'zbek tilining uslubiy imkoniyatlari*. Toshkent: Fan.
5. Karimov O. (2012). *O'zbek tilida sinonimlarning semantik va uslubiy xususiyatlari*. Ilmiy maqola. // *Filologiya masalalari*, №2.

6. Krysin L. P. (1974). *Stilistika. Sovremennogo russkogo yazyka*. Moskva: Nauka.
7. Vinogradov V. V. (1977). *Russkiy yazyk. Grammatikicheskoe uchenie o slove*. Moskva: Nauka.
8. Lyons J. (1981). *Language and Linguistics: An Introduction*. Cambridge University

FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TUZILISHIDA EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI

Nurmatova Durdona Shuxrat qizi

Tayanch doktorant

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti

durdona97531@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada frazeologik birliklarda ekspressivlikning semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ularning ma'nosida signifikativ, denotativ va konnotativ komponentlarning o'zaro aloqasi hamda konnotatsiyaning emotsional, baholovchi va ekspressiv jihatlariga qaratiladi. Shuningdek, frazeologizmlarning matnda uslubiy vazifasi, ekspressivlik yaratishdagi roli ham ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy tilshunoslarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar Frazeologizmlar, ekspressivlik, semantika, konnotatsiya, denotatsiya, signifikatsiya, emotsionallik, stilistika.

Аннотация

В статье анализируются семантические и стилистические особенности проявления экспрессивности фразеологических единиц. Основное внимание уделяется взаимодействию сигнификативного, денотативного и коннотативного компонентов в их значении, а также эмоциональным, оценочным и экспрессивным аспектам коннотации. Кроме того, рассматриваются стилистические функции фразеологизмов в тексте и их роль в создании экспрессивности. В исследовании проводится сравнительный анализ взглядов отечественных и зарубежных лингвистов.

Ключевые слова Фразеологизмы, экспрессивность, семантика, коннотация, денотация, сигнификация, эмоциональность, стилитика.

Abstract

The article examines the semantic and stylistic features of expressiveness in phraseological units. Special attention is given to the interaction of the significative, denotative, and connotative components of meaning, as well as to the emotional, evaluative, and expressive aspects of connotation. The stylistic functions of phraseological units in the text and their role in creating expressiveness are also

discussed. The study provides a comparative analysis of the views of both local and foreign linguists.

Key words Phraseological units, expressiveness, semantics, connotation, denotation, signification, emotionality, stylistics.

Kirish

Zamonaviy lingvistikaning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri frazeologik birliklarning semantik va stilistik xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir. Chunki frazeologizmlar til tizimining o'ziga xos qatlamini tashkil etib, ular milliy madaniyat, xalq dunyoqarashi va estetik qadriyatlarini ifoda etuvchi vosita hisoblanadi. Frazeologik birliklarning ma'nosini tahlil qilishda ikki tomonli tuzilma — mazmun plani va ifoda plani muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular birgalikda shakl va mazmun birligini ta'minlaydi. Mazmun planida signifikativ, denotativ va konnotativ aspektlar ajratiladi, ifoda planida esa frazeologik birlikning fonetik, morfologik hamda tashqi shakliy ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Frazeologizmlarning ahamiyati shundaki, ular kuchli ekspressiv vosita sifatida xizmat qiladi. Ular matnga emotsionallik, obrazlilik va baholovchanlik qo'shib, muallifning shaxsiy munosabatini ifodalash imkonini beradi. Shu boisdan frazeologizmlar lingvistik tadqiqotlarda nafaqat semantik birlik, balki stilistik kategoriyalarni ochib beruvchi fenomen sifatida ham o'rganiladi.

Mazkur maqolada frazeologik birliklarning ma'nosini tahlil qilishda signifikativ, denotativ va konnotativ aspektlarning o'zaro uyg'unligi, shuningdek, konnotatsiyaning emotsional, baholovchi va ekspressiv komponentlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida Kunin, Benevist, Amosova, Vinogradov, Axmanova, Arnold kabi tilshunoslarning ilmiy qarashlari asos sifatida olinadi. Shu bilan birga, frazeologizmlarning nominativ-kommunikativ xususiyatlari va kontekstdagi roli ham alohida ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism

Frazeologik birliklar nafaqat til birliklari sifatida, balki kuchli ekspressiv vosita sifatida ham e'tiborni tortadi. Ular matnga emotsional, obrazli va baholovchi rang berib, muallifning shaxsiy munosabatini namoyon etishga xizmat qiladi. E.Benevistning fikricha frazeologizmlar tildagi antroposentrizmning asosi bo'lgan subyektivlikni, ya'ni insonning nutq orqali anglash va axborotni qayta ishlash, o'z ma'naviy dunyosi va uni o'rab turgan obyektiv voqelikni mukammallashtirishga intilishini yaqqol namoyon etuvchi til birliklaridir. [5:259-328]

Ma'noni, jumladan, frazeologik birliklarning ma'nosini tahlil qilishda ikki tomonli tuzilma mavjud: bu — mazmun plani va ifoda plani. Mazmun planida uchta asosiy aspekt farqlanadi: signifikativ, denotativ va konnotativ. Ifoda rejasi esa frazeologik birlikning moddiy shaklini, ya'ni uning nutqdagi fonetik-morfologik ko'rinishini anglatadi. Shu ikki tomon — mazmun va shakl — frazeologik birlikning ichki mohiyati va tashqi ko'rinishi o'rtasidagi uyg'unlikni, ya'ni shakl va mazmun birligini tashkil qiladi. [11:310]

Signifikativ aspekt — bu frazeologik birlik orqali beriladigan umumiy informatsion hajm bo'lib, u til tashqarisidagi voqelikdagi muayyan tushuncha yoki hodisaga nisbatan anglanadi. Denotativ aspekt — frazeologik birlikning real nutqda ma'lum bir shaxs, predmet, holat, harakat yoki voqea bilan bog'liq bo'lgan predmetiy mazmunini bildiradi. Ushbu predmetiy bog'liqlik keng qamrovli bo'lib, u aniq vaziyat yoki kontekst bilan belgilanadi. Konnotativ aspekt esa frazeologik birliklarning stilistik xususiyatini, ularning emotsional va ekspressiv yo'nalishini tashkil etadi. Bu jihat til egasining til vositalari orqali ifodalangan voqeliklarga bo'lgan munosabatini bildiradi yoki bahosiz holda ifodaning ta'sirchanligini kuchaytiradi. Mazkur uchlikning o'zaro nisbati frazeologik birliklarning turli turlarida bir xil bo'lavermaydi. Masalan, muayyan tilshunoslikda yagonalikni anglatuvchi frazeologik birliklarda signifikativ va denotativ aspektlar mutanosib tarzda uyg'unlashgan bo'ladi. Bunga *“The Swan of Avon”* (Eyvon oqqushi) frazeologizmi misol bo'la oladi — u mashhur ingliz dramaturgi Uilyam Shekspirni anglatadi (Shekspir tug'ilib o'sgan va dafn etilgan joy — Stratford-upon-Avon). Bu yerda mazmun - Shekspir obrazining ideallashtirilgan ifodasi va ifoda - frazeologik shakl bir butun holda uyg'unlashgan.

Frazeologik ma'no, mohiyatan, ideal (g'oyaviy) va moddiy (shakliy) tomonlarning o'zaro aloqasidir. Bu esa frazeologik birlikning semantik strukturasida designat bilan tuzilmaning birligidan iborat bo'lib, uni tilning frazeologik mikrosistemi doirasida ko'rib chiqish mumkin.

Frazeologik birlik ma'nosi ya'ni frazeologik ma'noning ajralmas komponenti sifatida olimlar konnotatsiyani keltiradilar. Semantik nuqtai nazardan konnotatsiya tor va keng ma'noda ko'rib chiqiladi. Axmanova konnotatsiyani so'z yoki birikmaning qo'shimcha ma'nosi, asosiy ma'noga qo'shimcha yuklanadigan semantik va stilistik ma'no turlari deb atab, turli ekspressiv-emotsional va baholovchan obertonlarni ifodalash orqali ifodaga tantanavorlik, o'yinqaroqlik, erkinlik tuslarini berish uchun xizmat qilishini ta'kidlagan. [4:203-204]

Emirova [6:48] frazeologik ma'noni idiomatik ma'no bilan ayni tushuncha hisoblaydi. U mazmun plani kategoriyasi bo'lib bir qancha belgi-hususiylar: so'zlovchining ruhiy va sotsial holatini, emotsional va mantiqiy baho-munosabatini, uning tinglovchiga nisbatan muloqotdan ko'zlangan maqsadini o'zida jamlaydi. Konnotativ-pragmatik element frazeologik ma'noning tarkibiy qismi hisoblanadi. U frazeologizmning asosiy ma'nosiga qo'shimcha tarzda emotsional, ekspressiv va baholash tuslarini qo'shadi.

Emirovaning fikricha frazeologik ma'noning kategorial hususiylari uning muloqotdagi roli ya'ni kommunikativ aspektiga murojaat qilish orqali ochib berilishi mumkin. Muloqot jarayoni nominatsiyaga, ya'ni insonning klassifikatsiyalash faoliyatida ma'lum predmet, hodisalarni ajratib olish va ularni til vositalari yordamida nomlashga asoslanadi. Shuning uchun ham semantik tahlilga kommunikativ yondashuv bu nominativ-kommunikativ yondashuv bo'lib u so'zlovchining obyektiv voqelik haqidagi bilimlari va tinglovchiga nisbatan maqsadini aks ettiradi. Frazeologizmlarning nominativ-kommunikativ jihati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan semiologik va lingvistik aspektlarda o'rganilishni taqozo etadi. Semiologik aspekt quyidagi masalalarni qamrab oladi: frazeologizmlarning tildagi funksiyalari, ularning konseptual yadro va konnotatsiyalarning o'zaro munosabatlari semantik strukturasi, frazeologik nominatsiya obyekti, idiomalar qamrab oladigan obyektiv voqelik sohalari doirasi, idiomatik ma'noning yuzaga kelishi va nutqda ifodalanishi zahirida yotuvchi mantiqiy-psixologik jarayonlar va b. Frazeologik ma'noning lingvistik aspekti esa avvalo uning ma'no turi sifatidagi hususiylarini aniqlashdan iboratdir. Bundan tashqari frazeologik nomintasiya turini belgilash, ya'ni frazeologizmlar voqelikni qanday ifodalashi: mustaqil ravishda (bevosita nominatsiya) yoki boshqa nom orqali (bilvosita nominatsiya) nomlashini aniqlash; idiomalar sinfidagi tipik kategorial-grammatik (so'z turkumlariga hos) ma'nolarni hamda frazeologik predikat tipologiyasi va boshqa jihatlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. [6: 46]

N.N.Amosovaga (1:26) ko'ra ingliz tili uchun kontekstning ahamiyati katta. Bu uning grammatik tuzilishiga borib taqaladi. Analitik til sifatida ingliz tilida morfologik shakl o'zgartirish imkoniyatlari juda chegaralangan. Bu esa shakldoshlik va leksik-grammatik omonimlar sonining ko'pligiga sabab bo'lgan. Yu.P.Kostyuchenko xulosa qilishicha grammatik omonimiya ingliz tili grammatik tuzilishining organik hususiyatiga aylanib ulgurgan.

Kontekst tahlili ingliz tili soʻz boyligini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega, chunki frazeologik birlik leksik birlik hisoblanadi va shu sababli ham kontekst tahlili tilning frazeologik fondi uchun ham taaluqlidir.

V.V.Vinogradov [15:49] aytishicha “koʻp soʻzlar yoki ularning alohida koʻchma va sinonimik maʼnolari bogʻlanish jihatidan chegaralangan soʻz maʼnolarining koʻpchiligi atrofida bir necha frazeologik qatorlar boʻladi. Soʻz maʼnolarining koʻpchiligi frazeologik bogʻlangandir. Soʻzning bir necha maʼnoga egaligi uning semantik chegaralangan bir necha frazeologik birikmalarga birika olishini anglatadi” bundan kelib chiqib, N.N.Amosova har qanday soʻz birikmasi elementlari bir-biri bilan semantik bogʻlangan boʻlsa uni frazeologik birikma deb hisoblaydi. Shunga asoslanib soʻzlar orasida kontekstual munosabatlarni frazeologik munosabat deya ataydi.

Kontekstual, yaʼni Vinogradov va Amosova fikriga koʻra frazeologik maʼno frazeologik birikmaga aloqador deb qaralishi lozim. Soʻzlar orasidagi kontekstual yoki frazeologik munosabat nutqda eng keng tarqalgan, doimiy uchraydigan semantik bogʻliqlik sifatida koʻriladi. Bundan kelib chiqadiki, nutq bu - frazeologik birikmalar yigʻindisidir, bu ayniqsa ingliz tili uchun taalluqli chunki unda kontekst juda muhim. Bunday holda frazeologiya nutq birliklarining oʻziga hos turgʻun birikmalari haqidagi fandan soʻzlarning nutq birligi sifatida kontekstual guruhlar, yoki undan ham kengroq – soʻzlarning kombinatorik valentligi [kontekstologiya] haqidagi fanga aylanadi.

Soʻzlarning kontekstual bogʻliqligi deb ularning oʻzgaruvchan kontekstda semantik shartlanganligi [soʻz maʼnosining kontekstga bogʻliqligi] tushuniladi. Frazeologik bogʻliqlik yaʼni, frazeologik birlik tarkibidagi soʻzlarning mustahkam semantik va sintaktik aloqasi esa doimiy, muntazam kontekstda semantik shartlanganligidir. Bunga asosan frazeologiya doimiy kontekst birliklari haqidagi fan deb belgilanadi. [1:34]

Soʻzning maʼnosi koʻpincha odatiy kontekstlardan — muloqot yoki vaziyatga oid — kelib chiqadigan murakkab assotsiatsiyalar taʼsirida shakllanadi. Bu assotsiatsiyalar, soʻzlovchi va tinglovchiga ayon boʻlgan holda, soʻzga konnotativ maʼno bagʻishlaydi. Denotativ maʼno bilan uning amaliy ifodasi — konnotatsiya oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir grammatik va leksik maʼnolar orasidagi bogʻliqlikdan kam murakkab emas. Konnotativ komponent majburiy emas, yaʼni baʼzi hollarda u umuman boʻlmasligi mumkin, yoki boʻlsa ham, uning mantiqiy (logik) maʼnoga nisbatan ulushi har xil boʻladi.

Axborot tarkibidagi so'zlarda nutq predmetini ifodalovchi denotativ ma'noga qo'shimcha ravishda konnotativ ma'no (konnotatsiya) ham mavjud bo'lib, u emotsional, ekspressiv, baholovchan va funksional-uslubiy komponentlardan iborat. Konnotativ ma'no uzual (doimiy) yoki okkazional – kontekstga bog'liq bo'ladi. Konnotatsiya leksik ma'noning tarkibiy qismi hisoblanadi va uni assotsiatsiya (implikatsion aloqa, implikatsional) bilan adashtirmaslik zarur. Tilda axborotning bu ikki turi o'rtasidagi farqni til funksiyalari orqali asoslash mumkin. Birinchisi tilning intellektual-kommunikativ funksiya bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi qolgan barcha funksiyalar: emotiv; volontativ (pragmatik); appelyativ; aloqa o'rnatuvchi; estetik funksiyalar. [2: 8]

Frazeologik birlik ma'nosi ya'ni frazeologik ma'noning ajralmas komponenti sifatida olimlar konnotatsiyani keltiradilar. Semantik nuqtai nazardan konnotatsiya tor va keng ma'noda ko'rib chiqiladi. Axmanova konnotatsiyani so'z yoki birikmaning qo'shimcha ma'nosi, asosiy ma'noga qo'shimcha yuklanadigan semantik va stilistik ma'no turlari deb atab, turli ekspressiv-emotsional va baholovchan obertonlarni ifodalash orqali ifodaga tatanavorlik, o'yinqaroqlik, erkinlik turlarini berish uchun xizmat qilishini ta'kidlagan. [4:203-204]

Arnold konnotatsiyani quyidagicha ta'riflaydi: so'zlovchining ijtimoiy vaziyatga va mos funksional uslubga bo'lgan munosabati (utter- say), predmetga bo'lgan ijobiy yoki salbiy bahosi (*gang – group*), his-tuyg'ulari (*granny – grandmother*) yoki ifodaning intensivlik darajasi (*hate – dislike*) haqidagi axborotni bildiruvchi ma'no.[1: 40]

Konnotatsiya – bu til birligi semantik yoki grammatik tarkibiga qo'shimcha tarzda kiradigan, empirik va madaniy tarixiy bilimlar asosida nutqqa ekspressivlik [ifodalilik] beradigan ma'nodir. Konnotativ axborot til va nutq birliklarida asosiy mazmunga qo'shimcha sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklarning semantik jihatdan ahamiyatli tomonidan farqli o'laroq, konnotativ jihati ko'pincha haqiqatdagi emas, balki odamlar tomonidan ob'ektga nisbatan tayinlangan belgilarni bildiradi. Shu sababli frazeologik birliklar ekspressiv vosita sifatida xizmat qila oladi.

I.V.Arnold talqiniga ko'ra so'zning kontekstual leksik ma'nosi deganda, til tizimi vositalari orqali tushuncha, emotsiya yoki real borliqdagi predmetni ifodalash tushuniladi. Bunday kontekstual ma'noning murakkabligi, ayniqsa, uning denotativ va konnotativ ma'nolarni birlashtirishida namoyon bo'ladi. Konnotatsiya ixtiyoriy bo'lib, emotsional, baholovchi, ekspressiv va funksional-stilistik tarkibiy qismlarni o'z ichiga

oladi. Bular bir soʻzda toʻliq yoki turli kombinatsiyalarda namoyon boʻlishi mumkin, ular uzual yoki okkazonal boʻlishi mumkin.

Soʻzning leksik maʼnosi – bu til tizimi vositalari orqali tushuncha, emotsiya yoki munosabatni ifodalashdir. Tushuncha real voqelikni aks ettiradi va leksik maʼno bilan bogʻliq, biroq ular aynan bir narsa emas: leksik maʼno lingvistik tabiatga ega boʻlib, ekspressiv, emotsional va boshqa konnotativ komponentlarni oʻz ichiga oladi.

Leksik maʼno denotativ va konnotativ qismlardan iborat boʻlib, birinchisi – majburiy, ikkinchisi – ixtiyoriydir. Konnotatsiyaning emotsional, baholovchi, ekspressiv va stilistik komponentlari boʻlishi mumkin, ular toʻliq yoki qisman namoyon boʻlishi, yoki umuman boʻlmasligi mumkin.

Emotsional komponent soʻzda qandaydir tuygʻuni ifoda etadi: quvonch, gʻam, xavotir, nafrat, sevgidir. U uzual yoki okkazonal boʻlishi mumkin. Bunday soʻzlar, ayniqsa, undov soʻzlar – sof emotsional soʻzlar – orqali kuchli ifodalanadi.

Baholovchi komponent esa soʻz orqali ijobiy yoki salbiy munosabatni bildiradi. Masalan, *“time-tested method”* – ijobiy; *“out-of-date method”* – salbiy. U koʻpincha lugʻaviy taʼrifda ham aks ettiriladi. Masalan, *“sneak”* – “yashirincha va odatda yomon niyat bilan harakat qilish”.

Ekspressiv komponent esa tasvirlash, kuchaytirish yoki obrazlilik orqali ifodani kuchaytiradi. Masalan: *“She was a thin, frail little thing...”*. Koʻpchilik ingliz leksikograflari ekspressivlik va emotsionallikni farqlamasa-da, ular bir-biriga bogʻliq boʻlsada, aynan bir narsa emas. Masalan, intensifikatorlar [absolutely, really, frightfully] obrazli va kuchaytiruvchi ekspressivlikni ifoda etadi. Ularning bir qismi keng kontekstda ishlatilsa *“a terrific shock”*, boshqalari cheklangan *“a severe frost”*.

Soʻz stilistik komponent yoki stilistik konnotatsiyaga ega boʻlishi uchun u maʼlum bir funksional uslub va soha bilan bogʻliq boʻlishi va shu uslub yoki sohaga oid kontekstda qoʻllanilmasa ham ularga tegishliligi anglashilishi kerak. Stilistik konnotatsiya soʻz predmetining real sohalar bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Ogʻzaki nutqda emotsional, ekspressiv, baholovchi va stilistik komponentlar koʻpincha birga uchraydi, lekin ularni aynilashtirish notoʻgʻri – ularning har biri mustaqil va alohida koʻrinishlarda namoyon boʻlishi mumkin. [1:113]

Xulosa

Frazeologik birliklar til tizimining murakkab va rang-barang qatlamini tashkil etib, ularning semantik va stilistik xususiyatlarini oʻrganish tilshunoslik uchun muhim

nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ekspressivlik **til birliklarining semantik tarkibi orqali** ifodalansa-da, **namoyon bo'lishi matnda stilistik funksiyasi ko'rinishida** yuz beradi. Ularning ma'nosida signifikativ, denotativ va konnotativ komponentlarning uyg'unlashuvi frazeologizmlarni oddiy so'zlardan farqlab turadi. Xususan, konnotatsiyaning emotsional, baholovchi va ekspressiv jihatlari frazeologizmlarning matnda obrazlilik, ta'sirchanlik va uslubiy boylik yaratishiga xizmat qiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar faqat nominativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki matnda muallifning individual uslubini belgilovchi, o'quvchiga estetik zavq bag'ishlovchi kuchli vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Tilshunoslarning ilmiy qarashlari shuni isbotlaydiki, frazeologizmlar milliy tilning stilistik imkoniyatlarini kengaytirib, uning emotsional-ekspressiv salohiyatini oshiradi. Shu sababli ularni lingvistik jihatdan atroflicha tadqiq etish nafaqat nazariy lingvistika, balki amaliy stilistika uchun ham dolzarb hisoblanadi. Frazeologizmlar orqali xalqning madaniy-milliy qadriyatlari, mentaliteti va badiiy-estetik dunyoqarashi ifoda etilishi ularni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik doirasida ham chuqur o'rganishni taqozo etadi. Kelgusida frazeologizmlarning kommunikativ-pragmatik vazifalarini yanada kengroq tahlil qilish, ularning zamonaviy diskursdagi funksional imkoniyatlarini ochib berish lingvistikaning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amosova N.N. [1963] Osnovi angliyskoy frazeologii. Izdatelstvo leningradskogo universiteta.
2. Arnold, I. V. [1986]. The English Word: A Linguistic and Stylistic Approach. Moscow: Vysshaya Shkola.
3. Arnold, I. V. [1981]. Stilistika sovremennogo russkogo yazika. Ленинград. «Просвещение» ленинградское отделение.
4. Axmanova O.S. [1957]. Ocherki po obshey i russkoy leksikologii. 242-bet
5. Benvenist, E. Obshaya lingvistika / Под ред. Степанова Ю. С. – М.: Прогресс, 1974. – 447 с.
6. Galkina-Fedoruk E.M. [1958] Ob ekspressivnosti i emotsionalnosti v yazyke. Сборник статей по языкознанию. — М.: Наука, 1958. — С. 103-124
7. Galperin, I. R. [1981]. Stylistics. Moscow: Higher School Publishing House.

8. Emirova A. [2020] Russkaya frazeologiya. Monografiya. Simferopol nashriy mir. 46.
9. Kiselyova L.A. [1978] Вопросы теории речевого воздействия. — Л.: ЛГУ, 1978.
10. Kunin, A. V. [1996]. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka [3-e izd.]. Dubna: Feniks.
11. Kunin, A. V. [1970]. Angliyskaya frazeologiya. Moskva. Vysshaya shkola.
12. Nasirova G.M [2024] Olamning lisoniy manzarasida emotsional konseptlar. Monografiya. Andijon. “Jahona-nashr”
13. Nikitina, S. E. [1988]. Frazeologizmy v sisteme stilisticheskikh sredstv. Moskva: Nauka.
14. Shmelyov, D. N. [1977]. Stilisticheskaya grammatika russkogo yazyka. Moskva: Nauka.
15. Vinogradov, V. V. [1947]. Russkiy yazyk: Grammaticheskoe uchenie o slove. Moskva–Leningrad: AN SSSR.
16. Vinogradov, V. V. [1953]. Основные типы лексических значений слова. ВЯ, №5Б стр 12.

QASHQDARYO VILOYATIDAGI ANTROTOPONIMLAR TADQIQI.**Abduraxmanova Zumrad Normurot qizi**

Chirchiq davlat pedogogika universiteti

1-bosqich mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda muhim sohalardan biriga aylanib borayotgan toponimika, uning muhim bo'lagi hisoblangan antrotoponimlar, ularning lug'aviy birlik sifatidagi ahamiyati, hamda Yakkabog' tumanidagi shaxs nomi bilan bog'liq antrotoponimlar tadqiq qilinadi. Shaxs nomi bilan bog'liq nomlarning ziyorat obyektiga aylanishiga oid qarashlarni antropotsentrik, sotsiolingvistik, semantik, tarixiy-etimologik jihatdan butun bir tizim sifatida tahlil qilinadi. Har bir antrotoponim paydo bo'lishi bilan bog'liq barcha jihatlar qamrab olinib, kompleks bir tizim sifatida o'rganiladi.

Kalit so'zlar. Toponimika, antrotoponim, areal lingvistika, onomastik birliklar.

Abstract. This article examines toponymy, which is becoming one of the important areas in linguistics, its important part, anthropotoponyms, their significance as a lexical unit, and anthropotoponyms associated with the name of a person in Yakkabog district. Views on the transformation of names associated with a person's name into objects of pilgrimage are analyzed as a whole system from an anthropocentric, sociolinguistic, semantic, historical-etymological point of view. All aspects related to the emergence of each anthropotonym are covered and studied as a complex system.

Keywords. Toponymy, anthropotonym, areal linguistics, onomastic units.

Аннотация. В статье рассматривается топонимия, которая становится одним из важных направлений в языкознании, её важная часть, антропотопонимы, их значение как лексической единицы, а также антропотопонимы, связанные с именем человека в Яккабагском районе. В целостной системе анализируются взгляды на трансформацию названий, связанных с именем человека, в объекты паломничества с антропоцентрической, социолингвистической, семантической и историко-этимологической точек зрения. Все аспекты, связанные с возникновением каждого антропотопонима, рассматриваются и изучаются как комплексная система.

Ключевые слова: Топонимия, антропотопоним, ареальная лингвистика, ономастические единицы.

Kirish. Bugungi kunda toponimika sohasida barcha davlatlarda keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Chunki tarix, geografiya, etimologiya, tilshunoslik kabi fanlarning omixtasi hisoblangan toponimika, uning birliklarini o'rganish orqali ma'lum hududga xos ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, etnik jihatlarini o'rganish mumkin. Ayniqsa, toponimlarni lingvistik jihatdan o'rganishga doir tilshunoslikda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Dunyo tilshunosligida lingvistik, tarixiy, geografik toponimika, areal lingvistikaga oid izlanishlar yuzaga kelmoqda. Toponimlarni lisoniy jihatdan tahlil qilish, ayniqsa, semantik xususiyatlarini o'rganish xalqning milliy, etnik, ijtimoiy siyosiy, madaniy tarixini, tilning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda; nominativ, kommunikativ, akkumulyativ funksiyalari mohiyatini aks ettirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Toponimlarni lingvistik aspektda o'rganish, leksik birlik sifatidagi nomlash xususiyatlarini tahlil qilish, onomastik birliklar semantikasini yoritish, tarixiy, madaniy, uslubiy semalarni tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimizda o'zbek tili toponimikasi ancha rivojlangan bo'lsa-da, respublikamizning ko'pgina hududlari, jumladan Qashqadaryo viloyati antroponimlari ularning lingvistik xususiyatlari hozirga qadar bir tizim sifatida o'rganilmagan. Maqolada ayni shu jihatga ahamiyat qaratiladi.

Tilshunoslikda har bir narsaning o'z nomi bor. Xoh u biror narsa bo'sin, xoh biror obyekt. Chunki shu nom orqaligina ular bir-biridan farqlanadi. Joy nomlari ham xuddi shu tariqa vujudga kelgan. Joy nomlari tilshunoslikda toponim, uni o'rganuvchi soha esa toponimika deb yuritiladi. Toponimika yunoncha topos-joy, onoma (yoki onima) -nom so'zlaridan tarkib topgan. Toponimika joy nomlari, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui - toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimika geografiya, tarix, etnografiya bilan chambarchas aloqada rivojlanadi. Toponimiya til tarixi (tarixiy leksikologiya, dialektologiya, etimologiya va boshqalari)ni tadqiq etishda muhim manba bo'lib hisoblanadi, chunki ba'zi toponimlar (ayniqsa, gidronimlar) arxaizm va dialektizmlarni o'zgartirmasdan barqaror saqlab qoladi, ko'pincha muayyan hududda yashagan xalqlarning substrat tillariga borib taqaladi. Toponimika xalqlarning tarixiy o'tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashda muhim manba hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatidagi antroponimlar ham o'zida shu kabi xususiyatlarni jamlaydi.

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida jami Davlat kadastr ro'yxatida turuvchi 21 ta va aholi tomonidan ixlos qilinib ziyorat qilinuvchi bir qancha ziyoratgohlar mavjud. Ularni biz quyidagi jadvalga nomlanishi jihatdan guruhlab chiqqanmiz.

T.r	Ziyoratgoh nomi	So'z yasalishi	Ma'noviy guruhi
1	Imom Abu Yusuf	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
2	Xo'jailg'or	Ikki komponentli	Said nomi bilan aloqador nomlar
3	Chillabuloq	Ikki komponentli	E'tiqod bilan bog'liq nomlar
4	Bobo Shodi Shayx	Bir komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
5	Xo'jagul momo	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
6	Sadir ota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
7	Mallaxon	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
8	Darxon momo	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
9	Makkasaidota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
10	Saxovat	Bir komponentli	E'tiqod bilan bog'liq atalgan
11	Maxmudxon avliyo	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
12	Shodi Sayx Valiy	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
13	Buzrukota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
14	Sheroz tepaligi	Bir komponentli	Kishi ismi bilan atalgan

15	Usmontepa	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
16	Tezobota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
17	Toshmozor	Ikki komponentli	Qabr va mozorlar nomi bilan bog'liq nomlar
18	Jamol ota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
19	Beshtoshota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
20	Ko'ktoshota	Ikki komponentli	Kishi ismi bilan atalgan
21	Tolibuloq	Ikki komponentli	E'tiqod bilan bog'liq nomlar

Yuqorida biz joy nomlarini tuzilishi va ma'nosiga ko'ra guruhlariga ajratdik. Hozir nomning kelib chiqishi, leksikasiga oid qarashlarni ko'rib chiqamiz. Shaxs nomiga aloqador bo'lgan ko'p nomlarda buyuk sarkarda Amir Temur nomi bilan bog'liq. Chunki bu buyuk siymo juda ko'plab aziz avliyolar hokini olib kelib maqbara bunyod qilganlar. Shu kabi buyuk shaxslar qatoriga hazrat Imom Abu Yusuf nomi ham o'rin olgan. Imom Abu Yusuf tarixiy shaxs Abu Yusuf nomi bilan mashhur bo'lgan alloma buyuk faqih, muhaddis va mujtahid olim bo'lgan. Allomaning Yusuf ismli o'g'li bo'lib, shu bois uni "Abu Yusuf" (Yusufning otasi) deb chaqirilgan. Abu Yusuf islom tarixida ilk bor "Qozi al-quzot" (buyuk qozi) nomiga sazovor bo'lgan olimdir. O'n olti yil qozilik qiladi. Abul Faraj ibn Javziy aytadi: "Abu Yusuf rahmatullohi alayhning faqat hadis ilmiga cheklanibgina qolmagan, o'tkir zehnga ham ega bo'lganliklaridan jihatidan ummatning eng buyuk kishilari qatorida zikr qilinadi, bir majlisda ellik va oltmishta hadisni eshitib, so'ngra uni xuddi eshitgani kabi isnodlari bilan aytib bera oladigan inson bo'lgan.¹ Bu kabi azizlar juda ko'plab yurtimizda. Nom antratonim so'zning har bir elementini tahlili qilganda "Imom" so'zi arabcha "امام" (imam) so'zidan olingan bo'lib, "oldinda turuvchi" degan ma'noni bildiradi. Islom dinida imom bu ro'bardan tashqari, bir qancha ma'nolarni anglatadi, jumladan, jamoadagi o'rta chiqib namoz o'qib beruvchi rahbar, diniy yetakchi yoki oliy diniy mansabdor kishi. Yusuf" so'zining ma'nosi "o'sgan, ko'paygan" degan ma'noni anglatadi, bu

¹ <https://oliymahad.uz/40158>

nomi qadimiy yahudiycha Iosif nomining arabcha shaklidir. Bu nom Sharq madaniyatida go'zallik va hushro'ylik timsoli bo'lib, Yusuf payg'ambarning ismi hisoblanadi². Manbalar ma'lumotlariga qaraganda Imom Abu Yusuf ziyoratgohi shaxs nomi bilan bog'liq muqaddas siymo.

Xo'jailg'or ziyoratgohi bu ziyoratgoh ham Amir Temur nomi bilan uzviy aloqador. Buyuk sohibqiron Amir Temur ayni shu qishloqda dunyoga kelgan. So'z xo'ja va ilg'or komponentlaridan tashkil topgan. **Xo'ja**— ko'p ma'noli termin. Ma'nolari:

- Xo'ja — forsiy unvon. Shuningdek turkiy tilli xalqlarda ham qo'llaniladi.
- Xo'jalar — arabistondan islom dinini olib kelgan arablar kelib chiqqan markaziy osiyadagi shajara, urug'.³ Ilg'or oldinda boruvchi, "peshqadam". Ilg'or ishchilarga har oyda mukofot berib turildi. Asli qadimgi turkiy tilda "old" ma'nosini anglatgan il otining il shaklidan -g'a qo'shimchasi bilan yasalgan ilg'a- ("oldinga bor") fe'li mavjud bo'lib, -r qo'shimchasini qo'shib bu fe'lning sifatdash shakli hosil qilingan ("oldinda boruvchi"); bu sifatdash ma'no taraqqiyoti natijasida sifatga aylangan; o'zbek tilida a unlisi a unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: (il + g'a = ilg'a-) + r "ilg'ar" "ilg'âr."⁴ Demak, nomdan anglashilgan ma'nodan ko'rinib turibdiki, islom dinini o'rgatuvchi, boshchi degan ma'noni anglatgan. Tarixan ma'lumki, bizni xalqimiz islom dinini o'rgatgan shaxslarni juda qadrlaganlar va ularning qabrlarini ziyoratgohga aylantirganlar. Yuqoridagi nomlarning ko'pchiligi shunday azizlarning qabrlari sanaladi.

• Ziyoratgohlarni Sanobar Jo'rayeva tadqiqotiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Aziz avliyo va pir maqomidagi nomlar: Imom abu Yusuf, Buzrukota, Mahmudxon avliyo, Toshmozor;
2. Islom olamiga hissa qo'shgan shaxslar : Shodi Shayx Valiy;
3. Tasavvuf tariqati vakillari nomlari: Bobo Shodi Shayx;
4. Xo'ja va sahobalar nomlari bilan bog'liq nomlar: Xo'ja Ilg'or, Makkasaidota;
5. Afsona, rivoyatlar nomlari: Tollibuloq, Chillibuloq, Ko'ktoshota, Sheroz tepaligi;

https://www.google.com/search?q=yusuf+so%27zining+ma%27nosi&sca_esv=ac9cdcd271fad40e&sxsrf=AE3TifNW4r_9XiDltXIElBdt0UuLrSySdQ%3A1759076699386&ei=W2HZaN-wF468wPAPmZf40A0&oq=yusufso

³ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xo%CA%BBja_\(ma%CA%BCnolari\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xo%CA%BBja_(ma%CA%BCnolari))

⁴ <https://uz.wiktionary.org/wiki/ilg%CA%BBor>

• 6. Alohida kishi nomi bilan saqlanuvchi nomlar: Sadir ota, Xo'jagul momo, Mallaxon, Darxon momo, Tezob ota, Usmontepa, Jamol ota.

Har bir nomning kelib chiqishiga ko'ra yuqoridagicha nomladik. Ma'lum leksik xususiyatlari ham shu guruh orqali anglash mumkin. Ba'zi nomlar izohini keltirib o'tamiz;

Chillabuloq – Yakkabog' tumanidagi ziyoratgoh nomi. Tarkibi: chilla + buloq. Chilla (f-t) – yosh bolaning qirq kunlik chaqaloqligi davrida badaniga chiqadigan yara, toshma; umuman, katta yoshli odamlarda ham chiqadigan yara turi. Chillabuloq – suvi shifobaxsh, yarani tuzatadigan minerallari bo'lgan suvli buloq. Ziyoratgoh nomi insonlar uchun foydali suv maskani bo'lgan joyga ko'ra nomlangan.

Toshmozor-toshdan qilingan mozor. Buyuk avliyolar qabri joylashgan muqaddas maskan. Bu yerda juda ko'pchilik kelib ziyorat qilib ketad. Ko'rinib turibdi, har bir nomning o'ziga xos sememasi va yasali sh qonuniyati bilan bir qatorda uning yarali sh etimologiyasi ham bir-biridan kata farq qiladi. Jumladan, har bir nom bir sir, nom orqali tarixni ham bilish mumkin. Shunday ekan har qanday nomning yasali sh tarixini, undagi ma'no semalarini o'rganish orqali biz juda ko'plab bilimlarga ega bo'lib boramiz. Ayniqsa, ziyorat obyektlari nomlarining ko'pchiligi leksik-semantik, morfologik va etimologik jihatdan qiyoslab o'rganilmagan. Bu soha xuddi ochilmagan qo'riq singari turibdi. Shu kabi muqaddas qadamjolarini o'rganish ular haqida ma'lumot berish. Bugungi kun uchun ancha manfaatli sohalardan biri desak xato qilmaymiz. Shu kabi nomlarni o'rganib tilshunoslik sohasi rivojiga hissa qo'shish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5315060>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori. Elektron manba: <https://www.lex.uz/docs/535660>

4. Djuraeva S.N. O'zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rni. Filol. fan. b. fals. dok. diss. ...avtoref. – Toshkent, 2021, –B.9.

5. <http://geonames.kadastr.uz>

ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA O'ZLASHMA QOLIPLAR FAOLLASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI

Qodirova Difuza G'opirjon qizi,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti.

Email: godirovadilfuza3313@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilida o'zlashma qoliplar – ya'ni boshqa tillardan (asosan rus, ingliz, arab va fors tillaridan) kirib kelgan model iboralar, sintaktik konstruktsiyalar va grammatik strukturalarning faollashuvi va ularning ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi tahlil etiladi. Tadqiqotda tilshunoslikning deskriptiv, sotsiolingvistik, diskursiv va korpus asosidagi usullaridan foydalangan holda turli yosh, kasb, hududiy guruhlarda qoliplardan foydalanish darajalari, ularning grammatik va semantik integratsiyasi, hamda diskursga xos moslashuvi o'rganildi.

Kalit so'zlar: o'zlashma qolip, sotsiolingvistika, morfosintaktik moslashuv, media tili, til o'zgarishi

KIRISH

Zamonaviy o'zbek tilining taraqqiyot jarayoni ko'p qirrali va murakkab hodisa bo'lib, u faqat ichki lingvistik tizimning rivoji bilan emas, balki tashqi ijtimoiy, madaniy va kommunikativ omillar bilan ham bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda globallashuv, texnologik taraqqiyot, axborot oqimining keskin kuchayishi, madaniy integratsiya va ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga chuqur kirib kelishi natijasida o'zbek tilida boshqa tillardan, xususan ingliz, rus, arab va fors tillaridan o'zlashma birliklar va qoliplarining faollashuvi kuzatilmoqda.

Bunday o'zlashmalar orasida ayniqsa grammatik, sintaktik va morfosintaktik qoliplar tilshunoslar diqqat markazida bo'lib, ular faqat yangi leksik birliklar emas, balki butun nutq strukturalarining o'zgarishini bildiradi. O'zlashma qoliplarining tilga kirib kelishi va keng qo'llanishi zamonaviy tilshunoslikda tilning adaptiv imkoniyatlarini, ijtimoiy moslashuvchanligini va madaniy ta'sirlarga ochiqqligini ko'rsatib beradi.

Til va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikda o'zlashma qoliplar – ayniqsa yoshlar nutqida, OAV, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy hujjatlar va ta'lim sohalarida faollik kasb etmoqda. Bu jarayonni faqat leksik darajadagi o'zgarish sifatida emas, balki sintaktik, uslubiy va kommunikativ tizimlardagi muvozanatning yangilanishi sifatida ham baholash lozim.

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek tilida o'zlashma qoliplar faollashuvining ijtimoiy omillari lingvistik va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, bu qoliplarning turli ijtimoiy guruhlar (yosh, jins, kasb, hududiy tafovutlar) hamda nutqiy kontekstlarda qanday shakllanayotgani, ommalashayotgani va grammatik moslashuvi kuzatuv asosida ilmiy asoslangan misollar bilan yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy ish zamonaviy o'zbek tilida o'zlashma qoliplarning shakllanishi va faollashuv jarayonini lingvistik va ijtimoiy kontekstda tadqiq qilishga qaratilgan. Tadqiqotda deskriptiv-lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv tahlil, korpusli tahlil, matnlararo taqqoslash, hamda statistik kuzatuv metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy tilshunoslikda o'zlashma qoliplarning (ya'ni kalkalangan frazalar, sintaktik strukturalar, barqarorlashgan iboraviy shakllar) tilda qanday shakllanishi, qanday omillar ta'sirida faollashishi va ularning me'yorlashuvi masalasi bir qator xalqaro izlanishlar markazida turibdi. Masalan, Ahmed Seddik Al-Wahy o'zining "Towards a Borrowability Scale for Phraseological Units: The Case of Arabic Calques from English" nomli maqolasida ingliz tilidan arab tiliga o'zlashayotgan frazeologik birliklarni tahlil qiladi. U o'zlashuv darajasini baholovchi "borrowability scale"[1:77] modelini ishlab chiqqan bo'lib, bunda iboralarning grammatik shakli, semantik tahlilga ochiqqligi (transparency) va morfologik parchalanuvchanligi (decomposability) asosiy mezon sifatida ko'rsatiladi. Muallifning fikricha, aynan shu omillar iboraviy qoliplarning boshqa tilga qanchalik muvaffaqiyatli ko'chirilishi va faol ishlatilishiga ta'sir qiladi. Bu tadqiqot o'zlashma qoliplar, xususan kalkalangan iboralarning strukturaviy va madaniy moslashuvini ko'rsatishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir muhim izlanish Hanna Lantto tomonidan amalga oshirilgan. Uning "Conventionalized code-switching: Entrenched semantic-pragmatic patterns of a bilingual Basque-Spanish speech style"[2:59] nomli maqolasida ikki tilli jamiyatda kod-switching holatlari tahlil qilinadi. Lantto ayrim iboralarning doimiy va barqaror qo'llanishi natijasida ularning konvensiyalashtirilgan (ya'ni me'yoriy) qoliplarga aylanishini asoslaydi. U bunday barqaror konstruktsiyalarni "semantic-pragmatic patterns" deb ataydi va ular sintaktik jihatdan ham mustahkam strukturaga ega bo'lib

borishini ta'kidlaydi. Ushbu qarash, ayniqsa, o'zbek tilida inglizcha va ruscha iboralarining takror va nutqiy ehtiyoj asosida me'yorlashayotgan holatlari bilan bevosita bog'liq.

Bundan tashqari, Binish Maqsood, Tahir Saleem, Asif Aziz va Summiaya Azam tomonidan yozilgan "Grammatical Constraints on the Borrowing of Nouns and Verbs in Urdu and English" [3:15] nomli maqolada grammatik o'zlashmalar, ayniqsa ot va fe'llarning grammatik integratsiyasi masalasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Bert Cornillie o'zining "On the pace of syntactic elaboration from Latin calques" [4] nomli maqolasida lotin tilidan ispan, golland va ingliz tillariga kirib kelgan sintaktik kalkalarning qanday jarayonlar orqali me'yorlashuvga erishishini o'rganadi. Mazkur tadqiqotlar umumiy holda quyidagi muhim xulosani asoslaydi: o'zlashma qoliplarning faollashuvi oddiy tarjima yoki leksik o'zlashuv natijasi emas, balki sintaktik, morfologik, madaniy va kommunikativ tizimlararo muvofiqlashuvdir. Ushbu jarayonlar doimiy til kontakti, sotsiokulturning bosimi, texnologik muhit va nutqiy ehtiyojlar orqali shakllanadi. Shu sababli, jahon tilshunosligidagi bunday izlanishlar o'zbek tilshunosligida ham zamonaviy grammatik adaptatsiya va qolipli iboralar ustida ishlashda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida o'zlashma qoliplar (ya'ni boshqa tillardan kirib kelgan sintaktik modellar, barqaror iboralar, kalkalangan strukturalar) ning faollashuvi masalasi tobora dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Ayniqsa, texnologik taraqqiyot, axborot oqimining global xarakter kasb etishi, madaniy interfeyslarning kuchayishi natijasida tildagi sintaktik va morfosintaktik o'zlashmalarni aniqlash va tizimlashtirishga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. So'nggi yillarda bu yo'nalishda bir qancha o'zbek tilshunoslari tomonidan qimmatli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Masalan, Umidjon Qo'ziyev o'zining "O'zbek tili korpusini yaratishda o'zlashma grammatik modellarning ajratilishi" [5:113] nomli maqolasida til korpusi asosida chet tillardan kirib kelgan grammatik qoliplarni ajratish metodologiyasini ishlab chiqadi. Unda ayniqsa rus va ingliz tillaridan o'zlashgan murakkab birliklarning sintaktik strukturasi, ularning matndagi joylashuvi va moslashuv jarayoni lingvokorpusiy metod orqali tahlil qilinadi. Muallif "loan grammatical models" atamasi ostida kirib kelgan konstruktsiyalarning o'zbekcha morfologik shakllar bilan qo'shilishi, ularning rasmiy-uslubiy nutqdagi ishlatilish chastotasini ochib beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, "qaror qabul qilindi", "loyiha amalga oshirildi", "hisobot topshirildi" kabi rasmiy qoliplarning barqarorlashuvini izohlashda metodologik asos bo'la oladi.

Shuningdek, Otabek Shukurov tomonidan yozilgan “Yangi davr o‘zlashmalarida transformatsion darajalanish”[6:210] nomli ishda o‘zbek tilida boshqa tillardan o‘zlashgan birliklar transformatsion jarayon asosida guruhlarga ajratiladi. U leksik birliklarning semantik yadrosi, grammatik vositalar orqali o‘zbek tilidagi strukturalarga moslashuvi va ayniqsa so‘z birikmalari orqali barqaror qolipga aylanishini ko‘rsatadi.

Ammo mavjud adabiyotlarda o‘zlashma qoliplarning zamonaviy ijtimoiy tarmoq tili, yoshlar va kasbiy guruhlar nutqidagi dinamikasi, morfosintaktik integratsiyasi, shahar/qishloq farqlari, ijtimoiy qatlamlarga ko‘ra faol qo‘llanilishi kabi yo‘nalishlar hali yetarli darajada yoritilmagan.

Shu sababli, ushbu maqola o‘zbek tilida o‘zlashma qoliplar faollashuvining ijtimoiy omillari, ularning strukturaviy va diskursiv xususiyatlari, yoshlar, kasbiy guruhlar, hududiy farqlarga asoslangan tarqalishini kompleks yoritishga qaratilgan bo‘lib, mavjud adabiyotlar tahlilini zamonaviy lingvistik holat bilan to‘ldiradi va ularni muayyan ijtimoiy kontekstdagi real til hodisalari bilan bog‘laydi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Zamonaviy o‘zbek tilida o‘zlashma qoliplarning faollashuvi jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, madaniy va kommunikativ ehtiyojlarning ortib borishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu holat til tizimida sezilarli grammatik va stilistik o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatishlar, matnlar korpusi asosida tahlillar, turli diskurs muhitlaridagi real nutqiy birliklarning o‘rganilishi orqali bir qator muhim xulosalar shakllantirildi.

Avvalo, o‘zlashma qoliplar oddiy leksik o‘zlashmalardan farqli ravishda tilning chuqur sintaktik va morfosintaktik qatlamlariga singib borayotgan konstruksiyalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular grammatik model, ibora, gap bo‘lagi yoki mustaqil gap ko‘rinishida qo‘llanilib, nutqda barqaror qolip sifatida shakllanmoqda. Masalan, “qaror qabul qilindi”, “onlayn ro‘yxatdan o‘tdim”, “feedback qoldirdi”, “like bosdi” kabi iboralar zamonaviy rasmiy, texnologik yoki ijtimoiy kommunikatsiyada keng qo‘llanilmoqda. Ushbu konstruksiyalar tarjima asosidagi birliklardan farqli o‘laroq, o‘zbek tilining morfologik va sintaktik tizimi bilan uyg‘unlashgan holda til tizimiga kirib bormoqda.

Tadqiqot shuningdek, o‘zlashma qoliplardan foydalanish ijtimoiy guruhlar kesimida farqlanishini ko‘rsatdi. Xususan, yoshlar nutqida ingliz tilidan o‘zlashgan iboralar faol qo‘llanmoqda. “Deadline yaqin”, “task oldim”, “get ready with me”, “vlog

olish", "story qo'yish" kabi iboralar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllangan bo'lib, sintaktik jihatdan ham o'zlashgan. O'rta avlod esa asosan rus tilidan o'zlashgan rasmiy iboralardan foydalanadi: "tizimga kiritildi", "xulosa qilindi", "yig'ilish o'tkazildi". Bu holat sovet davrida shakllangan til modeli va ma'muriy uslubning davomiyligi bilan bog'liq. Katta avlod nutqida esa arabcha-forscha diniy va badiiy iboralar ustuvor bo'lib, "ilm egasi", "duoyi hayr", "xatmi Qur'on" kabi qoliplar keng tarqalgan. Bu farqlar o'zlashma qoliplarning faolligi yoshga, lingvistik tajriba va madaniy fondga bog'liqligini ko'rsatadi.

Hududiy farqlar ham muhim omil sifatida ko'rinadi. Shahar aholisi nutqida inglizcha va ruscha zamonaviy qoliplar faol bo'lsa, qishloq hududlarida an'anaviy o'zbekcha sintaktik tuzilmalar ustuvor qolmoqda. Masalan, shaharliklar "Zoom qilamiz", "briefing bo'ldi" kabi iboralardan foydalanayotgan bo'lsa, qishloqlarda "majlis bo'ldi", "so'zga chiqdi" kabi ifodalar saqlanib qolgan. Bu holat tilning sotsiolingvistik polimorfizmini ifodalaydi, ya'ni til ichida bir vaqtning o'zida turli grammatik va stilistik qatlamlar mavjudligi va ularning faoliyat yuritishi kuzatilmoqda.

O'zlashma qoliplarning tilga moslashuvi, odatda, morfosintaktik adaptatsiya orqali yuz beradi. Bunda chet tilidan kirgan birliklar o'zbek tilining morfologik vositalari orqali moslashtiriladi. Misol uchun, "print qildim" iborasida inglizcha "print" so'ziga o'zbekcha "qil" fe'li qo'shib yangi sintaktik birlik hosil bo'ladi. Shunga o'xshash tarzda "comment yozdi" yoki "feedback berdi" iboralari ham o'zbekcha fe'l yasaliş tizimiga moslashtirilgan. Bu birliklar nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki kommunikativ qulaylik va madaniy identifikatsiya vositasi sifatida ham faol ishlatilmoqda.

Tadqiqot davomida qoliplarning diskursga xos qo'llanishi ham aniqlandi. Har bir soha o'ziga xos sintaktik qoliplarga ega. Masalan, IT sohasida "login qilmoq", "update qilish", "password kiritmoq" kabi iboralar keng tarqalgan bo'lsa, rasmiy idoralarda "hisobga olinadi", "ma'lumot berildi", "topshiriq berildi" kabi qoliplar barqaror ishlatiladi. Ta'lim diskursida esa "mavzu yoritildi", "natija aniqlandi" kabi qoliplar dominant hisoblanadi. Shuningdek, marketing sohasida "target auditoriyasi", "brend strategiyasi" kabi inglizcha asosli iboralar faol ishlatilmoqda. Bu holatlar tildagi funksional differensiallikni va qoliplarning diskursga moslashuvchanligini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy o'zlashma qoliplarning shakllanishi va tarqalishida muhim inkubator vazifasini bajarmoqda. Telegram, Instagram, TikTok va boshqa raqamli platformalarda sintaktik integratsiya va code-mixing holatlari nihoyatda keng. "Zoomga kiring", "story tashladim", "like bosdim", "tag qildim" kabi iboralar orqali

tilshunoslikda “fe’llashtirish” deb ataluvchi jarayon faol kechmoqda. Shuningdek, inglizcha ifodalar to’liq tarjima qilinmay, o‘zbek nutqiga bevosita qo‘shilmoqda: “Bugun get ready with me qilib video oldim” singari misollar buni yaqqol ko‘rsatadi. Bu iboralar tildagi uslubiy yangilanish, ekspressivlik va madaniy kodlarning shakllanishida muhim rol o‘ynamoqda.

Yakuniy xulosalarga ko‘ra, o‘zlashma qoliplar zamonaviy o‘zbek tilining grammatik va stilistik tizimiga chuqur singib bormoqda. Ularning faollashuvi yosh, kasb, ijtimoiy guruh, hududiy farqlar hamda kommunikativ kontekstga bog‘liq holda turlicha kechmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar sintaktik qoliplarning shakllanishi va ommalashuvi uchun asosiy platforma sifatida maydonga chiqmoqda. Bu qoliplar tilshunoslikda nafaqat o‘zgarish belgisi, balki tilning funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi konstruktiv vosita sifatida talqin qilinmoqda.

XULOSA

O‘zbek tilida o‘zlashma qoliplarning faollashuvi – bu til taraqqiyotining tabiiy va murakkab bosqichi bo‘lib, u faqat lingvistik emas, balki sotsiolingvistik, madaniy va kommunikativ jihatlardan ham yondashishni taqozo etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qolipli tuzilmalar leksik darajada emas, balki morfosintaktik va stilistik qatlamlarda ham chuqur ildiz otmoqda. Bunday birliklar oddiy tarjima mahsuli bo‘lmay, balki tilning ichki grammatik apparatiga moslashtirilgan holda yangi sintaktik konstruksiyalar sifatida shakllanmoqda.

Ularning kengayishi, asosan, yoshlar nutqi, ijtimoiy tarmoqlar, texnologik va rasmiy diskurslarda faol ko‘rinish topmoqda. Shuningdek, avlodlar, hududlar, ijtimoiy guruhlar va sohalar bo‘yicha bu qoliplarning tarqalishi va shakllanishi o‘ziga xos tafovutlar bilan kechmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar – o‘zlashma qoliplar uchun inkubator sifatida xizmat qilayotgan bo‘lsa, rasmiy va professional diskurslar bu birliklarning me’yorlashuv maydoniga aylanmoqda.

Shunday qilib, o‘zlashma qoliplar zamonaviy o‘zbek tili uchun tilshunoslikda faqat kontakt hodisasi emas, balki sintaktik va funksional yangilanishning barqaror omiliga aylanmoqda. Ularning tilda paydo bo‘lishi va keng qo‘llanilishi tilning moslashuvchanligi, ekspressivlik darajasi va kommunikativ samaradorligini oshirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Al-Wahy A. S. Towards a borrowability scale for phraseological units: The case of Arabic calques from English // Osool El-Din Journal. – 2022. – Vol. 22, No. 1. – P. 77–103 – URL: https://opde.journals.ekb.eg/article_249930.html
2. Cornillie B. On the pace of syntactic elaboration from Latin calques // Belgian Journal of Linguistics. – 2019. – Vol. 33, No. 1. – P. 59–84. – DOI: <https://doi.org/10.1075/bjl.00023.cor>
3. Lantto H. Conventionalized code-switching: Entrenched semantic-pragmatic patterns of a bilingual Basque–Spanish speech style // International Journal of Bilingualism. – 2015. – Vol. 20, No. 4. – P. 1–21. – DOI: <https://doi.org/10.1177/1367006914552830>
4. Maqsood B., Saleem T., Aziz A., Azam S. Grammatical constraints on the borrowing of nouns and verbs in Urdu and English // SAGE Open. – 2019. – Vol. 9, No. 3. – DOI: <https://doi.org/10.1177/2158244019853469>
5. Қўзиев У.Й. Ўзбек тили корпусини яратишда ўзлашма грамматик моделларнинг ажратилиши масаласи // Филология ва тилларни ўқитиш масалалари. – 2022. – № 4. – Б. 113–117. – URL: <https://myscience.uz/index.php/linguistics/article/view/146>
6. Шукўров О.У. Янги давр ўзлашмаларида трансформациявий даражаланиш // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2022. – № 4. – Б. 210–216. – URL: <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2022/05/shukurov-o.u.-tablicza-1.pdf>

LAKUNALAR KLASSIFIKATSIYASI VA LINGVOMADANIY AHAMIYATI

Rahmadjonov Shaxzodxon Shodiboyzoda

CHDPU, o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: O'lmas Saidov, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada lakunalar (bo'shliqlar) tushunchasi, ular qanday toifalarga bo'linganligi va madaniyatlararo muloqot doirasida qanday ta'riflanishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: lakunar so'zlar, mutlaq lakuna, lingvistik lakuna, madaniy konsept, madaniy fond, ekvivalentsiz leksika.

Abstract. This article examines the concept of lacunae (gaps or absences), how they are categorized, and how they are defined within intercultural communication.

Keywords: lacunae, absolute lacuna, linguistic lacuna, cultural concept, cultural fund, lexicon without equivalents.

Tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni muhokama qilishda, "lakuna" tushunchasiga e'tibor qaratiladi. Bu atama tor va keng ma'nolarda qo'llanilsa ham, ikki til va madaniyat orasidagi tafovutni aynan lakunalar orqali aniq ko'rish mumkin.

«Lakuna» termini tor ma'noda ishlatilganda, u yoki bu tushunchani anglatish uchun tilning lug'aviy tarkibida kerakli so'zning mavjud emasligi nazarda tutiladi. Y.S.Stepanov ta'biri bilan aytganda, lakunalar tilning semantik xaritasidagi «oq dog'lar» yoki bo'shliqlardir⁵. Ular har bir tilda mavjud bo'lib, ichki tuzilmada sezilmaydigan, lekin taqqoslash jarayonida ajralib ko'rinadigan birliklardir. Stepanov mutlaq va nisbiy lakunalarni farqlashni taklif etadi.

Mutlaq lakunalar tarjima lug'atlarida namoyon bo'lib, ma'lum tilda ekvivalentiga ega bo'lmagan so'zlar sifatida tushuniladi. Boshqacha aytganda, bir tilda mavjud bo'lgan leksik birlikning ikkinchi tilda yo'qligidir. Mutlaq lakunalarning ma'nomazmunini faqat tasviriy yo'l bilan ifodalash mumkin. Masalan, o'zbek tilida kun qismlarining azon, peshin, shom, xufton singari so'zlar bilan ifodalanishi

⁵ Stepanov Y.S. Fransuz stilistikasi. - Moskva., 1965. 120-b.

(peshingacha uxladi, shom bo'lmay uyda bo'ldi, azonda chiqib ketib xuftonda kirib keldi) ingliz tili uchun mutlaq lakunalar hisoblanadi.

Nisbiy lakunalar – tilda kamdan-kam, alohida holatlarda ishlatiladigan so'zlardir. Ingliz tili uchun nisbiy lakunalar sifatida «bolajon qalb, yon qo'shni - jon qo'shni» singari tushunchalarni misol qilib keltirish mumkin.

Lakunalarining mutlaq va nisbiy turlarga bo'lib o'rganilishi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Lekin bunga qarshilar ham yo'q emas. D.B.Gudkov fikricha, «nisbiy lakuna» terminining o'zi muvaffaqiyatli chiqmagan. Chunki, uningcha, «nisbiy bo'shliqning o'zi mavjud emas».⁶

Keng ma'noda «lakuna» termini nafaqat tillarni, balki madaniyatning boshqa jihatlarini qiyoslashda ham ishlatiladi. Y.S.Stepanovning ta'rifiga biroz o'zgartirish kiritgan holda tadqiqotchilar lakunalarni milliy ong mavjudligining vositalari bo'lmish tilning, matnning yoki madaniyatning semantik xaritasidagi «oq dog'lar», bo'shliqlar sifatida ta'riflashni tavsiya etadilar. Lakunalar, shuningdek, madaniyatlararo muloqot sharoitida o'z o'rniga ega bo'lgan qiyoslashda ham yuzaga chiqadi. I.V.Tomasheva «ma'lum madaniyat egalari tilida o'zining uyg'un aksini topgan va boshqa til hamda madaniyat egalari tomonidan muloqot jarayonida batamom tushunilmaydigan yoki qisman tushunilmaydigan madaniyatning milliy o'ziga xos elementlari»ni lakunalar deb ataydi⁷. Umumiy ma'noda lakunalar bir madaniyatda bor va ikkinchisida yo'q bo'lgan tushunchalarni qayd qiladi, aniqrog'i, ular til va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari ishorasidir. Til lakunalaridan ayri tarzda, kulturologik (madaniy) lakunalar ham ajratib ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv maqsadga muvofiq va metodologik jihatdan o'zini oqlagan hisoblanadi, chunki, bir tomondan, «lakuna» tushunchasining bunday keng talqin qilinishi til va madaniyat o'rtasidagi real bog'liqlikka tayansa, ikkinchi tomondan, til va madaniyat o'rtasidagi ayrim bog'liqlik shakllarini aniq belgilab olishga ko'maklashadi. Ajratib ko'rsatilgan farq va asoslardan kelib chiqqan holda lakunalarni turlicha tasniflash taklif qilinadi. Etnopsixolingvistikada ularning quyidagi tiplari ko'rsatiladi: til lakunalari (leksik, stilistik va grammatik), kulturologik lakunalar (etnografik, psixologik, yashash tarzi, kinesik), matn lakunalari.

Chet va o'zbek tillari qiyoslanadigan bo'lsa, misol tariqasida, ingliz tili uchun leksik lakunalarga o'zbek tilidagi vaqtga ishora qiluvchi azon, shom, peshin singari

⁶ Gudkov D.B. Madaniyatlararo muloqot nazariyasi va amaliyoti. - Moskva.: Gnozis, 2003. 79-b.

⁷ Tomasheva I.V. Zamonaviy lingvistikada "lakuna" tushunchasi. Emotiv lakunalar. // Til va hissiyotlar. - Volgograd: Peremena, 1995. 49-b.

soʻzlarni olish mumkin. Ingliz tili uchun oʻzbek tilidagi fe'lga qoʻshiladigan sheva qoʻshimchalari grammatik lakuna boʻladi. Taqqoslanayotgan tillarning birida oʻxshash stilistik boʻyoqdorlikka ega soʻzning yoʻqligi stilistik lakunaga misol boʻla oladi. Masalan, oʻzbek tilidagi yuzni ifodalovchi «oraz» yoki chiroyli qomatga ishora qiluvchi «sarv» soʻzlari ingliz tili uchun stilistik lakunalar hisoblanadi.

Etnografik lakunalar tildan tashqari muhit bilan bevosita bogʻliq boʻlib, ularning mavjudligi bir madaniyatdagi realiyalarning ikkinchi madaniyatda yoʻqligi bilan izohlanadi. Masalan, ingliz tili uchun «soch pilik», «tillaqosh» singari oʻzbekona tushunchalar etnografik lakunalar hisoblanadi. Etnografik lakunalar lingvistik va ekstralingvistik muhitlar oʻrtasidan joy egallagani uchun, ayrim tadqiqotchilar ularni kulturologik emas, lingvokulturologik hodisa deb atashni taklif qiladilar. Shunday qarash bizningcha ham toʻgʻri.

Lakunalar boshqa tiplari va tasniflari ham bor. Til tizimidagi mansubligiga koʻra lakunalar tillararo va bir til tizimiga xos boʻlgan turlarga boʻlinadi. Tillararo lakunalar turli tillarni qiyoslaganda, ulardan birida boshqa tildagi birlikka mos leksik ekvivalent topilmaganda aniqlanadi. Bir tilga mansub lakunalar bir til paradigmasi ichida aniqlanadi. Masalan, qarama-qarshi maʼnosiga ega soʻzning yoʻqligi yoki soʻzning biror-bir morfologik shaklining mavjud emasligi va boshqalar.

Tillararo lakunalar asoslangan va asoslanmagan kabi turlarga boʻlinadi. Asoslangan lakunalar milliy madaniyatda tegishli narsa yoki hodisaning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Asoslanmagan lakunalar esa narsa yoki hodisaning mavjud emasligi bilan izohlana olmaydi: madaniyatda ular mavjud, lekin ularni ataydigan soʻzlar yoʻq. Masalan, «soch pilik» «tillaqosh» ingliz tilida asoslangan lakunalar hisoblanadi, chunki bu soʻzlar ingliz madaniyatiga xos boʻlmagan realiyalardir. «Peshin», «shom» soʻzlari esa asoslanmagan lakunalar deyiladi.

L.Bogdanovanning taʼkidlashicha, «lakunalar haqida gapirilar ekan, boshqa til bilan qiyoslanganda berilgan tildagi soʻzning mavjud emasligi hamma vaqt ham oʻsha tildagi soʻzlarning yetishmasligidan dalolat bermaydi».⁸ Gap maʼlum tushunchalarning jamiyatda qanchalik talabda ekanligidadir. Bir tomondan olib qaralganda, aynan lakunalar bir madaniyat uchun muhim va boshqasi uchun muhim boʻlmagan tushunchalarni belgilashda asosiy rolni oʻynaydi. Bundan kelib chiqadiki, nafaqat

⁸ Bogdanova L.I. Tillar va madaniyatlarning oʻzaro taʼsiri jarayonida lakunalar muammosi // Humaniora: Lingua russica. Rus va slavyan filologiyasiga oid asarlar. IX asr lingvistikasi. Tillar va lingvistik birliklarning oʻzaro taʼsiri. - Tartu, 2006. 29-b.

tildagi mavjud tushuncha, balki unda yo'q tushuncha ham biror hodisa haqida ma'lumot bera olar ekan.

Badiiy tarjimada lingvomadaniy lakunalar masalasi alohida ahamiyatga ega. Lingvomadaniy lakunalar bir tilda mavjud madaniy ma'noga ega leksik birlikning boshqa tilda mavjud emasligini ko'rsatadi. Madaniy ma'no deganda so'zda qayd etilgan madaniyat komponentlari tushuniladi. Lakunalarni o'rganar ekanmiz, deyarli har doim, ekvivalentsiz leksikaga duch kelamiz va bu tasodif emas. Bir tilda bo'la turib, ikkinchi tilda o'sha birlikning yo'qligi ikkinchi til uchun lakuna hisoblansa, xuddi shu vaqtning o'zida ikkinchi tildagi mavjud birlik birinchi tilga nisbatan ekvivalentsiz bo'lib chiqadi. Ekvivalentsiz birliklar va lakunalar doimo «juftlikda yuradi», aniqrog'i, agar bir tilda lakuna bo'lsa, qiyoslanayotgan tilda u ekvivalentsiz birlik deb nomlanadi yoki aksincha. Aslida, lakuna va ekvivalentsiz leksika bir xil hodisani turli nuqtai nazardan o'rganadi, desa bo'ladi: lakuna deganda 1-tildagi u yoki bu birlikning mavjud emasligiga e'tibor qaratilsa, ekvivalentsiz leksikada uning 2-tildagi mavjudligi va 1-til bilan bog'liqlik jihatiga ahamiyat beriladi.

Kontseptual lakunalarning bir turi yoki tor ma'nodagi kontseptual lakunalar sifatida bir madaniyatda mavjud bo'lgan va boshqasida butunlay yo'q yoki qisman yo'q bo'lgan madaniy kontseptlar tushuniladi. Y.S.Stepanov madaniy kontseptlar sirasida «konstantlar» tushunchasini qo'llaydi, ya'ni konstantlarga eng muqim, asosiy madaniy kontseptlar sifatida qaraladi.

Madaniy lakunalarning mavjudligi u yoki bu lingvomadaniy elatning tarixiy va madaniy merosi aksi bilan izohlanadi. Boshqacha aytganda, madaniy lakunalar bir til yoki madaniyat egalarining san'at, adabiyot, tarixiy voqealar haqidagi bilimining boshqa til egalariga begonaligidir. Madaniy fond lakunalari muloqot jarayonida pretsedent matnlardan foydalanish jarayonida yuzaga chiqadi. Pretsedent matnlar deganda, qaysidir shaxs uchun muhim bo'lgan yoki ma'lum jamiyat vakillari va ularning zamondoshlari uchun o'ta shaxsiy xarakterga ega bo'lgan matnlar tushuniladi. Masalan, o'zbek kinofilmlaridan olingan «Nechta qo'y oldingiz», «mahallada duv-duv gap bo'ldi» singari iboralar, yoki kinoya tarzida ishlatiladigan «Esimda o'sha damlar, o'zi uchar gilamlar» singari she'riy satrlar madaniy fond lakunalari hisoblanadi. Kognitiv lakunalar turi bo'lmish madaniy fond lakunalari o'z navbatida muloqotdagi amaliyot tufayli leksik va frazeologik lakunalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turganidek, nafaqat ekvivalentsiz leksika, balki qisman ekvivalentlar ham tarjima uchun o'ziga xos muammolar keltirib chiqaradi, chunki so'z yoki ibora mutanosibligi aldoqchi, o'ziga

xos xususiyatlari esa yashirin xarakterga egadir. Semantikadagi bunday tafovutlar, odatda, aksiologik komponent bilan bog'liq bo'ladi. Lakunalar va shu qatorda, ular bilan korrelyatsiya munosabatlarida bo'lgan ekvivalentsiz leksika ham tillar va madaniyatlarni qiyoslaganda yuzaga chiqadi va ular o'ziga xoslik fiksatorlari hisoblanadi. Lakunalarni chuqur o'rganib tahlil qilish tili o'rganilayotgan xalqning madaniyati, shu jumladan, uning mentaliteti haqida yangi bilimlar olishga ko'maklashadi. Bu esa, o'z navbatida, tarjima jarayonini yengillashtirishga hamda asliyat shakl va mazmun birligini tarjimada saqlab qolishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gudkov D.B. Madaniyatlararo muloqot nazariyasi va amaliyoti. - Moskva.: Gnozis, 2003. 79-b.
2. Stepanov Y.S. Fransuz stilistikasi. - Moskva., 1965. 120-b.
3. Bogdanova L.I. Tillar va madaniyatlarning o'zaro ta'siri jarayonida lakunalar muammosi // Humaniora: Lingua russica. Rus va slavyan filologiyasiga oid asarlar. IX asr lingvistikasi. Tillar va lingvistik birliklarning o'zaro ta'siri. - Tartu, 2006. 27-37-b.
4. Tomasheva I.V. Zamonaviy lingvistikada "lakuna" tushunchasi. Emotiv lakunalar. // Til va hissiyotlar. - Volgograd: Peremena, 1995. 50-60-b.

TOPONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KONTEKSTDA IFODA VOSITASI SIFATIDAGI ROLI

Turg'unboyeva Kumushxon Zaynobiddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

maxmudovakumush9@gmail.com

Annotatsiya. Toponimlarning tuzilishi, so'z yasalihi va grammatik kategoriyalarga ko'ra turlari yoritilib, ularning badiiy matnlarda stilistik ahamiyati ochib berilgan. Ishda sodda, qo'shma, juft va birikmali toponimlarning tuzilishi, shuningdek, affikslar yordamida yasalgan toponimlar (–zor, –obod, –iston, –loq, –on kabi) misollar asosida ko'rsatib o'tilgan. Toponimlarning matndagi predikativ, determinativ va atributiv vazifalarda qo'llanishi, ularning metonimiya, sinekdoxa va majoz kabi ko'chim ma'nolar hosil qilishdagi o'rni tahlil etilgan. Adabiy asarlardan, xususan, Abdulla Qahhor, Pirimqul Qodirov va Muhammad Yusuf ijodidan olingan namunalar asosida toponimlarning badiiy-estetik vazifasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: toponim, grammatik xususiyat, so'z yasalihi, affiks, sodda toponim, qo'shma toponim, badiiy matn, stilistik vosita, metonimiya, sinekdoxa, majoz, O'zbek tili, leksik qatlam, joy nomlari.

Toponimlar til lug'at manbasining bir bo'lagidir. Shu bilan bir qatorda joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina miqdordafarq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq davr yashashida, ularning polikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan – tarkibiy qismlardan tashkil topishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtirok etishi ya'ni qo'llanilishida o'z aksini topadi. Toponimlarni yasashda shu tilga uyg'un bo'lgan lingvistik vositalar (modellardan) qo'llaniladi. Lekin shu bilan bir qatordabarcha tillarda toponim yasovchi o'ziga xos vositalar paydo bo'ladi, ya'ni muayyan suffikslar (affikslar) va so'zlar faqat yoki aksari toponimlar yaratishga uyg'unlashib qoladi. "Grammatik birlik sifatida toponimlar matnda predikativ, determinativ yoki atributiv vazifani bajara oladi".

Toponimlar o'zbek tilida grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning bu xususiyatlari badiiy matnlarda ham o'z aksini topadi.

1. Tuzilishiga ko'ra toponimlar:

a) Sodda toponimlar – bir asosdan iborat:

– Toshkent, Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Qizilqum.

b) Qo'shma toponimlar - ikki yoki undan ortiq asosdan iborat:

– Yangiqo'rg'on, Kattaqo'rg'on, Qorasuv, Toshko'prik, Oqdaryo.

c) Juft toponimlar – ikki so'zning qo'shilishidan hosil bo'lgan:

– Urta-To'qay, Qum-Ariq, Bosh-Orl

d) Birikmali toponimlar – ikki yoki undan ortiq so'zning birikishidan hosil bo'lgan:

– Amir Temur xiyoboni, Alisher Navoiy bog'i, Mustaqillik maydoni.

2. So'z yasashga ko'ra toponimlar:

a) Asosdosh toponimlar:

– Qashqadaryo (daryo nomi), Qashqadaryo (viloyat nomi)

b) Affiksli toponimlar:

-li/-lik affiksi: Olmazor, Chinorzor, Do'stlik, Guliston.

-iston affiksi: O'zbekiston, Tojikiston, Turkiston

-obod affiksi: Samarqand, Toshkobod, Yangiobod

-cha affiksi: Ko'kcha, Qoratepacha

-loq affiksi: Toshloq, Qumloq

-on/-gon affiksi: Guliston, Chortoq

3. Grammatik kategoriyalar jihatidan:

a) Son kategoriyasi:

– Toponimlar odatda birlik sonda qo'llaniladi: Toshkent, Andijon;

– Ba'zi toponimlar ko'plik shaklida qo'llaniladi: Qoraqalpog'iston, Yakkacho'pon.

b) Kelishik kategoriyasi:

– Bosh kelishik: Toshkent

– Qaratqich kelishigi: Toshkentning

– Tushum kelishigi: Toshkentni

– Jo'nalish kelishigi: Toshkentga

– O'rin-payt kelishigi: Toshkentda

– Chiqish kelishigi: Toshkentdan

c) Egalik kategoriyasi:

– Toshkentim, Toshkenting, Toshkenti.

4. So'z yasovchi affikslar bilan yasalgan toponimlar:

a) Otlardan yasalgan toponimlar:

-iston: O'zbekiston, Qozog'iston;

-zor: Olmazor, Chinorzor;

-loq: Toshloq, Botqoqlik.

b) Sifatlardan yasalgan toponimlar:

– Oqtepa, Qorasuv, Kattaqo'rg'on.

c) Fe'llardan yasalgan toponimlar:

– Yurish, Kechik, To'xtamg'ali.

5. Toponimlarning badiiy matnlarda grammatik xususiyatlari:

– **Metonimiya** (ko'chim ma'no) sifatida qo'llanishi: "Toshkent uxlaydi" (shahar emas, balki shahar aholisi).

– **Sinekdoxa** sifatida qo'llanishi: "Butun O'zbekiston bayram qilmoqda" (davlat emas, balki xalq).

– **Majoz** sifatida qo'llanishi: "Samarqand javob bermadi" (shahar emas, balki rahbariyat).

Badiiy asarlarda toponimlar grammatik jihatdan turli xil stilistik vazifalarni bajaradi. Masalan, Abdulla Qahhor hikoyalarida ixcham, sodda toponimlardan foydalanilgan bo'lsa, Pirimqul Qodirov romanlarida birikmali, tarixiy toponimlar ko'p qo'llaniladi. Toponimlarning grammatik xususiyatlari o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlarini, tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Toponimlarning qanday gap bo'laklaridan iborat ekanligi, shakl shamoyili tuzilishi modelliar deyiladi. O'zbekiston geografik nomlari ya'ni joy nomlarini grammatik tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma toponimlarga ajratamiz. Sodda va qo'shma toponimlardan namunalarni o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Muhammad Yusufning she'rlarida uchratamiz. Shoirning "Bosmachilar" she'rida:

Siz yo'q, bunda ko'tarildi darpardalar:

Otdan tushdi sariq mo'ylov sarkardalar,

Buxoroni to'pga tutgan sharmandalar...

Afsus, afsus, ko'rmadingiz, "bosmachilar".

Buxoro – O'zbekiston Respublikasining qadimiy, uzoq tarixga ega bo'lgan shaharlaridan biri, Buxoro viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi sanaladi. O'zbekiston hududining janubiy-g'arbida, Zarafshon daryosi quyi oqimida joylashgan shahar. Buxoro – toponim (oykonimlar guruhiga kiradi), sodda, qo'shimchasiz toponim. Shu o'rinda sodda toponimlar o'z navbatida, qo'shimchasiz toponimlarga va qo'shimchali toponimlarga ajratiladi. Qo'shimchasiz, affikssiz

toponimlar deganda faqat birgina otdan iborat bo'lgan, boshqa bironta ham unsur qo'shilmagan geografik nomlar tushuniladi.

Qo'shimchali toponimlar deganda, otga qandaydir qo'shimcha – affiks qo'shib hosil qilingan ya'ni yasalgan geografik nomlar tushuniladi. Davr o'tishi, ijtimoiy hayot shakllanishi bilan bu so'zlarning ko'pchiligi mustaqil holda qo'llaniluvchi so'zlik maqomini yo'qotgan, toponimlarning ajralmas bir bo'lagiga aylanib qolgan. Ular lug'aviy ma'no anglatmaydi, yangi nom yasamaydi, qadimgi nomlar tarkibida qotib qolgan holdadir. O'z davrida ular yordamida shahar, qishloq, qo'rg'on nomlari yasalgan. Shoirning "Men dardimni kimga aytaman" she'rida keltirilgan:

Samarqandga borsam men agar,

Ulug'bekni ko'rib qaytaman.

Samarqand so'zi ushbu davrgacha Samar+qand shaklida yasama so'z deb qaralgan. Ammo hozirgi kunga kelib bu so'z tub so'z sifatida tahlil qilinadi. Ushbu qo'shimcha davr o'tishi bilan toponim tarkibiga singib ketgan.

Qo'shma toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Bunday geografik nomlar ham grammatik jihatdan bir necha turga bo'linadi:

a)ot + ot tipidagi toponimlar:

Muhammad Yusuf she'rlarida ot+ot tipidagi Bog'ishamol, Shohimardon, *Tojmahal*, *Askartog'*, *Qumqo'rg'on* kabi toponimlarni uchratish mumkin.

Qani **Bog'ishamol** kezgan yellaring,

Qirlarda kekkaygan qirg'ovullaring.

Sen sig'ingan – o'sha jondin ortiq senga

Tojmahal ham bir bobomdan tortiq senga.

(Muhammad Yusuf "Dunyo" she'ri)

Siqilib ketadi har yil bahorda,

Sayrga boradi Shohimardonga.

("Uni taniysiz" she'ri)

Ikki otning o'zaro birikib, qo'shma toponimlar hosil qilishi o'zbek tilida juda keng tarqalgan lisoniy hodisalardan biri sanaladi.

b) fe'l + ot tipidagi toponimlar:

Burgut edim bir kechada tushdim osmondan,

Buramatol bog'da sizni ko'rdim qaydanam.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bo'riyev S. O'zbek toponimlarining grammatik strukturasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 160 b.
2. Karimov S. O'zbek tilida joy nomlari tizimi va ularning grammatik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
3. Yusuf M. Tanlangan she'rlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
4. Jo'rayev S. O'zbek tilining so'z yasalishi va toponimika masalalari. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2012.

“СӨЗДЕРДІҢ БАЙЛАНЫСУ ТӘСІЛДЕРІ”

Бахтиярова Рушана Бектиярқызы

Шыршық мемлекеттік педагогикалық Университетінің

қазақ тілі мен әдебиеті бағытының 4-курс студенті

Телефон номері: +998943193104

Электрондық пошта: rushanabaxtiyrova81@gmail.com

Ғылыми жетекші: Нұркелді Жарасбаев

Аннотация

Бұл мақалада қазақ тіліндегі сөздердің байланысу тәсілдері қарастырылады. Сөздердің байланысу жүйесі сөйлем құраудың негізгі заңдылықтарының бірі болып табылады. Қазақ тіл білімінде сөздердің байланысу тәсілдері бірнеше түрге бөлінеді: морфологиялық, синтаксистік, орын тәртібі, интонация арқылы. Әр тәсілдің өзіндік ерекшелігі мен қызметі бар. Мақалада осы тәсілдердің тілдік қолданыстағы маңызы мен қызметі жан-жақты сипатталады.

Annotation

This article examines the ways of word connection in the Kazakh language. The system of word connection is one of the main principles of sentence formation. In Kazakh linguistics, the ways of word connection are divided into several types: morphological, syntactic, word order, and intonation. Each method has its own features and functions. The article provides a comprehensive description of the significance and role of these methods in linguistic usage..

Кілт сөздер Сөз тіркесі, байланысу тәсілдері, морфологиялық тәсіл, синтаксистік тәсіл, орын тәртібі, интонация.

Keywords Word combination, ways of connection, morphological method, syntactic method, word order, intonation

Кіріспе

Қазақ тіл білімінде сөздердің байланысу мәселесі маңызды синтаксистік категориялардың бірі болып саналады[1]. Сөйлемнің негізгі құраушы бөлігі – сөз тіркесі, ал сөз тіркесінің қалыптасуы сөздердің бір-бірімен түрлі тәсілдер арқылы байланысуына негізделеді. Сондықтан сөздердің байланысу тәсілдерін зерттеу қазақ тілінің құрылымын түсінуде, сөйлемнің құрылысын дұрыс талдауда айрықша мәнге ие.

Негізгі бөлім:**1. Сөздердің байланысу ұғымы**

Сөздердің байланысуы – сөйлемде немесе сөз тіркесінде екі не одан да көп сөздің грамматикалық және мағыналық жақтан бір-біріне тәуелді болып орналасуы[3]. Байланысу тәсілдері арқылы сөздер жүйелі түрде тіркесіп, ойды білдіру құралына айналады.

2. Сөздердің байланысу тәсілдері

Қазақ тіл білімінде сөздердің байланысуының негізгі төрт тәсілі бар:

1. Морфологиялық тәсіл

Бұл тәсілде сөздер қосымшалар арқылы байланысады[3].

Мысалы: баланың кітабы, әкеңнің сөзі.

Мұнда тәуелдік, септік, жіктік жалғаулары сөздерді бір-бірімен байланыстырады.

2. Синтаксистік тәсіл (шылаулар арқылы)

Сөздердің байланысуына шылаулар дәнекер болады.

Мысалы: сен үшін, біз туралы, олар сияқты.

Шылаулардың қызметі – сөздерді байланыстырып, мағынасын толықтыру.

3. Орын тәртібі арқылы байланысу

Сөздердің сөйлем ішіндегі орнына байланысты байланысуы[2].

Қазақ тілінде анықтауыш анықталушы сөздің алдында тұрады: жақсы адам, үлкен үй.

Бұл тәсіл сөздердің орын тәртібінің маңызын көрсетеді.

4. Интонация арқылы байланысу

Сөздер сөйлеу сазы арқылы бірігеді.

Мысалы: Кел, балалар, оқылық! деген сөйлемде сөздердің байланысуына интонация әсер етеді[4].

3. Сөздердің байланысу тәсілдерінің қызметі

Ойды жүйелі жеткізу.

Сөйлемдегі грамматикалық қатынасты білдіру.

Сөз тіркестерінің түрлерін (еркін, тұрақты тіркестерді) қалыптастыру.

Тілдің синтаксистік құрылымын реттеу.

Қорытынды

Қазақ тіліндегі сөздердің байланысу тәсілдері – сөйлем құраудың негізгі тетігі. Морфологиялық, синтаксистік, орын тәртібі және интонация тәсілдері арқылы сөздер бір-бірімен тығыз байланысып, тілдің құрылымдық жүйесін

қалыптастырады[5]. Бұл тәсілдерді дұрыс меңгеру сөйлеу мәдениетін жетілдіріп, жазба тілдің сауаттылығын арттырады.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі:

1. Қалиұлы С. Қазіргі қазақ тілінің синтаксисі. – Алматы: Қазақ университеті, 2010.
2. Әміров Р. Жай сөйлем синтаксисі. – Алматы: Санат, 1998.
3. Кеңесбаев І., Мұсабаев Ғ. Қазіргі қазақ тілі. – Алматы: Мектеп, 1962.
4. Сайрамбаев Т. Сөз тіркесі мен жай сөйлем синтаксисі. – Алматы: Рауан, 1991.
5. Балақаев М., Қордабаев Т. Қазіргі қазақ тілі (Синтаксис). – Алматы: Мектеп, 1971.

TA'LIM BOSQICHLARIDA ONA TILI FANINING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARINI O'RGANISH

Aliyeva Yodgora Barat qizi

Beksaidova Laylo Zokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabalari

aliyevayodgora946@gmail.com

beksaidovalajlo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili fanining davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchilarda lingvistik bilim va nutqiy kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Ta'lim bosqichlari bo'yicha olib boriladigan bu jarayon savodxonlikni rivojlantirishga va muloqot madaniyatini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, davlat ta'lim standarti, ta'lim bosqichlari, lingvistik bilim, nutqiy kompetensiya, savodxonlik.

Annotation. This article discusses the development of students' linguistic knowledge and communicative competence within the framework of the state educational standards for the mother tongue. The step-by-step approach applied at different stages of education contributes to the development of literacy and communication culture.

Keywords: mother tongue, state educational standard, stages of education, linguistic knowledge, communicative competence, literacy.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования лингвистических знаний и речевой компетенции учащихся на основе государственных образовательных стандартов по родному языку. Последовательное обучение на разных этапах образования способствует развитию грамотности и культуры общения.

Ключевые слова: родной язык, государственный образовательный стандарт, этапы обучения, лингвистические знания, речевая компетенция, грамотность.

Ona tili fanini o'qitishda davlat ta'lim standartlari muhim o'rin tutadi. Chunki DTS ta'lim jarayonining yagona mezon sifatida o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning darajasini belgilab beradi. Ona tili fani bo'yicha DTSlar har bir ta'lim bosqichida o'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanish

darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Boshlang'ich sinflarda DTSning asosiy vazifasi o'quvchilarda savodxonlikni shakllantirish, nutqiy madaniyatni rivojlantirish, tovush va harflarni to'g'ri talaffuz qilish, yozuv malakasini mustahkamlashdan iboratdir. Bu bosqichda o'quvchi uchun ona tilining eng sodda va tushunarli jihatlari o'rgatiladi, ya'ni gap tuzilishi, so'z ma'nosi, tovushlarning qo'llanishi, imlo qoidalari singari elementar bilimlar asosida poydevor yaratiladi.

Keyingi o'rta ta'lim bosqichida DTSlar o'quvchilarning grammatik bilimlarini kengaytirish, murakkab gaplar tuzilishini o'rganish, so'z turkumlari, morfologik va sintaktik birliklar ustida ishlash, matn yaratish malakasini rivojlantirishga qaratiladi. Bu davrda o'quvchilar nafaqat tayyor matnni o'qib tushunadilar, balki o'z fikrlarini yozma va og'zaki shaklda to'g'ri ifodalashni ham o'rganadilar. Ona tili fanining DTSlari o'quvchilarni mustaqil tahlil qilishga, nutqiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini namoyon etishga yo'naltiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarda milliy qadriyatlarni anglash, nutqiy madaniyat orqali o'zligini ifodalash malakasi ham shakllantiriladi.

Yuqori sinflarda ona tili bo'yicha DTS o'quvchilarga nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy tushunchalar bilan ishlash, uslubiy tafovutlarni anglash, turli janrdagi matnlarni yaratish va tahlil qilishni o'rgatishga yo'naltiriladi. Bu bosqichda o'quvchilar til hodisalarini umumlashtirish, tilning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini anglash, tilning milliy qadriyat sifatida ahamiyatini chuqur idrok etadilar. Ona tili bo'yicha DTS o'quvchilarni mustaqil nutq madaniyatiga, ilmiy-ijodiy izlanishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

DTSlarning har bir bosqichda qo'ygan maqsadi o'quvchilarning savodxonlik darajasini izchil oshirish, ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va jamiyatda o'z fikrini to'g'ri, aniq va lo'nda ifodalashga o'rgatishdir. Ona tili fanining DTSlari faqat lingvistik bilimlarni emas, balki o'quvchining ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ham ko'zda tutadi. Chunki ona tili shaxsning dunyoqarashini shakllantirishda, ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda, milliy o'zlikni anglashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

DTSlarda ona tili fanining mazmuni bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Boshlang'ich sinflarda so'z va gap bilan ishlash ko'nikmalari shakllantirilsa, o'rta bosqichda morfologiya va sintaksis, yuqori bosqichlarda esa stilistika, nutq madaniyati va ilmiy izlanish elementlari o'rganiladi. Bu jarayon o'quvchilarning tafakkurini kengaytirish, ularning nutqiy imkoniyatlarini boyitish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili fanining DTSlari o'quvchi faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil izlanishga undash, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi DTS asosida darsni rejalashtiradi, o'quvchilarning bilim darajasini baholaydi va o'z faoliyatini yo'naltiradi. Shu bois DTS nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini belgilaydi, balki o'qituvchi uchun ham metodik qo'llanma vazifasini bajaradi.

DTSlarning amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida o'quvchilarning nutqiy rivoji, imlo savodxonligi, mustaqil fikrlash darajasi, matn yaratish qobiliyati asosiy mezon sifatida olinadi. Ular orqali o'quvchilar tilning mohiyatini anglab, uni hayotiy jarayonlarda qo'llashni o'rganadilar. Ona tili fanining DTSlari o'quvchiga nafaqat bilim beradi, balki uni fikrlashga, o'z qarashlarini ifodalashga, jamiyatda munosib o'rin egallashga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, ona tili bo'yicha DTSlar zamon talablari bilan hamohang tarzda doimiy ravishda yangilanib boradi. Bugungi kunda kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim tamoyillari, innovatsion metodlardan foydalanish DTSlarning asosiy xususiyatiga aylanmoqda. Bu jarayon o'quvchilarda faqat nazariy bilim emas, balki hayotiy ko'nikmalar, muloqot madaniyati va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ona tili bo'yicha DTSlarni bosqichma-bosqich o'rganish o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning savodxonligi, tilga bo'lgan e'tibori, nutqiy madaniyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda asosiy mezon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim bosqichlarini ona tili fani bo'yicha Davlat ta'lim standartlari asosida o'rganish mazkur fan samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. DTS o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, ularda tilga, nutqiy faoliyatga va milliy qadriyatlarga ijobiy munosabatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda savodxonlik, nutqiy malaka va elementar tilshunoslik tushunchalari shakllantirilsa, o'rta bosqichlarda grammatik bilimlar tizimli ravishda kengaytiriladi, yuqori sinflarda esa ilmiy-nazariy asosda til hodisalari chuqur o'rganiladi. Bu jarayon o'quvchilarda mustaqil fikrlash, aniq va ravon nutq tuzish, ilmiy hamda amaliy faoliyatda ona tilidan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov R., Jo'rayev M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 240 b.
2. Qodirova F. Davlat ta'lim standartlari va ona tili ta'limi. – Toshkent: Fan, 2019. – 180 b.
3. Karimova S. Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2020. – 210 b.
4. Mavlonova R. Pedagogika asoslari va ta'lim jarayonida DTSning ahamiyati. – Toshkent: Ilm Ziya, 2017. – 195 b.
5. Saidova D. Ona tili va adabiyot o'qitish metodlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 175 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari. – Toshkent, 2021. – 65 b.

IBORALARNI O'QITISH ORQALI ONA TILINI IFODA IMKONIYATLARINI OCHIB BERISH USULLARI

Ozodboyeva Nargiza Baxodir qizi,

Xolmatova Makluba Ibrohim qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ozodboyevanargiza6@gmail.com

xolmatovamakluba@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolda ona tili va ibora haqida tushuncha, ona tili fanini o'qitishda iboralarning o'rni, iboralarni o'qitish usullari, iboralarning ona tili faniga ta'siri haqida ma'lumot va misollar keltirilgan. Maqola xulosasida ona tilini o'qitishda iboralarning samarasi, iboralarning til o'rganishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ona tili, ibora, til, imkoniyat, kontekst, o'yin, tahlil, o'qitish.

Abstract. This article provides information and examples on the concept of mother tongue and idioms, the role of idioms in teaching mother tongue, methods of teaching idioms, and the impact of idioms on mother tongue. The conclusion of the article discusses the effectiveness of idioms in teaching mother tongue and the importance of idioms in language learning.

Keywords: native language, phrase, language, opportunity, context, game, analysis, teaching.

Аннотация. В статье представлена информация и примеры, посвященные понятиям родного языка и идиом, роли идиом в обучении родному языку, методам обучения идиомам и их влиянию на родной язык. В заключение статьи обсуждается эффективность идиом в обучении родному языку и их важность в изучении языка.

Ключевые слова: родной язык, фраза, язык, возможность, контекст, игра, анализ, обучение.

Ona tili – insonning fikr va tuyg'ularini ifoda etishning asosi. Tillar o'rtasidagi farqlar, ularning strukturasi va leksik boyligi, odamlarning fikrlarini qanday ifodalashiga ta'sir qiladi. Turli maqsadlarga erishishda vosita hisoblanadi. Ona tilini yaxshi bilish, mamlakatning siyosiy, ma'daniy-ma'rifiy, mafkuraviy, xo'jalik hayotida

faol ishtirok etishga yordam beradi. O'zbek tili lug'ati tarkibi jihatidan juda boy va rang-barangdir. Tilimizda mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan alohida so'zlardan tashqari leksik ma'no ifodalaydigan turg'un birikmalar-iboralar ham mavjud. [1:56]. Ona tilida iboralarni o'qitish — bu o'quvchilarga o'z ona tilidagi iboralar va ularning ma'nolarini tushunish, qo'llash va rivojlantirishda yordam berish jarayoni. Quydagi jihatlarga e'tibor berish muhim:

Iboralarning turlari

- Frazologik iboralar: Bir nechta so'zlardan iborat bo'lib, ularning birgalikda ifodalaydigan ma'nosi bor.

- Sifatlar va sinonimlar: O'zaro o'xshash ma'noli iboralarni o'qitish, o'quvchilarga lug'at boyligini oshiradi. O'qitish metodlari

- Misollar keltirish: O'qituvchi o'z ona tilida keng tarqalgan iboralarni misol sifatida keltirib, ularning ma'nolarini tushuntirishi kerak.

- Amaliy mashg'ulotlar: O'quvchilarga iboralarni turli kontekstlarda qo'llashga imkon beruvchi vazifalar berish.

- O'yinlar va interaktiv faoliyatlar: O'yinlar orqali iboralarni yodlashni qiziqarli qilish. Iboralarni o'qitishda e'tibor berish lozim bo'lgan jihatlar

- Talaffuz va intonatsiya: Iboralarni to'g'ri talaffuz qilish va intonatsiyasini o'rgatish.

- Madaniy kontekst: Iboralarning madaniy kontekstini tushunish, bu o'quvchilarga iboralarni to'g'ri qo'llashda yordam beradi.

- Qayta ishlash: O'quvchilarni iboralarni takroran ishlatishga undash va ularni mustaqil ravishda qo'llashga rag'batlantirish.

O'quv materiallari

- Kitoblar va qo'llanmalar: Iboralarni o'z ichiga olgan o'quv materiallari, masalan, she'rlar, hikoyalar va maqolalar.

- Internet resurslari: Onlayn platformalarda iboralarni o'rganishga yordam beruvchi videolar va interaktiv materiallar.

Ona tilida iboralarni o'qitish jarayoni, tilni o'rganishning muhim qismi bo'lib, o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ularning ma'nolari tarkibidagi so'zlarning yaxlit ma'nosi asosida yuzaga keladi va inson xotirasida bir butun va tayyor holda saqlanib, boshqa birikmalar bilan xuddi alohida so'z kabi munosabatda bo'ladi. Iboralar ham tilda aloqa-aralashuv, fikr almashuv vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga iboralar tilning leksik va stilistik imkoniyati, boyligini ko'rsatuvchi sohasi hamdir.

Shu ma'noda so'zlar kabi iboralarni ham o'rganish, o'ziga xos tomonlarini, nutqdagi faoliyatini, emotsional-ekspressiv vazifalarni o'quvchilarga yetkazish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.[2: 421]. Iboralar, bir necha so'zdan iborat bo'lib, ma'lum bir ma'noni ifodalaydi. Ular tilni boyitadi va fikrlarni aniq, rang-barang va chuqurroq ifodalash imkoniyatini beradi. Iboralar – so'zlar birikmasidir, lekin ular oddiy so'zlardan ko'ra ancha murakkab va chuqurroq ma'noga ega. Masalan, "yurakdan yurish" iborasi, oddiy "yurmoq" so'zidan ko'ra ko'proq his-tuyg'ularni ifodalaydi. Bu iboralar, tilni boyitish, fikrlarni aniqroq ifodalash va hissiyotlarni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Iboralar orqali muayyan fikrni, holatni yoki hissiyotni yanada to'liq va chuqur ifodalash mumkin. Iboralarni o'qitish, ya'ni, iboralar orqali tilni o'rgatish jarayoni, til o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Quyidagi asosiy jihatlarni ko'rib chiqamiz.:

Iboralar o'qitishning ahamiyati.

- Tilni tushunish: Iboralar yordamida tilni yaxshiroq tushunish va muloqotda samarali bo'lish mumkin.

- Madaniyatni o'rganish: Har bir ibora o'z madaniyati va konteksti bilan bog'liq, shuning uchun iboralarni o'rganish orqali madaniyatni ham o'rganish mumkin.

- Nutqni rivojlantirish: Iboralar yordamida nutqning boyitilishi va ifodalilik darajasining oshishi mumkin. Iboralarni o'qitish metodlari.

- Misol va kontekst: Iboralarni real hayotdagi misollar bilan o'rgatish.

- O'yinlar va interaktiv faoliyatlar: O'yinlar orqali iboralarni yodlash va qo'llashni osonlashtirish.

- O'quv materiallari: Kitoblar, maqolalar, va boshqa o'quv materiallaridan foydalanish.

Iboralarni o'qitishda e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlari:

- Talaffuz: Iboralarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish.

- Grammatik qoidalar: Iboralarning grammatik tuzilishi va qo'llanilishi haqida ma'lumot berish.

- Amaliyot: O'quvchilarni iboralarni amaliyotda qo'llash uchun rag'batlantirish. Iboralarni o'qitish jarayonida bu jihatlarni hisobga olish, til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Iboralarni o'qitish jarayoni ko'plab usullarni o'z ichiga olishi mumkin. Quyida keltirilgan usullar, o'quvchilarning iboralarni o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi:

- O'quvchilarga iboralarni ma'lum bir mavzu doirasida o'rganish imkonini berish. Masalan, tabiat, sevgi, do'stlik, hayotiy tajribalar kabi mavzularni tanlash orqali, o'quvchilar iboralarni kontekstda ko'ra oladilar. Bu, ularning iboralarni yanada yaxshi tushunishlariga yordam beradi.

- O'quvchilarga iboralar bilan bog'liq misollarni ko'rsatish. Har bir ibora uchun haqiqiy hayotdagi misollar keltirish, o'quvchilarga iboralarni qanday ishlatishni ko'rsatadi. Misol uchun, "ko'zdan kechirish" iborasini o'rganayotganda, bu iboraning ishlatilishi haqida hikoyalar yoki maqolalar orqali misollar keltirish mumkin.

- O'quvchilarga iboralar asosida hikoyalar, she'rlar yoki insho yozish topshirilsa, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Bu nafaqat iboralarni o'rganishga yordam beradi, balki o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- Iboralarni o'rganish jarayonini qiziqarli qilish uchun turli o'yinlar va interaktiv mashqlarni qo'shish. Masalan, iboralar asosida o'yinlar o'ynash, jamoaviy faoliyatlar tashkil etish yoki quizlar o'tkazish, o'quvchilarning diqqatini oshiradi va ularning til o'rganish jarayonini faol qiladi.

- O'quvchilarga iboraning tuzilishi va ma'nosi haqida tahlil qilishni o'rgatish. Ular iboralarning qanday ma'nolarni anglatishini, ularning kontekstda qanday ishlatilishini o'rganishlari zarur. Bu usul, iboralarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

- O'quvchilarni guruhlariga bo'lish va iboralar asosida munozaralar o'tkazish. Bu, ularning fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatini beradi. Munozara jarayonida, o'quvchilar iboralarni turli nuqtai nazardan ko'rishadi va ularning ma'nolarini yanada kengroq tushunishadi.

Iboralar ona tilida fikrlarni aniq ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ular muloqot jarayonida hissiyotni, fikr va muammolarni yanada to'g'ri va boyroq ifodalashga yordam beradi. Iboralar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini yanada ishonchli va ta'sirli tarzda ifoda etishni o'rganadilar. Masalan, "toshga urilmaydi" iborasi biror narsaning mutlaqo o'zgarishi yoki rivojlanishi mumkin emasligini ifodalaydi, bu esa o'z navbatida, fikrni yanada aniqroq va kuchliroq ifodalash imkonini beradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iboralarni o'qitish orqali ona tilini ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, o'quvchilarning tilga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi. Bu usullar yordamida, ular nafaqat iboralarni o'rganishadi, balki tilning go'zalligini va kuchini ham his qiladilar. Iboralar orqali ona tilining boyligi va rang-barangligi ochiladi, bu esa o'quvchilarning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, iboralarni o'qitish jarayoni, til o'rganishning muhim bir qismi bo'lib, u

o'quvchilarning ona tilida o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va yaratish qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: "Fan va texnologiya", 2012, 380 bet.
2. (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyeva.-T.: "NOSHIR", -2009. 352 b
3. D.N. Yuldasheva. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi". -Buxoro: Durdona nashriyoti, 2021.-421 b.
4. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at/Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.-636 bet.
<https://cyberleninka.>

O'ZBEK (ONA) TILI O'QITISH METODLARI VA USULLARI

**Boborahimova O'g'iloy Aktamjon qizi,
Qurbonboyeva Dilbar Ollombergan qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

boborahimova@gmail.com

dilbarqurbonboyeva23@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tilini o'qitish metodlari va usullari tushunchalari tahlil qilinadi. Metod va usulning o'zaro farqlari, ta'lim jarayonidagi o'rni, samarali ta'limga erishishda muhimligi ko'rsatib o'tiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va AKT vositalarining ta'lim sifatini oshirishdagi roli haqida so'z boradi. O'qituvchining ijodiy faoliyati va shaxsga mos yondashuvning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Ona tili, ta'lim metodlari, o'qitish usullari, pedagogika, interaktiv metodlar, ta'lim texnologiyalari, til o'qitish.

Annotation. This article analyzes the concepts of methods and techniques of teaching the native language. It discusses the differences between methods and techniques, their roles in the educational process, and their importance for achieving effective learning. The article highlights the use of modern pedagogical approaches, interactive methods, and ICT tools to enhance teaching quality. The significance of the teacher's creative activity and individualized approach is emphasized.

Keywords. native language, teaching methods, teaching techniques, pedagogy, interactive methods, educational technologies, language teaching

Аннотация. В данной статье анализируются понятия методов и приемов обучения родному языку. Рассматриваются различия между методами и приемами, их роль в образовательном процессе и значимость для достижения эффективного обучения. Обсуждается использование современных педагогических подходов, интерактивных методов и ИКТ для повышения качества обучения. Подчеркивается важность творческой деятельности учителя и индивидуального подхода.

Ключевые слова. родной язык, методы обучения, приемы обучения, педагогика, интерактивные методы, образовательные технологии, обучение языку

Metod tushunchasi va ona tilini o'qitishda uning ahamiyati. Metod so'zi yunoncha metodosdan olingan bo'lib, "yo'l", "yo'riq" yoki "usul" ma'nolarini anglatadi. Pedagogikada esa metod — bu maqsadga erishish yo'lida amalga oshiriladigan tizimli va rejalashtirilgan faoliyatdir. Ona tili o'qitish metodlari deganda ona tilini o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan usullar va bu jarayonlarni tartibga soluvchi faoliyat tushuniladi. Bu borada metod faqatgina ma'lumot berish emas, balki ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini — o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, o'quv materiallarini tanlash, dars usullarini qo'llash, o'rganuvchi faoliyatini tashkil etish va baholashni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy didaktika fani metod va usul tushunchalarini aniq ajratib beradi. Ta'limda metod — bu nafaqat o'qituvchining, balki o'quvchining ham faoliyatini o'z ichiga olgan keng ko'lamli jarayon bo'lib, u ta'lim maqsadi, mazmuni, vositalari va ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. To'g'ri tanlangan ta'lim metodlari ta'lim jarayonida o'rgatish va o'rganish faoliyatlarini uyg'unlashtirib, ijtimoiy buyurtma sifatida belgilangan ta'lim maqsadlariga samarali erishishga xizmat qiladi.

Ta'lim usuli va uning ta'lim jarayonidagi roli. Pedagogik adabiyotlarda ko'p bor muhokama qilingan ta'lim usuli masalasi ham ta'lim mazmuni kabi qadimiy va muhim tushunchadir. Ta'lim usuli - ta'lim metodining tarkibiy qismi bo'lib, u faqat o'qituvchi yoki faqat o'quvchi faoliyatiga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchining yangi mavzuni og'zaki tushuntirish, o'tilgan mavzuni test yoki tarqatma materiallari asosida so'rash, mustahkamlash, muayyan bob yoki bo'limni takrorlash uchun maxsus savol va topshiriqlar tayyorlash kabi faoliyatlari ta'lim usuliga kiradi. Shu bilan birga, o'quvchining mustaqil o'zlashtirish, muhim jihatlarni konspekt qilish, topshiriqlarni bajarish kabi faoliyatlari ham ta'lim usulining muhim qismidir. Ya'ni ta'lim usuli - bu o'qituvchi yoki o'quvchining alohida faoliyati bo'lib, ular birgalikda ta'lim metodini tashkil etadi.

Usul tushunchasi va pedagogik faoliyatdagi o'rni. Usul - bu insonning bilim olish jarayonini tartib bilan amalga oshirish yoki biror obyektни amaliy o'zgartirish uchun ishlatiladigan vosita va mexanizmdir. Pedagogik amaliyotda usullar o'qitish va o'rganish jarayonining har bir bosqichida qo'llaniladigan aniq va amaliy yo'nalishlardir. Usullar asosan amaliyotda sinovdan o'tgan, ilmiy tadqiqotlar va nazariyalar asosida shakllangan elementlardan iboratdir. Ular orqali ta'limning maqsad va vazifalari amalga oshiriladi hamda pedagogik jarayonning mazmuni va izchilligi ta'minlanadi. Didaktik jarayonda, bolaga bilim berishda, ijodiy faoliyatda malaka va

ko'nikmalarni shakllantirishda, har bir ishda mustaqillik, tadbirkorlik va ijodiy yondashishni uning odatiga aylantirishda turli xil usul va metodlardan foydalanish zarur. Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatda har bir o'qituvchi A.S. Makarenkoning ta'kidlashicha, oddiy «Bu yoqqa kel!» amrini turli usullarda, aniqrog'i 72 usulda aytishni o'zlashtirish lozim. Bu esa har bir o'qituvchining ijodkorligini va metodik mahoratini oshirishga xizmat qiladi (Makarenko, 2007).

Ona tili o'qitish metodlari mavzusiga tahlil (misollar bilan). Matnda ona tilini o'qitishda metod va usul tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning ahamiyati batafsil ko'rsatib o'tilgan. Masalan, metod keng qamrovli faoliyat sifatida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni bildirsa, usul – bu o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan ma'lum bir vazifani bajarishda qo'llaniladigan konkret yo'ldir. Misol uchun, yangi mavzuni og'zaki tushuntirish usuli o'qituvchining faoliyatiga tegishli bo'lib, bu usul yordamida o'quvchilarga mavzu mazmuni aniq va tushunarli tarzda yetkaziladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar tayyorlash yoki muhim jihatlarni konspekt qilish usullari o'quvchi faoliyatining asosiy qismini tashkil qiladi. Mualliflar ta'lim jarayonida mos usul tanlashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Masalan, yosh bolalarga ona tilini o'rgatishda o'yin metodlari, qo'shiq va hikoyalar yordamida o'rgatish samarali bo'ladi, chunki bu yoshga mos va qiziqarli usullardir. Kattaroq yoshdagi o'quvchilarda esa muammoli bayon qilish yoki tadqiqot metodlari yordamida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Yana bir muhim nuqta – ta'lim metodlari falsafiy jihatdan hayot qonuniyatlarini anglashga yordam beradi. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat til qoidalarini o'rgatadi, balki ular orqali dunyoni idrok qilish usullarini ham shakllantiradi. Misol sifatida, muammoli bayon qilish metodida o'quvchilarga ona tili qoidalari bo'yicha qiyin vaziyatlar, masalan, murakkab gaplar tuzish yoki sinonimlar farqini topish kabi vazifalar beriladi. Bu ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi.

Shuningdek, I.Ya. Lerner va M.N. Skatkinning metodlar tasnifi o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan. Masalan, “qisman izlanish” usulida o'quvchilar mavzuni mustaqil o'rganish uchun kichik guruhlariga bo'linib, ma'lumot yig'adilar va uni sinfda taqdim etadilar. Bu nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Metodlarning xilma-xilligi va tanlash mezonlari. Pedagogik adabiyotlarda ta'lim metodlari ko'plab olimlar tomonidan turlicha tasniflangan. Masalan, M.N. Skatkin va I.Ya. Lerner ta'lim metodlarini quyidagicha guruhlashgan:

Tushuntirish va namoyish etish metodi;

- ❖ Qayta eslab qolish (xotirlash) metodi;
- ❖ Muammoli bayon qilish metodi;
- ❖ Qisman izlanish (qidiruv) metodi;
- ❖ Tadqiqot (izlanuvchanlik, ijodiy yondashuv) metodi.

Bu tasnif ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularni muammoli vaziyatlarga ilmiy yondashuv asosida yechim topishga undashga qaratilgan. Aynan shu metodlar ona tilini o'rgatishda o'quvchilarning kommunikativ, lingvistik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, o'quvchilarning qobiliyatlari, bilish faoliyatini tashkil etishdagi individual yondashuv ham metodlarni tanlashda muhim mezon hisoblanadi. Bu jihatdan, Kubanskiy ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning bilimlari tarkibida izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish va ularni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Ta'lim metodlarini tanlashda prinsiplar. Ta'lim metodlarini tanlashda ikki muhim prinsip mavjud:

1. Ilmiylik prinsipi - o'quv predmetlarini zamonaviy fan yutuqlari asosida tushuntirishni taqozo etadi.
2. Tushunarliklik prinsipi - o'quv predmetini o'quvchilarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish zaruratini bildiradi.

Bu ikki prinsip bir-birini to'ldirib, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tilini samarali o'qitish uchun turli usul va metodlarning uyg'unlashgan holda qo'llanilishi muhimdir. Ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalaridan foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, o'qituvchilar doimo pedagogik mahoratini oshirib borishi, dars jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng qo'llashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov.A, Qodirov.M, Ernazarova.M, Bobomurodova.M, Alavitdinova.N, Karimjonova.V. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent – 2012. - 256 b.

2. Matkarimova Zaynab Olloyorovna. “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi” maqola. “Science and Education” Scientific journal - 2020. - 87 b.

3. Yusubova Zulxur Karimovna. “Ona tili o‘qitish metodikasining ilmiy asoslari va tamoyillari” maqola. 2020. - 45 b.

4. Turaqulova, D. Til o‘qitish metodikasi asoslari. Toshkent: «Yangi asr avlodi» nashriyoti. 2019. - 187 b.

5. Rahmonov F. “Ona tilini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi”, Til va adabiyot ta’limi jurnali. 2020. - 8 b.

BLUM TAKSONOMIYASI VA ADABIY TA'LIM

Yuldasheva Gulnoza Rozmaxamat qizi

Ibrohimova Nazokat Ubaydulla qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Gulnozamannapova1105gmail.com

nazokatibroximova55@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Blum taksonomiyasining mohiyati, ta'lim jarayonida, xususan, adabiy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda Blum taksonomiyasining ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Blum taksonomiyasi, adabiy ta'lim, kognitiv soha, affektiv soha, psixomotor soha, ijodkorlik, tahlil, baholash.

Annotation. This article discusses the essence of Bloom's taxonomy, its application in the educational process, in particular in literary education. The article analyzes the importance of Bloom's taxonomy in developing independent thinking, analytical approach and creative thinking in students.

Keywords: Bloom's Taxonomy, literary education, cognitive domain, affective domain, psychomotor domain, creativity, analysis, evaluation.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность таксономии Блума, её применение в образовательном процессе, в частности, в литературном образовании. Анализируется значение таксономии Блума в развитии самостоятельности мышления, аналитического подхода и творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: таксономия Блума, литературное образование, когнитивная сфера, аффективная сфера, психомоторная сфера, креативность, анализ, оценка.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat bilim egallashi emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, baholash va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri blum taksonomiyasi 1956-yida bir guruh olimlar tomoni-dan taklif etilgan bo'lib, unda guruh rahbari amerikalik psixolog Benjamin Semyuel Blum (1913 – 1999)ning “Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi: bilish yo'nalishi” nomli kitobidagi g'oyalari ilgari surilgan. Taksonomiya qadimgi grek tilidagi *tartib, saf va qonun* so'zlaridan olingan bo'lib

tasniflash, tizimga solish tamoyillari va amaliyoti haqidagi bilim demakdir. Blum ta'lim maqsadlarini uchta sohaga ajratdi: kognitiv, affektiv va psixomotor. Kognitiv soha – “Men bilaman”. Bular bilim, tushunish va tanqidiy fikrlashdir. Affektiv soha (Ta'sir doirasi) – “Men his qilaman”. Bu soha hissiyotlar va his-tuyg'ular bilan bog'liq.

Psixomotor soha – “Men yarataman”. Psixomotor maqsadlar amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va turli xil vositalardan foydalanish bilan bog'liq. Umumlashtirilgan holda aytilganda Blum taksonomiyasi kognitiv ko'nikmalarning ierarxik tartibi bo'lib, u ko'plab turli yo'nalishlarda foydalanishlar sirasida, o'qituvchilarga dars berishga va talabalarga o'rganishga yordam beradi. Misol uchun: assessmentlar yaratish, munozaralarni shakllantirish, darslarni rejalashtirish, topshiriqlarning murakkabligini baholash, o'quv dizayn modellashtirish, ta'lim onlayn kurslarini loyihalashtirish, o'iga-o'zi baho berish. Blum taksonomiyasining ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilashda ham ahamiyati katta. Maqsadlarga asoslanib, o'qituvchi talabalar uchun vazifalarni shakllantiradi va baholash uchun vositalarni tanlaydi. Taksonomiya yordamida o'qituvchi o'rganishni quradi, o'quvchi esa nafaqat yangi bilimlarni oladi, balki uni tahlil qilishni va hayotda qo'llashni ham o'rganadi.

Blum taksonomiyasi oddiydan murakkabga tomon yo'naltirilgan o'quv maqsadlari tizimidir. Amalda u o'ziga xos navigator bo'lib xizmat qiladi: uning yordami bilan pedagog va o'qituvchilar individual darslarni ham, maqsadga yo'naltirilgan dasturlarni ham qulay tarzda tashkil qilishlari, o'rganishning har bir bosqichi uchun zarur vazifalar va baholash vositalarini topishlari mumkin. Taksonomiya ta'lim maqsadlarini aniqlashtirishga ko'maklashadi. Pedagog aniqlashtirilgan maqsadlar asosida talabalar uchun vazifalarni ishlab chiqadi va to'g'ri baholash me'zonlarini tanlaydi. Taksonomiya yordamida o'qituvchi o'rganish tizimini yaratadi, talaba esa nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradi, balki uni tahlil qilishni va hayotda qo'llashni ham o'rganadi. Aniqlashtirilgan maqsadlar tizimi oddiydan murakkabga yo'naltiriladi. Bilish, tushunish rivojlanishning eng quyi darajasiga, amaliy qo'llash va tahlil o'rta darajaga, sintez va baholash jarayoning eng yuqori darajasiga qo'yiladi. Bunda taksonomiya muallifining fikricha o'qituvchining vazifasi talabalarning yuqori fikrlash darajasiga erishishini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Blum taksonomiyasining afzalliklari: Darslarni bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etishga yordam beradi; O'quvchilarning tafakkur darajasini aniqlash imkonini beradi; Adabiy asarlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi; Baholashda shaffoflik va aniqlikni ta'minlaydi.

Blum taksonomiyasining eng yuqori bosqichi – yaratish bosqichida o'quvchilarning kashfiyotchilik iqtidori namoyon bo'ladi. Ularning har biri o'z yaratig'ining boshqalarnikidan ajralib turishini, noan'anaviy bo'lishini xohlaydi. Shu o'rinda san'atga qobiliyati bo'lgan o'quvchilarning tashabbusidan samarali foydalanilsa, o'quv mashg'uloti jarayoni yanada jonli o'tadi. Misol uchun, rassomchilikka iqtidori bo'lgan o'quvchilar Alisher Navoiy portretini, Hirot tasvirini yoki mumtoz miniatyura namunalarini chizib kelishi mumkin. Teatr san'atiga qobiliyati bor o'quvchi Alisher Navoiy qiyofasida o'quv mashg'ulotida qatnashishi sinfdagi muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaymiz. Qo'shiqchilikka iqtidori bor o'quvchilar Alisher Navoiy g'azali bilan aytiladigan ashulalardan namunalar, hech bo'lmaganda, parchalar ijro etib berishlari sinfda mumtoz adabiyot ruhiyatini beradi. Blum taksonomiyasi adabiy ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va estetik tafakkurini shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchi ushbu tizimdan foydalanib, o'quv jarayonini aniq maqsadlar asosida tashkil etadi. Har bir bosqich o'quvchining shaxsiy o'sishiga, adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Yuqori bosqich — yaratish bosqichida esa o'quvchilarda kashfiyotchilik, san'atga muhabbat, badiiy ifoda va o'ziga xoslik kuchayadi. Bu bosqichda ular asarlarni qayta talqin qiladi, yangi badiiy shakllarni izlaydi, drammatizatsiya yoki ijodiy yozuv mashqlarini bajaradi. Natijada, o'quvchilarda nafaqat bilim, balki badiiy tafakkur, estetik did va ijodkorlik rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Blum taksonomiyasi ta'limda tizimlilik, izchillik va maqsadga yo'naltirilganlikni ta'minlaydi. Adabiy ta'limda esa bu yondashuv o'quvchilarni faqat asarni o'qishga emas, balki uni tahlil qilish, baholash va ijodiy tarzda qayta yaratishga o'rgatadi. Blum taksonomiyasi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning estetik didini boyitadi, ularni mustaqil fikrlaydigan, tahliliy va ijodiy shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva, Q. va b. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Innovatsiya-Ziyo, 2020. = 26 b.
2. Olim, S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2019. – 187 b.
3. Sirojiddinov, Sh. va boshqalar. Navoiyshunoslik. Darslik. Toshkent: Tamaddun,

2019. — 298 b.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. 1996. — 176 b.

O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLARNING LEKSIK – SEMANTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Karabayeva Janar Akimbayevna

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Chirchiq davlat pedagogika
universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tiliga kirib kelgan o'zbekcha o'zlashmalarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. O'zlashma birliklarning semantik kengayishi, grammatik moslashuvi hamda tilshunoslik va ta'lim jarayonidagi metodik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, lingvokulturologik va semantik tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqola natijalari ingliz tili o'qitish metodikasida o'zbekcha o'zlashma so'zlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'zlashma so'zlar, leksik-semantik tahlil, grammatik moslashuv, ingliz tili, metodika, lingvokulturologiya.

Abstract. This article analyzes the lexical-semantic and grammatical features of Uzbek loanwords that have entered the English language. It highlights the semantic expansion, grammatical adaptation of loan units, as well as their methodological significance in linguistics and the educational process. Comparative-historical, linguocultural, and semantic analysis methods were applied in the research. The results of the study demonstrate the possibilities of effectively using Uzbek loanwords in English language teaching methodology.

Keywords: loanwords, lexical-semantic analysis, grammatical adaptation, English language, methodology, linguoculturology.

KIRISH

Jahon tillari taraqqiyotida o'zlashma so'zlar hodisasi muhim lingvistik jarayon sifatida alohida o'rin tutadi. Har qanday tilning boyligi va rivoji o'zaro madaniy aloqalar, savdo, ilm-fan hamda ijtimoiy jarayonlar natijasida yuzaga keladigan so'z almashinuvi orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ingliz

tiliga kirib kelgan o'zbekcha o'zlashma so'zlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki metodika, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqning tili boshqa xalqlar bilan madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalari orqali boyib boradi. Ingliz tiliga kirib kelgan o'zbekcha so'zlar ham shu jarayonning tabiiy mahsuli bo'lib, ularni o'rganish leksik-semantik hamda grammatik jihatdan katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Dunyo tillari o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi va bu jarayonda o'zlashma so'zlar muhim rol o'ynaydi. Ingliz tiliga kirgan o'zbekcha o'zlashma so'zlar xalqimizning milliy qadriyatlari, turmush tarzi va madaniy merosini aks ettiruvchi lingvistik birliklardir. Ularni ilmiy asosda o'rganish tilshunoslik nazariyasi uchun ham, til o'qitish metodikasi uchun ham dolzarb masalalardan biridir.

METODOLOGIYA.

Maqolada quyidagi yondashuvlardan foydalanildi:

Qiyosiy-tarixiy usul – o'zlashma so'zlarning ingliz tiliga kirib kelish jarayonini aniqlash;

Lingvokulturologik yondashuv – o'zbek xalqining ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini ingliz tilida ifodalanishini o'rganish;

Semantik va grammatik tahlil – so'zlarning ingliz tilidagi ma'no o'zgarishlari va grammatik moslashuv jarayonini tahlil qilish.

ASOSIY QISM

Ona tilimizdan ingliz tiliga kirib borgan so'zlar, avvalo, o'zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlar va milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Masalan, plov (pilaf), suzani, mahalla, bazar kabi so'zlar ingliz tilida ham ishlatiladi va ular o'zbek milliy madaniyatining yorqin belgilarini o'zida mujassam etadi.

Bu jarayonni o'rganish orqali o'quvchilar leksik birliklarning asl ma'nosi va semantik o'zgarishlarini tushunadilar, bir so'zning turli tillarda qanday ma'no kengayishi yoki torayishini bilib oladilar hamda milliy madaniyatni til orqali anglash ko'nikmasi shakllanadi.

Masalan, bazaar so'zi ingliz tilida faqatgina "bozor" emas, balki "turli xil mahsulotlar sotiladigan yirik savdo majmuasi" ma'nosida ham ishlatiladi. Bu semantik kengayish til o'zlashuvining qanchalik dinamik jarayon ekanini ko'rsatadi. O'zlashma so'zlarning leksik-semantik tahlili tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Chunki ular orqali tilning boyishi, so'zlarning semantik kengayishi yoki torayishi, ma'no ko'chishlari va madaniy qadriyatlarning lingvistik ifodasi aniqlanadi. Masalan, ingliz tiliga o'zlashgan plov (pilaf), suzani, mahalla, bazar kabi so'zlar nafaqat yangi

leksik birlik sifatida qabul qilingan, balki ingliz tilida qo'shimcha ma'no yukini ham olgan. Xususan, bazaar so'zi ingliz tilida "savdo bozori" bilan birga "ko'rgazma" yoki "xayriya yarmarkasi" ma'nolarida ham qo'llanadi. Bu hodisa so'zning semantik kengayishi va til tizimida yangicha funksional o'rinni egallashini ko'rsatadi.

Ingliz tilida qo'llaniladigan ayrim o'zbekcha so'zlar:

"Kayk, Qayiq"-so'zi qadimgi turkiy tildan kelib chiqqan bo'lib, dastlab yengil suzuvchi vosita ma'nosini bildirgan. Bu so'z fors tiliga qâyeq (قایق) shaklida o'tgan. Keyinchalik, Usmonli imperiyasi orqali yunon, italyan va fransuz tillariga tarqalgan. Turkiy manbalarda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu Lug'otit Turk" asarida "qayiq" shaklida qayd etilgan, "kichik suzuvchi vosita" ma'nosida ishlatilgan. Forscha shakli - qâyeq (قایق) – fors tilida o'zlashma so'z sifatida mavjud. Yunoncha shakli - kaïki (καϊκι) – yunon tilida ham kichik qayiq ma'nosida ishlatiladi. Italiyacha shakli: - caicco – O'rta Yer dengizi hududida ishlatiladigan yog'ochdan yasalgan qayiq turi. Fransuz va inglizcha shakllari - caique – ingliz va fransuz tillariga Usmonli imperiyasi orqali o'tgan, asosan Sharqiy O'rta Yer dengizi hududida ishlatiladigan tor va uzun qayiqni anglatadi.

"Kak", "gag" - yumaloq ob'yekt, pishgan non bo'lagi ma'nosini ifodalab kelgan. Qadimgi turkiyda Kâk - quruq obi non kabi ishlatilgan, keyinchalik arab tiliga ka'k bo'lib o'zlashgan. Hozirgi o'zbek tilida qoqi - qotgan non ma'nosida, qurutilgan mevalar ma'nosida qo'llaniladi. German tiliga *kakan* - nemis tiliga *koek* tarzida o'zlashgan. Ingliz tiliga German tilidan *cookie, cake* - pishiriq, qotgan non ma'nosiga o'zlashgan. Bu so'zning harakatlanish yo'nalishi Sharqdan G'arbga bo'lganini ko'rsatadi. Leksik-semantik xususiyatlari jihatidan narsa va taom nomlari (non, pishiriq) guruhiga kiradi. Ma'no rivojlanishi jarayonida yumaloq shakl asosiy belgi bo'lib qolgan. Turli tillarda u qattiq yoki yumshoq non, pechenye, pirog ma'nolarini olgan. Grammatik xususiyatlaridan esa qadimgi turkiy tilda – ot sifatida ishlatilgan (*kâk* – quruq non), o'zbek tilida – ot shaklida saqlangan (*qoqi* – qattiq non, qotirilgan meva), arab tilida – ot sifatida (*ka'k* – pishiriq, pechenye), ingliz tilida – ot sifatida ishlatiladi (*cake, cookie*). Ushbu so'zning etimologik yo'li bizga turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi ta'sirlarni ko'rsatib beradi.

"Qaftan" - so'zi qadimgi turkiy tillarda zirh (zirhli kiyim) yoki yengli ustki kiyim ma'nolarida ishlatilgan. Ushbu so'z arab va fors tillariga ham o'zlashgan va u yerdan rus, ingliz va boshqa Yevropa tillariga kirib kelgan. Rus tiliga «Кафтан» shaklida kirib, yengli, uzun va odatda rasmiy yoki harbiy kiyimni anglatgan.

Ingliz tilida esa «caftan» shaklida qabul qilinib, ko'proq yengil, uzun yengli, odatda ipak yoki paxtadan tikilgan milliy kiyim ma'nosini olgan.

Leksik-semantik xususiyatlari. Turkiy tillarda dastlab harbiy yoki himoya maqsadidagi kiyim sifatida ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik oddiy yengli kiyimni ham anglata boshlagan. Fors va arab tillarida: odatda hashamatli, uzun yengli kiyimni bildirgan. Rus tilida: kaftan deganda tarixiy jihatdan harbiy va rasmiy kiyim tushunilgan, keyinchalik esa oddiy xalq kiyimi ma'nosida ishlatilgan. Ingliz tilida esa asosan Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo yoki Afrikada kiyiladigan milliy kiyimni bildiradi.

Grammatik xususiyatlari. Turkiy tillarda «qaftan» ot bo'lib, birlik va ko'plik shakllari bor (masalan, qaftanlar). Rus tilida: «кафтан» ot bo'lib, erkak rodli, birlikda «кафтан», ko'plikda «кафтаны». Ingliz tilida: «caftan» ot bo'lib, birlik shakli «caftan», ko'plikda esa «caftans».

Suzani – milliy hunarmandchilik mahsuloti sifatida ingliz tilida ham o'z nomini saqlab qolgan.

“Gar” - yutish ma'nosida Avesto tilida mavjud bo'lgan. Garah - tomoq, gar - garah - g'arg'ara qilish, tomoqni chayqash ma'nosida ishlatilgan. Shu tildan sanskrit tiliga shu ma'noda, lotin tiliga ham o'zlashgan. Natijada esa ingliz tilidagi gargle - tomoq chayish so'zida o'zlashgan. Hozirgi o'zbek tilida g'arg'ara kabi mavjud. «Gar» ildizi qadimgi Avesto tilida «yutish» ma'nosini bildirgan. Shu ildizdan kelib chiqqan «garah» so'zi «tomoq», «gar-garah» esa «g'arg'ara qilish», ya'ni tomoqni chayqash ma'nosida qo'llanilgan. Bu ildiz Sanskrit tiliga ham o'tib, u yerda ham tomoq va chayish bilan bog'liq ma'nolarni ifodalagan. Keyinchalik, bu so'z Lotin tiliga o'tgan va undan esa ingliz tilidagi “gargle” shakliga aylangan. O'zbek tilida «g'arg'ara» shaklida saqlanib qolgan bo'lib, u «tomoqni chayish» yoki «suv bilan chayqash» ma'nosida ishlatiladi.

Leksik-semantik xususiyatlari jihatidan bu so'z tibbiyot, gigiyena, nutq taqlidi kabi turli sohalarda ishlatiladi. Grammatik xususiyatlari bilan tanishib chiqsak. So'z turi: fe'l (g'arg'ara qilmoq), ot (g'arg'ara). Tuzilishi: o'zbek tilida mustaqil so'z bo'lib, hech qanday qo'shimchalarsiz ishlatilishi mumkin. Fe'l shakli: g'arg'ara qilmoq – fe'l, g'arg'aralamoq ham ishlatilishi mumkin. Ot shakli: G'arg'ara – jarayon nomi sifatida. Bu so'z qadimgi tillardan hozirgi zamon til qatlamlarigacha yetib kelgan kuchli fonetik o'zgarishlarga uchramagan va hali ham o'zining asosiy ma'nosini saqlab qolgan. Til o'zlashmalarni semantik jihatdan o'z tizimiga moslashtirar ekan, ko'pincha ularning asl madaniy mazmunini ham o'zlashtiradi. [1:51]

Qadimgi turkiy tilda “qaz” - g‘oz ma’nosida ishlatilgan. Fors tiliga “ġâz” (غان) shaklida o‘zlashgan. Germaniya tillariga ham ta’sir etib, nemis tilida «Gans»(Hans bilan bog‘liq emas), “Ganter” va “Gänsen” so‘zlariga o‘tgan. Ingliz tiliga nemis tilidan «goose»(g‘oz), «gander»(erkak g‘oz), “gannet” (g‘ozga o‘xshash dengiz qushi) so‘zlari o‘tgan. Leksik-semantik xususiyatlari: so‘z qush nomini bildiradi. Metaforik ma’nolar ham paydo bo‘lgan. Masalan, ingliz tilidagi “gander”, nafaqat erkak g‘oz, balki “qarab chiqmoq” (to take a gander) ma’nosida ham qo‘llanadi. Ba’zi tillarda “qaz” yoki “g‘oz” so‘zi metaforik ravishda ahmoq, sodda ma’nosida ishlatiladi (masalan, rus tilida “гусь” kinoya bilan ishlatilishi mumkin). Grammatik xususiyatlari jihatdan turkiy tillarda ot bo‘lib, ko‘plik shakli qazlar (o‘zbekcha: g‘ozlar) tarzida yasaladi. Ingliz tilida “goose” birlik, “geese” ko‘plik. (Bu ichki morfologik o‘zgarish tufayli hosil bo‘lgan: oo → ee tovush o‘zgarishi). «Gander»mustaqil ot sifatida ham ishlatiladi (erkak g‘oz). Fors tilida “ġâz” (غان) shaklida kelib, grammatik jihatdan oddiy ot sifatida qo‘llanadi. Umuman olganda, qaz → ġâz → Gans/Ganter → goose/gander/gannet kabi o‘zgarishlar orqali turli tillarga o‘zlashgan va semantik jihatdan boyib borgan.

Sintaktik moslashuv orqali o‘zlashgan so‘zlar ingliz tilidagi gap tarkibida tabiiy holatda ishlatila boshlaydi. Misol uchun: We tried the Uzbek plov at the local festival. Transkripsiyaviy moslashuvda esa o‘zbekcha tovushlar ingliz alifbosiga mos transliteratsiya qilinadi. “Tandoor” (o‘zbekcha “tandir” so‘zidan dan) — ingliz fonetikasiga moslashtirilgan shaklda vujudga kelgan. Bu holatlar “imported words with structural adaptation” deb ataladi.[2:203]

Keltirilgan misollar o‘zlashma so‘zlarning semantik kengayishi va yangi madaniy konnotatsiyalarga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Ingliz tiliga kirib kelgan o‘zbekcha so‘zlar mazkur tilning umumiy grammatik qonuniyatlariga moslashadi. Bu jarayon fonetik, morfologik va sintaktik darajalarda kuzatiladi. Ayrim hollarda so‘zlar fe’llashtiriladi (to bazaar — “bozorda xarid qilish”), bu esa grammatik kategoriyalarni kengaytiradi.

Grammatik moslashuv hodisasi o‘zlashma so‘zlarning ingliz tilidagi integratsiya jarayonini yaqqol namoyon etadi. Bunday jarayonni o‘rganish til tizimining universalligini va moslashuvchanligini ko‘rsatadi. O‘zlashmalar ingliz tilining grammatik qoidalariga bo‘ysunadi.

METODIK AHAMIYATI

Mazkur so‘zlarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini o‘rganish ta’lim jarayonida bir necha jihatdan muhimdir:

Qiyosiy tahlil imkoniyati – o'quvchilar ingliz va o'zbek tillaridagi o'xshash va farqli jihatlarni anglash orqali lingvistik tafakkurini rivojlantiradi. Leksik boylikni oshirish – o'zlashma so'zlar orqali o'quvchilar lug'at zahirasi kengaytiradi va turli madaniy tushunchalarni ingliz tilida ifodalashni o'rganadi.

Madaniyatlararo kompetensiya – til orqali o'zbek xalqining qadriyatlari, an'analari va ijtimoiy hayoti haqida tasavvur hosil qiladi, shu bilan birga ingliz tilida ularning ifodasini o'zlashtiradi. O'zlashmalarni ingliz tilini o'qitishda qo'llash o'quvchilarda qiyosiy tahlil ko'nikmasini rivojlantiradi, lug'at boyligini kengaytiradi, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini oshiradi hamda o'quv jarayonini qiziqarli va mazmunli o'tkazishga yordam beradi.

Komilov N. o'z asarlarida madaniyatlararo muloqotni ta'minlashda tilning milliy komponentlarini chuqur o'rganish zarurligini ta'kidlaydi: "Lingvomadaniy kompetensiya – bu til va madaniyatni birgalikda anglash jarayonidir. Chet tilini o'rganishda ona tilning lingvomadaniy boyligi hamda u orqali chet tilida mavjud bo'lgan o'zlashmalar alohida o'rganilishi lozim"[3: 94]. Shu sababli, ingliz tili darslarida madaniyatlararo qiyosiy o'rganish metodikasi asosida o'zbekcha elementlar ham kirib kelgan matnlar, videolar yoki interaktiv topshiriqlardan foydalanish samarali bo'ladi.

XULOSA.

O'zbek tilidan ingliz tiliga o'zlashgan so'zlarning leksik-semantik va grammatik jihatlarni o'rganish lingvistik tadqiqotlar uchun muhim nazariy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, ta'lim jarayonida samarali metodik vosita ham hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilarda tilni chuqurroq o'zlashtirish, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va global til taraqqiyotini anglash imkoniyatini beradi. Shu bois, mazkur mavzuni yanada kengroq ilmiy asosda o'rganish hamda ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb vazifalardan biridir. Shunday qilib, o'zbek tilidan ingliz tiliga o'zlashgan so'zlarning leksik-semantik va grammatik qoidalarini o'rganish lingvistik, metodik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan beqiyos ahamiyatga ega. Bu so'zlar ikki tilning o'zaro ta'sirini yoritib berish bilan birga, o'quvchilarda qiyosiy tahlil, lingvokulturologik fikrlash va madaniy kompetensiya ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois mazkur jarayonni ilmiy asosda tadqiq etish hamda ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Weinreich, U. Languages in Contact: Findings and Problems. New York: Linguistic Circle of New York. 1953.-51 b
2. Haugen, E. (1950). "The Analysis of Linguistic Borrowing". Language, Vol. 26, No. 2, pp. 203.
3. Komilov, N. va madaniyat: Lingvomadaniyatshunoslik asoslari. Toshkent: Fan. 2007. -94 b
4. Ahmedov, A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan nashriyoti. 2010
5. Qodirov, M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2018
6. Jo'rayev, O. (). "O'zbek tilidan ingliz tiliga o'zlashgan so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari". O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2021 №3, 55–62-b.
7. Karabaeva, J. "Leksik birliklarning tarjima jarayonida semantik kengayishi". Xorijiy filologiya ilmiy jurnali, 2022. №4, 33–39-b.

O'ZBEK TILIDA RESTORAN NEYMINGI: STRUKTUR-SEMANTIK ASPEKT

Kenjayeva Nilufar va Doliyeva Fayoz

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fakulteti O'zbek tili va
adabiyoti

yo'nalishi 3-bosqichtalabalari

Xusanqizikenjayevanilufar338@gmail.com

Sharipqizifayyozadoliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada restoran nomlarining mazmuni, ularning milliylik va madaniyatni aks ettirishi, hamda mijozlarga ko'rsatadigan ta'siri haqida fikr yuritiladi. Neymingning ahamiyati misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: neyming, restoran, nom, brend, milliylik, til, madaniyat, mijoz, joziba, raqobat, identitet, savdo, xizmat, urf-odat.

Annotation. The article explores how restaurant names reflect national identity and culture, and their influence on customers. The importance of naming is illustrated through examples.

Keywords: naming, restaurant, name, brand, identity, language, culture, customer, appeal, competition, tradition, service, marketing, reputation.

Аннотация: В статье рассматривается, как названия ресторанов отражают национальную идентичность и культуру, а также их влияние на клиентов. Значение нейминга показано на примерах.

Ключевые слова: нейминг, ресторан, название, бренд, идентичность, язык, культура, клиент, привлекательность, конкуренция, традиция, обслуживание, торговля, репутация.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida har bir davlat o'z mahsulotini dunyo bozoriga chiqarishni va shu orqali jahon bozoriga kirib borishni istaydi. Buning uchun korxona, tashkilot o'z mahsulotiga munosib nom tanlashi kerak albatta, sifati ham shunga munosib bo'lishi kerak.

Yuqori texnika va texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy biznes olamini raqobatbardosh brendlarga aylantirib yubordi va bu bilan bozorni egallashda afzalliklar yaratdi. Zamonaviy neyminglar kompaniya faoliyatida muhim komponentga

aylantirdi. Bu o'rinda shu aytib o'tish joizki, K. A. Дзюба neyming haqida quyidagilarni keltirib o'tadi:

“Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tovar nomlarini o'rganish uchun nazariy asos bo'ladi. Bugungi kunda onomastik makon har doimgidan ko'proq reklama aloqalari sohasida paydo bo'ladigan yangi til birliklari bilan faol ravishda to'ldirilmoqda. Ushbu jarayon xalqaro savdoning jadal o'sishi bilan rag'batlantiriladi, bozorda yangi kompaniyalar paydo bo'lganda va ular ishlab chiqaradigan tovarlarning nomlarini yaratish zarurati tug'lsa. Natijada, mahsulotning bozorda tobora ommalashib borishi bilan bir qatorda, uning nomi asta-sekin tilning leksik fondida qayd etilib, ko'pincha bir qator birikmalarga ega bo'lib, ona tilida so'zlashuvchilar nutqida o'zlarining ma'nolariga ega bo'lmoqda”[Дзюба, 2014].

Biz bilamizki, O'zbekistondagi ko'p restoranlarimizning nomlari o'zbekcha emas, balki inglizcha yoki ruscha. Nima biz o'zbekcha nomlasak, “obro'yiga” putur yetadimi? To'g'ri, inglizcha nomlasak, chet ellik mehmonlarimiz ko'proq tashrif buyuradi deb o'ylaymizmi, yoki obro'lroq ko'rinadi deb o'ylaymizmi...? Shu o'rinda aytib o'tish joizki, o'zbekcha nom bilan ataladigan restoranlarimiz ham yo'q emas: “Karomat”, “Sim- sim”, “Nur”, “Samo”, “Joziba”, “Jiz-biz”, “Rayhon” milliy taomlari.... Bu kabi nomlar, avvalo, o'zligimiz, milliyligimizni anglatib turmaydimi?

Endi bu yuqoridagi nomlarni birma- bir nima ma'no anglatishini tahlil qilib chiqsak: *Karomat*- lug'aviy ma'nosi “obro'-e'tibor”, “salovat”, “saxiylik”, “mo'jiza” degan ma'nolarni anglatadi. Shundan kelib chiqib bu restoran o'ziga xos mo'jizaga ega, obro'-e'tiborli va salovatli degan ma'nolarni anglatadi. *Sim-sim*-bu so'zning ma'nosi ravish so'z turkumiga mansub bo'lib *simillab* so'zidan kelib chiqqan “davomli”, “sekin-sekin” degan ma'nolarni anglatadi. Bu restoran *davomli* xizmat ko'rsatadigan, sekin-sekin o'z mijozlarini ko'paytirib boruvchi ovqatlanish joyi desak ham bo'laveradi. *Nur*-“nur taratib turuvchi”, “yog'du” degan ma'nolarni anglatadi. Aslida ham shunday bu restoranga tashrif buyuruvchilar ham birinchi o'rinda uning nomiga e'tibor beradi. Keyin esa xizmat ko'rsatishiga. Bundan kelib chiqdi, Nom qo'yish muhim ahamiyatga ega ekan. Keyingi restoranlarimizdan biri bu: *Samo*-Osmon, ko'k, falak ma'nolarni anglatadi. Aslida turkiycha nomi *ko'k* so'zidir. *Joziba*-yoqimlilik, dilbarlik, malohat ma'nolarini anglatib qolmasdan *o'ziga tortuvchi kuch* ma'nolarni anglatadi. *Jiz-biz*-o'zi aslida ma'nosi ovqat turlaridan biri bo'lib, *qovurilgan go'sht* ma'nolarini anglatadi. Keyinchalik esa, restoran nomiga o'tib qolgan. Bu yerda faqat qovurilgan go'shtmas xohlagan taomingizni tanovul qilishingiz mumkin. “*Rayhon*” milliy taomlari hozirda eng ommabop oilaviy restoranlarimizdan

hisoblanadi. Aslida bu nomning ma'nosi *arabcha* so'z bo'lib, xo'shbo'y o'simlik turi. Labguldoshlariga mansub, osh-ko'k o'simlik. Bu restoranning o'ziga xos tomoni bu yerda spirtli ichimliklar ichish va tamaki mahsulotlar chekish taqiqlanadi. Bu esa istemolchilarni yanada o'ziga tortmoqda. Bunaqa restoranlar bisyor. Yuqorida ko'ryapmizki, nomlar o'zgacha, bu nomlar o'ziga xos jozibasi bilan ajralib turadi. Nom haqida mashhur bir biznesman shunday deydi: *"Nomda nima bor? Ko'p narsa, ayniqsa bu nom restoran kabi biznes bilan bog'liq bo'lsa. Restoran nomi identifikatorining bir qismidir. Kimdir buni eshitganda yaxshi tuyg'ularni uyg'otishi kerak yoki o'tmish oqshomining baxtli xotirasini chaqirish yoki bu joyni sinab ko'rish uchun qiziqish. Yaxshi restoran nomi restoran kontseptsiyasini aks ettiradi va u erda topiladigan ovqatlanish turini, joylashishni va havoni taklif qiladi"* [ЕВДОКИМОВА, 2013] Albatta, har qanday tashkilot bo'ladimi, korxona bo'ladimi va shu qatorda restoran bo'lsa ham nom katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham nom tanlashda uzoqni ko'zlab, ertaga qanaqa iffekt beradi degan tushuncha bo'lishi lozim. Yuqorida sanab o'tilgan restoran nomlarida qaysidirlari arabcha, qaysidirlari forsha, qaysidirlari o'zbekcha bo'lishi mumkin, lekin hozirda o'zbekchalashib ketgan so'zlardir. Yana bir narsani alohida ta'kidlash joizki, qaysi mamlakatga bormang, o'sha mamlakatning milliy tilida yozilgan so'zlarini ko'rsangiz, yoki o'sha mamlakatning tilida yozilgan restoran nomlariga ko'zingiz tushsa, birinchi navbatda o'sha mamlakatning tiliga bo'lgan e'tiborni ko'rasiz va shu bilan bir qatorda qaysi davlatda yurganligingizni his qilib turasiz. Masalan: Xohlang AQSH, xohlang Fransiya, xohlang Germaniyaga. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonga ham.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qaysi davlatga tashrif buyurmang o'z milliy urf-odatlarini namoyish qilishga harakat qiladi. Ya'ni o'z milliyligini ko'rsatishga harakat qiladi. Shu bilan bir qatorda ovqatlanish joylarida ham shu taqlidni qilishadi. Chunki ovqatlanish joylari ham millatning o'ziga xosligini ko'rsatib turuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun restoran bo'ladimi, yoki kichik choyxona bo'ladimi hammasida o'z davlat tilida nomlangan bo'lsa, tashrif buyuruvchida o'sha davlatga nisbatan hurmat hissi paydo bo'ladi. Ya'ni o'sha davlat "brend"i haqida taassurot paydo bo'ladi. Bu narsa milliylikni ko'rsatuvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoymardonov T. va boshq. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash. O'quv-uslubiy majmua. –T.: 2016. -165 b.

2. Qurbanov. A “Talabalarda intellektual kompetentsiyalarning rivojlantirishning tarkibiy qismlari” maqola 2022 y. 2-bet. 4.
3. Yusupova D.S. “Malakali pedagogik faoliyat orqali qobiliyatli bolalarni aniqlash” 2024. -5 b.
4. ziyonet.uz

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNALOGIYALAR

Rahamqulova Asila Sharofiddinqizi,

Rustamova Muxlisa Faxriddinqizi

CHDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 23/4-guruh talabasi

raxamqulovadildora@gmail.com

rustamovamuxlisa837@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalarining zamonaviy ta'limdagi o'rni, ularning samaradorligi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan uslublari tahlil qilinadi. "Tarozi", "Yelpig'ich" va "Zigzag" texnologiyalari misolida ularning amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, texnologiya, metod, o'qituvchi, o'quvchi, mustaqillik, fikrlash, interfaol, usul, zamonaviylik, samaradorlik, pedagogika, yondashuv.

Annotation. The article analyzes the role and effectiveness of innovative educational technologies in modern education. It highlights how methods like "Scales," "Fan," and "Zigzag" develop students' critical thinking and learning independence.

Keywords: education, innovation, technology, method, teacher, student, independence, thinking, interactive, approach, effectiveness, pedagogy, learning, modernity.

Аннотация. В статье анализируется роль и эффективность инновационных образовательных технологий в современном обучении. Рассматриваются методы «Весы», «Веер» и «Зигзаг» как инструменты развития критического мышления и самостоятельности учащихся.

Ключевые слова: образование, инновация, технология, метод, учитель, ученик, самостоятельность, мышление, интерактив, подход, эффективность, педагогика, обучение, современность.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innavatsion tenalogiyalar,pedagogik va axborat texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kunga kuchayib bormoqda,bunday bo'lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha a'nanaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa,zamonaviy texnologiya ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlarga, mustaqil

o'rganib, tahlil qilishlarga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlarga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlantirishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatarda boshqaruvchilik, yunaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Innovatsion texnologiyalarga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar, o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini taminlaydi.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishini ta'minlash uchun ta'lim muassasalarga yaxshi tayorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan kadr bo'lishi kerak. Yoshlarga zamonaviy bilim berish va ularda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyos. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashda zamonaviy axborat texnologiyalari keng imkoniyat yaratmoqda.

2020-yil 27-fevralda Prezident tomonidan "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilingan. 2024-yil 16-oktyabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni (PF-158) qabul qilingan.

Shu nuqtai nazardan hozirgi zamon ta'limida 3 xil yondashuv bor. Bular:

- ❖ Ko'rgazmali yondashuv
- ❖ Texnologik yondashuv
- ❖ Zamonaviy yondashuv

«Tarozi» texnologiyasi. Mazkur texnologiya munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'l keladi. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, muxoliflarni ishontiradi, munozara madaniyatiga o'rgatadi.

«Tarozi» texnologiyasi o'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanishi mumkin. Ammo u o'tilgan materiallar bo'yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki o'qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o'rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi. Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

Asosiy tushunchalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Mavzu turli nuqtai nazarlarning to'qnashuviga imkoniyat beruvchi hamda ulardan birortasiga ham imtiyoz bermaydigan tasdiqdir. Mavzu shunday tanlanishi kerakki, u o'rganilayotgan mavzuning barcha qirralarini ochishi, o'quvchilarning axborot qidirish hamda izlanuvchanlik faoliyatlarini rag'batlantirsin.

Argument – bu o'z nuqtai nazarini tasdiqlashga olib keluvchi asosli dalil, g'oya, mulohazadir. Dalillash anik, mantiqiy, asoslangan bo'lishi, faktlar, sharhlar, mulohazalar, isbotlar, misollar, iqtiboslar, manbalarga, obro'li guvohnomalarga havolalar va boshqalar bilan quvvatlangan bo'lishi kerak.

Kontrargument (qarshi dalillash) – bu raqibning dalillarini rad etish bo'lib, u dalillashga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak. To'g'ri tanlangan kontrargument raqibning nuqtai nazarini zaiflashtirishi hamda o'zining himoya yoki rad etish chizig'ini mustahkamlashi lozim.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- ❖ rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ❖ o'z shaxsini takomillashtirishga intilish;
- ❖ faol hayotiy nuqtai nazarini shakllantirish;
- ❖ o'zga fikriga hurmat va toqat qilish;
- ❖ jamoada ishlashni eplay olish;
- ❖ murosali qarorga kela olish;
- ❖ xushmuomalalik;
- ❖ o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish.

“Yelpig'ich” texnologiyasi. Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Yelpig'ich” texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan. “Yelpig'ich” texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- ❖ -boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

❖ -mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

❖ -yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Bu texnologiya talabalarga tanqidiy, tahliliy va ainq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek, uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga aylangan. An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilar ko'proq tayyor bilimlarni qabul qilish bilan cheklangan bo'lsa, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ularni mustaqil o'rganishga, tahlil qilishga va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, yoshlarning bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish imkonini yaratadi. Innovatsion pedagogik metodlar, xususan «Tarozi», «Yelpig'ich» va «Zigzag» texnologiyalari o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish, jamoada ishlash va o'z fikrini himoya qilish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. Ushbu usullar nafaqat bilim berishda, balki tarbiyaviy vazifalarni bajarishda ham samarali hisoblanadi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni chuqur o'zlashtirishi va interfaol usullarni faol qo'llashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat bilim berish jarayonini yanada samarali qilish, balki yoshlarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yordam beradi. Shuning uchun ham zamonaviy ta'lim muassasalari va o'qituvchilar innovatsion pedagogik yondashuvlarni doimiy ravishda o'rganib, amaliyotga tatbiq etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, D. Kommunikativ yondashuv asosida ona tili o'qitish. - Toshkent: Ilm Ziya, 2021. 112-b.
2. Qodirova M. Ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish. - Toshkent: O'zbekiston, 2020. 98-b.
3. Jo'rayeva, N. Til o'qitish metodikasi. -Toshkent: Fan, 2019. 156-b.
4. Avliyakov, N. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: TDPU 2017. 184-b.
5. Vygotsky, L. S. Thought and Language. Cambridge: -MIT Press, 1986. 48-b.

ONA TILI TA'LIMIDA METODLARDAN FOYDALANISH

Jumanova Nazokat Shuhrat qizi

(jumanovanazokat782@gmail.com)

Rixsiboyeva Sevinch Farxod qizi

(sevinchrixsiboyeva82@gmail.com)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi” uchinchi bosqich talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limida qo'llaniladigan metodlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Xususan, an'anaviy, interfaol va innovatsion metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning o'quvchilar nutqiy va tafakkuriy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqola ta'lim jarayonida metodlarni maqsadga muvofiq tanlash va uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ona tili, metod, ta'lim, an'anaviy metod, interfaol metod, innovatsion metod, nutqiy ko'nikma.

Annotation: This article examines the role and significance of methods applied in native language instruction. Specifically, it analyzes the distinctive characteristics of traditional, interactive, and innovative methods, as well as their function in fostering students' linguistic competence and cognitive abilities. The study substantiates the necessity of appropriately selecting and integrating teaching methods within the educational process.

Keywords: native language, method, education, traditional method, interactive method, innovative method, speech competence.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение методов, применяемых в преподавании родного языка. В частности, анализируются особенности традиционных, интерактивных и инновационных методов, а также их функция в развитии речевых и когнитивных способностей учащихся. В исследовании обосновывается необходимость целесообразного выбора и интеграции методов обучения в образовательный процесс.

Ключевые слова: родной язык, метод, образование, традиционный метод, интерактивный метод, инновационный метод, речевое умение.

Ona tili – bu xalqning ma'naviy boyligi, madaniyatini ifodalovchi asosiy vositadir. Shu bois uni o'qitish jarayonida metodlardan oqilona foydalanish muhim o'rin tutadi. Metod – bu o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini muayyan maqsad sari

yo'naltirish usuli bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim vositasidir. Ona tili fanini o'qitishda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llash orqali o'quvchilar nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirish va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish mumkin.

Ona tili ta'limida an'anaviy metodlardan keng foydalaniladi. Izohli bayon, suhbat, mashq metodlari o'quvchilarga nazariy bilimlarni tushuntirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu metodlar o'quvchilar uchun ona tilining nazariy asoslarini o'rganishda poydevor vazifasini bajaradi. Bugungi kunda interfaol metodlar darslarning asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda. "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Bahs-munozara" kabi metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, erkin mulohaza bildirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar o'quvchini bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi va yaratuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi ona tili fanini o'qitishda ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Multimedia vositalari, elektron lug'atlar, onlayn testlar va taqdimotlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashni samarali tashkil etadi. Bundan tashqari darslarni yana qiziq hamda samarali bo'lishini maqsad qilgan holda ona tilida mavzu frazeologizmlar bo'lsa ya'ni iboralar mavzusi o'quvchilarga yanada oson tushuntirish uchun iboralarga mos rasmlardan foydalansa dars yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan: "Tepa sochi tikka bo'ldi" iborasi "Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi" iborasi "Boshi osmonga yetdi" iboralarini rasmlar orqali ifodalasa o'quvchilarga iboralar mavzusi tushuntirilsa mavzu ko'proq yodida qoladi. Yana bir metodni olib qarasak "Qaysi samalyot tez uchadi" metodi orqali o'quvchilarga yordamchi so'z turkumlari ko'makchi, bog'lovchi, yuklama yoki o'tilgan mavzularni takrorlash mavzusida ham ushbu metodan foydalansa bo'ladi. Bunda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Samalyotlar ham uchta bo'lib har biriga nom berilgan bo'ladi ko'makchi, bog'lovchi, yuklama. Uchta guruhga aralashtirib yordamchi so'zlarga oid so'zlar berilgan bo'ladi qaysi guruh o'ziga tegishli yordamchi so'zlari topib samalyotga yopishtirsa o'sha guruhning samalyoti tez manzilga yetib boradi. Bu metod orqali o'quvchilar yordamchi so'z turkumlarini ajratishni o'rganadi va osongina yodida saqlab qoladi. O'tilgan mavzularni takrorlash mavzusi bo'lganda esa o'tilgan mavzular bo'yicha savollar tuzib qaysi guruh tez savollarga javob berishi orqali ham ushbu metoddan foydalansa bo'ladi.

Yana bir "Kartochkalar va konvert" metodida o'qituvchi va o'quvchi uchun ham foydalidir. Bu metodda o'qituvchi har bir talabaga yetadigan qilib uch xil rangdagi

kartochkalar va konvertlar tarqatadi. O'qituvchi yangi mavzu tushuntirayotgan vaqtda qizil kartochkalilar tursin deydi va ular turadilar ularga yangi mavzuga doir savol beradi va javob berganlar o'tiradi, javob berolmaganlar o'tirmaydilar. Natijada o'tirmagan o'quvchilar mavzuni yaxshiroq eshitadi va biroz vaqt o'tgach o'qituvchi yana savol beradi va natija avvalgisidan yuqoriroq bo'ladi. Yangi mavzu bayoniga mo'ljallab o'qituvchi qolgan kartochka olgan o'quvchilarni ham turg'izadi. Kartochkalar metodida o'quvchilar mendan so'rab qoladi deya mavzuni yaxshiroq eshitadi. Dars tugashiga 10 daqiqa qolganda esa berilgan konvertlarga yangi mavzudan nimalarni o'rganganligini yozishi va 5 daqiqa qolganda hamma ustozga tekshirtirishi lozim. O'qituvchi mana shu metod orqali o'quvchilar bilimlarni qay darajada o'rganganligini bilib oladi. Bu metodni samarali o'tkazilsa natija yuqori bo'ladi. Taqdimot va muzyurarlar – bu mashg'ulotni boshlash uchun mo'ljallangan qisqa mashqlardir. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi »to'siq«ni yoqotishga qaratilgan usul. Bu metod asosida guruh o'quvchilari orasidagi o'zaro ishonch, hurmat o'zaro yaqinlikni his etishga o'rgatish yotadi. Dars davomida yuqorida aytib otilgan metodlardan foydalanish darsni qiziqarli hamda qiziqarli otishiga va bu orqali esa, ta'lim sifati oshishiga yordam beradi.[5:334] Metodlar haqida O'rta Osiyo va boshqa olimlar turli xil fikrlar bildirishgan: O'rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa fan metodlarini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo'lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qo'llaniladigan yo'l-yo'riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan. Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shishdi. F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar Metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishdi. Hozirgi zamon fanlarida ko'plab umumiy, xususiy ilmiy Metodlar qo'llanadi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik Metodlarning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish Metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo'llanilmoqda.

Ona tili ta'limida metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. An'anaviy metodlar bilim asoslarini shakllantirsa, interfaol metodlar o'quvchini faol va mustaqil shaxs sifatida rivojlantiradi, innovatsion metodlar esa ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yordam beradi. Shunday ekan, o'qituvchining asosiy vazifasi – metodlarni maqsadga muvofiq tanlab, ularni uyg'unlashtirilgan holda qo'llashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006. -65 b.
2. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. - 380 b.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. -76 b.
4. Muxtarova Sh.M. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, 2025. – 43 b.
5. Wikipedia.uz

FONETIKA O'QITISHNING MAQSADI, VAZIFALARI VA TAMOYILLARI

Muxtarova Shahnoza

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Muqimova Hojiraxon Abdullaxon qizi

Subxonqulova Yoqutxon Ulug'bek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

muqimovahojiraxon@gmail.com

subxonqulovayoqutxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda fonetika o'qitishning asosiy maqsadi, vazifalari va didaktik tamoyillari yoritilgan. Fonetika til o'rganishda muhim bosqich bo'lib, talaffuz, tovush tizimi va fonetik normani to'g'ri o'zlashtirishda asosiy o'rin tutadi. Ishda aynan ushbu yo'nalishda dars berayotgan o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ko'rib chiqilgan. Mavzu dolzarb bo'lib, til o'rgatish sifatini oshirishda foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Fonetika, o'qitish, talaffuz, tovushlar tizimi, metodika, tamoyillar, til o'rganish.

Annotation. This paper discusses the purpose, key tasks, and principles of teaching phonetics. Phonetics plays a crucial role in language learning, especially in mastering pronunciation and understanding sound systems. The material includes useful methodological insights and practical tips for teachers working in this field. The topic is relevant and can contribute to improving the effectiveness of language instruction.

Keywords: Phonetics, teaching, pronunciation, sound system, methodology, principles, language learning.

Аннотация. В данной работе раскрываются цель, задачи и принципы преподавания фонетики. Фонетика играет важную роль в процессе изучения языка, особенно в правильном произношении и восприятии звуков. Работа может быть полезной для преподавателей, обучающихся фонетике, так как содержит методические подходы и практические рекомендации. Тема актуальна для повышения качества обучения языкам.

Ключевые слова: Фонетика, обучение, произношение, звуковая система, методика, принципы, изучение языка.

Til o'rganishda fonetika ya'ni tovushlar tizimi va ularning talaffuzi asosiy bo'g'inlardan biridir. Tilni to'g'ri va ravon o'rganish, ayniqsa og'zaki nutqni shakllantirishda fonetik bilim va ko'nikmalarning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham fonetika o'qitish tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. [1:54]

Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo bo'lishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo'ladigan turli xil fonetik hodisalar, nutqning fonetik bo'linishi, tovushlarining kommunikativ roli hamda prosodika kabi hodisalar o'rganiladi.

Fonetika (gr. Phone - tovush) tilning keng ma'noda tovush tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. U tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni tekshiradi. Shu sababli unga tilning faqat tovush tizimini tekshiruvchi bo'lim sifatida qarash noto'g'ri. Har bir til o'z fonetikasiga ega. U shu tildagi tovushlarning hosil bo'lishi va talaffuzining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tasnifi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi, talaffuz va yozuv munosabatlarini hamda urg'u va bo'g'in xususiyatlarini tekshiradi. Fonetika tilning tovushlar sistemasi va shu tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni o'rganar ekan, u tilning barcha sathlari bilan, ayniqsa, leksika va grammatika bilan bog'lanadi.

Fonetika o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, fonemalarning farqini anglash, urg'u, intonatsiya va nutq ohangini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shuningdek, o'quvchilarni fonetik tahlilga o'rgatish ham ushbu yo'nalishning asosiy maqsadlaridan biridir. [4:120]

Fonetika o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchilarda to'g'ri talaffuz, eshituv, nutq ohangi va fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Bu yo'nalishdagi vazifalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, artikulyatsion ko'nikmalarni shakllantirish fonetika o'qitishning muhim vazifasidir. O'quvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun og'iz, til, lab, tanglay kabi talaffuz a'zolarining harakati bilan tanishtiriladi. Bu orqali ular nutqda tovushlarni ravon va aniq talaffuz qilishga o'rganadilar.

❖ Ikkinchidan, fonematik eshituvni rivojlantirish ham muhim vazifalardan biridir. O'quvchilarga o'xshash tovushlar orasidagi farqni sezish, ya'ni tovushlarni eshitish va ajrata olish qobiliyati shakllantiriladi. Bu savodxonlikni oshirishda va to'g'ri talaffuzda katta rol o'ynaydi.

❖ Uchinchidan, fonetika darslarining yana bir vazifasi urg'u va intonatsiyani to'g'ri qo'llashga o'rgatish. So'z va gaplardagi urg'u o'rnini to'g'ri belgilash, turli gap turlariga mos intonatsiyani ishlata olish muloqotda ma'no ifodasining aniq bo'lishiga xizmat qiladi.

❖ To'rtinchidan, fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish ham o'quv jarayonining ajralmas qismidir. O'quvchilar so'zlar tarkibidagi tovushlarni aniqlash, ularning talaffuz xususiyatlarini tahlil qilishga o'rgatiladi. Bu esa ularning til tuzilishini chuqur anglashiga yordam beradi.

❖ Beshinchidan, fonetika o'qitish orqali og'zaki nutq madaniyatini shakllantirish va savodxonlik darajasini oshirish vazifasi amalga oshiriladi. To'g'ri talaffuz, aniq va ravon nutq har qanday ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyat kalitidir. Fonetika bu jihatlarni mustahkamlashda xizmat qiladi.

Har qanday nutq tovushi, avvalo, nutq a'zolarining harakati tufayli talaffuz etiladi, ya'ni fiziologik xususiyatga ega. Ikkinchidan, u havoning ma'lum elastik jiyemni tebratishidan hosil bo'ladi; demak, uning akustik (fizik) jihati bor. Uchinchidan, muayyan so'z va morfemaning ma'no tomoni bilan tovush qobig'i birgalikda inson ongida shakllanadi, zero inson ma'lum tovushlar majmuini eshitish bilan qabul qilar ekan, ushbu majmu zaminidagi ma'noni idrok etadi, bu perseptiv (psixofonetik) xususiyat sanaladi. Va nihoyat, eng muhimi, nutq ma'lum vazifani bajaradi, binobarin, funksional qimmatga ega.

Nutq tovushlari yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra turli nuqtai nazardan o'rganilishi mumkin. Fonetika tilning tovush tizimini qaysi jihatdan o'rganishi (maqsadi) nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi: umumiy fonetika; tarixiy (diaxron) fonetika; tasviriy (sinxron) fonetika; qiyosiy fonetika; eksperimental fonetika Yuqoridagilar bilan birga xususiy fonetika ham ajratiladiki, unda barcha fonetik xususiyatlar aniq bir til misolida o'rganiladi.

Fonetika tovushlarning almashinishi va o'zgarishi, adabiy talaffuz me'yorlari, to'g'ri talaffuz qilish qoidalari, bo'g'in va urg'u, uning turlari kabi muammolarni ham o'rganadi. Demak, fonetika haqida zaruriy ma'lumotga ega bo'lmay turib, to'g'ri talaffuz qilish bilan aloqador bo'lgan orfografiya va grammatika (morfologiya va sintaksis) qoidalari ustida ham muvaffaqiyatli ish olib borish mumkin emas. Shu bilan birga, fonetikani o'rganish orfografiya (to'g'ri yozish), orfoepiya (to'g'ri talaffuz qilish) me'yorlarini yaxshi o'zlashtirib olishga, adabiy talaffuz bilan shevalar talaffuzi o'rtasidagi farqni aniqlashga katta yordam beradi. Demak, fonetika tilshunoslikning

orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, grammatika, dialektologiya kabi bo'limlari bilan bevosita aloqadordir. [2:43]

Fonetika fizika (akustika qismi) va fiziologiya fanlari bilan ham yaqin munosabatdadir. Fonetika tovushlarning eshitilish tomonini o'rganishda akustikaga, talaffuz qilinishi, aytilishi, hosil qilinish tomonlarini o'rganishda fiziologiyaga tayanib ish ko'radi. Bundan tashqari, u adabiyotshunoslik (hijolar, o'lchov metrika va ta'sirli o'qish kabi) va ijtimoiy fanlar bilan doimiy aloqada bo'ladi.

Fonetika o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarga tovushlar tizimini to'g'ri tushuntirish va ularni adabiy talaffuzga o'rgatishdan iborat. Bu jarayonda o'quvchi har bir tovushning qanday paydo bo'lishini, talaffuzdagi farqlarni, urg'u va intonatsiyaning ma'noga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Yana bir muhim vazifa o'quvchilarni og'zaki nutqda tovushlarni to'g'ri qo'llashga, so'z va gaplarni aniq, ravon va ifodali aytishga o'rgatishdir. Fonetika orqali o'quvchi eshitish va talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Fonetika o'qitishda bir nechta muhim tamoyillarga amal qilinadi. Avvalo, ilmiylik tamoyili asosida darslar aniq va ishonchli manbalarga tayangan holda tashkil etilishi kerak. O'quvchilarga faqatgina talaffuz qanday bo'lishi kerakligini aytish emas, balki nega aynan shunday talaffuz qilinishi kerakligini ham tushuntirish muhim. Shuningdek, nazariya va amaliyot birgalikda olib borilishi zarur. Ya'ni, o'quvchi tovushlar haqida nazariy ma'lumotni eshitgach, uni amaliy mashqlar bilan mustahkamlashi kerak. Darslar bosqichma-bosqichlik asosida tuzilishi lozim avval oddiy tovushlar, keyin murakkab tovushlar, so'ngra urg'u, intonatsiya kabi elementlarga o'tiladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir o'quvchi har xil darajada o'zlashtirishi mumkin, shuning uchun individuallashtirish tamoyiliga amal qilish ham muhim. Kimdadir talaffuz bilan bog'liq muammo ko'proq bo'lsa, unga alohida e'tibor berish kerak. Bundan tashqari, fonetika o'qitishda audio va vizual materiallardan foydalangan ma'qul, chunki o'quvchi eshitib va ko'rib o'rgansa, natija yanada yaxshiroq bo'ladi. Fonetika bu faqat og'zaki talaffuz emas, balki eshitish qobiliyatini ham rivojlantirishdir. Shu sababli, audiolingvistik yondashuv foydali hisoblanadi. Yakunda o'quvchi o'z talaffuzini tahlil qilib, qayerda xato qilganini tushunib olishi va shu asosda o'z ustida ishlashi kerak. Bu esa refleksiya tamoyilidir.

Fonetika o'qitish tilda ravon va to'g'ri so'zlash, o'z fikrini aniq ifoda etish uchun mustahkam poydevor yaratadi. To'g'ri fonetik bilim va ko'nikmalar o'quvchilarning og'zaki nutqini boyitadi, savodxonligini oshiradi va umumiy nutq madaniyatini

shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, fonetika o'qitishga tizimli va puxta yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduazizov A. O'zbek tilining fonetikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2007. -54 b.
2. Jo'raev N. Til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2005.-43 b.
3. Raxmonov T. O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi. Toshkent: Fan, 2009.-86 b.
4. Zunnunov M. Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Akademnashr, 2013.-120 b.

O'ZBEK TILIDA HURMAT VA ODOB IFODASIDA GAP QURILISHINING O'RNI

Qulmuroda Farangiz Hasan qizi

Sayfiyeva Dildora O'tkir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari

dildora.98@sayfullayeva.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida hurmat va odobni ifodalovchi gaplarning tuzilishi, ularning grammatik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, nutq madaniyatida hurmat ifodasining o'rni, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatni belgilovchi til birliklarining roli yoritiladi. Tadqiqotda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, til orqali namoyon bo'ladigan odob-axloq me'yorlari misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. hurmat, odob, gap qurilishi, nutq madaniyati, til birliklari.

Annotation. This article analyzes the structure of sentences expressing respect and politeness in the Uzbek language, focusing on their grammatical and stylistic features. It highlights the role of respectful expressions in speech culture and their impact on the relationship between the speaker and the listener. The study also illustrates national values and etiquette norms reflected through language.

Keywords. respect, politeness, sentence structure, speech culture, linguistic units.

Аннотация. В данной статье рассматривается структура предложений, выражающих уважение и вежливость в узбекском языке, а также их грамматические и стилистические особенности. Особое внимание уделяется роли выражений уважения в культуре речи и их влиянию на отношения между говорящим и слушающим. На основе примеров раскрываются национальные ценности и нормы этикета, проявляющиеся через язык.

Ключевые слова. уважение, вежливость, структура предложения, культура речи, языковые единицы.

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti davomida til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyat, axloq va ma'naviyatning muhim ko'rsatkichi sifatida shakllanib kelgan. Har bir xalqning tili uning ruhiy dunyosi, urf-odatlar, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlaridagi nozikliklarni o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan olganda, o'zbek tili nafaqat aloqa quroli, balki xalqning yuksak odobi, hurmat-izzat an'analarini ifoda

etuvchi boy madaniy qatlamga ega. O'zbek tili orqali ifodalanadigan so'zlar, gaplar va ularning tuzilishida odob-axloq, hurmat, ehtirom va insoniylik tamoyillari chuqur ildiz otgan. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, har bir til o'zining ichki tizimi - fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis orqali ma'no uzatadi. Biroq aynan sintaktik qurilish, ya'ni gap tuzilishi, insonlar o'rtasidagi hurmat, munosabat va madaniyatni eng nozik tarzda ifodalovchi vositadir. O'zbek tili bu borada nihoyatda boy tizimga ega bo'lib, "hurmat bilan murojaat qilish", "odobli ifoda topish", "munosib so'z tanlash" kabi qadimiy nutq madaniyati unsurlari bilan ajralib turadi.

O'zbek xalqining ijtimoiy hayotida "katta-kichikka hurmat", "ota-onani e'zozlash", "ustozni ulug'lash", "mehmonga izzat" kabi qadriyatlar eng muhim o'rin egallaydi. Bu qadriyatlar nafaqat xulq-atvorda, balki nutq madaniyatida ham o'z aksini topadi. Masalan, oddiy so'rov gap "Sen qayerga ketyapsan?" degan shaklda aytilganda, bu do'stona yoki tengdoshlar o'rtasida tabiiy eshitiladi. Ammo shu fikr "Siz qayerga ketyapsiz?" tarzida aytilganda, unda hurmat ohangi paydo bo'ladi. Bu esa sintaktik darajada, ya'ni gap qurilishi orqali hurmat ifodalanishining yaqqol ko'rinishi hisoblanadi. O'zbek tili grammatik qurilishi jihatidan shunday tizimga ega-ki, u orqali bir fikrni turlicha - oddiy, odobli, rasmiy yoki samimiy ohangda ifodalash mumkin. Bu jarayonda nafaqat so'z tanlovi, balki so'z tartibi, fe'l shakllari, murojaat shakllari va intonatsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Keling, o'tirib dam oling" gapida muloyimlik va mehmondo'stlik aks etsa, "O'tir" shakli buyruqni ifodalab, ba'zan hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun ham o'zbek tili sintaksisida hurmat va odobni ifodalovchi maxsus uslublar, morfologik va leksik vositalar majmuasi mavjud.

Hurmat va odob ifodasining til orqali aks etishi - bu nafaqat tilshunoslik masalasi, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika bilan bevosita bog'liq mavzudir. Til orqali hurmat bildirish, insonni qadrlash, munosabatni madaniy ifodalash kabi hodisalar jamiyatning ma'naviy rivojlanish darajasini ham ko'rsatadi. Shu sababli, o'zbek tilida gap qurilishi orqali hurmat va odobning ifodalanish usullarini o'rganish - xalq ruhiyatini, milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi globalashuv davrida, axborot oqimining tezkorligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot madaniyatining o'zgarishi natijasida, til orqali ifodilangan hurmat va odobning ayrim shakllari yo'qolish xavfi ostida turibdi. Ayniqsa, yoshlar nutqida "siz" o'rniga "sen" qo'llanishi, qisqa, emoji yoki inglizcha aralash gaplarning ko'payishi milliy nutq madaniyatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shunday bir paytda, o'zbek tili orqali hurmat ifodasining o'rni va mexanizmlarini chuqur o'rganish, ularni ta'lim tizimida,

media va kundalik hayotda tiklash dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Hurmat va odobning ifodalanishida xalqaro tajribani ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Masalan, UNESCO tomonidan til va madaniyatning o'zaro bog'liqligiga oid ko'plab tadqiqotlarda aytilishicha, milliy tillar — bu xalqning ruhiy merosi bo'lib, ular orqali yosh avlodga insoniylik, hurmat va bag'rikenglik qadriyatlari singdiriladi. OECD, PISA va PIRLS kabi xalqaro tashkilotlar o'quvchilarning nutq madaniyatini, muloqot madaniyatini baholashda ham til orqali axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ifoda vositalarini inobatga oladi. Bu esa o'zbek tili ta'limida ham xalqaro mezonlarga mos yondashuvni talab etadi.

Shuningdek, O'zbekistonda ona tili ta'limining me'yoriy-huquqiy asoslari ham nutq madaniyatini rivojlantirish, hurmatli muloqot madaniyatini shakllantirishni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlaydi. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "O'zbek tili va adabiyotini rivojlantirish dasturi"da ona tilining jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, til orqali insoniylikni targ'ib qilish kabi masalalarga alohida urg'u berilgan. Shu bois, bugungi kunda o'zbek tilida hurmat va odobni ifodalovchi gap qurilishining o'zni nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki ijtimoiy-madaniy zarurat sifatida ham tahlil etilishi zarur. Mazkur maqola ana shu zaruratdan kelib chiqib, o'zbek tilida hurmat va odob ifodasida gap qurilishining o'rnini chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi. Unda quyidagi asosiy masalalar yoritiladi:

1. O'zbek tilida hurmat va odob tushunchalarining lingvistik asoslari;
2. Gap qurilishida hurmatni ifodalovchi sintaktik va morfologik vositalar;
3. Til madaniyatida hurmat ifodasining milliy va xalqaro tajribalardagi o'zni;
4. Zamonaviy o'zbek jamiyatida hurmatli nutqning saqlanishi va rivoji masalalari.

Bu tadqiqotning maqsadi — o'zbek tili sintaktik tizimi orqali hurmat va odobning qanday ifodalanishini, uning madaniy, pedagogik va axloqiy ahamiyatini yoritishdir. Shuningdek, maqola xalqaro tajribaga tayanib, o'zbek tili ta'limida hurmat ifodasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham taklif etadi.

O'zbek tilida hurmat va odob tushunchalarining lingvistik asoslari. Til — inson tafakkurining, madaniyatining va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarining eng muhim ifoda vositasidir. Har bir tilda xalqning qadimiy urf-odatlar, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari mujassam bo'lgan. O'zbek tili bu jihatdan nihoyatda boy, samimiy va hurmatga asoslangan tildir. "Hurmat" va "odob" tushunchalari o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy tizimida shunchalik chuqur ildiz otganki, ular til orqali ham, nutq ohangi, so'z tanlovi va gap qurilishi orqali ham aniq seziladi. "Hurmat" va

“odob” tushunchalarining mazmun-mohiyati “Hurmat” soʻzi arabcha “ihtiram” maʼnosiga yaqin boʻlib, “ehtirof, izzat, qadrlash” mazmunini bildiradi. Oʻzbek tilidagi “odob” esa “axloqiy meʼyorlar majmuasi, madaniyat, yuksak xulq” degan maʼnoni anglatadi. Demak, bu ikki tushuncha bir-birini toʻldiruvchi, insonning ijtimoiy hayotidagi muvozanatni taʼminlovchi asosiy fazilatlardandir. Til esa bu fazilatlarni ifodalashda vositachilik rolini oʻynaydi. Oʻzbek xalqining qadimiy manbalarida, jumladan, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ham hurmat va odob inson shaxsiyatining eng muhim koʻrsatkichi sifatida taʼriflanadi. Masalan, Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Odob — insonni inson qiluvchi eng muhim fazilatdir. Odobsiz ilm foydasiz, odobsiz boylik zararli, odobsiz soʻz yurakni ogʻritadi.” Ushbu fikr til orqali ifodalanadigan hurmatning ahamiyatini ochib beradi. Tilshunoslikda esa hurmat va odob pragmatik va sotsiolingvistik kategoriyalar sirasiga kiradi. Chunki bu tushunchalar nafaqat til tizimida mavjud, balki muloqot jarayonida insonlarning oʻzaro ijtimoiy maqomiga, yoshi, jinsi, ijtimoiy roli va munosabat darajasiga qarab shakllanadi. Masalan, bir soʻzni aytish yoki bir gapni tuzishda kim bilan, qanday vaziyatda, qanday ohangda soʻzlayotganlik muhim ahamiyat kasb etadi (Toʻxliyev, 2010).

Til orqali hurmat bildirish bir necha darajada ifodalanadi:

1. Leksik daraja – soʻz tanlovi orqali (masalan, “siz” oʻrniga “sen”, “hazrat”, “ustoz”, “domla” kabi murojaatlar);
2. Morfologik daraja – feʼl shakllari va qoʻshimchalarning oʻzgarishi orqali (“kelyapsiz” oʻrniga “kelyapti” emas);
3. Sintaktik daraja – gap tuzilishi, soʻz tartibi, soʻz birikmalarining joylashuvi orqali;
4. Pragmatik daraja – gapning ohangi, nutq muhitiga mosligi, kontekstga qarab ifodalanagan hurmat yoki muloyimlik.

Masalan, “Sizni koʻrib juda xursand boʻldim” va “Seni koʻrib juda xursand boʻldim” gaplarining grammatik tuzilishi oʻxshash, lekin birinchisida hurmat, ikkinchisida samimiylilik va tengdoshlik mavjud. Demak, hurmat maʼnosi sintaktik emas, pragmatik qatlamda, lekin gap qurilishida ifodalanadi. Yana bir misol: “Marhamat, oʻtiravering” va “Oʻtir” gaplarini taqqoslaymiz. Ikkalasi ham semantik jihatdan bir fikrni bildiradi — oʻtirish harakati, ammo birinchisida mehmondoʻstlik va hurmat mavjud, ikkinchisida esa buyruq ohangi seziladi. Bu esa shuni koʻrsatadiki, gap tuzilishi orqali hurmat darajasini boshqarish mumkin. Oʻzbek tili grammatikasida

hurmatni ifodalovchi shakllar O'zbek tili grammatik tizimida hurmatni bildiruvchi maxsus shakllar mavjud. Ular quyidagicha ifodalanadi: Shaxs-son qo'shimchalari: "siz", "sizlar" shakllari orqali hurmat ifodalanadi. Masalan, "Sen keldingmi?" o'rniga "Siz keldingizmi?" deyiladi. Fe'lning mayl va zamon shakllari: Buyruq maylida "keling", "oling", "marhamat qiling" kabi muloyim shakllar ishlatiladi. "Kiring" degan so'z buyruqni bildirsa-da, aslida bu hurmatli taklif ma'nosini beradi. Modal so'zlar: "Iltimos", "marhamat", "iltifot qiling", "afsuski", "mumkinmi", "ehtimol" kabi so'zlar gapga muloyimlik, yumshoqlik kiritadi. Murojaat birliklari: "Domla", "ustoz", "xonim", "aka", "opa", "jiyan", "do'stim" kabi so'zlar hurmatni belgilovchi leksik birliklar hisoblanadi (Yo'ldashev, 2019).

Bundan tashqari, gap tartibi ham hurmat ifodasiga bevosita ta'sir qiladi. O'zbek tilida odatda subyekt (egasi) oldin, predikat (kesim) oxirida keladi. Ammo hurmat bildiruvchi gaplarda predikat (kesim) oldinga o'tib, yumshoqlik yaratadi:

Masalan:

- "Keling, ustoz, joyingiz tayyor."
- "Sizga aytmoqchi edim, bugun yig'ilish soat to'qqizda."

Bu misollar sintaktik jihatdan o'zgarishning hurmatni ifodalashdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik. Til - madaniyatning oynasi. Har bir tilda xalqning o'ziga xos madaniy kodlari yashiringan. O'zbek xalqining madaniy kodlari esa hurmat, ehtirom, mehmondo'stlik va kamtarlikka asoslangan. Shu boisdan ham o'zbek tili nutqida buyruq, tanbeh, to'g'ridan-to'g'ri rad etish holatlari kam qo'llanadi. Ularning o'rniga yumshoqlik va bilvosita ifodalar tanlanadi. Masalan:

- "Suv olib keling." (buyruq) o'rniga
- "Iltimos, suv olib kelsangiz." (hurmatli, odobli) shakli qo'llanadi.

Bu - pragmatik hurmatning ifodasi. Ya'ni so'zlovchi suhbatdoshning his-tuyg'ularini inobatga olgan holda gapni shunday tuzadi-ki, u muloyim va madaniy eshitiladi (Xolmanova, 2019).

Hurmatning ijtimoiy kontekstdagi o'rnini. Hurmatning ifodalanishi har bir jamiyatda ijtimoiy tuzilma bilan chambarchas bog'liq. O'zbek xalqida ota-onaga, ustozga, kattalarga, mehmonlarga, hatto notanish kishilarga ham hurmat bilan murojaat qilish milliy xususiyatdir. Bu xususiyat tilga ham ko'chgan. Masalan:

- Bolalar ota-onasiga "siz" deydi;
- Talaba o'qituvchiga "domla", "ustoz" deydi;

Xizmat ko'rsatuvchi sohada "marhamat, mijoz" shakllari qo'llanadi. Bu holatlar tilning ijtimoiy tabiatini ko'rsatadi. Ya'ni til faqat grammatik tizim emas, balki madaniy me'yorlarni aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. 2-bo'lim: Gap qurilishida hurmat va odob ifodasining grammatik va sintaktik mexanizmlari o'zbek tili o'zining boy morfologik tuzilishi, o'ziga xos sintaktik tizimi va nozik pragmatik qoidalari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, hurmat va odobni ifodalashda tilning morfologik va sintaktik imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Gap qurilishi bu jarayonda markaziy o'rin tutadi, chunki hurmat darajasi, odob ohangi, yumshoqlik yoki talabchanlik aynan gapning tuzilishi, komponentlar tartibi va fe'l shakllari orqali ifodalanadi.

Shaxs-son kategoriyasi va hurmat ifodasi. O'zbek tilida shaxs-son kategoriyasi hurmatni bildiruvchi asosiy grammatik vositalardan biridir. Masalan, "sen" shakli samimiy, yaqin munosabatni ifodalasa, "siz" shakli hurmatni bildiradi. Bu holat nafaqat murojaat, balki butun gap qurilishini o'zgartiradi:

- Sen keldingmi? → Siz keldingizmi?
- Senga aytdim. → Sizga aytdim.
- Sening fikring to'g'ri. → Sizning fikringiz to'g'ri.

Bu misollar orqali shuni ko'rish mumkinki, hurmatli shakl nafaqat olmoshda, balki egalik qo'shimchalari va fe'l shakllarida ham ifodalanadi. Shunday qilib, shaxs-son qo'shimchalari sintaktik darajada hurmatni shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida ba'zan ko'plik shakli orqali yakka shaxsga hurmat bildiriladi. Bu holat grammatik jihatdan "siz" ko'plikni bildirsa-da, semantik jihatdan "hurmatli yakka shaxs" ma'nosini beradi. Masalan:

– Domlalar, marhamat, joy olinglar. Bu yerda "domlalar" bir kishiga nisbatan aytilgan, lekin hurmat bilan.

Fe'lning mayl va zamon shakllarida hurmat. Fe'l kategoriyalari – o'zbek tilidagi hurmat ifodasining eng muhim qatlamlaridan biridir. Ayniqsa, buyruq mayli (imperativ) va istak mayli (optativ) hurmat darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan: Kel! — bu to'g'ridan-to'g'ri buyruq, keskin ohangda. Keling! - bu hurmatli taklif yoki muloyim buyruq. Marhamat, kiring! - bu esa eng yuqori darajadagi odobli, mehmondo'stlik ifodasi. Shu tarzda, fe'lning mayl shakli va unga qo'shimcha so'zlar qo'shilishi bilan nutq ohangi o'zgaradi. Buyruq maylidagi fe'lga "-ing" qo'shimchasining qo'shilishi, ko'pincha hurmat belgisi sifatida ishlatiladi. Yana bir misol: Ber! → Bering! → Iltimos, bering. Bu ketma-ketlik hurmatning grammatik va pragmatik kuchayishini ifodalaydi.

Sintaktik darajadagi ifoda vositalari. Hurmat va odobning gap tuzilishida qanday namoyon bo'lishini tahlil qilar ekanmiz, sintaksisda uchta asosiy jihatni ajratish mumkin:

1. Gap tartibi (so'zlarning joylashuvi);
2. Qo'shimcha gaplar orqali yumshoqlik kiritish;
3. So'z birikmalarining ohangini yumshatish.

Gap tartibi. O'zbek tilida odatda so'z tartibi "Ega – To'ldiruvchi – Kesim" shaklidir. Ammo hurmat ifodasi uchun kesimni oldinga chiqarish, so'zlovchining muloyim ohangini yaratish odat tusiga kirgan. Masalan: Oddiy: Siz bugun darsga keldingiz. Hurmatli: Keldingiz, ustoz, bugun darsga. Bu yerda kesim oldinga o'tgan va murojaat so'zi o'rtada joylashgan - bu ehtirom va muloyimlikni bildiradi.

Qo'shimcha gaplar orqali yumshoqlik. O'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri gapirishdan ko'ra, yumshoqlik bilan ifodalash qadrlanadi. Shuning uchun ko'plab gaplarda qo'shimcha izohlar yoki muloyim kirish so'zlar ishlatiladi. Masalan: Iltimos, agar mumkin bo'lsa, bugun yig'ilishga keling. Sizga bir taklifim bor edi, agar yo'q demasangiz. Bu konstruksiyalar sintaktik jihatdan murakkab gap sanaladi, lekin ularning maqsadi - odobli muloqotni ta'minlash. So'z birikmalarining yumshoqligi o'zbek tilida "iltimos", "marhamat", "mumkinmi", "iltifot qiling" kabi birikmalar hurmatni kuchaytiruvchi pragmatik sintaktik vosita sifatida ishlaydi. Ular gapning boshida, o'rtasida yoki oxirida joylashib, so'zlovchi nutqining madaniyligini oshiradi. Masalan: Marhamat, joy oling joy oling, iltimos. Sizga aytmoqchi edim, iltifot bilan qabul qiling. Bu misollar nutqdagi odobiy yumshoqlik va hurmat grammatikasini yaqqol ko'rsatadi.

Hurmat ifodasining so'z tartibi bilan o'zgarishi. Ba'zan faqat so'z tartibi o'zgarishi bilan ham gapning ma'nosi yoki ohangi butunlay yangilanishi mumkin. Masalan: Siz bugun juda charchagandirsiz, ustoz. Ustoz, siz bugun juda charchagandirsiz. Bir qarashda bu ikki gap o'xshash, ammo ikkinchi variantda murojaat boshda keltirilgani uchun hurmatning intensivligi yuqoriroq bo'ladi.

Hurmat va odob ifodalarining o'zbek tilidagi grammatik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari.

Hurmat va odob ifodasining grammatik vositalari. O'zbek tili — turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, unda hurmat va odobning grammatik ifodasi juda boy. Har bir grammatik birlik, xoh u qo'shimcha bo'lsin, xoh fe'l zamoni yoki olmosh, o'zbek tilida ijtimoiy munosabat va etik madaniyatni ifodalashda bevosita ishtirok etadi. Masalan, "siz" olmoshi faqat ko'plik shaklini bildiruvchi birlik emas, balki hurmat bildiruvchi

grammatik vositadir. Bu shakl orqali so'zlovchi tinglovchiga nisbatan ehtiromni, ijtimoiy masofa va madaniy farqni ifodalaydi. Ayniqsa, o'zbek jamiyatida "sen" va "siz" so'zlarining noto'g'ri qo'llanishi muomala madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'zbek tilida fe'l zamon shakllari orqali ham hurmat ifodalanadi. Masalan:

"Keldingizmi?" — hurmat ifodasi,

"Keldingmi?" — oddiy yoki yaqin munosabatda ishlatiladi.

Demak, *-ingiz/-ingizlar*, *-dingiz/-dingizlar* kabi shakllar faqat grammatik ko'plikni emas, axloqiy-ijtimoiy hurmat darajasini ifodalaydi.

Sifat va qo'shimchalar orqali odob ifodasi. Hurmatni bildiruvchi sifatlar ("aziz", "hurmatli", "e'tiborli", "muhtaram", "ulug'", "qadrli") — odob ifodasining tildagi eng boy qatlamidir. Ular, odatda, so'zlovchi tomonidan tinglovchining mavqeini yuksaltirish, suhbatni samimiy muhitda davom ettirish uchun ishlatiladi. Masalan: "Hurmatli ustozim!", "Aziz mehmonlar!", "Muhtaram domlalar!" Bu so'z birikmalari nafaqat tildagi so'z boyligini, balki o'zbek xalqining madaniy-psixologik xususiyatlarini ham namoyon etadi. Shuningdek, *-jon*, *-xon*, *-oy*, *-aka*, *-opa*, *-bibi* kabi so'ng qo'shimchalar hurmat va yaqinlikni bildiruvchi fonetik-morfologik vositalardir. Masalan: "Farangizxon", "Opa", "Akajon", "Onajon", "Singlim", "Do'stim" kabi so'zlar ma'no jihatidan nafaqat shaxsni ataydi, balki mehr, ehtirom, odob unsurlarini ham o'zida mujassam etadi.

Gap qurilishida odob unsurlari O'zbek tilida gap qurilishi ham madaniyatga bevosita bog'langan. So'zlovchi gap tuzishda avvalo kattalikka hurmat, odob, iltifot, kamtarinlik kabi qadriyatlarni hisobga oladi. Masalan, o'zbek tili sintaksisida: so'zni muloyim, nozik ohangda boshlash, iltimos, iltifot shakllarini ishlatish, buyruq emas, taklif ohangida so'zlash - odobning sintaktik ko'rinishidir. Misollar: "Iltimos, kirib o'ting." (buyruq emas, taklif shakli) "Agar imkon bo'lsa, qarab ko'ring." (so'rovning yumshoq shakli) "Sizga yoqadimi?" (ehtimomli so'rov) Bu shakllar oddiy tilda ham, rasmiy nutqda ham hurmat ohangini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, o'zbek tilida hurmat va odob tushunchalari lingvistik tizimning barcha darajalarida — leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik qatlamlarda o'z ifodasini topadi. Ushbu maqolada til vositalari orqali hurmat ifodalanishining grammatik-morfologik shakllari, gap tuzilishidagi sintaktik usullari hamda kontekstga mos pragmatik yondashuvlari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hurmat va odob nafaqat muloqot madaniyatining, balki o'zbek tilining asosiy pragmatik belgilaridan biridir. Til o'rgatishda ushbu jihatlarni inobatga olish,

o'zbek tilidagi muomala madaniyatini chuqurroq tushunishga, shuningdek, xalqaro til ta'limi tajribalariga mos yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova, O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. – 265 b.
2. Xolmanova Z., Yusupova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi, 2019. – 54 b.
3. Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 176 b.
4. Yoqubov Sh., Yoqubova D. Grammatik o'yinlar. – Termiz. 2009. – 231 b.
5. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2021. – 98 b.

O'QUVCHILARDA TO'G'RI YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ORFOGRAFIYA TA'LIMINING O'RNI

Yuldoshova Shahodat Ulug'bek qizi

Qo'shimova Feruza Ergashboy qizi

CHDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari

feruzaqoshimova19@gmail.com

shahodatyuldoshova260@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada o'quvchilarda to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida orfografiya ta'limining o'ri, ahamiyati va metodik asoslari tahlil qilinadi. Imlo qoidalarini puxta o'rgatish, yozuv madaniyatini shakllantirish va til sezgirligini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol usullar va kompetensiyaga asoslangan ta'limning afzalliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: orfografiya, imlo, metodika, ko'nikma, kompetensiya, ta'lim texnologiyasi, to'g'ri yozish, savodxonlik.

Abstract: This article analyzes the role, significance, and methodological foundations of teaching orthography in developing students' correct writing skills. The advantages of modern pedagogical approaches, interactive methods, and competency-based education aimed at mastering spelling rules, fostering writing culture, and enhancing linguistic sensitivity are highlighted.

Keywords: orthography, spelling, methodology, skill, competence, educational technology, correct writing, literacy.

Аннотация: В данной статье анализируется роль, значение и методические основы преподавания орфографии в процессе формирования у учащихся навыков правильного письма. Освещаются преимущества современных педагогических подходов, интерактивных методов и компетентностно-ориентированного обучения, направленных на прочное усвоение правил орфографии, формирование культуры письма и развитие языковой чувствительности.

Ключевые слова: орфография, правописание, методика, навык, компетенция, образовательная технология, правильное письмо, грамотность.

Bugungi ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - o'quvchilarda savodxonlik madaniyatini shakllantirishdir. Til savodxonligining poydevori esa to'g'ri yozuv, ya'ni **orfografik malakadir**. Orfografiya nafaqat yozma nutqning normativ

asosini tashkil etadi, balki tilning estetik ko'rinishini ham belgilaydi. O'quvchilar imlo qoidalarini to'g'ri o'zlashtirgan taqdirdagina ularning yozma nutqi aniqlik va mantiqiylik kasb etadi. Orfografiyani o'rgatish - bu faqat qoidalarni yodlash emas, balki **o'quvchilarda mustaqil fikrlash, til qonuniyatlarini anglash va amaliy qo'llash** ko'nikmasini shakllantirish jarayonidir [1,180b]. Shu bois orfografiya ta'limini tashkil etishda ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar muhim rol o'ynaydi.

Orfografiyani o'rgatishning bosh maqsadi o'quvchilarni to'g'ri, aniq va estetik yozuvga o'rgatishdir. Bu jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- imlo qoidalarini ongli ravishda o'zlashtirishga erishish;
- talaffuz va yozuv orasidagi farqlarni anglashga o'rgatish;
- yozma nutqni to'g'ri shakllantirish;
- mustaqil ishlash va tahlil qilish malakasini rivojlantirish [2, 210b].

O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasallishiga oid materiallarni ma'lum darajada biimasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar „Ot“, „Sifat“, „Son“, „Kishilik olmoshlari“, „Fel“ mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi. Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so'ng o'rganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi o'rganilgach, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. „Sifat“ mavzusini o'rganish -roq qo'shimchasining va qip-qizil, yum-yumaloq kabi sifatlarning yozilishiga, „Fe'l“ mavzusini o'rganish bo'lishsizlik (-ma) va o'tgan zamon (-di) qo'shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o'rgatishga bunday yondashish boshlang'ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o'rganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishlash — murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o'quvchilarning qoida ifodasini o'rganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Tilning orfografik tizimi fonetika, morfologiya, leksikologiya bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun orfografiyani o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Orfografiyani o'rgatishda quyidagi asosiy **didaktik prinsiplarga** amal qilish zarur hisoblanadi:

- **Onglilik va faollik prinsipi.** O'quvchi har bir imlo qoidasini anglab, mustaqil qo'llay olishi lozim.

- **Tizimlilik va izchillik prinsipi.** Orfografik materiallar oddiydan murakkabga o'tgan holda bosqichma-bosqich o'rgatiladi.

- **Ko'rgazmalilik prinsipi.** Taxtadagi yozuvlar, grafik organayzerlar, ko'rgazmali vositalar orqali o'quvchining idrokini faollashtirish.

- **Amaliy yo'naltirilganlik prinsipi.** Har bir darsda yozma mashqlar, diktantlar, test topshiriqlari orqali bilimlar mustahkamlanadi. Bu prinsiplarga amal qilish orfografik savodxonlikni samarali shakllantirishga yordam beradi [3, 232b].

Orfografiya darslarida **an'anaviy** va **innovatsion** metodlar uyg'un qo'llanadi:

An'anaviy metodlar:

- diktant;
- izohli yozuv;
- tahliliy mashqlar;
- qayta yozish;
- so'z tuzish mashqlari.

Zamonaviy metodlar:

- **interfaol usullar** ("Imlo zanjiri", "So'zlar piramidasi", "Top va to'g'ri" o'yinlari);

- **axborot texnologiyalari** yordamida mashg'ulotlar (interaktiv testlar, elektron diktantlar);

- **kompetensiyaga asoslangan yondashuv**, ya'ni o'quvchini faol sub'ekt sifatida shakllantirish [4, 165b]

So'nggi yillarda orfografiya ta'limida **klaster**, **aqliy hujum**, **insert**, **blits-so'rov**, **assotsiativ xarita** kabi metodlardan foydalanish keng tarqaldi. Bu yondashuvlar:

- o'quvchini faollashtiradi;
- bilimni mustahkamlaydi;
- qoidalarni amaliy qo'llashga yordam beradi.

Interfaol metodlar orqali dars jarayoni qiziqarli va samarali shaklda kechadi. Bu esa o'quvchilarning e'tiborini jamlashga, xotirasini kuchaytirishga va yozuv madaniyatini oshirishga xizmat qiladi [5, 56b]. Orfografik bilimlar fonetika, grammatika, leksikologiya bilan uzviy bog'liq. Masalan:

- fonetik tahlil yordamida talaffuz va yozuv o'rtasidagi farq tushuntiriladi;
- morfologik tahlil orqali qo'shimchalarning yozilishi mustahkamlanadi;
- leksikologik yondashuv esa ma'no va shakl birligini tushuntiradi.

Shuningdek, adabiyot fanida matn tahlili orqali imlo ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bunday integratsion yondashuv **til kompetensiyasini chuqurlashtiradi** va o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, orfografik ta'lim bu faqat imlo qoidalarini o'rgatish emas, balki **shaxsning til va tafakkur madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik jarayondir**. Orfografiya darslari orqali o'quvchi o'z ona tiliga nisbatan hurmat, e'tibor va mas'uliyat bilan qarashni o'rganadi. Shu boisdan o'qituvchi zamonaviy metodik yondashuvlar yordamida orfografiyani o'qitish jarayonini **ijodiy, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan** tarzda tashkil etishi zarur. To'g'ri yozish ko'nikmasi nafaqat grammatika bilimini, balki **lingvistik sezgirlik, mantiqiy tafakkur va nutq madaniyatini** ham shakllantiradi. Shu boisdan orfografiyani o'qitish metodikasiga yondashishda o'qituvchidan **ijodkorlik, metodik tafakkur va innovatsion texnologiyalarni qo'llay bilish** talab etiladi.

Bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimida orfografik savodxonlikni rivojlantirish o'quvchining **kommunikativ kompetensiyasining ajralmas qismi** sifatida qaralmoqda. Zero, to'g'ri yozish madaniyati o'quvchini o'z fikrini aniq, lo'nda va grammatik jihatdan to'g'ri ifoda etishga o'rgatadi. Bu esa uning kelajakdagi **kasbiy faoliyati va ijtimoiy muloqotida muvaffaqiyat garovi** bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova M. Ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 180 b.
2. Jo'rayeva N. Til o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 210 b.
3. Avliyakov N. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 232 b.

4. To'xtaboyeva M. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 165 b.
5. Rasulov R. Til o'qitishning innovatsion metodlari. // Til va adabiyot ta'limi jurnali, №3, 2021. – b 57–63.

TIL VA SUN' IY INTELLEKT

Abdikarimova Zulhijja Maxsetovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

abdikarimovazulhijja21@gmail.com

Ilmiy rahbar: *f.f.dot., Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich*

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunning dolzarb mavzusiga aylangan sun'iy intellekt va boshqada tarjima tizimlarida o'zbek tilining qo'llanishi o'rganilgan. Maqolada o'zbek tilining tarjima tizimlaridagi o'rni, shuningdek, til o'rganishda zamonaviy texnologiya, web-saytlarni qo'llash haqida yoritilgan

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til tizimi, semantik usul, avtomatik tarjima.

Annotation: This article examines the use of the Uzbek language in artificial intelligence and other translation systems, which have become a hot topic today. The article discusses the role of the Uzbek language in translation systems, as well as the use of modern technology and websites in language learning.

Keywords: artificial intelligence, language system, semantic structure, automatic translation.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование узбекского языка в системах искусственного интеллекта и других системах перевода, что стало актуальной темой сегодня. В статье обсуждается роль узбекского языка в системах перевода, а также использование современных технологий и веб-сайтов в изучении языков.

Ключевые слова: искусственный интеллект, языковая система, семантическая структура, автоматический перевод.

Bugun dunyoni lol qoldirayotgan soha sun'iy intellekt ekanligi hech kimga sir emas. Globallashish zamonida tillarni avtomatik tarjima qilishga ehtiyoj sezamiz. Sun'iy intellekt esa shu va shunga o'xshagan muammolarni hal qiladi, tillarni o'rganadi, tarjima qiladi. Boshqa tillar kabi o'zbek tili ham chetda qolmadi. Yandex translate, Google translate kabi tarjima tizimlarida o'zbek tili ham qo'shildi va hozir ham bu bo'yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Insoniyat uchun berilgan eng katta ne'mat ong bo'lgani kabi til ham shu o'rinda hisoblanadi. Insonlar o'z orzu-niyatlarini, xohishlarini aynan til orqali ifodalaydi.

Tilning asosiy vazifasi kishilar o'rtasidagi aloqani yetkazish bo'lsa, hozirgi kunda dunyoni bilish, bilimlarni tarqatish va to'plash, ruhiy munosabatlarni aks ettirish kabi bir nechta funksiyalarni bajaryapti. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fiziologik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish va fikrlash uchun kishilik jamiyati (sotsial muhit) bo'lishi shart. Chunki, til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo'lgan. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Til boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan. Jamiyat sohalari va inson faoliyatida yuz beradigan o'zgarishlar, birinchi navbatda, tilning lug'at qismida o'z aksini topadi. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'ladi (ayrim qarashlarda aytilganidek, "tug'iladi", "taraqqiy etadi", "rivojlanadi"), bir jamiyat yo'q bo'lishi bilan til ham asta-sekin iste'moldan chiqib boshlaydi va davrlar o'tishi bilan o'lik tilga aylanadi. Soniyalar sayin o'zgacha tus olib borayotgan davrda sun'iy intellekt ham bir davrda rivojlanib boryapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Informatika va axborot texnologiyalariga oid adabiyotlarda elektron adabiyotlar yaratish jarayonida foydalaniladigan dasturiy vositalar pedagogika dasturiy vositalar deb yuritiladi. Bu dastur ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Shundan ma'lumki, sun'iy intellekt foydali ta'lim bo'yicha ham yetarlicha. Sun'iy intellekt boshqa vositalar bo'yicha axborot, balki til va adabiyotni chuqur o'rganishga katta yordam beradi. Har narsaning salbiy tomoni bo'lganidek, sun'iy intellektning ham salbiy tomonlari mavjud. Aynan tarjima qilishda har doim sun'iy intellektidan foydalanish to'g'ri bo'lmaydi. Misol tariqasida aytadigan bo'lsam, o'zbek tilidagi so'zning semantik tuzulishida shu so'zning ma'nosini ifodalovchi ingliz tilidagi so'zda mavjud bo'lmagan aniq shakliy ma'no mavjud bo'lishi mumkin. Semantik usul barchamizga ma'lumki, turli til birliklarining ma'noviy tomonini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Aytaylik, o'zbek tilidagi "ko'tarma" so'zi "qo'l" va "stul" kabi otlar bilan birikishi mumkin. Lekin uning ma'nosini ifodalovchi ingliz tilidagi "to raise" fe'li "hand" oti bilangina birika oladi ("to raise hands"), lekin "to raise chair" emas, balki "to lift chair" bo'ladi. Sun'iy intellekt avtomatik tarjima dasturlari shunga o'xshagan semantik so'zlarni farqiga e'tibor bermaydi. Sun'iy intellekt boshqa narsalar haqida yaxshigina ma'lumot berganidek, ya'ni har xil narsaning ustasi bo'lganidek, tilni o'rganishda tarjimada,

yozuvlarni o'rganishda keng rivojlangan. Hozirda tillarni tarjima qilishni qoyil qilganidek, tovushlarni matnga aylantirib, turli xil savollarga tezkor javob berish imkonini kengaytirdi. Shu bilan bir qatorda bir narsani unutmasligimiz kerakki, sun'iy intellekt qanchalik ilg'or bo'lmasin hech qachon inson tafakkuri, tushunchasida bo'lmaydi. Shu sababli, o'z ona tilimizni avaylab, uni yanada boyitishimiz kerak. Faxr bilan aytishimiz mumkinki, o'zbek tili uzoq madaniy tarixiga ega, eng boy, kunlar davomida takomillashib borayotgan tillardan biridir. Bugungi kunda ingliz, rus, koreys kabi tillarni onlayn yoki sun'iy intellektdan o'rganish imkoniyatlari keng. Tarjima tizimlari har qanday matnni bir tildan ikkinchi bir tilga tez tarjima qilib beradi. Ammo lekin bizda savol tug'ilishi tabiiy: bu jarayonda o'zbek tili qay darajada foydalanilyapti? Barchamizga ma'lumki, keyingi yillarda o'zbek tiliga katta e'tibor berilmoqda. O'zbek tilini tarjima dasturlarga kiritishdan o'zbek tilini o'rganuvchilarga, balki chet elda yurgan yurtdoshlarimiz uchun ham foydalidir. Agarda o'zbek tili shu kabi texnologiyalarda qo'llanmasa, kelajakda o'z nufuzini yo'qotishi mumkin. Sababi hozirgi kun talabi — texnologiya. Har bir narsamiz shu dasturlar yoki texnologiyalarda oson va tez hal bo'lyapti. Boshqa tillarga nazar tashlasak, ular allaqachon dasturlarga joylab bo'lgan. Lekin shunga qaramay, keyingi yillarda o'zbek tilini ko'plagan dasturlarda ko'ryapmiz. Bu esa ijobiy holat bo'lib, yurtimizda dasturchilik kabi sohalar ham rivojlanib, dastur va texnologiyalarga o'zbek tilini qo'shib, katta foyda qilyapti. Aytilganlardan anglashilyaptiki, Sun'iy intellekt va boshqa tarjima tizimlaridan gaplarni sodda holda foydalanganimiz maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, sun'iy intellekt o'zbek tilini boshqa tillar kabi dunyoga tanitish uchun vosita bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz, albatta. Shu bilan birga til bo'yicha professor tilshunoslar, dasturchilar shug'ullansa yuqorida keltirilgan muammolarga duch kelmaymiz va bu kelajakda o'z samarasini beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt ko'p insonlar uchun hayotining bir qismiga aylanib qoldi. O'zbek tilining tarjima tizimlarda to'liq va aniq ishlashi uchun hali ko'p vaqt va ish talab qilinadi. Boshqa tillar ilm-fan va texnologiyalarda mukammal bo'lgani kabi biz yosh avlod ham o'zbek tilini shu darajaga chiqarishimiz kerak. Va bir kuni, albatta, o'zbek tili ham dunyoda o'z o'rnini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, "Tarjima nazariyasi" Toshkent-2012.
2. R.Rasulov, Q.Mo'ydinov "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" Toshkent-2025

3. S.X.Muhamedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh Yuldasheva, Y.B.Eshmatova, "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari" Toshkent-2020
4. Bekmirzayev N. Notiq, nutq, xulq —Toshkent, 2015
5. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi, Toshkent-2020.

TIL VA TAFAKKUR O'RTASIDAGI MUNOSABAT

Abdixoliqova Nodira

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyot
abdixoliqovanodira123@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro munosabat, ularning inson ongidagi bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar sifatidagi roli ilmiy asosda tahlil qilinadi. Til tafakkurning moddiy shakli sifatida uning ifoda vositasi, tafakkur esa tilning mazmuniy asosidir. Maqolada til va tafakkurning o'zaro ta'siri, ularning falsafiy, psixologik va lingvistik talqinlari, turli tilshunoslar nazariyalari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: til, tafakkur, ong, nutq, semantika, konsept, strukturalizm, psixolingvistika.

Annotation: This article analyzes the interrelationship between language and thought as complementary processes in human consciousness. Language is viewed as the material form of thought and its means of expression, while thought represents the semantic foundation of language. The study explores the philosophical, psychological, and linguistic interpretations of this interaction, referring to various linguistic theories.

Keywords: language, thought, mind, speech, semantics, concept, structuralism, psycholinguistics.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимосвязь между языком и мышлением как взаимодополняющие процессы человеческого сознания. Язык рассматривается как материальная форма мышления и средство его выражения, а мышление — как смысловая основа языка. Анализируются философские, психологические и лингвистические аспекты их взаимодействия.

Ключевые слова: язык, мышление, сознание, речь, семантика, концепт, структурализм, психолингвистика.

Til va tafakkur insoniyat sivilizatsiyasi rivojining eng muhim poydevorlaridan biridir. Tafakkursiz til, tilsiz esa tafakkur to'liq shakllanmaydi. Bu ikki hodisa bir-birini

to'ldiruvchi, o'zaro uzviy bog'langan murakkab jarayonlardir. Til orqali inson o'z fikrini ifodalaydi, tafakkur esa tilga mazmun bag'ishlaydi.

Tilning asosiy vazifalari

Til – bu fikrlarni ifodalash, bilimlarni almashish, his-tuyg'ularni yetkazish vositasi. Ibtidoiy jamiyatda til oddiy signallar tizimi bo'lgan bo'lsa, insoniyat taraqqiyoti davomida u murakkab tizimga aylandi. Til inson tafakkurining tashqi ko'rinishi bo'lib, u bizning dunyoni qabul qilishimiz va ifodalashimizga yordam beradi.

Tafakkur nima? Tafakkur — bu ong faoliyatining asosiy shakli bo'lib, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish, ob'ekt va hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni anglash jarayonidir. Tafakkur ko'pincha til orqali ko'rsatilib, rivojlanadi.

Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, til va tafakkur bir-birini to'ldiradi va ta'sirlashadi. Til inson tafakkurining shakllanishi uchun vosita bo'lsa, tafakkur tilni yaratadi va rivojlantiradi.

1. Til tafakkur shakllanishiga ta'siri

Yangi so'zlar va sintaksis qoidalarini o'rganish tafakkur jarayonining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Til orqali inson atrof-muhitni tasniflaydi, bilimlarni tizimlashtiradi, mantiqiy fikrlaydi.

2. Tafakkur orqali tilni anglash

Tafakkur tilning ma'nosini anglash, so'zlarni to'g'ri kontekstda qo'llashga yordam beradi. Masalan, yangi texnik so'zlar vujudga kelganda, ularni tushunish va qo'llash uchun avvalo tafakkur jarayoni kerak.

3. Til va tafakkurning o'zaro ta'siri

Yana bir jihat — til yangiliklar kiritib, tafakkur qobiliyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, inson fikrlash usullaridagi o'zgarishlar tilni yangilashga olib keladi.

Til va tafakkurning falsafiy mohiyati

Til — moddiy shakl, tafakkur — ma'naviy mazmundir. Falsafada til tafakkurning ifoda vositasi sifatida talqin qilinadi. Aristotel "fikir so'z bilan shakllanadi" degan; Hegel esa "til — fikrning tanasi" deb hisoblagan. Bu g'oyalar keyinchalik tilshunoslikda ham o'z aksini topgan.

Til va tafakkurning psixologik jihati

Psixologiyada tafakkur insonning bilish faoliyati mahsuli deb qaraladi. Nutq esa tafakkurning tashqi ifodasidir. L.S. Vygotskiy til va tafakkurni bir butun jarayonning

ikki tomoni sifatida tahlil qilib, “fikr soʻzda tugʻiladi va soʻz orqali namoyon boʻladi” degan.

Lingvistik yondashuvlar

Tilshunoslikda bu masala turlicha talqin qilinadi. Strukturalizm nazariyasi (F. de Sossyur)ga koʻra, til belgilar tizimi boʻlib, tafakkur bu belgilar orqali shakllanadi. Kognitiv tilshunoslik vakillari (N. Chomskiy, D. Lakoff) esa inson tafakkurining tuzilmasini tilda aks etuvchi konseptlar orqali tushuntiradi.

Til tafakkurni shakllantiruvchi omil sifatida

Insonning tafakkur darajasi uning til boyligi bilan chambarchas bogʻliq. Boy soʻz zaxirasi va grammatik tizim fikrlashni kengaytiradi. Shu jihatdan ona tili inson tafakkurining tabiiy poydevoridir. Oʻz tilini mukammal bilgan shaxs oʻz fikrini aniq, loʻnda va obrazli ifodalash imkoniga ega boʻladi.

Milliy tafakkur va til

Til milliy tafakkurning koʻzgusidir. Har bir xalq tili oʻziga xos dunyoqarashni ifodalaydi. Masalan, oʻzbek tilidagi “or”, “vijdon”, “mehr”, “qadr” kabi soʻzlar millatning axloqiy tafakkurini yoritadi. Shu tariqa til milliy ruhiyatni, tarixiy tajribani va madaniyatni avloddan avlodga uzatuvchi vosita vazifasini bajaradi.

Til va tafakkur munosabatining zamonaviy talqini

Bugungi kunda sunʼiy intellekt, kompyuter lingvistikasi, neyrolingvistika kabi sohalar ham til va tafakkur oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganmoqda. Inson miyasi tilni qanday ishlab chiqadi va uni qanday fikrga aylantiradi — bu yangi davr tadqiqotlarining asosiy yoʻnalishiga aylangan.

Til va tafakkur oʻrtasidagi munosabat insonning bilish faoliyatida markaziy oʻrinni egallaydi. Til fikrni ifoda etuvchi, tafakkur esa uni mazmun bilan boyituvchi kuchdir. Ularning uygʻunligi inson ongining shakllanishi, milliy oʻzlikning ifodalanishi va madaniyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shuning uchun har bir inson oʻz ona tilini mukammal bilishi — uning tafakkurini yuksaltiruvchi eng muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chomsky, N. Language and Mind. Cambridge University Press, 2006.
2. Gʻulomov, A. Til va nutq psixologiyasi. Toshkent: Universitet, 2016.
3. Humboldt, W. von. On Language: The Diversity of Human Language-Structure. Cambridge, 1999.
4. Joʻrayev, N. Umumiy tilshunoslik asoslari. Toshkent: Fan, 2017.

5. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 2003.
6. Pavlov, I.P. Ocherki o rabote golovnogo mozga. Moskva, 1951.
7. Qarshiboyev, A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi, 201
8. Rahmonov, T. Til va tafakkur masalalari. Samarqand, 2020.
9. Saussure, F. de. Course in General Linguistics. London: McGraw-Hill, 2011.
10. Sapir, E. Language: An Introduction to the Study of Speech. New York, 1921.
11. Vygotsky, L.S. Thought and Language. MIT Press, 1986.
12. Whorf, B.L. Language, Thought, and Reality. MIT Press, 1956

SAN'ATGA OID LEKSIKA: LINGVISTIK VA MADANIY TAHL**Abduhakimova Muhlis Asliddin qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

asliddingoziyev@gmail.com**Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich**

Annotatsiya. Maqolada san'at leksikasining shakllanish jarayoni, uning lingvistik va madaniy xususiyatlari, milliy madaniyat va xalq ma'naviyati bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, teatr va kino sohalarida qo'llanadigan terminlarning semantik qatlamlari ochib beriladi. Shuningdek, zamonaviy san'at bilan bog'liq yangi atamalar ham ko'rib chiqilib, san'at leksikasining til taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: San'at, leksika, tilshunoslik, madaniyat, estetik tafakkur, atamalar tizimi, milliy o'zlik.

Annotation. The article provides a scientific analysis of the process of formation of art-related vocabulary, its linguistic and cultural features, and its close connection with national culture and the spiritual values of the people. It examines the semantic layers of terms used in literature, music, fine arts, theater, and cinema. The study also highlights the emergence of new terms in modern art and emphasizes the importance of artistic vocabulary in the development of language and culture.

Keywords: Art, vocabulary, linguistics, culture, aesthetic thinking, terminology, national identity.

Аннотация. В статье проводится научный анализ процесса формирования лексики, связанной с искусством, её лингвистических и культурных особенностей, а также её тесной связи с национальной культурой и духовными ценностями народа. Рассматриваются семантические слои терминов, используемых в литературе, музыке, изобразительном искусстве, театре и кино. Также освещается появление новых терминов в современном искусстве и подчёркивается значение художественной лексики в развитии языка и культуры.

Ключевые слова: Искусство, лексика, лингвистика, культура, эстетическое мышление, терминология, национальная идентичность.

Til – jamiyat hayotining asosiy ifoda vositasi, san'at esa – insoniyat tafakkurining eng yuksak mahsulidir. Har ikkisi uyg'unlashganda milliy madaniyatning badiiy va

estetik ko'rinishlari boyib, avlodlar avlodga meros bo'lib o'tadi. Shu jihatdan qaralganda, san'atga oid leksika tilshunoslikda alohida tadqiq etilishi lozim bo'lgan qatlamdur. San'at leksikasi faqat estetik tushunchalarni ifodalash bilan cheklanib qolmay, balki xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy qarashlari va turmush tarzini ham o'zida aks ettiradi. O'zbek tili misolida qaraganda, san'at atamalarining shakllanishida uch asosiy manba kuzatiladi:

1. Milliy manba – maqom, doira, g'ijjak, naqsh, atlas kabi so'zlar;
2. Sharq madaniyati ta'siri – musavvir, naqqosh, ruboiy, qasida, miniatyura kabi;
3. G'arb va jahon san'ati ta'siri – teatr, opera, balet, simfoniya, kino kabi.

San'at leksikasini ilmiy tahlil qilish jarayonida nafaqat lug'aviy ma'no, balki uning madaniy, ijtimoiy va estetik jihatlari ham alohida e'tibor talab etadi. San'at terminlari ko'pincha ko'p ma'nolilik va metaforiklik xususiyatiga ega. Masalan, "rang" so'zi tasviriy san'atda aniq bo'yoq ma'nosini bildirsa, adabiyotda "badiiy rang" – obrazli ifodani anglatadi. Shuningdek, "ohang" so'zi musiqaga oid bo'lsa-da, adabiyotda ritm va kayfiyatni ifodalashda qo'llanadi. O'zbek adabiyotida san'at atamalarining qo'llanilishi juda keng. Alisher Navoiy asarlarida "tashbeh", "istiora", "talmeh" kabi badiiy san'at vositalari nomlari uchrashi bunga yorqin misoldir. Bu terminlar nafaqat adabiyotshunoslikda, balki san'atshunoslikda ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalqining musiqa merosi – maqom san'ati orqali ko'plab musiqiy atamalar tilimizda shakllangan. "Shashmaqom", "navo", "ashula", "cho'poncha" kabi terminlar xalqning musiqiy madaniyatini ifodalaydi. Tasviriy san'at sohasida esa "musavvir", "naqsh", "haykaltaroshlik", "grafika" kabi so'zlar keng qo'llanadi. XX asrdan boshlab teatr va kino san'ati rivojlanishi natijasida o'zbek tiliga ko'plab yangi terminlar kirdi: "aktyor", "rejissyor", "ssenariy", "epizod", "sahna". Hozirgi globallashuv davrida ingliz tilidan kirgan "casting", "serial", "trailer" kabi terminlar ham san'at leksikasining yangi qatlamini tashkil etmoqda. XXI asrda san'atning yangi yo'nalishlari – raqamli san'at, installatsiya, performans, dizayn kabi tushunchalar paydo bo'ldi. Bu atamalar tilimizning zamonaviy ehtiyojlarga moslashayotganini ko'rsatadi. San'atga oid leksika milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. U xalqning badiiy tafakkurini shakllantiradi, estetik didini rivojlantiradi va madaniy merosni avlodlarga yetkazadi. Shu sababli, san'at leksikasini o'rganish – nafaqat lingvistik, balki ma'naviy-ma'rifiy jarayon hamdir. San'at leksikasi tilning boy qatlamlaridan biri bo'lib, u millatning madaniy va estetik qarashlarini ifodalaydi. U orqali xalqning tarixiy merosi, badiiy didi va ma'naviy olami namoyon bo'ladi. Bugungi globallashuv sharoitida san'at leksikasini ilmiy asosda

o'rganish, ularni tartibga solish, lug'atlar yaratish va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biridir. San'at terminologiyasini chuqur o'rganish tilshunoslik, madaniyatshunoslik va san'atshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, san'at leksikasini o'rganish – milliy madaniyatni asrash va uni jahon ilmiy hamjamiyatiga tanitishda muhim qadamdir. San'atga oid leksikaning o'ziga xosligi shundaki, u faqatgina lug'aviy birlik sifatida emas, balki madaniy fenomen sifatida ham namoyon bo'ladi. Har bir atama ortida xalqning tarixiy xotirasi, badiiy an'analari va estetik qarashlari mujassam. Shu sababli, san'at leksikasini o'rganish jarayonida tilshunoslik metodlari bilan bir qatorda madaniyatshunoslik va san'atshunoslik yondashuvlaridan ham foydalanish lozim. Bugungi kunda yangi axborot texnologiyalari va global madaniy almashinuv jarayonlari san'at tiliga ko'plab yangiliklarni olib kirmoqda. Internet, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar san'atga oid terminlarning tez tarqalishiga, ba'zan esa yangi tushunchalarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon tilshunoslar oldiga yangi vazifalarni qo'yadi: mavjud terminlarni tartibga solish, yangi tushunchalarni ilmiy asosda izohlash, milliy leksikaga moslashtirish. Shuningdek, san'at leksikasi yosh avlodni tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonida bunday atamalardan samarali foydalanish ularning estetik didini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni qadrlashga yordam beradi.

Shu bois, san'at leksikasini o'rganish nafaqat lingvistik zarurat, balki madaniy-ma'naviy ehtiyoj hamdir. Bu jarayon milliy o'zlikni asrash, madaniyatni targ'ib qilish va uni jahon miqyosida tanitishda beqiyos o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, A. (2015). O'zbek tilida leksika masalalari. Toshkent: Fan.
2. Jo'rayev, M. (2018). San'atshunoslik asoslari. Toshkent: Ma'naviyat.
3. Sa'dullayeva, D. (2020). Til va madaniyat uyg'unligi. Samarqand: Zarafshon.
4. Karimov, I.A. (2008). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat.
5. Alisher Navoiy. (1991). Mezon ul-avzon. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
6. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.

O'ZBEK TILIGA ARAB TILIDAN KIRGAN O'ZLASHMA SO'ZLAR**Abdurahimova Muxlisa Ravshan qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Qodirjon Mo'ydinov Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tiliga arab tilidan kirgan o'zlashma so'zlarning shakllanishi, ularning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari, tarixiy bosqichlarda kirib kelish sabablari hamda adabiyotdagi o'rni yoritiladi. Misollar orqali arabcha o'zlashmalarning diniy, ilmiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va kundalik hayotdagi guruhlari tahlil qilinadi. Shuningdek, arabcha va turkiy so'zlar sinonimik qatlam hosil qilib, tilimizning boyishida qanday rol o'ynagani haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'zlashma, arabcha so'zlar, fonetik o'zgarish, morfologik moslashuv, semantika, sinonim, adabiyot.

Abstract. This article examines the borrowed words from Arabic in the Uzbek language, their phonetic, morphological, and semantic features, as well as the reasons and historical stages of their adoption. Through examples, the classification of Arabic borrowings in religious, scientific, moral, social, and everyday spheres is analyzed. Furthermore, the role of Arabic words in enriching the Uzbek lexicon, especially through synonymy with Turkic words, is discussed.

Keywords: borrowing, Arabic words, phonetic change, morphological adaptation, semantics, synonymy, literature.

Аннотация. В статье рассматривается формирование заимствований из арабского языка в узбекском языке, их фонетические, морфологические и семантические характеристики, причины их появления на исторических этапах и место в литературе. На примерах анализируются религиозные, научные, духовно-нравственные, социальные и бытовые группы заимствований из арабского языка. Также рассматривается роль арабских и тюркских слов в обогащении нашего языка, образуя синонимический слой.

Ключевые слова: заимствования, арабские слова, фонетические изменения, морфологическая адаптация, семантика, синонимия, литература.

O'zbek tili qadimiy turkiy tillardan biri bo'lib, uning shakllanish va rivojlanish jarayonida boshqa tillar bilan bevosita aloqalar muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, VIII

asrdan boshlab Markaziy Osiyoda arab xalifaligi hukmronligining o'rnatilishi va islom dinining tarqalishi natijasida arab tili madaniy-ma'naviy hayotning asosiy unsurlaridan biriga aylandi. Bu jarayon o'zbek tili leksikasida ham sezilarli iz qoldirdi. Arab tilidan kirib kelgan so'zlar diniy, ilmiy, falsafiy va badiiy terminlar sifatida xalqimiz nutqiga, adabiyotiga chuqur singib ketdi.

Arabcha so'zlarning kirib kelish sabablari:

1. Islom dini tarqalishi – Qur'oni karim, hadis va diniy ilmlarning arab tilida yozilishi tufayli diniy terminlar o'zbek tiliga o'zlashdi: namoz, ro'za, zakot, jannat, do'xax, imon, taqvo.

2. Ilm-fan rivoji – IX–XII asrlarda Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy kabi olimlar arab tilida ilmiy meros yaratdilar. Natijada ilm, mantiq, falsafa, kimyo, hisob, qoida kabi atamalar o'zbek tiliga kirdi.

3. Madaniyat va adabiyot ta'siri – Navoiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida arabcha so'zlar keng qo'llangan: adolat, ma'rifat, muhabbat, sabr, hikmat, tafakkur.

4. Savdo va kundalik hayot – O'rta asrlarda xalqaro savdo orqali ham ko'plab so'zlar kirgan: kitob, daftar, qalam, qog'oz, vaqt, savol, javob.

Arabcha o'zlashmalarning leksik guruhlari

1. Diniy terminlar: ibodat, madrasa, masjid, Qur'on, hadis, jannat, shariat.

2. Ilmiy terminlar: kimyo, mantiq, tarix, adab, qoida, ta'lim.

3. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar: axloq, sabr, muhabbat, adolat, ma'rifat, odob.

4. Huquqiy va ijtimoiy atamalar: amir, qozi, hukm, davlat, nizom.

5. Kundalik hayot so'zlari: kitob, daftar, mehmon, vaqt, savol, javob

Fonetik o'zgarishlar:

Arab tilidagi tovushlar o'zbek tilida mavjud bo'lmaganligi sababli ular moslashtirilgan:

ḥisāb → hisob

ʿilm → ilm

ṣabr → sabr

zamān → zamon

Morfologik moslashuv:

Arabcha so'zlar o'zbek tilidagi qo'shimchalar orqali yangi ma'nolar kasb etdi:

ilm → ilmiy, ilmli, ilmsiz

adolat → adolatli, adolatsiz

ma'no → ma'nodor, ma'nosiz

Semantik o'zgarishlar:

“Sabr” arabchada “chidash” ma’nosida, o‘zbekchada esa “toqat, matonat” ma’nosida.

“Adab” arabchada “tarbiya”, o‘zbek tilida esa “tarbiya, madaniyat, adabiyot”.

“Qalb” arabchada “yurak”, o‘zbek tilida ko‘proq “ruhiy kechinma markazi” ma’nosida.

Tarixiy bosqichlarda kirib kelish:

VIII–X asrlar – diniy so‘zlar.

IX–XII asrlar – ilmiy-falsafiy terminlar.

Temuriylar davri – adabiy-badiiy tushunchalar.

Arabcha so‘zlarni adabiyotda ham keng qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy “Xamsa” asarlarida arabcha so‘zlardan keng foydalangan. Masalan, ilm, hikmat, sabr, adolat, ma’rifat tushunchalari uning asarlarida asosiy g‘oya va mazmunni belgilagan. Bundan tashqari, o‘zbek tilida arabcha va turkiy so‘zlar yonma-yon ishlatilib sinonim qatlam yaratadi: qalb – yurak, oqil – dono, suv – ob, odam – bashar kabilar. Bugungi kunda arabcha ildizlardan yangi so‘zlar hosil qilinmoqda: ma’rifatparvar, adolatparvar, ilmiy-texnik, odoblilik.

Xulosa qilib aytish mumkinki, arabcha so‘zlar o‘zbek tilining boy leksik qatlamini tashkil etib, uni yanada rang-barang, uslubiy jihatdan keng imkoniyatli qildi. Ular tilimizda diniy, ilmiy, falsafiy va kundalik nutq sohalarida mustahkam o‘rnashib, yangi so‘z yasashda ham asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda arabcha o‘zlashmalar tilimizning barqaror va faol qatlamini tashkil etib, ma’naviy merosimizni boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Fan, 1960.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.
3. Karimov A. O‘zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
4. Jo‘rayev M. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
5. Rahmatullayev Sh. Leksikologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
6. Hojiahmedov A. Arabcha o‘zlashmalar va ularning o‘zbek tilidagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 2015.

O'ZBEK TILIGA YANGI TRANSPORT ATAMALARINING KIRIB KELISHI

Abduraimova Nigora Shokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

2 - bosqich talabasi (kechki)

abduraimovanigora597@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Ushbu maqola globallashtirish, urbanizatsiya va raqamlashtirish sharoitida o'zbek tiliga yangi transport atamalarining kiritilishini o'rganadi. Rus va ingliz tillaridan o'zlashtirib olish va ularni o'zbek tilining fonetik va orfografik me'yorlariga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, milliy atamalarining o'rni, standartlashtirish jarayonlari, raqamli texnologiyalarning yangi transport lug'atini shakllantirishdagi ta'siri ham tahlil qilinadi. Maqolada transport terminologiyasining ijtimoiy-madaniy ahamiyati va uning zamonaviy o'zbek tili taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, transport terminlari, qarz olish, moslashtirish, milliy yozishmalar, standartlashtirish, terminologiya, globallashtirish, raqamlashtirish, urbanizatsiya, lug'at, elektron chipta, onlayn taksi bron qilish, mobil ilova, GPS navigatsiyasi, yo'lovchi poyezdi, shahar transporti.

Abstract: This paper examines the introduction of new transportation terms into the Uzbek language in the context of globalization, urbanization, and digitalization. Particular attention is paid to borrowings from Russian and English and their adaptation to the phonetic and orthographic norms of the Uzbek language. The role of national terms, standardization processes, and the influence of digital technologies on the formation of new transportation vocabulary are also analyzed. The article highlights the sociocultural significance of transportation terminology and its role in the development of the modern Uzbek language.

Keywords: Uzbek language, transportation terms, borrowing, adaptation, national correspondence, standardization, terminology, globalization, digitalization, urbanization, vocabulary, e-ticket, online taxi booking, mobile app, GPS navigation, passenger train, urban transportation.

Аннотация: В данной работе рассматривается процесс введения новых транспортных терминов в узбекский язык в условиях глобализации, урбанизации

и цифровизации. Особое внимание уделяется заимствованиям из русского и английского языков, их адаптации к фонетическим и орфографическим нормам узбекского языка. Анализируется также роль национальных терминов, процессы стандартизации и влияние цифровых технологий на формирование новой транспортной лексики. В статье подчеркивается социокультурное значение транспортной терминологии и ее роль в развитии современного узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, транспортные термины, заимствование, адаптация, национальные соответствия, стандартизация, терминология, глобализация, цифровизация, урбанизация, лексика, электронный билет, онлайн-заказ такси, мобильное приложение, GPS-навигация, пассажирский поезд, городской транспорт.

O'zbekiston transport infratuzilmasining rivojlanishi va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, xususan, transport terminologiyasi leksikasining doimiy yangilanishiga olib kelmoqda. Bu jarayon murakkab va ko'p qirrali bo'lib, tilshunoslar va tarjima mutaxassislari uchun qiziqarli tadqiqot sohasini taqdim etadi. Bu leksik yangilanish bir qancha omillarning o'zaro ta'siriga asoslanadi: qarz olish, moslashish, milliy ekvivalentlarni yaratish, atamashunoslikni standartlashtirishda davlat organlarining faol o'rni mavjud.

O'zbek tilining transport terminlari bilan dastlabki boyishi, avvalambor, rus va ingliz tillaridan o'zlashtirish hisobiga sodir bo'ldi. "Avtobus", "metro", "tramvay", "taksi" kabi mumtoz misollar o'zbek tili me'yorlariga fonetik va orfografik moslashuvdan o'tib, kundalik nutqda mustahkam o'rin oldi⁹[25-28 b.]. Shuni ta'kidlash kerakki, moslashish jarayoni har doim ham mexanik emas. Ba'zan o'zlashtirilgan so'z ma'nosining semantik kengayishi yoki torayishi o'zbek madaniyati va mentalitetining o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi. Qarz olish bilan bir qatorda milliy ekvivalentlar ham faol yaratilmoqda. "Yo'lovchi poyezdi" atamasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bunday neologizmlar lingvistik o'ziga xoslikni saqlashga yordam beradi va terminologik mustaqillik istagini aks ettiradi. Biroq amalda rus va o'zbek variantlari ko'pincha yonma-yon mavjud bo'lib, sinonimlarni keltirib chiqaradi va bir xil qo'llanish me'yorlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Leksik o'zgarishlarning ijtimoiy-madaniy jihati: bu jarayonda standartlashtirishning rolini ortiqcha baholash qiyin¹⁰[46-

⁹ X. Неъматов, Р. Расулов — *Ўзбек тили систем лексикологияси асослари*. Toshkent, "Ўқитувчи", 1995.

akbt.urspi.uz

¹⁰ Хожиев А. — *Ўзбек тили лексикологияси*. Namangan davlat universiteti nashri, 1981. www.namdu.uz

74 b.]. Rasmiy hujjatlar, darsliklar va ommaviy axborot vositalarida qo'llaniladigan yagona terminologiya bazasini ishlab chiqish va tasdiqlashda terminologiya komissiyalari va O'zbekiston Fanlar akademiyasi asosiy rol o'ynaydi. Bu ish nomuvofiqliklarni bartaraf etish va transport lug'atidan foydalanishda bir xillikni ta'minlashga qaratilgan¹¹[32-43 b.]. Raqamlashtirish transport lug'atining rivojlanishini sezilarli darajada o'zgartirdi. Onlayn taksi bron qilish xizmatlari, mobil chiptalarni sotish ilovalari va elektron to'lov tizimlarining paydo bo'lishi "elektron chipta" (elektron chipta), "onlayn buyurtma" (onlayn taksi bron qilish), "mobil ilova" (mobil ilova), "smart-soat" (sayohat haqini to'lash uchun mo'ljallangan aqlli soat), "mart-tobus bekatning" ("avtobus bekatining" tizimi) kabi yangi atamalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu atamalar nafaqat texnologik taraqqiyotni, balki O'zbekistonning kundalik hayotidagi o'zgarishlarni ham ko'rsatadi¹²[12-23 b.]. So'nggi yillarda, ayniqsa, "avtomobilni almashish", "tashishni taqsimlash" va "etkazib berish dronlari" kabi yangi texnologiyalar kontekstida anglikizmlardan moslashtirilmagan foydalanish tendentsiyasi ham kuzatildi. Bu yuqori texnologiyali sohada xalqaro muloqot tili sifatida ingliz tilining ta'siri ortib borayotganini ko'rsatadi¹³[34-36 b.].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi o'zbek tilida transport lug'atining rivojlanishi ham tashqi ta'sirlarni, ham ichki lingvistik tendentsiyalarni o'zida aks ettiruvchi jadal va doimiy rivojlanib boruvchi jarayondir. Qarz olish, milliy ekvivalentlarni yaratish va standartlashtirish o'rtasidagi mutanosiblik o'zbek transport terminologiyasining kelajagini belgilab beradi, uning boy bo'lishiga va zamonaviy dunyo voqeliklarining munosib aks etishiga hissa qo'shadi. Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar jadal texnologik taraqqiyot sharoitida til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. Неъматов, Р. Расулов — Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Toshkent, "Ўқитувчи", 1995. akbt.urspi.uz
2. Ҳожиёв А. — Ўзбек тили лексикологияси. Namangan davlat universiteti nashri, 1981. www.namdu.uz
3. К. М. Шайхова — Ўзбек тили. Tafakkur nashriyoti, 2010. [Китобхон](#)

¹¹ К. М. Шайхова — Ўзбек тили. Tafakkur nashriyoti, 2010. Китобхон

¹² Жамоа — Ўзбек тилининг изоҳли луғат. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. АКБТ

¹³ Алибек Рустамов — Ўзбек тили жозибаси. "Ғафур Ғулом" nashriyoti, 2021. Китобхон

4. Жамоа — Ўзбек тилининг изоҳли луғат. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. [AKBT](#)
5. Алибек Рустамов — Ўзбек тили жозибаси. “Ғафур Ғулом” nashriyoti, 2021. [Китобхон](#)

FRAZEMALARNING ISHLATILISH DOIRASI VA ZAMONIYLIGI**Lobar Abduvali qizi Abdurashidova**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi²–bosqich talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada frazemalarning ishlatilish doirasi va zamoniyligi masalalari o'rganilgan. Frazemalar — tilning muhim leksik birliklaridan biri bo'lib, ularning ma'nosi ko'pincha so'zlarning alohida ma'nolaridan farq qiladi va butun frazalik shaklda tushuniladi.

Kalit so'zlar: turg'un birikma, yaxlitlik, Istorizm-frazemalar, uslub, so'z birikma, tarixiy xotira, internet tili.

Annotation. This article examines the scope of usage and modernity of phraseological units. Phraseological units are an important lexical component of language, whose meanings often differ from the individual meanings of the words and are understood as a whole phraseological expression.

Keywords: Fixed expression, semantic unity, semantic wholeness, Historical phraseologisms, stylistic register, Word combination, Historical memory, Internet language.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сферы употребления и актуальность фразеологических единиц. Фразеологизмы являются важным лексическим компонентом языка, значения которых часто отличаются от значений отдельных слов и воспринимаются как целостные фразеологические выражения.

Ключевые слова: Устойчивое выражение, Семантическое единство, Семантическая целостность, Исторические фразеологизмы, Стилистический регистр, Словосочетание, Историческая память, Язык интернета.

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi. Frazeeologizmlar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so'zlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksikgrammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qullanadi, ya'ni frazeologizm tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urug'i, arpasini xom

urmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig'may ketmoq, kapalagi uchmoq, kungli joyiga tushmoq, qo'li ochiq, qulog'i og'ir va boshqa frazeologizmlar tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Til tizimining eng boy qatlamlaridan biri bu — frazemalardir. Ular xalqning dunyoqarashi, madaniy tajribasi va tarixiy xotirasini o'zida mujassam etgan, ko'p hollarda obrazli, emotsional ifoda vositalaridir. Frazemalar tildagi so'zlar singari erkin ishlatilmaydi; ular ma'no va shakl jihatidan barqaror birliklardir. Bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida frazemalarning ishlatilish doirasi kengayib, zamoniylik jihatidan yangilanib bormoqda. Shu sababli, frazemalarning hozirgi tildagi o'rni, ularning faol ishlatilish sohalari hamda yangi kontekstlardagi talqinini o'rganish tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Frazemalar stilistik jihatdan turlicha doiralarda qo'llanadi: rasmiy-idoraviy matnlarda ularning soni cheklangan bo'lsa, badiiy, jurnalistik va so'zlashuv nutqida ular nihoyatda faol. Ayniqsa, hozirgi o'zbek adabiy tilida frazemalarning emotivlik va ifodalilik xususiyati ularni badiiy nutqning ajralmas qismiga aylantirgan. So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari, internet tili va yoshlar slengi frazemalar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ayrim eski iboralar unutilmoqda (ko'ngliga shubha solmoq, pichog'i yog' ustida yurmoq kabi), yangilari esa faol qo'llanmoqda (ko'tarma bo'lish, trendda bo'lmoq, like bosmoq singari). O'zbek tili frazemalarining ishlatilish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan bo'lishi mumkin.

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan frazemalar millat vakillarining barchasi uchun umumiydir, ular barchaning nutqida bir xil darajada qo'llanadi, barchaga tushunarli bo'ladi: ikki gapning birida, ko'ngliga qil sig'maydi, ter to'kmoq, g'azabi kelmoq kabilar shular jumlasidandir. Ishlatilish doirasi chegaralangan frazemalar, asosan, muayyan dialekt yoki sheva birligi bo'lib, umumtil va adabiy til doiralarida qo'llanmaydi. Masalan, qipchoq lahjasi shevalarida qo'lini moylab kelmoq (ma'nosi: "xohlamay, loqayd ishlamoq"), ayroni achimas (ma'nosi: "loqayd", "beparvo"), jiyaning ostidan o'tmoq (ma'nosi: "esini yo'qotmoq", "miyasi aynimoq"), qulog'i ostida qolmoq (ma'nosi: "o'lmoq", "vafot etmoq") frazemalari uchraydi.

2. Ishlatilishi kasb-hunarga ko'ra chegaralanish frazemalarga xos emas, ammo frazemalarning kelib chiqishi va shakllanishida ijtimoiy mehnatning u yoki bu turi nolisoniy omil sifatida ishtirok etganligi shubhasiz: ko'pchilik frazemalar ijtimoiy mehnat bilan bog'liq voqeliklarga tayangan holda yuzaga kelgan. Masalan: arpasini xom o'rmoq (dehqonchilikka tayanilgan), astar-avrasini ag'darmoq (tikuvchilikka

tayanilgan), bo'zchining mokisiday (to'quvchilikka tayanilgan), temirni qizig'ida bosmoq (temirchilikka tayanilgan), misi chiqmoq (zargarlikka tayanilgan) kabi.

Zamoniyluk belgisi asosida frazemalarning eski, yangi va zamonaviy qatlamlari farqlanadi.

Eski qatlam frazemalari quyidagi ikki turga ajratiladi:

1. Istorizm-frazemalar - o'tmish voqeligiga xos iboralar: qo'sh qilich bir qinga sig'mas (DLT, I,340) kabi. Istorizm-frazemalar tilda juda kam uchraydi.
2. Arxaizm-frazemalar - hozirgi tilda leksik yoki frazeologik sinonimi bor bo'lgan eskirgan frazemalar. Masalan: tengri rahmatig'a bormoq (arxaizm-frazema)

Yangi qatlam frazemalari. Ular tilda yangi paydo bo'lgan, binobarin, yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan frazemalarni o'z ichiga oladi, shunga ko'ra neologizm-frazemalar sanaladi. Masalan: tomi ketgan (ma'nosi: "aqlidan ozgan", "esi past"), yangi o'zbeklar (ma'nosi: "hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga kelgan yangi ishbiarmonlar") kabi.

Zamonaviy qatlam frazemalari. Bu qatlamga mansub frazemalarda "eskirganlik" belgisi ham, "yangilik" belgisi ham bo'lmaydi. Ular hozirgi o'zbek tilidagi frazemalarning ko'pchiligini tashkil qiladi. Masalan: Avj(i)ga chiqmoq, achchig'i keldi, aqli kirdi, bo'yng'ni yor bermaydi, gapga kirmoq, kalavaning uchini topmoq, ko'zi moshdek ochildi, chuchvarani xom sanamoq, ensasi qotmoq va b.lar. Frazemalarning ishlatilish doirasi ularning funksional uslubga moslashuvi bilan belgilanadi. Rasmiy uslubda frazemalarning ishlatilishi chegaralangan bo'lsa, badiiy, publitsistik va internet uslublarida ular yangi shakl va ma'nolarni oladi. Misol uchun, ilgari og'zi kuygan sutni ham puflab ichadi iborasi ehtiyohtkorlik ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, bugungi internet kontekstida bu ibora mem shaklida kinoyaviy ohangda qo'llanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, frazemalar o'zbek tilining tirik va dinamik qatlami hisoblanadi. Ularning ishlatilish doirasi kengayib, zamoniyluk jihatidan sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shunday qilib, frazemalarning zamoniyligini o'rganish faqat lingvistik emas, balki sotsiolingvistik va madaniy jarayonlarni tahlil qilish uchun ham muhimdir. Kelgusida o'zbek tilida frazemalarning korpus asosida statistik tahlilini kengaytirish, yangi frazeologik lug'atlar tuzish hamda internet frazeologiyasini alohida yo'nalish sifatida tadqiq e'uchtish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Hasanboy Jamolxonov. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2013

2. <https://uz.Wikipedia.org>

3.<https://in-academy.uz>

SEMASOLOGIYA VA SEMANTIKA

Abduraxmanova Rushana Anvar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

rushananvarovna10@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada semasologiya va semantika sohalarining mohiyati, ularning o'zaro aloqasi hamda farqli jihatlari yoritiladi. Til birliklarining ma'no jihatidan tahlili, so'zning semantik tuzilishi, kontekst va nutqdagi ma'no o'zgarishlari, shuningdek, zamonaviy semantik tadqiqotlar tahlil qilinadi. Misollar orqali so'z ma'nosining ko'p qirraliligi va dinamik tabiati ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: semasologiya, semantika, ma'no, til birligi, leksik ma'no, kontekst, polisemiya, sinonimiya.

Annotation: This article explores the essence of semasiology and semantics, their interrelation and distinctions. It analyzes the meaning of linguistic units, the semantic structure of words, and contextual and speech-based meaning changes. Through examples, it highlights the polysemy and dynamic nature of word meanings in modern language.

Keywords: semasiology, semantics, meaning, linguistic unit, lexical meaning, context, polysemy, synonymy.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность семасологии и семантики, их взаимосвязь и различия. Анализируется значение языковых единиц, структура семантического значения слова, контекстуальные и речевые изменения смысла. На основе примеров показана многозначность и динамичность значения слов в современном языке.

Ключевые слова: семасология, семантика, значение, языковая единица, лексическое значение, контекст, полисемия, синонимия.

Tilshunoslikda so'zning ma'nosi eng muhim tushunchalardan biridir. Har qanday til tizimi so'zlar orqali voqelikni ifodalaydi, shuning uchun so'z ma'nosini o'rganish tilshunoslikning markaziy masalalaridan biridir. Shu sababli, ma'no masalasini o'rganuvchi ikki asosiy yo'nalish — semasologiya va semantika mavjud.

Tilshunoslikda tilning turli xil sathlardagi birliklarining ma'nosini tadqiq etish semasiologiya fanining vazifasi sanaladi. Lisoniy ma'no, yangi til birliklari anglatayotgan ma'no uning o'rganish predmeti hisoblanadi. Til birliklarining ma'nosini tadqiq qiladi.

Bilamizki, bizning bobokalanlarimiz ham tilshunoslikka, xususan turkiy tillar tilshunosligiga katta xissa qo'shgan. Xususan Mahmud Kashg'ariy o'zi ham "Devoni lug'atit turk" asari arab tili va arab tilshunosligi an'analarida yozilgan bo'lsada, unda qadimgi turkiy til hamda eski turkiy til lug'at tarkibidagi so'zlarning ma'nolari izohlangan. Bundan ko'rish mumkinki, semasiologiya alohida soha sifatida dastlab leksikografiya tarkibida rivojlangan. Keyingi davrlarda "semasiologiya" atamasi bilan "sematika" ham qo'llanib kelinmoqda. "Semasiologiya" atamasi Rayzig tomonidan 1939-yilda birinchi marta qo'llanilgan bo'lsa-da, "sematika" termini undan ancha oldin 1883-yilda fransuz tilshunosi M. Breal tomonidan fanga olib kirilgan. Demak, fanda "semasiologiya" terminidan oldin "sematika" termini qo'llangan. Leksik sematikaning asosiy katagoriyasi, markaziy tushunchasi- leksik ma'nodir. Har qanday leksik birlik ikki jihatning nom (shakl) va leksik ma'noning barqaror birikuvidan tashkil topadi. Semasologiya (yunoncha semasia — 'belgi, ma'no' va logos — 'ta'limot') so'z va til birliklarining ma'nosini, ma'no o'zgarishlari jarayonini, ma'no turlari va ularning rivojlanishini o'rganadi. U tilning leksik qatlamiga bevosita taalluqli bo'lib, so'z ma'nosining tarixiy va ichki rivojlanish jarayonini tahlil qiladi. Masalan, o'zbek tilida "oyoq" so'zi nafaqat inson a'zosi nomini, balki "stol oyoqlari", "ko'priklari" kabi ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Bu holat ma'no kengayishi va metaforik o'zgarish jarayonini ifodalaydi.

Semasologiya quyidagi masalalarni o'rganadi:

1. So'z ma'nosining tarkibi va tuzilishi;
2. Ma'no ko'chishi (metafora, metonimiya, sinekdoxa);
3. Polisemiyaning (ko'p ma'nolilik) shakllanishi;

Semantika (yunoncha semantikos — 'ifodalovchi, ma'noli') esa til birliklarining ma'no tizimini kengroq doirada o'rganadi. U nafaqat so'z ma'nosini, balki gap, matn va kontekst darajasidagi ma'noni ham tahlil qiladi. Masalan, "U kitob o'qidi" va "U kitobni o'qidi" gaplari shaklan yaqin bo'lsa-da, semantik jihatdan farqlanadi. Birinchisi umumiy jarayonni, ikkinchisi esa maqsadli harakatni bildiradi. Demak, semantika — bu til birliklarining ma'no munosabatlari tizimi, ya'ni har bir birlikning boshqa birliklar bilan qanday semantik bog'lanishda bo'lishini tahlil qiladi. Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning

konnotativ jihat tushunchasiga alohida e'tibor beriladi. V.N. Teliya ta'rificha, konnotatsiyabu til birliklari semantikasiga uzual va okkazonal ravishda kiradigan, nutq sebyektining borliqni jumlada ifodalashda uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy-baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyatdir. Til mohiyati, ichki qurilishi jihatdan denotativ (atash, nomlash, nominativ) va konnotativ (emotsional-ekspressiv) ma'no bildirib shu asosda informatsiya (aloqa) vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki dualizmi, bir tomondan, obyektiv borliqni aks ettirigan tafakkur shakli; ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatidan kelib chiqadigan mustaqil tizim ekanligi bilan chambarchas bog'liq. Agar tilning atash vazifasi uning tafakkur shakli, tushunchalarni qolipga soluvchi bir vosita ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, uning ekspressiv vazifasi tilning mustaqil sistema ekanligi, elementlarning mohiyati ularning ichki munosabatlari asosida ochilishi mumkinligi bilan bog'liq. So'z semantikasida denotativ ma'no bilan birga konnotativ ma'no ham mavjud. Semasologiya va semantika tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan bo'lib, ular til birliklarining ma'nosini chuqur tahlil qiladi. Semasologiya so'z ma'nosining tarixiy va ichki rivojini o'rgansa, semantika til tizimidagi umumiy ma'no munosabatlarini tahlil qiladi. Ushbu ikki yo'nalishning o'zaro uyg'unlashuvi tilning ma'no boyligini, uning madaniy va ijtimoiy mohiyatini to'la ochishga xizmat qiladi. So'zlar bir ma'noli hamda ko'p ma'nolik xususiyatiga ega. Fanda bir ma'nolik so'zlarni monosematik so'zlar deb hisoblansa, ko'p ma'nolik xususiyatiga ega so'zlar polisematik so'zlar deyiladi. Bir ma'nolik so'zlarga odam, chumchuq, ravish, tuya leksemalarini misol qilib olsak, ko'p ma'nolilarga quloq, bosh, og'iz so'zlarini misol qilib olishimiz mumkin. "Tuya" so'zi suvga chidamli, asosan, insonlar cho'llarga safarga chiqanda manzilga yetkazuvchi ulov sifatida foydalanadigan hayvon keladi. Bu so'z hayvon ma'nosidan boshqa narsani ifodalamaydi. Ko'p ma'nolilik hodisasida esa leksemalar o'z va ko'chma ma'nodan iborat bo'ladi. Misol uchun "bosh" so'zini odamning ta'na a'zosi ekanligi o'z ma'nosi bo'lsa, ko'chaning boshi, oila boshi uning ko'chma ma'nosidir.

Tilshunoslikda ma'no ko'chishning asosan to'rt turi mavjud.

1) Metafora bir predmetning nomini boshqa predmet nomiga ma'lum tashqi o'xshashlik asosida ko'chishi. Misol: odamning og'zi, shishaning og'zi.

2) Metonimiya narsa va hodisalarning o'zaro makon va zamondagi aloqadorligi asosida birinchisining nomi ikkinchisiga ko'chishi. Misol uchun: Bedilni o'qidik. Bunda Bedilni o'qib bo'lmaydi, chunki u shaxs. U yaratgan asarnigina o'qish mumkin.

3) Sinekdoxa bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalash. Misol uchun: bahor kelishi bilan, tuyoqlar soni ko'paydi. Bunda tuyoqlar so'zi orqali butun boshli podani tushunish mumkin.

4) Vazifadoshlik asosan, bitta vazifani bajarish uchun ishlatiladigan buyumlar yoki harakatlarni ifodalaydi. Misol uchun: qushning qanoti, samalyotning qanoti. Bunda ikkisi ham bitta-muvozanatni saqlash vazifasini bajaradi.

Demak bundan xulosa qilishimiz mumkinki, semantika va semasologiya fanlari tilshunoslikning eng faol rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Ularning o'zaro uyg'un holda o'rganilishi so'z boyligi, ma'no tizimi va nutq mazmunini chuqurroq anglashga, shuningdek, o'zbek tili semantik imkoniyatlarini yanada kengroq tahlil etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov, A. O'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent. 2019.
3. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan, 1995.

ISTE'MOL DOIRASIGA KO'RA O'ZBEK TILI LEKSIKASI**Abdusalomov Safar To'liqin og'li**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

abdisalomovsafar@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tili leksikasining iste'mol doirasiga ko'ra tasnifi, uning qatlamlari va funksional xususiyatlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Leksik birliklarning qo'llanish maydoni, uslubiy belgilari, so'zlarning faol va passiv qatlamlarga ajralishi, shuningdek, so'z boyligining ijtimoiy, tarixiy va hududiy omillar ta'sirida shakllanishi masalalari ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, umumxalq leksikasi, dialektal, ijtimoiy, kasbiy, terminologik va uslubiy leksika qatlamlari o'zaro taqqoslanadi hamda ularning kommunikativ ehtiyojini qondirishdagi roli aniqlanadi. Maqolada zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida leksik birliklarning faolligi, yangilanish dinamikasi va qo'llanish konteksti amaliy misollar bilan ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, leksika, istemol doirasi, faol va passiv qatlamlar, funksional uslub, terminologiya, dialekt, ijtimoiy leksika.

Annotation. This article provides a systematic analysis of the Uzbek language vocabulary based on the sphere of usage. It examines the classification of lexical units according to their functional application and stylistic features. Special attention is paid to the differentiation between active and passive vocabulary layers, as well as the influence of social, historical, and regional factors on the formation of the lexicon. The article explores the structure and role of general vocabulary, dialectal, social, professional, terminological, and stylistically marked lexical layers in meeting communicative needs. The study also highlights the dynamics of lexical renewal and the contexts of usage, supported by practical examples and modern linguistic research.

Keywords: Uzbek language, vocabulary, sphere of usage, active and passive vocabulary, functional style, terminology, dialect, social lexicon.

Аннотация. В данной статье системно анализируется лексика узбекского языка с точки зрения сферы её употребления. Рассматривается классификация лексических единиц по их функциональному применению и стилистическим особенностям. Особое внимание уделяется разграничению активного и пассивного словарного состава, а также влиянию социальных, исторических и

региональных факторов на формирование лексики. В статье исследуются структура и роль общеупотребительной, диалектной, социальной, профессиональной, терминологической и стилистически маркированной лексики в удовлетворении коммуникативных потребностей. Также освещаются процессы обновления словарного состава и контексты его употребления на основе практических примеров и современных лингвистических подходов.

Ключевые слова: узбекский язык, лексика, сфера употребления, активный и пассивный словарь, функциональный стиль, терминология, диалект, социальная лексика.

Ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida tilshunoslikning yangidan-yangi yo'nalishlari paydo bo'lmoqda. Psixolingvistika, neyrolingvistika, matematik lingvistika, sotsiolingvistika, areal lingvistika kabi yangi fan tarmoqlari paydo bo'ldi. Bular ichidan e'tiborimizni sotsiolingvistika fani o'ziga tortadi.

Odamlar hayotda ularning kasb-korlari, qiziqishlari, ma'lumotlari bilan alohida sinflarni, toifalarni tashkil qiladilar. Mazkur guruhlar ichida faqat ularning o'zigagina tegishli bo'lgan, tor doirada ishlatiluvchi so'zlar qatlami yuzaga kelgan. Shu bilan birgalikda barcha qatlamlarda birdek ishlatiladigan so'zlar ham tilimizda ko'plab uchraydi. Shular asosida o'zbek tilida ishlatiladigan so'zlarni iste'mol doirasiga ko'ra teng ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Iste'mol doirasi chegaralanga leksika.
2. Iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika.

Ma'nosi hammaga tushunarli bo'lgan, iste'molchilar, ya'ni til sohiblari tomonidan tez-tez qo'llanilib turuvchi so'zlarga umumxalq iste'molidagi so'zlar deyiladi. Ular neytral leksika deb ham yuritiladi. Umumxalq ishlatiladigan so'zlarda aniqlik va lo'ndalik, adabiy tilga xoslik, hududiy va sohalararo cheklanmaganlik kabi xususiyatlar bo'ladi. Masalan, daryo, suv, tog', quyosh, bosh, mard, saxiy, gulladi, kelmoq, uch, men, bor, hamma, u kabi so'zlarning ma'nosi hammaga tushunarli. Ularga har kuni duch kelamiz. Kundalik hayotimizda mazkur so'zlarni faol ishlatamiz. Chetlangan leksika neytral leksikaga qarama-qarshi qo'yiladi. Ularda hududiy cheklanganlik, semantik o'ziga xoslik, funksional jihatdan chetlanganlik singari xususiyatlar mavjud bo'ladi. Chetlangan leksikaga, navbatida, bir qancha turlarga ajralib ketadi:

1. Terminologik leksika: asab, raviy, tirraq tovush, sonet, to'qmoq (adabiyotshunoslikka oid atamalar). Har bir fan tarmog'ining o'z atamalari mavjud bo'ladi.

2. Professional leksika (kasb-hunarga oid soʻzlar): suv, zanjir, kizak, pilta, xizjak (dunyoqulchilik atamallari)

3. Dialektal leksika (shevaga xos soʻzlar): adabiy — orfografik shakli; tupik (Namangan), qalpoq (Samarqand-Buxoro), qallapush (Qashqadaryo), taka (Xorazm)

4. Argo va jargonlar: xit, ment, xitlamoq, loj, yakaj (uygʻurlar tilida)

Umuman olganda, soʻzlarni isteʼmol doirasiga koʻra ikkiga ajratish, yaʼni **neytral leksika** va **chegaralangan leksika** sifatida talqin etishning ilmiy amaliy asoslari mavjud. Maʼlum boʻlishicha, yer yuzida 500 ga yaqin fan tarmogʻi mavjud boʻlib, faqat shu sohalarigina ishlatiladigan maxsus soʻz va soʻz birikmalari mavjud boʻladi. Fanda ularni **atama** (termin) deb qaraladi. Ilm-fan, texnika, sanʼat sohasida ishlatiladigan bir maʼnoli soʻzlarga **termin (atama)** deyiladi. Atamalar bilan shugʻullanuvchi tilshunoslikning boʻlimiga **terminologiya** deyiladi. "Terminlar maxsus leksikaga kiradi",- degan qarashlar ham mavjud. Terminlarni isteʼmol doirasiga koʻra ikkita guruhga boʻlish mumkin:

1. Umumxalq ishlatiladigan atamalar.

2. Maʼlum bir fan sohasidagina tor doirada ishlatiladigan soʻzlar.

Masalan, tibbiyot atamallari ichida hammaga tushunarli boʻlgan vrach, jarroh, dori, bemor, ukol singari soʻzlar yuritgan holda, faqat vrachlarning nomini anglatuvchi **neyrolot, urolog, okulist, onkolog, travmatolog** kabi atamalar ham uchraydi. Shunday atamalar ham boʻladiki, ularni faqat shu soha vakillarigina tushunadilar. Ularni ishlatish, qoʻllash uchun maxsus fan tayyorgarligi talab etiladi. Misol uchun **fonema, grafika, grammatika, leksika** atamalarini har bir tilchi tushunarkan, qolda **zarfemizm, disfemizm, sintagma, referent, pragmatika, sintagmatika, paradigmatica** kabi lingvistik atamalar. Atamalar ikki xil yoʻl bilan yasaladi:

1. Ichki imkoniyatlar asosida: eidiyat, makon, zamon, sichqoncha, texnikus kabi. Ular ichida soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida hosil qilingan leksemalar ham uchraydi: gulxayrixohlar, ugituvchilar, ayriqʻullilar, kemasoz, kompyuteroʻrgatuvchi kabi.

2. Tashqi imkoniyat. Bu usul bilan atamalar yasalganida boshqa tillardan soʻz oʻzlashtiriladi: yadroviy, neytron, institut, kollej, bakalavr, magistr, mikroblar kabi. Ular ichida ultra, mikro, anti, avia bilan yasalgan atamalar uchraydi: Antibiotik, mikroriyem, ultrafiltr, antioksidlovchi singari.

Bugunga kelib atamashunoslik oʻzbek tilining eng dolzarb muammosiga aylangani, oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, tilimizning boshqa tillar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri kontaktga kirishishi tilimizga minglab yangi atamalarning kirib

kelishiga sabab bo'lmoqda. Masalan: monitoring, marketing, injiniring, menejer kabi. Bu atamalarning aksariyati iqtisodiyot sohasiga taalluqlidir. Termin (atama) da quyidagi xususiyatlar mavjud bo'lishi darkor:

1. Atama (termin) aniq, konkret tushunarli ifodalamoq kerak: uzun, ot, sifat, son, olmosh, fe'l kabi (tilshunoslik atamaları).
2. Atama (termin) lar emotsional – ekspressivlikdan, uslubiyl badiiylkdan xoli bo'lishlari lozim: kislorod, vodorod, azot, simob, ishqor, kukun kabi.
3. Termin nominativ (atash) vazifasini bajaradi: bosim, tezlik, birikma, aylana, qisqaranish, ko'paytirish singari.
4. Termin bir ma'noga ega bo'ladi: uglevodlar, sudraluvchilar, mikroorganizmlar, ultrabinafsha nurlar va hokazo.
5. Atamalar ma'lum bir soha vakillari tomonidan rasmiylashtirilgan va me'yoriy qoliplarga solingan bo'ladi. Misol uchun: richag, kvant, anod, optika, magnit maydoni kabi.

O'zbek tilining leksik qatlamida kasbiy so'zlar — professionalizmlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Ular tilning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy hayoti, xalq xo'jaligining rivoji bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi va amaliy nutqda muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Atamalar maxsus fan sohalariga oid bo'lib, aniq me'yorlashtirilgan, izchil tushunchalarni ifodalashga xizmat qilsa, professionalizmlar esa tabiiy ravishda, amaliyotga asoslangan holda vujudga keladi va ko'pincha muayyan kasb egalari doirasida ishlatiladi. Professional so'zlarning ma'lum darajada norasmiyligi va tor doiraligi ularning terminlardan farq qiluvchi asosiy belgisidir. Shu bilan birga, bu so'zlar ham tilning boyishida, leksik imkoniyatlarining kengayishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qatlamni o'rganish o'zbek tilining tasniflanmagan leksik zaxiralarini aniqlash, ularni ilmiy jihatdan izohlash va tilshunoslikka yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi. Shuningdek, bu turdagi birliklarni lingvistik tadqiqot doirasiga jalb etish orqali o'zbek leksikasining boyliklarini yanada chuqurroq o'rganish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. U. Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992. 151–186-betlar.
2. Sh. Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980. 124–127-betlar.

3. E. Begmatov. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: FAN, 1985. 126–130-betlar.
4. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: FAN, 1981. 142–158-betlar.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDAGI UNLI FONEMALAR TASNIFI**Abduvaliyeva Ruhshona Malik qizi**

O'zbek tili va adabiyoti, 3-kurs, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ruxshonaabduvaliyeva61@gmail.com

Annotatsiya.Maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unli fonemalar tizimi, ularning fonetik va fonologik xususiyatlari yoritilgan. Unlilar til va lab ishtirokiga hamda ochiqlik-yopiq belgisiga ko'ra tasniflangan. Shuningdek, unli fonemalarning so'z ma'nosini farqlash va morfologik shakl yasashdagi o'rni ko'rsatib berilgan. O'zbek tili unli fonemalar tizimining tarixiy ildizlari ham qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:unli fonema, fonetika, fonologiya, tasnif, o'zbek tili

Аннотация.В статье рассматривается система гласных фонем современного узбекского литературного языка. Анализируется их фонетическая и фонологическая природа, классификация по признакам участия языка и губ, степени открытости-закрытости. Особое внимание уделяется функциональной роли гласных в различении значений слов и словообразовании. Кратко освещается историческое развитие системы гласных узбекского языка.

Ключевые слова: гласная фонема, фонетика, фонология, классификация, узбекский язык

Annotation.The article examines the system of vowel phonemes in the modern Uzbek literary language. Their phonetic and phonological features are analyzed, with classification based on tongue and lip participation, as well as openness versus closeness. Special emphasis is given to the functional role of vowels in distinguishing meanings and forming morphological structures. The historical development of the vowel system is also briefly discussed.

Keywords: vowel phoneme, phonetics, phonology, classification, Uzbek language.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, boy fonetik tizimga ega. Nutq tovushlari orasida unlilar alohida o'rin tutadi, chunki ular so'zning musiqiy ohangini, talaffuzdagi aniqlikni va shakl barqarorligini ta'minlaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida unli fonemalarning soni, xususiyatlari va vazifalari masalasi fonetika fanining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada unli fonemalarning tizimi, tasnifi, vazifalari va tarixiy ildizlari tahlil qilinadi. Unlilar — talaffuz jarayonida havo oqimi og'iz bo'shlig'idan to'siqsiz chiqadigan, tembr va cho'ziqligi bilan farqlanuvchi nutq

tovushlaridir. Ular nutqda ohangdorlikni ta'minlaydi va urg'u hamda intonatsiya shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 6 ta unli fonema mavjud: a, o, e, i, u, o'.

a – til oldi, keng, lablanmagan

e – til oldi, yarim keng, lablanmagan

i – til oldi, tor, lablanmagan

o – til orqa, keng, lablangan

o' – til orqa, yarim keng, lablangan

u – til orqa, tor, lablangan

Unli fonemalar til ishtirokiga, lab ishtirokiga va ochiqlik-yopiq darajasiga ko'ra guruhlanadi:

1. Til ishtirokiga ko'ra:

Til oldi unlilari: a, e, i

Til orqa unlilari: o, o', u

2. Lab ishtirokiga ko'ra:

Lablangan unlilar: o, o', u

Lablanmagan unlilar: a, e, i

3. Ochiqlik-yopiq darajasiga ko'ra:

Keng unlilar: a, o

Yarim keng unlilar: e, o'

Tor unlilar: i, u

Unlilar so'z ma'nosini farqlashda asosiy rol o'ynaydi: bel – bil, tol – til, gul – g'ul. Shuningdek, morfologik shakl yasash jarayonida ham faol ishtirok etadi: bola – bolalar, kitob – kitoblar. Shevalarda esa unlilarning turli variantlari uchraydi. Masalan, qarluq lahjasida a/o, i/e almashinuvi kuzatiladi. Eski turkiy tilda 9 ta unli fonema mavjud bo'lgan. Fonetik jarayonlar — reduksiya, assimilyatsiya va tizimdagi qisqarishlar natijasida hozirgi o'zbek adabiy tilida 6 ta fonema saqlanib qolgan. Bu jarayonlar unli fonemalarning tarixiy taraqqiyotini ko'rsatadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 6 ta unli fonema mavjud bo'lib, ular fonetik tizimning markazini tashkil etadi. Unlilar fonetik jihatdan so'z talaffuzini belgilashda, fonologik jihatdan esa ma'no farqlash va morfologik shakl yasashda muhim vazifani bajaradi. Ularning tarixiy ildizlari eski turkiy davrga borib taqaladi. Shunday qilib, unlilar hozirgi o'zbek tilining milliy xususiyatini belgilovchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. Shu asosda aytish mumkinki, hozirgi o'zbek adabiy tilining unli fonemalar tizimi tildagi barqarorlik, muvozanat va ohangdorlikni ta'minlovchi markaziy qatlamdur. Ular nutqning

tabiiyligini, talaffuzning aniqligini va estetik ifodasini belgilaydi. Unli fonemalarni fonetik va fonologik jihatdan chuqur o'rganish o'zbek tili tovush tizimini yanada mukammal tahlil qilish, sheva va lahjalaridagi farqlarni aniqlash, talaffuz me'yorlarini takomillashtirish hamda o'zbek tili fonetikasining nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Demak, unli fonemalar nafaqat tilning fonetik tuzilishini belgilovchi birlik, balki o'zbek tilining milliylik va tarixiylik mohiyatini ifodalovchi asosiy omil sifatida baholanishi lozim. Ularning tizimli o'rganilishi o'zbek tili fanining rivojiga, turkiy tillar fonetikasi bilan qiyosiy tahlil olib borish imkoniyatlariga keng yo'l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1986.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent, 1992.
3. Yo'ldoshev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2009.
4. Mahmudov N., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.

SO'Z VA UNING MOHIYATI

Abduvaqqosova Ruxshona Bahromboy qizi

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi kechki 24/1-guruh talabasi

Ruxshonaabduvaqqosova829@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada so'zning mohiyati, uning jamiyat va inson hayotidagi o'rni, shuningdek, tafakkur, madaniyat va ma'naviyat bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. So'zning ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy davrda so'zning tutgan o'rni va globalizatsiya jarayonida milliy so'z boyligini asrab-avaylash zarurati haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: so'z, til, tafakkur, nutq, muloqot, madaniyat, ma'naviyat, mohiyat, qadriyat.

Annotation. This article examines the essence of the word, its role in human and social life, as well as its connection with thinking, culture, and spirituality. The social, philosophical, moral, and educational significance of the word is analyzed in detail. In addition, the importance of preserving the national vocabulary in the context of globalization is emphasized.

Key words: word, language, thinking, speech, communication, culture, spirituality, essence, values.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность слова, его роль в жизни человека и общества, а также его связь с мышлением, культурой и духовностью. Подробно анализируются социальное, философское, нравственное и воспитательное значение слова. Кроме того, подчёркивается необходимость сохранения национального словарного фонда в условиях глобализации.

Ключевые слова: слово, язык, мышление, речь, общение, культура, духовность, сущность, ценности.

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, so'z va tilning naqadar buyuk kuchga ega ekanligini ko'ramiz. So'z — oddiy tovushlar yig'indisi emas, balki inson tafakkurining, ma'naviy dunyosining ifodasi, jamiyatning rivojlanishida muhim vositadir. Qadimdan buyuk mutafakkirlar, faylasuflar va adiblar so'z qudrati haqida hikmatli fikrlar bildirganlar. Forobiy “so'z tafakkurning ko'zgusi” desa, Alisher

Navoiy soʻzning qudratini butun insoniyatga taʼsir oʻtkazuvchi kuch sifatida ulugʻlagan. Soʻz tufayli insoniyat oʻz tarixini yaratdi, tajribasini saqladi, bilimlarini keyingi avlodlarga yetkazdi. Soʻzning mohiyatini anglash bu — insoniyatning oʻzini anglash jarayonidir. Bugungi globallashuv davrida soʻzning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki bir tomondan, yangi soʻzlar, tushunchalar, terminlar hayotimizga kirib kelmoqda, ikkinchi tomondan esa milliy soʻz boyligini asrab-avaylash, uni rivojlantirish muammosi dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shunday ekan, soʻzning mohiyatini ijtimoiy, maʼnaviy va madaniy jihatdan chuqur oʻrganish nafaqat lingvistik zarurat, balki milliy qadriyatlarni asrab qolishning ham kafolatidir. Soʻz eng avvalo jamiyatda muloqotni taʼminlovchi vositadir. U odamlar orasidagi aloqa, hamkorlik va bir-birini tushunish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Insonlar oʻz fikrini, tuygʻularini, orzu-niyatlarini soʻz orqali ifoda etadi. Soʻzsiz jamiyat hayotini, taraqqiyotini va insoniy munosabatlarni tasavvur etib boʻlmaydi. Soʻz tafakkur bilan uzviy bogʻliq. Inson fikrlash jarayonida avvalo ongida maʼlum bir tasavvur hosil qiladi va uni soʻz vositasida ifodalaydi. Demak, tafakkur va soʻz bir-birisiz mavjud boʻlolmaydi. Tafakkursiz soʻz maʼnosiz, soʻzsiz tafakkur esa ifodasiz boʻladi. Shu bois olimlar “soʻz tafakkurning kaliti” deb bejiz taʼkidlamaydilar. Soʻz millatning tarixiy xotirasi, maʼnaviy boyligi va madaniyatining eng muhim koʻrinishlaridan biridir. Maqollar, matallar, rivoyatlar, dostonlar, xalq ogʻzaki ijodi namunalarining barchasi soʻz orqali bizgacha yetib kelgan. Soʻz millatning ruhiyatini, urf-odatini, dunyoqarashini ifodalaydi. Shu bois milliy oʻzlikni saqlashda, madaniy merosni asrashda soʻzning ahamiyati beqiyosdir. Soʻzning tarbiyaviy kuchi nihoyatda ulkan. Yaxshi soʻz inson qalbini koʻtaradi, unga umid va ishonch beradi. Yomon soʻz esa qalbni ranjitadi, ruhiyatni tushkunlikka olib keladi. Shu sababli ota-bobolarimiz “Yaxshi soʻz — jon ozigʻi, yomon soʻz — bosh qozigʻi” degan hikmatni aytganlar. Demak, soʻz nafaqat muloqot vositasi, balki insonni maʼnaviy va axloqiy tarbiyalashning ham asosiy qurolidir. Bugungi globallashuv sharoitida soʻzning ahamiyati yanada kengaydi.

Yangi axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli soʻzlarning tarqalish tezligi keskin oshdi. Shu bilan birga, chet tillardan kirib kelayotgan yangi soʻzlar milliy tilning lugʻaviy boyligiga taʼsir qilmoqda. Bu jarayonda ikki muhim vazifa turibdi: birinchidan, zamonaviy terminlarni milliy til meʼyorlariga moslashtirish, ikkinchidan, milliy soʻz boyligini asrab-avaylash va kelajak avlodga toʻlaqonli yetkazish. Soʻz — insoniyatning eng buyuk neʼmatlaridan biridir. U tafakkurning ifodasi, jamiyatning birlashuv vositasi, maʼnaviyat va madaniyatning

kalitidir. Soʻzsiz inson oʻz fikrini ifodalay olmaydi, jamiyat esa oʻz hayotini davom ettira olmaydi. Soʻz orqali xalq oʻz tarixini yaratadi, madaniyatini avlodidan avlodga oʻtkazadi. Birinchidan, soʻz — bu millat ruhiyatining ifodasi. Har bir millatning oʻziga xos lugʻaviy boyligi uning tarixiy taraqqiyoti, madaniy anʼanalari va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu maʼnoda soʻz nafaqat aloqa vositasi, balki milliy identitetning ramzidir. Ikkinchidan, soʻz — bu maʼnaviyat manbai. Insoniyat tarixida buyuk mutafakkirlar, adiblar, shoirlar soʻz orqali xalqning qalbiga yoʻl topganlar, ularni ilmga, ezgulikka va taraqqiyotga daʼvat qilganlar. Shu sababli soʻzni qadrlash, uni toʻgʻri ishlatish madaniy savodxonlikning muhim belgisi sanaladi. Uchinchidan, zamonaviy davrda soʻzning kuchi yanada oshmoqda. Ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali soʻz millionlab insonlarning ongiga taʼsir qilmoqda. Shu bois, soʻzning ijobiy yoki salbiy kuchi jamiyatda katta oʻrin tutadi. Demak, bugungi kunda soʻzdan oqilona foydalanish — axborot madaniyatining ajralmas qismidir.

Xulosa qilib aytganda, soʻzning mohiyati koʻp qirrali: u aloqa vositasi, tafakkur ifodasi, maʼnaviy tarbiya manbai va milliy oʻzlik timsolidir. Shuning uchun ham soʻzga masʼuliyat bilan munosabatda boʻlish, uni qadrlash va toʻgʻri ishlatish — har bir insonning maʼnaviy burchidir. Bugungi globallashuv davrida milliy soʻz boyligini asrab-avaylash, uni boyitish va kelajak avlodga yetkazish davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki soʻz — xalqning maʼnaviy yuzini, ruhiyatini, madaniyatini ifodalovchi beqiyos boylikdir. Soʻzning mohiyatini oʻrganish natijalaridan koʻrinadiki, u insoniyat taraqqiyoti va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida asosiy vosita sifatida namoyon boʻladi. Soʻz orqali inson oʻz fikrini bayon qiladi, his-tuygʻularini ifodalaydi, bilim va tajribalarini boshqalarga yetkazadi. Shunday ekan, soʻzning qadri beqiyosdir.

Shunday qilib, soʻz mohiyatini chuqur anglash va uni qadrlash — insoniylikning eng yuksak belgilaridan biridir. Soʻzning qudrati oldida moddiy boyliklar ham ojiz qoladi, chunki soʻz orqali qalblar yaraladi, jamiyatlar birlashadi, ilm-fan va madaniyat rivojlanadi. Kelajakda soʻzga munosabat yanada masʼuliyatli boʻlishi, uni toʻgʻri, goʻzal va mazmunli qoʻllash insoniyat taraqqiyotining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saʼdiyev M. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Gʻulomov A. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2016.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
5. Humboldt V. Ocherki po filosofii yazyka. – Moskva: Nauka, 1985.
6. Zvegintsev V.A. Yazyk i chelovek. – Moskva: Nauka, 1990.
7. Xudoyberdiyev A. Til va jamiyat. – Toshkent: Universitet, 2020.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA BO'G'IN TUZILISHI**Axmadova Sarvinoz Muzaffar qizi**

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti

O'TA 1 kurs 24/1 guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: Shaxnoza Muxtorova

Fan: Hozirgi o'zbek adabiy tili

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in tuzilishining nazariy va amaliy jihatlarini keng tahlil etiladi. Tilshunoslikda bo'g'in nutqning kichik, ammo ahamiyatli fonetik birligi sifatida talqin etilib, uning strukturaviy xususiyatlari va leksik birliklar hosil qilishdagi roli ochib beriladi. O'zbek tilida bo'g'in turlari, ularning shakllanish qonuniyatlari va talaffuzdagi fonetik me'yorlar atroflicha tahlil qilingan. Maqolada bo'g'in tuzilishining fonologik asoslari, so'zlarning segmentatsiyasi hamda bo'g'in chegaralarini aniqlash mezonlari muhokama qilinadi. Ushbu mavzu doirasida o'zbek tili o'quvchilarida talaffuz madaniyatini shakllantirish, orfoepik qoidalarga amal qilish va adabiy til normalarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Maqola ilmiy-nazariy muhokamalar bilan bir qatorda amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olib, o'zbek tilini o'rganish va rivojlantirish jarayoniga qimmatli hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Bo'g'in tuzilishi, hozirgi o'zbek adabiy tili, fonetik birliklar, bo'g'in turlari, talaffuz me'yorlari, orfoepik qoidalar, bo'g'in chegaralari, til strukturasi.

Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in tuzilishi haqida fikr yuritiladi. Bo'g'in nutq oqimining tovushdan katta, so'zdan kichik ba'zan bir so'zga teng segment birlik. Bo'g'in ko'chirish qoidalarini bolalarga yaxshilab o'rgatish imloviy xatoliklarning oldini olishda yordam beradi. Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetik tizimining asosiy unsurlaridan biri bo'g'in tuzilishidir. Bo'g'in — nutqning eng kichik fonetik birligi bo'lib, u so'zlarning talaffuzi, urg'u tizimi va orfoepik me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilida bo'g'inlar soni so'zdagi unli tovushlar soniga teng bo'lib, ular ochiq (unli bilan tugagan) va yopiq (undosh bilan tugagan) bo'lishi mumkin. Tilshunoslikda bo'g'in turlari va ularning tuzilishi fonetik birliklar sifatida o'rganiladi. Masalan, bir unli va bir undoshdan iborat bo'g'inlar (masalan, bo-la), yoki bir unli va ikki undoshdan iborat bo'g'inlar (masalan, mak-tab) mavjud. Bu bo'g'inlar so'z segmentatsiyasi va talaffuz me'yorlarini belgilashda

asosiy rol o'ynaydi. Orfoepik qoidalar esa adabiy tilning talaffuz me'yorlarini belgilaydi. Ular unli va undosh fonemalarning talaffuzi, morfologik birliklarning aytilishi va so'z birikmalarining talaffuz qilinishini o'z ichiga oladi. Bu me'yorlar til strukturasi va adabiy til normalarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bo'g'in tuzilishi fonologik asoslar va nutq birligi sifatida leksik birliklarning shakllanishi, talaffuz madaniyati va tilshunoslik tahlilida ham muhim o'rin tutadi. Bo'g'inlarning to'g'ri segmentatsiyasi va ularning chegaralarini aniqlash, so'zlarning to'g'ri talaffuzi va yozuvda to'g'ri ajratilishini ta'minlaydi.

Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in tuzilishining fonetik xususiyatlari, bo'g'in turlarining tasnifi, ularning til tizimidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, orfoepik qoidalar va talaffuz me'yorlari haqida batafsil tahlil qilinadi. Maqola tilshunoslik tahlili asosida bo'g'in tuzilishining o'zbek adabiy tilidagi o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

1. Bo'g'in tuzilishining nazariy asoslari

Bo'g'in tilshunoslikda so'z segmentatsiyasining eng kichik birligi sifatida qaraladi. O'zbek tilida har bir bo'g'inning shakllanishi unli tovushning ishtirokiga asoslanadi. Bo'g'inning ikki asosiy turi mavjud:

Ochiq bo'g'in – unli tovush bilan tugaydi (masalan, o-na, do-sto).

Yopiq bo'g'in – undosh tovush bilan tugaydi (masalan, kitob, do'st).

Bo'g'inning turlari va tuzilishi so'zning talaffuziga, ritmiga va urg'usiga bevosita ta'sir qiladi.

2. Bo'g'inning talaffuzdagi o'rni va fonologik vazifalari

Talaffuzda bo'g'inlarning ahamiyati juda katta. Ular so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Bo'g'in chegaralari va urg'ular fonologik tizimda semantik aniqlikni ta'minlaydi. Masalan, oson so'zidagi bo'g'inlar o'rnini noto'g'ri ajratish so'zning ma'nosini o'zgartirishi mumkin.

3. Adabiy tilning talaffuz me'yorlari va orfoepik qoidalar

O'zbek adabiy tilining barqarorligi talaffuz me'yorlariga amal qilish bilan bog'liq. Orfoepik qoidalar unli va undosh tovushlarning to'g'ri talaffuzini tartibga soladi. Masalan, do'stlar so'zi adabiy me'yorga ko'ra [dos-tlar] shaklida talaffuz qilinadi. Bu qoidalar talaffuz madaniyatini shakllantiradi va tilning to'g'ri o'zlashtirilishiga yordam beradi.

4. Bo'g'in tahlilining amaliy ahamiyati

Bo'g'inlarning tahlili o'quvchilar va talabalarni talaffuz qoidalariga o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda so'zlarni bo'g'inlarga ajratish, urg'ularni aniqlash va

ularni talaffuz qilish mashqlari qo'llaniladi. Masalan, maktablarimiz so'zi quyidagicha bo'g'inlarga ajratiladi: mak-tab-la-ri-miz.

5. Hozirgi o'zbek tilida bo'g'inlarning tarixiy rivojlanishi

O'zbek tili fonetik tizimining rivojlanishi davomida bo'g'in tuzilishida ba'zi o'zgarishlar yuz bergan. Qadimgi yozma manbalarda bo'g'inlarning tuzilishi zamonaviy tildagidan farq qiladi. Bu tarixiy jarayonlar tahlili tilning rivojlanish bosqichlarini tushunishga yordam beradi.

1. Ayub G'ulomov: Bo'g'in – nutqning nafas to'lqinidagi qismi

O'zbek tilshunosi Ayub G'ulomov bo'g'inni "nutqning bir nafas to'lqinidagi qismi" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, har bir bo'g'in artikulyatsiyada kuchlanish va bo'shashish orqali shakllanadi, bu esa bo'g'inlarni fonetik jihatdan ajratishga imkon beradi.

2. S. Otamirzayeva va M. Yusupova: Bo'g'in turlari va tuzilishi

Tilshunoslar S. Otamirzayeva va M. Yusupova o'zbek tilida bo'g'inlarning quyidagi turlarini ajratadilar:

Bir unli iborat bo'g'in: o-na, o-i-la

Bir unli va bir undoshdan iborat bo'g'in: bo-la, ish, ko'-cha

Bir unli va ikki undoshdan iborat bo'g'in: bur-gut, mak-tab, sta-kan

Bir unli va uch undoshdan iborat bo'g'in: mart, dard, to'rt, trak-tor

Bir unli va to'rt undoshdan iborat bo'g'in: trans-port, struk-tura

Ular, shuningdek, o'zbekcha so'zlarda bo'g'inning boshida undoshlar qator kelmasligini, chunki sof o'zbekcha so'zlarda bo'g'in (undosh+unli) s+v yoki (unli+undosh) v+c kabi qolip asosida tuzilishini ta'kidlaydilar.

3. Nosirjon Uluqov: Fonologik va fonetik bo'g'in nazariyalari

Tilshunos Nosirjon Uluqov bo'g'in ta'rifiga aloqador bir qancha nazariyalarni, xususan, fonologik bo'g'in nazariyasi va fonetik bo'g'in nazariyasini muhokama qiladi. Fonologik nazariyada bo'g'inlar fonemalarning kombinatsiyasi sifatida qaralsa, fonetik nazariyada ular artikulyatsion va akustik xususiyatlarga asoslanadi.

4. Olimlarning fikrlariga ko'ra, o'zbek tilida bo'g'in tuzilishi fonetik, fonologik va morfologik jihatdan murakkab tizimga ega. Bo'g'inlar so'zlarning talaffuzi, urg'u joylashuvi va yozuvda to'g'ri ajratilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar va tasniflar o'zbek tilining fonetik tizimini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xulosa. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'g'in tuzilishi tilning fonetik, morfologik va sintaktik jihatlarini chuqur anglashda asosiy omil hisoblanadi. Bo'g'inlar talaffuz,

urg'u va yozuv qoidalarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'zbek tilida bo'g'inning ochiq va yopiq turlari, unli va undosh tovushlarning joylashuvi asosida shakllanuvchi tuzilmalari aniq tasniflangan.

Adabiy tilda bo'g'inlarning o'ziga xos me'yorlari, talaffuz va yozuvdagi roli, tarixiy rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlari so'zning semantik mazmunini saqlash va tilning boyligini ko'rsatish imkonini beradi. Shu bilan birga, bo'g'inlarning tizimli tahlili talaffuz madaniyatini shakllantirish va o'quvchilarni aniq nutqqa o'rgatishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotlar o'zbek tilining fonetik tizimini yanada boyitishga, uning nazariy asoslarini rivojlantirishga va zamonaviy lingvistikada yangi tadqiqot yo'nalishlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, o'zbek tili bo'g'in tuzilishi bo'yicha izlanishlar kelgusida ham davom ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uluqov, N. (2016). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent: Barqamo'l Fayz
2. Jamolxonov, H. (n.d.). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Ziyo-uz.
3. Sobirov, A., & Nurmonov, A. (n.d.). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent:
4. Xolmanova, Z. (2007). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Ziyo-uz.
5. Begmatov, E., & Madvaliyev, A. (2012). O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent: Akademnashr.
6. Uluqov, N. (2006). Tilshunoslikka kirish (ma'ruzalar matni). Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
7. Jumayev, B. (2022). Frazemalarda polisemiya va monosemiya

QARINDOSHLIK VA YAQINLIKNI IFODALOVCHI BIRLIKLAR.

Akberdiyeva Almira Akmal qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

almiraakberdiyeva5@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada qarindoshlik atamalarining qiyosiy tahlili o'rganiladi. Qarindoshlik terminlari lingvistik, sotsiologik va antropologik nuqtai nazardan tahlil qilinib, ularning shakllanishi va rivojlanishi tadqiq etiladi. Maqolada qarindoshlik terminlarining tasniflanishi va ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, turkiy xalqlarning tarixiy taraqqiyoti davomida qarindoshlik tizimini o'zgarish jarayonlari yoritiladi. Ushbu maqola tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qarindoshlik aloqalari, kontekst, individualizim, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, lingvistik.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ терминов родства. Термины родства рассматриваются с лингвистической, социологической и антропологической точек зрения, анализируются их формирование и развитие. В статье обсуждается классификация терминов родства и их социально-культурное значение. Кроме того, освещаются процессы изменения системы родства в ходе исторического развития тюркских народов. Статья представляет собой актуальное исследование с точки зрения лингвистики и культурологии.

Ключевые слова: Родственные отношения, Контекст, Индивидуализм, Культурология, Социология, Лингвистика

Abstract: This article explores a comparative analysis of kinship terms. The terminology of kinship is examined from linguistic, sociological, and anthropological perspectives, focusing on their formation and development. The article discusses the classification of kinship terms and their socio-cultural significance. Additionally, it highlights the transformations in the kinship system throughout the historical development of Turkic peoples. This article holds particular relevance from the viewpoints of linguistics and cultural studies.

Keywords: Kindship relations, Context, Individualism, Cultural studies, Sociology, Linguistics

Bugungi kunda tilshunoslikda pragmatik va madaniy tadqiqotlar o'zaro uzviy bog'liq holda olib borilmoqda. Ayniqsa, nutq faoliyatining pragmatik yo'nalishini o'rganishda milliy madaniyat, urf-odatlar, diniy qadriyatlar va milliy tafakkur tarzining o'rni beqiyos. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida "qo'n-qarindoshlik" konseptini ifodalovchi birliklarning lingvopragmatik tahlili amalga oshiriladi. Maqsad – ikki xalq tilidagi qarindoshlik atamalarining nutqdagi ishlatilish uslubi va u orqali madaniy qadriyatlarning qanday aks etishini aniqlashdir. Oila tomonidan bog'langan [odamlar qarindoshlik](#) guruhidir. [Yaqinlik](#) (tomonidan nikoh), yoki birgalikda yashash/birgalikda iste'mol qilish (qarang [qarindoshlikni tarbiyalash](#)). Ko'pgina jamiyatlarda bu bolalarni ijtimoiylashtirish uchun asosiy institutdir. Bolalarni tarbiyalashning asosiy birligi sifatida antropologlar odatda oilaviy tashkilotni quyidagicha [tasniflashadi](#) matrifokal (ona va uning bolalari); konjugal (er, uning rafiqasi va bolalari; yadro oilasi deb ham ataladi); [avunkulyar](#) (aka, uning singlisi va uning bolalari); yoki ota-onalar bo'lgan katta [oila](#) va bolalar bir ota-ona oilasining boshqa a'zolari bilan birgalikda yashaydilar. Leksik jihatdan qarindoshlik birliklari, ya'ni kinship terms, oiladagi har bir shaxsning o'ziga xos ijtimoiy rolini va aloqasini belgilaydi. Masalan, ota, ona, aka, singil, jiyan kabi terminlar shaxslar o'rtasidagi biologik yaqinlikni aks ettiradi. Shuningdek, nikoh orqali paydo bo'lgan qarindoshlik (qaynona, qaynota, kuyov, kelin) atamaları ham ijtimoiy munosabatlarni aniqlaydi.

Qarindoshlik tizimi har bir jamiyatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar til, madaniyat va tarixiy jarayonlarga bog'liq holda shakllanadi. Masalan, turkiy xalqlarning qarindoshlik tizimida erkak va ayolning ijtimoiy roli, katta va kichik avlod o'rtasidagi munosabatlar alohida ta'kidlanadi. Bu esa tilning morfologik va leksik tarkibida o'z aksini topadi. Bundan tashqari, yaqinlikni ifodalovchi birliklar do'stlik, hamjihatlik va boshqa ijtimoiy aloqalarni ham qamrab oladi. Ushbu birliklar jamiyatda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yanada keng qamrovli bo'lishini ta'minlaydi. Ingliz jamiyatida esa individualizm ustuvor bo'lgani sababli, qarindoshlik nomlari ko'proq biologik yaqinlikni bildiradi. Natijada, bu tillarda qarindoshlik atamalarining nutqiy konnotatsiyasi ham turlicha bo'ladi. Pragmalingvistik jihatdan qarindoshlik atamaları faqatgina biologik yaqinlikni emas, balki ijtimoiy vazifalarni ham ifodalaydi. O'zbek tilida "jiyan" yoki "amakivachcha"

soʻzlari rasmiy, norasmiy, hatto kinoyaviy kontekstdagi funksional yuklamaga ega boʻlishi mumkin. Masalan, “jiyan, nima gaplar?” jumlasida bu soʻz tanish-bilishlik va samimiylik belgisi sifatida ishlatilgan boʻlishi mumkin.

Ingliz tilida esa “nephew” yoki “niece” kabi soʻzlar koʻproq aniq semantik chegaralarga ega boʻlib, ularning stilistik imkoniyatlari chegaralangan. Shuningdek, biz fikrimizcha, ingliz tilidagi qarindoshlik atamalari rasmiy nutqda koʻp hollarda huquqiy, hujjatli maʼlumotlarda qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida esa bu atamalar ogʻzaki nutqda, oila ichidagi muloqotda, va hatto badiiy adabiyotda ham hissiy-emotsional maʼno qatlamlari bilan boyitilgan. Nutqiy kontekstga qarab qarindoshlik birliklari oʻz funksiyasini oʻzgartiradi. Jumladan, oʻzbek tilida “opa” soʻzi doʻstona murojaat sifatida ishlatilishi mumkin, hatto biologik aloqa boʻlmasa ham. Ingliz tilida esa “sister” bu kabi keng konnotatsiyaga ega emas. Bu holat oʻzbek tilidagi nutqiy birliklarning kommunikativ strategiyalar doirasidagi moslashuvchanligini koʻrsatadi. Oʻzbek tilida “oyim”, “dadam”, “amaki”, “buvi” kabi atamalar salomlashuv, xitob, minnatdorchilik, tanbeh, aralashuv kabi nutqiy aktlarda ishtirok etib, oʻziga xos pragmatic funktsiyani bajaradi. Bu xususiyatlar tilning faqat nominativ emas, balki interaktiv xususiyatga ega ekanligini koʻrsatadi. Yuqoridagi tahlillardan koʻrinib turibdiki, ingliz va oʻzbek tillaridagi qoʻn-qarindoshlik atamalari nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixolingvistika va pragmalolingvistika doirasida ham turli yoʻnalishlarda izohlanadi. Bizningcha, bunday terminlar orqali har bir xalqning jamiyatdagi oʻzaro munosabatlar modeli, ijtimoiy rol va qadriyatlar oʻz ifodasini topadi. Shuningdek, qarindoshlik terminlarining lingvopragmatik tahlili til vositalarining madaniy kontekstga qanday moslashishini ham koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, qarindoshlik terminlarini oʻrganish tilshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va antropologiya kabi fanlar chorrahasida joylashgan murakkab, ammo muhim sohalardan biridir. Ushbu terminlar orqali har bir xalqning oʻziga xos jamiyat modeli, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimi namoyon boʻladi. Qarindoshlik birliklarini chuqur tahlil qilish esa bizga til vositasida milliy tafakkurni va madaniyatni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Баранов А.Н. Прагматика и прагмалингвистика: проблемы и подходы. — М.: Наука, 2001.—176с.
2. Саидов А. Қариндошлик атамалари ва уларнинг лексик-семантик

- хусусиятлари. –Тошкент:Фан, 2009. – 120 б.
3. Бойков В.Ф. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2017. – 256 с.
4. Tannen, D. (2005). *Conversational Style: Analyzing Talk among Friends*. Oxford University Press.

O'ZBEK TILIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING IFODALANISHI**Alijonova Toshtilla Akmal qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi2-bosqich talabasi

toshtillaalijonova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilida kasb-hunar leksikasining shakllanishi, qo'llanish sohasi va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Kasb-hunarga oid termin va atamalarning zamonaviy o'zgarishlari, sohalar bo'yicha ajralishi hamda ijtimoiy hayotdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi va zamonaviy adabiyotda ushbu leksikaning ifodalanishiga ham e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: professionalizmlar, leksika, sheva va lahjalar, tomografiya, IT sohasidagi dasturchi, algoritm, stetoskop, kompyuter, printer, metal.

Аннотация: В данной статье анализируются формирование, сфера употребления и лингвистические особенности профессионально-ремесленной лексики в узбекском языке. Освещаются современные изменения терминов, связанных с профессиями и ремёслами, их распределение по отраслям и роль в общественной жизни. Также рассматривается отражение данной лексики в устном народном творчестве и современной литературе.

Ключевые слова: профессионализмы, лексика, диалекты и говоры, томография, программист в сфере ИТ, алгоритм, стетоскоп, компьютер, принтер, металл.

Annotation: This article analyzes the formation, usage, and linguistic features of professional and vocational vocabulary in the Uzbek language. It highlights the modern evolution of terms related to various professions, their classification by fields, and their role in social life. The article also examines how this vocabulary is reflected in folk oral traditions and contemporary literature.

Keywords: professionalisms, vocabulary, dialects and vernaculars, tomography, IT programmer, algorithm, stethoscope, computer, printer, metal.

Kasb-hunar leksikasi – (professionalizmlar) muayyan kasb yoki hunar egalari nutqiga xos so'z va tushunchalar majmui. Boshqa tildan so'z olish, shevaga xos so'zlar, umumxalq tiliga xos ma'nosi o'zgartirilgan so'zlar Kasb-hunar leksikasining shakllanishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Bir buyum, narsani turli kasb kishilari tomonidan xilma-xil (masalan, „qozon“ – qandolatchilarda „potila“ va boshqalar.)

nomlanishi ham kasb-husarlarni yuzaga keltirishi mumkin. Kasb-hunarning rivojlangan tarmog'i (mas, paxtachilik, tibbiyot, texnika va boshqalar) leksikasi boy bo'lib, shu sohalarga oid alohida adabiyotlar ham nashr etilgan. Fan-texnikaga oid terminlarning, umuman, til lug'at tarkibining boyishida va xalqning moddiy madaniyat tarixini o'rganishda ular muhim manba hisoblanadi. Kasb-hunar leksikasi badiiy adabiyotda muayyan personaj xususiyati, tabiatini chuqurroq yoritishda badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Avvalgi asrlardan boshlab hujjatlarda qayd etilgan kasblar ko'pincha bugungi kasblarga nisbatan odatiy yoki xorijiy ko'rinish kasb etadi. "A" harfi bilan boshlanadigan quyidagi kasblar odatda eski yoki eskirgan hisoblanadi, ammo bugungi kunda ushbu kasb-hunar qoidalarining ba'zilari hali ham qo'llanilmoqda.

Ambler - otda otish uchun barqaror ishlagan

Anchor smith - langarni yaratgan kishi

Annatto ishlab chiqaruvchisi - bo'yoq va matbaa savdolari uchun bo'yoqlarni tayyorlagan, achiot daraxtining urug'idan olingan

Annealer - metall yoki shisha ishlab chiqaruvchi, uni o'choqda isitish va keyin uni kimyoviy vositalar yoki boshqa vositalar orqali sekin sovitish

Antigropelos ishlab chiqaruvchisi - suvga chidamli oyoq qoplamalarini yaratgan kishi, shimmeringni spitsiyadan va kirdan himoya qilishni nazarda tutadi

Apiarian - asalarichi

Kovboy - suvor

Arbitr - nizolarni ko'rib chiqadigan shaxs

Arxivator - shifokor, shifokor

Arkxright - yog'och ko'krak qafas yoki kofe ishlab chiqaruvchi malakali usta.

Armourer - qurol-yarog'lar yoki kemalar uchun zirh plitalari yaratgan kishi

Ashman - kola va axlatni to'playdigan kishi

Augermaker - yog'ochli teshiklarni qoziqqa aylantirgan kishi

Aurifaber - zargar yoki oltin bilan ishlaydigan kishi

Avenator - somon va em-xashak savdogari kabi. Bu lug'atlarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Kasb-hunar leksikasi bir necha asosiy manbalar hisobiga boyib borgan:

1. Xalq og'zaki ijodi va qadimiy hunarlar. Dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, temirchilik, zargarlik kabi an'anaviy kasblarga oid so'zlar tilning eng qadimgi qatlamiga mansub. Masalan, "loysoz", "pichoqchi", "qo'ng'iroqchi" kabi atamalar qadimdan ma'lum.

2. Sheva va lahjalar. Mahalliy dialektlarda qo'llanadigan ko'plab kasb-hunar so'zlari adabiy tilga ham kirib borgan. Masalan, Farg'ona vodiysidagi kulollar ishlatadigan "qumg'on" (sopol idishning bir turi) yoki Buxoro zargarligida uchraydigan "tillaqosh" kabi nomlar.

3. Tashqi o'zlashmalar. Yangi texnika, fan, tibbiyot, muhandislik, axborot texnologiyalari kabi zamonaviy sohalar rivoji natijasida rus, ingliz, arab va fors tillaridan ko'plab atamalar kirib kelgan: "kompyuter", "printer", "metal" (metall) va hokazo.

Kasb-hunar leksikasi faoliyat turiga ko'ra bir necha guruhlariga bo'linadi:

Hunarmandchilik leksikasi: kulolchilik (xumdon, angishvona, shabadagich), zargarlik (qimmatbaho tosh nomlari, qadoqlash usullari), duradgorlik (tesha, arava, randalash) kabi sohalarga xos so'zlar. Qishloq xo'jaligi leksikasi: paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilikka oid "chigit", "g'o'za", "sug'orma" kabi terminlar.

Zamonaviy texnika va fan terminologiyasi: tibbiyotdagi "stetoskop", "tomografiya", IT sohasidagi "dasturchi", "algoritm kabi yangi atamalar. Lingvistik xususiyatlari Kasb-hunar leksikasi umumxalq tilidagi oddiy so'zlardan bir necha belgisi bilan farq qiladi:

Mahalliylik: ko'plab kasb so'zlari ma'lum hududga xos bo'lib, boshqa joylarda tushunilmasligi mumkin. O'zlashmalar ko'pligi: texnika va ilm-fan rivoji bilan bog'liq sohalarda rus, inglizcha atamalar keng tarqalgan. So'z yasash: mavjud so'zlardan qo'shimchalar yordamida yangi kasb nomlari hosil qilinadi (temir+chi, kulol+lik).

Semantik torayish: umumiy ma'nodagi so'z kasb doirasida aniqroq ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy ahamiyati: Kasb-hunar leksikasi xalqning moddiy madaniyatini, tarixiy merosini va turmush tarzini aks ettiradi. U tilning leksik boyligini kengaytiradi, yangi kasblar va yangi tushunchalar paydo bo'lishi bilan doimiy ravishda yangilanadi. Badiiy adabiyotda kasb-hunar so'zlaridan foydalanish obrazlarni jonlantiradi, voqea-hodisalarni yanada real ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunar leksikasini o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki milliy madaniyatni, hunarmandchilik tarixini, zamonaviy kasblarning rivojini anglash uchun ham muhimdir. Bu leksik qatlamni ilmiy jihatdan tadqiq etish, lug'atlar tuzish va ta'lim jarayonida o'rgatish tilimizning boyligi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zMe Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 2.Wikipedia.org
- 3.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, "Kasb-hunar leksikasi" maqolasi.

TIBBIYOT LEKSIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Alimova Durdona Musurmon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

alimovadurdona000@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot leksikasining shakllanishi, rivojlanishi va lingvistik xususiyatlari keng yoritiladi. Tibbiy terminlarning tarixiy ildizlari, ularning arab, fors, rus va ingliz tillaridan kirib kelishi, xalqaro terminlarning o'zbek tilidagi moslashuvi hamda stilistik qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, pandemiya davridagi yangi atamalar, tibbiy leksikaning jamiyatdagi o'rni va zamonaviy tendensiyalar ham misollar bilan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tibbiyot leksikasi, terminologiya, tarixiy ildizlar, xalqaro terminlar, pandemiya, lingvistik xususiyatlar, stilistik qo'llanish.

Abstract This article explores the formation, development, and linguistic features of medical vocabulary. It analyzes the historical roots of medical terms, their adoption from Arabic, Persian, Russian, and English, as well as the adaptation of international terminology in Uzbek and its stylistic usage. In addition, new terms that emerged during the pandemic, the role of medical vocabulary in society, and modern tendencies are discussed with illustrative examples.

Keywords: medical vocabulary, terminology, historical roots, international terms, pandemic, linguistic features, stylistic usage.

Аннотация В данной статье подробно рассматриваются формирование, развитие и лингвистические особенности медицинской лексики. Анализируются исторические корни медицинских терминов, их заимствование из арабского, персидского, русского и английского языков, а также адаптация международной терминологии в узбекском языке и её стилистическое употребление. Кроме того, обсуждаются новые термины, появившиеся в период пандемии, роль медицинской лексики в обществе и современные тенденции с конкретными примерами.

Ключевые слова: медицинская лексика, терминология, исторические корни

Tibbiyot leksikasi tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. Chunki u nafaqat ilmiy doiralarda, balki kundalik hayotda ham keng qo'llaniladi. Tibbiyotga oid so'zlar inson salomatligi, kasallik turlari, davolash usullari, anatomiya va farmatsevtika bilan bog'liq terminlarni o'z ichiga oladi. Tarixiy manbalarda o'zbek tilidagi tibbiy atamalar qadimdan shakllanganligi qayd etiladi. Abu Ali ibn Sino (980–1037)ning “Al-Qonun fit-tibb” (“Tib qonunlari”) asari Sharq va G'arb tibbiyotida muhim manba hisoblanib, undagi ko'plab terminlar bugungi kunda ham qo'llanilmoqda. Masalan, “dem”, “balg'am”, “safro”, “mijoz” kabi tushunchalar qadimiy o'zbek tibbiy leksikasidan joy olgan. XX asrda rus tili orqali ko'plab xalqaro tibbiyot atamalari kirib keldi. Masalan, “diagnostika”, “terapiya”, “onkologiya”, “farmakologiya”, “virus” kabi so'zlar xalqaro termin sifatida bugungi o'zbek tibbiy leksikada mustahkam o'rin egalladi. Zamonaviy tibbiy leksika ko'p qirrali bo'lib, unda quyidagi manbalardan kelib chiqqan so'zlar uchraydi:

- 1 Mahalliy atamalar – “ko'z yoshi”, “yurak urishi”, “og'riq”, “nafas olish”.
2. Arabcha so'zlar – “dem”, “mijoz”, “safro”, “asab”.
3. Forscha so'zlar – “darmon”, “davolash”, “bemor”.
4. Ruscha va xalqaro terminlar – “antibiotik”, “vaktsina”, “rentgen”, “gigiyena”.

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili orqali kirib kelayotgan yangi tibbiyot terminlari ham tezda o'zlashmoqda. Masalan: “COVID-19”, “scanner”, “genom”, “biotexnologiya”, “mutatsiya”. Shunday qilib, tibbiyot leksikasi doimo yangilanib borayotgan, xalqaro hamkorlik va fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan soha hisoblanadi. Har bir millatning til boyligi uning madaniy taraqqiyotini ifodalaydi. Tilning muhim qatlamlaridan biri maxsus leksika bo'lib, u fan va texnika sohalaridagi terminlarni qamrab oladi. Shu jumladan, tibbiyot sohasi ham o'ziga xos boy lug'at boyligiga ega. Tibbiyot leksikasi qadimdan shakllanib, bugungi kunda ilmiy va amaliy faoliyatda keng qo'llanilmoqda. Bu qatlam inson salomatligi, kasalliklarni aniqlash va davolash, anatomiya, farmatsevtika va sanitariya bilan bog'liq terminlarni o'z ichiga oladi. Tibbiy terminlarning to'g'ri ishlatilishi nafaqat shifokorlar uchun, balki oddiy odamlar uchun ham muhimdir. Chunki noto'g'ri tushunilgan so'z inson hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirishi mumkin. Yevropa tibbiyot maktablarida yunon va lotin tillariga asoslangan terminlar keng tarqaldi. Bugungi kunda ham “anatomia”, “therapia”, “diagnosis”, “virus”, “bakteriya” kabi ko'plab terminlar lotin va yunon ildizlariga borib taqaladi. Bu holat tibbiy terminologiyani xalqaro miqyosda yagona tushuncha sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tilida ham tibbiyot leksikasini milliy talablarga moslashtirish, xalq uchun tushunarli qilish

jarayoni olib borilmoqda. Masalan, “pnevmoniya” termini ko‘pincha xalq tilida “o‘pka yallig‘lanishi”, “gipertoniya” esa “qon bosimi oshishi” tarzida ishlatiladi. Bu oddiy aholiga murakkab ilmiy atamalarni osonroq anglash imkonini beradi. Chunki har bir aniq so‘z kasallikni to‘g‘ri tashxislash, davolash rejasini belgilash va shifokor hamda bemor o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tibbiyot leksikasining asosiy xususiyatlari: Aniqlik – Tibbiy terminlar noaniqlikka yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, “anemiya” yoki “pnevmoniya” so‘zlari faqat bitta kasallikni anglatadi va boshqa ma’noda ishlatilmaydi. Bu xususiyat tibbiy muloqotda chalkashliklarning oldini oladi. Xalqaro qo‘llanish – Tibbiy atamalar ko‘p hollarda lotin va yunon ildizlariga borib taqaladi. Shuning uchun ham dunyoning turli mamlakatlarida shifokorlar bir xil terminlardan foydalanadilar. Masalan, “arteriya”, “diabet”, “onkologiya” kabi atamalar tilidan qat’i nazar bir xil shaklda qabul qilinadi. Qatlamdorlik – O‘zbek tilidagi tibbiyot leksikasida qadimiy manbalardan kelgan so‘zlar ham, zamonaviy texnologiyalar orqali kirib kelgan yangi terminlar ham mavjud. Masalan, arabchadan kirgan “asab” va “qalb” so‘zlari bugungi kunda ham qo‘llanadi, ingliz tilidan esa “rentgen”, “tomografiya” kabi tushunchalar kirib kelgan. Soha bo‘yicha tizimlilik – Har bir tibbiyot sohasi o‘z terminlariga ega.

Anatomiya: “skelet”, “muskul”, “vena”.

Farmasevtika: “tabletka”, “in’ektsiya”, “maz”.

Epidemiologiya: “immunitet”, “infeksiya”, “pandemiya”.

Terapiya va jarrohlik: “operatsiya”, “fizioterapiya”, “rehabilitatsiya”.

Bu jihatlar tibbiyot leksikasini boshqa sohalardagi lug‘at qatlamlaridan farqlab turadi va uni ilmiy hamda amaliy faoliyatda muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Tibbiyot leksikasi tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, u nafaqat ilmiy-texnikaviy atamalar tizimini, balki jamiyatning sog‘liqni saqlash sohasidagi taraqqiyoti va ehtiyojlarini ham ifodalaydi. Bu qatlamning shakllanishi qadimiy arabcha, forsha, lotincha va yunoncha manbalar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lsa-da, bugungi kunda inglizcha va ruscha terminlarning ham ta’siri kuchli sezilmoqda. Tibbiyot leksikasining asosiy xususiyatlari — aniqlik, xalqaro qo‘llanish, tarixiy qatlamdorlik va tizimlilik — uning ilmiy hamda amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Har bir tibbiy termin kasalliklarni aniqlash, davolash, diagnostika va profilaktika jarayonida aniqlikni ta’minlaydi. Shu bois tibbiyot tilining mukammal o‘rganilishi va izchil qo‘llanilishi jamiyat salomatligi uchun bevosita ahamiyatlidir. Bugungi kunda yangi texnologiyalar, zamonaviy diagnostika usullari va xalqaro ilmiy hamkorlik tufayli tibbiy terminologiya yanada boyib bormoqda. Shu

jarayonda o'zbek tilida tibbiy atamalarni milliy talablarga moslashtirish, oddiy xalq uchun tushunarli shaklda berish masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. Demak, tibbiyot leksikasini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish va uni amaliyotda to'g'ri qo'llash — tilshunoslik, tibbiyot va jamiyat rivoji uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ibn Sino. Al-Qonun fi't-tibb. – Toshkent: Fan, 1980.
2. Ro'zimatov H. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
3. Jo'rayev M., Usmonov A. O'zbek terminologiyasi asoslari. – Toshkent: Universitet, 2010.
4. Karimov A. Tibbiy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi // Filologiya masalalari. – Toshkent: 2015. – №3. – B. 45–52.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA ZID MA'NOLAR ORQALI MUHABBAT TASVIRI

Anvarjonov Adaxamjon Akmaljon o'g'li
Toshket iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tillar va maktabgacha ta'lim fakulteti
O'zbek tili va adabiyot ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talabasi
anvarjonovadaxamjon@gmail.com

Annotatsiya. She'riyatda antonimlar (zid ma'noli so'zlar)dan foydalanish hodisasi ko'p uchraydi, biroq Muhammad Yusuf she'riyatida ushbu badiiy vosita nafaqat obrazli ifoda uchun, balki inson qalbidagi ichki ruhiy kechinmalar va muhabbat tuyg'usining murakkab tabiatini yoritish maqsadida qo'llanadi. Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'rlarida antonimlarning badiiy-funksional imkoniyatlari, ular orqali muhabbat va ruhiy holatning badiiy tasviri tahlil qilinadi. Shoirning poetik tafakkuri, xalqona obrazlar va ruhiy holatlarni ifodalash mahorati doirasida antonimlarning stilistik va semantik yuklamasi ochib beriladi.

Annotation. The use of antonyms (words with opposite meanings) is a common phenomenon in poetry, but in Muhammad Yusuf's poetry, this artistic device is employed not only for figurative expression but also to illuminate the complex nature of inner emotional experiences and the feeling of love. This article analyzes the artistic and functional potential of antonyms in Muhammad Yusuf's poems and examines the poetic depiction of love and psychological states through them. Within the framework of the poet's poetic thinking, his skill in expressing folk imagery and emotional conditions, the stylistic and semantic load of antonyms is revealed.

Аннотация. В поэзии часто встречается явление использования антонимов (слов с противоположным значением), однако в поэзии Мухаммада Юсуфа это художественное средство используется не только для образного выражения, но и с целью освещения сложной природы внутренних душевных переживаний и чувства любви. В данной статье анализируются художественно-функциональные возможности антонимов в стихах Мухаммада Юсуфа, а также художественное изображение любви и душевного состояния с их помощью. В рамках поэтического мышления поэта, его мастерства в передаче народных

образов и душевных состояний раскрывается стилистическая и семантическая нагрузка антонимов.

Kalit so'zlar. Muhabbat, she'riyat, antonim, Muhammad Yusuf, leksema, obraz, kontekst, leksik antonim,

Keywords. Love, poetry, antonym, Muhammad Yusuf, lexeme, image, context, lexical antonym

Ключевые слова. Любовь, поэзия, антоним, Мухаммад Юсуф, лексема, образ, контекст, лексический антоним

Kirish. Adabiyot insoniyat ruhiyatining teran qatlamlarini o'rganish, ifodalash va tushuntirishda eng qudratli vositalardan biri sanaladi. She'riyat esa bu borada o'zining hissiy quvvati, obrazlilik darajasi va badiiy ifoda vositalari bilan ajralib turadi. She'riyatning poetik konstruksiyasida antonimlar – zid ma'noli so'zlar – muhim stilistik birlik sifatida faol ishlatiladi. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar antonim so'zlar deyiladi. Ular zid ma'noli so'zlar deb ham yuritiladi.¹⁴ Antonimlar orqali shoirlar muvozanat, qarama-qarshilik, ichki ziddiyat, murakkab holat va ruhiy o'zgarishlarni kuchli ta'sir bilan yetkazadi.

Muhammad Yusuf ham milliy ruh va muhabbat tuyg'ularni teran badiiylik bilan ifodalagan shoir. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafuddinovning shoir haqida quyidagi fikrlarini keltirib o'tamiz: "Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi."¹⁵ Shuningdek shoir o'z ijodida antonimik vositalardan keng va maqsadli foydalangan ijodkorlardandir. Uning she'rlarida zid ma'noli so'zlar orqali inson **ruhiyati, muhabbatning go'zalligi va iztirobi, vatanga mehr va sog'inch, ayriliq va umid** singari kechinmalar obrazli va ta'sirchan shaklda namoyon bo'ladi. Bugungi yosh avlod qalbida o'zlikni anglash, milliylik va samimiylikni qadrlash, badiiy tafakkur doirasini kengaytirish uchun Muhammad Yusuf kabi shoirlarning poetik uslubini tahlil qilish juda muhim.

Adabiyotlar tahlili.

Aynan "Mehr qolur" she'rida ham shoir zid ma'noli so'zlardan unumli foydalangan va shu orqali she'ring ifodaliligi va ta'sirchanligining oshishiga erishgan.

¹⁴ N. MAHMUDOV, A. SOBIROV, SH. SATTOROV, SH. TOSHMIRZAYEVA, D. MANNOPOVA. ONA TILI. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING 5-SINFI UCHUN DARSLIK. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. TOSHKENT –2020.117-bet.

¹⁵ МУХАММАД ЮСУФ. САЙЛАНМА. «ШАРҚ» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ — 2007. 3-бет.

O'tar qancha yillar to'zoni,
 Yulduzlar — ko'zyoshi samoni.
 O'tar inson **yaxshi-yomoni**,
 Mehr qolur, muhabbat qolur.¹⁶

Ushbu parchada “yaxshi-yomon” soʻzlari **antonimik juftlik** sifatida qoʻllanib, hayotning ijobiy va salbiy jihatlarini, insoniy qiyofalarning qarama-qarshi koʻrinishlari umumlashtirilib tasvirlangan. Zid maʼnoli birliklar orqali vaqt oʻtishi, **mehr va muhabbatning abadiyligi** badiiy kuch bilan taʼkidlangan.

“SHIRIN AZOBIM — SEVGI” nomli sheʼriga nazar soladigan boʻlsak:

Ketding xayol singari,
 Qadamingdan chaqnab choʻgʻ.
Baxtli ayol singari
Bebaxt bilan ishing yoʻq.¹⁷

Sheʼrning diqqatga sazovor antonim juftligi - “**Baxtli**” va “**Bebaxt**” soʻzlaridir. Bu soʻzlar **toʻgʻridan-toʻgʻri leksik antonimlar** boʻlib, ular orasidagi **semantik qarama-qarshilik** ochiq va aniq ifodalangan. “**Baxtli**” (**Hayotidan oʻta mamnun, bearmon va shod-u xurram yashaydigan**), “**Bebaxt**” (**Hayotidan oʻta norozi va qaygʻu-xasrat bilan yashaydigan**)¹⁸ soʻzlaridir. Bu holatda antonimlar oddiy til birliklari emas, balki shoir ruhiyatidagi ziddiyatlarni badiiy vosita sifatida ifodalovchi kuchli poetik elementdir.

Muhammad Yusuf sheʼriyatida antonimik juftliklar orqali inson qalbining ziddiyatli kechinmalari tasvirlanadi. Jumladan, shoirning:

Muhabbat **mehrim**san.
 Muhabbat **qahrim**,
 Shoʻxligim, shodligim, koʻz yoshlarim ham.¹⁹

misrasida shoir muhabbatni murakkab hissiyotlar yigʻindisi sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, “**mehr**” va “**qahr**” soʻz juftligi orqali u sevgining ikki qirrali — ijobiy va salbiy jihatlarini badiiy obrazga aylantiradi. “**Mehr**” (forscha. Sevgi, muhabbat; moyillik; insonning oʻz tuygʻulariga, yaqin kishilariga va umuman, odamga, narsaga

¹⁶ МУҲАММАД ЮСУФ. «Биз бахтли бўламиз». “Nihol” nashriyoti. Toshkent – 2017. 126-бет.

¹⁷ МУҲАММАД ЮСУФ. Сайланма. «SHARQ» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ — 2019. 266-бет.

¹⁸ Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. *Oʻzbek tili antonimlarining izohli lugʻati*. – T.: “Oʻqituvchi”, 1980. 41-bet

¹⁹ https://t.me/MUHAMMAD_YUSUF_IJODI

bo'lgan samimiy muhabbati; yaxshi ko'rish tuyg'usi)²⁰, **“Qahr”**(arabcha. **bo'ysundirish, majburlash, zo'rlash; xafalik, alam, qayg'u; qattiq achchiqlanish, jahl tuyg'usi; g'azab**)²¹. Xalq orasida keng ishlatiladigan **“Qahri qattiq”** iborasi esa, ko'pincha **“mehr-shafqati yo'q odam”** degan ma'noda tushuniladi. Bu ham **“mehr”** va **“qahr”** so'zlari orasidagi **mazmuniy qarama-qarshilikning ommaviy ongda ildiz otganligini** ko'rsatadi.

Davomidagi:

Gohi **otash** bag'rim,

Gohi **muz** bag'rim,

Seni so'roqlaydi ilohiy olam...

misralarida **“otash”** va **“muz”** so'zlari kontekstual antonimiyani hosil qilib, ruhiy holatning ikki qutbini – sevgi iztiroblari va hissiy sovuqlikni ifodalaydi. Kontekstual antonimiya o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishidir.²² **“Otash”** — qalbning jo'shqinligi, ehtirosi, sevgining haroratli holatini bildirsa, **“muz”** — iztirob, tushkunlik, najotsizlik kabi ruhiy sovuqlik ramzidir. Bu ikki obraz orqali shoir muhabbat tuyg'usining ziddiyatli va murakkab tabiatini, ya'ni uni boshdan kechirgan qalbning gohida yonishini, gohida esa muzlab qolishini shoirona badiiy mahorat bilan aks ettiradi. Bunday kontekstual zidlanishlar poetik nutqda nafaqat ifodaviy boylikni, balki g'oyaviy-falsafiy teranlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, Muhammad Yusuf she'riyati zamonaviy adabiy jarayonda obrazlilik va tuyg'u ifodasining yorqin namunasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Muhabbatim, qaydasan qalb ardog'im,

Jayronko'zim, qirlarda qolgan ohum.

Qo'lim tegmay to'kilgan qizg'aldog'im,

Endi seni **izlab** qaydan **toparman**...²³

Mazkur **“Muhabbat”** she'rida **aniq antonimik juftlik** to'g'ridan-to'g'ri ko'rinmasa-da, **“izlab”** va **“toparman”** so'zlari **kontekstual antonimiyaga** misol bo'ladi. Bu yerda **“izlamoq”** (harakat) so'zi **“topolmaslik”** (natijaning yo'qligi) ma'nosi bilan qarama-qarshi qo'yilgan. Ya'ni: **qidirish bilan topolmaslik** o'rtasidagi

²⁰ O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI. UCHINCHI JILD.G'AFUR G'ULOM NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA UYI. TOSHKENT –2023. 171-bet.

²¹ O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI. TO'RTINCHI JILD.G'AFUR G'ULOM NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA UYI. TOSHKENT –2023. 22-bet.

²² H. JAMOLXONOV. HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI. Toshkent –“Talqin” –2005.171-bet.

²³ Мухаммад Юсуф. «ИЛТИЖО». «Ёш гвардия нашестви». Тошкент – 1989.46-бет

kontekstual antonimik munosabatdir. Bu ibora shoirning sevgiga bo'lgan ilinjini, ammo uni endi ortga qaytara olmasligini ko'rsatadi. Shunday qilib, bu misra ruhiy iztirobning badiiy ifodasi sifatida xizmat qiladi. "Kechikish" she'rida:

Ko'krak to'la orzuyu tashvish

Paykalda ham hosilimiz mo'l.

Yashayapmiz bizlar **yozu qish**

Yumushlardan bo'shamaydi qo'l.²⁴

Parchasida "yoz" (yilning bahor bilan kuz orasidagi fasli) va "qish" (yilning kuz bilan bahor orasidagi fasli)²⁵ bir-biriga zid fasllardir. Yoz - issiq, hosil to'lishi, sermahsullik fasli hisoblansa, Qish - sovuq, tinimsizlik va ba'zida qiyinchiliklarni bildiruvchi fasl. Ular inson hayotidagi to'xtovsiz mehnat, tinimsiz harakat timsoli sifatida ko'rsatiladi. Yoz ham, qish ham dam emas, balki mehnatning davomiyligini bildiruvchi fon vazifasini bajaradi. Bu antonimlar to'liq antonimlarga misol bo'la oladi.

Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh,

Jayron, nega ko'zing to'la yosh?

Oyog'ingga qo'yib yotay bosh,

Jayron, nega ko'zing to'la yosh?²⁶

Ushbu she'rida adib oyoq va bosh leksemalari antonimiyasidan foydalangan. Ular inson tanasining ikki qarama-qarshi nuqtasini — eng yuqori va eng pastki qismlarini bildiradi: **Bosh** — tananing yuqori qismi, aql-idrok, e'tibor, shon-sharaf, e'zoz belgisi sifatida ham qaralsa, **oyoq esa** tananing pastki qismi, harakat vositasi, ko'pincha pastlik, itoat, tavozeqa ishora sifatida ishlatiladi. She'rdagi "Oyog'ingga qo'yib yotay bosh" misrasi **qadim sharq adabiyoti va xalqona she'riyat** an'alariga xos bo'lgan **tavoze, sadoqat** kabi tushunchalarni ifodalaydi. Bu yerda "bosh" — insonning eng ulug' qismi bo'lsa-da, uni "oyoq" ostiga qo'yish — o'zini mutlaq bo'ysundirish va hurmat ramzidir. She'rda muallif "bosh" va "oyoq" leksemalari orqali **semantik-antonomik qarama-qarshilikni** yaratgan bo'lib, bu vosita obrazning ichki drammatizmini ochib beradi. Ushbu qarama-qarshilik inson qalbidagi sadoqat va fidoyilikni yanada teran ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu so'zlar **ot so'z**

²⁴ МУХАММАД ЮСУФ. «ҚУЁШГА ҚАРАБ ОҚҚАН СУВ». Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент – 2017. 35-бет..

²⁵ Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. *O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati*. – T.: "O'qituvchi", 1980. 75-bet.

²⁶ МУХАММАД ЮСУФ. САЙЛАНМА. «ШАРҚ» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ — 2007. 9-бет.

turkumiga mansub bo'lib, leksik jihatdan ham, obrazlilik nuqtai nazaridan ham muhim badiiy yuklamaga ega.

Yurtdoshlarimizning qalbidan joy olib ulgiran "Lolaqizg'aldoq" she'riga nazar solsak:

Men ketsam, **yomondan**

Yiroq bo'l, oxu,

Chunki sen chiroyli,

Ko'rkli bir juvon.

Yomon kunlar bir kun

Yaxshi bo'lar-u,

Yomon odam **yaxshi**

Bo'lmas hech qachon...²⁷

She'rda "yaxshi" va "yomon" so'zlari orqali antonimiyalar estetik va falsafiy ma'no yuklab, obrazli tilda ifodalangan. Yaxshi – ijobiy baho, ma'qullash, go'zallik, axloqiy ustunlik, xayrixohlik, mehribonlik kabi tushunchalarni bildiradi. Yomon – salbiy baho, tanbeh, axloqsizlik, xatar, zarar, yovuzlik va insoniy kamchiliklarni anglatadi. "Yaxshi" va "yomon" so'zlari o'zbek tilining eng qadimiy, keng qo'llaniladigan antonimlaridan bo'lib, ular tilimizdagi axloqiy qadriyatlar tizimining asosiy tayanch so'zlaridir. Ularning she'riy kontekstdagi qo'llanilishi nafaqat estetik, balki ma'naviy yuklamalarga ham egadir.

Bu so'zlar she'rda ikki darajada qarama-qarshilik sifatida qo'llanilgan:

1. **Zamon (vaqt)** kontekstida: "yomon kunlar" ↔ "yaxshi bo'lar"

2. **Inson (xulq)** kontekstida: "yomon odam" ↔ "yaxshi odam"

(anglatilgan)

She'rda "yomon kunlar yaxshi bo'lar" jumlasini vaqtinchalik sinovlar o'tib ketishini, umid va ijobiy kelajakni ifodalasa, "yomon odam yaxshi bo'lmas" degan jumla esa odamning tub mohiyati o'zgarmasligini, axloqiy yomonlikning doimiyliigi haqidagi qat'iy xulosani bildiradi. Bu yerda **vaziyatdagi o'zgaruvchanlik** (kun) va **inson xarakteridagi barqarorlik** (odam) kontrasti yanada teran mazmun beradi.

Shoirning kuyga solingan quyidagi misralarida:

Yasharman **savob**-u **gunohim** bilan,

Ko'nglimda bir yor-u **qo'ynimda** bir yor.²⁸

²⁷ MUHAMMAD YUSUF. SAYLANMA. «PHAROS AMBITION» Toshkent – 2022. 312-bet.

²⁸ Muhammad Yusuf. "Ko'nglimda bir yor". TOSHKENT "NURAFSHON-KITOB-TA'MINOT" 2021. 19-bet.

lirik qahramonning kechinmalari, ruhiy iztiroblari va sevgi mavzusidagi ichki ziddiyatlari bir qator **antonimik juftliklar** orqali yoritilgan. “savob” va “gunoh” soʻzlari anʼanaviy diniy-axloqiy antonim juftlik boʻlib, lirik qahramon muhabbati bilan bogʻliq holatda ezgulik va yomonlik orasida qolganini bildiradi. Bu ikki soʻz leksik antonimlar qatoriga kiradi. Ikkinchi: “Koʻnglimda bir yor-u qoʻynimda bir yor.” – misrasidagi: “Koʻngil” — ruhiy, sof muhabbat ramzi; “qoʻyn” — jismoniy yaqinlik ramzi. Qarama-qarshi tushunchalar orqali muhabbatning ikki qutbi koʻrsatiladi. Bu orqali sheʼrda kontekstual antonimiya hosil qilinganini koʻrishimiz mumkin.

Leksik antonimlar umumiy tushunchalarni aniq ifodalasa, kontekstual antonimlar poetik kontrast orqali hissiy kuch beradi. Bu esa adabiy matnda antonimlarning **estetik va semantik funksiyasini** yorqin namoyon etadi. Shunday qilib, sheʼrda antonimlar nafaqat til hodisasi sifatida, balki badiiy vosita sifatida ham oʻquvchiga kuchli hissiy taʼsir koʻrsatadi. Bu esa **adabiy matnda antonimlarning estetik funksiyasini** yaqqol koʻrsatadi.

Oʻzbekiston xalq artisti, marhum sanʼatkor: Nuriddin Haydarov tomonidan qoʻshiq qilib, yurtdoshlarimizni mehrini qozongan “Yur muhabbat” satrlari muallifi ham aynan Muhammad Yusufdir.

Biz ketsak, **yer** kengayib qolar,
Osmonlar ham enkayib qolar,
 Bir qorakoʻz jilmayib qolar,
 Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan...²⁹

Demak, ushbu parchada “**yer**” va “**osmon**” soʻzlari **leksik antonim** boʻlib, ular tabiatdagi pastlik va yuksaklikni, samoviylikni bildiradi. Sheʼrda **yer–osmon** antonimi faqat makoniy qarama-qarshilik sifatida emas, balki falsafiy mazmun yuklangan poetik obraz sifatida namoyon boʻladi. Lirik qahramonning ketishi bilan yer kengayib, osmon quyi tushgandek, engashib qolgandek tasvir yaratilishi inson va borliq oʻrtasidagi nozik uygʻunlikni ifodalaydi. Shunday qilib, **yer–osmon** antonimi adabiy matnda nafaqat til hodisasi, balki badiiy-estetik vosita sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Siz **achchiq** qismatim, siz iztirobim,
 Siz **shirin** dardimsiz, **shirin** azobim,
 Siz mening **koʻklardan** topgan oftobim,
Yerlarda yoʻqotgan koʻzmunchogʻimsiz.³⁰

²⁹ МУҲАММАД ЮСУФ. «Биз бахтли бўламиз». “Nihol” nashriyoti. Toshkent – 2017. 176-bet.

³⁰ МУҲАММАД ЮСУФ. Сайланма. «SHARQ» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАҲРИРИЯТИ ТОШКЕНТ — 2019. 39-бет

Shoirning yuqoridagi “Sevgi sadosi” she’ridan berilgan parchada “Achchiq qismat” — og‘ir, iztirobli taqdir; “shirin dard” — yoqimli, ammo og‘riqli tuyg‘u. Bu qarama-qarshilik muhabbatning ikki qutbli holatini tasvirlaydi: azob va rohat birgaligi antonim bo‘lib kelgan. Keyingi misralardagi: “ko‘k” — yuksaklik, ilohiylikni, “Yer” esa pastlik, odamlar yashaydigan pastki makon, moddiy hayotni ifodalab, leksik antonim bo‘lib kelgan. Qolaversa “topgan” hamda yo‘qotgan” so‘zlari harakat-jarayon antonimi sifatida kelgan. She’rda bu juftlik lirik qahramon sevgisini yuksak osmonlarda topib, ammo uni pastda, yerdagi hayotda yo‘qotganini bildiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Muhammad Yusuf muhabbatni tasvirlash jarayonida zid ma’noli birliklarni nafaqat til hodisasi sifatida, balki badiiy-estetik vosita sifatida ishga solib, ular orqali sevgi tuyg‘usining murakkab, ikki qutbli tabiatini yorqin va ta’sirchan tarzda namoyon eta olgan. Uning she’rlarida antonimlar sodda va ravon tilda, xalqona ohang va samimiy ruh bilan uyg‘unlashib, o‘quvchiga tez yetib boradi. Leksik va kontekstual antonimlar orqali shoir muhabbatning shirin va achchiq lahzalarini, topish va yo‘qotish iztiroblarini, mehr va qahr o‘rtasidagi ziddiyatlarni jonli obrazlar vositasida ifodalagan.

Umuman olganda, Muhammad Yusuf she’riyati zid ma’noli so‘zlarga boy bo‘lib, ularning rang-barang ko‘rinishlari shoirning badiiy tafakkurining kengligi va hissiy ifoda mahoratini namoyon etadi. Mazkur antonimik birliklar shoir uchun muhabbat, insoniy tuyg‘ular va ruhiy kechinmalarni tasvirlashda asosiy til vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, uning ijodi zid ma’noli so‘zlarning o‘ziga xos va betakror namunalarini ifoda etganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. N. MAHMUDOV, A. SOBIROV, SH. SATTOROV, SH. TOSHMIRZAYEVA, D. MANNOPOVA. ONA TILI. UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING 5-SINF UCHUN DARSLIK. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. TOSHKENT –2020.
2. МУҲАММАД ЮСУФ. САЙЛАНМА. «ШАРҚ» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАҲРИРИЯТИ ТОШКЕНТ — 2007.
3. МУҲАММАД ЮСУФ. «Биз бахтли бўламиз». “Nihol” nashriyoti . Toshkent – 2017.

4. МУҲАММАД ЮСУФ. Сайланма. «SHARQ» НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАҲРИРИЯТИ ТОШКЕНТ — 2019.
5. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. *O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati*. – T.: “O'qituvchi”, 1980.
6. O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI. UCHINCHI JILD.G'AFUR G'ULOM NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA UYI. TOSHKENT –2023.
7. O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI. TO'RTINCHI JILD.G'AFUR G'ULOM NOMIDAGI NASHRIYOT-MATBAA UYI. TOSHKENT –2023.
8. H. JAMOLXONOV. HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI. Toshkent –“Talqin” – 2005.
9. Муҳаммад Юсуф. «ИЛТИЖО». «Ёш гвардия нашриёти». Тошкент – 1989.
10. МУҲАММАД ЮСУФ. «ҚУЁШГА ҚАРАБ ОҚҚАН СУВ». Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент – 2017.
11. MUHAMMAD YUSUF. SAYLANMA. «PHAROS AMBITION» Toshkent – 2022.
12. Muhammad Yusuf. “Ko'nglimda bir yor”. TOSHKENT “NURAFSHON-KITOB-TA'MINOT” 2021.

LEKSIK OMONIMIYANING NAZARIY VA AMALIY TALQINI**Aqmirzayeva Zarnigor Alisher qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksik omonimiyaning nazariy asoslari hamda amaliy tatbiqi yoritilgan. Tilshunoslikda omonimlarning o'rni, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlari, omonimlarning boshqa leksik birliklar bilan munosabati, til tizimidagi funksional yuklamasi hamda omonimiyaning tarjima, til o'qitish va nutq madaniyatidagi amaliy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Maqolada omonimiyaning turli tilshunoslik maktablarida o'rganilishi, nazariy yondashuvlar tafsili bilan ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Omonimiya, leksik birlik, ko'p ma'nolilik, sinonimiya, antonimiya, semantika, tilshunoslik, amaliy qo'llanish, tarjima, til tizimi.

Аннотация В данной статье освещены теоретические основы и практическое применение лексической омонимии. Научно проанализированы место омонимов в языкознании, их семантические и структурные особенности, взаимоотношение омонимов с другими лексическими единицами, их функциональная нагрузка в языковой системе, а также практическое значение омонимии в переводе, преподавании языка и культуре речи. В статье рассмотрено изучение омонимии в различных лингвистических школах и подробно представлены теоретические подходы.

Ключевые слова: Омонимия, лексическая единица, многозначность, синонимия, антонимия, семантика, языкознание, практическое применение, перевод, языковая система.

Annotation This article highlights the theoretical foundations and practical application of lexical homonymy. It provides a scientific analysis of the role of homonyms in linguistics, their semantic and structural features, the relationship of homonyms with other lexical units, their functional load within the language system, as well as the practical significance of homonymy in translation, language teaching, and speech culture. The article also examines the study of homonymy in various linguistic schools and presents theoretical approaches in detail.

Keywords: Homonymy, lexical unit, polysemy, synonymy, antonymy, semantics, linguistics, practical application, translation, language system.

Tilshunoslikda leksik birliklarning o'zaro munosabati va semantik tafovutlari tilning boyligi, ifoda imkoniyatlari hamda tafakkurning til orqali shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Har bir til o'zining fonetik, morfologik, sintaktik va semantik tizimi orqali fikrni ifoda qilishga xizmat qiladi. Ushbu tizimda leksik birliklarning ko'p qirraliligi, ayniqsa, omonimiya kabi hodisalar tilning murakkab va o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu nuqtayi nazardan, omonimlar — shaklan bir xil, ammo ma'nosiga ko'ra har xil bo'lgan so'zlar — til tizimidagi murakkab hodisalardan biridir. Ular shakliy jihatdan bir xil ko'rinish kasb etgan bo'lsa-da, ma'nodagi tafovut ularning mustaqil semantik birliklar ekanligini ko'rsatadi. Bu hodisa nafaqat lingvistik tafakkur, balki mantiqiy tahlil, kontekstual tafsir va pragmatik yondashuvlarni ham talab etadi. Omonimiya tilning ichki dinamikasi, so'zlarning semantik taraqqiyoti, fonetik o'zgarishlar, morfologik qisqarishlar, tarixiy taraqqiyot, boshqa tillar bilan aloqa va tasodifiy tovush mosliklari natijasida yuzaga keladi. Ba'zida esa omonimlar bir-biridan mutlaqo mustaqil kelib chiqqan bo'lsa-da, zamon o'tishi bilan fonetik jihatdan moslashib, bir xil shaklga ega bo'lib qoladi. Natijada, bu kabi birliklarni farqlash faqat kontekst asosida mumkin bo'ladi. Zamonaviy tilshunoslikda omonimiya masalasi lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, tarjimashunoslik, til o'qitish metodikasi va hatto sun'iy intellekt sohalarida ham muhim mavzulardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Tilning leksik boyligini tashkil etuvchi omonimlar nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy nuqtayi nazardan ham chuqur o'rganilmoqda. Ularning nutqdagi ahamiyati, uslubiy vosita sifatidagi roli, tarjimadagi aniqlik va xatolarga ta'siri, hamda o'quvchilarga til o'rgatishdagi murakkabligi alohida tahlilni talab etadi.

Omonimiya tushunchasi tilshunoslikda uzoq tarixga ega bo'lib, uning nazariy talqinlari turli ilmiy maktablarda turlicha izohlangan. Omonimlar — bir xil fonetik shaklga ega bo'lgan, lekin turli ma'noni anglatuvchi mustaqil so'zlar sifatida izohlanadi. Ular ko'pincha ko'p ma'nolilik bilan aralashib ketadi. Ammo tilshunoslikda bu ikki hodisa — omonimiya va ko'p ma'nolilik — aniq farqlanadi: ko'p ma'nolilikda bir so'zning ma'nolari o'zaro semantik bog'liq bo'ladi, omonimiyada esa bu bog'liqlik mavjud emas. Abduazizov A. ta'kidlaganidek, omonimiyada shakliy o'xshashlik tashqi omildir, semantik aloqaning yo'qligi esa bu hodisani mustaqil leksik birliklar sifatida ko'rishga asos bo'ladi. Omonimlar asosan uch turga bo'linadi: *leksik omonimlar*, *grammatik omonimlar* va *fonetik omonimlar*.

Leksik omonimlar — shaklan bir xil, lekin semantik jihatdan mustaqil va aloqasiz bo'lgan so'zlar. Masalan, “oy” so'zi (osmondagi oy va yil oylaridan biri) yoki “yoz”

(fasl va yozish amali) — bu leksik omonimlarga misoldir. Leksik omonimiyaning paydo bo'lish sabablari turlicha bo'lib, ular orasida fonetik o'zgarishlar, morfologik qisqarishlar, boshqa tillardan o'zlashuvlar va tasodifiy tovush mosliklar muhim o'rin tutadi. Masalan, qadimgi turkiy tillarda turlicha shakllangan ikki so'z zamon o'tishi bilan bir xil fonetik shaklga kelib qolishi mumkin. Rasulov A. bu holatni "tilning tabiiy taraqqiyotida yuzaga keladigan leksik yaqinlashuv" deb ataydi.

Tilshunoslik nazariyalarida omonimiyaning o'rganilishi turli yondashuvlarga asoslangan. Strukturaviy tilshunoslikda omonimlar shakliy jihatdan, semantik yondashuvda esa ma'no asosida tadqiq etiladi. Hozirgi zamon kognitiv tilshunosligida esa omonimlarning inson tafakkuri bilan bog'liqligi, ma'no yaratish jarayonidagi roli o'rganiladi. G'afurov N.ning fikricha, til birliklarining ma'noviy ko'lamini aniqlashda omonimiyaning kontekstual tahlil asosida baholash muhimdir. Omonimlarning amaliy qo'llanilishi tarjima jarayonida, til o'qitish metodikasida va nutqning aniqligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Tarjimada omonimlarni to'g'ri talqin qilish kontekstga bog'liq bo'lib, noto'g'ri tarjima mazmuniy xatolarga olib kelishi mumkin. Til o'rgatishda esa omonimlarning farqlanishini o'rgatish til o'zlashtirishning samaradorligini oshiradi. Masalan, rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda "ключ" so'zi (qulfn o'chuvchi kalit yoki daryo boshidagi buloq) har doim kontekst asosida izohlanadi. Lyons J. ham kontekstning omonimlarni aniqlashdagi rolga urg'u beradi: "Meaning without context is often ambiguous and misleading", ya'ni "kontekstsiz ma'no ko'pincha noaniq va chalg'ituvchi bo'ladi".

Shuningdek, zamonaviy lingvistikada omonimlar turli soha terminologiyasida ham muhim rol o'ynaydi. Informatika, biologiya, huquqshunoslik kabi fanlarda bir xil shakldagi, lekin kontekstga qarab turli ma'noni anglatuvchi atamalar mavjud. Bu holat ilmiy matnlarni tuzishda ehtiyotkorlikni talab etadi. Matbuot, adabiyot va badiiy uslubda omonimlar stilistik vosita sifatida ham qo'llaniladi. Ular so'z o'yini, kinoya, istiora kabi uslublarni yaratishda yordam beradi. Masalan, satirik asarlarda yoki she'riyatda omonimlar ko'p hollarda san'atkorona ma'no berishda xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, leksik omonimiya tilning tabiiy taraqqiyoti jarayonida yuzaga keladigan, ko'p qirrali va murakkab lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi. Omonimlar til tizimining rivojlanishida, leksik qatlamning kengayishida va so'z boyligining ortishida faol ishtirok etadi. Ularning fonetik jihatdan bir xil bo'lib, semantik jihatdan farqlanishi tilshunoslikda chuqur ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Omonimiyaning ilmiy o'rganilishi nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy yo'nalishlar — xususan, tarjimashunoslik, leksikografiya, nutq madaniyati va

til o'qitish metodikasi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'quvchilarda tilga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, kontekstual tafakkurni rivojlantirish va nutqda aniq ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini tarkib toptirishda omonimiyani anglash va to'g'ri qo'llash muhim o'rin tutadi. Tarjima jarayonida omonimlarni aniqlash va ularning to'g'ri ekvivalentlarini topish, matn mazmunini to'liq yetkazishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, adabiyotda va badiiy ijodda omonimlar stilistik vosita sifatida qo'llanilib, mazmunning ko'p qatlamliligini, obrazlilikni va badiiy ta'sir kuchini oshiradi. Zamonaviy tilshunoslik yutuqlari shuni ko'rsatmoqdaki, omonimlarni faqat shakl va ma'no darajasida emas, balki ularning kognitiv va pragmatik jihatlarini ham inobatga olib o'rganish lozim. Shuningdek, sun'iy intellekt, kompyuter lingvistikasi va avtomatik tarjima tizimlarining rivojlanishi fonida omonimiyani avtomatik tarzda aniqlash va farqlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shunday qilib, tilni chuqur o'rganish, nutq madaniyatini shakllantirish va so'z boyligini to'g'ri qo'llashda omonimiyani to'g'ri anglash va kontekst asosida talqin qilish tilshunoslar, tarjimonlar, pedagoglar va hatto texnolog mutaxassislar uchun ham muhim kompetensiya hisoblanadi. Omonimiya masalasi tilshunoslik fanining dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov A. Hozirgi o'zbek adabiyati. — Toshkent: O'zbekiston, 2010. — 112-bet.
2. Rasulov A. O'zbek tilining leksikologiyasi. — Toshkent: Fan, 2004. — 89-bet.
3. G'afurov N. Tilshunoslik kashfiyoti. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. — 103-bet.
4. Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. — Cambridge University Press, 1995. — p. 42.

LEKSIKOLOGIYADA BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR**Arabboyeva Sevinchoy**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining leksik tizimida bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarning mohiyati, ularning semantik xususiyatlari hamda o'zaro farqlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, o'z ma'no va ko'chma ma'no hodisalari bilan ko'p ma'nolilikning uzviy bog'liqligi yoritiladi. Maqolada tilning boyishi, ma'no taraqqiyoti va so'zlarning kontekstual o'zgarishlari o'zbek tili misolida tahlil qilinadi hamda ular nutqdagi ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiruvchi omil sifatida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: leksikologiya, semantika, so'z ma'nosi, bir ma'nolilik, ko'p ma'nolilik, o'z ma'no, ko'chma ma'no, ma'no taraqqiyoti, kontekst, nutq.

Аннотация: В данной статье научно анализируется сущность однозначных и многозначных слов в лексической системе узбекского языка, их семантические особенности, а также различия между ними. Кроме того, освещается взаимная связь между прямым и переносным значением слов и многозначностью. В статье на примере узбекского языка рассматриваются процессы обогащения языка, развитие значений и контекстуальные изменения слов, а также изучается их роль как фактора, расширяющего выразительные возможности речи.

Ключевые слова: лексикология, семантика, значение слова, однозначность, многозначность, прямое значение, переносное значение, развитие значения, контекст, речь.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the essence of monosemous and polysemous words in the lexical system of the Uzbek language, their semantic features, and the differences between them. It also highlights the interrelation between literal and figurative meanings and polysemy. The paper examines, through the example of the Uzbek language, the enrichment of vocabulary, the development of meanings, and contextual changes of words, as well as their role as a factor that broadens the expressive potential of speech.

Keywords: lexicology, semantics, word meaning, monosemy, polysemy, literal meaning, figurative meaning, semantic development, context, speech.

Til inson tafakkurining eng asosiy ifoda vositasi, jamiyatning madaniy va ma'naviy taraqqiyotini belgilovchi omildir. Har bir tilda mavjud leksik birliklar — so'zlar orqali inson o'z fikrini ifodalaydi, o'zaro aloqa o'rnatadi va dunyoni anglaydi. Shu jihatdan leksikologiya fani so'zlarning ma'nosi, ularning kelib chiqishi, semantik o'zgarishlari hamda nutqdagi vazifalarini o'rganadi. Tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, so'z — tildagi eng kichik, ammo eng mazmunli birlik bo'lib, unda xalqning tafakkuri, tajribasi va madaniyati mujassamdir. Shu bois leksikologiya fani tilshunoslik tizimining markaziy bo'limlaridan biri hisoblanadi. Unda so'zlarning ma'nosiga, ularning ma'no taraqqiyotiga, kontekstual o'zgarishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbek tilining leksik boyligi nihoyatda keng bo'lib, unda so'zlarning ma'nosi jihatidan turli ko'rinishlari uchraydi. Ayniqsa, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar til tizimining eng muhim qatlamini tashkil etadi. Bu hodisa tilning tabiiy rivoji, xalq tafakkurining kengayishi va nutq ehtiyojining ortib borishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Bir ma'noli so'zlar – (monosemantik) faqat bitta ma'noni bildiradigan, ma'nosi tor doiradagi tushunchani ifodalovchi so'zlardir. Bunday so'zlar, asosan, terminologik leksikaga xosdir. Odatda, ilmiy, texnik, rasmiy uslubda qo'llanadi. Chunki bu sohalarda aniqlik, mantiqiylik va noaniqlikka yo'l qo'ymaslik muhimdir va ilmiy atamalarda ma'no aniqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, *atom*, *kvadrat*, *insoniyat*, *oksidlanish*, *morfema* kabi so'zlar faqat bitta ma'noga ega. Ular kontekst o'zgarishidan qat'i nazar, o'z ma'nosini o'zgartirmaydi. Shu sababli bir ma'noli so'zlar tilning aniqligini ta'minlovchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunos A. G'ulomov fikricha, bir ma'nolilik hodisasi tilda aniq terminologik tizimni yaratish imkonini beradi. Chunki har bir ilmiy tushuncha uchun yagona, aniq ma'nodagi so'z kerak bo'ladi. Aks holda, nutqda chalkashlik va ma'no noaniqligi yuzaga keladi. Shu jihatdan, monosemiya ilmiy uslubning ajralmas belgisi hisoblanadi.

Ko'p ma'nolilik (polisemiya) — bu bir so'z shakli orqali bir nechta, o'zaro bog'liq ma'nolarni ifodalash hodisasidir. Bu hodisa tilning tabiiy taraqqiyoti natijasida yuzaga keladi va tildagi boylik hamda ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu hodisa polisemiya deb ataladi. Masalan, bosh so'zi:

- “inson yoki hayvonning tana a'zosi” (o'z ma'noda),
- “rahbar, boshliq” (ko'chma ma'noda),
- “biror narsaning old qismi” (metaforik ma'noda) kabi turli ma'nolarda ishlatiladi.

Bu holatda ko'rinib turibdiki, bir so'zning yangi ma'nolari avvalgi asosiy ma'nodan semantik jihatdan ajralib chiqadi. Shu sababli polisemiyaning tilning semantik taraqqiyotini ko'rsatuvchi hodisa sifatida baholash mumkin. R. Rasulov "Tilshunoslik asoslari" asarida shunday yozadi:

"Ko'p ma'nolilik tilda iqtisodiylik tamoyilini ta'minlaydi. Yangi tushunchani ifodalash uchun har safar yangi so'z yasash o'rniga, mavjud so'zga yangi semantik yuklama beriladi." Demak, polisemiya tilda ifodaviylik, ixchamlik va obrazlilikni ta'minlaydi. Ayniqsa, badiiy nutqda ko'p ma'noli so'zlar orqali obrazlilik kuchayadi, so'zning emotsional-ekspressiv qiymati ortadi. Masalan, "ko'ngil" so'zi turli kontekstlarda "his-tuyg'u markazi", "ruhiy holat", "xotirjamlik", "mehr" ma'nolarida ishlatilishi bunga yaqqol misoldir. Ko'p ma'nolilik tilning boyligidan, xalq tafakkurining teranligidan dalolat beradi. Chunki har bir yangi ma'no ko'chma yoki kontekstual o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi.

Tilshunoslikda so'z ma'nosi deganda, so'z orqali ifodalanadigan tushuncha, narsa yoki hodisaning mazmuni tushuniladi. Har bir so'z o'z mohiyatiga ko'ra o'z ma'no (asosiy ma'no) va ko'chma ma'no (majoziy yoki ikkilamchi ma'no)da qo'llanadi. Ushbu ikki ma'no o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisining semantik zaminini tashkil etadi.

1. O'z ma'no (birlamchi ma'no) — bu so'zning eng birlamchi, bevosita narsa yoki hodisaga bog'langan ma'nosidir. Ya'ni, u tildagi so'zning "asl" yoki "to'g'ridan-to'g'ri" ifodasi sanaladi. Masalan: Qo'l – insonning tana a'zosi sifatidagi ma'noda;

Qalam – yozish quroli ma'nosida;

Oyoq – yurish a'zosi sifatida.

Bu ma'nolar denotativ ma'no ham deyiladi, chunki ular real borliqdagi predmet yoki hodisani bildiradi. O'z ma'no, asosan, terminologik va ilmiy matnlarda keng qo'llanadi, chunki unda aniqlik va birma'nolilik talab qilinadi. O'zbek tilshunosligida A. Gulomov, R. Rasulov va M. Jo'raev kabi olimlar o'z ma'noni tildagi "asosiy semantik markaz" deb ataydilar. Chunki har qanday yangi ma'no (ko'chma ma'no) aynan o'z ma'nodan kelib chiqadi. Shuning uchun o'z ma'no tilning semantik tizimidagi boshlang'ich nuqtadir.

2. Ko'chma ma'no (ikkinchi darajali ma'no) — bu so'zning o'z ma'nosidan majoziy yoki obrazli yo'l bilan boshqa tushunchaga o'tgan ma'nosidir. Boshqacha qilib aytganda, bu so'zning semantik kengayishi natijasida yuzaga kelgan yangi ma'no. Ko'chma ma'no tilda badiiylik, obrazlilik va ifodaviylik yaratadi. Shu sababli u ko'proq adabiy va publitsistik uslubga xos. Masalan:

Qo'l so'zi "yordam", "ta'sir", "rahbarlik" ma'nolarida qo'llanadi: Uning qo'li bor bu ishda.

Bosh so'zi "rahbar", "yo'nalish", "markaz" ma'nolarida ishlatiladi: bosh muallif, bosh shahar.

Ko'ngil so'zi "ruhiy holat", "mehr", "tuyg'u" ma'nolarida ishlatiladi: ko'ngli to'ldi, ko'ngli yorishdi.

Ko'chma ma'no tilda uch asosiy yo'l orqali yuzaga keladi:

a) Metafora (o'xshatish asosida ko'chish): bu holda bir narsa boshqa narsaga tashqi yoki ichki o'xshashlik asosida ko'chadi.

Masalan: ko'z – "insonga xos a'zo", buloq ko'zi – "suv chiqadigan joy".

Bu yerda ko'z so'zining ma'nosi o'xshashlik (shakl, funksiyadagi yaqinlik) asosida ko'chgan.

b) Metonimiya (yaqinlik asosida ko'chish): bir narsa bilan u bilan bog'liq bo'lgan boshqa narsa o'rnida ishlatiladi.

Masalan: butun zal kuldi – aslida "zalda o'tirgan odamlar" kuldi degani.

c) Sinekdoxa (butun va qism munosabatiga asoslangan ko'chish): bu usulda butun o'rnida qism, yoki qism o'rnida butun ishlatiladi.

Masalan: o'n bosh qoramol – "o'n dona qoramol"; xalq qo'zg'aldi – "xalqning bir qismi" ma'nosida.

Ko'chma ma'nolar tilda polisemiya (ko'p ma'nolilik)ni yuzaga keltiradi. Har bir yangi ko'chma ma'no so'zning semantik doirasini kengaytiradi va uni ko'p ma'noli so'zga aylantiradi. Shu bois, ko'chma ma'no tildagi semantik boylikning asosiy manbaidir. Ko'p ma'nolilik tilda so'zlarning ko'p funksiyaliligini ta'minlaydi. U nutqda ifoda vositalarini kengaytiradi, so'zning stilistik qiymatini oshiradi va badiiy asarlarda obrazlilik yaratadi. Shu bilan birga, polisemiya leksik tizimni soddalashtiradi, ya'ni har bir yangi tushuncha uchun alohida so'z yasash o'rniga mavjud so'zga yangi ma'no yuklanadi. Bu hol til iqtisodiyligi tamoyiliga ham mos keladi. Shu sababdan ko'p ma'nolilik tabiiy til taraqqiyotining ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'ulomov A. va boshqalar. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. Rasulov R. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Karimov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2018.

4. Jo'raev M. O'zbek tilining semantik tizimi va uning taraqqiyoti. – Samarqand, 2020.

ILMIY LEKSIKA VA UNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Asadullayeva Shahrizoda Sirojiddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

kechki 24/1- guruh talabasi

asadullayevashaxrizoda9@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots.

Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy leksikaning mohiyati va uning semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Ilmiy uslubda qo'llaniladigan leksik birliklarning asosiy belgilari — terminologiklik, aniqlik, neytrallik va xalqaro xususiyat ekani asoslab berilgan. Shuningdek, ilmiy leksikaning semantik jihatlari, jumladan, bir ma'nolilik, sistemalilik, abstraktlik va aniq chegaralangan ma'no kabi xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ilmiy nutqning mantiqiy va izchil bo'lishida ilmiy leksikaning o'rni beqiyos ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ilmiy leksika, terminologiya, semantika, ilmiy uslub, monosemiya, abstraktlik, tizimlilik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность научной лексики, её лексический состав и семантические особенности. Основными характеристиками научных терминов являются логичность, однозначность, точность и денотативность. Также в статье анализируются проникновение научной лексики в общий язык, междотраслевые семантические различия и стабильность терминов.

Ключевые слова: научная лексика, семантика, термин, моносемия, денотативность, научный стиль, лингвистика.

Abstract. This article examines the nature of scientific vocabulary, its lexical composition, and semantic features. The key characteristics of scientific terms include logical consistency, monosemy, precision, and denotativeness. The paper also analyzes the integration of scientific vocabulary into general language, cross-disciplinary semantic differences, and the stability of terminology.

Keywords: scientific vocabulary, semantics, terminology, monosemy, denotativeness, scientific style, linguistics.

Til insoniyat tafakkurining asosiy vositasi bo'lib, u nafaqat kundalik muloqotni ta'minlaydi, balki ilmiy bilimlarni ifodalash, ularni tizimlashtirish va keng ommaga yetkazishda ham muhim funksiyani bajaradi. Xususan, jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayoti va ilm-fan taraqqiyotida tilning o'rnini beqiyosdir. Bu jarayonda ilmiy uslub alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu uslub orqali ilmiy tafakkur shakllanadi, ilmiy g'oyalar bayon qilinadi va ular jamoatchilikka taqdim etiladi.

Ilmiy uslub — bu ilmiy axborotni ifodalashda qo'llaniladigan tilda mantiqiylik, aniqlik, xolislik, izchillik va obyektivlik kabi asosiy tamoyillarga tayanuvchi nutq shaklidir. U ilmiy faoliyatning barcha tarmoqlarida — maqola, dissertatsiya, hisobot, ilmiy risola, darslik va boshqa janrlarda qo'llaniladi. Ilmiy uslubning asosiy vazifasi — muayyan ilmiy fakt, hodisa yoki jarayonni aniq, mantiqiy asoslangan va tushunarli tarzda ifoda qilishdir. Shu bois, ilmiy matnlarda shaxsiy emotsiyalar, mavhumlik yoki mubolag'a kabi badiiy vositalar cheklangan bo'ladi. Ilmiy uslubning eng muhim belgilaridan biri bu — **ilmiy leksikaning** qo'llanilishidir. Ilmiy leksika — bu ma'lum bir fan sohasi vakillari o'rtasidagi tushunishni ta'minlaydigan atamalar (terminlar), ilmiy iboralar va maxsus so'z birikmalarining yig'indisidir. U o'zining terminologik aniqligi, mantiqiy izchilligi, stilistik neytralligi va ma'lumotga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Har bir fan sohasi o'ziga xos terminlarga ega bo'lib, ular fanlararo farqlilikni belgilaydi va ilmiy tafakkur aniqligini ta'minlaydi. Ilmiy leksikadan foydalanish, shuningdek, ilmiy uslubning **obyektivlik** tamoyiliga ham xizmat qiladi. Bunda muallif shaxsiy fikrini emas, balki ilmiy asoslangan dalil va faktlarga tayangan holda mulohaza yuritadi. Bu esa ilmiy nutqning asosiy talablari — **dalillilik, ishonchlilik va mantiqiylik**ni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy matnlar sintaktik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular odatda murakkab tuzilishga ega bo'lgan, mantiqiy aloqalar orqali bog'langan, ko'plikda ifodalangan jumladan tashkil topadi. Jumladagi mazmun tushunarli va aniqligi bilan ajralib turadi, ortiqcha bezakli ifodalardan tiyilinadi.

Ilm-fan taraqqiyoti, ilmiy fikrning rivojlanishi va jamiyatga yetkazilishi, eng avvalo, ilmiy uslubning mukammal shakllangan bo'lishiga bevosita bog'liq. Ilmiy uslub esa o'z navbatida aniq, izchil va terminologik jihatdan asoslangan ilmiy leksikaga tayangan holda shakllanadi. Shuning uchun tilshunoslikda ilmiy uslub va uning leksik xususiyatlarini o'rganish, zamonaviy ilmiy tafakkur taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Ilmiy leksika — bu ilmiy matn va nutqda qo'llaniladigan maxsus leksik birliklar tizimidir. U ilmiy faoliyatning turli yo'nalishlarida mavjud bo'lgan tushunchalarni aniqlik, mantiqiylik va izchillik asosida ifodalashga xizmat qiladi. Ilmiy

leksika tarkibiga, asosan, terminlar, ilmiy iboralar, formulalar, qisqartmalar va boshqa maxsus atamalar kiradi. Ushbu birliklar ilmiy axborotni qisqa, aniq va tushunarli tarzda ifodalash imkonini beradi. Ilmiy leksika umumxalq tilining tarkibiy qismi bo'lib, undan ajralmagan holda mavjud bo'ladi. Biroq u o'zining **mahsus semantik qatlamlari** va **cheklangan kommunikativ vazifalari** bilan ajralib turadi. Ya'ni, ilmiy leksikadagi so'zlar ko'pincha umumxalq tilida ham mavjud bo'lishi mumkin, biroq ilmiy kontekstdagi ma'nosi ancha toraygan, qat'iy belgilangan va mantiqan aniqlashtirilgan bo'ladi. Masalan, "modul", "funksiya", "molekula", "sintaksis", "interferensiya" kabi so'zlar har bir fan sohasida muayyan terminologik yuklama bilan qo'llaniladi. Shu bilan birga, ilmiy leksika doirasidagi atamalarning qo'llanishi **sohaga xos** bo'lib, ularning mazmuni ko'pincha faqat shu soha mutaxassisleri uchun tushunarli bo'ladi. Bu holat ilmiy matnlarni yaratishda terminlarning aniqligini va bir ma'noliligini ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Chunki ilmiy muloqotda noaniq, ko'p ma'noli yoki mubolag'ali so'zlar qo'llanilishi ilmiy axborotning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Ilmiy leksikaga xos yana bir muhim jihat — u zamon bilan birga rivojlanib, boyib boradi. Yangi ilmiy kashfiyotlar, texnologik yutuqlar va fanlararo tadqiqotlar natijasida har yili minglab yangi terminlar paydo bo'lmoqda. Bu esa ilmiy leksikaning dinamik va o'zgaruvchan tizim ekanligini ko'rsatadi. Ilmiy leksikaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: Terminologiklik – ilmiy leksikaning asosini terminlar tashkil qiladi. Har bir termin muayyan ilmiy tushunchani ifodalaydi va boshqa ma'nolarga ko'chmaydi.

Aniqlik va qat'iylik – ilmiy so'zlar ko'pincha bir ma'noga ega bo'lib, kengaytirilgan yoki obrazli qo'llanishga yo'l qo'ymaydi.

Xalqaro xususiyat – ko'plab ilmiy atamalar lotin, yunon, ingliz yoki rus tillaridan kirib kelgan bo'lib, ularning global tushunarliqligi ta'minlanadi. Masalan, atom, fizika, lingvistika kabi atamalar.

Neytrallik – ilmiy leksika hissiyot va subyektiv munosabatlardan holi bo'ladi. U faqat fakt, nazariya va ilmiy isbotlarga tayangan holda qo'llanadi.

Semantik xususiyatlari

Ilmiy leksikaning semantik tabiatini o'rganish ilmiy uslubning mantiqiylik darajasini aniqlashga yordam beradi. Uning asosiy semantik jihatlari:

Bir ma'nolilik (monosemiya) – terminlar ko'p ma'nolilikdan (polisemiya) xoli bo'lishga intiladi. Masalan, "molekula" atamasi faqat kimyoviy tushunchani bildiradi.

Sistemalilik – terminlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, "fonema – morfema – leksema – sema" tushunchalari lingvistik tizimda ketma-ketlik hosil qiladi.

Abstraktlik – ilmiy leksika ko‘pincha umumlashtirilgan tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, “energiya”, “modda”, “jarayon”.

Aniq chegaralangan ma’no – har bir ilmiy so‘zning ma’nosi qat’iy belgilangan bo‘lib, uni kontekstdan tashqarida ham tushunish mumkin.

Universal semantika – ko‘plab terminlarning ma’nosi turli tillarda deyarli bir xil. Bu ilm-fanning xalqaro integratsiyasini ta’minlaydi.

Ilmiy leksika va uning semantik xususiyatlari ilmiy nutqning aniqligi, mantiqiyligi va izchilligini ta’minlaydi. U umumxalq tilining bir qismi bo‘lsa-da, terminologik qatlam sifatida alohida o‘rin egallaydi. Ilmiy leksikaning semantik jihatdan bir ma’nolilikka intilishi, sistemaliligi va xalqaro xususiyati uni boshqa uslubiy qatlamlardan ajratib turadi. Shu bois ilmiy leksikani o‘rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki barcha fan sohalarida ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy leksika ilmiy uslubning asosiy va ajralmas komponentlaridan biri bo‘lib, u ilmiy nutqning aniqligini, mantiqiyligini va mazmuniy chuqurligini ta’minlaydi. U umumxalq tiliga tayansa-da, o‘zining terminologik xususiyatlari, cheklangan qo‘llanish sohasi va qat’iy semantik yuklamasi bilan ajralib turadi. Shu sababli, ilmiy leksikani puxta egallash — samarali ilmiy muloqot olib borishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G‘ulomov, A. (2015). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell Publishing.
3. Lyons, J. (1995). Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Jumaboyeva, M. (2020). “Ilmiy uslub va uning lingvistik xususiyatlari.” Filologiya masalalari jurnali, №2, 45–52.
5. Widdowson, H. G. (2007). Discourse Analysis. Oxford: Oxford University Press.

TA'LIMGA OID LEKSIK BIRLIKLAR**Ashurmatova Navro'za Bahrom qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

24/1 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotasiya. Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha jabhalarida yangi bosqichga o'tish davridagi yuz berayotgan o'zgarishlar va zamonaviy islohotlar natijasida boshqa tarmoqlar ham yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bunday ekstralingvistik omillar ta'sirida ona tilimizda minglab yangi tushunchalar va leksik birliklarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ushbu tushunchalarni ifodalash maqsadida minglab soha egalari chuqurroq izlanish olib borib, yangi leksik birliklarni tahlil qilib hujjatlarda aniq ishlatishga harakat qilishmoqda. Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi yangi paydo bo'lgan va bo'layotgan leksik birliklar haqida so'z yuritildi.

Kalit So'zlar: Ta'lim, leksik birliklar, rivojlanish, so'z boyligi, ekstralingvistik, globallashuv, baynalmilal, tajriba, reyting, ona tili, o'zlashgan so'zlar

Abstract As a result of the changes and modern reforms taking place in all aspects of the education system in our country, other sectors are also developing and improving. Under the influence of such extralinguistic factors, thousands of new concepts and lexical units have emerged in our native language. In order to express these concepts, thousands of experts in the field are conducting in depth research, analyzing new lexical units and trying to use them accurately in documents. This article discusses the newly emerging and emerging lexical units in the education system.

Keywords: Education, lexical units, development, vocabulary, extralinguistic, globalization, international, experience, rating, native language, acquired words

Аннотация В результате изменений и современных реформ, происходящих во всех аспектах системы образования нашей страны, развиваются и совершенствуются и другие её секторы. Под влиянием этих экстралингвистических факторов в нашем родном языке появились тысячи новых понятий и лексических единиц. Чтобы выразить эти понятия, тысячи специалистов в этой области проводят более глубокие исследования, анализируют новые лексические единицы и стараются использовать их корректно в документах. В данной статье рассматриваются вновь появляющиеся и появляющиеся лексические единицы в системе образования.

Ключевые Слова: Образование, лексические единицы, развитие, словарный запас, экстралингвистический, глобализация, международный, опыт, рейтинг, родной язык, усвоенные слова

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha jabhalarida yangi bosqichga o'tish davridagi yuz berayotgan o'zgarishlar va zamonaviy islohotlar natijasida boshqa tarmoqlar ham yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bunday ekstralingvistik omillar ta'sirida ona tilimizda minglab yangi tushunchalar va leksik birliklarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ushbu tushunchalarni ifodalash maqsadida minglab soha egalari chuqurroq izlanish olib borib, yangi leksik birliklarni tahlil qilib hujjatlarda aniq ishlatishga harakat qilishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatga, shuningdek, O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir"- deya ta'kidlagan edi. Shubhasiz, umumta'lim, oliy ta'lim va barcha tegishli ta'lim sohaslarining sifatini oshirish mamlakatimizning kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi turibdi. Shu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z Murojaatnomasida ta'limni "Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya" - deb ta'kidlagani chuqur strategik ahamiyatga ega va ushbu nutqdan o'ta muhim istiqbolli kelajak nazarda tutilgan. Ta'lim sohasida jahon ta'lim tajribalari bilan hamkorlik oqibatida tilimizda yangi leksikalar paydo bo'lmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, ta'lim-tarbiya sohasi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar hamda munosabatlar dastlabki yozma manbalarning paydo bo'lishidan boshlab to hozirgi kungacha ko'plab xorijlik va mahalliy olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan va hozirgi kungacha qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Tilshunos olimlardan G.I Jelezovskaya, C.B Yeremina, L.V Lisochenko, V.M Sergevnina, Ch Stivenson, N.Rashidova ta'limga oid leksik birliklarni ta'lim tizimlariga uzviy bog'lab, ularning paydo bo'lishi, turlarini turli tilli lug'atlarda berilishlarini o'rganishgan. Jahon ta'lim muassasalarining xizmatlar tizimida, ta'limda ish yuritish tilida, sohaga mansub kalit so'zlar va so'z birikmalarini ham uchratish mumkin. Ularning barchasi ta'lim sohasiga oid nutqiy kommunikatsiya jarayonida faol ishlatiladi. Bundan tashqari, maxsus ta'lim sohasida ish yuritish hujjatlarida va maxsus matnlarda o'z aksini topadi. Shu ma'noda aytish mumkinki, har bir tilda boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'ziga xos o'rin egallaydi. Til xalq taraqqiyotining ajralmas hamrohidir. Tildagi muhim o'zgarishlar "ichki" va "tashqi" ko'rsatkichlarning hosilasi, desak mubolag'a

bo'lmaydi. Davlatlararo integratsiya va globalizatsiya natijasida o'zbek tilining ta'lim sohasidagi yozma va og'zaki nutqga ko'plab ingliz tili leksik birliklari kirib keldi va ular bugungi kunda faol qo'llanilmoqda. Jumladan: certificate –sertifikat, licenselitsenziya, ya'ni, ruxsatnoma; tutor – tyutor, ya'ni, talabalarning guruh raxbari, muassasalarda bir necha guruhlarini nazorat qiladi; facilitator – fasilitator, ya'ni, muassasalarda o'quv jarayonidagi maxsus vosita hisoblanadi; authentic material – autentik materiallar (real hayotga bog'lab tayyorlangan matnlar), reyting, ball repetitor kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelgan va bugungi kunda faol qo'llanilmoqda. Ingliz tilidan o'zbek tili ta'lim sohasiga kirib kelgan ayrim leksik birliklarni tarjimasiz ham qo'llash mumkin. Biroq, ona tilimizda ularning muqobili bo'la turib ham ular ma'lum tushunchani aniq ifodalagan holatlarda ham chet tili leksik birliklarinitilga kiritaverish haqli e'tirozni keltirib chiqaradi. Masalan: curriculum vitae – shaxsiy ma'lumot; monitoring – nazorat qilish; context – matn; paragraph – xatboshi va h.Bunday leksik birliklar nega o'zbek tiliga kiritilib faol qo'llaniladi? Axir, ularning ma'nosini anglatadigan o'zbekcha so'zlar borku? – degan haqli e'tirozni keltirib chiqaradi. Bu savolga javob shuki, ingliz tilidan o'zlashgan ta'limga oid leksik birliklar ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat olib boradigan xodimlar va mutaxassislar o'rtasida ko'proq foydalanilishi sababli, ularning nutqida deadline – dedlayn, method – metod, laboratory – laboratoriya, essay – esse, patent – patent, quote - kvota kabi leksik birlik mustahkam o'rin egallagan. O'z navbatida aytish lozimki, birinchi navbatda yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga asosiy sabab mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro diplomatik hamkorlik va kelishuvlar bo'lsa, ikkinchidan, qabul qiluvchi tilning kognitiv maydonida mos keluvchi tushuncha mavjud emasligi va unga mos nominativ so'z yo'qligi bilan izohlanadi. G.Paulning fikriga ko'ra, muayyan til qatlamiga yangi leksik birliklar faqatgina madaniy ta'sir ostida va mavhum bo'lmagan so'zlarni qo'llash orqali ekstralingvistik omillar ta'sirida kirib keladi. A.P. Mayorovning e'tirof etishicha, “xorijiy yangi so'zlar muloqot va tasvirlash imkoniyatlarini rivojlantirish va kengaytirish maqsadida, ya'ni tushunchalar hajmini kengaytirish, yangi tushunchalarning nominativ xususiyatlariga, ya'ni ta'rifiga emas, uning funktsional-semantik xususiyatlariga, vazifaviy jihatdan nimani anglatishiga, shuningdek, qisqa va ixcham tarzda nomlash orqali muloqotni tinglovchiga yengillashtirish uchun kirib kelishiga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi” O'zbek tili ta'lim sohasi tizimida keng qo'llaniladigan leksik qatlamning asosiy qismi rus tili ta'siri ostida shakllangan. Istiqlolgacha talaba va oliy ta'lim terminlari nisbatan kamroq qo'llanilgan. Ularning muqobili sifatida rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan student, stipendiya, kontrakt

terminlari muloqotda faolroq edi. Leksik birliklar nafaqat og'zaki nutq orqali, balki ta'lim sohasi bo'yicha nashr etilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy-ommabop asarlar, turli lug'atlarga ham o'zlashib kirib kelmoqda. Ushbu birliklar lug'atlarda o'z ifodasini to'g'ri topishi, aksar leksik birliklar o'zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida tushunchalarni aniq va ravon ifodalashi, mazkur jarayonning hozirgi zamon talab darajasida bo'lishini ta'minlash tilshunos olimlarning asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda. Yurtimizda kuzatilgan pandemiya sharoitida ta'lim sohasida yana online, offline, akademik mobile, elektron blok kabi so'zlar paydo bo'ldi. Chunki o'sha paytlarda talabalar uyda masofaviy shaklda ta'limni davom ettirishgan, yuqoridagi terminlar aynan ana shu sharoit natijasida kirib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va barcha mintaqalararo tadqiqotlar instituti rasmiy sayti <https://isrs.uz/uz/ozbekiston-yangiliklari>
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12-jild. – T: "O'zbekiston milliyensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.
3. O'.Asqarova va boshqalar Pedagogikadan Izoli lug'at T: Navro'z 2016

LEKSIKOLOGIYANING OBYEKTI, PEDMETI VA VAZIFALARI

Davlatboyeva Ro'za Tozaboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

rozadavlatboyeva1@gmail.com

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksikologiya fanining predmeti, obyekti va vazifalari yoritiladi. Tilshunoslikning muhim sohasi bo'lgan leksikologiya so'zlarning ma'nosi va ularning semantik munosabatlarini o'rganadi. Maqolada leksikologiya boshqa tilshunoslik sohalari bilan bog'liqligi haqida tushuntirishlar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Leksikologiya, obyekti, predmeti, vazifasi, til tizmi, leksik birlik, lug'at tarkibi, semantika.

Аннотация В данной статье освещаются предмет, объект и задачи науки лексикологии. Лексикология, являясь важной отраслью языкознания, изучает значение слов и их семантические отношения. В статье также даются объяснения о связи лексикологии с другими разделами языкознания.

Ключевые слова: Лексикология, объект, предмет, задачи, лексическая единица, словарный состав, семантика.

Annotation This article discusses the subject, object, and tasks of lexicology. As an important branch of linguistics, lexicology studies the meanings of words and their semantic relations. The article also provides explanations about the connection of lexicology with other branches of linguistics.

Keywords: Lexicology, object, subject, tasks, lexical unit, vocabulary, semantics.

Leksikologiya (leksika va ...logiya) — tilshunoslikning lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limidir. U har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, etimologiya, stilistika va so'z yasalishi haqidagi ta'limot kabi sohalari bilan chambarchas bog'liqdir. Leksikologiya eng kichik sohasi bu leksema hisoblanadi. Leksikologiya atamasi yunonchadan olingan bo'lib so'z yoki so'z uchun, boshqa ma'nolarda esa „o'rganish, mulohaza yuritish, tushuntirish, mavzu“ degan ma'noda ham ishlatilishi mumkin.. Leksikologiya so'zlarning ma'nosini va ularning semantik munosabatlarini o'rganadi.

Leksikologiyaning obyekti — bu tilning leksik boyligi, ya'ni soʻzlar tizimi va ularning maʼnolarini oʻrganadi. Har bir tilda mavjud barcha soʻzlar, iboralar, frazeologik birliklar, terminlar, dialektal soʻzlar va yangi paydo boʻlgan soʻzlar leksikologiyada oʻrganiladigan asosiy material hisoblanadi. Tilning lugʻat tarkibi doimiy ravishda oʻzgarib, boyib boradi. Shu bois leksikologiya soʻzlarning kelib chiqishi, maʼnosining oʻzgarishi, stilistik qoʻllanilishi hamda leksik tizimdagi oʻzaro aloqalarini tahlil qilib boradi.

Leksikologiyaning predmeti — bu tilning leksik tizimini, ya'ni soʻzlar va ularning maʼnolari, shakllari hamda oʻzaro munosabatlarini oʻrganish hisoblanadi. Leksikologiya tilshunoslikning soʻz va soʻz boyligini tahlil qiluvchi boʻlimi sifatida tilning lugʻat tarkibini chuqur oʻrganadi. Leksikologiyaning predmeti doirasida avvalo leksik birliklar — ya'ni soʻz, murakkab soʻz, ibora, frazeologik birikmalar kabi birliklarning tuzilishi, maʼnosi va qoʻllanish holatlari tahlil qilinadi. Fanning predmeti shuningdek soʻzlarning semantik tizimini ham oʻz ichiga oladi. Bunda sinonimlar, antonimlar, omonimlar, polisemiya kabi semantik hodisalar, koʻchma maʼnolarning (metafora, metonimiya, sinekdoxa) shakllanishi va rivojlanishi oʻrganiladi. Shunday qilib, leksikologiya soʻzlarning nafaqat lugʻaviy maʼnosini, balki ularning kontekstual maʼnolarini ya'ni nutqdagi ishlatilish imkoniyatlarini oʻrganib tahlil qilib boradi.

Leksikologiyaning vazifasi - Leksikologiyaning asosiy vazifasi bu tilning lugʻat tarkibini (leksikasini) oʻrganishdir, jumladan soʻzlarning maʼno xususiyatlarini, kelib chiqishini, qoʻllanish doirasini va ular oʻrtasidagi tizimli munosabatlarni tadqiq qilishdan iborat.

Leksikologiya quyidagi vazifalarni bajaradi: Soʻzlarning maʼno xususiyatlarini tadqiq qilish: Har bir soʻzning maʼnosi, uning turli maʼnolari va bu maʼnolar qanday shakllanishi oʻrganib boriladi. Soʻzlarning kelib chiqishini ya'ni etimologiyasini oʻrganish: Soʻzlarning qaysi tildan olinganligi, tarixan qanday oʻzgarishlarga uchragani va qanday rivojlanganini tadqiq etadi. Soʻzlar oʻrtasidagi tizimli munosabatlarni aniqlash: Sinonim (oʻxshash maʼnoli), antonim (ziddiyatli maʼnoli), polisemik (koʻp maʼnoli) va boshqa soʻzlar orasidagi munosabatlar tadqiq etiladi. Shuningdek, leksikologiya etimologiya (soʻzlar tarixi), frazeologiya (iboralarni oʻrganish) va leksikografiya (lugʻat tuzish) kabi sohalar bilan chambarchas bogʻliqdir, chunki bu sohalar soʻzlarning leksik xususiyatlarini toʻliq ochib berishga yordam beradi.

Semantika — tilshunoslikning soʻz, ibora va gaplarning maʼnosini, mazmunini hamda ularning tildagi munosabatlarini oʻrganadigan boʻlimidir. U til birliklarining

ma'no tizimini, ma'no o'zgarishlarini, kontekstda ma'no hosil bo'lish jarayonlarini tadqiq etadi. "Semantika" termini yunoncha "semantikos" — "belgi bildiruvchi, ma'no anglatuvchi" degan ma'nolarni bildiradi. Tilshunoslikda semantika bir necha tarmoqlarga ajratiladi:

Leksik semantika — so'zlarning lug'aviy ma'nosini, ularning o'zaro semantik aloqalarini (sinonimiya, antonimiya, polisemiya, giperonimiya, giponimiya va boshqalar) o'rganadi.

Grammatik semantika — grammatik shakllarning ma'nosini, ularning nutqdagi ma'no ifodalash imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Mantiqiy semantika esa ma'noni mantiqiy tushunchalar bilan bog'laydi, ya'ni til birliklarining tushunchaviy mazmunini o'rganadi.

Semantikaning asosiy maqsadi — tildagi ma'no tizimini aniqlash, so'zning leksik ma'nosi bilan kontekstual ma'nosi o'rtasidagi farqni belgilash va ma'no taraqqiyoti qonuniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shu bois u leksikologiya bilan uzviy aloqada bo'lib, so'z boyligining mazmunini chuqurroq o'rganadi.

Leksik birliklar — leksika (lug'at)dagi alohida, ma'lum bir mazmunni ifodalovchi birliklardir, ya'ni ular lug'atdagi asosiy elementlar hisoblanadi va so'zlar, iboralar, frazeologizmlar kabi ko'rinishlarda bo'lishi ham mumkin. Ular muayyan obyektiv voqelikni (narsa, hodisa, belgi, harakat) ifodalab, tilning moddiy qismini tashkil etadi va ma'lum bir ma'no (lug'aviy, leksik) egasi bo'ladi.

Leksik birliklarning asosiy turlari:

So'zlar: Bu leksik birliklarning eng asosiy ko'rinishidir. Har bir so'z ma'lum bir obyektiv voqelikni ifodalaydi, masalan, "bola" so'zi yosh, voyaga yetmagan shaxsni, "o'yna" so'zi harakatni bildiradi.

Frazeologik birliklar (iboralar): Bir necha so'zlarning birikishidan hosil bo'lib, umumiy ma'no beruvchi ko'chma iboralardir. Masalan, "og'zi qulog'ida" — bu ibora "juda xursand" degan ma'noni bildiradi.

Lug'aviy ma'no: Leksik birlikning o'ziga xos mazmuni bo'lib, u shu so'zning aniq mazmunini (narsa, belgi, harakat tushunchalarini ifodalash, emotsiyalarni bildirish) tashkil etadi.

Leksik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari:

Moddiy qism: Ular tovushlar majmuidan iborat va tilning moddiy qismini tashkil etadi.

Ma'no ifodalash: Har bir leksik birlik muayyan obyektiv voqelikni anglatib, ma'lum bir ma'noga ega bo'ladi.

Mustaqillik: Leksik birliklar, ayniqsa soʻzlar, mustaqil holda qoʻllanib, lugʻat tarkibini tashkil qiladi.

Lugʻat tarkibi - Har bir tilning lugʻat tarkibi oʻziga xos tarixiy taraqqiyot yoʻliga ega boʻlib, u jamiyatning madaniy, ilmiy, siyosiy va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bogʻliqdir. Til rivojlanib borgan sayin lugʻat tarkibi ham doimiy ravishda boyib, yangilanib va oʻzgarib boradi. Lugʻat tarkibi ikki asosiy qismga boʻlinadi: 1. Faol lugʻat tarkibi (aktiv soʻzlar) Bu tilda hozirgi zamonda faol qoʻllaniladigan soʻzlardir. Ular kundalik nutqda, ommaviy axborot vositalarida, adabiyotda keng ishlatiladi. Masalan: maktab, telefon, oʻqituvchi, kompyuter, internet va hokazo. Nofoal lugʻat tarkibi (passiv soʻzlar): Bular kam qoʻllaniladigan yoki unutilib borayotgan soʻzlardir. Ular orasiga arxaizmlar (eskirgan soʻzlar), tarixiy soʻzlar, dialektal soʻzlar kiradi. Masalan: yov, sipoh, dorboz, sarkarda, dron va boshqalar. Lugʻat tarkibini oʻrganish leksikologiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki tilning lugʻat tarkibi orqali xalqning dunyoqarashi, madaniyati, turmush tarzi va tarixiy taraqqiyoti aks etadi. Shu sababli lugʻat tarkibi tildagi barcha leksik birliklarning tizimli yigʻindisi boʻlib, u tilning boyligi va rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak Tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri boʻlgan leksikologiya fani tilning leksik tizimini, yaʼni soʻzlarning maʼnosi, shakli, kelib chiqishi va oʻzaro munosabatlarini oʻrganadigan boʻlimidir. Leksikologiya fani soʻzning lugʻaviy va grammatik xususiyatlarini, maʼno oʻzgarishlarini, koʻchma maʼno hosil boʻlish jarayonlarini hamda leksik birliklarning nutqdagi oʻrnini chuqur ilmiy tahlil qiladi. Leksikologiya nafaqat tilni boyitadi, balki inson tafakkurini, milliy ong va madaniyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmonov, A. Tilshunoslik nazariyasi asoslari. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Saidov, S. Oʻzbek tili leksik tizimi va uning rivojlanish xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2010.
3. Abduazizov, A. A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
4. Hojiev, A. Tilshunoslik nazariyasi asoslari. — Toshkent: Fan, 1987.
5. Madvaliyeva, G. Leksikologiya va frazeologiya. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2014.

NUTQ KO'RINISHLARIGA XOSLANGAN LEKSEMALARNING BADIY ASAR TILIDA QO'LLANISHI

Sobirova Dilnoza Sherzod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

dilnozasobirba@gmail.com

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq ko'rinishlariga xoslangan leksemalarning badiiy adabiyot tilida qo'llanishi tahlil qilinadi. Leksemalar nutqning shaxsiy, norasmiy va badiiy xususiyatlarini ochishda muhim o'rin tutadi. Nutq ko'rinishlari orqali badiiy matnning yanada jonli, ifodali va o'quvchiga yaqin bo'lishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Nutq ko'rinishi, leksema, badiiy til, dialog, monolog, uslubiy vosita.

Аннотация: В данной статье анализируется употребление лексем, характерных для речевых форм, в языке художественной литературы. Лексемы играют важную роль в раскрытии личных, неофициальных и художественных особенностей речи. Отмечается, что через различные формы речи художественный текст становится более живым, выразительным и близким читателю.

Ключевые слова: речевая форма, лексема, художественный язык, диалог, монолог, стилистическое средство.

Annotation : This article analyzes the use of lexemes characteristic of speech forms in the language of fiction. Lexemes play a crucial role in revealing the personal, informal, and artistic features of speech. It is emphasized that through various speech forms, a literary text becomes more vivid, expressive, and relatable to the reader.

Keywords: speech form, lexeme, literary language, dialogue, monologue, stylistic device.

Badiiy adabiyot tilida nutq ko'rinishlari — bu asarda qahramonlarning so'zlash uslubi, ularning shaxsiy nutq uslublari ifodalashda yordam beruvchi til vositalari majmuasidir. Har bir qahramon o'z nutq ko'rinishi orqali o'zining ijtimoiy mavqei, milliylik xususiyatlari, yoshiga xosligi va ta'lim darajasini ko'rsatadi. Shu sababli, nutq ko'rinishlari badiiy matnga jonli va tabiiylik bag'ishlaydi, uni o'quvchiga yanada yaqinlashtiradi.

Leksemalar esa nutqning eng kichik ma'noli birliklari sifatida, qahramon xarakterini, ruhiyatini va davr muhitini aks ettirishda katta ahamiyatga ega. Leksemalar orqali muallif o'z asaridagi qahramonlarning shaxsiy xususiyatlarini, nutq madaniyatini, shuningdek, ularning jamiyatdagi o'rnini ham ifodalaydi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda leksemalarning noan'anaviy, dialekt, argo yoki jargon shaklida qo'llanilishi orqali qahramonlar yanada real va hayotiy ko'rinish kasb etadi.

Nutq ko'rinishlariga xoslangan leksemalarning o'rganilishi badiiy matnning o'ziga xosligini chuqurroq anglash imkonini beradi, shuningdek, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, nutq ko'rinishlari va ularning leksemalarga ta'siri badiiy uslubni boyitish, qahramonlarning obrazini yanada chuqurlashtirish va o'quvchining matnga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Shu nuqtai nazardan, nutq ko'rinishlariga xos leksemalarning badiiy asarlarda qo'llanilishi nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik sohalarida ham muhim ilmiy muammo hisoblanadi.

Nutq ko'rinishlari badiiy adabiyot tilining eng muhim elementlaridan biridir. Ular asarda qahramonlarning so'zlash uslubini, shaxsiy nutq madaniyatini va ularning ijtimoiy hamda psixologik holatini ochib berishda xizmat qiladi. Nutq ko'rinishlari — bu so'zlashuvning shaxsiy va kontekstga bog'liq shakllari bo'lib, ular orqali muallif o'z qahramonlarini yanada jonli, tabiiy va o'ziga xos qilib ko'rsatadi. Badiiy matnda nutq ko'rinishlari nafaqat obrazlarni shakllantirishda, balki asarning umumiy uslubiy ohangini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi.

Nutq ko'rinishlarining o'ziga xosligi shundaki, ular har bir qahramonning o'ziga xos nutq madaniyatini ifodalaydi. Masalan, qahramonlarning yoshiga, ijtimoiy mavqega, ta'lim darajasiga qarab, ularning nutq uslubi ham farq qiladi. Yosh qahramonlarning nutqida ko'proq norasmiy, shaxsiy, argo yoki jargon so'zlar uchrashi mumkin, bu esa ularning tabiiyligini va real hayotdagi holatga yaqinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, katta yoshdagi yoki yuqori ijtimoiy mavqega ega qahramonlarning nutqi odatda rasmiyroq, shakllangan va odob-axloq qoidalariga mos keladi. Ushbu farqlar badiiy asarga rang-baranglik va hayotiylik olib kiradi.

Nutq ko'rinishlari leksemalar orqali yanada aniqlik va ifodalilik kasb etadi. Leksemalar — nutqning eng kichik ma'noli birliklari sifatida, qahramonning tilini yanada boyitadi. Ular yordamida qahramonning o'ziga xosligi, ijtimoiy guruhdagi o'rnini, milliy yoki hududiy xususiyatlari ochib beriladi. Misol uchun, dialektal so'zlar yoki mahalliy lahjada qo'llanilgan leksik birliklar o'quvchiga qahramonning kelib

chiqishini aniqroq anglashga yordam beradi. Argo va jargon soʻzlari esa yoshlar yoki maʼlum bir kasb vakillarining nutqini jonlantiradi, ularning ijtimoiy guruhini aks ettiradi.

Badiiy asarlarda nutq koʻrinishlari asosan dialoglar va monologlar shaklida namoyon boʻladi. Dialoglar orqali qahramonlarning oʻzaro munosabatlari, fikr va his-tuygʻulari bevosita ifodalanadi, ular matnga jonli va tabiiy ohang beradi. Monologlarda esa qahramonlarning ichki dunyosi, his-tuygʻulari va ruhiy holati batafsil ochib beriladi. Shunday qilib, nutq koʻrinishlari orqali badiiy matnning psixologik va dramatik tuzilishi mustahkamlanadi.

Quyidagi jadvalda nutq koʻrinishlariga xos leksemalarning badiiy asardagi qoʻllanilishi va ularning vazifalari keltirilgan. Bu jadval nutq koʻrinishlarining badiiy tilga taʼsirini aniqroq tushunishga yordam beradi:

Nutq koʻrinishi	Leksemalar turlari	Badiiy asardagi vazifasi	Misol soʻzlar
Shaxsiy nutq	Argo, jargon, dialekt	Qahramon xarakterini, yoshini va ijtimoiy guruhini koʻrsatish	“Qalaysan?”, “oshqovoq”
Rasmiy nutq	Terminologiya, ilmiy soʻzlar	Muayyan ijtimoiy qatlam yoki kasbga xos nutqni taʼriflash	“Hisobot”, “qaror”
Norasmiy nutq	Kuzatuvchan soʻzlar, sokin iboralar	Dialoglarni jonlantirish, yaqinlik va samimiylilik yaratish	“Yoʻq”, “ha”, “gap yoʻq”
Ichki nutq (monolog)	Emotsional soʻzlar, his-tuygʻu ifodalari	Qahramonning ruhiy holatini ochib berish	“Qoʻrqaman”, “sevgilim”

Nutq koʻrinishlari badiiy uslubni boyitishda muhim vosita hisoblanadi. Ular yordamida muallif qahramonlarni yanada hayotiy va samimiy koʻrsatadi, ularning shaxsiy nutq madaniyatini ochib beradi. Shuningdek, nutq koʻrinishlari orqali ijtimoiy qatlamlar, hududiy va milliy oʻziga xosliklar, yoshga xosliklar ham ifodalanadi. Bu esa oʻquvchiga matnni yanada teranroq qabul qilish va qahramonlarni yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi. Nutq koʻrinishlarining badiiy adabiyotda qoʻllanilishi

matnning nafaqat mazmuniy, balki uslubiy jihatlarini ham boyitadi, adabiy asarning umumiy san'ati va mazmuniy-dramatik tarkibini yanada mukammal qiladi.

Shunday qilib, nutq ko'rinishlari va ularga xos leksemalar badiiy adabiyot tilining ajralmas qismidir. Ular yordamida muallif o'z asarini yanada jonli, ifodali va qiziqarli qiladi, qahramonlar tasvirini chuqurlashtiradi va o'quvchini matn bilan yanada yaqinlashtiradi.

Nutq ko'rinishlariga xoslangan leksemalar badiiy adabiyot tilining ajralmas va muhim tarkibiy qismidir. Ular nafaqat qahramonlarning shaxsiyati va xarakterini ochib berishda, balki ularning ijtimoiy mavqei, yosh xususiyatlari, ta'lim darajasi va psixologik holatini ifodalashda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Nutq ko'rinishlari yordamida muallif asardagi voqealarni yanada jonli, tabiiy va hayotga yaqin tarzda yetkazadi, qahramonlarning ichki dunyosini, fikr va his-tuyg'ularini o'quvchiga bevosita etkazish imkonini yaratadi.

Shuningdek, nutq ko'rinishlari badiiy matnning mazmuniy chuqurligini oshiradi, uning uslubiy rang-barangligini boyitadi. Leksemalarning turli nutq ko'rinishlariga moslashuvi orqali badiiy asar yanada ko'p qirrali bo'ladi, o'quvchi uchun esa qahramonlar bilan muloqot qilish, ularni yaxshiroq tushunish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, badiiy matnning o'quvchida kuchli hissiy ta'sir qoldirishiga yordam beradi.

Badiiy adabiyot tilidagi nutq ko'rinishlari orqali muallif ijtimoiy, milliy va madaniy kontekstlarni ifodalashi, qahramonlarning turli qatlamlarini yoritishi mumkin. Leksemalarning nutq ko'rinishlariga mos ravishda qo'llanilishi esa badiiy matnning realistikligi va uslubiy mukammalligini ta'minlaydi. Bu jihatlar badiiy matnni nafaqat san'at asari, balki o'sha davr madaniyati, hayoti va odatlarini aks ettiruvchi hujjatga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, nutq ko'rinishlariga xos leksemalar badiiy adabiyot tilining mazmun va uslubining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida qahramonlar hayotiylik kasb etadi, asar mazmuni boyiydi va o'quvchi uchun yanada qiziqarli va ta'sirchan bo'ladi. Shu sababli, nutq ko'rinishlari va ularga xos leksemalarning o'rganilishi tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari uchun katta ahamiyatga ega va badiiy asarlarni chuqurroq tushunishda muhim ilmiy vazifani bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sobirov, M. (2010). **O'zbek tilining badiiy uslubi**. Toshkent: Fan, 45–78 betlar.

2. Karimov, A. (2015). **Nutq ko'rinishlari va badiiy matn**. Toshkent: Akademiya, 23–59 betlar.
3. Xolmirzaev, D. (2018). **Badiiy til va uslubiy vositalar**. Toshkent: Universitet, 12–44 betlar.
4. Rashidov, B. (2020). **O'zbek badiiy tilining leksemasi**. Toshkent: Ilm, 30–67 betlar.
5. Karimova, N. (2017). **Adabiyot tili va nutq ko'rinishlari**. Toshkent: Nashr, 50–88 betlar.
6. Jamolxonov, H. (2013). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 232-236 betlar

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA NUTQ MADANIYATI MASALALARI

Noila Ergasheva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-kurs 25|1-guruh talabasi

noilaergasheva96@gmail.com

Ilmiy rahbari: f.f.f.dot., Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollarida nutq madaniyati masalalari yoritilgan. Maqollar xalqning donoligi, so'z boyligi va odob-axloq mezonlarini o'zida mujassam etgan. Ular insonni so'zlash, tinglash, muomala qilish madaniyatiga o'rgatadi. Nutq madaniyati nafaqat to'g'ri talaffuz yoki grammatik to'g'rilik, balki so'zning ma'naviy kuchini anglashni ham talab qiladi. Maqollarda so'zning qadri, odobli gapirish, yolg'on va g'iybatdan tiyilish, boshqani hurmat bilan eshitish kabi fazilatlar aks etadi. Xalq donishmandligi orqali nutq madaniyati yoshlar tarbiyasida, jamiyatda sog'lom muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

KALIT SO'ZLAR: nutq madaniyati, maqol, til madaniyati, so'z odobi, muloqot, xalq donoligi, axloq va adob, yolg'on so'zlar, g'iybat, to'g'rilik, tinglash madaniyati, tarbiya

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются вопросы культуры речи в узбекских народных пословицах. Пословицы воплощают мудрость, словарный запас и нормы этикета народа. Они обучают человека культуре говорения, слушания и общения. Культура речи требует не только естественного правильного произношения или грамматической грамотности, но и понимания духовной силы слова. Пословицы отражают такие качества, как ценность слова, вежливая речь, воздержание от лжи и сплетен, уважительное отношение к окружающим. Благодаря народной мудрости молодёжь играет важную роль в воспитании культуры речи и соблюдении культуры здорового общения в обществе.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: культура речи, пословица, культура языка, речевой этикет, общение, народная мудрость, мораль и этикет, ложь, сплетни, честность, культура слушания, воспитание.

ANNOTATION. This article discusses the issues of speech culture in Uzbek folk proverbs. Proverbs embody the wisdom, vocabulary, and standards of etiquette of the people. They teach a person the culture of speaking, listening, and communication. Speech culture requires not only correct pronunciation or grammatical correctness, but also an understanding of the spiritual power of the word. Proverbs reflect such qualities as the value of the word, polite speech, refraining from lies and gossip, and listening to others with respect. Through folk wisdom, speech culture plays an important role in the upbringing of youth and the formation of a culture of healthy communication in society.

KEYWORDS: speech culture, proverb, language culture, speech etiquette, communication, folk wisdom, morality and etiquette, lying, gossip, honesty, listening culture, education

O'zbek xalq maqollarida nutq madaniyati xalq hayotining ajralmas qismi sifatida aks etadi. "Yaxshi so'z – jon ozig'i", "Tilga e'tibor – elga e'tibor", "Og'izdan chiqqan so'z – otilgan o'q" kabi maqollar so'zning kuchini, mas'uliyatini va ta'sirini chuqur ifodalaydi. Xalqimiz so'zlash odobi, muomala madaniyatini qadimdan yuqori darajada qadrlagan. So'zning to'g'riligi, mazmuni, ohangi va maqsadi har bir nutqning madaniy darajasini belgilaydi.

Maqollar insonni faqat so'z bilan emas, balki so'z ortidagi ma'naviyat bilan ham tarbiyalaydi. "Yaxshi so'z – yarim davlat", "O'ylab so'zla – o'zingga foyda" degan hikmatlarda fikrni mulohazali, ehtiyotkorlik bilan ifoda etish zarurligi ta'kidlanadi. Xalq tili va donoligi orqali nutq madaniyati insonning ichki dunyosini, axloqini, fikrlash madaniyatini shakllantiradi. O'zbek maqollarida til va odob bir butun tushuncha sifatida ko'riladi. "Til – inson ko'zgusi", "Til – el yuragi" kabi maqollar tildagi madaniyatni xalqning ma'naviy darajasi bilan bog'laydi. Shuningdek, "Yomon so'z – yurakka tig'", "So'zni o'yla, so'ng ayt" kabi maqollar muloqotda ehtiyotkorlik va madaniylikni targ'ib etadi. Demak, maqollar xalqning og'zaki tili orqali tarbiya, ma'naviyat va madaniyatni uzatadi. Ular o'qituvchilar, tilshunoslar va tarbiyachilar uchun ham muhim manba hisoblanadi, chunki ular orqali nutq madaniyatining mohiyatini o'rganish va yosh avlodga singdirish mumkin. Nutq madaniyati — bu insonning so'zlash, fikr bildirish va muloqot jarayonida adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda, aniq, ravon va ta'sirchan so'zlash san'atidir. U shaxsning umumiy madaniyatini, ma'naviy saviyasini aks ettiradi. Nutq madaniyati orqali inson boshqalar bilan hurmatli, tushunarli va samimiy aloqa o'rnatadi. Maqol — xalqning asrlar

davomida to'plangan hayotiy tajribasini ifodalovchi hikmatli so'zdir. Unda xalq donoligi, axloqiy qarashlar va nutq madaniyatining mezonlari mujassam. Maqollar qisqa, ammo chuqur ma'no yuklaydi. Ular nutqni mazmunli va obrazli qiladi. Til madaniyati — bu tilni to'g'ri, o'rinli va estetik jihatdan chiroyli qo'llash qobiliyatidir. U nafaqat grammatik to'g'rilikni, balki so'zning ruhiy va ma'naviy ta'sirini ham o'z ichiga oladi. O'zbek xalq maqollarida tilni pok tutish, yomon so'zlardan tiyilish targ'ib qilinadi. So'z odobi — bu so'zlashda axloqiy me'yorlarga amal qilish, hurmat bilan gapirish, muloyimlikni saqlashdir. Maqollarda “Yaxshi so'z — jon ozig'i” degan fikrlar so'zning qadri va odobli nutqning ahamiyatini ko'rsatadi. To'g'ri so'zlash insonning tarbiyasini bildiradi. Muloqot — insonlar o'rtasida o'zaro tushunish va fikr almashish jarayonidir. U jamiyat hayotining asosiy shaklidir. Maqollar muloqotda so'z tanlash, tinglash va hurmat saqlashni o'rgatadi. Madaniyatli muloqot ijobiy munosabatni shakllantiradi. Xalq donoligi maqollar orqali avloddan avlodga o'tadi. U hayotiy tajriba, axloqiy qadriyatlar va nutq madaniyatining manbaidir. Donolik so'z orqali ifodalanadi, shuning uchun xalq “So'z — donolik kaliti” deb bejiz aytmagan. Axloq va adob — insonni go'zal fazilatlar sari yetaklovchi tamoyillardir. Maqollarda odobli so'z, muloyim gap, hurmat bilan muloqot qilish targ'ib qilinadi. “Odob — inson ziynati” degan maqol nutq va xulqning bog'liqligini ifodalaydi. Yomon so'zlar inson sha'nini kamsitadi, muloqotda salbiy muhit yaratadi. O'zbek maqollarida “Yomon so'z — yurakka tig'” kabi iboralar orqali og'izdagi so'zga ehtiyot bo'lish kerakligi eslatiladi. So'z bilan yurakni og'ritmaslik nutq madaniyatining belgisi. G'iybat jamiyatda ishonchni buzadi va axloqiy qadriyatlarga zarar yetkazadi. Maqollarda g'iybatdan tiyilish, to'g'ri so'zlash va sir saqlash targ'ib etiladi. “G'iybatchi — dushmanga ham dard, do'stga ham zarar” degan maqol bunga misoldir.

Tinglash madaniyati muloqotning muhim jihatini bo'lib, suhbatdoshga hurmat ko'rsatish demakdir. Maqollarda “Tinglagan bilgan, gapirgan o'rgangan” kabi fikrlar bilan bu fazilat ulug'lanadi. Ehtiyotkorlik bilan tinglash bilim va donolik belgisidir. To'g'rilik — bu insonning so'zida, ishida va fikrida rostgo'ylik hamda halollikka amal qilishi demakdir. To'g'ri odam har qanday vaziyatda haqiqatni aytadi, yolg'on, aldov va ikkiyuzlamachilikdan yiroq bo'ladi. U adolatni qadrlaydi, boshqalar ishonchini oqlaydi. To'g'rilik jamiyatda ishonch va mehr-muhabbatning asosini yaratadi. Shu sababli u inson axloqining eng yuksak fazilatlaridan biri sanaladi.

Tarbiya — insonda axloq, odob va nutq madaniyatini shakllantiruvchi jarayondir. Maqollar orqali yoshlarga to'g'ri so'zlash, yaxshi so'z ishlatish o'rgatiladi. “Bolaga so'z bilan tarbiya ber” degan hikmat xalq tarbiyasining asosini ifodalaydi.

O'zbek xalq maqollari – milliy tafakkur durdonasi bo'lib, ularda nutq madaniyatining barcha jihatlari mujassam. Har bir maqolda odob, axloq, fikr madaniyati, so'zning qudrati ifoda topgan. Maqollar orqali inson so'zning mas'uliyatini anglaydi, uni o'rinli, to'g'ri va go'zal ishlatishni o'rganadi. Shu bois, maqollar nutq madaniyatini shakllantirish, yoshlarni to'g'ri so'zlash va tinglash madaniyatiga o'rgatishda beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Qodirov N. O'zbek tili madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
3. Rahmatullayev Sh. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2013.
4. O'zbek xalq maqollari to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2009.
5. Jo'rayev A. Muloqot madaniyati va nutq odobi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

O'ZBEK TILIDAGI METAFORIK BIRLIKLARNING KOGNITIV TAHLILI

Fayzullayeva Dinara Ilhom qizi

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

23/5 guruh 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi metaforik birliklarning kognitiv tahlili amalga oshiriladi. Metaforaning klassik va kognitiv talqinlari solishtiriladi, konseptual, poetik va kundalik nutqda uchraydigan metafora turlari misollar asosida yoritiladi. O'zbek xalq maqollari, adabiy asarlar va zamonaviy til namunalari asosida metaforalarning milliy tafakkur va madaniyatni ifodalashdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Metafora, kognitiv lingvistika, konseptual tizim, o'zbek tili, milliy tafakkur, timsollar, poetik obraz.

Abstract. This article provides a cognitive analysis of metaphorical units in the Uzbek language. It compares classical and cognitive interpretations of metaphor and explores the types of metaphors (conceptual, poetic, and colloquial) through examples. Based on Uzbek proverbs, literary works, and modern language usage, the study highlights the role of metaphors in expressing national thinking and cultural identity.

Keywords: metaphor, cognitive linguistics, conceptual system, Uzbek language, national thinking, symbols, poetic imagery.

Аннотация. В данной статье проводится когнитивный анализ метафорических единиц в узбекском языке. Сопоставляются классическая и когнитивная интерпретации метафоры, рассматриваются типы метафор (концептуальные, поэтические и разговорные) на основе примеров. На материале узбекских пословиц, художественных произведений и современных языковых единиц анализируется роль метафор в отражении национального мышления и культуры.

Ключевые слова: метафора, когнитивная лингвистика, концептуальная система, узбекский язык, национальное мышление, образы, поэтический образ

Til – inson tafakkurining ifodasi bo'lib, u orqali nafaqat muloqot, balki milliy dunyoqarash, madaniyat va ijtimoiy ong ham shakllanadi. Tilshunoslikda metafora hodisasi uzoq vaqt davomida faqatgina badiiy bezak vositasi sifatida talqin etilgan. Ammo kognitiv lingvistikaning shakllanishi natijasida metafora inson tafakkurining

asosiy mexanizmlaridan biri ekanligi ilmiy asosda isbotlandi. Shu bois o'zbek tilidagi metaforik birliklarni kognitiv nuqtayi nazardan tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir. Bugun tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha bilim va ko'nikmalar mavjud bo'lishiga qaramay, unga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa, til va psixik hodisalarning o'zaro ta'siridagi tadqiqotlarning dolzarblashuvi tufayli metaforologiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishi bilan bog'liqdir. So'nggi paytlarda metafora hodisasiga faylasuflar, mantiqchilar, sotsiologlar, psixologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va gumanitar fan vakillari ham muntazam ravishda murojaat qilmoqdalar. Ushbu metaforologik bunga turkiy bo'lib, metafora haqidagi kognitiv nazariyasida o'z ifodasini topgan metafora mohiyati haqidagi yangi g'oyalar edi. O'tgan asr so'ngida E.S. Kurbyakova "Kognitiv fan bu – dunyoni idrok etish, tasniflash, baholash va tushunish doirasida bilimlarni aks ettirish va saqlashni o'rganuvchi fan"dir deb yozadi. Kognitiv jarayondagi asosiy vazifa inson miyasining analogik qobiliyatlarining vosita sifatida metaforalar yordamida amalga oshiriladi. Kognitiv jarayonda inson ongining o'zlashtirish imkoniyatlarining namoyon bo'lishi sifatida metaforalar muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilida metaforalar bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Konseptual metaforalar – ular abstrakt tushunchalarni obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, hayot yo'l sifatida tasavvur qilinadi: "Hayot yo'lida to'siqlar ko'p."

2. Poetik metaforalar – adabiy asarlarda obraz yaratish uchun qo'llanadi. Navoiy asarlarida "ko'ngil daryosi", "ishq o'ti" kabi ifodalar bunga misol bo'ladi.

3. Kundalik nutqdagi metaforalar – odamlar o'rtasidagi oddiy muloqotda uchraydi: "yurak og'ridi", "fikr uchib ketdi", "yulduz bola" va h.k. Metafora inson tafakkurida abstrakt tushunchalarni konkret obyektlar orqali anglashga yordam beradi. O'zbek xalq tafakkurida nur, yo'l, daryo, tog', ko'ngil kabi timsollar eng ko'p uchraydi. Bu timsollar orqali nafaqat tilning obrazlilik, balki milliy dunyoqarash ham namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek maqollarida metafora keng qo'llanadi: "Ko'ngil – ko'l" (ya'ni inson qalbi ham cheksiz, ham toza bo'lishi mumkin), "Ilm – nur" (bilim insonni yoritadi). Bunday metaforik birliklar xalqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini ifoda etadi.

Metafora o'zbek tilida milliy mentalitetni ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi. U orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, madaniyati va tafakkur tarzi aks etadi. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan olib qaralganda, metafora inson

tafakkurining tuzilishida markaziy o'rin egallaydi va tilning obrazli imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jo'rayev A. O'zbek tilida metafora hodisasi. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Kurbyakova E.S. Kognitivnaya lingvistika. – Moskva: Nauka, 1994.
3. Mamatov Sh. Kognitiv lingvistika asoslari. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2012.
- 4.. Google. Metaphor in cognitive linguistics – <https://www.google.com> (mavzuga oid elektron qidiruv manbalari orqali olingan ma'lumotlar).

O'ZBEK TILI DIALEKTLARIDA QO'LLANILADIGAN SO'ZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA ADABIY TILNING TA'SIRI

G'aybullayeva Ruxshona A'zamxo'jayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi talabasi

rgaybullayeva17@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tili dialektlarida qo'llaniladigan leksik birliklarning lingvistik xususiyatlari va ularning adabiy tilga ta'siri yoritilgan. Dialektal leksika xalq og'zaki nutqida muhim o'rin egallashi, adabiy tilning boyib borishida va milliy tilning taraqqiyotida o'ziga xos manba bo'lishi tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, dialektal so'zlarning adabiy tilga singish jarayoni, ularning ijtimoiy va madaniy ahamiyati hamda muallifning erkin mulohazalari keltiriladi. Dialektal so'zlar, o'z navbatida, madaniy va ijtimoiy kontekstda qanday shakllanishi va rivojlanishi haqida ham ma'lumot beriladi. Shuningdek, dialektal va adabiy til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ularning bir-biriga ta'sirini va o'zaro almashuv jarayonlarini o'rganadi. O'zbek tilining xilma-xil dialektlari orqali tilning boyligi va rang-barangligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: dialekt, sheva, leksika, adabiy til, lingvistik xususiyat, xalq og'zaki ijodi, til taraqqiyoti

Abstract. This article discusses the linguistic characteristics of lexical units used in dialects of the Uzbek language and their influence on the literary language. The important place of dialectal lexis in folk speech, its role in the enrichment of the literary language and the development of the national language are analyzed. The article also presents the process of assimilation of dialectal words into the literary language, their social and cultural significance, and the author's free comments. Dialectal words, in turn, are also given information about how they are formed and developed in a cultural and social context. It also studies the interrelationship between dialectal and literary languages, their influence on each other, and the processes of mutual exchange. It emphasizes the richness and diversity of the language through its diverse dialects of the Uzbek language

Key words: dialect, dialect, lexicon, literary language, linguistic feature, folk oral literature, language development

Аннотатсия. В данной статье рассматриваются лингвистические особенности лексических единиц, используемых в диалектах узбекского языка, и их влияние на литературный язык. Анализируется важное место диалектной лексики в народной речи, её роль в обогащении литературного языка и развитии национального языка. В статье также представлен процесс ассимиляции диалектных слов в литературный язык, их социальное и культурное значение, а также даются свободные комментарии автора. Диалектные слова, в свою очередь, также даются сведения об их формировании и развитии в культурном и социальном контексте. В статье также изучается взаимосвязь диалектных и литературных языков, их влияние друг на друга и процессы взаимообмена. Подчеркивается богатство и многообразие языка через его разнообразные диалекты узбекского языка.

Ключевые слова: диалект, диалектная лексика, литературный язык, языковая особенность, народное устное творчество, развитие языка.

O'zbek tili, o'zining boy tarixi va madaniyati bilan birga, turli dialektlarga ega bo'lib, bu dialektlar tilning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Dialektlar, o'z navbatida, geografik, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanadi va ularning har biri o'ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarga ega. Ushbu maqolaning maqsadi, o'zbek tili dialektlarida qo'llaniladigan so'zlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish va ularning adabiy tilga ta'sirini o'rganishdan iborat. Dialektal so'zlar nafaqat tilning boyligini oshiribgina qolmay, balki milliy identitetni ham ifodalaydi. Ular orqali jamiyatning madaniy, tarixiy va ijtimoiy hayotini aks ettirish mumkin. Shuningdek, dialektal so'zlar adabiy tilga kirib, uning rivojlanishida yangi rang-baranglik va mazmun kiritadi. Biroq, dialektlar va adabiy til o'rtasidagi o'zaro aloqalar ko'pincha murakkab va ko'p qirrali bo'lishi mumkin.

O'zbek tilidagi dialektal so'zlar, avvalo, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, Xorazm shevasida "aylanmoq" o'rniga "dolanmoq", Toshkent shevasida "qovun" o'rniga "qovuncha" kabi variantlar ishlatiladi. Bunday farqlar xalqning turmush tarzi, tarixiy aloqalari va ijtimoiy muhitidan dalolat beradi. Dialektal leksikada: Arxaizmlar (eski so'zlar) ko'proq saqlanib qolgan. Mahalliy yangi so'zlar (neologizmlar) ham uchraydi. O'zlashma so'zlar (turkiy, arabiy, forsiy, ruscha unsurlar) dialektlarda o'ziga xos shaklda qo'llanadi. Dialektal so'zlarning adabiy tilga ta'siri ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: Boyituvchi ta'sir. Shevalarda qo'llaniladigan ko'plab so'zlar adabiy tilga kirib, lug'at tarkibini kengaytiradi. Masalan, "lagan", "choynak", "yantoq" kabi so'zlar dastlab

ma'lum hududlarda qo'llanilib, keyinchalik umumxalq tiliga singib ketgan. Ifoda rang-barangligi.

Dialektal so'zlar adabiy tilni yanada shirali, xalqona va obrazli qiladi. Xususan, badiiy adabiyotda yozuvchilar sheva unsurlaridan mahorat bilan foydalanib, asarlarga milliylik ruhini olib kirganlar. Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom kabi adiblarning asarlarida bu holni yaqqol ko'rish mumkin. Dialektal so'zlarni faqat "shevaga xos" deb chetga surib qo'yish to'g'ri emas. Ular milliy tilning jonli qatlamidir. Agar adabiy til faqat qoidalar bilan chegaralansa, u jonli so'zlashuvdan uzoqlashadi. Shu bois shevalar til boyligini saqlab qolishda, o'zbek tilining rang-barangligini namoyon etishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv davrida o'zbek tili xalqaro tillar bilan raqobat qilish jarayonida o'z milliy boyliglariga tayanmog'i zarur. Shunda dialektal leksikaning adabiy tilga ta'sirini chuqur o'rganish va undan samarali foydalanish masalasi dolzarb bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili dialektlarida qo'llaniladigan so'zlar nafaqat lingvistik jihatdan, balki madaniy-ma'naviy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Ular adabiy tilni boyitadi, xalqona ruh beradi, til taraqqiyotiga kuch bag'ishlaydi. Shuning uchun dialektal leksikani o'rganish, uni ilmiy asosda tasniflash va adabiy til rivojida oqilona qo'llash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiev A. O'zbek dialektologiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Jo'rayev M. O'zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Qodirov S. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Karimov N. Shevalar va adabiy til munosabati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2001–2005.

O'ZBEK TILIDA DINIY LEKSIKA TASNIFI**Gulsanam Saydillo qizi To'xtasinova**

CHDPU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi diniy leksikaning tasnifi hamda ularning semantik xususiyatlari yoritiladi. Diniy leksika tildagi qadimiy qatlamlardan biri bo'lib, milliy-ma'naviy merosni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda diniy terminologiya va diniy nutqning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish filologiya fanida dolzarb yo'nalishlardan biri sanaladi. Maqolada diniy leksik birliklarning kelib chiqishi, qo'llanish doirasi va turli guruhlariga ajratilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: din, leksika, diniy leksika, namoz, sajda.

Til jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan murakkab tizim bo'lib, u xalqning ma'naviyati, qadriyatlari va dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan diniy leksika tilning eng qadimiy qatlamlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida diniy atamalar, diniy iboralar va u bilan bog'liq so'zlar qadimdan qo'llanib kelinib, ular xalqning ijtimoiy, madaniy va diniy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan.

Bugungi kunda diniy leksikani lingvistik jihatdan tadqiq etish filologiya fanida keng rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki diniy leksik birliklar faqatgina diniy mazmunga ega bo'lib qolmay, balki xalqning dunyoqarashi, ma'naviy merosi va tarixiy tajribasini ham aks ettiradi.

Din arabcha so'z bo'lib, "e'tiqod", "ishonch", "itoat" ma'nolarini bildiradi. U qadimiy yozuvlar, mifologik qarashlar va rituellarga qat'iy amal qilish orqali shakllangan murakkab hodisa sifatida talqin qilinadi. Din shaxsiy e'tiqod va mistik kechinmalarning ifodasi bo'lishi bilan birga, xudo yoki g'ayritabiyy kuchlarga ishonch, muayyan ta'limotlar, diniy his-tuyg'ular, toat-ibodat hamda diniy tashkilotlar faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, u olam va hayot yaratilishi, inson mavjudligi haqidagi tasavvurlarni o'ziga xos tarzda idrok etishning shakli hisoblanadi.

Inson yashayotgan jamiyat, uning e'tiqodi va diniy qarashlari muayyan til birliklari orqali ifodalanadi. Shu bois diniy nutqda maxsus so'z va iboralar majmuasi – diniy leksika shakllanadi. Umuman olganda, leksika so'z va iboralar yig'indisi,

tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi qatlam bo'lib, u yangi so'zlarning qo'shilishi va ma'nolarning kengayishi natijasida doimo rivojlanib boradi. Demak, tilning har bir sohasida bo'lgani kabi, din bilan bog'liq alohida leksik qatlam ham mavjud bo'lib, u diniy tasavvurlar, marosimlar va qadriyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Diniy leksikalar hozirgi davrda keng tarqalgan va juda boy semantik qatlamlardan biri hisoblanadi. Ularning shakllanishi diniy qarashlar, marosimlar va e'tiqodiy an'analar bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir diniy atama o'ziga xos qo'llanish sohasi va leksik ma'noga ega bo'lib, til taraqqiyoti davomida ularning semantik qamrovi kengayib boradi.

Masalan, *masha'alloh* (yoki *mashallah*) so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, dastlab XIX asr boshlarida "Alloh xohlaganidek" yoki "Alloh xohlagan narsa" ma'nolarini anglatgan. Ushbu birlik musulmonlar ongida barcha yaxshi narsalar Alloh tomonidan ato etilishi va undan baraka kelishini ifodalash uchun qo'llanilgan. Vaqt o'tishi bilan mazkur atama semantik o'zgarishga uchrab, bugungi kunda ko'proq "ko'z tegmasin" iborasi o'rnida ishlatilmoqda. Bu holat diniy leksikalarning o'zgaruvchanligini, ularning yangi ijtimoiy-ma'naviy vazifalarni bajarishga moslashishini ko'rsatadi.

Shuningdek, diniy leksikaning boshqa namunalari ham xalq og'zaki nutqida keng uchraydi. Masalan, *inshaaalloh* ("Agar Alloh xohlasa") iborasi kelajkdagi ish-harakatlarning amalga oshishi Yaratganning irodasiga bog'liq ekanini bildiradi. Bu so'z bugungi kunda ham keng qo'llanib, so'zlovchining niyatini ifodalash bilan birga, unga diniy ruh va ma'naviy tus beradi.

Bismilloh ("Alloh nomi bilan") iborasi esa deyarli barcha diniy marosimlar, ibodatlar va kundalik hayotdagi ko'plab ishlarning boshlanishida ishlatiladi. Uning vazifasi Allohning marhamati va yordamini so'rash, qilinayotgan ishning muborak bo'lishini tilash bilan bog'liqdir.

Subhanalloh ("Allohni ulug'lash", "Alloh pokdir") so'zi hayrat, ajablanish, taajjubni ifodalashda, shuningdek, Allohning qudratini e'tirof etishda qo'llaniladi. Bugungi nutq jarayonida bu ibora nafaqat diniy ma'noda, balki hissiy-emotsional ohangni kuchaytiruvchi vosita sifatida ham keng ishlatilmoqda.

Alhamdulillah ("Hamd Allohgadir", "Shukr Allohga") birligi esa insonning minnatdorlik kayfiyatini ifodalaydi. Odatda, yaxshi xabar eshitilganda, biror muvaffaqiyatga erishilganda yoki biror balodan omon qolinganda ushbu ibora ishlatiladi.

Ushbu misollar shuni ko'rsatadiki, diniy leksik birliklar o'zbek tilida nafaqat sof diniy tushunchalarni ifodalash, balki so'zlovchining hissiy holatini bildiruvchi, ijtimoiy muloqotda muhim pragmatik vazifani bajaruvchi vosita sifatida ham faol qo'llanilmoqda.

Diniy leksik birliklar o'zbek tilida keng tarqalgan bo'lib, ular asosan arab tilidan kirib kelgan va hozirgi kunda ham faol qo'llanilmoqda. Ularning shakllanishi diniy e'tiqod, ibodat hamda ma'naviy hayot bilan bevosita bog'liqdir. Quyida ayrim diniy iboralar tahlil qilinadi:

Inshaalloh (*In shaa Allah, Insha Allah, Insha Alloh*) — arab tilidan kirib kelgan bo'lib, "Xudo xohlasa", "Xudo istasa" ma'nolarini bildiradi. Bu ibora kelajakdagi reja yoki niyatlarning amalga oshishi Allohning irodasiga bog'liq ekanini ifodalashda ishlatiladi. O'zbek nutqida u diniy mazmundan tashqari, ehtiyotkorlik, kamtarlik va niyatni bildiruvchi vosita sifatida ham qo'llanadi.

Subhanalloh (*subhonalloh*) — "Alloh mukammaldir", "Alloh pokdir" degan ma'noni bildiradi. Ushbu ibora musulmonlarning Allohning qudrati va ulug'ligini e'tirof etishida qo'llanib, nutqda hayrat, taajjub, qoyil qolish ma'nolarini ifodalash uchun ham keng ishlatiladi. Masalan, kutilmagan hodisa yoki ajablanarli voqeaga guvoh bo'lganda "Subhanalloh!" deyish orqali so'zlovchi Allohni ulug'lash bilan birga o'z hissiy holatini ham ifoda etadi.

Astag'firulloh — "Allohdan gunohlarimni kechirishini so'rayman" degan ma'noga ega. Ushbu ibora musulmon kishi tomonidan tavba qilish, o'z xatolarini tan olish va Yaratgandan mag'firat so'rash maqsadida ishlatiladi. Kundalik hayotda esa u nafaqat ibodatda, balki tasodifan noto'g'ri so'z aytilganda yoki keraksiz holat yuz berganda ham ishlatilishi mumkin.

Alhamdulillah — arabcha ibora bo'lib, "Hamd Allohgadir", "Allohgaga shukr" degan ma'nolarni bildiradi. Bu jumla musulmonlarning minnatdorlik va shukronalik ifodasi sifatida keng qo'llaniladi. Uning kengroq shakli — "*Alhamdulillahil rabbil 'alamin*" Qur'oni Karimning "Fotiha" surasidan bo'lib, "Hamd barcha olamlarning Robbisi Allohgadir" degan mazmunga ega. Ushbu ibora diniy marosimlarda, ibodatlarda, shuningdek, kundalik nutqda ham insonning minnatdorlik tuyg'usini ifodalashda faol ishlatiladi.

Namoz — arabcha so'z bo'lib, islom ta'limotiga ko'ra bajariladigan maxsus ibodat turini bildiradi. U musulmonlarga me'roj kechasi farz qilingan birinchi ibodatdir. Namoz so'zi bilan bog'liq terminlar o'zbek tilida keng qo'llanib, ular nafaqat ibodat vaqtlarini, balki umumiy vaqt birligini ham ifodalashi bilan ahamiyatlidir.

Bomdod — tong oqara boshlagandan to quyosh chiqqunicha bo'lgan vaqtni bildiradi. Bu so'z ibodatning tonggi vaqtini ifodalash bilan birga, badiiy adabiyotda ham voqealar vaqtini aniqlash uchun ishlatiladi: *“Otasi bomdoddan kirmagan, onasi sigir sog'ish bilan ovora, o'zi kichkina sahnini supurib turgan vaqtida tashqari eshikning besaranjom ochilishi Zebining bir qur ko'nglini seskantirib oldi.”*

Peshin — quyosh tik holatdan biroz oqqanidan boshlab, narsalarning soyasi o'ziga nisbatan ikki barobar bo'lgunicha davom etadigan vaqt. U diniy mazmunda ibodat vaqtini bildirsa-da, adabiy matnlarda kunning ikkinchi yarmidagi vaqtni ham ifodalash uchun qo'llanadi: *“Uyda bo'lsa, uni xonaqo singari salqin qildirib, undan keyin cho'ziladi va peshindan keyin uyquga ketgan bo'lsa, shomga borib zo'rg'a turadi: shunda ham Qurvonbibining qichqirishlari bilan...”*

Asr — narsalarning soyasi ikki barobar bo'lganidan to quyosh botgunicha bo'lgan vaqtni anglatadi. Badiiy nutqda esa yo'l yurish, safar vaqtini belgilashda keng qo'llangan: *“Albatta, shaharning darbozasi ertalab ochilib, shom bilan yopiladir, gumonimcha ertalab Qo'qondan chiqsa, asr vaqtlarida Marg'ilonga kiradir.”*

Shom — quyosh botgan paytdan boshlab, ufqdagi qizil shafaq yo'qolgunicha davom etadigan vaqt. U ibodatning muayyan vaqti sifatida ishlatiladi, lekin adabiy asarlarda ham keng qo'llanadi: *“Bir kechaning ichida to'y ovozi chiqdi-yu, ertasi kuni namozshomda Sultonxon kirib keldi...”*

Xufton — ufqdagi shafaq butunlay yo'qolgandan to bomdod vaqti kelgunicha bo'lgan vaqtni bildiradi. U ibodat vaqti sifatida qo'llanishi bilan birga, ko'ngil holatini ifodalovchi ma'no ham kasb etgan: *“Odatda xufton o'tar-o'tmas yotog'iga kirib, ilk sahar uyqudan uyg'onadigan Zebi otasining kelish-kelmasligini bilib, shundan keyin xotirjam uhlamoq uchun anchagacha onasi bilan gaplashib o'tirdi.”*

Shuningdek, *“dili xufton bo'ldi”* iborasi “xafa bo'lmoq”, “ko'ngli xira bo'lmoq” ma'nolarida ham ishlatiladi: *“Bo'rining dili xufton bo'ldi. Bir mahalgacha xo'rsinib yotdi.”*

Azon — arabcha *azina* (“tinglamoq”) fe'ldan hosil bo'lgan bo'lib, “xabar bermoq”, “chaqirmoq” ma'nolarini anglatadi. Shar'iy istilohda esa namoz vaqtining kirganini bildirish uchun aytiladigan maxsus kalimalar majmuini bildiradi. U musulmonlar uchun namozga chaqiruvchi vosita hisoblanadi.

Niyat — islom dinida juda muhim tushuncha bo'lib, inson qiladigan har bir amal avvalo niyat bilan bog'lanadi. Niyat ibodatning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi, chunki to'g'ri niyat qilinmagan amal mukammal hisoblanmaydi. Namozda niyat farzlardan biri, diniy hayotda esa barcha yaxshi ishlarga asosiy yo'naltiruvchi vositadir.

Sajda — arabcha “egilish”, “o‘zini past tutish”, “xotirjam bo‘lish” ma’nolarini bildiradi. Islom ta’limotida sajda bandaning Alloh taolaga bo‘lgan kamtarligi va muhtojligini ifodalashning eng oliy shaklidir. Chunki sajdada insonning eng sharafligi a’zosi bo‘lgan boshi yerga qo‘yiladi.

Shunday qilib, **namoz va unga oid diniy leksik birliklar** nafaqat ibodat amallarini bildiradi, balki ular o‘zbek tilida vaqt birligini belgilash, insonning ruhiy holatini ifodalash va adabiy tasvir vositasi sifatida ham keng qo‘llanmoqda.

Namoz va unga oid diniy leksik birliklar nafaqat diniy marosimlarni ifodalashga xizmat qiladi, balki xalqning kundalik hayotida vaqt birliklarini belgilash, ruhiy holatlarni ifodalash hamda badiiy nutqni boyitish vositasi sifatida ham faol qo‘llanadi. Bu esa diniy leksikaning xalq tiliga singib, keng ma’no doirasini shakllantirganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Besh vaqt namoz va duolar” kitobi “CredoPrint group” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2021-y 24-25-29-b.
2. “Ma’rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug’ati” Toshkent “Mumtoz so‘z” 2014-y 9-b
3. “Kecha va Kunduz” “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining tahririyati Toshkent 2000-y 4-11-46-102-b.
4. “Yulduzlar mangu yonadi” “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati 1994-y 4-b.
5. “O‘tkan kunlar” www.ziyouz.com kutubxonasi 98-b.
6. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Din>
7. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Inshaalloh>
8. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Alhamdulillah>
9. <https://uz.eferrit.com/subhanalloh-sozining-manosi-va-mazmuni/>
10. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Namoz>
11. <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/32689-namozdagi-amallar-manosi-sajda.html>

BADIIY MATNLARDA OKKAZIONAL MA'NO YARATISHDA KO'CHIMLARINING O'RNI

Halimova Gulhayo Abduqayum qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3– bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matnlarda okkazional ma'no yaratishda ko'chimlarning o'rni Isajon Sulton hikoyalari asosida tahlil qilinadi. Shuningdek ko'chimlarning lingvistik xususiyatlari, ularning badiiy matnda okkazional ma'no shakllanishidagi ro'li, shuningdek, ko'chimlar yordamida yaratilgan ma'nolarni o'quvchi ongida qanday qabul qilinishiga oid masalalar yoritiladi. Mavzu yuzasidan amalga oshirilgan tahlil natijalari badiiy tilning dinamik tabiati va uning o'ziga xos ijodiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: okkazional ma'no, metafora, metanimiya, snekdoxa, vazifadoshlik, ko'chimlar, ko'chma ma'no, badiiy matn, tasavvur kuchi.

Annotation: This article analyzes the role of metaphors in creating occasional meaning in literary texts based on the stories of Isajon Sultan. It also discusses the linguistic characteristics of metaphors, their role in the formation of occasional meaning in literary texts, as well as issues related to how meanings created with the help of metaphors are perceived in the reader's mind. The results of the analysis of the topic contribute to a deeper understanding of the dynamic nature of literary language and its unique creative capabilities.

Keywords: occasional meaning, metaphor, metonymy, snekdoxa, co-occurrence, displacements, portable meaning, literary text, imagination.

Аннотация: В данной статье анализируется роль метафор в создании окказиональных смыслов в художественных текстах на примере рассказов Исаджона Султана. Также рассматриваются лингвистические особенности метафор, их роль в формировании окказиональных смыслов в художественных текстах, а также вопросы, связанные с восприятием в сознании читателя смыслов, созданных с помощью метафор. Результаты анализа данной темы способствуют более глубокому пониманию динамической природы литературного языка и его уникальных творческих возможностей.

Ключевые слова: окказиональное значение, метафора, метонимия, снекдоса, функция, смещения, переносное значение, художественный текст, воображение.

Okkazional ma'no- leksemaning tildagi ma'nosiga hos bo'lmagan, ayrim shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatidan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha "tus" berilishi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nodir.

Ko'chim — bu so'z yoki iboralarni ma'nosini o'zgartirish, ularni boshqa bir ma'noga o'tkazish orqali ifodalash usuli bo'lib, badiiy matnlarga rang-baranglik va chuqurlik baxsh etadi. Ko'chimlar yordamida yozuvchi tasvir va obrazlarni yanada mukammallashtiradi.

Ko'chimlar badiiy asarlarni boyitib, ularning ma'nosini chuqurlashtiradi, ifoda vositalarini kengaytiradi. Har bir ko'chim turi o'ziga xos estetik va funksional rol o'ynaydi. Yozuvchi ko'chimlardan mahorat bilan foydalanganda, uning asari nafaqat o'quvchiga yetkaziluvchi xabar, balki hissiy va intellektual ta'sirchanlik manbaiga ega.

So'zning gap ichida, ya'ni nutqdagi o'z ma'nosidan boshqacharoq mazmun ifodalashu uning ko'chma ma'nosi deb yuritiladi. Masalan ishning ko'zi, tog'ning etagi kabi birikmalar tarkibida ko'z va etak so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan.

So'zning ma'no ko'chish usullari. Ona tilda polisemantik so'zlar ma'no ko'chishning to'rt xil usuli mavjud:

- 1) metafora
- 2) metonimiya
- 3) sinekdoxa
- 4) vazifadoshlik

Metafora — bu ikki turli narsa yoki hodisani umumiy belgisi asosida bir-biriga o'xshatib, birining so'zi yoki iborasini ikkinchisiga ko'chma ma'noda ishlatishdir. Bu so'z yoki iboraning ko'chma ma'nodagi qo'llanilishi bo'lib, o'xshatishni ta'kidlamay, balki bevosita ifodalaydi.

Metaforaning asosiy xususiyatlari:

1. Ko'chma ma'no: Metaforada so'z yoki ibora o'zining asosiy, to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan farqli, ko'chma ma'noda ishlatiladi.
2. O'xshatish: Biror narsa yoki hodisani boshqa bir narsa yoki hodisaga ularning umumiy belgisi asosida o'xshatish metaforaning asosini tashkil qiladi.
3. Bevosita ifodalash: Metaforada o'xshatish (masalan, "kabi") so'zini ishlatmasdan, biror narsani boshqasi deb bevosita ifodalash orqali yuzaga keladi.

Metonimiya – ikki tushuncha o'rtasidagi yaqinlikka asoslangan o'xshashsiz ko'chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko'chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o'rtasidagi o'xshashlikka emas, balki ular o'rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi.

Masalan:

Barmog'imni kesib oldim

Sinekdoxa- narsa va hodisaning nomi

bilan uning qismini atash yoki qismining nomi bilan shu qism mansub bo'lgan butunni atash orqali yangi ma'no hosil qilish usulidir.

Masalan: Tirnoq so'zining farzand ma'nosida ishlatilishi qism nomi bilan butunni ifodalashnidir.

U tirnoqqa zor edi.

Vazifadoshlik - narsa va hodisalarning bajaradigan vazifasidagi birlik, o'xshashlik asosida nom ko'chishidir.

Masalan:

Chiroq so'zi o'tmishda moy shimdirilgan pilikyoritgichlar ham chiroq deb yuritiladi.

Badiiy matnlarda okkazional ma'no yaratishda ko'chimlarining o'rni misolida hozirgi o'zbek adabiyotining serqirra yozuvchisi Isajon Sulton hikoyalari misolida ko'raylik. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", „Ozod“ romanlari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi mukofoti bilan taqdirlangan (2012). „Oydinbuloq“ va „Suvdagi kosa“ hikoyalari „XX asr o'zbek nasri antologiyasi“ga kiritilgan. U o'z hikoyalarida juda ko'p ko'chma ma'noli so'zlardan foydalangan. Misol tariqasida uning "Oydinbuloq" va "Suvdagi kosa" hikoyalarida ko'chim turlarini juda ko'p uchratishimiz mumkin.

1.Oydinbuloq hanuz miltirayotir, buloq ko'zchasiga bitta yaproq tushib qolibdi, girdobdan chiqib ketolmay, chirillab aylanayotir. (metafora)

2.Shunda yurak yana g'alayon ko'tardi: umrning betinim oqayotganini yana bir karra eslatdi. (metafora)

3.Qirqning ostonasida turib, endi-endi o'ylayman: yo'q, men o'shanda aynan Parizodni uchratgan edim. (snekdoxa)

4.Shu tufayli ham dugonalari bilan uchib ketmay, buloq yonida qolgandir? (metafora)

5.Mana dengiz bo'yidaman. Quadratini his qilish uchun sherigim ikkovimiz sohildagi qayiqlardan mo'jazroq bittasini tanlab oldik. (metafora)

6. Men shamol yo'nalishini bilib turish uchun suv o'tmas qog'ozdan shamol parpiragi yasab, qayiqning uchiga o'rnatib qo'ydim. (metafora)

7. Saharlab ingichka oy o'rog'i nozik-nozik nur taratib turgan edi. (metafora)

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnlarni yanada mukammallashtirishda ko'chimlarning o'rni beqiyosdir. Ko'chimlar nafaqat so'z boyligini oshiradi, balki matnning hissiy-chustligini kuchaytiradi, o'quvchining e'tiborini jalb etib, uni hikoyaning ichiga olib kiradi. Yozuvchi ko'chimlardan foydalanish orqali o'z fikrini yanada aniqroq va ta'sirchanroq ifoda eta oladi, voqealar va obrazlar tasvirini jonlantiradi. Isajon Sulton asarlarida ko'chimlarning turli turlaridan mahorat bilan foydalanganligi, uning badiiy uslubini o'ziga xos va boy qilganligi ayniqsa ta'kidlanadi. Shunday qilib, ko'chimlar badiiy matnlarning asosini tashkil etib, ularni nafaqat mazmunan, balki shaklan ham boyitadi. Badiiy asarning ta'sirchanligi va o'quvchi qalbiga chuqur yetib borishi ko'chimlarning mohirona qo'llanilishiga bog'liqdir. Shu sababli, yozuvchi uchun ko'chimlarni puxta o'rganish va ularni ijodida samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, badiiy matnlarda ko'chimlar nafaqat bezak, balki asosiy kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi, ularning yordamida matn hayotga to'la, jonli va ta'sirli bo'ladi.

Bundan tashqari, ko'chimlar orqali yozuvchi o'quvchining tafakkurini ham rivojlantiradi, uning til va madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ko'chimlar yordamida matn yanada chuqurroq qatlamlarga ega bo'lib, o'quvchida yangi tasavvurlar, fikrlar paydo bo'ladi. Bu esa badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi – o'quvchini faollashtirish va uni ijodiy o'ylashga chorlaydi. Shuning uchun ham ko'chimlar yozuvchining ijodiy vositalar to'plamida muhim o'rin tutadi.

Natijada, badiiy matnlarni chuqur tahlil qilishda, ularning badiiy-estetik qiymatini anglashda ko'chimlarning roli alohida e'tiborga loyiqdir. Yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot, badiiy asarning jonlanishi aynan shu vositalar yordamida yuzaga keladi. Shu boisdan ham badiiy ijodda ko'chimlarni o'rganish va qo'llash zamonaviy adabiyotda yangi cho'qqilarni zabt etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T. F. Shodiyev - "Ona tili". Samarqand. 2019.
2. R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, L.R.Raupova - "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent. 2020.
3. Isajon Sulton. „Oydinbuloq“. roman va hikoyalar. G'.G'ulom nashriyoti, 1995.

4.Isajon Sulton. „Suvdagi kosa“ hikoyasi. [\"Russkoe pole\" adabiy jurnali, 2012-yil 4-son], Moldova.

DIALEKTAL LEKSIKA

Hamroqulova Shahrizoda Qahramon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

shahrizodahamroqulova72@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zbek tilining dialektal leksikasi, uning shakllanish omillari, turlari va adabiy til bilan o'zaro munosabati tahlil qilingan. Dialektal leksika xalq nutqining jonliligi, tabiiyligi va milliy ruhini aks ettiruvchi muhim qatlam sifatida o'rganilgan. Maqolada o'zbek dialektlaridagi leksik farqlar, ularning badiiy adabiyotdagi qo'llanishi hamda o'zbek tili tarixini o'rganishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: dialekt, lahja, leksika, adabiy til, xalq nutqi, tilshunoslik, fonetik dialektizm, leksik dialektizm.

ABSTRACT. This article examines the dialectal vocabulary of the Uzbek language, its origins, classifications, and relation to the literary language. Dialectal vocabulary is analyzed as an important linguistic layer that reflects the liveliness, naturalness, and national spirit of the people's speech. The article also highlights lexical differences among Uzbek dialects, their use in literary works, and the importance of dialectal vocabulary in studying the history of the Uzbek language.

Keywords: dialect, subdialect, lexicon, literary language, folk speech, linguistics, phonetic dialectism, lexical dialectism.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается диалектная лексика узбекского языка, её происхождение, типы и соотношение с литературным языком. Диалектная лексика изучается как важный слой, отражающий живость, естественность и национальный дух народной речи. В статье освещены лексические различия в узбекских диалектах, их использование в художественной литературе, а также значение диалектной лексики в изучении истории узбекского языка.

Ключевые слова: диалект, наречие, лексика, литературный язык, народная речь, лингвистика, фонетический диалектизм, лексический диалектизм.

Til – xalqning madaniy, ijtimoiy va ruhiy hayotini ifodalovchi eng muhim vositadir. Har bir milliy til o'z tarixiy taraqqiyoti davomida turli davrlar, hududlar va ijtimoiy qatlamlar ta'sirida shakllanadi. Shu jarayonda tilda turli dialektlar va lahjalar vujudga keladi. Dialektal leksika esa ana shu hududiy til shakllarining so'z boyligini ifodalaydi.

O'zbek tili ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan ko'p qatlamli til bo'lib, undaturli vohalar (Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqalar) aholisi nutqida o'ziga xos leksik farqlar mavjud. Shu bois dialektal leksikani o'rganish o'zbek tilshunosligining muhim yo'nalishlaridan biridir. Adabiy til — bu umumxalq tilining me'yorlashtirilgan shakli bo'lib, unda grammatik, fonetik, orfografik va leksik birliklar qat'iy tizimga solingan bo'ladi. Dialekt esa ma'lum hudud yoki ijtimoiy guruh tomonidan qo'llaniladigan til shaklidir. Professor G'.Abdurahmonov fikricha, “dialekt adabiy tildan past turuvchi ko'rinish emas, balki tildagi tabiiy xilma-xillikni namoyon etuvchi boylikdir” (Abdurahmonov G'., Tilshunoslik asoslari, 2002). O'zbek adabiy tili ko'p hollarda qarluq–chigil–uyg'ur lahjasiga asoslangan bo'lsa-da, boshqa hududiy dialektlardan ham ko'plab unsurlarni qabul qilib, umumxalq tili sifatida shakllangan. Dialektal leksika — bu adabiy til me'yoriga kirmagan, faqat muayyan hududda ishlatiladigan so'z va iboralar majmuasidir. Bunday leksika xalqning yashash tarzi, iqlimi, kasbi, urf-odati bilan bevosita bog'liq. Masalan: so'k – piyoz (Xorazm shevasida), chori – hovuz (Surxondaryo shevasida), jo'va – eski joy, uydagi chekka burchak (Farg'ona shevasida), qaqiqi – tovuq (Qashqadaryo shevasida), lagancha – likopcha (Toshkent shevasida). Bu so'zlar adabiy til lug'atida mavjud bo'lmasligi mumkin, biroq ular xalq nutqida faol qo'llaniladi.

Tilshunoslar dialektal leksikani quyidagi turlarga ajratadilar:

Fonetik dialektizmlar – talaffuzdagi farqlar. Masalan: o'rik – urik – ariq, bola – bala.

Leksik dialektizmlar – bir predmet yoki hodisaga turli nomlar.

Masalan: so'k (piyoz), g'o'ra (xom meva), g'ura (Toshkent shevasida).

Semantik dialektizmlar – bir so'zning turli ma'noda ishlatilishi. Masalan, oyoq so'zi Surxondaryoda “stol oyog'i” ma'nosida, Xorazmda esa “past qism” ma'nosida qo'llaniladi.

Dialektal leksikaning shakllanishida bir necha omillar muhim rol o'ynaydi:

Geografik omillar – hududiy ajralish, tog', daryo, cho'l kabi tabiiy to'siqlar tildagi o'ziga xoslikni mustahkamlaydi.

Ijtimoiy omillar – kasb, turmush tarzi, iqtisodiy faoliyat tildagi leksik farqlarga sabab bo'ladi.

Tarixiy omillar – turkiy qabilalar o'rtasidagi aloqa, qadimgi tillar ta'siri.

Madaniy va etnik omillar – xalqning urf-odatlar, milliy qadriyatlari leksik qatlamni shakllantiradi.

O'zbek tili tarixida dialektal leksika xalq tili taraqqiyotining muhim qatlami hisoblanadi. Qadimgi turkiy yodgorliklarda uchraydigan ayrim so'zlar hozirgi o'zbek shevalarida saqlanib qolgan. Masalan, "yar" (do'st, sevikli) so'zi qadimgi "Devonu lug'otit turk" asarida uchraydi, bugungi kunda esa ayrim Farg'ona va Namangan shevalarida shu shaklda ishlatiladi. Demak, dialektal leksika til tarixini o'rganishda tirik manba vazifasini bajaradi. O'zbek adabiyotida dialektal leksikadan foydalanish asarlarga xalqona ruh, jonlilik va tabiiylik baxsh etadi. Masalan, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, O'tkir Hoshimov, Tog'ay Murod kabi yozuvchilar qahramonlar nutqini jonli ko'rsatish uchun dialekt so'zlardan unumli foydalanganlar. Masalan, Abdulla Qodiriyning "Dunyoning ishlari" asarida Toshkent shevasiga xos so'zlar ko'plab uchraydi: bo'ldi-ku, jo'ja, aka-ey. Bu so'zlar qahramon nutqini tabiiy qiladi va voqelikni real tasvirlaydi. Dialektal leksika tahlili nafaqat tilshunoslik, balki etnografiya, tarix, madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhimdir. Chunki u xalqning turmush tarzi, o'tgan davrlardagi ijtimoiy munosabatlar va urf-odatlar haqida bevosita ma'lumot beradi. Hozirgi kunda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutida o'zbek tili dialektologiyasiga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Turli hududlardagi shevalar o'rganilib, ularning leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari asosida "O'zbek xalq shevalari atlaslari" yaratilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dialektal leksika o'zbek xalqining boy til madaniyatini, tarixini va hayot tarzini o'zida mujassamlashtirgan. U adabiy tilni boyituvchi manba, xalq nutqining tabiiyligi va jonliligini ifodalovchi asosiy qatlamdir. Dialektal leksikani o'rganish orqali biz nafaqat tilning ichki tuzilishini, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti va madaniyatini ham chuqurroq anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov G'. — Tilshunoslik asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2002.
2. Madvaliyev A. — Hozirgi o'zbek tili. Leksikologiya. Toshkent: Fan, 2010.
3. Rahimov A. — O'zbek shevalarining leksik xususiyatlari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.

4. Qayumov A. — O'zbek tili dialektologiyasi. Toshkent: Fan, 1985.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. — Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 2008.

SO'ZLAR XOTIRASI: ESKIRGAN LEKSIK QATLAMNING IZLARI**Ismatullayeva Hurmatoy Umidjonovna**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

25/2-guruh 1-bosqich talabasi

hurmatoyismatullayeva1@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Mo'yiddinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda foydalanadigan so'zlar hamda adabiy tilda ishlatadigan so'zlarimizning o'lik tilga aylanib borayotganligini ko'ramiz. Shunindek yuqorida aytganimizdek "o'lik tilga" aylanib bo'lgan so'zlarni hamda ularning tahlili bilan tanishib chiqamiz. Jumaldan, ayrim so'zlar mavhum bo'lsada yurtimizning qaysidir qismida foydalanayotganligiga guvohi bo'lamiz.

Kalit so'zlar: leksik qatlam, so'zlar xotirasi, xalq tili, o'zbek tili leksikologiyasi, qadimgi so'zlar, etimologiya, til tarixi, milliy o'zlik, til va tafakkur, unutilayotgan so'zlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются слова, используемые в обществе, которые постепенно выходят из употребления или становятся редкими в современном узбекском языке. Также анализируются причины исчезновения некоторых слов и их влияние на развитие языка. Автор отмечает, что изучение забытых слов важно для сохранения национального самосознания и культурного наследия узбекского народа.

Ключевые слова. Лексический слой, словарный запас, народный язык, узбекская лексикология, древние слова, этимология, история языка, национальное самосознание, забытые слова.

Annotation. This article examines words used in society that are gradually disappearing or becoming rare in the modern Uzbek language. It also analyzes the reasons for the disappearance of certain words and their impact on the development of the language. The author emphasizes that studying forgotten words is essential for preserving the national identity and cultural heritage of the Uzbek people.

Keywords. Lexical layer, vocabulary, folk language, Uzbek lexicology, ancient words, etymology, history of the language, national consciousness, forgotten words.

Bizning foydalanadigan til me'yorlarimiz bu nafaqat o'tmishni, balki bizning urf- odalarimizdan ham darak beradi. Ular orqali biz o'tmish haqida, xalqning

dunyoqarashi, turmushi va fikrlash tarzini bilib olamiz. Chunki har bir soʻz oʻzida bir zamonning, bir avlodning hayot izlarini saqlaydi. Yoʻqolib borayotgan soʻzlar — bu hozirgi zamon tili meʼyorlarida kam qoʻllanadigan, faqat ayrim shevalarda, xalq ogʻzaki ijodida yoki tarixiy manbalarda uchraydigan soʻzlardir. Masalan, quyidagi soʻzlar bugungi adabiy tilda deyarli ishlatilmaydi: oʻksok (sokin, jim), moʻralamoq (qaramoq, tikilmoq), choponcha (kichik chopon), sabil (bepul suv ichiladigan joy). Bu kabi soʻzlar oʻz vaqtida xalq hayotining ajralmas qismi boʻlgan, biroq zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy oʻzgarishlar va yangi soʻzlarning kirib kelishi bilan ularning qoʻllanish doirasi toraygan. Tilshunoslar yoʻqolib borayotgan soʻzlarning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni koʻrsatadilar: zamonaviy texnologiyalar va yangi tushunchalar — yangi atamalar eski soʻzlarning oʻrnini egallaydi. Urbanizatsiya va globalizatsiya — chet tillardan kirib kelgan soʻzlar mahalliy soʻzlarni siqib chiqaradi. Shevalarning qisqarishi — koʻp hollarda yoʻqolib borayotgan soʻzlar aynan shevalarga mansub boʻladi. Madaniy muhitning oʻzgarishi — maʼlum urf-odat va qadriyatlar yoʻqolgani sayin ular bilan bogʻliq soʻzlar ham unutiladi.

Bunday soʻzlar xalqning tarixiy xotirasini, dunyoqarashini va qadriyatlarini ifodalaydi. Masalan, sabil, darvoza, arava, xirmon, soʻri kabi soʻzlar nafaqat maʼnosini, balki butun bir turmush tarzini oʻzida mujassam etgan.

Tilshunoslikda “leksik qatlam” tushunchasi tildagi soʻz boyligining qatlamlarga boʻlinishini bildiradi. Har bir qatlamda turli davr va manbalarga oid soʻzlar jamlangan boʻladi. Masalan, arabcha, forsa, turkcha soʻzlar, shuningdek, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan zamonaviy soʻzlar tilda turli qatlamni tashkil etadi. Masalan, “Yuz”, “Chehra”, “Aft”, “Bet”, “Turq” kabi soʻzlar sinonimlikni tashkil qilgan holda xalqimiz orasida deyarli hammasidan keng ishlatiladi. Leksik qatlamning izlarini oʻrganish tilning tarixini bilish uchun muhimdir. Har bir soʻzning oʻz “tarjimai holi” bor: u bir paytlar keng ishlatilgan, keyin sekinlik bilan unutilgan, yoki boshqa maʼno kasb etgan. Masalan, “sarpo” soʻzi ilgari kiyim-kechak maʼnosida keng ishlatilgan boʻlsa, hozirgi kunda faqat toʻy yoki marosim tilida eslatiladi. Yoki “yulduzcha”, “telefoncha”, “qalamcha” kabi yangi soʻzlar texnik taraqqiyot natijasida tilga kirgan. Shuningdek, leksik qatlamda unutilib borayotgan soʻzlar ham koʻp. Masalan, “sagʻan”, “toʻnka”, “tuyiq”, “yogʻdu” kabi soʻzlar bugungi yosh avlod nutqida deyarli uchramaydi. Ammo bu soʻzlar xalq ogʻzaki ijodi, qadimgi adabiyot va shevalarda hanuz yashab kelmoqda. Shuning uchun ham ular tilning “xotira izlari” hisoblanadi. Masalan, “mehmon” soʻzi ilgari “kutilmagan kishi” maʼnosida ishlatilgan boʻlsa, hozir

u “hurmat bilan kutib olinadigan inson” degan ijobiy ma’noga ega bo’ldi. Bundan tashqari, shevalar ham tilning leksik xotirasini saqlovchi muhim manbalardir.

Har bir hududda ishlatiladigan soʻzlar xalqning tarixiy hayoti, kasbi yoki yashash sharoitiga bogʻliq boʻlgan. Masalan, Xorazm shevasidagi “koʻsh”, “quy”, “yoʻgʻ” kabi soʻzlar qadimgi turkiy tillarda uchraydi, Fargʻona yoki Qashqadaryo lahjalarida ham shunday qadimiy soʻzlar uchraydi. Tilshunoslikda “leksik qatlam” deganda ehtiyojimiz uchun foydalanidagigan soʻzlar tushuniladi hamda boshqa davlatlarning tillarini sihlatish ham kiradi, masalan, rus tili, ingliz tili, qozoq kabi tillar kiradi. Ammo eng qadimiy va muhim qatlam — bu xalqning oʻz milliy ildiz soʻzlaridir. Bu soʻzlar tilda ming yillar davomida yashab, xalq tafakkurining uzluksizligini taʼminlab kelgan. “Ona”, “yer”, “suv”, “qush”, “yurak”, “yoʻl”, “el”, “odam” kabi soʻzlar bugungi kunda ham oʻz maʼnosini deyarli yoʻqotmagan. Ular xalq ogʻzaki ijodida, maqol, topishmoq, qoʻshiq va dostonlarda keng qoʻllangan. Har bir soʻzning oʻz “tarjimai holi” bor. U bir davrda yaratilgan, maʼlum bir ehtiyojdan kelib chiqqan, keyin esa til bilan birga oʻzgarib, baʼzan yoʻqolib, baʼzan esa yangi maʼno kasb etadi. Masalan, “Gʻarib” soʻzi esa ilgari “begona” maʼnosini bildirgan boʻlsa, hozir “bechorahol”, “muhtoj” maʼnosini anglatadi. Shuningdek, “yor” soʻzi avval “yaqin doʻst” maʼnosida boʻlgan, ammo keyinchalik “sevgili”, “dilband” maʼnosini olgan.

Unutilib borayotgan soʻzlar: tilimizda bugungi kunda kam ishlatiladigan, lekin oʻz vaqtida keng tarqalgan koʻplab soʻzlar mavjud. Masalan, “sagʻan” – qabr, “toʻnka” – daraxt ildizi, “yogʻdu” – nur, “toʻtiyo” – koʻz dorisi, “tuyiq” – sokin joy, “mazra” – yer maydoni, “muattar” – xushboʻy degan soʻzlar hozirgi yoshlar nutqida kam uchraydi. Bunday soʻzlar tilning tarixiy xotirasidir. Ular orqali biz xalq hayotining kechmishini, qadriyatlarini, tabiat va mehnat bilan boʻlgan munosabatini bilamiz. Agar bu soʻzlar unutilsa, ular bilan birga tarixiy xotira ham yoʻqoladi. Shu bois, ularni asrab, oʻrganish, lugʻatlarga kiritish, adabiyot va darsliklarda ishlatish kerak. Mahmud Qoshgʻariy, Alisher Navoiy, Fitrat, Gʻulom Zafariy kabi mutafakkirlar oʻz asarlarida tildagi soʻzlarning qadri haqida soʻz yuritganlar. Mahmud Qoshgʻariy “Devonu lugʻotit turk” asarida turkiy soʻzlarni toʻplab, ularning maʼnolarini izohlab bergan. Bu asar til tarixini oʻrganishda beqiyos manba boʻlib, soʻzlarning qadimiy tarixini saqlab qolgan. Mahmud Qoshgʻariy oʻzining buyuk asari — “Devonu lugʻotit turk”da: “Turkiy xalqlarning soʻzlari — ularning hayotining guvohi, har bir soʻzda bir tarix yashiringan”, - deb yozadi.[1] Alisher Navoiy ham “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida turkiy soʻzlarning qadri haqida yozadi: “Turkiy tilda el koʻngliga yaqin, koʻp maʼnoli va goʻzal lafzlar bordur, ularni eʼtibordan soqit etmak jafo boʻlur”[2]. Tilshunos olim

Sh. Rahmatullayev “O‘zbek tili leksikasi va frazeologiyasi” asarida so‘zlarning qatlamlanishi haqida shunday yozadi: “Leksik qatlam tildagi tarixiy o‘zgarishlarni ifoda etuvchi tirik tizimdir. Unda yangi so‘zlar kirib keladi, eskilari esa unutiladi, lekin ular izsiz yo‘qolmaydi — xalq xotirasida yashaydi”[3].

Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkinki, til-bu millatning yuragi. Demak, til yo‘qmi xalq ham undagi barcha urf -odatlar ham bir vaqtning o‘zida yo‘q bo‘lib ketadi. Alqissa shuni aytish mumkinki, so‘zlar xotirasini saqlash- bu nafaqat saqlash balki uning tarixini ham saqlab qolish demakdir. Yo‘qolib borayotgan so‘zlar — bu xalq tilining “unutilgan xazinasini”dir. Ularni saqlab qolish har bir ziyolining, tilshunosning va o‘z millatini sevuvchi insonning burchidir. Chunki til faqat aloqa vositasi emas, balki tarixiy xotira, milliy g‘urur va madaniy merosdir. Tilimizdagi qadimiy so‘zlarni qayta tiklash va ularni avloddan-avlodga yetkazish orqali biz milliy o‘zligimizni asraymiz va boyitamiz.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mahmud Qoshg‘ariy, “Devonu lug‘atit turk”. 1960. [24-bet]
2. Karimov A. Til va madaniyat uyg‘unligi. Toshkent, 2005.
- 3.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili leksikologiyasi. 1996. [84-bet]

O'ZBEK TILIDA HUQUQQA OID LEKSIKANING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Isroiljonova Jasmina Ilhomjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Kechki ta'lim 24\1-guruh 2-kurs talabasi

jasminaisroiljonova.01@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida huquqqa oid leksikaning shakllanish xususiyatlari, uning manbalari va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Huquqiy terminlarning normativ hujjatlar va ijtimoiy-huquqiy madaniyatdagi o'rni, semantik aniqligi, shuningdek tarjima va standartlashtirish jarayonidagi muammolar misollar bilan yoritilgan. Maqola huquqqa oid leksikaning jamiyatdagi ahamiyatini ilmiy nuqtai nazardan ochib beradi.

Kalit so'zlar: huquqqa oid leksika, huquqiy termin, normativ-huquqiy hujjat, semantik aniqlik, huquqiy madaniyat, tarjima muammolari.

Annotation. This article analyzes the peculiarities of the formation of legal vocabulary in the Uzbek language, its sources, and historical stages of development. The role of legal terms in normative documents and socio-legal culture, their semantic precision, as well as problems in translation and standardization processes are discussed with examples. The article scientifically reveals the significance of legal vocabulary in society.

Keywords: legal vocabulary, legal term, normative-legal document, semantic precision, legal culture, translation issues

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности формирования юридической лексики в узбекском языке, её источники и исторические этапы развития. Анализируется роль юридических терминов в нормативных документах и социально-правовой культуре, их семантическая точность, а также проблемы перевода и стандартизации. В статье научно раскрывается значение юридической лексики в обществе.

Ключевые слова: юридическая лексика, юридический термин, нормативно-правовой документ, семантическая точность, правовая культура, проблемы перевода.

O'zbek tilida huquqqa oid leksika uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan bo'lib, u xalqning siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Dastlabki davrlarda huquqqa oid so'zlar turkiy ildizli bo'lgan. Masalan, "törü" (qonun), "yasa" (tartib), "bilgä" (donishmand, hukm chiqaruvchi) kabi birliklar qadimgi turkiy bitiklarda uchraydi. Keyinchalik arab va fors tillari ta'sirida islom huquqi (shariat) asosida shakllangan terminlar kirib keldi. Shariat, fatvo, muftiy, qozilik, adolat, jinoyat, gunoh, huquq, hukm kabi so'zlar o'sha davr huquqiy nutqining asosini tashkil etgan. Sovet davrida esa rus tili orqali ko'plab yangi terminlar kirib keldi. Bu davrda huquqiy sohada xalqaro va ruscha terminlar o'zbek tiliga moslashtirilib ishlatildi. Masalan, prokuror, sud, konstitutsiya, kodeks, advokat, jinoyat kodeksi, ma'muriy javobgarlik kabi so'zlar keng tarqaldi. Shu bilan birga, huquqiy tildagi ba'zi arabcha va forsha atamalar asta-sekin faol qo'llanishdan chiqib, ularning o'rnini ruscha shakllar egalladi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tili davlat tili maqomini olgach, huquqqa oid leksika qayta ko'rib chiqildi va milliylik jarayoni boshlandi. Qonun hujjatlari, Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va rasmiy nashrlarda milliy huquqiy terminlardan keng foydalanila boshlandi. Shu bilan birga, xalqaro huquq tizimidan kirib kelayotgan terminlar o'zbek tilining fonetik va morfologik tizimiga moslashtirildi. Masalan, ombudsman, ratifikatsiya, mediatsiya, arbitr, investitsiya kabi terminlar tilimizga kirib, rasmiy huquqiy muomalada o'z o'rnini topdi.

Huquqqa oid leksikaning shakllanishida bir necha omillar muhim rol o'ynagan: siyosiy tuzumlar almashinuvi, huquqiy tizimdagi islohotlar, xalqaro aloqalar kengayishi, hamda til siyosatining rivojlanishi. Bugungi kunda huquqiy terminologiyani me'yorlashtirish, yagona tushunchaviy tizim yaratish, va huquqiy hujjatlarda tilning aniqligi va ixchamligini ta'minlash dolzarb masalalarda ifodalanadi.

Huquqqa oid leksika jamiyatning qonuniy faoliyati va huquqiy madaniyatini shakllantirishda muhim vositadir. Tilshunoslik nuqtai nazaridan bu leksika maxsus lug'aviy qatlam sifatida o'rganiladi, huquqshunoslikda esa u normativ hujjatlar va qonunchilikning asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. O'zbek tilida huquqqa oid leksikaning shakllanishi tarixiy jarayonlar, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan bog'liq bo'lib, u jamiyatdagi qonuniylik prinsipini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Huquqiy leksikaning asosiy xususiyati – aniqlik va bir ma'nolilik. Masalan, "javobgarlik" atamasi faqat yuridik majburiyatni bildiradi va kundalik nuqtda

ishlatilgan “mas’uliyat” so’zi bilan aralashmaydi. Bu xususiyat huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi. O’zbek tilida huquqqa oid leksika quyidagicha manbalardan shakllangan:

Qadimgi o’zbek huquqiy an’analari: qonun, jazo, guvoh;

Arabcha-forscha o’zlashmalar: huquq, jinoyat;

Rus tili orqali kirgan terminlar: prokuror, advokat, protsess;

Mustaqillik davri neologizmlari: inson huquqlari, inson huquqlari bo’yicha vakil, konstitutsiyaviy nazorat, an’anaviy huquq.

Bu qatlamlar huquqqa oid leksikaning ko’p qatlamli va tarixiy rivojlanganligini ko’rsatadi. Huquqiy terminlar jamiyat a’zolarining huquqiy ongini shakllantiradi. Masalan, “inson huquqlari” tushunchasi mustaqillikdan keyingi huquqiy islohotlarda keng qo’llanilib, xalqning huquqiy tafakkurini yangicha shakllantirdi. Shuningdek, “huquqiy davlat”, “fuqarolik jamiyati” kabi terminlar siyosiy-nazariy muloqotdan huquqiy hujjatlar tiliga ko’chdi. Huquqiy terminlarni boshqa tillarga tarjima qilishda milliy huquq tizimlarining farqlari qiyinchilik tug’diradi. Masalan, “inson huquqlari bo’yicha vakil” (ombudsman) o’zbek huquq tizimiga mustaqillikdan keyin kirgan. “An’anaviy huquq” (common law) o’zbek tilida to’g’ridan to’g’ri muqobilga ega emas, izohli tarzda ishlatiladi. Bir termin bir necha shaklda ishlatilsa, chalkashlik yuz beradi. Masalan, “javobgarlik” va “mas’uliyat” so’zlari: kundalik nutqda sinonim, huquqiy matnda esa farqlanadi. Shu sababli huquqqa oid leksikani standartlashtirish qonunlarning tushunarligini oshiradi va huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi. Misol uchun O’zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik kodeksi (2022) barcha normativ matnlarda javobgarlik atamasini bir xil ishlatadi. 2021-yilgi O’zbekiston Respublikasi qonunchilik statistikasiga ko’ra, normativ-huquqiy hujjatlarda 78% terminlar bir xil shaklda ishlatilgan, bu standartlashtirish darajasining oshganini ko’rsatadi. Huquqiy leksikaning tahlili shuni ko’rsatadiki, mustaqillikdan keyin neologizmlar (ombudsman, konstitutsiyaviy nazorat) so’z boyligini 12% ga oshirgan va xalqaro huquqiy terminologiyaga yaqinlashtirgan. Tarixiy manbalar va zamonaviy huquqiy matnlarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, o’zbek tilida huquqqa oid leksika ko’p qatlamli, semantik jihatdan boy va doimiy rivojlanib boruvchi qatlam hisoblanadi.

Demak, o’zbek tilida huquqqa oid leksika tarixiy manbalar, diniy matnlar, turkiy huquqiy an’analari, shuningdek, rus va xalqaro huquq tizimlari ta’sirida shakllangan murakkab qatlamdir. Bugungi kunda huquqiy leksika huquqshunoslik fanining rivoji, qonunchilikni takomillashtirish va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish jarayonida muhim vosita sifatida namoyon bo’lmoqda. Huquqqa oid leksikaning o’ziga xos

xususiyati shundaki, u doimiy ravishda yangilanib boradi. Mustaqillik yillarida konstitutsiyaviy nazorat, inson huquqlari bo'yicha vakil, mulk daxlsizligi kabi ko'plab yangi terminlar paydo bo'ldi va huquqiy amaliyotga mustahkam kirib keldi. Shu bilan birga, tarixiy leksik qatlamdan meros bo'lib qolgan qonun, huquq, adolat kabi asosiy tushunchalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shuningdek, xalqaro terminlarni milliy til me'yorlariga moslashtirish jarayoni huquqqa oid leksikaning yanada boyishiga olib kelmoqda. Bu esa, bir tomondan, qonunchilik tilining aqniligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, keng jamoatchilikka huquqiy tushunchalarni osonroq anglash imkonini bermoqda. Huquqqa oid leksikaning shakllanishi va rivoji shuni ko'rsatadiki, u nafaqat qonunchilik jarayonining asosiy tili, balki huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva D. Huquqiy terminologiya va uning shakllanishi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
2. Solijonov A. O'zbek tilida huquqiy uslub xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Yo'ldoshev M. Huquqiy til va huquqiy madaniyat. – Toshkent: Adolat, 2019.
4. Qodirov B. Huquqiy matnlarning lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2021.
5. Karimova N. O'zbek tilida rasmiy uslubning shakllanishi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

TILNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Komiljonova Dono Mansurbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

komiljonovadono9@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilning kelib chiqishi haqida yaratilgan asosiy farazlar yoritilgan. Unda ilohiy hodisa, onomatopoeik farazlar, undov, mehnat nazariyalari hamda ijtimoiy farazlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy qarashlarga ham to'xtalib o'tiladi. Maqola tilning insoniyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: til, paydo bo'lishi, rivojlanishi, farazlar, nazariyalar, insoniyat, aloqa, aloqa vositasi.

Annotation. This article highlights the main hypotheses about the origin and emergence of language. It examines the divine theory, onomatopoeic hypothesis, interjectional theory, labor theory, and social contract hypothesis, analyzing their distinctive features. In addition, modern views are also discussed. The article aims to reveal the role and significance of language in human life.

Keywords: language, origin, development, hypotheses, theories, humanity, means of communication.

Аннотация. В данной статье освещаются основные гипотезы о происхождении и возникновении языка. Рассматриваются божественная теория, оноματοпоэтическая гипотеза, междометная теория, трудовая теория и социальная гипотеза, анализируются их особенности. Также уделяется внимание современным взглядам. Статья направлена на раскрытие роли и значения языка в жизни человечества.

Ключевые слова: язык, происхождение, развитие, гипотезы, теории, человечество, средство общения.

Til insoniyat tarixidagi eng buyuk ixtirolardan biridir. U nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur, madaniyat va jamiyatning taraqqiyoti uchun asosiy omil hisoblanadi. Tilning qanday paydo bo'lgani, uning ilk bosqichlari va rivojlanish jarayonlari qadim zamonlardan beri olimlarni qiziqtirib kelgan. Turli davrlarda olimlar tilning kelib chiqishini turlicha tushuntirishgan va bu borada ko'plab farazlar ilgari surilgan.

Tilning qachon va qayerda paydo bo'lganligi haqida hali ilmiy asoslangan fikrlar aniqlanmagan. Uning kelib chiqish masalasi ko'p davrlardan beri insoniyatni qiziqtirib keladi. Ba'zi olimlarning fikricha, eng dastlabki til (tillar) taxminan bundan yarim million yil ilgari paydo bo'lgan. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo'lgandan oldingi holat biz uchun noma'lum. Qadim zamonlarda til ilohiy hodisa sifatida tushuntirilgan. Masalan, ayrim dinlarda til Xudoning in'omi timsolida qabul qilingan. O'rta asrlarda ham ko'plab faylasuflar tilni insonlarga osmondan berilgan ilohiy ne'mat deb hisoblaganlar. Bu qarashlar diniy e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liq edi. XVIII-XIX asrlarda tilshunoslik fan sifatida shakllana boshlagan davrda tilning kelib chiqishi to'g'risida ilmiy farazlar paydo bo'ldi. Ulardan eng mashhurlari quyidagilardir: Onomatopeyik faraz (taqlidiy nazariya): Bu nazariyaga ko'ra, dastlabki so'zlar tabiatdagi tovushlarga taqlid qilish orqali paydo bo'lgan. Misol uchun "g'uv"(ari tovushi),"shuv" suv oqishi kabi. Nemis olimi Heyman Steyntal bu fikrni rivojlantigan.

Undov nazariyasi: Ingliz faylasufi J.Muller fikricha til dastlab, insonning his-tuyg'ularini ifodalovchi undovlardan kelib chiqqan. Masalan, hayrat, qo'rquv yoki quvonch paytida aytiladigan "oh","vay!","eh!",singari tovushlar keyinchalik so'zlarga aylangan. Xususan, fransuz olimi Jan Jak Russo ham shu farazni quvvatlagan.

Mehnat nazariyasi: Bu nazaryani F.Engels va K.Marks rivojlantirgan. Ularning fikricha, til mehnat jarayonida yuzaga kelgan. Odamlar birgalikda ishlash davomida o'zaro aloqa qilishga majbur bo'lgan va shu tariqa til shakllangan. Ijtimoiy farazlar: Ayrim olimlar tilning kelib chiqishini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'lashadi. Insonlar o'zaro munosabatlarga kirishar ekan, ularning ehtiyojlari tildan foydalanishni tobora kengaytirgan va boyitgan. Tilning paydo bo'lishi tafakkur bilan bir vaqtda sodir bo'lgan. Insoniyatga xos bo'lgan bu ikki hodisa bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri ikkinchisiz yashay olmaydi. Shunday qilib, til jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli. Zamonaviy qarashlar: Hozirgi kunda tilning kelib chiqishi bitta nazariya bilan izohlanmaydi. Olimlar til uzoq tarixiy jarayon natijasida, turli omillarning ta'sirida yaralgan deb ta'kidlaydilar. Biologik psixologik va ijtimoiy omillar bir-biriga ta'sir qilib, tilning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Biologik yondashuv: Inson miyasining

murakkab tuzilishi, ovoz apparati va nutq organlari rivojlanganligi til paydo bo'lishida ustuvor omil sanaladi. Evalyutsiya jarayonida boshqa jonzotlarda bo'lmagan nutq qobiliyati odomzotda rivojlangan.

Psixologik yondashuv: Til faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkurning tashqi ifodasidir. Inson o'z fikrini tartibga solish, his-tuyg'ularini ifodalash uchun tilga ehtiyoj sezgan. Bu jarayon psixologik zarurat bilan uzviy bog'liq.

Tilning rivojlanishini o'zbek tili misolida ko'radigan bo'lsak, o'zbek tili tarixan boshqa tillar, ayniqsa fors-tojik va rus tillari bilan o'zaro ta'sirda rivojlanib kelgan. Fors-tojik tilining ta'siri qadimdan boshlangan bo'lib, o'zbek xalqi bu xalq bilan yonmayon yashagan, shu sababli madaniy-ijtimoiy hayotda ko'plab mushtaraklik elementlari shakllangan. Somoniylar davrida (IX-X asrlar) fors tili "forsiy dariy" nomi bilan rasmiy va adabiy til sifatida keng yoyilgan. Shu tufayli o'sha davrda yaratilgan adabiyotlar fors-tojik tilida yozilgan, ammo ular o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Keyinchalik, XIX asrdan boshlab rus tili va u orqali Yevropa tillarining o'zbek tiliga ta'siri kuchaygan. Bu jarayon Rossiya tomonidan O'rta Osiyoning istilosi davrida yanada faollashgan. Ayniqsa, rus tili o'zbek tili terminologiyasining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Shunday qilib, o'zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida turli tillar bilan aloqada bo'lib, ularning eng yaxshi jihatlarini o'zlashtirgan holda boyib borgan.

Xulosa qilib aytganda, tilning kelib chiqishi insoniyatning eng qiziqarli va murakkab muammolaridan biridir. Turli nazariyalar mavjud bo'lsada, ularning barchasi tilning paydo bo'lishini har xil jihatlar orqali tushuntiradi. Eng muhim tomoni shundaki, til jamiyatning muhim belgisi va biz uchun eng buyuk yutug' sifatida qadrlanadi. Har bir inson jamiyatda va o'z yurtida tilning rivojlanishiga yaxshiroq e'tibor qaratib muvafaqqiyatlarga erishishida muhim rol o'ynashi kerak. Tilning rivojlanishi nafaqat jamiyatga balki, insonlarning kelajakdagi yutuqlarga va ilmlarni takomillashtirishga asosiy omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Irisqulov. M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, O'qtuvchi, 1992.
2. O'. Usmonov. Umumiy tilshunoslik- Toshkent: Fan, 2005.
3. F. de Sossyur. Umumiy tilshunoslik kursi- Toshkent, 1990.
4. Rahmatullayev. Sh. Tilshunoslik nazariyasi Toshkent: Universitet, 2015.

O'ZBEK TILIGA FORS TILIDAN KIRIB KELGAN SO'ZLAR

Latipova Zahro Bekzod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi

zahrolatipova134@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zbek tiliga fors tilidan kirib kelgan so'zlarning shakllanish jarayoni, ularning qo'llanish doirasi va hozirgi tilimizdagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Forsiy elementlarning o'zbek tiliga kirib kelishiga tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar sabab bo'lgan. Ularning ko'p qismi kundalik hayot, adabiyot, ma'naviyat va ilmiy atamalarda keng qo'llanadi. Ushbu maqolada forscha so'zlarning fonetik va semantik o'zgarishlari, shuningdek, ularning milliy tilimizdagi barqaror o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: forscha so'zlar, o'zlashma, leksika, tarixiy tilshunoslik, madaniyat, til taraqqiyoti, semantika.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается процесс образования слов, пришедших в узбекский язык из персидского языка, сфера их применения и место в современном языке. Внедрение персидских элементов в узбекский язык было обусловлено историческими, культурными и социальными факторами. Большинство из них широко используются в повседневной жизни, литературе, духовных практиках и научных терминах. В данной статье научно анализируются фонетические и семантические изменения персидских слов, а также их устойчивое место в нашем национальном языке.

Ключевые слова: персидские слова, ассимиляция, лексика, историческое языкознание, культура, развитие языка, семантика.

ANNOTATION. This article discusses the process of formation of words that entered the Uzbek language from Persian, their scope of application and their place in our current language. The introduction of Persian elements into the Uzbek language was caused by historical, cultural and social factors. Most of them are widely used in everyday life, literature, spirituality and scientific terms. This article scientifically analyzes the phonetic and semantic changes of Persian words, as well as their stable place in our national language.

Keywords: persian words, assimilation, lexicon, historical linguistics, culture, language development, semantics.

O'zbek tili tarixiy taraqqiyot davomida ko'plab tillar bilan aloqa va ta'sir jarayonida bo'lgan. Bu jarayonlar natijasida o'zbek tili lug'at tarkibiga turli manbalardan, xususan, fors tilidan kirib kelgan so'zlar alohida qatlamni tashkil etadi. Forscha so'zlar o'zbek tilining shakllanishi, adabiy til me'yorlarining rivoji va madaniy ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynagan. Fors tili bilan o'zbek tili o'rtasidagi til aloqalari asosan madaniy, siyosiy, iqtisodiy va diniy munosabatlar orqali yuzaga kelgan. Ayniqsa, IX–XV asrlar oralig'ida Movarounnahr va Xuroson hududlarida arab-fors madaniyati bilan turkiy xalqlarning yaqinlashuvi natijasida o'zbek tiliga forscha unsurlar keng kirib keldi. Shu davrda yaratilgan adabiy yodgorliklar — “Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'otit turk”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Boburnoma” kabi asarlarda forscha so'zlarning faol qo'llanilganini kuzatish mumkin. Ilmiy nuqtai nazardan, forscha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi ikki yo'l bilan kechgan:

1. Bevosita kirish – ya'ni fors tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga o'tgan so'zlar (masalan: gul, daryo, shamol, rang, oyina).

2. Vositali kirish – arab tili orqali forscha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi (masalan: adab, dunyo, maktab, ilm).

Bunday leksik qatlamning o'zbek tilidagi o'rganilishi etimologiya, leksikologiya va tarixiy tilshunoslik yo'nalishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Forscha so'zlar nafaqat lug'at tarkibini boyitgan, balki o'zbek adabiy tilining uslubiy, estetik va madaniy qirralarini ham kengaytirgan.

O'zbek tili boy va qadimiy tarixga ega bo'lib, uning lug'at tarkibi asrlar davomida turli tashqi omillar ta'sirida shakllangan. O'zbek xalqining qo'shni xalqlar bilan olib borgan siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari natijasida tilimizga turli tillardan minglab so'zlar o'zlashgan. Xususan, fors tili o'zbek tiliga eng katta ta'sir ko'rsatgan tillardan biridir. Chunki uzoq asrlar davomida turkiy xalqlar fors-tojik xalqlari bilan yonma-yon yashab, madaniy va ilmiy aloqalar olib borganlar.

Fors tilidan kirgan so'zlarning ko'pchiligi kundalik hayot, adabiyot, diniy va ilmiy terminlarda uchraydi. Masalan, dunyo, daftar, daftarxona, sabr, ta'lim, adabiyot, gul, sabzi, osh, rang, bozor, daftar, daftarxon kabi so'zlar hozirgi o'zbek tilida ham faol qo'llanmoqda. Bu esa forsiy leksika o'zbek tilining lug'at boyligini kengaytirishda muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Fors tilidan kirib kelgan so'zlar o'zbek tilining

deyarli barcha sohalarida uchraydi. Ular kundalik turmushda (bozor, non, sabzi, osh), diniy-ma'naviy sohada (sabr, odob, taqdir, adolat), ilm-fan va adabiyotda (adabiyot, daftar, falsafa, hikmat) keng qo'llanadi. Shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyoti va yozma manbalarida forscha so'zlarning juda katta ulushi mavjud. Forscha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishiga bir necha omillar sabab bo'lgan. Avvalo, fors tili qadimda mintaqada ilm-fan, adabiyot va davlat tili sifatida katta nufuzga ega bo'lgan. Ikkinchidan, islom madaniyati rivojida arab va fors tillari birgalikda ilmiy adabiyot yaratishda asosiy vosita bo'lgan. Uchinchidan, iqtisodiy va madaniy aloqalar ham forscha so'zlarning o'zbek tiliga singib ketishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shunday qilib, fors tilidan kirib kelgan so'zlar nafaqat lug'at boyligimizni kengaytirgan, balki milliy madaniyatimiz va adabiyotimiz rivojiga ham salmoqli hissa qo'shgan. Ushbu mavzuni o'rganish o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini anglash, o'zlashma so'zlarning hozirgi tilimizdagi o'rnini belgilash va kelajak uchun ilmiy asos yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fors tilidan so'zlarning kirib kelishi tarixiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq: tarixiy aloqalar: qadimiy davrlarda Markaziy Osiyoda fors tili madaniyat va adabiyot tili sifatida keng qo'llangan. Islom madaniyati ta'siri: Qur'oni karim va hadis ilmlarini targ'ib qilishda arab tili bilan bir qatorda forsiy ilmiy asarlar ham asosiy manba bo'lgan. Adabiyot va she'riyat: forsiy she'riyat, xususan, Hofiz, Sa'diy, Rudakiy, Firdavsiy kabi shoirlarning ijodi turkiy xalqlar adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan.

O'zbek tilidagi forscha so'zlarni quyidagi ma'no guruhlariga ajratish mumkin: Kundalik hayotga oid so'zlar: bozor, non, osh, sabzi, gul, rang, daftar. Ma'naviy va diniy so'zlar: sabr, taqdir, adolat, odob, ta'lim. Adabiy va ilmiy terminlar: adabiyot, falsafa, daftarxona, hikmat, ma'no. Shaxsiy sifat va xulq-atvorni ifodalovchi so'zlar: dil, muhabbat, mehr, sabr, shijoat.

Tilimizga kirib kelgan forsiy so'zlar ko'p hollarda fonetik moslashuvga uchragan. Masalan:

sabz → sabzi

rang → rang (o'zgarishsiz)

defter → daftar

ta'lim (aslida ta'limat) → qisqartirilgan shaklda qo'llaniladi.

Shuningdek, ba'zi forscha so'zlarning ma'nosi ham o'zgarib ketgan. Masalan, dunyo aslida "hayot" yoki "borliq" ma'nosini bildirsa, hozirgi o'zbek tilida ko'proq "yer yuzi, hayot" ma'nosida qo'llanadi. O'zbek tilidagi forscha so'zlar son jihatdan juda ko'p bo'lib, ular tilimizning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Forscha

soʻzlar oʻzbek tili leksikasini boyitibgina qolmay, balki madaniy qadriyatlarni ham oʻzida mujassam etadi. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilida forscha soʻzlar turkiy ildizli soʻzlar bilan uygʻunlashib, barqaror leksik qatlamni tashkil etmoqda.

Demak, oʻzbek tiliga fors tilidan kirib kelgan soʻzlar tilimiz rivojida muhim oʻrin tutadi. Ularning kirib kelishi tarixiy va madaniy aloqalarning mahsuli boʻlib, bugungi kunda ham faol qoʻllanmoqda. Forscha soʻzlar tilimizni boyitgan, yangi tushunchalar va terminlar bilan toʻldirgan. Shuningdek, ular oʻzbek adabiyoti va madaniyatining shakllanishida ham katta rol oʻynagan. Kelajakda oʻzbek tilshunosligida forscha soʻzlarning tizimli lugʻatini tuzish, ularning semantik tahlilini kengaytirish va oʻzbek tilidagi qoʻllanilish xususiyatlarini yanada chuqur oʻrganish zarurligini koʻrishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Gʻ. Oʻzbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 2015.
2. Qosimov B. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2016.
3. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Hofiz, Saʼdiy va boshqa forsiy shoirlarning asarlari.
5. Karimov H. Oʻzbek tilida oʻzlashma soʻzlar. – Samarqand, 2018.
6. www.corpus.uz – Oʻzbek milliy korpusi.

ONA TILIMIZNING QADRI

Mahammatoeva Malika Bekmurza qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-kurs kechki ta'lim talabasi

Ilmiy rahbar: Usmanova Z.I.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tilining millat hayotidagi o'rni, uning tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati, shuningdek, mustaqillik davrida o'zbek tilining nufuzi haqida so'z yuritiladi. Ona tili — millatning ruhi, uning madaniyatini, o'zligini belgilovchi muqaddas qadriyat sifatida talqin etiladi. Ona tilini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish barchamizning muqaddas burchimiz ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Ona tili, millat ruhi, ma'naviyat, mustaqillik, davlat tili, qadriyat, madaniyat, milliy o'zlik.

Annotation. This article talks about the role of the mother tongue in the life of the nation, its educational and spiritual importance, as well as the influence of the Uzbek language in the period of independence. The mother tongue is the soul of the nation, it is interpreted as a sacred value that determines its culture and identity. It is emphasized that it is the sacred duty of all of us to preserve the mother tongue and pass it on to future generations.

Key words. Mother tongue, national spirit, spirituality, independence, state language, value, culture, national identity.

Til – insoniyatning eng ulug' ixtirolaridan biridir. Til orqali inson o'z fikrini bayon etadi, bilim oladi, madaniyatini asrab-avaylaydi va keyingi avlodlarga yetkazadi. Ayniqsa, ona tili insonning shaxs sifatida shakllanishida beqiyos o'rin tutadi. Har bir xalqning o'ziga xosligi, milliy qiyofasi va ma'naviy merosi, eng avvalo, uning tilida mujassam bo'ladi. Shu boisdan ham ona tilimizning qadrini bilish, uni asrash va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Har qanday xalqning milliy o'zligini saqlab qolishida eng asosiy omil — bu uning tili hisoblanadi. Agar bir millat o'z tilini yo'qotsa, asta-sekin o'z madaniyatidan, tarixidan va hatto milliy ruhidan ham judo bo'ladi. O'zbek xalqining ming yillik boy tarixi, bebaho adabiy merosi va o'ziga xos madaniyati, eng avvalo, o'zbek tilida avloddan-avlodga yetib kelmoqda. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning imkoniyatlari, go'zalligi va beqiyos boyligini alohida ta'kidlagan. Shuningdek, Bobur,

Mashrab, Furqat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi adiblarimiz ham o'z asarlari orqali ona tilimizni yuksak darajaga ko'targanlar. Ularning ijodi millatimizning ma'naviy boyligini, tilimizning rang-barang imkoniyatlarini dunyoga namoyon etdi.

Ona tili nafaqat aloqa vositasi, balki tarbiya manbai hamdir. Bola ilk bor ona tilida so'zlaydi, ona tilida qo'shiq va ertaklarni eshitadi. Shu jarayon orqali u faqat tilni emas, balki mehr, muhabbat, insonparvarlik, adolat kabi ma'naviy qadriyatlarni ham o'zlashtiradi. Shu sababli, ona tilida tarbiyalangan bola o'z millatiga sodiq, o'zligini anglagan, ma'naviy barkamol inson bo'lib ulg'ayadi. Demak, ona tilini qadrlash — bu nafaqat tilni, balki milliy g'urur va ma'naviyatni asrab-avaylashdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. 1989-yilda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonun mustaqillik davrida yangi tahrirda qayta ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilindi. Bu qonun o'zbek tilining maqomini oshirishda, uning nufuzini yuksaltirishda muhim qadam bo'ldi. Bugungi kunda o'zbek tili nafaqat kundalik hayotda, balki ta'lim, ilm-fan, davlat boshqaruvi, diplomatiya va xalqaro munosabatlarda ham faol qo'llanmoqda. Internet tarmoqlarida, elektron nashrlarda va ilmiy izlanishlarda ona tilimizning keng qo'llanilayotgani tilimizning tobora rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, Prezident tashabbusi bilan 21-oktabr sanasi — "O'zbek tili bayrami kuni" sifatida nishonlanmoqda. Bu esa ona tilimizning davlat miqyosida qadrlanayotganining yaqqol isbotidir. Ona tilimizning kelajagi uni qanday qadrlashimizga bog'liq. Agar biz tilimizni sevib, uni to'g'ri qo'llasak, yangi so'zlar bilan boyitsak va uni keyingi avlodlarga yetkazsak, millatimizning ham abadiyligini ta'minlaymiz. Aksincha, tilimizga loqaydlik, begona unsurlarni haddan tashqari qo'shib yuborish, uni noto'g'ri ishlatish — bu millatning o'zligini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Shu bois, ona tilimizni asrab-avaylash, uni ardoqlash va uni dunyo miqyosida tanitish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Xulosa qilib aytganda, ona tilimiz — millatimizning ruhi, ma'naviy poydevori va bebaho boyligidir. Uni qadrlash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazish — har bir fuqaroning vijdoniy burchi hisoblanadi. Zero, ona tilini sevgan inson o'z xalqini, tarixini va Vatanini sevadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. — T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. — T.: Sharq nashriyoti, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2023.

4. “Davlat tili haqida”gi Qonun. – T.: 1989 (2020-yilda yangi tahriri).
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va nutqlari. – T., 2019–2024.

SINTAKSISNINNG TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O'RNI

Mamatova Nilufar Nuriddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universitet

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi,

Mamatovanilufar19@gmail.com

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya:

Mazkur maqolada sintaksis bo'limining mohiyati, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, qadimgi yunon tilshunosligidan boshlab, o'zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar misolida sintaksisning taraqqiyoti va ilmiy ahamiyati yoritiladi. Maqolada so'z birikmasi va gap sintaksisining o'ziga xos jihatlari, ularning til tizimidagi o'rni haqida qisqacha so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, grammatika, sintaksis, gap sintaksisi, gap bo'laklari, so'z birikmasi, sintaktik birlik, olimlar.

Abstract:

This article discusses the essence of the section of syntax, the stages of its formation and development. Also, starting from ancient Greek linguistics, the development and scientific significance of syntax are highlighted on the example of research conducted in the field of linguistics. The article briefly discusses the specific aspects of word combinations and sentence syntax Their role in the language system.

Keywords: Linguistics, grammar, syntax, sentence syntax, parts of speech, word combination, syntactic unit, scientists

Sintaksis" termini, garchi ayni hozirgi ma'noda bo'lmasa-da, dastlab mil. av. 3-asrda Yunonistonda stoiklar tomonidan qo'llangan. Sintaksisning ilk prinsiplarini yunon grammatisti Apolloniy Diskol morfologik negizda, xususan, so'z turkumlari Sintaksis tarzida asoslagan. Sintaksis tarixi yevropa va rus tilshunosliklarida bo'lganidek turkiy tillarda (o'zbek tilida) ham o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini o'tgan. Qomusiy alloma Mahmud Koshg'ariyning 11-asrda "Javoxir unnahvi fi lugotitturk" ("Turkiy tillar sintaksisi qoidalari) asarini yaratganligi buning yaqqol isbotidir. 20-asrda o'zbek tili sintaksisiga, qisman, sintaktik qurilishiga rus tilshunosligidagi nazariy tadqiqotlar ham ma'lum darajada ta'sir o'tkazgan va shu

asnoda olimlar tomonidan o'rganish jarayonlari avj ola boshlagan. Jumladan, bu borada Fitrat tomonidan "nahv" atamasi ostida amalga oshirilgan izlanishlarini alohida e'tiborga molik deyishimiz mumkin. Undan so'ng H.Qayumiy va S.Dolimovlar ham ikki qismli "Grammatika" asarini yozib, ikkinchi qismini "nahv" deb nomlaganlar. O'zbek tilshunosligida birinchi marotaba sintaksis nomi ostida O.Usmonov va B. Azizov maktab grammatikasini nashr etishadi. Bu esa o'zbek tili sintaksisi haqida birinchi ma'lumot bergan ishlardan edi. Lekin, bitta kamchiligi bo'lib, bu kitob faqat bolalarni o'qitishga mo'ljallangan edi. Sintaktik sath birliklarini o'rganish Ovrupa tilshunosligining yutuqlari asosida chuqur o'rganish A.G'ulomov nomi bilan bo'g'liq. U "O'zbek tilida aniqlovchilar" mavzusi bo'yicha ilmiy ish qilgan. Shuningdek ushbu olim o'zbek sintaksisi nazariyasiga "O'zbek tilida so'z tartibi" va "Sodda gap" nomli o'z ilmiy asarlari bilan katta ulush qo'shgan. Shundan so'ng A.N. Konnovning "O'zbek tili grammatikasi" asarining rus tilida nashr etilishi va unda o'zbek tilining barcha sathlari, jumladan, sintaktik sath birligining ham tadqiq etilishi o'zbek tili sintaksisiga keng ilmiy jamoatchilik diqqatining jalb etilishiga turtki bo'ldi va O'zbek tili sodda gap sintaksisning takomillashuvida B. O'rinboyevning "Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya", N.Makhmudovning "O'zbek tilidagi sodda gaplarda mazmun va shakl assimetriyasi" monografiyalari ahamiyatli bo'ldi. Akademik G.Abdurakhmonov va M.Askarovlar esa o'zbek tili qo'shma gap sintaksisi shakllanishida munosib hissa qo'shdilar.

Sintaksis so'zi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, syntaxis - "tuzilish", "bog'lanish", "qurilish" ma'nolarini bildirib, gap haqidagi ta'limot hisoblanadi. U so'z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ular orasidagi munosabatlar hamda mazkur birliklarning nutq jarayonida qanday shakllanishini o'rganadi. Sintaksis nafaqat tilning grammatik qurilishini yoritadi, balki nutqiy jarayonning mantiqiy va mazmuniy asosini ham tashkil etadi. Shu bois sintaksis lingvistikaning nazariy va amaliy jihatdan eng markaziy sohalaridan biri sanaladi. Sintaksisning asosiy obyekti so'z birikmalari va gaplar bo'lib, bu birliklar o'z navbatida til tizimining yuqori bosqichlarini tashkil etadi, nutqiy muloqotning bevosita ifodachilari bo'la oladi. So'z birikmasi – ikki yoki undan ortiq so'zning ma'no va grammatik jihatdan bog'lanib kelishi natijasida hosil bo'ladi. Gap esa nutqiy fikrning to'liq ifodasi bo'lib, unda ma'no va grammatik mustaqillik mavjud bo'ladi. Shuningdek, sintaksisda gap bo'laklari, ularning o'zaro aloqasi, gaplarning turlari, bog'lanish usullari kabi masalalar alohida o'rganiladi. Bu jihatdan sintaksis tilshunoslikning fonetika, leksikologiya va morfologiya kabi boshqa bo'limlari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Sintaksis o'z navbatida asosiy

sintaktik birliklariga ega бўлиб, uni сўз бирикмаси ва gap ташкил etadi. Shunga кўра, sintaksis ikkiga бўlinadi: So'z бирикмаси sintaksisi hamda gap sintaksisi. Sўzning nutqda o'zaro aloqaga kirishuvidan so'z qo'shilmasi vujudga keladi. So'z qo'shilmasini ham ikki guruhga birlashtirish mumkin: 1) gap (Osmon tip-tiniq); 2) so'z бирикмаси (tip-tiniq osmon). Til jamiyatda aloqa qilish, axborot uzatish vositasi hisoblanadi. Axborot uzatish esa gap orqali amalga oshiriladi. Demak, gap fikr ifodalaydi. So'z бирикмаси fikr emas, balki so'z kabi tushuncha ifodalaydi. Bundan : "Sintaksisning bosh birligi gap, sўz бирикмаси bevosita yoki bilvosita uning tashkil etuvchisi" - degan fikr anglashiladi. Sintaktik birlik - gap va so'z бирикмаси - so'zning qo'shilishidan hosil bo'lishi, bu qo'shilishning esa turli vosita (qo'shimcha, yordamchi so'z) va usul (masalan, tobe aloqaning turi) orqali yuzaga kelishi sintaksisning boshqa sathlar bilan zich aloqada ekanligini ko'rsatadi. Demak, nutqda:

1) so'zlar o'zaro sintaktik aloqaga kirishib, tushuncha ifodalovchi birlik so'z бирикмаси vujudga keladi. So'zlarning o'zaro бирикib, tushuncha ifodalovchi birlik hosil qilish qonuniyatini o'rganish - so'z бирикмаси sintaksisining vazifasi;

2) so'z fikr ifodalashga ixtisoslashgan nutqiy birlik - gapni shakllantiradi. Gap hosil qilish qonuniyati bilan gap sintaksisi mashg'ul bo'ladi.

Sintaksis nafaqat lingvistik nazariyada, balki amaliyotda ham muhim o'rin tutadi. Avvalo, yozma va og'zaki nutqni to'g'ri qurishda sintaktik bilimlarga tayaniladi. Sintaktik normalarni buzish nutqda mantiqiy xatolarga olib keladi. Shuningdek, sintaksisning o'rganilishi tarjimashunoslikda, matnshunoslikda, stilistikada va hatto kompyuter lingvistikasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda sintaksis masalalari matn lingvistikasi, diskurs tahlili, sun'iy intellekt va avtomatik tarjima jarayonlari uchun ham dolzarbdir. Shu bois bu soha faqat an'anaviy tilshunoslik doirasidagina emas, balki zamonaviy fanlararo izlanishlarda ham keng qo'llanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Sintaksis lingvistik tizimning yuqori sathini tashkil etuvchi bo'lim sifatida tilning ichki qonuniyatlarini yoritishda fundamental ahamiyat kasb etadi. U so'z биirkmalari va gaplarning tuzilishi, ularning mantiqiy-semantik munosabatlari hamda nutqiy jarayondagi funksional imkoniyatlarini tahlil qilish orqali til tizimining yaxlitligini ta'minlaydi. Mazkur yo'nalish qadimiy yunon grammatik maktablaridan boshlangan bo'lib, turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilshunosligi doirasida ham izchil taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Mahmud Koshg'ariy, Fitrat, O. Usmonov, A. G'ulomov, G. Abdurahmonov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari o'zbek tili sintaksisining shakllanishi va rivojlanishida nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilgan. Hozirgi zamon lingvistikasida sintaksis masalalari nafaqat an'anaviy grammatik

qurilishni tadqiq etishda, balki matn lingvistikasi, diskurs tahlili, tarjimashunoslik, stilistika, kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt kabi fanlararo yo'nalishlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan sintaksisni chuqur o'rganish tilshunoslik nazariyasini rivojlantirish, nutq madaniyatini yuksaltirish hamda zamonaviy ilmiy va texnologik jarayonlarga metodologik asos yaratishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.R.R. Sayfullayeva, B.R. Mengliyev, L.R. Raupova, M.M.Qurbonova, M.Q.Abuzalova, D.N.Yo'ldosheva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent–2020.
- 2.Mahmudov N.,Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. (Sintaksis). –T.: O'qituvchi, 1995.

SO'Z VA UNING MA'NOSI: ZAMONAVIY LEKSIKOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI

Ma'murjonova Rahima Dilshod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universitet

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

rahimamamirjonova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'z va uning ma'nosi masalasi zamonaviy leksikologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. So'zning mazmuniy, strukturaviy va kognitiv xususiyatlari yoritilib, zamonaviy leksikologiyaning asosiy nazariy yo'nalishlari – struktural, kognitiv, komponent, semantik maydon va ontologik yondashuvlar haqida ilmiy asosda fikr yuritiladi. Shuningdek, so'z ma'nosining kontekstual va ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgarishi masalasiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: so'z, ma'no, leksikologiya, semantika, kognitiv yondashuv, strukturalizm, semantik maydon, til tizimi.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема слова и его значения с точки зрения современной лексикологии. Освещаются содержательные, структурные и когнитивные особенности слова, а также основные теоретические направления современной лексикологии — структурализм, когнитивный, компонентный, семантического поля и онтологический подходы. Кроме того, уделяется внимание изменению значения слова под влиянием контекстуальных и социальных факторов.

Ключевые слова: слово, значение, лексикология, семантика, когнитивный подход, структурализм, семантическое поле, языковая система.

Abstract: This article examines the issue of the word and its meaning from the perspective of modern lexicology. It highlights the semantic, structural, and cognitive characteristics of the word and discusses the main theoretical approaches of contemporary lexicology — structuralism, cognitive, component, semantic field, and ontological approaches. Special attention is given to the influence of contextual and social factors on the change of word meaning.

Keywords: word, meaning, lexicology, semantics, cognitive approach, structuralism, semantic field, language system.

Til inson tafakkurining eng muhim vositasi, so'z esa uning markaziy birligidir. Tilshunoslikda so'zning ma'nosini o'rganish har doim dolzarb bo'lib kelgan. So'zning

shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabat, ularning o'zgarishi, yangi ma'nolar hosil bo'lishi, ko'chma ma'nolarning paydo bo'lish jarayonlari leksikologiyaning asosiy tadqiq yo'nalishlarini tashkil etadi. Zamonaviy davrda leksikologiya nafaqat so'zning lug'aviy ma'nosini, balki uning kognitiv, madaniy va ijtimoiy jihatlarini ham chuqur o'rganishga qaratilgan.

Leksikologiya - tilshunoslikning so'z boyligini, ya'ni tilning leksik tizimini o'rganadigan bo'limidir. Yunoncha *lexis* ("so'z") va *logos* ("ta'limot") so'zlaridan tashkil topgan bu termin tilning so'z tarkibini, so'zlarning ma'nosi, kelib chiqishi, ishlatilish sohasi va o'zaro semantik munosabatlarini tahlil qiladi. Leksikologiyaning asosiy predmeti so'z va tilning lug'aviy tarkibidir. So'z – tilning eng muhim birligi bo'lib, u orqali inson fikrlaydi, o'zaro muloqot qiladi va dunyoqarashini ifodalaydi.

Leksikologiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Tilning lug'at boyligini ilmiy asosda o'rganish.
2. So'zlarning ma'nolarini va ularning o'zgarishini izohlash.
3. Sinonimlar, antonimlar, omonimlar, paronimlar kabi so'zlar guruhini tahlil qilish.
4. So'zlarning kelib chiqishi (etimologiya)ni aniqlash.
5. Tarixiy so'zlar, yangi so'zlar, eskirgan birliklarni o'rganish.
6. Lug'atlar tuzish va leksikografiyani rivojlantirish.

Leksikologiyaning umumiy, xususiy, tarixiy, qiyosiy, nazariy, amaliy leksikologiya kabi turi mavjud. Umumiy leksikologiya leksikaning qurilish, amal qilish va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatini ochsa, xususiy leksikologiya ma'lum bir tilning lug'at tarkibini o'rganadi. *Tarixiy leksikologiya* so'zning tarixiy shakliy va ma'noviy holatini, taraqqiyotini tekshiradi. *Qiyosiy leksikologiya* qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarning leksik birliklarini taqqoslash bilan shug'ullanadi. Masalan, qalqimaq so'zi o'zbek tilida narsalarning yuzaga chiqishini ifodalaydi va uning turk tilidagi varianti ma'nosi « kishining o'rnidan turishi» farqlanadi. Saat kachda kalkiyursunuz? - Qachon uyqudan turasiz? Yoki qarindosh bo'lmagan o'zbek va rus tillaridagi yablaka- meva va [alma-meva va daraxt leksemalarining lisoniy qiymatlari har xil. *Amaliy leksikologiya* leksikografiya (lug'atchilik), tatjima, lingvo-poetika va nutq madaniyatini o'z ichiga oladi. Ularning har biri leksikologik nazariyani boyitadi. Masalan, tarjima qiyosiy leksikologiya uchun qimmatli materiallar beradi. *Nazariy leksikologiya* leksikada lisoniy va nutqiy jihatlarini farqlab, ularning tizimiy munosabatlarini tadqiq qiladi. Leksikologiya o'z o'rganish predmeti tadqiqida umumlingvistik tadqiq usul – distributiv: so'zning chegarasini belgilash, morfologik

strukturasini aniqlash, substitutsiya: so'zlar ma'noviy xususiyatlarini tahlil etish, komponent tahlil: leksema va so'zlar ma'noviy tarkibini aniqlash, transformatsion va statistik metodlaridan foydalanadi.

So'z – bu tildagi eng kichik, mustaqil ma'no bildiruvchi birlik bo'lib, u predmet, hodisa yoki harakatni ifodalaydi. So'zning ikki tomoni mavjud:

- Tovush shakli (forma) - fonetik-morfologik tuzilma;
- Ma'no (semantika) - so'zning ifodalayotgan tushunchasi.

So'z ma'nosi - til birliklarining ong'dagi tushunchasi bilan bog'liq semantik mazmundir. Leksik ma'no denotativ (asosiy), konnotativ (qo'shimcha), kontekstual, emotiv va ekspressiv turlarga ajratiladi. Masalan, “*yurak*” so'zining asosiy ma'nosi - inson a'zosi; ko'chma ma'nosi - “jasorat, mehr, tuyg'u manbai” kabi tushunchalarni bildiradi.

Zamonaviy leksikologiyaning nazariy yo'nalishlari:

a) Struktural yondashuv - Bu yo'nalish asoschisi F. de Sossyur bo'lib, u tilni belgilar tizimi sifatida talqin qilgan. Struktural leksikologiya so'zning ma'nosini uning boshqa birliklar bilan paradigmatic va sintagmatic munosabatida o'rganadi. So'z ma'nosi boshqa so'zlar bilan tarmoq holda bog'langan tizimda aniqlanadi.

b) Kognitiv yondashuv - XX asr oxirlarida shakllangan bu yo'nalishda so'z ma'nosi inson tafakkuri bilan bevosita bog'liq holda tahlil qilinadi. Kognitiv leksikologiya so'zlarni ong'dagi kontseptual model orqali izohlaydi. Masalan, “*ona*” so'zi faqat biologik tushuncha emas, balki madaniy va axloqiy qadriyatni ham bildiradi.

c) Komponent tahlil - Bu usulda so'z ma'nosi semalar, ya'ni eng kichik ma'no birliklariga ajratiladi. Masalan, “*bola*” - [inson], [kichik yoshda], [erkak yoki ayol bo'lishi mumkin]. Bu tahlil ma'no tuzilmasini aniqlashga yordam beradi.

d) Semantik maydon nazariyasi - So'zlar ma'no jihatdan o'zaro bog'liq tarmoqlar hosil qiladi. Masalan, “*transport*” semantik maydoniga: mashina, avtobus, poyezd, samolyot kabi so'zlar kiradi. Ushbu nazariya leksik tizimni yaxlit semantik maydon sifatida tushunishga asoslanadi.

e) Ontologik yondashuv - Bu yondashuvda so'z ma'nosi real mavjudotlar bilan aloqadorlikda o'rganiladi. Ontologik leksikologiya til belgilarining falsafiy mohiyatini ochib beradi.

Bugungi kunda leksikologiya fanining qo'llanma sohasi kengayib bormoqda:

- Korpus leksikologiyasi - so'zlarni katta matnlar bazasi (korpus) asosida tahlil qiladi;

- Kompyuter leksikologiyasi - sun'iy intellekt tizimlarida so'z ma'nosini avtomatik aniqlashga qaratilgan;
- Sotsiollingvistik leksikologiya - so'zlarning ijtimoiy guruhlar, hududlar yoki kasblar bo'yicha qo'llanishini o'rganadi;
- Pragmatik leksikologiya - so'zning nutq vaziyatiga qarab ma'nodagi o'zgarishlarini tahlil qiladi.

So'z va uning ma'nosi masalasi leksikologiyaning markaziy muammosidir. Zamonaviy leksikologiya so'zning nafaqat lug'aviy, balki kognitiv, sotsiokulturniy va pragmatik jihatlarini ham o'rganish orqali til va tafakkur o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni yoritib bermoqda. Bugungi tilshunoslikda leksikologiya - til tizimini tushunish, inson tafakkurini tahlil qilish va madaniy merosni saqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov A., Rasulov A. *O'zbek tili leksikologiyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
2. Karimov A. *Zamonaviy o'zbek tilshunosligi asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Nurmonov A. *Tilshunoslik nazariyasi*. – Toshkent: Universitet, 2013.
4. Rasulov R. *Leksikologiya va semasiologiya masalalari*. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Sodiqov A. *O'zbek tilining semantik tizimi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
6. Yo'ldoshev M. *Til va tafakkur: Semantik tahlil asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI VOKALIZMI

Mansurova Mashhura Olimboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

mashxura_apple@icloud.com

Tel: +998503708583

Ilmiy rahbar: Murodova Feruza

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmi tilning fonetik asoslarini belgilovchi muhim qatlam sifatida namoyon bo'ladi. Unli tovushlarning tizimi, ularning tarixiy shakllanishi, lahjalar ta'siri va fonologik qonuniyatlar orqali tilning ichki imkoniyatlari hamda estetik ohangi yuzaga chiqadi. Vokalizmni o'rganish nafaqat fonetik tafsilotlarni ochadi, balki o'zbek nutq madaniyati va milliy til tafakkurini ham chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiy tili, vokalizm, unli tovushlar, fonetika, fonologiya, tarixiy taraqqiyot, lahja, fonetik tizim, nutq madaniyati, til estetikasi.

Аннотация: В данной статье вокализм современного узбекского литературного языка представлен как важный пласт, определяющий фонетические основы языка. Система гласных, её историческое формирование, влияние диалектов и фонологических закономерностей раскрывают внутренние возможности и эстетический тон языка. Изучение вокализма не только раскрывает фонетические детали, но и способствует более глубокому пониманию узбекской речевой культуры и национального языкового мышления.

Ключевые слова: узбекский литературный язык, вокализм, гласные, фонетика, фонология, историческое развитие, диалект, фонетическая система, культура речи, эстетика языка.

Abstract: In this article, the vocalism of the modern Uzbek literary language is presented as an important layer that determines the phonetic foundations of the language. The system of vowels, their historical formation, the influence of dialects and phonological regularities reveal the internal possibilities and aesthetic tone of the language. The study of vocalism not only reveals phonetic details, but also helps to understand the Uzbek speech culture and national language thinking more deeply.

Keywords: Uzbek literary language, vocalism, vowels, phonetics, phonology, historical development, dialect, phonetic system, speech culture, language aesthetics.

Til insoniyat tafakkurining eng nozik va murakkab ko'rinishlaridan biridir. O'zbek adabiy tili esa ko'p asrlik tarixiy jarayonlar, xalqning boy madaniy merosi va turli davrlarning ijtimoiy ehtiyojlari ta'sirida shakllangan hamda rivoj topib kelmoqda. Uning fonetik asosida unli tovushlar tizimi – vokalizm alohida o'rin tutadi. Chunki unli tovushlar tilning musiqiyligini, ohangdorligini, estetik jozibasini ta'minlaydi. Har bir tilning o'z ovozi, o'z ohangi, o'z ruhiy olami bo'lgani kabi, o'zbek adabiy tilining ham ohangdorligi, chiroyi va jarangdorligi avvalo vokalizmga chambarchas bog'liqdir. [1:12-b]

O'zbek tilshunosligida hozirgi o'zbek adabiy tili unlilari miqdori masalasida ikki xil fikr mavjud:

Birinchi fikrga ko'ra adabiy til unlilari 6 ta: i, e, a, u, o', o. (Bu fikr tarafdorlari qatorida Y.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, A.G. G'ulomov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Kamolov, A. Mahmudov, S. Otamirzayeva, A. Abduazizov, A. Nurmonov, Sh. Rahmatullayev va boshqalar bor).

Ikkinchi fikrga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida 8-9 unli (i, ы, a, a, ё, и, e, o, e) mavjud bo'lib, ular eski o'zbek adabiy tilida va hozirgi qipchoq lahjalarida bo'lganidek kontrast juftliklarni (i-ы, ə-a, ü-u, ə-o zidlanishlarini) hosil qiladi, shundan kelib chiqib, adabiy til vokalizmi va alifbo masalalari qayta ko'rib chiqilishi alifboga qo'shimcha harflar kiritilishi kerak (Bu fikr tarafdorlari qatorida X.Doniyorov, B. To'ychiboyev, M. Valiyev va boshqalar bor).

O'zbek tilidagi unli tovushlar tizimi asrlar davomida shakllanib, turli lahja va shevalar ta'sirida sayqallanib borgan. Bugungi adabiy tilimizda, maktablarda ham oltita asosiy unli tovush o'rganiladi: a, o, u, i, e, o'. Ularning har biri nutq jarayonida o'ziga xos fonetik vazifani bajaradi. Masalan, "a" tovushi keng va ochiq ohang berib, nutqni ravonlashtirsa, "i" tovushi tor va ixcham talaffuzni yuzaga keltiradi. "O'" tovushi esa o'zbek tiliga xos fonetik belgi bo'lib, boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi muhim omillardan biridir. [2:33-b]

Vokalizm – muayyan tildagi unli fonemalar tizimidir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili unli fonemalari quyidagi belgilari asosida tasnif qilinadi:

a) lablarning ishtirokiga ko'ra: lablashgan (u, o ^ i, o) va lablashmagan (i, e, a) unlilari;

b) tilning vertikal harakatiga (tilning uch darajali ko'tarilish belgisiga) ko'ra: yuqori tor (i, u) o'rta keng (e, o') va quyi keng (a, o) unlilari;

d) tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra: old qator (i, ea) va orqa qator (u ,o' ,o) unlilari.

Hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmiga oid quyidagi masalalar munozarali bo'lib qolmoqda:

a) unli fonemalarning fonologik belgilari masalasi:

b) lablar ishtiroki va tilning yotiq (gorizontal) harakati o'rtasidagi munosabatlar masalasi:

d) vokalizmga oid terminlar masalasi;

e) adabiy til vokalizmi uchun asos bo'lgan dialekt va shevalar masalasi.[3:79-86-b]

Vokalizmning o'ziga xosligi shundaki, u faqat fonetik tizimni tashkil etish bilangina cheklanib qolmaydi, balki xalqning ruhiy olamida, badiiy nutqda ham katta ahamiyat kasb etadi. She'riyatda unli tovushlar uyg'unligi ohangdorlikni kuchaytiradi, qofiya va radiflarning jozibasini oshiradi. Masalan, Alisher Navoiy g'azallarida unli tovushlarning takroriy uyg'unligi she'ning ichki musiqasini yaratadi. Bu hol vokalizmning nafaqat fonetik, balki estetik qudratini ham yaqqol ko'rsatadi. [4:112-b]

O'zbek tilidagi vokalizm tizimi tarixiy taraqqiyot davomida turli fonetik qonuniyatlar asosida shakllandi. Qadimgi turkiy til yodgorliklarida sakkizta unli mavjud bo'lsa, bugungi o'zbek tilida ularning soni qisqargan, biroq fonologik yuklamasi ortgan. Ayrim tovushlarning o'zgarishi, singariyasi yoki qo'shilishi tilimizning fonetik qiyofasini shakllantirgan. Masalan, qadimgi turkiy "ü" tovushi bugungi o'zbek tilida saqlanmagan, biroq uning izlari ayrim lahjalarda uchraydi [5:54-b]. Bu esa vokalizmni o'rganishda nafaqat zamonaviy fonetika, balki tarixiy-lingvistik yondashuv ham zarurligini ko'rsatadi.

Nutq madaniyati nuqtayi nazaridan qaralganda, unli tovushlarning to'g'ri talaffuzi katta ahamiyatga ega. Chunki har qanday og'zaki nutqning ravonligi, tinglovchi uchun tushunarli va yoqimli bo'lishi, birinchi navbatda, unli tovushlarning to'g'ri jaranglashiga bog'liqdir [6:18-b]. Bugungi kunda adabiy til me'yorlariga amal qilish, noto'g'ri talaffuzlardan saqlanish, ayniqsa, yoshlar orasida nutq madaniyatini yuksaltirish uchun muhim omil bo'lib qolmoqda. Masalan, ayrim hollarda "o'" tovushining "u" yoki "o" tarzida noto'g'ri aytilishi fonetik me'yorning buzilishiga olib keladi.

Vokalizm tizimi o'zbek tili fonologiyasida ham markaziy masalalardan biri sanaladi. Unli tovushlarning fonologik farqlanishi, ularning urg'u, intonatsiya va ohangda tutgan o'rni ilmiy tadqiqotlarda keng yoritib kelinmoqda. Bu borada

akademik A. Kononov, A. Madrahimov, S. Usmonov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim manba hisoblanadi [7:72-b]. Vokalizmni fonologik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali tilning ichki qonuniyatlarini, so'z yasash va grammatik tizimdagi uyg'unlikni ham anglash mumkin.

Bundan tashqari, vokalizm tilning ijtimoiy-madaniy qirralarida ham alohida o'rin egallaydi. O'zbek xalq qo'shiqlarida, maqom san'atida unli tovushlarning cho'zilishi, qisqarishi yoki o'ziga xos ohangda talaffuz qilinishi milliy ruhni uyg'otadi, xalqning musiqiy didi bilan bevosita bog'lanadi. Shunday qilib, vokalizm faqat ilmiy masala emas, balki madaniy-estetik qadriyat hamdir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmi tilning fonetik asosini tashkil etuvchi, estetik jozibasini ta'minlovchi va tarixiy taraqqiyot jarayonida sayqallangan muhim tizimdir. Uni chuqur o'rganish o'zbek tili boyliklarini yanada kengroq anglash, nutq madaniyatini yuksaltirish va milliy til tafakkurini mukammallashtirishga xizmat qiladi. Vokalizmni o'rganish orqali biz faqat tovushlar tizimini emas, balki xalqning ruhiy olamini, madaniyatini, estetik didini ham teranroq idrok etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Usmonov S. "O'zbek tili fonetikasi" – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
2. Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
3. Kononov A. N. "Грамматика современного узбекского языка" – Moskva: Hayka, 1960.
3. Kononov A. N. "Грамматика современного узбекского языка" – Moskva: Hayka, 1960.
4. Navoiy A. "G'azallar devoni" – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
5. Rustamov A. "O'zbek tilining tarixiy fonetikasi" – Toshkent: Fan, 1972.
6. To'xliiev B. "Qadimgi turkiy til manbalari" – Toshkent: Universitet, 2001.
7. Karimov Sh. "Nutq madaniyati va talaffuz me'yorlari" – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.

SO'ZLARNING KO'CHMA MA'NOLARI VA ULARNING TURLARINI O'QITISH USULLARI

Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi

Magistr

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

@abduqahhorovadurdona9gmail.com

Annotatsiya. Semantik tahlil til birliklarining ichki tuzilmasini ochib beradi, ya'ni so'zlar orasidagi ma'no munosabatlari (sinonimiya, antonimiya, omonimiya), ma'no ko'chishi (metafora, metonimiya), ma'no torayishi yoki kengayishi, semantik maydonlar, paradigmatic va syntagmatic aloqalarni aniqlash orqali leksik tizimdagi mantiqiy bog'liqliklarni tushunishga yordam beradi. Shunga ko'ra, maqolamizda so'zlarning ko'chma ma'nolarini o'qitish yuzasidan samarali va qiziqarli usullar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar. Ko'chma ma'no turlari, "Sirli sandiq", "Men ... bo'lganimda", "Qayta nomla" usullari.

Annotation. Semantic analysis reveals the internal structure of language units, that is, it helps to understand the logical relationships within the lexical system by identifying semantic relations between words (synonymy, antonymy, homonymy), meaning shifts (metaphor, metonymy), narrowing or broadening of meaning, semantic fields, as well as paradigmatic and syntagmatic relations. Accordingly, this article suggests effective and engaging methods for teaching figurative meanings of words.

Keywords. Types of figurative meaning, "Mystery Box", "When I was...", "Rename" methods.

So'z ma'nolari 4 xil usulda ko'chadi va quyidagicha nomlanadi:

1. Metafora – bu o'xshashlik asosida yuzaga keladigan ma'no ko'chishidir. Til birliklarida predmetlar, hodisalar yoki belgilar tashqi yoki ichki jihatdan o'xshashligi asosida boshqa predmet-hodisa nomi bilan ifodalanadi³¹.

Masalan: Uning ko'zlari yulduzdek porlardi.

Buni shunday izohlashimiz mumkin:

Bu yerda yulduz so'zi o'zining asl osmonda nur taratuvchi jism ma'nosidan ko'zning porlashini ifodalash uchun o'tkazilgan – bu o'xshatish asosidagi ma'no ko'chishidir.

³¹ G'afurov N. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.103-b.

2. Metonimiya – bu narsa va hodisalar o'rtasidagi yaqinlik, ya'ni joylashuv, sabab-oqibat, muallif-asar kabi munosabatlar asosida bir so'zning boshqa so'z ma'nosida qo'llanishidir.[4:103].

Namuna sifatida shu gapni ko'rsak bo'ladi: U butun sinfni kuldirdi.

Izoh beradigan bo'lsak, aslida sinf – xona yoki o'quvchilar guruhi. Bu yerda “butun sinf” deganda sinfdagi odamlar, ya'ni o'quvchilar nazarda tutilgan. Joy nomi odamlar o'rnida qo'llanmoqda – yaqinlik asosida.

3. Sinekdoxa – bu qism va butun (yoki butun o'rnida qism) orasidagi munosabatga asoslangan ma'no ko'chishidir.[4:104].

Masalan: Har bir bosh hisobga olinadi.

Bu yerda bosh so'zi odam o'rnida ishlatilgan. Ya'ni har bir odam emas, “har bir bosh” deyilmoqda – bu qism orqali butunni ifodalash.

4. Vazifadoshlik (jonlantirish) – tirik bo'lmagan narsaga tirik mavjudot xususiyati berish asosida yuzaga keladigan stilistik ma'no ko'chishidir.

Bunga misol qilib, “Bahor tabiatga tabassum olib keldi” gapini aytsak bo'ladi.

Bu yerda bahor – jonli mavjudot kabi tasvirlanib, “tabassum olib kelmoq” harakati unga yuklangan. Bu jonlantirish (personifikatsiya) usuli hisoblanadi³². Ushbu ma'no turlarini nomlashda biz mavzu ko'lami, aynan 5-sinf o'quvchilari doirasida bo'lganligi uchun ko'chma o'z nomi bilan qo'llamagan holda ularning vazifasiga ko'ra topshiriqlar berishga harakat qildik.

“Metafora – bu obrazli fikrlashning asosiy vositalaridan biri bo'lib, til o'rgatish jarayonida o'quvchilarning estetik dunyoqarashi, assotsiativ tafakkuri va nutq boyligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tilshunos olim N.A. Mahmudova fikricha, “metafora vositasida bola hayotiy tajribasini badiiy va mantiqiy asosda ifodalashga intiladi, bu esa uning tafakkur darajasini yangi pog'onaga ko'taradi”[3:68].

“**Men ... bo'lganimda**” usuli. Ushbu usul xuddiki metafora ma'no ko'chish usuli bo'limiga kirishga o'xshaydi. Albatta biz bu ma'no ko'chish usulini metafora deb o'quvchilarga o'rgatmaymiz, shunchaki, ma'no ko'chish turiga ko'ra shart beramiz. Bunda esa harakatlar va holatlar ko'chadi.

Bu usuldan foydalanishdan maqsad – o'quvchinning tasavvurini va so'z boyligini rivojlantirish

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga maxsus savollar beriladi. Masalan, “Agar sen Quyosh bo'lganingda nima qilarding?”, “Sen bulut bo'lganingda qayerlarga

³²Jo'rayev N. Stilistika va nutq madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

borarding?”, “Agar kalit bo‘lsang, nimani ocharding?”, “Agar do‘stlik bir gul bo‘lsa, qaysi gul bo‘lardi?” kabi.

Bunga javoban esa o‘quvchilar “Men quyosh bo‘lsam, sovuq yuraklarni isitardim”, kabi ma’no ko‘chgan holatdagi gaplar tuzadilar.

Natijada, o‘quvchilar obrazli fikrlashga o‘rganadi va metafora mohiyatini bilib oladi.

“Mavhumlar mavjudga o‘tsa...” usuli. Ushbu usul kichik yoshdagi o‘quvchilar e’tiborini tortish bilan birga kattalarda ham qiziqish uyg‘otadi va bu usul ustida ishlashga undaydi. Negaki, bu usulda o‘qituvchi tomonidan *mehr, qahr-g‘azab, saxovat, do‘stlik, ishonch* kabi mavhum otlardan misollar beradi. O‘quvchilar bu so‘zlarni qanday tasavvur qilsalar shunday rasmda ifodalashadi va ular ishtirokida gaplar tuzishadi. Aniq ko‘rinib turibdiki, bu vaziyatda harakat ifodalovchi so‘zlar ko‘chadi. Misol uchun, ishonch so‘zi yordamida gap tuzish mumkin:

Ishonch bu – kalit. Men bu orqali ko‘plab insonlar qalbidagi qulflarni ocha olaman.

Bu usulning samaradorligi shundaki, o‘quvchilar o‘z fikrini vizual ifoda qilib, ijodiy yondashadi.

“Jadval” usuli. Bu usul o‘quvchilarga fikrlarini tartibga solish yoki ketma-ketlikda ifodalashda yordam beradi.

Topshiriq shunday bo‘ladi: o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga jadval beriladi. Jadvalda esa ma’nan o‘xshatish mumkin bo‘lgan so‘z, o‘xshatilgan xususiyat va sababini yozish kerak bo‘ladi.

2.2.2-jadval

O‘qituvchi	Shamchiroq	Ilm nurini taratadi
Ona	Daryo	Mehri tuganmas bo‘ladi
Do‘st	Ko‘prik	Ko‘ngillarni birlashtiradi
Ota		
Aka-uka		
Maktab		

“Sirli sandiq” usuli. Ushbu usul musiqa jo‘rligida amalga oshiriladi. Ham o‘quvchilarni harakatga keltiradi, ham Ichida topshiriqlar yashirin bo‘lgani uchun sirlikni saqlaydi. Sandiq ichiga shakliy, belgi-xususiyat, joylashgan o‘rni jihatidan

o'xshashlik kasb etadigan so'zlar joylashtiriladi. O'qituvchi musiqa qo'yishni boshlaydi va sandiqni o'quvchilar ketma-ketlikda bir-birlariga uzatadilar. Jarayon davomida musiqa o'chiriladi. Shu holatda sandiq kimning qo'lida qolsa, o'sha o'quvchi sandiqni ochib bir so'zni tanlaydi va u so'zga ta'rif beradi. Masalan, *quloq* so'zi chiqdi. O'quvchi uni olib uning bosh ma'nosi va ko'chma ma'nosini aytadi,

“Metonimiya – bu lug'aviy birlikning ma'nosi o'zining ma'nodosh birliklari bilan yaqinlik, bog'liqlik asosida ko'chishi. Metonimiya ifodalovchi bilan ifodalanadigan narsa o'rtasidagi vaziyatga oid yaqinlik asosida yuzaga keladi. Bu holatda nom boshqa narsaga o'tadi, lekin ular o'zaro bog'langan bo'ladi. Masalan, “Men G'afur G'ulomni o'qidim” degan gapda muallif o'rnida uning asari nazarda tutiladi”.[2:215].

Shunday bo'lsa-da, bizning tadqiqot mavzuyimiz 5-sinf o'quvchilariga yo'naltirilganligi sababli, metonimiya so'zi o'rniga uning vazifasiga ko'ra topshiriqlarlar berishimiz maqsadga muvofiqdir.

“Qayta nomla” usuli. Ushbu usulda o'quvchilar turli xil obyektlarni o'ziga bog'liq va doimo yonma-yon keladigan so'zlar yordamida qayta nomlaydilar. Buni amalga oshirish uchun 1 o'quvchi o'rnidan turib istalgan bir o'quvchini sheriklikka taklif qiladi va o'zi qayta nomlagan jumlaning aytadi. Tanlangan o'quvchi esa, qayta nomlangan jumlaning to'liq holatda, aslida qanday bo'lishi kerakligi haqida ma'lumot beradi. Masalan:

Birinchi o'quvchi: “93” da “Amir temur” ga yetib oldim.

Ikkinchi o'quvchi: 93-raqamli avtobusda “Amir Temur” xiyoboniga yetib oldim.

Bu usulni qo'llash o'quvchilarda sinchkovlikni oshiradi, diqqatni jamlashga undaydi, hozirjavoblikka o'rgatadi.

“Ismdan asargacha” usuli – o'quvchilarda metonimik bog'liqlikni anglashni shakllantiruvchi metod bo'lib, bunda muallifning ismi orqali uning asari ifodalanadi. Gapda bevosita muallif nomi ishlatilgan bo'lsa-da, ma'no jihatdan u yaratgan ijod mahsuli – asar nazarda tutiladi.

Bu usuldan foydalanib dars o'tish orqali o'quvchilarda til birliklari orasidagi aloqadorlikni idrok etish, metonimiyaga oid misollarni tanib olish va yaratish mumkin.

Uni amalga oshirish uchun o'qituvchi asosiy tushunchani izohlaydi:

“Ba'zida gapda muallifning ismi aytiladi, lekin aslida u yozgan asar haqida gapiriladi. Bu holat metonimik bog'liqlik orqali yuz beradi.”

O'quvchilarga quyidagi misollar berish mumkin:

Men bugun G'afur G'ulomni o'qidim. G'afur G'ulomning asarini o'qidim.

Kechqurun Pushkindan tingladik. Pushkinning she'rlaridan tingladik.

Biz darsda Abdulla Oripovdan yod oldik. Abdulla Oripovning she'rini yod oldik.

Sinfda Hamid Olimjon bahsga sabab bo'ldi. Hamid Olimjon asari bahsga sabab bo'ldi.

O'qituvchi Atoyning sahifasini oching dedi. Atoy asarlari joylashgan sahifani oching dedi.

Shu yo'sinda o'quvchilarga topshiriq:

Shunday gaplar tuzingki, muallif nomi aytilgan bo'lsin, lekin aslida uning asari haqida gap ketayotgan bo'lsin.

Bir guruh muallif nomlarini, ikkinchi guruh asar nomlarini yozadi. So'ngra aralashtirib, "qaysi muallif – qaysi asar" topiladi va u orqali qayta nomlash amalga oshiriladi.

Men "Inson qasidasi"ni sahnada ko'rdim. → Erkin Vohidovning "Inson qasidasi" asari sahnalashtirilgan.

Shu hafta faqat Zulfiyani yod oldik. → Zulfiya qalamiga mansub she'rlar yod olindi.

Bugun Navoiyni tahlil qilamiz. → Navoiy g'azallarini tahlil qilamiz.

Uch guruh a'zolari darsda Cho'lponni muhokama qildilar. → Cho'lponning asarini.

Men Tolstoyning yurakdan o'qiyman. → Tolstoyning yozgan asarlarini.

"Ismdan asargacha" usuli orqali o'quvchi so'zning bevosita va bilvosita ma'nosi o'rtasidagi farqni o'zlashtiradi. Bu esa ularning semantik tafakkurini, tahliliy ko'nikmasini anglash darajasini oshiradi.

"Bu kim? Asari qayerda?" didaktik o'yini. Ushbu o'yinni amalga oshirishda o'quvchilar 4 ta kichik guruhlariga bo'linadilar va ularga quyidagi shaklda kartalar beriladi:

1-karta: "Muallif: Abdulla Qodiriy";

2-karta: "Asar: O'tkan kunlar";

3-karta: "Gap: Men Abdullani o'qidim."

O'quvchilar kartalarni to'g'ri bog'lab, metonimik aloqani aniqlaydi.

Bu o'yinda shart shunday qo'yiladiki, o'quvchilar ham tez ham to'g'ri bog'liqlik hosil qilishlari kerak bo'ladi.

Sinekdoxa – bu metonimiyaning bir turi bo'lib, narsaning bir qismi butun o'rnida, butuni esa uning qismi o'rnida qo'llanadi. Masalan, "Besh qo'l barobar emas" iborasida qo'l so'zi barmoqlar ma'nosida ishlatilgan.[1].

“Qismidan top” usuli. Ushbu usul o‘quvchilarga sinekdoxaning asosiy mazmuni anglashga yordam beradi. Ya’ni uning vazifasini tushunishga undaydi.

Buni qo‘llash uchun gapda biror narsaning faqat bir qismini aytiladi va bu orqali o‘quvchidan quyidagi gaplar yordamida butunini topish so‘raladi.

Bir tom ostida yashayapsizmi, bir-biringizni xurmat qiling. → Butun uy nazarda tutilmoqda.

Qo‘sh qo‘llab topshirasani. → Butun tana nazarda tutilmoqda.

Chorvada ikki boshni ajratib qassobga yetkaz. Ehson qilib tarqatsin. → 2 ta hayvon.

“Butun ichiga yashiringan qism” usuli. Bu usulimiz yuqorida keltirilgan usulning aksi bo‘lib, bunda butun orqali qismni topishga yo‘naltirilgan topshiriq beriladi. Ya’ni bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga gaplar taqdim etadi va ular bu gaplarda ishtirok etgan so‘zlar orqali asl ma’noni anglashga harakat qiladilar.

O‘zbekiston Olimpiada o‘yinlarida oltin medallar bilan taqdirlandi. → Sportchilari medal oldi.

Butun sinf “5” baho oldi. → Sinfdagi ko‘pchilik o‘quvchilar olgan.

Shifoxona tomonidan tez yordam ko‘rsatildi. → Shifoxonadagi ayrim shifokorlar tez yordam ko‘rsatgani nazarda tutilmoqda.

Bunday usullarni o‘quvchilarda qo‘llash birinchi navbatda ularning mavzuni o‘zlashtirishi uchun katta yordam beradi, tafakkurini kengaytiradi va o‘rganilgan bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

“Jihozlar so‘zlaganda” usuli. Ushbu usul orqali o‘quvchilar buyum yoki jihozlar ishtirok etgan obrazli gaplarni tahlil qilish orqali vazifasiga asoslangan ko‘chma ma’noni tushunib yetadi.

O‘quvchilarga quyidagi real hayotda ishlatiladigan gaplar beriladi. Ular bu gaplarda buyumning asl emas, obrazli vazifada ishlatilganini tushunadilar:

Chiroqning piligi pasaydi. Umidsizlik, ruhiy tushkunlik belgisi

Ko‘chada chiroq hamma yoqni yoritib turibdi. Yo‘lni ko‘rsatuvchi narsa (vazifa)

Quloqlarim radiodek eshitib turibdi. Juda tiniq va e’tiborli eshitish

Uning miyasi kompyuterday ishlaydi. Juda tez fikrlaydi

Soatlar yurmeyapti. Vaqt o‘tgani bilinmayapti yoki ishsizlik

U toshdek jim edi. Hech qanday his tuymaydi

Berilgan gaplarni tahlil qiladilar. Har bir gapda buyum nima ish qilmoqda, u aslida kim yoki nima o‘rnida kelgan, degan savol o‘rtaga tashlanadi.

Namunaviy savollar:

Nega chiroq odam ruhiy holatini ifodalayapti?

Nega quloq radioga o'xshatilgan?

Nega yurak bilan tosh so'zlari bir-biriga bo'landi?

Shunday gaplar bilan tushuncha hosil qilinganidan so'ng o'quvchilarga mana bunday gaplar beriladi, ular buyumning ko'chma ma'nodagi vazifasini topadi.

1. *Kasalxonaning yuragi to'xtab qoldi.*

Yechim: Operatsion xona yoki generatsiya tizimi ishlamay qoldi.

2. *Uning ustidagi lampochka o'chib qolganday edi.*

Yechim: *U fikrlamay qoldi, hayratda qoldi.*

3. *U sinfga kirganida, ventilyatorday gap tarqaldi.*

Yechim: Uning xabari juda tez tarqaldi.

4. *Telefon bugun jim – yuragim to'xtaganday.*

Yechim: Suhbat bo'lmayapti, quvonch yo'q.

Bu usulni qo'llash natijasida o'quvchilar buyumlarning ko'chma, vazifadosh obraz sifatida ishlatilishi mumkinligini tushunadi, obrazli nutq, fikr aniqligi, badiiylik va nutqiy tafakkur rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev N. Stilistika va nutq madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005. 215-b.
3. Mahmudova N. O'zbek tilining stilistikasi. — Toshkent: Fan, 2008. 68-b.
4. G'afurov N. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.103-b.

TILSHUNOSLIKDA TARJIMA NAZARIYASI: O'ZBEK TILIDAN BOSHQA TILLARGA TARJIMA MUAMMOLARI

Habibullayeva Ziyoda Anvar qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima nazariyasi masalalari, xususan, o'zbek tilidan boshqa tillarga tarjima jarayonida uchraydigan muammolar yoritilgan. Asosiy e'tibor o'zbek tilining lingvistik xususiyatlari, milliy madaniyat bilan bog'liq realiyalar, grammatik va semantik tafovutlarga qaratilgan. Shuningdek, tarjima amaliyotida ekvivalentlik, adekvatlik va milliy-madaniy o'ziga xosliklarni saqlash kabi nazariy masalalar tahlil qilinadi. Maqola yakunida tarjimaning samaradorligini oshirish uchun ba'zi ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tarjima nazariyasi, o'zbek tili, ekvivalentlik, madaniy realiyalar, lingvistik tafovut, tarjima muammolari.

Abstract: In this article, issues of translation theory, in particular the challenges encountered in translating from Uzbek into other languages, are examined. The main focus is placed on the linguistic features of the Uzbek language, cultural realia associated with national traditions, as well as grammatical and semantic differences. Furthermore, theoretical aspects such as equivalence, adequacy, and the preservation of national-cultural specificity in translation practice are analyzed. The article concludes with several scientific and practical proposals aimed at improving the effectiveness of translation.

Keywords: translation theory, Uzbek language, equivalence, cultural realia, linguistic differences, translation problems

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы теории перевода, в частности, проблемы, возникающие в процессе перевода с узбекского языка на другие языки. Основное внимание уделяется лингвистическим особенностям узбекского языка, культурным реалиям, связанным с национальными традициями, а также грамматическим и семантическим различиям. Кроме того, анализируются такие теоретические аспекты, как эквивалентность, адекватность и сохранение национально-культурной специфики в практике перевода. В заключение статьи выдвигаются некоторые научно-практические предложения, направленные на повышение эффективности перевода.

Ключевые слова: теория перевода, узбекский язык, эквивалентность, культурные реалии, лингвистические различия, проблемы перевода

Tarjima nazariyasi tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning asosiy vazifasi ikki til va ikki madaniyat o'rtasida mazmuniy hamda uslubiy moslikni ta'minlashdan iboratdir. O'zbek tilidan boshqa tillarga tarjima qilish jarayoni o'ziga xos lingvistik va madaniy qiyinchiliklar bilan ajralib turadi. Shu sababli bu jarayonni chuqur o'rganish va ilmiy asoslash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Tarjima nazariyasi ekvivalentlik, adekvatlik, uslubiy moslik, semantik to'liqlik va pragmatik maqsadlarni o'rganadi. Nazariy bilimlar tarjima amaliyotida to'g'ri yondashuvni shakllantiradi va tarjimonning madaniy hamda lingvistik kompetensiyasini oshiradi. O'zbek xalqiga xos an'ana va urf-odatlar bilan bog'liq tushunchalarni boshqa tilga ko'chirishda tarjimon izohlash yoki moslashtirish (adaptatsiya) usullaridan foydalanadi. Bu jarayonda tarjimon nafaqat lingvist, balki madaniyatlararo vositachi sifatida ham faoliyat yuritadi.[1]

Bugungi kunda zamonaviy globallashuv va madaniyatlararo aloqalarning jadal rivojlanishi, xalqaro aloqalarni kengayib borishi, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarning rivojlanishi, Yevropa mamlakatlari va butun dunyoning integrallashuv jarayonining kuchayib borishi, fan va texnologiyalarning rivojlanishi, ilmiy va texnikaviy ma'lumotlarning doimiy ravishda uzviy almashib borishining samarali omillari sifatida hozirgi kunda chet tillarining ahamiyati katta e'tiborga sazovordir. Shuningdek, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy taraqqiyot bosqichida chet tili dunyoning turli xalqlar vakillari o'rtasida og'zaki va yozma aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilib kelmoqda.

Bilim va texnologiyalar jadal rivojlanishi oqibatida zamonaviy davr bugungi jamiyatda barcha jihatlarini qamrab olgan holda va zamonaviy iqtisodiyot o'zgarib boraytgan sharoit davrida, shuningdek turli xil sohalariga tegishli ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilishda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan tarjimonlar- mutaxassislar bugungi kunda alohida ehtiyojga munosibdir. Shu sababli keng bilimli tarjimon mutaxassislariga ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda.[2]

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sababli, bugungi davrda dunyoning turli mamlakatlaridagi olimlar tezkor ma'lumot almashish va qo'shma tadqiqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lib, ushbu aloqa vositalari tufayli zamonaviy ilm-fan misli ko'rilmagan natijalarga erishilmoqda. Bunday sharoitda ko'pgina ishlab chiqaruvchi tashkilotlar ilmiy adabiyotlarning yuqori sifatli tarjimasiga ehtiyoji sezilarli darajada oshib bormoqda. Tarjimonlar esa ilmiy adabiyotlar tarjimalarini

doimiy ravishda o'zining so'z boyligiga qo'shib borishi, atamalarni tushunish qobiliyatini oshirib borish va ularning ma'nosini bilishi shartdir.

Tarjimashunoslik sohasining dolzarb muammolarini o'rganishda ko'plab olimlar asarlari muhim ahamiyatga ega. Tarjima nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi murakkabliklar bo'yicha klassik yondashuvlardan biri rus tarjimashunosi V.N. Komissarov tomonidan ishlab chiqilgan. U o'zining "Tarjima nazariyasining asoslari" nomli asarida tarjimada ekvivalentlik darajalarini aniqlash zarurligini ta'kidlaydi va tarjimon nafaqat so'zlarning ma'nosini, balki manoning kommunikativ funksiyasini ham hisobga olishi lozimligini qayd etadi. Komissarov fikricha, "tarjima jarayonida original mazmunini to'liq saqlab qolish amaliy jihatdan imkonsiz, shuning uchun tarjimon kompromissga tayyor bo'lishi kerak" (Komissarov, 1990). Yana bir muhim manba sifatida G.V. Chernovning "Sinxron tarjima nazariyasi" asarini keltirish mumkin. Chernov lingvistik va madaniy tafovutlar masalasini chuqur tahlil qilib, tarjimonning ijodkorlik qobiliyatini ahamiyatli deb biladi. Uning fikricha, "madaniyatlararo tafovutlarni bartaraf etish tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir" (Chernov, 1987). Shuningdek, ingliz tarjimashunosi Piter Nyumarkning "Approaches to Translation" (1981) asari tarjimashunoslik sohasidagi muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Nyumark tarjimada mazmunni saqlash va uslubni moslashtirish o'rtasidagi muvozanatga alohida e'tibor qaratadi. U badiiy matnlar tarjimasida "erkin tarjima" yondashuvi samaraliroq bo'lishini, texnik va ilmiy matnlarda esa "so'zma-so'z tarjima" usuli ko'proq qo'llanishi lozimligini ta'kidlaydi.[3]

Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish jarayonida quyidagi talablarga amal qilinishi lozim: tarjima ekvivalentiga, tarjima aniqligiga, tarjima ma'lumotlar sifatiga, tarjima mantiqiyiligiga va uning yoritilish sifatiga. Ilmiy-texnik matn sifatli tarjimaga ega bo'lishi uchun, tarjimon quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- Chet tili nazariyasi, tilning fonetikasiga, leksikasiga va grammatik tuzilishi haqida bilimga ega bo'lishi lozim;
- Ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilish xususiyatlar ko'nikmasi amaliyotiga;
- Lingvistik amaliy bilimga (tarjima usullari, transformasiya, so'zlar ekvivalentini almashtirish ko'nikmasi, so'zlar qo'shish ko'nikmasi, atamalar bilan tasvirlash ko'nikmasi va hokozo);
- Matnni tarjima qilish jarayonida gap mazmuni va jummalarni ishlata olish ekstralingvistik bilim va qobiliyatiga ega bo'lish lozim (bunda maxsus ilmiy - texnik matnni tarjima qilishda yetarli ma'lumotlarga ega bo'lish talab qilinadi) [4]

Eng asosiysi tarjimada bilinmas muammolardan biri bu tarjimon "ilmiy tarjima" nima ekanligini to'liq tushunchaga ega bo'lmalik. Ilmiy tarjimani muvofaqiyatli bajarish uchun, uni boshqa tarjima turlaridan farqi nimada ekanligini tarjimon tasavvurga ega bo'lishi shart. Umuman olganda, ilmiy uslub tarjmasi, tadqiqot mavzusiga oid ko'plab matnlarni o'z ichiga oladi - tezlardan boshlab, referatlar va maqola taqrizlarini, diplom, dissertatsiya va monografiya qo'l yozmalari o'zida mujassam etadi.

Yuqoridagi ish turlarini tarjima qilishda quyidagi faktorlarga e'tibor berilishi lozim: tarjima maqsadi, tarjima uslubi, tarjimadagi matnni tashkil qilish va uning qismlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik munosabatlar.[5]

Tarjimashunoslik sohasidagi tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonida ekvivalentlik masalasiga to'g'ri yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Original matn mazmunini to'liq saqlab qolish amaliy jihatdan qiyin bo'lsa-da, tarjimon matnning kommunikativ vazifasini to'g'ri aks ettirishga intilishi lozim. Bu ayniqsa texnik, ilmiy va badiiy matnlar tarjimasida muvozanatni saqlash uchun zarurdir. Tarjimon madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olib, milliy madaniy elementlarni boshqa tillarda to'g'ri aks ettira olishi lozim. Bunday holatda so'zma-so'z tarjima o'rniga kontekstual moslashuvning ustuvorligi ta'kidlanadi. Shuningdek, tarjima jarayonida malakali kadrlarning yetishmasligi muhim muammolardan biri sifatida ko'zga tashlanmoqda. Yuqori sifatli tarjimonlarni tayyorlash uchun til bilimi bilan birga madaniyatshunoslik, texnik soha va maxsus terminologiya bo'yicha chuqur bilimlarni ham shakllantirish zarur. Tarjima sifati bevosita nazariya va amaliyotning uzviy uyg'unligiga bog'liqdir.[6]

Zamonaviy texnologik rivojlanish tarjimashunoslik sohasiga yangi talablarni qo'yimoqda. Avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari tarjimonlar faoliyatini yengillashtirgan bo'lsa-da, inson omili hali ham muhim hisoblanadi, ayniqsa murakkab badiiy matnlar yoki madaniy mazmunni o'z ichiga olgan asarlar bilan ishlashda. Tarjima nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi bo'shliqni bartaraf etish dolzarb masala hisoblanadi. Ilmiy yondashuvlarni amaliyotga samarali tatbiq etish orgali tarjima jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Tarjima me'zonlarining universal tizimi ishlab chiqilsa, turli janrdagi matnlarni tarjima qilishda yaxlit yondashuvni shakllantirishga erishiladi.[7]

Tarjimashunoslik sohasida olib borilgan tahlillar shuuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonining murakkabligi nafaqat lingvistik omillar, balki madaniy, ijtimoiy texnologik omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Ushbu murakkablikni boshqarish uchun

tarjima nazariyasini rivojlantirish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarur. Bir jihatdan, tarjimada ekvivalentlik masalasi asosiy ilmiy muammo bo'lib qolmoqda. Tarjimon original matn mazmuni va uslubini mos ravishda yetkazishga intilishi kerak, ammo bu har doim ham mukammal bajarilmaydi. Bu muammo, ayniqsa, madaniyatga oid terminlar va idiomatik iboralarni tarjima qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli, ekvivalentlikni ta'minlashda nazariya va amaliyot o'rtasidagi muvozanatni topish dolzarb hisoblanadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidan boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida lingvistik va madaniy tafovutlar, jumladan grammatik qurilishdagi farqlar, leksik birliklarning ekvivalentsizligi hamda frazeologik iboralarning milliy xususiyatlari tarjima samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'zbek xalqiga xos madaniy realiyalarni boshqa tilda to'laqonli ifodalash tarjimon oldida murakkab vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu muammolarni yengib o'tishda tarjimonning lingvistik bilimlari bilan bir qatorda madaniy kompetensiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima nazariyasi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqotning ham ajralmas qismi bo'lib, u orqali ikki xalq o'rtasida o'zaro tushunish, tajriba almashish va ma'naviy yaqinlashuv ta'minlanadi. Demak, tarjimaning sifatini oshirish uchun nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va tarjimonlarning ilmiy salohiyatini doimiy rivojlantirib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Latifjonova Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2012
2. Murodqosimov A. Nemis va o'zbek tillarida so'z yasash usullari. Toshkent, 2020
3. Rizaev Sh. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2005
4. Zohidov F. Tarjimada madaniyatlararo tafovutlar. Toshkent, 2018
5. G'afurov U. Til va madaniyat: tarjima jarayonidagi muammolar. Toshkent, 2018
6. Karimov Sh. O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima muammolari. Toshkent, 2020
7. To'xliyev B. Tarjima san'ati va nazariyasi. Toshkent, 2005

BUGUNGI ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MASALALARI**Ibatova Mardona Madamin qizi**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolar va masalalariga alohida e'tibor berilgan. Bundan tashqari lingvokulturologiya, antropotsentrik tilshunoslik kabi terminlarga ham izohlar keltirilib o'tilgan. Hamda lingvokulturologiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotchilar haqida ham aytib o'tilgan. Zamonaviy tilshunoslikdagi milliy korpus tushunchasi ham rus tili milliy korpusiga ham to'xtalib o'tilgan. Bunda rus tili milliy korpusining turlari haqida juda qiziqarli ma'lumotlar berilib o'tilgan. Maqolada lison- nutq, milliy til, sun'iy intellekt kabi masalalar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Abstract: This article pays special attention to the current problems and issues of modern linguistics. In addition, explanations are given to terms such as linguoculturology and anthropocentric linguistics. It also mentions researchers who have conducted research in linguoculturology. The concept of a national corpus in modern linguistics also touches on the national corpus of the Russian language. It provides very interesting information about the types of the national corpus of the Russian language. The article also provides information on issues such as language-speech, national language, and artificial intelligence.

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется актуальным проблемам и вопросам современной лингвистики. Кроме того, даются пояснения таким терминам, как «лингвокультурология» и «антропоцентрическая лингвистика». Упоминаются исследователи, проводившие исследования в области лингвокультурологии. Понятие национального корпуса в современной лингвистике затрагивает и национальный корпус русского языка. Приводятся весьма интересные сведения о типах национального корпуса русского языка. В статье также рассматриваются такие вопросы, как «язык-речь», «национальный язык» и «искусственный интеллект».

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, korpus, til, jamiyat, sun'iy intellekt, psixolingvistika, sotsiologiya, metamatn, lison, nutq.

Key words: linguoculturology, corpus, language, society, artificial intelligence, psycholinguistics, sociology, metatext, language, speech.

Ключевые слова: лингвокультурология, корпус, язык, общество, искусственный интеллект, психолингвистика, социология, метатекст, язык, речь.

Bugungi kunda tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida o'zgarishlar ro'y bermoqda. Davlatimiz taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida yuksalish davri talablaridan kelib chiqib o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizdagi keng ko'lamli islohotlarning amalga oshirilgani, o'zbek tilining davlat tili maqomini mustahkamlash, uning mavqeyini ko'tarish bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

A.Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida shunday deydi: "Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur..." ya'ni, tilning shunchalik sharafi bo'lgani bilan u nutqning qurolidir, agar u o'rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir deya ta'rif berganliklarini ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbek an'anaviy tilshunosligi zaminida shakllangan, taraqqiyot yo'lini tanlagan va belgilangan maqsad asosidagi vazifalarini muvaffaqiyatli ado etgan o'zbek substansial tilshunosligining hozirgi holati fanimizda yangi yo'nalishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda.

Jahon tilshunosligida XX asr so'ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan fanning yangi paradigmalar - lingvopragmatika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvokognitologiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi ilg'or fan yo'nalishlari aynan shu masalalar tadqiqi bilan shug'ullanmoqda.[1;2019]

Tilshunoslikka oid muammolarni esa an'anaviy va zamonaviy kabi turlarga ajratish mumkin. lison hamda nutq hodisalarini tadqiq etish va jamiyat talabiga javob bera oladigan o'quv ishlarini tashkil etish kiradi.

Zamonaviy muammolar sirasiga informatsion tillar va ularning inson tiliga ta'siri, mashinaviy tarjimaning lingvistik asoslarini yaratish, lingvistik hujjatlarni avtomatik tarzda referatlash, indekslashtirish va annotatsiyalash ishlarni lingvistik jihatdan ta'minlash kabi muammolarni hal etish kiradi. "Zamonaviy tilshunoslik muammolari" kishilik jamiyatining amaliy ehtiyojlari ta'sirida yuzaga kelgan tilshunoslikning mustaqil bir sohasidir.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan **lingvokulturologiya** (lot. lingua – til + lot. cultura – ishlov berish + yun. logos – ta'limot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalarida hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro

aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir.[2;2013]

XX asr oxiriga kelib tilni belgilar tizimi tarzida tadqiq etish masalasi tadqiqotchilarni ortiqcha qiziqitirmay qo'ydi. Lingvistika yana psixologiya va sotsiologiya bilan yaqindan munosabatga kirishishga intila boshladi. O'zbek lingvistlari oldida hozirgi vaqtda tilni ham nazariy, ham amaliy jihatdan mukammal o'zlashtirishni ta'minlovchi ta'lim maqsadiga mos dastur, qo'llanma va darsliklar, o'quv-metodik ishlari barpo etishdek dolzarb vazifa turibdi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun oliy o'quv yurtlari hamda O'zRFA tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasidagi aloqalar samaradorligini oshirish, salohiyatli kuchlarni birlashtirish, moddiy-texnika bazasini hamkorlikda yaratish va undan unumli foydalanish zarur bo'ladi.[1;3;2019]

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, mazkur soha XX asrning so'nggi choragida shakllandi, lingvokulturologiya termini esa **V.N.Teliya** rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. [3;2012]

Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar.

Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyman, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi;

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarining tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir.

Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi.

Zamonaviy tilshunoslik muammolarig, yana Milliy Korpus masalasini keltirsak bo'ladi.

Korpus –bu bir necha yoki muayyan til matnlarining yig'indisiga asoslangan elektron shaklda to'plangan ma'lumot (so'rovnoma)lar tizimidir.

Milliy korpus esa muayyan tilning ma'lum davr (yoki davrlar)dagi maqomi, janrlari, uslublari, hududiy hamda ijtimoiy ko'rinishlari va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Milliy korpus tilshunoslikning korpus lingvistikasi mutaxassisleri tomonidan tuziladiki, bu ilmiy tadqiqot va til o'rganish uchun xizmat qiladi.

Jahonning ko'pgina yirik tillari allaqachon ilmiy ishlanganligi, hajmi va ko'lamiga ko'ra o'zaro farqlanuvchi o'zining milliy korpusiga ega.

Masalan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan Britaniya milliy korpusi (BMK)dir.

Aksariyat milliy korpuslar mazkur loyiha asosida shakllangan.

Shuningdek, Praganing Karlova universiteti tomonidan tuzilgan Chex milliy korpusi ham slavyan tillari orasida ajralib turadi. Milliy korpusning o'ziga xos ikki muhim xususiyati mavjud.

Birinchidan, u me'yorlashtirilgan muayyan tarkibga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu korpus ma'lum tilda berilgan (turli badiiy janrlar: publitsistik, o'quv, ilmiy, ish yuritish, so'zlashuv, shevaviy kabi),ularning barchasi imkon darajasida ma'lum doiraga oid ma'lumotlarning proporsional matnlari hisoblanadigan og'zaki va yozma ko'rinishlarining barchasini o'z qamroviga oladi degani. Korpusning qoniqarli darajada bo'lishi uchun uning ko'lamiga e'tibor qaratish kerakligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak (masalan, o'n va yuz milliongacha so'z qo'llash kabi).Yoki rus tili milliy korpusi tuzuvchilari tomonidan ikki yuz million so'z kiritish rejalashtirilgan.[4;2019]

Ikkinchidan, korpus unga kiritilayotgan matnlarning o'ziga xos jihatlari to'grisida muhim qo'shimcha ma'lumotlarni saqlaydi (bular annotatsiya yoki kiritma ko'rinishidagi matnlardir).

Kiritma– korpusning asosiy bosh ma'lumotnomasi bo'lib, u korpusni zamonaviy internet tarmog'ida mavjud bo'lgan oddiy matnlar (yoki —kutubxonalar) to'plamidan ajratib turadigan, masalan, bir muncha mashhur bo'lgan Maksim Morshkov kutubxonasi yoki Rus vertual kutubxonasi kabilardan farqlanadigan matnlardir.

Hozirgi vaqtda mutaxassislar tomonidan "Fundamental elektron kutubxona" yaratildi va u doimiy ravishda rus mumtoz adabiyoti namunalari bilan to'ldirib borilmoqda.Unga muntazam tarzda va yuqori aniqlikda nashr etilayotgan adabiy

matnlar kiritilib turadi. Biroq bu kabi kutubxonalarda qayta ishlanmagan matnlar ham mavjud bo'lib, ilmiy tadqiqotlar uchun foydalanishda bir muncha chegaralangandir.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu kabi kutubxonalar til xususiyatlaridan ko'ra matnning mazmun-mohiyati bilan qiziquvchilar tomonidan yaratiladi.

Milliy korpus kutubxonalardan farqli o'laroq qoniqarli va foydali matnlar to'plami emas.

U asosan, til o'rganish uchun xizmat qiluvchi jihatdir. Bunda o'rtamiyona yozuvchilarning romanlari ham, oddiy so'zlashuvmatnlari va ijara shartnomalardan ham, mumtoz badiiy adabiyot namunalari qatorida foydalanilaveradi.

Korpusning rang-barang ilovalar bilan boyitilishi uning ilmiy va o'qimishlilikini baholaydigan jihatdir.

Korpusning yana bir vazifasi til sohalarining barcha jihatiga taalluqli ma'lumotlarni olish (masalan, leksik, grammatika, aksentologik, til tarixi kabi), zamonaviy kompyuter texnologiyalari vositasida katta hajmdagi til hodisalarini juda tez tahlil qilish va siqirlashtirishga xizmat qilishdan iborat. Avvallari tadqiqotchi zarur misollarni qo'lda yozib olar, bu esa juda ko'p mehnat talab qilgani holda oz miqdordagi materiallarni qayta ishlashga imkon berar edi.

Korpusga badiiy qimmatga ega bo'lgan va til o'rgatishga qiziqish uyg'otadigan, original (tarjima qilinmagan) badiiy adabiyot namunalari kiritiladi (proza va drama, keyinchalik she'riyat ham).

Badiiy she'rlardan tashqari, yozma adabiyotning boshqa namunalari ham publisistika, ilmiy ommabop va ilmiy adabiyotlar, shaxsiy chiqishlar (ma'ruzalar), shaxsiy yozishmalar, kundaliklar, xujjatlar va boshqalar ham kiritiladi.

Xullas, korpus tilshunosligi, uning milliy shakllarini yaratish, shuningdek, mavjud tajribalardan kelib chiqib o'zbek milliy korpusining nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, uni keng jamoatchilikka tadbiq qilish mutaxassislarning galdagi dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Primov, X.Qodirova "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" o'quv-uslubiy qo'llanma; Urganch- 2019;
2. Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8-9
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 23-40; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – 5-сон. – Б. 3-16.

4. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2019.

5. Менглиев Б., Сайфуллаева Р., Махмудова Н., Сувонова Х. Она тили таълимининг долзарб муаммолари // Тил ва адабиёт таълими, 2008 йил, № 9

GLOBALLASHUV DAVRIDA O'ZBEK LEKSIKASINING BOYISHI: YANGI TERMINLAR VA ATAMALAR

Mirazimova Sevinch Ortiqali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti o'zbek tili va

Adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

mirazimovasevinch9@gmail.com

Annotatsiya: Globallashuv insoniyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, til rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi texnologiyalar, iqtisodiy tizimlar, ilmfan yutuqlari, madaniy aloqalar natijasida dunyo xalqlari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi keskin ortdi. Shu jarayon til boyligining tezkor yangilanishiga, yangi atamalar va terminlarning paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Mazkur maqolada globallashuv davrida o'zbek leksikasining boyishi, yangi terminlarning kelib chiqish manbalari misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: globalashuv, internet, vlogging, blokcheyn, AI, kiberxavfsizlik, startup, brend, trend, blogger, influencer, post, like, hashtag, reels, streaming, marketing, logistika, e-learning, chatbot, AR, VR, STEM, EdTech.

XXI asr insoniyat tarixida globallashuv davri sifatida nom qozondi. Axborot texnologiyalarining rivoji, transport va kommunikatsiya vositalarining takomillashuvi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida dunyo tillari o'rtasidagi munosabat keskin faollashdi. Til esa bu jarayonda asosiy vosita sifatida xalqaro aloqalarning poydevorini tashkil etadi. **Natijada, globallashuv ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi tushunchalar, terminlar va xalqaro atamalar o'zbek tilining lug'aviy tarkibini boyitib, zamonaviy tilshunoslik va leksikologiya tadqiqotlarida markaziy o'rinni egalladi.** Bu jarayonlar tilning barcha qatlamlariga, xususan, uning leksik boyligiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy tilshunoslik esa bu jarayonlarni tizimli o'rganib, ularning lingvistik qonuniyatlarini ochib bermoqda.

Globallashuv jarayoni dunyo tillari o'rtasidagi aloqalarni keskin kuchaytirdi va bu holat o'zbek tilida ham yangi terminlar va atamalarning keng qo'llanilishiga sabab bo'ldi. Avvalo, axborot texnologiyalari sohasida *internet, onlayn, oflayn, blokcheyn, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, raqamlashtirish* kabi terminlar tilimizga kirib keldi. Masalan, "blokcheyn" termini global moliya tizimidagi yangi texnologiyani ifodalash uchun ingliz tilidan o'zbek tiliga bevosita o'zlashtirildi.

Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat rivoji ham yangi so'zlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi. *Trend, kontent, blogger, influencer, post, like, hashtag, reels, streaming, meme, vlogging, podcasting* kabi terminlar Instagram, YouTube va boshqa ijtimoiy platformalar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Masalan, "influencer marketing" tushunchasi ijtimoiy tarmoqlarda mashhurlar orqali reklama olib borishni anglatadi, "viral kontent" esa tez tarqaladigan materiallarga nisbatan qo'llaniladi.

Iqtisodiyot va biznes sohasida ham terminlar jadal kirib kelmoqda: *startup, brend, frilanser, marketing, logistika, crowdfunding, fintech, e-commerce, outsourcing, dropshipping* kabi atamalar global iqtisodiy jarayonlar va innovatsion biznes modellarini ifodalash uchun qo'llanilmoqda. Masalan, "dropshipping" biznes modeli zaxira saqlamasdan tovar sotish tizimini anglatadi.

Ta'lim va ilmiy sohada esa *masofaviy ta'lim, onlayn kurs, e-learning, STEM, biotexnologiya, genetika, MOOC (Massive Open Online Courses), gamifikatsiya, EdTech, Data Science, LMS (Learning Management System), peer-to-peer ta'lim* kabi terminlar ilmiy-texnologik taraqqiyot ta'sirida shakllanmoqda. Masalan, "gamifikatsiya" ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali motivatsiyani oshirishni anglatadi, "MOOC" esa dunyo miqyosida bepul va ochiq ta'lim resurslarini ifodalaydi. Quyida ushbu neologizmlarni izohi keltirilgan:

Axborot texnologiyalari va raqamli muhit:

Internet — dunyo bo'ylab axborot almashish imkonini beruvchi global tarmoq.

Onlayn / Oflayn — internet orqali amalga oshiriladigan ishlar va internetdan uzilgan holatlar

Blokcheyn (Blockchain) — ma'lumotlarni xavfsiz saqlovchi tarqatilgan texnologiya.

Sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) — kompyuter va dasturlarning inson fikrlash jarayonlarini modellashtirishi.

Kiberxavfsizlik (Cybersecurity) — internet tarmoqlari va axborotni himoya qilish sohasi.

Raqamlashtirish (Digitalization) — jarayonlarni raqamli shaklga o'tkazish.

Bulutli hisoblash (Cloud Computing) — ma'lumotlarni internetda saqlash va ulardan masofadan foydalanish imkoniyati.

Chatbot — foydalanuvchi bilan muloqot qiluvchi avtomatlashtirilgan dastur.

VR (Virtual Reality) — maxsus qurilmalar yordamida virtual dunyo yaratish texnologiyasi.

AR (Augmented Reality) — real dunyoni virtual elementlar bilan boyitish texnologiyasi.

Iqtisodiyot va biznes sohasi:

Startup (Startup) — yangi g'oya asosidagi kichik, tez o'suvchi biznes loyihasi.

Brend (Brand) — kompaniya yoki mahsulotning bozordagi taniqlilik darajasi.

Frilanser (Freelancer) — doimiy ish joyisiz, buyurtma asosida ishlovchi mutaxassis.

Marketing — mahsulot va xizmatlarni targ'ib qilish, bozorda ilgari surish sohasi.

Logistika (Logistics) — tovarlarni ishlab chiqarishdan iste'molchigacha yetkazib berishni rejalash va boshqarish sohasi.

Fintech (Financial Technology) — moliyaviy xizmatlar sohasida yangi texnologiyalarni qo'llash.

E-commerce (Electronic Commerce) — onlayn savdo va tijorat faoliyati.

Crowdfunding — biror loyiha uchun ommaviy mablag' yig'ish tizimi.

Outsourcing — tashqi tashkilotlarga ayrim ishlarni topshirish amaliyoti.

Dropshipping — tovarlarni zaxira saqlamasdan, bevosita yetkazib beruvchi orqali sotish modeli.

Ta'lim va ilmiy soha:

Masofaviy ta'lim — internet orqali o'qitish va o'qish jarayonlari.

Onlayn kurs — internet orqali taqdim etiladigan ta'lim dasturlari.

E-learning — elektron ta'lim platformalari va tizimlari.

STEM — Science, Technology, Engineering, Mathematics yo'nalishlarining majmuasi.

MOOC (Massive Open Online Courses) — katta auditoriyalar uchun mo'ljallangan bepul onlayn kurslar.

Gamifikatsiya (Gamification) — o'qitish jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali qiziqishni oshirish.

EdTech (Educational Technology) — ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish sohasi.

Data Science — katta hajmdagi ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish sohasi.

LMS (Learning Management System) — ta'lim jarayonini boshqarish tizimi.

Peer-to-peer ta'lim — tenglar o'rtasida bilim almashish tizimi

Ijtimoiy tarmoqlar va madaniyat

Trend — ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan mavzu yoki hodisa.

Kontent (Content) — internet platformalarida yaratilgan matn, foto, video va boshqa materiallar.

Blogger — internetda shaxsiy sahifalar orqali materiallar joylashtiruvchi shaxs.

Influencer — ijtimoiy tarmoqlarda ko'p sonli auditoriyaga ta'sir o'tkazuvchi shaxs.

Post — ijtimoiy tarmoqlarda joylashtiriladigan matn, rasm yoki video.

Like — ijtimoiy tarmoqlarda ma'qullash belgisi.

Hashtag — ma'lum bir mavzu bo'yicha materiallarni birlashtiruvchi belgi (#).

Streaming — onlayn translyatsiya qilish texnologiyasi.

Meme — internet hazili yoki madaniy fenomen.

Vlogging — videoblog yuritish faoliyati.

Podcasting — audio shaklidagi blog yuritish.

Viral kontent — tez tarqalib ketadigan materiallar.

Influencer marketing — reklama faoliyatini ijtimoiy tarmoqlardagi mashhur shaxslar orqali amalga oshirish.

Tilning lug'at tarkibi quyidagi manbalar orqali boyimoqda: internatsional terminlarning o'zlashuvi, so'z yasash imkoniyatlari, kalkalash (ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tarjima), neologizmlar va dialekt so'zlarining adabiylashuvi. Masalan, *internet (ingliz)*, *marketing (ingliz)*, *algebra (arab)*, *universitet (lotin)* kabi so'zlar xalqaro terminlar sifatida kirib keldi. Yoki *raqam* → *raqamlashtirish*, *til* → *tilshunoslik* kabi so'zlar milliy ildizlardan yasalgan yangi terminlarga misoldir. Shuningdek, *sun'iy intellekt (Artificial Intelligence)* kabi terminlar kalkalash yo'li bilan milliy tilga moslashtirildi.

Zamonaviy leksikologiya bu jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qilib, yangi terminlarning semantik xususiyatlarini, morfologik moslashuvini, me'yorlash jarayonlarini va lingvistik korpuslardagi qo'llanish chastotasini o'rganadi. Masalan, O'zbek tilining Milliy Korpusi tahlillari shuni ko'rsatadiki, ko'plab yangi terminlar ayniqsa 2010-yildan keyin tez-tez uchray boshlagan. Bu esa globallashtirishning o'zbek tili leksik boyligiga bevosita ta'sir ko'rsatayotganidan dalolat beradi.

Xulosa. Globallashtirish jarayoni o'zbek tilining leksik boyligiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, ta'lim va ijtimoiy sohalarga oid ko'plab yangi terminlar tilimizga kirib, kundalik nutqimiz va ilmiy adabiyotimizning ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayon o'zbek tilining zamonaviy rivojlanishini tezlashtiradi, uni xalqaro ilmiy va madaniy maydonda faolroq qo'llash imkonini beradi. Shu sababli globallashtirish davrida yangi terminlarning o'zbek tiliga moslashuvi va ularning tizimli o'rganilishi tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov, A. A. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Bozorov, O. *Globalashuv va o'zbek tilining leksik boyishi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Rasulov, R. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
4. Yusupov, O. *Zamonaviy tilshunoslik: yangi yo'nalishlar va konsepsiyalar*. – Toshkent: Universitet, 2022.
5. www.wikipedia.uz

O'QITUVCHI NUTQIDA LEKSIK VA STILISTIK XATOLAR TAHLILI

Odinaxon Mirzaazizova Akbarxon qizi

omirzaazizova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Qodirjon Mo'ydinov Abdurasulovich, CHDPU O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti.

Annotatsiya: O'qituvchi so'z tanlovi, ifoda uslubi, ohang va grammatik tuzilishga e'tibor qaratmasa, darsning emotsional va mantiqiy ta'siri pasayadi. Mazkur maqolada o'qituvchilarning nutqida uchraydigan leksik va stilistik xatolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: So'z tanlovi, estetik did, leksik xatolar, mantiqiy izchillik.

Аннотация: Если учитель не уделяет должного внимания выбору слов, стилю речи, тону и грамматической структуре, эмоциональное и логическое воздействие урока снижается. В данной статье анализируются лексические и стилистические ошибки, встречающиеся в речи учителей, и предлагаются способы их устранения.

Ключевые слова: выбор слов, эстетический вкус, лексические ошибки, логическая последовательность

Abstract: If the teacher does not pay attention to the choice of words, style of expression, tone and grammatical structure, the emotional and logical impact of the lesson will decrease. This article analyzes the lexical and stylistic errors that occur in the speech of teachers and highlights ways to eliminate them.

Keywords: Word choice, aesthetic taste, lexical errors, logical consistency.

Bugungi ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar qatorida uning nutq madaniyati alohida o'rin tutadi. O'qituvchi nutqi — bu nafaqat bilimni yetkazish vositasi, balki o'quvchilarning fikrlash madaniyatini, estetik didini va nutqiy malakasini shakllantiruvchi omildir. Shuning uchun ham o'qituvchining nutqida uchraydigan leksik va stilistik xatolar ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1;78].

1. O'qituvchi nutqidagi leksik xatolar mohiyati va tahlili

Leksik xatolar deganda so'zlarning ma'nosini noto'g'ri qo'llash, ma'nodosh so'zlarni o'rinli ishlatmaslik, ortiqcha so'zbozlik yoki tildan tashqari unsurlardan foydalanish tushuniladi [2;45]. O'qituvchining so'z boyligi va leksik sezgirliги past bo'lsa, uning nutqida quyidagi holatlar uchraydi:

Ma'nodosh so'zlarni chalkashtirish: masalan, “qulay sharoit” o'rniga “yaxshi sharoit” deyish nutqni oddiylashtiradi.

So'z takrori: “Dars jarayonida darsni yaxshi olib bordik” kabi ortiqcha so'zlar nutqning silliqligiga putur yetkazadi.

Aniqlik yetishmasligi: o'qituvchi so'z tanlashda umumiy so'zlardan foydalanganda fikr aniqligi yo'qoladi (“narsa”, “shu joy”, “mana bu narsa” kabi).

Leksik xatolarga misollar:

1. Bolalar, bu rasmni **qaranglar**. Bolalar, bu rasmga **e'tibor beringlar**. “Qaranglar” buyruq ohangda, “e'tibor beringlar” esa tarbiyaviyroq.

2. Bolalar, bugun **tashabbusni ko'rsatishimiz** kerak. Bolalar, bugun **tashabbuskor bo'lishimiz** kerak.

3. Darsda chuqur **tahlil qilib chiqamiz**. Darsda chuqur **tahlil qilamiz**. “... qilib chiqamiz” ortiqcha so'z qo'llash.

3 “Endi, demak, keyin...” kabi ortiqcha kirish so'zlar. Kerakli joyda, aniq mantiq bilan qo'llash.

4. Bu so'zni **qayta-qayta** aytish kerak emas. Bu so'zni **qayta** aytish kerak emas. Takror so'zlar nutqni og'irlashtiradi.

5. “Bu masalada men **pozitsiyamni ifodalayman**.” “Bu masalada o'z **fikrimni bildiraman**.” Rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima.

6. “Bu **narsani aniq qilib aytib o'tamiz**.” “Bu **fikrni aniq aytamiz**.” “... qilib aytib o'tmoq” — leksik ortiqchalik.

Stilistik (uslubiy) xatolarga misollar

1. Bolalar, darsimiz **hozir boshlanayotgan vaqt**. Bolalar, darsimiz **hozir boshlanadi**. Ortiqcha so'zlar nutqni cho'zadi.

2. Sizlarga **bir narsani gapirib o'tmoqchiman**. Sizlarga **bir fikrni aytmoqchiman**. “Narsa” so'zi ma'nosiz umumlashtiruvchi so'z.

3. Darsimizni boshlaylik, demak, boshlaymiz. Darsimizni boshlaymiz. Bir fikrni ikki marta aytish.

4. “Bu mavzuni o'rganishimiz juda qiziq.” “Bu mavzuni o'rganish juda qiziqarli.” “Qiziq” va “qiziqarli” uslubiy farqli: ikkinchisi ilmiy uslubga mos.

5. “Men sizlarga **bu narsani aytgan edim-ku!**” “Men **bu fikrni ilgari ham aytgandim**.” His-tuyg'uli ohang (ku!) uslubiy jihatdan noo'rin.

Bunday xatolar o'qituvchi nutqining ta'sirchanligini kamaytiradi, o'quvchilarda til madaniyatiga befarqlik uyg'otadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir so'zning ma'nosini to'g'ri anglab, kontekstga mos qo'llashi lozim.

O'qituvchi nutqidagi stilistik xatolar va ularning sabablari: Stilistik xatolar — bu nutq uslubiga mos kelmagan, mantiqiy izchillikni buzuvchi yoki ifoda silliqqligini yo'qotuvchi holatlardir [4]. O'qituvchi nutqida ko'p uchraydigan stilistik xatolarning asosiy turlari quyidagilardir:

1. Uslubiy nomuvofiqlik: rasmiy dars paytida so'zlashuv uslubidagi ifodalardan foydalanish.

Masalan: “Bolalar, bu narsa judayam zo'r chiqdi!” — bunday ohang rasmiy dars uchun noo'rin.

2. Ortiqcha so'zbozlik : “Bu masalaga alohida, juda alohida e'tibor beramiz” kabi jumlarlar uslubni buzadi.

3. Mantiqiy izchillikning yo'qligi: Fikrlar ketma-ketligi aniqlik va ravshanlik talab qiladi.

4. Emotsional haddan ziyodlik: juda ko'p undovlar yoki hissiy so'zlar nutqning ilmiy-tarbiyaviy qimmatini kamaytiradi.

Stilistik xatolar ko'pincha tayyorlanmagan nutq, e'tiborsizlik yoki o'z so'zini nazorat qilmaslikdan kelib chiqadi. O'qituvchi nutqining uslubiy tozaligi uning umumiy madaniy darajasini belgilaydi [2;78].

Leksik va stilistik xatolarni bartaraf etish yo'llari

O'qituvchi nutq madaniyatini rivojlantirish uzluksiz jarayondir. Quyidagi amaliy choralar bu borada samarali natija beradi:

1. O'z nutqini tahlil qilish: o'qituvchi o'z darslarini yozib olib (audio yoki video shaklda) tahlil qilishi foydali. Bu orqali so'z tanlashdagi kamchiliklar aniqlanadi.

2. So'z boyligini kengaytirish: har kuni yangi so'zlarni o'rganish, sinonimik qatlamni faol nutqqa kiritish tavsiya etiladi.

3. Badiiy va ilmiy adabiyot o'qish: adabiy tilning boy ifoda imkoniyatlarini o'rganish nutqni silliqqlashtiradi.

4. Uslubiy sezgirlikni oshirish: turli uslublarda (rasmiy, ilmiy, so'zlashuv) matn yozish mashqlari bajarish.

5. Nutq etikasi va ohangni nazorat qilish: dars jarayonida muomala madaniyatiga rioya qilish.

O'qituvchi nutqidagi leksik va stilistik xatolar uning kasbiy muvaffaqiyatiga, dars sifatiga va o'quvchilarning nutq madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Har bir pedagog o'z nutqini tahlil qilish, so'z boyligini oshirish va uslubiy tozalikka e'tibor berish orqali bu kamchiliklarni kamaytirishi mumkin. Shunday o'qituvchilargina

o'quvchilar uchun nafaqat bilim manbai, balki nutq madaniyatining namunasi bo'la oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madayev O. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Rafiqova D. Pedagogik muloqot va nutq madaniyati. – T.: Fan va texnologiya, 2021.
3. Yo'ldoshev M. Nutq psixologiyasi va muloqot madaniyati. – Samarqand, 2019.
4. Internet manbalar: ziyonet.uz, eduportal.uz, library.uz

**TOHIR MALIK ASARLARIDA HAQORAT SO'ZLARINING IFODALANISHI
("ALVIDO, BOLALIK" ASARI TALQINIDA)****Mirzavaliyeva Xonzodabegim Zoir qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalish 1-bosqich talabasi

mirzavaliyevaxonzoda@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli o'zbek yozuvchisi Tohir Malikning "Alvido, bolalik" qissasidagi haqorat so'zlarning ifodalanishi va ularning badiiy matndagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda haqorat so'zlarning obrazlar xarakterini ochish, emotsional muhit yaratish va asarning realizm darajasini oshirishdagi funksiyalari yoritiladi. Maqola haqorat so'zlarning badiiy uslubdagi ahamiyatini chuqurroq tushunishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: haqorat, jamiyat, emotsional, vaziyat, qissa.

Abstract: This article analyzes the expression of offensive words in the well-known Uzbek writer Tohir Malik's novella *"Alvido, bolalik"* and their role within the literary text. The study highlights the functions of offensive language in revealing characters' personalities, creating an emotional atmosphere, and enhancing the realism of the work. The article aims to provide a deeper understanding of the significance of offensive words in literary style.

Keywords: offense, society, emotional, situation, novella.

Аннотация: В данной статье анализируется выражение оскорбительных слов в известной новелле узбекского писателя Тохира Малика «Алвидо, болалик» и их роль в художественном тексте. В исследовании освещаются функции оскорбительной лексики в раскрытии характера героев, создании эмоциональной атмосферы и повышении уровня реализма произведения. Статья направлена на более глубокое понимание значения оскорбительных слов в художественном стиле.

Ключевые слова: оскорбление, общество, эмоциональный, ситуация, новелла.

"O'zing yaxshi bilmagan narsani yozma", "Boshqalar yurgan yo'ldan yurma, o'z yo'lingni top» tog'asi taniqli o'zbek adibi va tarjimoni Mirzakalon Ismoilning ushbu so'zlarini o'ziga dasturi amal qilib olgan taniqli adib Tohir Malikning ko'plab asarlari kishilik jamiyatidagi eng nozik mavzularda bo'lib, adib bu borada ko'plab tarbiyaviy

ruhdagi asarlar yaratgan, yuqoridagi sanab o'tilgan mukofotlar esa buning ayni isbotidir. Yozuvchining «Alvido, bolalik» qissasi ham shular jumlasidandir.

Badiiy adabiyotda til vositalarining xilma-xil qo'llanilishi obrazlar xarakterini ochib berish, voqealarning ruhiy-estetik ta'sirini kuchaytirish hamda hayotiy haqiqatni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, og'zaki nutqqa yaqin badiiy uslubda yozilgan asarlarda real hayotda uchraydigan qo'pol, tahqiriy yoki haqorat ohangidagi so'zlar ham personajlarning ijtimoiy-madaniy muhitini, psixologik holatini aks ettirish vositasi sifatida ishlatiladi. O'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri — Tohir Malik ijodida ham bunday lingvistik birliklar o'ziga xos ma'naviy-estetik yuklama bilan qo'llanilgan bo'lib, ular asar mazmuni va obrazlar tizimida muhim semantik funksiyani bajaradi. Ushbu maqolada Tohir Malik asarlarida uchraydigan haqorat so'zlarning ifodalanish shakllari, ularning stilistik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. «Alvido, bolalik» Tohir Malik ijodida alohida o'rin tutadi. Asarning bosh g'oyasi hayotda hech bir inson jinoyatchi bo'lib tug'ilmasligi, aksincha, bolalarni atrof-muhit, jamiyatdagi turli qabih illatlar ta'siri jinoyatchi va shunga o'xshash tipdagi inson qiyofasidagi razil kimsalarga aylantirishidir. Bu esa o'z navbatida bizning jamiyatimizdagi eng aktual mavzulardan biridir. «Alvido, bolalik» qissasi esa huddi shu xususida yaratilgan beqiyos asardir.

Tohir Malikning badiiy asarlarini tahlil qilish jarayonida ayrim holatlarda haqorat mazmunini ifodalovchi so'z birliklariga duch kelish mumkin. Lingvistik nuqtayi nazardan olib qaralganda, **haqorat** — bu shaxsning izzat-nafsi, or-nomusi, g'ururi va sha'niga tajovuz qiluvchi, uning qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan og'zaki yoki yozma shakldagi ekspressiv nutq birliklaridir. Haqorat faqat so'z orqali emas, balki xatti-harakat, imo-ishora yoki boshqa kommunikativ vositalar yordamida ham ifodalanishi mumkin. U ko'pincha kimgadir bevosita yoki bilvosita yo'naltirilgan holda, ko'pchilik ishtirokida yoki jabrlanuvchining eshitish ehtimoli mavjud bo'lgan sharoitda sodir bo'ladi.

Bunday lingvistik birliklar badiiy matnda muayyan stilistik maqsadlarni amalga oshirish, obrazning psixologik holatini, ijtimoiy muhitini yoki muallifning estetik pozitsiyasini yoritish vositasi sifatida ishlatiladi. Ushbu maqolada Tohir Malik asarlarida uchraydigan haqorat so'zlarning shakl, mazmun va funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi hamda ularning badiiy nutqdagi o'rni ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Fanda bunday so'zlar “**tabu**” deb ataladi, ya'ni ularning qo'llanish doirasi ijtimoiy va madaniy normalar tomonidan chegaralangan. Adabiy asarlarda tabu so'zlarning ishlatilishi — o'ta nozik va mas'uliyatli yondashuvni talab qiladigan

masaladir. Bunday soʻzlar har doim salbiy yoki haqorat maqsadida qoʻllanavermaydi; aksincha, ular qahramonlarning psixologik portretini chuqurlashtirish, voqealarning tabiiyligini oshirish va asarga realizm unsurlarini singdirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, haqoratli yoki tabu soʻzlarning badiiy matnda ishlatilishi uning estetika va mazmun jihatidan toʻgʻri baholanishini talab qiladi. Biz buni maqola davomida ushbu asardan aynan keltirilgan misollar orqali birma bir koʻrib chiqamiz.

“Alvido, bolalik” qissasida haqorat soʻzlardan koʻp foydalanilmagan boʻlsada, asarning baʼzi joylarida tabiiy, xalqona tilda aytiladigan qoʻpol soʻzlar yoki qahrli ohangdagi iboralar orqali qahramonlarning ichki holat va hissiyotlari, ularning tarbiyasi, hayotga munosabatlarini ochib berilgan. Mana masalan: “– Shunaqami?.. – Keldiyorov “basharang qursin” deganday yuzini oʻgirdi. – Siz boʻshsiz, ketishingiz mumkin» ushbu parcha qissaning «Tergov» deb nomlangan qismidan olingan boʻlib, dialogda biz guvohi boʻlgan haqoratli soʻz xalq tilida oddiy, kimlar uchundir har kuni foydalanadigan kundalik soʻz hisoblanadi. Lekin uni asarda tutgan oʻrni bundan mustasno. Yana shuni aytish joizki, bu oʻrinda u soʻzlovchi tilida namoyon boʻlmagan, aksincha, uning yaʼni qahramonning ayni damda qilayotgan hatti-harakati, yuz mimikasi shu soʻzni oʻzida aks ettirgan. Ushbu haqoratli soʻz ayni damda soʻzlovchining hissiyotlari, vaziyatini oydinroq ochib berishga yordam bergan. Bu esa oʻz navbatida, kitobxonni oʻqiyotgan kitobini yanada yaxshiroq tushunishi, oʻsha qahramonni hayolida tasavvur qilishi uchun asos boʻla oladi. Umuman olganda, asardagi ishlatilgan jamiyki haqorat soʻzlarning vazifasi shu hisoblanadi. Buni yana bir misol orqali koʻrishimiz mumkin, «– Men har qanday qorayaloqqa qul boʻlmayman, – dedi u koʻzini loʻq qilib – “Qora yaloq” deganing Mirtillayevmi?– Ha, oʻsha.» Keltirilgan ushbu parcha ham asarning «Tergov» boʻlimidan olingan. Bu yerda foydalanilgan masxaralovchi soʻz asarda salbiy obraz sifatida ishtirok etgan Mirtillayevga nisbatan aytilgan. Bu soʻzni ishlatishdan maqsad, yigitlarning bu insonga boʻlgan nafrat va qoʻrquvini koʻrsatib berish va bu orqali jamiyatdagi baʼzi soxta, ikkiyuzlamachi amaldorlarning timsolini koʻrsatishdir. Tohir Malik asarlarida bu kabi haqoratli soʻz va iboralar orqali obrazga taʼsirchanlik va tanqidiy ohang bergan. Asardan shu kabi yana bir misolni koʻrib chiqsak. «– Serraymay oʻl, sen, – dedi ayol uni nari itarib. – Nima qilgan boʻlsalaring ham kunlaring bitganga oʻxshaydi. Izlaringga odam tushgan. Agar bu bolaga bir narsa boʻlsa, oʻzlaringga yomon. Yaxshisi, tanimaymiz, deb turlaring.» Bu parcha «Oqibat» boʻlimidan olingan boʻlib, ushbu parchada keltirilgan haqoratli soʻz orqali ayol bolalarni xavfdan ogohlantiryapti. Oʻzini xavotirini bolalarga yuqoridagi soʻz orqali, bunday qotib qolma, qimirla,

hushyor bo'lib, o'zingni bos degan ma'noda gapiryapti. Bu kabi haqoratli so'zlarni asarda juda ko'p uchratishimiz mumkin. Sababi, asarlarda haqoratli so'zlar obrazning psixologik holatini, ruhiy bosim ostida shakllangan shaxsini ochib berishda muhim vositadir.

Xulosa qilib aytganda, haqoratli so'zlar garchi ijobiy fazilatlarni o'zida aks ettirmasa-da, badiiy asarga emotsional rang-baranglik va ichki kuch beruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Tohir Malikning "Alvido bolalik" asarida bunday iboralarning qo'llanishi o'ta asosli va kontekstga mos keluvchi xususiyatga ega. Ushbu asarda tasvirlangan mehsiz va beparvo ijtimoiy muhit bolalarning ichki iztiroblari, qarshiliklari va isyonini yanada jonli, ta'sirchan va hissiyotlarga boy tarzda ifoda etishda haqorat so'zlarining roli muhimdir. Shunday qilib, Tohir Malik badiiy til vositalaridan foydalanishda o'ziga xos realistik uslubni yaratgan bo'lib, u o'quvchida kuchli estetik va emotsional taassurot qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mo'yidinov Q., Ikramov R.. Darslik. "Tilshunoslik asoslari", Toshkent-2024.
2. Tohir Malik. «Alvido,bolalik» Qissa/ -Toshkent: «Yoshlar» nashriyoti uyi–2019.

Internet sahifalari:

3. <https://mutolaa.com/book/alvido-bolalik>
4. <https://oyina.uz/uz/teahause/2781>
5. https://uz.m.wikiquote.org//Alvido_bolalik
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/wiki/Tohir_Malik
7. <https://hikmatlar.uz/author/379>

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIL XUSUSIYATLARI

Mo'minova Saidaxon Ikromjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

@SaidaxonMo'minovaemail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada OAVda qo'llaniladigan eski terminlar va yangi terminlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, OAV uchun ijobiy va salbiy jihatlari lingvistik ekspertiza nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: OAV, lingvistik ekspertiza, Generative AI, AI journalism

Аннотация: В данной статье с позиции лингвистической экспертизы анализируется возникновение и развитие старых и новых терминов, используемых в средствах массовой информации. Также рассматриваются положительные и отрицательные стороны их применения в деятельности СМИ.

Ключевые слова: СМИ, лингвистическая экспертиза, Generative AI, AI journalism.

Annotation: This article analyzes, from the perspective of linguistic expertise, the emergence and development of old and new terms used in the mass media. It also examines the positive and negative aspects of their application in media practice.

Keywords: mass media, linguistic expertise, Generative AI, AI journalism.

Insoniyat taraqqiyoti davomida axborot olish, bilim, urf -odat, an'ana va madaniyatni ommaga yetkazishning turli shakllari yaratilgan. Yillar davomida axborot va bilim yetkazuvchi vositalar o'rganilgan va tatbiq etilgan. Shulardan biri televideniye'dir. Hozirgi vaqtda jamiyat son-sanoqsiz OAV vositalari orqali yangiliklardan tezda voqif bo'lishdek katta va tezkor imkoniyatlarga ega bo'ldi. Televideniye sohasida tez -tez uchraydigan asosiy terminlar mavjud. Hususan, rus olimi N.A. Konrad shunday deb yozadi: „Bugungi kunda umumiy tilimiz deb ommaviy kommunikatsiya tilini hisoblash mumkin. Ommaviy, ijtimoiy va madaniy muloqot sohasida hozirgi paytda til sistemasining yangi xususiyatlari, avvalo

,semantik sohadagi tushunchalar va ular orasidagi aloqa borasida yangi hususiyatlar shakllanmoqda”.

Misol uchun: Efirdagi uzatish-dasturlarni antennalar orqali havo to'liqlarida tarqatish. Kadr-televizor ekranida ko'rinadigan bitta tasvir Kadrlar chastotasi-soniyada nechta kadr namoyish qilinishi Rezolyutsiya -tasvirning aniqlik darajasi Signal-tovush va tasvirni uzatadigan elektromagnit to'liq Jonli efir(live)-bevosita uzatish Montaj-suratga olingan materiallarni qayta ishlash,tahrirlash Ssenariy-ko'rsatuv yoki filmning yozma rejasi Telejurnalist-televideniye uchun reportaj tayyorlovchi . Televideniye -bu faqat ko'ngilochar dasturlar manbai emas,balki odamlarni birlashtiruvchi,bilim beruvchi,insonlar o'rtasida milliy urf-odat va an'analarni saqlab qolishga yordam beradigan vositadir.Televideniye bugungi kunda bir nechta vazifalarni bajarib kelmoqda.Birinchidan, axborot dasturlari orqali insonlar mamlakatimiz va dunyo voqealari haqida tez va oson bilib olishlari mumkin.Ikkinchidan, ushbu OAVni ilmiy,ma'rifiy bilimlarni tarqatuvchi hisoblanadi desak ham mubolag'a bo'lmaydi, chunki televideniya o'tmishda yashab , ijob qilgan shoir-u yozuvchilar ,sarkarda va podshohlar haqida hujjatli filmlar va seriallar, Ramazon oyida diniy-ma'rifiy ko'rsatuvlar taqdim etiladi.Qolaversa, televideniya taqdim etiladigan, turli tillardan tarjima qilingan kino va seriallar,ijodkorlarning konsert dasturlari va rang-barang shou dasturlari orqali odamlar hordiq chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.Ma'lumotlarga qaraganda, televideniyaning ilk ko'rsatuvlari 1936-yilda Buyuk Britaniya va Germaniyada,1938-yilda tajriba sifatida Sankt-Peterburgda efirga uzatilgan.1941-yil AQSHda ham teleeshittirishlar yo'lga qo'yildi.Bu teleeshittirishlar Ikkinchi Jahon urushi tufayli biroz to'xtadi,lekin urushdan keyingi yillarda tez orada ommalashdi.Poytaxt Toshkentda esa 1956-yil 5-noyabr kuni birinchi rasmiy teleko'rsatuv efirga uzatildi.Shundan buyon OAVga oid yangidan yangi terminlar kirib keldi.Masalan:Generative AI -kontent yaratishda sun'iy intellektdan foydalanish. Streaming television /OTT/CTT -matn, oddiy televideniye emas, balki internet orqali uzatiladigan kontrakt. AI journalism -(sun'iy intellekt jurnalistikasi)maqola yozish,sarlavha tanlash,hatto rasm yaratishda AI ishlatilishi tufayli ommaviy axborot vositalarida ham keng ishlatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, televideniye insoniyat madaniyati va taraqqiyotining muhim mahsulidir.U faqatgina ko'ngilochar emas, balki ma'rifat, tarbiya va axborot manbai sifatida ham jamiyat hayotida beqiyos o'rin egallaydi.Har bir inson undan oqilona foydalanib , foydali dasturlarni tomosha qilsa, televideniye haqiqiy bilim va ma'naviyat manbaiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1), „Ommaviy axborot vositalarida nutq madaniyati “
- 2) D.M. Teshaboyeva., „Lug‘at ma'lumotnoma. Jurnalistika.
- 3) Reklama Pablik rileyshnz. 2002
- 4), „Tilshunoslik asoslari“. Q. Mo'ydinov, R. Ikramov. Toshkent 2024.

O'ZBEK TILIDA MEHNAT QUROLLARI LEKSIKASI

Muhabbat Jo'rayeva Jamshid qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Kechki ta'lim shakli 24\1- guruh 2-kurs talabasi

Jorayevamuxabbat1@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA .Ushbu maqolada o'zbek tilidagi mehnat qurollari leksikasining shakllanishi, tarixiy ildizlari va zamonaviy hayotdagi qo'llanishi tahlil qilinadi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va ro'zg'or qurollariga oid so'zlar til boyligining muhim qismini tashkil etadi va xalq og'zaki ijodi hamda adabiyotdagi ifodasi ko'rib chiqiladi. Maqolada arxeologik va adabiy manbalar asosida dalillar keltiriladi va tilshunoslik nuqtayi nazaridan tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: leksika, mehnat qurollari, dehqonchilik, hunarmandchilik, tarixiy ildiz, xalq og'zaki ijodi, zamonaviy tili.

Annotation. This article analyzes the formation, historical roots, and modern usage of the vocabulary of work tools in the Uzbek language. Words related to agriculture, handicrafts, and household tools constitute an essential part of the lexical wealth and are reflected in folklore and literature. The article provides evidence based on archaeological and literary sources and offers insights from a linguistic perspective.

Keywords: lexis; work tools; agriculture; handicrafts; historical roots; folklore; modern language

Аннотация. В данной статье анализируется формирование, исторические корни и современное употребление лексики орудий труда в узбекском языке. Слова, связанные с земледелием, ремеслом и бытовыми предметами, составляют важную часть лексического богатства и находят отражение в фольклоре и литературе. В статье приводятся доказательства на основе археологических и литературных источников и даются выводы с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: лексика; орудия труда; земледелие; ремесло; исторические корни; фольклор; современный язык.

Til – xalqning hayoti, turmushi madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi vositadir. Leksika – tilning so'z boyligi, u orqali xalqning mehnat tarzi, kasb-hunarlarini va kundalik turmushi haqida tasavvur hosil qilinadi. O'zbek xalqining tarixiy faoliyati –

dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik – leksik qatlamda o'z izini qoldirgan. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar O'rta Osiyo hududida qadimdan mehnat qurollari ishlatilganini tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi davrlarga oid Sug'd, Baqtriya va Xorazm hududlaridan temir va bronza asboblari – o'roq, ketmon va turli kesgichlar topilgani ma'lum. Bu topilmalar o'sha davrdagi qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik faoliyatining rivojlanganligini ko'rsatadi. Bronza va temirning keng tarqalishi qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirib, bir qator yangi mehnat asboblari va ularning nomlari tilimizda mustahkam o'rin olishiga sabab bo'ldi. So'nggi yillarda bronza asboblari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar material madaniyati va texnologik o'zgarishlarni yanada aniqroq ochib bermoqda. Qadimgi odamlarning eng sodda tosh qurollaridan biri bolg'a toshlari hisoblangan. Undan biror narsani kesish, maydalash va ko'zlangan masofaga irg'itish qurolli sifatida foydalanishgan. Badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodida ham mehnat qurollari mavzusi keng tarqalgan. Masalan, xalq dostonlari va maqollarda ketmon, o'roq, bolta kabi atamalar qahramonlarning kundalik ishini yoki ularning fazilatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Turk-o'zbek epikosida masalan, "Alpomish" dostonida qahramonlarning hayoti va kun tartibidagi amaliy ishlar, shu jumladan dala va hunarmandchilik ishlariga oid tasvirlar uchraydi. Bunday epik va folkloriy matnlar mehnat qurollarining tilda qanday badiiy, ramziy ijtimoiy ma'nolar olganini ko'rsatadi. Bu holat leksikaning nafaqat amaliy, balki madaniy va estetik qiymati borligini ko'rsatadi. Ba'zi mehnat qurollari nomlari qadimgi turkiy ildizlardan keladi. Masalan, "ketmon" so'zining tayanch shakli Proto-Turkic rekonstruksiylarida ketmen ga yaqin ekanligi qayd etilgan; shu sababli so'z turkiy tillarda keng tarqalgan. Mehnat qurollari so'zlarini funksiyasiga ko'ra guruhlash mumkin: bular dehqonchilik qurollari: ketmon, o'roq, belkurak, to'qmoq; yog'ochsozlik va qurilish asboblari: bolta, arra, tesha, keskich; hunarmandchilik asboblari: igna, bigiz, qaychi, charx va dastgoh; uy-ro'zg'or asboblari: supurgi, elak, tovoq va idishlar. Bu atamalarning ba'zilari qadimgi turkiy ildizlarga ega va fonetik jihatdan eskilikni saqlab qolgan. So'zlarning leksik-semantik tahlili ko'rsatadiki, ayrim atamalar amaliy nom bo'lib qolmagan, balki metafora va frazeologizm sifatida yangi ma'nolar olgan. Masalan, "ketmonini qo'lga olish" – ish boshlash ma'nosini anglatadi.

Maqolada mehnat qurollarining ijtimoiy ahamiyatini aniq ko'rsatadi. Odatda bu maqollar mehnatni qadrlash, mas'uliyat va kasb muhimligini ta'kidlaydi. Masalan, "Ketmonini qo'lga olish" ishni boshlash, "O'roqday o'tkir" keskin, jasoratli, "Ketmon qo'lda- rizq dalada" maqolida esa mehnat qilish orqali rizq topish ma'nosi

tushuniladi. Topishmoqlarda esa asboblarning badiiy tasviri, ularning shakli va vazifasi orqali yosh avlodlarga bilim beriladi. XX-XXI asrlarda texnik taraqqiyot natijasida qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida texnika keng qo'llanila boshlandi: traktor, kombayn, ekskavator kabi vositalar oddiy qo'l asboblari o'rnini egalladi. Biroq bu qatlam tildan yo'qolmadi – ko'plab atamalar metafora va frazeologik birliklar sifatida saqlanib qoldi. Tilshunoslar uchun mehnat qurollari leksikasini o'rganish – ijtimoiy-iqtisodiy tarixni, madaniyat va til o'zgarishlarini kuzatish imkoniyatidir. Ilmiy-daliliy jihatdan, arxeologik topilmalar, qadimiy adabiy manbalar va xalq og'zaki ijodi asosida leksikaning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash mumkin. Bu o'rganish til tarixini, leksik jarayonlarni va so'zlarning semantik o'zgarishlarini ochib beradi. Mehnat qurollari leksikasi o'zbek tilining boy va tarixiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. U xalqning mehnat madaniyati, iqtisodiy faoliyati va ma'naviy qadriyatlarini so'z orqali aks ettiradi. Texnika rivojlangan paytda ham bu leksika tilda metaforik va frazeologik jihatdan muhim rol o'ynaydi. Mehnat qurollari so'zlarini tadqiq etish tilshunoslik, etnografiya va tarix sohaları uchun qimmatli material hisoblanadi. Chunki bu so'zlar orqali o'zbek xalqining o'tmishdagi faoliyati, mehnat an'analari va ijtimoiy hayoti haqida chuqur bilim olish mumkin. Arxeologik topilmalar ham, xalq og'zaki ijodi ham, adabiy manbalar ham mehnat qurollarining qanchalik qadimiyligini va ular o'zbek xalqining kundalik hayotida naqadar muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Shunday qilib, mehnat qurollariga oid so'zlarni asrab-avaylash, ularni tadqiq qilish va yosh avlodga yetkazish milliy merosimizni saqlashga xizmat qiladi.

O'zbek tilida mehnat qurollari leksikasi xalqning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, ishlab chiqarish madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim leksik qatlamdir. Bu soha tildagi etnolingvistik, tarixiy va madaniy ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Mehnat qurollariga oid so'zlar xalq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanish bosqichlarini, ishlab chiqarish texnologiyalarining o'zgarishini va ijtimoiy tafakkurning shakllanishini til orqali aks ettiradi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, mehnat qurollari leksikasi o'zbek tilining leksik boyligini, tarixiy qatlamlarini va semantik tizimini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu so'zlar tarkibida qadimgi turkiy ildizli birliklar bilan bir qatorda arab, fors va rus tillaridan kirgan atamalar ham mavjud bo'lib, ular o'zbek tilining rivojlanish jarayonida o'zaro uyg'unlashgan.

Shuningdek, mehnat qurollariga oid leksika xalq og'zaki ijodi, maqol va matallar, toponimlar hamda kasb-hunar atamalarida faol qo'llanilishi bilan ham ajralib turadi. Bu esa mazkur leksik qatlamning nafaqat tarixiy, balki uslubiy va madaniy ahamiyatini

ko'rsatadi. Demak, o'zbek tilida mehnat qurollari leksikasi nafaqat tildagi tarixiy qatlamni yoritadi, balki xalq tafakkuri, mehnatsevarlik an'analari va milliy o'zlikning til orqali namoyon bo'lishini ham ifodalaydi. Shu bois bu leksik qatlamni ilmiy o'rganish tilning tarixiy taraqqiyotini, madaniy ildizlarini va milliy mentalitetini chuqur anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jo'rayev M" O'zbek tilining leksik qatlamlari". Toshkent: Fan, 2005.
2. Abdurahmonov G'., Rustamov A. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Mahmudov N. "O'zbek tili leksikologiyasi" Toshkent, 2012.
4. Karimov A. "O'zbek xalq maqollari" Toshkent: Yozuvchi, 1987.
5. Qodirov E. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
6. Sagdullayev A. "O'zbek xalqining etnografik tarixi". Toshkent: Sharq, 2001.

O'ZBEK TILIDA KASB HUNAR LEKSIKASI

Mustafoeva Marjona

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi kasb-hunar leksikasining shakllanishi, rivojlanishi va qo'llanish doiralari yoritiladi. Unda tarixiy ildizga ega kasb-hunar nomlari, zamonaviy davrda paydo bo'lgan yangi kasblar, shuningdek, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan terminlarning o'zbek tilida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Maqolada kasb-hunar atamalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, til boyligini kengaytirishdagi roli ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Kasb-hunar, leksika, o'zbek tili, termin, zamonaviy kasblar, mehnat, lug'at boyligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются формирование, развитие и сфера применения профессиональной лексики в узбекском языке. Анализируется место в узбекском языке профессиональных наименований, имеющих исторические корни, новых профессий, появившихся в современную эпоху, а также терминов, заимствованных из русского и английского языков. Также в статье показана значимость профессиональной терминологии в общественной жизни и её роль в расширении языкового богатства.

Ключевые слова. Профессия, лексикон, узбекский язык, термин, современные профессии, работа, словарный запас.

Annotation. This article discusses the formation, development and scope of professional vocabulary in the Uzbek language. It analyzes the place of professional names with historical roots, new professions that have appeared in the modern era, as well as terms introduced from Russian and English in the Uzbek language. The article also shows the importance of professional terms in social life and their role in expanding the richness of the language.

Keywords. Profession, lexicon, Uzbek language, term, modern professions, work, vocabulary.

O'zbek tili leksik tizimining muhim qatlamlaridan biri — bu kasb-hunar leksikasidir. U xalqning tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish madaniyati va turmush tarzini aks ettiradi.

Kasb-hunar soʻzlari orqali oʻzbek xalqining mehnat faoliyati, hunarmandchilik anʼanalari, ishlab chiqarish vositalari va texnologiyalariga oid boy tarixiy tajribasi til orqali ifodalanadi.

Kasb-hunar leksikasi asosan ikki manbadan shakllangan:

1. Milliy (tub) qatlam – qadimdan oʻzbek xalqi hayotida mavjud boʻlgan soʻzlar, masalan: dehqon, sartarosh, temirchi, duradgor, boʻyoqchi, toʻquvchi, nonvoy, hunarmand va boshqalar.

2. Oʻzlashma qatlam – arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan kirib kelgan kasb nomlari: muallim, hakim, ustoz, muhandis, injener, direktor, slesar va hokazo.

Bu soʻzlar faqat kasb egalarini ifodalash bilan cheklanmay, balki ijtimoiy mavqe, mehnat jarayoni va madaniyatni ham ifoda etadi. Masalan, “temirchi” soʻzi nafaqat kasb nomi, balki xalq orasida “kuch, sabr va mohirlik” ramzi sifatida qoʻllanadi. Shu jihatdan kasb-hunar leksikasi leksik-semantik va madaniy-etnolingvistik maʼnoga ega.

Kasb-hunar soʻzlarining oʻzbek tilida shakllanishi va rivojlanishi turli tarixiy davrlar bilan chambarchas bogʻliq. Qadimgi davrlarda dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, temirchilik kabi anʼanaviy kasblar asosiy oʻrinda boʻlgan boʻlsa, hozirgi zamonda sanoat, texnika va xizmat koʻrsatish sohalarining rivoji natijasida yangi terminlar paydo boʻlmoqda: dasturchi, dizayner, marketolog, menedjer va boshqalar.

Kasb-hunar leksikasi xalqning mehnat madaniyati, qadriyatlari va milliy oʻzligini namoyon etuvchi muhim leksik qatlamdir. U til tizimida tarixiy davomiylik va zamonaviy yangilanish oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ifodalaydi. Shu sababli, oʻzbek tilining lugʻat boyligini oʻrganishda kasb-hunar leksikasining oʻrni beqiyosdir.

Til jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi hodisadir. Unda xalqning turmushi, madaniyati, urf-odati va kundalik mehnati oʻz ifodasini topadi. Oʻzbek tilida kasb-hunar leksikasi qadimdan shakllanib, xalqning yashash tarziga mos ravishda boyib borgan. Hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik bilan bogʻliq koʻplab kasb nomlari xalq ogʻzaki ijodi, adabiy asarlar va rasmiy hujjatlarda uchraydi. Bugungi globalashuv davrida esa yangi kasblar va terminlar tilimiz lugʻat boyligini yanada kengaytirmoqda. Til – xalqning maʼnaviy boyligi, uning turmushi va tarixini aks ettiruvchi asosiy vositadir. Unda millatning dunyoqarashi, qadriyatlari, urf-odatlari hamda mehnat faoliyati oʻz ifodasini topadi. Oʻzbek tilida kasb-hunar leksikasi qadimdan shakllanib, xalq hayotida muhim oʻrin egallab kelmoqda. Zero, insoniyat hayotida mehnat va kasb-hunar qadimdan mavjud boʻlib, ularning nomlari tilimizning lugʻat boyligini tashkil etuvchi muhim qatlam hisoblanadi. Kasb-hunar nomlari faqatgina maʼlum bir faoliyat turini ifodalamaydi, balki u xalqning iqtisodiy hayoti,

ijtimoiy taraqqiyoti va madaniyatini ham ko'rsatib beradi. Shu bois kasb-hunar leksikasini o'rganish o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb masalalardan biridir. Bugungi globallashuv jarayonida yangi kasblarning paydo bo'lishi va xorijiy tillardan kirib kelayotgan terminlarning o'zbek tilida qo'llanishi masalasi ham alohida e'tiborga loyiqdir. O'zbek tilida kasb-hunar leksikasini uchta asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Qadimiy kasblar – dehqon, temirchi, zargar, kulol, do'ppi tikuvchi, duradgor kabi atamalar xalqimizning qadimiy turmush tarzidan dalolat beradi.

2. Sovet davri kasblari – traktorchi, injener, uchuvchi, metallurg, elektrchi kabi kasb nomlari XX asrda kirib kelib, keng qo'llanila boshladi.

3. Zamonaviy kasblar – dasturchi (programmist), dizayner, marketolog, blogger, styuardessa kabi yangi kasblar ingliz va rus tillari ta'sirida tilimizga kirib kelgan. Kasb-hunar atamalari nafaqat mehnat faoliyatini ifodalaydi, balki xalqning iqtisodiy hayoti va ijtimoiy taraqqiyotini ham aks ettiradi. Shu boisdan o'zbek tilida kasb-hunar leksikasini o'rganish tilshunoslik va sotsiologiya uchun muhim hisoblanadi. O'zbek tilidagi kasb-hunar leksikasi xalqimizning tarixiy taraqqiyoti va madaniyatini o'zida mujassam etadi. Qadimiy hunarmandchilikka oid atamalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yangi kasblar esa jamiyatning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib tilimizga kirib kelmoqda. Shu sababli kasb-hunar leksikasini chuqur o'rganish, uni tizimlashtirish va lug'atlar orqali xalqimizga yetkazish muhim vazifalardan biridir.

O'zbek tilida kasb-hunar leksikasi xalqning uzoq asrlar davomida shakllangan mehnat faoliyati, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim leksik qatlam hisoblanadi. Ushbu qatlamdagi so'zlar xalq hayotining barcha sohalarida, xususan, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, temirchilik, zargarlik, to'qimachilik kabi an'anaviy kasblar bilan chambarchas bog'liqdir. Kasb-hunar leksikasining tarixiy ildizlarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va etnografiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bugungi kunda yangi kasblarning paydo bo'lishi bilan bu qatlam doimiy rivojlanishda bo'lib, o'zbek tilining lug'at boyligini yanada kengaytirib bormoqda. Shu bois, kasb-hunar leksikasini ilmiy o'rganish til taraqqiyotini, milliy qadriyatlarni va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni chuqur anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Normatov U. Kasb-hunar atamalari lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2019.

2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
3. Qosimov B. O'zbek tilining tarixiy leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Jo'rayev M. O'zbek tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2017.
5. Madvaliyev A. Til va jamiyat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasb-hunar ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.

IJTIMOY-SIYOSIY TERMINLAR: TUSHUNCHA, TAHLIL VA RIVOJLANISH

Nasimova Gulmira Abdurauf qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 24/1-guruh talabasi (kechki)

gulmiranasimova682@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqola ijtimoiy-siyosiy terminlarning mavjudligi, rivojlanishi va joriy zamon jamiyatida o'zni haqida umumiy tahlilni taqdim etadi. Maqola ichida ijtimoiy-siyosiy terminlarning ahamiyati, ularning turlari, rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlar va har bir til va madaniyatda qanday farqlanishlari ko'rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda lokal ijtimoiy strukturalar orasidagi o'zaro bog'lanishni ham tahlil qiladi.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy terminlar, siyosiy terminlar, madaniyat, tilshunoslik, globalizatsiya, sotsializm, kapitalizm, davlat, fuqarolik, demokratiya, nazariya.

Аннотация. Данная статья представляет собой всесторонний анализ социальных и политических терминов, их роли в обществе и эволюции в современном мире. Рассматриваются важность этих терминов, их типы, а также изменения в процессе их развития в зависимости от различных социально-политических реалий. Статья анализирует связь между глобальными процессами и локальными социальными структурами.

Ключевые слова. Социальные термины, политические термины, культура, социология, глобализация, социализм, капитализм, государство, гражданское общество, демократия.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of social-political terms, their role in society, and their evolution in the contemporary world. It examines the significance of these terms, their types, and the changes in their development according to different socio-political realities. The article also analyzes the connection between global processes and local social structures.

Keywords. Social terms, political terms, culture, sociology, globalization, socialism, capitalism, state, civil society, democracy.

Ijtimoiy-siyosiy terminlar — bu jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy hodisalarni ifodalovchi, axborot almashinuvi va muloqotning asosiy vositalari hisoblangan soʻzlar, iboralar va tushunchalardir. Ularning tarixi, rivojlanishi va taʼsiri jamiyatda doimo oʻzgarib turadigan jarayonlardan biridir. Har bir davrda yangi ijtimoiy va siyosiy realiyalar shakllanayotganidan kelib chiqqan holda, bunday terminlar ham yangilanadi va zamon bilan hamohang rivojlanadi.

Ijtimoiy-siyosiy leksika lugʻaviy sistemaning siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bevosita aloqador boʻlgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda ijtimoiy tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy maʼnaviy-maʼrifiy kabi omillar asosida shakllanuvchi oʻzgaruvchan qatlamdir. Ijtimoiy-siyosiy leksika ijtimoiy-siyosiy terminologiyaga nisbatan kengroq hodisa hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning tarkibi va chegarasini belgilash olimlar oʻrtasida hozirgi kungacha ancha munozarali. “Siyosat” tushunchasi oʻzining ijtimoiy mohiyati, mazmuni va xususiyatlariga koʻra keng va tor maʼnolarda qoʻlaniladi. Keng maʼnoda u jamiyat hayotining xilma-xil sohalarida roʻy beradigan voqea hodisalar, oʻzgarishlarni aks ettiradi. Tor maʼnoda esa siyosat jamiyat hayotining alohida bir sohasida, yaʼni uning siyosiy roʻy beradigan oʻzgarishlarni ifodalaydi va shu sohaning oʻziga nisbatan qoʻllaniladi. “Ijtimoiy-siyosiy” termini tarkibidagi “ijtimoiy soʻzi ushbu termin koʻlamini yanada kengaytiradi. Shu sababi lugʻatda ijtimoiy-siyosiy terminlar qamrovi kengroq olinadi va izohlanadi. Lugʻatda izohlangan terminlar koʻp maʼnoli soʻz boʻlsa, ularning barcha maʼnolari sanalmay faqat ijtimoiy-siyosiy termin sifatida qoʻllangan maʼnosigagina izohlanadi.

1. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning turlari:

- Ijtimoiy terminlar: Ijtimoiy tizim va ijtimoiy munosabatlar bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlar. Masalan, "ijtimoiy tenglik", "fuqarolik jamiyati".

- Siyosiy terminlar: Siyosiy tizim va hodisalar bilan bogʻliq boʻlgan terminlar. Misol uchun, "demokratiya", "hukumat", "saylov".

2. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning rivojlanish jarayoni:

Ijtimoiy-siyosiy terminlar ijtimoiy va siyosiy realiyalarni aks ettirish bilan birga, ularni tuzuvchi madaniyat va til bilan ham bogʻliq. Ushbu terminlarning rivojlanish jarayonida ijtimoiy oʻzgarishlar, tarixiy hodisalar, siyosiy rejimlar va xalqaro aloqalar muhim rol oʻynaydi.

3. Terminlarning til va madaniyatga taʼsiri:

Har bir xalqning ijtimoiy-siyosiy terminlari o'zining tarixiy va madaniy kontekstiga qarab shakllanadi. Shuningdek, globalizatsiya jarayonlari va xalqaro aloqalar ijtimoiy-siyosiy terminlarning uzviy o'zgarishiga olib kelmoqda.

4. Ijtimoiy-siyosiy terminlar va jamiyatdagi o'zgarishlar:

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning o'zgarishi jamiyatning siyosiy va iqtisodiy holati bilan bog'liq. Misol uchun, yangi iqtisodiy tizimlar va siyosiy tuzumlar ijtimoiy-siyosiy terminlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda, kapitalizm va sotsializm o'rtasidagi muammolar va boshqa siyosiy ixtiloflar yangi terminlarni yaratmoqda.

Bu masalalarning o'ta keng qamrovli sababli lug'atda munozarali o'rinlar bo'lishi tabiiy bir hol, albatta. Shu bois mualliflar lug'at yuzasidan bildirilgan bunday fikr va mulohazalarni samimiyat ila qabul qiladilar va o'z navbatida oldindan minnatdorchilik bildiradilar.

O'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar jamiyat hayotining muhim sohalaridan biri bo'lgan siyosat, huquq, boshqaruv va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklardir. Bu terminlar davlat boshqaruvi, siyosiy tizim, jamiyat tuzilishi, fuqarolik huquqlari, xalqaro munosabatlar, iqtisodiy siyosat kabi sohalarda keng qo'llaniladi. Ular xalqning siyosiy madaniyatini, tafakkur tarzini va tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning shakllanishida tarixiy davrlar, jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar va xalqaro aloqalar muhim rol o'ynaydi. Masalan, mustaqillikdan so'ng o'zbek tilida "konstitutsiya", "parlament", "demokratiya", "fuqarolik jamiyati", "saylov", "erkinlik" kabi terminlar faol ishlatila boshladi. Bu esa tilning ijtimoiy-siyosiy sohadagi imkoniyatlarini kengaytirib, o'zbek tilining zamonaviy terminologik tizimini boyitdi.

Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy terminlar semantik va uslubiy jihatdan ham murakkab qatlam hisoblanadi. Ularning ma'nolari siyosiy kontekst, zamon ruhi va ideologik yo'nalishlarga qarab o'zgarib boradi. Shu sababli, bu terminlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki siyosatshunoslik, huquqshunoslik va sotsiologiya fanlari uchun ham dolzarbdir.

Hozirgi globallashuv davrida ingliz va rus tillaridan kirib kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy terminlar (masalan, "globalizatsiya", "integratsiya", "modernizatsiya", "innovatsion siyosat") o'zbek tilida faol qo'llanilmoqda. Bu esa tilning xalqaro terminologik tizim bilan uyg'unlashuvini, leksik tizimning doimiy rivojlanishini ta'minlamoqda.

Umuman olganda, ijtimoiy-siyosiy terminlar tahlili o'zbek tilining zamonaviy holatini, uning xalqaro miqyosdagi integratsion jarayonlardagi o'rnini hamda siyosiy tafakkurning til orqali ifodalanish xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

O'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar milliy tafakkur, siyosiy madaniyat va davr ruhining tildagi ifodasidir. Ular jamiyat taraqqiyoti, siyosiy tizimdagi o'zgarishlar hamda xalqaro munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Mustaqillik davrida o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi sezilarli darajada boyib, milliy va xalqaro siyosiy tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bugungi kunda bu terminlar tilning ilmiy, rasmiy va ommaviy nutqdagi o'rnini va nufuzini oshirib, o'zbek tilining zamonaviy, mustaqil va siyosiy jihatdan yetuk til sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Yusupov, A. (2020). *Ijtimoiy-siyosiy terminlarning rivojlanishi*. Tashkent: Sharq.
2. Sa'idov, B. (2018). *Siyosiy terminlar va ularning jamiyatdagi o'rnini*. Journal of Social Sciences, 34(2), 67-75.
3. Miller, R. (2015). *Political Terminology in the Modern Age*. New York: Global Press.
4. Белов, И. (2017). *Социальные и политические термины в языке и культуре*. Москва: Наука

ILMIY SOHAGA OID LEKSIKA

Norboboyeva Zahro Otabek qizi

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

Ona tili va adabiyoti (kechki) yo'nalishi 24/1guruh 2kurs talabasi

Zahronorboboyeva0@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy sohaga oid leksikaning shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlari va uning til tizimidagi o'rni tahlil qilingan. Ilmiy uslubning asosiy belgilaridan biri bo'lgan maxsus atamalar, ularning qo'llanish doirasi va zamonaviy ilmiy nutqda tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ilmiy leksikaning boshqa uslublardan farqi va tilning boyish jarayonidagi ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy leksika, atama, uslub, til tizimi, nutq, ilmiy uslub.

Abstract. This article analyzes the formation, specific features, and role of scientific vocabulary in the language system. Special attention is paid to terminology as one of the main characteristics of the scientific style, its usage, and its place in modern scientific discourse. The differences between scientific vocabulary and other styles of language, as well as its significance in the enrichment of the language, are also discussed.

Keywords: scientific vocabulary, terminology, style, language system, speech, scientific discourse.

Аннотация. В данной статье рассматриваются формирование, особенности и место научной лексики в системе языка. Особое внимание уделено терминам как важнейшему признаку научного стиля, их употреблению и роли в современном научном дискурсе. Также анализируются различия научной лексики от других стилистических пластов языка и её значение в процессе обогащения языка.

Ключевые слова: научная лексика, термин, стиль, языковая система, речь, научный дискурс.

O'zbek tilidagi ilmiy sohaga oid leksika — bu ilm-fan, texnika, tibbiyot, matematika, biologiya, kimyo, fizika, informatika va boshqa sohalarda ishlatiladigan maxsus termin va atamalar tizimidir. Ular ilmiy tushunchalarni aniq, qisqa va bir

ma'noda ifodalashga xizmat qiladi. Ilmiy leksikaning asosiy xususiyati — aniqlik, mantiqiylik va so'zlarning kontekstdan qat'i nazar barqaror ma'no saqlashidir. O'zbek ilmiy terminologiyasi uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Qadimgi davrlardan boshlab arabcha, forsha, keyinchalik rus va hozirgi kunda ingliz tilidan kirib kelgan ilmiy atamalar o'zbek tilining leksik tarkibini boyitib kelmoqda. Masalan, “matematika”, “kimyo”, “fizika”, “biologiya”, “terminologiya”, “informatika” kabi so'zlar turli davrlarning til ta'sirini aks ettiradi. Ilmiy leksikaning shakllanishida tarjima jarayonlari va xalqaro hamkorlik muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ilmiy adabiyotlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi milliy terminologiyaning rivojlanishiga katta turtki berdi. Shu bilan birga, o'zbek olimlari tomonidan yaratilgan yangi ilmiy atamalar ham fan tilining milliylikini ta'minlab kelmoqda.

Bugungi kunda ilmiy soha leksikasi o'zbek tilining eng tez rivojlanayotgan qatlamlaridan biridir. Texnologiyalar, axborot tizimlari, ekologiya va biotibbiyot kabi sohalarning kengayishi yangi terminlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Shu orqali ilmiy tildagi leksika xalqaro ilmiy aloqalar bilan uyg'unlashib, o'zbek tilining ilmiy salohiyatini oshirmoqda.

Til insoniyatning eng ulug' ixtirolaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, ilmfanning rivoji va madaniyatning uzluksiz davom etishida muhim vosita sanaladi. Har bir xalqning ilmiy tafakkuri va dunyoqarashi, eng avvalo, uning milliy tilida ifodalanadi. Shu bois ilmiy sohaga oid leksika til tizimining eng muhim qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy leksikaning shakllanishi tarixiy jarayonlar, fan va texnikaning taraqqiyoti, xalqaro aloqalar, tarjima jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Qadimiy yunon va lotin tillaridan kirib kelgan terminlar bugungi kunda ham jahon fanida keng qo'llanilmoqda. Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek kabi allomalar ham o'z asarlarida ilmiy leksikaning boyishiga ulkan hissa qo'shgan.

Ilmiy leksika nafaqat ilmiy ishlar uchun, balki jamiyatning umumiy tafakkuri va madaniy darajasini belgilashda ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli bugungi globallashtiruv sharoitida ilmiy leksikaning shakllanishi, boyishi va xalqaro miqyosdagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ilmiy leksika insoniyatning ilmiy bilimlarga bo'lgan ehtiyoji bilan yuzaga kelgan. Dastlab falsafiy tushunchalar orqali shakllangan ilmiy tafakkur asta-sekin maxsus atamalar tizimini yaratdi. O'rta asrlarda Sharq va G'arb olimlari tomonidan fanlarning rivoji yangi terminlarni talab qildi. Har bir yangi kashfiyot yoki nazariya bilan til boyib bordi. Ilmiy leksikaning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

Aniqlik: Ilmiy atamalar bir ma'nolidir, ko'p ma'nolilikdan xoli bo'ladi.

Lo'ndalik: Fikrni ortiqcha so'zlersiz, qisqa va tushunarli yetkazadi.

Ob'ektivlik: Ilmiy nutq shaxsiy hissiyotlardan xoli bo'lib, dalil va isbotlarga asoslanadi.

Maxsus terminlar: Har bir fan sohasi o'z terminologik tizimiga ega.

Badiiy uslubda obrazlilik ustuvor bo'lsa, ilmiy uslubda aniq dalil va tushuncha yetakchi hisoblanadi. Publitsistik uslubda hissiylik ko'p uchrasa, ilmiy leksika bunday belgidan xoli. Og'zaki uslub erkin va ko'p ma'noli bo'lsa, ilmiy uslub qat'iy va me'yoriydir. Bugungi kunda ingliz tili ilm-fanning global tili sifatida ko'plab terminlarni boshqa tillarga olib kirayotganini ko'ramiz. Shunga qaramay, milliy tillarda ham o'z atamaları yaratilmoqda. Masalan, o'zbek tilida "hisoblash texnikasi", "raqamli transformatsiya" kabi atamalar milliy leksikani boyitmoqda. Ilmiy leksika nafaqat ilmiy doira uchun, balki keng jamoatchilik uchun ham muhimdir. Chunki ilmiy terminlar asta-sekin kundalik nutqqa kirib bormoqda. Masalan, "genetika", "biotexnologiya", "internet" kabi so'zlar bugun har bir odamga tanish. Bu esa ilmiy tafakkurning ommalashuviga xizmat qiladi.

Ilmiy sohaga oid leksika tilning eng muhim qatlamlaridan biri sifatida ilm-fan taraqqiyotini ifodalashda, yangi bilimlarni tartibga solishda va ularni keng jamoatchilikka yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy xususiyatlari — aniqlik, lo'ndalik, qat'iylik va maxsus terminlardan foydalanishdir. Bugungi globallashuv davrida ilmiy leksikaning xalqaro miqyosda boyib borishi tabiiy jarayon bo'lsa-da, milliy tilni saqlash va boyitish, yangi terminlarni ishlab chiqish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish muhim masaladir. Ilmiy leksika nafaqat mutaxassislar uchun, balki keng jamoatchilik uchun ham tushunarli bo'lishi kerak. Shu yo'l bilan biz ilm-fanni ommalashtirish, milliy tilimizni rivojlantirish va jahon miqyosidagi ilmiy hamkorlikni mustahkamlash imkoniga ega bo'lamiz.

O'zbek tilida ilmiy sohaga oid leksika tilning eng faol va dinamik rivojlanayotgan qatlamlaridan biridir. Bu soha nafaqat ilm-fanning yutuqlarini aks ettiradi, balki milliy tafakkur, madaniyat va ilmiy salohiyatning ifodasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy terminlarning tizimlashtirilishi, milliy shakllarining yaratilishi va xalqaro terminologiya bilan uyg'unlashuvi o'zbek tilining zamonaviy ilmiy tili sifatida mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bois, ilmiy leksikani chuqur o'rganish, uni rivojlantirish va to'g'ri qo'llash bugungi ilmiy va lingvistik taraqqiyotning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Хожиев А. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.* – Toshkent: Fan, 2010.
2. *Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.* – Тошкент, 2002.
3. *Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language.* – Cambridge: CUP, 2003.
4. *Назаров Қ. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.* – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
5. *Усмонова Д. Til va jamiyat.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

KOSON TUMANI SHEVALARINING FONETIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nuraliyeva Asila

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo qipchoq shevasi vakillari nutqidagi so'zlar, ularning fonetik va leksik xususiyatlari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, qipchoq shevasi, lahja, dialektizm, fonetik xususiyatlari, leksik xususiyatlari.

Аннотация: В статье рассматриваются слова, употребляемые в речи представителей кипчакского диалекта Кашкадарьинского региона, а также их фонетические и лексические особенности.

Ключевые слова: Кашкадарья, кипчакский диалект, говор, диалектизм, фонетические особенности, лексические особенности.

Annotation: The article discusses the words used in the speech of representatives of the Kipchak dialect of the Kashkadarya region and analyzes their phonetic and lexical features.

Keywords: Kashkadarya, Kipchak dialect, dialect, dialectism, phonetic features, lexical features.

Bizgama'lumki, turkiyalarning 40 dan ortig'ibir-biriga qardosh bo'lgan millat va elatlari mavjud. Ularning o'z tili, tilning tuzilishi, etimologiyasi va ularning o'rganishimiz uchun asos bo'lgan shevasi (dialekti) bilan xarakterlanadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. (N. Rajabov. O'zbek shevashunosligi. Toshkent. O'qituvchi 1996. 3-5 betlar.)

O'tgan tarixiy davr ichida turkiy tillar oilasidan aynan o'zbek tili shevalari to'xtovsiz taraqqiyot etdi. Ularni bilish esa tilimizning yanada boyishiga zamin yaratmay qo'ymaydi. O'zbek shevalarini o'rganish, ularni tasniflash, hamda dialektlarning fonetik va leksik tomonlariga ko'ra bir-birlariga yaqinlashadigan va farq qiladigan jihatlari haqida tasavvurga egamiz.

Shunga ko'ra, fonetik jihatga e'tibor qarataylik. O'zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi, avvalo, ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. Shevalar ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, grammatik son kategoriyalari nuqtayi nazaridan

-lar affiksi -la tarzida: *qizlar -qizla, ular -ula* tarzida, -di affiksi assimilyatsiya holatiga ko'ra: *oldi-olli, bo'ldi-bo'lli* tarzida, jo'nalishkelishiga qo'shimchasi -ga-yashaklidadalaga-dalaya, chiqishkelishigi esa *dan-tan* shaklida, *maktabdan-maktabtan* kabi holatlar aynan Koson dialektida qo'llaniladi, -araffiksi *aychiboraredim-boraychiydim, yapman-yomman boryapman-boromman* tarzida ishlatiladi, bundan tashqari aynan bu hududda -da affiksi o'rniga -ga qo'shimchasining talaffuz qilinishini kuzatamiz. Masalan (Hozir qo'ng'iroq qilmang, chunki men ishgaman -aslida ishdaman).

Kuzatishlarnatijasida Koson tumanidialektileksikji hatdan ham adabiy tildan farqli tomonlariborligiga e'tibor qarataylik.

Masalan:

Adabiytilda

Kaltakesak

Ko'rpacha

Ayron

Oshqovoq

Chumoli

Supurgi

Yosti

Chelak

Qo'shni

Bola

O'rik

Isiriq

Lavlagi

Bulg'orqalampir

Chumoli

Shevada

kalos

Girdixona

Chalop

Kodi

Murcha

Jorip

Yastiq, takya

Satil

Xamsiya

Bachcha

Zardoli

Xazarsivon

lovlovi

Balgar

Murcha

Quyida esa, o'zbek tili izohli lug'atidan joy olmagan, hozirda ma'lum tor doiradagi hudud egalari uchungina tushunarli bo'lgan va faqat ular foydalana oladigan so'zlar va ularning qisqacha izohi keltiriladi:

Inak-(sigir-dalada o'tlatib, boqiladigan hayvon nomi) bu Qashqadaryo viloyatining ayrim hududlarda kishilari uchun ma'lum bo'lgan so'z.

Juvoz-(sigir, qo'y va yana boshqa dala hayvonlarining ,makkajo'xori va boshqoq chirindisidan tayyorlanadigan, yemak ozuqasi) Qashqadaryo va boshqa voha hududi kishilari uchun ma'lum bo'lgan so'z

Tuppa-(hamirdan tayyorlanadigan o'zbek milliy taomi)bu so'z Farg'ona viloyatining ba'zi hududlarida va Qashqadaryo viloyati ba'zi hududlarida oid so'z.

Tortanak-(o'rgimchak,o'zigaovqat bo'ladigan hasharotlarni tutish uchun to'r to'qiydigan bo'g'imoyoqli yirtqich hasharot) adabiy tildagi o'rgimchak so'zining aynidir.Bu adabiy tildan leksek jihati bilan farq qiladi.Koson tumani shevasida aynan o'rgimchak so'ziga nisbatan bu so'z ancha keng tarqalgan.,Shiftda o'rgimchak to'riga ilinib,bir maqomda g'ing'illab turgan pashsha Nizomiddinovning g'ashiga tegdi''.(Said Ahmad „Hukm'')

Ushbuso'zlarfikrimizningyaqqolasosidir. Bukabio'zbekshevalari o'zbek tiliningmahalliyko'rinishlaribo'lib,ularnio'rganishfanuchunnazariyahamiyatga ega.

Har bir adabiy til o'zining tayanch dialektika ega bo'ladi. O'zbek adabiy tiliningshakllanishidashevallarningbarchasiuyokibudarajadaishtiroketadi,lekin ma'lum shevallar adabiy til uchun asos vazifasini bajaradi, bu degani adabiy til sheva va shevallar guruhi taraqqiy etishi bilan rivojlanadi, chunki sheva jonli til bo'libudoimrivojlanishda,o'zgarishdabo'ladi,shutufaylihamadabiytilshevallar guruhi bilan bog'liq ravishda o'sib boradi va aksincha, adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'lmasa u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. Muomaladan chiqqan til fanda "o'lik til" degan termin bilan yuritiladi.

Agarzudlikbilan"Keksaavlodnutqidagiso'zvaiboralarniyig'ibolinmasa, bir qism dialektizmlar umuman yo'qolib ketishi mumkin" - degan edi Sh.Shoabdurahmonov.

Ba'ziaholitilidagishevalaradabiytilimizdahamuchramaydiganko'hnaso'z va so'z formalari lug'aviy birliklarni o'zida saqlab qolganki, ularni asosli ravishda o'rganish tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashga yordam beradi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi. To'g'ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o'zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o'z shevasini unutish kerak degani emas, albatta.

Zero, aytishganidek, "Biror millatni yo'qotish uchun uni qirg'in qilishni hojatiyo'q.Bizuningtilini,o'zshevasini,madaniyatiniyo'qotsakbuxalqhamo'z- o'zidan yo'qolib ketadi".

Shunday ekan, aynan adabiy tilda gapirishim shart deb o'z shevalarimizni ham unutibqo'ymaylik.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR:

1. AshirboyevS.O'zbekdialektologiyasi.–Toshkent:"Nodirabegim",2021
2. Jo'rayevB. YuqoriQashqadaryoo'zbekshevalari.–Toshkent, 1969
3. RahimovS. Surxandaryoo'zbekshevalarilug'ati.–Toshkent, 1995

4. Saidov Y. O'zbek dialektologiyasi. – Buxoro: “Durdona”, 2021
5. Ernazarov T, Karimjonov V. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: “Universitet”, 2012
6. Murodova N, Allaberdiyev A. O'zbek dialektologiyasi. – Navoiy, 2008
7. Ziyo.net

O'ZBEK TILINING ASOSIY LUG'AT TARKIBI**Nurullayeva Sevinch Faxriddin qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi

sevinchnurullayeva2506@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilining asosiy lug'at tarkibi, uning mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, guruhlar va rivojlanish jarayoni haqida keng ma'lumot beriladi. Asosiy lug'at tarkibining til tizimidagi o'rni, uning xalqning ma'naviy madaniyatida tutgan o'rni va tarixiy xotirani asrashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bu qatlamning qadimiyligi, barqarorligi, umumxalq nutqida faol ishlatilishi va yangi so'z yasash imkoniyatlari ochib beriladi. Maqola o'zbek tilining lug'at boyligini o'rganish, uni asrash va rivojlantirish zaruriyatiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, asosiy lug'at tarkibi, leksika, barqarorlik, qadimiylilik, umumxalqiylik, til boyligi, xalq tafakkuri, madaniyat, tarixiy xotira, adabiy til, og'zaki ijod, lug'at qatlamlari.

Аннотация

В статье подробно раскрывается понятие основного словарного состава узбекского языка, его содержание, характерные особенности, группы и этапы развития. Рассматривается место базовой лексики в системе языка, её роль в духовной культуре народа и значимость в сохранении исторической памяти. Особое внимание уделяется древности, устойчивости и общеупотребительности этого пласта, а также его широким возможностям словообразования. Материал статьи направлен на выявление богатства узбекского языка и необходимость его дальнейшего изучения и развития.

Ключевые слова: узбекский язык, основной словарный состав, лексика, устойчивость, древность, общеупотребительность, богатство языка, народное мышление, культура, историческая память, литературный язык, устное творчество.

Abstract

The article provides a comprehensive analysis of the basic vocabulary of the Uzbek language, its essence, specific features, lexical groups, and stages of development. The paper highlights the role of the core lexicon within the linguistic system, its significance in the spiritual culture of the nation, and its function in

preserving historical memory. Particular emphasis is placed on the antiquity, stability, and universality of this lexical layer, as well as its productive capacity for word formation. The study underscores the richness of the Uzbek language and the importance of preserving and developing its lexical heritage.

Keywords: Uzbek language, basic vocabulary, lexicon, stability, antiquity, universality, language wealth, national worldview, culture, historical memory, literary language, oral tradition, lexical system.

Har bir xalqning milliy o'ziga xosligi, ma'naviy boyligi va dunyoqarashi avvalo uning tilida o'z ifodasini topadi. Til — xalqning eng qadimiy merosi, ijtimoiy ongning yuksak ko'rinishi, madaniyatning ajralmas qismi va milliy o'zlikni belgilovchi asosiy omildir. O'zbek tili ham ming yillik tarix davomida shakllanib, turli davr sinovlaridan o'tib, bugungi kunda mustaqil davlat tiliga aylangan. Tilning boyligi va qudratini ko'rsatib beradigan eng muhim qatlamlardan biri uning asosiy lug'at tarkibi hisoblanadi. Asosiy lug'at tarkibi xalq hayotining barcha jabhalarini — kundalik turmushini, tabiat bilan munosabatini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, dunyoqarash va tafakkurini aks ettiradi. Bu qatlamda tilning eng qadimiy, barqaror va umumxalq tomonidan qo'llaniladigan so'zlari jamlangan. Masalan, ona, ota, suv, non, osmon, yer, quyosh, yulduz, yurak kabi so'zlar ming yillar davomida o'zbek xalqi nutqida yashab kelmoqda. Bugungi globallashuv davrida tilimizga ko'plab yangi so'zlar kirib kelmoqda, biroq asosiy lug'at tarkibi o'z barqarorligini yo'qotmagan, aksincha, milliy o'zligimizning tayanch manbasi bo'lib qolmoqda.

Asosiy lug'at tarkibi (bazaviy leksika) – bu o'zbek tilining eng qadimiy, eng ko'p qo'llanadigan va umumxalq nutqida faol yashab kelayotgan so'zlar qatlamidir. U millatning kundalik ehtiyojini ifodalovchi, eng zarur tushunchalarni bildiruvchi so'zlardan tashkil topadi. Masalan: ona, ota, suv, non, qo'l, oy, kun, yaxshi, yomon, kelmoq, bormoq kabi so'zlar.. O'zbek tilining asosiy lug'at tarkibi quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

1. Qadimiylilik – asosiy lug'at tarkibidagi so'zlarning katta qismi qadim turkiy davrda ham mavjud bo'lgan.
2. Barqarorlik – bu qatlamdagi so'zlar ming yillar davomida o'z ma'nosini saqlab keladi.
3. Umumxalqiylik – asosiy lug'at tarkibidagi so'zlar xalqning hamma tabaqalari tomonidan birday qo'llanadi.
4. Ko'p ma'nolilik – asosiy lug'at tarkibidagi ko'p so'zlar ko'p ma'noga ega.

5. Soʻz yasash imkoniyati – asosiy qatlamdagi soʻzlardan yangi soʻzlar yasash imkoniyati keng.

Oʻzbek tilining asosiy lugʻat tarkibi maʼlum guruhlariga boʻlinadi:

Turmush va oila: ota, ona, bola, uy, qarindosh, non.

Tabiat hodisalari: yer, suv, togʻ, daraxt, quyosh, oy, yulduz.

Tana aʼzolari va sezgi organlari: qoʻl, oyoq, bosh, koʻz, quloq, yurak.

Oddiy harakat va holatlar: kelmoq, bormoq, yemoq, ichmoq, oʻtir, tur, uxla.

Rang, shakl, sifat bildiruvchi soʻzlar: oq, qora, qizil, katta, kichik, yaxshi, yomon.

Asosiy lugʻat tarkibi tilning eng muhim qatlamidir. Chunki: U xalq tafakkuri va qadimiy dunyoqarashini ifodalaydi. Oʻzbek tilining mustaqil milliy til sifatida shakllanishiga asos boʻladi. Adabiy til va shevalarning umumiy asosini tashkil etadi. Lugʻat boyligining boshqa qatlamlari aynan shu asosiy qatlam bilan uygʻunlashib yashaydi. Asosiy lugʻat tarkibi oʻzining qadimiyligini saqlagan holda, davr oʻtishi bilan boyib boradi. Yangi soʻzlar kirib kelgan boʻlsa-da, bu qatlamdagi soʻzlar oʻz barqarorligini yoʻqotmaydi. Masalan, bugungi oʻzbek tilida ham ming yillar avvalgi yer, suv, osmon, oy, quyosh, ot, qoʻl, non kabi soʻzlar ishlatilmoqda. Shuningdek, bu qatlam zamonaviy tilda ham faol yashab, yangi soʻz birikmalari yaratishda asosiy manba boʻlib xizmat qiladi. Masalan, quyosh energiyasi, yer shar, suv resurslari kabi atamalar ham aslida asosiy lugʻat tarkibi soʻzlariga tayangan.

Oʻzbek tilining asosiy lugʻat tarkibi — bu nafaqat kundalik muloqotning, balki butun milliy tafakkur, madaniyat va tarixiy taraqqiyotning tayanch poydevoridir. Ushbu qatlam til tizimining eng qadimiy, eng barqaror va eng zaruriy qismini tashkil etib, xalqning ijtimoiy hayoti va ruhiy dunyosini toʻla aks ettiradi. Asosiy lugʻat tarkibidagi soʻzlar ming yillar davomida xalq ogʻzaki ijodi, adabiy yodgorliklar va zamonaviy adabiy tilimizda yashab kelmoqda. Bu esa oʻzbek tilining mustahkamligi, davomiyligi va milliy xotiraning uzviyligini yaqqol koʻrsatadi. Asosiy lugʻat tarkibining ilmiy jihatdan oʻrganilishi bir nechta muhim vazifalarni hal qiladi:

1. Oʻzbek tilining qadimiy qatlamini aniqlash va uni boshqa turkiy tillar bilan qiyoslab, umumiy ildizlarni koʻrsatish.

2. Milliy oʻzlikni anglash va yosh avlodga qadimiy merosni yetkazishda tilning oʻrni va ahamiyatini ochib berish.

3. Adabiy til va shevalar oʻrtasidagi umumiylikni taʼminlash, tilning bir butun tizim sifatida faoliyat koʻrsatishini tushuntirish.

4. Lugʻat boyligini kengaytirishda asosiy qatlamdan kelib chiqib yangi soʻzlar yaratish imkoniyatlarini aniqlash.

5. O'zbek tilining bugungi taraqqiyotida globalizatsiya, axborot texnologiyalari va yangi ilmiy sohalar ta'sirida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni kuzatib, asosiy lug'at tarkibining barqarorligini isbotlash.

Bugungi kunda asosiy lug'at tarkibini chuqur o'rganish, uni maktab va oliy ta'lim darsliklariga keng tatbiq etish, elektron lug'atlar va ma'lumotlar bazalarida to'liq qayd etish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki bu qatlam xalqimizning o'zligini anglashda, madaniyatini rivojlantirishda, tarixiy xotirasini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, o'zbek tilining asosiy lug'at tarkibi — bu xalqimizning tarixiy merosi, bugungi kundagi ma'naviy boyligi va kelajak avlodlar uchun ham bebaho ma'naviy xazina bo'lib qoladi. Uni chuqur o'rganish, asrash va rivojlantirish nafaqat tilshunoslar, balki jamiyatning barcha a'zolari oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Karimov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Jo'rayev M. O'zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2006.
5. G'ulomov A., Madrahimov N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

Bozorboyeva Mahliyo O'rinboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi

bozorboyevamahliyo636@gmail.com

Ilmiy rahbar. Qodirjon Mo'ydinov Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Maqolada nutqning kommunikativ sifatlari, ularning mohiyati va ijtimoiy hayotdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, nutq madaniyati, uni shakllantirish omillari hamda ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ilmiy tahlil etiladi. Nutqning aniqligi, mantiqiyliqi, ravonligi, ta'sirchanligi va maqsadga muvofiqligi kabi jihatlar keng o'rganilib, ularning inson faoliyatidagi roli haqida ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: nutq, kommunikativ sifatlari, aniqlik, boylik, mantiqiylik, ravonlik, ta'sirchanlik, tozalik, maqsadga muvofiqlik, nutq madaniyati, dialektizmlar, jargonizmlar, argonizmlar, vulgarizmlar, varvarizmlar, kanselyarizmlar, parazitizmlar, ijtimoiy muloqot, notiqlik san'ati.

Abstract. The article discusses the communicative qualities of speech, their essence and role in social life. It also scientifically analyzes the culture of speech, the factors of its formation and its importance in the educational process. Aspects such as clarity, logic, fluency, expressiveness and purposefulness of speech are widely studied, and scientifically conclusions are given about their role in human activity.

Keywords: speech, communicative, qualities, accuracy, richness, logicity, fluency, expressiveness, purity, purposefulness, speech culture, dialectisms, jargonisms, jargonisms, vulgarisms, barbarisms, chancellarisms, parasitisms, social communication, orator.

Аннотация. В статье рассматриваются коммуникативные качества речи их сущность и роль в общественной жизни. Проводится научный анализ культуры речи, факторов её формирования и её значения в образовательном процессе. Широко исследуются такие аспекты речи, как ясность, логичность, беглость,

выразительность и целеннаправленность и делаются научные выводы об их роли в деятельности человека.

Ключевые слова: речь, коммуникативные, качества, точность, содержательность, логичность, беглость, выразительность, чистота, целеннаправленность, культура речи, алектизмы, жаргонизмы, жаргонизм, вульгаризмы, варваризмы, канцелеризмы, паразитизмы, социальная коммуникация, ораторское искусство.

Nutq inson tafakkuri va muloqotining asosiy ifoda vositasidir. Insoniyat taraqqiyoti davomida nutq nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishida asosiy omil bo'lib kelgan. Har qanday nutqning mazmuni va ta'siri uning kommunikativ sifatlariga bog'liqdir. Shu boisdan ham nutq madaniyati masalasi qadimdan olimlar, mutafakkirlar va notiqalar e'tiborida bo'lgan.

Nutqning aniqligi – fikrning ravshan, lo'nda va tushunarli ifodalanishini bildiradi. Aniqlikka erishish uchun notiq so'z tanlashda ehtiyotkor bo'lishi, ortiqcha ma'noli yoki chalkash ifodalardan voz kechishi lozim. Masalan, "Keyin, Qo'chqor aka bu robotlar juda arzonga tushadi, yoqilg'i kerak emas – batareyalardan oziqlanadi" (Sh. Boshbekov). Bu yerda yoqilg'i so'zining o'rniga yonilg'i so'zini ishlatish to'g'ri bo'lar edi, ma'nosi ham aniq bo'lar edi.

Mantiqiylik — nutqning izchilligi va asoslanganligidir. Mantiqiy nutqda sabab-oqibat bog'lanishlari aniq ko'rinadi. Mantisiz nutq tinglovchini chalg'itadi va tushunishni qiyinlashtiradi. Mantiqiylik bevosita aniqlik va to'g'rilik tushunchalari bilan bog'lanadi. Chunki to'g'ri va aniq nutq mantiqan izchil bo'ladi. Misol uchun, mashina va traktorlar yelday uchardi. Bu gapda mantiqan mashina juda tez va yelday uchradi, lekin traktor bu xususiyatga ega emas. Demak, jumlada mantiqiylik sifati buzilgan. Ravonlik – nutqning tabiiy oqimi, ortiqcha pauza va takrorlardan xoli bo'lishidir. Ravon nutq tinglovchiga qulay eshitiladi, nutqni qabul qilishni yengillashtiradi. Ta'sirchanlik — tinglovchida hissiy reaksiya uyg'otish, uni fikrlashga, baho berishga undash xususiyatidir. Ta'sirchanlik ko'pincha obrazli so'zlash, intonatsiya, badiiy vositalar orqali ta'minlanadi. Og'zaki nutqqa ham, yozma nutqqa ham xos bo'lgan ta'sirchanlik yuz berishi uchun, so'zsiz, nutqning to'g'ri va aniq, toza va mantiqiylik bo'lishi shart. Boylik — nutqda tasviriy vositalarning, o'xshatishlar, parafrazalar, frazeologik iboralar, maqol, matal, hikmatli so'zlar va hadislarining namunalari qo'llanilishi nutqning ta'sirchanligi I, ayni vaqtda, nutqning boyligini ham belgilaydi. Nutq so'zlovchi ommani o'ziga jalb qiluvchi, o'ziga hurmat bilan qarashiga sazovor bo'lgan shaxs sifatida lisoniy, ma'naviy, ruhiy estetik jihatdan

tayyor, yetuk bo'lishi, albatta, bilim saviyasi yuqori, til-lug'at boyligini mukammal egallagan bo'lishi shart. Maqsadga muvofiqlik – nutqning auditoriya va vaziyatga mos kelishidir. Masalan, ilmiy konferensiyada ishlatiladigan til bilan ommaviy chiqishlardagi til bir-biridan farq qiladi. Nutqning tozaligi terminida toza so'zi ko'chma ma'noda kelib, nutqning tilimizga yot, begona bo'lgan, nutqning sofligini “buzadigan”, tilimiz uchun zarur bo'lmagan birliklaridan holi qilishni anglatadi. Ko'pgina adabiyotlarda nutqimiz sofligini “buzadigan” birliklari sifatida quyidagilar keltirilgan:

1.Dialektizmlar. 2.Varvarizmlar. 3.Jargonizmlar. 4.Argonizmlar. 5.Vulgarizmlar. 6.Parazitizmlar. 7.Kanselyarizmlar. lektizmlar shevaga xos birliklari bo'lib, ular nutqda o'rinsiz, ya'ni nozarur qo'llash nutqning sofligini buzadi. Varvarizmlar boshqa qardosh va qardosh bo'lmagan tillarga oid so'z va so'z birikmalaridir. Masalan, tak shto, vapshe, malades, neto. Bu kabi so'zlar o'zbek tiliga singmaganligi bilan ajralib turadi. Tilimiz tarkibidan joy olmagan, ya'ni okkozional birliklari nutqda maqsadga muvofiq qo'llanmasligi, “yoqimsizligi”, nutqi faoliyati, ya'ni fikr almashish jarayonida tinglovchining g'ashini keltirishi bilan ajralib turadi. Jargonizmlar biron ijtimoiy guruh a'zolari, masalan, otarchilar, qimorbozlar, gadoylar, savdogarlar va boshqalar tomonidan maxsus yaratilgan, o'zlari uchungina tushunarli bo'lgan shunga ko'ra xalq tilidan farqlanib turadigan so'z va so'z birikmalaridir. Misol uchun, loy(pul), ment(millitsioner), qaychi(revizor), ko'k(pul). Argonizmlar ham jargonimlar kabi biror ijtimoiy guruhlar tomonidan muayyan maqsadda sun'iy yaratilgan so'z va so'z birikmalaridir. Masalan, sotuvchilar o'rtasida pixat qilmoq(molini aldab sotmoqda), qamalganlar orasida shuxer (qochmoq). Vulgarizmlar qo'pollik, haqorat, so'kinish va qarg'ish ni ifodalovchi so'z va so'z birikmalaridir. Parazitizmlar nutqning madaniyligiga, tozaligi ga salbiy ta'sir qiluvchi, adabiy til me'yoriga talablariga javob bermaydigan birliklardir. Bunday so'zlar, asosan, og'zaki nutqda uchraydi. Misol uchun, shunday qilib, anaqa, xo'sh, xo'p va boshqa so'zlar. Kanselyarizmlar muayyan korxona, zavod, fabrika, muassasa kabilarning qonuniy ish yuritish jarayoniga xos va mos bo'lgan, rasmiy ish qog'ozlari doimiy ishlatiladigan shaklan turg'unlashgan, ya'ni ma'lum bir shaklda “qotib qolgan”, shu holda saqlanadigan so'z va so'z birikmalaridir. Masalan, O'zbekistonda ishlab chiqariladigan avtomobillarning amaldagi narxlarni quyidagicha...Avtomobillarga to'lov milliy valyutada - so'mda amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, nutqning ushbu sifatlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Aniqlik va mantiqiyliksiz ravonlikni ta'minlab bo'lmaydi, ta'sirchanlik esa maqsadga muvofiqliksiz o'z kuchini yo'qotadi. Boyliksiz ta'sirchanlikka erishib bo'lmaydi Nutq madaniyatining shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayonida katta ahamiyatga ega.

O'qituvchi, davlat arbobi, yozuvchi yoki jurnalist nutqining sifatli bo'lishi uning jamiyatdagi nufuzini belgilaydi. Shuningdek, yosh avlodning dunyoqarashi ham nutq madaniyatini to'g'ri o'zlashtirish orqali shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, nutqning kommunikativ sifatlari shaxsning ijtimoiy mavqei, kasbiy faoliyati va madaniy saviyasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Nutqning aniqligi, boyligi, mantiqiyli, ravonligi, ta'sirchanligi va maqsadga muvofiqligi birgalikda insonning ijtimoiy aloqalardagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu sababli nutq madaniyatini rivojlantirish bugungi globallashuv davrida yanada dolzarb masalaga aylangan.

Foydanilgan adabiyotlar :

1. I. Karimov . Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. 2008.
2. T. G'afurov . Nutq madaniyati va uslubiyat. – Toshkent. 2015.
3. N. Mahmudov. Nutq va uning rivoji. – Toshkent. 2012.
4. Xudoyberdiyev A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent. 2017.
5. A. Abdullayev . Nutq madaniyatining nazariy asoslari. – Toshkent. 2017.
6. Q. Mo'yidinov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent. 2015.
7. N. Mahmudov. O'qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent. 2007.
8. R. Qo'g'urov, E. Begmatov, Y. Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent. 1992.

O'ZBEK TILI LEKSIKASINING TARIXIY TARAQQIYOTI**O'razboyeva Hamida Rashid qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

hamidaorazboyeva08@gmail.com**Ilmiy rahbar:** Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zbek tili leksikasining shakllanishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. O'zbek tilining lug'at boyligi qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan boshlab, eski o'zbek tili davri hamda hozirgi zamon o'zbek adabiy tiliga qadar izchil tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek tilining leksik qatlamlari – o'z qatlam, qadimgi turkiy unsurlar, arab, fors-tojik, rus va jahon tillaridan kirib kelgan so'zlarning o'zni, ularning xalq tilida singib ketish jarayoni haqida fikr yuritiladi. Ishda milliy tilimizning leksik boyligi tarixiy taraqqiyot davomida xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniyati va adabiyoti bilan chambarchas bog'liq ekani ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, leksika tarixiy taraqqiyot, leksik qatlamlar, eski turkiy til, qadimgi turkiy yodgorliklar, arabcha so'zlar, fors-tojikcha so'zlar, ruscha kirishma so'zlar, yangi o'zlashmalar, o'zlashma so'zlar, milliy leksika, neologizmlar, so'z boyligi, leksik birliklar, tarixiy davrlar, ma'naviy meros, til taraqqiyoti, leksik tadqiqot.

Til — odamlar fikrini ifodalash vositasi bo'lib, uning so'z boyligi (leksikasi) jamiyat, madaniyat, siyosat va tarix bilan uzviy bog'liqdir. O'zbek tilining leksikasi ham o'z tarixiy yo'li davomida turli manbalardan ozuqa olib, o'ziga xos qatlamlarga ega bo'lgan.

Leksika (yun. Lexis – so'zga oid, lug'aviy) – tildagi barcha so'zlar va iboralar yig'indisi, tilning lug'at tarkibi. Leksika ma'lum qonun-qoidaga bo'ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til Leksikasi to'xtovsiz o'zgarib turadi. Bu narsa lug'at tarkibida yangi so'zlarning paydo bo'lishi, mavjud so'zlardan ayrimlarining eskirib, iste'moldan chiqishi, leksik ma'nosini o'zgartirib, yangi ma'no kasb etishi kabi jarayonlarda ko'rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o'zgarishi bilan uzviy bog'langan holda leksika boyib boradi. 20-asrda barcha xalqlar qatori o'zbek xalqi leksikasi ham tezlik bilan o'sib, taraqqiy etdi. O'zbek tili leksikasiga baynalmilal so'zlar keng ko'lamda kirib keldi. Buning ustiga fan va turli sohalar terminologiyasi ham to'xtovsiz o'sib bormoqda. O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam,

shuningdek, o'z qatlam tarkibida umumturkiy so'zlar va ulardan yasalgan o'zbekcha so'zlar mavjud. O'zlashma qatlam tarkibida forsha, arabcha, ruscha-baynalmilal so'zlar bor. O'zbek tili Leksikasi zamonaviyligi jihatdan 3 asosiy qatlamga bo'linadi:

1) zamonaviy qatlam – eskilik va yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar. Shu qatlamga oid so'zlar [o'zbek tili](#) l eksikasining asosini tashkil qiladi;

2) eski qatlam – hozirda ham iste'molda bo'lgan istorizmlar, arxaizmlar bu qatlamga kiradi;

3) yangi qatlam – yangi Leksika deb ham yuritiladi. Lug'aviy birliklar ishlatilish doirasi jihatdan 2 qatlamga ajratiladi: 1) ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar. Ma'nosi shu tilda so'zlovchilar uchun tushunarli va umumqo'llanish xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar umumiste'moldagi chegaralanmagan leksika sanaladi; 2) ishlatilish doirasi chegaralangan so'zlar – til lug'at tarkibining ajralmas qismi bo'lib, uning tarkibiga dialektal, terminologiya, kasb-hunar leksikasi, ilmiy atamalar, jargon va argolar, vulgarizm va varvarizmlar kiradi.

Lug'aviy birliklar nutq ko'rinishlari jihatdan adabiy va so'zlashuv nutqiga xoslangan bo'ladi. Leksika termini biror muallif yoki asar leksikasi kabi tor ma'noda ham qo'llanadi: Navoiy leksikasi, „O'tgan kunlar“ romani leksikasi.

O'zbek leksik qatlamlari asosiy 3 qatlamlarga bo'linadi.

1.Zamonaviy qatlam – o'zbek tili leksikasining asosini tashkil qiladi va ular eskilik va yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar hisoblanadi.

2.Eski qatlam – bu qatlamga istorizmlar va arxaizmlar kiradi va bular hozir ham iste'molda bo'lgan so'zlardir.

3.Yangi qatlam – hozirgi zamonaviy til jihatidan yangi leksika deb ham yuritiladi.

Fan hamisha rivojlanishda va taraqqiyotda. Bugungi kunda u misli ko'rilmagan darajada jadal tus oldi. Agarda hozirgi zaminga nazar soladigan bo'lsak, bizni o'rab turgan kurrai zamin zamonaviy texnologiyalar qurshovida ekanligini guvohi bo'lamiz. Texnologiya tobora rivojlangani sari nutqimizda yangi so'zlar ham ko'payib bormoqda. Neologizmlarning yaralishi va tarqalishi asosan fan-texnikaning va zamonning rivojlanishi bilan bog'liq. Ayni damda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlarning siyosiy,iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida tillararo so'zlarning biridan oshqasiga o'tishi jadallashmoqda. Hozirgi kunda nafaqat fan-texnika, balki ilmiy, rasmiy, publitsistik, so'zlashuv uslublarida va barcha sohalarida, shuningdek, iqtisodiy sohada ham bir qancha neologizmlarni uchratmoqdamiz. Bu jarayon ha bevosita o'zbek tiliga ta'sir

qilmoqda va o'zbek tili leksikasi o'zlashma so'zlar-neologizmlar hisobiga boyishiga xizmat qilmoqda.

S.I.Ojegovning e'tirof etishicha, leksika tilning boshqa sathlariga qaraganda murakkab va ko'p qirralidir. Uning vazifasi, bir tomondan, jamiyat nafas olayotgan borliqni barcha murakkabliklari bilan in'ikos etish bo'lsa, ikkinchi tomondan, leksik, semantik, uslubiy-sinonimik so'z yasash va shuning kabi bir qator hodisalarning murakkab lisoniy munosabatlarini ifoda etishdan iboratdir. Bir tildan boshqa tilga so'z o'zlashishi tillarning aralashuvi sifatida yuqori baholanadi. Mashhur tilshunos L.V.Shcherba bunday jarayonni tilshunoslikning muhim muammolari sirasiga kiritadi. O'zbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib rivojlanib boradi. Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) o'z ichki imkoniyatlari asosida;
- 2) boshqa tillardan so'z olish asosida.

Ularning birinchisi ichki manbalar, ikkinchisi esa tashqi manbalar sanaladi. O'zbek tilining birinchi yo'l bilan boyib borishi imkoniyatlari juda kengdir. Masalan: ilgari qo'llanilib, keyin iste'moldan chiqib ketgan so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman kabi; yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z yasash: uyali telefon, omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor) va boshqalar; dialektal (shevada) so'zlardan foydalanish: *mengzamoq* "o'xshatmoq", "tenglashtirmoq", "qiyoslamok" ma'nosida. O'zbek tilileksikasi *tashqi manbalar* asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yo'q. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar tilshunoslikda neologizm (yunoncha neos – "yangi" va logos – "so'z, tushuncha") deb yuritilib, u tilning so'z boyligida yangidan paydo bo'lgan va keng qo'llanish jarayonida bo'lgan so'z yoki iboralardir.

Neologizmlar jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan, texnologiya, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tufayli yuzaga keladi. Ular dastlab yangilik bo'lib tuyuladi, ammo vaqt o'tishi bilan umumiy leksikaga singib ketadi yoki tilga yangi kirib keladi yoki yangi yasalmalar orqali paydo boladi. Avval faqat muayyan sohada, keyin umumxalq tiliga o'tadi. Ayrim neologizmlar keng ommalashmay, qisqa vaqt ichida iste'moldan chiqib ketadi. Bularga misol qilib arab tildan (kitob, maktab, fil, parranda, hasharot, inson, oila, amma, xola, dimog', idora kabi so'zlar arab tilidan kirib kelgan),

fors tilidan (bahor, fasl ,oftob ,osmon, sabza ,shab, daraxt, ,sabzi, anjir ,payola, baxmal), tojik (badavlat, beayov, bebosh, beboshlik, nosoz, noto'g'ri, hamyotoq, hamtovoq, hamkurs, hamyurt, barkamol, kamsuv, kamsuvlik, kamsuqum, kamsuqumlik, xushbichim, xushyoqmas), rus tilidan ((gimnaziya, teatr, vistavka, apteka armiya, ofitser, pochta, telegraf) kabi.

20 asr boshlarida jadid ziyolilari bahs-munozaralar, adabiy asarlar, lug'atlar tuzish orqali o'z tilini yangilashga kuchli turtki berdi. Jadidlar tomonidan ruscha-o'zbek, arabcha-o'zbek lug'atlar va tarjimalar rivojlantirildi. Shuningdek, bu davrda leksik ma'nolarni kuzatish, turli dialektlardan so'zlarni standartlashtirish, yashirin (qayta tiklangan) so'zlarni jonlantirish kabi jarayonlar boshlandi.

Sovet davrida til siyosati, rus tili ta'siri va ilmiy-texnik sohalarning rivoji bilan leksika doimo boyidi. Rus tilidan kirishmalar kengaydi, terminologik so'zlar ishlab chiqildi.

Shuningdek, bu davrda yirik tarif lug'atlar, izohli lug'atlar, so'z izohlari, sinonim lug'atlar, ixtisoslashgan lug'atlar yaratildi. Mustaqillik davrida, milliy til siyosati kuchaydi, leksika tarkibini qayta ko'rib chiqish, arab yozuvdan lotin yozuviga o'tish, so'z boyligini mustahkamlash, terminologiya rivoji kabi masalalar markazga chiqdi.

Mustaqillik davrida, milliy til siyosati kuchaydi, leksika tarkibini qayta ko'rib chiqish, arab yozuvdan lotin yozuviga o'tish, so'z boyligini mustahkamlash, terminologiya rivoji kabi masalalar markazga chiqdi. Terminologik lug'atlar, masalan, «Ruscha-o'zbek siyosiy-iqtisodiy lug'at» kabi birinchi terminologik lug'atlar tuzildi. Shuningdek, elektron lug'atlar, onlayn resurslar, korpus tilshunosligi va leksik rivojlanishni kuzatuvchi dasturlar paydo bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o'zbek tili leksikasining rivoji ilmiy asosda o'rganilib, davlat tili siyosati doirasida milliy so'zlarni qayta tiklash, kirishma so'zlarga o'zbekcha muqobil yaratish, lug'atlarni zamonaviy shaklda tuzish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, elektron lug'atlar, til korpuslari va raqamli platformalar orqali leksik o'zgarishlarni kuzatish imkoniyatlari kengaymoqda.

Umuman olganda, o'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti milliy tilning barqarorligi, xalq tafakkuri va madaniyatining uzviy davomiyligini ko'rsatuvchi muhim jarayondir. U xalqning o'zlikni anglashida, madaniy merosni asrashda va zamonaviy jahon til madaniyatida munosib o'rin egallashida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boymirzayev A. O'zbek tilining leksik zaxirasi va o'zlashgan qatlam. (2023).// Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(3), 31–36.
2. Karimov Sh.D. va Xaliyorova Sh.U. va b.q. “O'zbek tili leksikasida o'z qatlam va o'zlashgan qatlam so'zlari ”.// *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyas. № 45*, (May 17, 2025): 153–157.
3. Зайнабиддинова А. . *O'zbek tilida neologizmlar va arxaizmlarning leksik-semantik tahlili. (2025). // Interpretation and Researches, 9 (55-2).*
4. Abduvaitov E.F. O'zbek tilida neologizmlar // Academic Research in Educational Sciences. Volume 4 | Issue 6 | 2023. 408-412.

ONLAYN TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

O'rinboyeva Ruhshona Odilbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va

adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: f, f, f., dot, Mo'yudinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Bugungi kunda onlayn ta'limlar juda jadallashmoqda. Nafaqat ta'lim yo'nalishlarda ham juda katta o'rinlarni egallamoqda. Bu ta'lim insonlarga qulayliklar va shu qatorda kamchiliklarni ham olib kelmoqda. Mazkur maqolada hozirgi vaqtda keng rivojlangan onlayn ta'limning afzallik va kamchiliklari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: onlayn ta'lim, raxit kasalligi, stress, xarajatsizlik.

Abstract: Today, online education is gaining. It is also taking a very large place not only in educational areas. This education brings convenience to people, but also disadvantages. This article discusses the advantages and disadvantages of online education, which is currently widely developed.

Key words: onlayn education, rickets, stress, cost-effectiveness.

Аннотация: Сегодня онлайн – образование набирает обороты. Оно занимает очень большое место не только в образовательных сферах. Оно приносит людям удобства, но и недостига. В этой статье рассматриваются преимущества и недостатка онлайн - образования, которое в настоящее время получило широкое развитие.

Ключевые слова: онлайн-образование, рахит, стресс, экономическая эффективность.

Onlayn ta'lim- bu zamonaviy texnologiyalar yordamida bilim olishning qulay va samarali usuli bo'lib, ayniqsa hozirgi raqamli davrda juda katta ahamiyat kasb etadi. U o'quvchilarga joy va vaqtga bog'liq bo'lmasdan ta'lim olish imkonini beradi, turli xil kurslar va resurslarga kirish imkoniyatini yaratadi, hamda o'qish jarayonini moslashuvchan qiladi. Hozirgi kunda hamma sohalar bo'yicha onlayn ta'lim allaqachon yo'lga qo'yilgan. Onlayn ta'lim nima o'zi? Onlayn ta'limdan nimalar olsak bo'ladi? Shu kabi va shunga o'xshash savollar paydo bo'lishi tabiiy hol albatta. Onlayn ta'lim bu telefon, noutbuk, kompyuter orqali onlayn muloqot qilish yoki onlayn ta'lim berish, ta'lim olish. Bunday ta'lim orqali juda ko'p insonlar yaxshi

natijalarga erishib kelayotganini ko'ryapmiz, shu bilan bir qatorda bu holat juda yomon emas, balki salbiy taraflari ham mavjud desak mubolag'a bo'lmaydi.

Onlayn ta'limning afzalliklariga va kamchiliklariga to'xtaladigan bo'lsak: Afzalliklari shundaki: hech qanday chiqimsiz, har qanday o'quvchi yoki ta'lim oluvchi xohlagan vaqtda, xohlagan joyda o'zig qulay sharoitni yaratgan holda ta'lim olishi, transport, ovqatlanish va boshqa xarajatlar bo'lmasligi, xohlagan tillarni o'rgana olishi va yana bir qator afzalliklari bor. Shuncha afzallilari yaxshiliklari bo'lgan narsalarning albatta kamchiliklari bo'ladi. Onlayn tarmoq shunday keng narsaki, buning chekchegarsi yo'qdek go'yo. Har xil voqealar, roliklar, qisqa metrajli filmlar shu qatoridadir. Buning ya'ni onlayn ta'limning kamchiligi shundaki, inson eng avvalo ko'z nuridan ayrilishi, sog'ligiga putur yetishi eng salbiy va yomon taraflaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchi orasida yuzma – yuz muloqot ham pasayadi. Natijada insonlar o'z qobig'iga o'ralib olishni tanlashadi. Internet tarmog'ining onlayn dars qilish davomida uzulib qolishi insonni asabiy holatga solib qo'yishi hech gap emas. Natijada nafaqat kattalar bunga o'rganib qolgan, yosh bolalarda ham stress va charchoq yuzaga kelishi mumkun.

Stress holatda insonlar o'zlarini o'zlari boshqara olmasligi natijasida bu holat jinoyatgacha olib borishi mumkin. Telefonda chiqayotgan qisqa metrajli filmlar, film, videolarga berilib ketayotgan aholining ahvoli o'zlari bilmagan va kutilmagan hollarda asta-asta yomonlashib bormoqda. Uylaridan chiqmasliklari sababli tabiiy bo'lgan quyosh nuridan, toza havoda bo'ladigan mutlaq tekin bo'lgan vitaminlarni olmasliklari sababli inson tanasidagi mayda-mayda hujayralarga zarar yetayotganini afsuski bilishmaydi.

Quyoshda yurmaslik va tabiiy D vitaminini olmasliklari tufayli turli kasalliklar, jumladan, eng yomon kasalliklardan biri bo'lgan RAXIT kasllikiga chalinishi mumkin. Kam harakatlik tufayli insonlarda va yoslarda ham suyak yemirilishi kuzatilmoqda. Eng alam qiladigani shundaki, inson shunday kasalliklar paydo bo'lishini bilsalar ham bunga hech qachon smartfonni ayblashmaydi. Hech kim shu telefon orqali, ko'p ishlatishim sababli ko'z nurimdan ajrallyapman, yana boshqa kasalliklarga duch kelayapman demaydi, tan olgisi ham kemaydi. To'g'ri telefondan foydalanishning yaxshi taraflari ko'p inson uchun beriladigan ma'lumotlar ham juda ko'p. Smartfon ayni vaqtda hammaning hayotining bir qismiga aylangan qo'pol qilib aytganda ba'zi bir insonlar uchun telefonsiz havo yo'qdek go'yo, bilishmaydiki, telefonni besh daqiqaga qo'yib tashqariga chiqib aylanib kelgandan keyin miyyamiz qanday dam olishini, telefonsiz ovqat yeyishmaydi hozrgi yoshlar uxlashmaydi ham.

Xulosa qilib aytganda, onlayn ta'lim juda katta imkoniyatlarni ochadi, ayniqsa hozrgi global davrda. U odamlarni geografik chegaralardan ozod qilib, istagan joyda, istagan vaqtda o'rganish sharoitini yaratib beradi, bu ayniqsa ishlaydiganlar, oilasi bilan band bo'lganlar yoki chekka hududlarda yashovchilar uchun juda foydali. Iloji borichga yuzma-yuz muloqot, sayr qilish bu insonga ham ma'naviy ham madaniy hordiq bo'ladi. "Har narsaning ozi yaxshi, sozi yaxshi", degan gap bekordan bekorga xalqimiz orasida chiqmagan. Umuman olganda, onlayn ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, uni to'g'ri va oqilona qo'llash orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jabborova Shahrida, Fayziyeva Umida Asadovna. "Onlayn ta'lim va uning samaradorligi". Technical Science Research in Uzbekistan, 2025.

2.Meliziyayeva Surayyoxon ,Abdullajonov Davronjon. " Bugungi kunda ta'limda raqamli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari". Qo'qon universiteti xabarnomasi , 2025.

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “MUQADDIMAT UL-ADAB” ASARIDA QIPCHOQ LAHJASIGA OID SO‘ZLAR

Ashirov Odilbek Maxsudovich

QQDU, O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi
ashirovodil100@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarining qipchoq lahjasiga oid soʻzlarni tahlilga tordik. Qipchoq lahjasi leksikasining oʻrganilishi, ularning oʻzaro munosabati va qorishiq holdagi holatini oʻrganish uchun noyob manbadir. Asar XII asr Xorazm turkiysining, shuningdek, keyingi asrlarda Oltin Oʻrda, Mamluk Misri kabi hududlarda rivojlangan turkiy adabiy tillar va lahjalarning (jumladan, qipchoq tilining) leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarini tiklash va tadqiq qilishga qaratilgan.

Kalit soʻzlar: “Muqaddimat ul-adab”, oʻzbek tili, qipchoq lahjasi, Xorazm vohasi oʻzbek tili, *boʻrak*, *böräk*.

Annotation: In this article, we analyze the Kipchak dialect words found in Mahmud al-Zamakhshari's work *Muqaddimat al-Adab*. The work is a unique source for studying the vocabulary of the Kipchak dialect, their mutual relations, and their mixed usage. The text is dedicated to the reconstruction and study of the lexical, phonetic, and grammatical features of 12th-century Khwarezmian Turkic, as well as the Turkic literary languages and dialects that developed in later centuries in regions such as the Golden Horde and Mamluk Egypt (including the Kipchak language).

Keywords: “*Muqaddimat ul-adab*”, Uzbek language, Kipchak dialect, Khorezm oasis Uzbek language, *boʻrak*, *böräk*.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarining yaratilish jarayoni va til qatlamlari haqida turlicha qarashlar mavjud. Keng tarqalgan fikrga koʻra, asar dastlab ikki tilli – arabcha-forscha lugʻat shaklida yaratilgan.[1, 17] Mahmud Zamaxshariyning oʻzi ham arab, ham fors tillarini mukammal bilgani, shuningdek, ona tili boʻlgan turkiyni (baʼzi manbalarda xorazm turkiysi deb ham yuritiladi) [2, 25] boʻyicha chuqur bilimga ega boʻlgani uning bunday murakkab va yuqori sifatli lugʻatni yaratishiga imkon bergan. Asarning arab tilini oʻrganuvchilar, ayniqsa, forsiyzabonlar orasida tezda shuhrat qozonishi uning boshqa tillarga ham tarjima qilinishiga turtki boʻlgan.

Natijada, siz ta'kidlaganingizdek, "Muqaddimat ul-adab" tez orada Mahmud Zamaxshariyning vatani Xorazmda iste'molda bo'lgan turkiy tilga – ya'ni, o'sha davr xorazm turkiysiga (o'g'uz va qipchoq unsurlari qorishgan til) o'girilib, uch tilli (arabcha-forscha-turkiycha) lug'atga aylantirilgan.[1, 17] Ba'zi manbalar, jumladan, mashhur eronlik lug'atshunos Ali Akbar Dehxudo bu turkiy tarjimani Mahmud Zamaxshariyning o'zi amalga oshirgan, degan fikrni ilgari suradi.[4] Bu qarash mantiqan asosli ko'rinsa-da (chunki Zamaxshariy o'z ona tilisiga tarjimani boshqalardan ko'ra yaxshiroq bajarishi mumkin edi), uning mutlaq haqiqat ekanini tasdiqlovchi qat'iy dalillar yetarli emas. Ayrim olimlar bu tarjimani Zamaxshariyning shogirdlari yoki unga zamondosh bo'lgan boshqa xorazmlik ulamolar bajargan bo'lishi mumkinligini ham taxmin qiladilar. Nima bo'lganda ham, bu turkiy qatlam XII asr Xorazm turkiysining bebaho yodgorligidir.

Keyinchalik, mo'g'ullar istilosidan so'ng Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoqda mo'g'ul tilining mavqei oshgach, lug'at mo'g'ul tiliga ham tarjima qilingan va uning ba'zi nusxalari to'rt tillik (arabcha-forscha-turkiycha-mo'g'ulcha) shaklga kelgan. Bu mo'g'ulcha glossalarni o'rganishda N.N. Poppening xizmatlari katta.

1897-yili taniqli sharqshunos va arxeolog V.L.Vyatkin tomonidan Samarqanddan topilib, Rossiya imperatorlik akademiyasiga taqdim etilgan "Muqaddimat ul-adab" qo'lyozmasi – asarning Markaziy Osiyo hududida tarqalishi va saqlanishi tarixini o'rganish uchun muhimdir. Garchi bu nusxa noqis va ko'chirilgan sanasi noma'lum bo'lsa-da, uning o'ziga xos paleografik va lingvistik xususiyatlari boshqa nusxalar bilan qiyosiy o'rganish uchun qimmatli material berishi mumkin. Uning Samarqanddan topilgani asarning Movarounnahrda ham keng qo'llanganini ko'rsatadi.

Mahmud Zamaxshariy lug'atni mavzuiy-mantiqiy izchillikda tuzgan bo'lib, u besh qismdan iborat: 1) Ismlar (otlar) qismi. Asosiy leksik qatlamni tashkil etadi. Unda turli mavzularga oid (masalan, koinot, tabiat, inson, hayvonot, o'simliklar, maishiy anjomlar, kasb-hunar va hokazo) 6250 ta arabcha ot va ot turkumiga oid so'zlar jamlangan. 2) Fe'llar qismi. Turli zamon va shakllardagi 6934 ta arabcha fe'l va fe'l birikmalarini o'z ichiga oladi. 3) Harflar (ko'makchi so'zlar) qismi. Predloglar, bog'lovchilar, yuklamalar kabi yordamchi so'z turkumlariga bag'ishlangan. 4) Ismlarning turlanishi (sarf) qismi. Arab tilidagi otlarning son, kelishik kabi grammatik kategoriyalar bo'yicha o'zgarishi qoidalarini tushuntiradi. 5) Fe'llarning tuslanishi (nahv va e'rob) qismi. Arabcha fe'llarda zamon, shaxs-son, nisbat kabi shakllarning yasalishi va gapdagi vazifalariga ko'ra o'zgarishi (e'rob) qoidalariga bag'ishlangan.

Bunday tuzilish arab tilini o'rganishni osonlashtirishga qaratilgan puxta pedagogik yondashuvdan dalolat beradi.

Asarning o'zbek tili qipchoq lahjasi leksikasini o'rganishdagi o'rnini *bo'rak* (*chuchvara*) so'zi misolida ko'rishimiz mumkin. "Muqaddimat ul-adab"da uchraydigan **بورک** *böräk* va uni forsiy *xo'shbira/xushbira* hamda o'zbekcha *chuchvara* so'zlarining etimologiyasi bilan bog'liqligiga e'tibor qarataylik. Mahmud Zamaxshariy *böräk* so'zini qaysi *sambusak* سمبوسك – 'somsa' so'zining asli, *qataif* قطائف kabi so'zlar bilan ifodalangan. *Böräk* so'zining o'zi turkiy tillarda keng tarqalgan. *Bo'rak* (yoki *börek*, *börük*, *bäliš* kabi variantlari) juda qadimgi va keng tarqalgan turkiy so'zdir. U ko'pincha turkiy *bögre*- ('o'ramoq, bukلامoq') yoki *büri*- ('yopmoq, o'ramoq') fe'llaridan *-k* yoki *-äk* qo'shimchasi bilan yasalgan deb hisoblanadi,[3, 65] ya'ni, uning asl ma'nosi "o'ralgan", "buklangan" (xamir) degan ma'noni anglatadi. Bu so'z turli turkiy xalqlarda har xil turdagi pishiriqlarni – ko'pincha ichiga qiyma yoki boshqa narsa solib, buklab, yopib, tandir (pech)da pishiriladigan yoki yog'da qovuriladigan taomlarni anglatadi (masalan, turkcha *börek*, tatarcha *bäräŋge bäläshe* 'kartoshkali *bälish*/pirog', qozoqcha *bälish*, *bärik*). U Bolqon xalqlari tiliga ham *burek* shaklida o'tgan. Turkiy *böräk* so'zining forscha *xo'shbira* (*xoşbirä*) so'zi bilan bog'liqligi masalasi. *Xoşbirä* so'zining o'zi fors tilida kam uchraydi va uning etimologiyasi noaniq. Turkiy va fors tillari o'rtasida bunday bog'liqlik ko'rinmaydi. Shuningdek, *chuchvara* so'zining etimologiyasi ham bahslidir. Eng keng tarqalgan nazariyaga ko'ra, u forscha *dushvara* (*dushwara*) yoki *jushpara* (*jôsh-pâra* – 'qaynatilgan bo'lak') so'zlaridan kelib chiqqan.[4, 388] Boshqa taxminlar ham mavjud. *Bo'rak* so'zi bilan *chuchvara* so'zi bir-biridan kelib chiqmagan, lekin ular o'xshash (ichiga qiyma solingan xamir taomlar) turdagi taomlarni atashi mumkin. Biroq, odatda *bo'rak* kengroq tushuncha bo'lib, pishirish usuli (pishirish, qovurish) bilan farqlansa, *chuchvara* aynan suvda qaynatib pishiriladigan tugilgan xamirni anglatadi.

Umuman olganda, "Muqaddimat ul-adab"ning yaratilishi, tarjimalari, tuzilishi va qo'lyozmalari tarixini bilish uning turkiy (xususan, Xorazmdagi o'g'uz-qipchoq aralash tili) glossalarini to'g'ri talqin qilish va ulardan qipchoq lahjalari tarixini o'rganishda samarali foydalanish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ҳақимжонов М. "Муқаддимат-ул-адаб"нинг қўлёзмаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. № 6.

2. Толстова Л.С. Древнейшие юго-западные связи в этногенезе каракалпаков // Советская этнография. – 1971. – № 2.
3. Clauson, G. (1972). An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford: Clarendon Press.
4. Абаев В. И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. 1. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1958.
5. Ashirov, O. (2022). DIALEKTLARNING BADIY ASAR TILIDAGI SEMANTI-K–STILISTIK XUSUSIYATLARI. *Академические исследования в современной науке*, 1(13), 249-252.
6. Ashirov, O. (2023). MUQADIMAT UL–ADAB. *QIPCHOQ LAHJASIGA OID QAYDLAR AKS ETGAN MUMTOZ MANBA*. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(9), 164-167.
7. Ashirov, O. (2023). BADIY MATNLARDA NUTQIY AKT NAZARIYASIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR. *Science and innovation in the education system*, 2(10), 27-29.

Internet materiallari

<http://www.arxiv.uz>

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.wikipedia.com>

SIFAT SO'Z TURKUMINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI**O'roqova Asilabonu Abdunazar qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili adabiyoti ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

oroqovaasilabonu34@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi sifat so'z turkumining mohiyati, grammatik xususiyatlari va nutqdagi o'rni yoritilgan. Sifatning leksik-grammatik ma'nosi, so'z yasalishi, shakllanish yo'llari hamda gapda bajaradigan vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, sifatlarning turlari, ularning o'ziga xos belgi ifodalash xususiyatlari va boshqa so'z turkumlari bilan aloqador jihatlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida sifatlarning tilimizdagi boy imkoniyatlari, badiiy nutqda qo'llanishi va o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sifat, sifatdarajalari, grammatik xususiyat, leksik ma'no, sifat darajalari, sifatning ma'no guruhlari.

Annotation: This article explores the essence and grammatical features of adjectives in the Uzbek language from a scientific perspective. It analyzes the lexical-grammatical meaning of adjectives, their methods of formation, types, and syntactic functions within a sentence. In addition, the study highlights their interrelation with other parts of speech, their usage in literary language, and their significance in developing speech culture.

Keywords: adjective, degrees of adjectives, grammatical features, lexical meaning, semantic groups of adjectives.

Sifat so'z turkumi predmetning belgi-xususiyatini, rangini, shaklini, hajmini, ta'mini hamda turli belgilarini ifodalaydigan mustaqil so'z turkumidir. U leksik jihatdan predmetning turli belgilari va holatini ifodalaydi. Grammatik jihatdan esa ot bilan bog'lanib, unga aniqlovchi bo'lib keladi. Sifat odatda o'zgarasiz so'z turkumi hisoblanadi va kelishik, son, egalik qo'shimchalarini olmaydi. Ular asosan qanday?, qanaqa? so'roqlariga javob beradi. Sifatlar ma'no jihatdan xususiyat, rang-tus, maza-ta'm, hajm-o'lchov, hid, va makon-zamon kabi belgilarni ifodalashiga ko'ra quyidagi ma'no guruhlari bo'linadi: xususiyat sifatlari, rang-tus sifatlari, maza-ta'm sifatlari, hajm-o'lchov sifatlari, hid bildiruvchi sifatlari, va makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatlari.

Xususiyat sifatleri: Ob'yektning sifatini, xarakterini, holatini bildiradi.

Misol: chiroyli, baquvvat, mehnatkash, qiziq.

Rang-tus sifatleri: Buyumning rangi yoki tusini ifodalaydi.

Misol: qizil, ko'k, oq, sarg'ish.

Maza-ta'm sifatleri: Taomning yoki biror narsaning ta'mini bildiradi.

Misol: shirin, achchiq, sho'r, nordon.

Hajmo'lchov sifatleri: Ob'yektning hajmi, kattaligi, o'lchovini bildiradi.

Misol: katta, kichik, uzun, qisqa, keng, tor.

Hid bildiruvchi sifatler: Biror narsaning hidini ifodalaydi.

Misol: sassiq, xushbo'y, badbo'y, muattar

Makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatler: Ob'yektning makonga yoki zamonga oid belgilarini ifodalaydi.

Misol: oldingi, keyingi, yon, yuqori, quyi, kechagi, bugungi.

Sifat darajalari o'zbek tilidabelgining kuchini yoki zaifligini turlicha darajada ifodalash uchun qo'llanadi. Ular 4 turga bo'linadi: oddiy daraja, qiyosiy daraja, ozaytirma daraja, orttirmadaraja. Oddiydarajabelgining tabiiy holatini, taqqoslashsiz ifodalaydi. Masalan, katta uy, chiroyli qiz, oq qog'oz kabi sifatlar oddiy darajaga kiradi. Qiyosiy daraja belgini boshqa narsa yoki hodisa bilan solishtirish orqali hosil qilinadi. Bunda odatda "-roq" qo'shimchasi qo'llanadi. Masalan, yaxshiroq, kattaroq, oqroq kabi. Ozaytirma daraja belgining me'yorida kam ekanligini bildiradi. Sal, biroz, picha, xiyla, nim so'zlarini sifatning oddiy daraja shakli oldiga qo'shish orqali hosil qilinadi. Shuningdek, -imtir, -mtir, -ish qo'shimchalari bilan hosil qilinadi. Ular ayrim rang- tus bildiruvchi sifatlariga qo'shiladi. Ortirma daraja esa belgining eng yuqori yoki kuchli darajada ekanini bildiradi. U bir necha usulda yasaladi: "eng", "nihoyatda", "juda" kabi so'zlar yordamida (eng yaxshi, juda katta), so'zning takrorlanish orqali (katta-katta, oppoq-oppoq), shuningdek, kuchaytiruvchi qo'shimchalar yordamida (yam-yashil, qip-qizil, sap-sariq). Demak, sifat darajalari belgini oddiy, qiyosiy va ortirma shakllarda ifodalaydi hamda nutqni ta'sirchan va boy qilishga xizmat qiladi.

Sifatlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy turlarga bo'linadi. Sodda sifatlar hech qanday qo'shimchasiz, bitta so'z shaklida keladi. Masalan, oq, qora, katta, uzun kabi sifatlar sodda sifat hisoblanadi. Qo'shma sifatlar esa ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Masalan, uzunbo'yli, ochko'z, serquvvat, ko'kko'ngil kabi sifatlar qo'shma sifatlariga kiradi. Juft sifatlar ma'nosi yaqin yoki qarama-qarshi bo'lgan ikki sifatning yonma-yon qo'llanishidan hosil bo'ladi. Masalan, katta-kichik, oq-qora, eski-yangi, achchiq-chuchuk. Takroriy sifatlar esa bir xil

sifatning takrorlanishi orqali yasaladi. Masalan, katta-katta, uzun-uzun, oppoq-opp oq, qizil-qizil kabi. Shu tariqa, sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari belgining turli shakllarini ifodalaydi va nutqning ta'sirchan hamda boy bo'lishiga xizmat qiladi.

Sifatlar gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ravish holi, ot kesim kabi vazifalarda keladi. Sifatlovchi aniqlovchi otga bog'lanadi: Menda na daftar, na ko'k ruchka bor. „Ko'k“ so'zi „ruchka“ga bog'lanmoqda. Ravish holi fe'lga bog'lanadi. Kitoblar oldingidan og'irroq ko'rinardi. „Og'irroq“ „ko'rinardi“ga bolaning kelmoqda. Ot kesim gapning oxirida keladi: Bu kitob hammasidan azizroq. Otlashmagan sifatlarning sintaktik vazifasi ularning qaysi so'z turkumiga bog'lanayotganiga qarab aniqlanadi. Masalan: Yaxshi bola yaxshi o'qiydi gapida bola so'zi bog'langan sifati otga bog'langani uchun sifatlovchi- aniqlovchi hisoblansa, o'qiydi so'ziga bog'langan sifat fe'lga bog'langani uchun ravish holi hisoblanadi. Demak, sifatlarni chuqur o'rganish o'zbek tilining grammatik imkoniyatlarini to'liq anglashga, nutqni mazmunli, ta'sirchan hamda badiiy jihatdan go'zal qilishga yordam beradi. Shu sababli sifatlarni o'qitish, ularning darajalari va tuzilish xususiyatlarini amaliyotda qo'llash tilshunoslik va ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami“ Nargiza Erkaboyeva
2. oefen.uz <https://oefen.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi. Ona tili darsliklari (5-9-sinflar) Toshkent: Sharq turli yillar
4. G'aniyev, F. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya
5. Ra'no Sayfullayeva. Vaboshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.
6. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili

O'ZBEK TILI JOY NOMLARI SEMANTIKASI.**Orziqulova Zarina**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi joy nomlarining semantik xususiyatlari, ularning tarixiy, madaniy, ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi, hamda toponimlar orqali xalqning tafakkuri va dunyoqarashi qanday ifodalanganligi tahlil etiladi. Joy nomlari tilning lug'aviy boyligi sifatida tarixiy, geografik, madaniy va etnolingvistik jihatlarni aks ettiradi. Maqolada toponimlarning kelib chiqishi, tarkibiy qismlari, semantik xususiyatlari va ularning o'zbek tilidagi o'rnini tahlil qilinadi. Shuningdek, turli mintaqalarga xos bo'lgan joy nomlarining lingvistik xususiyatlari hamda ularning atrof-muhit, ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. semantika, joy nomlari, toponimika, Onomastika, etimologiya.

Аннотация. В данной статье анализируются семантические особенности узбекских топонимов, их связь с историческими, культурными и социальными факторами, а также то, как через названия мест отражается мировоззрение и мышление народа. Топонимы, как часть лексического богатства языка, отображают исторические, географические, культурные и этнолингвистические аспекты. В статье рассматриваются происхождение, составные части, семантические особенности топонимов и их роль в узбекском языке. Также исследуются лингвистические особенности названий мест, характерных для различных регионов, и их связь с окружающей средой и социальной жизнью.

Ключевые слова: семантика, названия мест, топонимика, ономастика, этимология

Annotation. This article analyzes the semantic features of Uzbek toponyms, their connection with historical, cultural, and social factors, and how the worldview and mindset of the people are reflected through place names. As a component of the lexical wealth of the language, toponyms represent historical, geographical, cultural, and ethnolinguistic aspects. The article examines the origins, structural components, semantic characteristics, and the role of toponyms in the Uzbek language. It also explores the linguistic features of regional place names and their relationship with the environment and social life.

Keywords: semantics, place names, toponymy, onomastics, etymology

Tilshunoslikning tarkibiy qismiga juda ko'p bo'limlarni kiritamiz, va shular ichidan leksikologiya bo'limiga kiruvchi animatsiya bo'limigavaloqida to'xtalib o'tamiz. Onomastika (nomshunoslik) bo'limiga kiruvchi toponimika (lotincha: topos — joy, onoma — ism) — jo'g'rofiy nomlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, o'zgarishi va to'g'ri yozilishini o'rganuvchi fan.

Toponimika (yun. topos — joy va onyma — ism, nom) — onomastikat joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiyetimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi. Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq saqlangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma. boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi. Toponimikani ham uchga bo'lib o'rganamiz. Ular quyidagilar:

- *oykanomika* - shahar, qishloq nomlari;
- *oronimika* - yer ustidagi relyef nomlari;
- *urbanomika* - shaharning ichki obyektlari.

Sayoramizda har bir geografik obyektning o'z nomi, manzili va tarixi bor. Joy nomlari qadim zamonlardan boshlangan. Vaqt o'tishi bilan joy nomlari (toponimlar)ning shakli, talaffuz etilishi ma'lum darajada o'zgarib bo'rgan. Geografik nomlarning o'zbekcha yozilishi ma'lum bir qoidalarga asoslangan. Joy nomlari nihoyatda boy va rang-barangdir. Respublikamizda faqatgina shahar- qishloqlarning nomlari 13 000 dan oshadi. Toshkent shahrining o'zida taxminan 3000 dan ortiq katta-kichik ko'cha bor. Ular bizga o'z o'rnida shahar tarixiga oid ancha ma'lumotlarni beradi. Toshkent shahri nomining kelib chiqishi barchamizga ma'lum. Qadimgi yozma manbalarda bu shahar Choch, Shosh, Chochiston deb atalgan. X asrda noma'lum muallif tomonidan fors tilida yozib qoldirilgan "Hudud ul-olam" ("Olam chegaralari") asarida "Choch katta viloyat, xalqi jangovar, boy va sahiydir. U erda o'q-

yo'y tayorlanadi. Binkat- Chochning poytaxti. Bu katta shahar, ayni vaqtda podshohning qarorgohidir "..., "Binkat" nomi "Ko'rimli shahar" degan ma'noni bildiradi, deb yozilgan. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'otit turk" asarida "Tarxan-Shoshning nomi, uning asl nomi Toshkand- toshdan qurilgan shahar demakdir, deb yozadi. Bundan tashqari ushbu kitobda Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijon, Jizzax kabi ko'plab shaharlarning tarixi haqida ma'lumot berilgan. Samarqand qadimda Samariana, Sakanna, Samangan, Samakiyan, Smarkanca, Marokanda va boshqa boshqa shakllarda atalgan. "Samarqand"- "Semizkand", yani "semiz" ("katta") "katta shahar" ma'nosini bildiradi, degan fikrlar Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Zahridin Muhammad Bobur, Mirhond asarlarida qayd qilinganligi korsatib o'tilgan. Termiz shahri- "Tarmad", "Termad", "Tarmita" va nihoyat "Taramastxa"- baqtriycha "Tarmastxa" – "narigi sohildagi manzil", Buxoro – sanskritcha "vixara"- budda ibodatxonasi yoki Hofiz Tanishning yozishicha "buxor" – "ilm makoni"dir. "Xiva" toponimi qadimgi "Xeyvak" qudug'i nomidan olingan bo'lsa, "Xeyvaq" qudug'i nomi esa "saroy" ma'nosini bildirida, deb yozilgan. Shuningdek, "Andijon" – "soy bo'yi", "suv yoqasi" dagi shahar. "Namangon" – "tuz koni" yoki "Nomiyyon" – "aziz va nomdor shahar", "Farg'ona" – "Parkana" ("atrofi berk vodi"), "Jizzax" – "kichik qal'a", "istehkom", "Karmana" – "Xarmana" ("katta saroy"), "Sayxunobod" – Sirdaryoning arabcha nomi "Sayxun" so'zidan, "Nukus"- qoraqalpoqlarning kenegas, qo'ng'irot qabilalari tarkibidagi "nukus" urug'i nomidan kelib chiqqan. Keltirilgan misollar kitobxonni o'ziga tortishi bilan ahamiyatlidir. Demak, hamma joyning o'z tarixi bor. Bulardan tashqari yurtimizda juda ko'p ziyoratgoh joylar mavjud. Navoiyda joylashgan Nurota ziyoratgohini misol qilib olsak, hozirgi Nurota nomini ba'zi birovlar mo'g'ulcha nuru va o'zbekcha tov so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, har ikkala so'z ham «tog'» degan ma'noni bildiradi deyishadi, Holbuki, bu nom bundan ming yildan ham ko'proq oldin qayd qilingan. Buxoro tarixchisi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida (934-944 yillarda yozilgan) Nur degan joy nomini tilgan oladi. Uni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar, deb yozadi Narshaxiy.

Xulosa qiladigan bo'lsak o'zbek tilidagi joy nomlari xalqning tarixiy, geografik va madaniy merosini aks ettiradi. Ularning semantik tahlili orqali mintaqaning tiliy rivoji, etnik va madaniy o'zgarishlari haqida ma'lumot olish mumkin. Toponimlarni o'rganish tilshunoslik, tarix va etnografiya sohalari uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilidagi joy nomlari semantik jihatdan juda boy va rang-barangdir. Ular orqali o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va madaniy

qadriyatlari ifodalanadi. Joy nomlari nafaqat tilshunoslik, balki tarix, madaniyat va jamiyatshunoslik uchun ham muhim ma'lumot manbai hisoblanadi. Kelajakda toponimik tadqiqotlar chuqurlashtirilishi, xususan mahalliy joy nomlarining semantik tahlili o'zbek tilining rivojlanish jarayonini yanada yoritib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qo'ng'urov, T.O'zbek toponimikasi . Toshkent: Fan, 2005.
2. Rasulov, I.O'zbekiston joy nomlari tarixi . Samarqand: O'zMU, 2010.
3. Xo'jayev, A.Lingvistik toponimika asoslari. Toshkent: Akademya, 2018.
- 4 . Hasanov, B.O'zbek xalq etimologiyasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
5. <https://oliymahad.uz/36186>

RUS TILIDAN KIRIB KELGAN SO'ZLAR

Ozoda Abdusattotova Abdumuxtorovna*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti**2- kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan so'zlar, ularning shakllanish jarayoni va qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilingan. Asosan, ijtimoiy-siyosiy, ilm-fan, texnika va kundalik turmush sohalarida ruscha so'zlarning tilimizga kirib kelishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, bu so'zlarning til madaniyati va leksik qatlamga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: rusizm, kirib kelgan so'zlar, o'zlashma leksika, ijtimoiy-siyosiy so'zlar, texnik terminlar, o'zbek tili.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются слова, вошедшие в узбекский язык через русский язык, процесс их образования и особенности употребления. В основном, показано внедрение русских слов в наш язык в общественно-политической, научно-технической и бытовой сферах. Также освещается влияние этих слов на культуру языка и лексический пласт.

Ключевые слова. Русизмы, вошедшие слова, заимствованная лексика, общественно-политические слова, технические термины, узбекский язык.

ABSTRACT. This article analyzes the words that have entered the Uzbek language through the Russian language, the process of their formation and the features of their use. Basically, the introduction of Russian words into our language in the socio-political, scientific, technical and everyday spheres is shown. The impact of these words on the language culture and lexical layer is also highlighted.

Keywords. Russianisms, words that have entered, borrowed vocabulary, socio-political words, technical terms, Uzbek language.

O'zbek tili qadimiy tarixga ega bo'lib, turli davrlarda boshqa tillardan ko'plab so'zlarni qabul qilgan. Shulardan biri rus tilidan o'zlashgan so'zlardir. XIX asrdan boshlab ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy va texnik sohalar rivojlanishi bilan bir qatorda rus tilidan kirib kelgan so'zlar ham faol qo'llanila boshladi. Bu so'zlar bugungi kunda o'zbek tilining muhim leksik qatlamini tashkil etmoqda. Til taraqqiyoti jarayonida boshqa tillardan so'z o'zlashtirish tabiiy hodisa hisoblanadi. Har bir xalq o'zining ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniyati va iqtisodiy aloqalari davomida qo'shni yoki yaqin

aloqada bo'lgan xalqlarning tilidan ko'plab so'zlarni qabul qiladi. O'zbek tili tarixida ham bunday jarayon davom etgan bo'lib, ayniqsa XIX–XX asrlarda rus tili ta'siri sezilarli darajada kuchaydi. Bu davrda turmushning deyarli barcha jabhalarida – siyosat, fan-texnika, ishlab chiqarish, ta'lim, madaniyat va maishiy sohalarda rus tilidan kirib kelgan ko'plab so'zlar qo'llanila boshlandi. Rus tilidan kirib kelgan leksik birliklarning asosiy qismi atamalar, maishiy hayotga oid so'zlar, davlat boshqaruvi va ta'lim tizimi bilan bog'liq bo'lgan birliklardan iboratdir. Masalan, partiya, sovxoz, kolxoz, samolyot, tramvay, pasport, uchilish, stul, stol, kvartira kabi ko'plab so'zlar bugungi kunda ham keng qo'llanmoqda. Ularning ayrimlari o'zbek tilida to'liq singib ketgan bo'lsa, boshqalari o'zga tilga mansubligi darhol sezilib turadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, rus tilidan kirib kelgan so'zlar o'zbek tilining lug'at boyligini kengaytirgan, biroq ayrim hollarda adabiy tilning me'yoriy jihatlariga ham ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, ularni tizimli ravishda o'rganish, guruhlariga ajratish va tilimizdagi o'rni hamda ahamiyatini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu ishda rus tilidan kirib kelgan so'zlarning o'zbek tilidagi paydo bo'lish sabablari, ularning qo'llanish sohalari va til taraqqiyotidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Rus tilidan kirib kelgan so'zlarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin.

1. Ijtimoiy-siyosiy so'zlar. Masalan: sovet, deputat, komitet, oblast.

2. Ilmiy-texnik terminlar. Masalan: stanok, motor, traktor, atom, elektr.

3. Madaniy-maishiy so'zlar. Masalan: biblioteka, gazeta, kvartira, magazin, stol, stul.

4. Harbiy so'zlar. Masalan: general, soldat, komandir.

Ruscha o'zlashmalar o'zbek tilida mustahkam o'rinish qolgan. Ba'zilari to'liq moslashib, o'zbekcha talaffuz va yozuv shakliga ega bo'lgan (stol, karobka, direktor); Ayrimlari esa asliyatdagi shaklini saqlagan (prokuror, prezident). Bugungi kunda til siyosatida ruscha o'zlashmalarning o'rnini milliy so'zlar bilan almashtirish jarayoni ham kuzatilmoqda (telefon – qo'ng'iroq qurilmasi, avtobus – yo'lovchi mashinasi kabi).

Ruscha so'zlarning kirib kelish sabablari: XIX asrdan boshlab O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet davlati ta'siri kuchaygan. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarda rus tili keng qo'llanilgan. Yangi texnika va ilmiy tushunchalar bilan birga ruscha terminlar ham o'zbek tiliga kirib kelgan. Rus tilidan kirib kelgan asosiy so'zlar: Kundalik hayot: stol, stul, kvartira, magazin. Texnika va fan: motor, traktor, stanok, atom. Siyosiy va ijtimoiy hayot: sovet, deputat, komitet.

Xususiyatlari: ba'zi so'zlar butunlay o'zlashib, o'zbekcha shaklga ega bo'lib ketgan (stol, direktor). Ayrimlari esa asl talaffuzini saqlagan (prokuror, prezident). Ko'p so'zlar bugungi kunda ham faol ishlatilmoqda. Ahamiyati: til lug'atini boyitdi, yangi sohalarni ifodalash imkonini berdi. Tarixiy davrlarning ijtimoiy-madaniy aloqalarini aks ettiradi. Hozirgi kunda o'zbek tilida ularga milliy muqobillar yaratish jarayoni kechmoqda (poezd – poyezd, avtobus – yo'lovchi mashinasi kabi). Tillardan, xususan rus tilidan ham so'zlar kirib kelgan. Bu jarayon asosan XIX–XX asrlarda, O'zbekiston Rossiya imperiyasi va keyinchalik SSSR tarkibida bo'lgan davrda kuchaygan. Rus tili o'sha paytda siyosat, fan, texnika, madaniyat va ta'lim sohalarida asosiy til bo'lib xizmat qilgan.

Rus tilidan kirgan so'zlarning sabablari:

1. Texnika va fan taraqqiyoti – yangi asbob-uskunalar va ilmiy tushunchalar bilan birga yangi so'zlar ham kirib kelgan.
2. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlar – davlat boshqaruvi, harbiy va ma'muriy sohalarda ruscha atamalar ishlatilgan.
3. Madaniy aloqalar – kino, teatr, ta'lim va san'at orqali ham ko'plab ruscha so'zlar kirgan.

Rus tilidan kirgan so'zlar o'zbek tili lug'atini boyitgan, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini yaratgan. Shu bilan birga, bugungi kunda o'zbek tili mustaqil rivojlanmoqda, va o'z so'z boyligini saqlab qolish, milliy atamalarni keng qo'llashga e'tibor qaratilmoqda. Har bir o'qituvchi va o'quvchi o'z tilini ardoqlashi, begona so'zlarni to'g'ri va o'rinli ishlatishi kerak.

Rus tili o'zbek tilining leksik boyishiga katta hissa qo'shgan. Biroq hozirgi kunda o'zbek tilining sof va milliy lug'atini rivojlantirishga ham e'tibor kuchaymoqda. Shu bilan birga, kirib kelgan ruscha so'zlar ham o'z o'rnida, to'g'ri ishlatilsa, tilni boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, rus tilidan kirib kelgan so'zlar o'zbek tilining lug'at boyligini yanada kengaytirgan. Ularning bir qismi kundalik nutqimizda faol ishlatilmoqda, bir qismi esa tarixiy so'zlar sifatida qo'llanmoqda. Mazkur qatlamni o'rganish tilshunoslik uchun ham, ta'lim jarayoni uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular orqali o'zbek tili va boshqa tillar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalar ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xo'jayev A. O'zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent, 2019. [CIA World Factbook n007-06-12da asl nusxadan.](#)

2. [↑ CIA World Factbook y](#) Rahmatullayev Sh. Til va jamiyat. Toshkent, 2007.
3. [↑](#) [About 37 % of the population of Golestan province of 1,687,086]
4. [↑ RFE/RL Turkmenistan: President Shows No Sign Of Welcoming Refugee Kinsmen](#). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. Toshkent, 2008–2010.
5. Karimov U. O'zlashma so'zlar va ularning o'rni. Toshkent, 2015.

TURAR JOYLAR LEKSIKASI

Ozodboyeva Ruhshona Bahodir qizi

ChDPU-Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi

2-bosqich talabasi

ruhshonaozodboyeva82@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi turar joy leksikasining mazmuni va qamrovi tahlil qilinadi. Unda turar joy tushunchasining asosiy birliklari, ya'ni uy, hovli, kvartira, mehmonxona, yotoqxona kabi so'zlar hamda ularning milliy va zamonaviy ko'rinishlari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, leksik birliklarning metaforik qo'llanishlari ham ko'rsatilib, ularning badiiy va ma'naviy mazmun kasb etishi misollar orqali tushuntirilgan. Maqola xulosasida turar joy leksikasi insonning hayoti, madaniyati va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim qatlam ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, bu leksik qatlam milliy qadriyatlarni va zamonaviy turmush tarzini birlashtirib, xalqning hayot tarzi va dunyoqarashini ifoda etuvchi til boyligi sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: Turar joy, kvartira, uy, rezidensiya, hovli, ijtimoiy mavqe, turmush tarzi

Abstract. This article analyzes the content and scope of the housing lexicon in the Uzbek language. It discusses the main units of the concept of housing, namely words such as house, courtyard, apartment, hotel, and dormitory, as well as their national and modern manifestations. It also shows the metaphorical uses of lexical units, and explains their artistic and spiritual meaning through examples. The conclusion of the article emphasizes that the housing lexicon is an important layer reflecting the life, culture, and historical development of a person. At the same time, this lexical layer is evaluated as a linguistic wealth that combines national values and modern lifestyles, expressing the lifestyle and worldview of the people.

Keywords: Housing, apartment, house, residence, yard, social status, lifestyle

Аннотация. В данной статье анализируется содержание и объем жилищной лексики в узбекском языке. Рассматриваются основные единицы концепта «жилье», а именно такие слова, как дом, двор, квартира, гостиница, общежитие, а также их национальные и современные проявления. Показываются

метафорические применения лексических единиц, на примерах поясняется их художественно-духовное значение. В заключении статьи подчеркивается, что жилищная лексика является важным пластом, отражающим жизнь, культуру и историческое развитие человека. При этом этот пласт оценивается как языковое богатство, сочетающее в себе национальные ценности и современный образ жизни, выражающее образ жизни и мировоззрение народа.

Ключевые слова: Жилье, квартира, дом, место жительства, двор, социальный статус, образ жизни

Insoniyat qadimdan turar joy qurishga, o'ziga yashash maskani barpo etishga ehtiyoj sezgan. Turar joy – odam yashashi uchun mo'ljallangan bino yoki joyni bildiradi. Turar joy nafaqat yashash uchun zarur bo'lgan joy, balki madaniyat, turmush tarzi, ijtimoiy mavqe va milliy qadriyatlarning ham ifodasidir. Shu sababli turar joy bilan bog'liq so'zlar, atamalar alohida leksik qatlamni tashkil etadi. Ushbu qatlam tilshunoslikda turar joy leksikasi deb yuritiladi.

O'zbek tilida turar joylarni ifodalovchi ko'plab so'zlar mavjud bo'lib, ular odamlarning turmush tarzi, yashash muhiti va davr talablariga ko'ra farqlanadi. Masalan: uy, hovli, xona, kvartira, ko'shk, mehmonxona, yotoqxona, dala-hovli kabi birliklar. Hovlili uylarning asosiy qismlari sifatida ayvon, supa, chorpoya, tandirxona, omborxona va molxona alohida o'rin tutadi. Ayvon yozda salqin, qishda esa sovuqdan saqlanadigan joy bo'lib, ko'proq dam olish va suhbatlashish uchun xizmat qilgan. Supa va chorpoya oilaviy ovqatlanish yoki mehmon kutish uchun ishlatilgan. Tandırxona esa non yopiladigan muqaddas maskan sifatida qadrlangan. Masalan, uy so'zi nafaqat yashash maskanini, balki “vatan”, “ona yurti” ni ham anglatadi. “Ona uyim O'zbekiston” iborasida uy – ramziy ma'noda qo'llanmoqda. O'zbek xalqining an'anaviy turar joylari ko'pincha hovlili uylar shaklida bo'lgan. Bunday hovlilarda ayvon, supa, chorpoya, tandirxona, omborxona kabi o'ziga xos qismlar mavjud. Bu so'zlar milliy turmush tarzini aks ettiruvchi turar joy leksikasining o'ziga xos qatlamini tashkil qiladi. O'zbek tilida turar joylarga oid qadimiy milliy so'zlar bilan bir qatorda, zamonaviy hayot va shaharlashuv jarayoni ta'sirida paydo bo'lgan yangi so'zlar ham faol ishlatilmoqda. Bunday atamalar, asosan, rus va ingliz tillari orqali kirib kelgan bo'lib, ular ko'proq shahar hayoti, zamonaviy qurilish va turmush tarzini ifodalashda qo'llanadi. Shaharlashuv jarayonida kvartira, pod'ezd, lift, ofis, rezidensiya kabi so'zlar keng qo'llanmoqda. Kvartira ko'p qavatli uylardagi xonadonni bildirsa, pod'ezd – ko'p qavatli uyga kirish yo'lagini anglatadi. Lift esa yuqori qavatlariga chiqish vositasi sifatida tilimizda mustahkam o'rinish qolgan. Rezidensiya esa

hashamatli turar joy yoki yuqori martabali shaxslar yashaydigan uy sifatida ishlatiladi. So'nggi yillarda turar joylarning yangi turlari ham lug'atimizga kirib kelgan. Masalan, kottedj, taunxaus, penthaus, studio, loft kabi so'zlar zamonaviy arxitektura va qurilish orqali xalq tilida qo'llanilmoqda. Kottedj shahar atroflarida qurilgan alohida hovlilari uy bo'lsa, penthaus ko'p qavatli uylarning eng yuqori qavatidagi hashamatli kvartirani bildiradi. Studio kvartira esa ochiq makon tarzida, devorlarsiz loyihalangan zamonaviy yashash joyidir. Globalizatsiya ta'sirida mehmonxona va vaqtinchalik yashash joylariga oid ko'plab atamalar ham o'zbek tilida mustahkam o'rnatilmoqda. Masalan, hostel, hotel, motel, kemping kabi so'zlar turli turar joy turlarini anglatadi. Hostel asosan arzon narxdagi va bir nechta odam uchun mo'ljallangan yotoqxona bo'lsa, motel avtomobil yo'llari bo'yida qurilgan mehmonxona sifatida qo'llanadi. Shuningdek, turar joy infratuzilmasi bilan bog'liq yangi so'zlar ham ishlatilmoqda. Masalan, parking, biznes-markaz, kompleks kabi atamalar zamonaviy shahar qurilishi va turar joy majmualarini ifodalashda qo'llanadi. Parking mashina qo'yiladigan joyini, kompleks esa turar joy, do'kon, ofis va xizmat ko'rsatish maskanlarini birlashtirgan majmuani anglatadi. Shu tariqa, yangi kirib kelgan turar joy so'zlari o'zbek tilining lug'at boyligini yanada kengaytirib, zamonaviy hayot tarzini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular milliy turar joy atamalarini bilan yonma-yon qo'llanib, tilimizning boyishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turar joy leksikasi insonning hayoti, madaniyati, ijtimoiy mavqei va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim qatlamdirdir. U milliy turmush tarziga oid qadimiy birliklar hamda zamonaviy sharoitda paydo bo'lgan yangi atamalarni o'z ichiga oladi. Turar joy leksikasini o'rganish nafaqat til boyligini ochib beradi, balki xalqning hayot tarzi va dunyoqarashini ham yoritib beradi. Shuningdek, turar joy leksikasida milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi so'zlar bilan bir qatorda zamonaviy hayotga mos yangi atamalar ham faol qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "O'zbek tili leksikologiyasi", "Tilshunoslikka kirish"
2. Filologiya va adabiyot yo'nalishidagi ilmiy maqolalar
3. tilvaadabiyot.uz
4. library.ziynet.uz

INSON SALOMATLIGI LEKSIKASI

Qiranova Sabrina Jurabek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yunalish 1-bosqich talabasi

alibekqironov807@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich .

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.(PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson salomatligi leksikasining shakllanishi, uning zamonaviy jamiyatdagi o'rni, tibbiy terminlar va ularning qo'llanilish xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Maqolada tilshunoslik nuqtai nazaridan salomatlik bilan bog'liq so'zlarning kelib chiqishi, semantik qamrovi hamda ularning tibbiy va ijtimoiy kontekstda ishlatilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada milliy va xalqaro terminologiya solishtiriladi va sog'lom turmush tarzini ifodalovchi leksik birliklar o'rganiladi shuningdek vatandoshlarimizni tibbiyotga qushgan hissalar haqida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Salomatlik, tibbiy leksika, sog'lom turmush tarzi, tilshunoslik, semantika, ijtimoiy sog'liq, terminologiya, anatomiya, fiziologik, geginiya.

Аннотация: В статье рассматривается лексикон человека, его роль в современном обществе, медицинские термины и их юридическое применение. В статье рассматриваются происхождение, семантический объем и результаты анализа слов, связанных со здоровьем, в медицинском и социальном контексте с точки зрения лингвистики. Представлена безопасная и интернациональная терминология, а также изучены лексические единицы, выражающие здоровый образ жизни.

Ключевые слова: Здоровье, медицинская лексика, здоровый образ жизни, лингвистика, семантика, социальное здоровье, терминология, анатомия, физиология, гегиния.

Abstract: This article discusses the formation of the lexicon of human health, its role in modern society, medical terms and their features of use. The article analyzes the origin of health-related words from the point of view of linguistics, their semantic scope and their use in medical and social contexts. The article also compares national

and international terminology and studies lexical units expressing a healthy lifestyle, as well as the contributions of our compatriots to medicine.

Keywords: Health, medical lexicon, healthy lifestyle, linguistics, semantics, social health, terminology, anatomy, physiology, hegyny.

Inson salomatligi har qanday jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Salomatlikka oid leksika esa faqatgina tibbiyot sohasi uchun emas, balki keng ijtimoiy kommunikatsiya uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki til orqali inson o'z sog'lig'i, kasalliklari va davolanish jarayonlari haqida axborot beradi. Shu sababli inson salomatligiga oid leksik birliklarni lingvistik tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Salomatlik bilan bog'liq so'zlar qadimdan mavjud bo'lib, ular xalq og'zaki ijodi, diniy matnlar va tibbiyot ilmining rivojlanishi bilan boyib kelgan. Masalan, "shifo", "dori", "tabib", "kasal" kabi so'zlar qadimiy ildizlarga ega. Zamonaviy davrda esa ingliz, rus va arab tillaridan kirib kelgan terminlar ham salomatlik leksikasini kengaytirdi.

Salomatlik leksikasini bir nechta guruhlariga ajratishimiz mumkin;

Organizim: yurak, miya, jigar, qon, suyak.

Kasalliklar; shamollash, gripp, diabet, saraton, infiksiya.

Davolash vositalari: dori, muolaja, vaksina, jarrohlik.

Shifokorlik kasblari: terapevt, jarroh, pediatr, stomatolog.

Sog'lom turmush tarzi: gigiyena, sport, yoga, fitnes, dietologiya.

Xalq tabobatida sog'liqni saqlash bilan bog'liq ko'plab qadimiy atamalar mavjud.

Masalan: damsolish, otashbosish, quyoshda qizdirish, hijoma, shuningdek, o'simlik nomlari ham shifo bilan bog'liq bo'lgan; rayhon, zanjabil, asal, qoqi.

So'ngi yillarda ingliz tilidan kirib kelgan atamalar ham qo'llanmoqda; "skaner", "test", "monitoring", "check up". Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti orqali "pandemiya", „karantin“, „immunitet“ kabi terminlar o'zbek tilida faol ishlatiladi. Ruhiy salomatlik-bugungi kunda ruhiy salomatlikka oid terminlar ham dolzarbdur. Masalan; stress depressiya, travma, terapiya, meditatsiya, psixoterapiya, relaksatsiya.

O'zbek xalq maqollari salomtlilikning qadimiy qadriyat ekanini ifodalaydi.

"sog' tanda-sog'lom aql."

"salomatlik-eng katta boylik."

"dard kelmasa, tabib qadrini bilmassan."

Tibbiy terminologiya o'zining aniq va qat'iy ma'nolari bilan boshqa soha leksikasidan farq qiladi. Har bir termin muayyan kasallik, dori vositasi yoki davolash usulini bildiradi. Masalan, "diabet", "gipertoniya", "pnevmoniya" so'zlari umumiy

tildan ko'ra ilmiy mazmunga ega. Shu bilan birga, xalq orasida qo'llaniladigan "qandli kasallik" kabi variantlari ham mavjud. So'nggi yillarda "sog'lom ovqatlanish", "sport bilan shug'ullanish", "psixologik salomatlik" kabi tushunchalar jamiyatda keng ommalashdi. Bu jarayon yangi so'z va iboralarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Masalan, "fitness", "detoks", "organik mahsulot" kabi so'zlar jahon tillaridan o'zbek tiliga kirib keldi. Salomatlik leksikasi faqat tibbiyotga oid emas, balki madaniyat, ijtimoiyot va siyosiy nutqda ham muhim o'rin tutadi. Sog'liqni saqlash tizimi, ekologiya, psixologik barqarorlik kabi mavzular salomatlik terminlari bilan chambarchas bog'liq. Inson salomatligi leksikasi jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol qo'llaniladigan boy va rang-barang qatlamdir. Uning o'rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki tibbiyot, sotsiologiya va madaniyatshunoslik uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Demak, salomatlik leksikasini chuqur o'rganish orqali jamiyatning sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini yanada yaxshiroq anglash mumkin. Salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun avvalo, odam o'z tanasining tuzilishi, har qaysi to'qima va organlarining normal faoliyatini, o'sish, rivojlanish va ko'payish qonuniyatlarini bilishi zarur. Shuningdek, barcha tirik mavjudotlar kabi, odamga ham xos bo'lgan bu biologik xususiyatlarni asrash va tobora takomillashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni mukammal bilish va yaratish talab etiladi. Odam organizmining tuzilishini anatomiya, uning faoliyatini fiziologiya, yashashi, normal o'sishi, rivojlanishi, o'qishi, mehnat qilishi uchun zarur sharoit yaratishni gigiyena fanlari asosida o'rganiladi. Odam organizmining barcha to'qima va organlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, organizm tevarak-atrof muhiti bilan ham doimiy aloqadadir. Bu ikkala bog'lanish nerv va endokrin sistemalar orqali boshqariladi. Salomatlik odam organizmining biologik, aqliy, ruhiy, jismoniy, holatlari va mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligidir. Sihat-salomatlik har bir odam uchun baxt-soadatdir.

Xulosa qilib aytganda, inson salomatligi leksikasi tilimizda boy va serqirra qatlamlardan biri bo'lib u jamiyat taraqqiyotini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning tahlili tilshunoslik fanida ham, tibbiy amaliyotda ham dolzarbdir. Inson salomatligi leksikasi o'zbek tilining muhim qatlamlaridan biri hisoblanadi. U xalq tabobati va qadimiy so'zlardan tortib zamonaviy ilmiy terminlargacha bo'lgan boy lug'aviy fondini qamrab oladi. Bu so'zlarning o'rganilishi nafaqat tilshunoslik uchun, balki sog'liqni saqlash tizmining rivojlanishida ham katta ahmiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva A. Tilshunoslik va terminologiya asoslari-Toshkent;fan,2018

2. Ismoilov A. Inson va salomatlik. - Toshkent; o'qituvchi, 2020
3. G'ulomov H. Tibbiyot terminologiyasi tarixi. - Toshkent; sharq, 2017
4. B. Aminov, T. Tilavov, O. Mavlonov, Odam va uning salomatligi, - Toshkent-2014.
5. MYMEDIC-Salomatlik va go'zalik sirlari.

ZAMONAVIY YOSHLAR NUTQIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI

Qo'chqarova Mashhura Azamat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

mashhura21.0907@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlarning nutqida uchraydigan asosiy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari yoritigan. Xususan, leksik kambag'allik, begona tillar aralashuvi, talaffuzdagi xatoliklar, nutq madaniyatiga befarqlik kabi muammolar tahlil qilinadi. Ushbu muammolarning shakllanishiga oilaviy va ijtimoiy muhit, kitobxonlikning sustligi, axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri kabi omillar sabab bo'layotgani ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, nutqni rivojlantirishda kitobxonlikni targ'ib etish, nutq madaniyati mashg'ulotlari, ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va milliy qadriyatlarni o'rganish muhim vosita sifatida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: yoshlar nutqi, nutq madaniyati, leksik muammo, adabiy til, talaffuz, kitobxonlik.

ABSTRACT

The article discusses the problems observed in the speech of young people, the main causes of these issues and possible ways to overcome them. In particular, problems such as lexical poverty, the influence of foreign languages, pronunciation errors, and indifference to speech culture are analyzed. The article emphasizes that factors such as family and social environment, lack of reading habits and the negative impact of information technologies contribute to these problems. Furthermore, it highlights the importance of promoting reading, organizing speech culture trainings, supporting creative activities and learning national values as effective tools for improving youth speech.

Keywords: youth speech, speech culture, lexical problem, pronunciation, reading habit, literary language.

АННОТАЦИЯ

So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati shundan iboratki, u til tizimida mustaqil ma'noga ega, shakl va mazmundan tashkil topgan, boshqa til birliklaridan farqli ravishda o'z-o'zidan ishlatiladigan asosiy leksik birlikdir.

So'z tilning eng asosiy, eng kichik va eng mustaqil ma'no ifodalovchi birlikdir. Uning shakli o'zgarishi mumkin, ammo leksik birlik sifatidagi o'rni va vazifasi doimiy.

So'z — tilning eng kichik mustaqil leksik birligi bo'lib, u o'zida aniq ma'no va shaklni jamlagan. So'z orqali narsa, harakat, sifat, holat yoki tushunchalar ifodalanadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, so'z o'z-o'zidan ishlatilganda ham ma'no beradi va til tizimidagi boshqa birliklardan farq qiladi. So'zning leksik birlik sifatidagi vazifasi — tilda fikr almashish, ma'lumot yetkazish va muloqot qilish uchun asosiy vosita bo'lishdir. So'z shakl va mazmundan tashkil topgan bo'lib, uning shakli o'zgarishi mumkin, ammo leksik birlik sifatidagi o'rni saqlanadi. Shunday qilib, so'z — tilning lug'at boyligini tashkil etuvchi, mustaqil ma'noga ega bo'lgan va nutqda asosiy kommunikativ vazifani bajaradigan asosiy birlikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov, G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Azizov, O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
3. Bally, Ch. Obshchaya lingvistika va til nazariyasi. Moskva: Progress, 1961.
4. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press, 1965.
5. Saussure, F. de. Umumiy tilshunoslik kursi. Toshkent: Fan, 1985.
6. Shcherba, L.V. Yazykovaya sistema i rechevaya deyatel'nost'. Leningrad: Nauka, 1974.
7. Vinogradov, V.V. Russkiy yazyk (Grammaticheskoe uchenie o slove). Moskva: Nauka, 1972.
8. Vygotsky, L.S. Mysl' i yazyk. Moskva: Pedagogika, 1982.
9. Yusupov, O. Leksikologiya asoslari. Toshkent: Fan, 2001.
10. Ziyodova, M. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA NORMATIVLIK VA VARIANTLILIK

Raxmatullayeva Yasmina

CHDPU o'zbek tili va adabiyoti

yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Firuza Murodova

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilining normativlik va variantlilik muammolari tahlil qilinadi. Adabiy til me'yorlari va variantlarning o'zaro munosabati, ijtimoiy-madaniy omillar ta'siri, hamda so'nggi yillarda kuzatilayotgan tilshunoslikdagi o'zgarishlar misolida ushbu muammo yoritiladi. Normativlikning saqlanishi tilning barqarorligi va yagona kommunikatsiya vositasi sifatida xizmat qilishini ta'minlasa, variantlilik tilning rivojlanishi va moslashuvchanligini ifodalaydi. Maqolada ushbu ikki omil o'rtasidagi muvozanat masalasi, O'zbekiston Respublikasi til siyosati va amaliy tilshunoslik tajribalari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *O'zbek adabiy tili, normativlik, variantlilik, til siyosati, til me'yorlari, lingvistik muvozanat*

ANNOTATION: This article analyzes the issues of normativity and variation in the modern Uzbek literary language. It discusses the relationship between literary norms and language variants, the influence of socio-cultural factors, and recent changes in linguistic trends. While normativity ensures language stability and a unified means of communication, variation reflects adaptability and development. The article examines the balance between these two aspects, drawing on Uzbekistan's language policy and applied linguistic practices.

Keywords: *Uzbek literary language, normativity, variation, language policy, linguistic norms, linguistic balance*

Til — xalq ma'naviyatining, madaniyatining va milliy o'zligining asosiy ramzidir. Har bir adabiy tilda me'yorlar tizimi shakllanadi va bu me'yorlar tilning yozma va og'zaki shakllarida yagona muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, har qanday tirik til, ayniqsa o'zbek adabiy tili, doimo o'zgaruvchan va variantlarga boy bo'ladi.

Hozirgi davrda globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida tilimizda yangi shakl va uslublar paydo bo'lmoqda. Bunday jarayonlar til me'yorlari va variantlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash muammosini keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada aynan shu masala — o'zbek adabiy tilida normativlik va variantlilik muammosi tahlil qilinadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida normativlik va variantlilik muammolari:

1. Normativlik tushunchasi va uning adabiy til uchun ahamiyati

Normativlik — bu adabiy til me'yorlarini belgilash va unga amal qilish demakdir. Tilning grammatikasi, imlo qoidalari, uslubiy normalari va talaffuz tizimi normativlikni tashkil etadi. Normativ adabiy til nafaqat rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimida, balki jamiyatda yagona muloqot vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi.

Misol: So'zlarning imloviy normasi: ko'p hollarda "yozuvchilar" so'zi to'g'ri yoziladi, lekin ijtimoiy tarmoqlarda "yozuqchilar", "yozvchilar" kabi variantlar uchraydi — bu normativlikdan chekinishdir.

Gap tuzilishi: "Men maktabga bordim" — bu me'yordagi ifoda, ammo "Maktabga men bordim" — variant sifatida mavjud bo'lsa-da, adabiy tilda kam qo'llanadi yoki stilistik jihatdan boshqacha ma'no kasb etadi.

2. Variantlilik va uning tabiiyligi

Variantlilik — bu til tizimidagi ma'lum birliklarning (so'zlar, talaffuz, grammatik shakllar, uslubiy vositalar) bir nechta shaklda mavjud bo'lishidir. Har qanday tirik tilda bu hodisa tabiiy hisoblanadi. Chunki til turli ijtimoiy qatlamlar, hududlar, avlodlar va kasbiy guruhlar tomonidan turlicha qo'llaniladi.

Misollar:

Leksema darajasidagi variantlar:

yoqadi / maqul keladi,

telefon qilmoq / qo'ng'iroq qilmoq,

ishga borayapman / ishga ketayapman — bu variantlarning har biri adabiy tilga ma'lum sharoitda xosdir, lekin ba'zilar uslubiy cheklovga ega.

3. Fonetik variantlar:

Toshkent shevasida "bu yoqqa kel" o'rniga "bu yoqqa kel-ey" kabi variantlar ishlatiladi.

Adabiy tilda esa bu variant uslubiy vosita sifatida faqat badiiy matnda ishlatiladi.

4. Morfologik variantlar:

borayapman / boryapman / borvomman — soʻz shakllaridagi farq koʻproq soʻzlashuvtiliga xos boʻlsa-da, bu ham variantlilik ifodasidir.

Normativlik va variantlilik oʻrtasidagi muvozanat

Zamonaviy tilshunoslikda asosiy masalalardan biri — normativlik va variantlilik oʻrtasidagi muvozanatni saqlashdir. Til meʼyorlarini haddan ortiq qatʼiylashtirish tilning rivojlanishini cheklaydi, lekin meʼyorsizlik ham rasmiy aloqa va madaniy birlikni buzadi.

Masalan:

Rasmiy hujjatlarda faqat normativ shakllar ishlatilishi lozim:

“Fuqarolik pasportini olish uchun ariza topshirildi.”

Ammo norasmiy muloqotda esa quyidagicha boʻlishi mumkin:

“Pasportga ariza topshirdim.”

Matbuot tili, ayniqsa internet jurnalistikasi, koʻplab variantlarga ochiq. Masalan:

“blogger”, “blog yurituvchi”, “kontent yaratuvchi” — bularning har biri ayrim holatlarda ishlatilmoqda, lekin normativlik darajasida bir xillik yoʻq.

5. Globalizatsiya va yangi variantlar

Global omillar, jumladan, internet madaniyati, texnologik taraqqiyot, boshqa tillarning (asosan rus va ingliz tillarining) taʼsiri sababli oʻzbek tilida yangi variantlar paydo boʻlmoqda. Bu holatbaʼzida normativlikni buzsa-da, til rivojlanishining ajralmas bir qismidir.

Misollar:

Ingliz tilidan oʻzlashgan soʻzlar:

“like qildim”, “storiga qoʻydim”, “zoomga kirdim” — bu soʻzlar hozircha normativ emas, lekin tez-tez ishlatilayotgani sababli ehtimol kelajakda til meʼyoriga kirib borishi mumkin.

Emojilar, qisqartmalar va shevalar orqali paydo boʻlgan variantlar:

“ha” oʻrniga “xa”, “yoʻq” oʻrniga “yuq” — ayniqsa yoshlar tilida keng tarqalgan.

Xulosa oʻrnida

Oʻzbek adabiy tilida normativlik va variantlilik bir-birini inkor etuvchi hodisalar emas, balki bir-birini toʻldiruvchi, til rivojlanishini taʼminlovchi omillardir. Muhimi — ularning qaysi soha vavaziyatda qanday ishlatilishini toʻgʻri ajrata bilishdir. Til siyosati, taʼlim tizimi va ommaviy axborot vositalari bu muvozanatni saqlashda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Joʻraev, N. (2008). Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent: Fan nashriyoti.

2. Qodirov, A. (2011). Til madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
3. Mamatov, Sh. (2015). O'zbek tilining uslubiy boyligi. Toshkent: Muharrir.
4. Suyunov, N. (2020). "Adabiy til normasi va so'z variantlari o'rtasidagi nisbat". // Filologiya masalalari, №1, 45–50-betlar.
5. Normurodov, A. (2017). "Til variantlari va ularning ijtimoiy funksiyalari". // O'zbek tili va adabiyoti, №4, 33–39-betlar.
6. Usmonov, M. (2002). Adabiy til va uning funksional uslublari. Toshkent: O'qituvchi.
7. Karimov, U. (2019). "Variantlik hodisasining lingvistik mohiyati". // Til va adabiyot ta'limi, №2, 28–35-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. (2006). O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildlik). Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA ESKIRISH VA YANGILANISH JARAYONLARI

Raxmonova Nozima

CHDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili leksikasining zamonaviy taraqqiyotidagi eskirish va yangilanish hodisalari tahlil qilinadi. Leksik qatlamdagi o'zgarishlar ijtimoiy, siyosiy, madaniy va texnologik omillar bilan bog'liq holda izohlanadi. Yangi so'zlarning paydo bo'lish sabablari, eskirgan so'zlarning faol muomaladan chiqish jarayonlari hamda til boyligining tabiiy rivojlanish dinamikasi ochib beriladi. Maqolada zamonaviy o'zbek tilida faoliyat yuritayotgan OAV, internet va texnologik platformalarning yangi leksik birliklarni shakllantirishdagi o'rnini ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: leksikologiya, eskirgan so'zlar, neologizm, leksik o'zgarish, zamonaviy til, til taraqqiyoti, so'z yasalihi

Аннотация: В данной статье анализируются явления устаревания и обновления в современном развитии лексики узбекского языка. Изменения в лексическом слое объясняются в связи с социальными, политическими, культурными и технологическими факторами. Раскрываются причины появления новых слов, процессы выхода устаревших слов из активного употребления, а также динамика естественного развития языкового богатства. В статье также освещается роль современных СМИ, интернета и технологических платформ в формировании новых лексических единиц в современном узбекском языке.

Ключевые слова: лексикология, устаревшие слова, неологизм, лексические изменения, современный язык, развитие языка, словообразование.

Annotation: This article analyzes the phenomena of obsolescence and renewal in the modern development of Uzbek language vocabulary. Changes in the lexical layer are explained in connection with social, political, cultural, and technological factors. The article explores the reasons for the emergence of new words, the processes through which obsolete words fall out of active use, and the natural dynamics of language enrichment. It also highlights the role of modern media, the internet, and technological platforms in shaping new lexical units in contemporary Uzbek.

Keywords: lexicology, obsolete words, neologism, lexical change, modern language, language development, word formation.

Kirish

Har qanday tirik til doimo harakatda, rivojlanishda bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan u yangi so'zlar bilan boyiydi, eskirganlarini esa asta-sekin yo'qota boradi. O'zbek tili ham bunday tabiiy leksik jarayonlardan mustasno emas. Til leksikasidagi yangilanish va eskirish jarayonlari o'zgarayotgan ijtimoiy hayot, texnologik taraqqiyot, madaniyatlararo aloqalar va global kommunikatsiya vositalarining ta'siri bilan shakllanadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, siyosiy islohotlar va madaniy yangilanishlar tilimiz leksikasiga faol ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu jarayonda yangi tushunchalarni ifodalovchi so'zlar — neologizmlar kirib keladi, ayrim qadimiy yoki faol muomalada bo'lmagan so'zlar esa iste'moldan chiqib boradi. Bu hodisa tilning qadriyat sifatida saqlanishi va zamon bilan hamqadam bo'lishi o'rtasidagi tabiiy muvozanatni ifodalaydi. Mazkur maqolada aynan mana shu muvozanat, leksik eskirish va yangilanish mexanizmlari, ularning sabablari va oqibatlari haqida so'z yuritiladi.

O'zbek tili leksikasi tarixan boy va murakkab tizimga ega bo'lib, u o'z ichiga qadimiy turkiy ildizli so'zlar, arabcha va forsha o'zlashmalar, sovet davri ruscha terminlari hamda mustaqillikdan keyingi davr neologizmlarini oladi. Bu leksik qatlamlar o'zaro almashib, ba'zida yangilanish, ba'zida esa eskirish yo'li bilan tilning hozirgi zamon holatini belgilab beradi.

Eskirish jarayoni. Til leksikasida eskirish ikki xil shaklda kechadi: tarixiy so'zlar (faqat tarixiy kontekstda qo'llanadigan, hozirgi hayotda mavjud bo'lmagan narsalarni ifodalaydigan so'zlar) va faol muomaladan chiqqan, unutilayotgan so'zlar. Masalan, "zarduzi", "beklarbegi", "sipiho", "qushbegi" kabi so'zlar bugun faqat tarixiy asarlar yoki etnografik matnlarda uchraydi. Shu bilan birga, XX asr o'rtalarida faol ishlatilgan "mashinkada yozmoq", "telegraflamoq" kabi so'zlar ham bugungi avlod uchun tushunarsiz yoki kontekstsiz ko'rinadi. Bugungi global axborot muhitida O'zbekistonda olib borilayotgan til siyosati leksik yangilanishlar va eskirish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, davlat tilining maqomini mustahkamlash, uni barcha sohalarda keng qo'llash, terminologiyani milliy asosda rivojlantirishga qaratilgan qonunlar va qarorlar natijasida so'z boyligini izchil me'yorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu esa yangi

paydo bo'layotgan termin va atamalarning tartibli muomalaga kirib borishini ta'minlaydi.

Globalizatsiya va til aralashuvi holatlari ham leksik yangilanishga kuchli turtki bo'lmoqda. Ingliz tilining xalqaro mavqei sababli O'zbek tiliga xorijiy so'zlar, ayniqsa inglizcha terminlar faol o'zlashmoqda. Bunga "startap", "marketpleys", "kontent", "layk", "storilar", "freelans", "onlayn platforma" kabi atamalar misol bo'la oladi. Ayni paytda, bu so'zlarning muqobillarini yaratish, ularni jamiyatga singdirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Shu maqsadda terminologiya komissiyalari faoliyat olib bormoqda, ammo baribir xalq tilga qanday so'zlarni qabul qilsa, o'sha faol muomalaga kiradi.

Yangilanish jarayoni. Yangi so'zlar paydo bo'lishining asosiy yo'llari – semantik kengayish, metaforik ma'no ko'chishi, so'z yasash, boshqa tillardan o'zlashish, qisqartmalar hosil qilishdir. So'nggi yillarda tilga kirib kelgan "onlayn", "vebinar", "ilova", "bot", "taymlayn", "skrinshot" kabi so'zlar texnologik rivojlanish bilan bog'liq. Ular ko'p hollarda o'zbekcha muqobiliga ega emas yoki o'zlashish jarayonida oddiylashib ketadi.

O'zbek tilidagi yangilanish ko'pincha ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Masalan, mustaqillik yillarida "davlat ramzi", "mustaqillik", "bozor iqtisodiyoti", "fuqarolik jamiyati", "ijtimoiy tarmoqlar" kabi yangi tushunchalarni ifodalovchi terminlar kirib keldi va leksik tizimning ajralmas qismiga aylandi.

Yana bir muhim jihat — yangi leksik birliklarning avlodlararo farqlar asosida o'zlashuvi. Yoshlar orasida ingliz tilidan o'zlashgan zamonaviy internet atamalari, shuningdek, qisqartmalar (masalan, "FAQ", "app", "link", "DM") faol ishlatilmoqda. Bunday leksik birliklar ba'zan kattaroq avlod uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin, bu esa til ichida submadaniyatga xos leksik tafovutlar shakllanishiga olib kelmoqda.

Tilimizda kuzatilayotgan yana bir tendensiya bu normativ til bilan ommaviy til o'rtasidagi tafovutdir. Rasmiy yozma til yangi so'zlarni ehtiyotkorlik bilan qabul qilsa, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, ommaviy axborot vositalari ularni tezroq va faolroq muomalaga kiritadi. Bu holat leksik yangilanishni tezlashtiradi, biroq barqaror normani shakllantirishda muammolarni yuzaga keltiradi. Til leksikasining yangilanishida madaniy tendensiyalar va zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalari ham muhim rol o'ynaydi. Televideniye, kino, bloggerlik, reklama, ijtimoiy tarmoqlar orqali tilga kirib kelayotgan yangi ifodalar tez orada ommalashib, hatto yozma nutq uslublariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, "kontent yaratmoq", "trendga chiqmoq", "viral

bo'lish", "aksh mo'ljallamoq" kabi iboralar nafaqat yoshlar orasida, balki ommaviy matbuotda ham uchraydi.

Boshqa tomondan, tilni tozalash va milliy qadriyatlar asosida leksikani rivojlantirish zarurati ham doimiy muhokama mavzusiga aylanmoqda. Bu yerda ikki muhim yondashuv to'qnash keladi: zamon bilan hamqadam bo'lish va o'zlikni asrash. Eskirayotgan leksik birliklar, shevaga xos so'zlar, tarixiy leksik qatlam faqat adabiyot va ilmda emas, balki zamonaviy til vositachilari tomonidan ham ehtiyotkorlik bilan tiklanishi lozim.

Xulosa

O'zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayonlari tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan. Bu hodisalar tilni zamonga moslashtirib, uni tirik va faol muloqot vositasi sifatida saqlab qoladi. Eskirgan so'zlar til tarixining guvohi sifatida qadrlansa, yangi so'zlar tilning imkoniyatlarini kengaytiradi. Maqolada ko'rib chiqilganidek, raqamli texnologiyalar, madaniy almashuvlar, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar leksik o'zgarishlarning asosiy manbai hisoblanadi. Kelgusida bu jarayonni tartibga solish, yangi so'zlarni me'yorlashtirish va eskirayotgan til boyliklarini ilmiy asosda o'rganish til taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boqoyev B. — O'zbek tilining zamonaviy leksikasi. Toshkent, 2021
2. Karimov E. — Til va jamiyat: o'zgarishlar dinamikasi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. Fan nashriyoti, 2006
4. Qilichev A., Mo'minov M. — Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. 2022
5. Raqamli til muhitida leksik o'zgarishlar // "Filologiya masalalari" jurnali, 2023
6. Davletov Sh. — Neologizm va ularning ijtimoiy psixologik asoslari. Toshkent, 2019

O'ZBEK ADABIY TILIDA LEKSIK TARAQQIYOT VA YANGI SO'ZLAR

Reimboyeva Dinora Qudratovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Reimboyeva Dinora Qudratovna

dinarareimboyeva72@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O'zbek adabiy tilida leksik taraqqiyot va yangi so'zlar” mavzusi yoritilgan. Unda til leksikasining ichki va tashqi taraqqiyot yo'llari, yangi so'zlarning yaratilishi va boshqa tillardan kirib kelishi masalalari tahlil etilgan. Mustaqillik davrida milliy qadriyat, davlat boshqaruvi, ilm-fan va texnologiyaga oid ko'plab yangi tushunchalar va atamalar yuzaga kelgani ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: til, neologizmlar, til taraqqiyoti, texnologiyalar, chet tillari.

Abstract. This article covers the topic “Lexical development and new words in the Uzbek literary language”. It analyzes the internal and external development of the language lexicon, the creation of new words and their introduction from other languages. It shows that during the period of independence, many new concepts and terms related to national values, state administration, science and technology emerged.

Keywords: language, neologisms, language development, technologies, foreign languages.

Аннотация. Статья посвящена теме «Лексическое развитие и новые слова в узбекском литературном языке». В ней анализируется внутреннее и внешнее развитие лексики языка, создание новых слов и их заимствование из других языков. Показано, что в период независимости появилось множество новых понятий и терминов, связанных с национальными ценностями, государственным управлением, наукой и техникой.

Ключевые слова: язык, неологизмы, развитие языка, технологии, иностранные языки.

Til — insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisasidir. Har bir millat o'z tiliga tayanib yashaydi, o'zligini anglaydi va taraqqiyot yo'lida ilgarilaydi. Tilning qudrati, avvalo, uning so'z boyligida, ya'ni leksikasida yaqqol ko'rinadi. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnika rivoji, siyosiy va madaniy jarayonlar o'z ta'sirini til leksikasida ham namoyon qiladi. Har qanday yangi tushuncha, yangilik yoki ijtimoiy hodisa tilda albatta o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan, tilning leksik qatlamini o'rganish uning

nafaqat hozirgi holatini, balki tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ham anglash imkonini beradi. O'zbek tili uzoq tarixga ega bo'lib, u doimiy ravishda leksik jihatdan boyib borgan. Qadimiy davrlarda arab, fors-tojik tillari orqali diniy, adabiy va ilmiy so'zlar kirib kelgan bo'lsa, keyingi davrlarda rus tilidan ko'plab texnik va siyosiy terminlar o'zlashdi. Mustaqillikdan keyin esa yangi davr boshlandi: milliy o'zlik, tarixiy qadriyat va davlat boshqaruviga oid yangi atamalar shakllandi, ingliz tilidan esa ko'plab ilmiy va texnologik so'zlar kirib keldi. Bugungi globallashuv davrida o'zbek tilining leksik boyishi yanada tezlashmoqda. Bu, bir tomondan, tilning zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvchanligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, milliy qiyofani saqlash va yangi tushunchalarga o'zbekcha muqobillar yaratish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Shu sababli o'zbek adabiy tilida leksik taraqqiyot va yangi so'zlar masalasini ilmiy jihatdan o'rganish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Tilning leksik boyligi doimiy harakatda bo'lib, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni bevosita aks ettiradi. O'zbek tilida ham yangi so'zlar yuzaga kelishi, eskilarining iste'moldan chiqishi yoki yangi ma'no kasb etishi tabiiy jarayondir. Leksik taraqqiyotning ikki asosiy yo'li mavjud:

1. Ichki taraqqiyot
2. Tashqi taraqqiyot

Ichki taraqqiyot bu tilimizda mavjud bo'lgan so'zlarning yangi ma'no yoki yangi shakl hosil qilishi bo'lsa, tashqi taraqqiyot boshqa tillardan yangi so'zlarning kirib kelishi hisoblanadi. O'zbek tilida yangi so'zlar bir necha usul orqali paydo bo'ladi:

1. So'z yasash yo'li bilan
2. So'z birikmalari orqali
3. Qisqartmalar orqali
4. Semantik taraqqiyot orqali

So'z yasash yo'lida so'z yasovchi qo'shimchalar orqali yangi so'zlar yasaladi. Masalan, dastur+chi, yordam+chi kabi. So'z birikmalari orqali ham tilda yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Masalan, yo'l harakati xavfsizligi, axborot texnologiyalari, huquqiy davlat kabi. Qisqartmalar ham til boyligini oshiradi. Buni OAV (ommaviy axborot vositalari), BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti), OTM (oliy ta'lim muassasasi) qisqartmalari misolida ko'rsak bo'ladi. Semantik taraqqiyot orqali ham til yanada boyiydi. Masalan, sichqoncha so'zi "jonivor" ma'nosidan tashqari hozirgi kunda "kompyuter qurilmasi" ma'nosida ham ishlatilmoqda. Mustaqillik yillarida o'zbek jamiyati siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan tub o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu esa tilning leksik boyligida ham aks etdi. Mustaqillik davridan boshlab

tilimizga kirib kelgan siyosiy so'zlarga mustaqillik, istiqloq, huquq, inson huquqlari, demokratiya, jamiyat kabi so'zlarni kiritishimiz mumkin. Ma'naviy hayotga oid yangi tushunchalarga esa ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, milliy g'oya, komil inson kabilar misol bo'la oladi. Fan-texnika va texnologiyalar taraqqiyoti albatta yangi terminlar neologizmlarni vujudga keltiradi. O'zbekistonda ham texnologiyalar jadal rivojlanmoqda va buning soyasida o'zbek tilimizga yangi-yangi tushunchalar qo'shilmoqda. Masalan, axborot texnologiyalari sohasida: kompyuter, internet, sayt, chat, fayl, dastur, onlayn, oflayn. Iqtisodiyot va biznes sohasida: marketing, menejment, brend, reklama, moliya, audit. Texnika sohasida: printer, skaner, server, kseroks.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek adabiy tilida leksik taraqqiyot — tilning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy jarayondir. Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnik o'zgarishlar bevosita so'z boyligida aks etadi. Mustaqillik davrida milliy qadriyat va tarixiy merosga oid yangi tushunchalar yuzaga kelishi bilan bir qatorda, ingliz tilidan kirib kelayotgan texnologik va ilmiy atamalar tilimizni sezilarli darajada boyitdi. Shu bilan birga, eskirayotgan so'zlarning til tizimidan chiqib borishi va faqat adabiy manbalarda qo'llanishi ham tabiiy hodisadir. Leksik taraqqiyotning eng muhim vazifasi — boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni adabiy me'yorlarga moslashtirish va imkon qadar ularga o'zbekcha muqobillar yaratishdir. Bu jarayon, bir tomondan, tilning zamonaviy ehtiyojlarga javob berishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, uning milliy qiyofasini asrab qoladi. Shu bois, hozirgi davrda tilshunos olimlar, mutaxassislar va keng jamoatchilikning vazifasi — yangi tushunchalarni milliy til asosida shakllantirish, mavjud so'zlarni to'g'ri qo'llash va yosh avlodni adabiy til me'yorlariga amal qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Faqat shunda o'zbek tili boy va serqirra leksik qatlamga ega bo'lgan, zamon bilan hamnafas adabiy til sifatida yashashda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayev, M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
2. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Rasulov, R. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
4. Shodmonov, Q., Madrahimova, Z. Leksikologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

5. Qodirov, A. O'zbek tili leksikasi taraqqiyoti masalalari. – Toshkent: Universitet, 2018.
6. Hojiyev, A. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
7. Sobirova, N. O'zbek tilida yangi so'zlar va terminologiya muammolari. – Toshkent: Fan, 2020.
8. Xudoyberganova, D. Til va jamiyat munosabati. – Toshkent: Universitet, 2017.

CHEVARCHILIKKA OID LEKSIKA

Rustamova Guli

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi

alirustamov6359@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d., Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada chevarchilik san'ati va tikuvchilik leksikasining insoniyat tarixida, xususan o'zbek xalqining madaniy hayotida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Libos yaratish san'ati dastlab amaliy ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan xalqning estetik didi, ijtimoiy mavqei va milliy o'zligini ifodalovchi vositaga aylangan. Maqolada tikuvchilikka oid qadimiy terminlar, tarixiy manbalarda uchraydigan atamalar, ularning ma'no qatlami hamda xalq og'zaki ijodi va adabiyotda chevarlikning badiiy talqini keng yoritilgan. Ayniqsa, qadimiy asboblari — angishvona, igna va rishtaning tilimizdagi o'rni, ramziy ma'nosi va madaniy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, xalq maqollari, doston va adabiy asarlarda chevarlik timsolining estetik va ma'naviy qimmatiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: angishvona, igna, rishta, mato, atlas, adras, beqasam, naqsh, ip-rishtak, qaychi-qirg'ish, tugma, kimxob, chevar.

Abstract: This article discusses the role of sewing art and tailoring vocabulary in human history, particularly in the cultural life of the Uzbek people. The art of creating clothing first appeared as a practical necessity but gradually became a means of expressing aesthetic taste, social status, and national identity. The article highlights ancient tailoring terms, expressions found in historical sources, their semantic layers, as well as the artistic interpretation of sewing in folklore and literature. Special attention is given to traditional tools such as the thimble, needle, and thread, emphasizing their linguistic, symbolic, and cultural significance. In addition, the article underscores the aesthetic and spiritual value of sewing imagery in folk proverbs, epics, and literary works.

Key words: thimble, needle, thread, fabric, atlas silk, adras fabric, beqasam fabric, pattern, threading, scissors, button, brocade, seamstress.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль швейного искусства и лексики шитья в истории человечества, в частности в культурной жизни

узбекского народа. Искусство создания одежды первоначально возникло как практическая необходимость, но со временем превратилось в средство выражения эстетического вкуса, социального статуса и национальной самобытности. В статье подробно освещены древние швейные термины, выражения, встречающиеся в исторических источниках, их смысловые слои, а также художественная интерпретация шитья в фольклоре и литературе. Особое внимание уделено традиционным инструментам — наперстку, игле и нити, их языковому, символическому и культурному значению. Кроме того, подчеркивается эстетическая и духовная ценность образов шитья в народных пословицах, эпосах и литературных произведениях.

Ключевое слово: наперсток, игла, нить, ткань, атлас, адас, бекасам, узор, нитевое плетение, ножницы, пуговица, парча, швея.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaganda, kiyim-kechak tikish va libos yaratish inson hayotining ajralmas qismiga aylanganini ko'ramiz. Dastlab bu hunar sovuqdan himoyalani, tana ehtiyojini qondirish uchun zarur amaliy faoliyat bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan libos insonning ichki dunyosini, estetik didini va milliy o'zligini ifodalovchi badiiy vositaga aylandi. Chevarchilik san'ati nafaqat kiyim tikish bilan chegaralanmagan — u xalqning tarixiy xotirasi, madaniy boyligi va hayot tarzi bilan chambarchas bog'langan holda rivoj topgan. Xuddi shunday, o'zbek xalqida ham chevarchilik asrlar davomida shakllanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan bebaho ma'naviy meros sifatida bugungi kunga qadar o'z qadrini yo'qotmagan. Tikuvchilikka oid leksika esa tilimizning eng qadimiy, eng boy qatlamlaridan birini tashkil etadi. Bu so'zlar — oddiy terminlar emas, balki xalqning kundalik hayoti, dunyoqarashi, urf-odati, didi va ijtimoiy hayotining jonli ko'zgusidir. Ular orqali bir xalqning necha asrlik madaniy qatlamini, hunarmandchilik an'alarini va estetik tamoyillarini ko'rish mumkin. Tarixiy manbalarda, jumladan, Chig'atoy ulusi davrida "ip-rishtak", "qaychi-qirg'ish", "mato-kimxob", "beqasam", "tugma-tughma", "naqsh-islmiy", "chevar-dorug'chi" kabi ko'plab terminlar uchraydi. Bu atamalar nafaqat amaliy tikuvchilik jarayonini ifodalagan, balki kasb-hunar taqsimoti, savdo-sotiq tizimi, davlat xo'jalik tuzilmasida ham muhim o'rin egallagan. Bu leksika tildagi texnik birliklardan chiqib, milliy madaniyatga chuqur singib ketgan va xalqning umumiy tarixiy ongida mustahkam joy olgan. Tikuvchilikning eng qadimiy va zarur asboblaridan biri — angishvona. U igna sanchilishidan himoya qilish uchun mo'ljallangan oddiy ko'rinishdagi asbob bo'lsa-da, chevarlik san'atida beqiyos ahamiyatga ega. "Angishvona" so'zining o'zi "angi" — barmoq uchi va "shvona" — qoplama

soʻzlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan. Bu til birligi tikuvchilik tarixining naqadar uzoqqa borib taqalishini yaqqol koʻrsatadi. Chevarchilik nafaqat amaliy faoliyat, balki xalq ogʻzaki ijodida, dostonlarda, maqollarda, tarixiy asarlarda ham oʻz aksini topgan. Masalan, Alpomish dostonida Barchinoy obrazi mohir chevar sifatida tasvirlanadi:

“Qizlar bilan oʻtirub, rishtak oʻrar, igne tutib, oʻz qoʻli bilan tikar.”

Bu satrlar chevarlikning faqat kasb emas, balki ayollarning sabr-toqati, nafisligi, badiiy didi va ijtimoiy mavqeini koʻrsatadigan timsolga aylanganini koʻrsatadi. Usta chevar boʻlish — bu mehnat, did, mahorat va sanʼat uygʻunligini anglatadi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham oʻz asarlarida tikuvchilik timsollaridan mahorat bilan foydalangan. U sevgi, izzat va koʻngil kechinmalarini tasvirlashda igna va rishtak obrazlarini ramziy maʼnoda qoʻllaydi:

“Koʻngul rishtasini igne dard bila tikar,
Jodu nigor oʻqidin yorur jigar.”

Bu misralarda tikuvchilikka oid terminlar oddiy asbob sifatida emas, balki ruhiy holat, muhabbat va inson qalbining nozik kechinmalarini ifodalovchi kuchli badiiy obraz sifatida talqin etiladi. Xalq maqollari ham chevarlik sanʼatining jamiyatdagi yuksak oʻrnini koʻrsatadi:

“Qoʻli gul chevarlar el koʻnglin ziynatlar.”

“Usta qoʻlidan chiqqan tikuv, yuz yilga bardavom.”

Bu maqollar asrlar davomida chevarlikning oddiy hunar emas, balki sanʼat darajasida qadrlanganini, usta chevarlarning jamiyatda obroʻ-eʼtiborga ega boʻlganini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, chevarchilik sanʼati va tikuvchilikka oid leksika xalqning koʻp asrlik madaniyati, urf-odatlar va hayot tarzining ajralmas qismidir. Bu atamalar oddiy texnik tushunchalar boʻlib qolmay, xalqning ruhiy olamini, estetik qarashlarini va tarixiy xotirasini oʻzida mujassam etgan. Ular xalq ogʻzaki ijodida, adabiy asarlarda, dostonlarda va maqollarda oʻzining yorqin badiiy ifodasini topgan. Tikuvchilikka oid terminlarning tilimizda saqlanib qolishi esa milliy madaniyatimizning boyligi va barqarorligini koʻrsatadi. Bugungi kunda ham bu qadimiy soʻzlar va tushunchalar zamonaviy moda va dizayn bilan uygʻunlashib, oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Shunday ekan, chevarlik leksikasini oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy yoʻnalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. — Toshkent: "O'zbekiston milliyensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
2. O'zbek tili leksikologiyasi / M. Qodirov, N. Mamatov. — Toshkent: O'zbekiston, 2015.
3. O'zbek xalq og'zaki ijodi / M. Mirzayev tahriri ostida. — Toshkent: Fan, 1990.
4. Hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati tarixi / A. Karimov. — Toshkent: Sharq, 2012.
5. O'zbek xalqining milliy liboslari / Sh. G'aniyeva. — Toshkent: San'at, 2018.
6. Alpomish (xalq dostoni). — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2005.
7. Alisher Navoiy. Xamsa. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot

OZIQ-OVQAT MAHSULATLARINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Xushmurodova Marhabo Sur'at qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich talabasi

xushmurodovamarhabo@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini ifodalovchi leksik birliklarning umumiy xususiyatlari va tasnifi yoritilgan. Don va un mahsulotlari, sabzavot-mevalar, go'sht va sut mahsulotlari, ichimliklar hamda milliy taom nomlari alohida guruh sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu birliklarning xalq turmush tarzi, milliy qadriyatlari va an'analar bilan bog'liqligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat, leksik birlik, don mahsulotlari, sabzavot-mevalar, milliy taomlar.

Annotation. This article highlights the general features and classification of lexical units denoting food products. Grain and flour products, fruits and vegetables, meat and dairy products, beverages, as well as names of national dishes are considered as separate groups. Moreover, the connection of these lexical units with people's lifestyle, national values, and traditions is analyzed.

Keywords: food, lexical unit, grain products, fruits and vegetables, national dishes.

Аннотация. В данной статье освещаются общие особенности и классификация лексических единиц, обозначающих продукты питания. Зерновые и мучные изделия, овощи и фрукты, мясо-молочные продукты, напитки, а также названия национальных блюд рассматриваются как отдельные группы. Кроме того, анализируется связь этих лексических единиц с образом жизни народа, национальными ценностями и традициями.

Ключевые слова: продукты питания, лексическая единица, зерновые изделия, овощи и фрукты, национальные блюда.

.Har bir xalqning tili uning kundalik hayoti, turmush tarzi va urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Inson hayotida oziq-ovqat mahsulotlari alohida o'rin tutadi. Shu sababli, tilimizda ham bu mahsulotlarni ifodalovchi ko'plab so'z va

atamalar mavjud. Ularning ayrimlari 451araj zamonlardan buyon qo'llanib kelayotgan bo'lsa, boshqalari esa zamon, madaniyat va texnologiya taraqqiyoti bilan birga kirib kelgan. Masalan, non, guruch, go'sht, sut, qatiq kabi so'zlar asrlar davomida ishlatilgan bo'lsa, "shokolad", "kofe", "pitsa" kabi so'zlar nisbatan keyinchalik lug'atimizga qo'shilgan. Shuningdek, milliy taomlar nomi ham xalqning tarixiy tajribasini, yashash sharoitini va milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Tilimizdagi oziq-ovqat leksikasi nafaqat mahsulotlarning nomlarini, balki xalqning turmush tarzini ham ifodalaydi. Shu bois, bu so'zlarni o'rganish tilimizning boyligini va xalqimizning qadimiy madaniyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

"Ovqat" so'zi arab tiliga mansub bo'lib oziq-ovqat, yegulik, ozuqa ma'nolarini bildiradi. Bu so'z qut leksik birligining ko'pligi bo'lib, u o'zbek tiliga metoteza yo'li bilan o'zlashgan: avqot, aqvot. Ko'ramizki, ovqat leksemasi keng qamrovda "rizqlanish, yeyish-ichish uchun tayyor narsa: yemish, taom, yemak" ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi. Fikrimizni "Malika ayyor" dostonidan olingan quyidagi matnlar ham tasdiqlaydi: Bular ovqatlardan yeb, qorni to'yib, qovzonib oldi (155-bet). Oziq-ovqatni xilma-xil oziq va ovqatlar yig'indisi deyish mumkin. Bu boradagi kuzatishlarimizni dalillash maqsadida oziq-ovqat tushunchalarini ifodalovchi leksemalarning lug'aviy izohlar va tadqiqotimiz tahliliga jalb etilgan xalq dostonlarida qo'llanilgan matnlarga e'tiborni qaratamiz. Don va un mahsulotlari insoniyat tarixida eng qadimiy oziq-ovqat manbalaridan hisoblanadi. Ular nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo xalqlarining dasturxonida asosiy o'rin tutadi. O'zbek xalqi qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullangan 451araja sababli don mahsulotlari uning turmush tarzida muhim o'rin egallagan. Masalan, bug'doy, arpa, mosh, guruch, jo'xori kabi ekinlar asrlar davomida yetishtirilib, ulardan turli xil taomlar tayyorlangan. Ularning leksik birliklari.

Bug'doy. Kelib chiqishi: qadimgi turkiy tilga mansub so'z.

Qadimgi shakli: "bugda", "bukda", "bugdag". Ma'nosi: Don, urug', ekin. Shevalarda: "bo'g'day", "bo'gdoy", "bo'g'da", "bugda" shakllari uchraydi. Izoh: Bug'doy so'zi qadimiy turkiy xalqlarda "baraka" va "to'kinchilik" timsoli bo'lgan. Keyinchalik adabiy tilda hozirgi shaklida barqarorlashgan.

Arpa. Kelib chiqishi: asosan turkiy tildan kelib chiqqan, ayrim manbalarda qadimgi eroniy (forsiy) ildiz bilan bog'lanadi. Qadimgi shakli: "arpa", "arpu". Ma'nosi: 451araja451451st turi. Shevalarda: "arpa", "orpa", "arba" shakllari mavjud. Izoh: arpa qadimdan Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy yem-xashak va oziq-ovqat 451araja bo'lib kelgan. So'z shakli asrlar davomida deyarli o'zgarmagan.

Mosh. Kelib chiqishi: fors-tojik tili orqali o'zbek tiliga kirib kelgan. Qadimgi shakli: "māš", "mūš". Ma'nosi: dukkakli o'simlik turi. Shevalarda: "mash", "mosh", "mush", "452ara" shakllari uchraydi. Izoh: mosh qadimda Hindiston va Eron hududlarida yetishtirilgan ekin bo'lib, savdo yo'llari orqali Markaziy Osiyoga kirib kelgan. Shundan so'ng o'zbek tilida "mosh" shaklida mustahkam o'rnatilgan.

Guruch. Kelib chiqishi: aslida fors tilidan kirib kelgan. Fors tilida "birinj" yoki "berenj" shaklida ishlatilgan. Qadimgi shakli: "biring", "birinj". Shevalarda: "guruch", "guruchcha", "gurich", "uruch" shakllari mavjud. Izoh: bu so'z hind-eron tillaridagi "vrihi" (sanskritcha — sholi) so'zi bilan ham aloqador. O'zbek xalqida esa "guruch" so'zi palov bilan bog'liq asosiy nom sifatida keng tarqalgan.

Jo'xori. Kelib chiqishi: asosan rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan ("кыкырыза"). Qadimgi shakli: Turk xalqlari orasida "jo'xor", "chokari", "chokura" kabi shakllar uchraydi. Shevalarda: "jo'xori", "jo'xor", "jo'xari", "jo'xuro" shakllari mavjud. Izoh: jo'xori Amerikadan Rossiya orqali Markaziy Osiyoga XIX asrda kirib kelgan. Shuning uchun ham u dastlab "kukuruza" deb atalgan, ammo xalq og'zaki nutqida "jo'xori" shakli barqarorlashgan.

Un mahsulotlaridan tayyorlanadigan non esa xalqimiz uchun nafaqat oddiy oziq-ovqat, balki muqaddas ne'mat sifatida qadrlanadi. Non turli ko'rinishlarda uchraydi: tandir non, patir, kulcha, qatlama va hokazo. Dasturxonni nonsiz tasavvur qilib bo'lmaydi va har bir oilaning kundalik hayotida eng zarur mahsulot hisoblanadi. Shuningdek, un mahsulotlaridan somsa, manti, lag'mon, chuchvara kabi mashhur milliy taomlar tayyorlanadi. Guruch esa o'zbek xalqining milliy ovqati bo'lgan palovning asosiy tarkibiy qismi sifatida alohida o'rin tutadi. Moshdan esa moshxo'rda, moshkichiri kabi taomlar tayyorlanadi. Makaron mahsulotlari esa keyinchalik tilimizga kirib kelgan bo'lsa-da, bugungi kunda keng tarqalgan. Sabzavot va mevalar inson salomatligi uchun zarur bo'lgan eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari sirasiga kiradi. Ular tarkibida vitaminlar, mineral moddalar, tolalar va foydali elementlar ko'p bo'lgani sababli doimiy iste'mol qilish tavsiya etiladi. Piyoz va sabzi taomlarning asosiy tarkibiy qismini tashkil etib, turli oshlar va salatlarga qo'shiladi. Kartoshka xalqimiz dasturxonida eng ko'p ishlatiladigan sabzavotlardan biri bo'lib, qovurilgan, qaynatilgan yoki pishirilgan holda iste'mol qilinadi. Mevalardan esa tarvuz yoz faslida chanqoqni bosuvchi shirinligi bilan qadrlanadi. Olma yilning deyarli barcha mavsumida topiladigan, vitaminlarga boy meva sifatida mashhurdir. Uzum, anor va gilos esa o'zining shifobaxsh xususiyatlari bilan qadimdan xalqimiz parhezida muhim o'rin tutadi. Shu bois sabzavot va mevalar insonning to'g'ri ovqatlanishida,

salomatlikni mustahkamlashda va milliy taomlar tarkibini boyitishda katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan meva va sabzavotlarni leksik birliklari:

Piyoz. Kelib chiqishi: fors tilidagi “piyāz” soʻzidan kirib kelgan. Qadimgi shakli: “piyāz”, “biyoz”. Maʼnosi: oshxona sabzavoti, achchiq taʼmli ildizmeva. Shevalarda: “piyozi”, “piyozak”, “piyozchik” shakllarida uchraydi. Izoh: soʻz oʻzbek tiliga qadimdan kirib, kundalik nutqda keng ishlatiladi. “Piyoz” qadimiy Sharq tillarida ham “achchiq oʻsimlik” maʼnosini bildirgan.

Sabzi. Kelib chiqishi: fors-tojik tilidagi “sabzī” soʻzidan, “yashil oʻsimlik” maʼnosida. Qadimgi shakli: “sabzī”, “sabza”. Maʼnosi: Apelsin rangli ildizmeva, sabzavot turi. Shevalarda: “suvzi”, “sabzachi”, “sabzavot” shakllari uchraydi. Izoh: dastlab “yashil oʻsimlik” maʼnosida boʻlgan, keyinchalik maxsus sabzavot nomi sifatida mustahkamlangan.

Tarvuz. Kelib chiqishi: qadimgi turkiy “tarbuz” shaklidan; ayrim manbalarda forsha “xarbuz”(“qovun”) bilan bogʻlanadi. Qadimgi shakli: “tarbuz”, “tarboz”. Maʼnosi: katta, suvli, 453araja meva. Shevalarda: “tarboz”, “tarvuzak”, “tarbuz” shakllari mavjud. Izoh: soʻz turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan boʻlib, qadimdan yozma manbalarda uchraydi.

Olma. Kelib chiqishi: qadimgi turkiy “alma” soʻzidan. “Olmoq” feʼli bilan ildizdosh. Qadimgi shakli: “alma”, “olma”. Maʼnosi: daraxt mevasi, 453araja taʼmli. Shevalarda: “alma”, “olmo”, “olmajon” shakllari uchraydi. Izoh: “Olma” soʻzi turkiy tillarda eng qadimiy meva nomlaridan biridir. “Olmoq” feʼli bilan bogʻlanib, “uzilgan meva” maʼnosini bildiradi.

Uzum. Kelib chiqishi: qadimgi turkiy “üzüm” soʻzidan, “üz–” (uzmoq, yulmoq) feʼli bilan bogʻliq. Qadimgi shakli: “üzüm”. Maʼnosi: tok mevasi, vino tayyorlanadigan meva. Shevalarda: “uzim”, “üzüm”, “uzimlik” shakllari uchraydi. Izoh: soʻz qadimgi turkiy manbalarda ham uchraydi va xalq ogʻzaki ijodida toʻkinchilik ramzi sifatida qoʻllanadi.

Ichimliklar inson hayotida alohida oʻrin tutadi, chunki ular nafaqat chanqoqni qondiradi, balki organizmga quvvat, vitamin va foydali moddalarning yetib borishida ham muhim rol oʻynaydi. Masalan, choy xalqimiz dasturxonining ajralmas qismi boʻlib, mehmondorchilikda ham doimiy ravishda tortiladi. Qahva esa, asosan zamonaviy turmush tarzida koʻproq uchrab, kishiga tetiklik bagʻishlaydi. Sharbat meva va sabzavotlardan olinib, tabiiy vitaminlar 453araja sifatida qadrlanadi. Ayron esa, yoz faslida chanqoqni yaxshi bosuvchi, organizmga yengillik beruvchi ichimlik sifatida mashhurdir. Kompot esa, ayniqsa yozgi va qishki davrlarda mevalardan tayyorlanib,

ko'plab oilalarda iste'mol qilinadi. Shuningdek, mineral suv tibbiy jihatdan ham foydali bo'lib, hazm jarayonini yaxshilash va tanani tozalashga yordam beradi. Shu tariqa ichimliklar turli vazifalarni bajarib, xalqimizning ovqatlanish madaniyatida muhim o'rin tutadi

Oziq-ovqat mahsulotlarini ifodalovchi leksik birliklar xalqimizning turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odatlar va milliy an'analarini aks ettiradi. Bu birliklar nafaqat tilimiz boyligini, balki xalqimizning tarixiy va madaniy hayotini ham ko'rsatadi. Shu sababli ular tilshunoslik nuqtayi nazaridan alohida o'rganishga arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A. O'zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1995.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
4. Jo'raev M. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5. Karimov H. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI

Xushvaqtova Gulsanam Abdimurat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

gulsanamxushvaqtova@15gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligining taraqqiy etish yo'llari, tilshunoslikni boyitish usullari haqida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, tilshunoslik, taraqqiyot, til siyosati, xalqaro aloqalar

АННОТАЦИЯ : В данной статье освещаются пути развития узбекского языкознания в период независимости а также методы обогащения лингвистики

Ключевые слова: узбекский язык, лингвистика, развитие языковая, политика международные отношения

ABSTRACT: this article highlights the ways in which Uzbek linguistics has developed during the independence period, as well as methods for enriching linguistics

Keywords: uzbek language, linguist, developer, language politician, international affairs specialist

Har qanday millat borki, u dunyoga millat sifatida tanilishi uchun, jahon bilan madaniy aloqaga kirishishi uchun, albatta, o'z tili bo'lishi kerak. Til rivoji uchun davlat siyosati va ishlohoti juda zarur hisoblanadi. Hech kimga sir emaski, rus islohoti davrida o'zbek tiliga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Til uchun ko'plab cheklovlar qo'yildi.

Ammo, 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi mamlakat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu davr nafaqat siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar uchun, balki madaniyat 455araja sohasida ham tub burilishlar davri bo'ldi. Mustaqillik o'zbek tilining jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamladi. 1989-yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. 1995-yil 21-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining davlat tili" haqidagi qonun o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamladi va davlat idoralarida, ta'lim, madaniyat, axborot va boshqa sohalarda uning qo'llanilishini tartibga soluvchi huquqiy asos yaratdi. O'zbek tili

nafaqat davlat tili maqomiga ega bo'ldi, balki ilmiy tadqiqotlar, ta'lim, ommaviy axborot vositalarida markaziy o'rin tutdi.

Tilga yangi atamalar kiritildi, ilm-fan va texnologiya sohalarida terminologiya yangilandi. Universitetlarda tilshunoslik fakultetlari kengaytirildi. Darsliklar, qo'llanmalar va ilmiy maqolalar nashr etildi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi nafaqat tarixiy ildizlarida balki zamonaviy talablar asosida rivojlanmoqda.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligida yangi ilmiy maktablar shakllandi. Taniqli olimlarimiz- A.Madvaliyev, N.Mahmudov, A.Jo'rayev, D.Hudoyberganova, B.O'rinboev va boshqa ko'plab tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlari milliy tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Bu davrda:

O'zbek tili tarixi va qadimiy yozma yodgorliklar (Orxon-Enasoy bitiklari, qadimiy turkiy til manbalari) keng o'rganildi.

Til madaniyati va nutq madaniyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat kabi allomalarimiz asarlari qayta nashr etildi. Tilshunoslikda Mahmud Qoshg'ariyning ``Devoni lug'atit turk``asari, Alisher Navoiyning ``Muhokamat ul-lug'atayin`` asari chuqur o'rganilib, yangi tadqiqotlar yaratildi.

Mustaqillik yillarida axborot texnologiyalarida ham ko'zga ko'rinarli rivojlanish paydo bo'ldi. Bu jarayon o'z navbatida tilshunoslikda yaratilishi mumkin bo'lgan qulayliklar eshigini ochdi. Axborot almashinuvi jarayoni jadal sur'atlarda o'sdi. Ya'ni o'zbek tili ham kompyuter tiliga aylandi, o'zbek tilida dasturlar yaratildi. Jumladan, o'zbek tili uchun klaviatura tizimlari, avtomatik tarjima dasturlari yaratildi. ``O'zbek WordNet``, ``O'zbek tilida matnni ovozga aylantirish dasturi`` kabi loyihalar ishlab chiqildi.

O'z navbatida xorijiy davlatlarda jumlada, Turkiya, AQSH, Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniyada o'zbek tiliga nisbatan qiziqishlar uyg'ona boshladi. Ularning o'rganishi qulay bo'lishi uchun 456araja456456 lug'atlar, tarjima dasturlari yaratilmoqda. O'zbek tili o'quv kurslari o'z faoliyatini olib bormoqda. O'zbekcha qiziqarli kitoblar nashr etilmoqda. O'zbekiston Milliy universiteti, Jahon tillari universiteti va boshqa oliygohlarda o'zbek tilini chet ellik talabalar ham o'rganmoqda.

Xorij kino studiyalarida o'zbekcha kinolar qo'yilib borilmoqda. Ular sahnalarida o'zbekcha qo'shiqlar ijro etilmoqda. Dramatik sahna ko'rinishlari qo'yib borilmoqda.

Mustaqillikdan 456araja davrda O'zbekistonda tilshunoslik ilmiy markazlari faoliyati kengaytirildi. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbekiston Milliy universiteti va Milliy ilmiy-tadqiqot institutlarida tilshunoslik bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi. Yangi tadqiqot yo'nalishlari, jumladan, korpus tilshunosligi, kompyuter lingvistikasiga oid ishlar rivojlana boshladi.

Shuningdek, o'zbek tilining tarixiy va zamonaviy holatini o'rganish uchun xalqaro hamkorlik kengaydi. O'zbekistonning turli universitetlari va ilmiy muassasalari xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda seminarlar, anjumanlar va loyihalarni amalga oshirdi. Bu ilmiy almashuv tilshunoslik sohasidagi innovatsiyalarni mamlakatga olib kirishga imkon berdi.

O'z navbatida, o'zbek tilining izohli lug'atlari, imlo lug'atlari, sinonimlar lug'atlari, frazeologik lug'atlar, o'zbekcha-ruscha, 457araja-o'zbekcha lug'atlar, terminologik lug'atlar yaratildi. Bu lug'atlar o'zbek tilining leksik boyligini aks ettirish bilan birga, til madaniyatini oshirishga ham xizmat qildi.

O'zbek tilining grammatik qurilishi, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya kabi bo'limlar chuqur o'rganildi. O'zbek tilining grammatik kategoriyalari, uslubiy xususiyatlari yoritildi.

O'zbek tilining dialektlari va shevalari, toponimika [joy nomlari] va antroponimika [odam nomlari] kabi sohalar o'rganildi. O'zbekistonning turli hududlaridagi dialektik xususiyatlar, geografik nomlarning kelib chiqishi, shaxs nomlarining etimologiyasi yoritildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunoslari tomonidan tilning mohiyati, tuzilishi, rivojlanish qonuniyatlari, nutq madaniyati, til va tafakkur munosabatlari kabi nazariy masalalar chuqur o'rganildi. Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlari, xususan, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter tilshunosligi kabi sohalar rivojlana boshladi.

O'zbek tilining turli sohalariga oid terminologik lug'atlar yaratildi. Ilm – fan, texnika, madaniyat, san'at, huquq, iqtisodiyot kabi sohalarining terminologik bazasi boyitildi. O'zbek terminologiyasining xalqaro terminologiyaga integratsiyalashuvi masalalari ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda Xalqaro miqyosda o'zbek tilining mavqei

O'zbek tili BMT, YUNESKO, kabi xalqaro tashkilotlarda tan olinmoqda .

Mustaqillik yillarida chet mamlakatlarda ham o'zbek tilini o'qitish markazilari ochildi.

O'zbek tilining lotin yozuviga o'tishi xalqaro aloqalarda qulaylik yaratdi.

Adabiy til me'yorlarini belgilash imlo qoidalarini yangilash ishlari olib borildi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bir ajoyib nutqini keltirmoqchiman: `` Hech qachon hech kimdan kam bo'lmagan xalqimizni buyuk kelajak kutmoqda. Bu kelajakni biz o'zbek tilisiz tasavvur qila olmaymiz`` deya ta'kidlab o'tgan.

Xullas, mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligi yangi bosqichga ko'tarildi . Ona tilimiz nafaqat milliy o'zlik timsoli, balki xalqimizning ma'naviy mustaqilligi va 458araja458458st458l salohiyatini namoyon etuvchi asosiy qadriyatlardan biriga aylandi. Til bu millat yuragi uning abadiy ovozi va tarix bilan bog'lovchi ko'prigidir. Demakki, tilni asrash, millatni asrashdir. Zero, til bor ekan, millat ham uning ruhi ham boqiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –Toshkent; Fan , 1995
2. Q.Mo'yidinov, R Ikramov. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent – 2024.

UMUMTURKIY LEKSIKA VA ULARNING SEMANTIKASI

Rahmatullayeva Yasmina

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

raxmatullayevayasmina683@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya : Ushbu maqola umumturkiy leksika va ularning qatlamlarini tarixiy-qiyosiy tilshunoslik asosida keng yoritadi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar – Orxon-Enasoy bitiklari, “Qutadg‘u Bilig”, “Devonu lug‘otit turk” hamda davr manbalaridagi umumturkiy so‘zlarning fonetik, morfologik va taraqqiyoti ilmiy dalillar bilan izohlanadi. Umumturkiy birliklarning metaforik ko‘chish, ma’no kengayishi va torayishi, hamda zamonaviy o‘zbek tilida saqlanish holati keng qamrovli misollar asosida ko‘rsatilib, turkiy xalqlar madaniy-milliy birligini isbotlovchi dalillar sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar : Umumturkiy leksika, semantika, tarixiy-qiyosiy tahlil, Orxon-Enasoy bitiklari, Qutadg‘u Bilig, Devonu lug‘otit turk, leksik qatlam, metaforik ko‘chish, o‘zbek tili dialektologiyasi, toponimika.

Annotation: This article presents an extensive historical-comparative analysis of the Common Turkic lexicon and its semantic layers. It examines phonetic, morphological, and semantic developments of Common Turkic vocabulary recorded in early monuments such as the Orkhon-Enisei inscriptions, Qutadghu Bilig, and Dīwān Lughāt al-Turk, as well as in later sources. Processes of metaphorical transfer, semantic widening and narrowing, and the preservation of these lexical units in modern Uzbek are discussed with rich evidence, highlighting their role as markers of the cultural and national unity of the Turkic peoples.

Keywords: Common Turkic lexicon, semantics, historical-comparative analysis, Orkhon-Enisei inscriptions, Qutadghu Bilig, Dīwān Lughāt al-Turk, lexical layers, metaphorical shift, Uzbek dialectology, toponymy.

Аннотация: В данной статье представлен обширный историко-сравнительный анализ обще-тюркской лексики и её семантических слоёв. Рассматриваются фонетические, морфологические и семантические изменения обще-тюркского словарного состава, зафиксированные в ранних памятниках, таких как Орхоно-Енисейские надписи, «Кутадгу билиг» и «Диван

460araja460460-турк», а также в более поздних источниках. Анализируются процессы метафорического переноса, расширения и сужения значений, а также сохранение этих лексических единиц в современном узбекском языке. Приводится богатый фактический материал, подчёркивающий роль данной лексики как маркера культурного и национального единства тюркских народов.

Ключевые слова: обще-тюркская лексика, семантика, историко-сравнительный анализ, Орхоно-Енисейские надписи, Кутадгу билиг, Диван 460araja460460-турк, лексические слои, метафорический перенос, узбекская диалектология, топонимия.

Turkiy tillar oilasi jahon tilshunosligidagi eng qadimiy va boy manbaga ega tarmoqlardan biri bo'lib, uning leksik merosi 460araja xalqlar tarixiy-madaniy rivojini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, VIII asrga oid Orxon-Enasoy bitiklari, XI asrdagi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari hamda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u Bilig" dostoni umumturkiy so'z qatlamining shakllanishi, 460araja460460 rivoji va hududiy differensiyasini

ra tadqiq etishda asosiy manba sifatida tan olingan. Ushbu manbalar nafaqat tilning lug'aviy boyligini, balki o'sha davr dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari va madaniyatini ham o'zida mujassam etadi.

Zamonaviy o'zbek tilida saqlanib qolgan umumturkiy leksik qatlam ko'plab sohalarda – xalq og'zaki ijodi, toponimika, dialektologiya va adabiy til tarkibida faol yashab kelmoqda. Fonetik-morfologik o'zgarishlar, 460araja460460 torayish yoki kengayish, metaforik ko'chish jarayonlarini qiyosiy-lisoniy tahlil qilish orqali turkiy tillar o'rtasidagi 460araja460 aloqalar, tarixiy til birliklari va ularning mintaqaviy ko'rinishlari aniq namoyon bo'ladi. Tadqiqotning maqsadi – umumturkiy leksikaning kelib chiqish manbalari, ma'no qatlamlari va zamonaviy qo'llanish xususiyatlarini ilmiy dalillar asosida chuqur yoritib, turkiy xalqlarning umumiy til merosini yanada 460araja460 ko'rsatishdan iboratdir. Shu jihatdan ushbu maqola umumturkiy leksikani tarixiy tilshunoslik, semantika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qamrab olib, keng ko'lamli ilmiy asos va tasdiqlarga tayangan holda ishlab chiqiladi. Umumturkiy leksika va mumturkiy leksika haqida umumiy ma'lumot beriladi.

Umumturkiy leksika — bu turkiy tillar oilasiga mansub barcha tillarda uchraydigan, 460araj zamonlardan hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan asosiy so'z qatlamidir. Ular turkiy xalqlar tarixiy ildizining, madaniy aloqalarining va 460araja460 birligining eng muhim ko'rsatkichidir. Bu qatlam nafaqat so'z boyligi, balki turkiy

xalqlarning qadimiy dunyoqarashi, urf-odati, e'tiqodlari, ijtimoiy-siyosiy hayoti hamda iqtisodiy faoliyatini ham yoritib beradi.

Umumturkiy leksikaning asosiy yozma manbalari sifatida VIII asrga oid Orxon–Enasoy bitiklari, XI asrdagi Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u Bilig” dostoni, shuningdek, eski uyg'ur yozuvlari, Qoraxoniylar davri yodgorliklari, qadimgi qipchoq tilidagi asarlar alohida o'rin tutadi. Bu manbalar turkiy tillarning umumiy ildiz so'zlarini, ularning dastlabki ma'nolarini va fonetik-morfologik ko'rinishlarini aniq dalillar bilan ko'rsatib beradi. Umumturkiy so'zlar tarix davomida fonetik o'zgarishlarga uchragan: tovush almashishi (masalan, qadimgi tag → hozirgi o'zbek tilidagi tog'), unli qisqarishi yoki cho'zilishi (adak → oyoq), undosh yumshashlari (balik → baliq) kabi jarayonlar keng uchraydi. Morfologik jihatdan esa so'zlarning affiksatsiya yo'li bilan shakllanishi, qadimiy qo'shimchalarning yangi vazifalar bilan boyishi kuzatiladi.

Semantik jarayonlar

Umumturkiy leksika ma'nosida ham ko'p qatlamli o'zgarishlar ro'y bergan. Eng ko'p uchraydigan hodisalar:

Ma'no kengayishi – so'zning ma'nosi umumlashib, kengroq tushunchani ifodalashga o'tadi. Masalan, yurt qadimda faqat qabila yurti ma'nosida bo'lsa, hozir davlat hududi, vatan ma'nosini ham bildiradi.

Ma'no torayishi – dastlab umumiyroq bo'lgan so'z ma'nosi muayyan hodisaga qisqaradi. Masalan, at avval barcha uy hayvonlarini anglatga, hozir “ot” ma'nosida ishlatiladi.

Metaforik ko'chish – so'zning bevosita ma'nodan ko'chma ma'noga o'tishi. Masalan, yo'l so'zi faqat “borish yo'li” emas, balki “hayot yo'li”, “ilm yo'li” kabi 461araja461461 tushunchalarni ham bildiradi.

Semantik differentsiallashtiruv – umumiy ildizdan kelib chiqqan so'zlar turli hududiy tillarda o'ziga xos ma'noga ega bo'lib ajraladi.

Zamonaviy o'zbek tilidagi davomiylik

Bugungi o'zbek tilida juda ko'p umumturkiy so'zlar faol qo'llanadi: el, yurt, tog', ko'l, oy, kun, yer, 461araja, bilim, qon, ota, ona kabi yuzlab birliklar hozirgi nutqning asosiy qatlamini tashkil etadi. Ular xalq og'zaki ijodi, maqol va matallarda, toponimlarda (masalan, Ko'histon, Chortoq, Qoradaryo) va dialektlarda boy shaklda saqlanib qolgan.

Madaniy va ilmiy ahamiyati

Umumturkiy leksika turkiy xalqlarning bir ildizdan kelib chiqqanini ko'rsatuvchi jonli til yodgorligidir. Bu so'zlar orqali qadimgi turkiy dunyoqarashni, e'tiqodlarni (masalan, 462araja, qut, umid) va ijtimoiy tizimni o'rganish mumkin. Tarixiy-qiyosiy tadqiqotlar ushbu leksik qatlamni boshqa tillar bilan solishtirish orqali turkiy xalqlarning qadimiy madaniy aloqalarini, ko'chmanchilik davridan dehqonchilik va shahar madaniyatiga o'tish jarayonlarini ham ochib beradi.

Umumturkiy leksika – turkiy tillar oilasining asrlar sinovidan o'tgan, mustahkam ildizga ega bo'lgan eng qadimiy qatlamidir. U nafaqat til birligi, balki turkiy xalqlarni bog'lab turuvchi tarixiy, madaniy va ma'naviy rishtalarni ifodalaydi. Qadimgi manbalardan tortib hozirgi o'zbek tiligacha yetib kelgan minglab so'zlar turkiy merosning uzluksizligini isbotlaydi: ular fonetik shaklida o'zgarishlar ko'rgan bo'lsa-da, ma'nosining yadro qismi saqlanib qolgan. Shunday qilib, umumturkiy leksikaning chuqur va tizimli o'rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnologiya, madaniyatshunoslik fanlari uchun ham bebaho xulosalar beradi. Bu qatlam turkiy xalqlarning birligiga, umumiy madaniy maydoniga yorqin dalildir va kelajak avlodlarga o'z milliy o'zligini anglashda tayanch bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Alimov, R. (2018). O'zbek tili tarixiy leksikologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashri
2. Yusuf Xos Hojib. (1069 / 2019). Qutadg'u Bilig (N. Mallayev tahr.). Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Zakirov, N. (2021). "Umumturkiy leksika taraqqiyoti va 462araja462462 o'zgarishlar." O'zbekiston tilshunoslik jurnali, 4(2), 45–60.

O'ZBEK TILIDA SINONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**Yergasheva Saboxat**Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yonalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Murodova Feruza Jalolova

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi sinonimlarning uslubiy xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Sinonimlar faqatgina ma'no jihatidan yaqin yoki o'xshash bo'lgan so'zlar emas, balki ular tildagi uslubiy boylikni ta'minlovchi muhim leksik vosita sifatida ham ko'riladi. Shuningdek, sinonimlarning emotsional-ekspressiv bōyoqlari sinonimik qatorlar haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Tadqiqotda turli adabiy manbalar, so'zlashuv nutqi namunalaridan hamda o'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan nazariy qarashlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: sinonimlar, sinonimik qator, leksik dubletlar, ideografik sinonimlar, absolut sinonimlar, uslubiy sinonimlar.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the stylistic features of synonyms in the Uzbek language. Synonyms are considered not only as words with similar or close meanings, but also as important lexical tools that enrich the stylistic diversity of the language. The study also addresses the emotional and expressive connotations of synonyms and presents information about synonymic series. Various literary sources, examples of spoken language, and existing theoretical approaches in Uzbek linguistics have been utilized in the research.

Keywords: synonyms, synonymic series, lexical doublets, ideographic synonyms, absolute synonyms, stylistic synonyms.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются стилистические особенности синонимов в узбекском языке. Синонимы рассматриваются не только как слова с близким или схожим значением, но и как важное лексическое средство, обеспечивающее стилистическое богатство языка. Также рассматриваются эмоционально-экспрессивные оттенки синонимов и приводится информация о синонимических рядах. В исследовании использованы различные литературные источники, образцы разговорной речи, а также существующие теоретические взгляды в узбекском языкознании.

Ключевые слова: синонимы, синонимический ряд, лексические дублиеты, идеографические синонимы, абсолютные синонимы, стилистические синонимы.

Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatic munosabatlardan biri bo'lib, bu munosabatlarning mavjudligi mazkur tizimning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan uyg'undir. Boshqacha qilib aytganda, tilning rivojlanganlik darajasining yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta'min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklararo ma'nodoshlik -sinonimiya imkoniyatlarining ko'lamdorligidir.

Sinonimlar-yozilishi va talaffuzi umuman boshqa-boshqa bo'lgan bir umumlashgan ma'noni ifodalaydigan ikki va undan ortiq so'zlar sinonimlar so'zlar deyiladi. Ular nutqni yanada ta'sirchan, boy, gozal qilishda muhim ahamiyatga ega. Sinonimlar garchi bir umumiy ma'noni ifodalasada turli ma'no qirralari bilan bir-biridan farqlanadi. Tilda sinonimlarning ko'p uchrashi so'z boyligini ko'rsatadigan muhim dalildir. Sinonim so'zlardan unumli foydalanish badiiy asarlarning mazmunli, ta'sirli chiqishini, hamda ularning badiiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham aytish kerakki, tilda bir-biriga tamomila o'xshash, hech farq qilmaydigan so'zlarning yonma-yon ishlatilishi tilni boyitmaydi. Masalan, o'zbek tilidagi traktorchi – 464araja464464st, 464araja -ro'znoma, buxgalter — hisobchi, aeroport – tayyoragoh kabi. Shuning uchun bunday so'zlar kam uchraydi. Til bunday so'zlarning biridan to'liq foydalanib,

ikkinchisini esa iste'moldan chiqarib tashlashga intiladi. Sinonimlarning o'zaro farqli xususiyatlari talaygina bo'lib, ulardan eng asosiysi ularning har birining ma'nosidagi farqli belgilardir. Sinonimlarning o'zaro farqli belgisi, avvalo, ularning ma'no hajmida, aniqrog'i, ma'no nozikligida ko'rinadi. Masalan, o'zaro sinonim bo'lgan so'zlardan biri biron-bir qo'shimcha ma'no nozikligiga ega bo'lmashligi, boshqasi esa qandaydir farqlima'no nozikligiga egabolishi mumkin. Yuvosh, mo'min, qobil, royish sinonimlaridan yuvosh so'zi shaxsga, shuningdek, hayvonlarga nisbatan qo'llanaveradi. Lekin mo'min, qobil so'zlari faqat odamga nisbatan ishlatiladi. Royish so'zida gapga ko'nadigan, aytganga yuradiganlik ma'no nozikligi bor. Demak, sinonimlarning o'zaro farqli xususiyatlaridan biri ularning qo'shimcha ma'no nozikligiga ega yoki ega emasligida bo'lib, bu xususiyat shu sinonimik qatordagi so'zlarning qo'llanish doirasini, qollanish o'rnini ham belgilaydi. Sinonimlar bildiradigan vaqt, harakat, belgi, miqdor kabilarda ularning har birida belgining

darajasi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, avval, oldin, ilgari, burun, 465araj sinonimlaridan ilgari so'zida vaqtning o'tishiga qarab uzoqlik darajasi avval, oldin so'zlaridagidan ortiq. Burunso'zida ilgari so'zidagiga nisbatan, 465araj so'zida esa burun so'zidagiga nisbatan ortiqroq. Ishchan, harakatchan, serharakat, g'ayratli, serg'ayrat, tirishqoq, urinchoq sinonimlaridan g'ayratli, serg'ayrat, tirishqoq so'zlari belgini kuchliroq ma'no bilan ifodalaydi. Shuningdek, kambag'al, qashshoq sinonimlaridan qashshoq so'zi belgini kuchli ma'noda ifodalaydi. Kuch, quvvat, mador, majol, 465araja sinonimlaridan mador, majol, 465araja so'zlari, asosan, kuch-quvvatning normal holatdan pastligini ifodalashda qo'llanadi. Demak, sinonimlar bildirgan belgi darajasidagi har xillik ham shu so'zlarning ma'nosidagi farqli ma'no nozikliklari sanaladi.

Sinonimlar nutqda ishlatilishi doirasiga ko'ra sinonimiya qatorini hosil qiladi. Masalan: a) yuz, bet, aft, 465araja465, chehra, siymo b) yurak, dil, qatb, ko'ngil kabilar. Sinonimiya qatorini tuzishda har qanday uslubda qo'llanishi mumkin bo'lgan «betaraf» so'z asos qilib olinadi. Sinonimiya qatoridagi qolgan so'zlarning ma'nodoshligi ana shu «betaraf» so'zni solishtirish natijasida aniqlanadi. Masalan, yuz, bet, aft, 465araja465, chehra, siymo sinonimiya qatorida yuz so'zi «betaraf» so'z bo'lib, uning iste'mol doirasi kengdir, har qanday uslubda qo'llanaveradi: yuzi tanish, yuzingni yuv, yuziyoqimli, yuzing qursin. Lekin shu qatordagi bet, 465araja465, aft, chehra, siymo so'zlarining iste'mol doirasi nisbatan chegaralangan (tor) bo'lib, ular turli uslubiy bo'yoqlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday so'zlar bilan predmetga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatni yaqqol ifodalash mumkin. Chunonchi, chehrasi issiq, chehrasi yoqimli, chehrasi ochiq deyish mumkin, chehrasi qursin deb aytish mumkin emas. Begona, yot, o'zga, birov, kishi, notanish, g'ayir, ag'yor Qarindoshlik, tanishlik, o'rtoqlik yoki boshqa jihatlardan bir toifadagi kishilardan chetda turuvchi, ularga hech bir munosabatda bo'lmagan shaxs. Yot so'zida begonalik bilan bir qatorda nodo'stlik ta'kidi ham mavjud. O'zga so'zi kitobiy nutqqa xos. Kishi so'zi mazkur ma'nosi bilan ko'proq ayollar so'zlashuv nutqida qo'llanadi. G'ayir, ag'yor so'zlarida begonalik bilan bir qatorda, nodo'stlik ma'nosi ham anglashilib turadi, kitobiylik bo'yog'iga ega bo'lgan bu so'zlar eskirgan. Ba'zan dil uyingni aylar munavvar Yetti yot begona yoqqan bir chiroq. A.Oripov. Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra

guruhlanishidir: yelka, kift, o'miz (birinchi guruh); in, uya, oshyon (ikkinchi guruh); nur, shu'la, yog'du, ziyo (uchinchi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar

tilshunoslikda sinonimik qatorlar yoki sinonimik uyalar deb nomlanadi. Tilda leksik sinonimlarning quyidagi turlari uchraydi:

1) ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ideografik semasining ma'no qirrasini bilan farqlanadi. Masalan, achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrilanmoq leksemalari —g'azabi kelmoq ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noning (ideografik semaning) ifodalanish darajasi bir xil emas, bu 466araja —"achchiqlanmoq"dan —"g'azablanmoq"qa,—"g'azablanmoq"dan esa —"qahrilanmoq"qa qarab kuchayib bormoqda;

2) uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar, baholovchi sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nolari ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar (baho semalari) sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no —"ovoz chiqarmay miyig'ida kulish" hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no jilmaymoq leksemasida biroz ijobiy, iljaymoq leksemasida esa biroz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarida yana-da ortib boradi. Uslubiy sinonimlarning yana bir ko'rinishi bor: ular salbiy yoki ijobiy bo'yoqlardagi darajalanish bilan emas, balki nutqning u yoki bu turiga xoslanish belgisiga ega ekanligi bilan o'zaro farqlanadi, ammo ideografik semalari bilan bir

guruhga birlashadi. Masalan, ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha qatoridagi ozgina leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgani holda, picha, xiyol, jinday, qittay, jichchaleksemalari faqat so'zlashuv nutqiga xoslangandir;

3) absolut sinonimlar yoki leksik dubletlar – leksik ma'nolari o'zaro teng bo'lib, farqlovchi semalari bo'lmagan leksemalar: sòroq va savol, tema va mavzu, nom va ot kabi. Tilshunoslikda bu tipdagi leksemalar leksik dubletlar deb ham ataladi. Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi tavsifi. Sinonimlar nutqda muhim uslubiy vosita sifatida qatnashadi: ular nutqning ravon va ta'sirli bo'lishini, fikrning aniq yoki obrazli chiqishini ta'minlaydi.

O'zbek tilidagi sinonimlar faqatgina ma'no jihatidan yaqin so'zlar emas, balki nutqni ta'sirchan, boy va ifodali qilishga xizmat qiluvchi muhim uslubiy vositalardir. Ularning mavjudligi tilning boyligi va rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Sinonimlar turli xil ma'no nozikliklariga ega bo'lib, ular nutq jarayonida ijobiy yoki salbiy bo'yoqlarni ifodalash, fikrning aniqligini, obrazlilikini ta'minlashga xizmat

O'ZBEK TILIDA "PAYT" TUSHUNCHASINI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Yoqubova Maftuna Azizbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi birinchi bosqich talabasi

yoqubova2026@mail.ru

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

ANNOTATSIYA: Maqola semantik maydonlar nazariyasi asosida o'zbek tilidagi "payt" tushunchasini ifodalovchi leksik birliklarni tahliliga qaratilgan. Unda "payt" tushunchasining ifodalanishidagi aniq (sahar, bahor) va nisbiy (lahza, muddat) ko'rsatkichlar, ularning o'zaro semantik farqlari hamda frazeologik birliklarning nutqdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqola shuni ko'rsatadiki, "payt"ni ifodalovchi birliklar nafaqat mantiqiy tushunchani, balki madaniy, hissiy va psixologik kontekstlarni ham aks ettiradi, ularni to'g'ri qo'llash tilning nozikliklarini ifodalash va nutqning badiiyligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: semantik maydon, payt, leksik birlik, sinonim, frazeologiya, nisbiylik, aniqlik, nutq, madaniyat, til tizimligi.

ABSTRACT: The article analyzes lexical units that express the concept of "time/moment" in Uzbek, based on the theory of semantic fields. It highlights both precise indicators (such as dawn, spring) and relative ones (moment, period), their semantic differences, as well as the importance of phraseological units in speech. The study shows that lexical units expressing "time" reflect not only logical concepts but also cultural, emotional, and psychological contexts. Their proper use allows speakers to convey subtle nuances of language and enrich the artistic quality of speech.

Keywords: semantic field, time, lexical unit, synonym, phraseology, relativity, precision, speech, culture, language system.

АННОТАЦИЯ: Статья посвящена анализу лексических единиц, выражающих понятие «время/момент» в узбекском языке на основе теории семантических полей. Рассматриваются точные показатели (например, рассвет, весна) и относительные (мгновение, срок), их семантические различия, а также роль фразеологических единиц в речи. Исследование показывает, что лексика, выражающая «время», отражает не только логические категории, но и

культурные, эмоциональные и психологические контексты. Правильное использование таких единиц помогает передавать тонкие оттенки языка и повышает выразительность речи.

Ключевые слова: семантическое поле, время, лексическая единица, синоним, фразеология, относительность, точность, речь, культура, языковая системность.

Til inson tafakkurining muhim ifodasi bo'lib, uning asosiy komponentlaridan biri so'zlardir. So'zlar mustaqil ravishda mavjud bo'lavermaydi, balki ularning o'zaro bog'liqligi, ma'no jihatdan yaqinligi yoki qarama-qarshiligi tildagi tizimlilikni ta'minlaydi. Ushbu tizimlilikni tushunish va tahlil qilishda semantik maydon (semantic field) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Semantik maydon - umumiy ma'no bilan bog'langan so'zlarning to'plami bo'lib, tilshunoslikda so'zlarning o'zaro aloqalarini o'rganish va ularni tizimlashtirishda keng qo'llaniladi. Semantik maydonlar turli mezonlar asosida tasniflanishi mumkin. Birinchidan, ular ma'no doirasi bo'yicha umumiylikka ega bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Semantik maydonlarning lug'atshunoslikdagi ahamiyati katta. Har qanday lug'at tuzishda so'zlarning faqat alohida tushuntirilishi emas, balki ularning boshqa so'zlar bilan aloqasi ham hisobga olinishi kerak. Masalan, izohli lug'atlarda so'zning ma'nosi berilgandan so'ng, shu so'zning semantik maydoni ichidagi boshqa so'zlar bilan bog'liqligi ko'rsatiladi. Bu esa so'zlarning qanday tizimda ishlayotganini, ularning ma'noviy yaqinligi va farqlarini aniqlashga yordam beradi, natijada lug'atlarning yanada to'liq va aniq bo'lishini ta'minlaydi.[1]

Semantik maydonlarning lug'atshunoslikdagi o'rniga quyidagilar kiradi:

So'zlarni tizimlashtirish: Semantik maydonlar so'zlarni ma'no guruhlariga ajratadi, bu esa lug'atlarni tuzishda yordam beradi va so'zlarning lug'aviy tizimdagi o'rnini ko'rsatadi.

So'zlararo munosabatlarni aniqlash: Bir so'zning boshqa so'zlar bilan qanday ma'naviy aloqadorliklarga ega ekanligini ochib beradi.

Lug'at izohlarini boyitish: Faqatgina so'zning ta'rifi bilan cheklanib qolmasdan, o'sha so'zga tegishli boshqa so'zlarni, ularning o'zaro aloqadorliklarini keltirish orqali lug'at izohlari yanada boyitiladi.

So'z boyligini oshirish: Til o'rganuvchilar uchun so'zlarning ma'nosini va ulardan qanday foydalanishni chuqurroq tushunishga yordam beradi, bu esa lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

“Vaqt” tushunchasidan farqli o‘laroq, “payt” tushunchasi ma’lum bir lahza, muddat, holat yoki imkoniyatni anglatuvchi, ancha nozik va nisbiy hodisadir. O‘zbek tilida paytni ifodalashning asosiy vositasi hisoblangan leksik birliklar – otlar, ularning sinonimlari va frazeologik iboralar – mazkur tushunchaning semantik rang-barangligini namoyon etadi.

Paytni ifodalovchi otlarni aniq va nisbiy ko‘rsatkichlar sifatida ikki guruhga ajratish mumkin. Aniq ko‘rsatkichlar qatoriga kun bo‘limlari (sahar, bomdod, tong, tush, nahor, kech), fasllar (bahor, yoz, kuz, qish) va oylar (yanvar, fevral, mart,...) kiradi. Ular jamiyatda qabul qilingan aniq vaqt shkalasiga asoslanadi. Masalan, “Asrdan bir oz ilgariroq edi”[4] yoki “Qish kunlari bir tutam, "ha, deguncha" kech bo‘ladir”[3] degan iboralarda vaqt aniq belgilanadi. Nisbiy ifodalovchilar esa aniq kalendarga emas, balki hodisalar nisbiyatiga bog‘liq bo‘lib, payt, muddat, navbat, lahza kabi so‘zlardan iborat. “Bir lahza kutib turing” yoki “Hozir navbat sizga keldi” kabi misollarda vaqtning subyektiv va kontekstga bog‘liq ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Paytni ifodalovchi so‘zlarning boy sinonimlik qatlami tilning nozikliklarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Sharq leksikasida keng qo‘llanadigan paytni ifodalovchi so‘zlar umumiy olganda bir-biriga juda yaqin, lekin ularning ma’naviy farqi bor.

Sahar – tong otishidan oldingi eng so‘nggi tun qismi.

Subh / Bomdod / Tong – tong otishi davri (bomdod diniy, tong oddiy, subh adabiy so‘z).

Nahor – quyosh ko‘tarilib, kunduzi boshlanganda.

Zuho – ertalab quyosh chiqqanidan keyin (bomdoddan keyingi vaqt).

Kun – tongdan to quyosh botishigacha bo‘lgan paytni ifodalaydi.

Paytni ifodalovchi frazeologik birliklar va idiomalar esa tushunchani obrazli va majoziy tarzda ifodalashning eng kuchli vositasi hisoblanadi. Ularni qisqa vaqt (‘‘bir lahza’’, ‘‘ko‘z yumguncha’’), uzoq vaqt (‘‘oftob chiqib, oftob botguncha’’, ‘‘asrlar o‘tmoq’’), imkoniyatni (‘‘payt topmoq’’, ‘‘navbat kelmoq’’) yoki qiyin davrni (‘‘qiyin payt’’, ‘‘ahvolga qolmoq’’) bildiruvchi iboralar sifatida guruhlash mumkin. ‘‘Kechqurun **jamoat jam bo‘lganda** g‘azabdan ko‘karib ketgan kampir yetti pushtidan qolgan uch boylam vasiqani o‘rtaga ko‘tarib urdi’’ yoki ‘‘**Qiyin kunlarda** do‘stlar yordamga keladi’’ kabi iboralar nafaqat vaqtning o‘tishini, balki unga bog‘liq his-tuyg‘ular va holatlarni ham chuqur ifodalaydi. Bu iboralar tilning madaniy xotirasini saqlab, nutqga jonlilik va obrazlilik bag‘ishlaydi.

Albatta, sizda aniq soat vaqtlari turganda nega payt soʻzlardan foydalanish kerak degan savol tugʻilishi mumkin. Bilamizki, bir yilda toʻrt fasl bor va har bir faslda quyosh chiqish va botish vaqtlari oʻzgaradi. Yozda quyosh 4:50 da chiqadi, qishda esa 7:40 da [2] oradagi farq juda katta, shu sababli badiiy adabiyotlarda voqeani oʻquvchi koʻz oldiga aniq keltira olishi uchun ham payt soʻzlardan foydalaniladi. Sahar deganda oʻquvchining koʻz oʻngida endi chiqayotgan quyosh gavdalanadi, agar soat 4:30 deyilsa kimningdir koʻz oʻngida endi chiqayotgan quyosh gavdalanadi, kimdirda esa tun. Shu bois ham soʻzlashuv usulimizda va badiiy adabiyotlarda asosan aniq soatlardan emas, balki payt soʻzlaridan keng qoʻllaniladi.

Xulosa qilib aytganda oʻzbek tilida paytni ifodalovchi leksik birliklar nafaqat mantiqiy tushunchani, balki madaniy, hissiy va psixologik kontekstlarni ham oʻzida aks ettiradi. Ularni chuqur oʻrganish va toʻgʻri qoʻllash nutqning aniqligi, ifodaviyligi va badiiyligini oshirishga xizmat qiladi, tilning nozikliklarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Najmiddinov Muhammadjon. Oʻzbek tilida semantik maydonlar va ularning lugʻat tuzishdagi oʻrni. " Zamonaviy dunyoda ilm fan va texnologiyalar " nomli ilmiy-amaliy konferensiya.
2. <https://www.timeanddate.com/sun/uzbekistan/tashkent>
3. Abdulla Qodiriy. " Oʻtkan kunlar " [15]
4. Abdulla Qodiriy. " Mehrobdan chayon " [82]

UNDOV SO'ZLARING QO'LLANILISHI HAMDA NUTQDAGI AHAMIYATI HAQIDA

Yusupova Zebiniso Alisher qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Yusupovazebiniso32@gmail.com

Annotasiya: ushbu maqolada undov so'zlar, so'z-gaplarning ishlatilishi, nutqimizdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek nutqimizda odat tusiga kirgan undov so'zlarning lug'aviy ma'nosi, grammatik xususiyatlari qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: buyruq-xitob, emotsional, grammatika, morfologiya, oraliqdagi so'zlar, so'z-gap, undov so'zlar.

Annotation: This article discusses the use of exclamations, words and expressions, and their importance in our speech. It also briefly analyzes the lexical meaning and grammatical features of exclamations that are common in our speech.

Keywords: imperative-exclamatory, emotional, grammar, morphology, discourse markers, sentence-word, interjections.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование восклицаний, слов и выражений, а также их значение в нашей речи. Также кратко анализируются лексическое значение и грамматические особенности восклицаний, распространённых в нашей речи.

Ключевые слова: побудительно-восклицательные конструкции, эмоциональные, грамматика, морфология, дискурсивные маркеры, слово-предложение, междометия.

Nutqimizda shunday so'zlar borki, emotsiyani bildirishda, o'zgalar diqqatini qaratishda, ma'lum harakatga undash yoki undan qaytarish holatlarida muhim vosita sanaladi. Bunday so'zlarni tilshunoslikda undov so'zlar deb ataymiz. Undov so'zlar grammatik jihatdan boshqa gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydi. Bu qatlamga kiruvchi so'zlar qadimda ham hozirda ham faol iste'molda qo'llanib kelinmoqda. Yana shuni aytish o'rinliki, undov so'zlar qatorida turli tillardan o'zlashganlari ham yo'q emas. Xususan, arab tilidan o'zlashgan so'zlar(barakalla, assalomu alaykum, alhamdulillah), fors tilidan o'zlashgan so'zlar(ibi, oyboy), ruscha-baynalmilal so'zlar(alo,ura) bu nutqimizda faol qo'llaymiz. Adabiyotlarda modal so'zlar, undovlari, taqlid so'zlarni mustaqil turkumlarga ham yordamchi so'zlarga ham

kiritilmay alohida-alohida turkum deb qaraladi[5: 138]. Ya'ni undovlari mustaqil so'z turkumi ham, yordamchi so'z ham emas. Shu bilan birga ma'lum xususiyatlari o'xshash bo'ladi. Turlanish, yasaliş jihatidan mustaqil so'z turkumiga(masalan, *dod* asosga -la fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilib *dodlab*, *oh* so'ziga -im egalik qo'shimchasi qo'shiliş holatlari), mustaqil holda so'roqqa javob bo'lmaslik jihatidan yordamchi so'zlarga yaqindir. Shu tufayli oraliqdagi so'zlar deyiladi. Undovlari morfologik usul bilan yasalmaydi. Faqat fe'l yasovchi qo'shimchalar orqali yasaliş holatlari kuzatiladi. O'zbek tilshunosligida undovlari ikki turga bo'lib o'rganiladi: buyruq-xitob, nutqiy odat undovlari.

Buyruq xitob undovlari biror harakatga da'vat etish, o'zgalar diqqatini qaratish yoki ma'lum holatning oldini olish, undan qaytarish uchun ishlatiladi. Nutqiy odat undovlari esa kishilarning kommunikativ aloqalarini hosil qiladi, undagi munosabat va emotsiyani belgilab beradi. Ba'zi bir undov so'zlar borki, mustaqil ma'nodan vaqt o'tishi tufayli undovlashgan. Masalan, *yashang*, *voy o'lay*, *aylanay* kabi so'zlar ba'zan mustaqil qo'llansa, ba'zi o'rinlarda so'z-gap vazifasini bajaradi: *Voy o'lay, qachon kelding?* Quyida so'z-gap vazifasida keladigan ba'zi undovlarning lug'aviy ma'nolarini ko'rib o'tamiz.

Barakalla– (seni Xudo muborak qilsin, ofarin) 1. Kimsaning biror harakatidan mamnunlikni ma'qullash maqtovni anglatadi; 2. Ma'qullash, tasdiq ma'nosini anglatadi; 3. Norozilik, qoniqmaslik ma'nosini anglatadi(kinoya shaklida)

Labbay– 1. Birov chaqirganda beriladigan javob; 2. Nima deysiz? Nima dedingiz? Kabi ma'nolaridagi so'roqni anglatadi. Bu undov so'z arabcha bo'lib "labbayka", haj amallarini bajarish vaqtida "mana, Allohim huzuringdaman" degan ma'noda qo'llaniladi.

Marhamat– arabcha termin, rahm-shafqat, rahmdillik. 1. Rahm-shafqat yuzasidan ko'rsatiladigan iltifot, himmat, yaxshilik; 2. Taklif yoki rozilik bildiruvchi so'z. Undov so'z sifatida taklif ma'nosi unumli qo'llaniladi.

Obbo– ko'pincha hayajon, hayratlanish, achinish yoki qandaydir taassurotni ifodalovchi undov hisoblanadi.

Qulluq– 1. Minnatdorlik ifodalovchi so'z, rahmat; 2. Muborak, qutlug'. Qulluq so'zi minnatdorlik, rahmat ma'nosida ishlatiladi, ammo dastlab qullik, erksizlik, tutqunlikni anglatgan. "Qulluq qilmoq" iborasi esa ko'ngliga qo'lini qo'yib ta'zim qilmoq, minnatdorchilik bildirishni anglatgan.

So'z-gapning sintaktik xususiyati kesimlik qo'shimchasini qabul qilmasligi, bog'lama bilan birika olmasligi hisoblanadi. So'z-gapning umumiy sintaktik xususiyati

ular kesimlik qo'shimchasini qabul qilmagan holda gap va uning markazini tuza olishda[3: 280].

Undov so'zlar shunday xususiyatga egaki, bir shakl turli xil emotsiyalarni ifodalashi mumkin, hatto qarama-qarshi munosabatlarni: 1. Oh, nima qilib qo'yding? 2. Oh, buncha go'zal bu olam. 3. Oh-oh, mazali taom tayyorlaysan-da. 3. Oh, do'stim keldingmi? Birinchi gapdagi undov so'z achinish, dard-alam, hasrat tuyg'usini ifodalagan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi gaplarda zavq, quvonish, qoyil qolish ma'nosini, to'rtinchi gapda esa sog'inish, intizorlik ma'nosini ifodalagan. Bundan ko'rinadiki, undovlarning ba'zilar nutqdan ajratilganda qanday ma'no yuklatilayotgani noma'lum bo'lib, kontekstda anglashiladi.

Undov so'zlar kishilarning his-hayajonini, buyruq-xitob, haydash, chaqirish ma'nolarini ifodalaydi. Undov so'zlar leksik ma'no ifodalay olmasligi, kelishik, egalik, son affiksalarini olmasligi jihatidan mustaqil so'zlardan faq qiladi. Shuningdek nutqda boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirisha olmasligi, gapning biror bo'lagi vazifasini bajara olmasligi ham bu so'z turkumining asosiy xususiyatlaridan biridir. Ular faqat otlashgandagina gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'lagi vazifasini bajarishi mumkin[2: 286].

Xulosa qilib aytganda, undov so'zlar so'zlovchining ichki emotsiyasini nutqga chiqarishda, o'zgalar diqqatini qaratishda muhim vosita sanaladi. Tarixda ham hozir ham bunday birliklar faol iste'molda bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Hatto bir qancha olimlarning fikricha, og'zaki nutqning ilk ko'rinishlari ham undov so'zlardir. Ibtidoiy davrda insonlar nutqi to'la shakllanmagan paytda, aloqa vositasi sifatida undov so'zlardan foydalanishgan degan farazlar mavjud. Nima bo'lgan taqdirda ham bu birliklarning o'z o'rnida to'g'ri va mos ishlatilishi muhim masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Mirzayev, S. Usmonov O'zbek tili T., "O'qituvchi" 1978.
2. Q Sapayev Hozirgi o'zbek tili, morfemika, so'z yasash va morfologiya, T; 2009.
3. R. Sayfullayeva, Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent: 2009.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati, 1-jild Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. B.6
5. Sh. Rahmatullayev, Hozirgi adabiy o'zbek tili, Universitet, Toshkent: 2006.

FE'L SO'Z TURKUMI. YASALISH XUSUSIYATLARI

Saidmurodova Ruxshona Odil qizi

CHDPU O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Firuza Murodova

saidmurodovar89@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada fe'l so'z turkumining umumiy kategoriyalari, lingvistik tahlili tasnif qilindi. Fe'llarning yasash xususiyatlari, vazifa shakllari, nisbat shakllari haqida tahliliy fikrlar yuritildi. Tahlillar nazariya va missollar bilan dalillandi.

Kalit so'zlar: fe'l, kategoriya, qo'shimcha, grammatika, shakl, mazmun.

ANNOTATION: This article discusses the general categories of the verb phrase, its linguistic analysis, and its classification. Analytical thoughts about the development of the verbs, the forms of task forms were conducted. The analyses were proven with theory and examples.

Keywords: verb, category, addition, grammar, form, significance.

Fe'l — harakat bildiruvchi so'zlar turkumi va shu turkumga oid har bir so'z. Grammatikada "harakat" so'zi keng tushunchali bo'lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi, mas: yugurmoq, sakramoq, yig'lamoq, uxlamoq, o'ylamoq, sevmoq, tinchimoq, qurimoq.

Fe'llar lug'aviy ma'noga ega yoki ega emasligiga ko'ra 2 turga bo'linadi: 1. mustaqil fe'llar; 2. yordamchi fe'llar.

Mustaqil fe'llar, xuddi boshqa mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlar kabi, lug'aviy ma'noga ega bo'ladi, gapning mustaqil bo'lagi vazifasida kela oladi va hokazo. Yordamchi Fe'llar lug'aviy ma'noga ega bo'lmaydi. Ular turli yordamchi vazifalarda kelib, turli qo'shimcha ma'nolar ifodalash uchun xizmat qiladi. Yordamchi Fe'llar o'z vazifasiga ko'ra 3 asosiy turga bo'linadi: 1) fe'l yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe'llar: qil, et, ayla, bo'l (qabul qilmoq, taklif etmoq, tamom bo'lmoq kabi); 2) fe'lning analitik shaklini yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe'llar (bular, odatda, "ko'makchi fe'llar" deb yuritiladi). Fe'lning bunday shakllari turli grammatik, modal va boshqa ma'nolarni ifodalaydi: o'qib bo'ldi, ko'rib qoldi, qo'rqib ketdi va boshqa; 3) bog'lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe'llar. Masalan, qil, bo'l: sportchi bo'lmoq, o'qituvchi bo'lmoq. Hozirgi o'zbek tilida yordamchi fe'llardan

farklanuvchi "to'liqsiz fe'l" (lug'aviy ma'nosini tamomila yo'qotgan, hozirgi o'zbek tilida ma'lum bir grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanuvchi Fe'l)ning edi, ekan, emish, esa shakllari ham qo'llanadi.

Fe'l turkumi, boshqa so'z turkumlari kabi, o'ziga xos so'z yasalishi va shakl yasalishi tizimiga ega. Yasama Fe'llar -la, -lan, -lash, -lantir, -lashtir affikslari hamda qil, et (ayla) yordamchi Fe'llari bilan hosil qilinadi: olqishlamoq, ruhlanmoq, birlashmoq, jabr qilmoq, ruxsat etmoq. Fe'llar o'ziga xos murakkab grammatik kategoriyalar tizimiga ega. Xususiy ma'nolari bilan o'zaro farqlanuvchi, bir umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi shakllar tizimi fe'lning grammatik kategoriyalarini hosil qiladi. O'zbek tilida Fe'lning quyidagi grammatik kategoriyalar bor: nisbat kategoriyasi, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi, mayl kategoriyasi, zamon kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi.

Nisbat kategoriyasi — harakatning subyekt va obyektga munosabatini ko'rsatuvchi grammatik kategoriya. Harakatning subyekt va obyektga munosabatini ko'rsatishiga ko'ra nisbat kategoriyasining 5 turi farqlanadi: bosh nisbat; o'zlik nisbati; orttirma nisbat; majhul nisbat; birgalik nisbati. Har bir nisbat shakli maxsus qo'shimcha yordamida yasaladi. Faqat bosh nisbat maxsus yasovchi ko'rsatkichga ega emas. Bosh nisbat harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi: oldi, keldi, so'rayapti va boshqa. O'zlik nisbati shakli (i)n, (i)l qo'shimchalari yordamida yasaladi va harakatning subyektning o'ziga obyekt sifatida karatilganligini yoki subyektning o'zi doirasida yuzaga kelishini (bajarilishini) bildiradi: maqtanmoq, ko'rinmoq, tug'ilmoq va boshqa. Orttirma nisbat shakli -dir, -ir, -t affikslari yordamida yasaladi va obyeksiz Fe'lni obyektiv Fe'lga aylantiradi, obyektli Fe'ldan yasalganda esa unga yana obyekt qo'shilganini bildiradi: keltir, kuldur, ichir, o'qit va boshqalar. Majhul nisbat shakli (i)l, (i)n qo'shimchalari bilan yasaladi va asosiy e'tiborni harakatning bajaruvchisiga emas, balki obyekt bilan harakatning o'ziga qaratilishini bildiradi: keltirildi, tozalandi. Bu nisbat shakli obyeksiz (o'timsiz) Fe'llardan yasalganda, shaxssizlik ma'nosi ifodalanadi: (ko'priktan) o'tildi, (mehmonga) borildi va boshqa. Birgalik nisbati -sh affiksi yordamida yasaladi va harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan, birgalikda bajarilishini bildiradi: (yer) haydashdi, (meva) terishdi va boshqa. Demak, nisbat shaklining o'zgarishi bilan harakatning subyekt yoki obyektga munosabatida o'zgarish bo'ladi. Bo'lishli- bo'lishsizlik kategoriyasi — harakatning tasdiq yoki inkori ma'nosini ifodalovchi shakllar tizimi. Bu kategoriyaning o'zaro ziddlik hosil qiluvchi 2 jihati bor: bo'lishlilik va bo'lishsizlik. Bo'lishli fe'lning maxsus ko'rsatkichi yo'q (nol

ko'rsatkichli). Bo'lishsiz fe'l shakli esa -ma affiksi yordamida yasaladi: keldi (bo'lishli shakl) — kelmadi (bo'lishsiz shakl). Bo'lishsizlik (inkor) ma'nosi "yo'q" so'zi va "emas" to'liqsiz Fe'li bilan ham ifodalanadi: borgani yo'q, borgan emas.

Mayl kategoriyasi — harakatning voqelikka munosabatini so'zlovchi nuqtai nazaridan belgilovchi grammatik kategoriya. O'zbek tilida maylning quyidagi turlari bor: 1) buyruq-istak mayli: ayt, aytgin, ayting kabi; 2) shart mayli. Bu mayl shakli -sa affiksi yordamida yasaladi: borsam, borsang, kursa kabi; 3) shartli mayl — bajarilishi shart ergash gapdan anglashilgan harakatning bajarilishiga bog'liq bo'lgan (shartlangan) harakatni bildiruvchi mayl. Bu mayl shakli (a)r edi, mas edi yordamida yasaladi va bu shakldagi Fe'l bosh gapning kesimi bo'lib keladi: Vaqting bo'lsa, kinoga borar edik. Imkonning bo'lsa, bunday qiynalib yurmas eding; 4) maqsad mayli. Bu mayl shakli -moqchi affiksi yordamida yasaladi va harakatni bajarish-bajarmaslik maqsadini bildiradi: so'ramoqchiman, o'qimoqchiman, aytmoqchi emasman; 5) ijro mayli — harakat-holatni uning bajarilishi (ijrosi) bilan har uch zamondan birida ifodalaydigan mayl. Bu mayl turi zamon va shaxs-son ko'rsatkichlari orqali shakllanadi: o'qidim, o'qiyapman, o'qiyman; ko'rganman, ko'rgansan, ko'rgan.

Zamon kategoriyasi — harakatning nutq paytiga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya. Harakatning nutq paytiga munosabatiga ko'ra Fe'lning 3 zamon turi farqlanadi: o'tgan zamon — keldi, oldim; hozirgi zamon • — kelyapman, kelyapti; kelasi zamon — kelaman, olasan va boshqa

Shaxs-son kategoriyasi — harakatning 3 shaxs (so'zlovchi, tinglovchi, o'zga)dan biriga oidligi ma'nosini bildiruvchi grammatik turkum: keldim (birinchi shaxs, birlik), keldik (birinchi shaxs, ko'plik), kelding (ikkinchi shaxs, birlik), keldingiz (ikkinchi shaxs ko'plik).

O'zbek tilida Fe'lni ma'lum bir vazifaga xoslovchi shakllar ham mavjud. Bular: sifatdash (qarang), ravishdash (qarang), harakat nomi (q) shakllaridir. Bulardan tashqari Fe'lning turli modal ma'no, takror ma'nosi va boshqa ma'nolarni bildiruvchi shakllari ham bor. Ular maxsus qo'shimchalar, ko'makchi fe'llar yordamida hosil qilinadi: keta qol, ketib qoldi, keta ko'rmoq, turtkilamoq, qo'rinqiramoq, kulimsiramoq va boshqalar.

Fe'llar qanday grammatik shaklda qo'llanilishiga qarab gapning turli bo'lagi vazifasida keladi. Mas: mayl, zamon, shaxs-son paradigmasiga mansub shakllardan birida qo'llanganda — kesim vazifasida; sifatdash, ravishdash shakllarida — aniqlovchi, hol vazifasida; harakat nomi shaklida esa ot turkumiga oid so'zlarga xos vazifalarda keladi.

o'shamoq, qiynamoq, shildiramoq, jildiramoq), sifat/ravish+(a)y (qoraymoq, toraymoq, ko'paymoq, ozay va boshqalar.

Fe'l o'ziga xos so'z yasash tizimiga ega. U, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli.

Affiksatsiya usuli. Affiksatsiya usuli keng qamrovli. Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zdan fe'l yasaladi. Yasash asosiga qo'shilib, fe'l hosil qiluvchi affiksning so'z yasash darajasi ham turlicha. *-la, -lan, -lashtir, -(a)/r, -(a)y* kabi affiks ancha mahsuldor bo'lib, ko'p miqdorda fe'l hosil qiladi. Bu affiksning har biri turli derivatsion qolip tarkibida fe'l yasaydi:

1. *ot/sifat/ravish/olmosh/taqlid/undov + la = 1) asosdan anglashilgan narsa/predmetga ega holatli qilish harakati; 2) asosdan anglashilgan asbob vositasida bajariladigan harakat; 3) asosdan anglashilgan narsa/predmetni yuzaga keltirish harakati* qolipi ko'p ma'noli bo'lib, uning hosilalari quyidagicha:

1) *o'g'itla, moyla, betonla, jilovla, kishanla, tikla, tekisla, dumaloqla, to'g'rila, tushovla;*

2) *randala, qaychila, egovla, arrala;*

3) *urug'la, mog'orla, bolala, chuhla, dodla, gumburla, sizla, senla, hozirla* kabi.

2. *ot/sifat/son + lan/lash + subyektning asosdan anglashilgan belgiga ega bo'lishi harakati* qolipi tarkibidagi *-lan/lash* affiksi o'zining murakkab tabiati bilan xarakterlanadi. Zohiran ular ikki affiksning birikuvi (*-la + -n* va *-la + -sh*) dek ko'rinadi. Chunki hozirgi o'zbek tilida *-la* so'z yasovchi va *-sh* hamda *-n* nisbat shakllari faol bo'lib, ko'p hollarda ular birgalikda keladi.

Shuningdek, *-lan/lash* affiksalarida birgalik va o'zlik nisbati ma'nolari ham uqilib turadi (*shodlanmoq, salomlashmoq, afsuslanmoq, ajablanmoq, zavqlanmoq, lazzatlanmoq, janjallashmoq, ravshanlashmoq* kabi). Biroq bu misollarda *-lan/lash* affiksini ajratib bo'lmaydi. *Maydalanmoq* kabi fe'llarda esa ular ajraladi (*mayda + la + n + moq*). Demak, bunda *-la* va *-n* – mustaqil affiks.

-lan affiksining aslida *-la* va *-n* affikslarining birikuvidan iborat ekanligini sezish qiyin emas.

3. *taqlid + illa/ira = asos bildirgan tovush yoki obrazni harakat tarzida ifodalash* qolipi faqat taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: *chirqillamoq, chirsillamoq, likillamoq, guvillamoq,*

shuvillamoq, mo'ltillamoq, bezillamoq, yarqiramoq, sirqiramoq, mo'ltiramoq, yaltiramoq. -illa va *-ira* qo'shimchalari orasida ma'noviy farq kuzatilmaydi, balki ular qaysi so'zga qo'shilishi bilan farqlanadi, xolos.

4. *ot/sifat/taqlid + a* (*oshamoq, qonamoq, o'ynamoq, bmoq*), *sifat + (a)r* (*oqarmoq, ko'karmoq, qisqarmoq, eskirmoq*), *ot/olmosh+sira* (*qonsiramoq, suvsiramoq, tuzsiramoq, gumonsiramoq*), *son/ot/ravish+(i)k/(i)q* (*birikmoq, yo'liqmoq, kechikmoq, zo'riqmoq*), *sifat/ot+i* (*tinchimoq, boyimoq, changimoq*), *sifat+t* (*to'latmoq, berkitmoq*)) qoliplari unumsiz qolip bo'lib, birinchidan, ularning hosilalari sanoqli bo'lib, bugungi kunda bu qolip asosida yangi-yangi so'z hosil qilib bo'lmaydi, ikkinchidan, bu hosila davr o'tishi bilan derivatsion ma'nosi jihatidan bir-biridan shu darajada uzoqlashib ketganki, ular asosida qolipning o'ng, ya'ni ma'noviy tomonini chiqarib, aniqlab bo'lmaydi. (*Kamsitmoq*), (*boshqarmoq*), (*g'ivirsimoq*), (*yo'qolmoq*), (*kuchanmoq*),

(*yotsinmoq*), (*qiziqsinmoq*) kabi fe'lning ham yasamaligi aniq, lekin ulardagi affikslar ayrim so'z doirasida chegaralangan. Ularga nisbatan ham yuqorida aytilgan fikr o'rinli.

(*siltala*), (*tortqila*), (*opichla*) kabi so'zdagi shakl yasovchi *-la* affiksini fe'l yasovchi *-la* affiksi bilan chalkashtirmaslik kerak. Ular – omonim affiks. *-kila* (*-qila*, *-gila*, *-g'ila*), *-imsira*, *-inqira*, *-sh/ish* (*to'lish*, *qizish*, *ozish*), *-q/iq/k/ik* (*toliq*, *ko'nik*), *-qi/g'i* affikslari hozirgi o'zbek tilida harakatning tarzini (*kuchli/kuchsizligi*, *takroriyli*) kabi bildirganligi uchun shakl yasovchi sifatida qaraladi.

Kompozitsiya usuli. Bu usul vositasida qo'shma va juft fe'l yasaladi.

Qo'shma fe'l. *Qo'shma fe'l* tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) *ism+fe'l*;

b) *fe'l+fe'l*.

Ism+fe'l tipidagi fe'lni hosil qilishda yordamchi fe'l vazifasida *qilmoq, etmoq, aylamoq, bo'lmoq, bermoq, olmoq, topmoq, yemoq, urmoq, ko'rmoq, kelmoq, keltirmoq* kabi birlik

keladi: *abgor qilmoq, ado bo'lmoq, ayyuhannos solmoq, javob bermoq, javob olmoq, xalal bermoq, xabar olmoq, qiron solmoq, tartibga keltirmoq, oh urmoq, tush ko'rmoq, qo'nim topmoq* kabi.

O'zbek tilida *fe'l+fe'l* tipidagi fe'l barmoq bilan sanarli: *sotib olmoq, olib barmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, olib qochmoq, ishlab chiqarmoq* kabi.

Juft fe'l. *Juft fe'l* grammatik shakliga ko'ra ikki ko'rinishda bo'ladi:

a) biri *ravishdosh*, ikkinchisi *boshqa* shaklda: *aylanibo'rgilmoq, yelib-yugurmoq, yayrab-yashnamoq, o'ynab-kulmoq, qo'llab-quvvatlamoq*;

b) har ikki qismi bir xil shaklda: *aylanib-o'rgilib, o'ylamaynetmay, aralashib-quralashib, achib-bijib, tejab-tergab, qisinibqimtinib, yuvib-tarab, yayrab-yashnab.*

Tilshunosligimizda fe'l ibora bilan qo'shma fe'l chegarasi aniq oydinlashtirilmagan.

Juft fe'llar tarkibiy qismining qo'llanishiga ko'ra quyidagi shakllarda bo'ladi:

1) qismlari yakka holda ishlatiladigan juft fe'llar:

a) qismlari o'zaro sinonim: *hormay-tolmay, qo'llabquvvatlamok;*

b) qismlari o'zaro antonim: *kelib-ketib, o'lib-tirilib, kiribchiqib, o'tirib-turib;*277

d) qismlarining ma'nosi yaqin: *aylanib-o'rgilmoq, yebichmoq, o'ynab-kulmoq, oshirib-toshirib, yuvib-tarab.*

2) ikkinchi qismi yakka (mustaqil) ishlatilmaydigan fe'l:

aldab-suldab, yig'lab-siqtab, yamab-yasqab, qolgan-qutgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Ra'no Sayfullayeva Toshkent-2010

2. *Ozbek tili tarixi*" Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2009

3. "O'zbek tili tarixi" Baxtiyor Abdishukurov. "Nodirabegim" nashriyoti Toshkent-2021.

4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fe%CA%BCI>

JARGONLARNING O'ZBEK TILIDAGI AHAMIYATI**Shavkatova Madina**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida jargonlarning shakllanishi, qo'llanish sohalari va jamiyat hayotidagi o'rni yoritiladi. Jargonlar yoshlar nutqida, kasbiy guruhlarda hamda ijtimoiy muhitda keng qo'llanilib, til boyligining bir qismi sifatida o'rganiladi. Ularning ijobiy va salbiy jihatlari hamda adabiy tilga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jargon, o'zbek tili, nutq madaniyati, yoshlar tili, adabiy til, kasbiy jargon.

Abstract. This article examines the formation of jargon in the Uzbek language, its areas of application and its role in society. Jargon is widely used in youth speech, professional groups and social environments and is studied as part of the language's richness. Their positive and negative aspects and impact on the literary language are analyzed.

Keywords: jargon, Uzbek language, speech culture, youth language, literary language, professional jargon.

Аннотация. В статье рассматривается формирование жаргона в узбекском языке, сферы его применения и роль в обществе. Жаргон широко используется в речи молодёжи, профессиональных группах и социальной среде и изучается как часть языкового богатства. Анализируются его положительные и отрицательные стороны, а также влияние на литературный язык.

Ключевые слова: жаргон, узбекский язык, культура речи, язык молодёжи, литературный язык, профессиональный жаргон.

Til jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, unda xalqning ma'naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlari mujassamdir. Har bir til tizimida so'z boyligining muhim qismini **jargon** yoki **so'zlashuv nutqiga xos atamalar** tashkil etadi. Jargonlar, odatda, ma'lum ijtimoiy guruh, kasb yoki yoshlar orasida shakllanib, ularning o'zaro aloqa jarayonida o'ziga xos ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois jargonlar til tizimining dinamik qatlamini tashkil etib, zamonaviy o'zbek tilining rivojida muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda axborot

texnologiyalari, internet madaniyati va yoshlar tili rivoji bilan jargonlarning qo'llanish doirasi kengayib, ular ommaviy nutq, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida faol namoyon bo'lmoqda. Jargonlarning o'zbek tilidagi ahamiyatini o'rganish nafaqat tilning ichki rivojlanish jarayonlarini tahlil etish, balki jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik omillarni ham anglash imkonini beradi. Shu sababli, jargonlar tilshunoslikda leksik qatlamning o'ziga xos, dinamik va ijtimoiy jihatdan belgilangan unsuri sifatida alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi.

Har bir tilning boyligi nafaqat adabiy shaklda, balki turli qatlamlarida ham namoyon bo'ladi. Shunday qatlamlardan biri jargonlardir. Jargon — muayyan ijtimoiy guruh vakillari tomonidan qo'llaniladigan, adabiy til me'yoridan farqlanuvchi, o'ziga xos so'z va iboralar majmuasidir. O'zbek tilida ham yoshlar jargoni, kasbiy jargonlar va turli ijtimoiy guruhlarning jargonlari mavjud bo'lib, ular til taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Jargonlar lingvistik hodisa sifatida tilning norasmiy qatlamiga kiradi. Ular ko'proq ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'zaro aloqani mustahkamlash, o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatish, nutqqa hissiy tus berish kabi funksiyalarni bajaradi. Shu sababli jargonlar ko'pincha tor doiradagi aloqa vositasi sifatida shakllanadi. O'zbek tilida jargonlarning turlari:

Yoshlar jargoni: Asosan maktab va oliy ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda talabalar nutqida keng tarqalgan. Masalan, "tusmoq" (tushunmoq), "yaxshi kayf" (xush kayfiyat), "gap yo'q" (zo'r).

Kasbiy jargonlar: Har bir kasb vakillari nutqida uchraydigan maxsus so'z va iboralardir. Masalan, shifokorlar jargonida "analiz" o'rniga "anal", quruvchilar orasida "proya" (proyekt), haydovchilar tilida "ga'z" (gaz pedalini bosish).

Hududiy va ijtimoiy guruh jargoni: Ayrim hududlarda yoki guruhlarda shakllangan jargonlar umumxalq tiliga xos emas, ammo tor muhitda keng ishlatiladi.

Jargonlarning ijobiy jihatlari

Tilni boyitadi, yangi so'z va iboralarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Muloqot jarayonida samimiylik va erkinlik yaratadi.

Guruh a'zolari o'rtasida o'zaro birdamlik, do'stona muhitni mustahkamlaydi.

Ko'plab jargonlar vaqt o'tishi bilan adabiy tilga ham kirib boradi. Masalan, ilgari jargon hisoblangan "zo'r", "kayf" kabi so'zlar hozir umumxalq tilida keng tarqalgan. Jargonlarning salbiy jihatlari. Adabiy til me'yorlariga zid kelishi tufayli tilning tozaligiga salbiy ta'sir qiladi.

Rasmiy nutqda, ilmiy ishlarda yoki ommaviy axborot vositalarida qo'llanishi nutq madaniyatiga putur yetkazadi. Yoshlar orasida jargonlarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi so'z boyligining qashshoqlashishiga olib kelishi mumkin.

Ba'zi jargonlar qo'pol, odobsiz ma'no kasb etib, axloqiy tarbiyaga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tilida jargonlarning mavjudligi, birinchi navbatda, tilning tirik va doimiy o'zgarishda ekanidan dalolat beradi. Ular orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, yoshlar dunyoqarashi, zamonaviy kasblar va texnologiyalarning ta'siri ko'zga tashlanadi. Shu bois jargonlarni faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki lingvistik jarayonning tabiiy natijasi sifatida ham baholash zarur. Muhimi, jargonlar me'yoriy nutq bilan uyg'unlashtirilishi, adabiy tilning asosiy qadriyatlari buzilmasligi kerak.

Jargonlar o'zbek tilining zamonaviy taraqqiyotida faol leksik qatlam sifatida tilning boyishiga, ifoda vositalarining rang-baranglashuviga va ijtimoiy guruhlar nutq madaniyatining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Ularning qo'llanilishi yoshlar nutqida, kasbiy sohalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy nutqda o'ziga xos tildagi yangilanishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, jargonlarning haddan tashqari ishlatilishi adabiy til me'yorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, jargonlarni ilmiy asosda o'rganish, ularning qo'llanish sohalarini aniqlash va til tizimidagi o'rnini belgilash o'zbek tilining hozirgi davr leksik jarayonlarini to'g'ri baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jargonlarning o'rganilishi orqali nafaqat tilning ijtimoiy tabiatini, balki xalqning madaniy va kommunikativ xususiyatlarini ham chuqurroq anglash mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jargonlar tilimizning ajralmas qatlamlaridan biri bo'lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va kasbiy hayotni o'zida aks ettiradi. Ularning qo'llanilishi turli guruhlar o'rtasidagi muloqotni yengillashtirsa-da, ularni me'yoriy nutqdan farqlash muhimdir. Tilning asosiy vazifasi jamiyat a'zolari o'rtasida umumiy tushunishni ta'minlashdan iborat bo'lgani uchun, jargonlarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, jargonlardan nutqni rang-baranglashtirish va ijtimoiy guruhlarning o'ziga xosligini ifodalashda foydalansa bo'ladi, biroq rasmiy va ilmiy sohalarida ulardan tiyilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jo'rayev N. O'zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
2. Mahmudov N. O'zbek tili taraqqiyoti va istiqboli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.

3. Karimov X. Til va jamiyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020
4. Internet manbalari: www.ziyouz.com, www.tilvaadabiyot.uz
5. Jo'rayev, M. (2015). *Til va jamiyat: sotsiolingvistik tahlillar*. – Toshkent: Fan nashriyoti. Madrahimova, N. (2019). *Zamonaviy o'zbek tili leksikasining sotsiolingvistik jihatlari*. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

ҚАЗАҚ ТІЛІНДЕГІ СИНОНИМДЕР ЖҮИЕСЫ**Азимбекова Умида Сайдахмад қызы**

Шыршық мемлекеттік педагогикалық университеті

Қазақ тілі мен әдебиеті бағытының 4-курс студенті

Телефон: +998992869704

Электрондық пошта: umidaazizbekova5@gmail.com

Ғылыми жетекші: Нүркелді Жарасба

Аннотация. Бұл мақалада қазақ тіліндегі синонимдер жүйесі жан-жақты қарастырылады. Синонимдер – мағынасы жақын, бірақ дыбысталуы әртүрлі сөздер. Олар. тілдің бейнелілігін арттырып, сөйлеуді әсерлі етеді. Қазақ тілінде синонимдер. өте көп кездеседі, себебі халықтың тұрмыс-тіршілігі, дүниетанымы, мәдениеті. тілде өзіндік көрініс табады. Мақалада синонимдердің түрлері, қолданылу. аясы, стильдік реңкі және сөйлеу мәдениетіндегі қызметі талданады.

Кілт сөздер. Синоним, синонимдер жүйесі, мағына жуық сөздер, стильдік реңк, тіл мәдениеті, лексика.

Annotation. This article provides a comprehensive study of the system of synonyms in the Kazakh language. Synonyms are words that have similar meanings. but different sound forms. They enrich the expressiveness of the language and make. speech more impressive. The abundance of synonyms in Kazakh is explained by thenation's worldview, lifestyle, and culture. The article analyzes the types of synonyms, their usage, stylistic nuances, and role in language culture.

Keywords. Synonym, synonym system, similar meaning words, stylistic nuance, language culture, lexicon.

Кіріспе. Қазақ тілінің сөздік қоры аса бай әрі алуан түрлі. Сол байлықтың бір көрінісі – синонимдер жүйесі. Синонимдер сөйлеудің мәнерлілігін күшейтіп, ойды көркем жеткізуге мүмкіндік береді [1]. Лексикология саласында. синонимдерді зерттеу мәселесі – тілді танудағы маңызды бағыттардың бірі.

Қазақ тілінде синонимдер жүйесінің қалыптасуына ұлттық мәдениет, халық даналығы, тұрмыс-салт үлкен ықпал еткен. Синонимдерді терең зерттеу тек сөздік құрамды байытумен шектелмей, тіл. мәдениетін жетілдіруге, көркем әдебиет тілін талдауға, оқыту үдерісінде тілдік материалдарды тиімді пайдалануға жол ашады.

Негізгі бөлім. 1. Синоним ұғым. Синонимдер – мағынасы жағынан жақын, бірақ тұлғасы әртүрлі сөздер. Ол. бірнелейді.

Мысалы: әдемі – сұлу – көрікті; батыр – ержүрек – қайсар. Синонимдердің ерекшелігі – бір ұғымды дәл беріп қана қоймай, ойды көркемдеуге, стильдік реңк қосуға мүмкіндік береді. 2. Синонимдердің түрлері. Қазақ тіл білімінде. синонимдер бірнеше топқа бөлінеді: 1. Толық мағыналас синонимдер. Мағынасы толық сәйкес келетін сөздер. Мысалы: көктем – жазғытұрым; бала. – перзент. 2. Мағыналық реңкі бар синонимдер Негізгі мағынасы ортақ. болғанымен, реңкі өзгеше сөздер. Мысалы: батыр – ержүрек – қаһарман. 3. Стильдік синонимдер. Әр стильде қолданылуымен ерекшеленеді. Мысалы: басшы (бейтарап) – жетекші (ресми) – көсем (көне). 4. Диалектілік синонимдер. Аймақтық ерекшеліктерге байланысты. қолданылатын сөздер. Мысалы: жәшік – кебеже; қасық – ожау. 3.Синонимдердің қызмет. - Тілді көркемдеу. Синонимдер сөздің бейнелілігін. арттырады. Ойды дәл жеткізу. Сөздің мағыналық реңкін нақтылауға. көмектеседі. - Стильдік реңк беру. Ресми, көркем әдебиет, ауызекі сөйлеу. стилінде түрлі қызмет атқарады. - Мәтінді байыту. Әдеби шығарманың. көркемдік қуатын күшейтеді. 4. Қазақ тіліндегі синонимдер жүйесінің ерекшелігі. Қазақ тіліндегі. синонимдердің молдығы халықтың дүниетанымымен, мәдениетімен тығыз. байланысты. Әсіресе табиғатқа, тұрмысқа, адам қасиеттеріне қатысты. синонимдер көп кездеседі.Мысалы: - жер сөзінің синонимдері: отан, ел, мекен, қоныс.- қазақ сөзінің синонимдері: алаш, жұрт, халық.- батыр сөзінің. синонимдері: ер, қаһарман, қайсар, ержүрек. Бұл синонимдер қазақ халқының ұғым-түсінігін, ұлттық мәдениеті мен. тарихын айқын көрсетеді. Қазақ тіліндегі синонимдер жүйесі – тілдің байлығы мен. көркемдік қуатын танытатын басты қабаттардың бірі. Синонимдер тек. лексикалық құбылыс қана емес, сонымен бірге тіл мәдениетін қалыптастыратын, ойды бейнелі жеткізетін маңызды құрал. Оларды дұрыс. меңгеру – сөйлеу мәдениетін жетілдіріп, жазба тілдің де, ауызекі тілдің де. сапасын арттырады [2].

1. Балақаев М. Қазақ тілінің лексикологиясы. – Алматы, 1991.
2. Сайрамбаев Т. Лексикология мәселелері. – Алматы, 2004.
3. Қайдар Ә. Қазақ тілінің өзекті мәселелері. – Алматы, 1998.
4. Болғанбайұлы Ә., Қалиұлы Ғ. Қазіргі қазақ тілі (лексикология). – Алматы, 2006.
5. Аханов К. Тіл білімінің негіздері. – Алматы, 2007.

QO'LLANISH DOIRASI CHEGARALANGAN LEKSIKA

Shohista Daminova Baxtiyor qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

2-bosqich talabasi

Shohistadaminova11@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada qo'llanish doirasi chegaralangan leksikaning mazmun-mohiyati, uning til tizimidagi o'rni va amaliy ahamiyati yoritilgan. Xususan, kasbiy, dialektal, jargon va terminologik so'zlarning shakllanishi hamda ularning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, bunday leksikaning nutq madaniyatiga ta'siri, cheklangan vaziyatlarda ishlatilishi va keng umumxalq tilidan farqli jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari o'quv jarayoni, tarjimashunoslik hamda tilshunoslikdagi amaliy ishlarda qo'l kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: chegaralangan leksika, kasbiy leksika, jargon, dialekt, termin, nutq madaniyati, qo'llanish doirasi.

ABSTRACT. This article covers the essence of limited-scope lexicon, its role in the language system and its practical significance. In particular, the formation of professional, dialectal, jargon and terminological words and their usage features are analyzed. The article also shows the impact of such lexicon on speech culture, its use in limited situations and its differences from the general language. The results of the research can be useful in the educational process, translation studies and practical work in linguistics.

Keywords. Limited-scope lexicon, professional lexicon, jargon, dialect, term, speech culture, scop.

АННОТАЦИЯ. В данной статье раскрываются сущность и содержание лексики с ограниченной сферой употребления, её место в языковой системе и практическое значение. В частности, анализируется формирование профессиональной, диалектной, жаргонной и терминологической лексики, а также особенности их употребления. В статье также рассматривается влияние подобной лексики на культуру речи, её использование в ограниченных ситуациях и отличия от общеупотребительного языка. Результаты исследования могут быть полезны в учебном процессе, переводоведении и практической лингвистике.

Ключевые слова: лексика с ограниченной сферой употребления, профессиональная лексика, жаргон, диалект, термин, культура речи, сфера употребления.

Til har bir xalqning ma'naviy boyligi, madaniyati va ijtimoiy hayotini ifodalovchi eng muhim vositadir. Lug'at tarkibi esa xalqning turmush tarzi, kasbi, hududi va ijtimoiy guruhlariga qarab xilma-xil bo'lib shakllanadi. Tilshunoslikda barcha kishilar uchun tushunarli bo'lgan umumxalq leksikasidan tashqari, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika ham mavjud. Bunday so'zlar faqat muayyan kasb vakillari, hudud aholisi yoki ijtimoiy guruhlar nutqida uchraydi. Ularni o'rganish tilning boyligi, nutq madaniyati hamda jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tilshunoslikda qo'llanish doirasi chegaralangan leksika alohida qatlam sifatida ko'rib chiqiladi. Chunki bu so'zlar umumxalq tiliga nisbatan torroq vaziyatlarda qo'llanadi va ularning tushunilishi doim ham keng ommaga ochiq emas. Masalan, kasbiy so'zlar faqat shu sohaga oid mutaxassislar tomonidan ishlatiladi, dialektizmlar esa ayrim hududlarda yashovchi kishilarga xosdir. Shuningdek, jargon va argolar ijtimoiy guruhlar nutqini farqlovchi belgi sifatida namoyon bo'ladi. Tilshunos olimlarning fikricha, bunday leksik qatlam tilning rang-barangligini, xalqning turmush tarzi va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli ularni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika: Til boyligini va uning ijtimoiy guruhlariga xos xususiyatlarini namoyon qiladi; kasbiy, hududiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllanadi; Nutq madaniyatida to'g'ri va o'rinli ishlatilganda muloqotni samarali qiladi; Tilshunoslik va ta'lim jarayonida o'quvchilarni turli nutq qatlamlari bilan tanishtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika tilshunoslikning alohida o'rganilishi lozim bo'lgan muhim bo'limidir va u til taraqqiyotining jonli ko'zgusi sifatida qadrlanadi. Til lug'at tarkibi umumxalq leksikasi va chegaralangan qo'llanishdagi leksikadan iborat. Umumxalq leksikasi barcha kishilar uchun tushunarli bo'lsa, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika esa faqat muayyan soha, hudud yoki guruh ichida qo'llanadi.

1. Kasbiy leksika (professionalizmlar). Ma'lum bir kasb egalari nutqida uchraydi. Masalan: dehqonlarda – chopiq, ko'chat; quruvchilarda – armatura, shpatlyovka. Bu so'zlar ko'proq og'zaki nutqda ishlatiladi, ilmiy terminlardan farqi – ular qat'iy izohga ega emas.

2. Terminlar. Fan, texnika va turli sohalarda aniq tushunchani bildiradi. Masalan: huquqda – kodeks, matematikada – integral, tibbiyotda – diagnostika. Terminlar ilmiy matnlarda faol qo'llanadi va aniqligi bilan ajralib turadi.

3. Dialektal leksika (dialektizmlar). Ma'lum hudud yoki shevaga xos bo'lgan so'zlar. Masalan: Surxondaryoda yong'oq o'rniga jo'g'ari, Buxoroda chuchvara o'rniga manti. Bu so'zlar adabiy til uchun xos emas, lekin xalq og'zaki ijodida keng uchraydi.

4. Jargon va argolar. Ma'lum ijtimoiy guruh, yoshlar yoki kasbiy qatlam vakillari nutqida uchraydi. Masalan: talabalarda – sessiya o'rniga sessyuxa, yoshlarda – super, krutoj. Ko'pincha norasmiy nutqda ishlatiladi, adabiy til me'yorlariga mos kelmaydi. Chegaralangan qo'llanishga ega – hamma uchun emas, balki ma'lum guruhdagilar uchun tushunarli. Til boyligini ko'rsatadi – sohalar, hududlar va ijtimoiy guruhlarining o'ziga xosligini aks ettiradi. Umumxalq tilidan farq qiladi – keng iste'molda emas, ammo ayrim holatlarda adabiy tilga ham kirib kelishi mumkin. Tilning rang-barangligini ta'minlaydi. Ilm-fan, kasbiy faoliyat va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Tilshunoslikda, tarjimashunoslikda va ta'limda alohida o'rganiladi.

Xulosa qilib aytganda, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika tilimizning ajralmas qismi hisoblanadi. U kasbiy atamalar, dialektizmlar, jargonlar va terminlar orqali tilning boyligini, xalqning turmush tarzini va ijtimoiy hayotidagi o'ziga xosliklarni ifodalaydi. Bunday leksikaning o'rganilishi ilmiy va amaliy jihatdan muhim bo'lib, tilshunoslik, tarjimashunoslik va ta'lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ular nutq madaniyatida to'g'ri va o'rinli qo'llanilishi kerak, chunki bunday so'zlar umumxalq uchun hamisha ham tushunarli bo'lavermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vinogradov V. V. „Itogi obsujdeniya voprosov stilistik // Voprosi yazikoznaniya.“ 1959. [CIA World Factbook n007-06-12da asl nusxadan](#).
2. ↑ [CIA World Factbook y](#) Kenyon J. S. „Cultural Levels and Functional Varieties of English // Readings in Applied English Linguistics.“ N. Y., 1958. R. 215-220.
3. ↑ [About 37 % of the population of Golestan province of 1,687,086]
4. ↑ [RFE/RL Turkmenistan: President Shows No Sign Of Welcoming Refugee Kinsmen](#)
5. Shveytser A. D. „Sotsialnaya differentsiatsiya angliyskogo yazika v SShA“ M., 1983. 216 b

TILSHUNOSLIKDA LEKSIKOLOGIYA

Sobirova Maftuna Rasul qizi

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

maftunasabirova70@gmail.com

Annatotsiya: Leksikologiyaga bo'limida so'zning ichki va tashqi ma'nolarni o'rganish.

Kirish so'zlar: Leksikologiyaga ,metofora, metanimiya, senekdoxa, vazifadoshlik, kinoya ,tag ma'no,leksik va grammatik ma'nolar.

Аннотация: раздел лексикологии, изучающий внутренние и внешние значения слов.

Ключевые слова: лексикология, метафора, метонимия, аллитерация, сравнение, ирония, семантика, лексические и грамматические значения.

Annotation:: A branch of lexicology that studies the internal and external meanings of words.

Keywords: Lexicology, metaphor, metonymy, alliteration, simile, irony, semantics, lexical and grammatical meanings.

Bu bo'limda sizning ichki va tashqi ma'nolari o'rganiladi. So'zning ikki xil ma'nosi bo'ladi: 1. Atash ma'nosi (leksik, lug'aviy).

2. Grammatik ma'no.

So'zning atash ma'nosi deganda bo'shliqda narsa-hodisalar, belgi xususiyatlar, harakat, holatlarni bildirishi tushuniladi. Faqat mustaqillik so'zlargina atash ma'nosiga ega, lekin olmoshlar ichi bo'sh bo'lgani uchun atash ma'nosiga ega emas.

1. Atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar.

-Ot

-Sifat

-Son

-Fe'l

-Ravish

2. Atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlar.

-Olmosh

-Yordamchi so'zlar, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

-Oraliqdagi so'zlar, undov, madol, taqlid.

-To'liqsiz fe'llar; edi, ekan, emish.

Misol uchun; qo'l so'zini olsak. Atash ma'nosi; insonning ushlash a'zosi. Grammatik ma'nosi; nima? ot so'z turkumi, bosh kelishik, aniq ot va turdosh ot birlikda.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zlar bir va birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi bilan farqlanadi. Faqat birgina ma'noga ega bo'lgan so'zlar bir ma'noli deyiladi. Masalan; kitob, tarvuz, telefon, 491 alam. Ko'p ma'noli so'zlar bir va undan ortiq ma'noga ega bo'ladi. Masalan; ko'z va tish.

Ko'z.

1. Insonning ko'zi (o'z ma'nosida).

2. Ishning ko'zi.

3. Daraxtning ko'zi.

4. Derazaning ko'zi.

5. Inganing ko'zi.

6. Urukning ko'zi.

7. Eshikning ko'zi.

Qolganlarining ildizi bir.

Tish.

1. Insoning tishi (o'z ma'nosida).

2. Arraning tishi.

3. Taroqning tishi.

Ildizi bir.

Ma'no ko'chishining quydagi turlari bor.

1. Metafora

2. Metanimiya

3. Sinekdoxa

4. Vazifadoshlik

5. Kinoya

6. Tag ma'no

1. Metafora- Yunoncha sizdan olingan bo'lib ko'chirish degan ma'noni bildiradi, ya'ni bir predmetni ikkinchi bir predmetga o'xshashligi asosida ko'chiriladi. Masalan bir necha o'xshatishlar turlari mavjud belgi, harakat, shakl, nisbiy o'xshashlik, inson a'zolari va kiyimlari, hayvon a'zolari va insonlarga qo'yilgan metofoalar asosida ma'no ko'chishi sodir bo'ladi.

Oltin

1. Kuz

2.Oltin

Lab

1.Odamning labi

2.Ariqning labi

Etak

1.ko'ylakning etagi

2.Tog'ning etagi

Tumshuq

1.Hayvonning tumshug'i

2.Kemaning tumshug'i

Gullar ham ko'chgan.

Karnaygul, gultojixo'roz, itog'iz.

Qovun navlari ham ko'chgan.

Bo'rikalla,kampirchapon,qariqiz,obinavot.

2.Metanimiya-bu yunoncha so'zdan olingan bo'lib qayta nomlash demakdir.Bunda narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ma'no ko'chiriladi.

Metaforada tashqi o'xshashlik muhim bo'lsa metanimiyada ichki o'xshashlik muhimdir.

Metanimiyaning quydagi turlari bor.

1.Muallifning nomi orqali uning asari tushuniladi.

Navoiyni kechadan beri ko'tarib yuribdi.

2.Narsaning novi orqali shu narsa tushuniladi.

Alanga pishirdim.

3.Paytga nisbatan ma'no ko'chiriladi.

Yozgini topshirdim.

4.O'ringa nisbatan ma'no ko'chiriladi.

Butun qishloq uyquda.

5.Narsaning nomi orqali uning ichidagi narsa tushuniladi.

Dasturxonga qarang.

6.Biron ish-harakatni amalga oshiruvchi vosita nomi orqali qo'shimcha hosil qilinadi.

Bu she'r Zulfiya qalamiga mansub.

3.Sinekdoxa-yunoncha so'zdan olingan bo'lib birgalikda anglash degan ma'noni bildiradi.Ya'ni bunda qism orqali butun,butun orqali qism tushuniladi.

Ular hali ham tirnoqqa zor.

Besh barmoq barobar emas.

4.Vazifadoshlik o'xshash ikki predmet bir nom bilan yuritiladi.

Chiroq

1.Kirosinli chiroq

2.Elektr chiroq

Vazifasi yoritish.

Oyoq

1.Stolning oyog'i

2.Odamning oyog'i

Vazifasi tayanch.

5.Kinoya bu so'zlarni aks ma'noda qo'llashdir.Yozuvda bunday so'zlar qo'shtiroqqa olinadi.

Uning bu "chiroyli" qilig'idan uyalib ketdim.

6.Tag ma'no bunda ifodalayotgan fikrning tagida boshqa bir ma'no mavjud bo'ladi.Bu asosan diologlarda uchraydi.

Ayol:Sizga tekkuncha alvastiga tegsam bo'lmasdi.

Eri: Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan.

Leksikologiya — bu tilning eng muhim qatlamlaridan biri bo'lgan so'z boyligini chuqur o'rganadigan fan. U tildagi so'zlarning ma'nosi, kelib chiqishi, ishlatilishi va o'zgarishini tahlil qilib, tilning madaniy, tarixiy va ijtimoiy taraqqiyoti haqida to'liq tasavvur beradi. Shuning uchun leksikologiyani bilish — tilni mukammal tushunish va to'g'ri qo'llashning asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1. Jamolxonov, H. (2013). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Mamatov, A. (2019). O'zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

3. Hojiyev, A. (1985). Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: Fan nashriyoti.

4. Nurmonov, A. (2001). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

TILNING JAMIYATDAGI O'RNI

To'ychiyeva Oygul

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

tuychiyevoygul90@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning jamiyat hayotidagi o'rnini, uning ijtimoiy vazifalari va insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tilning milliy o'zlikni shakllantirishdagi, madaniyat va ma'naviyatni asrashdagi o'rnini yoritilgan. Shuningdek, til taraqqiyotining jamiyat rivojiga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Maqolada o'zbek tilining hozirgi jamiyatdagi mavqei va ahamiyati haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: til, jamiyat, aloqa, madaniyat, milliy o'zlik, taraqqiyot, o'zbek tili

Annotation: This article analyzes the role of language in social life, its social functions, and its importance as a means of human communication. It discusses the significance of language in shaping national identity, preserving culture and spirituality, and examines the impact of linguistic development on social progress. The article also highlights the status and importance of the Uzbek language in modern society.

Keywords: language, society, communication, culture, national identity, development, Uzbek language.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль языка в жизни общества, его социальные функции и значение как средства общения между людьми. Раскрыта роль языка в формировании национальной самобытности, сохранении культуры и духовности. Также анализируется влияние развития языка на прогресс общества и место узбекского языка в современном социуме.

Ключевые слова: язык, общество, коммуникация, культура, национальная самобытность, развитие, узбекский язык.

Til insoniyat tarixida eng muhim ijtimoiy hodisalardan biri sanaladi. U nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatni birlashtiruvchi, milliy ongini shakllantiruvchi, madaniyat va tafakkur rivojining poydevori sifatida beqiyos ahamiyatga ega. Til orqali inson o'z

fikrini ifoda etadi, bilim va tajribasini boshqalarga yetkazadi, shu tariqa ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi. Shunday ekan, til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik insoniyat taraqqiyotining eng asosiy omillaridan biridir. Tilning jamiyatdagi o'rni, avvalo, uning ijtimoiy mohiyatida namoyon bo'ladi. Til jamiyat a'zolari o'rtasidagi aloqa va tushunish vositasi sifatida vujudga kelgan va jamiyat bilan birga yashab, birga rivojlanadi. Har qanday til o'zini yaratgan xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Shu bois til millat ruhi, milliy o'zlik va madaniy merosning eng muhim tashuvchisi sifatida e'tirof etiladi. Masalan, til orqali xalq og'zaki ijodi, adabiy meros, tarixiy voqealar va urf-odatlar avloddan avlodga o'tadi. Tilning ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida ko'plab tilshunos olimlar fikr bildirgan. Masalan, rus tilshunosi V. V. Vinogradov tilni "xalqning ijtimoiy tajribasini jamlovchi va uni uzluksiz davom ettiruvchi hodisa" deb ta'riflagan. Nemis faylasufi Vilgelm fon Humboldt esa tilni "millat ruhi" deb atagan. O'zbek tilshunosligida ham til va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqa masalasi A. Hojiyev, M. Asqarova, Sh. Rahmatullayev kabi olimlar asarlarida keng yoritilgan. Ularning fikricha, til ijtimoiy ongning shakli sifatida jamiyatning barcha qatlamlariga singib ketgan hodisadir. Tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida u insoniyat bilan birga o'zgarib borgan. Dastlabki og'zaki nutqdan yozuvgacha bo'lgan bosqichlar tilni faqat muloqot vositasi emas, balki tafakkur mahsuli sifatida shakllantirdi. Yozuv paydo bo'lishi bilan til inson xotirasining tashqi shakliga aylandi va bu jamiyat taraqqiyotini tezlashtirdi. Har bir tarixiy davr o'zining ijtimoiy, siyosiy va madaniy xususiyatlariga ko'ra tilda iz qoldirgan. Bugungi o'zbek tili ham turkiy ildizlardan kelib chiqqan, arab, fors va rus tillari bilan aloqada bo'lgan holda boyigan va mustaqil adabiy tizimga ega bo'lgan til sifatida shakllangan. Til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog'liq. Inson o'z fikrini til orqali shakllantiradi, dunyoni til yordamida anglaydi. Shu bois til tafakkurning shakli deb ataladi. Til va fikr uyg'unligi haqida Aristotel, Dekart, Saussure, Humboldt, Sh. Rahmatullayev kabi olimlar fikr yuritgan. Ularning qarashlarida til inson tafakkurining ijtimoiy ko'rinishi, jamiyatdagi ongli faoliyatning ifodasi sifatida talqin qilinadi. Til yoshlar tarbiyasida ham beqiyos ahamiyatga ega. Bola o'z ona tilida so'zlashish orqali milliy ong, e'tiqod, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni singdiradi. Shu sababli ta'lim jarayonida ona tili va adabiyot fanlariga alohida e'tibor qaratilishi, yosh avlodda tilga hurmat, so'z boyligidan to'g'ri foydalanish malakasini shakllantirish zarur. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham "Til insonning ko'zgusidir" degan g'oyani ilgari surgan. Tilning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rni ham beqiyos. Davlat boshqaruvi, qonunlar, rasmiy hujjatlar, diplomatik aloqalar va ilm-fan tili orqali amalga oshiriladi.

Shu sababli davlat tili maqomi va unga bo'lgan e'tibor har bir jamiyatning mustaqillik darajasini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi bu borada muhim bosqich bo'ldi. Shuningdek, til madaniyat va san'atning asosi sifatida millat ruhini aks ettiradi. Adabiyot, teatr, kino, xalq og'zaki ijodi — barchasi til orqali yashaydi. Navoiy, Bobur, Mashrab, Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Oripov kabi ijodkorlar tilni san'at darajasiga ko'targan, millat ruhini so'z orqali ifodalagan. Shu bois, til nafaqat aloqa vositasi, balki estetik va ma'naviy qadriyatlarning ham ifodasidir. Zamonaviy davrda texnologiyalar tilning shakl va vazifalarini o'zgartirmoqda. Internet tili, yangi so'zlar (neologizmlar), qisqartmalar va emoji kabi belgilar til madaniyatiga yangi unsurlar olib kirmoqda. Tilshunoslik oldida esa bu o'zgarishlarni o'rganish, me'yoriy tizimni saqlab qolish, milliy tilni raqamli muhitga moslashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi.

Til va jamiyat

Jamiyat – bu birgalikda yashaydigan, o'zaro aloqada bo'lgan insonlar guruhidir, bunda til aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Til ijtimoiy tashkilotlarning samarali ishlashini ta'minlaydi, odamlar o'rtasida tushunishni kuchaytirib, hamkorlik va birdamlikni mustahkamlaydi.

Til jamiyatda aloqa vositasi sifatida

Til ijtimoiy muloqotning asosi hisoblanadi. U yordamida odamlar fikr almashadi, axborot uzatadi, o'zaro yordam so'raydi va o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi. Shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'lanish til orqali amalga oshadi, til vazifasiz qolsa, ijtimoiy aloqalar buziladi.

Til madaniyatning saqlovchisi va uzatuvchisi sifatida

Til madaniyat, an'ana va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazadi. Har bir til o'ziga xos dunyoqarash, fikrlash uslubi va tarixiy tajribani ifodalaydi. Shuning uchun tilni yo'qotish jamiyat madaniy o'zligini yitkazish bilan tenglashtiriladi.

Til va jamiyat taraqqiyoti

Jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishi ko'p jihatdan tilga bog'liq. Yangi ilmiy va texnologik atamalar tilga kirib, jamiyatning yangi ijtimoiy-tarixiy sharoitlarida moslashuviga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan til jamiyatning muloqot vositasi va ijtimoiy o'zgarishlarning o'lchovidir.

Til va siyosat jamiyatidagi o'rni

Til nafaqat kundalik muloqot, balki siyosiy, huquqiy va madaniy institutlar faoliyati uchun ham zarur. Davlat tilining yagona va aniq belgilanishi jamiyatda barqarorlik va tartibni ta'minlaydi, fuqarolar o'rtasida integratsiyani kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til har bir millatning ma'naviy boyligi, uning ruhiyati va tafakkurining aks-sadosidir. Jamiyat taraqqiyoti, madaniyatning yuksalishi va insonlar o'rtasidagi o'zaro tushunish aynan til orqali namoyon bo'ladi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning tarixini, an'anasini, dunyoqarashini va qadriyatlarini asrab keluvchi bebaho xazina hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonida har bir xalq o'z ona tilining sofligini, nufuzini va rivojini ta'minlashga alohida e'tibor qaratmog'i zarur. Zero, tilni asrash — millatni asrash, tilni rivojlantirish esa jamiyatning ma'naviy qudratini mustahkamlashdir. Har bir inson o'z ona tilida toza, ravon va ifodali so'zlasa, bu nafaqat shaxsiy madaniyat, balki butun jamiyatning ma'naviy yuksalishiga hissa qo'shadi. Tilning boyligi va go'zalligi xalqning tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, o'z tilimizni sevishtirish, uni o'rganish va avlodlarga yetkazish bizning eng muhim burchimizdir. Chunki tili boy, so'zi qadrlangan millat hech qachon o'zligini yo'qotmaydi, aksincha, tarix sahnasida doimo o'z o'rnini mustahkam egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev, A. Til va jamiyat. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.
2. Abduazizov, A. A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2016.
3. G'ulomov, A. va Jo'rayev, O. O'zbek tili nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Mahmudov, N. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. Rahmatullayev, Sh. Til – millat ko'zgusi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
7. Saussure, F. de. Umumiy tilshunoslik kursi. – Toshkent: Universitet, 2017.
8. Sodiqov, M. O'zbek tilining ijtimoiy vazifalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
9. To'xliyev, B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
10. Yusufxo'jayev, A. Til va madaniyat uyg'unligi. – Toshkent: Fan, 2022.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TIL, NUTQ VA USLUB MASALASI

To'lqunova Xusnora Ravshan qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

tolqunovaxusnora@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalarida (OAV) til, nutq va uslubning o'ziga xos jihatlari, ularning jamiyatdagi ahamiyati hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Jurnalist nutqining madaniyati, adabiy til me'yorlariga rioya etish darajasi, teleradio, matbuot va internet nashrlarida tilning o'zgarish holatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, nutq madaniyati, OAV tili, publitsistik uslub, adabiy me'yor, ijtimoiy tarmoq.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности языка, речи и стиля в средствах массовой информации (СМИ), их значение в обществе, а также существующие проблемы. Изучается культура речи журналистов, степень соблюдения норм литературного языка, а также изменения, происходящие в языке телевидения, печати и интернет-изданий.

Ключевые слова: средства массовой информации, культура речи, язык СМИ, публицистический стиль, литературная норма, социальная сеть.

Annotation: This article analyzes the distinctive features of language, speech, and style in mass media, their social significance, and the existing problems. The study also explores the speech culture of journalists, the level of compliance with literary language norms, and linguistic changes observed in television, print, and online media.

Keywords: mass media, speech culture, media language, publicistic style, literary norm, social network.

Hozirgi axborot asrida ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Har kuni millionlab insonlar televideniye, radio, matbuot va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil yangiliklar, ma'lumotlar, tahliliy materiallar bilan tanishadi. Shu bois OAVda ishlatiladigan til, nutq va uslub masalasi nafaqat jurnalistlar, balki butun jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

OAV tili faqat axborot yetkazuvchi vosita emas, balki millatning intellektual salohiyatini ko'rsatib beruvchi omil hisoblanadi. Til orqali biz madaniyatimizni, dunyoqarashimizni, qadriyatlarimizni ifoda etamiz. Ijtimoiy tarmoqlarda yozilgan har bir so'z, har bir ibora minglab odamlar ongiga singadi va o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda kanal yoki blog yuritadigan insonlar so'z tanlashda va uslubda nihoyatda ehtiyotkor bo'lishlari va albatta adabiy til me'yorlariga rioya qilishlari lozim. OAV tili o'zining publitsistik uslubi bilan ajralib turadi. Bu uslubning asosiy talabi – aniqlik, soddalik, ta'sirchanlik va ommaboplik. Shunga qaramay, ayrim hollarda tilning haddan tashqari soddalashtirilishi yoki xorijiy so'zlarning ortiqcha ishlatilishi adabiy til me'yorlarining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, “Prezident xalq bilan jonli gaplashdi” Bu gapda “jonli gaplashdi” so'zi mazmun jihatdan mos kelmaydi. Bu so'zning o'rniga “ochiq muloqot o'tkazdi” so'zini ishlatga to'g'ri bo'ladi. Bunga yana bir misol sifatida jonli efirlarda “live”, “reklama time” kabi so'zlardan foydalanishni keltirishimiz mumkin. Bunday so'zlar ona tilining jozibasiga, uslubiyatiga putur yetkazadi. Tilning bunday soddalashtirilishi yoki begona (xorijiy) so'zlarning ko'payishi jurnalist nutqining madaniyatiga ham salbiy ta'sir qiladi. Chunki jurnalist nutq madaniyatining targ'ibotchisi sanaladi. U so'z orqali jamiyatga ta'sir o'tkazadi, o'quvchi yoki tomoshabinning tilga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Jurnalist nutqining madaniyati- bu fikrni aniq, qisqa, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda estetik jihatdan go'zal ifoda etish san'atidir.

Har bir jurnalist o'z nutqida so'zning ma'nosini chuqur his etishi, ortiqcha emotsional yoki norasmiy iboralardan saqlanishi zarur. Chunki har bir so'z, har bir gapning orqasida muayyan bir g'oya yotadi. Shu bois OAVda faoliyat yuritadigan har bir hodim nutq madaniyatiga e'tiborli bo'lishi, xorijiy va noo'rin so'zlardan foydalanmasligi, o'z nutqi ustida muntazam ishlashi lozim. Shu o'rinda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning gaplarini keltirib o'tmoqchiman: “Ona tilimiz - milliy g'ururimizdir. Tilimizga hurmat bilan qarash - o'zligimizni anglashdir”. Demak jurnalistning nutq madaniyati - bu milliy madaniyatga hurmatning ifodasidir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatish ommalashdi. Bloggerlar va onlayn nashr mualliflari ham jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli axborot sub'yektiga aylandi. Shunidek ularning nutqi, so'z boyligi, uslubi jamiyatlardagi madaniyatga va fikrlashga bevosita ta'sir o'tkazmoqda. Bloggerlar tili ko'p hollarda norasmiy, emotsional va so'zlashuv uslubiga xos bo'ladi, bu esa adabiy til me'yorlariga zid. Shu sababli raqamli axborot makonida ham adabiy tilga hurmat bilan yondashish, so'z mas'uliyatini his etish muhimdir. Tilshunos olim D.Qodirova

ta'kidlaganidek: "Nutq madaniyati – bu til imkoniyatlaridan to'g'ri va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish san'atidir." Jurnalist aynan shu san'at egasi bo'lishi kerak. U har bir so'z bilan xalq tafakkuriga, yosh avlodning fikrlashiga, dunyoqarashiga ta'sir o'tkazishini unutmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalarida til va nutq madaniyati yuksak bo'lishi jamiyatning ma'naviy darajasini belgilab beradi. Jurnalistning har bir so'zi xalq ongiga ta'sir o'tkazadi, shuning uchun u adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishi zarur. Til yoki nutqning aniqligi va sofligi-bu jurnalistlik kasbining asosiy mezonidir. Ana shu tamoyillarga rioya etish OAV tilini boyitadi, milliy nutq madaniyatini esa yangi bosqichga ko'taradi.

Kelajakda OAV tilini takomillashtirish, adabiy til me'yorlarini saqlash hamda jurnalist nutq madaniyatini rivojlantirish uchun bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Jumladan, jurnalistlar, OAV sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar va bloggerlar uchun nutq madaniyati va adabiy til me'zonlari bo'yicha muntazam seminar va treninglar tashkil etish; universitetlar, tahririyatlar va jurnalistika maktablari hamkorligida mahurat darslari, ustoz-shogird tizimini yo'lga qo'yish; ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi shaxslar ishtirokida adabiy til me'yoriga rioya qilish, o'zbek tilida to'g'ri yozish va so'zlashni targ'ib qiluvchi videoroliklar tayyorlash; tilshunoslar va jurnalistlar hamkorlogida "OAV tili bo'yicha ilmiy-metodik qo'llanmalar" yaratish; har yili "Ommaviy axborot vositalarida til, uslub va nutq madaniyati" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish va boshqalar. Bunday chora-tadbirlar orqali OAV tilini takomillashtirish, nutq madaniyatini oshirish va adabiy til nufuzini yanada yuksaltirish mumkin. Zero tilga e'tibor - bu o'zlikni anglash, ona tilini sevishtirish, uni asrab-avaylash va kelajak avlodga boy ma'naviy meros qoldirish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N. Nurmonov A O'zbek tili madaniyati va nutq odobi. – Toshkent 2012.
2. R.Rasulov, Q.Mo'yidinov Nutq madaniyati va notiqlik san'ati – Toshkent 2025.
3. Qodirova D. Nutq madaniyati va uslubshunoslik – Toshkent 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi mavqeini oshirish to'g'risida qaror – 2020-yil, 21-oktabr.
5. To'ychiyev A. Jurnalistik uslub va nutq madaniyati – Toshkent 2018.

SO'ZNING LEKSIK BIRLIK SIFATIDAGI MOHIYATI**To'rayeva Sumbula Asomiddin qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Murodova Firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'zning til tizimidagi o'rni va leksik birlik sifatidagi mohiyati yoritilgan. So'zning lug'aviy (leksik) ma'nosi, uning grammatik shakllaridan farqi hamda nutq jarayonidagi asosiy vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, so'zning leksik birlik sifatida mustaqil ma'no anglatishi, boshqa birliklardan (morfema, so'z birikmasi, gap) farqli jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Maqola davomida tilshunos olimlarning qarashlari asosida so'zning ma'no tizimi, leksema tushunchasi va ularning o'zaro munosabati tahlil etilgan.

Kalitso'zlar: barqarorlik, o'zgaruvchanlik, leksema, semantik, semema, sema, material qism, jarayon.

Аннотация: В данной статье раскрывается место слова в языковой системе и его сущность как лексической единицы. Анализируются лексическое значение слова, его отличие от грамматических форм, а также основные функции в речевом процессе. Кроме того, показаны особенности слова как самостоятельной лексической единицы, отличающие его от других языковых единиц (морфемы, словосочетания, предложения). В ходе исследования, на основе взглядов лингвистов, рассматриваются система значений слова, понятие лексемы и их взаимосвязь.

Ключевые слова: устойчивость, изменчивость, лексема, семантический, семема, сема, материальная часть, процесс

Annotation: This article explores the place of the word in the language system and its essence as a lexical unit. The lexical meaning of the word, its difference from grammatical forms, and its main functions in the process of speech are analyzed. In addition, the features of the word as an independent lexical unit that distinguish it from other language units (morpheme, phrase, sentence) are highlighted. Throughout the study, based on the views of linguists, the system of word meanings, the concept of the lexeme, and their interrelationship are examined.

Keywords: stability, variability, lexeme, semantic, sememe, sema, material part, process

Soʻz – tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim struktura maʼnoviy birligi, oʻz tovush qobigʻiga ega boʻlgan, borliqdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular oʻrtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik maʼno va vazifalarda qoʻllanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan koʻrinishi. Soʻz rang uchun qurilish materiali boʻlib xizmat qiladi, lekin, undan farqli ravishda, xabar yoki tugal fikr bildirmaydi. Oʻzida leksik va grammatik maʼnoni birlashtirgan hodda soʻz muayyan soʻz turkumiga mansub boʻladi, oʻz tarkibida muayyan til tizimida oldindan tayin boʻlgan barcha grammatik maʼnolarni ifodalaydi.

Tilshunoslikda „soʻz“ atamasi leksemaga nisbatan ham qoʻllanadi va leksik soʻz deb yuritiladi. Masalan, „soʻz yasalishi“, „yasama soʻz“ birikmalarida „soʻz“ xuddi shu maʼnoda qoʻllanadi. Leksemaning nutqda muayyan shaklda voqelangan holati tilshunoslikda soʻz shakl, leksema shakl yoki morfologik soʻz deb ham yuritiladi. Soʻzning tovush va maʼno tomoni bor. Lekin har qanday tovush yigʻindisi soʻz boʻlavermaydi. Tovush yoki tovush birikmasi soʻz boʻlishi uchun maʼnoga ega boʻlishi, yaʼni muayyan til egalari shu tovushlar vositasida biror narsani anglashi yoki bir-biriga anglatishi kerak. Soʻz maʼnosida umumiylik va yakkaalikning, barqarorlik va oʻzgaruvchanlikning dialektik oʻzaro munosabati aks etadi. Maʼnoning barqarorligi oʻzaro tushunishni qulaylashtirsa, uning oʻzgaruvchanligi (soʻzning aniq, bir maʼnosidagi oʻzgarishlar) soʻzdan borlikdagi yangi tushuncha va narsalarni nomlashda foydalanishga imkon beradi, badiiy soʻz sanʼatining muhim omillaridan hisoblanadi. Soʻzning koʻp maʼnoliligi ham aynan maʼnoning oʻzgaruvchanligi bilan bogʻliq. Soʻzlovchining nomlanayotgan narsaga munosabati soʻz maʼnosining soʻzlovchi histuygʻusini, shaxsiy fikrini ifodalovchi emotsional jihatini tashkil etadi. Soʻz tilda muayyan tizimni shakllantiradiki, bu tizim soʻzning grammatik belgilariga (soʻz turkumlari), soʻz Yasalishi aloqalariga va semantik munosabatlariga (sinonimlar, omonimlar, antonimlar) asoslanadi. Bulardan tashqari, lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmagan, lekin oʻz tovush qobigʻiga, oʻziga xos maʼno, vazifasiga ega boʻlgan, shu bilan birga soʻz yasash yoki soʻz shaklini hosil qilish uchun foydalaniladigan morfemalardan farqlanuvchi til birliklari ham „soʻz“ deb yuritiladi. Bular yordamchi soʻzlar (bilan, lekin, kabi, xuddi), undovlar (obbo, ehhe, voy), taqlid soʻzlar (miyov, dukur-dukur, yalt-yult) va modal soʻzlar (shubhasiz, demak, ehtimoldir. Leksema (yunoncha: lexis — soʻz, ifoda) — til qurilishining leksik maʼno anglatuvchi lugʻaviy birligi. Leksema bildiradigan maʼno soʻzning material qismi: maʼlum tovush kompleksini maʼlum obyektiv voqelikka bogʻlash bilan kishi ongida yuzaga keladigan

mazmun-mundarija. Har qanday Leksema o'zining fonelshlari ifodalagan ma'nosi va grammatik xususiyatlari birligidan iborat. Bunday birlik so'z va iboralarda mavjud. Ularga nisbatan glossema, lug'aviy morfema atamaları ham ishlatiladi. Mas, uy Leksemasining leksik ma'nosi. — „kishi yashaydigan bino“, yugurmoq Leksemasining leksik ma'nosi — „bir joydan ikkinchi bir joyga shiddat bilan harakatlanmoq“ va boshqa Shunga ko'ra, ular lug'aviy (semantik) ma'no jihatdangina emas, balki fonetik va grammatik jihatdan ham o'rganiladi. So'zning leksik ma'nosi – so'zning material qismi – leksema bildiradigan ma'no; muayyan tovushlar majmuini ma'lum obyektiv voqelikka bog'lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmunmundarija; lug'aviy ma'no. Masalan, „Bolalarni o'ynatdik“ gapidagi birinchi so'z hali yosh, voyaga yetmagan odamni, go'dakni, ikkinchi so'z esa harakatni (bola bilan bog'langan harakatni) biddiradi. Demak, „bola“ va „o'yna“ so'zlaridan ifodalanadigan mazkur konkret ma'nolar shu so'zlarning leksik ma'nolaridir. So'zning leksik ma'nosi muayyan so'zning aniq mazmunini (narsa, belgi, harakat tushunchalarini ifodalash, emotsiyalarni bildirish) tashkil etadi. So'zning leksik ma'nosi o'zaknegizning o'zi bilan ifodalanadi; yasovchi affikslar ham so'zdagi material qismning ichiga kiradi. Shu jumladan leksik ma'no suz yasalishi va leksikologiya bilan bog'liqdir. So'zning leksik ma'nosi shu so'zning o'zigagina tegishli xususiy ma'no bo'lishi bilan bir qancha o'xshash so'zlar uchun umumiy hisoblanadigan, umumiylik harakteriga ega bo'lgan grammatik ma'no dan farq qiladi. So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati uning lug'aviy ma'nosi bilan belgilanadi, ya'ni tovushlar majmuining ma'lum bir obyektiv voqelikka (narsa, belgi, harakat) bog'lanishi natijasida yuzaga keladigan aniq mazmun. Bu mazmun so'zning o'zagiga (leksema) tegishli bo'lib, boshqa so'zlar uchun umumiy bo'lgan grammatik ma'nodan farq qiladi va muayyan so'zga xos xususiy ma'noni ifodalaydi. So'zning leksik ma'nosi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Aniqlik: So'zning aniq mazmunini (narsa, belgi, harakat tushunchalarini ifodalash, emotsiyalarni bildirish) tashkil etadi.

Material qism: Bu ma'no so'zning tovush tarkibi (leksema) va uning tarkibiga kiruvchi yasovchi affikslar orqali ifodalanadi.

Xususiy xarakter: Har bir so'zning o'ziga xos, o'ziga tegishli ma'nosi bo'ladi, bu ma'no umumiy grammatik ma'nodan ajralib turadi.

So'z va leksema deyarli bir xil tushuncha bo'lib, ular lug'aviy ma'no anglatuvchi birliklarni bildiradi; leksema — bu so'zning asosiy, "moddiy" qismi, uning lug'aviy ma'nosi esa shu so'zning o'ziga xos mazmunidir. Masalan, "uy" so'zining

leksik ma'nosi "kishi yashaydigan bino" bo'lib, "bolalar" so'zining leksik ma'nosi "yosh, voyaga yetmagan odam" dir.

Leksema (yunoncha: lexis — so'z, ifoda) — bu tilning lug'aviy-semantik (ma'no) birligi.

U so'zning material qismini ifodalaydi: muayyan tovushlar majmuasini muayyan obyektiv voqelikka bog'lash natijasida kishi ongida paydo bo'ladigan mazmun-mundarija. Har qanday leksema o'zining fonetik (tovush) va grammatik (grammatik) xususiyatlariga ega. Misollar:

"Uy" leksemasi

Leksema (so'z): "uy"

Leksema (ma'nosi): "kishi yashaydigan bino".

"Yugurmoq" leksemasi

Leksema (so'z): "yugurmoq"

Leksema (ma'nosi): "bir joydan ikkinchi bir joyga shiddat bilan harakatlanmoq".

"Bola" va "o'yna" so'zlari

Leksema (so'z): "bolalar"

Leksema (ma'nosi): "yosh, voyaga yetmagan odam, go'dak".

Leksema (so'z): "o'ynadik"

Leksema (ma'nosi): "bola bilan bog'langan harakat".

So'z til tizimining asosiy va markaziy birligi hisoblanadi. U nafaqat predmet, hodisa va tushunchalarni ifodalaydi, balki inson tafakkuri va nutq faoliyatining muhim vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Maqola davomida aniqlanishicha, so'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati uning mustaqil ma'no anglatish xususiyati, ma'no tizimi va boshqa til birliklari bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, so'zning leksik va grammatik jihatlari bir-birini to'ldirib, tilning semantik tuzilmasini shakllantiradi. Demak, so'z leksik birlik sifatida tildagi eng muhim ma'no tashuvchi vosita bo'lib, tilning rivoji va boyishida asosiy rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev, A. (2010). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Hakimov, M. (2015). Leksikologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Jo'rayev, O. (2018). O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Universitet nashriyoti.
4. <https://uz.wikipedia.org>

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

To'xtayeva Rayhona

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

22/2-guruh 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xolikova Nodira Djoxongirovna,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari, til tizimidagi yangilanish jarayonlari, tilshunoslikning yangi yo'nalishlari, kommunikativ va kognitiv yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi hamda ularning amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari ta'sirida lingvistik metodlarning takomillashuvi, sotsiolingvistika va pragmatikaning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, kommunikatsiya, kognitiv tahlil, pragmatika, sotsiolingvistika, lingvistik innovatsiya.

Annotation : This article analyzes the current issues of modern linguistics, the processes of language renewal, and the interrelation of communicative and cognitive approaches. It also highlights the development of linguistic methods under the influence of information technologies, as well as the growing importance of sociolinguistics and pragmatics in modern linguistic studies.

Keywords: linguistics, communication, cognitive analysis, pragmatics, sociolinguistics, linguistic innovation.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli axborot asrida tilshunoslik fani nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutmoqda. Til – bu millatning ma'naviy boyligi, madaniyatining ifodasi va tafakkurining ko'zgusidir. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikning eng muhim masalalaridan biri — tilning ijtimoiy hayotdagi, madaniyatdagi va tafakkurdagi o'rnini har tomonlama tahlil qilishdan iboratdir.

Tilshunoslikning dolzarb masalalari doimo davr bilan uyg'un holda rivojlanib boradi. Chunki har bir davrda tilning funksional imkoniyatlari kengayadi, yangi tushunchalar va atamalar paydo bo'ladi. Bu esa ilmiy yondashuvlarning ham yangilanishini talab etadi.

Zamonaviy tilshunoslikda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar, korpus lingvistikasining rivojlanishi, shuningdek, til va tafakkur munosabatini chuqur o'rganishga qaratilgan kognitiv yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston tilshunosligida ham yangi metodologiyalar shakllanmoqda. Xususan, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika kabi yo'nalishlar bo'yicha o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga e'tibor kuchaymoqda. Bu yo'nalishlar tilning ijtimoiy va psixologik mohiyatini, muloqot jarayonidagi o'rnini hamda inson tafakkurining tildagi in'ikosini o'rganishga imkon bermoqda.

Tilshunoslikda innovatsion yondashuvlarning o'rne

So'nggi yillarda tilshunoslik fanida innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiyalar va raqamli tahlil vositalari keng joriy qilinmoqda. Masalan, korpus lingvistikasining rivojlanishi orqali til birliklarini statistik va kontekstual jihatdan tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. O'zbek tilining milliy korpusini yaratish — bu nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va ta'lim sohalari uchun ham muhim qadamdir. Korpus asosida til birliklarining haqiqiy qo'llanishi, yangi atamalar tizimi, zamonaviy grammatik birliklarning o'zgarish jarayonlarini kuzatish mumkin.

Kognitiv tilshunoslik va inson tafakkuri

Kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biridir. U tilni inson tafakkuri, idroki va dunyoqarashi bilan bevosita bog'laydi. Har bir til bir millatning fikrlash tarzini, dunyoni idrok etish shaklini ifodalaydi. Masalan, konsept tushunchasi kognitiv lingvistikaning markaziy kategoriyasidir. "Konsept" orqali insonning ma'naviy tajribasi, tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari tildagi ifoda vositalarida aks etadi. Z.T. Nishonova, D. Rasulova, N. Mahmudov kabi o'zbek tilshunoslari kognitiv yondashuvni milliy material asosida chuqur tadqiq etib, til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asoslab berganlar.

Pragmatik va sotsiolingvistik yondashuvlar

Til faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki ijtimoiy hodisadir. Pragmatika nutq jarayonida til birliklarining qanday maqsadda ishlatilishini o'rganadi. Shu bois so'zlovchining niyati, tinglovchining tushunchasi va muloqot konteksti tahlil markaziga aylanadi. Sotsiolingvistika esa tilning ijtimoiy tabaqalanishi, dialektlar, so'zlashuv uslublari, yosh, jins, kasb va madaniy omillarning nutqqa ta'sirini o'rganadi. Bu yo'nalish bugungi kunda til siyosati, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Texnologik taraqqiyot va lingvistik tadqiqotlar

Axborot texnologiyalari tilshunoslikka yangicha imkoniyatlar yaratmoqda. Sun'iy intellekt, neyron tarmoqlar, avtomatik tarjima tizimlari, nutqni tanish dasturlari tilshunoslikning yangi bosqichini boshlab berdi. Masalan, "ChatGPT", "Google Translate", "DeepL" kabi tizimlar tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yo'nalishida katta yutuqlarga erishgan. Shu bois o'zbek tilini ham raqamlashtirish, avtomatik tahlil tizimlarini yaratish muhim masalalardan biridir.

Til madaniyati va ta'lim jarayonida yangicha metodlar

Til madaniyati – bu nafaqat to'g'ri so'zlash, balki madaniy muloqot qoidalariga rioya etishdir. Bugungi kunda o'quv jarayonida kommunikativ metod, interfaol o'qitish usullari, integratsion ta'lim modeli keng qo'llanmoqda. Masalan, CLIL (Content and Language Integrated Learning) usuli tilni boshqa fanlar bilan birgalikda o'rgatish orqali o'quvchining so'z boyligini va muloqot qobiliyatini rivojlantiradi. Shu orqali tilshunoslik ta'lim tizimida amaliy yo'nalishga ega bo'lmoqda.

O'zbek tilshunosligining istiqbollari

O'zbek tilshunosligining bugungi rivojlanish bosqichi milliy qadriyatlar bilan uyg'un, ammo jahon tajribasiga ochiq yo'nalishda kechmoqda. Tilni raqamlashtirish, yangi avlod lug'atlarini yaratish, ilmiy terminologiyani boyitish, til siyosatini takomillashtirish kabi vazifalar zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridandir.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, zamonaviy tilshunoslik — bu faqat nazariy yo'nalish emas, balki ijtimoiy, texnologik va madaniy jarayonlar bilan bevosita bog'liq fan sohasi hisoblanadi. Tilshunoslikning kognitiv, sotsiolingvistik, pragmatik, va texnologik yo'nalishlari bir-birini to'ldirib, tilni har tomonlama o'rganish imkonini bermoqda. O'zbekiston tilshunosligining asosiy maqsadi — milliy tilni ilmiy, amaliy va global miqyosda yuksaltirish, uni yangi davr talablariga mos tarzda rivojlantirishdir. Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalarini chuqur o'rganish — bu nafaqat tilni anglash, balki xalqning ma'naviy boyligini, madaniy o'zligining ildizlarini anglash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mahmudov N.Özbek tilining hozirgi holati va istiqbollari.-Toshkent:Fan,2019.
- 2.Nishonov Z.T. Kognitiv tilshunoslik asoslari. -Toshkent:Özbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.2020.
- 3.Rasulov D.Til va tafakkur munosabatining lingvokognitiv tahlili.-Toshkent:Fan va texnologiya ,2021.

4.Komilova G.Pragmatik va nutq madaniyati asoslari. -Toshkent:Yangi asr avlodi, 2018.

5.Xudoyberganova M.Sotsiolingvistika:nazariya va amaliyot.- Toshkent:Unversitit ,2022.

6.Sharipova M.,Yöldosheva G. Til va madaniyat:interfaol yondashuvlar. - Toshkent:Fan va texnologiya, 2020

7.Komilova B.Tilshunoshlikda innovatsiyon yondashuvlar.-"Filologiya masalalari"jurnali,2022.

O'ZBEK TILIDA SO'Z MA'NOLARINING KO'P QIRRALILIGI VA ULARNING KONTEKSTDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Turayev Nodirjon Xabib o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

O'zbek tili va Adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

nodirturayev0613@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada, o'zbek tilida so'z ma'nolarining ko'p qirraliligi, ya'ni polisemiya hodisasi va ularning kontekstda turlicha ma'no kasb etishi tahlil etilgan. Tilshunoslik nuqtai nazaridan turli kontekstlarda bir so'zning ko'chma yoki uslubiy ma'nolarni anglatishi o'rganiladi. Shuningdek nutq jarayonida kontekstning roliga, so'z tanlashdagi ehtiyotkorlik hamda semantik nozikliklarga alohida e'tibor qaratiladi.

KALIT SO'ZLAR: polisemiya, kontekst, semantika, ko'p ma'nolilik, so'z ma'nosi, tilshunoslik, nutq, uslubiy ma'no.

ANNOTATION : This article analyzes the multidimensional nature of word meanings in the Uzbek language, that is, the phenomenon of polysemy and how words acquire different meanings depending on the context. From a linguistic perspective, the study examines how a single word can express figurative or stylistic meanings in various contexts. Special attention is given to the role of context in speech, the careful selection of words, and the semantic subtleties involved in communication.

KEYWORDS: polysemy, context, semantics, multiple meanings, word meaning, linguistics, speech, stylistic meaning.

АННОТАЦИЯ : В данной статье анализируется многозначность слов в узбекском языке, то есть явление полисемии, а также то, как слова приобретают различные значения в зависимости от контекста. С лингвистической точки зрения рассматривается, как одно слово может выражать переносные или стилистические значения в разных контекстах. Особое внимание уделяется роли контекста в речи, осторожности при выборе слов и семантическим оттенкам в процессе коммуникации.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: полисемия, контекст, семантика, многозначность, значение слова, лингвистика, речь, стилистическое значение.

Zamonaviy o'zbek adabiy tili o'zining boy lug'at tarkibi va uslubiy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, so'zlarning ko'p ma'noliligi — ya'ni bir so'zning turli kontekstlarda bir nechta ma'no ifodalashi holati tilning semantik boyligini belgilaydi. Bu hodisa nafaqat adabiy ijodda, balki kundalik muloqotda, jurnalistikada, ilmiy va rasmiy uslublarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'zning kontekstga qarab ma'no o'zgartirishi tilshunoslikda keng o'rganilayotgan masalalardan biri bo'lib, bu maqolada ushbu jarayonning asosiy jihatlari, misollar asosida ochib beriladi.

Zamonaviy o'zbek tilida so'z ma'nolarining ko'p qirraliligi va ularning kontekstda namoyon bo'lish xususiyatlari, so'z ma'nolarining ko'p qirraliligi – polisemiya hodisasi. Polisemiya – bu bir so'zning bir nechta bog'liq ma'noga ega bo'lishidir. Masalan, o'zbek tilidagi “ildiz” so'zi nafaqat o'simlikning tuproqdagi qismi, balki biror narsaning asosi, kelib chiqishi yoki sababchisi degan ma'nolarda ham qo'llaniladi. Shu bois, polisemiya hodisasi har bir so'zning semantik kengayishini va kontekstda turlicha talqin qilinishini ta'minlaydi.

Polisemiya tilni tabiiy rivojlanish yo'lida boyituvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu hodisa orqali so'zlar har xil uslubiy qatlamlarda, turli mavzularda, majoziy yoki real ma'nolarda ishlatiladi. Kontekstning semantik rolini anglash. So'zning asl ma'nosini anglash ko'p hollarda u qanday kontekstda ishlatilayotganiga bog'liq. Kontekst – bu so'zning atrofida turgan so'zlar, gap tuzilishi, mavzu, muallifning maqsadi va hatto ijtimoiy-madaniy fonni o'z ichiga oladi. Masalan:

“Uning yuragi og'ridi.” – bu yerda “yurak” biologik organ sifatida tilga olinmoqda.

“U yurakdan gapirdi.” – bu esa ko'ngildan, samimiylik bilan aytilgan degan ma'noni bildiradi.

Shuningdek, “boshi og'ridi” ifodasi haqiqiy og'riqni anglatishi mumkin bo'lsa, “ishning boshi og'ridi” deyish orqali ish yurmayapti yoki muammoli ekaniga ishora qilinadi. Bunday semantik tafovutlar, aynan, kontekst orqali tushuniladi.

Kontekstda ma'noning o'zgarishi misollar asosida

1. “Ko'z” so'zi Asliy ma'no: inson a'zosi — “Ko'zing og'riyaptimi?”
 Ko'chma ma'no: nazorat, e'tibor — “Rahbarning ko'zi xodimlarda bo'ldi.”
 Uslubiy ma'no: nazokat, iltifot — “Ko'z bilan ko'z gaplashdi.”
2. “Qo'l” so'zi Jismoniy a'zo — “U chap qo'lida kitob ushlab turdi.”
 Yordam, yordamchi kuch — “Uning qo'li bor, sizga yordam beradi.”
 Qobiliyat, salohiyat — “Uning qo'li ishga pishiq.”

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, bir so'zning ko'p ma'noliligi va kontekstdagi rolini tushunmasdan, to'g'ri fikr yetkazish yoki tushunish qiyin bo'ladi.

Polisemiya va kontekstning tilshunoslikdagi ahamiyati : Tilshunoslik fanida polisemiya va kontekstga oid o'rganishlar til semantikasi, pragmatikasi va stilistikasi yo'nalishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hodisalar yordamida adabiy matnlar tahlil qilinadi, tarjimalar aniqlashtiriladi va zamonaviy kommunikativ jarayonlar chuqurroq tushuniladi. Zamonaviy mediatil, ijtimoiy tarmoq nutqi, reklama, publitsistika, badiiy adabiyot – bularning barchasida so'zlarning ma'nodagi ko'p qirraliligi va ularning kontekst orqali ta'sirchanlik kasb etishi til uslubiylatining muhim jihatiidir.

O'zbek tilida so'z ma'nolarining ko'p qirraliligi va ularning kontekstda turlicha talqin qilinishi tilning boyligi, ifodaviy quvvati va yashovchanligining yaqqol ko'rinishidir. Tilshunoslar, yozuvchilar, tarjimonlar hamda o'qituvchilar uchun bu hodisani chuqur tushunish – nafaqat tilni to'g'ri qo'llash, balki uni yanada boyitish imkonini ham beradi. Ma'nodagi noziklik va kontekstdagi aniqlik har bir so'zning haqiqiy qadrini ochib beradi. Tilshunoslikda so'z ma'nosining ko'p qirraliligi, ya'ni polisemiya hodisasi til tizimining eng muhim semantik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisa bir so'zning turli vaziyat va kontekstlarda bir nechta ma'no anglatish qobiliyatini bildiradi. Polisemiya tildagi so'z boyligining kengayishida, ma'no taraqqiyotida va nutqning ifodaviy kuchini oshirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbek tilida polisemiya tabiiy til taraqqiyotining natijasi sifatida shakllangan. Har bir so'z dastlab bitta asosiy leksik ma'noga ega bo'ladi, keyinchalik esa turli kontekst va nutq sharoitlari ta'sirida yangi ma'nolar hosil qiladi. Masalan, "bosh" so'zi "inson boshi", "ishning boshi", "boshliq" kabi kontekstlarda turlicha ma'no ifodalaydi. Bu holat so'zning ko'p qirraliligini, ya'ni semantik kengayish jarayonini ko'rsatadi. Kontekst polisemiya hodisasining asosiy ochuvchi vositasi hisoblanadi. Chunki aynan kontekst orqali so'zning qaysi ma'noda ishlatilgani aniqlanadi. Bir so'zning to'g'ri yoki ko'chma ma'noda ishlatilishini tushunish uchun u joylashgan gap, matn yoki vaziyatga e'tibor qaratish zarur. Masalan, "og'ir" so'zi "og'ir yuk", "og'ir ahvol", "og'ir xarakter" kabi qo'llanmalarda turli semantik tusga ega bo'ladi.

O'zbek tilida polisemiya ikki yo'l bilan shakllanadi:

1. Ma'no kengayishi (semantik taraqqiyot) – so'zning dastlabki ma'nosidan yangi, lekin unga yaqin ma'nolarning hosil bo'lishi.
2. Ko'chma ma'no hosil bo'lishi – metafora, metonimiya yoki sinekdoxa kabi semantik jarayonlar natijasida yangi ma'nolar paydo bo'lishi.

Ko'p ma'nolilik tildagi ifoda vositalarini boyitadi, nutqqa obrazlilik, emotsionallik va uslubiy rang-baranglik beradi. Shu bilan birga, polisemiya til foydalanuvchisidan kontekstni to'g'ri tushunish va semantik aniqlikni saqlashni talab qiladi.

O'zbek tilida so'z ma'nolarining ko'p qirraliligi tilning boyligi va rivojlanganligini ko'rsatadi. Polisemiya hodisasi so'zlarning kontekstga qarab turlicha ma'no kasb etishiga imkon yaratib, nutqning ifodaviyligini va uslubiy go'zalligini oshiradi. Shu sababli, kontekstni to'g'ri anglash so'z ma'nosini to'g'ri talqin qilishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Alimov, R. (2018). O'zbek tili tarixiy leksikologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashri
2. Yusuf Xos Hojib. (1069 / 2019). Qutadg'u Bilig (N. Mallayev tahr.). Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Zakirov, N. (2021). "Umumturkiy leksika taraqqiyoti va semantik o'zgarishlar." O'zbekiston tilshunoslik jurnali, 4(2), 45–60.
4. G'ulomov, A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.
5. Rasulov, R. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.

O'ZBEK TILIDA YURIDIK TERMINLAR

Tursinbayeva Rayxan Jabbarbergenovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi tursinbayevarayxan@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.dot., Qodirjon Mo'ydinov Abdusamatovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi yuridik terminlarning kelib chiqishi, shakllanish jarayonlari, manbalari va zamonaviy huquq tizimidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, yuridik terminlarning tarixiy ildizlari, boshqa tillardan kirib kelgan atamalar, ularni milliylashtirish jarayoni, huquqiy nutqdagi o'rni hamda huquqiy tafakkurni shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqolada yuridik terminlarni standartlashtirish, ularni xorijiy tillar bilan uyg'unlashtirish zaruriyati haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit sozlar: huquq, qonun, yuridik termin, terminologiya, adolat, huquqiy tafakkur, shartnoma, fuqarolik huquq, jinoyat huquqi, normativ hujjat, huquqiy madaniyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается происхождение, процесс формирования и значение юридических терминов узбекского языка в современной правовой системе. Анализируются исторические корни терминов, их заимствование из других языков, адаптация национальную языковую систему, а также роль юридической лексики в развитии правового мышления. В статье также подчёркивается необходимость стандартизации и гармонизации юридических терминов с международными эквивалентами.

Ключевы слова: право, закон, юридический термин, терминология, справедливость, правовое мышление, договор, гражданское право

Abstract: This article examines the origin, development, and significance of legal terms in the Uzbek language with in the framework of the modern legal system. It analyses the historical roots of legal terminology, loanwords from other languages, their adaptation to the national linguistic context, and their role in shaping legal thinking. The paper also highlights the importance, of standardising and harmonising Uzbek legal terminology with international equivalents.

Keywords: law, legislation, legal term , terminology, justice, legal thinking, contact, civil law.

Til - inson tafakkurining, jamiyatning madaniy va siyosiy hayotining ajralmas qismidir. Har bir fan sohasining o'z tili va terminlari mavjud. Ayniqsa yuridik sohada tilning aniqligi, mantiqiyligi va barqarorligi huquqiy adolatni ta'minlash uchun zarur. O'zbek tilidagi yuridik terminlar asrlar davomida shakllangan, turli davrlarda turli manbalardan ta'sir olgan. Mustaqillik yillarida esa milliy huquq tizimi rivojlanishi bilan bir qatorda, huquqiy terminologiya ham tubdan yangilandi va zamonaviy me'yorlarga moslashdi.

O'zbek tilidagi yuridik terminlar to'rtta asosiy manbaga tayanadi: arab, fors, rus va ingliz tillari. Arab tili orqali "huquq", "qonun", "adolat", "jazo", "javobgarlik", "guvoh" kabi terminlar kirib kelgan. Arabcha terminlar o'rta asrlarda Islom huquqi tizimi orqali o'zbek madaniyatiga chuqur singib ketgan. Fors tili orqali esa "shartnoma", "farmon", "mulk", "da'vo", "rozilik" kabi atamalar kirgan bo'lib, ular ko'proq davlat boshqaruvi va diplomatik hujjatlarda qo'llanilgan. Rus tili ta'siri XX asrda Sovet davrida kuchaydi. Shu davrda "kodeks", "prokuror", "sudya", "notarius", "protokol", "prokuratura" kabi terminlar o'zbek yuridik leksikasiga kiritildi. Ingliz tili ta'siri esa mustaqillikdan keyin kuchaydi. Masalan, "Legal system", "humans rights", "constitutionality", "monitoring", "reform" kabi terminlar bugungi yuridik diskursda keng qo'llanmoqda va buning natijasida bugungi kunda o'zbek tili yuridik terminlari xalqaro standartlariga moslashib bormoqda. Ayrim terminlar o'zbek tiliga to'liq singib ketgan. Masalan, "konstitutsiya", "kodeks", ayrimlari esa hali moslashish jarayonida "legalizatsiya", "ratifikatsiya". Har bir yo'nalish o'z terminlar tizimiga ega bo'lib, ular qonun hujjatlarida va rasmiy hujjatlarda qat'iy aniqlik bilan qo'llaniladi. O'zbek yuridik terminlari, odatda semantik jihatdan aniq, ko'p ma'nolilikdan xoli bo'lishi kerak. Masalan, "shartnoma" atamasi faqat ikki yoki undan ortiq tomon o'rtasidagi huquqiy bitimni bildiradi. Ko'p hollarda yuridik terminlar so'z birikmasi shaklida bo'ladi: fuqarolik javobgarligi, jinoyat ishlari bo'yicha sud, huquqiy ong, normativ hujjat. Bu birikmalar o'zaro mantiqiy va grammatik bog'liqlikka ega bo'lib, huquqiy nutqning aniqligini ta'minlaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda yuridik terminlarni yagona tizimga keltirish dolzarb masalalardan biridir. Bu borada "Huquqiy atamalar izohli lug'ati", "Qonun hujjatlari tili bo'yicha metodik qo'llanma" kabi manbalar katta ahamiyat kasb etadi. Tarjima masalasi ham o'ta muhim har bir termin boshqa tilda aniq ekvivalentga ega bo'lishi kerak. Masalan,

Huquq - law - право

Qonun - legislation - закон

Himoya - defense - защита

Agar tizimdagi termin noto'g'ri ishlatilsa, hujjatning huquqiy mazmuni buziladi. Shu sababli yuridik tarjimonlar tilining nozik jihatlarini chuqur bilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda o'zbek tilidagi yuridik terminlar - milliy huquq tizimining poydevoridir. Ular nafaqqonunlarni to'g'ri tushunishga, balki jamiyatda huquqiy ong madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois yuridik terminologiyani ilmiy asosda o'rganish, standartlashtirish, xalqaro ekvivalentlarni ishlab chiqish va ta'lim tizimida to'g'ri qo'llash O'zbekiston huquqshunosligining rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyaotlar

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch ". - Toshkent Ma'naviyat 2008.
2. Jorayev M. O'zbek huquq terminologiyasi masalalari - Toshkent O'zbekiston Milly universiteti nashriyoti 2017.
3. Qurbonov M. "Huquq nazariyasi ", - Toshkent TDYuU nashriyoti 2020.

O'ZBEK VA TURK TILI GRAMMATIKASIDA ZAMONLAR KATEGORIYASI

Tuxtamboyeva Zumrad Latif qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishining

1-bosqich talabasi

tuxtamboyevazumrad@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori [PhD]

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va turk tillarida zamon kategoriyasining morfologik, semantik va funksional xususiyatlari keng tahlil qilinadi. Har ikkala tildagi zamon shakllarining paradigmik tizimi, tarixiy ildizlari, shuningdek, zamon qo'shimchalari va grammatik qoidalarining rivojlanish tendensiyalari qiyosiy yoritiladi.

Kalit so'zlar: zamon kategoriyasi, zamon qo'shimchalari grammatik qoidalar, paradigma, o'zbek tili, turk tili.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются морфологические, семантические и функциональные особенности категории времени в узбекском и турецком языках. Сопоставительно освещаются парадигматическая система временных форм, их исторические корни, а также тенденции развития временных аффиксов и грамматических правил.

Ключевые слова: категория времени, временные аффиксы, грамматические правила, парадигма, узбекский язык, турецкий язык.

Annotation: This article provides an extensive analysis of the morphological, semantic, and functional features of the tense category in Uzbek and Turkish. It comparatively highlights the paradigmatic system of tense forms, their historical roots as well as the developmental tendencies of tense affixes and grammatical rules.

Keywords: tense category, tense affixes, grammatical rules, paradigm, Uzbek language, Turkish language.

Zamon kategoriyasi turkiy tillar grammatik tizimining eng asosiy qismlaridan biri hisoblanib, fe'lining zamon shakllari orqali nutqdagi voqealarning sodir bo'lish vaqtini bildiradi. O'zbek va turk tillarining ildizi tarixan bir bo'lganligi tufayli ularning zamon tizimlari ham ko'p jihatdan o'xshashdir. Shu bilan birga, talaffuzlar, ayrim qo'shimchalar va ularning ishlatilishida farqlar mavjud. Zamonaviy tilshunoslikda bu kategoriyani morfologik, semantik, funksional va uslubiy jihatdan o'rganish muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Ma'lumki, o'zbek tilida zamon kategoriyasi uch asosiy turga bo'linadi: o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon. Har bir zamon o'ziga xos qo'shimchalar bilan shakllanadi:

1. O'tgan zamon: -di, -gan. Masalan: bordim, kelganman.
2. Hozirgi zamon: -yapti, -moqda. Masalan: borayapman, yozmoqda.
3. Kelasi zamon: -adi, -ar. Masalan: boradi, kelar.

Zamon qo'shimchalari shaxs-son qo'shimchalari bilan birga qo'llanadi: bor-dim, bor-ding, bor-di, bor-dik; kel-dim, kel-ding, kel-di, kel-dik. Bu o'zbek tilining umumiy grammatik tizimiga xos xususiyat hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek tilida zamonning murakkab shakllari ham mavjud: kelayotgan edim, kelayotgan ekanman, kelib turardi. Bu shakllar yordamchi fe'llar orqali hosil qilinadi va voqea davomiyligini ifodalaydi. Turk tilida ham uch asosiy zamon mavjud bo'lib, o'tgan zamonda aniqlangan (-di) va aniqlanmagan o'tgan zamon (-miş) shakllari farqlanadi:

1. geldim (aniqlangan o'tgan zamon).
2. gelmişim (aniqlanmagan o'tgan zamon).
3. geliyorum (hozirgi o'tgan zamon).
4. geleceğim (kelasi zamon).

Turk tilidagi paradigmalardan biri: gel-di-m, gel-di-n, gel-di, gel-di-k, gel-di-niz, gel-di-ler. Turk tilida fonetik uyg'unlik juda kuchli: -di, -dı, -du, -dü qo'shimchalari fe'l negizining oxirgi unlisiga qarab o'zgaradi. Bu qoida o'zbek tilida ham qisman saqlanib qolgan, biroq uyg'unlik darajasi nisbatan pastroq. Qadimiy turkiy yodgorliklarda (O'rxun-Enasoy bitiklari) zamon qo'shimchalari hozirgidan biroz boshqacha ko'rinishda, ya'ni: -ti, -tu kabi shakllarda bo'lgan. Bu shakllar keyinchalik o'zgarib, turk tilida -di, -miş, o'zbek tilida esa -di, -gan shakliga aylangan. Masalan, qadimgi turkiy tilidagi bar-ti-m fe'li hozirgi turk tilida gittim, o'zbek tilida bordim bo'lib keladi. Filolog olim H. Karimov zamon kategoriyasining rivojlanishini qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan boshlab izchil shakllanganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, turkolog A. Demir turk tilidagi zamon tizimining tarixiy ildizlarini va

bugungi adabiy tildagi qo'llanilish jarayonlarini chuqur tahlil qilgan. Zamon qo'shimchalari bilan birga modal ma'nolar, davomiylik va takroriylikni bildiruvchi shakllar ham ishlatiladi: borib turardi, borib turadi; turk tilida gidip dururdu, gidip duruyor. Bu esa zamon kategoriyasining boshqa grammatik kategoriyalar bilan ham aloqadorligini ko'rsatadi. Yordamchi fe'llar (edi, ekan, emish, bo'ladi) zamon ma'nosini kuchaytiradi: kelayotgan edi, kelayotgan ekan. O'zbek tilida hozirgi zamonning bir necha uslublari bor: -yapti shakli ko'proq so'zlashuv uslubida ishlatilsa, -moqda shakli ilmiy-adabiy uslubga xosdir. Turk tilida ham shunga o'xshash uslubiy farqlar mavjud: geliyorum (oddiy), gelmekteyim (rasmiiy). Shuningdek, o'zbek va turk tillarida kelasi zamonning aniq va noaniq shakllari ham farqlanadi. O'zbek tilida boraman (aniq), borar (noaniq). Turkchada gideceğim (aniq), giderim (odatdagi kelasi zamon). Bu shakllar zamonning semantik imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Demak, o'zbek va turk tillarida zamon kategoriyasi fe'l sistemasining eng asosiy va murakkab bo'lgan qirralaridan biri hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ushbu ikki tilning tarixiy ildizi bitta, lekin grammatik jihatdan biroz farqlidir. Shu sababli ham har ikki tilda zamon shakllari turli qo'shimcha va yordamchi fe'llar orqali hosil qilinadi, paradigmatic tizimga ega bo'ladi hamda nutqning uslubiy va semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jihatdan zamon kategoriyasini qiyosiy o'rganish ikki tilni mukammal o'zlashtirishga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov H. O'zbek tilining zamon tizimi. – Toshkent: Fan, 2019. 40-60-betlar.
2. Demir A. Türkçede Zaman Kavramı. – İstanbul: Dil Yayınları, 2020. 112-130-sayfalar.
3. Rasulov N. Turkiy tillarda fe'l zamon shakllari. – Samarqand, 2018. 75-98-betlar.
4. Qodirov B. "Turk va o'zbek tillarida zamon kategoriyasi", Filologiya ilmiy jurnali. – Toshkent, 2021. 45-62-betlar.

GAP QURILISHI HAQIDA SINTAKTIK NAZARIYALAR**Ulasheva Dilnura Qodirali qizi**

Chirchiq davlat pedagogika unversiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Murodova firuza Jalolovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada gap qurilishi masalalari sintaktik nazariyalar asosida tahlil qilingan. An'anaviy, struktural, transformatsion-generativ, funktsional va kognitiv yondashuvlarning mohiyati yoritilib, ularning tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati ko'rsatib berilgan. Gapning grammatik shakli, semantik asoslari hamda aloqa-muloqot jarayonidagi vazifalari o'zaro solishtirma tahlil asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari gap sintaksisini mukammal o'rganishda turli nazariyalarni uyg'unlashtirish muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: gap sintaksisi, gap qurilishi, an'anaviy yondashuv, struktural sintaksis, transformatsion-generativ nazariya, funktsional sintaksis, kognitiv yondashuv, modallik.

Аннотация: В статье анализируются вопросы построения предложения на основе синтаксических теорий. Раскрывается сущность традиционного, структурного, трансформационно-генеративного, функционального и когнитивного подходов, а также показаны их роль и значение в лингвистике. На основе сопоставительного анализа раскрываются грамматическая форма предложения, его семантические основы и функции в процессе коммуникации. Результаты исследования показывают важность гармонизации различных теорий для комплексного изучения синтаксиса предложения.

Ключевые слова: синтаксис предложения, построение предложения, традиционный подход, структурный синтаксис, трансформационно-генеративная теория, функциональный синтаксис, когнитивный подход, модальность.

Abstract: This article analyzes the issues of sentence construction based on syntactic theories. The essence of traditional, structural, transformational-generative, functional and cognitive approaches is highlighted, and their role and significance in linguistics are shown. The grammatical form of a sentence, its semantic foundations and its functions in the process of communication are revealed on the basis of a

comparative analysis. The results of the study show the importance of harmonizing different theories in the complete study of sentence syntax.

Keywords: sentence syntax, sentence construction, traditional approach, structural syntax, transformational-generative theory, functional syntax, cognitive approach, modality.

Tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lgan sintaksis gap qurilishi, uning shakl va mazmuniy xususiyatlarini o'rganadi. Gap tilning asosiy kommunikativ birligi sifatida inson tafakkuri, muloqot jarayoni va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liqdir. Gap sintaksisi nazariyalari tilshunoslik taraqqiyotida turli davrlarda shakllanib, an'anaviy mantiqiy izohdan tortib, kognitiv yondashuvlargacha rivojlanib kelmoqda. Ushbu maqolada gap qurilishi masalasiga oid asosiy sintaktik nazariyalar tahlil qilinadi.

1. An'anaviy sintaksis nazariyalari

An'anaviy yondashuvlarda gap mantiqiy va grammatik asosda izohlangan. Gap mantiqiy hukmning ifodasi sifatida ko'rilgan, uning markazida subyekt va predikat munosabati yotadi. O'zbek tilshunosligida Abdurauf Fitrat, G'. Abdurahmonov, A. G'ulomov kabi olimlar bu yondashuvni rivojlantirib, gap qurilishida bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning o'rni, grammatik tartib va sintaktik munosabatlarni chuqur o'rganganlar [1].

An'anaviy sintaksis nazariyalari – bu sintaksis bo'yicha eng qadimiy va asosiy yondashuvlardan biridir. U grammatikaga klassik qarashlar asosida shakllangan bo'lib, gapni asosan mantiqiy va grammatik nuqtayi nazardan tushuntiradi. Asosiy xususiyatlari:

1) Mantiqiy yondashuv. Gap mantiqiy hukmning til birlikdagi ifodasi sifatida qaraladi. Har bir gapda subyekt (kim?) va predikat (nima qildi?) bo'lishi shart deb hisoblanadi. Masalan: “Quyosh chiqdi” gapida quyosh – subyekt, chiqdi – predikat.

2) Grammatik yondashuv. Gapning tuzilishi grammatik birliklarning (so'zlarning) o'zaro munosabatiga asoslanadi. Gap bosh bo'laklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, aniqllovchi, hol) ga bo'linadi. Gap qurilishi so'z tartibi, ohang va bog'lovchilar orqali ta'minlanadi.

3) O'zbek tilshunosligida tadqiqotlar. Abdurauf Fitrat, G'. Abdurahmonov, A. G'ulomov va boshqa olimlar an'anaviy sintaksisga katta hissa qo'shgan. Ular gap qurilishini turlarga ajratib, o'zbek tilidagi sintaktik me'yorlarni belgilab berganlar.

Afzalliklari:

- Gapning sodda va tushunarli talqinini beradi;

- O'qitishda asosiy metod sifatida hanuz qo'llanib keladi.

Cheklovlari:

- Gapning chuqur semantik va kommunikativ jihatlarini to'liq ochib bera olmaydi;
- Faqat grammatik shakl va mantiqqa e'tibor qaratadi, nutqiy vazifalarni yetarlicha hisobga olmaydi.

2. Struktural sintaksis

XX asr boshlarida yuzaga kelgan strukturalizm oqimi til birliklarini formal va funktsional jihatdan tahlil qildi. Gap sintaksisida sintagmatik munosabatlar, elementlarning pozitsiyasi va o'zaro bog'lanishi asosiy mezon sifatida qaraldi. Ferdinand de Sossyur, L. Bloomfield va A. Martine kabi olimlar ushbu yondashuvning nazariy asoschilaridir [2].

Struktural sintaksis – bu XX asr boshlarida yuzaga kelgan tilshunoslik oqimi bo'lib, gap qurilishini forma va tuzilma asosida tahlil qiladi. U strukturalizm deb ataluvchi ilmiy yo'nalishning bir qismi hisoblanadi. Asosiy mohiyati:

- a) Gap – bu o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar tizimi;
- b) Har bir elementning (so'z yoki so'z birikmasi) pozitsiyasi va funktsiyasi muhim;
- c) Gapni tushunishda sintagmatik (elementlarning ketma-ketligi) va paradigmatic (o'rinbosar bo'la oladigan birliklar) munosabatlar hisobga olinadi.

Muhim tamoyillari: Formal yondashuv – gapning tashqi shakli va birliklar tartibiga e'tibor qaratiladi; Pozitsion tahlil – so'zlar gap ichida qaysi o'rinda kelishi va qanday vazifa bajarishi asosida o'rganiladi; Funktsional birliklar – gapning har bir bo'lagi ma'lum kommunikativ vazifani bajaradi.

Shuningdek, Ferdinand de Sossyur – tilni langue (tizim) va parole (nutq) sifatida farqlagan, strukturalizmning nazariy asosini yaratgan. Leonard Bloomfield – gap tahlilida formal metodlarni qo'llagan, Amerika strukturalizmining asoschisi. André Martine – funktsional strukturalizmni rivojlantirgan [3].

Afzalliklari:

- Gapni faqat grammatik shakl emas, balki tuzilma va birliklarning o'zaro bog'lanishi sifatida tahlil qiladi;
- Sintaktik tahlilda aniqlik va qat'iylik beradi.

3. Transformatsion-generativ grammatik nazariya

Noam Xomskiy tomonidan ishlab chiqilgan bu nazariya gap qurilishini ikki darajada – chuqur tuzilma va sirtqi tuzilma asosida tushuntiradi.

- Chuqur tuzilma gapning semantik-mantiqiy asosini tashkil qiladi.

- Sirtqi tuzilma esa nutqdagi real shaklini ifodalaydi. Masalan, “Bolalar kitob o‘qimoqda” gapining chuqur tuzilmasi subyekt-harakat munosabatiga, sirtqi tuzilmasi esa grammatik tartibga asoslanadi.

Transformatsion-generativ grammatik nazariya – bu zamonaviy sintaksisning eng muhim yondashuvlaridan biri bo‘lib, amerikalik tilshunos Noam Xomskiy tomonidan XX asrning 50-yillarida ishlab chiqilgan [4]. Asosiy g‘oya: “Til – bu cheklangan qoidalar asosida cheksiz gaplar yaratish imkonini beradigan tizim”. Gap qurilishi ikki darajada izohlanadi:

A. Chuqur tuzilma (deep structure) – gapning semantik-mantiqiy mazmuni;

B. Sirtqi tuzilma (surface structure) – gapning real nutqda ifodalanadigan grammatik shakli. Masalan: “Talabalar kompyuter o‘rganmoqda” – sirtqi tuzilma.

Uning chuqur tuzilmasi esa [Subyekt – Harakat – Ob‘ekt] munosabatidan iborat. Muhim tushunchalar: Generativlik – til qoidolari yordamida cheksiz miqdorda yangi gaplarni hosil qilish imkoniyati; Transformatsiya – bir gapning boshqa shaklga o‘zgartirilishi. Masalan:

“Bolalar kitob o‘qimoqda” (darak gap) → “Bolalar kitob o‘qiyaptimi?” (so‘roq gap) → “Kitob bolalar tomonidan o‘qilmoqda” (majhul nisbat).

Afzalliklari: Gap qurilishini chuqur va ko‘p qirrali izohlaydi; Tilning ijodiy tabiatini (cheklangan qoidalar bilan cheksiz gap tuzish imkonini) ochib beradi; Sintaksis va semantika o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiradi.

4. Funktsional sintaksis

Funktsional yondashuv gap qurilishini aloqa-muloqot jarayoni va nutqiy vazifa nuqtayi nazaridan izohlaydi. Bu nazariyada gap mavzu, modallik, kommunikativ maqsad (xabar, so‘roq, buyruq) orqali tahlil qilinadi. Gap faqat grammatik tuzilma emas, balki muloqot vositasi sifatida qaraladi.

Funktsional sintaksis tilshunoslikda gap qurilishi va uning elementlarini ularning funktsional vazifasi asosida o‘rganishga qaratilgan yondashuvdir. Bu nazariya XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda keng tarqalgan bo‘lib, u asosan gapning formal tuzilishidan ko‘ra, uning mazmuni, kommunikativ ahamiyati va matndagi vazifasini izohlashga e‘tibor qaratadi [5]. Asosiy g‘oyalari:

1. Gapning maqsadi va vazifasi – gap faqat grammatik birlik emas, balki kommunikativ birlik sifatida qaraladi. Gapning tuzilishi uning axborot berish, ta’sir

2. Sintaktik birliklarning o‘zaro munosabati – gapning bo‘laklari nafaqat grammatik, balki kommunikativ funksiyasi jihatdan ham o‘rganiladi.

3. Kontekst va nutqiy vaziyat – funktsional sintaksisda gapning ma'nosi kontekstdan ajratilmaydi, balki muloqot jarayonida baholanadi.

5. Kognitiv sintaksis

Hozirgi zamon tilshunosligida kognitiv yondashuv gap qurilishini inson tafakkuri, bilim va dunyoqarashi bilan bog'liq holda tushuntiradi. Gap qurilishida nafaqat grammatik, balki psixologik, pragmatik va madaniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois, kognitiv sintaksis gapni ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganadi.

Kognitiv sintaksis – tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u gap qurilishini insonning tafakkuri, idroki va bilimlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi. Bu nazariya XX asr oxiri – XXI asr boshlarida shakllangan kognitiv lingvistikaning muhim qismi hisoblanadi. Asosiy tamoyillari:

- Til va tafakkur birligi – gap qurilishi insonning dunyoni qanday idrok etishi va tasniflashiga bevosita bog'liq;

- Kontseptualizatsiya – gap tuzilishi inson ongidagi konseptual modellarning ifodasi sifatida qaraladi. Masalan, sabab–oqibat, vaqt, makon kabi kognitiv kategoriyalar gap tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi;

- Ma'no ustuvorligi – kognitiv sintaksisda shakldan ko'ra ma'no birlamchi hisoblanadi. Gapning sintaktik modeli mazmunning qanday tashkil topishiga bog'liq;

- Metafora va metonimiya – gap qurilishida metaforik va metonimik modellarni qo'llash inson tafakkurining asosiy xususiyati sifatida ko'riladi;

- Dinamiklik – gap tuzilishi qat'iy sxema emas, balki nutq jarayonida ong faoliyatiga ko'ra shakllanadigan jarayon sifatida talqin qilinadi.

Gap qurilishi sintaktik nazariyalari tilshunoslik taraqqiyoti davomida turlicha talqin qilingan. An'anaviy yondashuv grammatik shaklga, struktural va transformatsion nazariyalar gapning ichki va tashqi tuzilishiga e'tibor bergan. Funktsional va kognitiv yondashuvlar esa gapni aloqa jarayoni hamda inson tafakkuri bilan bog'liq holda izohlagan. Mazkur nazariyalarni o'zaro uyg'unlashtirish bugungi kunda gap sintaksisini mukammal tadqiq etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
2. G'ulomov A., Asqarova M. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1987.
3. Fitrat A. O'zbek tili qoidalari. – Toshkent, 1926.
4. Bloomfield L. Language. – New York: Holt, 1933.

5. Saussure F. de. Course in General Linguistics. – New York: McGraw-Hill, 1966.

FE'LNING TURLANISHI VA TUSLANISH TAHLILI

Umarqilova Rushana Ag`zam qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Firuza Murodova

Annotatsiya: Ushbu maqolada soʻz turkunlaridan: feʼl soʻz turkumi, feʼllarning turlanishi va tuslanishi, feʼlning munosabat shakllari misollar bilan yoritilib beriladi. Bundan tashqari, feʼlning qoʻllanishi va uning nutqimizdagi ahamiyati aytib oʻtiladi.

Kalit soʻzlar: feʼl, soʻz turkumi, tuslanish, turlanish, munosabat shakllari.

Аннотация: В данной статье рассматривается часть речи — глагол, его спряжение и формы изменения, а также отношения между различными формами глагола с приведением примеров. Кроме того, отмечается употребление глаголов и их значение в нашей речи.

Ключевые слова: глагол, часть речи, спряжение, изменение, формы отношений.

Annotation: This article analyzes the part of speech — the verb, its conjugation and inflection, as well as the relational forms of verbs with illustrative examples. In addition, the use of verbs and their importance in our speech are discussed.

Keywords: verb, part of speech, inflection, conjugation, relational forms.

Feʼl — harakat bildiruvchi soʻzlar turkumi va shu turkumga oid har bir soʻz. Grammatikada "harakat" soʻzi keng tushunchali boʻlib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi. Masalan, yugurmoq, sakramoq, yigʻlamoq, uxlamoq, oʻylamoq, sevmοq, tinchimoq, qurimoq. Ish-harakat maʼlum bir grammatik shaxs tomonidan bajariladi (yoki bajarilmaydi). Grammatik shaxs soʻzlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), oʻzga (III shaxs yoki predmet) boʻlishi mumkin. Grammatik shaxs grammatik son (birlik yoki koʻplik) bilan birgalikda ifodalanadi. Feʼllardagi bunday grammatik shaxs va son maʼnosi maʼlum bir grammatik korsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan: oʻqidim, oʻqisam, oʻqisang, oʻqiyapman, oʻqibman, oʻqiy feʼllari tarkibidagi -m, -man, -y qoshimchalari ish-harakatning I shaxs soʻzlovchi, yaʼni yakka shaxs tomonidan bajarilganini koʻrsatsa; oʻqidik, oʻqisak, oʻqiyapmiz, oʻqibmiz, oʻqiylik feʼllari tarkibidagi -k, -miz, -ylik affikslari ish-harakatning I shaxs, lekin koʻp soʻzlovchilar (shaxslar) tomonidan bajarilganini ifodalaydi. Demak, ish-harakatning bajaruvchisi uch shaxs va shaxs-son tushunchalarini aks ettiruvchi affikslarni oʻz

ichiga oladi. SHuning uchun ham bunday affikslar shaxs-son affikslar deb yuritiladi. Shaxs-son kategoriyasi fe'l anglatgan harakatning bajaruvchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Harakatning bajaruvchisi so'zlovchi, tinglovchi va nutq jarayonida qatnashmagan o'zga shaxs bo'lishi mumkin. SHaxs ma'nolari maxsus affikslar orqali ifodalanadi, bunda ayni bir affiks bajaruvchining sonini ham anglatadi, shuning uchun bu affiks shaxs-son affiksi deyiladi. Fe'lning shaxs-sonda o'zgarishi tuslanish deyiladi, shuning uchun shaxs -son affikslari tuslovchilar deyiladi. Bajaruvchi shaxs bilan harakat orasidagi munosabat predikativlik munosabatining ifodalanishi hisoblanadi. Ega va kesim munosabatini shaxs-son affiksi ko'rsatadi. Bu esa faqat fe'l shakllarinigina emas, shu bilan birga, boshqa so'z turkumlarining ham shaxs-son affiksini olib kelishini ta'minlaydi: Men elimning yuragida yashayman. Birinchi shaxs tuslovchisi harakatning bajaruvchisi so'zlovchining o'zi ekanligini, uning ko'pligi esa so'zlovchi ham qatnashgan shaxslarni bildiradi: yozaman-yozamiz, o'qidim-o'qidik. Ikkinchi shaxs so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki shaxslarni - suhbatdoshni bildiradi: o'qiding-o'qidingiz, yozasan-yozasiz. Uchinchi shaxs tuslovchi esa umuman nutqda qatnashmagan, lekin nutq o'zi to'g'risida bo'lgan shaxs yoki narsalarni bildiradi: yozdi-yozdilar. Fe'lning birinchi va ikkinchi shaxs shakli faqat kishiga nisbatan qo'llanadi (badiiy vosita - jonlantirish bunga kirmaydi). SHuning uchun fe'llar birinchi va ikkinchi shaxs shaklida kelganda, gapning egasi shu shaxslarni ko'rsatuvchi kishilish olmoshlari bilan ifodalanadi. Fe'ldagi shaxs-son affiksi tegishli shaxsdagi egani aniq ko'rsatgani sababli bu shakllarda gapning egasi yashirinishi ham mumkin: Bularni ko'rib shodlanaman.

1.Daryolardan kuylab o'tardim.

2.Avval o'yla, keyin so'yla.

Birinchi tuslanish tarixiy jihatdan eng qadimgisi bo'lib, kishilik olmoshlardan o'sib chiqqan. Ikkinchi shakl esa birinchi shakldan hosil bo'lgan. Birinchi tuslanish affikslari quyidagi fe'l shakllarini tuslashga xizmat qiladi:

a) sifatdoshga qo'shib, uzoq o'tgan zamon fe'lini tuslaydi: eshitganman, otgansan, borgan;

b) ravishdoshga qo'shib, o'tgan zamon hikoya fe'lini tuslaydi: aytibman, aytibsan, aytibdi;

v) hozirgi zamon davom fe'lini tuslaydi: olyapman, olyapsan, olyapti, o'qiyotirman, olayotibman, olmoqdasan;

g) hozirgi-kelasi zamon fe'lini tuslaydi: yozaman, o'qiyman;

d) kelasi zamon maqsad fe'lini tuslaydi: o'qimoqchiman, o'qiydiganman;

e) kelasi zamon gumon fe'lini tuslaydi: o'qirman, borarsan;

y) ekan, emish bilan tuzilgan analitik shakllarni va kesim vazifasida kelgan boshqa turkum so'zlarini tuslab keladi: o'qir ekanman, talabaman, baxtliman.

Ba'zi zamon shakllarida uchinchi shaxs uchun -di affiksi qo'llanadi, ko'p hollarda esa bu shaxsning maxsus affiks i bo'lmaydi: keldi, kelayotir, kelar, kelmoqchi.

Ikkinchi tuslanish affikslari quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

a) yaqin o'tgan zamon fe'lini tuslaydi: aytdim, aytding, aytdi;

b) to'liqsiz fe'l bilan ishlatilgan uzoq o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon maqsad fe'li va o'tgan zamon davom fe'lini tuslaydi: aytgan edim, aytib eding, bormoqchi edim, oladigan edim, borar eding;

v) shart mayli shakllarini tuslab keladi: olsam, olsang, olsa.

Ikkinchi tuslanish affikslari shaklan egalik affikslariga o'xshaydi: ko'rdim, ko'rding; ruchkam, ruchkang. Lekin bularning biri fe'lga qo'shilib, bajaruvchi shaxsga munosabatni bildirsa, ikkinchisi otga qo'shilib biror narsaga qarashlilikni bildiradi.

Uchinchi tuslanish affikslari buyruq-istak maylidagi fe'llarni tuslashga xizmat qiladi: olay, olayin, ol, olgin, olsin, olaylik, oling, olingiz, olingizlar, olsinlar; o'qiy, o'qiyin, o'qi, o'qigin, o'qisin, o'qiylik, o'qing, o'qingiz, o'qisinlar.

Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari o'z ma'nolaridagina qo'llanib qolmay, balki biri ikkinchisi o'rnida ham qo'llana oladi. Birinchi shaxsning ko'plik shakli, so'zlovchining boshqa shaxslar bilan birgalikdagi harakatini bildirishdan tashqari, birinchi shaxs birligi uchun ham qo'llanadi. Bunda so'zlovchining kamtarligi yoki mag'rurlanishi ma'nosi ifodalanadi: Biz do'ndirdik (Men bajardim). Birinchi shaxsning ko'plik shakli ikkinchi shaxsning ko'pligi uchun ham ishlatila oladi: Qani, yozamiz bolalar! O'quvchilar, safga tizilaylik! Ikkinchi shaxsning ko'plik shakli, bir necha shaxsga murojaat ma'nosini bildirish bilan birga, ikkinchi shaxsning birligi uchun qo'llanib, biror shaxsga nisbatan hurmat yoki piching ma'nosini ifodalaydi: Samad, bu ishingizning foydasini aytsangiz. Ikkinchi shaxsning birlik shakli uchinchi shaxsning birligi uchun ham qo'llanishi mumkin: Ming marta tikilsang ham to'ymaysan kishi. Uchinchi shaxsning ko'plik shakli hurmat yoki kesatish ma'nosida shu shaxsning birligi uchun qo'llanishi mumkin: SHojalil ham xizmatga borganlar. Uchinchi shaxsning ko'plik shakli ikkinchi shaxsning birligi uchun qo'llanib, ko'pincha hurmat, ba'zan kesatish ma'nosini ifodalaydi: Qani, otaxon, yuqoriga o'tsinlar. Nima xohlasalar hammasi bor. SHuncha ishladilar, qancha jamg'arma orttirdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. Toshkent: O'qituvchi, 1995.

2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya.) Toshkent. 2000.

3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992.

DINIY LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Umarqulova Shahrizoda Ixtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalish

umarqulovashahrizoda@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Maqolada diniy leksikaning semantik xususiyatlari, jumladan, ularning lug'aviy ma'nosi, uslubiy qo'llanilishi va tarixiy-madaniy omillar ta'sirida shakllangan qatlamlari tahlil qilingan. Diniy so'zlarning kontekstdagi vazifalari va semantik o'ziga xosliklari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: diniy leksika, semantika, lug'aviy ma'no, uslubiy qo'llanilish, tarixiy-madaniy omillar, kontekst, semantik tahlil.

Abstract: The article analyzes the semantic features of religious lexicon, including their lexical meaning, stylistic use, and layers formed under the influence of historical and cultural factors. The functions and semantic features of religious words in context are studied.

Keywords: religious lexicon, semantics, lexical meaning, stylistic usage, historical-cultural factors, context, semantic analysis.

Аннотация: В статье анализируются семантические особенности религиозной лексики, включая её лексическое значение, стилистическое использование и пласты, сформированные под влиянием историко-культурных факторов. Изучаются функции и семантические особенности религиозной лексики в контексте.

Ключевые слова: религиозная лексика, семантика, лексическое значение, стилистическое использование, историко-культурные факторы, контекст, семантический анализ.

Diniy leksika o'zining semantik xususiyatlari bilan boshqa turdagi lug'at qatlamidan ajralib turadi. Bu so'zlar odatda an'anaviy va rasmiy kontekstda ishlatiladi va ko'pincha chuqur ramziy ma'noga ega bo'ladi. Diniy leksikaning ma'nosi ko'pincha kontekstual bo'lib, u diniy matn yoki marosimning mazmuniga qarab o'zgarishi mumkin. Bu esa diniy leksikani semantik tahlil qilishda qiyinchilik tug'diradi, chunki uning ma'nosi faqat so'zning lug'aviy ma'nosi bilan cheklanmaydi, balki uning ramziy va diniy ahamiyati bilan bog'liqdir.

Diniy leksika, shuningdek, sintaktik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu leksik birliklar ko'pincha ibodatlar, duo va marosimlar matnlarida qat'iy sintaktik tuzilmalarda qo'llaniladi. Bunday matnlarda diniy so'zlar va iboralar odatda o'ziga xos tartibda joylashadi va bu tartib ularning ma'nosini va ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, Qur'on oyatlari yoki va'z matnlarida so'zlarning joylashuvi va tuzilishi matnning tantanavorligini va ma'nosini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Pragmatik nuqtai nazardan, diniy leksika o'zining kommunikativ vazifalari bilan ajralib turadi. Diniy nutq va matnlar ko'pincha axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalash, jamiyatning diniy e'tiqodlarini mustahkamlash, shuningdek, diniy marosimlarda qatnashuvchilarni birlashtirish uchun ishlatiladi. Diniy leksika yordamida insonlar o'zlarining diniy e'tiqodlarini ifodalaydilar, boshqalar bilan diniy muloqotga kirishadilar va diniy tajribalarini o'rtoqlashadilar. Til jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u insonlarning kundalik ehtiyojlarini qondirishdan tashqari, ularning madaniy, tarixiy va diniy meroslarini ham aks ettiradi. Xalqning diniy e'tiqodlari va qarashlari til orqali ifoda etilib, u madaniyat va mafkura vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Diniy leksika o'zida qadriyatlarni, ibodatlarini, rasm-rusumlarni va diniy dunyoqarashni aks ettiruvchi so'z va iboralarni qamrab oladi. Diniy leksika nafaqat tildagi alohida so'zlar tizimini shakllantiradi, balki ma'naviy va madaniy hayotning turli jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning lug'aviy ma'nolari va semantik qatlamlari asrlar davomida o'zgarib, tarixiy va madaniy omillar ta'sirida boyib borgan. Bunday leksik birliklar nafaqat diniy matnlar yoki ibodatlarda, balki kundalik hayotda ham keng qo'llanilib, xalqning madaniy o'ziga xosligini namoyon etadi. Semantik tahlil: Diniy leksikaning lug'aviy ma'nolari so'z va iboralar asosida tasniflandi. Masalan, "duo", "tavba", "ziyosat" kabi so'zlarning asosiy va kontekstual ma'nolari o'rganildi. Semantik maydon usuli yordamida diniy leksikaning ma'no doirasi, ya'ni sinonimik va antonimik qatlamlari aniqlandi. So'zlarning metaforik va ko'chma ma'nolari (masalan, "nur"ning ma'naviy ma'nosi) tahlil qilindi. Qiyosiy metod: Diniy leksika boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan qiyoslandi. Masalan, arab tilidan o'zlashgan "namoz" so'zi bilan ingliz tilidagi "prayer" so'zining semantik va pragmatik farqlari tahlil qilindi. Turli madaniyatlarda diniy atamalarining o'xshashlik va farqlari o'rganildi, bu jarayonda tarjima va kontekst muammolari tahlil qilindi. Diskursiv tahlil: Diniy leksikaning diniy matnlar (masalan, Qur'on va Injildagi so'zlar) va zamonaviy ommaviy axborot vositalarida ishlatilishi tahlil qilindi. Diniy so'zlarning pragmatik vazifalari, ya'ni ular orqali beriladigan ma'naviy xabar va e'tiqodiy mazmun aniqlangan. So'zlarning ijtimoiy-diskursiv funksiyalari, jumladan,

xalq orasida diniy nutqda ishlatilishi o'rganildi. Tarixiy metod: Diniy leksikaning kelib chiqishi va uning tarixiy taraqqiyoti tahlil qilindi. Masalan, "ziyosat" so'zining dastlabki ishlatilishi va uning madaniy kontekstdagi o'zgarishlari o'rganildi. Tarixiy manbalardan, jumladan, qadimiy qo'lyozma va diniy matnlardan olingan so'zlarning davriy o'zgarishlari tahlil qilindi. Leksik birliklarning madaniy va ijtimoiy kontekstda qadrlanishi varivojlanishi aniqlandi. Ushbu metodlarning birgalikda qo'llanilishi diniy leksikaning lingvistik xususiyatlarini va uning jamiyat hayotidagi o'rnini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Semantik xususiyatlar: Diniy leksika tarkibida asosiy va ko'chma ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar aniqlandi. Masalan, "nur" so'zi nafaqat yorug'lik ma'nosida, balki ma'naviy poklikni ifodalovchi metafora sifatida ham ishlatilishi kuzatildi. Shuningdek, diniy terminlarning sinonimiy va antonimiy qatlamlari, jumladan, "savob" va "gunoh" so'zlari o'rtasidagi semantik qarama-qarshiliklar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil natijalari: Diniy leksikaning boshqa tillardagi ekvivalentlari bilan solishtirish natijasida madaniyatlararo farqlar va o'xshashliklar aniqlandi. Masalan, arab tilidan o'zlashgan "tavba" so'zining ingliz tilidagi "repentance" atamasi bilan semantik farqlari o'rganilib, ularning ishlatilish konteksti turlicha ekanligi qayd etildi. Diskursiv qo'llanilishi: Diniy so'zlarning zamonaviy nutq va matnlardagi o'rnini tahlil qilinib, ularning ijtimoiy-diskursiv funksiyalari aniqlandi. Xususan, diniy terminlar nafaqat ibodatlarda, balki ommaviy axborot vositalarida ham keng qo'llanilayotgani, bu esa ularning jamiyatdagi dolzarbligini oshirayotganini ko'rsatdi. Tarixiy rivojlanish: Diniy leksika tarixiy rivojlanish jarayonida turli davrlarda turlicha talqin etilgan. Masalan, "ziyosat" so'zi dastlab faqat diniy ma'noda qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik u ijtimoiy ma'nolarni ham qamrab olgan. Qadimiy manbalardan olingan ma'lumotlar ushbu so'zlarning tarixiy o'zgaruvchanligini tasdiqladi. Semantik tahlil diniy so'zlarning lug'aviy va kontekstual ma'nolarini aniqlashga yordam berdi. Masalan, "tavba" so'zi diniy kontekstda ma'naviy tozalash va Yaratganga yaqinlashish ma'nosini anglatadi. Bu diniy leksikaning yirik ma'nolar tizimini tashkil etadi. Qiyosiy metod yordamida diniy leksikaning boshqa tillardagi ekvivalentlari tahlil qilindi. Masalan, "namoz" so'zi arab tilidan ingliz tiliga o'zlashgan bo'lib, har bir tilning diniy amallarni ifodalashdagi xususiyatlari farqlanadi. Bu o'zgarishlar diniy atamalarning turli madaniyatlarda qanday ishlatilishini ko'rsatadi. Diskursiv tahlil esa diniy leksikaning pragmatik jihatlarini aniqladi. Diniy so'zlar ko'pincha axloqiy va ma'naviy xabarlarini uzatishda foydalaniladi. Qur'on va Injildagi so'zlarning ijtimoiy va diniy kontekstda ishlatilishi muhim ahamiyatga ega. Tarixiy metod yordamida diniy leksikaning rivojlanish

jarayoni o'rganildi. Diniy atamalar vaqt o'tishi bilan madaniy va ijtimoiy kontekstlarga mos ravishda o'zgarib borgan. Masalan, "ziyosat" so'zi avvalgi diniy ma'nolardan zamonaviy diniy amallarga qadar o'zgargan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola diniy leksikaning semantik, qiyosiy, diskursiv va tarixiy jihatlarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari diniy leksikaning nafaqat tilshunoslik, balki madaniy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham muhimligini ko'rsatdi. Semantik tahlil orqali diniy so'zlarning lug'aviy va kontekstual ma'nolari, shuningdek, ularning metaforik va ko'chma ma'nolari o'rganildi. Qiyosiy metod yordamida diniy leksikaning boshqa tillardagi ekvivalentlari tahlil qilindi, bu orqali madaniyatlararo farqlar va o'xshashliklar aniqlangan. Diskursiv tahlil diniy so'zlarning ijtimoiy-diskursiv funksiyalarini va jamiyatdagi o'rnini ochib berdi. Tarixiy metod esa diniy leksikaning rivojlanish jarayonini va uning madaniy kontekstdagi o'zgarishlarini o'rganishga imkon yaratdi. Shu orqali diniy leksika tilning rivojlanishida, madaniyatda va jamiyatda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Tadqiqot diniy so'zlarning lingvistik va madaniy xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi va kelajakda diniy leksikaning yanada kengroq o'rganilishini ta'minlash uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov, A. (2018). Diniy leksikaning uslubiy qo'llanilishi va sinonimik qatlamlari. Tashkent: Noshir.
2. Lyons, J. (1995). Semantics. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
4. Xolmurodov, M. (2021). Diniy leksikaning metaforik ma'nolari va madaniy tasvirlardagi aksi. Tashkent: Noshir.

YURIDIK ATAMALARNI O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI IZOHLI LUG'ATI

Farhodova Umida Ravshan qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyot
yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbari: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

Fiologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

@umidafarhodova4@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola yuridik Terminlarning o'zbek va ingliz tilidagi lug'aviy ma'nosi, ulardagi tafovutlar, tarjimadagi kamchiliklar va ularning oqibatlarini. Yuridik terminlarni kontekstual kelib chiquvchi muammolar. Shu bilan birga Tarjima shunchaki lingvistik faoliyat sifatida emas, balki huquqiy – madaniy vosita sifatida ko'rishga chaqiradi. Ushbu terminlarni lingvistik nuqtai nazardan o'rganish, ularning morfologik va semantik qurilishini aniqlash, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish orqali terminologik barqarorlikka erishish mumkin. Maqolada, shuningdek, yuridik terminlarni o'rganishning dolzarbligi va amaliy ahamiyati haqida fikr yuritiladi hamda ularni o'rganishga zamonaviy yondashuvlar tavsiya etiladi.

KALIT SO'ZLAR ingliz tilidagi yuridik atamalar Konteks orqali tushunish. So'zlarda gi Sematik farqlar, Yuridik atamalar va ularning ahamiyati, lingvistik xususiyat, semantika va morfologiya.

ANNOTATION: This article deals with the lexical meaning of legal terms in Uzbek and English, their differences, translation shortcomings and their consequences. Legal terms are contextually derived problems. At the same time, it calls for viewing translation not only as a linguistic activity, but also as a legal and cultural tool.

Keyin words: legal terms in English Understanding through context. Semantic differences in words, Legal terms and their significance.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются лексические значения юридических терминов в узбекском и английском языках, их различия, недостатки перевода и их последствия. Юридические термины представляют

собой контекстуально обусловленные проблемы. В то же время, это требует рассмотрения перевода не только как языковой деятельности, но и как юридического и культурного инструмента.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: юридические термины в английском языке. Понимание через контекст. Семантические различия слов. Юридические термины и их значение.

KIRISH:

Zamonaviy globallashuv davrida jamiyatning huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy madaniyatni rivojlantirish va fuqarolarning qonunchilikdan xabardorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, turli sohalarda, jumladan, sud-huquq tizimida qo'llaniladigan yuridik terminlarning aniqligi, tushunarli ifodalanishi va bir ma'noliligi yuridik hujjatlar, qonunlar va rasmiy bayonotlarning samarali ishlashiga xizmat qiladi. Shu bois yuridik terminlarni lingvistik nuqtai nazardan o'rganish, ularning tuzilishi, semantik xususiyatlari va amaliy qo'llanilish doirasi ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Yuridik terminlar tilshunoslikda maxsus terminologik qatlam sifatida o'rganiladi. Ular ma'lum bir sohaga – huquqshunoslik, sud-huquq, jinoyat va fuqaro ishlari, xalqaro huquq kabi tarmoqlarga oid bo'lib, keng miqyosda qo'llaniladi. Har bir davlat o'z huquqiy tizimiga, qonunchilik Til taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biribu –ilmiy va rasmiy uslubdagi terminlarning izchil, standartlashtirilgan va tushunarli bo'lishidir. Yuridik terminlar ham ushbu mezonlarga javob berishi lozim, zero, ular huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Ammo afsuski, amaliyotda ko'plab terminlar bir necha ma'noda ishlatilishi, noaniq tarjima qilinishi yoki xalqaro standartlardan chetga chiqib ketishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, tushunmovchilikka, hujjatlarda noaniqlikka olib keladi. Shunday vaziyatlarda yuridik terminlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish, ularning morfologik tuzilishi, semantik kengayishi, sinonimligi, omonimligi, antonimligi kabi jihatlarni tahlil qilish dolzarb masalalardan biriga aylanadi. Bundan tashqari, tillararo tarjima jarayonida huquqiy atamalarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga yuridik ular o'zining rasmiylik darajasi, dolzarbligi bilan hayotimizda muhim o'rin kasb etadi, va boshqa til uslublaridan farq qiladi. Va shu bilan birga boshqa tildagi yuridik atamalarni tarjima qilishda va ommaga taqdim etishda ehtiyotkor bo'lmog'imiz lozim. Chunki har bir terminlar faqatgina ma'no anglatibgina

qolmay, butun-bir insonning taqdirini va “adolat” haqidagi tushunchalarni tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Sababi ingliz va o'zbek tilidagi bazi so'zlarning tarjimasi formal jihatdan va ma'no jihatidan o'xshash bo'lsa ham, ularning huquqiy mazmuni va foydalanish doirasi tubdan farq qiladi. Masalan ingliz tilidagi “**prosecutor**” yani o'zbek tilidagi ma'nosi prokuror bular formal jihatdan tarjimasi bir biriga mos, ammo ularning bajaradigan vazifalari, lavozimlarida turlicha

O'zbekistonda prokurorlar keng vakolatli davlat nazoratchisi, qonun ustivorligini ta'minlovchi shaxs tergovlar va sud jarayonlarida ishtirok etadi.

Amerikada esa prokurorlar asosan sud jarayonlarida davlat nomidan jinoyatni isbotlovchi shaxs va advokat sifatida faoliyat yuritadi.

Shu bilan bir qatorda “**Kontekst**” yuridik atamalarini to'g'ri tarjima qilishda hal qiluvchi omildir. Bir so'z turli kontekstlarda turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Masalan “**charge**” bu so'zning ma'nosi u bir joyda jinoyat bo'yicha ayiblov sifatida ishlatilsa, boshqa joyda moliyaviy to'lov yoki xarajat ma'nolarida keladi.

Isbot tariqasida ulardan ba'zi yuridik atamalarini ko'rib chiqaylik:

1. Liability – bir holatda fuqarolarning javobgarligini bildirsa boshqa holatda jinoiy javobgarlik ma'nolariga ega.

2. Consideration – o'zbek tilida ko'rib chiqish, e'tibor qaratish ma'nosida kelsa yuridik terminlar sifatida jinoiy ishga kirib ko'rib chiqish manolarini mavjud

Biroq bazi bir ingliz tilidagi atamalarini o'zbek tilida to'g'ri dan to'g'ri muqobil tarjimasi yo'q, ayni shu jarayonda tilshunos tarjimonlar o'z mahoratidan unumli foydalanib bu jaroyoni hal qilishi lozim. Bunga misol tariqasida shu so'zlarga ahamiyat beraylik:

Common law-Sud amaliyoti (precedent) asosida rivojlangan huquq tizimi. O'zbekistonda esa “kontinental huquq” (qonun asosida) amal qiladi.

Trust-Mulkni boshqarishning maxsus shakli, bunda egasi boshqa shaxsga boshqaruv huquqini beradi. O'zbek huquqida bunday aniq institut yo'q.

Injunction- Sud tomonidan beriladigan maxsus buyruq — biror amalni bajarishni taqiqlash yoki majburiy bajarish. O'zbek sud amaliyotida bevosita “injunction” tushunchasi yo'q.

Precedent-Oldingi sud qarori keyingi ishlar uchun huquqiy asos bo'lishi. O'zbekistonda sud qarorlari bunday majburiy kuchga ega emas.

Plea Bargain- Sud jarayonida ayblanuvchi va prokuror o'rtasida kelishuv (aybni tan olish evaziga yengilroq jazo olish). O'zbek sud tizimida bu institut deyarli qo'llanilmaydi.

Mens Rea- Jinoyat sodir etishda shaxsning ichki niyati yoki aybli ruhiy holati. Lotincha atama, o'zbek huquqida "ayb shakli" deyiladi, lekin to'liq mos emas.

Subpoena - Sud tomonidan guvoh yoki dalilni majburan sudga chaqirish hujjati. O'zbek tilida "chaqiruv qog'ozi" bor, ammo "subpoena"ning keng ko'lamli huquqiy kuchi yo'q.

Shu sababli, Yuridik sohada o'qiydigan yoshlarga har bir atamani g lingvistik ma'nosi I chuqur o'rgatish lozim. Buning uchun alohida nashr etilgan kitoblardan ham foydalanish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tilshunoslikda faqat lingvistik tafovutlar emas, balki huquqiy mavkura, taraqqiyot, jamiyatdagi huquqiy ong darajasi kabi omillar ham hisobga olinishi lozim. . Yuridik terminlar har bir davlat huquqiy tizimining muhim til birliklari bo'lib, ular qonunchilik, sud hujjatlari va rasmiy huquqiy hujjatlarda keng qo'llaniladi.

Ularning mazmunan aniq, leksik jihatdan barqaror va uslubiy jihatdan neytral bo'lishi huquqiy matnlarning to'g'ri tushunilishi va huquqiy munosabatlarning ravon kechishini ta'minlaydi.

Shuning uchun ham yuridik terminlarni lingvistik jihatdan o'rganish dolzarb va zarur masalalardan biridir. Shu asosda yuridik terminlarni tizimli o'rganish, ularni milliy qonunchilikka mos holda standartlashtirish va ularni o'qitish metodikasini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova Z. Yuridik matnlar stilistikasi. – Toshkent: Yuridik nashr, 2019. – 160 Huquqiy terminlar lug'ati.
2. Toshkent: Adolat, 2020. – 184
- b.3. Serebrennikov B.A. Yuridik terminologiyaning lingvistik tahlili. – Moskva: Nauka, 2015. – 208 b.
4. Wang J. Legal Terminology and Its Linguistic Structure in
3. Kobrin B. N Golovin R. Y Lingnistic formati of the doctrine of terms.
4. Khizhnyok S. P Legal terminology Formation and Composition. Saratov
5. Collocation Word book

TIL BIRLIKLARI O'RTASIDAGI LISONIY MUNOSABATLAR

Xasanova Nafosat

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

nafosatxasanova819@gmail.com

Ilmiy rahbar: Hayitov Muhammad To'ra o'g'li

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti,

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til tizimini tashkil etuvchi birliklar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, ya'ni paradigmatic, syntagmatic munosabatlar tahlil qilinadi. Til birliklarining o'zaro ta'siri, shuningdek lisoniy munosabatlarning nutqda hosil bo'lish jarayoni ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit sozlar: til tizimi, lisoniy munosabat, paradigmatic, syntagmatic, fonetik sath, assotsiativlik, leksema.

Annotation: This article analyzes the interrelationships between the units that constitute the language system, namely the paradigmatic and syntagmatic relationships. The mutual influence of linguistic units, as well as the process of linguistic relations emerging in speech, are also discussed.

Key words: language system, linguistic relations, paradigmatic, syntagmatic, phonetic level, associativity, lexeme.

Аннотация: В статье анализируются взаимосвязи между единицами, составляющими языковую систему, то есть парадигматические и синтагматические отношения. Также показано взаимодействие языковых единиц, а также процесс формирования языковых отношений в речи.

Ключевие слова: языковая система, языковое отношение, парадигматика, синтагматика, фонетический уровень, ассоциативность, лексема.

Til insoniyatning eng muhim vositalaridan biridir. U orqali biz fikrlarimizni ifodalaymiz, bir-birimiz bilan muloqot qilamiz, bilimlarimizni almashtiramiz va ijtimoiy hayotni tashkil qilamiz. Tilning tashkili va tuzilishi juda murakkab va qiziqarlidir. Til birliklari o'rtasida aniq munosabatlar mavjud bo'lib, ular tilning tushunilishini va ishlatilishini ta'minlaydi. Til birliklari o'rtasidagi munosabatlar turlarini o'rganish tilning tuzilishini, grammatik xususiyatlarini va

leksik boyligini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Til birliklari o'rtasidagi munosabatlar ikki asosiy turga bo'linadi: sintagmatika va paradigmatika. Ushbu ikkalasi ham tilni chuqurroq tushunish va tahlil qilish uchun muhim vositalar hisoblanadi. Sintagmatika va paradigmatika tushunchalari tilshunoslikda eng ko'p muhokama qilinadigan va tilni anglash uchun zarur bo'lgan asosiy nazariyalar hisoblanadi.

Sintagmatika —bu til birliklarining ketma-ketlikdagi bog'lanishini, ya'ni jumlada so'zlarning bir-biriga qanday bog'lanishini o'rganadigan tilshunoslik sohasidir. Sintagmatika, tilning gorizontaal tuzilishini ta'riflaydi, ya'ni so'zlarning bir-biriga qanday bog'lanishini va jumlada o'rin olishini ko'rsatadi. Sintagmatika so'zlar o'rtasidagi grammatik munosabatlarni o'rganishga imkon beradi. Masalan, "Yigit kitob o'qiydi" jumlasida "Yigit" va "kitob" so'zlari o'rtasida aniq grammatik munosabat mavjud: "Yigit" so'zi fe'lining sub'ekti hisoblanadi, "kitob" so'zi esa fe'lining to'ldiruvchisi hisoblanadi. Bu, sintagmatik munosabatlarning qanday ishlashini, jumladagi so'zlar o'rtasidagi sintaktik tuzilmani tushunish imkonini beradi.

Paradigmatika esa til birliklarining tanlov munosabatini o'rganadi, ya'ni bir so'z o'rniga boshqa bir so'z qo'yish imkoniyatini o'rganadi. Paradigmatika, tilning vertikal tuzilishini ta'riflaydi, ya'ni bir so'z o'rniga boshqa qanday so'zlar qo'yilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu, asosan, leksik va grammatik kategoriyalarni o'rganishga yordam beradi. Paradigmatika, so'zlarning sinonim va antonim munosabatlarini o'rganishga imkon beradi. Sinonimlar bir-biriga yaqin ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan, "kattalashtirish" va "ulug'lashtirish" so'zlari sinonimdir. Antonimlar esa bir-biriga qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan, "kattalik" va "kichiklik" so'zlari antonimdir. Paradigmatik tahlil yordamida, sinonimlar va antonimlar o'rtasidagi farqlarni, ularning ma'no munosabatlarini va til tizimidagi o'rnini aniq tushunish mumkin. Paradigmatika, shuningdek, grammatik shakl almashishlarini o'rganishda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, "ishlamoq" fe'li turli shakl almashishlarni qabul qiladi, masalan, "ishlayman", "ishlaydi", "ishlaysizlar" va hokazolar. Ushbu shakl almashishlar "ishlamoq" fe'lining paradigmasini tashkil qiladi. Paradigmatik o'rganish, til tizimidagi grammatik o'zgarishlarni, masalan, fe'lining zamon, shaxs, ko'plik, undov shakllarini tahlil qilish imkonini beradi. F.de. Sossyurning lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabatga jiddiy e'tibor berganligi qiymat tushunchasini belgilashda ham, tilning sistemaviy tabiatini belgilashda ham aniq ko'rinib turadi. Uning fikricha, tilning muayyan bir davrida har bir narsa munosabatlarga asoslanadi. Barqaror

(uzual) munosabatlar yig'indisi tilni tashkil etadi va uning funksiyalanishini belgilaydi. Shuning uchun tizimning har bir a'zosi boshqa a'zolar bilan sintagmatik va assotsiativ munosabati orqali aniqlanadi.³⁶ Tilshunoslik manbalarida fonetik sath, fonologik sath, morfonologik sath, bo'g'in sathi, allofonik sath kabi qator tushunchalar qo'llanmoqda. Sath tushunchasining bu darajada izohlanishi masala mohiyatini konkretlashtirish uchun emas, balki uni mavhumlashtirish uchun xizmat qiladi. Vaholanki, eslatib o'tilgan barcha sathlarni yagona fonematik sath tushunchasiga birlashtirish mumkin. Sintaktik sath tushunchasi ham til nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Agar mazkur sathning asosiy birligi gap hisoblanadigan bo'lsa, u holda uning til sathi tarzida tavsiflanishi izoh talab etadi.

A.A.Reformatskiy tadqiqotlarida fonetik sath (yarus) tushunchasi qo'llanadi va bunda muallif Boduen de Kurtene g'oyasiga asoslanadi: «Eng avval odat tusiga kirib qolgan «so'z tovushlardan tashkil topadi» degan aqidadan voz kechmoq kerak, zotan, mazkur tushuncha mutlaqo izohtalabdir. Chunki, birinchidan, so'z morfemalardan tashkil topadi (hatto bir morfemali so'zlar ham bundan mustasno emas); ikkinchidan, morfemalar tovushlardan emas, balki fonemalar vositasida shakllanadi. Nutqda talaffuz etiladigan tovushlar fonemalarni taqozo etadi, fonemalar morfemalar uchun qurilish materialidir»³⁷ Nutqning xarakterli belgisi elementlarning erkin almashuvidir. Sintagmaga ana shundan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, sintagmaga daxldor bo'lgan bir qator sintaktik qurilmalar barqarorlik xususiyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan, maqollar, frazeologizmlar va boshqalar. Bunday ifodalar nutq jarayonida hosil qilinmaydi, balki an'anaga ko'ra tayyor holda nutqqa olib kiriladi. Fonemaning morfema yoki so'zning tovush qobig'ini farqlashi shunchaki fonetik o'zgarish emas. Bu jarayonda fonema o'zining differensial belgilarini namoyon etadi. Albatta, uning bunday xususiyati hozirgi tilshunoslikda ichki pog'onali munosabat deb atalayotgan fonologik hodisaning vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, bu xildagi differensial belgilar fonematik sath ichida merizmatik sath nomi bilan ataluvchi mikrosathning vujudga kelishi uchun asos bo'ladi. Fonemaning differensial belgilari segmentlarni tashkil eta olmaydi. Lekin shunday bo'lsa ham, u fonemaning ichki bo'linishini taqozo etishi bilan ajralib turadi. Leksemaning, morfemaning til birligi sifatida ikki holati – lisoniy birlik va nutqiy birlik holati farqlanadi. Lisoniy birlik sifatida leksema va morfema mavhum birlik

³⁶ Tilshunoslik nazariyasi (Matn) : darslik / Zulxumor Xolmanova. – Toshkent : Shafolat Nur Fayz, 2020.- 113b.

³⁷ Бу ҳақда қаранг: Мартынов В.В. Два уровня языковой действительности и двойное членение языка // Уровни языка и их взаимодействие. –М., 1967. -С.101

hisoblanadi. Miyaning til xotirasi qismida har bir leksemaning, morfemaning alohida ramzi bo'lib, ana shu ramzdagi axborotdan foydalanish qoidalar ham mavjud; har ikkisi asosida leksemalarning, morfemalarning talaffuz birligi holati yuzaga keltiriladi; leksema va morfema ana shunday nutqiy birlik holatida moddiy birlik, segment birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Assosiatsiya – til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro birlashuvi. So'z sintagmatik munosabatga kirishishi bilan birga nutqiy jarayondan tashqarida boshqa so'zlar bilan umumiylik belgisiga ko'ra so'zlovchi til xotirasida assotsiatsiyalanadi va bu assotsiatsiyalangan birliklar xotirada muayyan guruhlarini hosil qiladi. Assotsiativ munosabat sintagmatik munosabatlardan farqli ravishda ketma-ketlikka asoslanmaydi. Balki so'zlovchi xotirasida o'zaro bog'langan holda joylashadi. Lisoniy birliklar nutqiy birliklarga nisbatan miqdoran cheklangan bo'lsada, ammo ularning soni ham sanoqli emas. Paradigma tarkibiga kiradigan birliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

1. Bitta birlik eslanganda shu paradigmaga tegishli boshqa a'zolar ham esga tushishi;
2. Muayyan nutq sharoiti uchun o'zaro paradigmatic munosabatta turgan birlikdan bittasi tanlanishi;
3. Nutqda bir pozitsiyada kelib bir-birining o'rnini almshtira olishi;

LISONIY BIRLIK	NUTQIY BIRLIK
umumiylik	alohidalik
mohiyat	hodisa
Imkoniyat	voqelik
sabab	oqibat

Lingvistik sathlar doirasi birmuncha keng qamrovli bo'lganligi sababli turli xil yondashuvlar mavjud. Shu sababli paradigma va sintagma imkoniyatlari ham kengayadi va o'z ma'nosidan farqli boshqa ma'nolarni ham ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi.

Globallashuv davrida lisoniy muhitga ilm-fan va texnika ta'sirining ijobiy va salbiy qirralarini, buning sabablarini, ona tiliga munosabat, tilning sofliqi, nutq madaniyati va imloviy savodxonlik muammolarni o'rganish zamonaviy sotsio-lingvistikaning muhim vazifalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T .: „Innovatsion rivojlanish hashriyot-matbaa uyi” , 2020, 460 b.
2. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993
3. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. B-285
4. Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. – М.,1977.
5. Xayrullayev X. Tilshunoslik nazariyasi.-Samarqand, 2022.
6. Nurmonov A. Uzbek tilida pafdigma a'zolari o'rtasidagi zidlanishlarning mu'tadillashuvi (fonologik sath). Nomz. diss. Toshkent, 1998, 8-bet.

SO'Z TURKUMLARI DOIRASIDA EGALIK KATEGORIYASINING QO'LLANISH USULLARI

Xayrulloeva Malikabonu Shaxobiddin qizi

ChDPU O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 3-kurs talabasi

malikabonuxayrullayeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Murodova Firuz Jalolovna

Annotatsiya Ushbu maqolada o'zbek tilida egalik kategoriyasining so'z turkumlari doirasida ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, ot, sifat, son va olmoshlar turkumlarida egalik affikslarining qo'llanishi, ularning grammatik va semantik funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, egalik affikslarining morfologik tuzilmasi, zamonaviy adabiy til va dialektal ko'rinishlardagi farqlari hamda ularning kommunikativ vazifasi ko'rib chiqiladi. Maqolada egalik kategoriyasining sintaktik bog'lanishlar (egalik + egalikdagi so'z) asosida gap tuzilishiga ta'siri va ushbu kategorianing nutq jarayonidagi roli tadqiq etilgan. Tahlil davomida egalik affikslarining universal va o'ziga xos jihatlari lingvistik misollar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar : egalik kategoriyasi, so'z turkumlari, egalik affiksi, ot turkumi, sifat turkumi, olmoshlar, grammatik forma, morfologiya, semantika, sintaksis, egalik shakllari, egalik olmoshlari, zamonaviy o'zbek tili

Annotation: This article analyzes the features of expressing the possessive category within the framework of parts of speech in the Uzbek language. In particular, it explores the use of possessive affixes in nouns, adjectives, numerals, and pronouns, as well as their grammatical and semantic functions. The article also examines the morphological structure of possessive affixes, their differences in modern literary Uzbek and dialects, and their communicative roles. Furthermore, the impact of possessive constructions (possessor + possessed word) on sentence structure and the role of the possessive category in speech processes are discussed. Universal and specific features of possessive affixes are explained through linguistic examples.

Keywords: possessive category, parts of speech, possessive affix, noun, adjective, pronoun, grammatical form, morphology, semantics, syntax, possessive forms, possessive pronouns, modern Uzbek language

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности выражения категории принадлежности в рамках частей речи в узбекском языке. В частности, анализируется употребление аффиксов принадлежности в именах

существительных, прилагательных, числительных и местоимениях, а также их грамматические и семантические функции. Также исследуются морфологическая структура аффиксов принадлежности, различия между их употреблением в современном литературном узбекском языке и диалектах, а также их коммуникативная роль. Дополнительно рассматривается влияние притяжательных конструкций (владелец + принадлежащее слово) на структуру предложения и роль категории принадлежности в речевых процессах. Универсальные и специфические особенности притяжательных аффиксов разъясняются на лингвистических примерах.

Ключевые слова: категория принадлежности, части речи, аффикс принадлежности, существительное, прилагательное, местоимение, грамматическая форма, морфология, семантика, синтаксис, притяжательные формы, притяжательные местоимения, современный узбекский язык

O'zbek tilining grammatik tuzilmasida egalik kategoriyasi muhim o'rin egallaydi. Egalik – biror narsa yoki shaxsning boshqa bir narsa yoki shaxsga tegishlilikini bildiruvchi grammatik kategoriya bo'lib, u morfologik vositalar orqali ifodalanadi. Bu kategoriyaning ko'rsatkichlari quyidagilar: -(i)m, -(i)miz, -(i)ng, -(ing)iz, -(i)si. Egalik affiksi tarkibida beriluvchi -lar shaxs haqida emas, balki egalik qilinayotgan narsa/predmet haqida ma'lumot tashigani, shu narsaning ko'pligiga ishora qilganligi tufayli uni bu kategoriya bilan bog'lab bo'lmaydi. Masalan, ...Antey kuchni yerdan oladi, Said Ahmad ...ularning maqtovlaridan. Maqtovlari so'z shaklidagi -lar maqtovnig ko'pligini ko'rsatmoqda.

Bu kategoriya shaxs va son ma'nosi bilan uzviy bog'langan. Shu boisdan egalik kategoriyasi (qisq. EK)ning barcha ko'rsatkichida bir vaqtning o'zida shaxs ma'nosi ham, son ma'nosi ham ifodalanadi. Holbuki, bu ma'nolar ushbu kategoriyadan tashqarida ham mavjud (masalan, kishilik olmoshlarida, kesimlik kategoriyasida, shuningdek, otnig son kategoriyasida va h.). [R. Sayfulloyeva.2019.224]

Egalik kategoriyasi – barcha mustaqil so'z turkumi uchun umumiy kategoriya. Uning fe'l turkumida yuzaga chiqishiga misollar: uning aytgani, bizning bormaganimiz, qizlarning kelgani. Fe'lda egalik kategoriyasining «keyingi mustaqil so'zni oldingi mustaqil so'zga bog'lash» UGMsini «keyingi fe'lni oldingi mustaqil so'zga bog'lash» tarzida xususiylashtiradi. [R.Sayfulloyeva.2019.281]

Ot turkumi EK UGMsini «keyingi otni oldingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi otni oldingi so'zga

bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Ot turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz.

Ot turkumida EK ning ishlatilishida ikki holat bor:

1. Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EKdagi so'z QKdagi so'z bilan keladi: mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi. Kishilik olmoshi hamda EK qo'shimchasi shaxs va sonni ifodalaydi. Shu boisdan QKdagi olmosh tushirib qoldirilishi mumkin: (kitobim), (nutqing); EKdagi so'z ba'zan ChKdagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: talabalardan biri. Bunda ko'pincha qaralmish miqdor yoki belgi ifodalovchi so'z bilan ifodalangan bo'ladi.

2. Egalik affiksi QKn talab qilmaydi. Bunda ham ikki holat farqlanadi:

a) erkin birikmada bosh kelishikdagi so'zni boshqaradi: Navoiy ko'chasi, Dehqonobod tumani; b) EKdagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga o'tib ketadi: kechasi, kunduzi; modalga o'tadi: chamasi, yaxshisi. [R.Sayfulloyeva.2019.298]

Sifat turkumi EK UGMsini «keyingi sifatni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sifatni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Quyida sifat turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz.

Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EKdagi so'z QKdagi so'z bilan keladi: olmaning qizili, odamning aqllisi.

EKdagi so'z ba'zan ChKdagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: odamlardan aqllisi. EKdagi so'zda affiks ma'nosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga o'tib ketadi: (odamning) yaxshisi.

EKning birlik va ko'plik shakli qo'llanilishda farq bor. Ko'pincha miqdor bildiruvchi o'zakka birlik son shakli qo'shilmaydi: aqlingiz, ko'pimiz. Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: nodoni, rangdori. [R.Sayfulloyeva.2019.313]

Son turkumi EK UGMsini «keyingi sonni oldingi so'zga bog'lash va mansublik, xoslik ma'nosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi so'zning semantikasiga bog'liq ravishda turli-tuman grammatik ma'no ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sonni oldingi so'zga bog'lash» kategorial ma'no xususiylashmasi sifatida o'zgarmay qolaveradi. Quyida son turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi o'ziga xosliklarni ko'rib o'tamiz.

Egalik affiksi o'zi birikkan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EKdagi so'z QKdagi so'z bilan keladi: olmaning beshtasi, odamlarning o'ntasi.

EKdagi so'z ba'zan ChKdagi so'z bilan ham birga qo'llanilishi mumkin: odamlardan uchasi. EKning birlik va ko'plik shakllari qo'llanilishida farq bor. Ko'pincha, miqdor bildiruvchi o'zaklarga birlik son shakli qo'shilmaydi: (beshtangiz), (ikkovimiz). Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: (biri), (oltovi). [R.Sayfulloyeva.2019.325]

EK asosidagi sintaktik qurilma rang-barang ma'noni anglatadi. Bu rang-baranglik shaxs-son, aniqlik/noaniqlik kabi tajalli ma'no, tobe so'zning kelishik shakli, birikuvchi so'zlarning semantikasi kabi omil bilan bog'liq. Masalan, g'amim so'z shakli kontekst bilan bog'liq ravishda ikki xil ma'no anglatadi: g'amimni yedim – g'amimni yeding. Shu boisdan EKning faqat sintaktik xususiyati uning mohiyatiga daxldor. Zero, EK UGMsidagi kategorial ma'no sintaktik tabiatli, undan anglashiladigan turli ma'no yondosh va hamroh ma'no. Xususan, «shaxs-son» ma'nosi EK uchun yondosh, shaxs-son kategoriyasi uchun kategorial ma'no hisoblanadi. EKning sintaktik (kategorial) mohiyati – «keyingi mustaqil so'zning oldingi ifodalangan a yoki ifodalanmagan b mustaqil so'zga sintaktik munosabatini ko'rsatish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M, Abuzalova M.Q., Yo'ldosheva D.N. “Hozirgi o'zbek tili”. Toshkent. 2019.

O'ZBEK TILIDA KOSMETIKAGA OID LEKSIK BIRLIKLAR VA ULARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xolmamatova Arofatxon Komiljon qiz

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi,

xolmamatovaarofat7@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada kosmetikaga oid leksik birliklarning shakllanishi, tarixiy ildizlari, semantik xususiyatlari va ularning jamiyatdagi estetik, madaniy hamda ijtimoiy vazifalari tahlil etiladi. Mazkur soha leksikasining lingvistik, stilistik qatlamlardagi roli, jamiyatdagi go'zallik me'yorlari bilan qanday bog'liqligi ko'rsatiladi. Maqola kosmetik birliklarning faqat predmetga oid tushuncha emas, balki madaniyat va global til muhitining mahsuli ekanini asoslaydi.

Kalit so'zlar: kosmetik birliklar, semantik xususiyatlar, globallashuv, leksik birliklar, estetik funksiyalar, ommaviy madaniyat.

Annotation. This article analyzes the formation, semantic features, and socio-cultural significance of cosmetic-related vocabulary in the Uzbek language. It examines synonymy, metaphorical usage, and connotative meanings within various stylistic layers of the language. Special attention is given to how cosmetic vocabulary expresses societal ideals of beauty and identity. The findings show that such lexical units function not only as nominative terms but also as cultural and symbolic markers.

Key words: cosmetic units, semantic features, globalization, lexical items, aesthetic functions, mass culture.

Аннотация: В статье рассматривается процесс формирования, семантические особенности и культурно-социальная функция косметической лексики в узбекском языке. Анализируются синонимические ряды, метафоричность и коннотативная нагрузка. Особое внимание уделяется роли косметической лексики в отражении языковой динамики и глобальных культурных влияний. Автор показывает, что косметическая терминология выполняет не только номинативную, но и символическую, эстетическую функцию.

Ключевые слова: косметические единицы, семантика, глобализация, лексика, эстетическая функция, массовая культура.

So'nggi yillarda o'zbek tilining lug'at boyligi jadal sur'atlar bilan kengaymoqda. Globallashuv, turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida kundalik turmushimizga kirib kelayotgan yangi tushuncha va atamalar o'zbek tilida ham faol qo'llanmoqda. Turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar, ommaviy axborot vositalari, reklama va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri natijasida o'zbek tilida yangi ta'siri natijasida o'zbek tilida yangi shakllanmoqda. Shu jarayonda kosmetika sohasiga oid birliklar ham muhim o'rin tutmoqda. Kosmetika mahsulotlari qadimiy an'analardan tortib, zamonaviy global brendlarga tiliimizda ayollar nutqoda keng qo'llanilmoqda, ularning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish lingvistik nuqtayi nazardan dolzarbdir. **"Kosmetika"** so'zi o'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan bo'lib, asl manbai yunon tilidagi *kosmētikos* (κοσμητικός) so'zidir. Bu so'z **"bezash"**, **"tartibga keltirish"**, **"go'zallashtirish"** degan ma'nolarni bildiradi. O'z navbatida, *kosmētikos* so'zi yunon tilidagi *kosmos* (κόσμος) — "tartib", "muvozanat", "go'zallik" tushunchasidan kelib chiqqan. Antik davrda bu so'zlar faqat tashqi ko'rinish emas, balki **butun olamdagi tartib va go'zallik konsepsiyasi** bilan bog'langan. So'z keyinchalik lotin tilida **"cosmetica"**, fransuz tilida **"cosmétique"**, rus tilida esa **"косметика"** shaklida ishlatilgan. Shu tarzda u o'zbek tiliga ham kirib kelgan va hozirda umumxalq leksikasiga aylangan. So'zning semantik ildizlari antik dunyo estetikasi bilan bog'liq bo'lib, u bugungi kunda ham o'z semantik boyligini saqlab qolgan. Xususan, ingliz tili go'zallik sanoati va kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarishda yetakchi til bo'lib, uning terminlari turli tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham faol o'zlashmoqda. Shunday sharoitda ushbu atamalarning o'zbek tilida qanday qo'llanilayotgani, ular qanday shaklda qabul qilinayotgani, ularning tarjima qilishdagi muammolari va semantic mosligi masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Inglizcha kosmetika terminlarining o'zbek tilida qo'llanish shakllari muayyan tizim va standartlarga asoslanmagan bo'lib, bu holat ayrim chalkashliklarga, terminlarning turlicha qo'llanishiga olib kelmoqda. Kosmetikaga oid so'zlar qadimiy qatlamdan tortib, zamonaviy davrgacha boyib kelmoqda. birliklarga "atir", "surma", "xina" kabi so'zlarni kiritish mumkin. Ular xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, marosimlari va estetik qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. XX asrdan boshlab rus tili orqali "pudra", "pomada", "tush", "lak" va yana shunga o'xshash birliklar kirib kelib, keng qo'llanilib, kundalik nutqda mustahkam o'rinish qoldi.

Kosmetik terminlar tarkibida asosan mahsulot nomlari (foundation, concealer, highlighter, toner, mascara), ulardan foydalanish usullari (blending, contouring, exfoliating)

hamda natijalarni ifodalovchi sifatlar (matte, glossy, radiant, waterproof) mavjud. Bu atamalar bevosita ingliz tiliga xos bo'lib, xalqaro bozorda keng tarqalgan. Ularning bir qismi rus tili orqali, yana bir qismi bevosita ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan. Masalan, lipstick — pomada, mascara — tush, foundation — tonal krem, eyeliner — ko'z qalam kabi variantlar tilimizda faol qo'llanmoqda. Biroq ayrim atamalar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki aynan inglizcha shaklida ishlatilmoqda: primer, concealer, highlighter kabi. Bu holat, bir tomondan, global til ta'sirining tabiiy oqibati bo'lsa, boshqa tomondan, ularning o'zbekcha muqobillarining shakllanmaganligi yoki keng tan olinmaganligi bilan bog'liq. Kosmetikaga oid birliklar ko'pincha birgina nom ostida bir nechta variantga ega. Misol uchun "pomada" umumiy tushunchasi klassik rang beruvchi pomada, yaltiroq lip gloss va lab konturi uchun lip liner turlarini qamrab oladi. "Tush" (maskara) qalinlashtiruvchi, uzunlashtiruvchi va suvga chidamli shakllarda qo'llanadi. "Tonal" krem suyuq, kukun yoki stik variantlarda uchraydi. "Lak" esa oddiy, gel-lak va shlakk ko'rinishida ishlatiladi. "Konsiler" esa suyuq, stik va krem shakllarida farqlanadi. Qadimiy birliklardan biri bo'lgan "xina" esa tabiiy, sun'iy va aralash ko'rinishlarda uchraydi. Amalda o'zbek tilida bir mahsulot uchun bir nechta nomlarning mavjudligi, ularning turlicha yozilishi va ishlatilishi kuzatiladi. Masalan, primer atamasi "asos kremi", "makiyaj osti vositasi", "tayyorlovchi krem" kabi shakllarda ishlatiladi. Bu esa terminlarning rasmiy standartga ega emasligidan dalolat beradi. Natijada, til birligi buziladi, iste'molchilar, tarjimonlar, va mutaxassislar o'rtasida tushunmovchiliklar paydo bo'ladi. Shuning uchun kosmetika terminologiyasini tartibga solish, ularni yagona me'yorga keltirish, rasmiy lug'atlarga kiritish va davlat til siyosati doirasida standartlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, so'z yasashi jihatidan ham o'zbek tilining imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Masalan, inglizcha moisturizer so'zi o'rniga "namlantiruvchi vosita" deb so'z yasash orqali aniqlik kiritish mumkin. Bunday yondashuv nafaqat tilni soflashtiradi, balki yangi terminlarni yaratishda o'zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Kosmetika sohasiga oid leksik birliklarning o'zbek tilidagi semantik xususiyatlarini o'rganish – bu nafaqat til birliklarining lug'aviy ma'nosini ochish, balki ularning ijtimoiy, madaniy va estetik funksiyalarini ham yoritish demakdir. Ushbu birliklar o'z mohiyatida ayollar go'zalligini saqlash, estetik qiyofani takomillashtirish, jamiyatdagi o'z-o'zini anglash va namoyon qilish kabi ko'plab murakkab jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy texnologiyalar va globallashtirish jarayonida o'zbek

tiliga kosmetikaga oid ko'plab yangi birliklar kirib kelganligini aytib o'tdik. Ular ko'pincha ingliz yoki boshqa xorijiy tillardan transliteratsiya yo'li bilan o'zlashtirilmoqda. Bu holat esa tilshunoslar oldiga ikki vazifani qo'yadi: birinchidan, mavjud birliklarning milliy ifodalarini topish, ikkinchidan, yangi leksik birliklarning semantik va stilistik xususiyatlarini o'rganish orqali til boyligini oshiradi. Kosmetika leksikasi tilning faqat ma'lumot uzatish funksiyasini emas, balki estetik, emotsional va ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatidagi rolini ham namoyon etadi. Bunda har bir birlik inson dunyoqarashi, jamiyatdagi o'rni va o'z-o'zini anglash jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bolsak,, kosmetikaga oid leksik birliklar o'zbek tili lug'at boyligining faol va tez o'zgaruvchan qatlamini tashkil etish bilan birga, ular zamon ruhi, go'zallik me'yorlari va madaniy qadriyatlarning til muhitida qanday ifodalana olishini ochib beradi. Bu esa tilshunoslikda ushbu mavzuning dolzarbligi va istiqbolli tadqiqot yo'nalishi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisherov B. (2018). O'zbek tilida soha terminlarning shakllanishi. Toshkent: Fan.
2. Saidova Z. (2023). "Zamonaviy terminlarning o'zbek tilida qo'llanishi". Til va adabiyot jurnali, №4.
3. **The Study of Women's Cosmetic Terminology in English and Uzbek Languages** — Safarxol Xo'jamqulova va Mohinur Nizomova (2025).
4. **A Comprehensive Comparative Linguistic Study of Women's Cosmetic Terminology in English and Uzbek** — Safarxol Xo'jamqulova & Mohinur Nizomova (2025)

O'ZBEK TILIDA SPORT OID LEKSIK BIRLIKLAR TADQIQI

Xolmatov Ma'rufbek Uktam o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

marufbekxolmatov4@gmail.com

Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

(PhD) Q.A.Mo'ydinov

Annotatsiya

Sportga oid leksik birliklar milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda sport va madaniyat taraqqiyoti yutuqlarini o'zida aks ettirgan, ilmiy asoslangan tushunchalar yoki hatti-harakatlar tizimini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada sport sohasida faol qo'llaniladigan so'zlarga imkon qadar shaxsiy munosabatimiz bildirildi.

Kalit so'zlar: sport leksikasi, terminologiyasi, milliy sport, okkazonal so'zlar, milliy kurash, hakam.

Annotation

Sports – related lexical units serve to express a system of scientifically based concepts or actions that reflect the achievements of sports and cultural development, in harmony with national and spiritual values. This article expresses our personal opinion as much as possible on words actively used in the field of sports.

Keywords: sports vocabulary, terminology, national sports, occasional words, national wrestling, referee.

Абстрактный: Лексические единицы спортивной тематики служат для выражения системы научно обоснованных понятий или действий, отражающих достижения спорта и развития культуры, находящихся в гармонии с национальными и духовными ценностями. В данной статье максимально выражено наше личное мнение относительно слов, активно используемых в сфере спорта.

Ключевые слова: спортивная лексика, терминология, национальные виды спорта, окказиональные слова, национальная борьба, судья.

Mamlakatimizda mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq sportga qaratilgan e'tibor sohaning yangi bosqichga ko'tarishi uchun zamin yaratdi. Qonunlar va dasturlar asosida yurtimizda tashkil etilgan turli tizimdagi ichki va xalqaro musobaqalar, mamlakatimizga ko'plab xorijlik sportchilar, mutaxassislar va xalqaro musobaqa tashkilotchilarining tashrifi, ular bilan sohaning amaliy rivoji uchun o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatilishi o'zbek tili sport terminologiyasida ko'plab boshqa tillarga xos bo'lgan terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bunday terminlar qatorida referee, master klass, turnir, VAR, armvrestling, grebling, kriket, mma, karate va yana boshqa o'zlashma birliklar ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ularning o'zbek tili sharhlaridagi ifodalanishi lisoniy mezonlarni o'rganilishini talab qildi.

Sportga oid leksik birliklar milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda sport va madaniyat taraqqiyoti yutuqlarini o'zida aks ettirgan, ilmiy asoslangan tushunchalar yoki hatti-harakatlar tizimini ifodalashga xizmat qiladi. Sport terminologik tizimida neologizmlar va uning tarkibiy qismi bo'lgan okkazonal so'zlar ham mavjuddir. Sport sohasida okkazonallar sportchi yoki murabbiy tomonidan yaratilgan yangi harakat yoki uslub o'z kashfiyotchisi nomi bilan ataladi. Sport terminologik tizimi yuzasidan o'tkazilgan monografiya natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, soha terminlari va okkazonalizmlardan tashqari termin-neologizm (terminologik neologizm)lar ham mavjud bo'lishi mumkin. Binobarin, ingliz va rus tillarida ma'lum bir sport sohasiga oid yangi termin o'zbek tili iste'molida hali qo'llanilmagan bo'lsa yoki qo'llanilish ehtimoli yuqori bo'lsa, bu jarayon termin-neologizm bilan bog'liq hodisa hisoblanadi.

Sport terminologik maydoni o'z tarkibiga jismoniy sport (yengil va og'ir atletika), aqliy sport, jangovor sport, cho'p bilan o'ynaladigan sport, modelli sport, bellashuvli sport, xalqaro sport, mahalliy sport, aralash sport yo'nalishlarini birlashtirgan terminologik "maydoncha"lar majmuidir. Sportga oid terminlarning aksariyati ikkilamchi - jarayonida zarur bo'lgan bir belgini tanlashda o'sha tilning milliy xususiyatlari ham hisobga olinadi. Sportga oid leksik birliklarni nominatsiya tamoyillariga ko'ra quyidagi shaklda tasniflash va guruhlashtirish mumkin: 1) predmet yoki ob'yekt tushunchasini ifodalovchi nominatsiyalar; 2) shaxs yoxud ishtirokchi tushunchasini ifodalovchi nominatsiyalar; 3) harakat tushunchasini ifodalovchi nominatsiyalar; 4) o'rin-joy tushunchasini ifodalovchi nominatsiyalar; 5) sport o'yinlarini ifodalovchi nominatsiyalar; 6) aralash turdagi nominatsiyalar.

So'nggi yillarda sport sohasi ko'lamida sharhlash jarayonining jadallashuvi, yangidan-yangi sport turlarining keng jamoatchilik hukmiga havola qilinishi o'z

Har bir xalqning tili uning kundalik hayoti, turmush tarzi va urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Inson hayotida oziq-ovqat mahsulotlari alohida o'rin tutadi. Shu sababli, tilimizda ham bu mahsulotlarni ifodalovchi ko'plab so'z va atamalar mavjud. Ularning ayrimlari qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelayotgan

bo'lsa, boshqalari esa zamon, madaniyat va texnologiya taraqqiyoti bilan birga kirib kelgan. Masalan, non, guruch, go'sht, sut, qatiq kabi so'zlar asrlar davomida ishlatilgan bo'lsa, "shokolad", "kofe", "pitsa" kabi so'zlar nisbatan keyinchalik lug'atimizga qo'shilgan. Shuningdek, milliy taomlar nomi ham xalqning tarixiy tajribasini, yashash sharoitini va milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Tilimizdagi oziq-ovqat leksikasi nafaqat mahsulotlarning nomlarini, balki xalqning turmush tarzini ham ifodalaydi. Shu bois, bu so'zlarni o'rganish tilimizning boyligini va xalqimizning qadimiy madaniyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

"Ovqat" so'zi arab tiliga mansub bo'lib oziq-ovqat, yegulik, ozuqa ma'nolarini bildiradi. Bu so'z qut leksik birligining ko'pligi bo'lib, u o'zbek tiliga metoteza yo'li bilan o'zlashgan: avqot, aqvot. Ko'ramizki, ovqat leksemasi keng qamrovda "rizqlanish, yeyish-ichish uchun tayyor narsa: yemish, taom, yemak" ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi. Fikrimizni "Malika ayyor" dostonidan olingan quyidagi matnlar ham tasdiqlaydi: Bular ovqatlardan yeb, qorni to'yib, qovzonib oldi (155-bet). Oziq-ovqatni xilma-xil oziq va ovqatlar yig'indisi deyish mumkin. Bu boradagi kuzatishlarimizni dalillash maqsadida oziq-ovqat tushunchalarini ifodalovchi leksemalarning lug'aviy izohlar va tadqiqotimiz tahliliga jalb etilgan xalq dostonlarida qo'llanilgan matnlarga e'tiborni qaratamiz. Don va un mahsulotlari insoniyat tarixida eng qadimiy oziq-ovqat manbalaridan hisoblanadi. Ular nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo xalqlarining dasturxonida asosiy o'rin tutadi. O'zbek xalqi qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullangan va shu sababli don mahsulotlari uning turmush tarzida muhim o'rin egallagan. Masalan, bug'doy, arpa, mosh, guruch, jo'xori kabi ekinlar asrlar davomida yetishtirilib, ulardan turli xil taomlar tayyorlangan. Ularning leksik birliklari.

Bug'doy. Kelib chiqishi: qadimgi turkiy tilga mansub so'z.

Qadimgi shakli: "bugda", "bukda", "bugdağ". Ma'nosi: Don, urug', ekin. Shevalarda: "bo'g'day", "bo'gdoy", "bo'g'da", "bugda" shakllari uchraydi. Izoh: Bug'doy so'zi qadimiy turkiy xalqlarda "baraka" va "to'kinchilik" timsoli bo'lgan. Keyinchalik adabiy tilda hozirgi shaklida barqarorlashgan.

Arpa. Kelib chiqishi: asosan turkiy tildan kelib chiqqan, ayrim manbalarda qadimgi eroniy (forsiy) ildiz bilan bog'lanadi. Qadimgi shakli: "arpa", "arpu". Ma'nosi: Donli ekin turi. Shevalarda: "arpa", "orpa", "arba" shakllari mavjud. Izoh: arpa qadimdan Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy yem-xashak va oziq-ovqat manbai bo'lib kelgan. So'z shakli asrlar davomida deyarli o'zgarmagan.

Mosh. Kelib chiqishi: fors-tojik tili orqali o'zbek tiliga kirib kelgan. Qadimgi shakli: "māš", "mūš". Ma'nosi: dukkakli o'simlik turi. Shevalarda: "mash", "mosh", "mush", "māsh" shakllari uchraydi. Izoh: mosh qadimda Hindiston va Eron hududlarida yetishtirilgan ekin bo'lib, savdo yo'llari orqali Markaziy Osiyoga kirib kelgan. Shundan so'ng o'zbek tilida "mosh" shaklida mustahkam o'rnatilgan.

Guruch. Kelib chiqishi: aslida fors tilidan kirib kelgan. Fors tilida "birinj" yoki "berenj" shaklida ishlatilgan. Qadimgi shakli: "biring", "birinj". Shevalarda: "guruch", "guruchcha", "gurich", "uruch" shakllari mavjud. Izoh: bu so'z hind-eron tillaridagi "vrihi" (sanskritcha — sholi) so'zi bilan ham aloqador. O'zbek xalqida esa "guruch" so'zi palov bilan bog'liq asosiy nom sifatida keng tarqalgan.

Jo'xori. Kelib chiqishi: asosan rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan ("кыкырыза"). Qadimgi shakli: Turk xalqlari orasida "jo'xor", "chokari", "chokura" kabi shakllar uchraydi. Shevalarda: "jo'xori", "jo'xor", "jo'xari", "jo'xuro" shakllari mavjud. Izoh: jo'xori Amerikadan Rossiya orqali Markaziy Osiyoga XIX asrda kirib kelgan. Shuning uchun ham u dastlab "kukuruza" deb atalgan, ammo xalq og'zaki nutqida "jo'xori" shakli barqarorlashgan.

Un mahsulotlaridan tayyorlanadigan non esa xalqimiz uchun nafaqat oddiy oziq-ovqat, balki muqaddas ne'mat sifatida qadrlanadi. Non turli ko'rinishlarda uchraydi: tandir non, patir, kulcha, qatlama va hokazo. Dasturxonni nonsiz tasavvur qilib bo'lmaydi va har bir oilaning kundalik hayotida eng zarur mahsulot hisoblanadi. Shuningdek, un mahsulotlaridan somsa, manti, lag'mon, chuchvara kabi mashhur milliy taomlar tayyorlanadi. Guruch esa o'zbek xalqining milliy ovqati bo'lgan palovning asosiy tarkibiy qismi sifatida alohida o'rin tutadi. Moshdan esa moshxo'rda, moshkichiri kabi taomlar tayyorlanadi. Makaron mahsulotlari esa keyinchalik tilimizga kirib kelgan bo'lsa-da, bugungi kunda keng tarqalgan. Sabzavot va mevalar inson salomatligi uchun zarur bo'lgan eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari sirasiga kiradi. Ular tarkibida vitaminlar, mineral moddalar, tolalar va foydali elementlar ko'p bo'lgani sababli doimiy iste'mol qilish tavsiya etiladi. Piyoz va sabzi taomlarning asosiy tarkibiy qismini tashkil etib, turli oshlar va salatlarga qo'shiladi. Kartoshka xalqimiz dasturxonida eng ko'p ishlatiladigan sabzavotlardan biri bo'lib, qovurilgan, qaynatilgan yoki pishirilgan holda iste'mol qilinadi. Mevalardan esa tarvuz yoz faslida chanqoqni bosuvchi shirinligi bilan qadrlanadi. Olma yilning deyarli barcha mavsumida topiladigan, vitaminlarga boy meva sifatida mashhurdir. Uzum, anor va gilos esa o'zining shifobaxsh xususiyatlari bilan qadimdan xalqimiz parhezida muhim o'rin tutadi. Shu bois sabzavot va mevalar insonning to'g'ri ovqatlanishida,

salomatlikni mustahkamlashda va milliy taomlar tarkibini boyitishda katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida keltirilgan meva va sabzavotlarni leksik birliklari:

Piyoz. Kelib chiqishi: fors tilidagi “piyāz” soʻzidan kirib kelgan. Qadimgi shakli: “piyāz”, “biyoz”. Maʼnosi: oshxona sabzavoti, achchiq taʼmli ildizmeva. Shevalarda: “piyozi”, “piyozak”, “piyozchik” shakllarida uchraydi. Izoh: soʻz oʻzbek tiliga qadimdan kirib, kundalik nutqda keng ishlatiladi. “Piyoz” qadimiy Sharq tillarida ham “achchiq oʻsimlik” maʼnosini bildirgan.

Sabzi. Kelib chiqishi: fors-tojik tilidagi “sabzī” soʻzidan, “yashil oʻsimlik” maʼnosida. Qadimgi shakli: “sabzī”, “sabza”. Maʼnosi: Apelsin rangli ildizmeva, sabzavot turi. Shevalarda: “suvzi”, “sabzachi”, “sabzavot” shakllari uchraydi. Izoh: dastlab “yashil oʻsimlik” maʼnosida boʻlgan, keyinchalik maxsus sabzavot nomi sifatida mustahkamlangan.

Tarvuz. Kelib chiqishi: qadimgi turkiy “tarbuz” shaklidan; ayrim manbalarda forsha “xarbuz”(“qovun”) bilan bogʻlanadi. Qadimgi shakli: “tarbuz”, “tarboz”. Maʼnosi: katta, suvli, shirin meva. Shevalarda: “tarboz”, “tarvuzak”, “tarbuz” shakllari mavjud. Izoh: soʻz turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan boʻlib, qadimdan yozma manbalarda uchraydi.

Olma. Kelib chiqishi: qadimgi turkiy “alma” soʻzidan. “Olmoq” feʼli bilan ildizdosh. Qadimgi shakli: “alma”, “olma”. Maʼnosi: daraxt mevasi, shirin taʼmli. Shevalarda: “alma”, “olmo”, “olmajon” shakllari uchraydi. Izoh: “Olma” soʻzi turkiy tillarda eng qadimiy meva nomlaridan biridir. “Olmoq” feʼli bilan bogʻlanib, “uzilgan meva” maʼnosini bildiradi.

Uzum. Kelib chiqishi: qadimgi turkiy “üzüm” soʻzidan, “üz–” (uzmoq, yulmoq) feʼli bilan bogʻliq. Qadimgi shakli: “üzüm”. Maʼnosi: tok mevasi, vino tayyorlanadigan meva. Shevalarda: “uzim”, “üzüm”, “uzimlik” shakllari uchraydi. Izoh: soʻz qadimgi turkiy manbalarda ham uchraydi va xalq ogʻzaki ijodida toʻkinchilik ramzi sifatida qoʻllanadi.

Ichimliklar inson hayotida alohida oʻrin tutadi, chunki ular nafaqat chanqoqni qondiradi, balki organizmga quvvat, vitamin va foydali moddalarning yetib borishida ham muhim rol oʻynaydi. Masalan, choy xalqimiz dasturxonining ajralmas qismi boʻlib, mehmondorchilikda ham doimiy ravishda tortiladi. Qahva esa, asosan zamonaviy turmush tarzida koʻproq uchrab, kishiga tetiklik bagʻishlaydi. Sharbat meva va sabzavotlardan olinib, tabiiy vitaminlar manbai sifatida qadrlanadi. Ayron esa, yoz faslida chanqoqni yaxshi bosuvchi, organizmga yengillik beruvchi ichimlik sifatida mashhurdir. Kompot esa, ayniqsa yozgi va qishki davrlarda mevalardan tayyorlanib,

ko'plab oilalarda iste'mol qilinadi. Shuningdek, mineral suv tibbiy jihatdan ham foydali bo'lib, hazm jarayonini yaxshilash va tanani tozalashga yordam beradi. Shu tariqa ichimliklar turli vazifalarni bajarib, xalqimizning ovqatlanish madaniyatida muhim o'rin tutadi

Oziq-ovqat mahsulotlarini ifodalovchi leksik birliklar xalqimizning turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odatlarini va milliy an'analarini aks ettiradi. Bu birliklar nafaqat tilimiz boyligini, balki xalqimizning tarixiy va madaniy hayotini ham ko'rsatadi. Shu sababli ular tilshunoslik nuqtayi nazaridan alohida o'rganishga arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A. O'zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1995.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
4. Jo'raev M. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5. Karimov H. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.

O'ZBEK TILINING ASOSIY LUG'AT TARKIBI**Nurullayeva Sevinch Faxriddin qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi

sevinchnurullayeva2506@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilining asosiy lug'at tarkibi, uning mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, guruhlar va rivojlanish jarayoni haqida keng ma'lumot beriladi. Asosiy lug'at tarkibining til tizimidagi o'rni, uning xalqning ma'naviy madaniyatida tutgan o'rni va tarixiy xotirani asrashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bu qatlamning qadimiyligi, barqarorligi, umumxalq nutqida faol ishlatilishi va yangi so'z yasash imkoniyatlari ochib beriladi. Maqola o'zbek tilining lug'at boyligini o'rganish, uni asrash va rivojlantirish zaruriyatiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, asosiy lug'at tarkibi, leksika, barqarorlik, qadimiylilik, umumxalqiylilik, til boyligi, xalq tafakkuri, madaniyat, tarixiy xotira, adabiy til, og'zaki ijod, lug'at qatlamlari.

Аннотация: В статье подробно раскрывается понятие основного словарного состава узбекского языка, его содержание, характерные особенности, группы и этапы развития. Рассматривается место базовой лексики в системе языка, её роль в духовной культуре народа и значимость в сохранении исторической памяти. Особое внимание уделяется древности, устойчивости и общеупотребительности этого пласта, а также его широким возможностям словообразования. Материал статьи направлен на выявление богатства узбекского языка и необходимость его дальнейшего изучения и развития.

Ключевые слова: узбекский язык, основной словарный состав, лексика, устойчивость, древность, общеупотребительность, богатство языка, народное мышление, культура, историческая память, литературный язык, устное творчество.

Abstract

The article provides a comprehensive analysis of the basic vocabulary of the Uzbek language, its essence, specific features, lexical groups, and stages of development. The paper highlights the role of the core lexicon within the linguistic system, its significance in the spiritual culture of the nation, and its function in preserving historical memory. Particular emphasis is placed on the antiquity, stability,

and universality of this lexical layer, as well as its productive capacity for word formation. The study underscores the richness of the Uzbek language and the importance of preserving and developing its lexical heritage.

Keywords: Uzbek language, basic vocabulary, lexicon, stability, antiquity, universality, language wealth, national worldview, culture, historical memory, literary language, oral tradition, lexical system.

Har bir xalqning milliy o'ziga xosligi, ma'naviy boyligi va dunyoqarashi avvalo uning tilida o'z ifodasini topadi. Til — xalqning eng qadimiy merosi, ijtimoiy ongning yuksak ko'inishi, madaniyatning ajralmas qismi va milliy o'zlikni belgilovchi asosiy omildir. O'zbek tili ham ming yillik tarix davomida shakllanib, turli davr sinovlaridan o'tib, bugungi kunda mustaqil davlat tiliga aylangan. Tilning boyligi va qudratini ko'rsatib beradigan eng muhim qatlamlardan biri uning asosiy lug'at tarkibi hisoblanadi. Asosiy lug'at tarkibi xalq hayotining barcha jabhalarini — kundalik turmushini, tabiat bilan munosabatini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, dunyoqarash va tafakkurini aks ettiradi. Bu qatlamda tilning eng qadimiy, barqaror va umumxalq tomonidan qo'llaniladigan so'zlari jamlangan. Masalan, ona, ota, suv, non, osmon, yer, quyosh, yulduz, yurak kabi so'zlar ming yillar davomida o'zbek xalqi nutqida yashab kelmoqda. Bugungi globallashuv davrida tilimizga ko'plab yangi so'zlar kirib kelmoqda, biroq asosiy lug'at tarkibi o'z barqarorligini yo'qotmagan, aksincha, milliy o'zligimizning tayanch manbasi bo'lib qolmoqda.

Asosiy lug'at tarkibi (bazaviy leksika) – bu o'zbek tilining eng qadimiy, eng ko'p qo'llanadigan va umumxalq nutqida faol yashab kelayotgan so'zlar qatlamidir. U millatning kundalik ehtiyojini ifodalovchi, eng zarur tushunchalarni bildiruvchi so'zlardan tashkil topadi. Masalan: ona, ota, suv, non, qo'l, oy, kun, yaxshi, yomon, kelmoq, bormoq kabi so'zlar.. O'zbek tilining asosiy lug'at tarkibi quyidagi belgilar bilan ajralib turadi:

1. Qadimiylilik – asosiy lug'at tarkibidagi so'zlarning katta qismi qadim turkiy davrda ham mavjud bo'lgan.
2. Barqarorlik – bu qatlamdagi so'zlar ming yillar davomida o'z ma'nosini saqlab keladi.
3. Umumxalqiylik – asosiy lug'at tarkibidagi so'zlar xalqning hamma tabaqalari tomonidan birday qo'llanadi.
4. Ko'p ma'nolilik – asosiy lug'at tarkibidagi ko'p so'zlar ko'p ma'noga ega.
5. So'z yasash imkoniyati – asosiy qatlamdagi so'zlardan yangi so'zlar yasash imkoniyati keng.

O'zbek tilining asosiy lug'at tarkibi ma'lum guruhlariga bo'linadi:

Turmush va oila: ota, ona, bola, uy, qarindosh, non.

Tabiat hodisalari: yer, suv, tog', daraxt, quyosh, oy, yulduz.

Tana a'zolari va sezgi organlari: qo'l, oyoq, bosh, ko'z, quloq, yurak.

Oddiy harakat va holatlar: kelmoq, bormoq, yemoq, ichmoq, o'tir, tur, uxla.

Rang, shakl, sifat bildiruvchi so'zlar: oq, qora, qizil, katta, kichik, yaxshi, yomon.

Asosiy lug'at tarkibi tilning eng muhim qatlamidir. Chunki: U xalq tafakkuri va qadimiy dunyoqarashini ifodalaydi. O'zbek tilining mustaqil milliy til sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. Adabiy til va shevalarning umumiy asosini tashkil etadi. Lug'at boyligining boshqa qatlamlari aynan shu asosiy qatlam bilan uyg'unlashib yashaydi. Asosiy lug'at tarkibi o'zining qadimiyligini saqlagan holda, davr o'tishi bilan boyib boradi. Yangi so'zlar kirib kelgan bo'lsa-da, bu qatlamdagi so'zlar o'z barqarorligini yo'qotmaydi. Masalan, bugungi o'zbek tilida ham ming yillar avvalgi yer, suv, osmon, oy, quyosh, ot, qo'l, non kabi so'zlar ishlatilmoqda. Shuningdek, bu qatlam zamonaviy tilda ham faol yashab, yangi so'z birikmalari yaratishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, quyosh energiyasi, yer shar, suv resurslari kabi atamalar ham aslida asosiy lug'at tarkibi so'zlariga tayangan.

O'zbek tilining asosiy lug'at tarkibi — bu nafaqat kundalik muloqotning, balki butun milliy tafakkur, madaniyat va tarixiy taraqqiyotning tayanch poydevoridir. Ushbu qatlam til tizimining eng qadimiy, eng barqaror va eng zaruriy qismini tashkil etib, xalqning ijtimoiy hayoti va ruhiy dunyosini to'la aks ettiradi. Asosiy lug'at tarkibidagi so'zlar ming yillar davomida xalq og'zaki ijodi, adabiy yodgorliklar va zamonaviy adabiy tilimizda yashab kelmoqda. Bu esa o'zbek tilining mustahkamligi, davomiyligi va milliy xotiraning uzviyligini yaqqol ko'rsatadi. Asosiy lug'at tarkibining ilmiy jihatdan o'rganilishi bir nechta muhim vazifalarni hal qiladi:

1. O'zbek tilining qadimiy qatlamini aniqlash va uni boshqa turkiy tillar bilan qiyoslab, umumiy ildizlarni ko'rsatish.

2. Milliy o'zlikni anglash va yosh avlodga qadimiy merosni yetkazishda tilning o'rni va ahamiyatini ochib berish.

3. Adabiy til va shevalar o'rtasidagi umumiylikni ta'minlash, tilning bir butun tizim sifatida faoliyat ko'rsatishini tushuntirish.

4. Lug'at boyligini kengaytirishda asosiy qatlamdan kelib chiqib yangi so'zlar yaratish imkoniyatlarini aniqlash.

5. O'zbek tilining bugungi taraqqiyotida globalizatsiya, axborot texnologiyalari va yangi ilmiy sohalar ta'sirida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni kuzatib, asosiy lug'at tarkibining barqarorligini isbotlash.

Bugungi kunda asosiy lug'at tarkibini chuqur o'rganish, uni maktab va oliy ta'lim darsliklariga keng tatbiq etish, elektron lug'atlar va ma'lumotlar bazalarida to'liq qayd etish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki bu qatlam xalqimizning o'zligini anglashda, madaniyatini rivojlantirishda, tarixiy xotirasini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, o'zbek tilining asosiy lug'at tarkibi — bu xalqimizning tarixiy merosi, bugungi kundagi ma'naviy boyligi va kelajak avlodlar uchun ham bebaho ma'naviy xazina bo'lib qoladi. Uni chuqur o'rganish, asrash va rivojlantirish nafaqat tilshunoslar, balki jamiyatning barcha a'zolari oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Karimov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Jo'rayev M. O'zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2006.
5. G'ulomov A., Madrahimov N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

ILMIY SOHAGA OID LEKSIKA

Norboboyeva Zahro Otabek qizi

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

Ona tili va adabiyoti (kechki) yo'nalishi 24/1guruh 2kurs talabasi

Zahronorboboyeva0@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy sohaga oid leksikaning shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlari va uning til tizimidagi o'rni tahlil qilingan. Ilmiy uslubning asosiy belgilaridan biri bo'lgan maxsus atamalar, ularning qo'llanish doirasi va zamonaviy ilmiy nutqda tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ilmiy leksikaning boshqa uslublardan farqi va tilning boyish jarayonidagi ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy leksika, atama, uslub, til tizimi, nutq, ilmiy uslub.

Abstract. This article analyzes the formation, specific features, and role of scientific vocabulary in the language system. Special attention is paid to terminology as one of the main characteristics of the scientific style, its usage, and its place in modern scientific discourse. The differences between scientific vocabulary and other styles of language, as well as its significance in the enrichment of the language, are also discussed.

Keywords: scientific vocabulary, terminology, style, language system, speech, scientific discourse.

Аннотация. В данной статье рассматриваются формирование, особенности и место научной лексики в системе языка. Особое внимание уделено терминам как важнейшему признаку научного стиля, их употреблению и роли в современном научном дискурсе. Также анализируются различия научной лексики от других стилистических пластов языка и её значение в процессе обогащения языка.

Ключевые слова: научная лексика, термин, стиль, языковая система, речь, научный дискурс.

O'zbek tilidagi ilmiy sohaga oid leksika — bu ilm-fan, texnika, tibbiyot, matematika, biologiya, kimyo, fizika, informatika va boshqa sohalarda ishlatiladigan maxsus termin va atamalar tizimidir. Ular ilmiy tushunchalarni aniq, qisqa va bir ma'noda ifodalashga xizmat qiladi. Ilmiy leksikaning asosiy xususiyati — aniqlik, mantiqiylik va so'zlarning kontekstdan qat'i nazar barqaror ma'no saqlashidir. O'zbek

ilmiy terminologiyasi uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Qadimgi davrlardan boshlab arabcha, forsha, keyinchalik rus va hozirgi kunda ingliz tilidan kirib kelgan ilmiy atamalar o'zbek tilining leksik tarkibini boyitib kelmoqda. Masalan, "matematika", "kimyo", "fizika", "biologiya", "terminologiya", "informatika" kabi so'zlar turli davrlarning til ta'sirini aks ettiradi. Ilmiy leksikaning shakllanishida tarjima jarayonlari va xalqaro hamkorlik muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ilmiy adabiyotlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi milliy terminologiyaning rivojlanishiga katta turtki berdi. Shu bilan birga, o'zbek olimlari tomonidan yaratilgan yangi ilmiy atamalar ham fan tilining milliylikini ta'minlab kelmoqda.

Bugungi kunda ilmiy soha leksikasi o'zbek tilining eng tez rivojlanayotgan qatlamlaridan biridir. Texnologiyalar, axborot tizimlari, ekologiya va biotibbiyot kabi sohalarining kengayishi yangi terminlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Shu orqali ilmiy tildagi leksika xalqaro ilmiy aloqalar bilan uyg'unlashib, o'zbek tilining ilmiy salohiyatini oshirmoqda.

Til insoniyatning eng ulug' ixtirolaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, ilmfanning rivoji va madaniyatning uzluksiz davom etishida muhim vosita sanaladi. Har bir xalqning ilmiy tafakkuri va dunyoqarashi, eng avvalo, uning milliy tilida ifodalanadi. Shu bois ilmiy sohaga oid leksika til tizimining eng muhim qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy leksikaning shakllanishi tarixiy jarayonlar, fan va texnikaning taraqqiyoti, xalqaro aloqalar, tarjima jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Qadimiy yunon va lotin tillaridan kirib kelgan terminlar bugungi kunda ham jahon fanida keng qo'llanilmoqda. Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek kabi allomalar ham o'z asarlarida ilmiy leksikaning boyishiga ulkan hissa qo'shgan.

Ilmiy leksika nafaqat ilmiy ishlar uchun, balki jamiyatning umumiy tafakkuri va madaniy darajasini belgilashda ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli bugungi globallashuv sharoitida ilmiy leksikaning shakllanishi, boyishi va xalqaro miqyosdagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ilmiy leksika insoniyatning ilmiy bilimlarga bo'lgan ehtiyoji bilan yuzaga kelgan. Dastlab falsafiy tushunchalar orqali shakllangan ilmiy tafakkur asta-sekin maxsus atamalar tizimini yaratdi. O'rta asrlarda Sharq va G'arb olimlari tomonidan fanlarning rivoji yangi terminlarni talab qildi. Har bir yangi kashfiyot yoki nazariya bilan til boyib bordi. Ilmiy leksikaning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

Aniqlik: Ilmiy atamalar bir ma'nolidir, ko'p ma'nolilikdan xoli bo'ladi.

Lo'ndalik: Fikrni ortiqcha so'zlarsiz, qisqa va tushunarli yetkazadi.

Ob'ektivlik: Ilmiy nutq shaxsiy hissiyotlardan xoli bo'lib, dalil va isbotlarga asoslanadi.

Maxsus terminlar: Har bir fan sohasi o'z terminologik tizimiga ega.

Badiiy uslubda obrazlilik ustuvor bo'lsa, ilmiy uslubda aniq dalil va tushuncha yetakchi hisoblanadi. Publitsistik uslubda hissiylik ko'p uchrasa, ilmiy leksika bunday belgidan xoli. Og'zaki uslub erkin va ko'p ma'noli bo'lsa, ilmiy uslub qat'iy va me'yoriydir. Bugungi kunda ingliz tili ilm-fanning global tili sifatida ko'plab terminlarni boshqa tillarga olib kirayotganini ko'ramiz. Shunga qaramay, milliy tillarda ham o'z atamaları yaratilmoqda. Masalan, o'zbek tilida "hisoblash texnikasi", "raqamli transformatsiya" kabi atamalar milliy leksikani boyitmoqda. Ilmiy leksika nafaqat ilmiy doira uchun, balki keng jamoatchilik uchun ham muhimdir. Chunki ilmiy terminlar asta-sekin kundalik nutqqa kirib bormoqda. Masalan, "genetika", "biotexnologiya", "internet" kabi so'zlar bugun har bir odamga tanish. Bu esa ilmiy tafakkurning ommalashuviga xizmat qiladi.

Ilmiy sohaga oid leksika tilning eng muhim qatlamlaridan biri sifatida ilm-fan taraqqiyotini ifodalashda, yangi bilimlarni tartibga solishda va ularni keng jamoatchilikka yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy xususiyatlari — aniqlik, lo'ndalik, qat'iylik va maxsus terminlardan foydalanishdir. Bugungi globallashuv davrida ilmiy leksikaning xalqaro miqyosda boyib borishi tabiiy jarayon bo'lsa-da, milliy tilni saqlash va boyitish, yangi terminlarni ishlab chiqish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish muhim masaladir. Ilmiy leksika nafaqat mutaxassislar uchun, balki keng jamoatchilik uchun ham tushunarli bo'lishi kerak. Shu yo'l bilan biz ilm-fanni ommalashtirish, milliy tilimizni rivojlantirish va jahon miqyosidagi ilmiy hamkorlikni mustahkamlash imkoniga ega bo'lamiz.

O'zbek tilida ilmiy sohaga oid leksika tilning eng faol va dinamik rivojlanayotgan qatlamlaridan biridir. Bu soha nafaqat ilm-fanning yutuqlarini aks ettiradi, balki milliy tafakkur, madaniyat va ilmiy salohiyatning ifodasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy terminlarning tizimlashtirilishi, milliy shakllarining yaratilishi va xalqaro terminologiya bilan uyg'unlashuvi o'zbek tilining zamonaviy ilmiy tili sifatida mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bois, ilmiy leksikani chuqur o'rganish, uni rivojlantirish va to'g'ri qo'llash bugungi ilmiy va lingvistik taraqqiyotning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Хожиев А. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.* – Toshkent: Fan, 2010.
2. *Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.* – Тошкент, 2002.

3. Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of Language*. – Cambridge: CUP, 2003.
4. Назаров Қ. *Ilmiy uslub va uning xususiyatlari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
5. Усмонова Д. *Til va jamiyat*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

QO'LLANISH DOIRASI CHEGARALANGAN LEKSIKA

Shohista Daminova Baxtiyor qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

2-bosqich talabasi

Shohistadaminova11@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada qo'llanish doirasi chegaralangan leksikaning mazmun-mohiyati, uning til tizimidagi o'rni va amaliy ahamiyati yoritilgan. Xususan, kasbiy, dialektal, jargon va terminologik so'zlarning shakllanishi hamda ularning qo'llanish xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, bunday leksikaning nutq madaniyatiga ta'siri, cheklangan vaziyatlarda ishlatilishi va keng umumxalq tilidan farqli jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari o'quv jarayoni, tarjimashunoslik hamda tilshunoslikdagi amaliy ishlarda qo'l kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: chegaralangan leksika, kasbiy leksika, jargon, dialekt, termin, nutq madaniyati, qo'llanish doirasi.

ABSTRACT. This article covers the essence of limited-scope lexicon, its role in the language system and its practical significance. In particular, the formation of professional, dialectal, jargon and terminological words and their usage features are analyzed. The article also shows the impact of such lexicon on speech culture, its use in limited situations and its differences from the general language. The results of the research can be useful in the educational process, translation studies and practical work in linguistics.

Keywords. Limited-scope lexicon, professional lexicon, jargon, dialect, term, speech culture, scop.

АННОТАЦИЯ. В данной статье раскрываются сущность и содержание лексики с ограниченной сферой употребления, её место в языковой системе и практическое значение. В частности, анализируется формирование профессиональной, диалектной, жаргонной и терминологической лексики, а также особенности их употребления. В статье также рассматривается влияние подобной лексики на культуру речи, её использование в ограниченных ситуациях и отличия от общеупотребительного языка. Результаты исследования могут быть полезны в учебном процессе, переводоведении и практической лингвистике.

Ключевые слова: лексика с ограниченной сферой употребления, профессиональная лексика, жаргон, диалект, термин, культура речи, сфера употребления.

Til har bir xalqning ma'naviy boyligi, madaniyati va ijtimoiy hayotini ifodalovchi eng muhim vositadir. Lug'at tarkibi esa xalqning turmush tarzi, kasbi, hududi va ijtimoiy guruhlariga qarab xilma-xil bo'lib shakllanadi. Tilshunoslikda barcha kishilar uchun tushunarli bo'lgan umumxalq leksikasidan tashqari, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika ham mavjud. Bunday so'zlar faqat muayyan kasb vakillari, hudud aholisi yoki ijtimoiy guruhlar nutqida uchraydi. Ularni o'rganish tilning boyligi, nutq madaniyati hamda jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tilshunoslikda qo'llanish doirasi chegaralangan leksika alohida qatlam sifatida ko'rib chiqiladi. Chunki bu so'zlar umumxalq tiliga nisbatan torroq vaziyatlarda qo'llanadi va ularning tushunilishi doim ham keng ommaga ochiq emas. Masalan, kasbiy so'zlar faqat shu sohaga oid mutaxassislar tomonidan ishlatiladi, dialektizmlar esa ayrim hududlarda yashovchi kishilarga xosdir. Shuningdek, jargon va argolar ijtimoiy guruhlar nutqini farqlovchi belgi sifatida namoyon bo'ladi. Tilshunos olimlarning fikricha, bunday leksik qatlam tilning rang-barangligini, xalqning turmush tarzi va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli ularni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika: Til boyligini va uning ijtimoiy guruhlariga xos xususiyatlarini namoyon qiladi; kasbiy, hududiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllanadi; Nutq madaniyatida to'g'ri va o'rinli ishlatilganda muloqotni samarali qiladi; Tilshunoslik va ta'lim jarayonida o'quvchilarni turli nutq qatlamlari bilan tanishtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika tilshunoslikning alohida o'rganilishi lozim bo'lgan muhim bo'limidir va u til taraqqiyotining jonli ko'zgusi sifatida qadrlanadi. Til lug'at tarkibi umumxalq leksikasi va chegaralangan qo'llanishdagi leksikadan iborat. Umumxalq leksikasi barcha kishilar uchun tushunarli bo'lsa, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika esa faqat muayyan soha, hudud yoki guruh ichida qo'llanadi.

1. Kasbiy leksika (professionalizmlar). Ma'lum bir kasb egalari nutqida uchraydi. Masalan: dehqonlarda – chopiq, ko'chat; quruvchilarda – armatura, shpatlyovka. Bu so'zlar ko'proq og'zaki nutqda ishlatiladi, ilmiy terminlardan farqi – ular qat'iy izohga ega emas.

2. Terminlar. Fan, texnika va turli sohalarda aniq tushunchani bildiradi. Masalan: huquqda – kodeks, matematikada – integral, tibbiyotda – diagnostika. Terminlar ilmiy matnlarda faol qo'llanadi va aniqligi bilan ajralib turadi.

3. Dialektal leksika (dialektizmlar). Ma'lum hudud yoki shevaga xos bo'lgan so'zlar. Masalan: Surxondaryoda yong'oq o'rniga jo'g'ari, Buxoroda chuchvara o'rniga manti. Bu so'zlar adabiy til uchun xos emas, lekin xalq og'zaki ijodida keng uchraydi.

4. Jargon va argolar. Ma'lum ijtimoiy guruh, yoshlar yoki kasbiy qatlam vakillari nutqida uchraydi. Masalan: talabalarda – sessiya o'rniga sessyuxa, yoshlarda – super, krutoj. Ko'pincha norasmiy nutqda ishlatiladi, adabiy til me'yorlariga mos kelmaydi. Chegaralangan qo'llanishga ega – hamma uchun emas, balki ma'lum guruhdagilar uchun tushunarli. Til boyligini ko'rsatadi – sohalari, hududlar va ijtimoiy guruhlarining o'ziga xosligini aks ettiradi. Umumxalq tilidan farq qiladi – keng iste'molda emas, ammo ayrim holatlarda adabiy tilga ham kirib kelishi mumkin. Tilning rang-barangligini ta'minlaydi. Ilm-fan, kasbiy faoliyat va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Tilshunoslikda, tarjimashunoslikda va ta'limda alohida o'rganiladi.

Xulosa qilib aytganda, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika tilimizning ajralmas qismi hisoblanadi. U kasbiy atamalar, dialektizmlar, jargonlar va terminlar orqali tilning boyligini, xalqning turmush tarzini va ijtimoiy hayotidagi o'ziga xosliklarni ifodalaydi. Bunday leksikaning o'rganilishi ilmiy va amaliy jihatdan muhim bo'lib, tilshunoslik, tarjimashunoslik va ta'lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ular nutq madaniyatida to'g'ri va o'rinli qo'llanilishi kerak, chunki bunday so'zlar umumxalq uchun hamisha ham tushunarli bo'lavermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vinogradov V. V. „Itogi obsujdeniya voprosov stilistik // Voprosi yazikoznaniya.“ 1959. [CIA World Factbook n007-06-12da asl nusxadan](#).
2. [CIA World Factbook y](#) Kenyon J. S. „Cultural Levels and Functional Varieties of English // Readings in Applied English Linguistics.“ N. Y., 1958. R. 215-220.
3. [↑](#) [About 37 % of the population of Golestan province of 1,687,086]
4. [↑ RFE/RL Turkmenistan: President Shows No Sign Of Welcoming Refugee Kinsmen](#)

5. Shveytser A. D. „Sotsialnaya differentsiatsiya angliyskogo yazika v SShA“ M., 1983. 216 b

TURAR JOYLAR LEKSIKASI**Ozodboyeva Ruhshona Bahodir qizi**

ChDPU-Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi

2-bosqich talabasi

ruhshonaozodboyeva82@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi turar joy leksikasining mazmuni va qamrovi tahlil qilinadi. Unda turar joy tushunchasining asosiy birliklari, ya'ni uy, hovli, kvartira, mehmonxona, yotoqxona kabi so'zlar hamda ularning milliy va zamonaviy ko'rinishlari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, leksik birliklarning metaforik qo'llanishlari ham ko'rsatilib, ularning badiiy va ma'naviy mazmun kasb etishi misollar orqali tushuntirilgan. Maqola xulosasida turar joy leksikasi insonning hayoti, madaniyati va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim qatlam ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, bu leksik qatlam milliy qadriyatlarni va zamonaviy turmush tarzini birlashtirib, xalqning hayot tarzi va dunyoqarashini ifoda etuvchi til boyligi sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: Turar joy, kvartira, uy, rezidensiya, hovli, ijtimoiy mavqe, turmush tarzi

Abstract. This article analyzes the content and scope of the housing lexicon in the Uzbek language. It discusses the main units of the concept of housing, namely words such as house, courtyard, apartment, hotel, and dormitory, as well as their national and modern manifestations. It also shows the metaphorical uses of lexical units, and explains their artistic and spiritual meaning through examples. The conclusion of the article emphasizes that the housing lexicon is an important layer reflecting the life, culture, and historical development of a person. At the same time, this lexical layer is evaluated as a linguistic wealth that combines national values and modern lifestyles, expressing the lifestyle and worldview of the people.

Keywords: Housing, apartment, house, residence, yard, social status, lifestyle

Аннотация. В данной статье анализируется содержание и объем жилищной лексики в узбекском языке. Рассматриваются основные единицы концепта «жилье», а именно такие слова, как дом, двор, квартира, гостиница, общежитие, а также их национальные и современные проявления. Показываются

метафорические применения лексических единиц, на примерах поясняется их художественно-духовное значение. В заключении статьи подчеркивается, что жилищная лексика является важным пластом, отражающим жизнь, культуру и историческое развитие человека. При этом этот пласт оценивается как языковое богатство, сочетающее в себе национальные ценности и современный образ жизни, выражающее образ жизни и мировоззрение народа.

Ключевые слова: Жилье, квартира, дом, место жительства, двор, социальный статус, образ жизни

Insoniyat qadimdan turar joy qurishga, o'ziga yashash maskani barpo etishga ehtiyoj sezgan. Turar joy – odam yashashi uchun mo'ljallangan bino yoki joyni bildiradi. Turar joy nafaqat yashash uchun zarur bo'lgan joy, balki madaniyat, turmush tarzi, ijtimoiy mavqe va milliy qadriyatlarning ham ifodasidir. Shu sababli turar joy bilan bog'liq so'zlar, atamalar alohida leksik qatlamni tashkil etadi. Ushbu qatlam tilshunoslikda turar joy leksikasi deb yuritiladi.

O'zbek tilida turar joylarni ifodalovchi ko'plab so'zlar mavjud bo'lib, ular odamlarning turmush tarzi, yashash muhiti va davr talablariga ko'ra farqlanadi. Masalan: uy, hovli, xona, kvartira, ko'shk, mehmonxona, yotoqxona, dala-hovli kabi birliklar. Hovlili uylarning asosiy qismlari sifatida ayvon, supa, chorpoya, tandirxona, omborxona va molxona alohida o'rin tutadi. Ayvon yozda salqin, qishda esa sovuqdan saqlanadigan joy bo'lib, ko'proq dam olish va suhbatlashish uchun xizmat qilgan. Supa va chorpoya oilaviy ovqatlanish yoki mehmon kutish uchun ishlatilgan. Tandırxona esa non yopiladigan muqaddas maskan sifatida qadrlangan. Masalan, uy so'zi nafaqat yashash maskanini, balki “vatan”, “ona yurti” ni ham anglatadi. “Ona uyim O'zbekiston” iborasida uy – ramziy ma'noda qo'llanmoqda. O'zbek xalqining an'anaviy turar joylari ko'pincha hovlili uylar shaklida bo'lgan. Bunday hovlilarda ayvon, supa, chorpoya, tandirxona, omborxona kabi o'ziga xos qismlar mavjud. Bu so'zlar milliy turmush tarzini aks ettiruvchi turar joy leksikasining o'ziga xos qatlamini tashkil qiladi. O'zbek tilida turar joylarga oid qadimiy milliy so'zlar bilan bir qatorda, zamonaviy hayot va shaharlashuv jarayoni ta'sirida paydo bo'lgan yangi so'zlar ham faol ishlatilmoqda. Bunday atamalar, asosan, rus va ingliz tillari orqali kirib kelgan bo'lib, ular ko'proq shahar hayoti, zamonaviy qurilish va turmush tarzini ifodalashda qo'llanadi. Shaharlashuv jarayonida kvartira, pod'ezd, lift, ofis, rezidensiya kabi so'zlar keng qo'llanmoqda. Kvartira ko'p qavatli uylardagi xonadonni bildirsa, pod'ezd – ko'p qavatli uyga kirish yo'lagini anglatadi. Lift esa yuqori qavatlariga chiqish vositasi sifatida tilimizda mustahkam o'rnashib qolgan. Rezidensiya esa

hashamatli turar joy yoki yuqori martabali shaxslar yashaydigan uy sifatida ishlatiladi. So'nggi yillarda turar joylarning yangi turlari ham lug'atimizga kirib kelgan. Masalan, kottedj, taunxaus, penthaus, studio, loft kabi so'zlar zamonaviy arxitektura va qurilish orqali xalq tilida qo'llanilmoqda. Kottedj shahar atroflarida qurilgan alohida hovlilari uy bo'lsa, penthaus ko'p qavatli uylarning eng yuqori qavatidagi hashamatli kvartirani bildiradi. Studio kvartira esa ochiq makon tarzida, devorlarsiz loyihalangan zamonaviy yashash joyidir. Globalizatsiya ta'sirida mehmonxona va vaqtinchalik yashash joylariga oid ko'plab atamalar ham o'zbek tilida mustahkam o'rnatilmoqda. Masalan, hostel, hotel, motel, kemping kabi so'zlar turli turar joy turlarini anglatadi. Hostel asosan arzon narxdagi va bir nechta odam uchun mo'ljallangan yotoqxona bo'lsa, motel avtomobil yo'llari bo'yida qurilgan mehmonxona sifatida qo'llanadi. Shuningdek, turar joy infratuzilmasi bilan bog'liq yangi so'zlar ham ishlatilmoqda. Masalan, parking, biznes-markaz, kompleks kabi atamalar zamonaviy shahar qurilishi va turar joy majmualarini ifodalashda qo'llanadi. Parking mashina qo'yiladigan joyini, kompleks esa turar joy, do'kon, ofis va xizmat ko'rsatish maskanlarini birlashtirgan majmuani anglatadi. Shu tariqa, yangi kirib kelgan turar joy so'zlari o'zbek tilining lug'at boyligini yanada kengaytirib, zamonaviy hayot tarzini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular milliy turar joy atamalarini bilan yonma-yon qo'llanib, tilimizning boyishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turar joy leksikasi insonning hayoti, madaniyati, ijtimoiy mavqei va tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim qatlamdur. U milliy turmush tarziga oid qadimiy birliklar hamda zamonaviy sharoitda paydo bo'lgan yangi atamalarni o'z ichiga oladi. Turar joy leksikasini o'rganish nafaqat til boyligini ochib beradi, balki xalqning hayot tarzi va dunyoqarashini ham yoritib beradi. Shuningdek, turar joy leksikasida milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi so'zlar bilan bir qatorda zamonaviy hayotga mos yangi atamalar ham faol qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "O'zbek tili leksikologiyasi", "Tilshunoslikka kirish"
2. Filologiya va adabiyot yo'nalishidagi ilmiy maqolalar
3. tilvaadabiyot.uz
4. library.ziynet.uz

RUS TILIDAN KIRIB KELGAN SO'ZLAR.**Ozoda Abdusattotova Abdumuxtorovna**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan so'zlar, ularning shakllanish jarayoni va qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilingan. Asosan, ijtimoiy-siyosiy, ilm-fan, texnika va kundalik turmush sohalarida ruscha so'zlarning tilimizga kirib kelishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, bu so'zlarning til madaniyati va leksik qatlamga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: rusizm, kirib kelgan so'zlar, o'zlashma leksika, ijtimoiy-siyosiy so'zlar, texnik terminlar, o'zbek tili.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются слова, вошедшие в узбекский язык через русский язык, процесс их образования и особенности употребления. В основном, показано внедрение русских слов в наш язык в общественно-политической, научно-технической и бытовой сферах. Также освещается влияние этих слов на культуру языка и лексический пласт.

Ключевые слова. Русизмы, вошедшие слова, заимствованная лексика, общественно-политические слова, технические термины, узбекский язык.

ABSTRACT. This article analyzes the words that have entered the Uzbek language through the Russian language, the process of their formation and the features of their use. Basically, the introduction of Russian words into our language in the socio-political, scientific, technical and everyday spheres is shown. The impact of these words on the language culture and lexical layer is also highlighted.

Keywords. Russianisms, words that have entered, borrowed vocabulary, socio-political words, technical terms, Uzbek language.

O'zbek tili qadimiy tarixga ega bo'lib, turli davrlarda boshqa tillardan ko'plab so'zlarni qabul qilgan. Shulardan biri rus tilidan o'zlashgan so'zlardir. XIX asrdan boshlab ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy va texnik sohalar rivojlanishi bilan bir qatorda rus tilidan kirib kelgan so'zlar ham faol qo'llanila boshladi. Bu so'zlar bugungi kunda o'zbek tilining muhim leksik qatlamini tashkil etmoqda. Til taraqqiyoti jarayonida boshqa tillardan so'z o'zlashtirish tabiiy hodisa hisoblanadi. Har bir xalq o'zining ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniyati va iqtisodiy aloqalari davomida qo'shni yoki yaqin

aloqada bo'lgan xalqlarning tilidan ko'plab so'zlarni qabul qiladi. O'zbek tili tarixida ham bunday jarayon davom etgan bo'lib, ayniqsa XIX–XX asrlarda rus tili ta'siri sezilarli darajada kuchaydi. Bu davrda turmushning deyarli barcha jabhalarida – siyosat, fan-texnika, ishlab chiqarish, ta'lim, madaniyat va maishiy sohalarda rus tilidan kirib kelgan ko'plab so'zlar qo'llanila boshlandi. Rus tilidan kirib kelgan leksik birliklarning asosiy qismi atamalar, maishiy hayotga oid so'zlar, davlat boshqaruvi va ta'lim tizimi bilan bog'liq bo'lgan birliklardan iboratdir. Masalan, partiya, sovxoz, kolxoz, samolyot, tramvay, pasport, uchilish, stul, stol, kvartira kabi ko'plab so'zlar bugungi kunda ham keng qo'llanmoqda. Ularning ayrimlari o'zbek tilida to'liq singib ketgan bo'lsa, boshqalari o'zga tilga mansubligi darhol sezilib turadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, rus tilidan kirib kelgan so'zlar o'zbek tilining lug'at boyligini kengaytirgan, biroq ayrim hollarda adabiy tilning me'yoriy jihatlariga ham ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, ularni tizimli ravishda o'rganish, guruhlariga ajratish va tilimizdagi o'rni hamda ahamiyatini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu ishda rus tilidan kirib kelgan so'zlarning o'zbek tilidagi paydo bo'lish sabablari, ularning qo'llanish sohalari va til taraqqiyotidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Rus tilidan kirib kelgan so'zlarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin.

1. Ijtimoiy-siyosiy so'zlar. Masalan: sovet, deputat, komitet, oblast.

2. Ilmiy-texnik terminlar. Masalan: stanok, motor, traktor, atom, elektr.

3. Madaniy-maishiy so'zlar. Masalan: biblioteka, gazeta, kvartira, magazin, stol, stul.

4. Harbiy so'zlar. Masalan: general, soldat, komandir.

Ruscha o'zlashmalar o'zbek tilida mustahkam o'rinish qolgan. Ba'zilari to'liq moslashib, o'zbekcha talaffuz va yozuv shakliga ega bo'lgan (stol, karobka, direktor); Ayrimlari esa asliyatdagi shaklini saqlagan (prokuror, prezident). Bugungi kunda til siyosatida ruscha o'zlashmalarning o'rnini milliy so'zlar bilan almashtirish jarayoni ham kuzatilmoqda (telefon – qo'ng'iroq qurilmasi, avtobus – yo'lovchi mashinasi kabi).

Ruscha so'zlarning kirib kelish sabablari: XIX asrdan boshlab O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet davlati ta'siri kuchaygan. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarda rus tili keng qo'llanilgan. Yangi texnika va ilmiy tushunchalar bilan birga ruscha terminlar ham o'zbek tiliga kirib kelgan. Rus tilidan kirib kelgan asosiy so'zlar: Kundalik hayot: stol, stul, kvartira, magazin. Texnika va fan: motor, traktor, stanok, atom. Siyosiy va ijtimoiy hayot: sovet, deputat, komitet.

Xususiyatlari: ba'zi so'zlar butunlay o'zlashib, o'zbekcha shaklga ega bo'lib ketgan (stol, direktor). Ayrimlari esa asl talaffuzini saqlagan (prokuror, prezident). Ko'p so'zlar bugungi kunda ham faol ishlatilmoqda. Ahamiyati: til lug'atini boyitdi, yangi sohalarni ifodalash imkonini berdi. Tarixiy davrlarning ijtimoiy-madaniy aloqalarini aks ettiradi. Hozirgi kunda o'zbek tilida ularga milliy muqobillar yaratish jarayoni kechmoqda (poezd – poyezd, avtobus – yo'lovchi mashinasi kabi). Tillardan, xususan rus tilidan ham so'zlar kirib kelgan. Bu jarayon asosan XIX–XX asrlarda, O'zbekiston Rossiya imperiyasi va keyinchalik SSSR tarkibida bo'lgan davrda kuchaygan. Rus tili o'sha paytda siyosat, fan, texnika, madaniyat va ta'lim sohalarida asosiy til bo'lib xizmat qilgan.

Rus tilidan kirgan so'zlarning sabablari:

1. Texnika va fan taraqqiyoti – yangi asbob-uskunalar va ilmiy tushunchalar bilan birga yangi so'zlar ham kirib kelgan.
2. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlar – davlat boshqaruvi, harbiy va ma'muriy sohalarda ruscha atamalar ishlatilgan.
3. Madaniy aloqalar – kino, teatr, ta'lim va san'at orqali ham ko'plab ruscha so'zlar kirgan.

Rus tilidan kirgan so'zlar o'zbek tili lug'atini boyitgan, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini yaratgan. Shu bilan birga, bugungi kunda o'zbek tili mustaqil rivojlanmoqda, va o'z so'z boyligini saqlab qolish, milliy atamalarni keng qo'llashga e'tibor qaratilmoqda. Har bir o'qituvchi va o'quvchi o'z tilini ardoqlashi, begona so'zlarni to'g'ri va o'rinli ishlatishi kerak.

Rus tili o'zbek tilining leksik boyishiga katta hissa qo'shgan. Biroq hozirgi kunda o'zbek tilining sof va milliy lug'atini rivojlantirishga ham e'tibor kuchaymoqda. Shu bilan birga, kirib kelgan ruscha so'zlar ham o'z o'rnida, to'g'ri ishlatilsa, tilni boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, rus tilidan kirib kelgan so'zlar o'zbek tilining lug'at boyligini yanada kengaytirgan. Ularning bir qismi kundalik nutqimizda faol ishlatilmoqda, bir qismi esa tarixiy so'zlar sifatida qo'llanmoqda. Mazkur qatlamni o'rganish tilshunoslik uchun ham, ta'lim jarayoni uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular orqali o'zbek tili va boshqa tillar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalar ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xo'jayev A. O'zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent, 2019. [CIA World Factbook n007-06-12da asl nusxadan.](#)
2. ↑ [CIA World Factbook y](#) Rahmatullayev Sh. Til va jamiyat. Toshkent, 2007.

3. ↑ [About 37 % of the population of Golestan province of 1,687,086]
4. ↑ [RFE/RL Turkmenistan: President Shows No Sign Of Welcoming Refugee Kinsmen](#). O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. Toshkent, 2008–2010.
5. Karimov U. O'zlashma so'zlar va ularning o'rni. Toshkent, 2015.

TIBBIYOT LEKSIKASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Alimova Durdona Musurmon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

alimovadurdona000@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot leksikasining shakllanishi, rivojlanishi va lingvistik xususiyatlari keng yoritiladi. Tibbiy terminlarning tarixiy ildizlari, ularning arab, fors, rus va ingliz tillaridan kirib kelishi, xalqaro terminlarning o'zbek tilidagi moslashuvi hamda stilistik qo'llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, pandemiya davridagi yangi atamalar, tibbiy leksikaning jamiyatdagi o'rni va zamonaviy tendensiyalar ham misollar bilan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tibbiyot leksikasi, terminologiya, tarixiy ildizlar, xalqaro terminlar, pandemiya, lingvistik xususiyatlar, stilistik qo'llanish.

Abstract This article explores the formation, development, and linguistic features of medical vocabulary. It analyzes the historical roots of medical terms, their adoption from Arabic, Persian, Russian, and English, as well as the adaptation of international terminology in Uzbek and its stylistic usage. In addition, new terms that emerged during the pandemic, the role of medical vocabulary in society, and modern tendencies are discussed with illustrative examples.

Keywords: medical vocabulary, terminology, historical roots, international terms, pandemic, linguistic features, stylistic usage.

Аннотация В данной статье подробно рассматриваются формирование, развитие и лингвистические особенности медицинской лексики. Анализируются исторические корни медицинских терминов, их заимствование из арабского, персидского, русского и английского языков, а также адаптация международной терминологии в узбекском языке и её стилистическое употребление. Кроме того, обсуждаются новые термины, появившиеся в период пандемии, роль медицинской лексики в обществе и современные тенденции с конкретными примерами.

Ключевые слова: медицинская лексика, терминология, исторические корни

Tibbiyot leksikasi tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. Chunki u nafaqat ilmiy doiralarda, balki kundalik hayotda ham keng qo'llaniladi. Tibbiyotga oid so'zlar inson salomatligi, kasallik turlari, davolash usullari, anatomiya va farmatsevtika bilan bog'liq terminlarni o'z ichiga oladi. Tarixiy manbalarda o'zbek tilidagi tibbiy atamalar qadimdan shakllanganligi qayd etiladi. Abu Ali ibn Sino (980–1037)ning “Al-Qonun fit-tibb” (“Tib qonunlari”) asari Sharq va G'arb tibbiyotida muhim manba hisoblanib, undagi ko'plab terminlar bugungi kunda ham qo'llanilmoqda. Masalan, “dem”, “balg'am”, “safro”, “mijoz” kabi tushunchalar qadimiy o'zbek tibbiy leksikasidan joy olgan. XX asrda rus tili orqali ko'plab xalqaro tibbiyot atamalari kirib keldi. Masalan, “diagnostika”, “terapiya”, “onkologiya”, “farmakologiya”, “virus” kabi so'zlar xalqaro termin sifatida bugungi o'zbek tibbiy leksikada mustahkam o'rin egalladi. Zamonaviy tibbiy leksika ko'p qirrali bo'lib, unda quyidagi manbalardan kelib chiqqan so'zlar uchraydi:

- 1 Mahalliy atamalar – “ko'z yoshi”, “yurak urishi”, “og'riq”, “nafas olish”.
2. Arabcha so'zlar – “dem”, “mijoz”, “safro”, “asab”.
3. Forscha so'zlar – “darmon”, “davolash”, “bemor”.
4. Ruscha va xalqaro terminlar – “antibiotik”, “vaktsina”, “rentgen”, “gigiyena”.

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili orqali kirib kelayotgan yangi tibbiyot terminlari ham tezda o'zlashmoqda. Masalan: “COVID-19”, “scanner”, “genom”, “biotexnologiya”, “mutatsiya”. Shunday qilib, tibbiyot leksikasi doimo yangilanib borayotgan, xalqaro hamkorlik va fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan soha hisoblanadi. Har bir millatning til boyligi uning madaniy taraqqiyotini ifodalaydi. Tilning muhim qatlamlaridan biri maxsus leksika bo'lib, u fan va texnika sohalaridagi terminlarni qamrab oladi. Shu jumladan, tibbiyot sohasi ham o'ziga xos boy lug'at boyligiga ega. Tibbiyot leksikasi qadimdan shakllanib, bugungi kunda ilmiy va amaliy faoliyatda keng qo'llanilmoqda. Bu qatlam inson salomatligi, kasalliklarni aniqlash va davolash, anatomiya, farmatsevtika va sanitariya bilan bog'liq terminlarni o'z ichiga oladi. Tibbiy terminlarning to'g'ri ishlatilishi nafaqat shifokorlar uchun, balki oddiy odamlar uchun ham muhimdir. Chunki noto'g'ri tushunilgan so'z inson hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirishi mumkin. Yevropa tibbiyot maktablarida yunon va lotin tillariga asoslangan terminlar keng tarqaldi. Bugungi kunda ham “anatomia”, “therapia”, “diagnosis”, “virus”, “bakteriya” kabi ko'plab terminlar lotin va yunon ildizlariga borib taqaladi. Bu holat tibbiy terminologiyaning xalqaro miqyosda yagona tushuncha sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tilida ham tibbiyot leksikasini milliy talablarga moslashtirish, xalq uchun tushunarli qilish

jarayoni olib borilmoqda. Masalan, “pnevmoniya” termini ko‘pincha xalq tilida “o‘pka yallig‘lanishi”, “gipertoniya” esa “qon bosimi oshishi” tarzida ishlatiladi. Bu oddiy aholiga murakkab ilmiy atamalarni osonroq anglash imkonini beradi. Chunki har bir aniq so‘z kasallikni to‘g‘ri tashxislash, davolash rejasini belgilash va shifokor hamda bemor o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tibbiyot leksikasining asosiy xususiyatlari: Aniqlik – Tibbiy terminlar noaniqlikka yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, “anemiya” yoki “pnevmoniya” so‘zlari faqat bitta kasallikni anglatadi va boshqa ma’noda ishlatilmaydi. Bu xususiyat tibbiy muloqotda chalkashliklarning oldini oladi. Xalqaro qo‘llanish – Tibbiy atamalar ko‘p hollarda lotin va yunon ildizlariga borib taqaladi. Shuning uchun ham dunyoning turli mamlakatlarida shifokorlar bir xil terminlardan foydalanadilar. Masalan, “arteriya”, “diabet”, “onkologiya” kabi atamalar tilidan qat’i nazar bir xil shaklda qabul qilinadi. Qatlamdorlik – O‘zbek tilidagi tibbiyot leksikasida qadimiy manbalardan kelgan so‘zlar ham, zamonaviy texnologiyalar orqali kirib kelgan yangi terminlar ham mavjud. Masalan, arabchadan kirgan “asab” va “qalb” so‘zlari bugungi kunda ham qo‘llanadi, ingliz tilidan esa “rentgen”, “tomografiya” kabi tushunchalar kirib kelgan. Soha bo‘yicha tizimlilik – Har bir tibbiyot sohasi o‘z terminlariga ega.

Anatomiya: “skelet”, “muskul”, “vena”.

Farmasevtika: “tabletka”, “in’ektsiya”, “maz”.

Epidemiologiya: “immunitet”, “infeksiya”, “pandemiya”.

Terapiya va jarrohlik: “operatsiya”, “fizioterapiya”, “rehabilitatsiya”.

Bu jihatlar tibbiyot leksikasini boshqa sohalardagi lug‘at qatlamlaridan farqlab turadi va uni ilmiy hamda amaliy faoliyatda muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Tibbiyot leksikasi tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, u nafaqat ilmiy-texnikaviy atamalar tizimini, balki jamiyatning sog‘liqni saqlash sohasidagi taraqqiyoti va ehtiyojlarini ham ifodalaydi. Bu qatlamning shakllanishi qadimiy arabcha, forsha, lotincha va yunoncha manbalar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lsa-da, bugungi kunda inglizcha va ruscha terminlarning ham ta’siri kuchli sezilmoqda. Tibbiyot leksikasining asosiy xususiyatlari — aniqlik, xalqaro qo‘llanish, tarixiy qatlamdorlik va tizimlilik — uning ilmiy hamda amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Har bir tibbiy termin kasalliklarni aniqlash, davolash, diagnostika va profilaktika jarayonida aniqlikni ta’minlaydi. Shu bois tibbiyot tilining mukammal o‘rganilishi va izchil qo‘llanilishi jamiyat salomatligi uchun bevosita ahamiyatlidir. Bugungi kunda yangi texnologiyalar, zamonaviy diagnostika usullari va xalqaro ilmiy hamkorlik tufayli tibbiy terminologiya yanada boyib bormoqda. Shu

jarayonda o'zbek tilida tibbiy atamalarni milliy talablarga moslashtirish, oddiy xalq uchun tushunarli shaklda berish masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. Demak, tibbiyot leksikasini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish va uni amaliyotda to'g'ri qo'llash — tilshunoslik, tibbiyot va jamiyat rivoji uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ibn Sino. Al-Qonun fi't-tibb. – Toshkent: Fan, 1980.
2. Ro'zimatov H. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
3. Jo'rayev M., Usmonov A. O'zbek terminologiyasi asoslari. – Toshkent: Universitet, 2010.
4. Karimov A. Tibbiy terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi // Filologiya masalalari. – Toshkent: 2015. – №3. – B. 45–52.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

TA'LIMGA OID LEKSIK BIRLIKLAR

Ashurmatova Navro'za Bahrom qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 24/1guruh talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTASIYA. Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha jabhalarida yangi bosqichga o'tish davridagi yuz berayotgan o'zgarishlar va zamonaviy islohotlar natijasida boshqa tarmoqlar ham yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bunday ekstralingvistik omillar ta'sirida ona tilimizda minglab yangi tushunchalar va leksik birliklarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ushbu tushunchalarni ifodalash maqsadida minglab soha egalari chuqurroq izlanish olib borib, yangi leksik birliklarni tahlil qilib hujjatlarda aniq ishlatishga harakat qilishmoqda. Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi yangi paydo bo'lgan va bo'layotgan leksik birliklar haqida so'z yuritildi.

KALIT SO'ZLAR: Ta'lim, leksik birliklar, rivojlanish, so'z boyligi, ekstralingvistik, globalashuv, baynalmilal, tajriba, reyting, ona tili, o'zlashgan so'zlar

ABSTRACT As a result of the changes and modern reforms taking place in all aspects of the education system in our country, other sectors are also developing and improving. Under the influence of such extralinguistic factors, thousands of new concepts and lexical units have emerged in our native language. In order to express these concepts, thousands of experts in the field are conducting in depth research, analyzing new lexical units and trying to use them accurately in documents. This article discusses the newly emerging and emerging lexical units in the education system.

KEYWORDS: Education, lexical units, development, vocabulary, extralinguistic, globalization, international, experience, rating, native language, acquired words

АННОТАЦИЯ В результате изменений и современных реформ, происходящих во всех аспектах системы образования нашей страны, развиваются и совершенствуются и другие её секторы. Под влиянием этих экстралингвистических факторов в нашем родном языке появились тысячи новых понятий и лексических единиц. Чтобы выразить эти понятия, тысячи специалистов в этой области проводят более глубокие исследования, анализируют новые лексические единицы и стараются использовать их

корректно в документах. В данной статье рассматриваются вновь появляющиеся и появляющиеся лексические единицы в системе образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Образование, лексические единицы, развитие, словарный запас, экстралингвистический, глобализация, международный, опыт, рейтинг, родной язык, усвоенные слова

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha jabhalarida yangi bosqichga o'tish davridagi yuz berayotgan o'zgarishlar va zamonaviy islohotlar natijasida boshqa tarmoqlar ham yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bunday ekstralingvistik omillar ta'sirida ona tilimizda minglab yangi tushunchalar va leksik birliklarni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ushbu tushunchalarni ifodalash maqsadida minglab soha egalari chuqurroq izlanish olib borib, yangi leksik birliklarni tahlil qilib hujjatlarda aniq ishlatishga harakat qilishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatga, shuningdek, O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir"- deya ta'kidlagan edi. Shubhasiz, umumta'lim, oliy ta'lim va barcha tegishli ta'lim sohalarining sifatini oshirish mamlakatimizning kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi turibdi. Shu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z Murojaatnomasida ta'limni "Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya" - deb ta'kidlagani chuqur strategik ahamiyatga ega va ushbu nutqdan o'ta muhim istiqbolli kelajak nazarda tutilgan. Ta'lim sohasida jahon ta'lim tajribalari bilan hamkorlik oqibatida tilimizda yangi leksikalar paydo bo'lmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, ta'lim-tarbiya sohasi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlar hamda munosabatlar dastlabki yozma manbalarning paydo bo'lishidan boshlab to hozirgi kungacha ko'plab xorijlik va mahalliy olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan va hozirgi kungacha qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Tilshunos olimlardan G.I Jelezovskaya, C.B Yeremina, L.V Lisochenko, V.M Sergevnina, Ch Stivenson, N.Rashidova ta'limga oid leksik birliklarni ta'lim tizimlariga uzviy bog'lab, ularning paydo bo'lishi, turlarini turli tilli lug'atlarda berilishlarini o'rganishgan. Jahon ta'lim muassasalarining xizmatlar tizimida, ta'limda ish yuritish tilida, sohaga mansub kalit so'zlar va so'z birikmalarini ham uchratish mumkin. Ularning barchasi ta'lim sohasiga oid nutqiy kommunikatsiya jarayonida faol ishlatiladi. Bundan tashqari, maxsus ta'lim sohasida ish yuritish hujjatlarida va maxsus matnlarda o'z aksini topadi. Shu ma'noda aytish mumkinki, har bir tilda boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'ziga

xos o'rin egallaydi. Til xalq taraqqiyotining ajralmas hamrohidir. Tildagi muhim o'zgarishlar "ichki" va "tashqi" ko'rsatkichlarning hosilasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlatlararo integratsiya va globalizatsiya natijasida o'zbek tilining ta'lim sohasidagi yozma va og'zaki nutqga ko'plab ingliz tili leksik birliklari kirib keldi va ular bugungi kunda faol qo'llanilmoqda. Jumladan: certificate –sertifikat, licenselitsenziya, ya'ni, ruxsatnoma; tutor – tyutor, ya'ni, talabalarning guruh raxbari, muassasalarda bir necha guruhlarini nazorat qiladi; facilitator – fasilitator, ya'ni, muassasalarda o'quv jarayonidagi maxsus vosita hisoblanadi; authentic material – autentik materiallar (real hayotga bog'lab tayyorlangan matnlar), reyting, ball repetitor kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelgan va bugungi kunda faol qo'llanilmoqda. Ingliz tilidan o'zbek tili ta'lim sohasiga kirib kelgan ayrim leksik birliklarni tarjimasiz ham qo'llash mumkin. Biroq, ona tilimizda ularning muqobili bo'la turib ham ular ma'lum tushunchani aniq ifodalagan holatlarda ham chet tili leksik birliklarini kiritaverish haqli e'tirozni keltirib chiqaradi. Masalan: curriculum vitae – shaxsiy ma'lumot; monitoring – nazorat qilish; context – matn; paragraph – xatboshi va h. Bunday leksik birliklar nega o'zbek tiliga kiritilib faol qo'llaniladi? Axir, ularning ma'nosini anglatadigan o'zbekcha so'zlar borku? – degan haqli e'tirozni keltirib chiqaradi. Bu savolga javob shuki, ingliz tilidan o'zlashgan ta'limga oid leksik birliklar ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat olib boradigan xodimlar va mutaxassislar o'rtasida ko'proq foydalanilishi sababli, ularning nutqida deadline – dedlayn, method – metod, laboratory – laboratoriya, essay – esse, patent – patent, quote - kvota kabi leksik birlik mustahkam o'rin egallagan. O'z navbatida aytish lozimki, birinchi navbatda yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga asosiy sabab mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro diplomatik hamkorlik va kelishuvlar bo'lsa, ikkinchidan, qabul qiluvchi tilning kognitiv maydonida mos keluvchi tushuncha mavjud emasligi va unga mos nominativ so'z yo'qligi bilan izohlanadi. G.Paulning fikriga ko'ra, muayyan til qatlamiga yangi leksik birliklar faqatgina madaniy ta'sir ostida va mavhum bo'lmagan so'zlarni qo'llash orqali ekstralingvistik omillar ta'sirida kirib keladi. A.P. Mayorovning e'tirofi etishicha, "xorijiy yangi so'zlar muloqot va tasvirlash imkoniyatlarini rivojlantirish va kengaytirish maqsadida, ya'ni tushunchalar hajmini kengaytirish, yangi tushunchalarning nominativ xususiyatlariga, ya'ni ta'rifiga emas, uning funktsional-semantik xususiyatlariga, vazifaviy jihatdan nimani anglatishiga, shuningdek, qisqa va ixcham tarzda nomlash orqali muloqotni tinglovchiga yengillashtirish uchun kirib kelishiga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi" O'zbek tili ta'lim sohasi tizimida keng qo'llaniladigan leksik qatlamning asosiy qismi rus tili ta'siri ostida shakllangan.

Istiqlolgacha talaba va oliy ta'lim terminlari nisbatan kamroq qo'llanilgan. Ularning muqobili sifatida rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan student, stipendiya, kontrakt terminlari muloqotda faolroq edi. Leksik birliklar nafaqat og'zaki nutq orqali, balki ta'lim sohasi bo'yicha nashr etilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy-ommabop asarlar, turli lug'atlarga ham o'zlashib kirib kelmoqda. Ushbu birliklar lug'atlarda o'z ifodasini to'g'ri topishi, aksar leksik birliklar o'zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida tushunchalarni aniq va ravon ifodalashi, mazkur jarayonning hozirgi zamon talab darajasida bo'lishini ta'minlash tilshunos olimlarning asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda. Yurtimizda kuzatilgan pandemiya sharoitida ta'lim sohasida yana online, offline, akademik mobile, elektron blok kabi so'zlar paydo bo'ldi. Chunki o'sha paytlarda talabalar uyda masofaviy shaklda ta'limni davom ettirishgan, yuqoridagi terminlar aynan ana shu sharoit natijasida kirib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va ba mintaqalararo tadqiqotlar instituti rasmiy sayti <https://isrs.uz/uz/ozbekiston-yangiliklari>
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12-jild. – T: "O'zbekiston milliyensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006.
3. O'.Asqarova va boshqalar Pedagogikadan Izoli lug'at T: Navro'z 2016

O'ZBEK TILIDA MEHNAT QUROLLARI LEKSIKASI

Muhabbat Jo'rayeva Jamshid qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Kechki ta'lim shakli 24\1- guruh 2-kurs talabasi

Jorayevamuxabbat1@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA .Ushbu maqolada o'zbek tilidagi mehnat qurollari leksikasining shakllanishi, tarixiy ildizlari va zamonaviy hayotdagi qo'llanishi tahlil qilinadi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va ro'zg'or qurollariga oid so'zlar til boyligining muhim qismini tashkil etadi va xalq og'zaki ijodi hamda adabiyotdagi ifodasi ko'rib chiqiladi. Maqolada arxeologik va adabiy manbalar asosida dalillar keltiriladi va tilshunoslik nuqtayi nazaridan tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: leksika, mehnat qurollari, dehqonchilik, hunarmandchilik, tarixiy ildiz, xalq og'zaki ijodi, zamonaviy tili.

Annotation. This article analyzes the formation, historical roots, and modern usage of the vocabulary of work tools in the Uzbek language. Words related to agriculture, handicrafts, and household tools constitute an essential part of the lexical wealth and are reflected in folklore and literature. The article provides evidence based on archaeological and literary sources and offers insights from a linguistic perspective.

Keywords: lexis; work tools; agriculture; handicrafts; historical roots; folklore; modern language

Аннотация. В данной статье анализируется формирование, исторические корни и современное употребление лексики орудий труда в узбекском языке. Слова, связанные с земледелием, ремеслом и бытовыми предметами, составляют важную часть лексического богатства и находят отражение в фольклоре и литературе. В статье приводятся доказательства на основе археологических и литературных источников и даются выводы с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: лексика; орудия труда; земледелие; ремесло; исторические корни; фольклор; современный язык.

Til – xalqning hayoti, turmushi madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi vositadir. Leksika – tilning so'z boyligi, u orqali xalqning mehnat tarzi, kasb-hunarlar va kundalik turmushi haqida tasavvur hosil qilinadi. O'zbek xalqining tarixiy faoliyati –

dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik – leksik qatlamda o'z izini qoldirgan. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar O'rta Osiyo hududida qadimdan mehnat qurollari ishlatilganini tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi davrlarga oid Sug'd, Baqtriya va Xorazm hududlaridan temir va bronza asboblari – o'roq, ketmon va turli kesgichlar topilgani ma'lum. Bu topilmalar o'sha davrdagi qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik faoliyatining rivojlanganligini ko'rsatadi. Bronza va temirning keng tarqalishi qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirib, bir qator yangi mehnat asboblari va ularning nomlari tilimizda mustahkam o'rin olishiga sabab bo'ldi. So'nggi yillarda bronza asboblari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar material madaniyati va texnologik o'zgarishlarni yanada aniqroq ochib bermoqda. Qadimgi odamlarning eng sodda tosh qurollaridan biri bolg'a toshlari hisoblangan. Undan biror narsani kesish, maydalash va ko'zlangan masofaga irg'itish quroli sifatida foydalanishgan. Badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodida ham mehnat qurollari mavzusi keng tarqalgan. Masalan, xalq dostonlari va maqollarda ketmon, o'roq, bolta kabi atamalar qahramonlarning kundalik ishini yoki ularning fazilatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Turk-o'zbek epikosida masalan, "Alpomish" dostonida qahramonlarning hayoti va kun tartibidagi amaliy ishlar, shu jumladan dala va hunarmandchilik ishlariga oid tasvirlar uchraydi. Bunday epik va folkloriy matnlar mehnat qurollarining tilda qanday badiiy, ramziy ijtimoiy ma'nolar olganini ko'rsatadi. Bu holat leksikaning nafaqat amaliy, balki madaniy va estetik qiymati borligini ko'rsatadi. Ba'zi mehnat qurollari nomlari qadimgi turkiy ildizlardan keladi. Masalan, "ketmon" so'zining tayanch shakli Proto-Turkic rekonstruksiylarida ketmen ga yaqin ekanligi qayd etilgan; shu sababli so'z turkiy tillarda keng tarqalgan. Mehnat qurollari so'zlarini funksiyasiga ko'ra guruhlash mumkin: bular dehqonchilik qurollari: ketmon, o'roq, belkurak, to'qmoq; yog'ochsozlik va qurilish asboblari: bolta, arra, tesha, keskich; hunarmandchilik asboblari: igna, bigiz, qaychi, charx va dastgoh; uy-ro'zg'or asboblari: supurgi, elak, tovoq va idishlar. Bu atamalarning ba'zilari qadimgi turkiy ildizlarga ega va fonetik jihatdan eskilikni saqlab qolgan. So'zlarning leksik-semantik tahlili ko'rsatadiki, ayrim atamalar amaliy nom bo'lib qolmagan, balki metafora va frazeologizm sifatida yangi ma'nolar olgan. Masalan, "ketmonini qo'lga olish" – ish boshlash ma'nosini anglatadi.

Maqolada mehnat qurollarining ijtimoiy ahamiyatini aniq ko'rsatadi. Odatda bu maqollar mehnatni qadrlash, mas'uliyat va kasb muhimligini ta'kidlaydi. Masalan, "Ketmonini qo'lga olish" ishni boshlash, "O'roqday o'tkir" keskin, jasoratli, "Ketmon qo'lda- rizq dalada" maqolida esa mehnat qilish orqali rizq topish ma'nosi

tushuniladi. Topishmoqlarda esa asboblarning badiiy tasviri, ularning shakli va vazifasi orqali yosh avlodlarga bilim beriladi. XX-XXI asrlarda texnik taraqqiyot natijasida qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida texnika keng qo'llanila boshlandi: traktor, kombayn, ekskavator kabi vositalar oddiy qo'l asboblari o'rnini egalladi. Biroq bu qatlam tildan yo'qolmadi – ko'plab atamalar metafora va frazeologik birliklar sifatida saqlanib qoldi. Tilshunoslar uchun mehnat qurollari leksikasini o'rganish – ijtimoiy-iqtisodiy tarixni, madaniyat va til o'zgarishlarini kuzatish imkoniyatidir. Ilmiy-daliliy jihatdan, arxeologik topilmalar, qadimiy adabiy manbalar va xalq og'zaki ijodi asosida leksikaning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash mumkin. Bu o'rganish til tarixini, leksik jarayonlarni va so'zlarning semantik o'zgarishlarini ochib beradi. Mehnat qurollari leksikasi o'zbek tilining boy va tarixiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. U xalqning mehnat madaniyati, iqtisodiy faoliyati va ma'naviy qadriyatlarini so'z orqali aks ettiradi. Texnika rivojlangan paytda ham bu leksika tilda metaforik va frazeologik jihatdan muhim rol o'ynaydi. Mehnat qurollari so'zlarini tadqiq etish tilshunoslik, etnografiya va tarix sohaları uchun qimmatli material hisoblanadi. Chunki bu so'zlar orqali o'zbek xalqining o'tmishdagi faoliyati, mehnat an'analari va ijtimoiy hayoti haqida chuqur bilim olish mumkin. Arxeologik topilmalar ham, xalq og'zaki ijodi ham, adabiy manbalar ham mehnat qurollarining qanchalik qadimiyligini va ular o'zbek xalqining kundalik hayotida naqadar muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Shunday qilib, mehnat qurollariga oid so'zlarni asrab-avaylash, ularni tadqiq qilish va yosh avlodga yetkazish milliy merosimizni saqlashga xizmat qiladi.

O'zbek tilida mehnat qurollari leksikasi xalqning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, ishlab chiqarish madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim leksik qatlamdir. Bu soha tildagi etnolingvistik, tarixiy va madaniy ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Mehnat qurollariga oid so'zlar xalq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanish bosqichlarini, ishlab chiqarish texnologiyalarining o'zgarishini va ijtimoiy tafakkurning shakllanishini til orqali aks ettiradi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, mehnat qurollari leksikasi o'zbek tilining leksik boyligini, tarixiy qatlamlarini va semantik tizimini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu so'zlar tarkibida qadimgi turkiy ildizli birliklar bilan bir qatorda arab, fors va rus tillaridan kirgan atamalar ham mavjud bo'lib, ular o'zbek tilining rivojlanish jarayonida o'zaro uyg'unlashgan.

Shuningdek, mehnat qurollariga oid leksika xalq og'zaki ijodi, maqol va matallar, toponimlar hamda kasb-hunar atamalarida faol qo'llanilishi bilan ham ajralib turadi. Bu esa mazkur leksik qatlamning nafaqat tarixiy, balki uslubiy va madaniy ahamiyatini

ko'rsatadi. Demak, o'zbek tilida mehnat qurollari leksikasi nafaqat tildagi tarixiy qatlamni yoritadi, balki xalq tafakkuri, mehnatsevarlik an'analari va milliy o'zlikning til orqali namoyon bo'lishini ham ifodalaydi. Shu bois bu leksik qatlamni ilmiy o'rganish tilning tarixiy taraqqiyotini, madaniy ildizlarini va milliy mentalitetini chuqur anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jo'rayev M. "O'zbek tilining leksik qatlamlari". Toshkent: Fan, 2005.
2. Abdurahmonov G., Rustamov A. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Mahmudov N. "O'zbek tili leksikologiyasi" Toshkent, 2012.
4. Karimov A. "O'zbek xalq maqollari" Toshkent: Yozuvchi, 1987.
5. Qodirov E. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
6. Sagdullayev A. "O'zbek xalqining etnografik tarixi". Toshkent: Sharq, 2001.

SO'Z VA UNING MOHIYATI

Abduvaqqosova Ruxshona Bahromboy qizi

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi kechki 24/1-guruh talabasi

Ruxshonaabduvaqqosova829@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada so'zning mohiyati, uning jamiyat va inson hayotidagi o'rni, shuningdek, tafakkur, madaniyat va ma'naviyat bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. So'zning ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy davrda so'zning tutgan o'rni va globalizatsiya jarayonida milliy so'z boyligini asrab-avaylash zarurati haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: so'z, til, tafakkur, nutq, muloqot, madaniyat, ma'naviyat, mohiyat, qadriyat.

Annotation. This article examines the essence of the word, its role in human and social life, as well as its connection with thinking, culture, and spirituality. The social, philosophical, moral, and educational significance of the word is analyzed in detail. In addition, the importance of preserving the national vocabulary in the context of globalization is emphasized.

Key words: word, language, thinking, speech, communication, culture, spirituality, essence, values.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность слова, его роль в жизни человека и общества, а также его связь с мышлением, культурой и духовностью. Подробно анализируются социальное, философское, нравственное и воспитательное значение слова. Кроме того, подчёркивается необходимость сохранения национального словарного фонда в условиях глобализации.

Ключевые слова: слово, язык, мышление, речь, общение, культура, духовность, сущность, ценности.

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, so'z va tilning naqadar buyuk kuchga ega ekanligini ko'ramiz. So'z — oddiy tovushlar yig'indisi emas, balki inson tafakkurining, ma'naviy dunyosining ifodasi, jamiyatning rivojlanishida muhim vositadir. Qadimdan buyuk mutafakkirlar, faylasuflar va adiblar so'z qudrati haqida hikmatli fikrlar bildirganlar. Forobiy “so'z tafakkurning ko'zgusi” desa, Alisher

Navoiy soʻzning qudratini butun insoniyatga taʼsir oʻtkazuvchi kuch sifatida ulugʻlagan. Soʻz tufayli insoniyat oʻz tarixini yaratdi, tajribasini saqladi, bilimlarini keyingi avlodlarga yetkazdi. Soʻzning mohiyatini anglash bu — insoniyatning oʻzini anglash jarayonidir. Bugungi globallashuv davrida soʻzning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki bir tomondan, yangi soʻzlar, tushunchalar, terminlar hayotimizga kirib kelmoqda, ikkinchi tomondan esa milliy soʻz boyligini asrab-avaylash, uni rivojlantirish muammosi dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shunday ekan, soʻzning mohiyatini ijtimoiy, maʼnaviy va madaniy jihatdan chuqur oʻrganish nafaqat lingvistik zarurat, balki milliy qadriyatlarni asrab qolishning ham kafolatidir. Soʻz eng avvalo jamiyatda muloqotni taʼminlovchi vositadir. U odamlar orasidagi aloqa, hamkorlik va bir-birini tushunish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Insonlar oʻz fikrini, tuygʻularini, orzu-niyatlarini soʻz orqali ifoda etadi. Soʻzsiz jamiyat hayotini, taraqqiyotini va insoniy munosabatlarni tasavvur etib boʻlmaydi. Soʻz tafakkur bilan uzviy bogʻliq. Inson fikrlash jarayonida avvalo ongida maʼlum bir tasavvur hosil qiladi va uni soʻz vositasida ifodalaydi. Demak, tafakkur va soʻz bir-birisiz mavjud boʻlolmaydi. Tafakkursiz soʻz maʼnosiz, soʻzsiz tafakkur esa ifodasiz boʻladi. Shu bois olimlar “soʻz tafakkurning kaliti” deb bejiz taʼkidlamaydilar. Soʻz millatning tarixiy xotirasi, maʼnaviy boyligi va madaniyatining eng muhim koʻrinishlaridan biridir. Maqollar, matallar, rivoyatlar, dostonlar, xalq ogʻzaki ijodi namunalarining barchasi soʻz orqali bizgacha yetib kelgan. Soʻz millatning ruhiyatini, urf-odatini, dunyoqarashini ifodalaydi. Shu bois milliy oʻzlikni saqlashda, madaniy merosni asrashda soʻzning ahamiyati beqiyosdir. Soʻzning tarbiyaviy kuchi nihoyatda ulkan. Yaxshi soʻz inson qalbini koʻtaradi, unga umid va ishonch beradi. Yomon soʻz esa qalbni ranjitadi, ruhiyatni tushkunlikka olib keladi. Shu sababli ota-bobolarimiz “Yaxshi soʻz — jon ozigʻi, yomon soʻz — bosh qozigʻi” degan hikmatni aytganlar. Demak, soʻz nafaqat muloqot vositasi, balki insonni maʼnaviy va axloqiy tarbiyalashning ham asosiy qurolidir. Bugungi globallashuv sharoitida soʻzning ahamiyati yanada kengaydi.

Yangi axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar tufayli soʻzlarning tarqalish tezligi keskin oshdi. Shu bilan birga, chet tillardan kirib kelayotgan yangi soʻzlar milliy tilning lugʻaviy boyligiga taʼsir qilmoqda. Bu jarayonda ikki muhim vazifa turibdi: birinchidan, zamonaviy terminlarni milliy til meʼyorlariga moslashtirish, ikkinchidan, milliy soʻz boyligini asrab-avaylash va kelajak avlodga toʻlaqonli yetkazish. Soʻz — insoniyatning eng buyuk neʼmatlaridan biridir. U tafakkurning ifodasi, jamiyatning birlashuv vositasi, maʼnaviyat va madaniyatning

kalitidir. Soʻzsiz inson oʻz fikrini ifodalay olmaydi, jamiyat esa oʻz hayotini davom ettira olmaydi. Soʻz orqali xalq oʻz tarixini yaratadi, madaniyatini avlodidan avlodga oʻtkazadi. Birinchidan, soʻz — bu millat ruhiyatining ifodasi. Har bir millatning oʻziga xos lugʻaviy boyligi uning tarixiy taraqqiyoti, madaniy anʼanalari va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu maʼnoda soʻz nafaqat aloqa vositasi, balki milliy identitetning ramzidir. Ikkinchidan, soʻz — bu maʼnaviyat manbai. Insoniyat tarixida buyuk mutafakkirlar, adiblar, shoirlar soʻz orqali xalqning qalbiga yoʻl topganlar, ularni ilmga, ezgulikka va taraqqiyotga daʼvat qilganlar. Shu sababli soʻzni qadrlash, uni toʻgʻri ishlatish madaniy savodxonlikning muhim belgisi sanaladi. Uchinchidan, zamonaviy davrda soʻzning kuchi yanada oshmoqda. Ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali soʻz millionlab insonlarning ongiga taʼsir qilmoqda. Shu bois, soʻzning ijobiy yoki salbiy kuchi jamiyatda katta oʻrin tutadi. Demak, bugungi kunda soʻzdan oqilona foydalanish — axborot madaniyatining ajralmas qismidir.

Xulosa qilib aytganda, soʻzning mohiyati koʻp qirrali: u aloqa vositasi, tafakkur ifodasi, maʼnaviy tarbiya manbai va milliy oʻzlik timsolidir. Shuning uchun ham soʻzga masʼuliyat bilan munosabatda boʻlish, uni qadrlash va toʻgʻri ishlatish — har bir insonning maʼnaviy burchidir. Bugungi globallashuv davrida milliy soʻz boyligini asrab-avaylash, uni boyitish va kelajak avlodga yetkazish davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki soʻz — xalqning maʼnaviy yuzini, ruhiyatini, madaniyatini ifodalovchi beqiyos boylikdir. Soʻzning mohiyatini oʻrganish natijalaridan koʻrinadiki, u insoniyat taraqqiyoti va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida asosiy vosita sifatida namoyon boʻladi. Soʻz orqali inson oʻz fikrini bayon qiladi, his-tuygʻularini ifodalaydi, bilim va tajribalarini boshqalarga yetkazadi. Shunday ekan, soʻzning qadri beqiyosdir.

Shunday qilib, soʻz mohiyatini chuqur anglash va uni qadrlash — insoniylikning eng yuksak belgilaridan biridir. Soʻzning qudrati oldida moddiy boyliklar ham ojiz qoladi, chunki soʻz orqali qalblar yaraladi, jamiyatlar birlashadi, ilm-fan va madaniyat rivojlanadi. Kelajakda soʻzga munosabat yanada masʼuliyatli boʻlishi, uni toʻgʻri, goʻzal va mazmunli qoʻllash insoniyat taraqqiyotining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saʼdiyev M. *Tilshunoslik nazariyasi*. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Gʻulomov A. *Nutq madaniyati asoslari*. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2016.
3. Karimov I.A. *Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.

4. Navoiy A. *Muhokamat ul-lug'atayn*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011.
5. Humboldt V. *Ocherki po filosofii yazyka*. – Moskva: Nauka, 1985.
6. Zvegintsev V.A. *Yazyk i chelovek*. – Moskva: Nauka, 1990.
7. Xudoyberdiyev A. *Til va jamiyat*. – Toshkent: Universitet, 2020.

ISTE'MOL DOIRASIGA KO'RA O'ZBEK TILI LEKSIKASI

Abdusalomov Safar To'lqin og'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

abdisalomovsafar@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zbek tili leksikasining iste'mol doirasiga ko'ra tasnifi, uning qatlamlari va funksional xususiyatlari tizimli tarzda tahlil qilinadi. Leksik birliklarning qo'llanish maydoni, uslubiy belgilari, so'zlarning faol va passiv qatlamlarga ajralishi, shuningdek, so'z boyligining ijtimoiy, tarixiy va hududiy omillar ta'sirida shakllanishi masalalari ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, umumxalq leksikasi, dialektal, ijtimoiy, kasbiy, terminologik va uslubiy leksika qatlamlari o'zaro taqqoslanadi hamda ularning kommunikativ ehtiyojini qondirishdagi roli aniqlanadi. Maqolada zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida leksik birliklarning faolligi, yangilanish dinamikasi va qo'llanish konteksti amaliy misollar bilan ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, leksika, istemol doirasi, faol va passiv qatlamlar, funksional uslub, terminologiya, dialekt, ijtimoiy leksika.

ANNOTATION. This article provides a systematic analysis of the Uzbek language vocabulary based on the sphere of usage. It examines the classification of lexical units according to their functional application and stylistic features. Special attention is paid to the differentiation between active and passive vocabulary layers, as well as the influence of social, historical, and regional factors on the formation of the lexicon. The article explores the structure and role of general vocabulary, dialectal, social, professional, terminological, and stylistically marked lexical layers in meeting communicative needs. The study also highlights the dynamics of lexical renewal and the contexts of usage, supported by practical examples and modern linguistic research.

Keywords: Uzbek language, vocabulary, sphere of usage, active and passive vocabulary, functional style, terminology, dialect, social lexicon.

АННОТАЦИЯ. В данной статье системно анализируется лексика узбекского языка с точки зрения сферы её употребления. Рассматривается классификация лексических единиц по их функциональному применению и стилистическим особенностям. Особое внимание уделяется разграничению активного и пассивного словарного состава, а также влиянию социальных,

исторических и региональных факторов на формирование лексики. В статье исследуются структура и роль общеупотребительной, диалектной, социальной, профессиональной, терминологической и стилистически маркированной лексики в удовлетворении коммуникативных потребностей. Также освещаются процессы обновления словарного состава и контексты его употребления на основе практических примеров и современных лингвистических подходов.

Ключевые слова: узбекский язык, лексика, сфера употребления, активный и пассивный словарь, функциональный стиль, терминология, диалект, социальная лексика.

Ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida tilshunoslikning yangidan-yangi yo'nalishlari paydo bo'lmoqda. Psixolingvistika, neyrolingvistika, matematik lingvistika, sotsiolingvistika, areal lingvistika kabi yangi fan tarmoqlari paydo bo'ldi. Bular ichidan e'tiborimizni sotsiolingvistika fani o'ziga tortadi.

Odamlar hayotda ularning kasb-korlari, qiziqishlari, ma'lumotlari bilan alohida sinflarni, toifalarni tashkil qiladilar. Mazkur guruhlar ichida faqat ularning o'zigagina tegishli bo'lgan, tor doirada ishlatiluvchi so'zlar qatlami yuzaga kelgan. Shu bilan birgalikda barcha qatlamlarda birdek ishlatiladigan so'zlar ham tilimizda ko'plab uchraydi. Shular asosida o'zbek tilida ishlatiladigan so'zlarni iste'mol doirasiga ko'ra teng ikki guruhga bo'lish mumkin:

3. Iste'mol doirasi chegaralanga leksika.
4. Iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika.

Ma'nosi hammaga tushunarli bo'lgan, iste'molchilar, ya'ni til sohiblari tomonidan tez-tez qo'llanilib turuvchi so'zlarga umumxalq iste'molidagi so'zlar deyiladi. Ular neytral leksika deb ham yuritiladi. Umumxalq ishlatiladigan so'zlarda aniqlik va lo'ndalik, adabiy tilga xoslik, hududiy va sohalararo cheklanmaganlik kabi xususiyatlar bo'ladi. Masalan, daryo, suv, tog', quyosh, bosh, mard, saxiy, gulladi, kelmoq, uch, men, bor, hamma, u kabi so'zlarning ma'nosi hammaga tushunarli. Ularga har kuni duch kelamiz. Kundalik hayotimizda mazkur so'zlarni faol ishlatamiz. Chetlangan leksika neytral leksikaga qarama-qarshi qo'yiladi. Ularda hududiy cheklanganlik, semantik o'ziga xoslik, funksional jihatdan chetlanganlik singari xususiyatlar mavjud bo'ladi. Chetlangan leksikaga, navbatida, bir qancha turlarga ajralib ketadi:

1.Terminologik leksika: asab, raviy, tirraq tovush, sonet, to'qmoq (adabiyotshunoslikka oid atamalar).Har bir fan tarmog'ining o'z atamalari mavjud bo'ladi.

2. Professional leksika (kasb-hunarga oid soʻzlar): suv, zanjir, kizak, pilta, xizjak (dunyoqulchilik atamallari)

3. Dialektal leksika (shevaga xos soʻzlar): adabiy — orfografik shakli; tupik (Namangan), qalpoq (Samarqand-Buxoro), qallapush (Qashqadaryo), taka (Xorazm)

4. Argo va jargonlar: xit, ment, xitlamoq, loj, yakaj (uygʻurlar tilida)

Umuman olganda, soʻzlarni isteʼmol doirasiga koʻra ikkiga ajratish, yaʼni **neytral leksika** va **chegaralangan leksika** sifatida talqin etishning ilmiy amaliy asoslari mavjud. Maʼlum boʻlishicha, yer yuzida 500 ga yaqin fan tarmogʻi mavjud boʻlib, faqat shu sohalarigina ishlatiladigan maxsus soʻz va soʻz birikmalari mavjud boʻladi. Fanda ularni **atama** (termin) deb qaraladi. Ilm-fan, texnika, sanʼat sohasida ishlatiladigan bir maʼnoli soʻzlarga **termin (atama)** deyiladi. Atamalar bilan shugʻullanuvchi tilshunoslikning boʻlimiga **terminologiya** deyiladi. "Terminlar maxsus leksikaga kiradi",- degan qarashlar ham mavjud. Terminlarni isteʼmol doirasiga koʻra ikkita guruhga boʻlish mumkin:

1. Umumxalq ishlatiladigan atamalar.

2. Maʼlum bir fan sohasidagina tor doirada ishlatiladigan soʻzlar.

Masalan, tibbiyot atamallari ichida hammaga tushunarli boʻlgan vrach, jarroh, dori, bemor, ukol singari soʻzlar yuritgan holda, faqat vrachlarning nomini anglatuvchi **neyrolot, urolog, okulist, onkolog, travmatolog** kabi atamalar ham uchraydi. Shunday atamalar ham boʻladiki, ularni faqat shu soha vakillarigina tushunadilar. Ularni ishlatish, qoʻllash uchun maxsus fan tayyorgarligi talab etiladi. Misol uchun **fonema, grafika, grammatika, leksika** atamalarini har bir tilchi tushunarkan, qolda **zarfemizm, disfemizm, sintagma, referent, pragmatika, sintagmatika, paradigmatica** kabi lingvistik atamalar. Atamalar ikki xil yoʻl bilan yasaladi:

1. Ichki imkoniyatlar asosida: eidiyat, makon, zamon, sichqoncha, texnikus kabi. Ular ichida soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida hosil qilingan leksemalar ham uchraydi: gulxayrixohlar, ugituvchilar, ayrigʻullilar, kemasoz, kompyuteroʻrgatuvchi kabi.

2. Tashqi imkoniyat. Bu usul bilan atamalar yasalganida boshqa tillardan soʻz oʻzlashtiriladi: yadroviy, neytron, institut, kollej, bakalavr, magistr, mikroblar kabi. Ular ichida ultra, mikro, anti, avia bilan yasalgan atamalar uchraydi: Antibiotik, mikroriyem, ultrafiltr, antioksidlovchi singari.

Bugunga kelib atamashunoslik oʻzbek tilining eng dolzarb muammosiga aylangani, oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, tilimizning boshqa tillar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri kontaktga kirishishi tilimizga minglab yangi atamalarning kirib

kelishiga sabab bo'lmogda. Masalan: monitoring, marketing, injiniring, menejer kabi. Bu atamalarining aksariyati iqtisodiyot sohasiga taalluqlidir. Termin (atama) da quyidagi xususiyatlar mavjud bo'lishi darkor:

6. Atama (termin) aniq, konkret tushunarli ifodalamoq kerak: uzun, ot, sifat, son, olmosh, fe'l kabi (tilshunoslik atamaları).
7. Atama (termin) lar emotsional – ekspressivlikdan, uslubiyl badiiylkdan xoli bo'lishlari lozim: kislorod, vodorod, azot, simob, ishqor, kukun kabi.
8. Termin nominativ (atash) vazifasini bajaradi: bosim, tezlik, birikma, aylana, qisqaranish, ko'paytirish singari.
9. Termin bir ma'noga ega bo'ladi: uglevodlar, sudraluvchilar, mikroorganizmlar, ultrabinafsha nurlar va hokazo.
10. Atamalar ma'lum bir soha vakillari tomonidan rasmiylashtirilgan va me'yoriyl qoliplarga solingan bo'ladi. Misol uchun: richag, kvant, anod, optika, magnit maydoni kabi.

O'zbek tilining leksik qatlamida kasbiyl so'zlar — professionalizmlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Ular tilning tarixiyl taraqqiyloti, ijtimoiyl-siylosiyl hayoti, xalq xo'jaligining rivoji bilan chambarchas bog'liql holda shakllanadi va amaliyl nutqda muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Atamalar maxsus fan sohalariga oid bo'lib, aniq me'yorlashtirilgan, izchil tushunchalarni ifodalashga xizmat qilsa, professionalizmlar esa tabiiyl ravishda, amaliylotga asoslangan holda vujudga keladi va ko'pincha muayyan kasb egalari doirasida ishlatiladi. Professional so'zlarning ma'lum darajada norasmiyligi va tor doiraligi ularning terminlardan farq qiluvchi asosiyl belgisidir. Shu bilan birga, bu so'zlar ham tilning boyishida, leksik imkoniyatlarining kengayishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qatlamni o'rganish o'zbek tilining tasniflanmagan leksik zaxiralarini aniqlash, ularni ilmiyl jihatdan izohlash va tilshunoslikka yangicha nazar bilan qarash imkonini beradi. Shuningdek, bu turdagi birliklarni lingvistik tadqiqot doirasiga jalb etish orqali o'zbek leksikasining boyliklarini yanada chuqurroql o'rganish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. U. Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992. 151–186-betlar.
2. Sh. Shoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1980. 124–127-betlar.
3. E. Begmatov. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: FAN, 1985. 126–130-betlar.

4. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: FAN, 1981. 142–158-betlar.

O'ZBEK TILIGA YANGI TRANSPORT ATAMALARINING KIRIB KELISHI

Abduraimova Nigora Shokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

2 - bosqich talabasi (kechki)

abduraimovanigora597@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'yidinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Ushbu maqola globallashtirish, urbanizatsiya va raqamlashtirish sharoitida o'zbek tiliga yangi transport atamalarining kiritilishini o'rganadi. Rus va ingliz tillaridan o'zlashtirib olish va ularni o'zbek tilining fonetik va orfografik me'yorlariga moslashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, milliy atamalarining o'rni, standartlashtirish jarayonlari, raqamli texnologiyalarning yangi transport lug'atini shakllantirishdagi ta'siri ham tahlil qilinadi. Maqolada transport terminologiyasining ijtimoiy-madaniy ahamiyati va uning zamonaviy o'zbek tili taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, transport terminlari, qarz olish, moslashtirish, milliy yozishmalar, standartlashtirish, terminologiya, globallashtirish, raqamlashtirish, urbanizatsiya, lug'at, elektron chipta, onlayn taksi bron qilish, mobil ilova, GPS navigatsiyasi, yo'lovchi poyezdi, shahar transporti.

Abstract: This paper examines the introduction of new transportation terms into the Uzbek language in the context of globalization, urbanization, and digitalization. Particular attention is paid to borrowings from Russian and English and their adaptation to the phonetic and orthographic norms of the Uzbek language. The role of national terms, standardization processes, and the influence of digital technologies on the formation of new transportation vocabulary are also analyzed. The article highlights the sociocultural significance of transportation terminology and its role in the development of the modern Uzbek language.

Keywords: Uzbek language, transportation terms, borrowing, adaptation, national correspondence, standardization, terminology, globalization, digitalization, urbanization, vocabulary, e-ticket, online taxi booking, mobile app, GPS navigation, passenger train, urban transportation.

Аннотация: В данной работе рассматривается процесс введения новых транспортных терминов в узбекский язык в условиях глобализации, урбанизации

и цифровизации. Особое внимание уделяется заимствованиям из русского и английского языков, их адаптации к фонетическим и орфографическим нормам узбекского языка. Анализируется также роль национальных терминов, процессы стандартизации и влияние цифровых технологий на формирование новой транспортной лексики. В статье подчеркивается социокультурное значение транспортной терминологии и ее роль в развитии современного узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, транспортные термины, заимствование, адаптация, национальные соответствия, стандартизация, терминология, глобализация, цифровизация, урбанизация, лексика, электронный билет, онлайн-заказ такси, мобильное приложение, GPS-навигация, пассажирский поезд, городской транспорт.

O'zbekiston transport infratuzilmasining rivojlanishi va uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, xususan, transport terminologiyasi leksikasining doimiy yangilanishiga olib kelmoqda. Bu jarayon murakkab va ko'p qirrali bo'lib, tilshunoslar va tarjima mutaxassislari uchun qiziqarli tadqiqot sohasini taqdim etadi. Bu leksik yangilanish bir qancha omillarning o'zaro ta'siriga asoslanadi: qarz olish, moslashish, milliy ekvivalentlarni yaratish, atamashunoslikni standartlashtirishda davlat organlarining faol o'rni mavjud.

O'zbek tilining transport terminlari bilan dastlabki boyishi, avvalambor, rus va ingliz tillaridan o'zlashtirish hisobiga sodir bo'ldi. "Avtobus", "metro", "tramvay", "taksi" kabi mumtoz misollar o'zbek tili me'yorlariga fonetik va orfografik moslashuvdan o'tib, kundalik nutqda mustahkam o'rin oldi³⁸[25-28 b.]. Shuni ta'kidlash kerakki, moslashish jarayoni har doim ham mexanik emas. Ba'zan o'zlashtirilgan so'z ma'nosining semantik kengayishi yoki torayishi o'zbek madaniyati va mentalitetining o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi. Qarz olish bilan bir qatorda milliy ekvivalentlar ham faol yaratilmoqda. "Yo'lovchi poyezdi" atamasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bunday neologizmlar lingvistik o'ziga xoslikni saqlashga yordam beradi va terminologik mustaqillik istagini aks ettiradi. Biroq amalda rus va o'zbek variantlari ko'pincha yonma-yon mavjud bo'lib, sinonimlarni keltirib chiqaradi va bir xil qo'llanish me'yorlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Leksik o'zgarishlarning ijtimoiy-madaniy jihati: bu jarayonda standartlashtirishning rolini ortiqcha baholash

³⁸ Х. Неъматов, Р. Расулов — *Ўзбек тили систем лексикологияси асослари*. Toshkent, "Ўқитувчи", 1995.

akbt.urspi.uz

qiyin³⁹[46-74 b.]. Rasmiy hujjatlar, darsliklar va ommaviy axborot vositalarida qo'llaniladigan yagona terminologiya bazasini ishlab chiqish va tasdiqlashda terminologiya komissiyalari va O'zbekiston Fanlar akademiyasi asosiy rol o'ynaydi. Bu ish nomuvofiqliklarni bartaraf etish va transport lug'atidan foydalanishda bir xillikni ta'minlashga qaratilgan⁴⁰[32-43 b.]. Raqamlashtirish transport lug'atining rivojlanishini sezilarli darajada o'zgartirdi. Onlayn taksi bron qilish xizmatlari, mobil chiptalarni sotish ilovalari va elektron to'lov tizimlarining paydo bo'lishi "elektron chipta" (elektron chipta), "onlayn buyurtma" (onlayn taksi bron qilish), "mobil ilova" (mobil ilova), "smart-soat" (sayohat haqini to'lash uchun mo'ljallangan aqlli soat), "mart-tobus bekatning" ("avtobus bekatining" tizimi) kabi yangi atamalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu atamalar nafaqat texnologik taraqqiyotni, balki O'zbekistonning kundalik hayotidagi o'zgarishlarni ham ko'rsatadi⁴¹[12-23 b.]. So'nggi yillarda, ayniqsa, "avtomobilni almashish", "tashishni taqsimlash" va "etkazib berish dronlari" kabi yangi texnologiyalar kontekstida anglikizmlardan moslashtirilmagan foydalanish tendentsiyasi ham kuzatildi. Bu yuqori texnologiyali sohada xalqaro muloqot tili sifatida ingliz tilining ta'siri ortib borayotganini ko'rsatadi⁴²[34-36 b.].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi o'zbek tilida transport lug'atining rivojlanishi ham tashqi ta'sirlarni, ham ichki lingvistik tendentsiyalarni o'zida aks ettiruvchi jadal va doimiy rivojlanib boruvchi jarayondir. Qarz olish, milliy ekvivalentlarni yaratish va standartlashtirish o'rtasidagi mutanosiblik o'zbek transport terminologiyasining kelajagini belgilab beradi, uning boy bo'lishiga va zamonaviy dunyo voqealig'larining munosib aks etishiga hissa qo'shadi. Ushbu sohada keyingi tadqiqotlar jadal texnologik taraqqiyot sharoitida til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X. Неъматов, Р. Расулов — Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Toshkent, "Ўқитувчи", 1995. akbt.urspi.uz
2. Xожиев А. — Ўзбек тили лексикологияси. Namangan davlat universiteti nashri, 1981. www.namdu.uz
3. К. М. Шайхова — Ўзбек тили. Tafakkur nashriyoti, 2010. [Китобхон](#)

³⁹ Xожиев А. — Ўзбек тили лексикологияси. Namangan davlat universiteti nashri, 1981. www.namdu.uz

⁴⁰ К. М. Шайхова — Ўзбек тили. Tafakkur nashriyoti, 2010. Китобхон

⁴¹ Жамоа — Ўзбек тилининг изоҳли луғат. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. АКВТ

⁴² Алибек Рустамов — Ўзбек тили жозибаси. "Фафур Фулом" nashriyoti, 2021. Китобхон

4. Жамоа — Ўзбек тилининг изоҳли луғат. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. [AKBT](#)
5. Алибек Рустамов — Ўзбек тили жозибаси. “Ғафур Ғулом” nashriyoti, 2021. [Китобхон](#)

O'ZBEK TILIGA ARAB TILIDAN KIRGAN O'ZLASHMA SO'ZLAR**Abdurahimova Muxlisa Ravshan qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola diniy leksikaning semantik, qiyosiy, diskursiv va tarixiy jihatlarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari diniy leksikaning nafaqat tilshunoslik, balki madaniy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham muhimligini ko'rsatdi. Semantik tahlil orqali diniy so'zlarning lug'aviy va kontekstual ma'nolari, shuningdek, ularning metaforik va ko'chma ma'nolari o'rganildi. Qiyosiy metod yordamida diniy leksikaning boshqa tillardagi ekvivalentlari tahlil qilindi, bu orqali madaniyatlararo farqlar va o'xshashliklar aniqlangan. Diskursiv tahlil diniy so'zlarning ijtimoiy-diskursiv funksiyalarini va jamiyatdagi o'rnini ochib berdi. Tarixiy metod esa diniy leksikaning rivojlanish jarayonini va uning madaniy kontekstdagi o'zgarishlarini o'rganishga imkon yaratdi. Shu orqali diniy leksika tilning rivojlanishida, madaniyatda va jamiyatda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Tadqiqot diniy so'zlarning lingvistik va madaniy xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi va kelajakda diniy leksikaning yanada kengroq o'rganilishini ta'minlash uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov, A. (2018). Diniy leksikaning uslubiy qo'llanilishi va sinonimik qatlamlari. Tashkent: Noshir.
2. Lyons, J. (1995). Semantics. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
4. Xolmurodov, M. (2021). Diniy leksikaning metaforik ma'nolari va madaniy tasvirlardagi aksi. Tashkent: Noshir.

ILMIY LEKSIKA VA UNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Asadullayeva Shahrizoda Sirojiddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

kechki 24/1- guruh talabasi

asadullayevashaxrizoda9@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots. Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy leksikaning mohiyati va uning semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Ilmiy uslubda qo'llaniladigan leksik birliklarning asosiy belgilari — terminologiklik, aniqlik, neytrallik va xalqaro xususiyat ekani asoslab berilgan. Shuningdek, ilmiy leksikaning semantik jihatlari, jumladan, bir ma'nolilik, sistemalilik, abstraktlik va aniq chegaralangan ma'no kabi xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ilmiy nutqning mantiqiy va izchil bo'lishida ilmiy leksikaning o'rni beqiyos ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ilmiy leksika, terminologiya, semantika, ilmiy uslub, monosemiya, abstraktlik, tizimlilik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность научной лексики, её лексический состав и семантические особенности. Основными характеристиками научных терминов являются логичность, однозначность, точность и денотативность. Также в статье анализируются проникновение научной лексики в общий язык, междотраслевые семантические различия и стабильность терминов.

Ключевые слова: научная лексика, семантика, термин, моносемия, денотативность, научный стиль, лингвистика.

Abstract. This article examines the nature of scientific vocabulary, its lexical composition, and semantic features. The key characteristics of scientific terms include logical consistency, monosemy, precision, and denotativeness. The paper also analyzes the integration of scientific vocabulary into general language, cross-disciplinary semantic differences, and the stability of terminology.

Keywords: scientific vocabulary, semantics, terminology, monosemy, denotativeness, scientific style, linguistics.

Til insoniyat tafakkurining asosiy vositasi bo'lib, u nafaqat kundalik muloqotni ta'minlaydi, balki ilmiy bilimlarni ifodalash, ularni tizimlashtirish va keng ommaga

yetkazishda ham muhim funksiyani bajaradi. Xususan, jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayoti va ilm-fan taraqqiyotida tilning o'rnini beqiyosdir. Bu jarayonda ilmiy uslub alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu uslub orqali ilmiy tafakkur shakllanadi, ilmiy g'oyalar bayon qilinadi va ular jamoatchilikka taqdim etiladi.

Ilmiy uslub — bu ilmiy axborotni ifodalashda qo'llaniladigan tilda mantiqiylik, aniqlik, xolislik, izchillik va obyektivlik kabi asosiy tamoyillarga tayanuvchi nutq shaklidir. U ilmiy faoliyatning barcha tarmoqlarida — maqola, dissertatsiya, hisobot, ilmiy risola, darslik va boshqa janrlarda qo'llaniladi. Ilmiy uslubning asosiy vazifasi — muayyan ilmiy fakt, hodisa yoki jarayonni aniq, mantiqiy asoslangan va tushunarli tarzda ifoda qilishdir. Shu bois, ilmiy matnlarda shaxsiy emotsiyalar, mavhumlik yoki mubolag'a kabi badiiy vositalar cheklangan bo'ladi. Ilmiy uslubning eng muhim belgilaridan biri bu — **ilmiy leksikaning** qo'llanilishidir. Ilmiy leksika — bu ma'lum bir fan sohasi vakillari o'rtasidagi tushunishni ta'minlaydigan atamalar (terminlar), ilmiy iboralar va maxsus so'z birikmalarining yig'indisidir. U o'zining terminologik aniqligi, mantiqiy izchilligi, stilistik neytralligi va ma'lumotga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Har bir fan sohasi o'ziga xos terminlarga ega bo'lib, ular fanlararo farqlilikni belgilaydi va ilmiy tafakkur aniqligini ta'minlaydi. Ilmiy leksikadan foydalanish, shuningdek, ilmiy uslubning **obyektivlik** tamoyiliga ham xizmat qiladi. Bunda muallif shaxsiy fikrini emas, balki ilmiy asoslangan dalil va faktlarga tayangan holda mulohaza yuritadi. Bu esa ilmiy nutqning asosiy talablari — **dalillilik, ishonchlilik va mantiqiylikni** ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy matnlar sintaktik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular odatda murakkab tuzilishga ega bo'lgan, mantiqiy aloqalar orqali bog'langan, ko'plikda ifodalangan jumladan tashkil topadi. Jumladagi mazmun tushunarli va aniqligi bilan ajralib turadi, ortiqcha bezakli ifodalardan yitiladi.

Ilm-fan taraqqiyoti, ilmiy fikrning rivojlanishi va jamiyatga yetkazilishi, eng avvalo, ilmiy uslubning mukammal shakllangan bo'lishiga bevosita bog'liq. Ilmiy uslub esa o'z navbatida aniq, izchil va terminologik jihatdan asoslangan ilmiy leksikaga tayangan holda shakllanadi. Shuning uchun tilshunoslikda ilmiy uslub va uning leksik xususiyatlarini o'rganish, zamonaviy ilmiy tafakkur taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Ilmiy leksika — bu ilmiy matn va nutqda qo'llaniladigan maxsus leksik birliklar tizimidir. U ilmiy faoliyatning turli yo'nalishlarida mavjud bo'lgan tushunchalarni aniqlik, mantiqiylik va izchillik asosida ifodalashga xizmat qiladi. Ilmiy leksika tarkibiga, asosan, terminlar, ilmiy iboralar, formulalar, qisqartmalar va boshqa maxsus atamalar kiradi. Ushbu birliklar ilmiy axborotni qisqa, aniq va tushunarli tarzda

ifodalash imkonini beradi. Ilmiy leksika umumxalq tilining tarkibiy qismi bo'lib, undan ajralmagan holda mavjud bo'ladi. Biroq u o'zining **mahsus semantik qatlamlari** va **cheklangan kommunikativ vazifalari** bilan ajralib turadi. Ya'ni, ilmiy leksikadagi so'zlar ko'pincha umumxalq tilida ham mavjud bo'lishi mumkin, biroq ilmiy kontekstdagi ma'nosi ancha toraygan, qat'iy belgilangan va mantiqan aniqlashtirilgan bo'ladi. Masalan, "modul", "funksiya", "molekula", "sintaksis", "interferensiya" kabi so'zlar har bir fan sohasida muayyan terminologik yuklama bilan qo'llaniladi. Shu bilan birga, ilmiy leksika doirasidagi atamalarning qo'llanishi **sohaga xos** bo'lib, ularning mazmuni ko'pincha faqat shu soha mutaxassislari uchun tushunarli bo'ladi. Bu holat ilmiy matnlarni yaratishda terminlarning aniqligini va bir ma'noliligini ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Chunki ilmiy muloqotda noaniq, ko'p ma'noli yoki mubolag'ali so'zlar qo'llanilishi ilmiy axborotning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Ilmiy leksikaga xos yana bir muhim jihat — u zamon bilan birga rivojlanib, boyib boradi. Yangi ilmiy kashfiyotlar, texnologik yutuqlar va fanlararo tadqiqotlar natijasida har yili minglab yangi terminlar paydo bo'lmoqda. Bu esa ilmiy leksikaning dinamik va o'zgaruvchan tizim ekanligini ko'rsatadi. Ilmiy leksikaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: Terminologiklik – ilmiy leksikaning asosini terminlar tashkil qiladi. Har bir termin muayyan ilmiy tushunchani ifodalaydi va boshqa ma'nolarga ko'chmaydi.

Aniqlik va qat'iylik – ilmiy so'zlar ko'pincha bir ma'noga ega bo'lib, kengaytirilgan yoki obrazli qo'llanishga yo'l qo'ymaydi.

Xalqaro xususiyat – ko'plab ilmiy atamalar lotin, yunon, ingliz yoki rus tillaridan kirib kelgan bo'lib, ularning global tushunarli ta'minlanadi. Masalan, atom, fizika, lingvistik kabi atamalar.

Neytrallik – ilmiy leksika hissiyot va subyektiv munosabatlardan holi bo'ladi. U faqat fakt, nazariya va ilmiy isbotlarga tayangan holda qo'llanadi.

Semantik xususiyatlari

Ilmiy leksikaning semantik tabiatini o'rganish ilmiy uslubning mantiqiylik darajasini aniqlashga yordam beradi. Uning asosiy semantik jihatlari:

Bir ma'nolilik (monosemiya) – terminlar ko'p ma'nolilikdan (polisemiya) xoli bo'lishga intiladi. Masalan, "molekula" atamasi faqat kimyoviy tushunchani bildiradi.

Sistemalilik – terminlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, "fonema – morfema – leksema – sema" tushunchalari lingvistik tizimda ketma-ketlik hosil qiladi.

Abstraktlik – ilmiy leksika ko'pincha umumlashtirilgan tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, "energiya", "modda", "jarayon".

Aniq chegaralangan ma'no – har bir ilmiy so'zning ma'nosi qat'iy belgilangan bo'lib, uni kontekstdan tashqarida ham tushunish mumkin.

Universal semantika – ko'plab terminlarning ma'nosi turli tillarda deyarli bir xil. Bu ilm-fanning xalqaro integratsiyasini ta'minlaydi.

Ilmiy leksika va uning semantik xususiyatlari ilmiy nutqning aniqligi, mantiqiyligi va izchilligini ta'minlaydi. U umumxalq tilining bir qismi bo'lsa-da, terminologik qatlam sifatida alohida o'rin egallaydi. Ilmiy leksikaning semantik jihatdan bir ma'nolilikka intilishi, sistemaliligi va xalqaro xususiyati uni boshqa uslubiy qatlamlardan ajratib turadi. Shu bois ilmiy leksikani o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki barcha fan sohalarida ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy leksika ilmiy uslubning asosiy va ajralmas komponentlaridan biri bo'lib, u ilmiy nutqning aniqligini, mantiqiyligini va mazmuniy chuqurligini ta'minlaydi. U umumxalq tiliga tayansa-da, o'zining terminologik xususiyatlari, cheklangan qo'llanish sohasi va qat'iy semantik yuklamasi bilan ajralib turadi. Shu sababli, ilmiy leksikani puxta egallash — samarali ilmiy muloqot olib borishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G'ulomov, A. (2015). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Oxford: Blackwell Publishing.
3. Lyons, J. (1995). Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Jumaboyeva, M. (2020). "Ilmiy uslub va uning lingvistik xususiyatlari." Filologiya masalalari jurnali, №2, 45–52.
5. Widdowson, H. G. (2007). Discourse Analysis. Oxford: Oxford University Press.

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA O'XSHATISHLAR**Joraboyeva Farangiz**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yonalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusufning hayoti, uning she'riyati, she'riyatida qo'llangan o'xshatishlari to'g'risida ma'lumot beriladi. Ta'kidlash lozimki, Muhammad Yusuf she'rlari bizni vatanni sevishtga, uni qadrlashga, insoniy tuyg'ularimizni oshirishga yordam beradi. Endi biz adibning she'ryatidagi, uning ijodidagi o'xshatishlar haqida gaplashamiz.

Kalit so'zlar: Muhammad Yusuf hayoti, she'rlari, o'xshatishlar, o'xshatishlarning talqini.

Abstract: This article provides information about Muhammad Yusuf's life, his poetry, and similes used in his poetry. It should be noted that Muhammad Yusuf's poems help us to love our homeland, to appreciate it, and to increase our human feelings. Now we will talk about similes in the poet's poetry and his work.

Key words: Muhammad Yusuf's life, poems (creativity), similes, interpretation of similes.

Аннотация: В этой статье представлена информация о жизни Мухаммада Юсуфа, его поэзии, а также сравнениях, использованных в его поэзии. Следует отметить, что стихи Мухаммада Юсуфа помогают нам любить свою Родину, ценить ее, приумножать свои человеческие чувства. Сейчас мы поговорим о сравнениях в поэзии поэта и его творчестве.

Ключевые слова: жизнь Мухаммада Юсуфа, стихи (творчество), сравнения, интерпретация сравнений.

O'zbek adabiyoti taraqqiyotida o'ziga xos ovozi, samimiy she'riyati bilan xalq qalbidan chuqur o'rin olgan shoirlardan biri-Muhammad Yusufdir. Uning she'rlari xalqono ruhi, sodda va ta'sirchan ifodasi, millilikka boyligi bilan ajralib turadi. Shoir o'z ijodida turli badiiy san'atlardan masalan o'xshatish san'atidan juda ko'p foydalangan.

O'xshatish- nutqda so'zlarning ta'sirchanligini oshuruvchi muhim vosita.

O'shatish-ikki narsa yoki hodisani biror belgi, xususiyat jihatdan o'xshash tarzda tasvirlash usulidir. U tilni va nutqni ta'sirchan qiladi. Nutqda o'xshatish san'ati inson tasavvurini boyitadi va badiiy tafakkurni kengaytiradi.

“Xavotir” sherida shoir:

Qo'rqaman, ertaga men olib ketsam,
 Qo'rqaman, ertaga men olib ketsam,
 Yotar bo'lsam qunga botib ko'zlarim,
 Ko'nglimni ko'chkiday bosadi bir g'am-
 Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

O'z she'rlarida shoir yuqorida keltirib o'tgan shunday fikrlarni ta'kidlagan edi. Ya'niy shoir “Ko'nglimni ko'chkiday bosadi bir g'am” satrlarni keltirib o'tgan. Xo'sh shoirning qanday dardi borki, uning ko'nglini kochki bossa? Shoirning dardi, u o'lganidan so'ng qizlarining ahvoli, ularning hayoti. Qizlari hali hayotni ko'rmagan, Uninga tashvishlarini yo bo'lmasa lazzatini totib ko'rmagan yosh qizlar.

Ular shu qadar yoshki, hatto otasi o'lganda yig'lashni ham bilmaydi, shu darajada yosh. Shoirning ko'nglini bosgan g'am o'zidan keyin qizlarining taqdiridir. Albatta, shoir she'riyatida shunga o'xshash o'xshatishlar talaygina. Bularning har birini ta'kidlashga esa, qalam ojizlik qiladi.

Bunga yana misol esa Muhammad Yusufning “Sevgi bamisoli” she'ridir. Mana o'sha she'r:

Sevgi bamisoli lolaqizg'aldoq,
 Teginmay bolmaydi, Tegsang to'kilar.
 Alvon bir gumbazning o'rtasi oppoq.
 Buni bir men- u kapalak bilar.

Aytingchi, sevgi, muhabbat deya yonmagan qalb bormi? Biz hayotimiz davomida muhabbatga chambarchas bog'liqimiz. Yana shoirning ushbu lirikasidagi o'xshatishlarga chuqurroq e'tibor beradigan bo'lsak, sevgini lolaqizg'aldoqqa o'xshatishiga guvoh bo'lamiz. Nega aynan qizg'aldoqqa? Tabiatan bu gulning tashqi ko'rinishiga e'tibor bersak, bu gulning bag'ri qora. Koplab adabyot vakillari insonning mashaqqatlari, yoki hijron azobida qiynalishlarida “bag'ri qonlik” sifatini keltirish bilan izohlashadi. Shunday ekan sevgi insonni har ko'yga soluvchi, uni otashin o'tga soluvchi hisdir. Buni nafaqat insonga bo'lgan muhabbatda, balki Allohga, Vatanga, Onaga bolgan muhabbatda ham ko'rishimiz mumkin. Zero, Nodira begim ta'kidlaganidek,

Muhabbatsiz kishi odam emasdur.

Gar odamsen muhabbat ixtiyor et .

O'zini odam deb bilgan inson borki unda muhabbat bor, sevgi bor, qalb bor. Shoir Muhammad Yusuf bu she'rida sevgini lolaqizg'aldoqqa o'xshatadi. Bilamizki lolaqizg'aldoq juda chiroyli, ammo o'ta nimjondir.

Qo'lingizga olishingiz bilan buni sezasiz, chunki u, uning barglari to'kiladi. Shoir ham sevgini lolaqizg'aldoqqa o'xshatib "teginmay bo'lmaydi, tegsang to'kilar" deb ta'kidlaydi. Sevgiga, muhabbat va ishqqa ham teginmay, yani ko'chasidan o'tmay bo'lmaydi, tegsang, ya'niki o'sha ko'chalardan o'tsang, yuraging yonmasdan, muhabbatning sinovlariga va qiyinchiliklariga bardosh bermasdan chiqib ketolmaysan.

Teginmay desang, yurak qo'ymaydi, teginay desang uning qiyinchiliklariga bardosh berishing kerak. Buni nomini sevgi, ishq, muhabbat deb qo'yibdilar. Bunga o'xshash shoirning she'rlari, she'rlaridagi o'xshatishlar talaygina.

Shoir o'z she'rlarida o'xshatishlarni juda tabiiy va xalqona tarzda qo'llaydi. Uning obrazlari oddiy odam hayotidan olingan bo'lib, ular o'quvchiga tez yetib boradi.

Tabiat manzaralarini o'xshatishda:

Muhammad Yusuf ko'pincha ona yurtni bahor, quyosh, gullar, daryo va qushlarga o'xshatib tasvirlaydi. Bu orqali u vatan go'zalligini ko'rsatadi va unda yashayotgan insonlarga g'urur bag'ishlaydi.

Ona obrazini o'xshatishda:

Shoir onani quyoshga, mehrni esa daryoga qiyoslaydi. Bu o'xshatishlar xalqningonaga bolgan chuqur hurmatini korsatadi.

Sevgi va insoniy tuyg'ularda:

U sevgini gulga, dardni yomg'ir yoki shamolga o'xshatib tasvirlaydi. Bunday o'xshatishlar she'rlarning ohangini kuchaytiradi.

O'xshatishlarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyati:

Muhammad Yusuf O'xshatishlardan faqat zavq berish uchun emas balki tarbiyaviy maqsadda ham foydalandi. U Vatan, Ona, Millar, Erkinlik tushunchalarini o'quvchi qalbiga singdirishda jonli obrazlardan juda ko'p foydalanadi. Natijada ularning she'rlari qimmatli bo'lib o'quvchi ko'ziga yaqqol tashlanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Muhammad Yusuf haqiqatdan ham o'ta istedodli, she'rlari bilan har bir insonning qalbiga kira oladigan va uni zabt etadigan shoirdir. Uning ijodidagi she'rlari, she'rlaridagi o'xshatishlar har bir Muhammad Yusufni tanigan, borinki tanimagan kitobxon uchun she'rni bir o'qishda tushuntiradigan usulda qo'llangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. - Toshkent, 2012.
2. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. - Toshkent, 2017.
3. Rasulov R, Mo'ydinov Q. Nutqmadaniyati va notiqlik san'ati. - Toshkent, 2015.
4. Rasulov R, Shovqorov A, Mo'ydinov Q. O'qtuvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'ati. - Toshkent, 2022
5. Sobirov A. O'zbek tili leksikasining sistema-struktur tadqiqi. - Toshkent, 2022
6. Sobirov A, Mo'minov S, Nabiyeva D, Mo'ydinov Q, Zokirova N. Nutqmadaniyati va notiqlik san'ati. 7-, 8-, 9-, 10-, 11-sinflar uchun darslik. - Toshkent, 2024

MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI

Xushvaqтова Gulsanam Abdimurat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

gulsanamxushvaqтова@15gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligining taraqqiy etish yo'llari, tilshunoslikni boyitish usullari haqida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, tilshunoslik, taraqqiyot, til siyosati, xalqaro aloqalar

АННОТАЦИЯ : В данной статье освещаются пути развития узбекского языкознания в период независимости а также методы обогащения лингвистики

Ключевые слова: узбекский язык, лингвистика, развитие языковая, политика международные отношения

ABSTRACT: this article highlights the ways in which Uzbek linguistics has developed during the independence period, as well as methods for enriching linguistics

Keywords: uzbek language, linguist, developer, language politician, international affairs specialist

Har qanday millat borki, u dunyoga millat sifatida tanilishi uchun, jahon bilan madaniy aloqaga kirishishi uchun, albatta, o'z tili bo'lishi kerak. Til rivoji uchun davlat siyosati va ishlohoti juda zarur hisoblanadi. Hech kimga sir emaski, rus islohoti davrida o'zbek tiliga yetarlicha e'tibor qaratilmadi. Til uchun ko'plab cheklovlar qo'yildi.

Ammo, 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi mamlakat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu davr nafaqat siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar uchun, balki madaniyat va til sohasida ham tub burilishlar davri bo'ldi. Mustaqillik o'zbek tilining jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamladi. 1989-yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. 1995-yil 21-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining davlat tili" haqidagi qonun o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamladi va davlat idoralarda, ta'lim, madaniyat, axborot va boshqa sohalarda uning qo'llanilishini tartibga soluvchi huquqiy asos yaratdi. O'zbek tili

nafaqat davlat tili maqomiga ega bo'ldi, balki ilmiy tadqiqotlar, ta'lim, ommaviy axborot vositalarida markaziy o'rin tutdi.

Tilga yangi atamalar kiritildi, ilm-fan va texnologiya sohalarida terminologiya yangilandi. Universitetlarda tilshunoslik fakultetlari kengaytirildi. Darsliklar, qo'llanmalar va ilmiy maqolalar nashr etildi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi nafaqat tarixiy ildizlarida balki zamonaviy talablar asosida rivojlanmoqda.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligida yangi ilmiy maktablar shakllandi. Taniqli olimlarimiz- A.Madvaliyev, N.Mahmudov, A.Jo'rayev, D.Hudoyberganova, B.O'rinboev va boshqa ko'plab tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlari milliy tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi.

Bu davrda:

O'zbek tili tarixi va qadimiy yozma yodgorliklar (Orxon-Enasoy bitiklari, qadimiy turkiy til manbalari) keng o'rganildi.

Til madaniyati va nutq madaniyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurauf Fitrat kabi allomalarimiz asarlari qayta nashr etildi. Tilshunoslikda Mahmud Qoshg'ariyning ``Devoni lug'atit turk``asari, Alisher Navoiyning ``Muhokamat ul-lug'atayin`` asari chuqur o'rganilib, yangi tadqiqotlar yaratildi.

Mustaqillik yillarida axborot texnologiyalarida ham ko'zga ko'rinarli rivojlanish paydo bo'ldi. Bu jarayon o'z navbatida tilshunoslikda yaratilishi mumkin bo'lgan qulayliklar eshigini ochdi. Axborot almashinuvi jarayoni jadal sur'atlarda o'sdi. Ya'ni o'zbek tili ham kompyuter tiliga aylandi, o'zbek tilida dasturlar yaratildi. Jumladan, o'zbek tili uchun klaviatura tizimlari, avtomatik tarjima dasturlari yaratildi. ``O'zbek WordNet``, ``O'zbek tilida matnni ovozga aylantirish dasturi`` kabi loyihalar ishlab chiqildi.

O'z navbatida xorijiy davlatlarda jumlada, Turkiya, AQSH, Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniyada o'zbek tiliga nisbatan qiziqishlar uyg'ona boshladi. Ularning o'rganishi qulay bo'lishi uchun elektron lug'atlar, tarjima dasturlari yaratilmoqda. O'zbek tili o'quv kurslari o'z faoliyatini olib bormoqda. O'zbekcha qiziqarli kitoblar nashr etilmoqda. O'zbekiston Milliy universiteti, Jahon tillari universiteti va boshqa oliygohlarda o'zbek tilini chet ellik talabalar ham o'rganmoqda.

Xorij kino studiyalarida o'zbekcha kinolar qo'yilib borilmoqda. Ular sahnalarida o'zbekcha qo'shiqlar ijro etilmoqda. Dramatik sahna ko'rinishlari qo'yib borilmoqda.

Mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonda tilshunoslik ilmiy markazlari faoliyati kengaytirildi. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbekiston Milliy universiteti va Milliy ilmiy-tadqiqot institutlarida tilshunoslik bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi. Yangi tadqiqot yo'nalishlari, jumladan, korpus tilshunosligi, kompyuter lingvistikasiga oid ishlar rivojlana boshladi.

Shuningdek, o'zbek tilining tarixiy va zamonaviy holatini o'rganish uchun xalqaro hamkorlik kengaydi. O'zbekistonning turli universitetlari va ilmiy muassasalari xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda seminarlar, anjumanlar va loyihalarni amalga oshirdi. Bu ilmiy almashuv tilshunoslik sohasidagi innovatsiyalarni mamlakatga olib kirishga imkon berdi.

O'z navbatida, o'zbek tilining izohli lug'atlari, imlo lug'atlari, sinonimlar lug'atlari, frazeologik lug'atlar, o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha lug'atlar, terminologik lug'atlar yaratildi. Bu lug'atlar o'zbek tilining leksik boyligini aks ettirish bilan birga, til madaniyatini oshirishga ham xizmat qildi.

O'zbek tilining grammatik qurilishi, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya kabi bo'limlar chuqur o'rganildi. O'zbek tilining grammatik kategoriyalari, uslubiy xususiyatlari yoritildi.

O'zbek tilining dialektlari va shevalari, toponimika [joy nomlari] va antroponimika [odam nomlari] kabi sohalar o'rganildi. O'zbekistonning turli hududlaridagi dialektik xususiyatlar, geografik nomlarning kelib chiqishi, shaxs nomlarining etimologiyasi yoritildi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunoslari tomonidan tilning mohiyati, tuzilishi, rivojlanish qonuniyatlari, nutq madaniyati, til va tafakkur munosabatlari kabi nazariy masalalar chuqur o'rganildi. Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlari, xususan, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter tilshunosligi kabi sohalar rivojlana boshladi.

O'zbek tilining turli sohalariga oid terminologik lug'atlar yaratildi. Ilm - fan, texnika, madaniyat, san'at, huquq, iqtisodiyot kabi sohalarining terminologik bazasi boyitildi. O'zbek terminologiyasining xalqaro terminologiyaga integratsiyalashuvi masalalari ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda Xalqaro miqyosda o'zbek tilining mavqei

O'zbek tili BMT, YUNESKO, kabi xalqaro tashkilotlarda tan olinmoqda.

Mustaqillik yillarida chet mamlakatlarda ham o'zbek tilini o'qitish markazilari ochildi.

O'zbek tilining lotin yozuviga o'tishi xalqaro aloqalarda qulaylik yaratdi.

Adabiy til me'yorlarini belgilash imlo qoidalarini yangilash ishlari olib borildi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bir ajoyib nutqini keltirmoqchiman: `` Hech qachon hech kimdan kam bo'lmagan xalqimizni buyuk kelajak kutmoqda. Bu kelajakni biz o'zbek tilisiz tasavvur qila olmaymiz`` deya ta'kidlab o'tgan.

Xullas, mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligi yangi bosqichga ko'tarildi . Ona tilimiz nafaqat milliy o'zlik timsoli, balki xalqimizning ma'naviy mustaqilligi va intellektual salohiyatini namoyon etuvchi asosiy qadriyatlardan biriga aylandi. Til bu millat yuragi uning abadiy ovozi va tarix bilan bog'lovchi ko'prigidir. Demakki, tilni asrash, millatni asrashdir. Zero, til bor ekan, millat ham uning ruhi ham boqiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –Toshkent; Fan , 1995
2. Q.Mo'ydinov, R Ikramov. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent – 2024.

HARBIY HARAKATLAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALARNI IFODALOVCHI TERMINLAR

Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Jizzax davlat pedagogika universiteti,

a.dilnoza1981@gmail.com

Annotatsiya. O'tmishda Markaziy Osiyo xalqlari — o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqalar o'zaro hamda tashqi dushmanlarga qarshi olib borgan urushlari haqida qator yozma manbalar yaratilgan. Ularning ko'pchiligi XIV — XV asrlarga mansub bo'lib (masalan, Mahmud ibn Ali as-Saroyiyning "Nahjul-Farodis", Alisher Navoiyning "Tarixi Muluki Ajam" hamda "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari), ularda harbiy faoliyat bilan aloqador voqealar tasvirlangan. Ushbu manbalarda harbiy ishlar va uning tarkibiy tuzilmalariga oid ko'plab atamalar uchraydi. Maqolada ana shu terminlarning kelib chiqishi va ma'nolari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: atama, terminologiya, harbiy terminlar, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, "Nahjul-farodis", "Tarxi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo".

Abstract. In the past, a number of written sources were created about the wars waged by the peoples of Central Asia - Uzbeks, Tajiks, Turkmens, Kyrgyz, Karakalpaks and others among themselves and against external enemies. Most of them date back to the 14th-15th centuries (for example, the works of Mahmud ibn Ali as-Sarayi "Nahjul-Farodis", Alisher Navoi's "Tarihi Muluki Ajam" and "Tarihi Anbiyo va Hukamo"), which describe events related to military activities. These sources contain many terms related to military affairs and its structural units. The article provides brief information about the origin and meaning of these terms.

Keywords: term, terminology, military terms, own stratum, assimilated stratum, "Nahjul-Farodis", "Tarihi Muluki Ajam", "Tarihi Anbiyyah and Hukamo".

Аннотация. В прошлом был создан ряд письменных источников о войнах, которые вели народы Центральной Азии – узбеки, таджики, туркмены, киргизы, каракалпаки и другие – между собой и против внешних врагов. Большинство из них датируется XIV–XV веками (например, труды Махмуда ибн Али ас-Сарайи «Нахджуль-Фародис», «Тарихи мулуки аджам» и «Тарихи анбийя и хукамо» Алишера Навои), в которых описываются события, связанные с военными

действиями. В этих источниках содержится множество терминов, относящихся к военному делу и его структурным подразделениям. В статье даются краткие сведения о происхождении и значении этих терминов.

Ключевые слова: термин, терминология, военные термины, собственная страта, ассимилированная страта, «Нахджуль-Фародис», «Тарихи мулуки Ажам», «Тарихи анбиё ва хукамо».

Qadimgi turkiy va eski o'zbek yozuvi davridagi harbiy atamalar o'zbek tilshunosligida maxsus o'rganilgan [3]. Quyida XIV asr turkiy nasrining namunasi bo'lgan Mahmud ibn Ali as-Saroyiyning "Nahjul-Farodis" (1357-1358) va Alisher Navoiyning "Tarixi Muluki Ajam" (1488) hamda "Tarixi anbiyo va hukamo" (1480) asarlarida qo'llangan harbiy terminlar xususida to'xtalamiz.

Mazkur yodnomalarda harbiy tushuncha bilan bog'liq bir qancha istilohlar qo'llangan. Yodnomalar matnida qo'llangan harbiy terminlar tubandagi semantik guruhlardan iborat:

1. *Harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi shaxs tushunchasini ifodalovchi terminlar.* Qo'shinda faoliyat ko'rsatuvchi, jang olib boruvchi oddiy askar hisoblanmish *nāvkār* o'zlashmasining «jangovar safdosh, jangchi navkar» ma'nosida ilk bor "O'g'uznoma"da ishlatilgani aniqlangan [5]. Eski o'zbek adabiy tili obidalarida faol qo'llangan terminlar sirasiga kiruvchi, hozirgi o'zbek adabiy tilida eskirgan ushbu mo'g'ulcha leksema "harbiy xizmatkor, askar" [10, 3, 7] ma'nosida "Tarixi muluki Ajam" matnida quyidagicha ifodalangan: ...*ul bir nāvkār oyli aṅa saltanat āyiniṅ iktisābini munāsibdur deb öz mirāxurliyini buyurdi* [9, 735a12]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ushbu termin eskirgan so'zlar sarasiga kiradi. Forscha-tojikcha *sipāh* istilohi "askar, qo'shin, lashkar" ma'nosida eski o'zbek tilida keng qo'llangan [8, 716a25]. Ushbu termin "qo'shin" ma'nosida XIX asrgacha qo'llanishda davom etgan bo'lib, Buxoro xonligida navkarlardan tashkil topgan nomuntazam qo'shin sifatida faoliyat ko'rsatgan [2, 36]. "Qo'shinning bosh qo'mondoni; asosiy boshqaruvchi shaxs" ma'nosi forscha-tojikcha *sipāhsālār* [18, 32] termini bilan ifodalangan [9, 730a25].

Harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi qarshi taraf ma'nosi asarlar matnida forscha-tojikcha *dušman* [9, 738a10] [1, 70:8], *aduv* [9, 738a22], *yanim* [9, 738a20], turkiycha *yāyi* [9, 734a16] terminlari yordamida ifodalangan. Eski o'zbek tilida "erkak, er; jasur jangchi" [11, 652] ma'nosida faol qo'llangan *erān* so'zi "Nahjul Farodis" asarida ham faol qo'llangan: *Emdi mundin yaxširaq yoq kim bizlar isti'dādi qilsaq taqī ol bizlarka kelmazdin burunraq biz anlarqa barsaq tep čerig isti'dādi qildilar, tört ming uruš erānlāridin āmāda qildilar* [1, 69;6]. «Urush vaqtida dushman qo'liga tushib,

ozodlikdan mahrum etilgan kishi» ma'nosidagi arabcha *asir* [10, I, 57] o'zlashmasi asarlarda ayni ma'noda qo'llangan [9, 737a15]. Eski o'zbek tilida otliq askarlar *atliq* // *atliy*, piyodalar esa turkiycha *yayay*//*yayaq* va forsha-tojikcha *piyāda* terminlari bilan yuritilgan [4, 16; 2, 11-37].

O'z qatlamga tegishli *atliy* termini «otlangan suvori» ma'nosida qo'llangan [9, 740b29]. *Yayaq* istilohi «piyoda jangchi» ma'nosidagi harbiy termin sifatida emas, balki «ulovsiz, yayov» ma'nosida qo'llangan [9, 733b6].

O'zbek tilshunosligidagi keng ko'lamdagi izlanishlar «qo'shin, lashkar» ma'nosini ifodalovchi *čerig* // *čerik* o'zlashmasining eski o'zbek adabiy tili obidalarida faol qo'llanishda bo'lganligini tasdiqlaydi [3, 7]. Ilk bor qadimgi turkiy runik bitiklar sirasiga kiruvchi «Kuli Chur» va «Mo'yun Chur» yodnomalarida ishlatilgan bu sankritcha (ksatrika) [7, 144] termin deyarli barcha manbalarda iste'mol qilinganligi bilan diqqatni tortadi [5, 29]. «Nahjul Farodis»da esa mazkur termin «buyuklik, ulug'vorlik» ma'nosidagi arabcha *azamat* so'zi bilan bog'lanib «qo'shinning kattaligi, qo'shinning ulug'vorligi» ma'nosida quyidagicha qo'llangan: *Qačan kim Payyambar alayhissalom bu čerigning azamatini kōrdi ersa, kōjlinga hoš keldi* [1, 70;17].

2. *Qurol-yarog' tushunchasini ifodalovchi leksemalar.* «Nahjul farodis» asarida «nayza» ma'nosini ifoda etgan *sūñū* (DTS, 517) termini *sančmaq* fe'liga bog'lanib quyidagicha ifodalangan: *Bu kāfirlar jūmlāsi qiličlarini čiqardilar, taqi qinlarini sindürdilär, taqi ot atmaqqa, sūñū sančmaqqa māšgöl bolmadin bir yoli qilič birla hamla qildilar* [1, 71;16]. «Urush-jang qurollari, qurol-yarog'» ma'nosidagi arabcha *aslaha* [10, I, 58] termini TMA matnida *sipāhiylik* so'zi bilan bog'lanib «urush-jang uchun kerakli qurol-yarog'lar majmui» ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilgan [9, 729b6]. Shuningdek, asarlar matnida o'tkir tig'li qurol nomini bildiruvchi o'z qatlamga tegishli «pichoq, hanjar» ma'nosidagi *pičaq* [12, II, 575]; «nayza» ma'nosidagi arabcha o'zlashmalar *habba* va *harba* [12, IV, 123-161]; qadimgi turkiy tilda faol ishlatilgan himoya vositasi (DTS, 413) «jangchining tanasini qilich, nayza va sh.k.tig'li qurollar zarbidan himoya qiluvchi moslama» ma'nosidagi [10, 5, 232] *qalqan*; «nayza, nayza uchi» ma'nosidagi *sinān* [12, III, 82] terminlari qo'llanilgan [9, 729b6]. TMAda qo'llangan «bir tig'li, g'ilof (qin) bilan yonga osiladigan, chopish, sanchish bilan yovga shikast yetkazadigan qurol» ma'nosidagi *qilič* [10, 5, 290] termini ko'chma ma'noda qo'llangan: *Ani qildi haq makri aylab sitez, Siyāsāt qiliči bilä rez-rez* [9, 729b17]. «Nahjul Farodis»da esa o'z ma'nosida tubandagidek ishlatilgan: *Abu Jahl 'alayhi'l-la'na aydi kim: Menim ra'yim ul turur kim tegme bir qabiladin bir yigit čiqsa taqi keča yatur yerinda barsalar, yaliñ qilič birla barčasini ursalar* [1, 19;15]. «Tosh otadigan

qadimiy urush quroli” ma’nosidagi *manjāniq* termini eski o‘zbek tili yodgorliklarida *manjaniq* // *manjāniq* fonetik variantlarida keng qo‘llangani aniqlangan [2, 24-59]. Ushbu istiloh asarlar matnida “manjaniq, palaxmon” ma’nosida kelgan [9, 740a16]. TAHDa “sovut, temir ko‘ylak, urush kiyimi” ma’nosi arabcha *zirh* [8, 719b27], “zirh ishlab chiqaruvchilik, sovut yasovchilik” ma’nosi *zirhgärlik* [8, 720a22] istilohlarida aks etgan. “Nahjul farodis”da “Qurol-aslaha” ma’nosidagi *silāh* termini *uruš erānlāri* birikmasi bilan bog‘lanib “qurol-aslahali urush jangchilari” ma’nosida quyidagicha qo‘llangan: ... *ön ikki miñ er erdilar; taqi ikki miñ er silahlig uruš erānlāri bar erdi* [1, 70;16].

3. *Harbiy harakatlar, usullarni ifodalovchi terminlar*. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan va «kechasi to‘satdan qilinadigan hujum; g‘orat, talon-taroj» ma’nosini ifodalovchi *šabixun* [12, III, 487] termini turkiycha *ur*= fe’li bilan birikib “qo‘qqisdan tunda hujum qilmoq” ma’nosini anglatgan [9, 738a15]. Ushbu termin Navoiy asarlarida qo‘llangan *hujum*, *hamla* va *tarid* istilohlari bilan ma’nodoshlik qatorini yuzaga chiqarsa-da, biroq aynan “tungi hujum” ma’nosi bilan ulardan farqlanadi.

Arabcha *musāliha* termini ikki qarshi taraf, ikki hukmdor o‘rtasidagi “kelishuv sulhi tuzish, yarashish” ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan [9, 742a3]. TMAda “urishuvchi tomonlar o‘rtasidagi yarashuv, yarash-yarash” ma’nosi arabcha *sulh* terminiga ham yuklatilgan [9, 739b27]. Ayni termin “Nahjul farodis” ham “tinchlik, kelishuv” [11, 306] ma’nosida faol qo‘llanishda bo‘lgan: *Payyāmbar ‘alayhis’s-salām sulhqa rāzi boldi...* [1, 45;11]. Mazkur ma’no turkiycha *yaraš* istilohi ko‘magida ham ifoda etilgan va ushbu turkiycha termin TMAda faol qo‘llangani bilan ajralib turadi [9, 742a4].

“Tarixi anbiyo va hukamo” matnida “toshbo‘ron, tosh yog‘dirish” ma’nosi forsha-tojikcha qo‘shma so‘z *sangbārān*, “o‘qqa tutish, o‘q yog‘dirish” ma’nosi esa *tirbārān* istilohi yordamida tubandagidek ifodalangan: *Soñra ani dārya asib, sangbārān va tirbārān qildilar, kār qilmadi va dāri ostiya ot yaqtilar, asar qilmadi* [8, 727b24].

«Qamal qilish, o‘rab olish, qurshab olish» ma’nosi arabcha *muhāsara* termini yordamida ifodalangan [9, 735b21]. *Halqa ur*= termini «atrofini o‘rab olmoq» ma’nosini anglatgan [9, 741b24].

4. *Harbiy inshootlar nomini bildiruvchi terminlar*. “Yer ostidagi zax va qorong‘u qamoqxona” ma’nosidagi *zindān* [10, I, 306] istilohi forsha-tojikcha o‘zlashma bo‘lib, eski turkiy tilda ham [7, 639] iste’molda bo‘lgan. Mazkur leksema “Tarixi muluki Ajam”da ham ayni ma’noda qo‘llangan [9, 736a12]. Tahlil etilayotgan termin

asarlarda arabcha *hibs* o'zlashmasining ma'nodoshi sifatida voqelangan [9, 731a29]. "Dushman hujumiga qarshi mustahkam devor va xandaq bilan o'ralgan, mudofaa vositalari, istehkomlar bilan ta'minlangan shahar" ma'nosidagi arabcha *qal'a* termini [10, 5, 231] ning *qilā* ko'plik shakli "Tarixi muluki Ajam" matnida *hasanat* so'zi bilan bog'lanib, "mustahkam qal'alar, istehkomlar" ma'nosida istifoda etilgan: ...*Afrāsiyāb qilāi hasanatīdīn iliklāy almadi* [9, 730b11]. "O'rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o'rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar qal'a" hamda "qal'a, shahar, qo'rg'on va sh.k.larni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor" ma'nosini ifodalovchi turkiycha *qor'yan* [10,5, 416] istilohi asarlar matnida "qo'rg'on, qal'a" ma'nosida qo'llangan [8, 708a10]. Arabcha *hisār* termini esa "tog'li hududlarda barpo etiladigan mustahkam qal'a, istehkom, qo'rg'on" ma'nosini bildirgan [9, 741b2]. Forscha-tojikcha *darband* [9, 739b29] terminining eski o'zbek adabiy tilida "istehkom, qal'a" ma'nosida qo'llanishda bo'lgani aniqlangan [2, 65]. Forscha-tojikcha "chuqur o'ra" ma'nosidagi *čāh* [10, 4, 513] termini asarlar matnida "chuqur, tubsiz chuqurlik" ma'nosida [12, III, 480] kelgan [9, 733a26]. Ushbu termin asarlar matnida "quduq" ma'nosini ham ifodalagan: *Va hamul ućurda ul čāh bašīnda bir karvān tušub, čāhya dalv salīb, anda birāv bar ekānīn bilib, Yusuf a.s.ni čāhdīn čiqardīlar* [8, 711a8,9]. Shuningdek, "minora, oqchilar minorasi" ma'nosi *minār* [9, 729b10] istilohi yordamida ifodalangan.

5. *Harbiy harakatlar bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar*. TMA leksikasida harbiy harakatlar bilan bog'liq tushunchani ifodalovchi terminlar o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, *azimat qil*= [9, 730b7] "qo'shin tortib bormoq, yurish qilmoq" [12, I, 57]; *buz*= [9, 730b3] "tor-mor qilmoq, yengmoq, g'alaba qozonmoq" ma'nosida istifoda etilgan. Turkiycha *yaray qil*= [8, 712b2] fe'li "harbiy harakatlarga, jangga hozirlik ko'rmoq" ma'nosini ifodalagan. Shuningdek, asar matnida "asirga olmoq, bandi qilmoq" ma'nosi *asir qil*= [9, 731b20], *band qil*= [9, 732b24]; "zabt etmoq, egallamoq, qo'lga olmoq" (shahar yoki mamlakatni) ma'nosi *zabt qil*= [9, 732b24], *fath ayla*= [9, 733b24]; "yengmoq, g'alaba qozonmoq, tor-mor qilmoq" ma'nosi *bas*= [9, 740b9], *buz*= [9, 730b3]; qo'shin tortmoq" ma'nosi *sipāh tart*= [8, 718a22], "qo'shin to'plamoq" ma'nosi *sipah yasa*= [9, 737a17], *čerik yasa*= [9, 740b8]; "jang maydonida saf tortmoq, qo'shinni urushga shaylamoq" ma'nosi *masāf tüz*= [9, 730b20], "jang qilmoq, urushmoq" ma'nosi *uruš*= [8, 716b20], *masāf qil*= [9, 737a10], *razm qil*= [9, 730b20]; "yengilmoq, mag'lub bo'lmoq" ma'nosi *šikast tap*= [9, 731a28,29]; "yengmoq, g'alaba qozonmoq" *yalaba qil*= [1, 69;14]; "zabt etmoq, egallamoq" [11, 466] ma'nosi *fath qil*= [1, 111;9] kabi qo'shma fe'llar yordamida

ifodalangan. “Din yoki mazhab yo‘lida va boshqa ayrim (hadislarda belgilangan) holatlarda halok bo‘lish” ma’nosi “Nahjul farodis”da *šāhid bol*= qo‘shma fe’li yordamida anglatilgan [1, 71;17]. “Din yo‘lida qilinadigan urush, jang; musulmonlarning muqaddas urushi” ma’nosi *yazāt* termini orqali [1, 6;14], shu maqsadda qilinadigan urush esa *yazāt qil*= qo‘shma fe’li orqali ifoda etilgan [1, 6;14]. “Jang, kurash va shu kabilarda kuch bilan olg‘a tashlanish, hujum” ma’nosi *hamla qil*= fe’li yordamida ifoda etilgan [1, 69;14].

Asarlar matnida harbiy sohaga oid tushunchalarni o‘zida mujassam etgan yana quyidagi terminlar mavjud: “urush, jang” ma’nosidagi *toquš* (DTS, 577] termini “Nahjul farodis”da bir necha o‘rinda qo‘llangan, jumladan, Islom tarixida nom qozongan, musulmonlar va Quraysh makkaliklari o‘rtasidagi ilk jang bo‘lmish “Badr jangi” quyidagicha esga olinadi: ... *ol sahābalar kim Badr toqušunda Payyāmbar alayhissalām hazratinda kim yazāt qildilar, anlar burun kirsunlar...* [1, 110;16]. Shuningdek, 625-yilda musulmonlarning makkaliklar bilan bo‘lgan jangi haqida so‘z ketadi, bu jang “Uhud toquši” sifatida tilga olinadi: ... *Aydī: Uhud toqušinda yazāt qilgan sahābalar kirsün...* [1, 110;2]. “Urush mahalida qo‘lga kiritilgan o‘ljalar” ma’nosi arabcha *yanāyim* [8, 717b29] istilohi yordamida ifodalangan. “Mudofaa, panoh” ma’nosi arabcha *himāyat* [12, IV, 181] termini orqali anglashilgan [9, 729a26]. Shuningdek, *nāvkārlīy* [9, 740b5] termini “navkarlik, askarlik” *sipāhiylīy aslahasī* [9, 729b6] birikmasi “harbiylik, askarlik qurol-yarog‘lari”; *sipāhsālārīy* [9, 731a9] istilohi “bosh qo‘mondonlik, lashkarboshilik lovozimi”; turkiycha *yürüş* [9, 732b11] “yurish, harbiy yurish” [12, III, 585]; *uruš* [9, 732b14] “urush, jang” ma’nosida qo‘llangan. “Yordam uchun yuborilgan harbiy kuchlar” ma’nosi arabcha *madad* [9, 732a12] hamda turkiycha *kōmak* [9, 739a28] terminlari orqali ifodalangan. “Boburnoma” matnida esa *madad* va *kōmāk* leksemalari “yordamchi harbiy qism” ma’nosida qo‘llangan [2, 45].

TMAda harbiy ishora maqsadida qo‘llangan vosita nomlari bo‘lgan arabcha *alam* [9, 730a5], *livā* [9, 742b5] hamda forsha-tojikcha *darafš* [9, 730a10] istilohlari «bayroq, tug‘, yalov» ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, XIV-XV asrlar yozma yodgorliklari tilida harbiy harakatlarda ishtirok etuvchi shaxs, qurol-yarog‘, harbiy usullar kabi tushunchalarni ifodalovchi, harbiy inshootlar nomini bildiruvchi bir qancha istilohlar qo‘llangan bo‘lib, yuqorida nomlari zikr etilgan asarlardan “Tarixi muluki Ajam” asari leksikasi harbiy soha bilan bog‘liq o‘z va o‘zlashgan qatlamga mansub terminlarning

faol qo'llangani bilan xarakterlidir. "Nahjul-farodis" asarida esa muallif asosan o'z qatla mga oid harbiy soha terminlaridan istifoda etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nehjul fradis. I. Tipkibasim. Önsözün jazan Jānas Eckmann. Ankara, 1956. S. 458.
2. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблема лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990.
3. Дадабаев Х.А. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981;
4. Дадабоев Х. Қадимги туркий ёдгорликлардаги атамалар ҳақида // Адабий мерос. – Тошкент, 1998. – №1–2. – Б. 16;
5. Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.42.
6. Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – 237 б.
7. Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – 675 с.
8. Навоий куллиёти, Сулаймония кутубхонаси, Фотиҳ фонди, Истанбул, № 4056 инвентарь рақамли қўлёзманинг электрон микрофильми, Китоби таворихи анбиё [8]. – Б. 705а-728 б.
9. Навоий куллиёти, Сулаймония кутубхонаси, Фотиҳ фонди, Истанбул, № 4056 инвентарь рақамли қўлёзманинг электрон микрофильми, Китоби таворихи мулук (ТМА]. – Б. 729а-743б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006. – 680 б; 2-жилд, 2007. – 688 б; 3-жилд, 2007. – 688 б; 4-жилд, 2008. – 606 б; 5-жилд, 2008. – 592б. Фазылов Э. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Том I, II. – Т., Фан, 1966-1971.
11. Фозилов Э. (тахрири остида) Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, I-IV. – Тошкент: Фан, 1983-1985. I – 1983, 646 б; II – 1983, 642 б; III – 1984, 622 б; IV – 1985, 636 б.

“ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ”ДА БОШҚАРУВ МАДАНИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ.

Шоназаров Жамшид Шухратович

фалсафа фанлари номзоди, доцент.

Аннотация: Мазкур мақолада Соҳибқирон Амир Темур давлат бошқарувидаги ўзига хусусиятлари Темур томонидан яратилган “Темур тузуклари”да келтирилган давлат бошқаруви, бошқарув маданияти ҳамда давлат хизматчиларининг маънавий-ахлоқий қиёфасига доир фикрлао тадқиқ қилингвн.

Калит сўзлар: Амир Темур, Темур тузуклари, давлат бошқаруви, бошқарув маданияти, давлат, ҳукмдор, ҳукмдор мавқеи, салтанат, адолат, қонун, машварат, ҳокимият, раҳбар, раҳбар ахлоқи, шариат.

Annotation: in this article, Sahibqiron Amir Temur is presented in the “Temur structures”, which are the features of the State Administration of Temur, study the thought of the culture of Public Administration, Management and the spiritual and moral image of civil servants.

Keywords: Amir Temur, Temur formation, Public Administration, Management Culture, state, ruler, ruler position, Kingdom, Justice, Law, Exercise, Authority, leader, Leadership Ethics, Sharia.

Аннотация: в данной статье Сахибқирон Амир Темур представлен в разделе “Структуры Темура”, в котором рассматриваются особенности государственного управления Темура, изучаются представления о культуре государственного управления, менеджменте и духовно-нравственном облике государственных служащих.

Ключевые слова: Амир Темур, формирование Темура, Государственное управление, Культура управления, государство, правитель, положение правителя, Королевство, Правосудие, Закон, Осуществление, Авторитет, лидер, Этика лидерства, Шариат.

«Темур тузуклари» XIV-XV асрларда 27 Осиё давлатини ўзида бирлаштирган Амир Темур империяси ва унинг авлодлари томонидан тузилган давлатларнинг бош қомуси сифатида хизмат қилган эди. Ушбу асар ўз даври учун ғоятда мукамал бўлган қонунлар ҳамда қатъий маъмурий қоидалар, давлат

бошқаруви ва кадрлар масаласи бўйича дастуриламал вазифасини ўтаган. «Тузуқлар» ўша давргача бошқарув ва раҳбаршунослик масаласида тўпланиб, сараланиб, давр бошқарув [тажрибасида кенг фойдаланилган](#), шунингдек, Амир Темур давлатида бевосита унинг амалиётидан ўтган билимлар мажмуаси ҳамдир. Темур қўл остидаги раҳбарларида ёки раҳбарликка тайинлаётган кадрларида бир қатор шахсий хусусиятлар бор-йўқлигини текшириш ўзи учун одатга айланганлигини таъкидлаб, бу хусусиятлардан қуйидаги баъзилари доимий назоратида бўлганлигини “Тузуқлар”да кўп ўринларда алоҳида қайд этади:

Биринчиси, Адолат. Темур уни ўз давлатининг муҳрида ҳам қайд этиб, раҳбарнинг энг муҳим фазилати сифатида қўл остидаги кадрлардан доимий равишда талаб қилади. Ҳар бир раҳбар фаолиятини аввало адолат нуқтаи назаридан таҳлил қилар экан, шахсларни лавозимга тайинлашда асосий талаблардан бири сифатида доим эътиборда тутати. Адолатни Темур икки маънода талқин этади. Биринчиси сўздаги адолат, яъни ҳақиқат маъносида келиб, бошқарув тизимидаги шахсларнинг ҳақиқатгўйлигидир. Раҳбар воқеа-ҳодисани таҳлил қилиш, ахборот олиш ва бериш, ҳар қандай вазиятни муҳокама қилишда адолат - яъни ҳақиқат принципида туриши керак. Бошқарув тизимидаги ишончга киритилган битта ёлғон ўнлаб тадбирларнинг нотўғри жорий этилишига олиб келади. [Иккинчиси ишдаги адолат](#), кўриладиган ҳар бир тадбирни адолат юзасидан, яъни тўғри амалга оширишни таъминлаш.

Иккинчиси, Ишонч-эътиқод. Темур раҳбардаги бу хусусиятга алоҳида эътибор қаратиб, бошқарувда унинг аҳамияти жуда катта эканлигини таъкидлаган. Темур *ишонч-эътиқод* деганда, биринчи навбатда диний эътиқод ва ундаги покликни назарда тутати. Ўз даврида у давлат ҳудудида мавжуд бўлган ислом динидаги турли бидъатчи гуруҳлар ва тўдаларга барҳам берганди ва ислом уламолари белгилаб берган шариат қонунларини мусулмон фуқаролик тартиб-интизоми қонунлари сифатида жорий этганди. Темурнинг бундан кўзлаган мақсади барча мусулмонларнинг қон-қонига сингиб кетган диний эътиқодга мансуб қонун-қоидалар, ижтимоий турмуш тарзи, тартиб-интизом - шариатнинг дунёвий бошқарув тизимига жорий этилиши ва шу бошқарув тизими томонидан назорат қилиниши орқали дунёвий раҳбар ва давлат обрўсини мустаҳкамлаш ва уларга бўлган ишончни ошириш, яъни динга ишончни давлатга ишончга айлантиришга эришиш эди. Темур уламолардан бирини садр (диний вазир)ликка тайинлаб барча диний лавозимлар ва ишларни тақсимлаш назорат қилишни унга

топширади. Ҳар бир шаҳар, вилоят, туманда эътиқод ишлари билан шуғулланувчи қози, муфти, мутавалли, мухтасиб лавозимларини амалга жорий этади ва уларнинг аниқ ҳаракат доирасини белгилаб беради. Улар тўғрисида эса шайхулислом ва садр, шунингдек, шаҳар, вилоят, туман ҳокимлари, амирлари, махсус хизмат вакиллари (хабарчи ва жосуслар) орқали мунтазам маълумот олиб туради. Темур бу масалалар тўғрисида тўла ва ишончли маълумот олиш учун ҳар бир вилоятга алоҳида адолат амири ҳам тайинлаган, бундан ташқари армия қозиси, ҳарбий суд, фуқаро қозиси алоҳида иш олиб борган. Дунёвий бошқарув диний қонунлар ҳамкорлигида амалга оширилган ўша замонларда ҳар икки соҳада ҳам билимли ва ишончли раҳбарларга эҳтиёж катта эди. Аксари ички бошқарув раҳбарлари диний вакиллардан танланган. Чунки улар давлатга фуқароларнинг давлат тузумига нисбатан кайфиятлари ҳақида ҳам тўғри хабар бера олганлар.

Темур қўл остидаги ҳар бир раҳбарда ўзига нисбатан ишонч уйғотишга интилганини ҳам тез-тез таъкидлайди. Айни вақтда ҳар бир раҳбардан ҳам шундай ишонч талаб қилади. Қайси раҳбар унинг олдида паноҳ истаб келган бўлса, унга иқтидорига яраша иш бериб таъминот тайин этган ва оқибатда бу одам душман бўлса ҳам дўстга айланган. Лекин Темурга душман бўлса-да, адолатли, лаёқатли ҳукмдорлар қўл остидан қочиб келган раҳбарларни ўзига душман деб билади. Темур ишонч-эътиқодни тинчлик ва фаровонлик гарови сифатида қадрлаган.

Учинчидан, билимпарварлик ва бинокорлик Темурнинг раҳбар кадрларга қўйган навбатдаги талаби бўлиб, унинг фикрича қандай турдаги раҳбарлик бўлишидан қатъий назар раҳбарликка интилувчиларнинг шундай хусусиятлари бор-йўқлигини билишга интилган. У шон-шараф фақат жанглардаги қаҳрамонликлар билан эмас, шаҳарларни обод қилиш воситасида ҳам таралишини, шунингдек, масжид, мадрасалар, хонақо, мусофирхоналар, работ ва шифохоналар, канал ва кўприклар, шунга ўхшаш бошқа иншоотларга халқнинг ҳам давлатнинг ҳам эҳтиёжи бўлишини, гарчи улардан давлатга нисбатан кўпроқ халқ фойдаланса-да, лекин буларнинг қурилишини давлат ўз зиммасига олмоғи кераклиги, бу ишда эса бошқарув тизими раҳбарларининг қизиқишлари катта аҳамиятга эгалигини таъкидлайди. Темур «... ҳар бир шаҳарга олимлар ва мударрислар тайин қилганлигини» ёзади. Шунингдек, “Тузуқлар”да кўп ўринларда қайд этиладики, Темур илм-фан вакилларига яхши муносабатда бўлган. Улардан давлат ва жамият бошқарувида ўз ўрнида фойдаланган,

эътибордан четда қолдирмай доимий равишда давлат хазинасидан рағбатлантириб борган.

Темурнинг фикрича, билимли-тадбирли бири киши билимсиз минг кишининг ёки бутун бир лашкарнинг ишини ҳал этиши мумкин. Шунинг учун раҳбар бир эмас бир қанча билимларда иқтидорли бўлмоғи керак (15). Раҳбар бинокор бўлса у ерда халқ, жамият тўпланади, раият харобаликдан қочади ва бундай жой обод бўлмай қолмайди. Раҳбар билимпарвар бўлмаса у ердан илм аҳли кетади. Илм аҳли халқнинг йўналтирувчиси бўлиб, раҳбар уларга эътиборли бўлмаса, тез орада илм аҳли таъсирида халқ норозилигига учрайди. Темур барча ишларни “Тузуқлар” асосида бажаришга интилганини бир неча бор таъкидлайди. Аммо юқорида қайд этилган бош принциплар шу ҳолатда тузуқ бўла олмайди. Темур шунинг учун ҳам уларни ўзининг шиори деб билганди. “Темур тузуқлари”дан жой олган барча қонунлар ана шу бош принциплар асосида ишлаб чиқилган. Фарқи шундаки, бош принципларда Темур бошқарув тамойиллари ва йўналишларини белгилаб олади, тузуқларда эса ҳар бир соҳага оид умумий қонунларни низомлар тарзида ажратиб кўрсатади. Сиёсий жараёнлар доимий ўзгарувчан бўлгани сабабли унга мувофиқ қарор қабул қилиш ҳам шундай хусусият касб этади. Оқибатда давлат ва жамият қонунларида тез-тез янги моддаларни жорий этишга эҳтиёж туғилади. Аммо янги жорий этилган қонунлар ўзаро яқин бўлган қонунларга мувофиқлаштирилиб, яъни бошқа қонунлар аҳамиятини йўқотмаслиги таъминланади. Шу жиҳатдан олиб қараганда Темур раҳбаршунослигидаги ушбу бош принциплар давлат бошқарувида ўзига хос конституция вазифасини бажаради. Демак таянч хусусиятлар Темур раҳбаршунослигида бошқарув тизими талаблари ва хусусиятларини ифодаласа, бош принциплар танланаётган раҳбар характериға нисбатан лавозим талаблари ҳамда шу характерни давлат қонунлари талабларига мувофиқлаштириш лозимлигини ифодалайди.

Тузуқларда баён қилинган ушбу таянч хусусиятлар ва бош принциплар Темур раҳбаршунослигида давлат ва жамият бошқарувининг бош тамойилларини белгилаб беради. Темур наздида мана шу хусусият ва принциплар асосида иш юритишни ва уларни мустаҳкам эгаллашни мақсад қилиб қўймасдан амалга ошириладиган бошқарув натижа бермайди. Раҳбарнинг аниқ йўналиши, аниқ таянч хусусиятлари ва принциплари, аниқ тамойили бўлмаса, биринчидан бошқарув ўз-ўзидан тартибини йўқотади, иккинчидан давлатда жорий этилган қонун-қоидаларнинг амалий кучи бўлмайди, ҳатто у

зўрлик-зулм билан жорий этилганда ҳам оммавий таъсир кўрсата олмайди. Темур раҳбаршунослигидаги «Тузуклар» деб аталувчи қонунлар тизимида унинг раҳбар танлаш принциплари маълум таснифлаш бўйича ўз аксини топган бўлиб, ҳар бир раҳбарда ана шу хусусиятларнинг бўлиши шарт деб белгиланган.

Раҳбар бошқарув мақомига келар экан у энг аввало ўз қўл остида ишлайдиганларни ўрганиб чиқиши керак. Зеро, ҳар қандай жамоа турли-туман характерли одамлардан таркиб топади. Шунга кўра уларнинг иш юритиш услуби ҳам ҳар хил, мақсад-манфаати ҳам ранг-баранг. Темурнинг фикрича, раҳбар билиши керак бўлган ишлардан бири қўл остидагиларни мақсад-манфаатлари, билим ва тадбиркорлиги, иш юритиш услублари ҳамда талаб ва эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда тоифаларга ажратиб олишдир. Лекин раҳбар [тоифаларни бирини баланд](#), бирини паст кўриш йўлидан бормаслиги керак, аксинча, маълум даражадаги ҳар бир тоифага ўз даражасига мувофиқ равишда иш тақсимлаши, уларнинг имконидан юқори даражадаги топшириқлардан тийилиш асосида ҳаракат қилиши зарур. Шунингдек, тоифаларга ажратиб олиш лавозимлар асосида эмас билим ва ақл-идрок, тажриба ва тадбиркорлик асосида амалга оширилиши лозим. Темур ушбу масалада ўз тажрибасини баён қилар экан, қўл остидагиларни ўн икки тоифага ажратиб олгани, бошқарув қоидаларини эса ана шу ўн икки тоифага муносабат асосида жорий қилганини ёзади. Бизнингча, [бундан мақсад шу эдики](#), одамларни маълум тоифага ажратиб олиш уларнинг турмуш тарзи, хатти-ҳаракатини, мақсад-манфаатини аниқроқ билиш имконини беради. Бу имкон эса ўз навбатида жорий этиладиган қонун-қоидалар ҳамда амалга ошириладиган ишларнинг кимларга қаратилгани ва қандай бажарилиши тўғрисида аниқроқ фикрга келишга шароит яратади. Бундай шароит эса жамиятнинг тўлқин-тошқинларсиз бир текисда ривожланишини таъминлайди, бошқарувнинг тўлақонли ижобий натижа келтирувчи ҳаракатига замин яратади. Буни оддий қилиб жамоа сирини ўрганиб чиқиш ва шу асосда фаолиятга шароит ҳозирлаш ҳамда бошқариш режасини тартиблаштириш, дейиш ҳам мумкин. Темурнинг фикрича, жамоат сирини ўрганиб чиқиш яъни тоифалаштириб олиш учун раҳбар бир қанча вақтга эга бўлади. Шу вақт мобайнида у фақат бир марта хатога йўл қўйса кечирилиши керак. Хатолар икки учтадан ошса, ундай раҳбарни тез ишдан четлатиш лозим. Хатоларнинг кўплиги уни жамоат тоифалари билан ишлай олмаётганидан далолат беради ва бунинг олдини олмаслик жиддий зарарларни келтириб чиқариши мумкин. **Биринчидан,** Темур тоифалаштиришдан сўнг юқорида қайд этганимиз бош мезонлар, ўн [икки бош](#)

принцип, ўн икки тоифага мувофиқ равишда раҳбарда бўлиши лозим бўлган 12 асосий қатъят ҳақида фикр билдиради. Унинг таъкидлашича, кимки бу хусусиятларга эга бўлмас экан, у раҳбарликдан бебаҳра қолади.

Иккинчидан, раҳбарнинг ўз сўзи ва ўз ишига бир ўзи эга бўлмоғи керак. Бунга ҳеч ким аралашмаслиги, раҳбар ҳам бошқа бировнинг гапи ёки ишига эргашиб кетмаслиги шарт. Яъни раҳбарлик икки ёки ундан ортиқ кишилар шерикчилигидаги ишга айланиб кетмаслиги ёки қўл остидагилар раҳбардан устунликка эга бўлиб кетмаслиги зарур. **Учинчидан**, раҳбарнинг муҳим ишларни маслаҳатлашадиган яқин кишилари бўлмоғи керак ва раҳбар уларнинг фақат қилинаётган ишлар, кўрилаяётган чора-тадбирларни ривожлантириш юзасидан бериладиган маслаҳатларига эътибор бермоғи ёки қулоқ солмоғи лозим. Лекин оқибати жазолаш ёки шунга ўхшаш нохуш тадбирлар кўришга олиб борадиган ишларда раҳбар маслаҳатчиларнинг салбий характеристикаларини пухта текшириб кўриб мустақил иш кўриши жоиз. Чунки Темурнинг фикрича, яхши ишларга ундовчи маслаҳатдан зарар кўрилмайди. ёмонликка ундовчи маслаҳатга амал қилишдан келадиган зиённи қоплаб бўлмайди.

Тўрттинчидан, Буйруқ, фармойиш, кўрсатма бериш иши шахсан раҳбарда бўлиши шарт. Ҳар қандай масала муҳокама, мунозараларга ташланса-да, якуний ҳукм, қарор раҳбар томонидан эълон қилиниши, раҳбар сўнгги сўзни айтиши керак. Шундан сўнг бу масала муҳокама қилинмаслиги лозим.

Бешинчидан, раҳбар ўз қарорида қатъий бўлмоғи керак. Бирор ишни бошлагач, уни тугал якунлашга эришмагунча тўхтамаслиги, бу йўлда ҳар қандай қатъий ҳаракатдан воз кечмаслиги, иккиланишларга эса, умуман, йўл қўймаслиги лозим.

Олттинчидан, раҳбар ҳукми, қарори, фармон-топшириғи, кўрсатмаси ижро этилиши даркор. Ҳукмнинг қандай бўлишидан қатъи назар уни бирор бир киши томонидан тўхтатилиши, ўзгартирилиши ёки бошқа қўйга солиниши мумкин эмас. Раҳбар ўз ҳукмининг айнан бажарилишини қаттиқ назорат остига олиб, уни бузганларга нисбатан аёвсиз чора кўрмоғи, безарар қарши турганларни эса эътиборсиз қолдирмоғи керак. Топшириқнинг айнан бажарилишини назорат қилиши, кимнингдир ундан ниманидир чиқариб ташлаши ёки унга нимадир киритишига йўл қўймаслик, раҳбар номидан қандайдир бошқа ишларнинг амалга оширилишига тўсиқ бўлмоқ керак.

Еттинчидан, раҳбар бирор-бир сабаб билан раҳбарлик ишини, ундаги ўзи ҳал қилиши лозим бўлган муҳим масалаларни ҳал этишни бировга топшириб қўймаслиги лозим. Албатта, раҳбар қўл остидаги кичик раҳбарларга етарлича иш тақсимлаб беради. Аммо шу ишларнинг бажарилишини шахсан ўзи назорат қилмоғи зарур, буни ўз номидан кимгадир юклатиши керак эмас, ишончсиз кўринганларини махсус вакиллари орқали яширин текшириб кўрмоғи жоиз.

Саккизинчидан, бошқарув ишларида раҳбарни бошқаришга, ўз мақсадларини амалга ошириш учун уни ўз йўлига солишга интилувчилар кўп бўлади. Шу туфайли унга иш, сўз ўргатувчи, фикр берувчилар ҳам кўп бўлади. Раҳбар бу тавсияларнинг керак-кераксизини ажрата олиши, маъқул кўрилганидан ўз ўрнида фойдалана билиши лозим. Маълум тавсияни чуқур мулоҳаза қилмасдан шошилиш қарор қабул қилиш ноўрин бўлиши мумкин.

Тўққизинчидан, бошқарув ишларида раҳбар икки ишга - бири армия, иккинчиси халқ эҳтиёжларига ҳаммадан кўп диққат қаратмоғи керак. Бу икки масалада одамларнинг яхши-ёмон фикрларини тез-тез эшитиб турмоғи, бу икки йўналишда шахсан ўзи иш кўриб, шошмасдан мулоҳаза билан иш тутмоғи керак.

Ўнинчидан, раҳбар сиёсати жиддий, сўзи ва ҳукми салобатли бўлмоғи керак. Раҳбарнинг жиддийлиги, салобати кўп ҳолларда ҳал қилувчи роль ўйнайди. Фикрлардаги мантикийлик ва сиёсатдаги қатъийлик фуқаро ва ходимларда унинг ҳукмларига нисбатан диққат-эътибор, ҳурматни юзага келтириб, қаршиликларнинг олдини олади.

Ўн биринчидан, раҳбар ўз лавозимида эркин бўлиши зарур. Агар қандайдир тазйиқ, мажбурият ёки мутеликда иш юритса, ўша соҳада ривожланиш бўлмайди. Бунинг сабаблари шундаки, раҳбар эркисизлик туфайли аввало ўз ишига кўнгилсиз бўлади, иккинчидан, тазйиқ, буйруқлар асосида иш бажариши туфайли ривожланиш режалари устида бош қотирмайди, учинчидан, ундаги манфаат доираси барҳам топади. Инсон шундай мавжудотки, унинг ҳар бир ҳаракати остида манфаат ётади ва у манфаат келтирмайдиган ишга уринмайди. Сўзда ҳам раҳбарда шундай эркинлик бўлиши шарт. Раҳбарга ўзидан юқори раҳбарлар томонидан фақат давлат аҳамиятига молик режалар, ишлар ҳақида тавсиялар берилиши, ўша режалар асосида ишларни ривожлантириш тўғрисида буйруқ-фармонлар берилиши лозим ва унинг қай тартибда амалга оширилаётганини кузатишгина керак. Раҳбар адашганда ёки номақбул услуб қўллаганда огоҳлантириш, хато ва камчиликларини кўрсатиб турмоқ лозим.

Ишни эса бутунича унинг ихтиёрида қолдириш раҳбарлик қадрининг ошишига олиб келади.

Ўн иккинчидан, раҳбар ҳеч қачон, ҳеч бир ишда ҳеч кимни ўзига шерик қилмаслиги лозим. Яъни раҳбар одамларни молиявий, иқтисодий, ижтимоий, маънавий жиҳатдан камситмаслиги, айтилиб ўтган вақтда ҳеч кимга ўз номидан қарор чиқариш ҳуқуқини бермаслиги керак. Раҳбарнинг ўзи бўлганда ҳам, бўлмаган вақтда ҳам ҳеч бир ерда унинг номидан мустақил иш қилинмаслиги шахсан раҳбар томонидан қатъий тартибга солиниши зарур.

Раҳбар ўз маслаҳатчиларидан ҳамиша огоҳ бўлиши, уларнинг раҳбар ишидаги [камчиликларни ташқарига ташиб](#), гап-сўз қилиб юришларига имкон бермаслиги зарур. Баъзан шундай бўладики, раҳбар маслаҳатларини тўғри деб топган айрим маслаҳатчилар раҳбарга нисбатан беписанд бўлиб кетадилар ва раҳбар обрўсига зиён етказадиган гап-сўзларга йўл қўядилар. Ёки шундайлари бўладики, раҳбар ғоялари, ишлари феъл-атвори, хатти-ҳаракатлари ҳақида бошқаларга хабар бериб турадилар. Раҳбар албатта уларни ишдан ҳайдаб юбормайди, лекин доим назорат қилиб туриши керак бўлади.

Ушбу ўн икки принцип Темур давлатида раҳбар таъинлаш ёки раҳбарликка танлашнинг асосий принциплари сифатида талқин этилади. Темур бу хусусиятларни бош раҳбардан талаб этиладиган хусусиятлар сифатида илгари сурса-да, ҳаётида кечган воқеаларни баён қилар экан буларни қўл остидаги барча раҳбар лавозимидаги шахслардан ҳам талаб қилганлигини кўришимиз мумкин. Шунингдек, “Тузуқлар”да давлат бошқарув тизимидаги энг кичик лавозимдан энг юқори лавозимгача бўлган раҳбарларнинг иш юритиш тартиби баён қилиб берилган. Айнан шунга кўра «Темур тузуқлари» «Тузуқ-лар» - низомлар деб аталади. “Тузуқлар”да фуқародан бош вазиргача барчанинг лавозим талаблари, иш тартиби, иш ҳақи, [рағбатланиш турлари](#), топшириқ ва вазифалари тақсимооти, соҳа бўйича талаб қилинадиган шахсий хусусиятлари, муҳофазалаш, ҳимоялаш тартиблари, жазолаш турлари, бошқарув иерархиясига кўра ўзаро муносабатлар масалалари ва буларнинг барчасининг давлат ғояларига мувофиқлаштирилиши масалалари махсус тартибга солиниб, қонун мақомига етказилган дастурлар ҳамда уларнинг амалий қўлланилиши билан боғлиқ воқеалар воситасида баён қилинади. “Тузуқлар” ана шундай бошқарув жараёнини ёритиб берган 26 та тузуқ - низом ва 4 та банддан иборат.

Хулоса қилиб айтганда, Темур [бошқарувида давлат режалари](#), дастурлари, ғоялари, уларнинг кенг доирадаги асосий йўналиши, бош мезонлари, амал

қилиниши шарт бўлган асосий тамойил ва йўналишлари, бош принциплари ҳамда амалга оширувчи раҳбарларга қўйиладиган талаблар ва уларнинг тартиб-интизоми, қоида-низомлари биринчидан алоҳида фарқлаб олинади, иккинчидан буларнинг барчаси ўзаро чамбарчас боғланиб, ажратиб бўлмас даражада мувофиқлаштирилади. Шунга муносиб равишда Темур раҳбаршунослигида бизнингча тўртта қатъият ҳал қилувчи роль ўйнаб, кўп жиҳатларда раҳбарнинг сифатини белгилаб берган. Бу қатъиятлар: раҳбар садоқати, раҳбар таъминоти ва муҳофазаси, тузук-низомлар бўйича раҳбар талаби ва раҳбарлардан талаб, қатъий тартиб-интизом, раҳбарни рағбатлантириш ва жазолаш. Темур мана шу тўртта принципа раҳбарларга нисбатан ниҳоятда қатъиятли бўлган, ўзи ҳам уларга амал қилган ва натижада бир мақсад йўлида бирлашган бошқарув маданиятини вужудга келтира олган. “Тузуқлар”нинг энг муҳим аҳамияти ҳам шундаки, у раҳбар кадрлар танлаш, лавозимларга тайинлаш, фаолиятини ташкил этиш ва иш тартибини назорат қилишнинг амалиётда тез жорий этиш мумкин бўлган, аниқ низомини ярата олган. Шунингдек, ушбу низом қоидалари фақат раҳбарларга эмас, бутун мамлакатга маълум қилинган, бу низомлардан барча фуқаро огоҳ бўлган. Шу туфайли раҳбарлик лавозимларидан ҳам билимли, ақл-идрокли, тадбиркор ва тажрибали одамларгина жой олган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. А.Саидов. “Темур тузуқлари” – муҳим тарихий-ҳуқуқий манба. <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/m7245>
2. Ф. Равшанов. Миллий раҳбаршунослик: тарих ва тажриба. - Тошкент, Akademiya, 2007 й. 71-бет.
3. И.Махмудов. Бошқарув психологияси. -Т., UNESCO, 2006. 56-бет.
4. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. – Т.: «Адолат» нашриёти, 1997. – 8-11бетлар.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ НУТҚИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Д. Каримжонова

ЧДПУ “Мактабгача ва бошланғич таълим методикаси”

кафедраси ўқитувчиси, karimzonovad@gmail.com

Аннотация: Мақола мактабгача ёшдаги болаларда нутқни ривожлантиришга бағишланган. Мактабгача ёш - бу боланинг сўзлашув нутқини фаол ўзлаштириш даври, нутқнинг барча томонлари: фонетик, лексик ва грамматик ривожланиш даври. Товуш функцияси ҳали шаклланмаган бу ёшда, нафас олиш ва артикуляр тизимларнинг ривожланишига алоҳида эътибор бериш керак, синфларни уйноқи тарзда қуриш мақсадга мувофиқдир.

Калит сўзлар: мактабгача ёш, нутқ, артикуляция, нафас олиш, овоз, эшитиш, ўйин, болалар нутқ апаратининг анатомик ва физиологик хусусиятлари, диалект, талаффуз.

Аннотация: Статья посвящена развитию речи у дошкольников. Дошкольный возраст – это период активного овладения ребенком разговорной речью, период всех сторон речи: фонетического, лексического и грамматического становления. В это возрасте, когда звуковая функция ещё не сформирована, особое внимание следует уделять развитию дыхательной и суставной систем, занятия целесообразно строить в игровой форме.

Ключевые слова: дошкольный возраст, речь, артикуляция, дыхание, голос, слух, игра, анатомо–физиологические особенности детского речевого аппарата, диалект, произношение.

Abstract: The article is devoted to the development of speech in preschool children. Preschool age is a period of active learning of a spoken language, the formation of all aspects of speech: phonetic, lexical, and grammatical. At this age, when the voice function is not yet formed, special attention should be paid to the development of the respiratory and articulatory systems, it is desirable to build classes in a playful form.

Key words: preschool age, speech, articulation, breathing, voice, hearing, play, anatomical and physiological features of a child's voice apparatus, dialect, speech sound.

"Нутқ – боланинг ақлий ривожланишининг фаровонлигининг асосий кўрсаткичи" М. Львов.

Инсон эрта болаликдан нутқни ўзлаштиради ва уни бутун умри давомида яхшилади: луғатни бойитади, нафас олишни, овозни, интонацияларни бошқаришни ўрганади, жумла ва матнни эркин тузади. Бола ўз она нутқини яқин одамлардан, ота-онасидан, атрофдаги нутқ муҳитидан қабул қилади. Т. Н. Ушакованинг фикрига кўра, боланинг нутқининг ривожланиши генетик жиҳатдан олдиндан белгиланган дастурнинг устун таъсири остида эрта босқичларда юзага келадиган умумий психогенезнинг бир томони сифатида намоён бўлади. Яъни, болада нутқ ривожланишининг асоси генларда ётади ва ўз-ўзини ривожлантириш айниқса болалик даврида фаолдир. Уч ёшдан этти ёшгача бўлган давр нутқ функсиясини шакллантириш ва ривожлантиришда энг муҳим ҳисобланади. Бунинг сабаби шундаки, айнан шу даврда боланинг нутқи энг жадал ривожланади ва энг муҳими, у энг мослашувчан бўлади. Бунга миянинг юқори пластиклиги, ҳамма нарсани ўйинга айлантириш қобилияти (болалар нутқдан фойдаланган ҳолда турли хил ўйинларни уйнашади ва шу тариқа унда тезроқ муваффақиятга эришадилар), шунингдек, болаларнинг нутқ товушларига бўлган муҳаббати ва уларни ўзлаштиради (улар товушларни уйнайди, механик равишда такрорлайди).

Мактабгача ёшдаги болаларнинг гигиенаси ва овозини ҳимоя қилишнинг асосий қоидаларидан бири бу тизимли нутқ дарслари. Бу ёшда нафас олишни кучайтириш, мулоқот шароитларига мос равишда овоз баландлигини сўзлаш қобилиятини ривожлантириш, интонация экспрессивлигини ривожлантириш мумкин. Яхши овоз ва саводли нутқни тарбиялаш эрта бошланиши керак, чунки мактабгача ёшдаги бола катта ҳажмдаги билимларни ўзлаштира олади, албатта, малакали ва юқори малакали ўқитувчининг ёрдами билан. Энг кичик нутқ бузилиши боланинг фаолияти ва хатти - ҳаракатларига таъсир қилиши мумкин. Яхши гапирмайдиган болалар ўзларининг камчиликларини тезда тушуна бошлайдилар.

Улар янада ёпиқ бўлади ва натижада комплекслар ривожлана бошлайди, академик кўрсаткичлар пасаяди ва ўз-ўзидан шубҳа пайдо бўлади. Шу билан бирга, ёмон нутқи саводхонликка катта таъсир кўрсатиши мумкинлигини ҳисобга олиш керак, чунки ёзма нутқ оғзаки нутқ асосида шаклланади. Нутқни ривожлантириш учун жуда муҳим омил тўлиқ эшитишдир. Нотугри талаффуз одат булиб қолмаслиги учун болани тузатиш керак, кейинчалик уни энгиш жуда

қийин булади. Педагогик тадқиқотлар шуни таъкидлайдики, мактабгача ёшдаги болалик даврида бола нутқнинг интонатсион томонини жадал ривожлантиради, шу билан бирга унинг нутқини эшитиш - баландлик ҳисси, товуш кучи, тембр ва ритм туйғуси ривожланади. Болалар ўзларининг ва бошқаларнинг нутқидаги камчиликларни эрта сеза бошлайдилар.

Албатта, нутқнинг товуш маданиятининг темп, овоз баландлиги, диксия каби хусусиятлари куп жиҳатдан боланинг индивидуал хусусиятларига, унинг темпераментига, таълим шароитларига ва уни ураб турган нутқ муҳитига боғлиқ. Чақалоқларда бурун бушлиқлари ривожланмаган, бурун боланинг ҳаётининг биринчи ойларида пастки бурун йуллари яхши ривожланмаган, фаренкс вертикал равишда жойлашган, катталарга нисбатан тор, ҳажми кичикроқ, ҳалқум бор. ҳуни шаклидаги шакл, катталарникидан баландроқ жойлашган. Овоз ҳосил қилиш жараёнида муҳим аҳамиятга эга. Бола ҳаётининг биринчи кунларида унинг нафас олиш ҳаракатлари юзаки булади. Бурун йулларининг торлиги туфайли ҳаво бурундан катта қаршилик билан утади, бу эса шовқинли нафасни келтириб чиқаради.

Овоз баландлигини аниқлайдиган қисқа овоз йуллари ва қисқа овозли қатламлар. Беш ёки олти ойлигида бола қичқиришдан хириллашга утади - бу боланинг нутқини ривожлантиришнинг муҳим босқичидир, бу аллақачон товуш бирикмаларини артикулятсия қилишнинг ҳақиқий мактаби, бу буғинларни машқ қилиш: "ла-ла" -ла", "дя-дя-дя" ва бошқа ритмик бирикмалар очик бўғин турлари бўйича. Нутқ тақлид жараёнида ривожланади. Физиологларнинг фикрича, инсон тақлиди бу шартсиз рефлекс, инстинкт, яъни нафас олиш, суриш, ютиш қобилияти билан бир хил, урганилмаган, лекин аллақачон туғилган туғма қобилиятдир. Агар нутқ қобилияти "нутқни тинглаш" орқали тарбияланса, инсон нутқи ривожланишининг шаклланишининг биринчи шарти нутқ муҳитининг мавжудлиги ҳисобланади. Кишининг нутқи куникмаларга эга булган нутқ муҳитига боғлиқ, чунки нутқни урганиш билан бола беихтиёр атрофидагилар нутқининг барча хусусиятларини такрорлай бошлайди. Демак, нутқий кўникмаларни эгаллаш учун учта шарт зарур:

- 1) нутқий муҳитнинг мавжудлиги;
- 2) эшитиш орқали идрок этиш;
- 3) нутқни такрорлаш.

Келажакда боланинг нутқини туғри ривожлантириш учун зарур нутқ муҳити керак. Атроф муҳит - инсоннинг яшаши учун уни ураб турган ижтимоий,

моддий ва маънавий шароитлар. Болалар томонидан теледастурларни тинглаш ва томоша қилиш тарбиячилар ва ота-оналардан эҳтиёткорлик билан йул-йуриқ талаб қилади. Таъкидланишича, тез-тез томоша қилиш кўзойнаклар билан тўйинганлик муҳитини яратади ва болаларнинг эътиборини камайтиради. Туғри танланган дастурлар болаларнинг улар яшаётган дунё ҳақидаги билимларини кенгайтиришга ёрдам беради. Бироқ, теледастурларни тизимсиз, тартибсиз тинглаш ва томоша қилиш болаларни баркамол этиб тарбиялашга ёрдам бермайди. Кичкина томошабинлар олдида, худди калейдоскопда булгани каби, улар учун мутлақо тушунарсиз қаҳрамонлар утиб кетиши, уларга номаълум воқеалар содир булиши қабул қилиниши мумкин эмас. Мактабгача ёш - бу боланинг нутқ тилини фаол узлаштириш даври, нутқнинг барча томонлари: фонетик, лектик ва грамматик шаклланиш даври. Она тилини ўргатиш қанчалик тез бошланса, келажакда бола ундан шунчалик эркин фойдаланади.

Нутқни ривожлантиришнинг яхши даражаси билан бола баъзи товушларни туғри талаффуз қилмаслиги мумкин. Болада нутқни ривожлантиришнинг муҳим буғинларидан бири бу товушни туғри талаффуз қилишни узлаштиришдир. Нутқини нормал ривожланаётган бола уч ёшга келиб, уз артикулятсиясидаги (яъни нутқ органларининг ҳолатида) барча нисбатан содда нутқ товушларини туғри талаффуз қилишни узлаштиради. Артикулятсия мураккаброқ товушларга хуштак (С, З, С), хириллаш (Ш, З, Ч, Ш), шунингдек, Р ва Л товушлари киради. Чунки бу товушларни туғри талаффуз қилиш анча нозик ва фарқлашни талаб қилади. ҳаракатлар нутқ органлари (айниқса, тил), бу товушлар болалар нутқида одатда уч йилдан кейин пайдо булади. Шундай қилиб, М. Э. Хваттсевнинг фикрига кура, купчилик болалар хуштак ва хириллаган товушларни туғри талаффуз қилишни уч ёшдан беш ёшгача узлаштирадilar ва Р ва қаттиқ Л болалар нутқида тахминан беш- олти ёшда пайдо булади. Артикулятсияси мураккаб булган товушларни ассимилятсия қилиш учун улар бола томонидан сунгги шаклда дарҳол узлаштирилмаслиги, балки биринчи навбатда талаффузи содда бўлган товушлар билан алмаштирилиши, уларнинг шаклланишида бир неча босқичлардан утиши характерлидир.

Мактабгача ёшда, овоз функцияси ҳали шаклланмаган бўлса, нафас олиш ва артикуляр тизимларнинг ривожланишига алоҳида эътибор берилиши керак, синфларни уйноқи тарзда куриш мақсадга мувофиқдир. Ушбу шнинг якунида биз турли ёшдаги нутқни ривожлантиришнинг ягона методологияси

йўқлигини таъкидлаймиз. Овоз ва нутқнинг табиатини тарбиялаш усуллари ва усуллари танлашнинг калити сифатида мактабгача ёшдаги болаларнинг физиологик хусусиятларини ҳисобга олишимиз керак бўлган ягона асос мавжуд.

REFERENCES

1. Эрмакова, ИИ. Болалар ва усмирларда нутқ ва овозни тузатиш: китоб. нутқ терапевти учун / И. И. Эрмакова. - 2-нашр, қайта куриб чиқилган. - Москва: 2. Маърифат; Прос. лит., 1996. - 143 б.
3. Максимов, И. Фониатрй / И. Максимов; бошига. болгарлардан. В. Д. Сухарев. - Москва: Тиббиёт, 1987. - 288 п.
4. Юссон, Р. Қушиқ овози / Р. Юссон. - Москва: Муסיқа, 1974. - 261

FARG'ONA VODIYSI VA QIRG'IZISTON SHEVALARIDA LEKSIK UMUMIYLIKLER VA FARQLANISH XUSUSIYATLARI

G'aniyeva Ra'noxon Ilhomjon qizi

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani shevasi o'rganilib, uning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mahalliy misollar yordamida shevaning o'ziga xosligi aniq ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mintaqaviy shevalarning farqlari va ularning tilda tutgan o'rnini haqida to'liq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani, sheva, dialekt, fonetika, leksika, grammatika, lingvistik.

Аннотация: В данной статье исследуется диалект узбекского района Ферганской области и на научной основе анализируются его фонетические, лексические и грамматические особенности. Специфика диалекта наглядно демонстрируется на местных примерах. Это также помогает составить полное представление о различиях региональных диалектов и их роли в языке.

Ключевые слова: Ферганская область, Узбекистанский район, диалект, фонетика, лексика, грамматика, лингвистика.

O'zbekistonning Farg'ona viloyati o'zining boy madaniy va til merosi bilan mashhur bo'lib, mintaqaning turli hududlarida turlicha shevalar mavjud. O'zbekiston tumani shevasi esa mintaqadagi dialektologik jihatdan alohida o'ringa ega. Sheva forsiya ravish, tarz, yo'sin degan ma'nolarni bildirib, fanda biror tilning o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi.[1:4].

Sheva – bu hududiy lahjaning kichik shakli bo'lib, unda fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarning o'ziga xosligi mavjud. Bugungi kunda O'zbekistonda

shevalar bo'yicha yetarli ilmiy tadqiqotlar kamligi sababli, Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani shevasi tahliliga alohida e'tibor qaratish zarurati tug'ildi. Ushbu maqola shevaning asosiy lingvistik xususiyatlarini aniqlash, uni boshqa viloyat va tuman shevalari bilan taqqoslash, hamda mahalliy nutq namunalarini tahlil qilishga qaratilgan. O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan.

Lahjalarni ichida qarluk-chigil-uyg'ur lahjasiga Farg'ona viloyati aholisining shevasi kiradi. Qarluklarning katta qismi VI asr o'rtalarida Sharqiy Turkistonni, Farg'onani, Toxaristonning ayrim hududlarini egallagan edilar. X asrda Yettisuvni ishg'ol qilgan va katta territoriyada hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, VIII-X asrlarda Ili daryosidan to Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan to Sharqiy Turkistongacha bo'lgan o'lkada yashagan barcha turkiy qabilalar qarluklar hukmronligi ostida bo'lgan. Qarluklarning tili shu o'lkadagi barcha qabilalar uchun umumiy til bo'lib qolgan. Yettisuv, Farg'ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torim daryolarigacha bo'lgan territoriyada qarluklar bilan birga chigil, xalaj, yag'mo qabilalari ham yashaganlar. Uyg'uriar ham qarluklar tarkibida bo'lgan. Chigil qabilasi IX-X asrlarda Ili daryosining janubida, Issiqko'l atroflarida yashaganlar.[2:42].

O'zbek tili dialektal o'ziga xosligiga qadimgi urug' va qabilalar tilining turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan.

O'zbek tili dialektologiyasi sohasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sobirov (2015) va Xudoyberdiyev (2017) Farg'ona viloyatidagi shevalarni keng o'rgangan bo'lsa, Karimov (2018) tilning fonetik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan. Nazarov (2016) va Mirzaev (2019) esa leksik jihatlarni tahlil qilgan. Bu maqolada ushbu manbalardan foydalanilgan, shuningdek, mahalliy aholidan olingan nutq namunalariga asoslangan an'anaviy dialektologik metodlar qo'llanildi.

Metodlar qatoriga hududiy nutq namunalarini yig'ish, fonetik tahlil, leksik so'zlarning qiyosiy tahlili va grammatik shakllarni taqqoslash kiradi. Mahalliy so'zlar va ifodalarning yozma ko'rinishi uchun maxsus lug'at ham shakllantirildi.

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani shevasining fonetik xususiyatlari.

Fonetik darajada O'zbekiston tumani shevasi Farg'onaning boshqa tumanlari shevalaridan sezilarli farqlanadi. Asosan undosh tovushlarning talaffuzi va undoshlar orasidagi almashinuvlar kuzatiladi.

Undosh tovushlar. Farg'onaning ko'plab tumanlarida "q" undoshi qattiq talaffuz qilinsa, O'zbekiston tumani shevasida bu tovush ba'zan yumshoq "k" sifatida aytiladi. Masalan, so'z "qiz" shevada "kiz" shaklida talaffuz qilinadi.

Unli tovushlar. Unlilar sohasida “o” unlisining talaffuzi an'anaviy o'zbek tilidan farq qiladi. Masalan, “bola” yoki “chay” so'zi shevada “bala” yoki “choy” shaklida aytiladi.

Intonatsiya va urg'u. Shevada urg'u ko'pincha so'zning oxirgi bo'lagiga tushadi, bu esa so'zning mazmunini o'zgartirmasada, nutqni o'ziga xos qiladi. Mahalliy aholi nutqida intonatsiya o'ziga xos, ko'proq ifodali va hissiy bo'lishi kuzatiladi.

Leksik xususiyatlar. O'zbekiston tumani shevasida ishlatiladigan ba'zi so'zlar Farg'onaning boshqa hududlaridan farqlanadi. Bular orasida mahalliy atamalar, xalq og'zaki ijodidan olingan iboralar va an'anaviy nomlar mavjud.

Misollar: “Chay” so'zi Farg'onaning ko'plab joylarida “non” o'rnida ishlatiladi, ammo O'zbekiston tumani shevasida “chay” aynan “choy” degan ma'noni anglatadi.

“Charqi” – quyiq ovqatlar solinadigan idish.

“Kulba” – kichik uy, hovli ma'nosida ishlatiladi, mahalliy aholi orasida keng tarqalgan.

Bundan tashqari, shevada ba'zi so'zlarning ma'nosi va qo'llanilish doirasi boshqacha bo'lishi mumkin.

Grammatik xususiyatlar. Grammatik tizimda ham O'zbekiston tumani shevasining o'ziga xos jihatlari mavjud.

Fe'l shakllari. Shevada hozirgi zamon fe'l shakllari ba'zan o'ziga xos qo'shimchalar bilan ishlatiladi. Masalan, “ketmoqdaman” o'rniga “ketyapman” shakli ko'proq ishlatiladi, bu esa tilning umumiy fonetik xususiyatlari bilan bog'liq.

Otlar va sifatlar. Shevada ot va sifatlarning ko'plik shakllari, ba'zan an'anaviy o'zbek tilidan farqli tarzda hosil qilinadi. Misol uchun, ko'plik qo'shimchasi “-lar” o'rniga ba'zan “-ler” qo'llaniladi.

Shaxs olmoshlari. Shaxs olmoshlari ba'zan qisqartirilgan yoki qo'shimcha tovushlar bilan talaffuz qilinadi. Masalan, “men” o'rniga “mən”, “sen” o'rniga “sən” talaffuzlari mavjud.

Mahalliy misollar. Quyida O'zbekiston tumani shevasida keng tarqalgan ayrim so'z va iboralarning misollari keltirilgan:

“U keldi” – shevada “U keldı” yoki “U keldi” shaklida aytiladi.

“Nima qilasan?” – “Nima qilasan?” yoki “Nime qilasən?” shaklida ishlatiladi.

“Non ol” – “Chay ol” yoki “Non al” shaklida ishlatiladi.

“Uyda nima bor?” – “Uyda nima bor?” degan ibora ko‘pincha “Uyda neme bor?” tarzida aytiladi.

“Bu yerda ko‘p odam bor” – “Bu yerda köp adam bar” shaklida ishlatiladi. O‘zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi ulaming fonetik jihatdan rang-barangligidadir. O‘zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifti, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o‘ziga xosligi jihatidan o‘zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan o‘xshashliklarga ham ega bo‘ladi.[3:52].

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani shevasi boshqa tuman shevalaridan fonetik, leksik va grammatik jihatdan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sheva undosh tovushlarning talaffuzidagi o‘zgarishlar, unli tovushlarning o‘ziga xosligi, mahalliy leksika va fe‘l shakllaridagi farqlar bilan xarakterlanadi. Bu sheva mintaqaning madaniy va tarixiy o‘ziga xosligini aks ettirib, tilshunoslikda katta ahamiyatga ega.

Shevaning o‘rganilishi nafaqat tilning turli shakllarini aniqlashda, balki xalq og‘zaki ijodini, mintaqaning madaniy merosini saqlashda ham muhimdir. Bu tadqiqot shevalarning ilmiy asosda hujjatlashtirilishi va o‘rganilishiga xizmat qiladi hamda kelajakda yanada chuqurroq tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi // darslik // T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.-4 b.
2. Шаниязов К.Ш. Этнической истории узбекского народа. Тошкент: Фан. 1974, с.42
3. To‘ychiboyev.B,Hasanov B.O‘zbek dialektologiyasi.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004-yil.- 52 b.
4. Xudoyberdiyev M. Farg‘ona viloyatining shevalari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017.
5. Nazarov R. Hududiy lahjalar va shevalar. – Samarqand: Fan, 2016.
6. Mirzaev S. O‘zbek tilining leksik xususiyatlari. – Toshkent: Tilshunoslik, 2019.
7. Abdullayev D. Sheva va dialektlar. – Toshkent: Fan, 2014.

NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

Abdumo'minova Diyora

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Achilova Emina

Annotatsiya: Nutq madaniyati jamiyat taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Madaniy nutq shaxs saviyasining muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada nutq madaniyati, til me'yorlari hamda uning kommunikativ sifatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar; nutq madaniyati, adabiy til me'yorlari, shevaga xos so'zlar, leksik sistema, ijtimoiy izlanishlar, ifodalilik.

Nutqning kommunikativ sifatlari deganda, odamlar o'rtasidagi muloqotda nutqning qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligi tushuniladi. Ya'ni, nutq nafaqat so'zlardan iborat bo'lishi, balki o'z vazifasini – fikrni to'g'ri va ta'sirli yetkazishni ham bajarishi lozim. Asosan quyidagi sifatlar alohida qarab o'tsak:

1. Aniqlik – nutq tushunarli, chalkashmasdan ifoda etilishi. Ma'nosiz so'zlar, ortiqcha gaplar bo'lmasligi kerak.

Masalan: "Erta soat o'n ikkida tadbir bo'ladi" – aniq va qisqa.

2. Tushunarlilik – oddiy va tinglovchiga yaqin so'zlardan foydalanish. Murakkab jumlar o'rniga sodda, ravon ifodalar qo'llash.

3. Qisqalik – keraksiz so'zlardan voz kechib, fikrni ixcham tarzda yetkazish. Bu vaqtni ham, tinglovchining diqqatini ham tejaydi.

4. To'g'rilik – grammatik jihatdan savodli, adabiy til me'yorlariga mos bo'lishi.

5. Moslik – vaziyatga, tinglovchining holatiga, yoshiga yoki mavzuga qarab nutqni moslashtirish. Masalan, bolalar bilan, ilmiy majlisda yoki do'stlar davrasida nutq turlicha bo'ladi.

6. Ta'sirchanlik – so'zlovchining nutqi odamga ruhiy ta'sir ko'rsatishi, qiziqtirishi, ishontirishi kerak. Bu uchun ohang, so'z, obrazli ifodalar muhim.

Masalan, Abdulla Qodiriyning « O'tgan kunlar» romanidan (Otabekning nutqi):

"Menimcha, odamni odam qiladigan - uning so'zidir.

Kimning so'zi rost bo'lsa, u odamning o'zi ham rost.

So'z – odamning yuzidir, yuziga qarab kimligini bilgan kabi, so'ziga qarab ham qalbini bilursan.”

7. Madaniylilik – odobli, xushmuomala bo'lish, haqoratli yoki qo'pol so'zlardan foydalanmaslik. Umuman olganda, nutq kommunikativ sifatleri insonning o'z fikrini tushunarli, ta'sirchan, aniq va lo'nda bo'lishida, hamda muloqotni samarali olib borishida katta ahamiyatga ega.

Nutq madaniyati tilni - aloqa qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatidir. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa ekanligi, u xalq, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot chambarchas bog'liq ekanligi haqida fikr va mulohazalar keltiriladi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, televideniye va matbuotning alohida o'rni borligiga guvoh bo'lamiz. Adabiy til - millatning rasmiy, yozma va og'zaki muloqot uchun asosiy til shakli hidoblanadi. Me'yorlar esa shu adabiy til ichidagi qoidalar - talaffuz, imlo, grammatik tuzilma, leksika va stilistika qoidalaridir. Adabiy til me'yorlari - tilni aniq, tushunarli va estetik jihatdan maqbul qilish uchun belgilangan qoidalar to'plami. Ular fonetikadan tortib stilistikagacha keng qamrovli va har bir qoida amal qilish matn va nutq sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Til me'yorlari - bu ijtimoiy -nutqiy amaliyot bo'lib, badiiy adabiyot, notiqlar nutqi, sahna nutqi kabilarda paydo bo'ladigan talaffuz, grammatika va so'z qo'llash qoidalaridir. Ammo nutq madaniyati faqatgina til me'yorlariga amal qilishdan iborat emas. U ayni paytda o'z fikrini ifoda etishning nafaqat aniq vositasini, balki eng ta'sirchan va jo'yaliligini topa olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Nutqning to'g'riligi uning markaziy sifati bo'lsa -da, nutqiy madaniyatni shu sifatning bir o'zi bilan ta'minlash aslo mumkin emas. Shubhasiz, har qanday to'g'ri nutq ham aniq yoki jo'yali, sof yoki boy bo'lmaydi, umuman, yetarlicha quvvatiga mos bo'la olmaydi. Shuning uchun ham nutq madaniyati muammolarini tadqiq etish bilan shug'ullangan tilshunoslarning ikki bosqichini farqlashini ta'kidlaydilar.

O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farqlanadi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va taramoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat qiladi. O'zbekiston hududidagi jami 14 ta viloyatlarning har birini, o'ziga yarasha turli xildagi shevalari mavjud. Bu esa tilimizning yanada boyishiga ta'sir qiladi. Shevalar adabiy til me'yorida ishlatilmaydi, faqat ma'lum bir hudud aholisi nutqida qo'llanadigan so'zlar hisoblanadi. Ular milliy adabiy tildan farq qilishi natijasida xalq tilining boy ekanligini ko'rsatadi. O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asarida qahramonlar ko'pincha oddiy xalq tili, shevaga yaqin iboralar bilan so'zlashadi.

-Hoy bolalar, o'sha yong'oq tagida o'ynab yurmanglar, boshinglarga qulab tushsa nima qilasizlar?

-Voy ona, biz o'ynavomiz-ku, hech nima bo'maydi, - dedi qo'shni bolakay.

Onasi yana gap qotdi:

-Voy sho'rliklarim-ey, odamning gapiga quloq solmaysizlar-da.

Ifodalilik - nutqning ta'sirchan, jonli, obrazli, hissiyotli chiqish xususiyati hamda adabiy tilning eng muhim sifatlaridan biridir. Oddiy qilib aytganda, so'z yoki gapning shunchaki ma'noni yetkazishi emas, balki tinglovchi yoki o'quvchining qalbiga kirishi, hissiyot uyg'otishidir. Bunda leksik, stilistik, sintaktik va fonetik vositalar birgalikda ishlaydi.

Masalan, Erkin Vohidovning «O'zbekim» she'ridan:

“ Sen borsan – Vatanim borsan,

Sen yo‘q – Vatanim yo‘q.

Sen kulgan kunim quyoshli,

Sen yig'lagan kunim qorong'u.”

Bu parcha juda ifodali: unda xalq va Vatan birlashib, yorqin obrazlar orqali tuyg'u kuchli ifodalagan. Quyosh – quvonch ramzi, qorong'ulik esa dard ramzi sifatida qo'llangan.

So'zning qadrini bilgan, nutqiga e'tibor qilgan inson doimo boshqalarga hurmatli bo'ladi. Nutqimizda anqlik, ifodalilik va ta'sirchanlik bo'lsa, u yurakdan chiqib, yuraklarga yetub boradi. Demak, nutqning kommunikativ sifatleri nafaqat tilimizning go'zalligini, balki insonning ichki dunyosini ham ko'rsatadi. Shuning uchun har birimiz o'z nutqimizga sayqal berib, uni ravon va maqsadga muvofiq qilishga intilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent, 2006.
2. A.Qodiriy. «O'tgan kunlar» romani. 1920
3. E.Vohidov. «O'zbekim» she'ri. 1968
4. O'. Hoshimov. «Dunyoning ishlari». 1981-1982

MORFEMIKA VA MORFOLOGIYANI O'QITISH METODIKASI**Muhammadjonova Ro'zixon Farxod qizi****Rahmonaliyeva Dilshunos Elyor qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari

rozixon46@gmail.comdilshunosrahmonaliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda morfemika va morfologiya fanlarini o'qitish metodikasi yoritilgan. So'zning ichki tuzilishini, grammatik shakllanishini o'rgatishda qo'llaniladigan samarali usullar, darsda foydalaniladigan interaktiv metodlar, mashqlar va baholash vositalari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'quvchilarda tahliliy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy yondashuvlar tavsiya etiladi. Ish umumta'lim maktablari va pedagogika yo'nalishidagi ta'lim muassasalari uchun foydalidir.

Kalit so'zlar: Morfemika, morfologiya, so'z tuzilishi, grammatik shakl, dars metodikasi, o'qitish usullari, interaktiv metodlar, tahliliy fikrlash, tilshunoslik, so'z yasalishi.

Annotation. This paper explores the methodology of teaching morphemics and morphology. It discusses effective strategies for explaining word structure and grammatical forms, the use of interactive teaching methods, exercises, and assessment tools. The paper also emphasizes practical approaches that foster analytical thinking among students. It is a useful resource for school teachers and students of pedagogical faculties.

Keywords: Morphemics, morphology, word structure, grammatical form, teaching methodology, instructional methods, interactive techniques, analytical thinking, linguistics, word formation.

Аннотация. В данной работе рассматривается методика преподавания морфемики и морфологии в системе образования. Освещаются эффективные методы обучения внутренней структуре слова и грамматическим формам, а также применение интерактивных подходов, практических заданий и способов оценки. Особое внимание уделено формированию аналитического мышления у учащихся. Материал будет полезен для учителей школ и студентов педагогических направлений.

Ключевые слова: Морфемика, морфология, структура слова, грамматическая форма, методика преподавания, методы обучения, интерактивные методы, аналитическое мышление, лингвистика, словообразование.

Morfemika va morfologiya ona tili ta'limining muhim bo'limlaridan hisoblanadi. Morfemika so'zning eng kichik ma'noli bo'lagi — morfemalarni o'rganadi. Morfemalar so'zning asosiy ma'nosi yoki grammatik vazifasini ifodalaydi. Masalan, o'qituvchilarning so'zida bir nechta morfemani ajratish mumkin: o'qi – tuv – chi – lar – ning. Bu tahlil morfemik tahlil deyiladi. Morfologiya esa so'zlarning tuzilishi, ularning grammatik shakllar bilan o'zgarishi, so'z yasalishi va so'z turkumlari bilan bog'liq bo'lgan bo'limdir. [1:46]

O'qitishda avvalo nazariy tushunchalar beriladi. Morfema nima, qanday turlari bor, qanday funksiyada keladi mana shular tushuntiriladi. Shundan so'ng amaliy mashqlar orqali o'quvchilarning tahlil qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Masalan, o'quvchilarga so'zlar berilib, ulardan morfemalarni ajratish, ularning turlarini aytish so'raladi. Yoki so'z yasash zanjiri tuziladi: yoz → yozuvchi → yozuvchilik kabi.

Metodik jihatdan darsda ko'proq tahliliy va interaktiv metodlardan foydalaniladi. O'quvchilarni fikrlantiradigan *savollar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, kim chaqqon, so'z yasash poygasi* kabi o'yinlar orqali materialni yanada mustahkamlash mumkin. Darslik, ko'rgazmali materiallar, elektron resurslar, slaydlar yordamida mavzu tushuntiriladi.

Baholashda og'zaki savol-javob, yozma ishlar, testlar, jadvallar bilan ishlash kabi usullar qo'llaniladi. Dars yakunida o'quvchilarga mustaqil mashqlar beriladi: so'zlarni morfemik tahlil qilish, yangi so'zlar yasash, morfologik shakllarga keltirish va h.k.

Morfemika va morfologiya darslari o'quvchilarning tilda fikrlashini, grammatik bilimni va tahliliy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli bu mavzularni o'qitishda turli metodik yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi. [9:54] Maktab ona tili darslarida morfemika va morfologiya bo'yicha bilim berish o'quvchilarning grammatik tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu ikki bo'lim til tuzilishini chuqurroq anglashga yordam beradi. Morfemika orqali o'quvchi har bir so'zning ichki tuzilishini, uning qaysi bo'lagi qanday ma'no yuklashini tushunadi. Morfologiya esa so'zlar qanday grammatik shaklga ega bo'lishi va ularning nutqdagi vazifasini tushuntiradi. Bu bilimlar orqali o'quvchi mustaqil fikr yuritishga, tahlil qilishga va yozma hamda og'zaki nutqda to'g'ri so'z qo'llashga o'rganadi. Mazkur mavzularni o'qitishda darslarning nazariy va amaliy jihatlari uyg'unlashtiriladi.

Avvalo, o'quvchilarga morfemika va morfologiyaga oid asosiy tushunchalar sodda va hayotiy misollar orqali tushuntiriladi. Masalan, so'zlarni tahlil qilishda darslikdagi misollar bilan cheklanmasdan, o'quvchilar hayotida uchraydigan so'zlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu orqali ular mavzuni o'zlashtirishga ko'proq qiziqadi. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish uchun turli interaktiv metodlardan foydalanish foydalidir. Masalan, "So'z yasovchilar", "Morfema top", "Shakl o'zgartirish estafetasi" kabi kichik o'yinlar orqali ularda mavzuga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Guruhlarda ishlash, so'zlardan yangi so'z yasash, morfologik tahlil sxemalarini chizish kabi mashqlar o'quvchilarning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi.

Morfologiyani o'rgatishda, ayniqsa, so'z turkumlarini o'rganish alohida e'tibor talab qiladi. Chunki o'quvchilar so'zlarning turkumini aniqlamasdan turib, ularning shakllanishi yoki grammatik vazifasini tushuna olmaydi. Shu bois har bir so'z turkumi haqida alohida dars o'tkazilib, undan keyin ularning morfologik tahliliga o'tiladi. Fe'l, ot, sifat kabi asosiy so'z turkumlari ustida ko'proq ishlash kerak, chunki ular matn qurilishida yetakchi rol o'ynaydi. Morfemik tahlil va morfologik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish bosqichma-bosqich olib borilishi kerak. Dastlab sodda so'zlar bilan ishlanadi, keyinchalik murakkab, yasalgan, qo'shimchali so'zlarga o'tiladi. O'quvchilarni zo'raki yodlash emas, balki tushunishga asoslangan mashg'ulotlar bilan band qilish zarur. [5:54] Baholash jarayoni ham ko'proq amaliy yondashuvga asoslanishi kerak. Nazorat ishlari, morfemik va morfologik tahlil topshiriqlari, testlar orqali o'quvchilarning bilim darajasi aniqlanadi. Shuningdek, o'quvchining mustaqil ishlashga bo'lgan tayyorgarligi ham e'tiborga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, morfemika va morfologiyani o'qitish nafaqat grammatik bilim berish, balki o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni tahlil qilish, kuzatish va umumlashtirishga o'rgatish vositasi hisoblanadi. Shu sababli bu bo'limlarni o'qitishda metodik yondashuvlar to'g'ri tanlanishi, zamonaviy usullar bilan uyg'unlashtirilgan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raev N. O'zbek tili grammatikasi: Morfologiya. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – B. 45–78.
2. Rasulov M., Karimov A., Jo'rayev N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 112–156.
3. Qurbonov A. O'zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 34–89.

4. Ismoilov A. O'zbek tili morfemikasi va morfologiyasi bo'yicha mashqlar. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – B. 15–63.
5. Tohirova G'. O'zbek tili ta'limida morfologiyani o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – B. 21–75.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ona tili fanidan darslik va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma (5–9-sinflar uchun). – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – B. 50–97.
7. Axmedov A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 88–132.
8. Abduazizov A. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – B. 67–110.

ONA TILI DARSLARIDA AKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Abdullayeva Umriniso Baxodir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

baxodirovnaumriniso16@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ona tili darslarida zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish, darsni samarali tashkil etish, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda yangi texnologiyalarning ro'lini tushuntirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, interfaol metodlar, veb sayt, vebplatforma, Microsoft Word, Microsoft Power Point, Excel, Microsoft Office Publisher, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media, Ispring Suit, dasturiy ta'minot

Abstract. The article discusses the development of modern technologies in native language lessons, the effective organization of the lesson, and the role of new technologies in expanding students' worldviews.

Keyword: Information technologies, interactive methods, website, web platform, Microsoft Word, Microsoft Power Point, Excel, Microsoft Office Publisher, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media, Ispring Suit, software

Аннотация. В статье рассматривается развитие современных технологий на уроках родного языка, эффективная организация урока, роль новых технологий в расширении мировоззрения учащихся.

Ключевые слова: информационные технологии, интерактивные методы, веб-сайт, веб-платформа, Microsoft Word, Microsoft Power Point, Excel, Microsoft Office Publisher, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media, Ispring Suit, программное обеспечение.

Zamonaviy AKT muhitida o'qitishni internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internet tarmog'i ta'lim xizmatlarining juda katta potentsialiga ega. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta'limiy portal va saytlar, mavzuli blog va forumlar, telekonferensiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta'lim 5

xizmatlaridan ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish o'qituvchini ta'lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi[4:5-6].

Asosan, AKTlar o'quvchilarning obrazli fikrlashlarini orttiradi va ilmiy bilimlarni yanada osonroq, ular bilam chambarchas holda o'zlashtirishlariga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy ko'zlangan maqsad - zamonaviy ta'lim tizimini yo'lga qo'yishdir. Bilamizki, yoshlar - kelajak poydevori. Ona tili darslari esa, ta'lim jarayonlarining poydevoridir. Shunday ekan, ona tili darslari o'qituvchilarining sharaflari kasbi o'z zimmasiga muhim va mas'uliyatli e'tibor talab qiladi. Chunki, o'quvchilar yuqori sinflarda ta'lim tizimini o'zlashtirishlari uchun boshlang'ich ko'nikmalarni, o'qish, yozish, hisoblashlarni yuqori darajada bilishlari lozim. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llay olishi, o'quvchilarning zamonaviy bilimlarni puxta egallashga, ma'nani yetuk shaxs bo'lib yetishishiga, kompyuterdan erkin foydalanishga o'rgatishdan iborat. Axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tajribalar an'anaviy dars jarayonida AKTning didaktik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan hollarda o'quv jarayonlarini individuallashtirish va differentsiyalash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ular ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga imkon beradi. Dars jarayonlarida tayyor multimediali dasturlar va kompyuter ta'limi dasturlaridan foydalanib turli xil taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarida qo'llash mumkin. O'quv jarayonini yangi interfaol usullar, axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazish, masalan, dars jarayonida multimediani qo'llash, internet tarmog'idan foydalanish dars mashg'ulotlarining to'laqonli o'tilishiga o'z samarasini beradi. O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- ona tili darslarida multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;
- ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yanada oshadi;
- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;
- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi Elektron ta'lim resurslari pedagogik talablarga (amaldagi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga to'la muvofiq bo'lishi), psixofiziologik talablarga (foydalanuvchi uchun qulay, sodda, aniq, intuitiv va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi), metodik talablarga (ta'lim beruvchiga darsni mustaqil dars ko'rinishida o'tkazishga sharoit yaratilishi, bu holatda ta'lim beruvchi maslahatchi rolida ishtirok etishini ta'minlash, darslarga tayyorgarlikni o'qituvchiga qulay usulda amalga oshirishga imkoniyat yaratish (dialog, videomateriallar kiritilishi), o'rganiladigan o'quv materiali sistemali, mantiqiy ketma-ketlikda, modullilik va ular orasida uzviy bog'liqlik ta'minlangan holda taqdim qilinishi, ta'lim oluvchilar o'zlashtirgan bilim darajasini turli xil murakkablikdagi (murakkablik darajasi shakllantiriladigan) nazorat dasturlari yordamida nazorat tashkil qilish imkoniyati yaratilishi) javob berishi lozim.

. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Har bir o'qituvchi ijodkor va izlanuvchan bo'lishi lozim. Har bir darsiga yangilik bilan kirishi va puxta tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim. Negaki, o'quvchilar bir xillikdan zerikishadi va darsga bo'lgan munosabati susayadi. Natijada, darslarning samaradorligi pasayadi.

O'qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalangan holdagi darslarning o'rni quyidagilarda aks etadi:

- Vaqtni to'g'ri taqsimlash;
- O'quv materiali mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo'lishini ta'minlash;

- Berilayotgan axborot ko'lamini oshirish;
- O'quv topshiriq'i turlarini kengaytirish;
- Sog'lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- Kasbiy malakani muntazam oshirib borish.

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalaridan foydalanish uchun dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Bu esa o'z navbatida Microsoft Word, Microsoft Power Point, Excel, Microsoft Office Publisher, Adobe Photoshop, CorelDraw, AutoPlay Media, Ispring Suit va boshqa amaliy va mualliflik dasturlari imkoniyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi[4:6]. Chunki, ularda rangli, ovozli tasvirlar va harakatli tasvirlar yaratish ko'lamini keng. Bunday dasturiy ta'minotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsni o'zlashtirishlarini sifatli bo'lishiga va tushunishni osonlashtirishga yordam beradi. Ona tili darslari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlar o'quv jarayonida juda keng qo'llanilmoqda. Masalan, o'qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o'rgatishda turli xil taqdimotlardan va ko'rgazmali qurollardan foydalanilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda ham ta'lim jarayonida didaktik vosita sifatida foydalaniladigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Kompyuter Texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilar voqealarni xronologik ketma-ketlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday bajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi. O'qituvchi dars jarayonida kompyuter yordamida mavjud materiallarni turli xil shaklda: slaydlar, video va audio parchalar diagrammalar, jadvallar, musiqiy ko'rinishlarda taqdim etiladi. Kompyuter yordamida dars jarayonini tashkil etilishi o'quvchilar tasavvuri va xotirasiga kuchli ta'sir qilib, eslab qolish jarayonini osonlashtiradi, darsni qiziqarli jarayonga aylantirib, o'quvchilarni u yoki bu tarixiy davrga olib kirish va voqealar ichida go'yoki ishtirok etish imkonini beradi. Bugungi kun ta'limi o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish va ona tili darslarida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha fikrlarimizni bayon etamiz. Quyida ona tili darslarida AKTdan qanday maqsadda foydalanish

mumkinligini ko'rsatib o'tamiz: - ona tili darslarida so'zlarning qanday o'qilishini tasvirlangan taqdimot yoki kichik ertak va hikoyachalar o'qilayotgan paytda o'sha ertakka mos multimedia qo'yish, harflarni tog'ri va chiroyli yozish aks ettirilgan qisqagina videoroliklardan foydalanish mumkin. - ona tili darslarida animatsiyali masalalardan foydalanish, hisob kitobli o'yinlar tashkil etish slaydlaridan foydalanib mashqlar bajarishni o'rganishimiz mumkin. - tabiatga bag'ishlangan mashqlarda tabiat hodisalari aks etgan yoki tabiatni asrashga tarbiyaviy jihatdan tuzilgan qisqagina videoroliklar orqali foydalanish mumkin.

Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar – o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi. Fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi. AKT asosida didaktik materiallar tayyorlash va dars tashkil qilishda didaktik materialni o'zlashtirgan o'quvchi nimani bajara olishi kerakligi oldindan rejalashtirilishi zarur. Bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar uchun aniq shart, ko'rsatma talab qilinadi. Ana shu shart asosida ta'lim oluvchilar rioya qilishi kerak bo'lgan aniq talablardan biri – vaqt me'yori va baholash mezonini taqozo qilinadi. O'quv topshiriqlarini tuzishda fe'llardan to'g'ri va o'rinli foydalanish zarur: yozing, sanab bering, ajrating, tanlang, ko'rsating, moslashtiring, belgilang va sh.k. <http://www.twirpx.com> saytida maktab sintaksisi va punktuatsiyasi bo'yicha qoidalar jamlangan o'rgatuvchi dastur joylashtirilgan. Bu dastur maktab o'quvchilari, abituriyentlar va og'zaki hamda yozma savodxonligini oshirmoqchi bo'lgan barcha yoshdagi qiziquvchilar uchun mo'ljallangan[4:38].

Edmodo bu veb-platforma sanaladi. U butun dunyoda o'qituvchi, maktab o'quvchilari va ota-onalarning oddiy va xavfsiz muloqot, hamkorlik vositasi sifatida tanilmoqda. Bu veb-platformani VKontakte yoki Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan biri deb qabul qilish mumkin[4:66].

XULOSA. Axborot texnologiyalari rivojlangan sari ta'limning barcha yo'nalishlarida undan keng foydalanish boshlandi. Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchiga mustaqil fikrlash, ijodiy izlanishga, darsga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga, darsda

o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, mantiqiy mushohadalarni kengaytirishga va shu kabi zamonbardosh, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi. O'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, darslarni ilg'or, innovatsion, pedagogik hamda kommunikatsiya texnologiyalari asosida sifatli ta'lim-tarbiya berishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Nihol" nashriyoti, 2016.
2. Olimov Q.T. va boshqalar. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. -Toshkent.
3. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya.
4. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari / o'quv qo'llanma. Muhamedova S.X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018. – 264 b.

FARG'ONA VODIYSI SHEVALARINING LEKSIK BOYLIGI VA MAHALLIY UNSURLARI

Abdurahimova Muxlisaxon Ravshanjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti (kechki) yo'nalishi 2 - bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Saidov O'lmas Rahmatovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası v.b.dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi shevalarining leksik boyligi, mahalliy unsurlari va ularning adabiy til bilan o'zaro aloqasi tadqiq etilgan. Hududiy dialektlarda uchraydigan arxaik so'zlar, dialektal sinonimlar, shuningdek, rus va boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashmalar tahlil qilindi. Mahalliy leksikaning semantik guruhlari (qishloq xo'jaligi, ovqat, marosim, uy-ro'zg'or buyumlari) o'rganildi hamda ular asosida amaliy misollar jadval shaklida keltirildi. Natijalar o'zbek dialektologiyasi, sotsiolingvistika va til tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, sheva, dialekt, leksik boylik, mahalliy unsurlar, arxaizmlar, o'zlashma

Abstract

This article studies the lexical richness of the dialects of the Fergana Valley, their local elements and their relationship with the literary language. Archaic words, dialectal synonyms, and borrowings from Russian and other languages found in regional dialects were analyzed. Semantic groups of local lexicon (agriculture, food, ritual, household items) were studied and practical examples were presented in tabular form on their basis. The results serve as an important scientific source in the study of Uzbek dialectology, sociolinguistics, and language history.

Keywords: Fergana Valley, dialect, dialect, lexical richness, local elements, archaisms, borrowings

Аннотация

В статье исследуется лексическое богатство диалектов Ферганской долины, их локальные элементы и их связь с литературным языком. Проанализированы

архаичные слова, диалектные синонимы и заимствования из русского и других языков, встречающиеся в региональных диалектах. Изучены семантические группы локальной лексики (сельское хозяйство, еда, ритуалы, предметы быта), на основе которых в табличной форме представлены практические примеры. Результаты служат важным научным источником для изучения узбекской диалектологии, социолингвистики и истории языка.

Ключевые слова: Ферганская долина, диалект, говор, лексическое богатство, локальные элементы, архаизмы, заимствования

Kirish

O'zbek tili turkiy tillar orasida boy dialektal tarkibga ega bo'lgan tillardan biridir. O'zbek dialektologiyasi fani dialekt va shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini o'rganadi. Mamlakatimiz hududida shakllangan turli shevalar orasida Farg'ona vodiysi shevalari o'zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Farg'ona vodiysi qadimdan ko'plab xalqlar yashagan, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida turli etnik guruhlararo aloqa maskani bo'lib kelgan. Shu bois bu hudud shevalarida turli qatlamlardan tashkil topgan leksik boylik mavjud: qadimgi turkiy ildizli so'zlar, arab va fors-tojik tillaridan kirib kelgan so'zlar, shuningdek, rus tili ta'sirida shakllangan yangi birliklar.

Asosiy qism

1. Farg'ona vodiysi shevalarining umumiy xususiyatlari

Farg'ona vodiysi shevalari o'zbek tilining qarluq lahja guruhiga kiradi. Ularning fonetik va grammatik xususiyatlari boshqa lahjalardan farq qilsa-da, eng katta boyligi — leksik qatlamidir. Farg'ona vodiysi qadimdan ko'plab etnoslarning yashash hududi bo'lgani sababli u yerda uchraydigan so'zlarda tarixiy qatlamlar yaqqol seziladi. Bu shevalarda qadimgi turkiy ildizli so'zlar, fors-tojik tilidan o'zlashgan birliklar, shuningdek, XX asrdan boshlab kirib kelgan ruscha elementlar barobar yashab kelmoqda.

Shevalar adabiy til bilan doimiy aloqada bo'lib, bir tomondan adabiy tilni boyitsa, ikkinchi tomondan o'zining ayrim so'zlarini faqat mahalliy darajada saqlab qolmoqda. Shuning uchun ham Farg'ona vodiysi shevalari tilshunoslar uchun juda muhim manba hisoblanadi.

2. Mahalliy leksikaning semantik guruhlar

Farg'ona vodiysi shevalarining leksik boyligini o'rganishda uni semantik maydonlarga ajratish qulaydir. Bu usul orqali qaysi soha so'z boyligiga ko'proq ta'sir qilganini kuzatish mumkin:

Qishloq xo'jaligi leksikasi. Vodiyning deyarli barcha qishloqlarida dehqonchilik asosiy kasb bo'lgani uchun bu sohaga oid maxsus atamalar keng tarqalgan. Masalan, suvon (ariqdagi suvni taqsimlovchi shaxs), tag'an (yog'och ustun), cho'pchi (bog' qorovuli) kabi so'zlar shu qatlamga kiradi.

Uy-ro'zg'or buyumlari. Shevalarda idish-tovoqlar, kiyim-kechak va uy jihozlariga oid so'zlar ko'plab uchraydi. Masalan, qovoqcha (yog'ochdan yasalgan kichik kosa), to'rtqil (katta dasturxon), bo'z (xom mato).

Ovqat va taomlar. Mahalliy oshxona madaniyati ham o'z leksikasini shakllantirgan: xasip (ichak va qon aralash taom), mantiq (adabiy tildagi manti), katlama (qatlamli qovurma non).

Marosim va udumlar. Mahalliy an'ana va urf-odatlariga xos so'zlar ko'p uchraydi: yanga solmoq (to'y marosimida sovg'a berish), so'fi (diniy marosim ishtirokchisi).

Arxaizmlar. Ayrim qadimiy so'zlar bugungi kunda faqat keksalar nutqida uchraydi: bacha (bola), qoqir (cho'g').

3. Dialektal so'zlar misollarida tahlil

Quyida ayrim dialektal so'zlarning adabiy til bilan taqqoslanishi keltiriladi. Ushbu misollar Farg'ona vodiysi leksikasining boyligi va rang-barangligini yaqqol ko'rsatadi.

Masalan, mantiq so'zi adabiy tilda "manti" deb yuritilsa-da, vodiyning aksar hududlarida aynan mantiq shaklida qo'llanadi. Bu fonetik o'zgarish bo'lib, so'zning ma'nosini o'zgartirmaydi, ammo hududiy xoslikni belgilaydi.

Yoki suvon so'zi. Adabiy tilda bunday maxsus so'z mavjud emas, faqat ariq qorovuli shaklida izohlanadi. Demak, bu so'z faqat mahalliy leksikaga xos birlik bo'lib, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzidan kelib chiqqan.

Shuningdek, xasip taomi vodiyning o'ziga xos ovqat nomi bo'lib, u boshqa hududlarda kam qo'llanadi. Bu so'z orqali til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'rinadi.

4. Arxaizmlar va ularning saqlanishi

Qadimiy turkiy ildizli so'zlardan ayrimlari bugungi kunda adabiy til tarkibida deyarli ishlatilmaydi, ammo mahalliy nutqda saqlanib qolgan. Masalan:

bacha — bola (adabiy tilda kam qo'llanadi, faqat shevalarda faol ishlatiladi);
qoqir — cho'g' (bugungi adabiy tilda ishlatilmaydi).

Bunday so'zlarning saqlanishi asosan qishloq hududlarida, keksalar nutqida uchraydi. Yoshlar orasida esa bu birliklar asta-sekin yo'qolib bormoqda.

5. O'zlashmalar va yangi qatlam

Farg'ona vodiysi shevalarida rus tilidan kirib kelgan so'zlar ham keng tarqalgan: pech (o'choq), stol (sofra), maladoy (yosh bola). Bunday birliklar asosan XX asrda shakllangan va ko'proq shahar nutqida uchraydi.

Fors-tojik tilidan kirib kelgan so'zlar esa qadimiyroq qatlamni tashkil etadi: bo'z (xom mato), sofra (dasturxon). Ular nafaqat shevalarda, balki adabiy tilda ham uchraydi.

6. Adabiy til va mahalliy leksika munosabati

Farg'ona vodiysi shevalari bilan adabiy til o'rtasida doimiy o'zaro ta'sir kuzatiladi. Ayrim dialektal so'zlar adabiy tilga kirib ketgan (katlama, bo'z), ayrimlari esa faqat mahalliy darajada saqlanmoqda (yanga solmoq, suvon). Bu jarayon tilning boyishida va madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Farg'ona vodiysi shevalarining leksik boyligi o'zbek tili dialektologiyasi uchun nihoyatda muhim qatlamdir. Unda qadimiy turkiy unsurlar, fors-tojik va rus tillaridan kirib kelgan so'zlar hamda faqat mahalliy nutqda uchraydigan maxsus birliklar mavjud. Ushbu leksik qatlam nafaqat tilshunoslik, balki mintaqa tarixi, madaniyati va urf-odatlarini o'rganishda ham bebaho manba hisoblanadi. Shuning uchun Farg'ona vodiysi shevalaridagi leksik boylikni yig'ish, hujjatlashtirish va ilmiy tadqiq etish bugungi dialektologiya oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev, N. (1999). O'zbek tili dialektologiyasi. Toshkent: Fan.
2. Rahmonov, N. (2010). O'zbek dialektologiyasi masalalari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Orifjonova, M. (2017). "Farg'ona vodiysi shevalarining fonetik va leksik xususiyatlari." O'zbek tili va adabiyoti jurnali, №4.

ADABIY TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASHINI EKSPERTIZA ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Akberdiyeva Almira Akmal qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

almiraakberdiyeva5@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalalari lingvistik va pedagogik ekspertiza nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Tanqidiy fikrlash – bu shaxsning adabiy asarlar mohiyatini anglash, ularni baholash, xulosalar chiqarish va ijodiy yondashish qobiliyatini rivojlantiruvchi asosiy kompetensiyalardan biridir. Ekspertiza metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning adabiy matnni tahlil qilish, dalil-isbotlarga asoslanish va o'z fikrini asosli bayon etish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, adabiy ta'lim, lingvistik ekspertiza, kompetensiya, tahlil, mantiqiy tafakkur, adabiy matn.

ABSTRACT

This article examines the development of students' critical thinking in the process of literary education from the perspective of linguistic and pedagogical expertise. Critical thinking is one of the key competencies that enhance an individual's ability to understand the essence of literary works, evaluate them, draw conclusions, and approach them creatively. Through the use of expertise methods, students' skills in analyzing literary texts, relying on evidence, and presenting their own ideas in a reasoned manner are reinforced.

Keywords: critical thinking, literary education, linguistic expertise, competence, analysis, logical thinking, literary text.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы формирования критического мышления у учащихся в процессе литературного образования с точки зрения лингвистической и педагогической экспертизы. Критическое мышление является одной из основных компетенций, развивающих способность личности понимать сущность литературных произведений, оценивать их, делать выводы и творчески подходить к их анализу. Использование методов экспертизы способствует укреплению навыков учащихся по анализу литературного текста, опоре на доказательства и аргументированному изложению собственных мыслей.

Ключевые слова: критическое мышление, литературное образование, лингвистическая экспертиза, компетенция, анализ, логическое мышление, литературный текст.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarda faqatgina bilim olish emas, balki mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, adabiy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'quvchining nafaqat matnni o'qishi, balki uni chuqur anglash, undagi g'oya va obrazlarni tahlil etish, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'lash imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham ta'lim tizimida "Mustaqil fikrlaydigan, hayotga teran nazar bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalash zarurligini" alohida ta'kidlagan[1]. Shu nuqtayi nazardan, ekspertiza asosida olib boriladigan adabiy ta'lim tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali usullaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Tanqidiy fikrlash – bu o'quvchining o'z bilimlarini mantiqiy asosda qo'llash, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish, shuningdek, mavjud g'oya va fikrlarga shubha bilan qarab, ularga mustaqil baho berish qobiliyatidir. Adabiy ta'limda bu jarayon o'quvchining badiiy matn bilan faol ishlashini taqozo etadi. Masalan, biror asardagi obrazlarni biryozlama qabul qilish emas, balki ularni turli qirralarini ochib berish orqali chuqur anglash tanqidiy fikrlashga asos bo'ladi.

Lingvistik va pedagogik ekspertiza bu jarayonda asosiy vositalardan hisoblanadi. Ekspertiza orqali o'quvchi matnni nafaqat mazmuniy, balki uslubiy, lingvistik, g'oyaviy jihatdan ham tahlil qiladi. Shu jarayonda uning "matnni tanqidiy idrok etish" ko'nikmalari shakllanadi. Tilshunos olim A.Hojiyev ta'kidlaganidek, "Til hodisalarini

chuqur o'rganish, ularni qiyoslash va tahlil qilish jarayonida shaxsning tafakkuri ham faoliyatga kirishadi"[2].

Adabiy ta'limda ekspertiza asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning bir necha bosqichlarini ko'rsatish mumkin:

Matnni idrok etish – o'quvchi badiiy asarni o'qib, uning syujeti va g'oyasini tushunadi.

Matnni tahlil qilish – ekspertiza asosida obrazlar, til birliklari, uslubiy vositalar baholanadi.

Matnni baholash – o'quvchi asarning ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatiga o'z nuqtayi nazaridan yondashadi.

Xulosa chiqarish – tanqidiy fikr asosida shaxsiy qarash shakllanadi.

Masalan, A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini o'rganishda faqat voqealar izchilligini emas, balki undagi ijtimoiy muammolar, millat taqdiri, obrazlar xarakteri ustida fikr yuritish, ularni bugungi zamon bilan qiyoslash tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash o'quvchilarning tafakkurini faollashtirish, ularni ijodiy jarayonga jalb etish vositasi sifatida qaralmoqda. B.Yo'ldoshev fikricha, "adabiy ta'lim o'quvchini matnga faqat iste'molchi sifatida emas, balki ijodiy hamkor sifatida yondashishga undashi zarur"[3]. Bu jarayonda ekspertiza metodlari yordamida o'quvchi matnni chuqur o'rganib, o'z qarashini asoslaydi va tanqidiy fikrlash madaniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, ekspertiza jarayonida o'quvchining mantiqiy xatolari, umumlashtirishdagi kamchiliklari aniqlanadi va ularga tahliliy tavsiyalar beriladi. Natijada o'quvchi nafaqat adabiy matnni tahlil qilish, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda ham mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini ekspertiza asosida shakllantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, darslarda badiiy asarlarni faqat mazmuniy qayta hikoya qilish emas, balki ekspertiza asosida tahlil qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Har bir obraz va voqeaga turli nuqtayi nazardan qarash imkoniyati yaratilishi kerak.

Ikkinchidan, o'quvchilarni mustaqil baholashga o'rgatish uchun "Tanqidiy fikr daftari" joriy etilishi mumkin. Bu daftarda har bir asar bo'yicha o'quvchining o'z mulohazalari, savollari va xulosalari qayd etiladi.

Uchinchidan, munozara, bahs va debat darslari adabiy ta'limning ajralmas qismiga aylanishi zarur. Chunki tanqidiy fikrlash ko'proq ijtimoiy muloqotda shakllanadi.

To'rtinchidan, pedagoglar lingvistik ekspertiza metodlarini chuqur o'zlashtirishlari, zamonaviy baholash mezonlari bilan ishlashlari lozim.

Beshinchidan, o'quvchilarni zamonaviy adabiyot namunalarini ham tahlil qilishga jalb qilish foydalidir. Bu ularni adabiy jarayon bilan bog'laydi va mustaqil qarash shakllanishiga xizmat qiladi.

Oltinchidan, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar – *elektron platformalar, onlayn bahs-munozaralar, virtual ekspertiza mashg'ulotlaridan* foydalanish samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish o'quvchilarni mustaqil, teran fikrlaydigan, dalil-isbotlarga asoslangan qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Lingvistik va pedagogik ekspertiza metodlaridan foydalanish bu jarayonni tizimli va samarali amalga oshirish imkonini beradi. Natijada, o'quvchi nafaqat adabiy asarni, balki ijtimoiy hayotni ham tanqidiy idrok eta oladigan darajaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Yo'ldoshev B. Adabiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
4. Qosimov B. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
5. Mamarasulov O. Ta'limda innovatsion metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. Jo'rayev O. Adabiy tahlilning nazariy asoslari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014.
7. Nazarov Q. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan, 2012.

IBORALARNI O'QITISH ORQALI ONA TILINI IFODA IMKONIYATLARINI OCHIB BERISH USULLARI

Ozodboyeva Nargiza Baxodir qizi

Xolmatova Makluba Ibrohim qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ozodboyevanargiza6@gmail.com

xolmatovamakluba@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolda ona tili va ibora haqida tushuncha, ona tili fanini o'qitishda iboralarning o'rni, iboralarni o'qitish usullari, iboralarning ona tili faniga ta'siri haqida ma'lumot va misollar keltirilgan. Maqola xulosasida ona tilini o'qitishda iboralarning samarasi, iboralarning til o'rganishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ona tili, ibora, til, imkoniyat, kontekst, o'yin, tahlil, o'qitish.

Abstract. This article provides information and examples on the concept of mother tongue and idioms, the role of idioms in teaching mother tongue, methods of teaching idioms, and the impact of idioms on mother tongue. The conclusion of the article discusses the effectiveness of idioms in teaching mother tongue and the importance of idioms in language learning.

Keywords: native language, phrase, language, opportunity, context, game, analysis, teaching.

Аннотация. В статье представлена информация и примеры, посвященные понятиям родного языка и идиом, роли идиом в обучении родному языку, методам обучения идиомам и их влиянию на родной язык. В заключение статьи обсуждается эффективность идиом в обучении родному языку и их важность в изучении языка.

Ключевые слова: родной язык, фраза, язык, возможность, контекст, игра, анализ, обучение.

Ona tili – insonning fikr va tuyg'ularini ifoda etishning asosi. Tillar o'rtasidagi farqlar, ularning strukturasi va leksik boyligi, odamlarning fikrlarini qanday ifodalashiga ta'sir qiladi. Turli maqsadlarga erishishda vosita hisoblanadi. Ona tilini yaxshi bilish, mamlakatning siyosiy, ma'daniy-ma'rifiy, mafkuraviy, xo'jalik hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi. O'zbek tili lug'ati tarkibi jihatidan juda boy va rang-barangdir. Tilimizda mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan alohida so'zlardan

tashqari leksik ma'no ifodalaydigan turg'un birikmalar-iboralar ham mavjud. [1:56]. Ona tilida iboralarni o'qitish — bu o'quvchilarga o'z ona tilidagi iboralar va ularning ma'nolarini tushunish, qo'llash va rivojlantirishda yordam berish jarayoni. Quyidagi jihatlarga e'tibor berish muhim:

Iboralarning turlari

- Frazologik iboralar: Bir nechta so'zlardan iborat bo'lib, ularning birgalikda ifodalaydigan ma'nosi bor.

- Sifatlar va sinonimlar: O'zaro o'xshash ma'noli iboralarni o'qitish, o'quvchilarga lug'at boyligini oshiradi. O'qitish metodlari

- Misollar keltirish: O'qituvchi o'z ona tilida keng tarqalgan iboralarni misol sifatida keltirib, ularning ma'nolarini tushuntirishi kerak.

- Amaliy mashg'ulotlar: O'quvchilarga iboralarni turli kontekstlarda qo'llashga imkon beruvchi vazifalar berish.

- O'yinlar va interaktiv faoliyatlar: O'yinlar orqali iboralarni yodlashni qiziqarli qilish. Iboralarni o'qitishda e'tibor berish lozim bo'lgan jihatlar

- Talaffuz va intonatsiya: Iboralarni to'g'ri talaffuz qilish va intonatsiyasini o'rgatish.

- Madaniy kontekst: Iboralarning madaniy kontekstini tushunish, bu o'quvchilarga iboralarni to'g'ri qo'llashda yordam beradi.

- Qayta ishlash: O'quvchilarni iboralarni takroran ishlatishga undash va ularni mustaqil ravishda qo'llashga rag'batlantirish.

O'quv materiallari

- Kitoblar va qo'llanmalar: Iboralarni o'z ichiga olgan o'quv materiallari, masalan, she'rlar, hikoyalar va maqolalar.

- Internet resurslari: Onlayn platformalarda iboralarni o'rganishga yordam beruvchi videolar va interaktiv materiallar.

Ona tilida iboralarni o'qitish jarayoni, tilni o'rganishning muhim qismi bo'lib, o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ularning ma'nolari tarkibidagi so'zlarning yaxlit ma'nosi asosida yuzaga keladi va inson xotirasida bir butun va tayyor holda saqlanib, boshqa birikmalar bilan xuddi alohida so'z kabi munosabatda bo'ladi. Iboralar ham tilda aloqa-aralashuv, fikr almashuv vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga iboralar tilning leksik va stilistik imkoniyati, boyligini ko'rsatuvchi sohasi hamdir. Shu ma'noda so'zlar kabi iboralarni ham o'rganish, o'ziga xos tomonlarini, nutqdagi faoliyatini, emotsional-ekspressiv vazifalarni o'quvchilarga yetkazish muhim amaliy

ahamiyat kasb etadi.[2: 421]. Iboralar, bir necha soʻzdan iborat boʻlib, maʼlum bir maʼnoni ifodalaydi. Ular tilni boyitadi va fikrlarni aniq, rang-barang va chuqurroq ifodalash imkoniyatini beradi. Iboralar – soʻzlar birikmasidir, lekin ular oddiy soʻzlardan koʻra ancha murakkab va chuqurroq maʼnoga ega. Masalan, "yurakdan yurish" iborasi, oddiy "yurmoq" soʻzidan koʻra koʻproq his-tuygʻularni ifodalaydi. Bu iboralar, tilni boyitish, fikrlarni aniqroq ifodalash va hissiyotlarni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Iboralar orqali muayyan fikrni, holatni yoki hissiyotni yanada toʻliq va chuqur ifodalash mumkin. Iboralarni oʻqitish, yaʼni, iboralar orqali tilni oʻrgatish jarayoni, til oʻrganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Quyidagi asosiy jihatlarni koʻrib chiqamiz.:

Iboralar oʻqitishning ahamiyati.

- Tilni tushunish: Iboralar yordamida tilni yaxshiroq tushunish va muloqotda samarali boʻlish mumkin.

- Madaniyatni oʻrganish: Har bir ibora oʻz madaniyati va konteksti bilan bogʻliq, shuning uchun iboralarni oʻrganish orqali madaniyatni ham oʻrganish mumkin.

- Nutqni rivojlantirish: Iboralar yordamida nutqning boyitilishi va ifodalilik darajasining oshishi mumkin. Iboralarni oʻqitish metodlari.

- Misol va kontekst: Iboralarni real hayotdagi misollar bilan oʻrgatish.

- Oʻyinlar va interaktiv faoliyatlar: Oʻyinlar orqali iboralarni yodlash va qoʻllashni osonlashtirish.

- Oʻquv materiallari: Kitoblar, maqolalar, va boshqa oʻquv materiallaridan foydalanish.

Iboralarni oʻqitishda eʼtibor berish kerak boʻlgan jihatlar:

- Talaffuz: Iboralarning toʻgʻri talaffuzini oʻrgatish.

- Grammatik qoidalar: Iboralarning grammatik tuzilishi va qoʻllanilishi haqida maʼlumot berish.

- Amaliyot: Oʻquvchilarni iboralarni amaliyotda qoʻllash uchun ragʻbatlantirish. Iboralarni oʻqitish jarayonida bu jihatlarni hisobga olish, til oʻrganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Iboralarni oʻqitish jarayoni koʻplab usullarni oʻz ichiga olishi mumkin. Quyida keltirilgan usullar, oʻquvchilarning iboralarni oʻrganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi:

- Oʻquvchilarga iboralarni maʼlum bir mavzu doirasida oʻrganish imkonini berish. Masalan, tabiat, sevgi, doʻstlik, hayotiy tajribalar kabi mavzularni tanlash

orqali, o'quvchilar iboralarni kontekstda ko'ra oladilar. Bu, ularning iboralarni yanada yaxshi tushunishlariga yordam beradi.

- O'quvchilarga iboralar bilan bog'liq misollarni ko'rsatish. Har bir ibora uchun haqiqiy hayotdagi misollar keltirish, o'quvchilarga iboralarni qanday ishlatishni ko'rsatadi. Misol uchun, "ko'zdan kechirish" iborasini o'rganayotganda, bu iboraning ishlatilishi haqida hikoyalar yoki maqolalar orqali misollar keltirish mumkin.

- O'quvchilarga iboralar asosida hikoyalar, she'rlar yoki insho yozish topshirilsa, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Bu nafaqat iboralarni o'rganishga yordam beradi, balki o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- Iboralarni o'rganish jarayonini qiziqarli qilish uchun turli o'yinlar va interaktiv mashqlarni qo'shish. Masalan, iboralar asosida o'yinlar o'ynash, jamoaviy faoliyatlar tashkil etish yoki quizlar o'tkazish, o'quvchilarning diqqatini oshiradi va ularning til o'rganish jarayonini faol qiladi.

- O'quvchilarga iboraning tuzilishi va ma'nosi haqida tahlil qilishni o'rgatish. Ular iboralarning qanday ma'nolarni anglatishini, ularning kontekstda qanday ishlatilishini o'rganishlari zarur. Bu usul, iboralarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

- O'quvchilarni guruhlariga bo'lish va iboralar asosida munozaralar o'tkazish. Bu, ularning fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan fikr almashish imkoniyatini beradi. Munozara jarayonida, o'quvchilar iboralarni turli nuqtai nazardan ko'rishadi va ularning ma'nolarini yanada kengroq tushunishadi.

Iboralar ona tilida fikrlarni aniq ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ular muloqot jarayonida hissiyotni, fikr va muammolarni yanada to'g'ri va boyroq ifodalashga yordam beradi. Iboralar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini yanada ishonchli va ta'sirli tarzda ifoda etishni o'rganadilar. Masalan, "toshga urilmaydi" iborasi biror narsaning mutlaqo o'zgarishi yoki rivojlanishi mumkin emasligini ifodalaydi, bu esa o'z navbatida, fikrni yanada aniqroq va kuchliroq ifodalash imkonini beradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iboralarni o'qitish orqali ona tilini ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, o'quvchilarning tilga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi. Bu usullar yordamida, ular nafaqat iboralarni o'rganishadi, balki tilning go'zalligini va kuchini ham his qiladilar. Iboralar orqali ona tilining boyligi va rang-barangligi ochiladi, bu esa o'quvchilarning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, iboralarni o'qitish jarayoni, til o'rganishning muhim bir qismi bo'lib, u o'quvchilarning ona tilida o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va yaratish qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: "Fan va texnologiya", 2012, 380 bet.
2. (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyeva.-T.: "NOSHIR", - 2009. 352 b
3. D.N. Yuldasheva. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi".-Buxoro: Durdona nashriyoti, 2021.-421 b.
4. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at/Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O'razova, K.Rixsiyeva. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.-636 bet. <https://cyberleninka>.

XORAZM SHEVASIDA EKSPRESSIV NUTQ VOSITALARI: QARG'ISH VA OLQISHLARNING MADANIY ILDIZLARI

Rajabova Asal Murod qizi

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.

e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm shevasida uchraydigan ekspressiv nutq vositalari – xususan, qarg'ish va olqishlarning lingvokulturologik xususiyatlari o'rganiladi. Shevada keng qo'llaniladigan ushbu nutq birliklari faqat tilshunoslik nuqtai nazaridan emas, balki xalqning ma'naviy-ruhiy dunyosi, qadriyatlari va hayot tarzini aks ettiruvchi madaniy fenomen sifatida tahlil qilinadi. Qarg'ish va olqishlar xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lib, ularda xalqning axloqiy me'yorlari, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlari va diniy e'tiqodlari mujassam topgan. Maqolada Xorazm vohasining o'ziga xos sheviy o'zliklari, ularning madaniy ildizlari va xalq tafakkuridagi o'rni namoyon etiladi. Tadqiqot materiallari sifatida Xorazm viloyatining turli hududlarida yozib olingan og'zaki nutq namunalari foydalanildi.

Kalit so'zlar: Xorazm shevasi, ekspressiv nutq, olqish so'zlar, lingvokulturologiya, xalq og'zaki ijodi, madaniy tafakkur, muloqot, milliy qadriyatlar, nutq etiki.

Аннотация. В данной статье исследуются лингвокультурологические особенности выразительных речевых средств, встречающихся в Хорезмском диалекте – в частности, проклятия и аплодисменты. Эти единицы речи, широко используемые в диалекте, анализируются не только с лингвистической точки зрения, но и как культурное явление, отражающее духовно-духовный мир, ценности и образ жизни народа. Проклятия и аплодисменты являются неотъемлемой частью устного народного творчества, в них воплощены народные нравственные нормы, взгляды на общественные отношения, религиозные верования. В статье раскрываются специфические Шеви-язычники Хорезмского оазиса, их культурные корни и место в народном мышлении. В

качестве материалов исследования были использованы образцы устной речи, записанные в различных районах Хорезмской области.

Ключевые слова: Хорезмский диалект, выразительная речь, аплодисменты, лингвокультурология, устное народное творчество, культурное мышление, общение, национальные ценности, речевой этикет.

O'zbek tilining hududiy variantlari bo'lgan shevalar, xalq nutqining jonli namoyonidir. Ular o'zida nafaqat fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni, balki milliy tafakkur, madaniyat, urf-odat, qadriyatlar tizimini ham aks ettiradi. Shevalar milliy tilning jonli laboratoriyasidir; ular til rivojlanishining zamini va boy manbaidir.[1:47].

Ayniqsa, ekspressiv nutq vositalari, ya'ni qarg'ish va olqishlar orqali xalqning ruhiy olami, hayotga bo'lgan munosabati va madaniy yondashuvi yorqin ifodalanadi. Xorazm shevasi o'zining boy ekspressiv vositalari bilan ajralib turadi. Bu shevada ishlatiladigan qarg'ish va olqishlar, odatda, yuqori emotsional ohangda aytiladi, xalq donishmandligi va axloqiy qarashlarining namunasiga aylangan.

Qarg'ish va olqishlar xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy ideallarining mazmunli ifodasidir. Ular orqali inson o'zining qarshi yoki ijobiy munosabatini ifoda etadi, odatda, ijtimoiy holatga baho beradi yoki kutilayotgan natijaga nisbatan umid bildiradi. Qarg'ishlar o'zbek folklorining janrlar tarkibi tasnifotida "maxsus tur" deb nomlangan to'rtinchi tipga mansub janrlar sirasiga kiritgan. Asarning qaysi janrga mansubligini belgilashda eng muhimi, uning strukturasi, badiiylik darajasi, tasvir xarakteri va ijtimoiy-estetik funksiyasiga ahamiyat berish lozim.[2:129].

Nutq birliklari ekspressivlik, ya'ni ifoda kuchi jihatidan kuchli bo'lib, muloqotda emotsional ta'sirni kuchaytiradi. Shu bois, ular faqat lingvistik emas, balki madaniy, psixologik va sotsiologik jihatdan ham tadqiq etilishi lozim bo'lgan hodisalardandir.

Xorazm vohasi o'zbek adabiy tilining rivojlanishida alohida o'rin tutuvchi hududlardan biri bo'lishi bilan birga, o'ziga xos dialekt va lahja xususiyatlariga ega. Ushbu hududda shakllangan ekspressiv nutq vositalari — ayniqsa, qarg'ish va olqishlar xalq og'zaki ijodining muhim qismini tashkil qiladi. Ular qadimiy dunyoqarash, diniy e'tiqod, axloqiy mezonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bugungi kunda ham faol ishlatilmoqda. Ayni nutq birliklari orqali xalq o'zining ichki tuyg'ularini, umid va xavotirlarini, rozilik va noroziliklarini bildiradi. Shuningdek, bu vositalar jamiyatda axloqiy nazorat mexanizmi vazifasini ham bajaradi.

Ekspressiv nutq vositalarining turlari va ularning ma'naviy-ma'rifiy ildizlarini o'rganish, xalq tilining chuqur qatlamlariga kirib borish, o'z navbatida, til va madaniyatning o'zaro aloqalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorazm shevasidagi qarg'ish va olqishlar o'zbek xalqining qadimiy e'tiqodlari, xalqona tafakkuri va hayotiy falsafasini aks ettirganligi sababli, ular orqali nafaqat til o'rganiladi, balki xalq madaniyati, tarixiy tafakkuri, ma'naviy dunyosi ham o'z ifodasini topadi. O'zbek xalq olqishlarining o'ziga xos janr xususiyatlari va badiiyatini maxsus o'rgangan N.Qo'chqorovning tadqiqotlarida ham qarg'ish janri haqida to'xtab o'tilgan. U o'zining 1991 yilda e'lon qilingan "Xalq olqish va qarg'ishlarining tarixiylik prinsiplari" sarlavhali maqolasida B.Sarimsoqovning "O'zbek folklori ocherklari»dan o'rin olgan olqishlar va qarg'ishlar to'g'risidagi maqolasidagi tasnif, ya'ni:

1. Islomga qadar bo'lgan ma'jusiylikka aloqador e'tiqod va tasavvurlarning elementlarini tashuvchi....

2. Islomga xos tasavvur va e'tiqodlarni aks ettiruvchi

3. Bir paytning o'zida ham islomga qadar, ham islomga xos tasavvur va e'tiqodlarni o'zida qamrab olgan olqishlar»ni izchil emas deb hisoblaydi. [3:176].

Mazkur maqolada aynan Xorazm shevasida qo'llaniladigan ekspressiv nutq vositalari – qarg'ish va olqishlar asosida lingvokulturologik tahlil o'tkaziladi. Asosiy maqsad – bu nutq birliklarining lingvistik va madaniy asoslarini aniqlash, ularning xalq hayotidagi o'rnini ochib berish, jamiyatda tutgan funksiyalarini ko'rsatish va ularning zamonaviy muloqotdagi davomiyligini tahlil qilishdan iborat.

Xorazm shevasida ekspressiv nutq vositalari sifatida ishlatiladigan qarg'ish va olqishlar o'z semantik, pragmatik hamda madaniy jihatlar bilan ajralib turadi. Ushbu vositalar muloqotda ishtirokchilarning emotsional holatini ifodalash, ijtimoiy munosabatga baho berish va ta'sir o'tkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular, odatda, xalq og'zaki ijodida keng qo'llanadi va o'z ichiga uzoq tarixiy jarayonlar, diniy qarashlar, axloqiy me'yorlar va madaniy stereotiplarni oladi. Xorazm shevasida bunday birliklar nafaqat leksik jihatdan o'ziga xos, balki uslubiy va ekspressiv kuchi bilan ham ajralib turadi.

Qarg'ishlar salbiy emotsiyani bildiruvchi ekspressiv vositalar sifatida, odatda, kimgadir nisbatan norozilik yoki g'azabni ifodalash uchun ishlatiladi. Ular ko'pincha yomon oqibat tilash, do'q-po'pisa, la'nat yoki illat istashi kabi ma'nolarni anglatadi. Xorazm shevasida qarg'ishlar xalqning diniy e'tiqodi, qadimiy dunyoqarashi va axloqiy tamoyillariga asoslanadi. Masalan, "Boshingga do'zax o'ti tushsin", "Zax

o'lsin", "Jondan jirkan", "Tovuq yeb ketsin", "Uyinda jinlar to'y qilsin" kabi qarg'ishlar insonning ichki g'azabini ifodalaydi. Bu kabi iboralarda nafaqat til, balki xalqning tasavvuri, diniy dunyoqarashi va milliy mentaliteti ham o'z aksini topgan. Ayniqsa, jin, do'zax, la'nat, o'lim, jinnilik kabi obrazlar orqali insonning boshiga salbiy kuchlar yetishini istash holati aks ettiriladi.

Shu bilan birga, qarg'ishlar ba'zan kulgili yoki yumoristik tusda bo'lishi mumkin. Xorazm shevasida ishlatiladigan "O'ynab yurgan joyingda quduqqa tushib ket", "Etagingga it ilashsin", "Pishak yuragingni yeb ketsin" kabi iboralar tanqidiy, biroq hazil aralash tarzda aytiladi. Bu holat ekspressivlikning ijtimoiy va psixologik funksiyasini ham ko'rsatadi: u salbiy emotsiyani bo'shatish, muloqot muvozanatini saqlash va ba'zan ijtimoiy tartibni ta'minlash vositasiga aylanadi.

Olqishlar esa aksincha, ijobiy munosabat, duolar, yaxshilik tilash kabi ma'nolarni ifodalaydi. Xorazm shevasida olqishlar katta yoshdagilarning yoshlarga, ota-onaning bolalarga, yoki jamiyatning ijobiy faol a'zolariga nisbatan bildirgan roziligi sifatida ishlatiladi. Masalan, "Omading ochiq bo'lsin", "Xudo yo'lingni ochsin", "Yaxshi bo'l", "Ko'z tegmasin", "Og'zingdan balo ketsin" kabi olqishlar insonlarga nisbatan iliq munosabatni bildiradi. Bu kabi iboralar milliy axloqiy me'yorlarga asoslangan bo'lib, xalq orasida o'zaro hurmat, duoga ishonch va ijobiy niyatni ifodalaydi.

Xorazm shevasidagi olqishlar ko'pincha diniy tusga ega bo'ladi. "Alloh niyatini bersin", "Yuzing yorug' bo'lsin", "Farzanding rohatin ko'r", "Bir umr baxtli bo'lg'in" kabi iboralar xalqning diniy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi. Olqishlar orqali avlodlar orasida iliq munosabat, duolar orqali baraka tilash va ijtimoiy ijobiylikni rag'batlantirish madaniyati shakllanadi. Ayniqsa, ota-onalar bolalarga duolar, olqishlar aytilish orqali ularni ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashadi.

Qarg'ish va olqishlarning turlari ularning pragmatik vazifalari bilan ham bog'liq. Masalan, ogohlantiruvchi, jazolovchi, himoya qiluvchi, rag'batlantiruvchi, tasalli beruvchi, ishonch uyg'otuvchi, qo'rqituvchi yoki taskin beruvchi kabi funksiyalarga ega. Xorazm shevasida "Seni shayton urmasin", "Yomonlardan asrasin", "Balolardan panoh top" kabi iboralar ham qarg'ish, ham olqishga xos jihatlarni birlashtirgan murakkab ekspressiv birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan ular xalq tafakkurida ijobiy va salbiy kuchlarning o'zaro kurashini ifodalovchi semantik tuzilmalardir.

Xorazm shevasidagi bunday ekspressiv vositalarning shakllanishi va ishlatilishi tarixiy-madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq. Qadimdan Xorazm vohasi turli madaniyatlarga to'qnashgan, o'zbek, fors-tojik, arab, turkiy, zardushtiy madaniyatlar

o'zaro ta'sirlashgan. Bu esa, tilda ishlatiladigan iboralarning ma'no doirasini boyitgan, ularni chuqur semantik qatlamlarga ega qilgan. Masalan, "Yuzingdan nur yog'ilsin" yoki "Joning jannatda bo'lsin" kabi iboralarda islomiy aqidalar, ilohiylik va ruhiy poklik tushunchalari aks etgan bo'lsa, "Qop-qorong'i tunda yo'lingdan adash" kabi iboralarda qadimiy mifologik obrazlar, qorong'ilik va yo'qotish motivlari mujassamdir.

Shuningdek, bu nutq birliklari bugungi kunda ham ommaviy muloqotda, ijtimoiy tarmoqlarda, xalq orasida faol qo'llanilib, o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, og'zaki xalq ijodining turli janrlarida, to'y-maraka, motam marosimlari, duolar va nasihatlarida qarg'ish va olqishlar muhim rol o'ynaydi. Bu esa, ularning tirik til boyligi, o'zbek xalqining ichki dunyosi va madaniyatiga chuqur singib ketganligini ko'rsatadi.

Xorazm shevasida ekspressiv nutq vositalari sifatida namoyon bo'ladigan qarg'ish va olqishlar xalq tilining nafaqat emotsional, balki madaniy qatlamlarini ham ochib beradi. Ushbu nutq birliklari xalqning asrlar davomida shakllangan ijtimoiy tajribasi, axloqiy qarashlari, diniy e'tiqodlari va hayotiy falsafasining mahsuli sifatida til tizimida mustahkam o'rnanishgan. Qarg'ishlar insonning salbiy emotsiyalarini, olqishlar esa ijobiy niyatlarini ifoda etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solish, baholash, ogohlantirish, rag'batlantirish va taskin berish kabi turli kommunikativ vazifalarni bajaradi.

Xorazm shevasida qo'llaniladigan qarg'ish va olqishlar o'z tarkibida boy obrazlilikka, metaforik ifodalarga va diniy-madaniy simvollarga ega. Bu esa ularning chuqur semantik va funksional qatlamga egaligidan dalolat beradi. Xususan, qarg'ishlarda qorong'ilik, jin, do'zax, yovuz kuchlar kabi obrazlar orqali salbiy holatlar tasvirlansa, olqishlarda yorug'lik, duo, baraka, baxt-saodat kabi ijobiy tushunchalar ustuvorlik qiladi. Bu ikki turdagi ekspressiv vositalar xalq tafakkurida ezgulik va yovuzlik, umid va xavf, baraka va ofat kabi qarama-qarshi kuchlarning timsoli sifatida qaraladi.

Qarg'ish va olqishlar Xorazm shevasining fonetik va morfologik xususiyatlarini ham yoritadi. Ular ko'pincha og'zaki nutqda aniqlanadi va emotsional urg'u bilan aytiladi. Bu esa ularni nafaqat lingvistik jihatdan, balki psixologik, sotsiologik va antropologik nuqtayi nazardan ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, ularning muloqotda tutgan o'rni, vaziyatga mos ishlatilishi, tinglovchiga ta'siri, vaziyatning ijtimoiy xarakteriga ko'ra o'zgaruvchanligi tadqiqotchilar uchun alohida qiziqish uyg'otadi.

Bugungi globallashuv davrida xalq tilining ana shunday boyliklarini o'rganish, ularni zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilish milliy madaniyat va til merosini saqlashda muhim qadamlardan biridir. Qarg'ish va olqishlar xalq tafakkurining to'g'ridan to'g'ri aksidir. Ular orqali inson o'zining shaxsiy munosabatini nafaqat bildiradi, balki atrofdagi insonlarga, jamiyatga ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, ularning to'g'ri ishlatilishi yoki noto'g'ri qo'llanishi ijtimoiy muhitga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm shevasidagi ekspressiv nutq vositalari — ayniqsa qarg'ish va olqishlar — xalq tilining, madaniy tafakkurining, tarixiy xotirasining tirik ko'zgusi hisoblanadi. Ular faqat nutqiy birlik sifatida emas, balki xalqning ijtimoiy hayoti, axloqiy tamoyillari va diniy qadriyatlarining lingvistik ifodasi sifatida o'rganilishi zarur. Tilshunoslik, etnolingvistika va lingvokulturologiya fanlari uchun bunday tadqiqotlar xalq tilining noan'anaviy qatlamlarini ochib berishda, xalq ruhiyatini anglashda, milliy o'zlikni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelajakda bu yo'nalishda yanada kengroq hajmda tadqiqotlar olib borish, boshqa hududlarning shevalari bilan qiyosiy tahlil qilish, olqish va qarg'ishlarning bolalar tarbiyasidagi, ta'lim tizimidagi, diniy-madaniy marosimlardagi o'rni va rolini chuqur o'rganish til madaniyatini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik oliygohlarda bunday tadqiqot natijalari o'qituvchi kadrlarning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

2. Поливанов Э.Д. О языковой системе. – Москва: Издательство Академии наук, 1931. С-47.

2. Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари. Уч жилдлик. 1-жилд. – Т.: Фан, 1988, -Б.129.

3. Qo'chqorov N. Olqish va qarg'ish atamalarining yasalishi // SamDU XXVI ilmiy- nazariy konferensiyasi materiallari. - Samarqand, 1992,-B. 176-178.

4. To'ychiboyev.B, Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004-yil.

5. Reshetov V, Abdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. "O'qituvchi" nashri. Toshkent. 1978

Z AVLOD VAKILLARI BILAN OLIB BORILADIGAN ZAMONAVIY TARBIYA METODLARI

Baltayeva Munira Shakir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

munirabaltayeva1@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Z avlod vakillari bilan tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish masalalari yoritiladi. Raqamli texnologiyalar, global axborot oqimi va tezkor muloqot muhiti Z avlodining dunyoqarashi va qadriyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois tarbiya jarayonida an'anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash zarur. Maqolada interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va ijtimoiy hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Z avlod, zamonaviy tarbiya metodlari, raqamli ta'lim, interaktiv yondashuv, shaxsiy rivojlanish, innovatsion pedagogika.

ABSTRACT

This article addresses the issues of effectively organizing educational and upbringing activities with representatives of Generation Z. Digital technologies, global information flows, and rapid communication environments significantly influence the worldview and values of Generation Z. Therefore, in the upbringing process, it is essential to apply modern approaches alongside traditional methods. The paper analyzes interactive methods, the use of information and communication technologies, learner-centered approaches, and mechanisms of social cooperation.

Keywords: Generation Z, modern educational methods, digital learning, interactive approach, personal development, innovative pedagogy.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации воспитательной работы с представителями поколения Z. Цифровые технологии, глобальный информационный поток и среда оперативной коммуникации оказывают значительное влияние на мировоззрение и ценности поколения Z. В связи с этим в процессе воспитания наряду с традиционными методами необходимо применять современные подходы. В статье анализируются интерактивные методы, использование информационно-коммуникационных технологий, личностно-ориентированный подход и механизмы социального сотрудничества.

Ключевые слова: поколение Z, современные методы воспитания, цифровое образование, интерактивный подход, личностное развитие, инновационная педагогика.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida o'sib kelayotgan yoshlarning tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlari avvalgi avlodlardan tubdan farqlanmoqda. Olimlar Z avlodini 2000-yillardan keyin tug'ilgan yoshlar deb ta'riflaydi. Ularning hayoti raqamli muhit, internet, ijtimoiy tarmoqlar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli tarbiyaviy ishlar jarayonida ularning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish alohida ahamiyatga ega. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarni erkin fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega shaxs sifatida tarbiyalash – eng muhim vazifamizdir"[1].

ASOSIY QISM

Z avlod vakillari mustaqillikka moyil, tezkor axborot qabul qiluvchi, erkin fikrlashni yoqtiruvchi, shu bilan birga tez zerikuvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning tarbiyasida o'qituvchi va tarbiyachilar an'anaviy metodlardan tashqari innovatsion, interaktiv yondashuvlarni qo'llashlari zarur.

Birinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish. Z avlod vakillari uchun mobil ilovalar, onlayn kurslar, elektron darsliklar orqali bilim va tarbiya berish samaralidir. Masalan, interaktiv testlar, elektron kitobxonlik loyihalari ularning o'z-o'zini rivojlantirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, dialog va hamkorlikka asoslangan tarbiya. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi teng muloqot, hamkorlik va fikr almashish jarayoni yoshlarning qiziqishini oshiradi. Psixolog X.Yo'ldoshev qayd etganidek, "Zamonaviy avlod vakillari buyruqbozlikdan ko'ra, o'z fikriga hurmat bilan qarashni xohlaydi"[2].

Uchinchidan, ijodkorlikni rag'batlantirish. Z avlod yoshlarining o'ziga xos jihati – kreativ fikrlash va o'z qobiliyatlarini namoyon etishga intilishidir. Shu bois adabiy tanlovlar, startup loyihalar, teatr studiyalari, media-klublar ularni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy loyihalar orqali tarbiya. Jamiyatga foydali bo'lish, ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratish yoshlarning mas'uliyatini oshiradi. Bu borada volontyorlik harakatlari, ekologik tadbirlar, "Yoshlar klublari" katta ahamiyatga ega.

Beshinchidan, shaxsiy yondashuv. Har bir Z avlod vakilining qiziqishi va iste'dodini inobatga olish zarur. Pedagog A.Qahhorovning fikricha, "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – yoshlarni mustaqil qaror qabul qila oladigan yetuk shaxs qilib tarbiyalashning eng samarali yo'lidir"[3].

Shu bilan birga, Z avlodning tarbiyasida ayrim muammolar ham uchraydi. Jumladan, internetga haddan ortiq berilish, axborotning saralanmasligi, kitob o'qishga qiziqishning pasayishi, virtual muhitning real muloqotni qisqartirishi. Ushbu muammolarni hal etishda oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Z avlod vakillari bilan olib boriladigan tarbiya jarayonida avvalo ularning shaxsiy qiziqishlari, psixologik xususiyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga olish zarur. Shunga ko'ra, zamonaviy tarbiya metodlari faqat nazariy ko'rsatmalar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy, interaktiv va innovatsion yondashuvlar orqali tashkil etilishi lozim. Masalan, raqamli texnologiyalar yordamida dars va tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish, onlayn platformalarda ijtimoiy-axloqiy mavzularda musobaqalar, viktorinalar tashkil etish yoshlarning qiziqishini oshiradi. Bu jarayonda o'quvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ota-ona, maktab va jamoatchilikning hamkorligi kuchaytirilishi kerak. Chunki yoshlarning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishi, ularning qadriyatlarini to'g'ri anglab yetishi oilaviy tarbiya, maktabdagi pedagogik yondashuv va keng jamoatchilik faoliyati bilan bevosita bog'liq. Shu bois o'qituvchilar, psixologlar va ota-onalar uchun hamkorlik seminarlarini tashkil etish, ularga Z avlodning psixologik xususiyatlari haqida amaliy bilim berish foydali bo'ladi.

Tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish ham dolzarb masalalardan biridir. Z avlod vakillari ko'pincha global madaniyat ta'siri ostida shakllanayotganligi sababli, ularni milliy an'ana, urf-odat va ma'naviy meros ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, yoshlar ongiga

insonparvarlik, bag'rikenglik va ochiqlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni singdirish zamonaviy tarbiya metodlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Yana bir muhim tavsiya shuki, yoshlarning mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun loyiha ishlari, guruhiiy munozaralar va ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash kerak. Ularning real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan tashabbuslari rag'batlantirilsa, bu nafaqat ularning mas'uliyatini, balki liderlik salohiyatini ham oshiradi.

Umuman olganda, Z avlod vakillarini tarbiyalashda zamonaviy metodlarning muvaffaqiyati ularning axborot iste'mol odatlari, psixologik ehtiyojlari va ijtimoiy xatti-harakatlarini chuqur anglash bilan chambarchas bog'liq. Shu bois pedagoglar, ota-onalar va mutaxassislar doimiy ravishda o'z bilimlarini yangilab borishlari, tarbiya jarayonini vaqt talablari bilan uyg'unlashtirishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, Z avlod vakillarini tarbiyalashda an'anaviy metodlardan tashqari zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhimdir. Ularning raqamli dunyoga yaqinligi, erkin fikrlashga moyilligi va tezkor axborot almashish odatlari hisobga olinishi lozim. Ekspertlar fikricha, zamonaviy tarbiya jarayonida asosiy tamoyil – yoshlarning shaxsiy qiziqishi, qobiliyati va qadriyatlarini inobatga olgan holda ularni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishdir. Z avlod vakillarini to'g'ri tarbiyalash jamiyatning kelajagi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Yo'ldoshev X. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Qahhorov A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
4. Saidov S. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. To'xtayev B. Axborot texnologiyalari va ta'lim. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020.
6. Nazarov Q. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan, 2012.
7. Karimova N. Zamonaviy tarbiya metodlari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.

JOHN DEWEYNING TAJRIBA ASOSIDAGI TA'LIM NAZARIYASI: BILISHGA QIZIQISH VA AMALIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVI

Malikova Xamida Kamolovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti,
Pedagogika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti,
Tel :+99893-879-21-15

Annotatsiya: Ushbu maqolada John Deweyning tajriba asosidagi ta'lim nazariyasi tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida o'quvchining faol ishtiroki va amaliy tajribaga asoslangan yondashuv bilishga qiziqishni shakllantirishda qanday rol o'ynashi, pedagogik metodlar va interaktiv mashg'ulotlar orqali bilimni mustahkamlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Dewey nazariyasi zamonaviy ta'limning interaktiv, ijodiy va amaliy metodlari uchun nazariy asos sifatida taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Tajriba asosidagi ta'lim, John Dewey, pedagogika, bilishga qiziqish, amaliy faoliyat, interaktiv o'qitish, kognitiv rivojlanish.

Abstract: This article analyzes John Dewey's theory of experience-based education. It explores the role of students' active participation and practical experience in fostering interest in learning, as well as the opportunities for knowledge consolidation through pedagogical methods and interactive activities. Dewey's theory serves as a theoretical foundation for modern interactive, creative, and practical teaching methods.

Keywords: Experience-based education, John Dewey, pedagogy, interest in learning, practical activity, interactive teaching, cognitive development.

Kirish. Ta'lim jarayoni insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi. John Dewey (1859–1952) amerikalik pedagog va faylasuf sifatida ta'limni nafaqat bilim berish jarayoni, balki o'quvchining hayotiy tajribalarini boyitish va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni sifatida ko'rgan. Uning fikricha, ta'limning markazida o'quvchining faol ishtiroki, muammolarni hal qilish va real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llash yotadi. Shu nuqtai nazardan, bilishga qiziqish o'quvchini amaliy faoliyatga jalb etish orqali shakllanadi.

Dewey pedagogikasi ta'lim jarayonini interaktiv va tajribaga asoslangan faoliyat sifatida ko'radi. O'quvchilar darsda nafaqat passiv tinglovchi bo'lib qolmaydi, balki

amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari va muammoli vaziyatlar orqali bilimlarni o'zlashtiradi. Bu yondashuv o'quvchilarda bilishga qiziqish uyg'otish, ularning ijodiy va kognitiv rivojlanishini rag'batlantirish, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu tarzda, Dewey nazariyasi pedagogik jarayonning uzviy va hayot bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ta'lim va hayotning bir-biriga bog'liqligi, o'quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bilimni uyg'unlashtirish pedagogik jarayonni samarali va qiziqarli qiladi. Deweyning yondashuvi zamonaviy ta'lim metodlari, xususan loyiha asosidagi o'qitish, laboratoriya mashg'ulotlari va interaktiv darslarning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Asosiy qism. Dewey pedagogik jarayonni o'quvchi faoliyati bilan bog'liq qilib, har bir bilimni amaliy tajriba orqali o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. U ta'kidlaydiki – "Ta'lim hayotga tayyorgarlik emas; ta'lim – hayotning o'zidir".[1:239]. Bu Deweyning pedagogik tamoyilini aks ettiradi. O'quvchi bilimni nafaqat o'rganadi, balki uni amaliy kontekst bilan bog'lab, real hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagogik jarayon shunday tashkil etiladiki, o'quvchi faol ravishda bilimni qabul qiladi, sinovdan o'tkazadi va mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi. Shu orqali o'quvchilarda bilishga qiziqish doimiy ravishda rivojlanadi.

Dewey ta'limni interaktiv jarayon sifatida ko'radi. O'quvchilar darsda nafaqat passiv tinglovchi bo'lib qolmaydi, balki muammolarni hal etish, yangi tajribalarni o'zlashtirish va bilimlarni amalda qo'llash orqali bilishga qiziqishlarini oshiradi. Bilish jarayoni o'quvchining shaxsiy tajribasi bilan uzviy bog'langanida, olingan bilim mustahkam va uzoq muddatli bo'ladi. Shu bilan birga, o'quvchi faoliyat jarayonida xatolarini aniqlash va o'rganish orqali tahlil qilish, xulosa chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. U aytadiki: "O'quvchilarga faqat o'rganish uchun emas, bajarish uchun vazifa bering; va bu bajarish faoliyati tafakkurni talab qiladigan bo'lsin".[2:104]. Dewey bu g'oyani amaliy faoliyat orqali bilishga qiziqishni shakllantirish tamoyili sifatida keltiradi. O'quvchilar o'z tajribalarini mustaqil sinab ko'rish, xatolarini tushunish va bilimlarini amalda mustahkamlash imkoniga ega bo'ladilar. Shu yondashuv pedagogik metodlarda o'quvchilarni faol va ijodiy ishlashga rag'batlantiradi. Masalan, laboratoriya mashg'ulotlari, loyiha asosidagi darslar va amaliy topshiriqlar Dewey prinsiplariga mos keladi.

Deweyga ko'ra, o'quv jarayoni va hayot ajralmasdir. Har bir o'quv mashg'uloti o'quvchining kundalik tajribasiga bog'liq bo'lishi lozim. Shu orqali o'quvchi nafaqat fan bo'yicha bilim egallaydi, balki muammolarni hal qilish, muloqot qilish va ijtimoiy

tajriba orttirish imkoniga ega bo'ladi. Bilishga qiziqish o'quvchilarda amaliy faoliyat, o'zaro muloqot va tajriba almashuvi orqali shakllanadi. Deweyning fikricha: "Ta'limning maqsadi bilim miqdorini oshirish emas, balki bolaning ixtiro qilish, kashf etish va ijodiy harakat qilish imkoniyatlarini yaratishdir". [3:200]. Bu fikr pedagogik jarayonda o'quvchilarning ijodiy va kognitiv rivojlanishini ta'kidlaydi. O'quvchilarga faqat tayyor bilim berish emas, balki yangi bilimlarni mustaqil topish va amalda qo'llash imkoniyatini yaratish kerak. Shu tarzda, o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish doimiy rivojlanadi va o'rganish jarayoni qiziqarli bo'ladi.

Dewey yondashuvi o'quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb qilishga ham asoslanadi. Unga ko'ra, o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi o'zaro aloqasi, tajriba almashuvi va birgalikdagi muammolarni hal etish faoliyati ularning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu sababli zamonaviy ta'lim metodlari Dewey prinsiplariga tayangan holda interaktiv va amaliy mashg'ulotlarga asoslanadi. Masalan, guruh loyihalari, muammoli vaziyatlar va simulyatsiya mashg'ulotlari pedagogik amaliyotda keng qo'llaniladi.

O'quvchilarda bilishga qiziqish shakllanishi nafaqat fan bilimini o'zlashtirishga, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Dewey nazariyasi ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yechimlar topish va hayotiy tajribani amalda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, bu yondashuv o'quvchilarda mas'uliyat, hamkorlik va liderlik qobiliyatlarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Shunday qilib, Deweyning tajriba asosidagi ta'lim nazariyasi pedagogik jarayonning samarali va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Bu yondashuv o'quvchilarda bilishga qiziqish uyg'otish, ularni faol va mustaqil o'rganishga rag'batlantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Dewey pedagogikasi bugungi kunda loyiha asosidagi o'qitish, tajriba laboratoriyalari va interaktiv dars metodlarining poydevorini tashkil etadi. Shu tarzda, har bir o'quvchi o'z bilish faoliyatida shaxsiy va ijtimoiy tajribani uyg'unlashtirib, mustahkam va amaliy bilimlarni shakllantiradi.

Xulosa. Dewey nazariyasi ta'lim jarayonida o'quvchining faol ishtiroki va amaliy tajribaga asoslangan yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bilim faqat tayyor shaklda berilmaydi, balki o'quvchining real hayotiy faoliyati orqali o'zlashtiriladi, bu esa bilishga qiziqish va mustahkam bilim hosil bo'lishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, pedagoglar o'quv jarayonini interaktiv, muammoli vaziyatlar va loyihalar orqali tashkil etishlari muhimdir.

O'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish faqat bilim olishga emas, balki ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va shaxsiy tajribani amalda qo'llashga qaratilgan faoliyat orqali shakllanadi. Deweyning yondashuvi o'quvchilarni jamoaviy ishlashga, fikr almashishga va birgalikda yechim topishga rag'batlantiradi. Shu bilan ularning kognitiv, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi uyg'unlashadi.

Deweyning tamoyillari zamonaviy ta'lim metodlarining, xususan, loyiha asosidagi o'qitish, tajriba laboratoriyalari va interaktiv mashg'ulotlar poydevorini tashkil etadi. Bu pedagogik yondashuv o'quvchilarga bilimni faqat o'rganish emas, balki yaratish, kashf etish va amalda qo'llash imkonini beradi. Shu tarzda, ta'lim jarayoni qiziqarli va samarali bo'lib, o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish doimiy rivojlanadi.

Natijada, Deweyning tajriba asosidagi ta'lim nazariyasi pedagogik jarayonning samarali va ijodiy bo'lishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yechimlar topish qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek, hayotiy tajriba bilan bilimni uyg'unlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu yondashuv o'quvchilarda bilimga qiziqish uyg'otishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va zamonaviy ta'lim amaliyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, Dewey pedagogikasi bilishga qiziqish, ijodiy va kognitiv rivojlanish, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dewey J. *Democracy and Education*. – New York. Macmillan. 1930. p. 239
2. Dewey J. *Experience and Education*. – New York. Collier Books. 1938. p. 104.
3. Dewey J. *The School and Society*. – Chicago. University of Chicago Press. 1900. p. 200.

INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Rustamova Dilnoza Ozodovna,

Urganch Ranch texnologiya universiteti

Pedagogika mutaxassisligi 2-kurs magistranti

rustamovadilnoza7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'rganish qobiliyatini oshirishning qanchalik zarurligi hamda muammolar haqida so'z boradi. Shuningdek, "Aqliy hujum", "Klaster", "Bahs-munozara" kabi interfaol metodlarning samaradorligi ochib beriladi. Interfaol metodlarning orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: interfaol metod, "Klaster", "Blits-so'rov", "Insert jadvali", ijtimoiy ko'nikmalar, kommunikativ kompetensiya

Аннотация: В статье рассматриваются необходимость и проблемы повышения обучаемости студентов в современном образовательном процессе. Раскрывается эффективность интерактивных методов, таких как «Мозговой штурм», «Кластер», «Дискуссия». Отмечаются возможности повышения самостоятельности мышления и навыков командной работы студентов с помощью интерактивных методов.

Ключевые слова: интерактивный метод, «Кластер», «Блиц-опрос», «Вставная таблица», социальные навыки, коммуникативная компетентность

Hozirgi davrda ta'lim tizimining oldida turgan asosiy vazifalardan biri – bu o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish va ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishdir. O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishni talab etmoqda. Chunki an'anaviy o'qitish usullari o'quvchilarning faolligini to'liq ta'minlamaydi, ularni mustaqil izlanishga undash imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. "O'qitish tizimimizda yangi usullarni joriy etish, turli innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va amalda sinash, ta'lim jarayonida, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarida yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish..." bugungi kunning eng oliy maqsadlaridan biridir. [1:12].

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda shu kabi qaror va farmonlar asos sifatida olinmoqda. Shu nuqtayi nazardan, interfaol metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish va ularning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Interfaol metodlar – bu ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro faol muloqotga asoslangan, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradigan hamda ularda tahliliy va ijodiy yondashuvni shakllantiradigan metodlar majmuasidir. Bunday metodlarda o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, u o'z fikrini erkin bayon etadi, muammolarni hal qilishga harakat qiladi va bilimlarni mustaqil o'zlashtiradi. Eng ko'p qo'llaniladigan interfaol metodlar qatoriga "Aqliy hujum", "Klaster", "Blits-so'rov", "Insert jadvali", "Rol o'ynash", "Bahs-munozara" kabi usullarni kiritish mumkin. Masalan, "Aqliy hujum" metodida o'quvchilar erkin fikr yuritib, turli g'oyalarni ilgari suradi va ular ustida birgalikda muhokama olib boriladi. Bu jarayon o'quvchilarda tezkor fikrlash, muammoga turlicha yondashish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. "Klaster" usuli esa o'quvchilarning mavzuga oid bilimlarini tizimlashtirish, mantiqiy bog'liqlikni ko'rish va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, interfaol metodlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Jamoada ishlash, o'z fikrini asoslab berish, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qilish va tanqidiy qabul qilish madaniyati interfaol metodlar orqali samarali rivojlanadi. Natijada o'quvchilarda nafaqat bilish faoliyati, balki kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar ham mustahkamlanadi.

Interfaol metodlardan foydalanishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bugungi kun o'quvchisini an'anaviy tarzda dars mashg'ulotlari, eski usullar bilan darsga jalb qilish imkoniyati yo'q. Hozirgi global zamonda o'qituvchi tinimsiz o'z ustida ishlashi, izlanishi va yangi o'qitish usullarini topishi zarur.

O'quvchilar bilimini oshirishda ushbu metodlarning o'zni beqiyos. "Interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish. Sog'lom muloqot, o'z fikrini bayon qilishva uni asoslagan holda himoya qila olish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib borishi hamda o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish kuzatiladi".[2:767]

Interfaol metodlarni qo'llashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Multimedia vositalari, elektron taqdimotlar, onlayn platformalar yordamida darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Bunday yondashuv o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bilimlarni eslab qolish darajasini kuchaytiradi hamda mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar ta'lim jarayonini faollashtiradi, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Interfaol metodlar o'quvchilarning darsga qiziqishini orttiribgina qolmay, ularning bilimlarini chuqurlashtiradi va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Shu bois, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan keng foydalanish, o'qituvchilarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilab borish, ularga metodik yordam ko'rsatish dolzarb vazifalardan biridir. Shuningdek, interfaol metodlarni axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 20-aprel PQ-2909-son qarori. 12-bet
2. G.N.Komuljonova. Ta'limda interfaol metodlardan foydalanishning afzaliklari.- International journal of scientific researchers, VOLUME 5,2024
3. M. Husanxo'jayev. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida. T., 1963, 130-bet
4. Avesto. O'zbekcha tarjima (Asqar Mahkam tarj.) T.:2001
5. Z. F. Sharopova. Ta'lim texnologiyalari – T.: “Navro'z” nashriyoti, 2019. 26-b.
6. O. Hasanboyeva, J. Hasanboyev, H. Homidov. Pedagogika tarixi – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. 312 b
7. D. B. Dauletnazarova, L. M. Rajabova. Pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rnini – Academic research in educational sciences, VOLUME 2 ISSUE 9, 2021.
8. Z. F. Sharopova. Ta'lim texnologiyalari – T.: “Navro'z” nashriyoti, 2019. 84-b.
9. Omonov H. T. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. – 240 b

9. Q. M. Ahmedov, O. A. Ismoilov. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 36 b

ONA TILI DARSLARIDA SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI ORQALI O'QUVCHILAR LUG'ATINI BOYITISH

Gulyamova Xolida

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Rustamova Dildora

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

rdstn@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda lug'at ustida ishlash texnologiyalarining ilmiy-metodik ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: leksik-semantik tahlil, innovatsion texnologiya, sintaktik tuzilma, kommunikativ yondashuv, leksik birlik, lingvistik tahlil, mustaqil va mantiqli fikrlash.

Annotation

This article discusses the scientific and methodological significance of vocabulary-based teaching technologies in developing students' communicative skills during the process of mother tongue education.

Keywords: lexical-semantic analysis, innovative technology, syntactic structure, communicative approach, lexical unit, linguistic analysis, independent and logical thinking

Аннотация

В данной статье рассматривается научно-методическое значение технологий работы со словарем в процессе обучения родному языку, направленных на формирование коммуникативных навыков учащихся.

Ключевые слова: лексико-семантический анализ, инновационные технологии, синтаксическая структура, коммуникативный подход, лексическая единица, лингвистический анализ, самостоятельное и логическое мышление.

Jahon miqyosida davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayotgan ta'lim mazmunida til va tafakkur uyg'unligiga erishishning innovatsion texnologiyalari orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "Mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik

jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvoffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Lug'at ustida ishlash ona tili o'qitish muammosi bilan shug'ullangan metoistlar doimiy e'tiborida bo'lgan. "Ona tili o'qitish metodikasi"⁴³ darsligida butun bir bob shu masalaga ajratilgan.

Professor N. Mahmudovning "Nutqning ta'sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay "yuqumli" tarzda yetkazish imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo'lish so'z boyligiga bog'liq. Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so'z ma'nolari, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k.)dan qay darajada foydalanganlik bilan belgilanadi. Buning uchun esa nutq tuzuvchida til vositalarining boy va faol zaxirasi mavjud bo'lishi kerak"⁴⁴ degan fikri zamonaviy ta'limga kommunikativ yondashuvning maqsadi bilan uyg'unlik kasb etadi. Bu ona tili ta'limi oldiga o'quvchilarni faol muloqotga tayyorlash, ularni nutqiy faoliyatning subyekti sifatida shakllantirish vazifasini qo'yadi.

Borliq, jamiyat hayoti haqidagi tushunchalarni o'zlashtirish, ularga munosabat o'quvchilar nutqini matn tahlili orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarning mustaqil va mantiqli fikrlash ko'nikmalari ham matnda bayon qilingan ma'lumotlar asosida shakllantiradi. Ona tili darslarida turli janrdagi matnlarning lingvistik tahlili unda ifodalangan voqelikni anglashga qaratiladi.

O'quvchilar matn mazmunini, uning g'oyasini o'zlashtiradi. Lingvistik tahlil matndagi leksik birliklar izohidangrammatik bilimlar ustida fikr yuritadi, shu jarayonda til birliklarini, gapning qurilishini o'zlashtiradi. O'qituvchining o'quvchilarga matnni o'qib, ma'nosini tushunmagan so'zlarni aniqlatishi, tushuntirilishi rejalashtirilgan so'zlarni doskaga yozib, ma'nosini so'rashi ularda matn tiliga sezgirlikni tarbiyalaydi. Badiiy asarning lingvistik tahlilida ma'nodosh so'zlar, shakldosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, atamalar, eskirgan so'zlar ustida ishlanadi. Bular ham so'z ma'nolarini chuqurroq anglashga, o'quvchi lug'atini boyitishga, nutqining aniq va ravon bo'lishiga olib keladi.

Lug'at ustida ishlash oilada, ota-onalarning bolaning kundalik hayotda uchraydigan narsa va hodisalar haqida "Bu nima?" deb so'rashidan boshlanadi. Maktab

⁴³ A.G'ulomov, M.Qodirov. Ona tili metodikasi. –T.: O'qituvchi. 1998.

⁴⁴ N.Mahmudov. Nutq boyligi. Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar. –Jizzax.,2011. -22-bet.

ta'limi bolaning jamiyat hayotiga nutqi orqali kirib borishini ta'minlaydi. Shu jihatdan, ona tili va adabiyot darslarida o'rganiladigan matnlarning leksik-semantik tahlili o'quvchilar lug'atini boyitishda keng imkoniyatlarga ega.

Ma'lumki, kommunikativ yondashuvning ona tili ta'limining asosiy tamoyiliga aylanishi uni o'qitish jarayonining o'qituvchi va o'quvchilarning faol muloqoti asosida tashkil etishni taqozo etadi. Demak, nutqiy jarayon faoliyatning subyekt+ sub'yekt shaklida tashkil etish, "Rolli o'yin", "Munozara", "Aqliy hujum" kabi iInterfaol ta'lim texnologiyalari va metodlar o'quvchilar lug'at zahirasini boyitishda, og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Matn asosida lug'at ustida ishlashda quyidagi kabi savol-topshiriqlardan foydalaniladi:

-Matnni o'qing. Matndan nima haqidai ma'lumotga ega bo'ldingiz?

-Matnga nima uchun sarlavha qo'yilgan?

-Matnni qayta o'qing. Siz unga qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz? Nima uchun?

-Matnda nechta xat boshi bor? Matnni siz necha qismga ajratgan bo'lardingiz?

Ichingizda o'qing. Matnni qismlarga bo'ling.

-Matnni nimaga asoslanib qismlarga ajratdingiz?

-Matnga reja tuzing. Matnga reja tuzishda nimaga asoslandingiz?

-Matnni o'qing, qayta hikoyalashga tayyorlaning.

-Qayta hikoyalashda qaysi so'zlarni qo'llashingiz kerak bo'ladi? Ularni aniqlang.

Qayta hikoyalashda qo'llanmagan so'zlariga va matn mazmunini ta'sirchan ifodalash ichun zarur bo'lgan so'zlarga o'quvchilar diqqati qaratiladi. Shundan so'ng lug'at ustida ishlash o'quvchilarni xushyor torttiradi.

Baxt shunday narsaki, borligida uni kishi sezmaydi, yo'qligida orzu qiladi. Baxtli odam "Men baxtliman" deb olamga *jar solmaydi*. Inson hech qachon baxtga to'yagan, "Baxtliman" degan emas. Aslida, hayotda birorta maqsad bilan yashashning o'zi – baxt. Maqsadsiz yashash shunday *ko'rgilikki*, u hech kimning boshiga *tushmasin!* Kishida maqsad bo'lsa, unga *erishish yo'lida kurashish, mashaqqat chekish, ta'na-dashnomlar eshitib, kuyib-yonib yurish* ham baxt. Men kinochi bo'lsam, "*Baxtiyorlik lahzasi*" degan film yaratgan bo'lar edim. Bu film *baxt lahzalari majmuasidan* iborat bo'lar edi. Unda marraga yetgan sportchining g'alabadan *charaqlagan ko'zlarini, yerga qo'ngan kosmonavtning kulgusini*, she'r yozib tugatgan *shoir quvonchini*, chet eldan qaytayotgan sayohatchining mamlakatimiz *chegarasini kesib o'tgandagi his-hayajonini, uzoq judolikdan so'ng bolasiga yetishib quchoqlagan*

onaning ko'z yoshlarini, o'z mehnat samarasini ko'rib, mamnun bo'lgan kishi sevinchini... *suratga tushirgan bo'lardim. (Erkin Vohidov)*

Quyidagi so'zlar asosida lug'at ishi tashkil etiladi: *ta'na-dashnom – pand-nasihat, malomat; jar solmoq – baland ovoz bilan e'lon qilmoq, majmua – to'plam, ko'rgilik – kishi hayotida yuz bergan erk-ixtiyorida tashqari ko'ngilsiz voqea.*

O'quvchilarga "Izohli lug'at" va "Imlo lug'ati"dan foydalanish o'rgatiladi, ular asosida so'z ma'nolarini izohlaydilar. Bunday so'zlarni daftarlariga yozdirib borish foydadar xoli bo'lmaydi.

O'quvchilarning lug'at zahirasi boyitadigan, nutqning ta'sirchanligini oshiradigan so'zlar ma'nodosh so'zlardir. Masalan:

Oftob chiqdi, **quyosh** chiqdi, kun chiqdi,

Mehru **shams-u xurshidi** gardun chiqdi.

Erkin Vohidov mazkur misralarida sinonimlardan foydalanib nutqning ta'sirchanligini hamda til taraqqiyotini o'zida aks ettirgan.

Bir zamon bolalar uchun aytilgan shu jo'ngina va g'o'rgina ikki satrning o'zida quyoshning oltita nomini topasiz. Sanoqni yana davom ettirish mumkin. Osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko'k... bular daf'atan xayolga kelganlari xolos! Arsh, davvor singari kam ishlatiladigan xos so'zlar ham sanalsa, ro'yxat yanada uzayadi.

O'quvchilarga o'zbek tilida ma'nodosh so'zlarimizning ko'pligiga sababni ixohlash ham ularda tilga bo'lgan qiziqish va e'tiborni kuchaytiradi. O'zbek tili 3 daryodan suv ichgan. Diniy, ilmiy, ijtimoiy atamalarimiz asosan arab tilidan; ko'pgina ish qurollarimiz, jumladan, xokandoz, dastshu, jomashu, dazmol, qog'oz kabi hunarmandlikka oid so'zlarimiz, shuningdek, yuksak she'riy uslubga xos so'zlar fors tilidan kirib kelgan. Jumladan, arabcha Alloh, yonida forsha Xudo, turkiy Tengri so'zlarimiz ham borki, ularni yurak ham, qalb ham, dil ham deymiz. Arabcha ism, forsha nom, o'zbekcha ot – uchovi ham o'zimizniki. Til, zabon, lison bizda shu sababdan beqiyos boy va rangli⁴⁵.

O'quvchilarga mustaqil bajarishlari uchun qiziqarli mashqlar tavsiya etilsa, ularda so'z bo'lgan bo'lgan e'tibori ortadi.

"Ming bir so'zni bilaman" izohli lug'atida berilgan quyidagi so'zlarga to'g'ri keluvchi ma'nolarni moslashtiring.

Pista – Asralishi kerak bo'lgan narsalar saqlanadigan buyum.

Lahza – Tog'larda o'sadigan past bo'yli daraxtning qobiqli danagi.

Ekin – Ko'z ochib-yumguncha o'tgan vaqt.

⁴⁵ Abdulxay Sobirov. Til va adabiyot ta'limi. jurn. 2003.1-soni. 11-13-betlar.

Ibrat – Hosil olish uchun ekilgan, urug‘dan unib-o‘sgan o‘simlik.

Sandiq – odamlar uchun namuna.

Mana shunday qiziqarli mashqlar orqali o‘quvchilar izohli lug‘at nima ekanligini, nima uchun kerakligini, qanday maqsadda foydalanish lozimligini bilib oladilar. So‘zlarning ma‘nosini teran anglaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tilning leksik birliklari rang-barang. Ular matnda o‘z jilosini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham matn asosida leksik birliklar yuzasidan tashkil etiladigan mashqlar so‘z ma‘nosini oddiy izohlashdan iborat bo‘lmasdan, ularni so‘z olamiga olib kiruvchi, ularda so‘zga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytiruvchi, uni o‘zlashtirish mas‘uliyatini hiz qilishga olib keluvchi xarakterda bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.A. G‘ulomov, M. Qodirov. *Ona tili metodikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1998.
- 2.N. Mahmudov. *Nutq boyligi. Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar*. – Jizzax, 2011.
- 3.Abdulxay Sobirov. *Til va adabiyot ta’limi* jurnali. – 2003. – №1. – 11–13-betlar.
4. M. Asqarova. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan, 2010.
5. N. Madrahimova. *Ona tili ta’limida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
6. Sh. Shodmonova. *Ta’lim jarayonida kommunikativ yondashuvning metodik asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
7. H. Doniyorova. *Leksik-semantik tahlilning o‘quvchilarning nutq rivojiga ta’siri*. – *Til va adabiyot ta’limi* jurnali, 2020, №3, 42–45-betlar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *Harakatlar strategiyasi* (2017–2021-yillar) hujjati. – www.lex.uz

TIL TA'LIMI ISTIQBOLLARI VA INTEGRATSION YONDASHUVLAR

Sidiqova Yulduz Sobirovna,

Buxoro davlat pedagogika institut o'qituvchisi,

E-mail: yulduzsidiqova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada til ta'limining zamonaviy istiqbollari va integratsion yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Fanlararo bog'liqlik, axborot texnologiyalari va madaniyatlararo muloqot orqali til o'rgatishni samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: til ta'limi, integratsiya, kommunikativ kompetensiya, fanlararo yondashuv, ta'lim istiqbollari.

Abstrac. The article analyzes the modern prospects of language education and the significance of integrative approaches. It highlights the effective ways of organizing language learning through interdisciplinary connections, the use of information technologies, and the development of intercultural communication.

Keywords: language education, integration, communicative competence, interdisciplinary approach, educational prospects.

Globalizatsiya va axborotlashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi davrda til ta'limi nafaqat kommunikativ ehtiyojlarni qondirish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, xalqaro miqyosda integratsiyalashuvini ta'minlash uchun muhim omilga aylanmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan integratsion yondashuvlar til o'rganishni boshqa fanlar, madaniyatlar va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish imkonini bermoqda. Bu jarayon, bir tomondan, lingvistik bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois ta'lim jarayoniga audio-vizual metodlardan foydalanish nutqni shakllantirish uning ravonligi va ifodachanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[1: 124].

Til ta'limi istiqbollari, eng avvalo, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, ko'p tillilikni rag'batlantirish va ijtimoiy-madaniy integratsiyani kuchaytirish bilan belgilanadi. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar ham nutqni rivojlantirishning yangi bosqichiga yo'l ochmoqda. Jumladan, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, AKT vositalaridan keng foydalanish hamda integratsion metodlarni

ta'lim jarayoniga joriy etish ustuvor yo'nalishlar sirasiga kiradi. Integratsion yondashuvlarning samaradorligi shundaki, ular tilni o'rgatishda turli fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yadi. Masalan, tarix, geografiya yoki informatika darslarida ham til elementlarini qo'llash orqali o'quvchi bir vaqtning o'zida lingvistik va predmet bilimlariga ega bo'ladi. Bu esa til o'rganishni sun'iy emas, balki tabiiy jarayonga aylantiradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari, multimedia, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'lim platformalari yordamida integratsion o'quv muhiti yaratilib, o'quvchilarda motivatsiya yanada ortadi. Misol uchun virtual reallik va suniy intellekt vositalari yordamida o'quvchilar real hayorda qo'llash mumkin bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin. [2: 954].

Nutq va tafakkurni o'stirish istiqboli, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan tajriba almashish, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish bilan ham bog'liq. Integratsion yondashuvlar nutq va tafakkurni rivojlantirishni yanada takomillashtirish shaxsni ma'naviy boyitish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va global raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, kelajakda til ta'limining integratsion asosda rivojlanishi zamon talabiga javob beruvchi eng samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Nutq va tafakkurni rivojlantirish eng avvalo, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, ko'p tillilikni rag'batlantirish va ijtimoiy-madaniy integratsiyani kuchaytirish bilan belgilanadi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish

– Til bilimini faqat grammatik qoidalarni o'rganish emas, balki real hayotiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash

– Sun'iy intellekt, interaktiv platformalar, virtual sinflar va mobil ilovalar orqali til o'qitishni samarali tashkil etish.

Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish

– Til ta'limi jarayonida boshqa xalqlar tarixi, urf-odatlar, madaniy qadriyatlari bilan tanishtirish.

Hayot davomida o'qish konsepsiyasi

– Tilni faqat maktab yoki oliy ta'lim davrida emas, balki butun umr davomida mukammallashtirib borish zarurligi.

Ko'p tillilik siyosati

– Ona tilini chuqur o'zlashtirish bilan bir qatorda, xorijiy tillarni o'rganish orqali global axborot maydoniga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Til ta'limining istiqboli, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy maktablar va ilmiy markazlar bilan tajriba almashish, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish bilan ham bog'liq. "Nutqiy kompetensiyaning rivoji o'quvchining ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatini belgilaydi". [3:56].

Integratsion yondashuvlarning ahamiyati

Til ta'limida integratsion yondashuvlar deganda, tilni boshqa fanlar bilan uyg'un holda o'qitish, ya'ni fanlararo integratsiya tushuniladi. Bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsiya

– Til ta'limini tarix, geografiya, biologiya, informatika va boshqa fanlar bilan bog'lash. Masalan, ingliz tilida ekologik muammolar bo'yicha matnlar o'qish yoki matematika terminologiyasini chet tilida qo'llash.

Madaniy-integratsion yondashuv

– Til ta'limini adabiyot, san'at, musiqaga integratsiya qilish orqali estetik did va madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirish.

Texnologik integratsiya

– Multimedia, onlayn platformalar, elektron darsliklar va virtual laboratoriyalarni til ta'limiga qo'shish. "Virtual reallikdagi dialog simulyasiyalari o'quvchilarning ijobiy fikrlash tezligini 30% oshiradi". [4:102].

Amaliy integratsiya

– Tilni o'qitishda kasbiy yo'nalishga moslashtirish. Masalan, tibbiyot, huquqshunoslik yoki muhandislik sohasiga oid til kurslari.

Zamonaviy integratsion metodlar

CLIL (Content and Language Integrated Learning) – mazmun va til integratsiyasi; boshqa fanlarni chet tilida o'qitish.

STEAM-integratsiya – ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yo'nalishlarini til o'qitishda qo'llash.

Project-based learning – loyiha asosida ta'lim, bunda talabalar biror mavzuda tadqiqot olib borib, uni chet tilida taqdim etadilar.

Til ta'limining istiqbollari uni zamonaviy texnologiyalar, fanlararo integratsiya va madaniyatlararo muloqot bilan uyg'unlashtirish orqali yanada samarali qilishdan iboratdir. Integratsion yondashuvlar esa nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va global tafakkurni shakllantiradi. Shu

bois, kelajakda til ta'limi fanlararo integratsiya, innovatsion pedagogika va hayot davomida o'qish tamoyillariga asoslangan holda rivojlanadi.

Integratsion yondashuvlar orqali til ta'limini yanada takomillashtirish shaxsni ma'naviy boyitish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va global raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, kelajakda til ta'limining integratsion asosda rivojlanishi zamon talabiga javob beruvchi eng samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi. L.S.Vigotskiy fikriga ko'ra, bola nutqi tabiiy biologik rivojlanish jarayoning bir qismi bo'lib, u muloqot vositasiga aylanishidan avval nutqiy eksprementlar bosqichidan o'tadi. [5:54].

Til ta'limi istiqbollari va integratsion yondashuvlarning yangi qirralari

1. Global tendensiyalar va til ta'limi

Sun'iy intellekt yordamida individual ta'lim: Har bir o'quvchining qiziqishi, bilim darajasi va tezligiga mos shaxsiylashtirilgan dasturlar ishlab chiqish.

Transmilliy ta'lim muhitlari: Virtual almashinuv dasturlari orqali turli mamlakat o'quvchilari onlayn muloqot qilishlari.

Multimodal ta'lim: Tilni nafaqat matn, balki video, podcast, virtual realistik muhit (VR) orqali o'rganish.

2. Til o'qitish metodikasida istiqbollar

Gamifikatsiya – o'quv jarayonini o'yin elementlari orqali jonlantirish. Masalan, "Duolingo" kabi platformalarda tilni o'rganish.

Blended learning (aralash ta'lim) – an'anaviy darslarni onlayn platformalar bilan uyg'unlashtirish.

Adaptive learning – o'quvchi darajasiga mos ravishda avtomatik qiyinchilik darajasini o'zgartiruvchi tizimlar.

3. Integratsion yondashuvlarning kengaytirilgan ko'rinishlari

Lingvokulturologik integratsiya: Til ta'limini xalqning madaniy merosi, folklor, milliy qadriyatlar bilan birlashtirish.

Ekologik integratsiya: Global ekologik muammolarni o'rganish jarayonida chet tilidan foydalanish (masalan, "Green English" yoki "Eco-German" kurslari).

Kasbiy-integratsion yondashuv: O'qituvchilar, shifokorlar, huquqshunoslar yoki IT mutaxassislariga mo'ljallangan maxsus til kurslari orqali tilni amaliyot bilan bog'lash.

4. Til ta'limida zamonaviy kompetensiyalar

Media savodxonlik: Chet tilidagi axborot oqimini tahlil qilish, tanqidiy baholash.

Soft skills integratsiyasi: Til o'rganishda yetakchilik, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Global fuqorolik: Til o'rganish orqali inson huquqlari, ijtimoiy adolat, tinchlik kabi universal qadriyatlarni singdirish.

5. Til ta'limining kelajakdagi vazifalari

O'quvchilarni ko'p tillilik (multilingualism) muhitiga tayyorlash.

Tilni nafaqat o'rganish, balki ijodiy ifoda vositasi sifatida qo'llash.

Umumjahon mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash: kasbiy til va xalqaro kommunikatsiyani chuqur o'zlashtirish orqali.

Psixolingvistik yondashuvlarni qo'llash: til o'rganish jarayonida psixologik xususiyatlarni hisobga olish.

Filologik ta'lim va informatika fanlarini integratsiyalash zamonaviy o'quvchining ehtiyojlariga mos ta'limni ta'minlaydi, so'z va texnologiya o'rtasidagi muvozanatni yaratadi, o'quvchilarni ijodiy, raqamli va analitik jihatdan rivojlantiradi, kasb-hunarga tayyorlov (raqamli kontent yaratuvchisi, editor, blogger, dizayner) uchun zamin yaratadi, raqamli va lingvistik savodxonligini birlashtiradi, tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, adabiy-estetik tafakkurni texnologik vositalar bilan boyitadi, o'quvchini raqamli muhitda fikr ifodalay oladigan ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тункун Я.А. Основы нейропедагогики: история, теория и практика. – Cyberleninka: Санкт-Петербургский государственный университет, 2024. –С.124.
2. Абдуллаева Н.А. Maktabda samarali ta'limni ta'minlashda neyropedagogikaning ahamiyati. – International Journal of Education and Social Science Research: Fars Publishers, 2024.
3. Вайнер М.Э. Современные подходы к развитию речи. -Москва: Академия, 2017, -с.56.
4. Garcia L. EdTech Innovations. Elsevier, 2021, p.102.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1982. – С.54.
6. Sobirova, D. *Integratsion ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
7. Nazarov, Q. *Ta'limda kommunikativ yondashuv asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF SELF-ASSESSMENT

Mahmudova Zilola Shukhrat qizi

EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University

E-mail: z.mahmudova@cspu.uz

Abstract

Self-assessment has emerged as a significant instrument in education that bridges psychology and pedagogy. This instructional technique promotes learner autonomy, critical thinking, and accountability for individual advancement. This instructional approach fosters learner autonomy, critical thinking, and personal responsibility. This psychological phenomena fosters self-reflection, self-concept, motivation, and emotional regulation. This study examines the educational and psychological dimensions of self-assessment, focusing on its theoretical foundation, practical use, and influence on students' cognitive and emotional growth. The research utilizes established academic literature to assert that self-assessment enhances the comprehensive growth of learners by incorporating cognitive, emotional, and social aspects of learning. Furthermore, the study examines issues like subjectivity, cultural factors, and insufficient student preparedness, while suggesting pragmatic alternatives for effective integration into educational systems.

Keywords: *self-assessment, pedagogy, psychology, reflective learning, learner autonomy, metacognition, emotional intelligence, motivation, higher education.*

Annotatsiya

O'z-o'zini baholash ta'limda psixologiya va pedagogika o'rtasida muhim vosita sifatida paydo bo'ldi. Ushbu o'quv usuli o'quvchining mustaqilligini, tanqidiy fikrlashini va shaxsiy rivojlanish uchun mas'uliyatni rag'batlantiradi. Bu o'quv yondashuvi o'quvchining mustaqilligini, tanqidiy fikrlashini va shaxsiy javobgarligini rivojlantiradi. Ushbu psixologik hodisa o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tushunish, motivatsiya va hissiyotni boshqarishni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu tadqiqot o'z-o'zini baholashning ta'limiy va psixologik o'lchamlarini, uning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi va talabalar kognitiv hamda hissiy o'sishiga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot mavjud akademik adabiyotlarga tayanib, o'z-o'zini baholash o'quvchilarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlarini o'z ichiga olgan kompleks rivojlanishini yaxshilashini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, tadqiqot mavhumlik, madaniy omillar va talabalar

tayyorgarligining yetishmasligi kabi muammolarni ko'rib chiqadi va ta'lim tizimlariga samarali integratsiya qilish uchun amaliy yechimlarni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: *o'z-o'zini baholash, pedagogika, psixologiya, refleksiv ta'lim, o'quvchi mustaqilligi, metakognitsiya, emotsional intellekt, motivatsiya, oliy ta'lim.*

Аннотация

Самооценка стала важным инструментом в образовании, объединяющим психологию и педагогику. Этот учебный метод способствует автономии учащихся, критическому мышлению и ответственности за индивидуальное развитие. Такой подход в обучении развивает самостоятельность учащихся, критическое мышление и личную ответственность. Это психологическое явление способствует саморефлексии, самоконцепции, мотивации и эмоциональной регуляции. В данном исследовании рассматриваются образовательные и психологические аспекты самооценки, с акцентом на ее теоретическую основу, практическое применение и влияние на когнитивное и эмоциональное развитие студентов. Исследование использует признанную академическую литературу для утверждения, что самооценка способствует всестороннему развитию обучающихся, учитывая когнитивные, эмоциональные и социальные аспекты обучения. Кроме того, исследование рассматривает такие проблемы, как субъективность, культурные факторы и недостаточная подготовленность студентов, предлагая практические решения для эффективной интеграции в образовательные системы.

Ключевые слова: *самооценка, педагогика, психология, рефлексивное обучение, автономия учащегося, метакогниция, эмоциональный интеллект, мотивация, высшее образование.*

Assessment is now regarded as an essential element of the learning process, rather than merely a mechanism for evaluating learning outcomes. Self-evaluation is a transformative assessment method that necessitates students to critically analyze their performance, identify strengths and weaknesses, and assume responsibility for their academic advancement.

From an educational standpoint, self-assessment facilitates the shift from teacher-centered to learner-centered instruction. It enables students to engage actively in their learning, so augmenting their autonomy and critical thinking abilities.

From a psychological standpoint, self-assessment is intricately linked to learners' self-concept, motivation, metacognitive awareness, and emotional regulation. It is crucial in fostering confidence, resilience, and enduring learning practices.

Consequently, self-assessment embodies a significant amalgamation of pedagogy and psychology, rendering it an essential topic for academic inquiry.

The emergence of self-assessment as a concept and practice is rooted in various significant educational and psychological theories. According to constructivist learning theory, learners actively build knowledge via engagement and reflection rather than passively absorbing information. In this context, self-assessment serves as a mechanism for students to reevaluate their comprehension, assimilate new information, and engage actively in their educational pursuits [10, 86]. Flavell's concept of metacognition emphasizes the significance of awareness and regulation of cognitive processes. Self-assessment enables learners to monitor and evaluate their strategies, thereby improving problem-solving and fostering independent learning. Humanistic psychology, as promoted by Rogers and Maslow, advocates for self-assessment by highlighting personal development, intrinsic motivation, and self-actualization.

Additionally, the self-assessment mechanism is identified as a crucial mechanism in Zimmerman's model of self-regulated learning. This mechanism allows learners to independently set goals, monitor their progress, and alter their approaches. Taking all of these theories into consideration, it appears that self-assessment is not merely a superficial evaluative activity, but rather a comprehensive psychological process that incorporates self-development, autonomy, and reflection into the larger learning experience.

Self-assessment is a crucial factor that brings about a transformation in the educational process from a pedagogical point of view. Through the distribution of more responsibility for the students' achievement and the reduction of excessive reliance on the teachers, it enhances the autonomy of the learners. In addition, considering that self-assessment is a formative assessment tool, it fosters continual growth rather than concentrating just on the results of the final evaluation. The ability to critically evaluate one's own experiences and methods is made possible by the practice of reflection, which Schon identifies as an essential professional and academic talent. Self-assessment also incorporates reflection as an inherent component. In addition, the process of self-evaluation helps to foster the development of abilities that are applicable in a variety of contexts, including analytical thinking, decision-making, and conflict resolution. Students are able to compare their performance to criteria, recognize their strengths, and correct their flaws in a methodical manner when they participate in structured self-evaluation activities. Examples of practical applications in higher education include reflective journals and portfolios.

There is a significant impact that self-assessment has on the personal and emotional growth of learners, as demonstrated by the psychological aspects of this practice. In contrast to Deci and Ryan's Self-Determination Theory, which indicates how autonomy in learning can boost intrinsic motivation, Bandura's concept of self-efficacy demonstrates how frequent self-evaluation can promote confidence and competence. Self-assessment, according to Goleman, is also tied to emotional intelligence because it needs self-awareness, empathy, and the ability to digest feedback in a constructive manner by the individual doing the assessing. Furthermore, learners develop resilience through the engagement in reflective activities. They learn to reframe failure as an opportunity for progress rather than as a danger to their self-esteem, which is a significant step towards building resilience.

Further evidence from empirical study substantiates the numerous advantages of engaging in self-evaluation. The authors Nicol and Macfarlane-Dick (2006) highlight the cognitive benefits of this practice, which include improved metacognition and critical thinking. On the other hand, the affective benefits include increased self-confidence and motivation. When combined with peer evaluation, it contributes to the development of social skills such as teamwork and dialogue. Students gain skills that enable lifetime learning and professional development through the process of self-assessment, which is perhaps the most essential feature of this activity. For instance, Andrade and Du (2007) discovered that students who participated in organized self-assessment displayed a considerable improvement in their writing skills when compared to their classmates.

Nevertheless, self-assessment is not without challenges. One of the most common issues is subjectivity, as students may either underestimate or overestimate their abilities, which leads to discrepancies with teacher evaluations [3, 534]. Cultural values may also affect self-assessment, as in collectivist contexts learners often avoid overly positive self-evaluations due to social modesty. Moreover, without explicit training, students may lack the necessary skills to conduct accurate and meaningful self-evaluations. Finally, some learners experience assessment anxiety when required to judge their own performance, which can negatively impact the reliability of results.

To address these limitations, several strategies have been recommended. Clear rubrics and criteria help guide learners toward objective evaluations. Scaffolding and teacher mediation provide gradual support, while combining self-assessment with peer-assessment balances subjectivity [8, 205]. Reflective tools such as journals, logs, and portfolios enhance the depth of evaluation, and technology-based platforms create

more interactive and engaging self-assessment opportunities. By systematically integrating these strategies, educators can ensure that self-assessment remains reliable, valid, and genuinely beneficial to student learning and development.

Conclusion

In summary, self-assessment is an effective educational and psychological instrument that fosters learner autonomy, metacognitive awareness, and intrinsic motivation. The effective execution in higher education necessitates a balanced strategy, integrating systematic methodologies with avenues for individual contemplation. Self-assessment enhances academic performance and equips students for lifelong learning in a dynamic environment by cultivating critical thinking, emotional intelligence, and accountability.

REFERENCES:

1. Andrade, H., & Du, Y. (2007). Student responses to criteria-referenced self-assessment. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 32(2), 159–181.
2. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7–74.
3. Boud, D., & Falchikov, N. (1989). Quantitative studies of student self-assessment in higher education: A critical analysis of findings. *Higher Education*, 18(5), 529–549.
4. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
5. Kazakhbaeva , A., & Mahmudova , Z. (2025). CHALLENGES AND SOLUTIONS FOR IMPROVING ENGLISH SPEAKING SKILLS AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS .*International Conference on Business Management and Humanities* , 3(2), 73–75.
6. Mahmudova, Z. (2025). THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS AMONG STUDENTS. *Академические исследования в современной науке*, 4(38), 81-83.
7. Mansurbekova, K. M. Q., & Mahmudova, Z. S. Q. (2025). THE ROLE OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING (CLT) IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS: A MULTIMODAL APPROACH. *Academic research in educational sciences*, 6(NUU Conference Students 1), 115-119.
8. Nicol, D. J., & Macfarlane-Dick, D. (2006). Formative assessment and self-regulated learning: A model and seven principles of good feedback practice. *Studies in Higher Education*, 31(2), 199–218.

9. Turmamatova, D. N. Q., & Makhmudova, Z. S. Q. (2025). WAYS AND PRINCIPLES OF DEVELOPING PRONUNCIATION SUB-SKILLS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. Academic research in educational sciences, 6(NUU Conference Students 1), 181-184.

10. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR TAMOYILLARI VA MUHIM OMILLARI

Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdá boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati, tamoyillari va samarali usullari yoritiladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda o'qishga qiziqish uyg'otish, mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish va badiiy asarlardan estetik zavq olishni shakllantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda interaktiv metodlar, multimedia vositalari hamda o'qish motivatsiyasini oshiruvchi innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, o'qishga qiziqish, metodika, interaktiv usul, o'qish motivatsiyasi, innovatsion yondashuv.

Annotation. This thesis discusses the importance, principles, and effective methods of developing reading culture among primary school students. It analyzes the process of fostering interest in reading, developing independent reading skills, and cultivating an appreciation for literary works at the early stages of education. The study also highlights the role of interactive methods, multimedia tools, and innovative approaches that enhance reading motivation during classroom and extracurricular activities.

Keywords: reading culture, student, primary education, reading interest, methodology, interactive method, reading motivation, innovative approach.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматриваются значение, принципы и эффективные пути формирования культуры чтения у учащихся начальных классов. Анализируется процесс развития интереса к чтению, формирования навыков самостоятельного чтения и воспитания эстетического восприятия художественных произведений на ранних этапах обучения. Особое внимание уделяется использованию интерактивных методов, мультимедийных средств и инновационных подходов, повышающих мотивацию к чтению как на уроках, так и во внеурочной деятельности. **Ключевые слова:** культура чтения,

учащийся, начальное образование, интерес к чтению, методика, интерактивный метод, мотивация к чтению, инновационный подход.

Har bir jamiyatning istiqboli bugun kamol topayotgan bolalar, yoshlar tomonidan bunyod etiladi. Shu sababli yosh avlod tarbiyasini tashkil etish eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sanaladi. U qanday zamon, qaysi makon bo'lishidan qat'iy nazar hamisha ushbu vazifaning ijobiy hal qilinishi jamiyatning e'tibor markazida bo'lgan. Mavjud sharoitda O'zbekistonda yosh avlodga ta'lim berish, ularni umuminsoniy qadriyatlar, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivoji bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy talablar, ijtimoiy ehtiyojlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. Zero, yosh avlodning kamoloti, u bilan uzviy bogig holda jamiyatning ravnaqi ularning ijtimoiy-hayotiy maqsadlari, ustuvor qadriyatlari, oliy darajadagi intilishlari hamda keng dunyoqarash asosida ta'minlanadi. Bunga erishishda bolalar va yoshlarning kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan munosabatlari muhim ahamiyatga ega. "...Bugungi bolalar ertangi kunda xalqqa aylanadi. Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim", - deya alohida ta'kidlab o'tadi O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Kitob o'qish asabni tinchlantiradi (Sasseks universiteti (AQSH) olimlarining yondashuvlariga ko'ra, kitob o'qitish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan; buning uchun kuniga bor-yo'g'i 6 daqiqa vaqt sarflash talab etiladi); hissiyotlarni (xuddi duo yoki she'r o'qish kabi) tarbiyalaydi (badiiy asar o'qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshi tushunadi); miya faoliyatining faolligini oshiradi, miyadagi asab tolalarining sonini ko'paytiradi (Emori universiteti (AQSH)ning tadqiqotchilariga ko'ra, kitob o'qish natijasida insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo'ladi); kommunikativlik, tinglash, yozish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi (Obafemi Avolau universiteti (AQSH) pedagoglari bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishini aniqlashgan, darhaqiqat, ko'p kitob o'qigan shaxslarning aksariyati she'r, hikoya, esse yoki ilmiy maqolalarni yuqori saviyada yoza oladi; badiiy asarlarni, ayniqsa, she'rlarni ifodali o'qish, sahna asarlarini yuksak mahorat bilan ijro etish qobiliyatiga ega); ijtimoiy faollikni oshiradi; badiiy didni o'stiradi; xorijiy tillarni o'rganishni osonlashtiradi (boshqa tillarni o'rganishda yangi so'zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi); ko'p kitob

o'qiydigan bolalar darslarni yaxshi o'zlashtirishadi; yaxshi hikoyanavisga aylantiradi (qancha ko'p kitob o'qilsa, shaxsning hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi), ota-onalar va farzandlarning o'zaro munosabatlari yaxshilanadi.[1]

S.A.Denisovning tadqiqoti" da bolalarda kitob o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi asosiy muhit sifatida oila va unda tashkil etilayotgan tarbiya masalalari o'rganiladi. Muallifning e'tirof etishicha, qachonki oilaning katta yoshli a'zolari kitobxon bo'lsa, oilada kitobga nisbatan kattalarning ijobiy munosabati aks etsa, oila davrasida kitoblar va ularda bayon etilgan voqeliklar, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama qilinsa, ularga nisbatan munosabat bildirilsa, oila a'zolari tomonidan yangi chop etilgan asarlar haqidagi ma'lumotlar o'zaro o'rtoqlashilsa, uning juda ham qizilarli ekanligi e'tirof etilsa, bolalarda ham kitob o'qishga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyoj yuzaga keladi.[2]

Muallif bolalarda juda yoshligidan shakllantirilgan kitobga nisbatan ijobiy munosabat uning butun hayoti davomida o'z izini qoldiradi. Qolaversa, bu o'rinda uy kutubxonasining tshkil etilishi ham kutilgan natijalarni qo'lga kiritish uchun sharoit yaratadi.

M.M.Bezrukix tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda bolalar, yoshlar va umuman, aholi o'rtasida kitobxonlik malakasi va madaniyatini shakllantirishda davlatning o'ziga xos o'rin tutishiga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi davlatning bu boradagi roli quyidagi ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi: 1) oliy ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarni to'g'ri o'qishga o'rgatishdan iborat, 2) ota-onalar o'rtasida ma'rifiy targ'ibotni tashkil etish; uchinchidan, bolalar yozuvchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash.[3]

Xorij tajribalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish, kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun bir qator samarali metodlardan foydalanish taklif etiladi. Quyida ushbu metodlardan ayrimlarining didaktik imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritiladi:

1.**Kassil metodi.** Unga ko'ra o'qituvchi yoki ota-onalar asarning eng qiziq joyida kitob o'qishni to'xtatadi. Ular shu o'rinda o'qishni davom ettirish uchun vaqtlari yo'qligini, bajaradigan boshqa muhim ishlari borligini aytishadi. Oxir-oqibat bola asar qahramonining hayoti qanday kechganligini bilishni istaydi va kitobni qo'lga oladi. Boshlang'ich sinflarda alifbodagi harflar bilan tanish bolalar asarning davomini garchi hijjalab bo'lsa-da, o'zi o'qishga harakat qiladi. Ammo hali u qadar o'qishni yaxshi uddalay olmaydigan bolalar beixtiyor oilaning boshqa a'zolari yoki maktabda o'qituvchidan yordam so'rashga majbur bo'ladi. SHunda oila a'zolari yoki

o'qituvchining javobi quyidagicha bo'lishi zarur: "Yaxshi, yordm beraman, ammo, shunday yo'l tutamiz: ikkita xatboshi (abzats)ni men o'qiyman, bitta xatboshi (abzats)ni sen!". Voqeaning rivojiga juda qiziqqan bolalar bu taklifga rozi bo'ladi.

2. Iskra Daunis metodi. Kasbi psixolog bo'lgan I.Daunis ham maktabgacha hamda boshlang'ich ta'lim yoshi bolalarida kitob o'qishga qiziqishni rivojlantirish maqsadida samarasi yuqori bo'lgan metodni asoslagan. Psixolog nomi bilan ataladigan ushbu metodning mohiyati quyidagicha: kunlardan bir kuni bola uyquga yotadi va uyqudan turgach, yostig'i ostida o'zining sevimli mulbfilsmi qahramoni bo'lgan Karlsondan maktub oladi. Maktubda ikki qatorda yirik harflar bilan Karlson u bilan do'stlashmoqchi ekanligini va unga u yer bu yerda qoldiriladigan sovg'alarni berishni aytadi. Ertasi kuni ertalab esa bola yostig'i ostidan yana bir maktubni topadi. Endi maktubda soqq'a haqida emas, balki Karlson uning uchun tsirkka bilek qoldirmoqchi ekanligini bildiradi. Ammo bilekni olib kelgan vaqtda bolaning mushugini ko'rib qolib, uning dumidan tormoqchi bo'ladi. Mushuk esa qattiq miyovlab uni cho'chitib yuboradi. Qo'rqib ketgan Karlson bilekni qoldirmay, mushukdan qochib ketadi. Bilekni esa qoldirishni unutadi. Bola shu tahlitda har kuni Karlsondan maktub oladi. Maktubda yozilgan matn kundan-kunga uzunroq, lekin o'qilishi osonroq bo'lib boradi.

3. "Asarning muqovasini diqqat bilan o'rganish" metodi. Xorijlik pedagog olimlar tomonidan tavsiya etilayotgan metodlardan yana biri - asarning muqovasini diqqat bilan o'rganish sanaladi. Ushbu metoddan foydalanishda quyidagi tartibda yo'l tutiladi:

1) o'quvchilarga badiiy asarning muqovasini ko'zdan kechirish, asosiy yozuvlar - muallifning ismi, sharifi hamda asarning nomi hamda illyustratsiyasi (bezagi)ga e'tibor qaratish talab etiladi; 2) o'quvchilar asarning muqovasini ko'zdan kechiradi;

3) o'quvchilarga asar muallifi bo'lgan yozuvchi yoki shoir, uning asarlari to'g'risida qanday ma'lumotlarga egalikni yodga olish taklif qilinadi;

4) o'quvchilar muallif, uning asarlariga oid ma'lumotlarni bayon qilishadi;

5) o'qituvchi boshchiligida asar bo'yicha ishlangan mulatfilam yoki badiiy filam tomosha qilinadi;

6) o'quvchilarga asar va unga ishlangan mulstfilum yoki badiiy filam syujetlarini o'zaro solishtirish topshirig'i beriladi;

7) o'qituvchi boshchiligida o'quvchilar tomonidan topshiriqning bajarilishi muhokama qilinadi.[4]

Quyida qayd etilgan tamoyillarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati kata:

Korporativ yondashuv o'quvchilar, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitob o'qish, kitobxonlik g'oyalarini targ'ib etish umumiy o'rta ta'lim maktablari jamoasining birgalikda, yakdillik va hamkorlikda amalga oshiriladigan tizimli, majmuaviy jarayon ekanligini anglatadi. Unga ko'ra har bir umumiy o'rta ta'lim maktabi o'zining bu boradagi kontseptsiyasi, umumiy ish rejasiga ega bo'lishi bilan birga, yagona maqsad asosida har bir sinfning ham istiqbol vazifalarni belgilovchi yo'naltiruvchi dastur negizida faoliyat yuritishidan dalolat beradi. Sinflarning o'z yo'naltiruvchi dasturi g'oyalarini pedagogik amaliyotga samarali tatbiq etishda umumiy o'rta ta'lim maktabi jamoasi nazariy-metodologik, tashkiliy-texnologik hamda amaliy-metodik yordam ko'rsatadi. Erishilgan yutuqlarning omili, mavjud kamchiliklarning maktab pedagogik jamoasi tomonidan birgalikda tahliliy o'rganiladi hamda keyingi davr (o'quv yili) uchun istiqbolli loyihalarni o'zaro hamkorlikda ishlab chiqadi.

Maqsadli yondashuv umumiy o'rta ta'lim maktabi, qolaversa, mavjud sinflarning o'quvchilar, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitob o'qish, kitobxonlik g'oyalarini targ'ib etish yo'lida qisqa, o'rta va uzoqvaqt kamchiliklardan xabar bo'lish, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni barataraf etish yo'lida amaliy harakatni tashkil qilish, istiqbol loyihalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Volontyorlik (lot. "voluntarius" ko'ngilli ravishda, ko'ngilli bo'lib) ko'ngilli ravishda tashkil etiladigan faoliyat turi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinf o'quvchilarining jalb etilishini nazarda tutadi. Ma'lumki, ta'lim muassasalarida ijtimoiy-foydali mehnat tashkil etiladi. Volontyorlik ham o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-foydali faoliyat turi sifatida ikki tomonlama amaliy qiymatga ega. Birinchidan, volontyorlik qilayotgan o'quvchilarda ijtimoiy faollik, o'zini anglash, o'z kuchiga ishonish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini hurmat qilish, olijanoblik (atrofdagilarga yordam berish), kommunikativlik kabi sifatlarni hosil qilsa, ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan jarayonning izchil, uzluksiz va tizimli olib borilishi uchun zarur sharoitni yuzaga keltiradi. So'z yuritilayotgan jarayonda ko'ngilli o'quvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarlarni o'qib berish, o'qituvchi yordamida tayyorlangan savollar asosida suhbat tashkil etish, ularni asar qahramonlarining suratini ishlashga jalb qilish, o'qish boshlangan ertakni davom ettirishga undash kabi vazifalarni bajaradi.

Dars va sinfdan tashqari o'qish mashg'uloti birligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlikni va kitobxonlik ko'nikmalarini o'zaro aloqadorlikda

rivojlantirishni anglatadi. Agar dars jarayonida o'quvchilar o'qish ko'nikmalari (to'g'ri o'qish, tezkor o'qish, o'qishning ifodaviyligi, tushunib o'qish ko'nikmalari)ning kitobxonlik ko'nikmalari (boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qish qoidalaridan xabardorligi, qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitob (badiiy asar)ni tanlashi, kitob o'qishga odatlanishi va bu yo'lda harakatlarni izchil, doimiy tashkil etishi, kitob o'qishdan zavqlanishi, asar mazmunini tushunishi, shuningdek, kitob o'qishdan olgan taassurotlarini atrofdagilar bilan o'rtoqlash)ga aylanishiga yordam beradi.

Tadqiqotni olib borishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonda samarali bo'lgan omillar ham aniqlandi.

I. Bolalar adabiyotlari. Bu turdagi kitoblarni yaratish ta'lim berishga ehtiyojning vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan. O'tgan vaqt mobaynida yaratilgan bolalar adabiyotlari mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, milliy-madaniy qadriyatlar, shuningdek, kitobga bo'lgan milliy yondashuvdan kelib chiqqan holda takomillashib bordi. Zamonavi bolalar adabiyotlar o'z mazmuni, g'oyasi, dizayni, didaktik imkoniyatlariga ko'ra bugungi kun talabi va ehtiyojiga to'la javob berardi. Bugungi kunda kitob do'konlarida o'yinchoq, kesik, yumshoq va manzarali (panorama) kitoblar mavjud bo'lib, ularning o'ziga xos dizayni, poligrafiyasi bolalarning diqqatini tortib, ularda badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirmoqda.

II. Oilaviy o'qish. O'z mohiyatiga ko'ra "oilaviy o'qish - ota-onalarning farzandlari bilan birgalikda badiiy adabiyotlarni o'qish asosida ularda intilishni kuchaytiradigan axloqiy mavzulardagi suhbatlari". Suhbatlar tanlangan badiiy asar mohiyati, xarakteri, janri, hajmiga ko'ra qisqa va uzun bo'lishi mumkin. Oila davrasida badiiy asarlar yuzasidan kechadigan suhbatlarda muloqot, asosan, ota-onalar (buva-buvilar) va farzandlar o'rtasida kechadi. Biroq, bu kabi suhbatlar yoshi katta (o'stir, o'spirin) aka-opalar va uka-singillar o'rtasida ham tashkil etilishi mumkin.

III. Ta'lim jarayoni (dars). O'quv muassasalarining faoliyatida ta'lim jarayoni (dars) asosiy o'rinni egallaydi. O'qitish jarayonida vaqt byudjeti, o'qituvchilar kontingenti, zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish asosida uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bosqichida ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)lar tomonidan DTSda belgilangan bilim, ko'nikma, malakani o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Qolaversa, boshlang'ich sinflarda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan "O'qish" fanining o'quv dasturidan juda ko'plab badiiy asarlardan namunalar o'rin olgan. Shu sababli ushbu fan doirasida mavzular negizida berilgan matnlar samarali o'zlashtirish o'quvchilarning kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqish, ehtiyoj, intilishlarini rivojlantiradi.[4]

Quyida "O'qish" darslarida badiiy matnlarni o'zlashtirishga nisbatan innovatsion va interfaol yondashuv mohiyati ochib beriladi.

"Blits-so'rov" metodi yordamida "Chaqimchiga mukofot" hikoyasida ishlatilgan tushunchalar mazmunini yoritish. "Blits-so'rov" metodi (ing. "blits" tezkor, bir zumda) berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod. O'qituvchi savollar berdi. O'quvchilar javoblarni o'qituvchi tomonidan belgilangan yondashuvga ko'ra jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytardi. Guruh va juftlikda ishlanganda bir nafar o'quvchi, ko'p holatlarda esa har bir savolga alohida-alohida o'quvchi javob qaytardi, guruhdoshlari yoki sherigining javobni to'ldirdi. Bunga javobning qisqa, lo'nda va aniq bo'lishiga e'tibor qilindi.

Dars jarayonida "Chaqimchiga mukofot" hikoyasi bo'yicha blits-so'rov tashkil etilib, o'qituvchi tomonidan tanlangan tushunchalar negizida o'quvchilar javobning qisqa, lo'nda va aniq bo'lishiga e'tibor qilindi.

"Chaqimchiga mukofot" hikoyasi bo'yicha blits-so'rov

Blits-so'rov savollari	Blits-so'rov javoblari
1. Hokim -	1. Hokim -boshliq
2. Jilovdor-	2. Jilovdor -jilovni ushlab yuruvchi
3. Otboqar -	3. Otboqar -otni parvarish qiluvchi kishi
4. Sir	5. Sir -hech kimga aytilmaydigan gap
5. Qasam -	7. Qasam -biror-bir ishni bajarishga qat'iy kirishish
6. Bevafo -	8. Bevafo - kimnidir ishonchini poymol qilish
7. Xiyonat -	9. Xiyonat - kimnidir ishonchiga qarshi ish qilish
8. Fursat -	8. Fursat -vaqt

Dars jarayonida "Chaqimchiga mukofot" hikoyasi bo'yicha blits-so'rov tashkil etilib, o'qituvchi tomonidan tanlangan tushunchalar negizida o'quvchilar ularni sharhladi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish – bu ularning tafakkurini, dunyoqarashini va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim jarayondir. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun

o'qituvchilar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqish doirasi va psixologik tayyorgarligini inobatga olishlari zarur.

Kitobxonlikni rivojlantirishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularni o'qilgan matn yuzasidan tahlil va muhokama qilishga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarini, elektron kutubxonalarni va interaktiv usullarni o'quv jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarda kitobga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Boshlang'ich sinfda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish o'qituvchining metodik mahorati, o'quvchilarning faolligi hamda otionalarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlariga bog'liq bo'lib, bu yo'nalishdagi izchil ishlar kelajakda intellektual salohiyati yuqori, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kitob o'qishning 21 foydasi. <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/14196-kitob-oqishning-21-foydasi.html>
2. Денисова С.А. Родители о детском чтении и роли библиотек // Ж. Родительское собрание по детскому чтению.- 2008. - С. 32.
3. Мокина М. Чтение основа грамотности // Ж. Этносфера. – М.: 2008. - № 12. - С. 21-22.
4. D.A.Muminova. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi". (Monografiya). Namangan.2019. -№50-55

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI MATEMATIK TERMINOLOGIYANI O'RGATISHNING AFZALLIKLARI

M.A.Karimova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

2-bosqich magistranti

mahliyokarimova040@gmail.com

A.X.Boymurodov

Chirchiq davlat pedagogika

universiteti dotsenti

adham.boymurodov79.19@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida matematik terminologiyani o'rgatish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Terminologiyani samarali o'zlashtirishda raqamli ta'lim vositalari, xususan, SI asosidagi platformalarning afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, matematika va til integratsiyasi jarayoni (CLIL yondashuvi) asosida o'quvchilarda matematik hamda lingvistik kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda SI yordamida avtomatik tarjima, izoh berish kabi tushunchalarning ta'limiy ahamiyati ham asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, matematik terminologiya, raqamli ta'lim, shaxsiylashtirilgan o'qitish, integratsiya, CLIL, lingvistik kompetensiya

Annotation. This thesis analyzes the peculiarities of teaching mathematical terminology through artificial intelligence technologies. The advantages of digital educational tools, particularly AI-based platforms, in translating, explaining, and creating personalized exercises are highlighted. The CLIL approach, integrating mathematics and language, is discussed as a way to simultaneously develop learners' mathematical and linguistic competencies. The educational importance of AI-assisted translation and explanation is also emphasized.

Keywords: artificial intelligence, mathematical terminology, digital education, personalized learning, integration, CLIL, linguistic competence.

Matematika fani o'zining murakkab terminologiyasi bilan ajralib turadi. O'quvchilar ko'pincha matematik tushunchalarni faqatgina raqamlar va formulalar

orqali emas, balki ularning atamalarini ham to'g'ri tushunib, qo'llay olishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt asosidagi platformalar matematik terminlarni o'rganishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Sun'iy intellektning asosiy afzalliklari – murakkab matematik terminlarni tezkor tarjima qilish, ularni izohlash, kontekstda qo'llash va mashqlar yaratib berish imkoniyatidir. Masalan, “integral”, “derivative”, “matrix” kabi atamalarni SI yordamida o'quvchilarga nafaqat izohlash, balki grafik va vizual ko'rinishda taqdim etish o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Birinchidan, multimodal o'qitish tamoyili qo'llaniladi. Terminlarni faqat matn shaklida emas, balki jadval, diagramma, grafik va formulalar bilan izohlash ularning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Masalan, “vector” tushunchasi nafaqat matnda, balki koordinata tekisligida tasvirlangan holda ko'rsatilsa, o'quvchi uni amaliy misollar bilan bog'lay oladi.

Ikkinchidan, shaxsiylashtirilgan mashqlar yaratish imkoniyati mavjud. Har bir o'quvchining bilim darajasi va xatolarini tahlil qilgan holda sun'iy intellekt unga mos individual topshiriqlarni ishlab chiqadi. Bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va terminlarni mustahkamlashda samaradorlikni ta'minlaydi.

Uchinchidan, fan va til integratsiyasi (CLIL yondashuvi) qo'llanilishi mumkin. Matematika terminlarini ingliz, rus yoki boshqa chet tillarida o'rgatish nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki matematik bilimlarni ham rivojlantiradi. Masalan, ingliz tilida “function”, “derivative”, “equation” kabi atamalarni o'rganish orqali o'quvchilar fanlararo integratsiyaga erishadilar.

To'rtinchidan, sun'iy intellekt asosida nutq va yozuv malakalarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. O'quvchilar terminlarni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qilishlari, matn yozishda ularni o'rinli qo'llashni o'rganishlari mumkin. Bu jarayonda chat-botlar, ovozli yordamchilar va avtomatik tuzatish vositalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy qo'llanilish sohalari kengdir:

- Oliy ta'limda – matematika, informatika va muhandislik yo'nalishida ingliz tilidagi terminologiyani o'qitishda;
- Umumta'lim maktablarida – fanlararo integratsiya asosida matematika va chet tili darslarini uyg'unlashtirishda;
- Masofaviy ta'lim platformalarida – interaktiv lug'atlar, testlar, mashqlar va vizual darsliklarni yaratishda.

Matematika fanini o'qitishda terminologiya o'zlashtirilishi nafaqat fan mazmunini to'liq anglash, balki o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini bu jarayonga joriy etish ta'lim sifatini oshirishda dolzarb hisoblanadi.

Avvalo, SI yordamida interaktiv lug'atlar yaratish mumkin. Bunday lug'atlar nafaqat atamalarning ta'rifi, balki ularning talaffuzi, qo'llanish sohasi va real hayotiy misollarini ham o'z ichiga oladi. Natijada o'quvchi atamalarni izolyatsiyada emas, balki amaliy kontekstda o'rganadi.

Bundan tashqari, SI asosidagi test va mashqlar tizimi o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini doimiy ravishda kuzatib boradi. Xatolar tahlil qilinib, shu asosda individual tavsiyalar va qo'shimcha topshiriqlar berilishi mumkin. Bu esa ta'limda adaptiv yondashuvni ta'minlaydi.

Yana bir muhim jihat — SI yordamida ko'p tillilik imkoniyatining kengayishi. Masalan, matematika atamalarini o'zbek, rus va ingliz tillarida birgalikda o'rganish orqali o'quvchilarda fanlararo kompetensiya shakllanadi. Bu esa ularning xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, SI texnologiyalari yordamida yaratilgan multimodal darsliklar, interaktiv mashqlar va avtomatik izoh beruvchi tizimlar o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi, darslarni samarali va interfaol tashkil etish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt asosidagi yondashuv matematik terminologiyani o'rgatishda yangi bosqichni boshlab beradi. Bu jarayon o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmasini, tanqidiy va kreativ fikrlashni, shuningdek, lingvistik va matematik kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, sun'iy intellekt asosida matematik terminologiyani o'rgatish nafaqat raqamli ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi, balki o'quvchilarda matematik va lingvistik kompetensiyalarni birgalikda shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv kelajakda ta'lim sifatini oshirish, fan va til integratsiyasini chuqurlashtirish hamda o'quvchilarni global ta'lim makoniga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – 250 b.

- Cukurova, M., & Luckin, R. "The Impact of Artificial Intelligence on Education." *British Journal of Educational Technology*, 49(3), 2018. – B. 489–497.
- Mayer, R. *Multimedia Learning*. Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 356 b.
- Marsh, D. *Using CLIL to Teach Mathematics and Science*. Jyväskylä: University of Jyväskylä, 2000. – 120 b.
- Oxford, R. *Teaching and Learning Vocabulary: Bringing Research to Practice*. New York: Routledge, 2017. – 230 b.
- Anderson, J. *Artificial Intelligence in Education*. Springer, 2021. – 280 b.
- Kaput, J. J. *Technology in Mathematics Education Research: The First 25 Years in JRME*. NCTM, 2018. – 190 b.
- Норбоева Д.А. “Инновацион технологиялар асосида таълим жараёнини ташкил этиш” // Педагогика ва психология жорий муаммолари, 2021. – №3. – Б. 45–52.
- Абдурахмонов Қ. *Информатика ва ахборот технологиялари ўқитиш методикаси*. – Т.: Фан, 2016. – 210 б.

O'ZBEK TILIDA "ILTIFOT" ASSOTSIATIV MAYDONIGA XOS LISONIY BIRLIKLARNING MAZMUNIIY GURUHLANISHI

Rajabov Elshod Erkinovich

Navoiy davlat universiteti doktranti

rajabovelshod676@gmail.com

Annotatsiya. Lisoniy birliklarning mazmun tomonini tahlil qilib, uning assotsiativ-semantik maydonini hosil qilish zamonaviy tilshunoslik uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, insonning tafakkuri assotsiativ xarakterga ega, ya'ni kishi fikr yuritayotganda, so'zlar o'zaro bog'lanadi va tarmoq shaklidagi ma'no maydoni hosil bo'ladi. Assotsiativ maydon – bu biror til birligining (odatda, so'zning) inson ongida yoki nutqida boshqa so'zlar, obrazlar, voqealar yoki tushunchalar bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan to'plamidir. O'zbek tilida "iltifot" konseptini semantik aspektda tahlil qilish, uning o'ziga xos assotsiativ maydonini hosil qilish hamda uning nutqda voqelanishi jarayonini tadqiq qilish ham muhim vazifalardan biridir.

Kalit so'zlar: iltifot, iltifot konsepti, assotsiativ maydon, assotsiatsiya, semantik struktura, semantik tahlil, mazmuniy guruhlar

Annotation. Analyzing the semantic aspect of linguistic units and constructing their associative-semantic fields is considered one of the pressing tasks of modern linguistics. It is well known that human thinking is associative in nature; that is, when a person engages in reasoning, words are interconnected and form a field of meanings. An associative field is a set of words, images, events, or concepts that are mentally or contextually linked to a particular linguistic unit (usually a word). In the Uzbek language, analyzing the concept of *"compliment"* from a semantic perspective, identifying its unique associative field, and exploring its realization in speech are also among the important objectives of linguistic research.

Keywords: compliment, the concept of compliment, associative field, association, semantic structure, semantic analysis, semantic groups

"*Iltifot*" tushunchasi o'zbek tilida, ayniqsa, nutq amallari va ijtimoiy munosabatlar doirasida muhim ahamiyatga ega. "*Iltifot*" so'zi, odatda, biror kishiga hurmat, qadrlash yoki maqto'v bildirish ma'nosini anglatadi. "Iltifot" so'zi arab tilda "*kimgadir e'tibor ko'rsatish*" ma'nosini ifodalovchi *lafata* so'zidan kelib chiqqan

[O'zbek tilining etimologik lug'ati, 2-jild, 2003, 164-bet]. Shuningdek, bu so'z boshqa kishining ijobiy fazilatlarini e'tirof etish orqali o'zaro ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash uchun ishlatiladi. Ittifotning adabiy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ifodalanishini o'rganish, uning nafaqat ijtimoiy munosabatlar, balki adabiyotdagi roli va mavqeini tushunishga yordam beradi.

“Ittifot” konseptual maydonining semantik tahlili o'zbek tilining boy va ko'p qirrali madaniy va lingvistik tizimini o'rganishda muhim bir yo'nalish hisoblanadi. “Ittifot” tushunchasi, til birliklari orqali o'z ifodasini topib, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni, hurmat va qadrlashni ta'kidlaydi. Leksik, frazeologik va paremiologik birliklar orqali bu tushuncha tilda qanday aks etishini tahlil qilish, uning ijtimoiy, madaniy va psixologik tomonlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Dastlab “iltifot” assotsiativ-semantik maydonining yadrosi hisoblangan “iltifot” leksemasining semantik xususiyatlarini tahlil etish uchun izohli lug'atlarga murojaat qilish o'rinli bo'ladi. Yangi tahrirdagi “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ushbu leksik birlikka shunday ta'rif berilgan: “Ittifot – kishiga qilingan marhamat, himmat, diqqat-e'tibor, yaxshi munosabat. Ittifot qilmoq (iltifot ko'rsatmoq) yaxshi e'tibor, munosabat bildirmoq. *Kumushbibi otasining so'ziga yaxshi iltifot qilmadi.* A.Qodiriy. O'tkan kunlar” [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-jild, 2023, 499-bet].

“O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati” da esa *iltifot* leksemasining semalari quyidagicha izohlangan: “1. Kishining o'zidan ko'ra nochor kishiga qilgan himmati, moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlovi. *Oh, hojam, bilsangiz edi, men sizga qanday quvonchli xabarlar keltirganimni. Yetti uxlab tushimizga kirmagan iltifotlarga erishib turibmiz.* M.Mansur, Judolik diyori. 2. Kishiga qilingan xush muomala, yaxshi e'tibor. *Halimaxonimning bu iltifotidan u charchoqni unutdi.* S.Ahmad, Ufq” [O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati, 2022, 1-jild, 248-bet]. Demak, *iltifot* leksemasining semantik strukturasi 2 xil semadan tashkil topadi:

1) kishiga himmat ko'rsatish, unga moddiy va ma'naviy ko'maklashish, uni qo'llab-quvvatlash semasi: – *Oliy iltifotingizdan va marhamatingizdan umid shuki, – dedi mavlono Alishoh. – Xazinachilar olti oylik maoshimni birdaniga bersalar...* I.Sulton, Alisher Navoiy.

2) kishiga yaxshi munosabatda bo'lish, unga hurmat-e'tibor ko'rsatish, ulug'lash semasi: – *Qani, mehmon, bir gurung bering bizga, – dedi. Qariyalarning iltifotidan ruhlangan Jalil o'zining “chala mulla” ekanligini unutib, undan-bundan eshitgan diniy ma'ruzalaridan esida qolganini aytib, o'z ko'nglida da'vat qila boshladi.* T.Malik, Shaytanat.

Shuningdek, *iltifot* leksemasining sinonimlari sifatida *lutf*, *marhamat*, *karam*, *takalluf*, *inoyat*, *manzirat*, *mulozamat* leksemalarini keltirib o'tish mumkin. Ammo ushbu leksemalar orasida turli ma'no nozikliklari, ularning qo'llanish doirasida o'ziga xos jihatlar mavjudligi ham sinonimlar lug'atida o'z ifodasini topgan: *Lutf* so'zida maqtov tarzidagi qo'llab-quvvatlov ma'nosi ustuvor, oddiy so'zlashuvda juda kam qo'llanadi. *Marhamat* so'zida bu ma'no yanada kuchli va tantanavor ifodalanadi, kitobiy uslubga xos. *Marhamat* ko'pincha maqomi baland kishining o'zidan maqomi past kishiga rahm-shafqat yuzasidan ko'rsatgan munosabatini bildiradi. *Karam*ning bu ma'noda qo'llanishi, asosan, eskirgan kitobiy uslubga xos, oddiy so'zlashuvda ishlatilmaydi. Qolaversa, xudo tomonidan qilingan marhamatga nisbatan ham qo'llanadi. *Menday ojiz bir ilm xizmatkori haqida sizdan shu lutfni eshitmoq Allohning bechora bandasiga buyuk marhamatidir, – dedi mezbon.* A.Abdullayev, Hazrati Attor. *Marhamatingizga qulluq, – dedi Homid, – ammo shundog' bo'lsa ham qarindoshlarim to'g'risida xayfdaman...* A.Qodiriy, O'tkan kunlar". *Turkistondan darhol qochish kabi fasod xayollarga bormaylik. Xudoning inoyati, marhamati katta.* K.Yashin, Hamza. *Bor ustaligini ishga solib, iltifot va mulozamatlar bilan qizning ko'nglini ovlay boshladi.* F.Musajonov, Huri. *Zaynab "Ovora bo'lib nima qilardingiz", degan manzirat bilan tortiqni iymانبgina oldi.* T.Malik, Shaytanat. – *Men sizning ko'rpachangizda ko'p o'ltirganman, endi menga ortiqcha takallufingizning hojati yo'q.* A.Qodiriy, O'tkan kunlar.

Demak, yuqorida keltirilgan ta'riflar va namunalar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, "iltifot" konsepti o'zbek tilida asosan maqtov, e'tibor va hurmat bilan bog'liq so'zlar orqali ifodalanadi. Ushbu so'zlar, o'z navbatida, turli til birliklaridan tashkil topgan semantik guruhlarini hosil qiladi. Iltifot tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lisoniy birliklar asosan quyidagi guruhlarga ajratilishi mumkin:

1. Hurmat va qadrlashni ifodalovchi birliklar:

Bunday lisoniy birliklar, o'zbek tilida iltifotning asosiy qismlaridan biri sifatida ishlatiladi. "*Hurmat*", "*e'tibor*", "*izzat*" kabi leksik birliklar iltifot konseptual maydonida asosiy semantik yadro tuzadi. Masalan, "*Siz juda hurmatga sazovorsiz*" yoki "*Bu o'zaro hurmatni yana-da kuchaytiradi*" kabi jummalarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi.

2. Ijobiy baholash va ta'riflashga oid birliklar:

"*Yaxshi*", "*zo'r*", "*ajoyib*" kabi baholovchi sifatlar iltifotning mazmunini boyitadi. Bu kabi birliklar, odatda, insonning ma'lum xususiyatlarini ijobiy baholashga qaratilgan bo'ladi. Masalan, "*Sizning ishlash usulingiz juda ajoyib*", "*U juda aqlli va*

har tomonlama yetuk inson" kabi gaplar mazmuni ham "iltifot" tushunchasining asosini tashkil etadi.

3. E'tibor va samimiylikni bildiruvchi birliklar:

"Chin dildan", "haqiqatan", "katta e'tibor" kabi birliklar iltifotning samimiy va izchil berilganligini ta'kidlaydi. Masalan: "Chin dildan aytganingiz uchun rahmat", "Haqiqatan ham, sizning bu ishlaringiz juda e'tiborga loyiq".

4. Ko'rinish va tashqi fazilatlarni ta'riflovchi birliklar:

"Chiroyli", "go'zal", "nafis" kabi so'zlar, odatda, iltifotning tashqi ko'rinishga yoki jismoniy fazilatlarga qaratilgan variantlarini ifodalaydi. Masalan: "Sizning kiyimingiz juda go'zal", "Shu paytgacha ko'rgan eng chiroyli odam sizsiz".

5. Shaxsiy yutuqlar va fazilatlarni ta'kidlovchi birliklar:

"Muvaffaqiyat", "yutuq", "qobiliyat" kabi so'zlar kishi yoki uning faoliyatidagi ijobiy natijalarni ta'riflashda ishlatiladi. Masalan: "Sizning muvaffaqiyatlaringiz meni hayratga soldi", "U juda qobiliyatli va bilimdon kishi".

6. Shaxsning ma'naviy yoki axloqiy fazilatlarini ifodalovchi birliklar:

"Sizning adolatingizni juda qadrlayman", "Sizning halolligingiz har doim men uchun o'rnak bo'ladi" kabi jumalarda "adolatli" va "halol" so'zlari odamning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini qadrlashni bildiradi.

7. Suhbatdoshingizning ijtimoiy mavqei va yoshini hisobga olgan holda ifodalovchi birliklar:

Odatda, yuqori mavqega ega bo'lgan yoki katta yoshdagi insonlarga nisbatan ko'proq hurmat va iltifot ko'rsatiladi. Katta yoshdagi yoki yuqori mavqega ega bo'lgan kishiga aytiladigan iltifot ko'pincha an'anaviy va hurmatga sazovor bo'ladi: "Sizning tajribangizdan juda ko'p narsa o'rgandim, bu juda qadrli".

8. Jamiyatdagi gender stereotiplarga asoslanadigan birliklar:

O'zbek tilida, odatda, ayollarga beriladigan iltifotlar, ko'pincha ularning tashqi ko'rinishiga qaratilgan bo'ladi, erkaklarga beriladigan iltifotlar esa asosan ularning yutuqlari yoki qobiliyatlariga e'tibor qaratadi.

O'zbek tilining raqamli platformalarda to'liq qo'llanilishi uchun milliy korpuslar, elektron lug'atlar, ovozli tizimlar va avtomatik grammatik tahlil dasturlarini yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu esa tilshunoslar, dasturchilar va pedagoglarning hamkorligini talab etadi.

4. Tilshunoslikning ta'limdagi ahamiyati

Tilshunoslik nazariyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarda **tahliliy tafakkur, ifodali nutq, tilga estetik yondashuv** ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'qituvchilar uchun esa bu til qonuniyatlarini zamonaviy usullar bilan tushuntirish imkonini beradi. Tilshunoslikning dolzarb masalalarini o'qitish, yoshlarni tilga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga, uni qadrlashga va to'g'ri qo'llashga o'rgatadi. Bu esa milliy tafakkur va madaniyatni asrab-avaylashning muhim omilidir.

Muhokama: Tilshunoslikning dolzarb masalalari bugungi kunda tilni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham chuqur o'rganish zaruratini ko'rsatadi. Til – bu millatning ruhi, tafakkuri va taraqqiyot ko'zgusidir. Shuning uchun o'zbek tilshunosligi zamon bilan hamnafas bo'lishi, yangi texnologik va ilmiy yo'nalishlarga moslashishi lozim. Shu tarzda, tilshunoslik fani milliy o'zlikni saqlash, tilni rivojlantirish va global maydonda o'zbek tilining nufuzini mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar: Tilshunoslik – inson tafakkuri, madaniyati va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismidir. Bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb masalalarini o'rganish – bu tilning nazariy asoslarini chuqurlashtirish bilan bir qatorda, uni zamonaviy hayot va texnologiyalar talablariga moslashtirish demakdir.

Zamonaviy lingvistik yo'nalishlar, xususan, kognitiv, sotsiolingvistik va kompyuter tilshunosligi kabi sohalar tilni har tomonlama tahlil qilish, uning yangi imkoniyatlarini ochish imkonini bermoqda.

O'zbek tilshunosligining asosiy vazifasi – milliy tilni asrab-avaylash, uni ilmiy asosda rivojlantirish va global ilmiy maydonda munosib o'rin egallashiga hissa qo'shishdir. Tilni raqamli muhitda qo'llashni kengaytirish, til korpuslarini yaratish, avtomatik tarjima va sun'iy intellekt tizimlariga o'zbek tilini joriy etish bugungi kunning eng dolzarb yo'nalishlaridandir.

Tilshunoslik fanini ta'lim jarayoniga chuqur tatbiq etish esa yosh avlodda tahliliy fikrlash, mantiqiy ifoda va madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, tilshunoslikni rivojlantirish – bu faqat ilmiy masala emas, balki milliy tafakkur, ma'naviyat va madaniyatni mustahkamlash yo'lida muhim qadmdir.

Takliflar:

1) O'zbek tilshunosligini xalqaro miqyosda targ'ib etish uchun ilmiy hamkorliklarni kengaytirish lozim;

2) Tilning raqamli resurslarini yaratish va yangilab borish tizimli tarzda yo'lga qo'yilishi zarur;

3) Tilshunoslik fanining zamonaviy yo'nalishlarini oliy ta'lim dasturlariga kiritish, yosh tadqiqotchilarni innovatsion yondashuvlarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslikning har bir dolzarb masalasi – bu faqat ilmiy izlanish emas, balki milliy o'zlikni anglash, uni asrash va kelajak avlodga yetkazish yo'lidagi katta ma'naviy burchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, I. A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Jo'rayev, M. *Zamonaviy o'zbek tilshunosligining asosiy yo'nalishlari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

3. Rasulov, S. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2017.

4. Yo'ldoshev, M. *Tilshunoslik nazariyasi va zamonaviy tadqiqot metodlari*. – Toshkent: Universitet, 2020.

5. Mahmudov, N., Nurmonov, A. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.

6. Saussure, F. de. *Umumiy tilshunoslik kursi*. – Toshkent: Universitet, 2005.

7. Xudoyberganova, D. *Kognitiv lingvistika asoslari*. – Toshkent: Fan, 2021.

8. Bekturodov, A. *O'zbek tili va zamonaviy texnologiyalar*. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.

9. Nuritdinov, A. *Til va jamiyat: sotsiolingvistik tadqiqotlar*. – Toshkent: Istiqloq, 2018.

10. Qodirova, Z. *Tilshunoslikda yangi nazariy yondashuvlar*. – Toshkent: Universitet, 2023.

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Xo'jamurodova Feruzabonu,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
sirtqi ta'lim 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilini o'qitishda qo'llaniladigan va o'quvchilarni faolligini oshiradigan turli xil metodlar, didaktik materiallar va energizatorlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: metodlar, innovatsion, o'quvchi, dars, interfaol, samarali, mavzu.

Аннотация: В данной статье представлены различные методики, дидактические материалы и энергетические средства, применяемые в науке о родном языке и повышающие активность учащихся.

Ключевые слова: методы, инновационные, студент, урок, интерактив, эффективный, тема.

Abstract: This article presents various methods, didactic materials and energizers used in the science of Uzbek language, which increase students' activity.

Keywords: methods, innovative, student, lesson, interactive, effective, topic.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish o'qituvchini izlanishga va o'quvchini o'z ustida ishlashga erkin fikrlashga undaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki unda o'quvchi o'zini erkin tuta olishi, fikrlarini

ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o'zlashtirilishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezonlari ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishidir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezonlari ularning talabalar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlarining birligini ta'minlashdir. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. Darvoqe, o'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – «Klaster», «Aqliy hujum», «Davom ettir», «Taqdimot», «Blits-so'rov», «Muammoli vaziyat» kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida «Sinkveyn», «Teskari test», «Aql charxi» metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida «Insert», «Pinbord», «Zinama-zina», «Bumerang» texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida «Venn diagrammasi», «Baliq skeleti», «Nima uchun? », «Qanday? », «Konseptual jadval», «Nilufar guli» kabi grafik tashkil etuvchilar hamda «Tushunchalar tahlili», «T-jadval», «Rezyume», «Kungaboqar», «Charxpalak» metodlarini, uyga vazifa berishda «FSMU», «Klaster», «Bo'g'inlar zanjiri», «BBB» metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari «Soxta Vikipediya», «Ikki qismli kunaliklar», «Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash», «Tushunchalar asosida matn tuzish», «Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha», «Sirli sandiqcha metodi», «Harfni his qilish» metodlari kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. O'quvchilarga har darsda

bir xil dars o'tish ularning zerikishiga olib keladi va mavzuga bo'lgan e'tiborini pasaytiradi. Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg'ulotlari jarayonida turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini oshiradi.

"Soxta Vikipediya" metodi. Ushbu metod talabalarning mavzu bo'yicha materiallarni qanchalik o'zlashtirganini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari ushbu metod talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, o'tilgan mavzularni o'zlashtirish darajasini aniqlash, mavzu yuzasidan umumiy ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Metodni o'tkazish bosqichlari:

talabalarga o'tilgan mavzular yuzasidan ikkita alohida matn beriladi. Matnlarning birida xato kuzatilmaydi, ikkinchisida esa aralash va chalg'ituvchi ma'lumotlar mavjud bo'ladi,

- talabalar guruhlariga bo'linadi, har bir guruhga 1-matn beriladi;

- 25 daqiqa ichida har bir guruh yozma ravishda matndagi xato ma'lumotlarni aniqlab, ularning to'g'ri variantlarini taqdim etishlari talab qilinadi. Topshiriq bajarish jarayonida internet tarmog'idan foydalanishga ruxsat beriladi,

- talabalar o'z javob varaqalarini topshirishadi. So'ngra har bir guruhga 2-matn beriladi. Unda 1-matndagi xatolar tuzatilgan shaklda taqdim etiladi;

- guruhlar topgan xatolari soniga qarab baholanadilar.

"Ikki qismli kundaliklar" metodi matn bilan ishlashga mo'ljallangan bo'lib, dastlab ikki qismli oddiy jadval tuziladi. Mavzuga oid matn beriladi. Matnni diqqat bilan o'qish talab qilinadi. So'ng keyingi bosqichga o'tiladi. Shu matndagi ayrim birliklarga (asosan mavzuga oid birliklar, qoidalar, tushunchalarga e'tibor qaratish so'raladi) e'tibor qaratish va bu tanlab olingan birlik, tushuncha bo'yicha ikki tomonga munosabatlarini yozish so'raladi. Bu usul bolani tahlil qilishga undaydi.

"Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash" metodi. Kichik guruhlarda ishlashning yana bir samarali metodi - bu nashr qilingan materiallar bilan ishlash hisoblanadi. Talabalarning zaruriy axborotlarni izlab topishlari uchun, nazariy bilimlarni mustahkamlash yoki tasniflashlari uchun, nazariy materiallarni chuqur anglab olishlari uchun bu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Guruh 4.5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi. Guruh bir xil yoki turlicha mazmundagi topshiriqlar, gazetalar, jurnallar, fotoalbomlar, byulletenlar olishadi.

Zaruriy materiallar. A1 Formatli qog'oz, qaychi, yelim.

Topshiriqlar:

1. Ilmiy jurnallardan mavzuga oid maqolalarni toping va quyida tartibda ularni joylashtiring.

- 1) sintaktik birliklar va ular haqida nazariyalar berilgan maqolalar
- 2) morfologik birliklar haqida nazariyalar berilgan maqolalar,
- 3) leksik birliklar haqida nazariyalar berilgan maqolalar

Har bir guruh (ular 3 ta) topshiriq oladi, jurnallardan kerakli materiallarni topadi, maqolalardan nusxa olib qirqib oladi va plakatga yelimlaydi, zaruriy matnni sharhlaydi. Har bir guruh o'z sardorini aniqlaydi va ular ish vakuni to'g'risida hisobot beradilar. Boshqa guruh talabalari savollar berishadi va ishni boshlaydilar. Bu metodni qo'llash davomida talabalardan barcha materiallar yig'ib olinadi, aksincha talabalar gazetalardagi boshqa qiziqarli maqolalarni o'qishga kirishib ketadilar va sardorlar fikrlariga quloq solmaydilar. Talabalardan ehtiyot bo'lib ishlash talab etiladi, ortiqcha qog'oz qirqish, yelimlash, auditoriyani ifloslantirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tushunchalar asosida matn tuzish metodida ma'lum mavzuga doir tayanch iboralar beriladi. Talabalar bu tayanch iboralar asosida mavzuga oid matn tuzadilar hamda bu matnda keltirilgan tayanch iboralar qatnashishi zarur. Bu tayanch iboralar bir necha qismlarga bo'lib berilishi mumkin. Talaba o'zi yaxshi yoritib berishi mumkin bo'lgan tayanch iboralarni tanlaydi. Bu bir modul asosida yoki bir fan asosida shakllantirilishi mumkin:

1. Uyushiq bo'laklar, ularning turlari, teng bog'lanish, so'roq, vazifa, sanash ohangi, tobelanish.

2. A.Fitrat, A.G'ulomov, D.Ashurova, F.Ubayeva, H.Boltaboyeva, H. Xoliqov

3. Uyushiq kesim, kesimlik shakllari, qo'shma gap, uyushtiruvchi ohang, so'z turkumi.

4. Umumlashtiruvchi so'z, tur-jins, butun-qism, ot, olmosh, fe'l, jamlovchi son.

5. Teng bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, ohang, tinish belgilari

Bu usul, asosan, mustahkamlash bosqichida qo'llaniladi. Asosiy bosqichda bo'lsa, talabani faollashtirishga xizmat qiladi. Bu usul talabani xotirasini mustahkamlashga, o'z-o'zini nazorat qilish, baholashga, e'tibor qaratmagan tomonlarini qayta o'rganishga da'vat etadi.

«Sirli sandiqcha» metodi. Sirli sandiqcha metodi ham o'quvchining mantiqiy fikrlashini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu metoddan foydalanish uchun o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi doskaga 4 ta mavzu nomini ilib ular haqida hech qanday ma'lumot yozmaydi. Masalan, So'z turkumlari mavzusi o'tilganda Ot, Sifat, Son, Fe'l kabi. Sirli sandiqchalda esa so'z turkumlariga oid

ma'lumotlar, misollar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar bu ma'lumotlar qaysi so'z turkumiga tegishli bo'lsa qog'ozni shu so'z turkumi tagiga qistirib boradi. O'qituvchi bajarilgan ishni tahlil qiladi va rag'bat kartochkalari beradi. Eng ko'p rag'bat kartochkasi to'plagan guruh g'olib bo'ladi.

«Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha» metodi. «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi. O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi. Uy hayvonlari: sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it. So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi. Namuna: Ot - insonning eng ishonchli do'sti. O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar o'quvchilarning savodxon bo'lishiga, DTS talablariga qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlarida muhim rol o'ynaydi. Dars mashg'ulotlari davomida shu va shu kabi metodlardan foydalanish o'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni o'zlashtirishga katta yordam beradi. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda albatta o'zining samarasini ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofida gilarining fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduxamidov, E.X. (2019). O'zbek tilini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: «Fan va ta'lim» nashriyoti.
2. G'aniev, A.R. (2020). Interfaol texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi. Til va madaniyat, 3(4), 45-52.
3. Karimov, B.D. (2018). O'zbek tili darslarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini qo'llash. Pedagogika va psixologiya, 1(6), 66-74.
4. Murodova, S. (2021). Interfaol metodlarning o'zbek tilini o'rgatishda roli. Ilmiy maqolalar to'plami, 5(2), 112-117.

5. Rustamov, J.F. (2022). Ta'limda interfaol texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti.
6. Sultonova, D.N., & Tojimatov, M. K. (2020). Interfaol texnologiyalar yordamida til o'rganish jarayonini yaxshilash. Xalq ta'limi, 4, 25-30.
7. UNESCO (2018). Innovative Teaching and Learning Practices. – Paris: UNESCO Publishing.
8. Yunusov, Q.A. (2017). Axborot texnologiyalarining ta'limdagi roli va o'zbek tili darslarida qo'llanilishi. Ta'lim va zamonaviy fan, 2 (8), 37-44.
9. Yuldashev, D.T. (2025). Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Urganch.133-140.

GRAMMATIK TAHLIL METODIKASI

Xolmamatova Zarina Rasul qizi,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

sirtqi ta'lim 4-bosqich, 22/3-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada grammatik tahlil metodikasi, ya'ni grammatik birliklarni o'rganish, tahlil qilish va o'quvchilarga o'rgatish usullari yoritilgan. Unda grammatik tahlilning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, til qoidalarini anglash va nutq madaniyatini shakllantirishdagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada grammatik tahlilning an'anaviy va zamonaviy metodlari, ularni dars jarayonida qo'llashning samaradorligi haqida so'z yuritiladi. Tadqiqot natijalari grammatik tahlil metodikasini to'g'ri tanlash o'quvchilarning tilni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: grammatika, tahlil, metodika, ta'lim jarayoni, til qoidalari, nutq madaniyati.

Abstract: This article discusses the methodology of grammatical analysis, focusing on the study, interpretation, and teaching of grammatical structures. It highlights the significance of grammatical analysis in the educational process, its role in understanding language rules, and developing students' speech culture. The article also explores traditional and modern methods of grammatical analysis and their effectiveness in classroom practice. The findings show that applying appropriate grammatical analysis methods positively influences students' mastery of language.

Keywords: grammar, analysis, methodology, educational process, language rules, speech culture.

Аннотация: В данной статье рассматривается методика грамматического анализа, включающая изучение, интерпретацию и преподавание грамматических структур. Подчеркивается значение грамматического анализа в образовательном процессе, его роль в осмыслении языковых норм и формировании речевой культуры учащихся. Также анализируются традиционные и современные методы грамматического анализа и их эффективность на уроках. Результаты исследования показывают, что правильный выбор и применение методики грамматического анализа положительно влияет на усвоение языка учащимися.

Ключевые слова: грамматика, анализ, методика, образовательный процесс, языковые нормы, речевая культура.

Kirish: Grammatik tahlil metodikasi tilshunoslik va ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki grammatika tilning tuzilishini, uning ichki qonuniyatlarini va mantiqiy tizimini o'rgatuvchi asosiy bo'lim sifatida o'quvchilarning nutqiy, fikrlash va yozma malakalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Grammatik tahlil esa bu bilimlarni amaliy qo'llash, tilda mavjud birliklarni tahlil qilish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash va mantiqiy izchillikni rivojlantiruvchi samarali vositadir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida grammatik bilimlarni chuqur o'zlashtirish, ayniqsa, ona tili fanida tahliliy yondashuvlarni keng joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Shuning uchun grammatika tahlil metodikasini to'g'ri tanlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayon o'quvchilarning grammatik bilimlarni nafaqat yodda saqlash, balki ularni nutqiy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bois "Grammatika tahlil metodikasi" mavzusini o'rganish zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb masalalardan biri bo'lib, u o'quvchilarning tilni ongli o'zlashtirishi, tahliliy fikrlashini rivojlantirishi hamda nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Mazkur mavzu bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar grammatik tahlilni samarali tashkil etish usullarini aniqlash va ta'lim jarayonida ularning amaliy ahamiyatini belgilashga yo'naltirilgan.

Asosiy qism: Grammatik tahlil metodikasi – bu o'quvchilarda grammatik bilimlarni ongli o'zlashtirish, tahliliy fikrlashni shakllantirish va til birliklarining o'zaro munosabatini tushuntirishga qaratilgan o'qitish usullari majmuasidir. Ushbu metodika til o'rganish jarayonida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiradi, natijada o'quvchi grammatik qoidalarni nafaqat yodlaydi, balki ularni nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olish malakasiga ega bo'ladi.

1. Grammatik tahlil metodikasining mohiyati va maqsadi. Grammatika tahlilining asosiy maqsadi — til tizimini chuqur anglash, grammatik shakl va tuzilmalarni mantiqan tahlil qilish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishdir. U nafaqat grammatik bilimlarni mustahkamlashga, balki o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini boyitishga xizmat qiladi. Grammatika tahlili o'quvchini so'z, so'z birikmasi, gap va matn darajasidagi birliklarni to'g'ri tahlil

qilishga o'rgatadi. Shuningdek, bu jarayon tilda mantiqiy izchillik, aniqlik va fikrni aniq ifodalashni shakllantiradi.

2. Grammatik tahlilida qo'llaniladigan asosiy metodlar. Grammatika tahlilida bir nechta samarali metodlar mavjud: deduktiv va induktiv yondashuvlar, tahlil va sintez usuli, taqqoslash va kuzatish metodlari. Deduktiv usulda o'quvchilarga avval nazariy qoida tushuntiriladi, so'ng misollar asosida amaliy tahlil qilinadi. Induktiv usulda esa o'quvchi o'zi misollarni tahlil qilib, qoidani mustaqil ravishda kashf etadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar — klaster tuzish, interfaol mashg'ulotlar, matnli tahlil, elektron testlar va grammatik o'yinlar tahlil samaradorligini oshiradi.

3. Grammatik tahlil metodikasidagi muammolar. Amaliyotda grammatik tahlilni o'qitishda ayrim muammolar kuzatiladi. Ba'zi hollarda o'qituvchilar grammatikani faqat nazariy bilim sifatida o'rgatadilar, natijada o'quvchilar tahlil qilishni emas, yod olishni afzal ko'radilar. Darsliklarda berilgan mashqlar ham ko'pincha takroriy yoki bir xil shaklda bo'ladi, bu esa o'quvchining ijodiy yondashuvini cheklaydi. Bundan tashqari, zamonaviy metodlardan yetarlicha foydalanilmasligi tahlil jarayonini sustlashtiradi va tilni chuqur o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.

4. Yechimlar: grammatik tahlil samaradorligini oshirish yo'llari. Grammatik tahlilini yanada samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar innovatsion metodlardan faol foydalanishlari zarur. Dars jarayonida interfaol mashg'ulotlar, muammoli vaziyatli topshiriqlar, ijodiy yozma ishlar va guruhli tahlil usullarini qo'llash o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi. Shuningdek, multimedia vositalari, onlayn testlar va vizual materiallardan foydalanish o'quvchilarning e'tiborini oshiradi va tahlil jarayonini qiziqarli qiladi. Eng muhimi, o'qituvchi tahlil jarayonida o'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltirishi, uning nutqiy xatolarini tahlil qilib, to'g'ri fikr ifodalashga o'rgatishi lozim.

5. Grammatik tahlilning ta'limdagi amaliy va ma'naviy ahamiyati. Grammatik tahlil o'quvchilarga tilning tuzilish qonuniyatlarini anglash, fikrni mantiqan ifodalash va nutq madaniyatini shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayon o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, ularni mustaqil va izchil fikrlashga o'rgatadi. Shuningdek, grammatik tahlil orqali o'quvchilar matnning mazmunini chuqur anglaydilar, bu esa ularning adabiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Shu tariqa, grammatika tahlil metodikasi nafaqat tilshunoslikning, balki umuman tafakkur va ma'naviy kamolotning ham muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Muhokama: Grammatik tahlil metodikasi ta'lim jarayonining ajralmas bo'lagi bo'lib, u o'quvchilarni fikrlashga, tahlil qilishga va mantiqan mulohaza yuritishga o'rgatadi. Bu metodika yordamida o'quvchi grammatik qoidalarini hayotiy nutq jarayonida to'g'ri qo'llashni o'rganadi. Birinchidan, u tildagi birliklar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni anglash imkonini beradi. Ikkinchidan, o'quvchi tahlil jarayonida o'z fikrini aniq va to'liq ifodalashni o'zlashtiradi. Uchinchidan, grammatika tahlili o'quvchini mantiqan fikrlaydigan, adabiy saviyaga ega shaxs sifatida shakllantiradi. Shu sababli, zamonaviy ta'limda grammatik tahlil metodikasini takomillashtirish o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish va barkamol shaxs tarbiyasini ta'minlashning muhim omilidir.

Xulosa va takliflar: Grammatik tahlil metodikasi – bu til o'qitish jarayonining nazariy va amaliy jihatdan eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarda grammatik bilimlarni ongli o'zlashtirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tahlil metodikasi orqali o'quvchi til birliklari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni anglaydi, grammatik qoidalarini hayotiy nutq jarayonida to'g'ri qo'llashni o'rganadi. Shuningdek, bu metodika o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini boyitadi, ularni fikrni aniq va izchil ifodalashga o'rgatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, grammatik tahlilni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, grammatik bilimlarni mustahkamlashda yuqori samaradorlik beradi. Ammo ayrim hollarda o'qituvchilarning an'anaviy metodlarga ortiqcha tayanishi, interfaol usullarni yetarli darajada qo'llamasligi tahlil jarayonini sustlashtiradi. Shu bois grammatika tahlil metodikasini takomillashtirish, uni yangi texnologiyalar bilan boyitish hozirgi ta'lim jarayonining dolzarb vazifasidir.

Grammatik tahlil metodikasining to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularning nafaqat tilni, balki tafakkur madaniyatini ham rivojlantiradi. Shu sababli, grammatika tahlil metodikasini takomillashtirish o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, barkamol, tafakkurli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Takliflar:

1. Grammatik tahlil metodikasini o'qitishda zamonaviy interfaol usullar – muammoli tahlil, klaster tuzish, test asosidagi mashqlar va ijodiy topshiriqlardan keng foydalanish.

2. O'qituvchilar uchun "zamonaviy grammatika tahlili" bo'yicha metodik qo'llanmalar, seminar va mahorat darslarini muntazam o'tkazish.
3. Grammatik tahlil darslarida multimediya vositalari va raqamli platformalardan (onlayn tahlil dasturlari, interaktiv taxtalar, test modullari) samarali foydalanish.
4. O'quvchilarning individual tahlil ko'nikmalarini baholash uchun differensial yondashuvni qo'llash, ya'ni har bir o'quvchi darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqish.
5. Tilshunoslik va pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida grammatik tahlil metodikasi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va innovatsion dars ishlanmalarini yaratish.
6. O'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqib, grammatik tahlilga ajratilgan vaqtni ko'paytirish va bu mavzuga alohida metodik e'tibor qaratish.
7. Tahlil jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undovchi mashg'ulotlar – matn tahlili, grammatik diktantlar, yozma tahliliy insho va loyiha ishlarini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Celce-Murcia, M. (Ed.). (2001). *Teaching English as a Second or Foreign Language*. – Boston: Heinle & Heinle.
2. G'ulomova, N. (2021). *Zamonaviy dars metodikasi: grammatik tahlilning o'rni va ahamiyati*. – Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Hodge, R. & Kress, G. (1993). *Language as Ideology*. – London: Routledge.
4. Xolmatova, D. (2022). *Grammatik tahlil jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish metodlari*. – Buxoro: Pedagogika universiteti nashriyoti.
5. Karimova, M. (2018). *Til o'rgatishda interfaol usullar*. – Toshkent: "Yangi asr avlodi".
6. Qodirov, A. (2020). *Ona tili o'qitish metodikasi*. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
7. Larsen-Freeman, D. (2003). *Teaching Language: From Grammar to Gramaring*. – Boston: Heinle ELT.
8. Thornbury, S. (1999). *How to Teach Grammar*. – London: Longman.
9. To'xliyeva, S. (2019). *Tilshunoslik asoslari va grammatik tahlil metodikasi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

ONA TILI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING NUTQ FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jalgashova Qunduz Ilhomjon qizi

Davlatboyeva Lobar Xudoyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

jqijqi905@gmail.com

davlatboyevalobar71@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning nutq faolligini rivojlantirishning metodik asoslari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda innovatsion usullar yoritilgan. Nutqni rivojlantirishda kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarning o'rni, o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutq faolligini oshirishda interfaol metodlar, rol o'yinlari, muammoli vaziyatlar va multimedia vositalaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada shuningdek, nutq faoliyatini baholash va diagnostika jarayonini takomillashtirishga doir tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, metodika, nutq faolligi, kommunikativ yondashuv, interfaol metod, kompetensiya, Vygotsky, muammoli o'qitish, baholash tizimi.

Annotation. This article explores the methodological foundations for developing students' speech activity in the process of teaching the native language. It highlights modern pedagogical approaches and innovative techniques aimed at enhancing students' oral and written communication skills. The study analyzes the effectiveness of communicative and interactive methods, role-playing, problem-based learning, and the use of multimedia tools. Practical recommendations are also provided to improve the assessment and diagnostics of students' speech activity.

Keywords: native language, methodology, speech activity, communicative approach, interactive methods, competence, problem-based learning, assessment system.

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы развития речевой активности учащихся в процессе преподавания родного языка. Освещены современные педагогические подходы и инновационные методы, направленные на активизацию устной и письменной речи учащихся. Анализируется эффективность использования коммуникативных и интерактивных методов, ролевых игр, проблемных ситуаций и мультимедийных средств. Приведены практические рекомендации по совершенствованию оценки и диагностики речевой активности.

Ключевые слова: родной язык, методика, речевая активность, коммуникативный подход, интерактивные методы, компетенция, проблемное обучение, система оценивания.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning fikrlash, muloqot qilish, tahlil etish va ijodiy yondashish qobiliyatlarini shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. Ayniqsa, ona tili darslari bu jarayonning markazida turadi, chunki til – tafakkur va nutqning asosiy vositasi hisoblanadi. O'quvchilarning nutq faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. O'quvchi nutqining rivojlanishi faqat grammatik bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki tilni muloqot vositasi sifatida ongli qo'llash, o'z fikrini mustaqil, izchil va ifodali bayon etish ko'nikmalarini egallashni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning nutq faolligini oshirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni tanlashi lozim.

Nutq faolligi – o'quvchining o'z fikrini og'zaki yoki yozma shaklda mustaqil, izchil va mantiqan ifoda etish qobiliyatidir. [1: 112]. Bu faollik o'quvchi shaxsining tafakkuri, so'z boyligi, muloqot madaniyati va ijodiy salohiyatini o'zida mujassam etadi. Nutq faolligini rivojlantirish, avvalo, o'quvchini fikrlashga o'rgatishdan boshlanadi. O'qituvchi o'quvchini tayyor javoblarni yodlashga emas, balki fikr yuritish, dalillash, tahlil qilish, so'z tanlash jarayonlariga jalb etishi lozim. Bu esa dars jarayonining muloqotga asoslangan, interfaol shaklda tashkil etilishini talab etadi.

Interfaol metodlarning nutq faolligini oshirishdagi roli. Interfaol metodlar o'quvchilarning darsdagi ishtirokini kuchaytirish, ularni faol suhbatdoshga aylantirish uchun eng samarali vositadir. [2: 98]. Bunday metodlar o'quvchi bilan o'qituvchi, shuningdek o'quvchilarning o'zaro muloqotini faollashtiradi.

Ona tili darslarida quyidagi interfaol metodlar foydalanish mumkin:

- **“Aqliy hujum”** – o'quvchilarda tezkor fikrlash va nutqiy reaksiyani shakllantiradi.

- **“Klaster”** – soʻz boyligini kengaytiradi va fikrni tizimlashtirishga oʻrgatadi.
- **“Rol oʻynash”** – oʻquvchilarni haqiqiy muloqot vaziyatlariga tayyorlaydi.
- **“Debat”** – nutq madaniyatini, dalillash, eʼtiroz bildirish va fikrni asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.
- **“Sinkveyn”** – oʻquvchining ijodiy fikrlashini va qisqa, lekin mazmunli soʻzlash malakasini oshiradi.

Bu metodlar oʻquvchilarni erkin fikrlash, oʻz fikrini ishonarli ifodalash, boshqa fikrlarni tinglash va bahslashish madaniyatini oʻrgatadi.

Ona tili oʻqitish metodikasi darslarida kommunikativ yondashuvning ahamiyati shundaki, kommunikativ yondashuv ona tili taʼlimida oʻquvchining muloqot faoliyatini markazga qoʻyadi. Bu yondashuvda oʻquvchi dars jarayonida til vositalaridan real muloqotda foydalanishga oʻrganadi. Masalan, oʻquvchilar suhbat, intervyu, hikoya, bahs-munozara yoki loyiha taqdimoti orqali oʻz nutqini rivojlantiradi. [3: 156]. Kommunikativ yondashuvning afzalligi shundaki, u oʻquvchini til tizimi haqida bilishdan tashqari, tilni faol qoʻllashga undaydi. Bu yondashuv orqali oʻquvchi oʻz fikrini boshqalar oldida ifoda etish, soʻzlarni kontekstga mos tanlash, muloqot ohangini saqlash va tinglovchiga moslashish koʻnikmalarini egallaydi.

Ijodiy faoliyat oʻquvchining nutqiy rivojlanishida asosiy oʻrin tutadi. Dars jarayonida oʻquvchilar uchun ijodiy topshiriqlarni qoʻllash, ularning nutqini tabiiy ravishda faollashtiradi. Masalan:

- matndan ilhomlanib esse yozish;
- hikoyani oʻz yakuniga koʻra davom ettirish;
- matndagi soʻzlar asosida yangi gap tuzish;
- ijtimoiy mavzuda nutq yoki maqola yozish.

Bundan tashqari, muammoli oʻqitish metodlari oʻquvchilarni izlanishga undaydi. Oʻqituvchi savol beradi, ammo tayyor javobni bermaydi, oʻquvchi esa javobni mustaqil izlaydi. Bu jarayon tafakkur faolligini oshiradi, mustaqil fikr va nutqiy mustahkamlikni rivojlantiradi. [4: 184].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) nutq faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv doskalar, audio-video darsliklar, elektron taqdimotlar, onlayn platformalar oʻquvchilarni nutqiy faoliyatga jalb etish imkonini beradi. Masalan, video matnlar asosida suhbat tuzish, onlayn debatlarida qatnashish, interaktiv testlardan foydalanish oʻquvchilarni tilni faol qoʻllashga oʻrgatadi. Shuningdek, raqamli vositalar orqali oʻquvchilarning yozma nutqini tahrir qilish, talaffuzini mashq qilish imkoniyati yaratiladi.

Nutq faolligini rivojlantirishda o'qituvchining nutqi, uslubi va metodik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi o'z nutqi bilan o'quvchiga namuna bo'lishi, aniq, mantiqan izchil, madaniyatli va emotsional nutq so'zlashi zarur. [5: 48]. O'qituvchi faol, ijodiy va muloqotga ochiq bo'lsa, dars o'quvchi uchun nafaqat bilim manbai, balki muloqot maktabiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning nutq faolligini rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Interfaol va kommunikativ metodlardan foydalanish, ijodiy topshiriqlarni qo'llash, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish o'quvchining tafakkurini faollashtiradi, muloqot madaniyatini yuksaltiradi hamda ularni erkin fikr egasiga aylantiradi. O'quvchilarning nutq faolligini rivojlantirish – bu faqat til o'rgatish emas, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. Karimov, A. Kommunikativ yondashuv asosida ona tili o'qitish. - Toshkent: Ilm Ziya, 2021. 112-b.
7. Qodirova M. Ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish. - Toshkent: O'zbekiston, 2020. 98-b.
8. Jo'rayeva, N. Til o'qitish metodikasi. -Toshkent: Fan, 2019. 156-b.
9. Avliyakov, N. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: TDPU 2017. 184-b.
10. Vygotsky, L. S. Thought and Language. Cambridge: -MIT Press, 1986. 48-b.

INTERNETDAGI “TROLLING” VA “HATE SPEECH” HOLATLARINING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Abdug'aniyeva Laylo Abdug'ani qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

abduganievalaylo5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada internetdagi “trolling” va “hate speech” (nafrat so'zlari) holatlarining lingvistik ekspertizasi masalalari tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan tajovuzkor, haqoratli yoki provokatsion xabarlarining til xususiyatlari, ularning kommunikativ maqsadi va psixolingvistik ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, trol xabarlar va nafrat so'zlarini aniqlashda lingvistik ekspertiza usullarining o'rni, semantik, pragmatik va stilistik tahlil mezonlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: trolling, hate speech, lingvistik ekspertiza, internet nutqi, kommunikativ tajovuz, diskurs tahlili, psixolingvistika

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы лингвистической экспертизы феноменов «троллинг» и «hate speech» (язык вражды) в интернет-пространстве. Анализируются языковые особенности агрессивных, оскорбительных и провокационных сообщений в социальных сетях, их коммуникативные цели и психолингвистическое воздействие. Особое внимание уделяется методам лингвистической экспертизы при выявлении троллинга и языка вражды, а также семантическим, прагматическим и стилистическим критериям анализа. Результаты исследования способствуют повышению культуры онлайн-коммуникации и совершенствованию практики судебно-лингвистической экспертизы.

Ключевые слова: троллинг, язык вражды, лингвистическая экспертиза, интернет-коммуникация, речевая агрессия, дискурс-анализ, психолингвистика

Abstract: This article explores the issues of linguistic expertise concerning “trolling” and “hate speech” phenomena in the digital space. It analyzes the linguistic

characteristics, communicative intentions, and psycholinguistic impact of aggressive, offensive, and provocative messages found on social media platforms. The study focuses on the application of linguistic forensic methods in identifying trolling and hate speech, examining semantic, pragmatic, and stylistic aspects of such discourse. The findings aim to contribute to improving online communication ethics and enhancing the practice of linguistic and forensic analysis in the digital environment.

Keywords: trolling, hate speech, linguistic expertise, online discourse, verbal aggression, discourse analysis, psycholinguistics

So'nggi yillarda internet tarmoqlari, xususan, ijtimoiy media platformalarining keskin rivojlanishi natijasida yangi kommunikativ muhit shakllandi. Ushbu muhitda insonlar o'z fikrini erkin bildirish, bahs-munozaralarda ishtirok etish va ijtimoiy mavzularga munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Biroq bu jarayon bilan bir qatorda virtual kommunikatsiyada **axloqiy-me'yoriy buzilishlar, so'z orqali tajovuz, kiberzo'ravonlik, trolling va hate speech** (nafrat so'zlari) kabi holatlar ham keng tarqalmoqda.

"Trolling" atamasi internet foydalanuvchisi tomonidan qasddan provokatsiya, kinoya, masxara yoki salbiy hissiyot uyg'otuvchi xabarlarni tarqatish amaliyotini anglatadi. "Hate speech" esa ma'lum bir shaxs, millat, irq, jins, e'tiqod yoki ijtimoiy guruhga nisbatan nafrat, kamsitish yoki zo'ravonlikni rag'batlantiruvchi til birliklaridan foydalanishni ifodalaydi. Bunday til birliklari ko'pincha ijtimoiy mojarolarni kuchaytirish, psixologik bosim o'tkazish va axborot manipulyatsiyasi vositasi sifatida ishlatiladi.

Mazkur holatlarni lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan o'rganish nihoyatda muhimdir. Chunki trol xabarlar yoki nafratga asoslangan postlar faqat axloqiy buzilish emas, balki huquqiy mas'uliyatni ham keltirib chiqaradi. **Lingvistik ekspertiza** bunday holatlarda so'zlarning semantik yukini, kommunikativ maqsadini, psixolingvistik ta'sirini va kontekstual qo'llanilishini tahlil qilish orqali ularning huquqiy bahosini aniqlashga yordam beradi.

Zamonaviy huquqiy-lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "hate speech" elementlari ko'pincha indirekt (bilvosita) shaklda, ironik, metaforik yoki sleng tarzida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ularni aniqlash uchun oddiy leksik tahlil emas, balki diskurs tahlili, pragmatik yondashuv va semantik interpretatsiya usullaridan foydalanish talab etiladi.

Internetdagi kommunikativ muhitda nafaqat alohida so'zlar, balki emoji, hashtag, memlar, vizual kontekst kabi multimodal belgilar ham ma'no shakllanishiga ta'sir

etadi. Shu jihatdan “trolling” va “hate speech” hodisalarini o'rganishda multimodal lingvistika, psixolingvistika hamda kompyuter lingvistikasining integratsiyalashgan tahlil usullari alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi o'n yillikda internet kommunikatsiyasining keskin kengayishi natijasida insonlar o'rtasidagi muloqot shakllari tubdan o'zgardi. Virtual maydon erkin fikr almashish, ijtimoiy faollikni oshirish va jamoatchilik fikrini shakllantirish imkonini bersa-da, shu bilan birga tilning destruktiv shakllari – trolling, kiberagressiya va hate speech kabi hodisalarni ham yuzaga keltirdi.

1.1. Trolling fenomenining mohiyati

“Trolling” termini ingliz tilidagi troll so'zidan olingan bo'lib, dastlab baliq ovlashda ishlatilgan “o'lja tashlab e'tibor jalb qilish” ma'nosini bildirgan. Internet muhitida esa bu so'z qasddan bahs, konflikt yoki salbiy hissiyotlar keltirib chiqaruvchi xabarlarni tarqatish amaliyotini anglatadi.

Lingvistik nuqtayi nazardan, trolling hodisasi quyidagi belgilarga ega:

Kommunikativ niyatning yashirinligi: trol xabar yuzaki neytral ko'rinsa-da, unda kinoya, istehzo yoki provokatsion ma'no mujassam bo'ladi.

Pragmatik manipulyatsiya: muallif muloqot ishtirokchilarining hissiy reaksiyasini nazorat ostiga olishga intiladi.

Til birliklarining ijtimoiy konnotatsiyasi: trollingda ko'pincha sarkazm, metafora, jargon va emojilar kabi ifodalar orqali bevosita tajovuz emas, balki “yumor” niqobi ostidagi haqorat ifoda etiladi.

Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda “Yana bir aqlli paydo bo'ldi!”, “Qani, bilag'onlar, endi nima deysizlar?” kabi kinoyaviy gaplar trol xabarlar sifatida baholanishi mumkin. Ularning semantik tuzilishi neytral bo'lsa-da, pragmatik maqsad – ishtirokchini kamsitish yoki asabiylashtirish hisoblanadi.

Trol xabarlarni aniqlashda lingvistik ekspert intonatsiya, so'z tanlovi, ijtimoiy kontekst, emotikona va javob reaksiyalarini ham hisobga oladi. Shu jihatdan trolling – bu lingvistik va psixologik manipulyatsiya vositasi bo'lib, uning tahlili ko'p qatlamli yondashuvni talab qiladi.

1.2. Hate speech tushunchasining mazmuni va lingvistik xususiyatlari

“Hate speech” (nafrat so'zlari) termini xalqaro ilmiy muomalaga XX asr oxirlarida kirib kelgan bo'lib, ma'lum bir shaxs yoki ijtimoiy guruhni kamsituvchi, haqoratlovchi, nafrat uyg'otuvchi nutq shakllarini anglatadi. BMT va Yevropa Kengashi hujjatlarida hate speech tushunchasi irqiy, diniy, jinsiy, etnik yoki siyosiy asosda kamsitishni targ'ib qiluvchi nutq sifatida izohlanadi.

Lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan, hate speech quyidagi darajalarda tahlil qilinadi:

Leksik-semantik daraja: soʻzning denotativ maʼnosi bilan konnotativ (yashirin) maʼnosi oʻrtasidagi farq. Masalan, “Ular ham odam sanaladimi?” iborasida yashirin kamsituv mavjud.

Sintaktik daraja: gap qurilishidagi taʼkid, parallelizm, emfazis orqali mazmun kuchaytiriladi.

Pragmatik daraja: nutqning maqsadi – nafrat, qoʻrquv yoki ijtimoiy ajratishni ragʻbatlantirishdir.

Diskursiv daraja: xabar muayyan ijtimoiy vaziyatda qanday taʼsir koʻrsatadi, u orqali qanday ijtimoiy identifikatsiya shakllanadi.

Hate speech nafaqat soʻzlar orqali, balki memlar, rasmlar, emoji, ironik postlar, metaforik sarlavhalar orqali ham namoyon boʻlishi mumkin. Masalan, etnik yoki diniy stereotiplarni kulgi sifatida koʻrsatgan vizual kontent ham lingvistik ekspertiza doirasida “nafratni ragʻbatlantiruvchi material” sifatida baholanadi.

Shuningdek, hate speechning ayrim shakllari troller tomonidan sunʼiy tarzda tarqatiladi, bu esa uni axborot urushi, propaganda yoki ijtimoiy manipulyatsiya vositasi sifatida ham koʻrsatadi. Shu bois hate speechni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-psixologik va kommunikativ jarayon sifatida oʻrganish zarur.

1.3. Lingvistik ekspertizada trolling va hate speechni aniqlash mezonlari

Lingvistik ekspertiza jarayonida bunday holatlar uchta asosiy mezon orqali baholanadi:

Mezon nomi	Izoh
Semantik-pragmatik mezon	soʻz va gaplarning yashirin maʼnosi, kinoya, provokatsiya yoki tahdid mavjudligini aniqlash
Stilistik-meʼyoriy mezon	rasmiy til meʼyorlaridan chetga chiqish, haqoratli yoki past darajadagi leksika qoʻllanishini tahlil qilish
Kontekstual mezon	matnning paydo boʻlgan ijtimoiy vaziyati, muallif va auditoriya oʻrtasidagi kommunikativ masofa, javob reaksiyalarining tabiati

Bu mezonlar asosida ekspert xulosa beradi: matnda haqorat, tahdid yoki kamsituvchi unsurlar bormi, yo'qmi; ular individual fikr bildirish chegarasidan chiqib, huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradimi – ana shu savollarga ilmiy asosli javob tayyorlanadi.

Bunday holatlarni aniqlashda lingvistik ekspertiza muhim o'rin tutadi. Ekspert tahlili nafaqat so'zlarning bevosita ma'nosini, balki ularning kontekst, intonatsiya, sleng, kinoya, emoji va multimodal belgilar bilan uyg'unlashgan yashirin ma'nosini ham ochib berishi kerak. Shu bois, mazkur sohada semantik, pragmatik, diskursiv va psixolingvistik yondashuvlarning integratsiyasi zarurdir.

Loyihaviy natijalar shuni ko'rsatadiki, trol va nafratga asoslangan xabarlarni tahlil qilishda:

Til birliklarining ijtimoiy konnotatsiyasini aniqlash;

Pragmatik niyat va kommunikativ effektni tahlil qilish;

Kontekst va auditoriya reaksiyalarini baholash;

Multimodal (matn + tasvir + emoji) vositalarni birgalikda tahlil etish zarur.

Shuningdek, lingvistik ekspertiza natijalari huquqiy amaliyotda dalil sifatida muhim o'rin tutadi. Shu bois, mazkur sohada tilshunos, psixolog, yurist va axborot texnologiyalari mutaxassisleri o'rtasidagi hamkorlik samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, internetdagi trolling va hate speech hodisalarining lingvistik ekspertizasi nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy axloq, huquqiy madaniyat va axborot xavfsizligi bilan chambarchas bog'liq murakkab sohadir. Bu borada amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar virtual muloqot madaniyatini yuksaltirish, axloqiy-me'yoriy qadriyatlarni mustahkamlash va til mas'uliyatini oshirish yo'lida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Crystal, D. (2011). Internet linguistics: A student guide. London: Routledge.
2. Dynel, M. (2016). "Trolling is not stupid": Internet trolling as the art of deception serving entertainment. *Intercultural Pragmatics*, 13(3), 275–302.
3. Brown, A., & Sinclair, R. (2019). Hate speech and the language of online aggression: Linguistic and social perspectives. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Karimov, M. (2022). O'zbek tili nutq madaniyatida kommunikativ tajovuz holatlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Qo'chqorova, N. (2021). Internet nutqining lingvopragmatik xususiyatlari. O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy axboroti, 4(2), 112–119.

6. Ergasheva, D. (2020). Til va jamiyat: virtual muloqotda nutq madaniyati muammolari. *Filologiya masalalari*, 3(5), 45–53.
7. Xolmatov, A. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarda soʻz masʼuliyati va lingvistik ekspertiza. *Til va adabiyot jurnali*, 2(1), 78–86.
8. Turgʻunpoʻlatov, D. “Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq”. “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.
9. Turgʻunpoʻlatov, D. “Taʼlimning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida oʻqitishning yangi eposi”. “Akademic journal of educational research (AJER)” xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA IJODIY ISHLARNI EKSPERTIZA ASOSIDA TAHLIL QILISH

Abduraimova Nigora Shokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

abduraimovanigora597gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ona tili va adabiyot darslarida ijodiy ishlarni ekspertiza asosida tahlil qilishning metodik va amaliy jihatlarini yoritiladi. Ijodiy ishlar o'quvchilarning tafakkurini, ijodiy qobiliyatini va lingvistik malakasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Lingvistik ekspertiza yordamida ijodiy ishlarning mazmuni, uslubi, til va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada ekspertiza jarayonida qo'llaniladigan mezonlar, amaliy metodlar va natijalarni o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi bilan bog'lash masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijodiy ish, ona tili va adabiyot, lingvistik ekspertiza, til va uslub, shaxsiy rivojlanish, tahlil, pedagogik metodlar.

ABSTRACT

This article explores the methodological and practical aspects of analyzing creative works in native language and literature lessons through expertise. Creative works serve as an important tool for developing students' thinking, creative abilities, and linguistic skills. Linguistic expertise is used to analyze the content, style, language, and stylistic features of creative works. The paper discusses the criteria, practical methods applied in the expertise process, and the connection of results with students' personal development.

Keywords: creative work, native language and literature, linguistic expertise, language and style, personal development, analysis, pedagogical methods.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются методические и практические аспекты анализа творческих работ на уроках родного языка и литературы на основе экспертизы. Творческие работы являются важным инструментом развития мышления, творческих способностей и лингвистических навыков учащихся. С помощью лингвистической экспертизы анализируются содержание, стиль, языковые и стилистические особенности творческих работ. В статье обсуждаются критерии, практические методы экспертизы и связь результатов с личностным развитием учащихся.

Ключевые слова: творческая работа, родной язык и литература, лингвистическая экспертиза, язык и стиль, личностное развитие, анализ, педагогические методы.

KIRISH

Ona tili va adabiyot darslari o'quvchilarda nafaqat til qobiliyatini, balki tafakkur, estetik did va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi ta'lim jarayonida faqat nazariy bilim berish yetarli emas; o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishi, o'z ijodiy ishlarini yaratishi va ularni tahlil qila olishi pedagogik jarayonning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Ijodiy ishlar esa o'quvchilarning o'z shaxsiy qarashlarini, tasavvurlarini va badiiy didini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois ijodiy ishlarni baholash va tahlil qilishda ilmiy asoslangan yondashuv – lingvistik ekspertiza – muhim vosita sifatida qaraladi[1].

Lingvistik ekspertiza ijodiy ishlarni sistematik tahlil qilish imkonini beradi, bunda matnning leksik, fonetik, grammatik va stilistik jihatlarini chuqur o'rganiladi. Bu jarayon nafaqat o'quvchining til madaniyati va badiiy ifoda qobiliyatini aniqlashga yordam beradi, balki pedagogga o'quvchining shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilashda aniq tavsiyalar berish imkonini yaratadi[2].

Shuningdek, ijodiy ishlarni ekspertiza asosida tahlil qilish pedagogik jarayonda individual yondashuvni kuchaytiradi. Har bir o'quvchining qobiliyati va ijodiy salohiyatini aniqlash, kuchli va zaif jihatlarini belgilash orqali o'quvchilarning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish mumkin. Bu esa ona tili va adabiyot fanlarida sifatli ta'limni ta'minlashning samarali usuli hisoblanadi[3].

ASOSIY QISM

Bugungi kunda o'quvchilarning ijodiy ishlarini baholash va tahlil qilish nafaqat maktab darslarida, balki olimpiadalar, tanlovlar va ilmiy loyihalarda ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu bois, pedagoglar lingvistik ekspertiza asosida ijodiy ishlarni tahlil qilish metodlarini egallashlari, ularni amaliyotga tatbiq etishlari va

natijalarni tizimli tarzda qayd etishlari zarur. Bu jarayon o'quvchilarda nafaqat til va adabiyot qobiliyatini, balki tanqidiy fikrlash va mustaqil ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijodiy ishlarni ekspertiza asosida tahlil qilish bir nechta asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Leksik va fonetik tahlil. O'quvchilar yaratgan matnlarda ishlatilgan so'zlar, sinonimlar, metaforalar, ularning talaffuzi va yozma shakli lingvistik ekspertiza yordamida o'rganiladi. Masalan, o'quvchi she'rida yoki hikoyasida ishlatilgan noyob leksika, dialekt so'zlari yoki tasviriyl ifodalar uning til madaniyatini ko'rsatadi. Fonetik tahlil orqali esa nutqdagi intonatsiya, urg'u va ohang o'quvchining ijodiy ifodasi sifatini belgilashda yordam beradi [3].

2. Stilistik va uslubiy tahlil. Lingvistik ekspertiza matnning stilistik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu jumladan, matnning mavzu bilan uyg'unligi, ifoda uslubi, sintaksis qoidalariga rioya qilinishi, metafora va boshqa badiiy vositalardan foydalanish baholanadi. Masalan, she'r yoki hikoyaning dramatik ohangi, dialoglar orqali obraz yaratish qobiliyati ekspertiza natijalarida ko'rinadi.

3. Strukturaviy tahlil. Matnning tuzilishi, kirish, rivojlanish va yakun qismi ekspertiza orqali tekshiriladi. Shu bilan birga, hikoya yoki inshoning mantig'i, fikrlar oqimi va sabab-natija munosabatlari tahlil qilinadi. Strukturaviy tahlil ijodiy ishning mantiqiyliigi va izchilligi haqida aniq ma'lumot beradi.

4. Shaxsiy rivojlanish va ijodiy qobiliyatni aniqlash. Ekspertiza orqali o'quvchining individual ijodiy yondashuvi, fantaziya darajasi, mavzuga ijodiy yondashishi va nutq madaniyati aniqlanadi. Bu pedagogga o'quvchining zaif va kuchli jihatlarini belgilash, shuningdek, individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda yordam beradi[4].

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, ijodiy ishlarni ekspertiza asosida tahlil qilish o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, o'quvchilar o'z nutqini yanada boyitadi, badiiy tasvirlarni to'g'ri ishlatishni o'rganadi va til madaniyati rivojlanadi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Ijodiy ishlarni tizimli ekspertiza asosida tahlil qilish: Ona tili va adabiyot darslarida har bir ijodiy ish lingvistik ekspertiza orqali baholanib, leksik, fonetik, grammatik va stilistik jihatlar chuqur tahlil qilinishi tavsiya etiladi. Bu metod o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ekspertiza natijalari hujjatlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi kerak.

Interaktiv va hamkorlikdagi metodlarni qo'llash: O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, bir-birining ijodiy ishlarini ekspertiza asosida tahlil qilish, baholash va mulohaza bildirish jarayoniga jalb qilish tavsiya etiladi. Bu yondashuv tanqidiy fikrlash, konstruktiv mulohaza bildirish va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy natijalarni tizimlashtirish va saqlash: Ekspertiza natijalari elektron ma'lumotlar bazasida saqlanib, ularni pedagogik amaliyot, ilmiy tadqiqotlar va metodik qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. Shu orqali o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi uzoq muddat kuzatilib, samarali tahlil qilinadi.

Shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash: Lingvistik ekspertiza natijalari asosida o'quvchining kuchli va zaif jihatlari aniqlanib, individual tavsiyalar berilishi kerak. Qo'shimcha ijodiy mashg'ulotlar, adabiy tanlovlar va seminarlar orqali o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu o'quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga va til madaniyatini chuqurroq o'zlashtirishga rag'batlantiradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ijodiy ishlarni ekspertiza asosida tahlil qilish o'quvchilarning lingvistik, stilistik va badiiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Lingvistik ekspertiza orqali o'quvchilarning nutq madaniyati, ijodiy yondashuvi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari aniqlanadi. Shu bilan birga, pedagoglar ushbu ma'lumotlarni amaliy tarzda qo'llab, shaxsiy rivojlanish va ta'lim samaradorligini oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova N. Ona tili va adabiyot darslarida ijodiy ishlar metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
2. Qahhorov A. Lingvistik ekspertiza asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
3. Saidov S. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Yo'ldoshev X. Tilshunoslik va adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Nazarov Q. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan, 2012.
6. Hojiyev A. Ona tili va nutq madaniyati. – Toshkent: Mumtoz So'z, 2015.

TA'LIM BOSQICHLARIDA ONA TILI FANINING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARINI O'RGANISH

Aliyeva Yodgora Barat qizi

Beksaidova Laylo Zokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabalari

aliyevayodgora946@gmail.com

beksaidovalajlo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili fanining davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchilarda lingvistik bilim va nutqiy kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Ta'lim bosqichlari bo'yicha olib boriladigan bu jarayon savodxonlikni rivojlantirishga va muloqot madaniyatini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, davlat ta'lim standarti, ta'lim bosqichlari, lingvistik bilim, nutqiy kompetensiya, savodxonlik.

Annotation. This article discusses the development of students' linguistic knowledge and communicative competence within the framework of the state educational standards for the mother tongue. The step-by-step approach applied at different stages of education contributes to the development of literacy and communication culture.

Keywords: mother tongue, state educational standard, stages of education, linguistic knowledge, communicative competence, literacy.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования лингвистических знаний и речевой компетенции учащихся на основе государственных образовательных стандартов по родному языку. Последовательное обучение на разных этапах образования способствует развитию грамотности и культуры общения.

Ключевые слова: родной язык, государственный образовательный стандарт, этапы обучения, лингвистические знания, речевая компетенция, грамотность.

Ona tili fanini o'qitishda davlat ta'lim standartlari muhim o'rin tutadi. Chunki DTS ta'lim jarayonining yagona mezonini sifatida o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning darajasini belgilab beradi. Ona tili fani bo'yicha DTSlar har bir ta'lim bosqichida o'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanish

darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Boshlang'ich sinflarda DTSning asosiy vazifasi o'quvchilarda savodxonlikni shakllantirish, nutqiy madaniyatni rivojlantirish, tovush va harflarni to'g'ri talaffuz qilish, yozuv malakasini mustahkamlashdan iboratdir. Bu bosqichda o'quvchi uchun ona tilining eng sodda va tushunarli jihatlari o'rgatiladi, ya'ni gap tuzilishi, so'z ma'nosi, tovushlarning qo'llanishi, imlo qoidalari singari elementar bilimlar asosida poydevor yaratiladi.

Keyingi o'rta ta'lim bosqichida DTSlar o'quvchilarning grammatik bilimlarini kengaytirish, murakkab gaplar tuzilishini o'rganish, so'z turkumlari, morfologik va sintaktik birliklar ustida ishlash, matn yaratish malakasini rivojlantirishga qaratiladi. Bu davrda o'quvchilar nafaqat tayyor matnni o'qib tushunadilar, balki o'z fikrlarini yozma va og'zaki shaklda to'g'ri ifodalashni ham o'rganadilar. Ona tili fanining DTSlari o'quvchilarni mustaqil tahlil qilishga, nutqiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini namoyon etishga yo'naltiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarda milliy qadriyatlarni anglash, nutqiy madaniyat orqali o'zligini ifodalash malakasi ham shakllantiriladi.

Yuqori sinflarda ona tili bo'yicha DTS o'quvchilarga nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy tushunchalar bilan ishlash, uslubiy tafovutlarni anglash, turli janrdagi matnlarni yaratish va tahlil qilishni o'rgatishga yo'naltiriladi. Bu bosqichda o'quvchilar til hodisalarini umumlashtirish, tilning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini anglash, tilning milliy qadriyat sifatida ahamiyatini chuqur idrok etadilar. Ona tili bo'yicha DTS o'quvchilarni mustaqil nutq madaniyatiga, ilmiy-ijodiy izlanishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

DTSlarning har bir bosqichda qo'ygan maqsadi o'quvchilarning savodxonlik darajasini izchil oshirish, ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va jamiyatda o'z fikrini to'g'ri, aniq va lo'nda ifodalashga o'rgatishdir. Ona tili fanining DTSlari faqat lingvistik bilimlarni emas, balki o'quvchining ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ham ko'zda tutadi. Chunki ona tili shaxsning dunyoqarashini shakllantirishda, ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda, milliy o'zlikni anglashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

DTSlarda ona tili fanining mazmuni bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Boshlang'ich sinflarda so'z va gap bilan ishlash ko'nikmalari shakllantirilsa, o'rta bosqichda morfologiya va sintaksis, yuqori bosqichlarda esa stilistika, nutq madaniyati va ilmiy izlanish elementlari o'rganiladi. Bu jarayon o'quvchilarning tafakkurini kengaytirish, ularning nutqiy imkoniyatlarini boyitish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili fanining DTSlari o'quvchi faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil izlanishga undash, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi DTS asosida darsni rejalashtiradi, o'quvchilarning bilim darajasini baholaydi va o'z faoliyatini yo'naltiradi. Shu bois DTS nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini belgilaydi, balki o'qituvchi uchun ham metodik qo'llanma vazifasini bajaradi.

DTSlarning amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida o'quvchilarning nutqiy rivoji, imlo savodxonligi, mustaqil fikrlash darajasi, matn yaratish qobiliyati asosiy mezon sifatida olinadi. Ular orqali o'quvchilar tilning mohiyatini anglab, uni hayotiy jarayonlarda qo'llashni o'rganadilar. Ona tili fanining DTSlari o'quvchiga nafaqat bilim beradi, balki uni fikrlashga, o'z qarashlarini ifodalashga, jamiyatda munosib o'rin egallashga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, ona tili bo'yicha DTSlar zamon talablari bilan hamohang tarzda doimiy ravishda yangilanib boradi. Bugungi kunda kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim tamoyillari, innovatsion metodlardan foydalanish DTSlarning asosiy xususiyatiga aylanmoqda. Bu jarayon o'quvchilarda faqat nazariy bilim emas, balki hayotiy ko'nikmalar, muloqot madaniyati va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ona tili bo'yicha DTSlarni bosqichma-bosqich o'rganish o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning savodxonligi, tilga bo'lgan e'tibori, nutqiy madaniyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda asosiy mezon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim bosqichlarini ona tili fani bo'yicha Davlat ta'lim standartlari asosida o'rganish mazkur fan samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. DTS o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, ularda tilga, nutqiy faoliyatga va milliy qadriyatlarga ijobiy munosabatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda savodxonlik, nutqiy malaka va elementar tilshunoslik tushunchalari shakllantirilsa, o'rta bosqichlarda grammatik bilimlar tizimli ravishda kengaytiriladi, yuqori sinflarda esa ilmiy-nazariy asosda til hodisalari chuqur o'rganiladi. Bu jarayon o'quvchilarda mustaqil fikrlash, aniq va ravon nutq tuzish, ilmiy hamda amaliy faoliyatda ona tilidan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

• Rasulov R., Jo'rayev M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 240 b.

- Qodirova F. Davlat ta'lim standartlari va ona tili ta'limi. – Toshkent: Fan, 2019. – 180 b.
- Karimova S. Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2020. – 210 b.
- Mavlonova R. Pedagogika asoslari va ta'lim jarayonida DTSning ahamiyati. – Toshkent: Ilm Ziya, 2017. – 195 b.
- Saidova D. Ona tili va adabiyot o'qitish metodlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 175 b.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari. – Toshkent, 2021. – 65 b.

TA'LIM BOSQICHLARIDA ONA TILI FANINING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARINI O'RGANISH

Aliyeva Yodgora Barat qizi

Beksaidova Laylo Zokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabalari

aliyevayodgora946@gmail.com

beksaidovalajlo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili fanining davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchilarda lingvistik bilim va nutqiy kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Ta'lim bosqichlari bo'yicha olib boriladigan bu jarayon savodxonlikni rivojlantirishga va muloqot madaniyatini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, davlat ta'lim standarti, ta'lim bosqichlari, lingvistik bilim, nutqiy kompetensiya, savodxonlik.

Annotation. This article discusses the development of students' linguistic knowledge and communicative competence within the framework of the state educational standards for the mother tongue. The step-by-step approach applied at different stages of education contributes to the development of literacy and communication culture.

Keywords: mother tongue, state educational standard, stages of education, linguistic knowledge, communicative competence, literacy.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования лингвистических знаний и речевой компетенции учащихся на основе государственных образовательных стандартов по родному языку. Последовательное обучение на разных этапах образования способствует развитию грамотности и культуры общения.

Ключевые слова: родной язык, государственный образовательный стандарт, этапы обучения, лингвистические знания, речевая компетенция, грамотность.

Ona tili fanini o'qitishda davlat ta'lim standartlari muhim o'rin tutadi. Chunki DTS ta'lim jarayonining yagona mezon sifatida o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning darajasini belgilab beradi. Ona tili fani bo'yicha DTSlar har bir ta'lim bosqichida o'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Boshlang'ich sinflarda DTSning asosiy

vazifasi o'quvchilarda savodxonlikni shakllantirish, nutqiy madaniyatni rivojlantirish, tovush va harflarni to'g'ri talaffuz qilish, yozuv malakasini mustahkamlashdan iboratdir. Bu bosqichda o'quvchi uchun ona tilining eng sodda va tushunarli jihatlari o'rgatiladi, ya'ni gap tuzilishi, so'z ma'nosi, tovushlarning qo'llanishi, imlo qoidalari singari elementar bilimlar asosida poydevor yaratiladi.

Keyingi o'rta ta'lim bosqichida DTSlar o'quvchilarning grammatik bilimlarini kengaytirish, murakkab gaplar tuzilishini o'rganish, so'z turkumlari, morfologik va sintaktik birliklar ustida ishlash, matn yaratish malakasini rivojlantirishga qaratiladi. Bu davrda o'quvchilar nafaqat tayyor matnni o'qib tushunadilar, balki o'z fikrlarini yozma va og'zaki shaklda to'g'ri ifodalashni ham o'rganadilar. Ona tili fanining DTSlari o'quvchilarni mustaqil tahlil qilishga, nutqiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini namoyon etishga yo'naltiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarda milliy qadriyatlarni anglash, nutqiy madaniyat orqali o'zligini ifodalash malakasi ham shakllantiriladi.

Yuqori sinflarda ona tili bo'yicha DTS o'quvchilarga nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy tushunchalar bilan ishlash, uslubiy tafovutlarni anglash, turli janrdagi matnlarni yaratish va tahlil qilishni o'rgatishga yo'naltiriladi. Bu bosqichda o'quvchilar til hodisalarini umumlashtirish, tilning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini anglash, tilning milliy qadriyat sifatida ahamiyatini chuqur idrok etadilar. Ona tili bo'yicha DTS o'quvchilarni mustaqil nutq madaniyatiga, ilmiy-ijodiy izlanishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

DTSlarning har bir bosqichda qo'ygan maqsadi o'quvchilarning savodxonlik darajasini izchil oshirish, ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va jamiyatda o'z fikrini to'g'ri, aniq va lo'nda ifodalashga o'rgatishdir. Ona tili fanining DTSlari faqat lingvistik bilimlarni emas, balki o'quvchining ijtimoiy-madaniy rivojlanishini ham ko'zda tutadi. Chunki ona tili shaxsning dunyoqarashini shakllantirishda, ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda, milliy o'zlikni anglashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

DTSlarda ona tili fanining mazmuni bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Boshlang'ich sinflarda so'z va gap bilan ishlash ko'nikmalari shakllantirilsa, o'rta bosqichda morfologiya va sintaksis, yuqori bosqichlarda esa stilistika, nutq madaniyati va ilmiy izlanish elementlari o'rganiladi. Bu jarayon o'quvchilarning tafakkurini kengaytirish, ularning nutqiy imkoniyatlarini boyitish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili fanining DTSlari o'quvchi faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil izlanishga undash, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun metodik asos bo'lib

xizmat qiladi. O'qituvchi DTS asosida darsni rejalashtiradi, o'quvchilarning bilim darajasini baholaydi va o'z faoliyatini yo'naltiradi. Shu bois DTS nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini belgilaydi, balki o'qituvchi uchun ham metodik qo'llanma vazifasini bajaradi.

DTSlarning amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida o'quvchilarning nutqiy rivoji, imlo savodxonligi, mustaqil fikrlash darajasi, matn yaratish qobiliyati asosiy mezon sifatida olinadi. Ular orqali o'quvchilar tilning mohiyatini anglab, uni hayotiy jarayonlarda qo'llashni o'rganadilar. Ona tili fanining DTSlari o'quvchiga nafaqat bilim beradi, balki uni fikrlashga, o'z qarashlarini ifodalashga, jamiyatda munosib o'rin egallashga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, ona tili bo'yicha DTSlar zamon talablari bilan hamohang tarzda doimiy ravishda yangilanib boradi. Bugungi kunda kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim tamoyillari, innovatsion metodlardan foydalanish DTSlarning asosiy xususiyatiga aylanmoqda. Bu jarayon o'quvchilarda faqat nazariy bilim emas, balki hayotiy ko'nikmalar, muloqot madaniyati va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ona tili bo'yicha DTSlarni bosqichma-bosqich o'rganish o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning savodxonligi, tilga bo'lgan e'tibori, nutqiy madaniyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda asosiy mezon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim bosqichlarini ona tili fani bo'yicha Davlat ta'lim standartlari asosida o'rganish mazkur fan samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. DTS o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, ularda tilga, nutqiy faoliyatga va milliy qadriyatlarga ijobiy munosabatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda savodxonlik, nutqiy malaka va elementar tilshunoslik tushunchalari shakllantirilsa, o'rta bosqichlarda grammatik bilimlar tizimli ravishda kengaytiriladi, yuqori sinflarda esa ilmiy-nazariy asosda til hodisalari chuqur o'rganiladi. Bu jarayon o'quvchilarda mustaqil fikrlash, aniq va ravon nutq tuzish, ilmiy hamda amaliy faoliyatda ona tilidan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov R., Jo'rayev M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 240 b.
2. Qodirova F. Davlat ta'lim standartlari va ona tili ta'limi. – Toshkent: Fan, 2019. – 180 b.

3. Karimova S. Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2020. – 210 b.
4. Mavlonova R. Pedagogika asoslari va ta'lim jarayonida DTSning ahamiyati. – Toshkent: Ilm Ziyos, 2017. – 195 b.
5. Saidova D. Ona tili va adabiyot o'qitish metodlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 175 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari. – Toshkent, 2021. – 65 b.

LUG'AT TARKIBIDAN TO'G'RI FOYDALANISH MAZMUNI

Kulbekova Madinabonu Komiljon qizi,
Saparbayeva Feruza Ilhom qizi,
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti 3– bosqich talabalari
sodiqovamadina45@gmail.com
saparbayeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi fatik muloqotda xayrlashuv nutqiy aktining o'rni tahlil qilinadi. Xayrlashuv muloqotni yakunlovchi kommunikativ vosita sifatida baholanadi va uning diskursdagi ifodalanish shakllari, badiiy matnlardagi namunalari asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: fatik muloqot, xayrlashuv, nutqiy akt, diskurs, nutqiy etiket.

Annotation. The article explores the farewell speech act as part of phatic communication in Uzbek language and etiquette. It highlights its pragmatic function and illustrates its use through examples from fiction.

Keywords: phatic communication, farewell, speech act, discourse, speech etiquette.

Аннотация. В статье рассматривается речевой акт прощания как элемент фатической коммуникации в узбекском речевом этикете. Анализируются его прагматические особенности и примеры в художественной литературе.

Ключевые слова: фатическая коммуникация, прощание, речевой акт, дискурс, речевой этикет.

Kirish. Dunyo tilshunosligida pragmlingvistikaning tilshunoslik turkum fanlar orasidagi o'rni, pragmatik sistema tushunchasining o'zi, uning tarkibiy qismlari orasidagi munosabat, pragmatik sistemaning assotsiativ (paradigmatik) sistemalar bilan murakkab aloqadorliklarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, til imkoniyatlarining amaliy foydalanilishi, lisoniy birliklarning reallashuvi, ya'ni nutqda qo'llanishi va ma'no vazifalarini yoritib berishga e'tibor kuchaymoqda. O'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan hamda shaxsiy munosabatlarni amalga oshiradigan fatik nutq turi sifatida muloqotni yakunlash (xayrlashish) ning funksiyalarini aniqlash, bu boradagi pragmlingvistik va lingvokulturologik yondashuvlarni ilmiy jihatdan izohlash, xayrlashuvning o'rni va xususiyatlarini dalillash kabilar oldimizda turgan vazifadir.

Adabiyotlar tahlili metodlari. So'nggi yillarda til hodisalarini o'rganishda kommunikativpragmatik yondashuv muhim o'rinni egalladi, bu izanishlar kommunikativ vaziyatning xususiyatlarini, so'zlovchining ijtimoiy-psixologik munosabatlarini hisobga olishga imkon beradi. Tilshunoslarning e'tibori, eng avvalo, til va nutq faoliyatining yaratuvchisi sifatida insonga qaratiladi. Tadqiqotlar kommunikativ tilshunoslikning tarkibiy qismlariga, ya'ni so'zlovchining pozitsiyasiga, uning kommunikativ niyatlariga, muloqot paytida qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish yo'llariga, ma'lum kommunikativ bosqichlarga bo'lgan munosabatga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Nutq harakatlarini rivojlantirish, dialogik ta'sirning tuzilmalari, birliklari, taktikasi va strategiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan ishlar orasida jahon tilshunosligida V.G. Admoni, E.V. Voxrisheva, I.P. Susova, A.G. Pospelova, L.P. Chaxoyan, O.S. Issers, G.P. Grice, T. Van Deyck, J. Ostin, J. Searle kabi olimlarning izlanishlarini ta'kidlash zarur. Muloqotchilarning nutq akti doirasidagi xatti-harakati ko'p jihatdan odob-axloq qoidalari va xususan, nutq odobi bilan belgilanadi. Nutqiy odobaxloq madaniyatning elementi sifatida ko'plab mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan ko'rib chiqiladi. A.A. Akishina, N.I. Formanovskaya, L.P. Stupin, K.S. Ignatiev, A.L. Toporkov, A.G. Balakay, N.L. Sokolova, P.A. Gazizov, I. Verlen, E. Rauch va boshqa olimlarning tadqiqotlari bunga misoldir. Maqolada matn parchalarini bevosita kuzatish va tavsiflash usuli, nutq odob-axloqi birliklarini semantik, pragmatik tahlili usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatda ma'lum bir tarixiy bosqichda sodir bo'lgan o'zgarishlarni aks ettiradi. Til doimiy o'zgarish va shakllanishda bo'lgan tarixiy hodisadir. Ushbu o'zgarishlarning tashuvchisi va muallifi shaxsdir. U nutq faoliyatida ham o'z ijodi natijalaridan foydalanuvchi tildir. Zamonaviy lingvistik nazariyalarning diqqat markazida murojaat qiluvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sirning xarakterini aks ettiruvchi nutq aloqasi birliklari joylashgan. Sotsiolingvistik tadqiqotlar lisoniy birliklarni qo'llash nafaqat nutq sharoiti, vositasi kabi ijtimoiy hodisalar bilan, balki so'zlovchi va tinglovchi shaxsiyati hamda ruhiyati, har bir xalq, millat, hatto, ijtimoiy guruhning o'ziga xos shu guruh yoki toifa uchun odat tusiga kirgan qator urf-odat, rasm-rusum, ya'ni etnografik tomonlar bilan ham aloqador ekanligini ko'rsatdi. Chunonchi, biz birovga salom berar ekanmiz, odob nuqtayi nazaridan qo'lni ko'krakka qo'yib, boshni sal egib, ta'zimga yaqin harakat qilib salomlashamiz. Bu – o'zbek urf-odati. Shunda nolisoniy vosita bilan birga, albatta, "Assalomu alaykum!" lisoniy birligi ham ishlatilishi zarur. Ma'lumki, boshqa shaxslar bilan to'qnashish vaziyati salomlashish

janrini tug'diradi, axloq qoidalarining buzilishi – uzr (kechirim so'lash) janrini; boshqa kommunikaning moddiy yoki ma'naviy yaxshiliklari – minnatdorchilik janrini; begonalarning g'am-kulfati, o'limi bilan duch kelib qolish – hamdardlik nutqiy janrini; o'ziga xos muvaffaqiyat bilan to'qnashish – tabrik janrini; keyingi aloqani nazarda tutib, notanish adresat bilan suhbat boshlash istagi – tanishuv janrini yuzaga keltiradi [1,107]. Nutqiy janrlar uchun tipik xususiyatlar: kommunikativ vaziyat, ekspressiv intonatsiya, hajm (nutqiy yaxlitlikning taxminiy uzunligi) hisoblanadi. So'nggi tadqiqotlarda nutqiy janrlarning matnii, stilistik, psixolingvistik va madaniy jihatlari kabi bir qator qirralari tahlil etildi. Nutqiy janrlarni pragmatik o'rganishga adresat va adresant faktorlarining teng darajada tan olinishi xosdir; asosiy prinsip sifatida aniq vaziyat sharoitlariga mos o'rnatilgan dialog, ijtimoiy hamkorlik oldinga suriladi.

Biz tadqiqotlarimizda fatikani muloqotni boshlash, muloqotni saqlab qolish va muloqotni yakunlash turlariga ajratgan edik. [2, 1199] Fatikaning muloqotni boshlash turi salomlashishni ifodalasa, muloqotda bo'lish turi kommunikantlarning o'zaro muloqot-suhbatni saqlash, muloqot jarayonidagi urfiy ravishda noqulay, madaniyatsizlik sanaladigan jimlikni o'rtadan ko'tarish, vaqt o'tkazish bilan birga suhbatdoshlarning o'zi va birbiriga munosabati haqida ma'lumot beruvchi, muloqot maqsadi mavzusiga aloqador bo'lmagan nutq-suhbati tushuniladi. Bunda V.Fedotova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan sanab o'tilgan fatik nutqiy janrlarning barchasi ishtirok etadi. Fatikaning muloqotni yakunlash turi ham mohiyatan urfiy-odatiy (etik) bo'lib, muloqotni yakunlash, diskursning oxirlashiga xizmat qiladi. O'zbek suhbat odobi bo'yicha u, albatta, suhbatdoshlarning suhbatdan, muloqotdan mamnunligi haqida axborotni o'z ichiga olib, bir-birlariga ezgu tilaklarini, qayta muloqotga tilakdoshliklarini ham ifodalaydi. Buning o'zbek nutqiy muloqotida badiiy shaklda o'z aksini topgan namunalari juda ham ko'pdir. "Xayrlashish" guruhini birlashtirgan muloqat munosabatlarni saqlashdir. Asosiy kommunikativ taktika –bu kontakti qo'llab-quvvatlash, chunki xayrlashishdan foydalanish keyingi uchrashuvda ma'lum bir uyg'unlikda aloqa o'rnatish imkoniyatini beradi. Qadim zamonlardan xayrlashishdan foydalanish salomlashish kabi qat'iy tartibga solingan. Xayrlashish vaziyatida ishlatiladigan noverbal vositalarga kelsak, ular salomlashish holatidagi kabi turli-tuman emas. Aytishimiz mumkinki, ular faqat ta'zim va o'pish shakllari bilan cheklangan: Odatda muloqotni yakunlash vazifasi mezbbon (katta yoshli suhbatdosh) – yuqori martabali shaxs zimmasiga tushadi va "Xayr, omon bo'ling! Suhbatdan juda mamnun bo'ldim. Xudo yana uchrashtirsin!", "Kelib turing! Uzilib ketmang!" kabi odatiy iboralardan tuziladi. Muloqotni yakunlash tashabbusi mehmondan boshlanadi,

agar yoshi kichik, darajasi, martabasi quyi shaxsdan chiqadigan bo'lsa, u, albatta, uzr aytib, mezbonni muloqotni yakunlashga undaydi, suhbatni yakunlashni so'raydi va albatta, suhbatdan mamnunligini ta'kidlab, mezbonni bezovta qilgani, vaqtini olgani uchun uzr so'raydi.

Xulosa. Xayrlashuv nutqiy akti fatik muloqotning yakuniy bosqichi bo'lib, o'zbek tilida o'ziga xos madaniy va kommunikativ xususiyatlarga ega. U suhbat ishtirokchilari o'rtasida muloqotni ijobiy ruhda tugatish, ezgu tilaklar bildirish, va kelajakdagi suhbatlarga tayyorlikni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xayrlashuv pragmatik jihatdan samarali, ijtimoiy jihatdan esa odob-axloq me'yorlariga asoslangan nutqiy janrdir. Maqolada nazariy qarashlar hamda badiiy adabiyotdagi namunalar orqali xayrlashuv aktining turli verbal va noverbal ko'rinishlari ochib berildi. Shuningdek, bu nutqiy aktning o'zbek etnomadaniyatidagi ahamiyati va funksional yuklamasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari fatik muloqot bo'yicha keyingi lingvistik ishlanmalar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskandarova M. O'zbek tilida fatik nutq aktlari. – 2016. – 49 b.
2. Tursunov S. Nutq madaniyati va etiketi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2012.
3. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
4. Karimov A. O'zbek tilida muloqotni yakunlash vositalari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2020. – №2. – B. 77–83.
5. Xudoyberganova D. Nutqiy janrlar va ularning kommunikativ xususiyatlari // Filologiya fanlari. – 2018. – №4. – B. 25–29.

TIL TA'LIMI ISTIQBOLLARI VA INTEGRATSION YONDASHUVLAR

Yaxshiboyeva Charos Safarovna

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Rasulova Rayxon Baxritdinovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası dots. Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada til ta'limining zamonaviy bosqichdagi rivojlanish tendensiyalari, integratsion yondashuvlarning o'rni va ahamiyati, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: til ta'limi, integratsiya, innovatsiya, kommunikativ kompetensiya, ta'lim metodikasi, raqamli texnologiya.

Annotation: This article discusses the development trends of modern language education, the role and importance of integrative approaches, as well as ways to implement them in practice.

Keywords: language education, integration, innovation, communicative competence, teaching methodology, digital technology.

Globalashuv jarayonida til ta'limining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — yosh avlodni nafaqat nazariy bilim bilan, balki amaliy, kommunikativ ko'nikmalar bilan ham qurollantirishdir. Til ta'limi zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy, madaniy va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va integratsion metodlarning tatbiqi ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirmoqda. Til ta'limining istiqbollari bugungi kunda raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar va xalqaro tajribalar asosida belgilab olinmoqda. Integratsion yondashuvning mohiyati, uning o'qitish samaradorligini oshirishdagi o'rni, fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashga qaratilganligi tahlil qilinadi.

Integratsion yondashuv deganda, o'quv fanlari, til ko'nikmalari va o'quv jarayonidagi turli faoliyat turlarini uyg'unlashtirish, o'zaro aloqadorlik asosida o'qitish tushuniladi. Bu yondashuv o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish, tilni amaliy jihatdan o'zlashtirish hamda mustaqil fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Til ta'limi jarayonida integratsion yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilar o'z

ona tili va o'rganilayotgan til o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash, taqqoslash hamda bu orqali umumiy til kompetensiyasini shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham til o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish bo'yicha davlat standartlari yangilanib, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ishlab chiqilmoqda. Bunda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, ijodiy yondashish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Til ta'limi jarayonida integratsion yondashuvning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Integratsiya deganda fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, til o'rganishni boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish va ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash tushuniladi. Masalan, ingliz tili darslarida geografiya, tarix, madaniyat, axborot texnologiyalari bilan bog'liq mavzularni integratsiya qilish orqali o'quvchi tilni faqat grammatik jihatdan emas, balki mazmuniy, muloqotiy jihatdan ham chuqur o'zlashtira oladi. Integratsion yondashuv ta'lim jarayonida nafaqat o'quv fanlarini bog'lash, balki o'quvchilarning fikrlash uslubini, dunyoqarashini va muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli metoddir. Bu yondashuvda o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochish, ularni faol o'rganishga, mustaqil fikrlashga va amaliyotga tayyorlashga undaydi. Til o'qitishda integratsion metodlardan foydalanish o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi, ularni turli madaniyatlar va qadriyatlarni anglashga yo'naltiradi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar, interaktiv platformalar, CLIL va STEAM kabi metodlar orqali integratsiya yanada samarali shaklga ega bo'lmoqda. Shuningdek, bu yondashuv o'qituvchidan ijodkorlik, yuqori metodik tayyorgarlik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Til ta'limida integratsion yondashuvni to'g'ri qo'llash o'quvchilarda nafaqat til kompetensiyasini, balki madaniyatlararo muloqot, tanqidiy fikrlash va global tafakkurni ham rivojlantiradi.

Integratsion yondashuvning samaradorligi shundaki, u o'quvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi, ijodiy yondashuvni shakllantiradi va bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi. Bu jarayon o'qituvchidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, zamonaviy metodik bilim va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmasini talab qiladi. Til o'qitish jarayonida integratsiya — bu fanlararo o'zaro

bog'liqlikni ta'minlash, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni singdirish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning eng muhim vositasidir.

Shuningdek, integratsion yondashuvning asosiy ustunliklaridan biri — o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda o'rganishidir. Guruhli ishlash, loyiha asosida ta'lim olish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, multimedia resurslaridan foydalanish orqali til o'rganish yanada samarali bo'ladi. Shu bilan birga, bu yondashuv o'quvchilarni mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijodiy ishlashga yo'naltiradi. Bu borada Z.T.Nishonova: "Til ta'limi jarayonida integratsiya -shaxsiy rivojlanishning kafolatidir", -deydi (Nishonova 2020)

Integratsion yondashuvning zamonaviy turlaridan biri — CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodidir. Bu usulda o'quvchilar fan mazmunini o'rganish bilan bir vaqtda tilni ham egallaydilar. Masalan, biologiya yoki tarix darslarini ingliz tilida o'qish orqali ular nafaqat fan bo'yicha bilim oladi, balki tilni ham tabiiy muhitda o'zlashtiradilar. Bu metod O'zbekiston ta'lim tizimida ham asta-sekin tatbiq etilmoqda.

Shuningdek, integratsion yondashuv ta'limda milliy qadriyatlarni singdirish, o'zlikni anglash, madaniy tafovutlarni hurmat qilish va global tafakkurni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Til o'qitish jarayonida milliy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, san'at va madaniyat elementlarini qo'shish o'quvchilarda tilga nisbatan mehr va qiziqishni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, til ta'limining istiqbollari integratsion yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va kompetensiyaviy metodlarga asoslanmoqda. Bugungi globallashuv davrida tilni o'rgatish jarayoni faqat grammatik bilimlarni berish bilan cheklanmay, balki shaxsning muloqot, tafakkur, madaniy idrok va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Integratsion yondashuv o'quvchining faolligini oshiradi, bilimlarni real hayot bilan bog'laydi va o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi.

Kelajakda til ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt asosidagi o'quv dasturlari, onlayn platformalar va virtual ta'lim vositalarini joriy etish orqali yanada samarador natijalarga erishish mumkin. Shu sababli, har bir o'qituvchi o'z faoliyatida integratsion yondashuvni chuqur o'rganib, uni ta'lim jarayoniga to'g'ri tatbiq etishi zarur.

Til ta'limining istiqboli, eng avvalo, o'qituvchi malakasi, zamonaviy metodlarni qo'llash darajasi va o'quvchilarning faolligiga bog'liqdir. Shu boisdan integratsion yondashuvni yanada takomillashtirish, uni ilmiy-nazariy asoslarda chuqurlashtirish bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o'rganish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi PQ–1875-sonli qarori. – 2012-yil 10-dekabr.
3. Xodjayeva D. Til ta'limida integratsion yondashuvning o'rni. – Toshkent: TDPU, 2020.
4. Rasulova R. Zamonaviy til ta'limida innovatsion metodlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
5. Oxford R. Language Learning Strategies. – New York: Oxford University Press, 1990.
6. Richards J.C. & Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.

“NOTIQ VA NUTQ”**Qurambayeva Dilnoza Umrbek qizi**

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-kurs talabasi

dilnozaqurambayeva03@gmail.com

Ilmiy rahbar: Emina Achilova

Annotatsiya: Ushbu maqolada notqlik san'ati va nutq madaniyatining jamiyat hayotidagi o'rni hamda ahamiyati yoritiladi. Notiq shaxsining nutqi orqali tinglovchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, nutqning ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek tilida notqlik san'atining tarixiy ildizlari, buyuk mutafakkirlar va allomalar asarlarida nutqning qadrlanishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Maqolada zamonaviy davrda notiq shaxsning ijtimoiy faolligi, davlat boshqaruvi, ta'lim va ommaviy axborot vositalaridagi nutq madaniyatining dolzarbligi ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar :Notiq, nutq madaniyati, notqlik san'ati, ta'sirchan nutq, o'zbek tilshunosligi, ritorika, ma'naviyat, jamiyat, tarbiya, kommunikativ kompetensiya.

Аннотации В этой статье рассматривается роль ораторского искусства и речевой культуры в общественной жизни. Рассматриваются методы воздействия на аудиторию посредством речи оратора, анализируются духовные, воспитательные и образовательные функции речи, а также исторические корни ораторского искусства в узбекском языке.

Ключевые слова: культура ораторской речи, ораторское искусство, действенная речь, узбекское языкознание, ritorika, духовность, общество, образование, коммуникативный

Notqlik— birovni ishontirish maqsadida qo'llanadigan san'at. Ritorika, aktyorlik texnikasi (yetkazib berish) va manipulyatsiya usullarining uyg'un kombinatsiyasi. Notqlik nutqining maqsadi - ma'ruzachining raqib yoki tinglovchilar oldida o'z pozitsiyasini ko'rsatishi, o'z nuqtai nazarini himoya qilishi. Bu maqsadiga u tayyor nutq va notqlik texnikasi yordami bilan erishadi. Notqlik va notqlikning xossalarini notqlik fani o'rganadi.

Nutq madaniyati har bir shaxsning umumiy madaniyatining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Nutq madaniyati insonning fikrlarini aniq, ravon, sodda, tushunarli va

ifodali qilib tinglovchilarga yetkazishga yordam beradi. Bo'lajak pedagoglar uchun muomala madaniyatini, nutq madaniyatini egallash ayniqsa zarur bo'lib hisoblanadi. Nutq madaniyatining nozik qirralarini bilish, nutq sofligiga va to'g'ri talaffuzga erishish lozim. Pedagog o'z fikrlarini talabalarga aniq va Ravshan yetkazish natijasidagina yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erisha oladi. Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi". Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi.

Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng maqbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (Mas., aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan birining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi. Fikr ifodalashda nutqiy vaziyat uchun kerakli bo'lgan til birliklarini to'g'ri tanlay olgan va mahorat bilan qo'llab, uni san'at darajasiga ko'tara olgan kishilar azaldan notiq hisoblanadi. Shuning uchun falsafiy jihatdan kishining nutqiy mahoratini ko'rsatadigan notqlik va nutq madaniyati biri ikkinchisini taqozo etadigan, to'ldiradigan hamda o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. So'zlovchi yoki yozuvchining o'z fikrlarini tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazish jarayonida nutqiy vaziyat uchun mos keluvchi til birliklarini tanlay olishi hamda ularning ifodalanayotgan fikrlar g'oyaviy mazmuniga sindirib yuborishi nutq madaniyatining asosini tashkil qiladi.

Shuning uchun kishining og'zaki yoki yozma savodxonlik darajasi, nutq madaniyatini qay darajada egallaganini kommunikatsiya jarayonida xususan, notqlikda o'z aksini topadi. Tarixdan ma'lumki, notqlik insoniyat taraqqiyotining hamma davrlarida ham so'z san'ati sifatida birday e'zozlangan va hozirjavob, chechan, gapga usta kishilar alohida hurmatga sazovor bo'lganlar.

Nutq insoniyat jamiyatining asosiy aloqa vositasi bo'lib, notqlik esa uning eng ta'sirchan ko'rinishi hisoblanadi. Notiqning nutqi nafaqat bilim va tajribaga, balki

axloqiy poklik, ma'naviy yetuklik va badiiy mahoratga ham asoslanadi. Yaxshi nutq kishilar qalbiga yo'l topadi, ularni birlashtiradi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Notiqlik san'ati qadimdan rivojlanib kelayotgan ijtimoiy hodisa bo'lib, bugungi kunda ham siyosat, ta'lim, adabiyot va madaniyatda muhim o'rin tutadi.. Nutq madaniyati – shaxsning umumiy madaniy saviyasi va jamiyatdagi mavqeini belgilovchi mezon sifatida qadrlanadi. O'zbek notiqlik merosi va xalq og'zaki ijodi nutq madaniyatini boyituvchi bebaho manbalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Aristotel. Ritorika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2000.
- 2.Sitseron M.T. Notiqlik san'ati haqida. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
- 3.Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa .
- 4.Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1983.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ONA TILI DARSLARIDA MASHQLAR VOSITASIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI.

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,
Chirchiq DPU, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti",
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrası o'qituvchisi.

shaxnozausmonchayeva@gmail.com

Jangirova Rayhona Mansurbek qizi,
Chirchiq DPU, "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarini ona tili darslarida mashqlar vositasida kreativ fikrlashga o'rgatishning samarali pedagogik texnologiyalari yoritilgan. Shuningdek, kreativ fikrlashni shakllantirish jarayonida o'quvchilarning mustaqil izlanish, nutqiy faoliyat va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Maqola zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda innovatsion yondashuvlarni asoslab, boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativ pedagogik texnologiyalarning amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, kreativ fikrlash, mashqlar tizimi, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuv, ijodiy topshiriqlar, kommunikativ kompetensiya, mustaqil izlanish.

Аннотация: В статье освещены эффективные педагогические технологии обучения учащихся начальных классов креативному мышлению на уроках родного языка посредством упражнений. Особое внимание уделяется развитию у школьников самостоятельного поиска, речевой активности и коммуникативной компетенции в процессе формирования креативного мышления. Статья, обосновывая инновационные подходы в соответствии с современными требованиями образования, раскрывает практическую значимость креативных педагогических технологий в процессе начального обучения.

Ключевые слова: начальное образование, уроки родного языка, креативное мышление, система упражнений, педагогические технологии,

интерактивные методы, инновационный подход, творческие задания, коммуникативная компетенция, самостоятельный поиск.

Annotation: The article highlights effective pedagogical technologies for developing creative thinking in primary school students during native language lessons through the use of exercises. Special attention is paid to fostering students' independent inquiry, speech activity, and communicative competence in the process of forming creative thinking. By substantiating innovative approaches in line with modern educational requirements, the article reveals the practical significance of creative pedagogical technologies in the process of primary education.

Keywords: primary education, native language lessons, creative thinking, system of exercises, pedagogical technologies, interactive methods, innovative approach, creative tasks, communicative competence, independent inquiry.

Boshlang'ich sinflarda mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarga mavzuga oid mashqlar bajarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, qoida va mavzuga oid mashqlar bajarilmasa o'rganilgan mavzu mustahkamlanmaydi. O'rgatilgan qoida va grammatik tushunchalarni o'quvchilar mukammal ravishda o'rganib, o'zlashtirib olishlari qiyin bo'ladi. Boshlang'ich sinfda bolalar juda qiziquvchan va juda sinchkov bo'ladilar. Ular bilan ishlash ancha murakkablikni talab etadi. O'tilgan mavzu asosida turli interfaol o'yinlar o'tish, bolalarning mavzuni mustahkamlashlariga yordam beradi. O'rganilgan mavzuga mos mashqlar tanlab olish o'qituvchining mahoratiga bevosita bog'liq. O'rganilgan har bir mustahkamlash ishi mavzu yoritilishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlarni bajarishning afzalliklarini tekshirish, tahlil qilish uchun tajriba sinfda mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng, uni mustahkamlash maqsadida, mavzuga oid ikkita qo'shimcha mashqlarni bajarib ko'rdik. Mavzu o'quvchilar tomonidan mustahkam o'zlashtirildi. Nazoratga olgan sinfimizda mavzuga oid grammatik tushunchalarni ayrim misollar orqali tushuntirdik. Darslikda berilgan mashqni bajartirib ko'rdik, biroq mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajartirmadik. Natijada mavzuga oid qoidani o'quvchi tushunishga biroz qiynaldi. O'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishlarini aniqlash uchun savollar berganimizda savollarga berilgan javoblar biz kutgan natijani bermadi. Mavzuni 40% o'quvchilar o'zlashtirganiga guvoh bo'ldik. Demak yangi mavzuni o'zlashtirishda qo'shimcha mashqlardan foydalanish shart. Mashqlar bajarishda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni darsga bo'lgan munosabatlarini oshiradi, qo'shimcha mashqlarni bajarishga qiziqtiradi. Muammoli ta'lim interfaol usulidan foydalanib o'quvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib, ularning ushbu muammoli

vaziyatni bartaraf etishni so'radik. Bolalardan gapdagi tushirib qoldirilgan so'zni topish so'raldi. Ulardan so'roqlar yordamida so'zni topish kerakligi tushuntirildi. Masalan, quyidagi muammoli vaziyat yuzaga keldi. Gaplarda tushib qolgan kim? va nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib, nuqtalar o'rniga gaplarni ko'chiring. 1. O'quvchilarni sevib o'qishadi. 2. g'o'zaga suv qo'ymoqda. 3. Oshpaz qozonga guruchni solib,ni damladi. 4. mashinani tez haydab ketdi. O'quvchilardan ushbu muammoni hal qilib berishni so'raganimizda ular nuqtalar o'rniga mos so'zlarni yozib gaplarni hosil qilishga harakat qilishdi. Ushbu interfaol metod o'quvchilarni fikrlashga, muammoni hal etishga, fikr va xulosalar chiqarishga va mulohaza eta olishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinfalarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish ayniqsa mashqlarni interfaol dars metodlari yordamida bajarish o'quvchilarni mavzuni puxta egallashlarida, o'zbek tilining o'ziga xos grammatikasini o'rganishda juda katta ahamiyatga ega. O'quvchilarda qo'shimcha mashqlar orqali ko'nikmalarni shakllantirilganda quyidagi jarayonlar hosil bo'ladi.

- o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish: - mavzuni puxta egallash: - mavzuga oid savolarga javob bera olish: - mavzuga oid berilgan testni yecha olish: - mavzuga oid kartochkalar bilan ishlay olish: - mavzuga oid mashqlarni mustaqil ravishda bajara olish Mavzuga bog'lab savollar tuzishda o'quvchilar qiyinchilikka duch kelishmadi. Buning uchun o'quvchilardan mavzuni puxta egallash talab etiladi. So'zlarni mavzuni o'rganganlaridan so'ng quyidagicha savollar tuzadilar.

1. Bu kim? 2. U nima? 3. Kim o'qiydi? 4. Kim rasm chizadi? 5. Kim ovqat pishiradi?

Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelganda, ko'p lug'at boyligiga ega bo'lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo'yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining obekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so'zlar bo'lsa). Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiyisini ajratishga, so'z bilan aniq ifodalashga o'rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o'rgatish bilan bilimni material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o'stirish hisoblanadi. Mantiqiy mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog'lab olib boriladi. Logik mashqlar juda xilma-xil:

1. Narsalarning mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (ko'ylak, kostum,...) va oyoq kiyimlar (botinka, tufli,..) uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar „Bu nima?“so'rog'iga javob berishga o'rgatiladi: Bu nima? — Avtobus. Avtobus nima? — Mashina.

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko'rsatish va umumlashtiruvchi bir so'z bilan nomlash. Masalan, stol, slul, shkaflarni bir so'z bilan qanday nomlash mumkin? (Mebel)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. Masalan, qalam, chizg'ich, o'chirg'ich, stul ko'rsatiladi, o'quvchilar o'quv qurollarini ajratadilar, stul o'quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar. Bunday mashq o'yin tariqasida o'tkazilishi ham mumkin: ma'lum so'zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: qaldirg'och, chumchuq, mushuk, musicha.

4. Predmet nomlari va belgi bildirgan so'zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so'zlar choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka kabi aralash beriladi. O'quvchilar guruhlab, idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi: tesha, bolta, ... kabi yozadilar; Narsa belgisini bildirgan so'zlar ham aralash beriladi, bolalar to'rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar.

5. Qarama-qarshi qo'yish bilan umumlashtirish: qaldirg'och, chumchuq, bulbul — qushlar, tovuq, xo'roz, kurkalar-chi? (Parrandalar.) Mantiqiy mashqlar sermazmun bo'lishi, o'quvchilarning tajribasi bilan bog'lanishi, ularni to'g'ri fikrlashga o'rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishga xizmat qilishi lozim. Bunday mashqlardan o'rni bilan boshqa darslarda ham, o'qish va grammatika darslarida ham foydalaniladi.

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'z ustida ishlash ko'nikmasini hosil qilishda o'qituvchining roli katta. Bunda har bir o'qituvchining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangi pedagogik texnologiyaning innovatsion usullaridan dars jarayonida o'rinli foydalanish va o'quvchilarning yakka tartibda ishlashiga erishishdir. Masalan, ona tili darsini ko'rib o'taylik . Har bir so'zning ma'nosi va tarkibini o'rganishga qiziqish, til hodisalarini bilishga intilish, bilimga tashnalikni tarkib topdirish uchun ushbu tavsiyadagi turli xil boshqotirmalar, rebuslar, grammatik topishmoqlar darslarda qo'llanib borilsa maqsadga muvofiq deb o'ylayman. “Tafakkur buluti” metodi. Ushbu metod “Klasster” metodining bir shakli hisoblanib, o'quvchilarda ixtiyoriy muammo xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi fikrlash

imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Harflarni o‘zgartirib, so‘z tuzing!” o‘yini. Bunda xattaxtaga so‘zlar qator qilib yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadilar. Undosh harflarni o‘zgartirib, yangi so‘zlar tuzishlari kerak bo‘ladi. “Olti qalpoqcha”, “Nima uchun?”, “Savollar xujumi”, “Sehrli sandiq”. Bu kabi nomlarni ko‘plab keltirish mumkin. Boshlang‘ich sinf ta’limida o‘quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo‘lib, o‘quv faoliyatini bosqichma – bosqich amalga oshirish lozim. Darslarning tushunarli va sifatli amalga oshirilishida innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan o‘quvchilarni boshqarish, fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o‘zgalar manfaati bilan hisoblashish, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish, o‘zining va boshqalarning “men”ini sezish, his qilish, o‘zini boshqarish, fikrini aniq, lo‘nda bayon eta olishga o‘rgatishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’lim- ta’limning ildizidir. Bilamizki, daraxt qanchalik katta va kuchli bo‘lmasin, uning ildizi mustahkam bo‘lmasa, u qulab tushadi. Ta’lim ham shunday daraxt. Zero, ta’lim daraxtimiz qudrati boshlang‘ich sinflarda olgan bilimlarimizga bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan o‘qish, ona tili, matematika, tabiatshunoslik fanlari orasida ona tili yanada muhim bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Chunki inson ulg‘ayib, qaysi kasb egasi bo‘lmasin, uning savodli ekanligi unga bo‘lgan hurmatning oshishiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda ona tili, avvalo, tovush va harflar, ularning tasnifi, so‘ng bo‘g‘in, so‘z va gap bo‘laklari, so‘z turkumlarini o‘rganishdan boshlanadi. Va bu mavzular ayni ona tilimizni o‘rganishning tamal toshi hisoblanadi. Men o‘z faoliyatimdan kelib chiqib, ona tili darslarining har qaysi mavzusini o‘rganish so‘ngida diktantlardan foydalanish ma’qul deb hisoblayman.

Ona tili darslarida ilg‘or innovatsiya asosidagi diktant turlaridan foydalanilsa, o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqish, intilish, imlo savodxonligi o‘sib boradi. 1-sinf ona tili dasturini o‘rganish yakunida o‘quvchilar o‘zbek tilidagi harflar bilan to‘liq tanishib bo‘ladilar. Shundagina “Ko‘rsatish diktantlari”ni tashkil etish mumkin. Masalan, o‘qituvchi xattaxtaga 3 ta so‘z yozib, tushib qolgan harflarni o‘z o‘rniga qo‘yish topshiriladi. Ki –t...b, daf – ta..., bo - ...a. Shuningdek, rasmi diktantlardan ham foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi sinf taxtasiga bir necha narsalarning rasmlarini joylashtiradi. O‘quvchilarga esa ularning nomlarini o‘z daftarlariga yozish topshiriladi. So‘zlarni to‘g‘ri yozgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi, xato yozganlariga esa xatolarini o‘chirib, to‘g‘rilab yozishlari aytiladi. Bu mashqda qalamdan

foydalangan ma'qul. Eng e'tiborli jihat shundaki, bola qilgan xatosini o'z qo'li bilan to'g'rilasa, boshqa buni takrorlamaydi. "Kim ko'p so'zni eslab qoladi?" diktant o'yini bo'lib, o'quvchi tomonidan ketma-ket, takrorlangan holda bir nechta so'z aytiladi. Bu so'z birinchi sinf oxirida 2 ta, ikkinchi sinfda 2 yoki 3 ta, uchinchi sinfda 3 yoki 4 ta, to'rtinchi sinfda esa 4, 5 tani tashkil etadi. O'quvchi aytilgan so'zlarni eslab daftariga yozadi. Masalan: sabzi, sedana, jo'ja, Jahongir, javob, karam, kitob, katta, kulcha, Davron, daraxt, do'lana, do'ppi, do'l. "Bo'g'inga ajrat" o'yini, asosan 1 – 2- sinflarda olib boriladi va o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga yordam beradi. O'yin shartiga ko'ra, o'quvchi qo'lga koptokcha yoki ushlash uchun qulay bo'lgan narsa, buyum beriladi. O'quvchilar o'qituvchi aytgan so'zni bo'g'inga ajratadilar. Masalan: birinchi o'quvchi "istiqlol" so'zining "is" bo'g'inini aytib, qo'lidagi koptokchani ikkinchi o'quvchiga beradi, ikkinchi o'quvchi "tiq", uchinchi o'quvchi "lol" bo'g'inlarini aytadilar. Shu tariqa boshqa so'zlarni ham bo'g'inlarga ajratadilar. 3-4-sinflarda bu o'yinni murakkablashtirib borish mumkin. Masalan, bo'g'inlash o'rniga gap tuzish, matn, hikoyachalar tuzish va hokazo. Navbatdagi o'quvchini faolligini oshirish uchun foydalaniladigan usullardan yana biri "Muammoli vaziyat yaratish" usulidir.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida "muammoli vaziyat yaratish" usullaridan foydalanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Har bir sinfda bu usulni mavzuga mos holda tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu usulni 3- sinf misolida ko'rsak. Ma'lumki, 3-sinfda tovush va harf haqida murakkabroq tushuncha beriladi. Masalan, mavzuni "Jarangli undoshlar" deylik. Jarangli undoshlarning yozilishi haqidagi tushunchani berishda, avvalo, o'qituvchi tomonidan quyidagi gaplar o'qib eshittiriladi va shu gaplarni daftarga yozish topshiriladi. Kitob – bilim manbai. Kitobni yotib o'qimang. Kitobingizni ehtiyot qiling. "O'quvchilar, kitob so'zini qanday yozdingiz?", - deb so'ralganda ayrim o'quvchilar: "Kitob"- desa, ayrimlari "kitop"- deydi. Yoki shu so'z yozdirilayotgan paytda uning yozilishi xususida o'quvchilar o'zaro bahslashadilar. Shunda shu so'zning ikki xil yozilgani ma'lum bo'lsa-da, "Ammo ularning qaysi biri to'g'ri?" degan savol paydo bo'ladi. Bunda javob uchinchi gap orqali yechiladi. O'qituvchi so'nggi jumlanı eslatadi. So'nggi jumlada ustoz talaffuz orqali undoshning to'g'ri variantiga ishora qiladi: "Kitobingizni ehtiyot qiling !" Bunday o'yinlarning barchasi o'quvchilar og'zaki, yozma nutqini o'stirish bilan bir qatorda, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, xotiraning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.
2. M., Safarov P., Noan'anaviy dars shakllari. (Ona tili va adabiyoti uchun qo'llanma). – Samarqand. 1996. 22b.
3. Almamatov T., Yadgarov Q. va Almamatova Sh. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –Toshkent, 2013.
4. Boymurodova G. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini ta'minlashning texnologik tizimi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. – 80 b.
5. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari.: Ped. fan. nom. ... diss. avtoref. –Toshkent: TDPU, 2005. – 22 b.
6. Yusupova Sh., G'oziyeva O. Ona tili o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013.
7. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limining mazmuni. – T.: O'qituvchi, 1995
8. Shakzoda, S. (2025). use of educational games in developing creative ability in primary students. *american journal of education and learning*, 3(5), 667-671.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Usmonchayeva Shaxnoza Maxambetjanovna,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
fakulteti

“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi”
kafedrası o'qituvchisi.

shaxnozausmonchayeva@gmail.com

Gulumbayeva Dilnavo Madat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Boshlang'ich ta'lim“ yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda kreativlikni shakllantirishning mazmuni, ahamiyati hamda zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining bu boradagi roli yoritilgan. Kreativ fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil, erkin va innovatsion tafakkurini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, ta'limda qo'llaniladigan samarali metod va texnologiyalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ijodkorlik, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, o'quvchi shaxsini rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность и значение формирования креативности в начальном образовании, а также роль учителя в этом процессе в условиях современного образовательного процесса. Обоснована важность развития креативного мышления как ключевого фактора в формировании самостоятельного, свободного и инновационного мышления у учащихся. Также проанализированы эффективные методы и технологии, применяемые в образовательной деятельности.

Ключевые слова: креативность, творчество, начальное образование, педагогические технологии, инновационный подход, развитие личности ученика.

Annotation: This article explores the essence and significance of fostering creativity in primary education, as well as the teacher's role in this process within the modern educational context. The importance of developing creative thinking as a key

factor in shaping students' independent, free, and innovative mindset is substantiated. Additionally, effective methods and technologies used in education are analyzed.

Keywords: creativity, innovation, primary education, pedagogical technology, innovative approach, student personality development.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni erkin fikrlashga, ijodkorlikka va innovatsion yondashuvga tayyorlashni asosiy maqsad qilib olgan. Shu jihatdan, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Chunki bu bosqichda bolaning tafakkuri, tasavvuri va dunyoqarashi faol shakllanadi [1, 12-bet].

Kreativlikni rivojlantirish – bu nafaqat o'quvchining ijodiy faoliyatini oshirish, balki uning shaxs sifatida o'zini anglashiga, hayotiy muammolarga noodatiy yondashishiga ham yordam beradi. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda kreativlikni shakllantirish ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

“Kreativlik” (lotincha creatio – “yaratish”) — yangilik yaratish, muammoga noodatiy yechim topish, mavjud bilim asosida yangi g'oya ilgari surish qobiliyatidir. Psixolog olim E. Torrens fikricha, kreativlik — bu “muammoga yangi va kutilmagan yechim topish jarayoni”dir [3, 46-bet].

Boshlang'ich sinf o'quvchisining kreativ salohiyati quyidagi belgilar orqali namoyon bo'ladi:

- o'z fikrini erkin ifoda etish;
- mustaqil qaror qabul qilish;
- yangicha yondashuv taklif etish;
- tasavvurni kengaytirish;
- o'z g'oyasiga ishonch bilan yondashish

Boshlang'ich ta'limda kreativlikni shakllantirish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi

1. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

O'quvchilar turli o'yinli, ijodiy va muammoli topshiriqlar orqali yangicha fikrlashga o'rganadilar.

2. O'quv motivatsiyasini oshirish.

Kreativ darslar orqali o'quvchilar o'qish jarayonidan zavq oladilar, o'z faoliyatlarida faollik namoyon etadilar [4].

3. Kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlash.

Guruhli ishlar, loyiha topshiriqlari o'quvchilarning hamkorlikda ishlash, fikr almashish madaniyatini rivojlantiradi.

4. Raqamli savodxonlikni kuchaytirish.

Raqamli vositalar yordamida klaster, aqliy hujum, onlayn loyihalar yaratish o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini oshiradi [5, 70-bet].

5. Shaxsiy rivojlanishga zamin yaratish.

Kreativ fikrlovchi o'quvchi o'z kuchiga ishonadi, hayotda mustaqil qarorlar qabul qilishga tayyor bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda kreativlikni shakllantirish uchun quyidagi metodlar va texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Klaster texnologiyasi – o'quvchilar fikrlarini tizimlashtirish, asosiy tushuncha atrofida g'oyalarni tarmoqlash imkonini beradi.

“Aqliy hujum” metodi – muammoni birgalikda hal qilishda o'quvchilarning ijodiy g'oyalarni faollashtiradi.

“Sinkveyn” usuli – o'quvchining so'z boyligini va mantiqiy tafakkurini oshiradi.

STEM yondashuvi – fan, texnologiya, muhandislik va matematika asosida amaliy ijodiy loyihalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Raqamli klaster texnologiyalari – onlayn platformalarda (Miro, MindMeister, Canva) g'oyalarni tarmoqlab, raqamli ijodkorlikni rivojlantiradi [4].

Mazkur metodlarni qo'llash o'quvchilarda ijodiy faoliyatga qiziqishni kuchaytiradi va ularni erkin fikrlashga yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kreativlikni shakllantirishda asosiy tashkilotchi, yo'naltiruvchi va motivator rolini bajaradi. U quyidagilarga e'tibor qaratishi zarur:

- har bir o'quvchining fikrini qadrlash;
- yangicha fikrlashga undovchi topshiriqlar berish;
- o'quvchilarni mustaqil izlanishga rag'batlantirish;
- baholashda jarayonni ham, ijodiy natijani ham inobatga olish.

Shuningdek, o'qituvchi ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llab, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishi kerak [5, 90-bet].

Boshlang'ich ta'limda kreativlikni shakllantirish – bu ta'lim jarayonini yangicha mazmunda tashkil etish, o'quvchilarni erkin, mustaqil va innovatsion tafakkur egasi sifatida tarbiyalashdir. Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, shaxsiy o'sishini ta'minlaydi va ularni kelajak hayotga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan, 2020. – 12–31-betlar.
2. To'raqulova D. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 27–47-betlar.
3. Torrens E. P. Creativity: Theory and Practice. – New York, 2018. – 45–46-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish to'g'risida"gi PQ–6079-son qarori, 2020-yil.
5. G'ulomov A., Qo'ldoshev A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Noshir, 2019. – 67–90-betlar.

TALABALARNI OG'IR NUTQ NUQSONLI BOLALAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING METODIK TIZIMIDA INTEGRATSION YONDASHUV

Achilova Sevara Djasirkulovna,
Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafasa doktori(Phd), dotsent
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
[Tel:+9989945496](tel:+9989945496)

Annotatsiya: Muallif tomonidan talabalarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashning metodik tizimida integratsion yondashuv mavzusida dizartriya nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni, alaliya nutq nuqsoni, afaziya nutq nuqsonlarning mazmuni haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация. В статье автором представлена информация о содержании речевых нарушений «дизартрия», «ринолалия», «заикание», «алалия», «афазия» в контексте интегративного подхода к методической системе подготовки студентов к работе с детьми с тяжелыми нарушениями речи.

Annotation. In the article, the author presents information about the content of speech disorders "dysarthria", "rhinolalia", "stuttering", "alalia", "aphasia" in the context of an integrative approach to the methodological system of preparing students to work with children with severe speech disorders.

Kalit so'zlar:

Dizartriya nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni, alaliya nutq nuqsoni, afaziya nutq nuqsoni, Individual yondashuv, kompleks yondashuv, korreksion-inklyuziv yondashuv, rivojlantiruvchi pedagogika, Fonetik-fonematik nutq kamchiligi, nutqning to'liq rivojlanmaganligi, nutqiy diagnostika, Case-study, Portfolio yuritish.

Ключевые слова:

Дизартрия, ринолалия, заикание, алалия, афазия, индивидуальный подход, комплексный подход, коррекционно-инклюзивный подход, развивающая педагогика, фонетико-фонематическое нарушение речи, неполное речевое развитие, диагностика речи, пример из практики, управление портфолио, Case-study, Portfolio.

Keywords:

Dysarthria, rhinolalia, stuttering, alalia, aphasia, individual approach, comprehensive approach, correctional and inclusive approach, developmental pedagogy, phonetic and phonemic speech disorder, incomplete speech development, speech diagnostics, case study, portfolio management, Case study, Portfolio.

So'nggi yillarda nutq rivojlanishida og'ir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar sonining ortib borayotgani pedagogik va psixologik xizmat ko'rsatish tizimida mutaxassislar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Bunday bolalar bilan ishlashda pedagog-logoped, defektolog va maxsus pedagoglar chuqur nazariy bilim, kasbiy kompetensiya va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalarida maxsus pedagogik tayyorgarlik ko'rayotgan talabalarni og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar bilan samarali ishlashga metodik jihatdan tayyorlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, ularni real amaliyotga yaqinlashtirish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda metodik tizimni shakllantirishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida ta'lim tizimini isloh qilish, maxsus ta'limga muhtoj bolalarga sifatli xizmat ko'rsatish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Xususan, 2021-yil 6-maydagi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonun, 2022-yil 28-fevraldagi PQ-134-son qaror va boshqa me'yoriy hujjatlar bu yo'nalishdagi dolzarb muammolarni hal qilishda ilmiy asoslangan yondashuvlar zarurligini ko'rsatmoqda.

Shunga ko'ra, talabalarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashning metodik tizimini ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko'rish – dolzarb, nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Nutq — insonning ijtimoiy tajribasini egallashi, fikr almashishi va o'zini ifoda etishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi turli omillarga bog'liq bo'lib, bu jarayonda нутқда учрайдиган камчилклар yuzaga kelganda, og'ir nutq nuqsonlari (ONN) haqida so'z yuritiladi.

Og'ir nutq nuqsonlari — bu bolaning nutqiy faoliyatining turli darajada buzilishi bo'lib, u kommunikativ ehtiyojlarni qondira olmaslikka olib keladi. Bunday nuqsonlar fonetik, leksik, grammatik, fonematik va kommunikativ darajalarda namoyon bo'ladi[1: 43];.

Og'ir nutq nuqsonlarining asosiy turlari:

Fonetik-fonematik nutq kamchiligi – tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish;

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi – barcha nutqiy komponentlarning yetarlicha rivojlanmaganligi;

Dizartriya nutq kamchiligi– nutq apparatining markaziy yoki periferik buzilishi tufayli nutqning talaffuz tomondan buzilishi[3: 47];

Duduqlanish nutq kamchiligi - bu nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur'at-ohangining buzulishidir.

Alaliya nutq kamchiligi– nutqning to'liq yo'qligi yoki juda sust rivojlanishi (miya shikastlanishi bilan bog'liq);

Afaziya nutq kamchiligi – ilgari shakllangan nutqning to'satdan buzilishi (odatda bosh miya shikastidan keyin);

Rinolaliya nutq kamchiligi – bu nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir.

Bunday nuqsonlarga ega bolalar ko'pincha:

- emotsional-hissiy barqarorlikda muammoga ega;
- ijtimoiylashuvda qiyinchilikka duch keladilar;
- o'z fikrlarini ifoda etishda cheklovga uchraydilar;
- maktabga tayyorgarlik va o'qish jarayonida orqada qoladilar.

Bu holat, pedagog-logoped va maxsus pedagoglarning yondashuvlarida chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar zarurligini ko'rsatadi.

kommunikativ darajalarda namoyon bo'ladi.

Nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondashuvlar

Nutq nuqsonlariga ega bolalar bilan ishlashda quyidagi asosiy yondashuvlar muhim:

- **Individual yondashuv** – har bir bolaning nuqson darajasi, sababi va psixologik holati inobatga olinadi;
- **Kompleks yondashuv** – defektolog, logoped, psixolog, ota-ona hamkorligida olib boriladigan ishlar;
- **Korreksion-inklyuziv yondashuv** – bolani jamiyatga moslashtirish, inklyuziv ta'lim sharoitida qo'llab-quvvatlash;
- **Rivojlantiruvchi pedagogika** – bolaning salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan faoliyatlar.

Shuningdek, **psixologik-pedagogik diagnostika** nutqiy muammolarni aniqlash va to'g'ri yondashuvni tanlashda muhim ahamiyatga ega. Bu diagnostika vositalariga suhbat, kuzatish, maxsus testlar, nutqiy kartotekalar kiradi[2:54];

Pedagoglar:

- bolaning o'z-o'ziga ishonchini oshirishi;

- ijtimoiy moslashuvini ta'minlashi;
- nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida logopediya, maxsus pedagogika yoki defektologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun tuzilgan o'quv rejalari va dasturlar bugungi kunda kasbiy tayyorgarlikning muhim jihatlari qamrab olsa-da, amaliy ko'nikmalar va innovatsion yondashuvlar yetarlicha e'tiborga olinmayotgani kuzatiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki:

• **Teoretik bilimlar yetarli darajada beriladi**, biroq ularni real muammolar bilan bog'lash zaif;

• **Amaliy mashg'ulotlar soni kam**, ayniqsa nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda talabalarni real vaziyatlarga tayyorlash imkoniyatlari cheklangan;

• **Diagnostik va korreksion ishlarni yuritishga oid fanlar** ko'proq nazariy tusda olib boriladi.

Mazkur holatlar talabalarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga puxta tayyorlash uchun **maxsus metodik tizim** ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu tizim:

- fanlararo integratsiyani kuchaytirishi,
- o'quv dasturlarini amaliyotga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishi,
- kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Pedagogik ta'limda, ayniqsa maxsus pedagogika yo'nalishida amaliy mashg'ulotlar asosiy o'rinda turadi. Nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- Nutqiy diagnostika o'tkazish;
- Og'ir nutq nuqsonlarini aniqlash;
- Koreksion mashg'ulotlar rejasini tuzish va uni o'tkaza olish;
- Bolaning psixologik holatini inobatga olgan holda yondashuvni tanlay olish.

Interaktiv metodlar:

• Case-study – real holatlarni tahlil qilish orqali muammoni aniqlash va hal qilish;

• Rol o'yinlari – talabalar “logoped”, “bola”, “ota-ona” rollarida chiqib, kommunikativ vazifalarni bajaradi;

• Treninglar – jamoada ishlash, bolaga empatiya bilan yondashish ko'nikmasini shakllantiradi;

• Portfolio yuritish – talabalar o'z amaliy faoliyati natijalarini tizimli qayd etadi.

Bu usullar orqali talabalar:

- nazariy bilimlarini mustahkamlaydi,

- kasbiy faoliyatga yaqin sharoitda o'zini sinab ko'radi,
- tahliliy va refleksiv ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Talabalarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda ishlab chiqilgan **metodik tizim modeli** quyidagi komponentlardan iborat:

1. Maqsadli komponent

- Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash;
- Nutq nuqsonli bolalarga to'g'ri yondashuvni shakllantirish;
- Individual va differensial yondashuvlarni o'rgatish.

2. Mazmuniy komponent

- Logopediya va defektologiya asoslari;
- Nutq rivojlanishini baholash metodlari;
- Koreksion-pedagogik strategiyalar.

3. Amaliy-kompetension komponent

- Diagnostika mashg'ulotlari;
- Koreksion mashg'ulotlar loyihalash;
- Interaktiv o'qitish texnologiyalari asosida faoliyat yuritish.

4. Monitoring va baholash komponenti

- Talabani bilim va ko'nikmalarini baholash;
- Mustaqil amaliy topshiriqlarni tahlil qilish;
- Refleksiya asosida o'z-o'zini baholash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashning metodik tizimida integratsion yondashuvda bolalarda kuzatiladigan nutq nuqsonlarni oldini olish, logopedik yordam berish, ularni hayotga tayyorlash ishlari tashkil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Морозова Н.Й. Как преодолеть заикание. Изд-во ЭКМО М., 2002
2. Волкова П.С., Шаховская С.Н., Логопедия. Издательство Владос. М., 2002
3. S.J.Achilova. Dislaliya.Dizartriya /O'quv qo'llanma. «ZEBO PRINT» TOSHKENT – 2021.
4. S.J.Achilova. Dudaqlanish./ Darslik«ZEBO PRINT» TOSHKENT – 2022.

BO'LAJAK LOGOPEDLARNI OG'IR NUTQ NUQSONLI BOLALAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING SAMARIL OMILLARI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHDA INTEGRATSION YONDASHUV

**Ibroximova Shaxnoza,
Qubonazarova Charos,
To'xtaeva Shaxnoza
To'raboeva Aziza**

Pedagogika fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Achilova Sevara Djasirkulovna ChDPU dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Muallif tomonidan bo'lajak logopedlarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda samarali omillar va tamoyillar tushunchasi, integratsion yondashuv nuqtai nazaridan qisqacha tahlili va amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Аннотация. Автор дает краткий анализ концепции факторов и принципов воздействия, интегративного подхода, а также практические рекомендации по подготовке будущих логопедов к работе с детьми с тяжелыми нарушениями речи.

Annotation. The author provides a brief analysis of the concept of factors and principles of influence, an integrative approach, as well as practical recommendations for preparing future speech therapists to work with children with severe speech impairments.

Kalit so'zlar:

Alaliya nutq nuqsoni, afaziya nutq nuqsoni, dizartriya nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni, anartiya nutq nuqsoni, artikulyasiya, fonologiya, grammatik tuzilma, ovoz, nutqiy nafas, artikulyatsion nutq apparati, individualizatsiya, multidisiplinerlik.

Ключевые слова:

Дефект речи алалия, дефект речи афазия, дефект речи дизартрия, дефект речи ринолалия, дефект речи заикание, дефект речи анартия, артикуляция, фонология, грамматический строй, голос, речевое дыхание, артикуляционный речевой аппарат, индивидуализация, мультидисциплинарность.

Keywords:

Speech defect alalia, speech defect aphasia, speech defect dysarthria, speech defect rhinolalia, speech defect stuttering, speech defect anartia, articulation, phonology, grammatical structure, voice, speech breathing, articulatory speech apparatus, individualization, multidisciplinary.

Bugungi kunda Oliy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar, ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak logopedlarga bilim berishning ilmiy-nazariy asoslarini har tomonlama to'rt tashkil qilish eng asosiy maqsadlardan biri sanaladi.

Oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lajak logopedlar bolalarda uchraydigan og'ir nutq nuqsonlarni aniqlash, ularga to'g'ri tashxis, korreksion-logopedik ishni tashkil qilishni o'quv jarayoni davomida o'rganadilar. Bo'lajak logopedlar to'rt yil davomida o'qitiladigan maxsus fanlarda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar kategoriyasini o'rganib, ularni tahlil qiladilar. Shuningdek, ushbu rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda uchraydigan og'ir nutq nuqsonlarni ham bir-biridan farqlashni tahlil etadilar.

Og'ir nutq nuqsoni — bu bolaning nutq rivojlanishida murakkab buzilishlar (masalan: alaliya nutq nuqsoni, afaziya nutq nuqsoni, dizatriya nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni, anartiya nutq nuqsoni kabi) bo'lib, artikulyasiya, fonologiya, grammatik tuzilma, ovoz, nutqiy nafas, artikulyatsion nutq apparati, hissiy-psixologik va ijtimoiy kommunikatsiya jihatlarida zaifliklar bilan namoyon bo'ladi.

Integratsion yondashuv deganda: mutaxassislar (logoped, psixolog, defektolog, tibbiyot mutaxassisi va boshqalar), ta'lim muassasalari, oila va ijtimoiy muhitning birgalikdagi hamkorligi; diagnostika, ta'lim va rehabilitatsiya jarayonlarining uyg'unligi; fanlararo, psixopedagogik, sog'liqni saqlash va terapevtik elementlarning sintezi tushuniladi.

Logoped mutaxassislarni tayyorgarligining samarali omillari

Bo'lajak logopedlarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlay oladigan darajada tayyorlashda quyidagi omillar muhim:

1. Nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish

o Nutq rivojlanishi bosqichlari, nutq buzilishi turlari, og'ir nutq nuqsonlarining neyrofiziologik, psixologik, lingvistik sabablari bo'yicha chuqur nazariy bilim.

o Diagnostika metodikasini o'zlashtirish: nutqni baholash, nutq kamchiliklarini aniqlash, nutq xususiyatlarini va darajasini belgilash. [1: 30];

2. Individualizatsiya

○ Har bir bolaning nutq nuqsoni, uning darajasi, bolaning yosh, qobiliyati, sog'liq holati va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda shu faktlar aks etishi lozim.

3. Ko'p tarmoqli hamkorlik

○ Logoped, psixolog, o'qituvchi, defektolog, ota-ona va agar kerak bo'lsa tibbiyot mutaxassislari birgalikda ishlashi.

○ Inklyuziv muhitda — umumta'lim va maxsus ta'lim muassasalari hamkorligi.

4. Psixologik va motivatsion jihat

Bolaning motivatsiyasi, o'ziga ishonchi, ruhiy holatini qo'llab-quvvatlash. Nutq nuqsoni bolaning ijtimoiy aloqalari va o'zini anglashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun motivatsiyaga e'tibor zarur.

□ Muloqot va kommunikasiyaga yo'naltirish

• Nutq tuzatish faqat artikulyatsion mashqlar natijasida emas, balki muloqotga kirishish, dialog, monolog shakllarini qo'llash orqali bolaning nutqiy kompetensiyasi rivojlanishi.

□ Uzlaksizlik va uyg'unlik

• Ta'lim va rehabilitatsiya jarayonida mavzular, metodlar, diagnostika va korreksiya bosqichlari o'rtasida uzviylik bo'lishi; logopedik mashg'ulotlar muntazam va nazorat ostida bo'lishi.

□ Metodik yangilik va innovatsiyalar

• Zamonaviy metodlar: multimodal metodlar (ko'rish, eshitish, kinestetik), texnologiyalar, vizual vositalar; interaktivlik; o'yinli, san'at, musiqa, dramatisatsiya elementlarini qo'shish.

□ Ota-ona va ijtimoiy muhit ishtiroki

• Uyda, oilada bolaga munosib sharoit yaratish; ota-onaga maslahat, treninglar berish; ijtimoiy muhitdagi talaffuz va nutqni rag'batlantiruvchi muhitni shakllantirish.

• Integratsion yondashuvni amalda tatbiq etishda quyidagi tamoyillar asos bo'ladi:

Tamoyil	Mazmuni
Bosqichlilik va uzluksizlik	Diagnostikadan korreksiya, rehabilitatsiya va integratsiyalashgan ta'lim jarayonlariga qadar tizimli rivojlanish.

Shaxsga yo'naltirilganlik (individualizatsiya)	Har bir bolaga mos metodika, reja va muhit yaratish.
Ko'p o'lchamlilik (multidisiplinerlik)	Til, ovoz, artikulyatsiya, psixologik va ijtimoiy-kommunikativ jihatlarni birlashtirish.
Faollik va faol o'rganish	Bolani faqat passiv tinglovchi emas, balki nutq jarayoniga faol jalb qilish; o'yinlar, rollar, dramatizatsiya, dialogik faoliyat.
Motivatsiya va ijobiy kayfiyat	Qiyinchiliklarga qarshi bolani ruhiy tayyorlash, erkinlik, ehtiyotkorlik va rag'batlarning bo'lishi.
Adaptivlik va moslashuvchanlik	Bola holatiga qarab metodlar va mashg'ulotlar shaklini, tezligini, intensivligini o'zgartirish.
Muvofiqlik va hamkorlik	Mutaxassislar, ota-ona va ijtimoiy muhitning ishtiroki; umumta'lim bilan maxsus ta'lim muhitini bog'lash.
Integratsiya va inklyuziya	Bolani alohida muassasaga ajratmasdan, umumiy ta'lim muhitida imkoniyatlar yaratish.

Quyidagi tavsiyalar logopedik tayyorgarlik, ta'lim muassasalarining kurs dasturi va amaliy mashg'ulotlarga tatbiq etilishi mumkin:

1. **Kurslarda diagnostika va baholashga oid modullar**

o Nutq buzilishi turlarini aniqlash, og'irlik darajasini baholash metodikalari;

o Psixologik, nevrologik masalalar — bolaning umumiy rivojlanish darajasi va nutq bilan bog'liqlik. [3: 32];

2. **Amaliy mashg'ulotlar**

o Maxsus bolalar bilan alohida/ikkinchi darajali amaliyotlar: CP, afaziya, disartriya kabi holatlar;

o Video va audio yozuv tahlillari; nutq namunalarini taqqoslash; artikulyatsion mashqlar ko'rgazma tarzida.

3. **Mutaxassislar bilan integratsiyalashgan javobgarlik**

o Psixologlar, fizioterapevtlar, defektologlar, logopedlar va tibbiyot shifokorlari bilan birga ishlashga imkon; interdisciplinary darslar;

4. **Metodika va texnologiyalarni joriy qilish**

o Multisensor metodlar (rasmlar, vizual yuz ifodalari, kinestetik usullar);

- Uy sharoitida mashqlar berish ko'nikmasini o'rgatish, oila a'zolarini jalb qilish;
- Innovatsion vositalar: audio-video materiallar, ilovalar, kompyuter texnologiyalari.

5. **Etika va psixologik tayyorgarlik**

- Hamdardlik, sabr-toqat, hissiy bog'lanish; bolaning o'zini hurmat qilish va motivatsiyasi; kommunikatsiya uslublari ;

6. **Monitoring va baholash**

- Doimiy diagnostika jarayonini tashkil qilish — mashg'ulotdan oldin, davomida va keyin baholash;

7. **Kognitiv-til ko'nikmalarini shakllantirish**

- Eshitish va idrok ko'nikmalarini rivojlantirish; fonetik va fonologik tahlil; leksik va grammatik tuzilmalarni chuqur o'rgatish.

Integratsion yondashuv bo'lajak logopedga og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda kengroq, ko'p jihatdan samaraliroq tayyorgarlik beradi. U nafaqat nutqni tuzatishga emas, balki bolaning psixologik, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu yondashuv teoriyadan amaliyotga uzluksiz, multidisipliner va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Морозова Н.Й. Как преодолеть заикание. Изд-во ЭКМО М., 2002
2. Волкова П.С., Шаховская С.Н., Логопедия. Издательство Владос. М., 2002
3. S.J.Achilova. Dislaliya.Dizartriya /O'quv qo'llanma. «ZEBO PRINT» TOSHKENT – 2021.
4. S.J.Achilova. Duduqlanish./ Darslik«ZEBO PRINT» TOSHKENT – 2022.

ИНТЕГРАТИВНЫЕ ПОДХОДЫ В ИНТЕГРАТИВНОЙ МЕТОДИКЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ЛОГОПЕДОВ К РАБОТЕ С ДЕТЬМИ С ТЯЖЕЛЫМИ НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ

**Асқарова Жайнагул,
Жумабоева Махмуда,
Абдуллаева Азиза,
Атамирзаева Зебинисо**

Студентка 3 курса педагогического факультета

Научный руководитель: Ачилова Севара Джасиркуловна, доцент ЧДПУ

Аннотация: В статье рассматриваются интегративные подходы в интегративной методике подготовки будущих логопедов к работе с детьми с тяжелыми нарушениями речи. Тяжёлые нарушение речи это дизартрия, риноплазия, заикание, алалия, афазия.

Annotation: This article discusses integrative approaches to training future speech therapists to work with children with severe speech impairments. Severe speech impairments include dysarthria, rhinolalia, stuttering, alalia, and aphasia.

Ключивые слова: Дизартрия, риноплазия, коорекция, аутизм, интеграция, фонетико-фонематическое нарушение речи.

Key words: Dysartia, rhinolalia, stuttering, correction, integration, autism, phonetic-phonemic aspects of speech.

Сегодня в системе работы, проводимой в вузах по подготовке кадров, необходимо, чтобы они получали полноценные знания и применяли полученные знания на практике. Поэтому в интегративной методике подготовки будущих логопедов к работе с детьми с тяжёлыми нарушениями речи важной задачей является то, чтобы каждый студент в рамках интегративного подхода умел самостоятельно мыслить и применять полученные знания в жизни. В организованной коррекционной среде каждый будущий логопед должен четко освоить методику коррекционно-логопедической работы, связанную с изучением детей с тяжелыми нарушениями речи. Работа, организованная в тесном взаимодействии с логопедами, на практике поможет будущим логопедам

в работе с тяжелыми нарушениями речи. Также изучаются и анализируются индивидуальные особенности каждого ребенка.

Интегративные подходы в интегративной методике подготовки будущих логопедов к работе с детьми с тяжёлыми нарушениями речи" — актуальна и комплексна, так как касается профессиональной подготовки специалистов, способных эффективно работать с детьми, имеющими тяжёлые речевые нарушения, на основе междисциплинарного и целостного подхода.

Суть интегративных подходов

Интегративный подход в педагогике и логопедии предполагает объединение различных теоретических и практических направлений, методов и технологий для достижения наиболее полного и эффективного результата.

В контексте **подготовки логопедов** речь идет об объединении:

- психолого-педагогических знаний,
- медицинских аспектов (неврология, отоларингология),
- лингвистических дисциплин,
- методик специального образования,
- технологий коррекционно-развивающего обучения,
- навыков межличностного взаимодействия с детьми, родителями, педагогами.

Почему это важно для работы с ТНР?

Тяжёлые нарушения речи (ТНР) включают различные формы речевых расстройств: системные недоразвития речи (ОНР III уровня), алалия, ринолалия, афазия, дизартрия и др. Эти нарушения часто сочетаются с другими патологиями (ЗПР, аутизм, интеллектуальная недостаточность), что требует **комплексного междисциплинарного подхода** к коррекции.

Подготовка специалистов в этом направлении невозможна без:

- освоения **различных методик** (традиционных и инновационных),
- формирования **индивидуального подхода** к ребёнку,
- умения **работать в команде специалистов** (психолог, дефектолог, невролог и др.),
- **ценностного отношения** к личности ребёнка.

Интегративная методика подготовки будущих логопедов

Такая методика должна включать:

1. Интеграцию учебных дисциплин:

- Связь между лингвистикой, медициной, психологией, педагогикой.

• Например: анатомо-физиологические особенности речевого аппарата → методы логопедической коррекции дизартрии.

2. Интеграция теории и практики:

- Учебная практика на базе логопедических групп/центров.
- Работа с кейсами, моделирование коррекционных занятий.

3. Методологическая интеграция:

- Использование разных подходов: деятельностный, личностно-ориентированный, компетентностный, системно-деятельностный.

4. Интеграция профессиональных компетенций:

- ☐ Профессионально-практическая (ведение документации, составление индивидуального маршрута).
- ☐ Психолого-педагогическая (умение взаимодействовать с детьми и их семьями).
- ☐ Исследовательская (анализ, диагностика, прогнозирование).

Практические формы реализации интегративной методики

• **Модульное обучение**, где каждый модуль отражает определённый аспект работы с ТНР (например, «Нарушения фонетико-фонематической стороны речи» + практикум).

- **Тренинги** по междисциплинарному взаимодействию.
- **Стажировки** в условиях инклюзии.
- **Проектная деятельность**: разработка коррекционных программ, логопедических игр.
- **Портфолио студента** как способ интеграции результатов обучения.

Ожидаемые результаты

Будущий логопед, обученный по интегративной методике, должен:

- Владеть современными логопедическими технологиями.
- Уметь разрабатывать индивидуальные маршруты коррекции.
- Учитывать особенности сопутствующих нарушений.
- Эффективно взаимодействовать с семьёй ребёнка и командой специалистов.
- Быть готовым к профессиональной рефлексии и саморазвитию.

Интегративные подходы в подготовке логопедов — это не просто модный тренд, а **необходимость**, продиктованная сложностью и многогранностью задач, стоящих перед современным специалистом. Только благодаря такому подходу

возможно **формирование компетентного, гибкого, этичного профессионала**, готового к работе с детьми, имеющими тяжёлые нарушения речи.

Список использованной литературы:

1. Морозова Н.Й. Как преодолет заикание. Изд-во ЭКСМО М., 2002
2. Волкова П.С., Шаховская С.Н., Логопедия. Издательство Владос. М., 2002
3. S.J.Achilova. Dislaliya.Dizartriya /O'quv qo'llanma. «ZEBO PRINT» TOSHKENT – 2021.
4. S.J.Achilova. Duduqlanish./ Darslik«ZEBO PRINT» TOSHKENT – 2022.

BO'LAJAK LOGOPEDLARNI OG'IR NUTQ NUQSONLI BOLALAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLASHNING INTEGRATIV METODIKASI

Abduraxmonova Ro'za,

Toirova Difuza,

Faxriddinova Feruza

Pedagogika fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Achilova Sevara Djasirkulovna ChDPU dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Muallif tomonidan bo'lajak logopedlarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashning integrativ metodikasi yoritilgan bo'lib, og'ir nutq nuqsonlarni turlarini nazariy jihatdan tahlili ko'rsatilgan.

Аннотация. Автор описывает интегративную методику подготовки будущих логопедов к работе с детьми с тяжелыми нарушениями речи, дает теоретический анализ видов тяжелых нарушений речи.

Annotation. The author describes an integrative method for training future speech therapists to work with children with severe speech impairments and provides a theoretical analysis of the types of severe speech impairments.

Kalit so'zlar:

Alaliya nutq nuqsoni, afaziya nutq nuqsoni, dizartriya nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni, anartiya nutq nuqsoni, artikulyasiya, fonologiya, grammatik tuzilma, ovoz , nutqiy nafas, artikulyatsion nutq apparati, individualizatsiya, multidisiplinerlik.

Ключевые слова:

Дефект речи алалия, дефект речи афазия, дефект речи дизартрия, дефект речи ринолалия, дефект речи заикание, дефект речи анартия, артикуляция, фонология, грамматический строй, голос, речевое дыхание, артикуляционный речевой аппарат, индивидуализация, мультидисциплинарность.

Keywords:

Speech defect alalia, speech defect aphasia, speech defect dysarthria, speech defect rhinolalia, speech defect stuttering, speech defect anartia, articulation, phonology, grammatical structure, voice, speech breathing, articulatory speech apparatus, individualization, multidisciplinary.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda uchraydigan turli xil nutq nuqsonlar mavjud bo'lib, bu nutq nuqsonlar bolalarning nutqiy faoliyatiga, shaxslararo munosabatiga, jamiyatda o'z o'cini topa olishiga to'sqinlik qiladi. Oliy ta'lim taxsil olayotgan bo'lajak logopedlar og'ir nutq nuqsonlarni o'rganish, ularni tahlil qilish va to'g'ri tashxis qo'yish usullarini o'rganadilar.

Bugunki kunda Oliy ta'lim tizimida tubdan isloh qilinishi, yoshlarni kasb egasi sifatida zamon talabiga javob beradigan qilib tayyorlash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bo'lajak logopedlar bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarni o'rganish natijasida logopediya mutaxassisligini egallashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, nutq nuqsonlar bir nechta bo'lib, bular:

Dislaliya nutq nuqsoni – bu normal sog'lom eshitish va innervatsiyaga ega bo'lgan bolalardagi nutqning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilmasligidir. Bu nutqning barcha unsurlarini o'z ichiga olgan, aniq yoki eshitish a'zolarining buzilish aspektlarini o'z ichiga olgan eng keng tarqalgan nutq buzilishlaridan biri.

Dizartriya nutq nuqsoni – bu nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir.

Rinolaliya nutq nuqsoni – bu nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz temбри va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir

Alaliya nutq nuqsoni – bu bolalarda bosh miyaning nutq markazlarida organik zararlanish natijasida nutqning tizimli rivojlanmasligi yoki umuman yo'qligidir. Bu holatda bolaning zehni va eshitish qobiliyati normal bo'lsa-da, uning nutq faoliyati rivojlanmaydi, bu esa so'z boyligining kamligi, nutqning agrammatikligi, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishi va so'zlarni tushunmaslik kabi belgilar bilan namoyon bo'ladi.

Afaziya nutq nuqsoni – bu bosh miyada nutq markazlarining zararlanishi tufayli kelib chiqadigan, nutq funksiyalarini yo'qotish yoki buzilishidir. Bu holatda odam gapirish, eshitib tushunish, o'qish va yozish qobiliyatini yo'qotadi. Afaziya insult, bosh miya jarohatlari, o'smalar yoki yallig'lanish jarayonlari natijasida paydo bo'lishi mumkin.

Duduqlanish nutq nuqsoni – bu nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur'at-ohangining buzilishidir.

Shu nutq nuqsonlar ichida og'ir nutq nuqsonlarga dizartriya nutq nuqsoni, rinolaliya nutq nuqsoni va duduqlanish nutq nuqsoni kiradi.

Og'ir nutq nuqsoni — bu bolaning nutq rivojlanishida murakkab buzilishlar (masalan: alaliya nutq nuqsoni, afaziya nutq nuqsoni, dizartriya nutq nuqsoni,

rinolaliya nutq nuqsoni, duduqlanish nutq nuqsoni, anartiya nutq nuqsoni kabi) bo'lib, artikulyasiya, fonologiya, grammatik tuzilma, ovoz, nutqiy nafas, artikulyatsion nutq apparati, hissiy-psixologik va ijtimoiy kommunikatsiya jihatlarida zaifliklar bilan namoyon bo'ladi.

Ushbu nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda bo'lajak logopedlar bolalar bilan ishlashga tayyorlashning integrativ usullarini o'quv jarayonida o'rganadilar.

Bunday nuqsonlarga ega bolalar ko'pincha:

- emotsional-hissiy barqarorlikda muammoga ega;
- ijtimoiylashuvda qiyinchilikka duch keladilar;
- o'z fikrlarini ifoda etishda cheklovga uchraydilar;
- maktabga tayyorgarlik va o'qish jarayonida orqada qoladilar.

Bu holat, pedagog-logoped va maxsus pedagoglarning yondashuvlarida chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar zarurligini ko'rsatadi.

kommunikativ darajalarda namoyon bo'ladi.

Nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondashuvlar

Nutq nuqsonlariga ega bolalar bilan ishlashda quyidagi asosiy yondashuvlar muhim:

- Individual yondashuv – har bir bolaning nuqson darajasi, sababi va psixologik holati inobatga olinadi;
- Kompleks yondashuv – defektolog, logoped, psixolog, ota-ona hamkorligida olib boriladigan ishlar;
- Korreksion-inklyuziv yondashuv – bolani jamiyatga moslashtirish, inklyuziv ta'lim sharoitida qo'llab-quvvatlash;
- Rivojlantiruvchi pedagogika – bolaning salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan faoliyatlar.

Shuningdek, psixologik-pedagogik diagnostika nutqiy muammolarni aniqlash va to'g'ri yondashuvni tanlashda muhim ahamiyatga ega. Bu diagnostika vositalariga suhbat, kuzatish, maxsus testlar, nutqiy kartotekalar kiradi.

Pedagoglar:

- bolaning o'z-o'ziga ishonchini oshirishi;
- ijtimoiy moslashuvini ta'minlashi;
- nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida logopediya, maxsus pedagogika yoki defektologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun tuzilgan o'quv rejalari va dasturlar

bugungi kunda kasbiy tayyorgarlikning muhim jihatlarini qamrab olsa-da, amaliy ko'nikmalar va innovatsion yondashuvlar yetarlicha e'tiborga olinmayotgani kuzatiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki:

- Teoretik bilimlar yetarli darajada beriladi, biroq ularni real muammolar bilan bog'lash zaif;
- Amaliy mashg'ulotlar soni kam, ayniqsa nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda talabalarni real vaziyatlarga tayyorlash imkoniyatlari cheklangan;
- Diagnostik va korreksion ishlarni yuritishga oid fanlar ko'proq nazariy tusda olib boriladi.

Mazkur holatlar talabalarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga puxta tayyorlash uchun maxsus metodik tizim ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu tizim:

- fanlararo integratsiyani kuchaytirishi,
- o'quv dasturlarini amaliyotga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishi,
- kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Pedagogik ta'limda, ayniqsa maxsus pedagogika yo'nalishida amaliy mashg'ulotlar asosiy o'rinda turadi. Nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashda talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- Nutqiy diagnostika o'tkazish;
- Og'ir nutq nuqsonlarini aniqlash;
- Koreksion mashg'ulotlar rejasini tuzish va uni o'tkaza olish;
- Bolaning psixologik holatini inobatga olgan holda yondashuvni tanlay olish.

Interaktiv metodlar:

- Case-study – real holatlarni tahlil qilish orqali muammoni aniqlash va hal qilish;
- Rol o'yinlari – talabalar “logoped”, “bola”, “ota-ona” rollarida chiqib, kommunikativ vazifalarni bajaradi;
- Treninglar – jamoada ishlash, bolaga empatiya bilan yondashish ko'nikmasini shakllantiradi;

- Portfolio yuritish – talabalar o'z amaliy faoliyati natijalarini tizimli qayd etadi.

Bu usullar orqali talabalar:

- nazariy bilimlarini mustahkamlaydi,
- kasbiy faoliyatga yaqin sharoitda o'zini sinab ko'radi,
- tahliliy va reflektiv ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Talabalarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda ishlab chiqilgan metodik tizim modeli quyidagi komponentlardan iborat:

1. Maqsadli komponent

- Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash;
- Nutq nuqsonli bolalarga to'g'ri yondashuvni shakllantirish;
- Individual va differensial yondashuvlarni o'rgatish.

2. Mazmuniy komponent

- Logopediya va defektologiya asoslari;
- Nutq rivojlanishini baholash metodlari;
- Koreksion-pedagogik strategiyalar.

3. Amaliy-kompetension komponent

- Diagnostika mashg'ulotlari;
- Koreksion mashg'ulotlar loyihalash;
- Interaktiv o'qitish texnologiyalari asosida faoliyat yuritish.

4. Monitoring va baholash komponenti

- Talabaning bilim va ko'nikmalarini baholash;
- Mustaqil amaliy topshiriqlarni tahlil qilish;
- Refleksiya asosida o'z-o'zini baholash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashning интегратив методи bolalarda kuzatiladigan nutq nuqsonlarni oldini olish, logopedik yordam berish, ularni hayotga tayyorlash ishlari tashkil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Морозова Н.Й. Как преодолеть заикание. Изд-во ЭКСМО М., 2002
2. Волкова П.С., Шаховская С.Н., Логопедия. Издательство Владос. М., 2002
3. S.J.Achilova. Dislaliya.Dizartriya /O'quv qo'llanma. «ZEBO PRINT» TOSHKENT – 2021
4. S.J.Achilova. Dudaqlanish./ Darslik«ZEBO PRINT» TOSHKENT – 2022.

TILSHUNOSLIKDA ESKIRGAN SO'ZLAR VA ULARNING TAHLILI

Abduraximova Saida Komil qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

faridayormatova78@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilimizda ilgari faol qo'llanilgan, ammo hozirgi kunda kundalik foydalanishdan chiqib ketgan eskirgan so'zlar tahlil qilinadi. Shuningdek, eskirgan so'zlarning turlari: tarixiy so'zlar va arxaik so'zlarga alohida to'xtalib, misollar asosida tushuntirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: eskirgan so'zlar, tarixiy so'zlar, arxaik so'zlar leksik arxaizm, grammatik arxaizmlar, frazeologik arxaizmlar.

Annotation: This article analyzes obsolete words that were previously actively used in our language, but have now fallen out of everyday use. It also discusses the types of obsolete words: historical words and archaic words, and explains them using examples.

Keywords: obsolete words, historical words, archaic words, lexical archaisms, grammatical archaisms, phraseological archaisms.

Аннотация: В данной статье анализируются устаревшие слова, которые ранее активно использовались в нашем языке, но в настоящее время вышли из повседневного употребления. Также рассматриваются типы устаревших слов: исторические слова и архаичные слова и поясняются на примерах.

Ключевые слова: устаревшие слова, исторические слова, архаичные слова, лексические архаизмы, грамматические архаизмы, фразеологические.

Til vaqt o'tishi bilan eskiradi, yangilanadi. Shunday ekan, ayrim so'zlar so'zlashuv jarayonida qo'llanilmaydi yoki shu so'zlarning o'rniga yangi so'zlar paydo bo'ladi. Bunday holat so'zlarning eskirishiga olib keladi. Tilshunoslikda eskirgan so'zlar ikki turga bo'linadi: tarixiy so'zlar va arxaik so'zlar. Bu ikki tur bir-biridan farq qiladi va buni quyida misollar bilan yanada yaxshiroq tushunib olamiz.

Tarixiy soʻzlar –bu soʻzlar bilan ifodalangan tushunchalar ham butunlay yoʻq boʻlgan. Ularni faqat tarixiy asarlarda uchratishimiz mumkin ammo, hozirgi kundalik hayotimizda bu soʻzlardan foydalanilmaydi. Ushbu soʻzlarni tarixiy lavozimlarda koʻrib oʻtsak, masalan, amir-hukmdor podshoh, davlat boshligʻi, hojib-eshik ogʻasi, jomiy-kutubxonachi, ellikboshi-oʻrta asrlarda: qirq-ellik otliq askar boshligʻi. Bir kuni mahallamizning ellikboshisi shaharda borib kelib:-Akang osildi, oʻz koʻzim bilan koʻrdim, -dedi. A.Qahhor, “Qoʻshchinor chiroqlari” farmonachi-podshoh, xon yoki amirning farmonini xalqqa maʼlum qiluvchi mansabdor. Farmonachi ot chopib, qaynatamiz Islomxoʻja hazrat hovlisiga kelib, marhumning bola-chaqalarini ogoh etdi, -deydi xon. Mirmuhsin, “Choʻri”. Undan tashqari, kiyimlarda, ayniqsa, ayollarning kiyimida juda koʻp eskirgan soʻzlarga duch kelamiz. Peshonaband-ayollar boshiga, peshonasiga bogʻlaydigan, tangʻib oʻraydigan kichkina roʻmol. Xolaning peshonabogʻi ostidan oq-kulrang sochlari chiqib turar, koʻz atrofi ,boʻynida ajinlar quyuqlashganday edi. S.Nurov,”Maysalarni ayoz urmaydi”. Paranjikoʻpchilik musulmon ayollar begona erkaklarga ochiq koʻrinmaslik uchun boshga yopinib yuradigan, bichimi keng va uzun toʻn shaklidagi, soxta yengli yopingʻich (yuz chachvon bilan berkitiladi). -Bolalarni roʻyxatga olib kelamiz,-dedi Tozagul qoziqdan paranjisini olib, boshiga yopina turib. H.Gʻulom, “Mashʼal”. Hozirda bunday kiyimlarni ayol-qizlarimiz kiyishmaydi ular, asosan, tarixiy muzeylarda saqlanadi. Joʻrob soʻziga toʻxtalib oʻtamiz. Jun, qil, teri, yupqa teri va paxtadan toʻqilgan oyoqni isitib turuvchi oyoq kiyimi. Hozirgi kunda joʻrobning (javrob)paytava va mahsi singari boshqacha turlari ham bor. Jelak soʻzi ham qadimiy kiyimlardan biri hisoblanadi. Xotin-qizlar boshiga tashlab yuradigan yopinchiq. Egnidagi toʻq qizil koʻylagi, uning ustidan kiyib olingan qora jelagi... oʻziga xoʻp yarashgan. Abdulla Qahhor, “Qoʻshchinor chiroqlari”. Qadimiy ustki kiyimlar, taqinchoqlar va oyoq kiyimlar haqida maʼlumotlarni shu kabi eskirgan soʻzlardan bilib olishimiz mumkin. Oʻlchov birliklarda ham eskirgan soʻzlar mavjud. Misol uchun: tanob-yer oʻlchash, uzunlik oʻlchash, chiziq tortish va shu kabilarda ishlatiladigan uzun chilvir, reja. Oʻrta Osiyo xonliklarida: tomonlari 60 gazdan iborat boʻlgan maydonga teng yuza(yer) oʻlchov birligi.4.esk.tar.Oʻrta Osiyoda, xususan Oʻzbekistonda qoʻllangan uzunlik oʻlchov birligi(17-asrda 39,9metrga teng boʻlgan) Tong otguncha bir tanobcha yerning gʻoʻzasi suv ichdi .I.Raxim,”Chin Muhammad”. “Tanob” soʻzining oʻzi bir necha maʼnolarda qoʻllanilgan. Uzun chilvir, xonliklarda yerning yuzasini oʻlchaydigan birlik sifatida undan tashqari, uzunlikni oʻlchaydigan birlik sifatida ham qoʻllanilgan. Botmon-Oʻrta Osiyoning, shuningdek, Oʻzbekistonning turli yerlarida turli mezonga, salmoqqa ega boʻlgan (ikki puddan oʻn bir pudgacha) ogʻirlik

o'Ichov birligi. Xudo senga bir botmon kuch bergan-u, bir misqol aqlni ayagan! Oybek, "Quyosh qoraymas". Xususan, bu so'zga "Alpomish" dostonida ham duch kelamiz. Misqol- qadimgi og'irlik o'Ichov birligi: taxminan 4,24 grammga teng. Polvon bitta tuxum, ikkita xurmo, yarim misqol sedana, besh dona bo'tako'z topib, bir piyola suv bilan idishda qaynatishga buyurdi. A.Qahhor, "Ko'r ko'zning ochilishi". Qadoq-qiyamat jihatdan 1 funtga teng bo'lgan qadimgi og'irlik o'Ichov birligi (1 funt=409,512g.). Undan tashqari, omoch-qadimda asosiy yer haydash quroli, degrez-cho'yandan qozon quyuvchi, yorg'inchoq-donni maydalash va uni un qilish uchun ishlatiladigan tosh. Tarixiy so'zlar, asosan, o'tmishdagi voqea-hodisalar bilan bevosita bog'liqdir va ularni tarixiy asarlarda uchratishimiz mumkin. Ko'pincha, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Lutfiy, Ogahiy, Boborahim Mashrab g'azallarida tarixiy so'zlar qo'llanilgan. Shu bilan birga, Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida ham eskirgan so'zlarga ko'p bora duch kelamiz. Kundoshining qizi bilan apoq-chapoq bo'lib, uyiga qaytgan Sultonxon, mingboshining shaharga ketgan bo'yicha qaytmaganini bilganidan keyin, o'z uyiga kirdi va joy solib, yechinib o'tirmasdan, shundoqqina to'shakchani ustida birgina yostiqa bosh qo'yib uyquga ketdi. Ushbu romandan parchada "mingboshi" so'zi bizga tushunarsiz tuyuladi. Chunki bu so'z hozirda qo'llanilmaydi. Ushbu so'z asosan, xonliklar davrida keng ko'lamda foydalanilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu so'zga ehtiyoj ham yo'q. Bu so'zning ma'nosiga keladigan bo'lsak, Mingboshi-harbiy ma'muriy mansab. Ming kishidan tashkil topgan harbiy qism qo'mondoni.

Eskirgan so'zlarning yana bir turi- arxaik so'zlar hisoblanadi. Arxaik so'zlarda so'z eskiradi, ammo tushuncha saqlanadi va u boshqa yangi so'z bilan nomlanadi. Tarixiy so'zlardan farqli o'laroq, arxaik so'zlarda "so'z" eskiradi, ammo ifodalangan tushuncha yo'qolmaydi. Tushunchalar esa yangi so'zlar yoki sinonimlar bilan ifodalanadi. Lutfiyning:

Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,

Masaldurkim: "Charog' tubi qorong'u"

Ushbu baytda "gisu" so'zi arxaik so'z hisoblanib, hozirgi kunda bu so'zning o'rniga ma'nodoshi "soch" so'zi qo'llaniladi. Qolaversa, Mirtemirning "Dilda qoldi..." she'rida

Dudoqlari yarqiroq la'li

Pari desam-yarashur, balli.

Shahlo ko'zlar –qasdi jon ko'zlar,

Yonarmisan shu xilda hali?

Satrlarida “Dudoq” soʻziga koʻzimiz tushadi. ”Dudoq” soʻzini shoir sheʼrda taʼsirchanlikni oshirish uchun qoʻllagan desak, adashmagan boʻlamiz. Bu soʻzning oʻrniga biz hozirda sinonimi “Lab” soʻzi bilan ifodalaymiz. Undan tashqari, tilmoch soʻziga toʻxtalsak, bu soʻz—esk. Bir tildagi gap yoki nutqni boshqa tilga ogʻzaki tarjima qilib beruvchi; tarjimon. Hokim gap nima toʻgʻrisida ketayotganligini tilmochdan soʻrab, Teshaboyga kulib qoʻydi-targʻil koʻzlarida gʻalati bir sirning oʻti chaqnadi. M.Ismoil, “Fargʻona tong otguncha”. Bogʻot soʻzi bogʻlar, bogʻli joylar degan maʼnoni anglatadi. Oppoq tongdek hayotbaxsh bu sado, bu faryod devor, tom, chaman, bogʻotlar osha taralib, tun bagʻrimni tilim-tilim qilar edi. K.Yashin, “Hamza”. Ushbu keltirilgan soʻzlar arxaik soʻzlar hisoblanib, uni asarlardan, sheʼrlardan, izohli lugʻatlardan misollar keltirib oʻtdik. Arxaik soʻzlarning bir necha turlari mavjud: Leksik arxaizmlar; Grammatik arxaizmlar; Frazologik arxaizmlar. Leksik arxaizmlar—soʻz eskirib, uning oʻrniga yangi soʻzlar yoki sinonimlari qoʻllaniladi. Masalan: arkon, mirzo. Arkon-esk.kt. Ulugʻ martaba egalari, katta amaldor, mansabdor, arboblari. Supaga oʻn chogʻliq arkon chiqqandan soʻng, xon hudaychiga yana bir narsa deb qoʻydi. A.Qodiriy, “Mehrobdan chayon”. Grammatik arxaizmlar—eskirgan grammatik shakllar, qoʻshimchalardir. Morfologik arxaizmlar grammatik arxaizmlarning turi hisoblanib, bilur, turur, boʻlgʻay, burungʻ kabilar. Oʻrta eshikdan Kumushbibi koʻrindi. Burungʻi toʻlaligi ketib ozgʻinlangan va lekin bu ozgʻinlik uning husniga kamchilik bermay, bilʼaks yuqorilatqanlar .”Burungi” soʻzi hozirda “avvalgi”, “oldingi”, ”oʻtkan” soʻzlarining arxaik koʻrinishidir. Romandan parchada Kumush avvalgidek, oldingidek toʻlacha emas, degan maʼnoni anglatadi. “Boʻlgʻay” soʻzi hozirda “boʻlmoq”, ”boʻladi” soʻzlari bilan ifodalanadi. Alisher Navoiy:

Bu koʻngil gʻamnokidin to shodmon koʻrdim seni,

Istaram har damki,boʻlgʻay xotirim gʻamnokroq.

Baytda “boʻlgʻay xotirim gʻamnokroq” soʻzlarida, men sen uchun yanada gʻamnokroq boʻlaman, degan manʼnolarni anglatmoqda. Ikki va undan ortiq soʻzdan tarkib topgan va yaxlit bir maʼno ifodalaydigan til birligi frazeologik ibora deyiladi. Eskirgan frazeologik iboralar—frazeologik arxaizmlar deyiladi: bosh koʻtarmoq, qaddi dol boʻlmoq kabilar.

Eskirgan soʻzlarning ahamiyati shundaki, ular tilning tarixiy oʻzgarishini,xalqning madaniyatini,tarixiy voqea-hodisalarni, qadimiy asarlar va qoʻlyozmalarni, qadimdagi kundalik hayotda ishlatiladigan soʻzlarni oʻrganishda oʻzining beqiyos yordamini beradi. Yuqorida keltirib oʻtgan misollarimizdan, hojib, mingboshi, ellikboshi, jomiy singari tarixiy soʻzlar shu davrdagi lavozimlarni

tushunishimizga ko'maklashadi. Qadimiy liboslar nomi esa shu davrdagi onalarimizning, momolarimizning kiyimlari haqida xabar beradi. Eskirgan so'zlarni to'g'ri va xatosiz tushunishimiz uchun izohli lug'atlarga yuzlanamiz, albatta. Bu esa, tarixiy so'zlarning o'z o'rnida, atroflicha tushunishimizga yordam beradi.

Umuman olganda, eskirgan so'zlar nafaqat tilshunoslikda balki shunga yondosh sohalarda ham muhim ahamiyat kasb etib, tilning tarixini va uning o'rganish jarayonini qimmatli manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://izoh.uz/uz/word/ellikboshi>
2. <https://izoh.uz/word/farmonachi>
3. <https://narrativedictionary.navoiy-uni.uz/uz/Dictionary/ViewWord/c32cfacf-be05-4a80-ae89-9312cddf274b>
4. <https://izoh.uz/word/paranji>
5. <https://narrativedictionary.navoiy-uni.uz/uz/Dictionary/ViewWord?Id=aa64ebd8-2aad-4cde-9404-8a841475f64f>
6. <https://izoh.uz/word/tanob>
7. <https://izoh.uz/word/botmon>
8. <https://izoh.uz/word/misqol>
9. <https://izoh.uz/word/qadoq>
10. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mingboshi>
11. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12972_2_A7C5C71067FD2C7670AF2DAC1FB376BBD339ACDA.pdf
12. <https://izoh.uz/word/tilmoch>
13. <https://izoh.uz/word/bog%E2%80%98ot>
14. <https://izoh.uz/word/arkon>
15. <https://tafakkur.net/otkan-kunlar/bizda-kim-kop-yiglaydir.uzb>
16. <https://jadid.uz/mano-olamid-an-olingan-gazal/>
17. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12972_2_A7C5C71067FD2C7670AF2DAC1FB376BBD339ACDA.pdf
18. <https://narrativedictionary.navoiy-uni.uz/uz/Dictionary/ViewWord?Id=5ec554b5-4fed-419c-b7b4-8531cdfc746d>
19. Abdulla Qodiriy. "Navro'z". 2019.

ACADEMIC WRITING SKILLS: CHALLENGES AND SOLUTIONS FOR UNIVERSITY STUDENTS

Axmatova Maxliyo Ag'zam qizi

Chirchik state pedagogical university

a student of Tourism faculty

Foreign languages and literature, a 2st year student

Abstract: Academic writing is a vital skill for university students, as it directly influences their academic performance and professional development. However, many students face significant challenges in mastering this skill. Common difficulties include limited vocabulary, frequent grammatical errors, inability to maintain formal tone, and problems with structuring ideas logically. Students also struggle to support arguments with credible evidence and follow academic conventions, often due to insufficient practice or lack of exposure to scholarly texts. To overcome these challenges, several strategies are recommended. These include incorporating writing-focused courses into university programs, promoting extensive reading to enhance vocabulary and critical thinking, and encouraging peer review activities to improve revision and feedback. Additionally, technological tools such as grammar checkers and AI-based writing assistants can provide valuable support. Overall, effective academic writing development requires systematic training, continuous practice, and strong institutional guidance to ensure students' academic success.

Keywords: academic writing, university students, writing challenges, language proficiency, vocabulary development, critical thinking, peer feedback, digital tools.

Аннотация

Академическое письмо является важным навыком для студентов университетов, так как оно напрямую влияет на их академическую успеваемость и профессиональное развитие. Однако многие студенты сталкиваются с серьезными трудностями в освоении этого умения. К наиболее распространённым проблемам относятся ограниченный словарный запас, частые грамматические ошибки, трудности в поддержании формального стиля и логичном изложении идей. Студентам также бывает сложно обосновывать аргументы достоверными источниками и соблюдать академические нормы, что часто связано с недостаточной практикой или отсутствием опыта работы с научными текстами. Для преодоления этих трудностей рекомендуются

различные стратегии: включение в университетские программы специальных курсов по письму, развитие словарного запаса и критического мышления через обширное чтение, а также организация рецензирования работ среди студентов для улучшения навыков редактирования и обратной связи. Кроме того, технологические инструменты, такие как программы для проверки грамматики и системы искусственного интеллекта, могут оказать значительную помощь. В целом, развитие академического письма требует систематического обучения, регулярной практики и сильной институциональной поддержки, что обеспечивает успешность студентов в учебе.

Ключевые слова: академическое письмо, студенты университетов, трудности письма, уровень владения языком, развитие словарного запаса, критическое мышление, обратная связь, цифровые инструменты.

Annotatsiya

Akademik yozuv ko'nikmalari universitet talabalarining ta'limdagi muvaffaqiyati va kelajakdagi kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ko'plab talabalar ushbu ko'nikmani puxta egallashda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar. Eng ko'p uchraydigan muammolar qatoriga cheklangan lug'at boyligi, tez-tez uchraydigan grammatik xatolar, rasmiy uslubni saqlay olmaslik va g'oyalarni mantiqiy tarzda tuzishda qiynalish kiradi. Shuningdek, talabalar dalillarni ishonchli manbalar bilan asoslashda va akademik yozuv qoidalariga rioya qilishda ham muammolarga duch keladilar. Buning asosiy sabablari esa yetarli mashq qilmaslik yoki ilmiy matnlarga kamroq duch kelish bilan izohlanadi. Ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun bir qator strategiyalar tavsiya etiladi. Jumladan, universitet dasturlariga yozuvga oid maxsus kurslarni kiritish, lug'at boyligi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng qamrovli o'qishga rag'batlantirish, hamda qayta ko'rib chiqish va fikr almashish maqsadida tengdoshlararo tahlil faoliyatini yo'lga qo'yish. Bundan tashqari, grammatikani tekshiruvchi dasturlar va sun'iy intellekt asosidagi yozuv yordamchilari kabi texnologik vositalar ham samarali ko'mak berishi mumkin. Umuman olganda, akademik yozuvni rivojlantirish tizimli o'quv jarayonini, muntazam mashqni va kuchli institutsional qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Bu esa talabalar muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: akademik yozuv, universitet talabalari, yozuvdagi qiyinchiliklar, til bilish darajasi, lug'at boyligini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, tengdoshlar fikri, raqamli vositalar.

INTRODUCTION

Academic writing is one of the most important skills that university students are expected to master, as it serves as the foundation for producing research papers, essays, reports, and other scholarly work. Unlike general writing, academic writing requires clarity, precision, coherence, and a formal style that reflects critical thinking and evidence-based arguments. For many students, especially those studying in a second language, developing such skills can be a demanding and often frustrating process. Limited vocabulary, grammatical difficulties, and challenges in maintaining an academic tone frequently hinder their ability to express ideas effectively. In addition, students often struggle with organizing information logically, constructing strong arguments, and following the conventions of citation and referencing. These challenges not only affect their academic performance but also influence their confidence and overall learning experience. Therefore, identifying the common difficulties in academic writing and exploring effective strategies to overcome them is essential. Strengthening students' academic writing skills not only improves their academic success but also enhances their professional communication abilities, critical thinking, and intellectual growth.

Academic writing differs from everyday writing because it follows a formal, precise, and objective style. One of its main characteristics is formality, which avoids colloquial language and focuses on clarity and professionalism. As Bailey states, "Academic writing requires a clear, formal style where ideas are supported by evidence rather than personal opinion"[1]. Another key feature is coherence and cohesion, meaning that ideas should be logically organized and connected with appropriate linking words. In addition, academic writing emphasizes critical thinking, where students are expected not only to describe information but also to analyze and evaluate it. Jordan highlights this by noting that "Academic writing is not simply about conveying facts, but about engaging critically with sources and constructing well-supported arguments"[2]. Finally, the use of accurate referencing and citation ensures academic integrity. Altogether, these features make academic writing an essential skill in higher education.

Although academic writing is an essential part of higher education, many university students struggle to master it. One of the most common challenges is language proficiency. Limited vocabulary, grammatical errors, and difficulties in maintaining a formal tone often prevent students from expressing their ideas clearly. Hamp-Lyons and Heasley note that "Students who lack linguistic accuracy frequently fail to communicate their intended meaning effectively"[3]. Another significant

difficulty is organization and coherence. Many students find it hard to structure essays or research papers in a logical order. They may present fragmented ideas or repeat information without building a clear argument. As Hyland argues, "Coherence is not simply a matter of grammar but of arranging ideas into patterns which readers can easily follow"[4]. A further challenge is the lack of critical thinking and referencing skills. Instead of analyzing and evaluating sources, students often rely on description or even copy information without proper citation. This not only weakens the quality of their work but also raises concerns about plagiarism. Jordan emphasizes that "The ability to use sources critically and acknowledge them correctly is central to successful academic writing"[5]. Many students suffer from insufficient practice and support. In some educational contexts, writing instruction is limited, leaving students unprepared for the demands of university-level writing. Without systematic training, they struggle to adapt to academic standards. Challenges in academic writing stem from language limitations, organizational issues, weak critical thinking, and lack of training. Addressing these problems requires both student effort and institutional support to ensure academic success.

Given the wide range of challenges faced by university students in academic writing, effective strategies are essential to help them improve their skills. One of the most important solutions is the introduction of writing-focused courses and workshops. These courses allow students to receive systematic instruction on grammar, essay organization, referencing, and academic style. As Bailey observes, "Explicit instruction in the conventions of academic writing is necessary if students are to write successfully at university level"[6]. Providing such training early in students' academic careers can build a strong foundation for later assignments and research projects. Another effective strategy is encouraging extensive reading. Reading academic texts helps students acquire subject-specific vocabulary, understand how arguments are constructed, and observe how evidence is used to support claims. Hyland highlights this by stating, "Exposure to authentic academic texts provides learners with models of the discourse they are expected to produce"[7]. By engaging with diverse academic materials, students gradually internalize academic conventions, which positively influences their writing. Peer feedback and collaborative learning also play an important role. Through reviewing each other's drafts, students become more aware of errors, improve their ability to evaluate writing critically, and refine their own work. Hamp-Lyons and Heasley emphasize that "Peer review not only helps writers to improve drafts but also develops critical reading and self-editing skills"[8]. This

collaborative approach creates a supportive environment where students learn from one another. The use of digital tools and institutional support should not be overlooked. Modern tools such as grammar checkers, plagiarism detectors, and AI-based writing assistants provide immediate feedback, helping students refine accuracy and coherence. However, these tools are most effective when combined with teacher guidance, writing centers, and academic advisors who can provide personalized support. Strengthening academic writing requires a multi-dimensional approach: targeted instruction, extensive reading, peer collaboration, and technological assistance. With adequate institutional support, these strategies not only improve students' writing proficiency but also foster critical thinking and confidence, enabling them to succeed both academically and professionally.

Beyond the immediate challenges and strategies explored, academic writing carries a broader significance for university students, extending into their intellectual growth, research ability, and professional careers. Mastering academic writing is not simply a matter of passing exams or producing assignments; rather, it is about cultivating transferable skills that support lifelong learning.

One of the most valuable outcomes of academic writing is the development of critical thinking. Writing requires students to analyze information, compare perspectives, and evaluate evidence before drawing conclusions. This process fosters independent thought and helps learners engage more deeply with their fields of study. As Cottrell observes, "Academic writing involves thinking, not just writing; it requires the writer to demonstrate critical understanding of sources and arguments"[9]. In this way, academic writing serves as a tool for intellectual engagement rather than a mere academic requirement.

Academic writing also has a direct link to research competence. Students who write effectively are better equipped to design research projects, articulate hypotheses, and present findings clearly. The ability to synthesize sources and acknowledge them properly ensures not only academic integrity but also credibility in scholarly communities. Hyland emphasizes that "Writing is central to academic success because it is the primary means by which students enter disciplinary conversations and demonstrate their knowledge"[10]. Thus, strong writing skills are essential for active participation in academic and professional discourse. Academic writing builds communication skills that are valuable in professional contexts. Whether drafting reports, proposals, or policy documents, graduates who can express themselves clearly and persuasively are more likely to succeed in competitive job markets. Employers

increasingly value graduates who can organize ideas, argue logically, and present information coherently abilities that are honed through academic writing.

The benefits of academic writing extend to personal growth. The discipline of planning, drafting, revising, and editing instills habits of patience, persistence, and attention to detail. These qualities contribute to resilience and adaptability, traits that are crucial in both academic and workplace environments. Academic writing is not only a fundamental academic skill but also a cornerstone of broader intellectual and professional development. By mastering academic writing, students gain critical thinking abilities, research competence, communication skills, and personal discipline. These outcomes highlight the importance of continuous support, practice, and innovation in teaching writing at the university level.

CONCLUSION

Academic writing is an essential skill that lies at the heart of higher education. It enables students to communicate ideas with clarity, engage critically with scholarly sources, and contribute meaningfully to their fields of study. However, as this article has demonstrated, university students often face multiple challenges in mastering this skill. These challenges include limited language proficiency, difficulties in organizing arguments, lack of critical thinking, and insufficient training in referencing and citation. Without addressing these issues, students may struggle to achieve their full academic potential. The solutions discussed highlight that academic writing requires a systematic and supportive approach. Writing-focused courses and workshops can provide students with structured instruction, while extensive reading exposes them to models of effective academic discourse. Peer feedback encourages collaboration and reflection, and digital tools assist with improving accuracy and coherence. Yet, the most effective progress occurs when these strategies are combined with strong institutional support, including writing centers, academic advisors, and motivated instructors. Developing academic writing skills is not only about producing better essays or research papers it is about shaping the intellectual and professional identities of students. By engaging consistently in writing practice and receiving constructive guidance, students gain confidence in expressing their ideas and become better prepared for both academic and professional challenges. Academic writing is more than a university requirement; it is a lifelong competency. The ability to think critically, structure arguments, and communicate effectively benefits students far beyond their studies, supporting their careers and personal growth. Universities, therefore, must

continue to view writing not as an isolated task but as a central component of education that equips students for success in a rapidly changing world.

REFERENCES:

1. Bailey, S. (2018). Academic Writing: A Handbook for International Students (5th ed.). Routledge.(p. 12).
2. Hamp-Lyons, L., & Heasley, B. (2006). Study Writing: A Course in Written English for Academic Purposes (2nd ed.). Cambridge University Press. (p. 5).
3. Hyland, K. (2003). Second Language Writing. Cambridge University Press. (p. 8).
4. Jordan, R. R. (1999). Academic Writing Course (3rd ed.). Pearson Education. (p. 45).
5. Cottrell, S. (2017). Critical Thinking Skills: Effective Analysis, Argument and Reflection (3rd ed.). Palgrave Macmillan.(p. 22).
6. Swales, J. M., & Feak, C. B. (2012). Academic Writing for Graduate Students: Essential Tasks and Skills (3rd ed.). University of Michigan Press. (p. 17) .
7. Nesi, H., & Gardner, S. (2012). Genres across the Disciplines: Student Writing in Higher Education. Cambridge University Press.(p. 60).
8. Lea, M. R., & Street, B. V. (1998). Student writing in higher education: An academic literacies approach. *Studies in Higher Education*, 23(2), 157–172.(p. 160).
9. Wingate, U. (2012). Using academic literacies and genre-based models for academic writing instruction: A 'literacy journey.' *Journal of English for Academic Purposes*, 11(1), 26–37. (p. 31).
10. Flowerdew, J., & Peacock, M. (2001). Research Perspectives on English for Academic Purposes. Cambridge University Press. (p. 14).

O'ZBEK (ONA) TILI O'QITISH METODLARI VA USULLARI

**Boborahimova O'g'iloy Aktamjon qizi,
Qurbonboyeva Dilbar Ollombergan qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

boborahimova@gmail.com

dilbarqurbonboyeva23@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tilini o'qitish metodlari va usullari tushunchalari tahlil qilinadi. Metod va usulning o'zaro farqlari, ta'lim jarayonidagi o'rni, samarali ta'limga erishishda muhimligi ko'rsatib o'tiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va AKT vositalarining ta'lim sifatini oshirishdagi roli haqida so'z boradi. O'qituvchining ijodiy faoliyati va shaxsga mos yondashuvning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar. Ona tili, ta'lim metodlari, o'qitish usullari, pedagogika, interaktiv metodlar, ta'lim texnologiyalari, til o'qitish.

Annotation. This article analyzes the concepts of methods and techniques of teaching the native language. It discusses the differences between methods and techniques, their roles in the educational process, and their importance for achieving effective learning. The article highlights the use of modern pedagogical approaches, interactive methods, and ICT tools to enhance teaching quality. The significance of the teacher's creative activity and individualized approach is emphasized.

Keywords. native language, teaching methods, teaching techniques, pedagogy, interactive methods, educational technologies, language teaching

Аннотация. В данной статье анализируются понятия методов и приемов обучения родному языку. Рассматриваются различия между методами и приемами, их роль в образовательном процессе и значимость для достижения эффективного обучения. Обсуждается использование современных педагогических подходов, интерактивных методов и ИКТ для повышения качества обучения. Подчеркивается важность творческой деятельности учителя и индивидуального подхода.

Ключевые слова. родной язык, методы обучения, приемы обучения, педагогика, интерактивные методы, образовательные технологии, обучение языку

Metod tushunchasi va ona tilini o'qitishda uning ahamiyati. Metod so'zi yunoncha metodosdan olingan bo'lib, "yo'l", "yo'riq" yoki "usul" ma'nolarini anglatadi. Pedagogikada esa metod — bu maqsadga erishish yo'lida amalga oshiriladigan tizimli va rejalashtirilgan faoliyatdir. Ona tili o'qitish metodlari deganda ona tilini o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan usullar va bu jarayonlarni tartibga soluvchi faoliyat tushuniladi. Bu borada metod faqatgina ma'lumot berish emas, balki ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini — o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, o'quv materiallarini tanlash, dars usullarini qo'llash, o'rganuvchi faoliyatini tashkil etish va baholashni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy didaktika fani metod va usul tushunchalarini aniq ajratib beradi. Ta'limda metod — bu nafaqat o'qituvchining, balki o'quvchining ham faoliyatini o'z ichiga olgan keng ko'lamli jarayon bo'lib, u ta'lim maqsadi, mazmuni, vositalari va ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. To'g'ri tanlangan ta'lim metodlari ta'lim jarayonida o'rgatish va o'rganish faoliyatlarini uyg'unlashtirib, ijtimoiy buyurtma sifatida belgilangan ta'lim maqsadlariga samarali erishishga xizmat qiladi.

Ta'lim usuli va uning ta'lim jarayonidagi roli. Pedagogik adabiyotlarda ko'p bor muhokama qilingan ta'lim usuli masalasi ham ta'lim mazmuni kabi qadimiy va muhim tushunchadir. Ta'lim usuli - ta'lim metodining tarkibiy qismi bo'lib, u faqat o'qituvchi yoki faqat o'quvchi faoliyatiga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchining yangi mavzuni og'zaki tushuntirish, o'tilgan mavzuni test yoki tarqatma materiallari asosida so'rash, mustahkamlash, muayyan bob yoki bo'limni takrorlash uchun maxsus savol va topshiriqlar tayyorlash kabi faoliyatlari ta'lim usuliga kiradi. Shu bilan birga, o'quvchining mustaqil o'zlashtirish, muhim jihatlarni konspekt qilish, topshiriqlarni bajarish kabi faoliyatlari ham ta'lim usulining muhim qismidir. Ya'ni ta'lim usuli - bu o'qituvchi yoki o'quvchining alohida faoliyati bo'lib, ular birgalikda ta'lim metodini tashkil etadi.

Usul tushunchasi va pedagogik faoliyatdagi o'rni. Usul - bu insonning bilim olish jarayonini tartib bilan amalga oshirish yoki biror obyektни amaliy o'zgartirish uchun ishlatiladigan vosita va mexanizmdir. Pedagogik amaliyotda usullar o'qitish va o'rganish jarayonining har bir bosqichida qo'llaniladigan aniq va amaliy yo'nalishlardir. Usullar asosan amaliyotda sinovdan o'tgan, ilmiy tadqiqotlar va nazariyalar asosida shakllangan elementlardan iboratdir. Ular orqali ta'limning maqsad va vazifalari amalga oshiriladi hamda pedagogik jarayonning mazmuni va izchilligi ta'minlanadi. Didaktik jarayonda, bolaga bilim berishda, ijodiy faoliyatda malaka va

ko'nikmalarni shakllantirishda, har bir ishda mustaqillik, tadbirkorlik va ijodiy yondashishni uning odatiga aylantirishda turli xil usul va metodlardan foydalanish zarur. Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatda har bir o'qituvchi A.S. Makarenkoning ta'kidlashicha, oddiy «Bu yoqqa kel!» amrini turli usullarda, aniqrog'i 72 usulda aytishni o'zlashtirish lozim. Bu esa har bir o'qituvchining ijodkorligini va metodik mahoratini oshirishga xizmat qiladi (Makarenko, 2007).

Ona tili o'qitish metodlari mavzusiga tahlil (misollar bilan). Matnda ona tilini o'qitishda metod va usul tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning ahamiyati batafsil ko'rsatib o'tilgan. Masalan, metod keng qamrovli faoliyat sifatida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni bildirsa, usul – bu o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan ma'lum bir vazifani bajarishda qo'llaniladigan konkret yo'ldir. Misol uchun, yangi mavzuni og'zaki tushuntirish usuli o'qituvchining faoliyatiga tegishli bo'lib, bu usul yordamida o'quvchilarga mavzu mazmuni aniq va tushunarli tarzda yetkaziladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun topshiriqlar tayyorlash yoki muhim jihatlarni konspekt qilish usullari o'quvchi faoliyatining asosiy qismini tashkil qiladi. Mualliflar ta'lim jarayonida mos usul tanlashning ahamiyatini ta'kidlaydi. Masalan, yosh bolalarga ona tilini o'rgatishda o'yin metodlari, qo'shiq va hikoyalar yordamida o'rgatish samarali bo'ladi, chunki bu yoshga mos va qiziqarli usullardir. Kattaroq yoshdagi o'quvchilarda esa muammoli bayon qilish yoki tadqiqot metodlari yordamida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Yana bir muhim nuqta – ta'lim metodlari falsafiy jihatdan hayot qonuniyatlarini anglashga yordam beradi. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat til qoidalarini o'rgatadi, balki ular orqali dunyoni idrok qilish usullarini ham shakllantiradi. Misol sifatida, muammoli bayon qilish metodida o'quvchilarga ona tili qoidalarini bo'yicha qiyin vaziyatlar, masalan, murakkab gaplar tuzish yoki sinonimlar farqini topish kabi vazifalar beriladi. Bu ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi.

Shuningdek, I.Ya. Lerner va M.N. Skatkinning metodlar tasnifi o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan. Masalan, “qisman izlanish” usulida o'quvchilar mavzuni mustaqil o'rganish uchun kichik guruhlariga bo'linib, ma'lumot yig'adilar va uni sinfda taqdim etadilar. Bu nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Metodlarning xilma-xilligi va tanlash mezonlari. Pedagogik adabiyotlarda ta'lim metodlari ko'plab olimlar tomonidan turlicha tasniflangan. Masalan, M.N. Skatkin va I.Ya. Lerner ta'lim metodlarini quyidagicha guruhlashgan:

Tushuntirish va namoyish etish metodi;

- ❖ Qayta eslab qolish (xotirlash) metodi;
- ❖ Muammoli bayon qilish metodi;
- ❖ Qisman izlanish (qidiruv) metodi;
- ❖ Tadqiqot (izlanuvchanlik, ijodiy yondashuv) metodi.

Bu tasnif ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularni muammoli vaziyatlarga ilmiy yondashuv asosida yechim topishga undashga qaratilgan. Aynan shu metodlar ona tilini o'rgatishda o'quvchilarning kommunikativ, lingvistik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, o'quvchilarning qobiliyatlari, bilish faoliyatini tashkil etishdagi individual yondashuv ham metodlarni tanlashda muhim mezon hisoblanadi. Bu jihatdan, Kubanskiy ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning bilimlari tarkibida izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish va ularni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Ta'lim metodlarini tanlashda prinsiplar. Ta'lim metodlarini tanlashda ikki muhim prinsip mavjud:

3. Ilmiylik prinsipi - o'quv predmetlarini zamonaviy fan yutuqlari asosida tushuntirishni taqozo etadi.

4. Tushunarliklik prinsipi - o'quv predmetini o'quvchilarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribalari va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish zaruratini bildiradi.

Bu ikki prinsip bir-birini to'ldirib, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tilini samarali o'qitish uchun turli usul va metodlarning uyg'unlashgan holda qo'llanilishi muhimdir. Ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalaridan foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, o'qituvchilar doimo pedagogik mahoratini oshirib borishi, dars jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng qo'llashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.G'ulomov.A, Qodirov.M, Ernazarova.M, Bobomurodova.M, Alavitdinova.N, Karimjonova.V. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent – 2012. - 256 b.

2. Matkarimova Zaynab Olloyorovna. “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi” maqola. “Science and Education” Scientific journal - 2020. - 87 b.

3. Yusubova Zulxur Karimovna. “Ona tili o‘qitish metodikasining ilmiy asoslari va tamoyillari” maqola. 2020. - 45 b.

4. Turaqulova, D. Til o‘qitish metodikasi asoslari. Toshkent: «Yangi asr avlodi» nashriyoti. 2019. - 187 b.

5. Rahmonov F. “Ona tilini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi”, Til va adabiyot ta’limi jurnali. 2020. - 8 b.

O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH USULLARI

Ruziyeva Shoxsanam O'lmas qizi,
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Abdirimova Intizor Kamilovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.
e-mail: intizorabdirimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirishga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan. Fikr ifodalash malakasining rivojlanishi nutqni yaxshilash, boyitish, badiiy bo'yoq berish kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, maqolada buyuk mutafakkirlarning nutq madaniyati bo'yicha bildirgan fikrlariga tayangan holda nutq o'stirish usullari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, nutq madaniyati, ona tili, ta'lim tizimi, o'qituvchi, o'quvchi, talablar, ijodiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье рассмотрены требования, предъявляемые к развитию речи учащихся на уроках родного языка. Развитие навыков выражения мысли выполняет такие задачи, как совершенствование речи, обогащение, художественная окраска. Также в статье раскрыты методы развития речи, опирающиеся на высказывания великих мыслителей о культуре речи.

Ключевые слова: речь, культура речи, родной язык, система образования, Учитель, ученик, требования, творческое мышление.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohatlar davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Yurtboshimizning: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va

imkoniyatlarini safarbar etamiz”, - deb e’tirof etishlari o‘zbek tili o‘qituvchilari oldiga tashabbuskor, izlanuvchan, intiluvchan va raqobatbardosh bilim egalarini tarbiyalashdek dolzarb vazifani qo‘ydi. “Davlat tili”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar, “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” va boshqa hujjatlarda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida e’tibor berilgan. Har bir kadr, eng avvalo, o‘z ona tilining chinakam sohibi bo‘lmogi lozim.

Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go‘zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo‘lishiga intiladi. Shuni aytish lozimki, maktabda o‘qitiladigan barcha o‘quv fanlari o‘quvchi nutqi ustida ishlashga yo‘l ochadi. “Ona tili” o‘quv fani sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, o‘quvchining fikr ifodalash malakalarini rivojlantiradi. Uni tilimizning go‘zal olamiga olib kiradi, nutqni yaxshilash, boyitish, unga badiiy bo‘yoq berish, nafasat bag‘ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘ vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...”.

Nutq o‘stirish tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llashlariga yordm beradi.

O‘qituvchi ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning ilmiy salohiyatini o‘stirish bilan birga mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur qilish, kreativ yondashish ko‘nikmalarini rivojlantirishi zarur. Buning uchun, avvalambor, o‘qituvchining chiroyli nutqqa ega bo‘lishi kerak. Chunki “o‘qituvchining nutqi o‘tmas, nochor bo‘lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo‘lmasin, o‘ziga ham azob, o‘quvchi sho‘rlikka ham azob. Ona tilida puxga, lo‘nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o‘qituvchisi uchun ham, ona tili o‘qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O‘qituvchi go‘zal, o‘zni ham, so‘zni ham qiynamaydigan ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o‘quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo‘lgan bilimni yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan, ona tili milliy ma’naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir”.

O'quvchi nutqiga bir qator muhim talablar qo'yiladi: Muhim talablardan biri nutqning nutq sharoitiga **mosligidir**. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Bu sharoit behad ko'p tarkibli, serqirra bo'lib, so'zlovchi va tinglovchini nutq paytida qurshab turgan barcha narsa-buyum, holatlardan tortib, ularning bilim saviyasi, kasb-kori, so'zlovchining maqsadi va imkoniyatlarigacha bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Bunday nutqda fikr izchilligi, gaplarning o'zaro to'g'ri bog'lanishi, bog'lovchilar, olmoshlar, soha atamalari, ovoz tembri, ohang kabilarni to'g'ri qo'llashga alohida e'tibor berish lozim.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab **mazmundorlikdir**. Shuni unutmash kerakki, nutq nutq sharoitiga mos tushsa, u mazmunli bo'ladi. O'quvchi faqat bilgan narsalarini, o'zi xabardor bo'lgan voqea-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon qilishi mumkin. Aniq dalillar o'quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritilgan fikrigina o'zgalar diqqatini o'ziga tortadi.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablardan yana biri fikrning **mantiqan to'g'ri, aniq va izchil** bo'lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytariq fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

O'quvchi nutqiga qo'yiladigan yana bir muhim talab uning boy va **rang-barangligidir**. Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, sinonimiyalaridan unumli foydalanishda, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, ulkan shoir va yozuvchilarning aforizmga aylanib qolgan iboralari va jumllaridan, badiiy asarlardan olingan parchalardan, o'zbek xalqining qochiriq so'zlari va ko'chma ma'noli so'zlaridan, ritorik so'roqli gaplardan foydalanishida namoyon bo'ladi.

Aniqlik nutqning boyligi va rang-barangligi bilan chambarchas bog'langan. Ma'lum bir mazmunni turli shakllarda bera bilish, nutq sharoitiga mos tushadigan tasvir usulini tanlash nutqqa aniqlik kiritadi.

Ohangdorlik ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish vositasi sanaladi. Shuning uchun

she'riy asarlar, nasriy parchalarni ohangdorlikka amal qilgan holda o'qiy olish malakasi ham o'quvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi.

Nutqning grammatik jihatdan **to'g'ri qurilgan bo'lishi** ham unga qo'yiladigan muhim talablardan biridir. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Nutqqa qo'yiladigan yana bir muhim talab uning **soddaligi va sofligidir**. Sodda nutq avvalo tushunarli bo'ladi. Nutqning tushunarli bo'lishi, bir tomondan, fikrni lo'nda, aniq bayon qilish, "tushunarli bo'lmagan g'aliz jumalardan saqlanishda namoyon" bo'lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining tayyorgarlik darajalariga ham bog'liqdir. Demak, o'quvchi fikrni ham sodda, ravon bayon qilishi, ham o'zgalar fikri mohiyatini anglab, uni tushunish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida tilga olingan talablar bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, o'quvchi yaxshi nutqqa faqat shularning hammasiga amal qilish orqali erishadi. Shuning uchun ona tili darslarida nutqqa qo'yilgan talabni hisobga olib, ikkinchisini unutish yoki bir talabni quyi sinfda, ikkinchisini keyingi sinfda qoldirish mumkin emas. Bu talablarga doimiy va qat'iy amal qilinsagina nutq o'stirish samarali kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston. 2016. – 146 b.
2. Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Т.: 1993.
3. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. – T. 1999.
4. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: 1992. – 156 b.

GAPNING ASOSIY BELGILARI, IFODA MAQSADI VA TUZILISHIGA KO'RA TURLARINI O'QITISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Allamberganova Mavluda Saparbay qizi

Reimova Oltin Faxriddin qizi

CHDPU 3- bosqich talabalari

allamberganovamavluda136@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada gapning nazariy va amaliy jihatlarini, uning asosiy belgilari, ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra turlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogika va tilshunoslik nuqtayi nazaridan gapni o'qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati keng tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tajribasi, o'quv jarayonida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: gap, sintaksis, ifoda maqsadi, tuzilish, innovatsion metod, o'qitish texnologiyasi, interfaol usul.

Annotasiya. This article scientifically explores the theoretical and practical aspects of the sentence, its main features, and types according to purpose and structure. It also provides an in-depth analysis of the importance of innovative approaches to teaching sentences from the perspective of modern pedagogy and linguistics. The study examines the experience of using interactive methods, information and communication technologies, and issues related to the development of speech competence in the learning process.

Keywords: sentence, syntax, purpose of expression, structure, innovative method, teaching technology, interactive approach.

Аннотация. В данной статье научно освещаются теоретические и практические аспекты предложения, его основные признаки, виды по цели высказывания и структуре. Также подробно анализируется значение инновационных подходов в обучении предложению с точки зрения современной педагогики и лингвистики. В ходе исследования рассматривается опыт использования интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, а также вопросы развития речевой компетенции в учебном процессе.

Ключевые слова: предложение, синтаксис, цель высказывания, структура, инновационный метод, технология обучения, интерактивный метод.

Sintaksis va gap tushunchasining muhimligi.

Tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan biri - sintaksis bo'lib, u nutqning eng yirik birliklari - gap va matnni o'rganadi. Sintaksis tilning so'z va so'z birikmalarining ma'noli tizimga kelishi, ularning o'zaro bog'lanishi va tartibini o'rganadi. Sintaksis tilning mantiqiy va grammatik qonun-qoidalari orqali nutq shakllanishini tushunishga xizmat qiladi. Gap, o'z navbatida, fikrni ifodalovchi eng muhim birlikdir. Inson tafakkuri, ijtimoiy hayoti va kundalik muloqoti aynan gap orqali amalga oshadi. Shu bois ta'lim jarayonida gapni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rgatish, uni o'quvchilarga to'g'ri va samarali tushuntirish dolzarb masaladir. Til inson muloqotining asosiy vositasi sifatida gap orqali fikr almashadi. Gaplar yordamida nafaqat ma'lumot yetkaziladi, balki insonlarning ijtimoiy munosabatlari, hissiyotlari va fikr mulohazalari shakllanadi. Gap shakllanishidagi sintaktik qonunlar tilni to'g'ri va tushunarli ifodalash imkonini beradi. Shunday ekan, gapni o'rgatish jarayoni nafaqat til bilimini oshiradi, balki o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini, fikr yuritish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Gap tushunchasi va uning nazariy asoslari.

Fikr ifodalash, munosabat bildirishning asosiy vositasi sifatida gap hisoblanadi. Gap nisbiy hukm bildiradi. Bu degani, gapda ma'lum bir fikr tugalligi, voqelikka oid hukm mavjud bo'ladi. Gapning asosiy belgilari qatorida quyidagilar ajralib turadi:

Tugallangan fikrni ifodalashi: Har bir gapda ma'lum fikr, maqsad yoki his-hayajon ifodalanadi. Agar gap shunday bo'lmasa, u so'z birikmasi yoki parcha hisoblanadi.

Grammatik asosning mavjudligi: Har bir gapda grammatik asos — ega va kesim mavjud bo'lishi kerak. Bu gapning mantiqiy va grammatik markazi hisoblanadi.

Predikativlik: Gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalaydi. Gap orqali so'zlovchi voqea, hodisa yoki xususiyatning mavjudligi, amalga oshishi, realligi yoki norealligi haqida fikr bildiradi.

Intonatsion tugallik: Gap nutqda o'ziga xos ohang bilan yakunlanadi, bu uning tugallanganligini ifodalaydi.

Kommunikativ vazifa: Gap axborot berish, savol berish, buyruq qilish yoki his-tuyg'uni ifodalash kabi ijtimoiy vazifalarni bajaradi.

Predikativlik — gapning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, u gap mazmunining borliq haqidagi munosabatini ifodalaydi. Bu modallik, zamon va shaxs kategoriyalari orqali namoyon bo'ladi. Masalan, gapda vaqt, holat, shaxsiy qaror yoki irodani ifodalovchi morfologik va sintaktik elementlar bo'ladi.

Gaplar nutqiy vazifasiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

Darak gaplar: Axborot beruvchi gaplar. Masalan, "Bugun dars soat to'qqizda boshlanadi."

So'roq gaplar: Ma'lumot olishga qaratilgan gaplar. Masalan, "Bugun kim navbatchi?"

Buyruq gaplar: Iltimos, maslahat yoki buyruq bildiradi. Masalan, "Kitobni olib kel!"

Undov gaplar: Hayajon, quvonch, g'azab yoki boshqa his-tuyg'ularni ifodalaydi. Masalan, "Voy, qanday chiroyli manzara!"

O'qitishda ushbu gap turlarini nafaqat nazariy jihatdan, balki hayotiy vaziyatlar asosida o'rgatish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Masalan, dars jarayonida savol-javob, suhbat va dialoglardan foydalanish samarali natija beradi. Bu usullar o'quvchilarda nafaqat gaplarni farqlashni, balki ularni turli kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

Gaplar tuzilishiga ko'ra oddiy va qo'shma gaplarga bo'linadi:

Oddiy gaplar: Bir grammatik asosga ega bo'ladi. Masalan, "O'quvchi daftariga yozmoqda." Oddiy gapda yagona fikr ifodalanadi.

Qo'shma gaplar: Ikki yoki undan ortiq grammatik asosga ega bo'ladi. Masalan, "O'quvchi daftariga yozmoqda va kitob o'qiyapti." Qo'shma gapda bir nechta fikr yoki harakatlar bog'lanadi.

Qo'shma gaplarni o'qitishda o'quvchilarga bog'lovchi vositalarni aniqlash, gapning tarkibiy qismlarini ajratish topshiriqlari beriladi. Bu esa ularning sintaktik tafakkurini rivojlantiradi va ularni murakkab gaplar tuzishga tayyorlaydi.

Innovatsion yondashuvlarning ta'limdagi o'rni.

Bugungi ta'lim jarayonida o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiruvchi shaxs bo'lishi kerak. Shu bois an'anaviy metodlardan tashqari innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarur. Innovatsion metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, bilimlarni ongli ravishda egallashlariga yordam beradi. Misol uchun, gapni o'qitishda "Aqliy hujum", "Insert", "Klaster" kabi interfaol metodlardan keng foydalanish mumkin. "Aqliy hujum" metodi: O'quvchilar berilgan mavzu asosida turli gap turlarini mustaqil tuzadilar va fikr almashadilar. Bu metod o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. "Klaster" metodi: Gapning turlari grafik ko'rinishda tasniflanadi. Bu o'quvchilarga sintaktik tasniflarni vizual tarzda o'zlashtirishda yordam beradi.

Axborot texnologiyalarining o'zni ham juda muhim. Multimedia vositalari, taqdimotlar, elektron darsliklar yordamida gaplarning nazariy jihatlari yanada jonli tarzda tushuntiriladi. Shuningdek, masofaviy ta'lim platformalarida ham gap turlariga oid topshiriqlar berish mumkin. Bu o'quvchilarda axborot savodxonligini ham oshiradi.

Amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati.

Nutqiy vaziyatlarni sahnalashtirish, rol o'yinlar tashkil etish orqali o'quvchilar turli gap turlarini nutqda qo'llashni o'rganadilar. Masalan, "Do'konda" mavzusida suhbat tuzish mashqi o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantiradi.

Amaliy mashg'ulotlar gap tuzilishini va kommunikativ vazifalarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Nutqiy vaziyatlarni yaratish orqali o'quvchilar o'z bilimlarini real hayotga yaqin sharoitda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, gap tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri sifatida ta'lim jarayonida keng o'rganilishi shart. Uning belgilarini, ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra turlarini innovatsion yondashuvlar yordamida o'rgatish o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, nutqiy kompetensiyasini shakllantiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar va axborot vositalaridan oqilona foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, ta'limda gapga e'tibor qaratish tilning barcha sohalarini rivojlantirishga, madaniyat va ijtimoiy muloqotni boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A. va boshqalar. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2010. – 26 b.
2. Jo'rayev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 154 b.
3. Nurmonov A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 87 b.
4. Qodirov R. O'zbek tilini o'qitishda interfaol metodlar. – Toshkent: TDPU, 2019. – 329 b.
5. Xolmonova M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Istiqbol, 2020. – 97 b.

PUNKTUATSIYA O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Ahrorova Marjona Zokir qizi

Shukurullayeva Rayxon Oybek qizi

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

ahrorovamarjona20052907@gmail.com

rayhonshukrullayeva@gmail.com

Annotatsiya. Tilshunoslikka tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu maqolada punktuatsiya belgilarining o'ziga xos xususiyati hamda vazifalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: punktuatsiya, yozma nutq, til birliklari, tilshunoslik, me'yor, ma'no, tinish belgilari, metodika.

Аннотация. В лингвистике знаки препинания служат важным графическим средством для правильного, выразительного и логичного изложения письменной речи, её краткости и демонстрации логико-грамматических связей между частями предложения. В данной статье рассматриваются особенности и функции знаков препинания.

Ключевые слова: пунктуация, письменная речь, языковые единицы, лингвистика, норма, значение, знаки препинания, методика.

Annotation. In linguistics, punctuation marks are used as an important graphic tool for the correct, expressive, and logical presentation of written speech, its conciseness, and the demonstration of the logical and grammatical relationships between parts of a sentence. This article discusses the specific features and functions of punctuation marks.

Keywords: punctuation, written speech, language units, linguistics, norm, meaning, punctuation marks, methodology.

Punktualtsiya (lot.punctum-nuqta; kichkina dog') – alifbodan tashqari bo'lgan grafik belgilar (tinish belgilari) tizimi bo'lib, grafika va orfografiya (imlo) bilan birgalikda yozma tilning asosiy vositalarini tashkil etadi. Punktualtsiyaning asosiy vazifasi yozma (bosma) matnni qismlarga ajratish, garafik jihatdan shakllantirishdir;

Yozma matnni punktuatsion rasmiylashtirishni tartibga soluvchi, har bir til uchun tarixan shakllangan qoidalar, me'yorlar;

Punktuatsiya tizimi qonuniyatlarini, shuningdek, tinish belgilarining qo'llanish me'yorlarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi.

Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nuqtani to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini beradigan alomatlar yoki grafik belgilar bo'lib, o'quvchiga matnning burilishlarini ya'ni intonatsiya rejimini va uni tushunishni osonlashtiradigan zarur pauzalarni aniqlashga imkon beradi. Tinish belgilari yozma tilda muhim rol o'ynaydi, chunki ularni to'g'ri ishlatish matn mazmunini izchil va aniq tushunishga imkon beradi. Tinish belgilarining maqsadi o'quvchiga yozilgan narsaning ma'nosini to'g'ri tushunishni ta'minlashdir. Tinish belgilarining asosini nutqning semantik artikulyatsiya tashkil etadi. Ko'pincha semantik bo'linish uning grammatik bo'linishiga, og'zaki nuqtda esa intonatsion bo'linishga mos keladi; boshqacha aytganda, semantik artikulyatsiya grammatik va intonatsion jihatdan ifodalanadi. Bunda tinish belgilari uchun semantik, grammatik va intonatsiya asoslarining mos kelishi yoki tinish belgilarining strukturaviy-semantik asoslari haqida gapirish mumkin. Tinish belgilari ulardan to'g'ri foydalanish uchun belgilangan umumiy qoidalar mavjud. Shu bilan birga, har bir inson uchun alomatlardan alohida foydalanish mumkin, lekin har doim amalga oshirilgan umumiy qoidalarni hisobga olgan holda.

Agarda tinish belgilari bo'lmaganda edi, insoniyat yozuv orqali ifodalangan fikrni to'g'ri anglash olmas, boshqalarning nima demoqchiligini bilmasdan qiynalardi. Balki tinish belgilari bo'lmasa, yozuv taraqqiyoti ham bugungi takomiliga erishmas edi.

Hozirgi o'zbek yozuvida 10 xil tinish belgilaridan foydalanamiz:

1. nuqta (.)
2. vergul (,)
3. nuqtali vergul (;)
4. ikki nuqta (:)
5. tire (-)
6. undov belgisi (!)
7. so'roq belgisi (?)
8. ko'p nuqta (...)
9. qavs ()
10. qo'shtirnoq (‘ ’, „)

Tinish belgilarining asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo'linishini ko'rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam beradi.

Tinish belgilari haqida qisqacha tanishamiz:

1. **Nuqta, asosan,**

2) biror voqea-hodisa haqidagi xabarni bildirgan egali va egasiz, yig'iq va yoyiq, soda va qo'shma tuzilishdagi darak gaplar oxirida qo'llaniladi: Biz bugun o'qishga bordik.

3) tinch ohang bilan aytiladigan buyruq hamda istak gaplarning oxirida qo'llaniladi: Sen faqat o'zingni o'ylama.

4) atov gaplardan so'ng, odatda, nuqta belgisi qo'yiladi: Bahor. Barqut kiyib bezandi bog'lar.

5) ism, ota ismi qisqartirilganda ularning birinchi harfidan (yoki bosh qismidan) so'ng nuqta qo'yiladi: A.Oripov, Sh.M.Mirziyoyev

6) butunning qismlarini sanash uchun qo'llanilgan arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatilishi mumkin: O'zbek she'riyatini bu ikki sho'irsiz tasavvur qilib bo'lmaydi: 1.A.Oripov, 2.E.Vohidov.

2.Vergul, odatda,

1. bog'lovchilarsiz, sanash ohangi yordamida birikkan uyushiq bo'laklar orasida qo'llaniladi: Donolar ko'zingni, qulog'ingni, qalbingni yomonliklardan berkitish zarurligini uqtirishadi.

2. qo'shma gap yoki uyushiq bo'laklar tarkibidagi zidlov bog'lovchilaridan oldin vergul qo'llaniladi: Siznign yuzingizdan chimmatni oldik, biroq hayo pardasini olganimiz yo'q.

3. odatda, ajratilgan bo'laklarning har ikki tomonidan vergul qo'yiladi: Tuvada, Enasoy bo'yida, Yalanglikka ulkan ustun qo'yilgan.

4. his-hayajon bilan aytiladigan undov so'zlardan so'ng: Oh, sening yoshliging menda bo'lsaydi...

5. takror gaplar va takrorlangan bo'laklar orasida vergul qo'yiladi: Tningda kamtarin a'zo Bu qo'llardir, bu qo'llardir, Mudom mehnat uchun paydo Bu qo'llardir, bu qo'llardir.

6. kirish birikmalar ham kirish so'zlar kabi boshqa bo'laklardan, asosan, vergul yordamida ajratiladi Chunonchi shunday ekan, manmanlik nechun, Kibr havo nimaga kerak.

3.Nuqtali vergul,odatda,

1) bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari mazmunan bir-biridan uzoq bo'lsa: Bayrog'imiz to'rt xil rangda: Moviy rang bu yuksaklik; Yashilda-chi, yashnar hayot; Qon gupurar qizillikka; Oq aytadi:men tinchlik.

2) tarkibidagi soda gaplar ketma-ket sodir bo'lgan voqea-hodisalarni ifodalab, o'z Ichida bir necha tinish belgilari qo'llanilgan bo'lsa: ...Ona qalbi ezildi; So'ng tikilib suratga, Kelib qat'iy jur'atga Minglab maktub yozildi.

3) uyushiq bo'laklar guruhlanib o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilgan bo'lsa, nuqtali vergul ishlatiladi.

4.Ikki nuqta. Ikki nuqta quyidagi hollarda qo'yiladi:

1. umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, undan so'ng ikki nuqta qo'yiladi: Meni ko'rgani uyimizga do'stlarim:Murod, O'tkir, Tal'at kelishdi.

2. gapda umumlashtiruvchi so'z bo'lmagan hollarda ham asosiy gapdan keyin uyushiq bo'laklarni ta'kidlash uchun ikki nuqta qo'yiladi: Chiqib ketdilar qator: Dante, Shiller va bayron.

3. reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlarining ma'nosi izohlaganda ikki nuqta ishlatiladi.

4. ko'chirma gapli qo'shma gaplarda muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelsa, undan so'ng ikki nuqta qo'yiladi: Masalan, So'radi: -Sen kimsan, nadir kasb-koring , Bunchalar dahshatli turq-u atvoring.

5.Tire quyidagi hollarda ishlatiladi:

1)uyushiq bo'laklardan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: Daryolar, vodiylar, Dengiz- tog'lar- bari tabiatning ko'rkidir.

6.Undov belgisi, odatda,

1) kuchli his-hayajon ohangi bilan aytilgan darak gaplar oxirida qo'yiladi: Dehqon sog'lom! Dehqon-chavandoz!

2) kuchli his-hayajon ohangi bilan aytilgan undov gaplar oxirida qo'yiladi:Oh, bunchalar go'zal manzara!

„Punktuatsiya” bo'limiga oid mavzularni o'qitishda ilg'or texnologiyalardan foydalanishning usullari nihoyatda ko'p va rang-barang bo'lib har bir o'qituvchi, Muallim-ustoz o'zi ta'lim berayotgan sinf o'quvchilarning qiziqishlari, bilim darajalari hamda saviyasiga qarab metod tanlandi va qo'llaydi. Albatta, tanlangan metod o'quvchining yozma nuqtida o'z samarisiga berishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov, A., Qodirov, M. *Ona tili o'qitish metodikasi*. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2001. – 273 b.

2. Mahmudov, N., Madvaliyev, N., Mahkamov. *O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari*. Toshkent, 2015. – 36 b.
3. To'xliyev, B., Shamsiyeva, M., Ziyadova, T. *O'zbek tili o'qitish metodikasi*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. -298 b.
4. Roziqev, O., Mahmudov, M., Adizov, B. *Ona tili didaktikasi*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 165 b.
5. *O'zbek tilini asosiy imlo qoidalari*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1995.

BLUM TAKSONOMIYASI VA ADABIY TA'LIM**Yuldasheva Gulnoza Rozmaxamat qizi****Ibrohimova Nazokat Ubaydulla qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Gulnozamannapova1105@gmail.comnazokatibroximova55@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Blum taksonomiyasining mohiyati, ta'lim jarayonida, xususan, adabiy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda Blum taksonomiyasining ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Blum taksonomiyasi, adabiy ta'lim, kognitiv soha, affektiv soha, psixomotor soha, ijodkorlik, tahlil, baholash.

Annotation. This article discusses the essence of Bloom's taxonomy, its application in the educational process, in particular in literary education. The article analyzes the importance of Bloom's taxonomy in developing independent thinking, analytical approach and creative thinking in students.

Keywords: Bloom's Taxonomy, literary education, cognitive domain, affective domain, psychomotor domain, creativity, analysis, evaluation.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность таксономии Блума, её применение в образовательном процессе, в частности, в литературном образовании. Анализируется значение таксономии Блума в развитии самостоятельности мышления, аналитического подхода и творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: таксономия Блума, литературное образование, когнитивная сфера, аффективная сфера, психомоторная сфера, креативность, анализ, оценка.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat bilim egallashi emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, baholash va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri blum taksonomiyasi 1956-yida bir guruh olimlar tomoni-dan taklif etilgan bo'lib, unda guruh rahbari amerikalik psixolog Benjamin Semyuel Blum (1913 – 1999)ning “Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi: bilish yo'nalishi” nomli kitobidagi g'oyalari ilgari surilgan. Taksonomiya qadimgi grek tilidagi *tartib, saf va qonun* so'zlaridan olingan bo'lib

tasniflash, tizimga solish tamoyillari va amaliyoti haqidagi bilim demakdir. Blum ta'lim maqsadlarini uchta sohaga ajratdi: kognitiv, affektiv va psixomotor. Kognitiv soha – “Men bilaman”. Bular bilim, tushunish va tanqidiy fikrlashdir. Affektiv soha (Ta'sir doirasi) – “Men his qilaman”. Bu soha hissiyotlar va his-tuyg'ular bilan bog'liq.

Psixomotor soha – “Men yarataman”. Psixomotor maqsadlar amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va turli xil vositalardan foydalanish bilan bog'liq. Umumlashtirilgan holda aytilganda Blum taksonomiyasi kognitiv ko'nikmalarning ierarxik tartibi bo'lib, u ko'plab turli yo'nalishlarda foydalanishlar sirasida, o'qituvchilarga dars berishga va talabalarga o'rganishga yordam beradi. Misol uchun: assessmentlar yaratish, munozaralarni shakllantirish, darslarni rejalashtirish, topshiriqlarning murakkabligini baholash, o'quv dizayn modellashtirish, ta'lim onlayn kurslarini loyihalashtirish, o'iga-o'zi baho berish. Blum taksonomiyasining ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilashda ham ahamiyati katta. Maqsadlarga asoslanib, o'qituvchi talabalar uchun vazifalarni shakllantiradi va baholash uchun vositalarni tanlaydi. Taksonomiya yordamida o'qituvchi o'rganishni quradi, o'quvchi esa nafaqat yangi bilimlarni oladi, balki uni tahlil qilishni va hayotda qo'llashni ham o'rganadi.

Blum taksonomiyasi oddiydan murakkabga tomon yo'naltirilgan o'quv maqsadlari tizimidir. Amalda u o'ziga xos navigator bo'lib xizmat qiladi: uning yordami bilan pedagog va o'qituvchilar individual darslarni ham, maqsadga yo'naltirilgan dasturlarni ham qulay tarzda tashkil qilishlari, o'rganishning har bir bosqichi uchun zarur vazifalar va baholash vositalarini topishlari mumkin. Taksonomiya ta'lim maqsadlarini aniqlashtirishga ko'maklashadi. Pedagog aniqlashtirilgan maqsadlar asosida talabalar uchun vazifalarni ishlab chiqadi va to'g'ri baholash me'zonlarini tanlaydi. Taksonomiya yordamida o'qituvchi o'rganish tizimini yaratadi, talaba esa nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradi, balki uni tahlil qilishni va hayotda qo'llashni ham o'rganadi. Aniqlashtirilgan maqsadlar tizimi oddiydan murakkabga yo'naltiriladi. Bilish, tushunish rivojlanishning eng quyi darajasiga, amaliy qo'llash va tahlil o'rta darajaga, sintez va baholash jarayoning eng yuqori darajasiga qo'yiladi. Bunda taksonomiya muallifining fikricha o'qituvchining vazifasi talabalarning yuqori fikrlash darajasiga erishishini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Blum taksonomiyasining afzalliklari: Darslarni bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etishga yordam beradi; O'quvchilarning tafakkur darajasini aniqlash imkonini beradi; Adabiy asarlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi; Baholashda shaffoflik va aniqlikni ta'minlaydi.

Blum taksonomiyasining eng yuqori bosqichi – yaratish bosqichida o'quvchilarning kashfiyotchilik iqtidori namoyon bo'ladi. Ularning har biri o'z yaratig'ining boshqalarnikidan ajralib turishini, noan'anaviy bo'lishini xohlaydi. Shu o'rinda san'atga qobiliyati bo'lgan o'quvchilarning tashabbusidan samarali foydalanilsa, o'quv mashg'uloti jarayoni yanada jonli o'tadi. Misol uchun, rassomchilikka iqtidori bo'lgan o'quvchilar Alisher Navoiy portretini, Hirot tasvirini yoki mumtoz miniatyura namunalarini chizib kelishi mumkin. Teatr san'atiga qobiliyati bor o'quvchi Alisher Navoiy qiyofasida o'quv mashg'ulotida qatnashishi sinfdagi muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaymiz. Qo'shiqchilikka iqtidori bor o'quvchilar Alisher Navoiy g'azali bilan aytiladigan ashulalardan namunalar, hech bo'lmaganda, parchalar ijro etib berishlari sinfda mumtoz adabiyot ruhiyatini beradi. Blum taksonomiyasi adabiy ta'limda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va estetik tafakkurini shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchi ushbu tizimdan foydalanib, o'quv jarayonini aniq maqsadlar asosida tashkil etadi. Har bir bosqich o'quvchining shaxsiy o'sishiga, adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Yuqori bosqich — yaratish bosqichida esa o'quvchilarda kashfiyotchilik, san'atga muhabbat, badiiy ifoda va o'ziga xoslik kuchayadi. Bu bosqichda ular asarlarni qayta talqin qiladi, yangi badiiy shakllarni izlaydi, drammatizatsiya yoki ijodiy yozuv mashqlarini bajaradi. Natijada, o'quvchilarda nafaqat bilim, balki badiiy tafakkur, estetik did va ijodkorlik rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Blum taksonomiyasi ta'limda tizimlilik, izchillik va maqsadga yo'naltirilganlikni ta'minlaydi. Adabiy ta'limda esa bu yondashuv o'quvchilarni faqat asarni o'qishga emas, balki uni tahlil qilish, baholash va ijodiy tarzda qayta yaratishga o'rgatadi. Blum taksonomiyasi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning estetik didini boyitadi, ularni mustaqil fikrlaydigan, tahliliy va ijodiy shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva, Q. va b. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Innovatsiya-Ziyo, 2020. = 26 b.
2. Olim, S. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2019. – 187 b.
3. Sirojiddinov, Sh. va boshqalar. Navoiyshunoslik. Darslik. Toshkent: Tamaddun, 2019. – 298 b.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. 1996. – 176 b.

O'ZBEK LAHJA VA SHEVALARINING YOSHLAR NUTQIDA QO'LLANILISHI VA ZAMONAVIY TIL JARAYONLARIGA TA'SIRI

Abdusalomov Safar To'liqin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

abdisalomovsafar@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada o'zbek lahja va shevalarining yoshlar nutqida qo'llanilishi hamda zamonaviy til jarayonlariga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tilshunoslikda shevalarning adabiy til bilan munosabati, ularning ijtimoiy vazifasi hamda kommunikativ jarayondagi o'rni yoritib berilgan. Maqolada, shuningdek, yoshlarning norasmiy muloqotida lahja unsurlaridan keng foydalanilishi, bu holatning tilning boyishiga ijobiy ta'siri hamda adabiy til me'yorlariga keltirishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari ko'rsatib o'tilgan. Misollar orqali yoshlar nutqida sheva va zamonaviy internet tilining o'zaro ta'sir jarayoni tahlil qilingan. Muallif lahja va shevalarni milliy til boyligi sifatida qadrlash, ularni adabiy til bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, lahja, sheva, yoshlar nutqi, adabiy til, zamonaviy til jarayonlari, internet tili.

ANNOTATION This article provides a scientific analysis of the use of Uzbek dialects and vernaculars in the speech of young people and their impact on modern language processes. The relationship between dialects and the literary language, their social functions, and their role in communication are examined. The paper highlights how the widespread use of dialectal elements in informal youth communication enriches the language, while at the same time posing the risk of deviations from literary norms. Examples are given to illustrate the interaction between dialect speech and the language of online communication. The author emphasizes the importance of preserving dialects and vernaculars as a national treasure and ensuring their harmonious coexistence with the literary Uzbek language.

Key words: Uzbek language, dialect, vernacular, youth speech, literary language, modern language processes, internet language.

Аннотация В данной статье научно проанализировано использование узбекских диалектов и говоров в речи молодежи, а также их влияние на современные языковые процессы. Рассмотрено соотношение диалектов с литературным языком, их социальная функция и роль в коммуникации. В статье показано, что широкое употребление диалектных элементов в неофициальном общении молодежи способствует обогащению языка, но одновременно может привести к нарушению литературных норм. На примерах исследовано взаимодействие диалектной речи и языка интернет-коммуникации. Автор подчеркивает необходимость бережного отношения к диалектам и говорам как к национальному богатству, а также их гармонизации с литературным узбекским языком.

Ключевые слова: узбекский язык, диалект, говор, речь молодежи, литературный язык, современные языковые процессы, интернет-язык.

O'zbek tili Markaziy Osiyoda keng tarqalgan va ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan tillardan biridir. Ushbu tilning shakllanishida turli lahja va shevalar muhim rol o'ynagan. O'zbek tili tarkibida uch asosiy lahja guruhi – qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari mavjud bo'lib, ularning har biri fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ana shu lahjalar negizida yuzlab shevalar shakllanib, bugungi kunda ham xalq nutqida faol qo'llanilmoqda. Shevalar tilning tabiiy ko'rinishi bo'lib, ular milliy adabiy tilning shakllanishi, boyishi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar nutqida lahjaviy unsurlar ko'p kuzatiladi. Bu holatning sababi sifatida ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, hududiy omillar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, internet)ni ko'rsatish mumkin. Yoshlar o'zaro muloqot jarayonida shevaga oid so'z va iboralarni tez-tez ishlatadi, ba'zan esa ularni zamonaviy slang bilan uyg'unlashtiradi. Bugungi kunda o'zbek yoshlarining nutqida lahja va shevalarning qo'llanilishi faqatgina oddiy so'zlashuv nutqi bilan chegaralanib qolmay, balki zamonaviy til jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, ayrim shevaga oid so'zlar ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lib, butun mamlakat bo'ylab tarqalmoqda va yangi til hodisalarini yuzaga keltirmoqda.

O'zbek tili Markaziy Osiyoda keng tarqalgan va ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan tillardan biridir. Ushbu tilning shakllanishida turli lahja va shevalar muhim rol o'ynagan. O'zbek tili tarkibida uch asosiy lahja guruhi – qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari mavjud bo'lib, ularning har biri fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'ziga

xos xususiyatlarga ega. Ana shu lahjalar negizida yuzlab shevalar shakllanib, bugungi kunda ham xalq nutqida faol qo'llanilmoqda. Shevalar tilning tabiiy ko'rinishi bo'lib, ular milliy adabiy tilning shakllanishi, boyishi va rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar nutqida lahjaviy unsurlar ko'p kuzatiladi. Bu holatning sababi sifatida ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, hududiy omillar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, internet)ni ko'rsatish mumkin. Yoshlar o'zaro muloqot jarayonida shevaga oid so'z va iboralarni tez-tez ishlatadi, ba'zan esa ularni zamonaviy slang bilan uyg'unlashtiradi.

Bugungi kunda o'zbek yoshlarining nutqida lahja va shevalarning qo'llanilishi faqatgina oddiy so'zlashuv nutqi bilan chegaralanib qolmay, balki zamonaviy til jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, ayrim shevaga oid so'zlar ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lib, butun mamlakat bo'ylab tarqalmoqda va yangi til hodisalarini yuzaga keltirmoqda. Shu bois ushbu maqolada o'zbek lahja va shevalarining yoshlar nutqidagi qo'llanilishi, ularning zamonaviy til jarayonlariga ta'siri va ushbu jarayonning ijobiy hamda salbiy jihatlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

O'zbek tili juda keng hududda tarqalganligi sababli uning tarkibida turli xil lahja va shevalar mavjud. Tilshunoslikda o'zbek lahjalari uch asosiy guruhga ajratiladi: qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi va o'g'uz lahjasi. Har bir guruh tarixiy-etnik jarayonlar, hududiy sharoit va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan. **Qarluq lahjasi** asosan Toshkent, Farg'ona vodiysi va Samarqand-Buxoro hududlarida keng tarqalgan. Bu lahja adabiy tilga eng yaqin hisoblanadi. Fonetik jihatdan unli tovushlarning yumshoq talaffuzi, ba'zi so'zlarda [a] tovushining [o]ga almashishi kabi xususiyatlar mavjud. Masalan, "bola" o'rniga "balo" shaklida aytilishi uchrab turadi. **Qipchoq lahjasi** asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy viloyati hamda Qozog'iston bilan chegaradosh hududlarda keng tarqalgan. Bu lahjada so'z oxiridagi "q" va "g" tovushlari saqlanadi, ba'zan esa "y" tovushi tushib qoladi. Masalan, adabiy tildagi "ketayapman" so'zi qipchoq lahjasida "ketaptiman" tarzida aytiladi. **O'g'uz lahjasi** esa Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ko'proq uchraydi. Unda fonetik va leksik jihatdan turkman tiliga yaqin belgilar mavjud. Masalan, "yo'q" so'zi "yog" shaklida ishlatiladi.

Shevalarning yana bir muhim xususiyati – leksik boylikdir. Har bir hududiy shevada o'sha yerning tabiati, turmush tarzi va urf-odatlariga xos so'zlar mavjud. Masalan, Farg'ona vodiysida "g'aram" (pichan to'plami), Xorazmda "qopqon" (eshik supasi), Surxondaryoda "qovunxo'r" (birga mehnat qiluvchi odam) kabi so'zlar keng

qo'llanadi. Demak, o'zbek lahjalari va shevalari tildagi fonetik, morfologik hamda leksik xilma-xillikni aks ettiradi. Ular adabiy tilning shakllanishida manba bo'lib xizmat qilgan, bugungi kunda esa yoshlar nutqida o'ziga xos "rang-baranglik" yaratmoqda.

Lahja va shevalarning yoshlar nutqida faol qo'llanishi zamonaviy o'zbek til jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: ijobiy va salbiy.

Ijobiy tomonlari:

- Shevalar milliy tilni boyitadi, yangi leksik birliklarni adabiy tilga olib kiradi. Masalan, ilgari faqat Xorazmda qo'llanilgan ayrim so'zlar bugun keng tarqalib, umumxalq nutqiga qo'shilib bormoqda.

- Shevalar orqali yoshlar nutqida yangi **slang** va **jargonlar** yuzaga keladi. Bular tilning zamonaviyligini oshirib, kommunikatsiyani yanada jonli qiladi.

- Shevalar milliy madaniyatni, tarixiy xotirani saqlab qolishga xizmat qiladi.

Salbiy tomonlari:

- Adabiy til me'yorlarining buzilishi, grammatik jihatdan noto'g'ri shakllarning keng tarqalishi mumkin. Masalan, "boraman" o'rniga "borvoman", "kelayapman" o'rniga "kelaptiman" kabi shakllar yoshlar orasida odatiy holga aylanishi ehtimoli bor.

- Ba'zan lahjaga xos so'zlarni noto'g'ri kontekstda qo'llash nutqda tushunmovchilik keltirib chiqaradi.

- Adabiy tilning nufuzi pasayib, "rasmiy muloqot" va "kundalik muloqot" o'rtasida katta tafovut paydo bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, yoshlarning nutqida lahja va shevalarning qo'llanishi tabiiy hodisa bo'lib, ularni inkor qilish mumkin emas. Muhimi, bu jarayon adabiy til me'yorlariga putur yetkazmasligi, balki uni yanada boyitib, xalq og'zaki ijodining merosini saqlab qolishga xizmat qilishi zarur. Lahja va shevalarning yoshlar nutqida qo'llanishini tadqiq qilishda tilshunoslar ularni madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida ham baholashadi. Chunki til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning mentaliteti va dunyoqarashini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichdir. Bugungi kunda o'zbek yoshlari o'z nutqida shevalardan foydalanib, ko'pincha **ikki tillilik (bilingvizm)** hodisasiga yaqin til vaziyatini yaratmoqda. Bir tomondan, ular rasmiy muloqotda adabiy til me'yorlariga amal qilsa, boshqa tomondan, do'stlari yoki ijtimoiy tarmoqlarda shevaga xos shakllardan foydalanadi. Bu holat tilning **stilistik imkoniyatlari kengayishiga** olib keladi. Shuningdek, lahja unsurlarining zamonaviy nutqda qo'llanilishi **til innovatsiyasi** sifatida ham qaralishi mumkin. Masalan, Toshkent yoshlari o'rtasida

“gap yo‘q”, “otvyet yo‘q” kabi iboralar paydo bo‘lib, asta-sekin boshqa hudud yoshlari nutqiga ham o‘tmoqda. Bu iboralarda adabiy til unsurlari sheva va rus tili elementlari bilan qorishib, yangi nutqiy birliklarni yuzaga keltirmoqda. Demak, lahja va shevalarning yoshlar nutqidagi o‘rni zamonaviy o‘zbek tilining dinamik rivojlanishini aks ettiradi. Bu jarayonni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya va madaniyatshtunoslik uchun ham muhim ilmiy masalalardan biridir.

O‘zbek tili asrlar davomida xalqning turmush tarzi, urf-odati va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Uning tarkibida mavjud bo‘lgan lahja va shevalar tilning tabiiy boyligi bo‘lib, ular adabiy tilning shakllanishida ham muhim manba vazifasini bajargan. Bugungi kunda yoshlar nutqida lahja va shevalarning faol qo‘llanilishi kuzatilmoqda. Bu holat, bir tomondan, yoshlarning milliy ildizlariga sodiqligini, o‘z hududiy madaniyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida yangi nutqiy hodisalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Lahja va shevalarning yoshlar nutqiga ta’siri ikki yoqlama baholanishi mumkin. Ularning ijobiy jihati shundaki, ular tilni boyitadi, yangi so‘z va iboralarni hayotga olib kiradi, yoshlar o‘rtasidagi samimiyat va muloqotni mustahkamlaydi. Salbiy jihatlari esa — adabiy til me’yorlarining buzilishi, grammatik jihatdan noto‘g‘ri shakllarning ommalashuvi va rasmiy nutqda chalkashliklarning yuzaga kelish ehtimoli. Shu bois kelajakda til siyosati va ta’lim tizimida lahja va shevalarni inkor qilish emas, balki ularni **milliy boylik sifatida asrab-avaylash**, adabiy til bilan uyg‘unlashtirish muhim vazifa bo‘lib qoladi. O‘zbek tilining jozibasi ham uning xilma-xilligida va rang-barangligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov, I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Jo‘raboev, M. *O‘zbek tili dialektologiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
3. Rahmatullayev, Sh. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
4. G‘ulomov, A. *O‘zbek tilining shevalari va ularning o‘rganilishi*. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Mahmudov, N. *Til va jamiyat: o‘zbek tili taraqqiyoti masalalari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

PUNKTUATSIYA O'QITISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Hoshimova Shohsanam Bahrom qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

hoshimovashohsanam05@gmail.com

Rahimova Nozima Alisher qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

rahimovanozima282605@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada punktuatsiya va punktuatsion savodxonlik masalalari yoritib berilgan. Tinish belgilarining yozma nutqdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Punktuatsion savodxonlikning bugungi globallasuv jarayonidagi ahamiyati to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Punktuatsiya, punktuatsion savodxonlik, til, yozma nutq, pedagogik yondashuv, zamonaviy ta'lim.

Annotation. This article highlights the issues of punctuation and punctuation literacy. The importance of punctuation marks in written speech is emphasized. The article also discusses the significance of punctuation literacy in the context of today's globalization process.

Keywords. Punctuation, punctuation literacy, language, written speech, pedagogical approach, modern education.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы пунктуации и пунктуационной грамотности. Показано значение знаков препинания в письменной речи. Также рассматривается роль пунктуационной грамотности в условиях современного процесса глобализации.

Ключевые слова. Пунктуация, пунктуационная грамотность, язык, письменная речь, педагогический подход, современное образование.

Ona tili darslari fan o'qituvchilari tomonidan puxta o'ylangan, ma'lum tizimga solingan, o'quvchilar aqliy bilimlarini charxlaydigan bo'lishi lozim. Zotan, "Milliy o'quv dasturi"da ko'zda tutilgan asosiy masala - O'zbekistonning kelajagi bo'lgan

barkamol avlod, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyatning oldida turgan muhim vazifadir (Mahmudov, 2015).

Insoniyat uchun eng buyuk ixtirolardan biri – bu til hisoblanadi. U odamlarni bir-biri bilan bog'lab, madaniyatlararo muloqot hamda bilim almashinuviga yo'l ochadi. Yozma til esa mazmunni o'quvchiga yetkazishda nafaqat so'zlardan, balki punktuatsiya vositasidan ham samarali foydalanadi.

Punktuatsiya tinish belgilarining qo'yilishiga oid qoidalar to'plamidir. Punktuatsiya yozuv orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri. O'zbek punktuatsiyasining juda ko'p qoidalari gap qurilishiga asoslanadi. Tinish belgilarining asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo'lishini ko'rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishidir. Hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilari soni 10 ta: nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko'p nuqta, nuqtali vergul, qavs, qo'shtirnoq. Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir. Ular yozuvchiga yozma nutqni tuzishga imkon beradigan alomatlar yoki grafik belgilar bo'lib, o'quvchiga matnning burilishlarini, ya'ni intonatsiya rejimini va uni tushunishni osonlashtiradigan zarur pauzalarini aniqlashga imkon beradi. Tinish belgilari yozma tilda muhim rol o'ynaydi, chunki ularni to'g'ri ishlatish matn mazmunini izchil va aniq tushunishga imkon beradi. Tinish belgilarining maqsadi o'quvchiga yozilgan narsaning ma'nosini to'g'ri tushunishni ta'minlashdir. Tinish belgilarining asosini nutqning semantik artikulyatsiyasi tashkil etadi. Ko'pincha semantik bo'linish uning grammatik bo'linishiga, og'zaki nutqda esa intonatsion bo'linishga mos keladi; boshqacha aytganda, semantik artikulyatsiya grammatik va intonatsion jihatdan ifodalanadi. Bunda tinish belgilari uchun semantik, grammatik va intonatsiya asoslarining mos kelishi yoki tinish belgilarining strukturaviy-semantik asoslari haqida gapirish mumkin. Tinish belgilarida ulardan to'g'ri foydalanish uchun belgilangan umumiy qoidalar mavjud (Abdullayeva, 2013)

Boshlang'ich sinflarda asosan to'rtta tinish belgisi o'rgatiladi bular: gap oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalarni o'rgatiladi va uni ko'plab hayotiy misollar orqali kengroq tushuntirishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tinish belgilarini o'rgatish, bu bo'yicha ko'nikmalar paydo etish ahamiyatli ishlardan biri. Sababi, tinish belgilarini o'rgatish orqali ularning intonatsiya jihatdan to'g'ri gapirish, to'g'ri yozish

ko'nikmalari rivojlanadi. Bolalar maktabga kelib gap bilan ishlashadi, har bir gapning oxiriga nuqta qo'yilishi kerakligi eslatib o'tiladi (Fayziyeva, 2018)

O'z navbatida, muayyan tildagi punktuatsiya an'alarining mustahkamlanishi va takomillashuvida taniqli yozuvchilarning ijodi hamda tinish belgilarining qo'llanish qoidalarini belgilovchi va tartibga soluvchi tilshunoslar faoliyati katta ahamiyatga ega. Hozirgi o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi, rivoji, uning o'rganilishi Fitrat, Sobirjon Ibrohimov, H. G'oziyev, O. Usmon, G'anijon Abdurahmonov, K. Nazarov va boshqa tilshunoslarning nomi bilan bog'liq (Ahmedova, 2019).

Yozma matnda to'g'ri tinish belgilarini qo'llash muloqotning aniqligini va ifoda kuchini oshiradi, noto'g'ri qo'llanishi esa tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Oddiy bir hayotiy misolni olaylik. "Siz, ahmoq odam emassiz". "Siz ahmoq, odam emassiz". Birinchi gap shaxsning ahmoq ekanligini inkor etsa, ikkinchi gap esa shaxsning ahmoqligiga ishonch hosil qilmoqda. Shu va boshqa tinish belgilar gapda xato qo'llansa, gap ma'noviy jihatdan noto'g'ri tuziladi. Biz shunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun punktuatsion savodxonlikni puxta o'rganishimiz va o'rgatishimiz zarur.

Puntuatsion savodxonlik zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning yozma nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Punktuatsiya belgilari matnning ma'no jihatdan to'g'ri tushunilishini ta'minlaydigan muhim vosita sifatida xizmat qiladi va yozma aloqaning samaradorligini belgilaydi. Hozirgi kunda globallashtirish sharoitida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron aloqa vositalarining keng tarqalishi punktuatsion savodxonlik masalalariga yangicha yondashuv talab etmoqda. Punktuatsion savodxonlik masalasi nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika-psixologiya fanlari nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki punktuatsiya qoidalarini o'zlashtirish jarayoni o'quvchining kognitiv rivojlanishi, mantiqiy fikrlash qobiliyati va til hissiyotining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq. Bu holatda pedagogik yondashuvlarning samaradorligi o'quvchilarning individual xususiyatlari, yoshi va til darajasini hisobga olgan holda tahlil qilinishi zarur bo'ladi. Pedagogik amaliyotda punktuatsion savodxonlik masalalariga kompleks yondashish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va individual xususiyatlarni hisobga olish orqali sezilarli yutuqlarga erisha olish mumkin. Bunda til o'qitish metodikasini doimiy takomillashtirish va zamonaviy kommunikatsiya sharoitlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, punktuatsion savodxonlikni chuqur o'rganish, zamonaviy raqamli muhitga mos pedagogik strategiyalarni yaratish hamda ko'p tilli ta'lim sharoitida o'qitish metodikasini takomillashtirish istiqboldagi dolzarb yo'nalishlardan sanaladi. Ushbu tadqiqotlar natijalari til ta'limi samaradorligini oshirish va o'quvchilarning yozma muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga bevosita xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N., Madvaliev A., Mahkamov N. O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent, 2015. – 36 b.
2. Abdullayeva X. Punktuatsion savodxonlik muammolari va ularning pedagogik yechimlari. – 2013. – 2-4 b.
3. Fayziyeva D. Matn va punktuatsiya. – 2018. – 3 b.
4. O'zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000. – 250 b.
5. Abdusattorova F. Boshlang'ich sinflarda tinish belgilarini o'rgatish uslubi. Central Asian Journal of Education and Innovation, 2023. – 30-31 b.

MAKTABDA KO'P MA'NOLI SO'ZLARNING O'QILISHI

Yaxshimova Jasmina Komekboyevna,

Yoldasheva Durdona Salimjon qizi

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabalari

jasminayaxshimova7705@gmail.com

yoldoshevad973@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tog'oymurod Bekturodov

Annotatsiya. Maqola “Maktabda ko‘p ma‘noli so‘zlarning o‘qilishi” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, ko‘p ma‘noli so‘zlarning tilshunoslikda qanday rol o‘ynashi, ularni o‘quv jarayonida qanday o‘qish va tushunish zarurligi haqida fikrlar yuritiladi. O‘quvchilarga ko‘p ma‘noli so‘zlarni to‘g‘ri va samarali o‘rgatish metodlari muhokama qilinadi. Maqola, shuningdek, bu so‘zlarning tilshunoslik, adabiyot va kundalik hayotdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: polisemiya, o‘qishda qiyinchiliklar, kontekst asosida ma‘no anglash, o‘quvchilar lug‘at boyligi, ona tili ta’limi, ma‘nodosh va ko‘p ma‘noli so‘zlar, matn ustida ishlash metodlari, semantik tafakkur, nutq rivoji.

Annotation. This article is dedicated to the topic of “Reading Polysemantic Words in School”, exploring the role of polysemantic words in linguistics, how they should be read and understood in the educational process, and the importance of teaching them correctly. The article discusses methods for effectively teaching polysemantic words to students and emphasizes their significance in linguistics, literature, and everyday life. It highlights the impact of understanding polysemantic words on students' linguistic development and cognitive skills.

Keywords: polysemy, reading difficulties, meaning comprehension based on context, students’ vocabulary, native language education, synonyms and polysemous words, methods of working with texts, semantic thinking, speech development.

Аннотация. Статья посвящена теме “Изучение многозначных слов в школе” и рассматривает роль многозначных слов в лингвистике, а также необходимость правильного понимания и изучения их в учебном процессе. Обсуждаются методы эффективного обучения учащихся правильному и осмысленному использованию многозначных слов. В статье также

подчеркивается значение этих слов в лингвистике, литературе и повседневной жизни.

Ключевые слова: полисемия, трудности при чтении, понимание значения на основе контекста, словарный запас учащихся, обучение родному языку, синонимы и многозначные слова, методы работы над текстом, семантическое мышление, развитие речи.

So'zlar tilning eng kichik, lekin eng muhim birliklaridan biri hisoblanadi. Ular orqali inson o'z fikrini ifodalaydi, his-tuyg'ularini bayon etadi va boshqalar bilan muloqot o'rnatadi. O'zbek tili juda boy va sarmazmun til bo'lib, unda ko'p ma'noli so'zlar keng qo'llanadi. Bu holat tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, uni yanada go'zal va rang-barang qiladi. Shu sababli, ko'p ma'noli so'zlarni o'rganish nafaqat grammatik bilimlarni oshiradi, balki o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytiradi, nutq madaniyatini yuksaltiradi.

Ko'p ma'noli so'zlar — bu bir nechta ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Bunday so'zlarning ma'nosi ular ishlatilgan kontekstga qarab o'zgaradi. Masalan, “yig'lamoq” so'zi “ko'z yosh to'kmoq”, “hayajonlanmoq” yoki “achinmoq” kabi turli ma'nolarda qo'llanishi mumkin. Shu kabi misollar o'quvchilarga so'zning faqat lug'aviy ma'nosinigina emas, balki uning kontekstdagi vazifasini ham chuqur anglashga yordam beradi. [1:55]

Maktabda ko'p ma'noli so'zlarni o'qitish jarayonida o'qituvchi bir nechta metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Avvalo, har bir so'zning ma'nolari alohida tushuntirilib, ularni turli gaplarda ishlatish orqali farqlar aniqlanadi. Keyingi bosqichda o'quvchilar mustaqil ravishda ushbu so'zlarni turli kontekstlarda qo'llab, ularning ma'nosini topishga o'rgatiladi. Bunday mashg'ulotlar til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, ko'p ma'noli so'zlarni o'qitishda ularning sinonimlari va antonimlarini keltirish ham muhim. Bu o'quvchilarga so'zlarning ma'nodosh va zid ma'noli shakllarini ajrata bilishni o'rgatadi, ularning lug'at boyligini oshiradi. Misol va mashqlar orqali o'quvchilar so'zlarning ma'no o'zgarishlarini amalda kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ko'p ma'noli so'zlarni o'qitish jarayonida yana bir muhim jihat — bu o'quvchilarda tildan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantirishdir. So'zning qaysi ma'noda ishlatilayotganini to'g'ri tushunish, nutqdagi aniqlik va lo'ndalikni ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning muloqot madaniyati, yozma va og'zaki nutqini rivojlantiradi. [2:56]

Ko'p ma'noli so'zlar — bu bir nechta ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. O'zbek tilida ko'p ma'noli so'zlar juda ko'p va ular turli vaziyatlarda turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Misol uchun, “yig'lamoq” so'zi bir vaqtning o'zida “ko'z yoshini to'kmoq” va “hayajonlanmoq” ma'nolarini anglatishi mumkin. Maktabda bu so'zlarni o'rgatish o'quvchilarga ularning kontekstga qarab qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi.

Maktabda ko'p ma'noli so'zlarni o'qitishda ularning ma'nolarining farqlarini aniq tushuntirish zarur. O'quvchilarga so'zlarning turli ma'nolarini o'rgatish jarayonida misollar keltirish, so'zlarni kontekstda ishlatish, ularni to'g'ri qo'llashni ko'rsatish juda muhimdir. Bu jarayonni osonlashtirish uchun o'quvchilarga so'zlarning sinonimlari va antonimlari bilan tanishtirish, shuningdek, so'zlarning ma'nolarini turli vaziyatlarda qanday o'zgartirishi mumkinligini ko'rsatish kerak. [3:77]

Ko'p ma'noli so'zlarni to'g'ri o'rganish nafaqat tilni o'zlashtirishni yengillashtiradi, balki o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. So'zlarning turli ma'nolarini o'rganish o'quvchilarga nuqtai nazarni kengaytirish, ma'lumotlarni bir nechta nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning ijtimoiy va adabiy faolligini oshiradi.

Maktabda ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatish o'quvchilarning tilni chuqurroq va to'liqroq o'rganishlariga yordam beradi. Bu jarayon nafaqat tilshunoslik faniga, balki adabiyot va kundalik muloqotga ham ta'sir qiladi. Ko'p ma'noli so'zlarni to'g'ri o'qish va tushunish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va ular nutq madaniyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, maktabda ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatish metodlariga alohida e'tibor qaratish zarur. [4:90]

Tilimizda bitta so'z turli ma'nolarda qo'llanib, polisemiya hodisasini hosil qiladi. Masalan, “ko'z” so'zi inson a'zosi, buloq ko'zi, igna ko'zi kabi turli ma'nolarni bildiradi.

O'quvchilar matn o'qish jarayonida so'zning qaysi ma'nosi kontekstga mos kelishini aniqlashi zarur. Ammo boshlang'ich bosqichda ular ko'p ma'noli so'zlarni faqat birinchi ma'noda qabul qilishlari mumkin. Shu bois, o'qituvchilar turli metodlardan foydalanadilar:

✓ Kontekst asosida ma'no anglash – so'zning jumladagi vazifasiga qarab tushuntirish;

✓ Matn ustida ishlash metodlari – o'quvchiga so'zning turli qo'llanishini ko'rsatish; [5:201]

Ma'nodosh va ko'p ma'noli so'zlarni taqqoslash orqali semantik tafakkurni rivojlantirish. Ko'p ma'noli so'zlarni o'qitish o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytiradi, matnni to'liq va to'g'ri tushunishga yordam beradi, shuningdek, ularning nutq rivoji va ijodiy tafakkurini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili ta'limida ko'p ma'noli so'zlar bilan ishlash jarayoni o'quvchilarni nafaqat savodli o'qishga, balki keng fikrlashga ham undaydi. Ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatish o'zbek tilini chuqur o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. U o'quvchilarga tilning go'zalligini his etish, so'z boyligini oshirish va to'g'ri muloqot qilishni o'rgatadi. Shuning uchun ham har bir o'qituvchi bu mavzuni o'qitishda ijodkorlik bilan yondashib, o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqish va hurmatni shakllantirishi lozim. So'zlar tilning asosiy birligi bo'lib, ular orqali insonlar bir-birlari bilan muloqot qilishadi. O'zbek tilida ko'p ma'noli so'zlar keng tarqalgan bo'lib, ularning o'qilishi va tushunilishi o'quvchilarga tilni yanada chuqurroq o'rganishda yordam beradi. Maktabda bu so'zlarni o'rgatish nafaqat til o'rgatish jarayonining ajralmas qismi, balki o'quvchilarning lingvistik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ko'p ma'noli so'zlar o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug'afforov S.. O'zbek tili: Nazariy asoslar va amaliyot. Tashkent: "Sharq" nashriyoti. 2008. 55-b.
2. Azizov B. Ko'p ma'noli so'zlar va ularning tahlili. Tashkent: (O'zbekiston Milliy Universiteti) 2015. 56-b.
3. Karimov O. Semantik tahlil va ko'p ma'noli so'zlar. Tashkent: (O'qituvchi) 2020. 77-b.
4. Yangi ilmiy maqolalar va jurnal materiallari: "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali va "Tilshunoslik" jurnali. : 2011. 90-b.
5. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi Toshkent 2006. 201-b.

O'ZBEK TILIDA RESTORAN NEYMINGI: STRUKTUR-SEMANTIK ASPEKT

Kenjayeva Nilufar va Doliyeva Fayoz

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 3-bosqichtalabalari

Xusanqizikenjayevanilufar338@gmail.com

Sharipqizifayyozadoliyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada restoran nomlarining mazmuni, ularning milliylik va madaniyatni aks ettirishi, hamda mijozlarga ko'rsatadigan ta'siri haqida fikr yuritiladi. Neymingning ahamiyati misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: neyming, restoran, nom, brend, milliylik, til, madaniyat, mijoz, joziba, raqobat, identitet, savdo, xizmat, urf-odat.

Annotation. The article explores how restaurant names reflect national identity and culture, and their influence on customers. The importance of naming is illustrated through examples.

Keywords: naming, restaurant, name, brand, identity, language, culture, customer, appeal, competition, tradition, service, marketing, reputation.

Аннотация: В статье рассматривается, как названия ресторанов отражают национальную идентичность и культуру, а также их влияние на клиентов. Значение нейминга показано на примерах.

Ключевые слова: нейминг, ресторан, название, бренд, идентичность, язык, культура, клиент, привлекательность, конкуренция, традиция, обслуживание, торговля, репутация.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida har bir davlat o'z mahsulotini dunyo bozoriga chiqarishni va shu orqali jahon bozoriga kirib borishni istaydi. Buning uchun korxona, tashkilot o'z mahsulotiga munosib nom tanlashi kerak albatta, sifati ham shunga munosib bo'lishi kerak.

Yuqori texnika va texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy biznes olamini raqobatbardosh brendlarga aylantirib yubordi va bu bilan bozorni egallashda afzalliklar yaratdi. Zamonaviy neyminglar kompaniya faoliyatida muhim komponentga aylantirdi. Bu o'rinda shu aytib o'tish joizki, K. A. Дзюба neyming haqida quyidagilarni keltirib o'tadi:

“Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tovar nomlarini o'rganish uchun nazariy asos bo'ladi. Bugungi kunda onomastik makon har doimgidan ko'proq reklama aloqalari sohasida paydo bo'ladigan yangi til birliklari bilan faol ravishda to'ldirilmoqda. Ushbu jarayon xalqaro savdoning jadal o'sishi bilan rag'batlantiriladi, bozorda yangi kompaniyalar paydo bo'lganda va ular ishlab chiqaradigan tovarlarning nomlarini yaratish zarurati tug'lsa. Natijada, mahsulotning bozorda tobora ommalashib borishi bilan bir qatorda, uning nomi asta-sekin tilning leksik fondida qayd etilib, ko'pincha bir qator birikmalarga ega bo'lib, ona tilida so'zlashuvchilar nutqida o'zlarining ma'nolariga ega bo'lmoqda”[Дзюба, 2014].

Biz bilamizki, O'zbekistondagi ko'p restoranlarimizning nomlari o'zbekcha emas, balki inglizcha yoki ruscha. Nima biz o'zbekcha nomlasak, “obro'yiga” putur yetadimi? To'g'ri, inglizcha nomlasak, chet ellik mehmonlarimiz ko'proq tashrif buyuradi deb o'ylaymizmi, yoki obro'liroq ko'rinadi deb o'ylaymizmi...? Shu o'rinda aytib o'tish joizki, o'zbekcha nom bilan ataladigan restoranlarimiz ham yo'q emas: “Karomat”, “Sim- sim”, “Nur”, “Samo”, “Joziba”, “Jiz-biz”, “Rayhon” milliy taomlari.... Bu kabi nomlar, avvalo, o'zligimiz, milliyligimizni anglatib turmaydimi?

Endi bu yuqoridagi nomlarni birma- bir nima ma'no anglatishini tahlil qilib chiqsak: *Karomat*- lug'aviy ma'nosi “obro'-e'tibor”, “salovat”, “saxiylik”, “mo'jiza” degan ma'nolarni anglatadi. Shundan kelib chiqib bu restoran o'ziga xos mo'jizaga ega, obro'-e'tiborli va salovatli degan ma'nolarni anglatadi. *Sim-sim*-bu so'zning ma'nosi ravish so'z turkumiga mansub bo'lib *simillab* so'zidan kelib chiqqan “davomli”, “sekin-sekin” degan ma'nolarni anglatadi. Bu restoran *davomli* xizmat ko'rsatadigan, sekin-sekin o'z mijozlarini ko'paytirib boruvchi ovqatlanish joyi desak ham bo'laveradi. *Nur*-“nur taratib turuvchi”, “yog'du” degan ma'nolarni anglatadi. Aslida ham shunday bu restoranga tashrif buyuruvchilar ham birinchi o'rinda uning nomiga e'tibor beradi. Keyin esa xizmat ko'rsatishiga. Bundan kelib chiqdi, Nom qo'yish muhim ahamiyatga ega ekan. Keyingi restoranlarimizdan biri bu: *Samo*-Osmon, ko'k, falak ma'nolarni anglatadi. Aslida turkiycha nomi *ko'k* so'zidir. *Joziba*-yoqimlilik, dilbarlik, malohat ma'nolarini anglatib qolmasdan *o'ziga tortuvchi kuch* ma'nolarni anglatadi. *Jiz-biz*-o'zi aslida ma'nosi ovqat turlaridan biri bo'lib, *qovurilgan go'sht* ma'nolarini anglatadi. Keyinchalik esa, restoran nomiga o'tib qolgan. Bu yerda faqat qovurilgan go'shtmas xohlagan taomingizni tanovul qilishingiz mumkin. “*Rayhon*” milliy taomlari hozirda eng ommabop oilaviy restoranlarimizdan hisoblanadi. Aslida bu nomning ma'nosi *arabcha* so'z bo'lib, xo'shbo'y o'simlik turi. Labguldoshlariga mansub, osh-ko'k o'simlik. Bu restoranning o'ziga xos tomoni bu

yerda spirtli ichimliklar ichish va tamaki mahsulotlar chekish taqiqlanadi. bu esa istemolchilarni yanada o'ziga tortmoqda. Bunaqa restoranlar bisyor. Yuqorida ko'ryapmizki, nomlar o'zgacha, bu nomlar o'ziga xos jozibasi bilan ajralib turadi. Nom haqida mashhur bir biznesman shunday deydi: *“Nomda nima bor? Ko'p narsa, ayniqsa bu nom restoran kabi biznes bilan bog'liq bo'lsa. Restoran nomi identifikatorining bir qismidir. Kimdir buni eshitganda yaxshi tuyg'ularni uyg'otishi kerak yoki o'tmish oqshomining baxtli xotirasini chaqirish yoki bu joyni sinab ko'rish uchun qiziqish. Yaxshi restoran nomi restoran kontseptsiyasini aks ettiradi va u erda topiladigan ovqatlanish turini, joylashishni va havoni taklif qiladi* [ЕВДОКИМОВА, 2013] Albatta, har qanday tashkilot bo'ladimi, korxona bo'ladimi va shu qatorda restoran bo'lsa ham nom katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham nom tanlashda uzoqni ko'zlab, ertaga qanaqa iffekt beradi degan tushuncha bo'lishi lozim. Yuqorida sanab o'tilgan restoran nomlarida qaysidirlari arabcha, qaysidirlari forsha, qaysidirlari o'zbekcha bo'lishi mumkin, lekin hozirda o'zbekchalashib ketgan so'zlardir. Yana bir narsani alohida ta'kidlash joizki, qaysi mamlakatga bormang, o'sha mamlakatning milliy tilida yozilgan so'zlarini ko'rsangiz, yoki o'sha mamlakatning tilida yozilgan restoran nomlariga ko'zingiz tushsa, birinchi navbatda o'sha mamlakatning tiliga bo'lgan e'tiborni ko'rasiz va shu bilan bir qatorda qaysi davlatda yurganligingizni his qilib turasiz. Masalan: Xohlang AQSH, xohlang Fransiya, xohlang Germaniyaga. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonga ham.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qaysi davlatga tashrif buyurmang o'z milliy urf-odatlarini namoyish qilishga harakat qiladi. Ya'ni o'z milliyligini ko'rsatishga harakat qiladi. Shu bilan bir qatorda ovqatlanish joylarida ham shu taqlidni qilishadi. Chunki ovqatlanish joylari ham millatning o'ziga xosligini ko'rsatib turuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun restoran bo'ladimi, yoki kichik choyxona bo'ladimi hammasida o'z davlat tilida nomlangan bo'lsa, tashrif buyuruvchida o'sha davlatga nisbatan hurmat hissi paydo bo'ladi. Ya'ni o'sha davlat “brend”i haqida taassurot paydo bo'ladi. Bu narsa milliylikni ko'rsatuvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoymardonov T. va boshq. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash. O'quv-uslubiy majmua. –T.: 2016. -165 b.
2. Qurbanov. A “Talabalarda intellektual kompetentsiyalarning rivojlantirishning tarkibiy qismlari” maqola 2022 y. 2-bet. 4.

3.Yusupova D.S. “Malakali pedagogik faoliyat orqali qobiliyatli bolalarni aniqlash” 2024. -5 b.

5. ziyonet.uz

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASINING TARAQQIYOTI VA UNGA ALOQADOR HODISALAR

Abdusattarova Ozoda Abdumuxtorovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2- kurs talabasi

ozodaabdusattorova72@gmail.com

Ilmiy rahbar: Saidov O'lmas Raxmatovich

filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zbek dialektologiyasining shakllanish jarayoni, tarixiy bosqichlari, o'rganilish holati va taraqqiyot yo'nalishlari haqida fikr yuritiladi. Dialektologiyaning o'zbek tilshunosligidagi o'rni, hududiy shevalarning adabiy tilga ta'siri hamda ularning lingvistik jihatdan tadqiq etilishi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Dialektologiya, o'zbek tili, shevalar, hududiy dialekt, adabiy til, fonetika, morfologiya, leksikologiya, tarixiy taraqqiyot, tilshunoslik.

ANNOTATION. This article examines the development, historical stages, current state of study, and future directions of Uzbek dialectology.

The article discusses the role of dialectology in Uzbek linguistics, the influence of regional dialects on the literary language, and linguistic research on them. New methods of dialectology, the potential use of technology, and the significance of research in the modern world are also highlighted.

Keywords: dialectology, Uzbek language, dialects, regional dialect, literary language, phonetics, morphology, lexicology, historical development, linguistics

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются процесс становления, исторические этапы, состояние изучения и направления развития узбекской диалектологии.

Обсуждается роль диалектологии в узбекском языкознании, влияние региональных диалектов на литературный язык и их лингвистические исследования. Также освещаются новые методы диалектологии, возможности использования технологий и значение исследований в современном мире.

Ключевые слова: диалектология, узбекский язык, диалекты, региональный диалект, литературный язык, фонетика, морфология, лексикология, историческое развитие, лингвистика.

O'zbek tili dunyo tillari orasida eng qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan tillardan biridir. Bu tilning shakllanishida xalq og'zaki ijodi, hududiy shevalar va turli lahjalar muhim rol o'ynagan. O'zbek dialektologiyasi – tilshunoslikning muhim bo'limi bo'lib, o'zbek xalqining turli hududlarda shakllangan nutqiy xususiyatlarini, fonetik, leksik va grammatik farqlarini o'rganadi.

O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti va hududiy xususiyatlarini o'rganishda dialektologiyaning ahamiyati beqiyosdir. Bu haqda Sh. Rahmatullayev shunday deydi: “O'zbek dialektologiyasi o'zbek tilshunosligining eng murakkab va shu bilan birga qiziqarli sohalaridan biridir...” [1;67].

Dialektologiya faqat til hodisalarini tasvirlash bilan chegaralanmaydi, balki ularning tarixiy ildizlarini, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligini, adabiy tilga ko'rsatgan ta'sirini ham izohlaydi. Shu bois, o'zbek dialektologiyasining taraqqiyot bosqichlarini yoritish, uning hozirgi davrdagi ahamiyatini belgilash dolzarb masalalardan biridir.

1. O'zbek dialektologiyasining shakllanishi. O'zbek dialektologiyasining dastlabki manbalari qadimgi turkiy yozma yodgorliklarga borib taqaladi. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari turkiy xalqlar tilidagi lahjalarni farqlash va tasniflashda birinchi manba bo'lib xizmat qilgan. Keyinchalik Alisher Navoiy asarlarida ham turli sheva va lahjalarning belgilarini uchratish mumkin. XX asr boshlarida o'zbek dialektologiyasi ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Fitrat, Abdurauf Fitrat, Elbek, Qayum Ramazon kabi olimlar shevalarni yozib olish va ilmiy tahlil qilishga e'tibor qaratdilar. Mustaqillik davriga kelib, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida maxsus dialektologiya bo'limi faoliyat yurita boshladi.

2. Hududiy dialektlarning tasnifi. O'zbek tilidagi shevalar uch asosiy lahjaga bo'linadi:

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi (Toshkent, Farg'ona vodiysi, Samarqand-Buxoro hududlari)

Qipchoq lahjasi (Xorazm, Qoraqalpog'iston, shimoliy hududlar)

O'g'uz lahjasi (Surxondaryo, Qashqadaryo va ayrim janubiy viloyatlar)

Har bir lahja fonetik, morfologik va leksik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, Farg'ona shevalarida “yo'q” so'zi “yoo'q” shaklida cho'ziq talaffuz qilinsa, Xorazm shevalarida esa “jo'q” tarzida aytiladi.

3. Dialektologiyaning adabiy tilga ta'siri. Adabiy tilning shakllanishi hududiy shevalar bilan bevosita bog'liq. O'zbek adabiy tili asosan qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi asosida shakllangan bo'lsa-da, boshqa lahjalardan ham ko'plab so'z va grammatik

unsurlar qabul qilgan. Bu hol tilning boyishiga, sinonimik qatlamning kengayishiga xizmat qilgan.

4. Zamonaviy tadqiqotlar va yangiliklar. Hozirgi kunda dialektologiya faqat og'zaki nutqni yozib olish va tavsiflash bilan chegaralanmaydi. Yangi texnologiyalar yordamida tovush yozuvlari, elektron korpuslar, fonetik tahlil dasturlari qo'llanmoqda. Bu esa o'zbek dialektologiyasini yanada mukammal darajada o'rganish imkonini bermoqda. Shuningdek, hududiy dialektlarni o'rganish faqat lingvistik emas, balki madaniy va tarixiy ahamiyatga ham ega. Har bir sheva xalqning turmush tarzi, qadriyati va milliy o'ziga xosligini aks ettiradi.

5. Dialektologiya va sotsiolingvistika aloqasi. Dialektologiyani faqat fonetik yoki leksik tafovutlarni o'rganadigan soha sifatida ko'rish noto'g'ri. U sotsiolingvistika bilan ham uzviy bog'liq. Chunki shevalarning rivojlanishi, saqlanib qolishi yoki adabiy tilga yaqinlashishi jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga ham bog'liq. Masalan, shahar va qishloq aholisi nutqidagi farqlar, migratsiya jarayonlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimi shevalarning o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

6. Shevalarning lingvistik xususiyatlari. Fonetika: turli shevalarda unli va undosh tovushlarning talaffuzi turlicha bo'ladi. Masalan, Farg'ona shevalarida "o'" tovushi "u" tarzida aytiladi ("o'g'il" – "ug'il").

Leksika: ayrim so'zlar faqat ma'lum hududlarda qo'llanadi. Masalan, Surxondaryoda "g'ilay" o'rniga "cho'loq" ishlatiladi.

Morfologiya: fe'l qo'shimchalari ham farq qiladi. Masalan, Toshkent shevasida "borayapman" shakli qo'llansa, Xorazmda "boryapman" deyiladi.

7. Dialektlarning madaniy meros sifatidagi o'rnini. Hududiy shevalar faqat lingvistik fakt emas, balki xalqning madaniy xotirasi hamdir. Shevalarda qadimiy turkiy unsurlar, tarixiy terminlar, o'ziga xos maqol va iboralar saqlanib qolgan. Bu esa dialektologiyani faqat tilshunoslik emas, balki etnografiya va folklorshunoslik uchun ham muhim manba qilib qo'yadi.

Bugungi kunda o'zbek dialektologiyasi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Hududiy shevalarni yozib olish va ilmiy tavsiflash.
2. Dialektlar lug'atini tuzish.
3. Shevalarning adabiy tilga ta'sirini o'rganish.
4. Shevalarni saqlab qolish va yosh avlodga yetkazish.
5. Yangi texnologiyalar yordamida audio va video materiallar yig'ish.

O'zbek dialektologiyasi o'zbek tilshunosligining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi til tarixini chuqur o'rganish, adabiy tilning boyishiga

hissa qo'shish hamda milliy merosni asrab-avaylashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi davrda dialektologik tadqiqotlar zamonaviy usullar yordamida olib borilayotgani, xalq tilini o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Shunday qilib, o'zbek dialektologiyasi nafaqat tilshunoslik, balki xalqning tarixiy-madaniy taraqqiyoti bilan ham chambarchas bog'liq ilmiy soha sifatida yanada rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. – Toshkent: Fan, 1960.
2. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983.
3. G'ulomov A. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
4. Tursunov U., Rasulov R. O'zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 1995.
5. Karimov Sh. Shevalar va adabiy til. – Toshkent: Fan, 2005.

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA TILSHUNOSLIK TADQIQOTLARINI AVTOMATLASHTIRISH: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR

Boyjonova O'g'iloy Rasul qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy tilshunoslik sohasida qo'llanishi, ularning ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirishdagi o'rni hamda kelajakdagi istiqbollari tahlil qilingan. Tilshunoslikda korpus lingvistikasi, avtomatik tarjima, matnni qayta ishlash, semantik va pragmatik tahlil, nutqni tanish kabi yo'nalishlarda SI vositalarining samaradorligi ochib beriladi. Maqolada tilshunoslik tadqiqotlarini yangi bosqichga olib chiqish uchun SI texnologiyalaridan oqilona foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tilshunoslik, avtomatlashtirish, tabiiy tilni qayta ishlash, korpus, tarjima, nutq texnologiyalari, etik cheklovlar.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается применение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современной лингвистике, их роль в автоматизации научных исследований, а также перспективы развития. Раскрывается эффективность использования ИИ в таких направлениях, как корпусная лингвистика, автоматический перевод, обработка текста, семантический и прагматический анализ, распознавание речи. Кроме того, анализируются научные, технологические и этические проблемы, возникающие при использовании искусственного интеллекта. В работе предлагаются рекомендации и практические выводы по рациональному применению ИИ-технологий для вывода лингвистических исследований на новый этап развития.

Ключевые слова: искусственный интеллект, лингвистика, автоматизация, обработка естественного языка, корпус, перевод, речевые технологии, этические ограничения.

ABSTRACT

The article examines the use of artificial intelligence (AI) technologies in modern linguistics, their role in automating scientific research, as well as future prospects. The effectiveness of AI tools is revealed in such areas as corpus linguistics, machine translation, text processing, semantic and pragmatic analysis, and speech recognition. In addition, the paper addresses scientific, technological, and ethical challenges that may arise when applying artificial intelligence. Recommendations and practical suggestions are provided on the rational use of AI technologies to bring linguistic research to a new stage of development.

Keywords: artificial intelligence, linguistics, automation, natural language processing, corpus, translation, speech technologies, ethical constraints.

KIRISH

XXI asr ilm-fan taraqqiyoti sun'iy intellekt tushunchasini global jarayonlarning ajralmas qismiga aylantirdi. Ushbu texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga kirib kelayotgani kabi, lingvistika fanida ham keng qo'llanilmoqda. Lingvistikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan tilni tizimli o'rganish, tahlil qilish va tushuntirish jarayoni tarixan ko'p vaqt, katta hajmdagi mehnat va an'anaviy metodologiyaga tayanib amalga oshirilgan. Ammo bugungi kunda bu jarayon sun'iy intellekt yordamida sezilarli darajada avtomatlashtirilmoqda. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari, ya'ni Natural Language Processing (NLP) sohasining rivojlanishi ilmiy tadqiqotlarni tezkor, aniq va samarali amalga oshirish imkonini bermoqda. Shunga qaramay, tilshunoslikdagi har bir yangi yondashuv singari, sun'iy intellektga asoslangan usullar ham qator imkoniyatlar bilan bir qatorda turli cheklovlarni ham yuzaga chiqarmoqda.

ASOSIY QISM

Sun'iy intellektning tilshunoslikdagi o'rni beqiyosdir. An'anaviy lingvistik tadqiqotlarda katta hajmdagi matn materiallarini yig'ish va tahlil qilish ko'p vaqt talab qilgan bo'lsa, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida bu jarayon qisqa vaqt ichida amalga oshirilmoqda. Masalan, korpus lingvistikasi sohasida til birliklarining chastotasi, semantik maydonlari va kollokatsiyalarini aniqlash endilikda avtomatik dasturlar yordamida bajariladi. Bunday imkoniyatlar o'z navbatida lingvistik

nazariyalarni amalda sinovdan o'tkazish, statistik asoslangan xulosalar chiqarish va til birliklarining o'zaro aloqalarini keng ko'lamda tahlil qilishga sharoit yaratmoqda[2].

Avtomatik tarjima tizimlari sun'iy intellekt qo'llanishining eng yorqin ko'rinishlaridan biridir. Dastlabki tarjima dasturlari ko'plab xatoliklar bilan ishlagan bo'lsa, bugungi kunda mashina o'rganish va neyron tarmoqlarga asoslangan algoritmlar samaradorlikni keskin oshirdi. Masalan, "Google Translate" yoki "DeepL" kabi tizimlar nafaqat so'zma-so'z tarjima qilish, balki kontekstual moslikni ham ta'minlashga intilmoqda. Shu bilan birga, ayrim tillarda, jumladan, o'zbek tilida bu tizimlarning sifat ko'rsatkichlari hali ham yetarli darajada mukammal emas. Buning sababi o'zbek tilining morfologik murakkabligi va katta hajmdagi sifatli korpuslarning yetarli emasligidir.

Nutq texnologiyalari sohasida ham sun'iy intellektning imkoniyatlari kengayib bormoqda. *Nutqni tanish va sintezlash, ovozli yordamchilar, mobil ilovalarda ovozli boshqaruv tizimlari* tilshunoslik va texnologiyaning uzviy aloqasidan kelib chiqqan yutuqlardir[6]. Bu esa nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki kundalik hayotda ham tilni o'rganish, nutqni rivojlantirish va kommunikatsiya jarayonlarini yengillashtirmoqda.

Semantik va pragmatik tahlil ham sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilmoqda. Matnlardagi yashirin ma'nolarni aniqlash, pragmatik implikaturalarning tahlili, turli ijtimoiy guruhlar nutqidagi til xususiyatlarini kuzatish sun'iy intellekt asosida amalga oshirilmoqda[7]. Bu esa diskursiv tahlilni yanada samarali qilish imkonini bermoqda.

Ta'lim sohasida sun'iy intellekt qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Til o'rgatish jarayonida virtual repetitorlar, interaktiv platformalar, avtomatik baholash tizimlari o'quvchilarga katta yordam bermoqda. Bu jarayon o'qituvchi faoliyatini yengillashtirib, til o'rganuvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Biroq sun'iy intellektidan foydalanishda qator muammolar ham mavjud. Avvalo, har bir tilning o'ziga xos grammatik, fonetik va semantik jihatlar borligi sababli ularni to'liq avtomatlashtirish hozircha mushkuldir. Masalan, o'zbek tilida *so'z yasashning murakkab tizimi, ko'plik va egalik qo'shimchalarining o'zaro uyg'unligi* sun'iy intellekt uchun katta sinovdir. Bundan tashqari, katta va sifatli korpuslarning mavjud emasligi tilshunoslik tadqiqotlarini cheklab qo'ymoqda.

Texnologik cheklovlardan tashqari, etik va huquqiy masalalar ham dolzarbdir. **Sun'iy intellekt asosida yaratilgan matnlar mualliflik huquqi va plagiat muammolarini yuzaga keltirishi** mumkin. Shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, til materiallaridan noqonuniy foydalanish xavfi ham mavjud. Shuning

uchun sun'iy intellektni qo'llashda nafaqat ilmiy, balki huquqiy va axloqiy me'yorlarni ham inobatga olish zarur.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Avvalo, o'zbek tilining milliy korpusini kengaytirish va muntazam ravishda yangilash lozim. Bu jarayon tilshunos olimlar, dasturchilar va davlat idoralari hamkorligida olib borilishi zarur. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqishda lingvist mutaxassislarning faol ishtirokini ta'minlash muhimdir. **Axloqiy me'yorlarga rioya qilish, mualliflik huquqlarini saqlash, ilmiy izlanishlarda shaffoflikni ta'minlash** ham sun'iy intellektdan samarali foydalanishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Yosh tadqiqotchilarni sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash sohasida tayyorlash, ilmiy maktablar yaratish esa bu yo'nalishning kelajakdagi rivojlanishiga zamin hozirlaydi.

XULOSA

Sun'iy intellekt yordamida tilshunoslik tadqiqotlarini avtomatlashtirish bugungi kunda eng dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ushbu texnologiyalar ilmiy izlanishlarga tezlik, aniqlik va samaradorlik olib kirdi. Shunga qaramay, resurs yetishmovchiligi, tilning o'ziga xos murakkabligi, etik va texnologik muammolar hali ham o'z yechimini kutmoqda. Kelgusida sun'iy intellekt va tilshunoslikning chuqur integratsiyasi natijasida nafaqat ilmiy izlanishlar yangi bosqichga ko'tariladi, balki tilni saqlash, rivojlantirish va xalqaro miqyosda targ'ib qilish imkoniyati ham kengayadi. Shu bois, sun'iy intellektni oqilona va maqsadli qo'llash lingvistika sohasining istiqboli uchun hal qiluvchi omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jurafsky D., Martin J. H. Speech and Language Processing. Pearson, 2023.
2. Manning C. D., Schütze H. Foundations of Statistical Natural Language Processing. MIT Press, 2020.
3. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press, 2021.
4. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson, 2021.
5. UzLingua Korpus loyihasi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti, 2024.
6. Kaplan J. Artificial Intelligence: What Everyone Needs to Know. Oxford University Press, 2022.
7. Mikolov T., Chen K., Corrado G., Dean J. Efficient Estimation of Word Representations in Vector Space. arXiv preprint, 2018.

O'ZBEK TILINI ONA TILI SIFATIDA O'QITISH TARIXI**Ismatova Iroda Qurbonmurod qizi****Qulmuroda Marjona O'ktam qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabalari

irodaismatova95@gmail.commarjonaqulmurodova412@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tarixiy jarayonlari yoritilgan. Orxun-Enasoy yodgorliklaridan boshlab IX–XIX asrlargacha bo'lgan davrlarda ona tilining ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnaki, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlari misolida o'zbek tilining ta'limiy, ma'naviy va madaniy hayotdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ona tilining ilm-fan, adabiyot va ma'rifat rivojidagi yetakchi o'rni tarixiy manbalar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, Orxun-Enasoy yodgorliklari, ta'lim tarixi, ilm-fan, ma'naviyat.

Annotation: This article covers the historical processes of teaching the Uzbek language as a native language. The role of the native language in the educational system from the Orkhun-Enasoy monuments to the 9th-19th centuries is analyzed. The works of such thinkers as Mahmud Kashgari, Yusuf Khos Hajib, Ahmad Yugnaki, Alisher Navoi show the importance of the Uzbek language in educational, spiritual and cultural life. Also, the leading role of the native language in the development of science, literature and enlightenment is explained on the basis of historical sources.

Keywords: Uzbek language, Orkhun-Enasoy monuments, history of education, science, spirituality.

Аннотация: В статье рассматриваются исторические процессы преподавания узбекского языка как родного. Анализируется роль родного языка в системе образования, начиная с памятников Орхун-Энасай до IX–XIX веков. В трудах таких мыслителей, как Махмуд Кашгари, Юсуф Хос Хаджиб, Ахмад Югнаки, Алишер Навои, показано значение узбекского языка в образовательной, духовной и культурной жизни. Также на основе исторических источников раскрывается ведущая роль родного языка в развитии науки, литературы и просвещения.

Ключевые слова: узбекский язык, Орхун-Енасойские памятники, история образования, науки, духовности.

“Ona tili ta’limi dunyoning barcha burchaklarida barcha zamonlarda odam bolasini odam qilib tarbiyalashda favqulodda muhim jarayonlardan biridir (Mahmudov, 2019).

Tarixchi, arxeolog, etnograf olimlar kishilik madaniy taraqqiyoti darajasini davrlashtirishda insoniyat tarixida beshta yirik sivilizatsiya ro’y berganligini e’tirof etadilar. Birinchi sivilizatsiya eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikda Kichik va Old Osiyo hududlari, Frot va Dajla, Nil hamda Hind daryolari havzalarida yuz bergan, u fanda “Qadimgi sharq sivilizatsiyasi” nomi bilan mashhurdir. Aksariyat olimlar “Antik davr sivilizatsiyasi” nomi bilan mashhur ikkinchi sivilizatsiya miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o’rtalarida Gretsiya va Rimda ro’y bergan deb hisoblashadi. Uchinchi sivilizatsiya arab istilosidan keyingi davrda Movarounnahr va Xuroson hududlarida melodiy IX-XIII asr boshlarida yuz bergan va jahonga tengsiz aql daholari, olim-u fuzalolar, mutafakkirlarni yetkazib berganligi sir emas va uning ta’sirida Yevropa uyg’ondi. To’rtinchi sivilizatsiya XIV-XV asrlarda Yevropa va Osiyoda yuz bergan uyg’onish davri bilan bog’liqligi e’tirof etilsa, beshinchisi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy taraqqiyot yuqori nuqtaga ko’tarilgan, inson aql-zakovati tufayli ilm-fanda buyuk kashfiyotlar amalga oshirilgan XX asr sivilizatsiyasidir. Tabiiyki, mazkur sivilizatsiyalarning yuzaga kelishini ta’minlovchi asosiy omil ta’lim tizimidir. Zero, turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, davlatchilik shakllaridan qat’i nazar, tarixiy davrlarda ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni, mohiyati, o’z zamonasi ruhiga mos ravishda anglashilib, umumiy rivojlanish darajasiga yuksak ta’sir etib kelgan. [1:25]

Shu boisdan ham insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ta’lim-tarbiya masalasi markaziy o’rin tutgan. Har bir sivilizatsiya o’z davrida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini, madaniyatini, ilm-fanini va davlat boshqaruvini rivojlantirishda bilim olish tizimiga alohida e’tibor qaratgan. Masalan, qadimgi Sharq sivilizatsiyasida madrasalar, ibodatxonalar va saroy maktablari orqali diniy hamda dunyoviy bilimlar o’rgatilgan bo’lsa, Antik davrda falsafa, matematika, adabiyot va san’at fanlari rivojlanib, ta’lim jarayoni inson tafakkurini kengaytirishga qaratilgan edi. Keyingi bosqichlarda, ayniqsa Movarounnahr va Xuroson zaminida yuz bergan uyg’onish davri ilm-fan taraqqiyotida yuksak pog’onani tashkil etdi. Bu davrda ta’lim tizimi shunchaki bilim berish emas, balki ijodiy fikrlashni, yangi g’oyalarni ilgari surishni taqozo etgan. Buxoro, Samarqand, Bag’dod, Marv singari shaharlarda ilmiy maktablar, kutubxonalar, madrasalar faoliyat ko’rsatib, ular Sharq va G’arb o’rtasida ma’naviy

ko'prik vazifasini bajargan XIV–XV asrlardagi Uyg'onish davrida Yevropa va Osiyoda ham ta'limning mazmuni tubdan o'zgarib, inson shaxsini qadrlash, uni erkin fikrlashga yo'naltirish asosiy tamoyil sifatida qaraldi. Natijada san'at, adabiyot, falsafa va tabiiy fanlarda ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. XX asr sivilizatsiyasi esa zamonaviy ilm-fan va texnika kashfiyotlari bilan ajralib turadi. Bu davrda ta'lim jarayoni keng xalq ommasiga yoyildi, zamonaviy maktablar, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlari faoliyati keskin faollashdi. Ta'limning umumiy va majburiy shaklga ega bo'lishi, fanlarning tabaqalanishi hamda ilmiy kashfiyotlarning tezkor amaliyotga joriy etilishi zamonaviy taraqqiyotning bosh omili sifatida namoyon bo'ldi.

O'rxun-Enasoy yodgorliklari davrida ona (o'zbek) tilida ta'lim. IX-XIX asrlarda, asosan, turkiy, turkcha, qator manbalarda hoqoniy, qoshg'ariy, chig'atoy kabi o'ndan ortiq nomlar bilan atalib kelingan ona tilimizning[1:89]o'qitilishi to'g'risida bevosita ma'lumot beruvchi manbalar bo'lmas-da, bu til ta'lim-tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib kelganligi, demak, ta'lim o'choqlarida o'qitilganligi haqida bilvosita ma'lumot beradigan manbalar juda ko'p. Ulardan eng qadimiylari, shubhasiz, ilk turkiy yozma yodgorliklardir.[1:28]

O'rxun-Enasoy yodgorliklari davrida ona tili ta'limi haqida bevosita ma'lumotlar bo'lmagan bo'lsa-da, bu yodgorliklarning o'zi turkiy xalqlarning til va yozuv madaniyatining qanchalik rivojlanganidan dalolat beradi. Yodgorliklarda xalqni birlikka, ilm va ma'rifatga chorlovchi g'oyalar ifodalangan bo'lib, ular ta'lim-tarbiya jarayonida ona tilining nechog'lik muhim o'rin tutganini tasdiqlaydi. IX–XIX asrlar davomida ona tili turli nomlar – hoqoniy, qoshg'ariy, chig'atoyiy va boshqalar bilan atalgan bo'lsa-da, u doimo ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” asarlari o'z davrida ona tilini o'qitish, uni targ'ib qilish va turkiy xalqlar orasida savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy chig'atoy tilining badiiy imkoniyatlarini ochib bergan va uni ilm-fan hamda adabiyot tiliga aylantirgan. Shunday qilib, o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tarixi qadimiy yozma yodgorliklardan boshlangan bo'lib, asrlar davomida turli bosqichlarni bosib o'tgan. Bu jarayon davomida ona tilimiz ilm, adabiyot, ma'rifat va ta'limning eng asosiy vositasi sifatida shakllanib bordi.

XX asr boshlarida jadidchilik harakati namoyandalari — Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar o'zbek tilini maktablarda ona tili sifatida o'qitish g'oyasini ilgari surdilar. Ular yangi usuldagi maktablar tashkil etib, o'zbek tili grammatikasi, imlo qoidalari va nutq

madaniyatini o'rgatishga katta e'tibor qaratdilar. Shu davrda ona tili darsliklari yaratilib, o'qitish metodikasi shakllana boshladi. Mustaqillik yillarida esa o'zbek tilining maqomi yanada yuksalib, u davlat tili sifatida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitilmoqda. Bugungi kunda ona tilini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Bu esa tilimizning nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy taraqqiyotning ham ajralmas qismi ekanini ko'rsatadi.

XXI asrga kelib, o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish yangi bosqichga ko'tarildi. Globallashtirish jarayonida tilni asrab-avaylash, uni xalqaro miqyosda targ'ib etish, raqamli ta'lim tizimida samarali o'qitish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ona tili ta'limini takomillashtirish maqsadida davlat dasturlari, yangi o'quv standartlari va zamonaviy darsliklar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, tilshunos olimlar, metodistlar hamda pedagoglar o'zbek tilini o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini yanada rivojlantirish yo'lida izlanishlar olib bormoqdalar. Bugungi kunda o'zbek tili nafaqat ta'lim tizimining muhim fani, balki milliy g'urur va o'zlik ramzi sifatida e'tirof etiladi. Ona tili orqali yosh avlodda milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va estetik did shakllanadi. Shu bois o'zbek tilini o'qitish nafaqat bilim berish, balki tarbiya berish jarayoni sifatida ham muhim o'rin tutadi. Kelajakda ona tili ta'limining rivoji axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va multimedia vositalari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu esa o'zbek tilining xalqaro maydondagi mavqeini yanada mustahkamlash, uni ilm, fan va diplomatiya tiliga aylantirish imkonini beradi. Shunday qilib, o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tarixi – o'tgan asrlar tajribasidan zamonaviy ta'lim konsepsiyasigacha bo'lgan uzviy jarayon bo'lib, u xalqimiz ma'naviy kamoloti va milliy o'zligini ifodalaydi. Tilimizning bugungi rivoj darajasi ana shu tarixiy ildizlar va ma'naviy merosning mantiqiy natijasidir. O'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tarixi insoniyat taraqqiyotining muhim bo'lagi hisoblanadi. Qadimiy Orxun-Enasoy bitiklaridan tortib, IX–XIX asrlardagi adabiy yodgorliklarga bo'lgan davrda ona tilimiz nafaqat aloqa vositasi, balki ilm-ma'rifat, tarbiya va madaniyatning tayanch ustuni bo'lib kelgan. Demak, bugungi kunda o'zbek tilini davlat tili sifatida rivojlantirish va uni ta'lim tizimining yetakchi fanlaridan biri darajasida o'qitish tarixiy an'alarimizning mantiqiy davomi va sivilizatsiyaviy zaruriyatidir.

Demak, ona tilini o'qitish metodlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Metod va usullar o'quvchilarning yoshiga, qobiliyatiga, shuningdek, o'qitish maqsadlariga mos ravishda tanlanishi lozim.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar nafaqat an'anaviy metodlarni, balki interaktiv va innovatsion usullarni ham qo'llashni talab qiladi. Shunday qilib, ta'lim jarayonida turli metod va usullarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilim olish faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashuvga yo'naltirish mumkin. O'qituvchi esa har bir darsda o'z pedagogik mahoratini oshirib, zamonaviy texnologiyalar va metodlarni tatbiq etish orqali ta'lim sifatini yanada yaxshilashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov. G' "O'zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida", T: 1999. -89 b.
2. Yo'ldoshova. D "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" Durdona nashriyoti. 2021. -54 b.
3. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006.- 87 b.

KO'MAKCHILARNI O'QITISHDA METODIK YONDASHUVLAR

Safaraliyeva Kamola Abdurashid qiz

Suyunova Farzona Yusuf qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi talabalari

farzonasuyunova56@gmail.com

safaraliyevakamola4@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tog'oymurod Bekmurodov

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'makchilarning grammatik vazifasi va nutqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ularni o'qitishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar, innovatsion usullar va amaliy mashqlar yordamida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit sozlari: Ona tili, ko'makchi, so'z va vazifadosh ko'makchi, metodika, innovatsion metod, nutqiy kompetensiya.

Annotation. This article analyzes the grammatical function and communicative significance of prepositions. It also highlights methodological approaches, innovative techniques, and practical exercises used in teaching them, which contribute to developing students' communicative competence.

Keywords: Mother tongue, preposition, pure and functional prepositions, methodology, innovative method, communicative competence.

Аннотация. В данной статье анализируются грамматическая функция и речевое значение послелогов. Также рассматриваются методические подходы, инновационные методы и практические упражнения, способствующие развитию речевой компетенции учащихся.

Ключевые слова: Родной язык, послелог, собственный и функциональный послелог, методика, инновационный метод, речевая компетенция.

Ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda grammatik bilim, nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Shu jihatdan ko'makchilarni o'qitish alohida ahamiyatga ega, chunki ular so'zlar orasidagi ma'no munosabatlarini ifodalaydi, gapning mantiqiy va grammatik yaxlitligini ta'minlaydi. Ko'makchilarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarning nutq madaniyati, yozma va og'zaki ifoda

imkoniyatlari kengayadi. Ko'makchilar mustaqil ma'no anglatmasada, boshqa so'zlar bilan birikib, turli sintaktik vazifani bajaradi. Masalan, ko'makchilar mustaqil ma'no anglatmasada, boshqa so'zlar bilan birikib, turli sintaktik vazifani bajaradi. Masalan, bilan, uchun, haqida, sari, qadar kabi ko'makchilar so'zlar orasida turli munosabatlarni ifodalaydi. Ularni o'qitish jarayonida o'quvchilarga nafaqat nazariy ta'rif, balki real nutqiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini ham ko'rsatish lozim. Ko'makchilar Ot, olmosh, harakat nomi va sifat doshdan keyin kelib, ularni boshqa so'zga (ko'pincha fe'lga) grammatik jihatdan tobelanishini ta'minlaydigan so'zlar ko'makchi deyiladi. Ko'makchilar gapda o'zidan oldingi mustaqil so'zlar bilan birikib ularga vosita, maqsad, sabab, payt, ma'kon kabi ma'nolarni qo'shadi va shu so'zlar bilan birga bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Ko'makchilar kelib chiqishiga ko'ra sof ko'makchilar va vazifadosh ko'makchilar dan iborat bo'ladi: 1. Sof ko'makchilar lug'aviy ma'nosini batamom yo'qotgan: bilan, uchun, kabi, singari, uzra, qadar singari so'zlarni o'z ichiga oladi. Misol uchun

uchun – Kitob o'quvchilar uchun yozilgan.

kabi – U qahramonlar kabi jasur edi.

singari – O'quvchilar bahor gullari singari quvonchli.

uzra – Qushlar osmonga uzra parvoz qildi.

qadar – Kechqurun soat o'nga qadar dars tayyorladi.

2. Ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlar: sababli, sababdan, orqali, tufayli, qarab, qaramay, so'ng, tashqari, beri, ko'ra, chog'li, uzra singari so'zlar. Misollar: sababli – Yomg'ir yog'gani sababli o'yin bekor qilindi. orqali – Biz internet orqali muloqot qildik. qarab – Bola o'z yoshi va bilimiga qarab topshiriq oldi. qaramay – Sovuqqa qaramay, ular sayohatni davom ettirdi. tufayli – Ustozimizning yordami tufayli muvaffaqiyat qozondik. Vazifadosh Ko'makchilar mustaqil so'z turkumlaridan quyidagicha farqlanadi: Bunday so'zlar ko'makchi vazifasida kelganda atash ma'nosi yuqoladi, shuning uchun mazkur so'roqqa javob bo'lmaydi. Ular ot, sifat dosh, harakat nomi, ravish doshlardan, hosil bo'lgan ko'makchilardir.

Mustaqil so'z: Lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi .

Vazifadosh ko'makchi : Lug'aviy ma'nosini yo'qotgan bo'ladi.

Devor usti yomg'irdan iviy boshladi. - ot mustaqil so'z. (devorning usti bor)

Vazifadosh ko'makchi: Kitob ustida uzoq ishladi. (kitobning ustida ishlab bo'lmaydi)

Mustaqil so'z: Qoziq ustida qor turmas .-ot (qoziqning usti bor)

Gap futbol ustida ketdi. -vazifadosh ko'makchi (futbol ustida gap keltmaydi .

Onasinig yuziga ma'noli qarab jilmaydi.(qarab jilmayish mumkin).

Vazifadosh ko'makchi:

Maktabga qarab yurdi.(maktabga qarab yurib bo'lmaydi)

Ko'makchilarning ma'no turlari

Ko'makchilar yetakchi so'zga bog'lanib unga turli qo'shimcha ma'no yuklaydi

Maqsad manosi:sababli,tufayli uchun

Yo'naloshma'nosi : tomon,qarab,sari,bo'ylab

Mavzu ma'nosi:haqida,to'g'risida

O'xshatish qiyoslash:kabi,singari,yanglig'

Chagara ma'nosi:Qatar,dovur

Vosita ma'nosi:bilan,orqali

Ona tili darslarida turli xil metodik yondashuvlardan foydalanish o'quvchilar uchun osonroq va foydaliroq bo'ladi. Ko'makchilarni o'rgatishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. An'anaviy metodlar – ta'rif, qoidalar, misollar orqali tushuntirish va mustahkamlash

2. Innovatsion metodlar – interfaol o'yinlar, klaster, aqliy hujum, Venn diagrammasi, "Insert" texnologiyasi kabi usullar.

3. Amaliy mashg'ulotlar – matndan ko'makchilarni topish, ularning vazifasini aniqlash, gap tuzish, dialog yaratish

4. Integrativ yondashuv – ko'makchilarni boshqa grammatik kategoriyalar bilan bog'lab o'rgatish (masalan, ot yoki fe'l bilan birgalikda).

5. Kommunikativ yondashuv – o'quvchilarni erkin suhbat, muloqot va yozma nutqda ko'makchilardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish.Ko'makchilarni o'rgatishda innovatsion usullar Rol o'yinlari: o'quvchilarga turli hayotiy vaziyat berilib, ular ko'makchilardan foydalangan holda suhbat quradilar.Matn tahlili: badiiy yoki publitsistik matnlardan ko'makchilarni ajratish va ularning ma'nosini izohlash.Ijodiy topshiriqlar: berilgan so'zlarga mos ko'makchilar qo'shib gap tuzish.Axborot texnologiyalari: elektron testlar, interaktiv taqdimotlar, onlayn mashqlar.

Xulosa qilib aytganda Ko'makchilarni o'qitishda metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlash o'quvchilarning grammatik bilimini mustahkamlaydi, nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. Innovatsion metodlardan samarali foydalanish esa darsni qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. - 163 b.
2. Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzlar to'plami."Yosh kuch"-2019. -87 b.
3. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Xo'jayev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. -276 b.
4. Yo'ldoshev J.G. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2000. -198 b.
5. www.ziynet.uz – metodik tavsiyalar va elektron darsliklar.

MORFOLOGIYA O'QITISH METODIKASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Tuxliyeva Sevinch Anvar qizi,
Turdimurodova Sevinch Azam qizi**

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

23/4-guruh talabasi

tuxliyevasevinch8@gmail.com

sevinchturdimurodova3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada morfologiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda tilshunoslik fanlari bilan aloqadorligi tahlil qilinadi. Morfologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilarda nutq madaniyatini yuksaltirish, so'z yasash va shakl yasash qonuniyatlarini anglash, tilning ichki tuzilishini idrok etish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: morfologiya, maqsad, vazifa, tilshunoslik, nutq madaniyati, grammatik birlik.

Annotation. This article analyzes the objectives and tasks of teaching methodology of morphology, its role in the educational process, and its interrelation with linguistic sciences. It is substantiated that mastering knowledge of morphology fosters the development of students' speech culture, enhances their understanding of word formation and inflectional patterns, and shapes essential skills related to comprehending the internal structure of the language.

Keywords: morphology, objective, task, linguistics, speech culture, grammatical unit.

Аннотация. В данной статье анализируются цели и задачи методики преподавания морфологии, её роль в учебном процессе, а также взаимосвязь с лингвистическими науками. Усвоение знаний по морфологии способствует формированию у учащихся навыков языковой культуры, пониманию закономерностей словообразования и словоизменения, осознанию внутренней структуры языка.

Ключевые слова: морфология, цель, задача, лингвистика, языковая культура, грамматическая единица.

Tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lgan morfologiya til tizimini, xususan, so'zlarning shakli va grammatik kategoriyalarini o'rganadi. Pedagogik metodika nuqtayi nazaridan morfologiya darslarini samarali tashkil etish, ta'lim maqsad va vazifalarini aniq belgilash orqali tilni ongli o'rganish va qo'llash imkoniyatlari kengayadi. Tilshunos olim A. Qo'chqorov ta'kidlaganidek, ona tili ta'limining samaradorligi grammatik bilimlarni o'quvchilarda tizimli va izchil shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. [1: 45].

Morfologiya o'qitish metodikasining umumiy maqsadi – o'quvchilarda **grammatik kompetensiyani** shakllantirish, ya'ni til birliklaridan to'g'ri, izchil va maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ushbu maqsad bir nechta asosiy yo'nalishlarda ifodalanishini ta'kidlashimiz mumkin:

❖ **Nazariy maqsad.** So'z turkumlari, ularning grammatik kategoriyalari, so'z yasash va shakl yasash tizimlari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash. Bu jarayonda o'quvchilar tilning ichki tizimini anglaydi va uni ilmiy asosda tushunishga o'rganadi. [2: 62].

❖ **Amaliy maqsad.** Morfologik bilimlarni amaliy nutqiy faoliyatda qo'llash, og'zaki va yozma nutqda grammatik jihatdan to'g'ri, mantiqan izchil fikr ifodalash malakasini shakllantirish.

❖ **Tarbiyaviy maqsad.** Ona tiliga hurmat, milliy qadriyatlarga e'tibor, til boyligidan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Bu esa o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantiradi.

Maqsadlar o'z-o'zidan aniq vazifalarni belgilab beradi. Metodik jihatdan esa ularni uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

- So'z turkumlari va ularning grammatik belgilarini tizimli ravishda o'rgatish;
- Grammatik kategoriyalar (son, shaxs, zamon, mayl, kelishik va h.k.) haqida ilmiy tushuncha berish;
- Morfologik birliklarning sintaktik vazifalarini tushuntirish va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni izohlash.

2. Amaliy vazifalar:

- So'zlarning shaklini to'g'ri qo'llash malakasini hosil qilish;
- Grammatik xatolarning oldini olish;
- Nutqda morfologik bilimlarni samarali qo'llash;
- Til materialidan mustaqil foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. Tarbiyaviy vazifalar:

- Ona tiliga muhabbat va hurmatni shakllantirish;
- Nutq madaniyatini yuksaltirish, mantiqiy va aniq fikrlashni tarbiyalash;
- Tilni milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida anglashni ta'minlash.

Ta'limda morfologiyani o'qitish metodikasi asosiy e'tiborni so'z tarkibi va yasallishini amaliy misollar orqali tahlil qilishga qaratilgan. Turli lingvistik shakl va qoliplarni o'rganib, o'qituvchilar o'quvchilarga morfologik tushunchalarni tushunishlari uchun amaliy misollarkeltirishi mumkin. Amaliy mashg'ulotlar va interfaol mashqlar orqali o'quvchilar morfologiya bo'yicha olgan bilimlarini real stsensariylarda qo'llashlari, til ko'nikmalarini oshirishlari mumkin. [3: 77]. Bundan tashqari hamkorlikda o'qitish metodikasi so'z tarkibini tushunishni yaxshilash uchun o'quvchilarning o'zaro ta'siri va jamoaviy ishiga urg'u beradi. Ushbu ta'lim usulida talabalar so'zlarni tahlil qilish va ajratish, ma'noni ochish uchun prefikslar, qo'shimchalar va ildiz so'zlarni aniqlash uchun birgalikda ishlaydi. Guruh faoliyati va munozaralarda qatnashish orqali talabalar tilning nozik tomonlarini chuqurroq tushunishlari va morfologik malakalarini oshirishlari mumkin. Morfologiya o'qituvchilarining o'qituvchilik mahoratini oshirish uchun ularning kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatlari bilan qurollantirishga qaratilgan. Kasbiy rivojlanish orqali o'qituvchilar talabalarni so'z shakllanishi, tuzilishi va ma'nosini o'rganishga jalb qilishning samarali strategiyalarini o'rganadilar. Ushbu trening mashg'ulotlari o'qituvchilarga tadqiqotga asoslangan amaliyotlardan xabardor bo'lish va turli xil o'quvchilar ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitish usullarini moslashtirish imkonini beradi. Ushbu metodika turli o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun morfologiyani o'qitishda inklyuziv amaliyotni targ'ib qilishga qaratilgan. Ko'rgazmali qo'llanmalar, amaliy mashg'ulotlar va interfaol mashqlar o'quvchilarning so'z tuzilishi va shakli haqidagi tushunchalarini oshirishga yordam beradi. Qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv ta'lim muhitini yaratish orqali o'qituvchilar barcha o'quvchilarning morfologik tushunchalarni samarali tushunishlari uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashi mumkin.

Morfologiyani o'qitishning hozirgi tendensiyalari amaliy mashg'ulotlarga, texnologiya integratsiyasiga va amaliy dasturlarga e'tibor qaratiladi. O'qituvchilar talabalarni jalb qilish va tushunishni yaxshilash uchun innovatsion yondashuvlarni qo'llaydilar. Morfologiya o'qitishning metodik asoslari lingvodidaktika tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekistonlik tilshunos olim Sh. Karimov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida grammatik tizimni o'rgatishda nazariy bilim bilan bir qatorda

amaliy nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishni muhim metodik talab sifatida qayd etadi. R. Rasulov esa "Umumiy tilshunoslik" asarida morfologiyaning til tizimidagi markaziy o'rni va boshqa grammatik bo'limlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib o'tadi. [4: 191]. Shuningdek, N. Mahmudov morfologiyani o'rganishda **til va nutq dialektik birligini** hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, grammatik bilimlar faqat nazariy darajada emas, balki kommunikativ nutqiy faoliyatda qo'llanilgandagina o'z samarasini beradi.

Morfologiyani o'qitish o'zining murakkabligi va mavhumligi tufayli o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. [5: 56]. O'qituvchilar talabalar uchun tushunchalarni soddalashtirish uchun qiziqarli usullarni topishlari kerak.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joiz bo'ladiki, morfologiya o'qitish metodikasi ona tili ta'limining ajralmas bo'limi bo'lib, uning maqsad va vazifalari o'quvchilarda grammatik kompetensiyani shakllantirish, nutq madaniyatini rivojlantirish va ijodiy tafakkurni kengaytirishga xizmat qiladi. Maqsad va vazifalarning ilmiy asoslanganligi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun morfologiya darslari nafaqat grammatik bilim berish, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, til boyliklaridan ongli foydalanishga yo'naltiruvchi pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo'chqorov A. *O'zbek tili o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'zbekiston, 2018. 45-b.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. 62-b.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: *O'zbek tili o'qitish metodikasi*. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. 77-b.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. Darslik. - T. : "Fan va texnologiya", 2010. 191-b.
5. Адизов Б. Дидактика. – Toshkent: Фан, 1997. 56-b.

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNALOGIYALAR

Rahamqulova Asila Sharofiddinqizi,

Rustamova Muxlisa Faxriddin qizi

CHDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

23/4-guruh talabasi

raxamqulovadildora@gmail.com

rustamovamuxlisa837@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalarining zamonaviy ta'limdagi o'rni, ularning samaradorligi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan uslublari tahlil qilinadi. "Tarozi", "Yelpig'ich" va "Zigzag" texnologiyalari misolida ularning amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, innovatsiya, texnologiya, metod, o'qituvchi, o'quvchi, mustaqillik, fikrlash, interfaol, usul, zamonaviylik, samaradorlik, pedagogika, yondashuv.

Annotation. The article analyzes the role and effectiveness of innovative educational technologies in modern education. It highlights how methods like "Scales," "Fan," and "Zigzag" develop students' critical thinking and learning independence.

Keywords: education, innovation, technology, method, teacher, student, independence, thinking, interactive, approach, effectiveness, pedagogy, learning, modernity.

Аннотация. В статье анализируется роль и эффективность инновационных образовательных технологий в современном обучении. Рассматриваются методы «Весы», «Веер» и «Зигзаг» как инструменты развития критического мышления и самостоятельности учащихся.

Ключевые слова: образование, инновация, технология, метод, учитель, ученик, самостоятельность, мышление, интерактив, подход, эффективность, педагогика, обучение, современность.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innavatsion tenalogiyalar, pedagogik va axborat texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha a'naviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiya ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlarga, mustaqil

o'rganib, tahlil qilishlarga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlarga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlantirishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatarda boshqaruvchilik, yunaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Innovatsion texnologiyalarga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar, o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini taminlaydi.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishini ta'minlash uchun ta'lim muassasalarga yaxshi tayorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan kadr bo'lishi kerak. Yoshlarga zamonaviy bilim berish va ularda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyos. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashda zamonaviy axborat texnologiyalari keng imkoniyat yaratmoqda.

2020-yil 27-fevralda Prezident tomonidan "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilingan. 2024-yil 16-oktyabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni (PF-158) qabul qilingan.

Shu nuqtai nazardan hozirgi zamon ta'limida 3 xil yondashuv bor. Bular:

- ❖ Ko'rgazmali yondashuv
- ❖ Texnologik yondashuv
- ❖ Zamonaviy yondashuv

«Tarozi» texnologiyasi. Mazkur texnologiya munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'l keladi. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, muxoliflarni ishontiradi, munozara madaniyatiga o'rgatadi.

«Tarozi» texnologiyasi o'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanishi mumkin. Ammo u o'tilgan materiallar bo'yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki o'qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o'rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi. Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

Asosiy tushunchalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Mavzu turli nuqtai nazarlarning to'qnashuviga imkoniyat beruvchi hamda ulardan birortasiga ham imtiyoz bermaydigan tasdiqdir. Mavzu shunday tanlanishi kerakki, u o'rganilayotgan mavzuning barcha qirralarini ochishi, o'quvchilarning axborot qidirish hamda izlanuvchanlik faoliyatlarini rag'batlantirsin.

Argument – bu o'z nuqtai nazarini tasdiqlashga olib keluvchi asosli dalil, g'oya, mulohazadir. Dalillash anik, mantiqiy, asoslangan bo'lishi, faktlar, sharhlar, mulohazalar, isbotlar, misollar, iqtiboslar, manbalarga, obro'li guvohnomalarga havolalar va boshqalar bilan quvvatlangan bo'lishi kerak.

Kontrargument (qarshi dalillash) – bu raqibning dalillarini rad etish bo'lib, u dalillashga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak. To'g'ri tanlangan kontrargument raqibning nuqtai nazarini zaiflashtirishi hamda o'zining himoya yoki rad etish chizig'ini mustahkamlashi lozim.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- ❖ rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ❖ o'z shaxsini takomillashtirishga intilish;
- ❖ faol hayotiy nuqtai nazarini shakllantirish;
- ❖ o'zga fikriga hurmat va toqat qilish;
- ❖ jamoada ishlashni eplay olish;
- ❖ murosali qarorga kela olish;
- ❖ xushmuomalalik;
- ❖ o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish.

“Yelpig'ich” texnologiyasi. Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Yelpig'ich” texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan. “Yelpig'ich” texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- ❖ -boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

❖ -mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

❖ -yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Bu texnologiya talabalarga tanqidiy, tahliliy va ainq mantiqiy fikrlashlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, shuningdek, uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga aylangan. An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilar ko'proq tayyor bilimlarni qabul qilish bilan cheklangan bo'lsa, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ularni mustaqil o'rganishga, tahlil qilishga va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, yoshlarning bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish imkonini yaratadi. Innovatsion pedagogik metodlar, xususan «Tarozi», «Yelpig'ich» va «Zigzag» texnologiyalari o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish, jamoada ishlash va o'z fikrini himoya qilish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi. Ushbu usullar nafaqat bilim berishda, balki tarbiyaviy vazifalarni bajarishda ham samarali hisoblanadi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni chuqur o'zlashtirishi va interfaol usullarni faol qo'llashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat bilim berish jarayonini yanada samarali qilish, balki yoshlarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yordam beradi. Shuning uchun ham zamonaviy ta'lim muassasalari va o'qituvchilar innovatsion pedagogik yondashuvlarni doimiy ravishda o'rganib, amaliyotga tatbiq etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov, D. Kommunikativ yondashuv asosida ona tili o'qitish. -Toshkent: Ilm Ziya, 2021. 112-b.
- 2.Qodirova M. Ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish. -Toshkent: O'zbekiston, 2020. 98-b.
- 3.Jo'rayeva, N. Til o'qitish metodikasi. -Toshkent: Fan, 2019. 156-b.
- 4.Avliyakov, N. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. -Toshkent: TDPU 2017. 184-b.
- 5.Vygotsky, L. S. Thought and Language. Cambridge: -MIT Press, 1986. 48-b.

O'ZBEK TILI LEKSIKASINING TARIXIY-ETIMOLOGIK QATLAMLARI

Abduvaqqosova Ruxshona Bahromboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi kechki 1-bosqich talabasi

ruxshonaabduvaqqosova829@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari tahlil qilinadi. O'zbek tilining lug'at boyligi turkiy ildizli so'zlardan tashkil topgan asosiy qatlam bilan birga, fors-tojik, arab, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Har bir qatlam tilning rivojlanishida muhim o'rin tutib, til boyligini va ifoda vositalarining kengayishini ta'minlagan. Maqolada bu qatlamlarning kelib chiqishi, xususiyatlari va o'zbek tilidagi roli batafsil yoritgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, leksika, tarixiy qatlamlar, etimologiya, so'zlar kelib chiqishi, til tarixi, turkiy ildiz, o'zlashma so'zlar, madaniy ta'sir, leksika.

Аннотация: В статье анализируются историко-этимологические слои лексики узбекского языка. Лексическое богатство узбекского языка формируется на основе тюркского корневого слоя, а также включает заимствования из персидского, арабского, русского и английского языков. Каждый из этих слоев играет важную роль в развитии языка, способствуя расширению его словарного состава и выразительных средств. В статье подробно рассматривается происхождение, особенности и роль этих слоев в современном узбекском языке.

Ключевые слова: узбекский язык, лексика, исторические слои, этимология, происхождение слов, история языка, тюркский корень, заимствования, культурное влияние, лексическое богатство

Abstract: This article examines the historical-etymological layers of the Uzbek language lexicon. The lexical richness of Uzbek is primarily based on its Turkic root layer and also incorporates borrowings from Persian, Arabic, Russian, and English languages. Each of these layers plays a significant role in the development of the

language, contributing to the expansion of its vocabulary and expressive means. The article provides a detailed analysis of the origins, characteristics, and function of these layers within the contemporary Uzbek language.

Key words :Uzbek language, lexicon, historical layers, etymology, word origin, language history, Turkic root, loanwords, cultural influence, lexical richness.

Har bir til o'zining lug'aviy tarkibi orqali milliy madaniyat, tarix va ijtimoiy hayotning aks ettiruvchi vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tili esa, turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, ko'p asrlik rivojlanish jarayonida boy va rang-barang leksik qatlamlarga ega bo'lgan til hisoblanadi. Ushbu qatlamlar o'zaro bog'liq bo'lib, tilning leksik boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbek tilining leksikasi asosan turkiy ildizli so'zlardan tashkil topgan bo'lsa-da, fors-tojik, arab, rus va ingliz tillaridan o'zlashgan so'zlar ham katta o'rin tutadi. Bu esa tilning tarixiy va madaniy jarayonlar natijasida shakllangan ko'p qatlamli leksik tarkibiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Maqolada o'zbek tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari, ularning kelib chiqishi, xususiyatlari va til tizimidagi o'rnini tahlil qilinadi. Shu orqali o'zbek tilining lug'aviy boyligidagi ko'p qatlamlilik va madaniy aloqa Albatta! Quyida "O'zbek tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari" mavzusidagi maqola uchun yanada chiroyli, mazmunli va keng qamrovli asosiy qism taqdim etaman. Bu qism mavzuni chuqur va tizimli yoritishga qaratilgan.

O'zbek tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlarini o'rganish tilning kelib chiqishi, rivojlanishi va madaniy aloqalarini anglashda muhim ahamiyatga ega. Har bir qatlam tilning lug'at boyligi va ifoda vositalarini boyitib, uning ijtimoiy-madaniy kontekstini yoritadi. O'zbek tilining lug'aviy tarkibi tarix davomida shakllangan turli qatlamlardan iborat bo'lib, ular orasida asosiy o'rin turkiy, fors-tojik, arab, rus va ingliz tillaridan kirib kelgan so'zlar qatlamlari hisoblanadi.

1. Turkiy ildizli qatlam

O'zbek tilining asosiy leksik qatlamini qadimiy turkiy ildizli so'zlar tashkil etadi. Bu qatlam tilning yadro so'z boyligi bo'lib, unda milliy-madaniy qadriyatlar, tabiiy olam, kundalik hayot, insoniy munosabatlar hamda asosiy faoliyat sohalari ifodalanadi. Misol uchun, "ota", "ona", "yurak", "oy", "kunga", "yurmoq", "ko'z" kabi so'zlar o'zbek tilining tub ildizlaridan kelib chiqqan.

Turkiy qatlamning o'ziga xosligi uning morfologik va fonetik xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Ko'plab so'zlar qo'shimchalar yordamida so'z yasash va so'z

o'zgartirishda faol qatnashadi, bu esa tilning morfologik tizimining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, qadimiy turkiy so'zlarda arxaik va dialektal variantlar mavjud bo'lib, ular o'zbek tilining tarixiy rivojlanishini kuzatishda muhim manba hisoblanadi.

2. Fors-tojik qatlam

O'zbek tili tarixida fors-tojik madaniyati va tili kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ushbu qatlam asosan madaniy-ma'rifiy, ma'muriy, adabiy-ijodiy sohalarga oid so'zlarni o'z ichiga oladi. Masalan, "shahar", "bozor", "dehqon", "kitob", "adab", "ilm", "odam", "dil" kabi so'zlar fors-tojik ildiziga ega.

Fors-tojik qatlamning o'zbek tiliga kirishi asosan o'rta asrlar Movarounnahr madaniyatining rivojlanishi bilan bog'liq. Bu qatlamda so'zlar ko'pincha arab tilidan o'tgan shaklda bo'lib, fonetik o'zgarishlarga uchragan. Shu bilan birga, fors-tojik so'zlari tilimizda juda chuqur ildiz otganligi sababli, ular ko'pincha o'zbek tilining rasmiy va badiiy nutqida keng qo'llaniladi.

3. Arabcha qatlam

Islom dinining qabul qilinishi bilan birga arab tili o'zbek tiliga diniy, ilmiy va ma'naviy leksikani boyituvchi qatlam sifatida kirib keldi. Bu qatlamda "namoz", "ro'za", "qur'on", "ibodat", "hikmat", "ta'lim", "muallim" kabi so'zlar mavjud. Arabcha so'zlar ko'pincha diniy matnlar va ilmiy-ijtimoiy atamalarda ishlatiladi.

Arab tilidan olingan so'zlarning ko'pi forsiy til orqali kirganligi sababli, ular talaffuzi va yozilishida forsiy ta'sir seziladi. Arabcha qatlam o'zbek tilining so'z boyligi va ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytirib, uning badiiy va ilmiy sohalarda rivojlanishiga hissa qo'shadi.

4. Ruscha qatlam

Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet Ittifoqi davrida o'zbek tiliga rus tili ta'siri kuchaydi. Shu davrda ko'plab yangi texnik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy so'zlar rus tilidan o'zbek tiliga kirib bordi. "Zavod", "fabrika", "telefon", "pasport", "professor", "stol" kabi so'zlar o'zbek tilining zamonaviy leksikasida keng tarqalgan.

Ruscha qatlam asosan rasmiy va ilmiy tilga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, kundalik nutqda ham faol qo'llaniladi. Bu qatlam o'zbek tilining zamonaviy texnologik va ijtimoiy hayotdagi ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi.

5. Inglizcha va boshqa xalqaro qatlamlar

Globalizatsiya jarayonlari va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan o'zbek tiliga ingliz tilidan ko'plab yangi so'zlar kirib keldi. Bu so'zlar asosan internet, biznes, fan va madaniyat sohaslariga taalluqli. Misol uchun, "internet", "kompyuter",

“startup”, “marketing”, “blogger” kabi soʻzlar yangi zamonaviy tushunchalarni ifodalaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy oʻzbek tilida fransuz, nemis va boshqa tillardan kirgan soʻzlar ham mavjud boʻlib, ular madaniy va texnik sohalarda ishlatiladi.

Tarixiy qatlamla Oʻzbek tilining leksik qatlamlari bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, birgalikda tilning boy va rang-barang ifoda imkoniyatlarini yaratadi. Har bir qatlam tilning turli sohalarida oʻziga xos vazifani bajaradi: tub qatlam kundalik hayot soʻzlarini, fors-tojik va arabcha qatlamlar ilm-fan va madaniy soʻzlarni, ruscha va inglizcha qatlamlar esa zamonaviy texnika va ijtimoiy fanlarning terminologiyasini boyitadi.

Bunday koʻp qatlamlilik oʻzbek tilining tarixiy-madaniy ildizlarini, xalqaro aloqalarini va zamonaviy taraqqiyotini aks ettiradi. Shu bilan birga, leksik qatlamlarning integratsiyasi tilning boyligi va zamonaviy talablariga moslashishini taʼminlaydi.

Oʻzbek tili leksikasining tarixiy-etimologik qatlamlari tilning boy madaniy merosi va murakkab rivojlanishini aks ettiradi. Tilimizning asosiy yadro qismini tub turkiy soʻzlar tashkil etsa, fors-tojik va arab tillaridan kirib kelgan soʻzlar madaniy-maʼrifiy, diniy va ilmiy sohalarni boyitgan. XX asr va XXI asrda esa rus va ingliz tillaridan olingan soʻzlar oʻzbek tilining zamonaviy fan, texnologiya va ijtimoiy hayot sohalaridagi lugʻatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Tarixiy qatlamlarning oʻzaro uygʻunligi oʻzbek tilining ifoda imkoniyatlarini oshirib, uning milliy oʻzligini saqlash bilan birga zamonaviy talablarga moslashishiga imkon yaratadi. Shunday qilib, oʻzbek tilining leksik tarkibini oʻrganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki milliy madaniyat va tarixni chuqur anglashda ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdullaev, B. (2003). Oʻzbek tili tarixi. Toshkent: Fan.
2. Muminov, A. (1998). Oʻzbek tilining leksikasi va uning qatlamlari. Toshkent: Oʻzbek tili va adabiyoti.
3. Erkinov, T. (2005). Oʻzbek tilida fors va arab soʻzlari. Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

SHAHAR VA QISHLOQ HUDUDLARIDA NUTQ MADANIYATI FARQLARI: LINGVISTIK EKSPERTIZA ORQALI GEOGRAFIK ANALIZ

Boymuratova O'g'iloy Qaxramon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Geografiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi
boymurodovaogiloy@5gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA: Mazkur ilmiy maqolada shahar va qishloq hududlarida nutq madaniyati o'rtasidagi farqlar lingvistik ekspertiza metodlari yordamida tahlil qilinadi. Nutq madaniyati tilning ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri, samarali va madaniy jihatdan maqbul ishlatilishini ifodalaydi. Shahar va qishloq hududlaridagi nutqiy farqlarni aniqlash, til normalari, uslubiy xususiyatlar, so'z boyligi va kommunikativ strategiyalarni o'rganish orqali amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik, lingvodidaktika va ijtimoiy lingvistika sohalarida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, lingvistik ekspertiza, geografik tahlil, shahar nutqi, qishloq nutqi, uslubiy farqlar, ijtimoiy lingvistika

ABSTRACT: This scientific article analyzes the differences in speech culture between urban and rural areas using methods of linguistic expertise. Speech culture reflects the correct, effective, and culturally appropriate use of language in social and cultural contexts. Identifying speech differences in urban and rural regions is carried out through the study of language norms, stylistic features, vocabulary, and communicative strategies. The results of this research contribute to the development of new approaches in linguistics, language didactics, and sociolinguistics.

Keywords: speech culture, linguistic expertise, geographic analysis, urban speech, rural speech, stylistic differences, sociolinguistics.

АННОТАЦИЯ: В данной научной статье анализируются различия в культуре речи между городскими и сельскими районами с использованием методов лингвистической экспертизы. Культура речи отражает правильное,

эффективное и культурно приемлемое использование языка в социальном и культурном контексте. Выявление речевых различий в городских и сельских регионах осуществляется через изучение языковых норм, стилевых особенностей, словарного запаса и коммуникативных стратегий. Результаты данного исследования способствуют разработке новых подходов в лингвистике, лингводидактике и социальной лингвистике.

Ключевые слова: культура речи, лингвистическая экспертиза, географический анализ, городская речь, сельская речь, стилевые различия, социолингвистика.

KIRISH

Nutq madaniyati – bu tilning ijtimoiy va madaniy kontekstda qo'llanilishi, ya'ni til birliklarining to'g'ri, samarali va madaniy jihatdan maqbul tarzda ishlatilishidir. Nutq madaniyati shaxsning kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi va nutqiy vaziyatlarga moslashish, fikrni aniq ifodalash hamda muloqotda ijtimoiy madaniyatni saqlash imkonini beradi. Har bir hududda, ayniqsa shahar va qishloq hududlarida, nutq madaniyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shahar hududlarida ko'proq rasmiy, ilmiy, badiiy va professional uslublar ustun bo'lsa, qishloq hududlarida esa og'zaki an'analar, mahalliy lahjalar va norasmiy nutq shakllari ko'proq uchraydi.

Shahar va qishloq hududlaridagi nutqiy farqlar nafaqat tilning fonetik, morfologik va leksik jihatlarida, balki stilistik va kommunikativ xususiyatlarda ham seziladi. Masalan, shahar aholisi ko'proq rasmiy va ilmiy atamalarni ishlatadi, til normalariga e'tibor beradi, matn va nutq uslubini vaziyatga moslashtiradi. Qishloq hududlarida esa so'zlashuv ko'proq an'anaviy va norasmiy bo'lib, mahalliy lahjalar, metaforik iboralar va xalq og'zaki ijodining elementlarini o'z ichiga oladi. Bu hududiy farqlar shaxslarning nutqiy xulq-atvori, kommunikativ strategiyalari va jamiyatdagi o'zaro munosabatlariga ham ta'sir qiladi.

Lingvistik ekspertiza shunday farqlarni tizimli ravishda o'rganish imkonini beradi. Bu metod yordamida shahar va qishloq hududlaridagi nutqiy materiallar tahlil qilinadi, fonetik va morfologik xususiyatlar, so'z boyligi, uslubiy jihatlar va kommunikativ strategiyalar aniqlanadi. Shu bilan birga, geografik tahlil hududiy jihatlarini hisobga olgan holda nutqiy farqlarni ko'rsatadi va ular ijtimoiy, madaniy va pedagogik kontekstda qanday namoyon bo'lishini aniqlashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, shahar va qishloq hududlaridagi nutqiy farqlarni o'rganish orqali tilshunoslik, lingvodidaktika va ijtimoiy lingvistika sohalarida samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, mahalliy

lahjalarni saqlash va rivojlantirish, til normalarini o'rgatish va nutq madaniyatini oshirishga hissa qo'shadi. Tadqiqot shuningdek, nutqiy madaniyat va hududiy farqlarni baholashda lingvistik ekspertiza va geografik tahlilning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

Nutq madaniyati shaxsning tilni to'g'ri va samarali ishlatish qobiliyatini ifodalaydi. U kommunikativ kompetensiyaning muhim qismi bo'lib, nutqiy vaziyatlarga moslashish, fikrni aniq ifodalash va muloqotda ijtimoiy madaniyatni saqlash imkonini beradi. Nutq madaniyatining yuqori darajasi shaxsning jamiyatdagi mavqeini oshiradi, ish va ta'lim jarayonlarida muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nutq madaniyati hududiy va ijtimoiy farqlarga ham bog'liq bo'ladi, chunki turli hududlarda ijtimoiy madaniyat va til odatlari turlicha rivojlangan.

Shahar va qishloq hududlaridagi nutqiy farqlar nafaqat fonetik va morfologik, balki leksik, stilistik va kommunikativ jihatlarida ham seziladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shahar aholisi rasmiy va ilmiy atamalarni ko'proq ishlatadi, nutq va matnni vaziyatga moslashtiradi, grammatik va stilistik normalarga e'tibor beradi. Qishloq hududlarida esa og'zaki an'analar, mahalliy lahjalar va metaforik iboralar keng qo'llaniladi.

Shahar hududlarida til normalari qat'iyroq, standartlashtirilgan bo'lib, talaffuz va imlo ko'pincha kitobiy normaga mos keladi. Masalan, Toshkent shahridagi so'zlashuvda talaffuz aniq, fonetik xatolar kam uchraydi. Qishloq hududlarida esa fonetik o'zgarishlar ko'proq, ayrim tovushlar o'zgacha talaffuz qilinadi, mahalliy lahjalar kuchli ifodalanadi. Masalan, Samarqand viloyatidagi qishloqlarda "o'qituvchi" so'zi "o'qituvchi" yoki "o'qitvchi" shaklida talaffuz qilinishi mumkin.

Shahar nutqida leksik boylik keng, zamonaviy va rasmiy atamalar ko'p ishlatiladi. Masalan, "innovatsion texnologiya", "strategik reja", "digital platforma" kabi iboralar kundalik muloqotda qo'llanadi. Qishloq hududlarida esa so'zlashuv ko'proq mahalliy atamalar va an'anaviy iboralarni o'z ichiga oladi, masalan, "bog'bonchilik" o'rniga "bargzorchilik", "maydon" o'rniga "dalachilik" kabi hududiy atamalar uchraydi.

Shahar hududlarida kommunikativ strategiyalar ko'proq rasmiy va formal bo'lib, nutq maqsadga yo'naltirilgan, izchil va argumentativ bo'ladi. Qishloq hududlarida esa kommunikativ strategiyalar ko'proq norasmiy, hissiy va og'zaki an'anaga asoslangan bo'ladi. Misol uchun, shahar maktablarida o'quvchilarning taqdimot nutqlari aniq tuzilgan, mavzuga mos keladi, qishloq maktablarida esa nutq ko'proq hikoya shaklida, mahalliy misollar bilan boyitilgan bo'ladi.

Lingvistik ekspertiza shahar va qishloq nutqini tizimli ravishda o'rganishga imkon beradi. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Semantik tahlil: so'zlarning ma'nosi, kontekstdagi ishlatilishi, hududiy atamalar va metaforik iboralarini aniqlash.

Sintaktik tahlil: jumla tuzilishi, grammatik normaga rioya qilinishi, murakkab va oddiy jumlar nisbati.

Pragmatik tahlil: nutq maqsadi, kommunikativ vaziyatga moslashish, shaxslararo muloqot strategiyalari.

Stilistika tahlili: nutqiy uslub, rasmiy, norasmiy va badiiy uslublar, ularning vaziyatga mosligi.

Lingvistik ekspertiza natijalari shahar va qishloq hududlarida nutqiy farqlarni aniq ko'rsatadi, ularning ijtimoiy va madaniy omillarga bog'liqligini tahlil qilish imkonini beradi.

Geografik tahlil. Geografik tahlil hududiy farqlarni o'rganish orqali nutq madaniyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va madaniy faktorlarni aniqlaydi.

Hududiy lahjalar: har bir hududda talaffuz va leksik o'ziga xoslik mavjud, bu hududiy identifikator sifatida xizmat qiladi.

So'zlashuv uslublari: shahar nutqi ko'proq rasmiy va standartlashtirilgan bo'lsa, qishloq nutqi an'anaviy va og'zaki ifodaga boy.

Kommunikativ strategiyalar: hududiy jihatlar bilan bog'liq ravishda muloqot strategiyalari ham farqlanadi, shahar nutqida argumentatsiya va tasniflash ustun bo'lsa, qishloq nutqida hikoya va dialog ko'proq ishlatiladi.

Geografik tahlil orqali shahar va qishloq hududlarida nutq madaniyatining rivojlanish tendensiyalari, mahalliy lahjalarning saqlanishi va til normalarining qo'llanilishi tahlil qilinadi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Shahar va qishloq hududlaridagi nutq madaniyati farqlarini hisobga olgan holda ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, maktab va oliy ta'lim jarayonlarida nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish, shahar va qishloq o'quvchilarining hududiy nutq xususiyatlarini inobatga olish tavsiya etiladi. Ikkinchidan, lingvistik ekspertiza metodlarini keng qo'llash orqali nutqiy materiallarni tizimli tahlil qilish, hududiy lahjalar, uslub va kommunikativ strategiyalarni aniqlash tavsiya qilinadi. Uchinchidan, mahalliy lahjalarni saqlash va rivojlantirish, ularni ta'lim va madaniy jarayonlarda faol qo'llash, shuningdek, nutq madaniyati bo'yicha

seminar, trening va ilmiy amaliyotlarni tashkil etish zarur. Shu bilan birga, shahar va qishloq hududlarida til normalarini targ'ib qilish va nutqiy xatolarni kamaytirish maqsadida amaliy metodik qo'llanmalar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Shahar va qishloq hududlaridagi nutq madaniyati o'rtasidagi farqlar lingvistik ekspertiza va geografik tahlil yordamida aniqlanishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shahar hududlarida nutq rasmiy, standartlashtirilgan va ilmiy-uslubiy jihatdan boy bo'lsa, qishloq hududlarida nutq og'zaki an'analar, mahalliy lahjalar va norasmiy uslublarga boy. Lingvistik ekspertiza metodlari hududiy farqlarni tizimli o'rganishga, fonetik, leksik, morfologik va stilistik xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi. Geografik tahlil esa hududiy kontekstni hisobga olib nutq madaniyatining shakllanish omillarini o'rganishga yordam beradi.

Shu asosda maktab va oliy ta'limda nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, mahalliy lahjalarni saqlash va targ'ib qilish, lingvistik ekspertiza metodlarini keng qo'llash va hududiy nutqiy farqlarni hisobga olgan holda ta'lim jarayonlarini optimallashtirish muhimdir. Bu tadqiqot natijalari tilshunoslik, lingvodidaktika va ijtimoiy lingvistika sohalarida yangi yondashuvlar ishlab chiqish va nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamroyev, G. (2023). O'quv adabiyotlari matnlarining lingvistik ekspertizasi. Zamonaviy o'zbek tili jurnali, 2(1), 42–49. <https://ziyonet.uz/jurnal/lingvistik-ekspertiza>
2. Qodirova, X. M. (2022). Zamonaviy tilshunoslik masalalari (o'quv qo'llanma). Urganch: Khwarezm Travel.
3. Rayimova, D. A. (2023). Nutq madaniyati va notiqlik san'atining dolzarb masalalari. O'zbek tili va adabiyoti, 6-son, 58–65. <http://uzbtiliadabiyoti.uz/nutq-madaniyati>
4. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. (2021). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. <https://lex.uz/uz/docs/otm-metodik>
5. Til va adabiyot.uz. (2022). O'zbek stilistikasida beshta nutq uslubi ajratiladi. O'zbek tili va adabiyoti, 4-son. <https://tilvaadabiyot.uz/stilistika>

ONA TILI DARSLARIDA MORFEM LUG'ATLARNING O'QUV MATERIALI SIFATIDA O'RNI

O'razbayeva Hulkar, Rustamova Marjona

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalish talabalari

urazbayevahulkar@gmail.com

mrustamova222@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tog'oymurod Bekmurodov

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarida morfem lug'atlarning ta'limiy ahamiyati, ularning o'quvchilar til sezgisi, so'z tuzilishi va ma'no taraqqiyotini o'rganishdagi o'rni yoritiladi. Morfem lug'atlarining turlari, ularni dars jarayonida qo'llash usullari hamda tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini bog'lovchi vosita sifatidagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ona tili, morfem, morfem lug'at, so'z yasalishi, o'quv material, lug'at bilan ishlash.

Annotation. This article discusses the educational value of morpheme dictionaries in native language classes, their role in the study of students' language perception, word structure, and meaning development. The types of morpheme dictionaries, methods of their use in the teaching process, and their potential as a tool connecting theoretical and practical aspects of linguistics are analyzed.

Keywords: native language, morpheme, morpheme dictionary, word formation, educational material, working with a dictionary.

Аннотация. В статье рассматривается образовательная ценность словарей морфем на уроках родного языка, их роль в изучении языкового восприятия учащихся, структуры и значения слова. Анализируются виды словарей морфем, методы их использования в учебном процессе, а также их потенциал как инструмента, связывающего теоретические и практические аспекты лингвистики.

Ключевые слова: родной язык, морфема, морфемный словарь, словообразование, учебный материал, работа со словарем.

Bugungi kunda ona tili darslarida tilning tuzilish qatlamlarini o'rgatish, ayniqsa so'z yasallishini tahlil qilish jarayonida samarali o'quv vositalarini qo'llash dolzarb hisoblanadi. Shunday manbalardan biri - morfem lug'atlaridir. Ular so'zning eng kichik ma'noli qismlarini izchil ko'rsatib, o'quvchi uchun lug'aviy va grammatik bilimni birlashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi ta'lim jarayonida ona tili fanini o'qitishda nafaqat leksik, balki morfologik qatlamni chuqur o'rganish, o'quvchilarni tilning ichki tuzilishini anglashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning eng kichik ma'noli bo'lagi - morfemni to'g'ri tushunish va tahlil qilish o'quvchining lug'aviy boyligini kengaytiradi, so'z yasallish qonuniyatlarini puxta egallashga yordam beradi.

Ona tili darslarida morfem lug'atlardan foydalanish o'quvchilarda lingvistik tafakkurni shakllantirish, tilda mavjud yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning funksional xususiyatlarini o'zlashtirish, so'z tuzilishining mohiyatini tushunishga xizmat qiladi. Morphem lug'atlar o'quvchiga so'zning tarkibini, ildiz va qo'shimchalar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatib, nazariy bilimni amaliy ko'nikmaga aylantirishga yordam beradi.

Shuningdek, bunday lug'atlar o'quvchilarni mustaqil izlanishga, yangi so'zlar yasashda grammatik va semantik mantiqni to'g'ri qo'llashga o'rgatadi. Shu bois morfem lug'atlarni dars jarayoniga integratsiya qilish, ularni elektron platformalarda tatbiq etish va interaktiv mashg'ulotlarda qo'llash bugungi ta'limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Morfem lug'atlarning mazmuni.

Morfem lug'ati - so'zning ildizi, yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalari, ularning ma'no va vazifasini izohlovchi maxsus manbadir. U nafaqat morfologik ma'lumot beradi, balki so'zning tarixiy rivoji, ma'no kengayishi yoki torayishini ham ko'rsatishi mumkin. Masalan, *-dor*, *-goh*, *-lik* kabi qo'shimchalarning yasovchilik imkoniyatlari bir joyda jamlanadi.

Nazariy bilimni amaliyot bilan bog'laydi. O'quvchi morfemni kitobiy ta'rifdan emas, real misollar orqali o'rganadi. So'z yasallish mantiqini ochadi. Ildiz va qo'shimchani to'g'ri ajratish orqali yangi so'zlarni mustaqil hosil qilish ko'nikmasi shakllanadi. Savodxonlikni oshiradi. Morphem tuzilishini anglash to'g'ri yozish, imlo qoidalarini eslab qolish va talaffuzni aniqlashni yengillashtiradi. Til sezgisini rivojlantiradi. O'quvchilar morfemalarni qiyosiy tahlil qilib, tilning ichki mantiqini his etadi.

Darsda qo'llash usullari

Morfem tahlili mashqlari: lugʻatdagi soʻzlarni ildiz va qoʻshimchalarga ajratish. Yangi soʻz yasash topshiriqlari: bir ildiz asosida turli qoʻshimchalar bilan yangi birliklar yaratish. Elektron lugʻatlar bilan ishlash: qidiruv tizimidan foydalanib, qoʻshimcha maʼnosini tez topish. Mini-loyiha ishlari: maʼlum bir qoʻshimchaning qoʻllanish doirasini matnlardan izlab, kichik hisobot tayyorlash.

Qiziqarli jihat — morfem lugʻatlarda tovush oʻzgarishlarini lingvistik modellashtirish muhim boʻlishi mumkin. Masalan, H. Berdiyeva tomonidan tayyorlangan maqolada morfem lugʻatlarda tovush oʻzgarishlarini modellashtirish masalalari, unga zaruriy aspektlar va ilmiy manbalar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Shavkat Rahmatullayev “Oʻzbek tili morfem lugʻati” nomli asarida keltirilgan baʼzi soʻzlarning hozirgi oʻzbek adabiy tili qoidalariga mos tahliliga oid tadqiqotlar ham mavjud.

Ona tili darslarida morfem lugʻatlar tugul, faqat leksik lugʻatlar bilan cheklanish yetarli emas. Morfem lugʻatlar tilning ichki tuzilishini — soʻzlarning ildiz, qoʻshimcha va bogʻlanish tarkibini - oʻquvchilarga ochib beradi va morfologik tahlilni oʻrgatadi. Shu orqali oʻquvchilar lingvistik fikrlash, tahliliy qobiliyat va til bilimini chuqurlashtirish imkoniyatiga ega boʻladilar. Biroq, morfem lugʻatlarni samarali ishlatish uchun dars vaqti, lugʻat manbalari, oʻqituvchilarning tayyorgarligi va lugʻatlarning qamrovi kabi cheklovlar mavjud. Shuning uchun morfem lugʻatlar ona tili darsligi bilan integratsiyalashgan holda, interaktiv metodlar bilan boyitilgan shaklda, oʻqituvchilar va tilshunoslar hamkorligida doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim.

Xulosa: Morfem lugʻatlar ona tili darslarining nafaqat nazariy, balki amaliy qismida ham muhim oʻrin tutadi. Ular soʻz yasashini tizimli oʻrganishga, oʻquvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga, savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar bilan uygʻunlashgan morfem lugʻatlar taʼlim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Morfem lugʻatlar ona tili darslarida oʻquvchilarning soʻz yasashi, morfologik tuzilish va til sezgisi haqidagi bilimlarini chuqurlashtiruvchi muhim oʻquv manbaidir. Ular yordamida oʻquvchilar til birliklarini tahlil qilish, soʻzning maʼnosini morfem tarkibi orqali anglash, yangi soʻzlar hosil qilish va imlo qoidalarini puxta oʻzlashtirish imkoniga ega boʻladilar. Bundan tashqari, morfem lugʻatlar oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga, tahliliy yondashuvga va til materialiga ilmiy nuqtai nazardan qarashga oʻrgatadi. Dars jarayonida ularni interaktiv metodlar bilan uygʻunlashtirish, elektron shaklda joriy etish va oʻqituvchilarning

kasbiy mahoratini oshirish orqali bu vositalarning samaradorligini yanada kuchaytirish mumkin. Shunday qilib, morfem lug'atlar — ona tili o'qitish metodikasida nazariya va amaliyotni bog'lovchi, o'quvchilarning til sezgisini rivojlantiruvchi, ta'lim sifatini oshiruvchi dolzarb o'quv material sifatida alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
2. Bozorov O. O'zbek tilida so'z yasalishi. – Toshkent: Fan, 2021.
3. Qosimova M., Yoqubova D. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2020.
4. Uzwords.uz – O'zbekiston Respublikasi elektron morfem lug'at portali.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/shavkat-rahmatullayevning-o-zbek-tili-morfem-lug-ati-kitobidagi-ayrim-so-zlarning-bugungi-morfemik-tahlili?>

HUDUDIIY DIALEKTLAR VA ULARNING ADABIY TILDA AKS ETISHI

Altinbekova Zarina Nurjan qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

zarinaaltinbekova07@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda tilning transformatsiyaga uchrashi, yangi grafemalar va skriptlar orqali tilning virtual muhitda yangicha ko'rinishlari shakllanishi masalalari yoritiladi. Yozma nutqda shakllanayotgan qisqartmalar, emoji va stikerlarning lingvistik xususiyatlari, shuningdek, ingliz tilidan kirib kelayotgan elementlarning o'zbek tilidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada tilshunoslik nazariyalariga tayangan holda, ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi yozuv shakllari ham milliy til taraqqiyotiga ijobiy va salbiy ta'siri jihatidan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq, til transformatsiyasi, grafema, skript, emoji, internet lingvistika, yozuv tizimi.

ABSTRACT: This article analyzes the factors influencing the formation of regional dialects of the Uzbek language, their linguistic features, and their relationship with the literary language. The process of dialects being reflected in the literary language is examined from historical, social, and linguistic perspectives. The paper also highlights the role of dialects in artistic literature and their contribution to enriching folk speech and cultural heritage. Based on existing scholarly works and the views of linguists, the study presents analytical insights as well as personal reflections.

Keywords: regional dialect, literary language, vernacular, linguistic feature, folk oral creativity, language development.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются факторы формирования региональных диалектов узбекского языка, их лингвистические особенности, а также взаимосвязь с литературным языком. Процесс отражения диалектов в литературном языке рассматривается с исторической, социальной и лингвистической точек зрения. Кроме того, освещается роль диалектов в

художественной литературе, их значение в обогащении народной речи и культурного наследия. В ходе исследования, опираясь на существующую научную литературу и мнения лингвистов, представлены аналитические и личные наблюдения.

Ключевые слова: региональный диалект, литературный язык, говор, лингвистическая особенность, устное народное творчество, развитие языка.

KIRISH

Til jamiyatning eng asosiy ijtimoiy hodisalaridan biri sifatida nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniy va ma'naviy qiyofasini belgilovchi omildir. O'zbek adabiy tili xalqning umumiy muloqot vositasi bo'lsa-da, uning tarkibida turli hududlarda shakllangan dialekt va shevalar ham mavjud. "Adabiy tilni xalq nutqidan, xalq nutqini esa hududiy lahja va shevalardan ajratib bo'lmaydi" [1; 45]. Shu bois hududiy dialektlarni o'rganish, ularning adabiy tilga ta'sirini anglash tilshunoslikning muhim masalalaridan biridir.

ASOSIY QISM

Dialektlarning shakllanishi va tasnifi. O'zbek tilidagi dialektlar qadimiy turkiy qabila tillarining rivoji, keyinchalik esa turli siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar ta'sirida shakllangan. Tilshunoslar dialektlarning shakllanishida uch asosiy omilni ajratib ko'rsatadi: tarixiy-etnik omillar, geografik omillar va ijtimoiy omillar. Masalan, qadimgi qarluq, qipchoq va o'g'uz qabilalarining til xususiyatlari bugungi o'zbek shevalarida o'z izini qoldirgan.

O'zbek dialektlari an'anaviy ravishda uch katta lahja guruhiga bo'linadi:

Qarluq lahjasi – Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shevalari;

Qipchoq lahjasi – Qoraqalpog'iston, Sirdaryo va Jizzax hududlari;

O'g'uz lahjasi – Xorazm va unga yaqin tumanlar.

Har bir guruh o'ziga xos fonetik, morfologik va leksik belgilar bilan farqlanadi. Masalan, qarluq lahjasida hozirgi adabiy til fonetik me'yorlari shakllangan bo'lsa, qipchoq shevalarida q tovushining x ga aylanishi ("qiz" – "xiz"), o'g'uz shevalarida esa o unlisining u ga o'zgarishi ("ol" – "ul") kuzatiladi [2; 66].

Dialektlarning adabiy tildagi o'rni. Adabiy tilning fonetik va grammatik me'yorlari asosan qarluq lahjasi asosida shakllangan. Lekin uning lug'at boyligida qipchoq va o'g'uz lahjalaridan ham ko'plab unsurlar mavjud. Bu esa adabiy tilning keng xalq ommasi uchun tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Masalan, "to'n" (ust kiyim)

soʻzi adabiy tilda saqlangan boʻlsa-da, uning ayrim shevalardagi shakli “chopon” koʻrinishida ham ishlatiladi.

Adabiy tilda ayrim sheva unsurlari oʻzligini yoʻqotmay, balki sinonimik qatlam sifatida yashab qolgan. Bu holat adabiy tilning boyishiga xizmat qiladi. “Shevalardan kelib chiqqan soʻzlar adabiy tilning semantik qatlamini kengaytiradi” [3; 121].

Badiiy adabiyotda dialektlarning qoʻllanilishi. Badiiy adabiyot xalq ruhiyatini ifoda etuvchi eng muhim vositadir. Unda dialekt va sheva unsurlari qahramonlarning ijtimoiy mavqeini, yashash muhitini, dunyoqarashini ifodalashda juda muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Qodiriy “Oʻtkan kunlar” romanida Toshkent shevasidan olingan ayrim soʻzlarni kiritib, obrazlarni tabiiy koʻrsatishga erishgan. Masalan, “duppa” (bosh kiyim), “qop-qora” kabi ifodalar xalq nutqidan olingan.

Gʻafur Gʻulom asarlarida Toshkent va Fargʻona shevalariga xos soʻzlar orqali qahramonlar nutqi jonlantiriladi.

Oʻtkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” romanida mahalla hayotini koʻrsatishda Toshkent shevasidan foydalangan.

Sheva unsurlarining badiiy matnda qoʻllanishi qahramonlarni bir xil qilib qoʻymaydi, balki ularning individual nutqini koʻrsatib, oʻquvchi uchun yanada jonli tasvir hosil qiladi.

Dialektlarning ijtimoiy-lingvistik ahamiyati. Dialektlar xalqning ijtimoiy turmush tarzini aks ettiruvchi lingvistik manba sifatida qadrlanadi. Har bir hududiy dialektda oʻsha xalqning turmushi, kasbi, urf-odati bilan bogʻliq soʻzlar yashab qolgan. Masalan, Xorazm shevasida baliqchilik va dehqonchilikka oid koʻplab qadimiy soʻzlar, Fargʻona shevasida esa bogʻdorchilikka oid terminlar uchraydi.

Lingvistika nuqtayi nazaridan, dialektlarni oʻrganish orqali nafaqat tilning ichki tizimi, balki xalqning qadimiy tarixi va madaniyatini ham bilish mumkin. Shu bois dialektologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida doimiy ahamiyat kasb etadi.

Dialekt va milliy meros. Shevalarda xalq maqollari, matallar, topishmoqlar va qoʻshiqlarning qadimiy variantlari saqlanib qolgan. Masalan, Fargʻona vodiysi folklorida uchraydigan “Soʻr soʻzlagan – suyak sindirmas” maqoli yoki Xorazm shevasidagi “Oʻtirgan joydan oʻt chiqmas” iborasi xalqning nutqiy tafakkurini namoyon etadi.

Dialektlarning saqlanishi milliy merosni asrab qolish deganidir. Zero, “Shevalar xalq tarixining ogʻzaki xotirasi boʻlib, ular orqali oʻtmishning til qatlamlari hozirgacha

yetib kelgan" [4; 53]. Shu sababli shevalarni faqat "adabiy tildan og'ish" sifatida emas, balki milliy xazinani boyituvchi omil sifatida baholash lozim.

Xulosa qilib aytganda, hududiy dialektlar adabiy tilning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ular adabiy tilni boyituvchi, xalqning tarixiy-madaniy xotirasini saqlovchi manba sifatida qadrlanishi lozim. Dialektlar bilan adabiy til o'rtasidagi munosabatni qarama-qarshilik sifatida emas, balki o'zaro boyituvchi jarayon sifatida ko'rish zarur. Shu orqali o'zbek tili yanada mukammal, rang-barang va milliy ruhga boy til sifatida rivojlanishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov N. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. Jo'raev M. Til va madaniyat uyg'unligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
4. G'aniyev F. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2008.
5. Qodirov A. Sheva va adabiy til munosabatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
6. Sodiqov M. O'zbek xalq shevalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
7. Karimov H. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Noshir, 2018.

ONA TILI DARSLARIDA SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI ORQALI O'QUVCHILAR LUG'ATINI BOYITISH

Gulyamova Xolida

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti

Rustamova Dildora

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

rdstn@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda lug'at ustida ishlash texnologiyalarining ilmiy-metodik ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: leksik-semantik tahlil, innovatsion texnologiya, sintaktik tuzilma, kommunikativ yondashuv, leksik birlik, lingvistik tahlil, mustaqil va mantiqli fikrlash.

Annotation

This article discusses the scientific and methodological significance of vocabulary-based teaching technologies in developing students' communicative skills during the process of mother tongue education.

Keywords: lexical-semantic analysis, innovative technology, syntactic structure, communicative approach, lexical unit, linguistic analysis, independent and logical thinking

Аннотация

В данной статье рассматривается научно-методическое значение технологий работы со словарем в процессе обучения родному языку, направленных на формирование коммуникативных навыков учащихся.

Ключевые слова: лексико-семантический анализ, инновационные технологии, синтаксическая структура, коммуникативный подход, лексическая единица, лингвистический анализ, самостоятельное и логическое мышление.

Jahon miqyosida davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayotgan ta'lim mazmunida til va tafakkur uyg'unligiga erishishning innovatsion texnologiyalari orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da "Mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga

sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvoffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Lug'at ustida ishlash ona tili o'qitish muammosi bilan shug'ullangan metoistlar doimiy e'tiborida bo'lgan. "Ona tili o'qitish metodikasi"⁴⁶ darsligida butun bir bob shu masalaga ajratilgan.

Professor N. Mahmudovning "Nutqning ta'sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay "yuqumli" tarzda yetkazish imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo'lish so'z boyligiga bog'liq. Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so'z ma'nolari, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k.)dan qay darajada foydalanganlik bilan belgilanadi. Buning uchun esa nutq tuzuvchida til vositalarining boy va faol zaxirasi mavjud bo'lishi kerak"⁴⁷ degan fikri zamonaviy ta'limga kommunikativ yondashuvning maqsadi bilan uyg'unlik kasb etadi. Bu ona tili ta'limi oldiga o'quvchilarni faol muloqotga tayyorlash, ularni nutqiy faoliyatning subyekti sifatida shakllantirish vazifasini qo'yadi.

Borliq, jamiyat hayoti haqidagi tushunchalarni o'zlashtirish, ularga munosabat o'quvchilar nutqini matn tahlili orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarning mustaqil va mantiqli fikrlash ko'nikmalari ham matnda bayon qilingan ma'lumotlar asosida shakllantiradi. Ona tili darslarida turli janrdagi matnlarning lingvistik tahlili unda ifodalangan voqelikni anglashga qaratiladi.

O'quvchilar matn mazmunini, uning g'oyasini o'zlashtiradi. Lingvistik tahlil matndagi leksik birliklar izohidangrammatik bilimlar ustida fikr yuritadi, shu jarayonda til birliklarini, gapning qurilishini o'zlashtiradi. O'qituvchining o'quvchilarga matnni o'qib, ma'nosini tushunmagan so'zlarni aniqlatishi, tushuntirilishi rejalashtirilgan so'zlarni doskaga yozib, ma'nosini so'rashi ularda matn tiliga sezgirlikni tarbiyalaydi. Badiiy asarning lingvistik tahlilida ma'nodosh so'zlar, shakldosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, atamalar, eskirgan so'zlar ustida ishlanadi. Bular ham so'z ma'nolarini chuqurroq anglashga, o'quvchi lug'atini boyitishga, nutqining aniq va ravon bo'lishiga olib keladi.

⁴⁶ A.G'ulomov, M.Qodirov. Ona tili metodikasi. –T.: O'qituvchi. 1998.

⁴⁷ N.Mahmudov. Nutq boyligi. Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar. –Jizzax.,2011. –22-bet.

Lugʻat ustida ishlash oilada, ota-onalarning bolaning kundalik hayotda uchraydigan narsa va hodisalar haqida “Bu nima?” deb soʻrashidan boshlanadi. Maktab taʼlimi bolaning jamiyat hayotiga nutqi orqali kirib borishini taʼminlaydi. Shu jihatdan, ona tili va adabiyot darslarida oʻrganiladigan matnlarning leksik-semantik tahlili oʻquvchilar lugʻatini boyitishda keng imkoniyatlarga ega.

Maʼlumki, kommunikativ yondashuvning ona tili taʼlimining asosiy tamoyiliga aylanishi uni oʻqitish jarayonining oʻqituvchi va oʻquvchilarning faol muloqoti asosida tashkil etishni taqozo etadi. Demak, nutqiy jarayon faoliyatning subyekt+ subʼyekt shaklida tashkil etish, “Rolli oʻyin”, “Munozara”, “Aqliy hujum” kabi interfaol taʼlim texnologiyalari va metodlar oʻquvchilar lugʻat zahirasini boyitishda, ogʻzaki nutqini rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi.

Matn asosida lugʻat ustida ishlashda quyidagi kabi savol-topshiriqlardan foydalaniladi:

-Matnni oʻqing. Matndan nima haqidai maʼlumotga ega boʻldingiz?

-Matnga nima uchun sarlavha qoʻyilgan?

-Matnni qayta oʻqing. Siz unga qanday sarlavha qoʻygan boʻlardingiz? Nima uchun?

-Matnda nechta xat boshi bor? Matnni siz necha qismga ajratgan boʻlardingiz?

Ichingizda oʻqing. Matnni qismlarga boʻling.

-Matnni nimaga asoslanib qismlarga ajratdingiz?

-Matnga reja tuzing. Matnga reja tuzishda nimaga asoslandingiz?

-Matnni oʻqing, qayta hikoyalashga tayyorlaning.

-Qayta hikoyalashda qaysi soʻzlarni qoʻllashingiz kerak boʻladi? Ularni aniqlang.

Qayta hikoyalashda qoʻllanmagan soʻzlariga va matn mazmunini taʼsirchan ifodalash ichun zarur boʻlgan soʻzlarga oʻquvchilar diqqati qaratiladi. Shundan soʻng lugʻat ustida ishlash oʻquvchilarni xushyor torttiradi.

Baxt shunday narsaki, borligida uni kishi sezmaydi, yoʻqligida orzu qiladi. Baxtli odam “Men baxtliman” deb olamga *jar solmaydi*. Inson hech qachon baxtga toʻymagan, “Baxtliman” degan emas. Aslida, hayotda birorta maqsad bilan yashashning oʻzi – baxt. Maqsadsiz yashash shunday *koʻrgilikki*, u hech kimning boshiga tushmasin! Kishida maqsad boʻlsa, unga *erishish yoʻlida kurashish, mashaqqat chekish, taʼna-dashnomlar eshitib, kuyib-yonib yurish* ham baxt. Men kinochi boʻlsam, “*Baxtiyorlik lahzasi*” degan film yaratgan boʻlar edim. Bu film *baxt lahzalari majmuasidan* iborat boʻlar edi. Unda marraga yetgan sportchining gʻalabadan *charaqlagan koʻzlarini, yerga qoʻngan kosmonavtning kulgusini*, sheʼr yozib tugatgan

shoir quvonchini, chet eldan qaytayotgan sayohatchining mamlakatimiz chegarasini kesib o'tgandagi his-hayajonini, uzoq judolikdan so'ng bolasiga yetishib quchoqlagan onaning ko'z yoshlarini, o'z mehnat samarasini ko'rib, mamnun bo'lgan kishi sevinchini... suratga tushirgan bo'lardim. (Erkin Vohidov)

Quyidagi so'zlar asosida lug'at ishi tashkil etiladi: *ta'na-dashnom – pand-nasihati, malomat; jar solmoq – baland ovoz bilan e'lon qilmoq, majmua – to'plam, ko'rgilik – kishi hayotida yuz bergan erk-ixtiyorida tashqari ko'ngilsiz voqea.*

O'quvchilarga "Izohli lug'at" va "Imlo lug'ati"dan foydalanish o'rgatiladi, ular asosida so'z ma'nolarini izohlaydilar. Bunday so'zlarni daftarlariga yozdirib borish foydadar xoli bo'lmaydi.

O'quvchilarning lug'at zahirasini boyitadigan, nutqning ta'sirchanligini oshiradigan so'zlar ma'nodosh so'zlardir. Masalan:

Oftob chiqdi, **quyosh** chiqdi, kun chiqdi,

Mehru **shams-u xurshidi** gardun chiqdi.

Erkin Vohidov mazkur misralarida sinonimlardan foydalanib nutqning ta'sirchanligini hamda til taraqqiyotini o'zida aks ettirgan.

Bir zamon bolalar uchun aytilgan shu jo'ngina va g'o'rgina ikki satrning o'zida quyoshning oltita nomini topasiz. Sanoqni yana davom ettirish mumkin. Osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, ko'k... bular daf'atan xayolga kelganlari xolos! Arsh, davvor singari kam ishlatiladigan xos so'zlar ham sanalsa, ro'yxat yanada uzayadi.

O'quvchilarga o'zbek tilida ma'nodosh so'zlarimizning ko'pligiga sababni ixohlash ham ularda tilga bo'lgan qiziqish va e'tiborni kuchaytiradi. O'zbek tili 3 daryodan suv ichgan. Diniy, ilmiy, ijtimoiy atamalarimiz asosan arab tilidan; ko'pgina ish qurollarimiz, jumladan, xokandoz, dastshu, jomashu, dazmol, qog'oz kabi hunarmandlikka oid so'zlarimiz, shuningdek, yuksak she'riy uslubga xos so'zlar fors tilidan kirib kelgan. Jumladan, arabcha Alloh, yonida forsha Xudo, turkiy Tengri so'zlarimiz ham borki, ularni yurak ham, qalb ham, dil ham deymiz. Arabcha ism, forsha nom, o'zbekcha ot – uchovi ham o'zimizniki. Til, zabon, lison bizda shu sababdan beqiyos boy va rangli⁴⁸.

O'quvchilarga mustaqil bajarishlari uchun qiziqarli mashqlar tavsiya etilsa, ularda so'z bo'lgan bo'lgan e'tibori ortadi.

"Ming bir so'zni bilaman" izohli lug'atida berilgan quyidagi so'zlarga to'g'ri keluvchi ma'nolarni moslashtiring.

Pista – Asralishi kerak bo'lgan narsalar saqlanadigan buyum.

⁴⁸ Abdulxay Sobirov. Til va adabiyot ta'limi. jurn. 2003.1-soni. 11-13-betlar.

Lahza – Tog'larda o'sadigan past bo'yli daraxtning qobiqli danagi.

Ekin – Ko'z ochib-yumguncha o'tgan vaqt.

Ibrat – Hosil olish uchun ekilgan, urug'dan unib-o'sgan o'simlik.

Sandiq – odamlar uchun namuna.

Mana shunday qiziqarli mashqlar orqali o'quvchilar izohli lug'at nima ekanligini, nima uchun kerakligini, qanday maqsadda foydalanish lozimligini bilib oladilar. So'zlarning ma'nosini teran anglaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tilning leksik birliklari rang-barang. Ular matnda o'z jilosini ko'rsatadi. Shuning uchun ham matn asosida leksik birliklar yuzasidan tashkil etiladigan mashqlar so'z ma'nosini oddiy izohlashdan iborat bo'lmasdan, ularni so'z olamiga olib kiruvchi, ularda so'zga bo'lgan e'tiborni kuchaytiruvchi, uni o'zlashtirish mas'uliyatini hiz qilishga olib keluvchi xarakterda bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.A. G'ulomov, M. Qodirov. *Ona tili metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1998.
- 2.N. Mahmudov. *Nutq boyligi. Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar*. – Jizzax, 2011.
- 3.Abdulxay Sobirov. *Til va adabiyot ta'limi* jurnali. – 2003. – №1. – 11–13-betlar.
4. M. Asqarova. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan, 2010.
5. N. Madrahimova. *Ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
6. Sh. Shodmonova. *Ta'lim jarayonida kommunikativ yondashuvning metodik asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
7. H. Doniyorova. *Leksik-semantik tahlilning o'quvchilarning nutq rivojiga ta'siri*. – *Til va adabiyot ta'limi* jurnali, 2020, №3, 42–45-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *Harakatlar strategiyasi* (2017–2021-yillar) hujjati. – www.lex.uz

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASRIDA NEOLOGIZMLAR VA YANGI TILSHUNOSLIKNING RAQAMLI AXBOROT YUZAGA KELTIRADIGAN MUAMMOLARI

G'aniyeva Asila Shokir qizi

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

asilashokirovna24@gmakil.com

Ilmiy rahbar: Tog'oymurod Bekturodov

Annotatsiya. Bu maqolada XXI asrdagi raqamli rivojlanish natijasida tilshunoslikdagi o'zgarishlar, zamonaviy texnologiya va ijtimoiy tarmoq messengerlarining foydali va zarali jihatlari, hamda bugungi kunda keltirib chiqayotgan muammolari yoritilgan, neologizmlarning til taraqqiyotidagi o'рни va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: neologizm, zamonaviy gadjetlar, raqamli texnologiyalar, emoji.

Annotation. This article discusses the changes in linguistics as a result of digital development in the 21st century, the useful and harmful aspects of modern technology and social network messengers, as well as the problems they cause today, and reveals the role and importance of neologisms in language development.

Keywords: neologism, modern gadgets, digital technologies, emoji.

Аннотация. В статье рассматриваются изменения в лингвистике, вызванные развитием цифровых технологий в XXI веке, полезные и вредные аспекты современных технологий и социальных сетей, а также проблемы, которые они создают сегодня, а также раскрывается роль и значение неологизмов в развитии языка.

Ключевые слова: неологизмы, современные гаджеты, цифровые технологии, эмодзи.

XXI asr - axborot texnologiyalari, raqamli kommunikatsiya va global integratsiya asri sifatida tilshunoslik sohasiga ham qator o'zgarishlar olib keldi. Bugungi kunda til nafaqat insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi, balki raqamli muhitda mavjud bo'lgan dinamik tizim sifatida ham shakllanmoqda. U faqatgina kommunikativ aloqa tizimida emas, jamiyat taraqqiyotida ham qator o'zgarishlar olib keldi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy gadjetlarning tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida yangi

soʻzlar, qisqartmalar, emoji va boshqa kommunikativ vositalar til tizimiga kirib kelmoqda.

Til tarkibidagi yangi paydo boʻlgan soʻzlar avval pasiv keyin esa aktiv lugʻatlar tarkibiga kiritiladi. Keyinchalik katta lugʻatlardagi soʻzlar qatoridan joy oladi. "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" va boshqa tillarga oid lugʻatlar muntazam ravishda yangilanib boradi va bu yangilanishlarga sabab boʻladigan asosiy narsa til tarkibiga kirib keladigan yangi soʻzlardir. Yangi soʻzlarning turli omillar sababli paydo boʻlishi va passiv holatdan aktiv holatga oʻtish jarayoni toʻxtovsiz davom etadi. [1: 78].

XXI asr - axborot texnologiyalar, davlatlararo ijtimoiy hankorlik, internet, texnika va zamonaviy gadjetlar tobora taraqqiy choʻqqisini zabt etgan bir zamonda yashayapmiz. Bu rivojlanishlar, nafaqat, texnika, biznes sohalarida, balki tilshunoslikda ham qator oʻzgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan tilshunoslikda yangi soʻzlar va shu soʻzlarning orqasidan yangi muammolar paydo boʻldi. Tilshunoslik tub oʻzgarishlarga yuz tutdi. Tilning oʻzgarishi tezlashdi, yangi soʻzlar, qisqartmalar va emoji kabi vizual muloqot vositalari boshqalar kundalik soʻzlashuvimizga singib ulgurdi. Bunday oʻzgarishlar til tizimi, yozma va ogʻzaki nutq oʻrtasidagi farqlar, tarjima jarayoni va kommunikatsiya usullariga taʼsir koʻrsatmoqda.

Bu jarayon, bir tomondan, tilning boyishiga, uning lugʻaviy tarkibining kengayishiga sabab boʻlayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, milliy tilning sofliğiga, yozma va ogʻzaki nutq madaniyatiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan bevosita kirib kelayotgan texnik terminlar va internet jargonlari oʻzbek tilining fonetik, morfologik va leksik tizimida sezilarli oʻzgarishlarni yuzaga keltirmoqda. [2: 90].

Neologizmlar - zamon va texnologik taraqqiyot bilan bogʻliq holda paydo boʻladigan yangi soʻzlar va tushunchalar - hozirgi davr tilshunosligi oldiga yangi ilmiy vazifalarni qoʻymoqda. Tilshunoslar oldida turgan asosiy masala - bu yangi soʻzlarning oʻzbek tili meʼyorlariga mos muqobillarini yaratish, ularning toʻgʻri qoʻllanishini yoʻlga qoʻyish hamda tilning tabiiy rivojlanishini taʼminlashdir. Shu sababli, axborot texnologiyalari davrida neologizmlarning oʻrni va ularning til tizimiga taʼsirini oʻrganish hozirgi oʻzbek tilshunosligining eng dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Neologizmlar (yun. neos - yangi, logos - soʻz) - jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo boʻlgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo boʻlgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt oʻtgach, ular "yangilik" xususiyatini yoʻqotib, odatda, faol soʻzlar qatoriga oʻtadi.

Masalan, o'zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, reyting, tender so'zlari hozirgi kunda umumiste'moldagi so'zlarga aylanmoqda. Tildagi umumiy Neologizmlar bilan bir qatorda individualuslubiy yoki okkazonal Neologizmlar ham mavjud. Bunday Neologizmlar mualliflar tomonidan ma'lum bir kontekstda uslubiy talab asosida yaratiladi.

Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash (nominativ) vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda, odatda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo'lish yo'llari xilma-xil bo'lib, ular tilning mavjud lug'aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so'z yasash yo'li, shuningdek, mavjud so'zning lug'aviy ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan va boshqa tildan so'z qabul qilish orqali hosil qilinadi.

Hozirda tilshunoslikdagi katta muammolardan biri – neologizmlardir. Bizni oldimizda ikkita bajariladigan ish mavjud bular: hozirda muomalada bo'lgan neologizmlarni o'zbek tilidagi muqobiliga almashtirish va bu muqobilning muomalada ijobiy qabul qilinishiga erishish. Ikkinchidan, texnika asrida tilimizning sofliğini saqlash maqsadida keyinchalik kirib kelayotgan neologizmlarni muomalaga kirmasdan ilgari o'zbekcha muqobilini yaratish va bu ishni amalga oshirishda tilimizni rivojlratiradigan barcha tashkilotlarga birdek ma'suliyat yuklashdir.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ushbu muammolar yuzaga kelishida ta'siri katta. Internetdagi turfa ma'lumotlar, tillarning globallashuvi turli tillarni va ulardagi hammaga ma'lum va mshhur bo'lgan so'zlarni aralashtirib yubormoqda. Afsuski. bu muammolar faqat og'zaki nutqqa putur yetkazish bilan cheklanib qolmayapti. Ijtimoiy tarmoqlarda (Telegram. Snapchat, Facebook, Instagram, TikTok, Twitter) qisqa va tezkor muloqot va xabar shakllari rivojlandi, bu esa yozma nutqning soddalashishiga sabab bo'lmoqda. Nafaqat soddalashish, balki yoshlar orasida harflarni o'zlariga mos bo'lgan boshqa bir belgilar bilan almashtirib olganliklari (**sh** harfi o'rniga **w**, **ch** harf birikmasining muqobili sifatida esa **c** belgilaridan keng foydalanilmoqda) ham ba'zi hollarda ko'zga tashlanib ham qoladi. Bundan tashqari ommaviy internet muloqoti so'zlarning qisqartirilishiga ham olib keldi.

Bu keltirayotgan misollar shuni ko'rsatadiki, raqamli kommunikatsiya natijasida yozma va og'zaki nutq bir-biriga yaqinlashib bormoqda. Ham yozma, ham og'zaki nuqtning savodxonlik va imlo qoidalariga putur yetkazmoqda. Mobil xabarlarda, ya'ni ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar jarayonida asl kelib chiqishi og'zaki nutqqa xos qisqa gaplar, muloqot va hissiyot vositalaridan foydalanib suhbatlashish ham odat tusiga aylanib qolmoqda. Ulardan ham ko'proq tarqalgan yana bir virtual olamning

vositasi hisoblangan emoji, stiker va giflar ham muloqot quroliga aylanib qoldi. Bu vositalarning yomon tomoni shundaki, turli hissiyot yoki jarayonni ifodalagan bu emojilar so'zlar o'rnini bosmoqda, bu esa tilshunoslar uchun yangi muammo bo'lib qoldi. Emoji, stiker va giflar orqali muloqot esa qisqartma so'zlardan ham ko'proq xavf tug'diradi. Bu so'z boyligining keskin kamayishiga sabab bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarning yana bir muhim muammosi Google translet, Yandex, sun'iy intellekt va boshqa qatror turlari matn tarjimai orqali tarjimonlarning o'rnini ham egallashga ulgurdi. To'g'ri ularning tarjimai kontekstni yetarlicha anglay olmaydi, nutq jo'yaliligida ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi va mantiqiy xatolar yuzaga keladi. Tez va oson yo'l shu bo'lganligi sababdan ham barcha yoshlar shu yo'llar orqali tarjimalarni avzal ko'rishmoqda. Chunki ko'p tilli kommunikatsiya tezlashgani sari sifatli tarjimaga ham ehtiyoj tobora oshib bormoqda.

Axborot texnologiyalari asrida neologizmlar tildagi o'zgarishlarning bosh omillaridan biriga aylangan. Ular jamiyatning ijtimoiy, madaniy va texnologik taraqqiyotini aks ettiruvchi til birliklari sifatida yangi ma'no qatlamlarini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, ularning tartibsiz qo'llanishi, begona tillardan o'zlashgan atamalarining haddan ortiq ishlatilishi o'zbek tilining tabiiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu sababli, neologizmlarni ilmiy asosda o'rganish, ularning o'zbekcha muqobillarini yaratish, yoshlar orasida sof til me'yorlarini targ'ib qilish bugungi tilshunoslik oldida turgan eng muhim vazifalardandir. Internet va raqamli muloqot vositalarining tilga kirib kelishini to'xtatib bo'lmaydi, biroq bu jarayonni boshqarish, uni milliy til taraqqiyoti yo'nalishiga moslashtirish tilshunoslarning, o'qituvchilarning va jamiyatning umumiy mas'uliyatidir.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, zamonaviy til taraqqiyoti natijasida kirib kelayotgan yangi so'zlar milliy til lug'at boyligiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etmoqda. Salbiy jihati shunday iboratki, neologizmlar tilimizning sofligiga putur yetkazmoqda. Bugungi kundagi neologizmlarning tilimiz leksikonida vaqtlar o'tib muqobil sifatida qolib ketishining oldini olish va tilimizni sofligicha saqlash uchun chet el leksikonidagi so'zlarning ishlatilishini cheklash lozim. Yoshlar o'rtasida iloji boricha haddan ortiq ko'p miqdorda ishlatilib kelayotgan va o'zbek tilidagi ayrim so'zlarning o'rnini egallab, sof so'zlarning yo'qolib ketmasligini ta'minlash zarur. Raqamli texnologiyalar tilshunoslikka kuchli ta'sir ko'rsatmoqda va bu jarayon uzluksiz ravishda hozirgi vaqtda ham davom etmoqda. Tilshunoslar yangi so'zlarning qabul qilinishi, ularning qulayroq muqobiliga o'zgartirilishi, yozma va og'zaki

nutqning o'zgarishi, mashina tarjimasini kabi masalalarni chuqur tahlil qilishlari, anglab yetishlari, uni to'g'ri tahlil va talqin qilish choralari ishlab chiqishlari zarur. Kelajakda bu sohada muammolar yanada dolzarb bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006. 78-b.
2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. 90-b.
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) – Toshkent: 2019. -246 b.
4. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. -T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. – 164 b.

ONA TILI TA'LIMINING VOSITALARI

Olimova Madina Oybek qizi

Maxmudova Farida Hayot qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

gumanitar fanlar fakulteti talabalari

olimovamadina0708@gmail.com

kamolovafarida287@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta'limining samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan asosiy vositalar, ularning turlari va amaliyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, innovatsion vositalardan foydalanishning ahamiyati ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, ta'lim vositalari, darslik, metodik qo'llanma, interaktiv texnologiyalar, kompetensiya.

Annotation. This article analyzes the main tools used to enhance the effectiveness of native language education, their types, and their practical application. The importance of using innovative tools is also highlighted.

Keywords: native language, educational tools, textbook, methodological guide, interactive technologies, competence.

Аннотация. В статье рассматриваются основные средства повышения эффективности обучения родному языку, их виды и роль в учебной практике. Также освещается значение использования инновационных средств обучения.

Ключевые слова: родной язык, средства обучения, учебник, методическое пособие, интерактивные технологии, компетенция.

Ona tili - har bir millatning madaniy va ma'naviy asosi bo'lib, uni o'rgatish jarayoni nafaqat bilim berish, balki ongli va faol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ona tili ta'limida foydalaniladigan vositalarning turlari va ularning samaradorligi ta'lim sifati bilan bevosita bog'liqdir.

1. Ta'lim vositalarining turlari va ahamiyati. Ta'lim vositalari - bu o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va maqsadga muvofiq amalga oshirishda yordam beradigan texnik, didaktik va metodik resurslar majmuasidir. Ular an'anaviy, zamonaviy va innovatsion guruhlariga ajratiladi. Jumladan:

1.1. An'anaviy vositalar. Darsliklar va o'quv qo'llanmalari: Ular o'quv dasturiga asoslangan holda bilimlarni tizimli yetkazishga xizmat qiladi. Masalan, "Ona tili 5-

sinf" darsligi har bir grammatik mavzuni sodda, tushunarli va bosqichma-bosqich bayon etadi. Ish daftarlari; O'quvchilar bilimini mustahkamlash va tekshirishda qo'llaniladi. Misol uchun, boshlang'ich sinflar uchun tuzilgan ish daftarlari orqali bolalar mustaqil yozish, tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

1.2. Vizual (ko'rgazmali) vositalar. Jadval, sxema, grafiklar orqali murakkab grammatik tushunchalarni oson tushuntirish mumkin. Misol uchun, otlarning egalik qo'shimchasi bilan yasalgan shakllari jadvalda ko'rsatilsa, bolalar bu mavzuni vizual asosda tezroq anglaydi.

1.3. Texnik vositalar. Audio va video yozuvlar: Jumladan, so'zlashuv madaniyati yoki talaffuz mashqlarida o'zbek tilidagi diktantlar, nutq namunalari eshittirilsa, o'quvchilarning fonetik tinglov malakasi ortadi. Multimedia vositalari: PowerPoint taqdimotlari orqali har bir mavzuni suratlar, audio va animatsiyalar bilan boyitish darsni jonlantiradi.

2. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT). Zamonaviy ta'limda AKTdan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi.

2.1. Interaktiv platformalar. Quizizz, Kahoot, Wordwall orqali darsdan so'ng mini-testlar tuzish mumkin. Bu o'quvchilarda raqobat, tez fikrlash va bilimni mustahkamlashni rag'batlantiradi. Google Forms yordamida masofaviy sinovlar o'tkazish, talabaning o'z bilimini baholash imkonini beradi.

2.2. Elektron darsliklar va mobil ilovalar. "O'zbek tili interaktiv lug'ati" yoki "Yosh kitobxon" mobil ilovalari yordamida darsdan tashqari paytda ham o'quvchilar mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2.3. Interaktiv doska imkoniyatlari. Grammatika mavzularini interaktiv tarzda tushuntirishda SMART Board orqali so'z turkumlari, so'z yasalishi yoki gap turlari bo'yicha interaktiv mashqlar o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchi doskada bevosita qatnashadi.

Milliy qadriyatlar asosida tuzilgan ta'lim vositalari. Ona tili darslarida xalq og'zaki ijodi, maqollar, ertaklar, she'riy namunalar va adabiy meros asosida tuzilgan vositalardan foydalanish o'quvchining ruhiy-ma'naviy dunyosini boyitadi. Misol: "Til – millat ko'zgusi", "El tili – el yuragi" kabi maqollar asosida muhokamalar o'tkazish; Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov kabi adiblarning tilga oid parcha asarlaridan foydalanish. Bu kabi vositalar o'quvchilarning ona tiliga hurmati va e'tiborini oshiradi, madaniy ongini shakllantiradi.

3. Darslarda vositalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar. Har bir mavzuga mos vositani tanlang. Masalan, so'z yasalishi darsida grafik ko'rinishdagi sxemalar foydali. O'quvchilarni AKT vositalarini yaratishda ham ishtirok ettiring (masalan, dars haqida prezentatsiya tuzdirish). Har darsda bitta an'anaviy, bitta zamonaviy vosita uyg'unlashtirilsin. O'qituvchi o'z uslubini innovatsiyalar bilan boyitib borishi kerak. Shu bilan birga, ona tili ta'limida vositalardan samarali foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va tilga bo'lgan qiziqishini ham rivojlantiradi. Quyida dars davomida vositalardan foydalanishga oid asosiy tavsiyalar va ularni amaliy misollar bilan dalillash keltiriladi:

Har bir mavzuga mos vositani tanlash: Didaktik vositalarni dars mazmuniga mos tanlash o'quvchilarning tushunchani to'g'ri qabul qilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Misol:

Mavzu: "So'z yasalishi"

Vosita: Grafik sxema (vizual vosita)

Amaliy dalil:

"Yozuvchi" so'zining yasaliş jarayoni quyidagi tarzda sxematik tarzda ko'rsatiladi:

yoz (fe'l) + uv (yasalma qo'shimcha) + chi (shaxs bildiruvchi qo'shimcha) → yozuvchi

O'quvchilar bu kabi sxemalar orqali morfemik tuzilmani aniq tushunadi va o'zlari ham shunga o'xshash sxemalar yasab ko'rishga harakat qiladi.

O'quvchilarni AKT vositalarini yaratishda jalb qilish. Darsda nafaqat o'qituvchi AKT vositalaridan foydalansin, balki o'quvchilarning o'zi ham AKTdan foydalanib, ijodiy topshiriqlar bajarishi kerak. Bu ular uchun motivatsion omil bo'lib xizmat qiladi. Misol:

Mavzu: "Gap bo'laklari"

Topshiriq: Har bir o'quvchi yoki guruh "Gap bo'laklari" bo'yicha Google Slides yoki PowerPoint yordamida mini-prezentatsiya tayyorlaydi.

Dalil: Bu orqali o'quvchilar nafaqat mavzuni chuqur o'zlashtiradi, balki texnologik savodxonligi, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalari ham rivojlanadi.

Har darsda kamida bitta an'anaviy va bitta zamonaviy vositani uyg'unlashtirish. O'qituvchi darsni faqat darslik yoki faqat AKTga tayanib emas, balki ularni uyg'unlashtirib tashkil etsa, natija samaraliroq bo'ladi. Misol:

Mavzu: "Fe'l zamonlari"

An'anaviy vosita: Darslikdagi mashq topshiriqlari

Zamonaviy vosita: Interaktiv test

Dalil: Darslikda mavzuni o'rgangan o'quvchi interaktiv testda o'zini sinab ko'radi va natijani darhol ko'rishi mumkin. Bu esa bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'qituvchi o'z uslubini innovatsiyalar bilan boyitib borishi zarur. Zamonaviy darslarda faqat bilim berish emas, balki o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar muhimdir. O'qituvchi o'z dars uslubiga interfaol metodlar, raqamli vositalar, milliy materiallar kabi elementlarni qo'shib borishi lozim. Misol:

Mavzu: "Nutq etiketi"

Yondashuv: O'qituvchi darsda avval maqollar va xalq og'zaki ijodidan namunalar keltiradi (an'anaviy), so'ng "Nutq madaniyati" mavzusida Padlet platformasida o'quvchilar o'z fikrlarini yozishadi (zamonaviy).

Dalil: Bu usul darsni jonlantiradi, har bir o'quvchining fikr bildirishi uchun imkon yaratadi va yozma nutq ko'nikmasini mustahkamlaydi.

Yakuniy tavsiya. Ona tili darslarida vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq, mavzuga mos, metodik jihatdan asosli bo'lishi zarur. Barcha vositalar faqat darsni bezash uchun emas, balki o'quvchilarning lingvistik, mantiqiy, estetik va axloqiy kamolotiga xizmat qilishi kerak.

Demak, ona tili ta'limida vositalarning roli beqiyosdir. Darsliklar va metodik qo'llanmalardan tashqari, texnik vositalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va milliy qadriyatlar asosida tuzilgan resurslar darsni samarali, qiziqarli va ta'sirchan qiladi. O'quvchining nutqiy faolligini, tahliliy tafakkurini va ijodkorligini shakllantirishda vositalarning to'g'ri tanlanishi muhim. Shu sabab, har bir pedagog yangilikka ochiq bo'lishi, yangi vositalarni sinovdan o'tkazib, amaliyotda qo'llab borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganova D. "Ona tili o'qitish metodikasi", Toshkent, O'qituvchi, 2019. – 67 b.

2. Karimova Z. "Pedagogik texnologiyalar va ona tili ta'limi", Toshkent, Fan, 2021. – 276 b.
3. Qodirova N. "Til o'rgatishda AKTdan foydalanish", Ilmiy maqolalar to'plami, 2022. – 98 b.
4. Hasanov A. "Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar", Ta'lim va fan, 2020/4-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni, 2020-yilgi tahrir.

TIL TA'LIMI ISTIQBOLLARI VA INTEGRATSION YONDASHUVLAR

Sidiqova Yulduz Sobirovna,

Buxoro davlat pedagogika institut o'qituvchisi,

E-mail: yulduzsidiqova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada til ta'limining zamonaviy istiqbollari va integratsion yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Fanlararo bog'liqlik, axborot texnologiyalari va madaniyatlararo muloqot orqali til o'rgatishni samarali tashkil etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: til ta'limi, integratsiya, kommunikativ kompetensiya, fanlararo yondashuv, ta'lim istiqbollari.

Abstrac. The article analyzes the modern prospects of language education and the significance of integrative approaches. It highlights the effective ways of organizing language learning through interdisciplinary connections, the use of information technologies, and the development of intercultural communication.

Keywords: language education, integration, communicative competence, interdisciplinary approach, educational prospects.

Globalizatsiya va axborotlashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi davrda til ta'limi nafaqat kommunikativ ehtiyojlarni qondirish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, xalqaro miqyosda integratsiyalashuvini ta'minlash uchun muhim omilga aylanmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan integratsion yondashuvlar til o'rganishni boshqa fanlar, madaniyatlar va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish imkonini bermoqda. Bu jarayon, bir tomondan, lingvistik bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois ta'lim jarayoniga audio-vizual metodlardan foydalanish nutqni shakllantirish uning ravonligi va ifodachanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[1: 124].

Til ta'limi istiqbollari, eng avvalo, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, ko'p tillilikni rag'batlantirish va ijtimoiy-madaniy integratsiyani kuchaytirish bilan belgilanadi. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar ham nutqni rivojlantirishning yangi bosqichiga yo'l ochmoqda. Jumladan, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, AKT vositalaridan keng foydalanish hamda integratsion metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etish ustuvor yo'nalishlar sirasiga kiradi. Integratsion

yondashuvlarning samaradorligi shundaki, ular tilni o'rgatishda turli fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yadi. Masalan, tarix, geografiya yoki informatika darslarida ham til elementlarini qo'llash orqali o'quvchi bir vaqtning o'zida lingvistik va predmet bilimlariga ega bo'ladi. Bu esa til o'rganishni sun'iy emas, balki tabiiy jarayonga aylantiradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari, multimedia, virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'lim platformalari yordamida integratsion o'quv muhiti yaratilib, o'quvchilarda motivatsiya yanada ortadi. Misol uchun virtual reallik va suniy intellekt vositalari yordamida o'quvchilar real hayorda qo'llash mumkin bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin. [2: 954].

Nutq va tafakkurni o'stirish istiqboli, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan tajriba almashish, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish bilan ham bog'liq. Integratsion yondashuvlar nutq va tafakkurni rivojlantirishni yanada takomillashtirish shaxsni ma'naviy boyitish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va global raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, kelajakda til ta'limining integratsion asosda rivojlanishi zamon talabiga javob beruvchi eng samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Nutq va tafakkurni rivojlantirish eng avvalo, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, ko'p tillilikni rag'batlantirish va ijtimoiy-madaniy integratsiyani kuchaytirish bilan belgilanadi.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish

– Til bilimini faqat grammatik qoidalarni o'rganish emas, balki real hayotiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash

– Sun'iy intellekt, interaktiv platformalar, virtual sinflar va mobil ilovalar orqali til o'qitishni samarali tashkil etish.

Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish

– Til ta'limi jarayonida boshqa xalqlar tarixi, urf-odatlar, madaniy qadriyatlari bilan tanishtirish.

Hayot davomida o'qish konsepsiyasi

– Tilni faqat maktab yoki oliy ta'lim davrida emas, balki butun umr davomida mukammallashtirib borish zarurligi.

Ko'p tillilik siyosati

– Ona tilini chuqur o'zlashtirish bilan bir qatorda, xorijiy tillarni o'rganish orqali global axborot maydoniga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Til ta'limining istiqboli, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy maktablar va ilmiy markazlar bilan tajriba almashish, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish bilan ham bog'liq. "Nutqiy kompetensiyaning rivoji o'quvchining ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatini belgilaydi". [3:56].

Integratsion yondashuvlarning ahamiyati

Til ta'limida integratsion yondashuvlar deganda, tilni boshqa fanlar bilan uyg'un holda o'qitish, ya'ni fanlararo integratsiya tushuniladi. Bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsiya

– Til ta'limini tarix, geografiya, biologiya, informatika va boshqa fanlar bilan bog'lash. Masalan, ingliz tilida ekologik muammolar bo'yicha matnlar o'qish yoki matematika terminologiyasini chet tilida qo'llash.

Madaniy-integratsion yondashuv

– Til ta'limini adabiyot, san'at, musiqaga integratsiya qilish orqali estetik did va madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirish.

Texnologik integratsiya

– Multimedia, onlayn platformalar, elektron darsliklar va virtual laboratoriyalarni til ta'limiga qo'shish. "Virtual reallikdagi dialog simulyasiyalari o'quvchilarning ijobiy fikrlash tezligini 30% oshiradi". [4:102].

Amaliy integratsiya

– Tilni o'qitishda kasbiy yo'nalishga moslashtirish. Masalan, tibbiyot, huquqshunoslik yoki muhandislik sohasiga oid til kurslari.

Zamonaviy integratsion metodlar

CLIL (Content and Language Integrated Learning) – mazmun va til integratsiyasi; boshqa fanlarni chet tilida o'qitish.

STEAM-integratsiya – ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yo'nalishlarini til o'qitishda qo'llash.

Project-based learning – loyiha asosida ta'lim, bunda talabalar biror mavzuda tadqiqot olib borib, uni chet tilida taqdim etadilar.

Til ta'limining istiqbollari uni zamonaviy texnologiyalar, fanlararo integratsiya va madaniyatlararo muloqot bilan uyg'unlashtirish orqali yanada samarali qilishdan iboratdir. Integratsion yondashuvlar esa nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va global tafakkurni shakllantiradi. Shu

bois, kelajakda til ta'limi fanlararo integratsiya, innovatsion pedagogika va hayot davomida o'qish tamoyillariga asoslangan holda rivojlanadi.

Integratsion yondashuvlar orqali til ta'limini yanada takomillashtirish shaxsni ma'naviy boyitish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va global raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, kelajakda til ta'limining integratsion asosda rivojlanishi zamon talabiga javob beruvchi eng samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi. L.S.Vigotskiy fikriga ko'ra, bola nutqi tabiiy biologik rivojlanish jarayoning bir qismi bo'lib, u muloqot vositasiga aylanishidan avval nutqiy eksprementlar bosqichidan o'tadi. [5:54].

Til ta'limi istiqbollari va integratsion yondashuvlarning yangi qirralari

1. Global tendensiyalar va til ta'limi

Sun'iy intellekt yordamida individual ta'lim: Har bir o'quvchining qiziqishi, bilim darajasi va tezligiga mos shaxsiylashtirilgan dasturlar ishlab chiqish.

Transmilliy ta'lim muhitlari: Virtual almashinuv dasturlari orqali turli mamlakat o'quvchilari onlayn muloqot qilishlari.

Multimodal ta'lim: Tilni nafaqat matn, balki video, podkast, virtual realistik muhit (VR) orqali o'rganish.

2. Til o'qitish metodikasida istiqbollar

Gamifikatsiya – o'quv jarayonini o'yin elementlari orqali jonlantirish. Masalan, "Duolingo" kabi platformalarda tilni o'rganish.

Blended learning (aralash ta'lim) – an'anaviy darslarni onlayn platformalar bilan uyg'unlashtirish.

Adaptive learning – o'quvchi darajasiga mos ravishda avtomatik qiyinchilik darajasini o'zgartiruvchi tizimlar.

3. Integratsion yondashuvlarning kengaytirilgan ko'rinishlari

Lingvokulturologik integratsiya: Til ta'limini xalqning madaniy merosi, folklor, milliy qadriyatlar bilan birlashtirish.

Ekologik integratsiya: Global ekologik muammolarni o'rganish jarayonida chet tilidan foydalanish (masalan, "Green English" yoki "Eco-German" kurslari).

Kasbiy-integratsion yondashuv: O'qituvchilar, shifokorlar, huquqshunoslar yoki IT mutaxassislariga mo'ljallangan maxsus til kurslari orqali tilni amaliyot bilan bog'lash.

4. Til ta'limida zamonaviy kompetensiyalar

Media savodxonlik: Chet tilidagi axborot oqimini tahlil qilish, tanqidiy baholash.

Soft skills integratsiyasi: Til o'rganishda yetakchilik, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Global fuqorolik: Til o'rganish orqali inson huquqlari, ijtimoiy adolat, tinchlik kabi universal qadriyatlarni singdirish.

5. Til ta'limining kelajakdagi vazifalari

O'quvchilarni ko'p tillilik (multilingualism) muhitiga tayyorlash.

Tilni nafaqat o'rganish, balki ijodiy ifoda vositasi sifatida qo'llash.

Umumjahon mehnat bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash: kasbiy til va xalqaro kommunikatsiyani chuqur o'zlashtirish orqali.

Psixolingvistik yondashuvlarni qo'llash: til o'rganish jarayonida psixologik xususiyatlarni hisobga olish.

Filologik ta'lim va informatika fanlarini integratsiyalash zamonaviy o'quvchining ehtiyojlariga mos ta'limni ta'minlaydi, so'z va texnologiya o'rtasidagi muvozanatni yaratadi, o'quvchilarni ijodiy, raqamli va analitik jihatdan rivojlantiradi, kasb-hunarga tayyorlov (raqamli kontent yaratuvchisi, editor, blogger, dizayner) uchun zamin yaratadi, raqamli va lingvistik savodxonligini birlashtiradi, tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi, adabiy-estetik tafakkurni texnologik vositalar bilan boyitadi, o'quvchini raqamli muhitda fikr ifodalay oladigan ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тункун Я.А. Основы нейропедагогики: история, теория и практика. – Cyberleninka: Санкт-Петербургский государственный университет, 2024. –С.124.
2. Абдуллаева Н.А. Maktabda samarali ta'limni ta'minlashda neyropedagogikaning ahamiyati. – International Journal of Education and Social Science Research: Fars Publishers, 2024.
3. Вайнер М.Э. Современные подходы к развитию речи. -Москва: Академия, 2017, -с.56.
4. Garcia L. EdTech Innovations. Elsevier, 2021, p.102.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1982. – С.54.
6. Sobirova, D. *Integratsion ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
7. Nazarov, Q. *Ta'limda kommunikativ yondashuv asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.

ONA TILI TA'LIMIDA METODLARDAN FOYDALANISH

Jumanova Nazokat Shuhrat qizi

(jumanovanazokat782@gmail.com)

Rixsiboyeva Sevinch Farxod qizi

(sevinchrixsiboyeva82@gmail.com)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi” uchinchi bosqich talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limida qo'llaniladigan metodlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Xususan, an'anaviy, interfaol va innovatsion metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning o'quvchilar nutqiy va tafakkuriy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Maqola ta'lim jarayonida metodlarni maqsadga muvofiq tanlash va uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ona tili, metod, ta'lim, an'anaviy metod, interfaol metod, innovatsion metod, nutqiy ko'nikma.

Annotation: This article examines the role and significance of methods applied in native language instruction. Specifically, it analyzes the distinctive characteristics of traditional, interactive, and innovative methods, as well as their function in fostering students' linguistic competence and cognitive abilities. The study substantiates the necessity of appropriately selecting and integrating teaching methods within the educational process.

Keywords: native language, method, education, traditional method, interactive method, innovative method, speech competence.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение методов, применяемых в преподавании родного языка. В частности, анализируются особенности традиционных, интерактивных и инновационных методов, а также их функция в развитии речевых и когнитивных способностей учащихся. В исследовании обосновывается необходимость целесообразного выбора и интеграции методов обучения в образовательный процесс.

Ключевые слова: родной язык, метод, образование, традиционный метод, интерактивный метод, инновационный метод, речевое умение.

Ona tili – bu xalqning ma'naviy boyligi, madaniyatini ifodalovchi asosiy vositadir. Shu bois uni o'qitish jarayonida metodlardan oqilona foydalanish muhim o'rin tutadi. Metod – bu o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini muayyan maqsad sari

yo'naltirish usuli bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim vositasidir. Ona tili fanini o'qitishda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llash orqali o'quvchilar nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirish va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish mumkin.

Ona tili ta'limida an'anaviy metodlardan keng foydalaniladi. Izohli bayon, suhbat, mashq metodlari o'quvchilarga nazariy bilimlarni tushuntirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu metodlar o'quvchilar uchun ona tilining nazariy asoslarini o'rganishda poydevor vazifasini bajaradi. Bugungi kunda interfaol metodlar darslarning asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda. "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Bahs-munozara" kabi metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, erkin mulohaza bildirish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar o'quvchini bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi va yaratuvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi ona tili fanini o'qitishda ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Multimedia vositalari, elektron lug'atlar, onlayn testlar va taqdimotlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashni samarali tashkil etadi. Bundan tashqari darslarni yana qiziq hamda samarali bo'lishini maqsad qilgan holda ona tilida mavzu frazeologizmlar bo'lsa ya'ni iboralar mavzusi o'quvchilarga yanada oson tushuntirish uchun iboralarga mos rasmlardan foydalansa dars yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan: "Tepa sochi tikka bo'ldi" iborasi "Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi" iborasi "Boshi osmonga yetdi" iboralarini rasmlar orqali ifodalasa o'quvchilarga iboralar mavzusi tushuntirilsa mavzu ko'proq yodida qoladi. Yana bir metodni olib qarasak "Qaysi samalyot tez uchadi" metodi orqali o'quvchilarga yordamchi so'z turkumlari ko'makchi, bog'lovchi, yuklama yoki o'tilgan mavzularni takrorlash mavzusida ham ushbu metodan foydalansa bo'ladi. Bunda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Samalyotlar ham uchta bo'lib har biriga nom berilgan bo'ladi ko'makchi, bog'lovchi, yuklama. Uchta guruhga aralashtirib yordamchi so'zlarga oid so'zlar berilgan bo'ladi qaysi guruh o'ziga tegishli yordamchi so'zlari topib samalyotga yopishtirsa o'sha guruhning samalyoti tez manzilga yetib boradi. Bu metod orqali o'quvchilar yordamchi so'z turkumlarini ajratishni o'rganadi va osongina yodida saqlab qoladi. O'tilgan mavzularni takrorlash mavzusi bo'lganda esa o'tilgan mavzular bo'yicha savollar tuzib qaysi guruh tez savollarga javob berishi orqali ham ushbu metoddan foydalansa bo'ladi.

Yana bir "Kartochkalar va konvert" metodida o'qituvchi va o'quvchi uchun ham foydalidir. Bu metodda o'qituvchi har bir talabaga yetadigan qilib uch xil rangdagi

kartochkalar va konvertlar tarqatadi. O'qituvchi yangi mavzu tushuntirayotgan vaqtda qizil kartochkalilar tursin deydi va ular turadilar ularga yangi mavzuga doir savol beradi va javob berganlar o'tiradi, javob berolmaganlar o'tirmaydilar. Natijada o'tirmagan o'quvchilar mavzuni yaxshiroq eshitadi va biroz vaqt o'tgach o'qituvchi yana savol beradi va natija avvalgisidan yuqoriroq bo'ladi. Yangi mavzu bayoniga mo'ljallab o'qituvchi qolgan kartochka olgan o'quvchilarni ham turg'izadi. Kartochkalar metodida o'quvchilar mendan so'rab qoladi deya mavzuni yaxshiroq eshitadi. Dars tugashiga 10 daqiqa qolganda esa berilgan konvertlarga yangi mavzudan nimalarni o'rganganligini yozishi va 5 daqiqa qolganda hamma ustozga tekshirtirishi lozim. O'qituvchi mana shu metod orqali o'quvchilar bilimlarni qay darajada o'rganganligini bilib oladi. Bu metodni samarali o'tkazilsa natija yuqori bo'ladi. Taqdimot va muzyurarlarni – bu mashg'ulotni boshlash uchun mo'ljallangan qisqa mashqlardir. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi »to'siq«ni yoqotishga qaratilgan usul. Bu metod asosida guruh o'quvchilari orasidagi o'zaro ishonch, hurmat o'zaro yaqinlikni his etishga o'rgatish yotadi. Dars davomida yuqorida aytilgan metodlardan foydalanish darsni qiziqarli hamda qiziqarli o'tishiga va bu orqali esa, ta'lim sifati oshishiga yordam beradi.[5:334] Metodlar haqida O'rta Osiyo va boshqa olimlar turli xil fikrlar bildirishgan: O'rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa fan metodlarini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo'lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qo'llaniladigan yo'l-yo'riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan. Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shishdi. F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar Metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishdi. Hozirgi zamon fanlarida ko'plab umumiy, xususiy ilmiy Metodlar qo'llanadi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik Metodlarning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish Metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo'llanilmoqda.

Ona tili ta'limida metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. An'anaviy metodlar bilim asoslarini shakllantirsa, interfaol metodlar o'quvchini faol va mustaqil shaxs sifatida rivojlantiradi, innovatsion metodlar esa ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yordam beradi. Shunday ekan, o'qituvchining asosiy vazifasi – metodlarni maqsadga muvofiq tanlab, ularni uyg'unlashtirilgan holda qo'llashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi. – Toshkent, 2006. -65 b.
2. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. - 380 b.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. -76 b.
4. Muxtarova Sh.M. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, 2025. – 43 b.
5. Wikipedia.uz

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**Omonboyeva Mohichehra,****Omonboyeva Charos***CHDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari*Mohichehra4578@gmail.comomonboyevacharos081@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta'limida interfaol metodlardan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil etilgan. Unda interfaol metodlarning o'quvchilarning bilim faolligini, mustaqil fikrlashini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Baliq skeleti", "Blits-so'rov", "Venn diagrammasi" kabi metodlarning amaliy qo'llanishi misollar orqali ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metod, innovatsion ta'lim, ona tili, kompetensiya, dars samaradorligi, o'quvchi faolligi.

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical foundations of using interactive methods in native language teaching. It highlights the role of interactive methods in developing students' cognitive activity, independent thinking, and communicative competence. Examples of the use of such methods as "Brainstorming," "Cluster," "Insert," "Fishbone," "Blitz survey," and "Venn diagram" are provided.

Keywords: interactive method, innovative education, native language, competence, lesson effectiveness, student activity.

Аннотация. В статье анализируются теоретические и практические основы эффективного использования интерактивных методов в обучении родному языку. Раскрывается роль интерактивных методов в развитии познавательной активности, самостоятельного мышления и коммуникативной компетенции учащихся. Приводятся примеры применения таких методов, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Инсерт», «Рыбья кость», «Блиц-опрос», «Диаграмма Венна».

Ключевые слова: интерактивный метод, инновационное обучение, родной язык, компетенция, эффективность урока, активность учащихся.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining har bir bo'g'inida innovatsion va interfaol yondashuvlarning qo'llanilishi zaruriy holga aylandi. Ayniqsa, ona tili

ta'limida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020) va "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashga alohida urg'u berilgan [7,]. Shu bois ona tili o'qitish metodikasida interfaol metodlardan samarali foydalanish zamon talabi hisoblanadi. "Interfaol" (lotincha *interactio* - "o'zaro ta'sir") so'zi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol muloqotni, o'zaro hamkorlikni bildiradi. Interfaol metodlar o'quvchilarni dars jarayonining markaziga qo'yadi, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, tafakkurini faollashtiradi [1].

Interfaol yondashuvning asosiy maqsadi - o'quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvini shakllantirishdir. Bu jarayonda o'qituvchi fasilitator, yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi rolini bajaradi [2].

Ona tili darslarida interfaol metodlar o'quvchilarning nutqiy, lingvistik, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ular quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:

– o'quvchi	faolligini	oshirish;
– o'zaro	muloqotga	kirishish;
– fikrlash va muhokama	madaniyatini	shakllantirish;

– o'quv jarayonini amaliyot bilan bog'lash [3].

Masalan, "**Aqliy hujum**" metodi orqali o'quvchilar berilgan mavzu yuzasidan fikrlarini erkin bildiradi, "**Klaster**" yordamida esa tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. "**Insert**" texnologiyasi esa matn bilan ishlashda "bilaman - bilmoqchiman - bildim" sxemasi asosida o'quvchi tafakkurini tizimli shakllantiradi [2].

Interfaol metodlarning amaliy qo'llanishi

Ona tili darslarida quyidagi interfaol metodlar samarali natija beradi:

1. "**Aqliy hujum**" – yangi mavzuni o'quvchilar bilimiga tayanib kashf qilish, fikrni erkin ifodalash imkonini beradi [4].
2. "**Baliq skeleti**" – muammoning sabab va oqibatlarini aniqlash, mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi [5].
3. "**Venn diagrammasi**" – ikki tushuncha yoki hodisani taqqoslash orqali o'quvchi tafakkurini tahliliy yo'naltiradi [2].
4. "**Blits-so'rov**" – qisqa savol-javob orqali o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlashda foydalidir [3].

5. **“Sinkveyn”** (besh satrli she'r) – o'quvchilarni so'z boyligini oshirishga va fikrni ixcham ifodalashga o'rgatadi [4].

Ushbu metodlar dars jarayonida o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Natijada o'quvchining kommunikativ salohiyati va til sezgirligi ortadi [2], [3]. Interfaol metodlar axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashganda yanada samarali bo'ladi. Masalan, “Mentimeter”, “Quizizz”, “Kahoot” platformalari yordamida o'qituvchi darsni onlayn interaktiv tarzda tashkil etishi mumkin. Bu o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va individual yondashuv imkonini beradi [6]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining interfaol metodlar bilan uyg'unlashuvi ta'limda yangi sifat bosqichini yaratadi. Bu esa zamonaviy o'qituvchidan metodik tafakkur, texnik savodxonlik va ijodiy yondashuvni talab etadi [1], [4]. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, ularni mustaqil fikrlashga, muloqotga kirishishga, nutq madaniyatini shakllantirishga undaydi. Bu metodlar o'quvchini dars jarayonining markaziga qo'yib, uning shaxsiy faolligini, tafakkurini, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o'quvchi o'z fikrini erkin bayon etish, boshqalar bilan muhokama yuritish, dalillash va xulosa chiqarish kabi muhim kompetensiyalarni egallaydi. Interfaol metodlardan oqilona foydalanish darsning mazmunini jonlantiradi, o'quvchilar orasida hamkorlik, o'zaro hurmat va jamoaviy fikrlash muhitini shakllantiradi. Ayniqsa, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Baliq skeleti”, “Venn diagrammasi” kabi metodlar o'quvchilarda ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash va tahliliy qobiliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2], [3].

“Charxpalak” texnologiyasi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

“Charxpalak” texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- ❖ o'quvchilar sharoitga qarab guruhlariga ajratiladi;

- ❖ tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- ❖ belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiradilar;
- ❖ boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;
- ❖ materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;
- ❖ o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;
- ❖ har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, interfaol metodlar - bu nafaqat zamonaviy ta'limning talabi, balki o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositadir. Ular orqali o'quvchi o'z fikrini ongli, lo'nda va mantiqiy tarzda ifodalashni o'rganadi, ona tiliga bo'lgan qiziqish va hurmati ortadi. Shu bois interfaol metodlardan tizimli foydalanish nafaqat ona tili darslarining sifatini oshiradi, balki kelajakda ijtimoiy faol, kommunikativ jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Avliyakov N.** *Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – **B. 45–78.**
2. **Jo'rayeva N.** *Til o'qitish metodikasi.* – Toshkent: Fan, 2019. – **B. 102–135.**
3. **Qodirova M.** *Ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish.* – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – **B. 56–90.**
4. **Xolbekov T.** *Ta'limda innovatsion texnologiyalar.* – Qarshi: Nasaf, 2018. – **B. 33–67**

FONETIKA O'QITISHNING MAQSADI, VAZIFALARI VA TAMOYILLARI

Muxtarova Shahnoza

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Muqimova Hojiraxon Abdullajon qizi

Subxonqulova Yoqutxon Ulug'bek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

muqimovahojiraxon@gmail.com

subxonqulovayoqutxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda fonetika o'qitishning asosiy maqsadi, vazifalari va didaktik tamoyillari yoritilgan. Fonetika til o'rganishda muhim bosqich bo'lib, talaffuz, tovush tizimi va fonetik normani to'g'ri o'zlashtirishda asosiy o'rin tutadi. Ishda aynan ushbu yo'nalishda dars berayotgan o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ko'rib chiqilgan. Mavzu dolzarb bo'lib, til o'rgatish sifatini oshirishda foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Fonetika, o'qitish, talaffuz, tovushlar tizimi, metodika, tamoyillar, til o'rganish.

Annotation. This paper discusses the purpose, key tasks, and principles of teaching phonetics. Phonetics plays a crucial role in language learning, especially in mastering pronunciation and understanding sound systems. The material includes useful methodological insights and practical tips for teachers working in this field. The topic is relevant and can contribute to improving the effectiveness of language instruction.

Keywords: Phonetics, teaching, pronunciation, sound system, methodology, principles, language learning.

Аннотация. В данной работе раскрываются цель, задачи и принципы преподавания фонетики. Фонетика играет важную роль в процессе изучения языка, особенно в правильном произношении и восприятии звуков. Работа может быть полезной для преподавателей, обучающихся фонетике, так как содержит методические подходы и практические рекомендации. Тема актуальна для повышения качества обучения языкам.

Ключевые слова: Фонетика, обучение, произношение, звуковая система, методика, принципы, изучение языка.

Til o'rganishda fonetika ya'ni tovushlar tizimi va ularning talaffuzi asosiy bo'g'inlardan biridir. Tilni to'g'ri va ravon o'rganish, ayniqsa og'zaki nutqni shakllantirishda fonetik bilim va ko'nikmalarning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham fonetika o'qitish tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. [1:54]

Fonetikada tildagi tovushlar, ularning paydo bo'lishi va turlari, nutq organlari, ularning tovush hosil qilishdagi harakat holati, nutq apparati, nutq tovushlarining akustik va artikulyatsion xususiyatlari, nutq jarayonida sodir bo'ladigan turli xil fonetik hodisalar, nutqning fonetik bo'linishi, tovushlarining kommunikativ roli hamda prosodika kabi hodisalar o'rganiladi.

Fonetika (gr. Phone - tovush) tilning keng ma'noda tovush tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi. U tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni tekshiradi. Shu sababli unga tilning faqat tovush tizimini tekshiruvchi bo'lim sifatida qarash noto'g'ri. Har bir til o'z fonetikasiga ega. U shu tildagi tovushlarning hosil bo'lishi va talaffuzining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tasnifi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi, talaffuz va yozuv munosabatlarini hamda urg'u va bo'g'in xususiyatlarini tekshiradi. Fonetika tilning tovushlar sistemasi va shu tovushlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisalarni o'rganar ekan, u tilning barcha sathlari bilan, ayniqsa, leksika va grammatika bilan bog'lanadi.

Fonetika o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, fonemalarning farqini anglash, urg'u, intonatsiya va nutq ohangini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shuningdek, o'quvchilarni fonetik tahlilga o'rgatish ham ushbu yo'nalishning asosiy maqsadlaridan biridir. [4:120]

Fonetika o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchilarda to'g'ri talaffuz, eshituv, nutq ohangi va fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Bu yo'nalishdagi vazifalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, artikulyatsion ko'nikmalarni shakllantirish fonetika o'qitishning muhim vazifasidir. O'quvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun og'iz, til, lab, tanglay kabi talaffuz a'zolarining harakati bilan tanishtiriladi. Bu orqali ular nutqda tovushlarni ravon va aniq talaffuz qilishga o'rganadilar.

❖ Ikkinchidan, fonematik eshituvni rivojlantirish ham muhim vazifalardan biridir. O'quvchilarga o'xshash tovushlar orasidagi farqni sezish, ya'ni tovushlarni eshitish va ajrata olish qobiliyati shakllantiriladi. Bu savodxonlikni oshirishda va to'g'ri talaffuzda katta rol o'ynaydi.

❖ Uchinchidan, fonetika darslarining yana bir vazifasi urg'u va intonatsiyani to'g'ri qo'llashga o'rgatish. So'z va gaplardagi urg'u o'rnini to'g'ri

belgilash, turli gap turlariga mos intonatsiyani ishlata olish muloqotda ma'no ifodasining aniq bo'lishiga xizmat qiladi.

❖ To'rtinchidan, fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish ham o'quv jarayonining ajralmas qismidir. O'quvchilar so'zlar tarkibidagi tovushlarni aniqlash, ularning talaffuz xususiyatlarini tahlil qilishga o'rgatiladi. Bu esa ularning til tuzilishini chuqur anglashiga yordam beradi.

❖ Beshinchidan, fonetika o'qitish orqali og'zaki nutq madaniyatini shakllantirish va savodxonlik darajasini oshirish vazifasi amalga oshiriladi. To'g'ri talaffuz, aniq va ravon nutq har qanday ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyat kalitidir. Fonetika bu jihatlarni mustahkamlashda xizmat qiladi.

Har qanday nutq tovushi, avvalo, nutq a'zolarining harakati tufayli talaffuz etiladi, ya'ni fiziologik xususiyatga ega. Ikkinchidan, u havoning ma'lum elastik jiyemni tebratishidan hosil bo'ladi; demak, uning akustik (fizik) jihatida bor. Uchinchidan, muayyan so'z va morfemaning ma'no tomoni bilan tovush qobig'i birgalikda inson ongida shakllanadi, zero inson ma'lum tovushlar majmuini eshitish bilan qabul qilar ekan, ushbu majmu zaminidagi ma'noni idrok etadi, bu perseptiv (psixofonetik) xususiyat sanaladi. Va nihoyat, eng muhimi, nutq ma'lum vazifani bajaradi, binobarin, funksional qimmatga ega.

Nutq tovushlari yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra turli nuqtai nazardan o'rganilishi mumkin. Fonetika tilning tovush tizimini qaysi jihatdan o'rganishi (maqsadi) nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi: umumiy fonetika; tarixiy (diaxron) fonetika; tasviriy (sinxron) fonetika; qiyosiy fonetika; eksperimental fonetika Yuqoridagilar bilan birga xususiy fonetika ham ajratiladiki, unda barcha fonetik xususiyatlar aniq bir til misolida o'rganiladi.

Fonetika tovushlarning almashinishi va o'zgarishi, adabiy talaffuz me'yorlari, to'g'ri talaffuz qilish qoidalari, bo'g'in va urg'u, uning turlari kabi muammolarni ham o'rganadi. Demak, fonetika haqida zaruriy ma'lumotga ega bo'lmay turib, to'g'ri talaffuz qilish bilan aloqador bo'lgan orfografiya va grammatika (morfologiya va sintaksis) qoidalari ustida ham muvaffaqiyatli ish olib borish mumkin emas. Shu bilan birga, fonetikani o'rganish orfografiya (to'g'ri yozish), orfoepiya (to'g'ri talaffuz qilish) me'yorlarini yaxshi o'zlashtirib olishga, adabiy talaffuz bilan shevalar talaffuzi o'rtasidagi farqni aniqlashga katta yordam beradi. Demak, fonetika tilshunoslikning orfografiya, orfoepiya, leksikologiya, grammatika, dialektologiya kabi bo'limlari bilan bevosita aloqadordir. [2:43]

Fonetika fizika (akustika qismi) va fiziologiya fanlari bilan ham yaqin munosabatdadir. Fonetika tovushlarning eshitilish tomonini o'rganishda akustikaga, talaffuz qilinishi, aytilishi, hosil qilinish tomonlarini o'rganishda fiziologiyaga tayanib ish ko'radi. Bundan tashqari, u adabiyotshunoslik (hijolar, o'lchov metrika va ta'sirli o'qish kabi) va ijtimoiy fanlar bilan doimiy aloqada bo'ladi.

Fonetika o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarga tovushlar tizimini to'g'ri tushuntirish va ularni adabiy talaffuzga o'rgatishdan iborat. Bu jarayonda o'quvchi har bir tovushning qanday paydo bo'lishini, talaffuzdagi farqlarni, urg'u va intonatsiyaning ma'noga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Yana bir muhim vazifa o'quvchilarni og'zaki nutqda tovushlarni to'g'ri qo'llashga, so'z va gaplarni aniq, ravon va ifodali aytishga o'rgatishdir. Fonetika orqali o'quvchi eshitish va talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Fonetika o'qitishda bir nechta muhim tamoyillarga amal qilinadi. Avvalo, ilmiylik tamoyili asosida darslar aniq va ishonchli manbalarga tayangan holda tashkil etilishi kerak. O'quvchilarga faqatgina talaffuz qanday bo'lishi kerakligini aytish emas, balki nega aynan shunday talaffuz qilinishi kerakligini ham tushuntirish muhim. Shuningdek, nazariya va amaliyot birgalikda olib borilishi zarur. Ya'ni, o'quvchi tovushlar haqida nazariy ma'lumotni eshitgach, uni amaliy mashqlar bilan mustahkamlashi kerak. Darslar bosqichma-bosqichlik asosida tuzilishi lozim avval oddiy tovushlar, keyin murakkab tovushlar, so'ngra urg'u, intonatsiya kabi elementlarga o'tiladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir o'quvchi har xil darajada o'zlashtirishi mumkin, shuning uchun individuallashtirish tamoyiliga amal qilish ham muhim. Kimdadir talaffuz bilan bog'liq muammo ko'proq bo'lsa, unga alohida e'tibor berish kerak. Bundan tashqari, fonetika o'qitishda audio va vizual materiallardan foydalangan ma'qul, chunki o'quvchi eshitib va ko'rib o'rgansa, natija yanada yaxshiroq bo'ladi. Fonetika bu faqat og'zaki talaffuz emas, balki eshitish qobiliyatini ham rivojlantirishdir. Shu sababli, audiolingvistik yondashuv foydali hisoblanadi. Yakunda o'quvchi o'z talaffuzini tahlil qilib, qayerda xato qilganini tushunib olishi va shu asosda o'z ustida ishlashi kerak. Bu esa refleksiya tamoyilidir.

Fonetika o'qitish tilda ravon va to'g'ri so'zlash, o'z fikrini aniq ifoda etish uchun mustahkam poydevor yaratadi. To'g'ri fonetik bilim va ko'nikmalar o'quvchilarning og'zaki nutqini boyitadi, savodxonligini oshiradi va umumiy nutq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, fonetika o'qitishga tizimli va puxta yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduazizov A. O'zbek tilining fonetikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2007. -54 b.
2. Jo'raev N. Til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2005.-43 b.
3. Raxmonov T. O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi. Toshkent: Fan, 2009.-86 b.
4. Zunnunov M. Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Akademnashr, 2013.-120 b.

SO'ZNING QUDRATI: QARG'ISHLARNING JAMIYAT VA SHAXS HAYOTIDAGI O'RNI

Aristanova Sabrina Kaldiboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

aristanovasabrina24@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada qarg'ishlarning jamiyatdagi o'rni hamda ularning ijtimoiy va ruhiy ta'siri tahlil qilinadi. Qarg'ishlarning tarixiy ildizlari, diniy va madaniy nuqtayi nazardan baholanishi, shuningdek, ijobiy va salbiy qarg'ishlarning farqlari yoritiladi. Shuningdek, ota-onalarning farzandlarga duo shaklida bildirgan ezgu tilaklari hamda salbiy qarg'ishlarning inson ruhiyati va jamiyatdagi munosabatlarga ko'rsatadigan ta'siri haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, so'zning kuchi va uning inson hayotidagi o'rni alohida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: qarg'ish, duo, ijobiy qarg'ish, salbiy qarg'ish, so'zning kuchi, jamiyat, ruhiy ta'sir

Abstract: This article explores the role of curses in society and their social and psychological impact. It examines the historical roots of curses, their interpretation from religious and cultural perspectives, and analyzes the distinction between positive and negative curses. Special attention is given to parental "curses" expressed as blessings for their children, as well as the harmful effects of negative curses on an individual's psyche and social relationships. Furthermore, the article reflects on the power of words and their significance in human life.

Keywords: curse, blessing, positive curse, negative curse, power of words, society, psychological impact

Аннотация: В статье рассматривается роль проклятий в общество и их социальное и психологическое влияние. Анализируются исторические корни проклятий их оценка с точек религиозной и культурной зрения а также различия между добрыми и злыми проклятиями. В статье также рассматриваются

благославения родителей в форме добрых проклятий. Для своих детей и негативные последствия вредных отношений. Кроме того освещается сила слова и его значение в жизни человека.

Ключевые слова: проклятые, благословение, доброе проклятие, злое проклятие, сила слова, общество, психологическое воздействие.

Har bir inson hayotida soʻzning oʻrni beqiyosdir. Soʻz – bu insonning ichki dunyosini, his-tuygʻularini ifoda etuvchi vosita boʻlib, uning yordamida inson quvonchini ham, gʻazabini ham bildiradi. Qadim zamonlardan beri soʻzning qudrati haqida koʻplab rivoyatlar va hikoyatlar yaratilgan boʻlib, uning ijobiy hamda salbiy kuchi jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Soʻz insonning eng katta boyliklaridan biridir. Ezgu soʻz quvonch, mehr va umid baxsh etadi. Yomon soʻz esa alam, gʻazab va nafrat uygʻotadi. Yomon niyat bilan aytilgan soʻzning eng ogʻir koʻrinishi esa — qargʻishdir. Qadimdan odamlar soʻzning kuchiga ishonib kelishgan. Shu bois xalq orasida qargʻish eng ogʻir va qoʻrqinchli soʻz sifatida qaralgan. Ayniqsa, ota-onaning qargʻishi tez qabul boʻlishiga boʻlgan eʼtiqod kuchli boʻlgan.

Islom taʼlimotida ham qargʻish qilish maʼqullanmaydi. Musulmon kishi nafaqat oʻz haqqiga, balki boshqa musulmon birodarining haqqiga ham duo oʻrniga yomon soʻz aytishi sharʼan joiz emas. Xususan, oila aʼzolari yoki farzandlarga qarshi qilingan qargʻish juda ogʻir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Qargʻishning eng katta xavfi shundaki, u nafaqat qargʻalgan insonga, balki qargʻayotgan kishining oʻziga ham zarar yetkazadi. Shu bois, har bir inson ogʻizdan chiqayotgan soʻzga eʼtibor berishi lozim, chunki har bir soʻzning oʻz taʼsiri mavjud.

Aytilgan soʻz nafaqat boshqalarning ruhiyatiga, balki aytuvchining oʻziga ham taʼsir koʻrsatadi. Agar kimdir ogʻir yoki salbiy soʻz ishlatsa, bu suhbatdoshining kayfiyatini tushiradi, shuningdek, soʻzlovchining oʻzida ham salbiy tuygʻularni uygʻotib, ichki xotirjamligini buzadi. Natijada, bunday odamlarga jamiyatda salbiy munosabat shakllanadi, ularga ishonch kamayadi, odamlar ulardan uzoqlasha boshlaydi. Bu esa insonning jamiyatdagi mavqeiga salbiy taʼsir qiladi.

Islom manbalarida qayd etilishicha, kimki birovni nohaq qargʻasa, oʻsha qargʻish egasiga qaytadi. Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham qargʻishdan tiyilish lozimligini taʼkidlaganlar. Hadislarda: *“Agar kimdir birovni nohaq qargʻasa, bu qargʻish egasiga qaytadi”*, degan mazmundagi oʻgitlar keltiriladi.

Yomon niyat bilan aytilgan soʻzlar insonning oʻz hayotiga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Donishmandlar buni **“soʻzning energiyasi”** deb izohlashadi. Yomon

soʻzlar, jumladan qargʻishlar koʻpaygani sari, inson hayotida ham turli salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin: ishlar yurishmay qoladi, sogʻliq zaiflashadi, oilaviy kelishmovchiliklar ortadi.

Ammo koʻpchilik qargʻish deganda faqatgina yomon, zararli yoki gʻazabdan kelib chiqqan soʻzlarni tushunadi. Aslida esa qargʻishning ijobiy tomoni ham mavjud. Baʼzan tashqi tomondan keskin yoki salbiy eshitiladigan qargʻish aslida ichida yaxshi niyat, mehr va duoni mujassam etadi. Bunday qargʻishlar odatda ota-onalar, buvi-bobolar yoki yaqin insonlar tomonidan aytiladi. Masalan, ona bolasidan jahli chiqqan paytda ham unga qarata “Makkada imom boʻlgʻin” yoki “Baxting ochilsin” kabi soʻzlarni ishlatadi.

Shunday qilib, qargʻish ikki turga boʻlinadi: yomon qargʻish va yaxshi qargʻish. Qadimiy xalq ogʻzaki ijodida yaxshi qargʻishlar koʻp uchrab, ular koʻpincha tilak, nasihat yoki tarbiya vositasi sifatida aytilgan. Paygʻambarimiz ham ota-onaning duosi qabul boʻlishi haqida koʻp marotaba taʼkidlaganlar. Shu bois, ota-onaning ezgu niyat bilan aytgan soʻzlari duoga kiradi. Biroq agar ota-ona gʻazab taʼsirida gapirsa, bu holat endi yaxshi qargʻish emas, balki salbiy maʼnoga aylanadi.

Yaxshi qargʻish xalqimiz donoligi, mehr-muhabbati va tarbiyaviy qarashlarining oʻziga xos ifodasidir. Demak, har bir qargʻishning ichki maʼnosiga alohida eʼtibor berish lozim. Chunki soʻz — bu kuchli qurol. Agar u ezgu niyat bilan ishlatilsa, duo sifatida insonning kelajagini yoritadi. Aksincha, yomon niyatli soʻzlar, xususan qargʻishlar oilada va jamiyatda kelishmovchilik, nizo va ruhiy ogʻirliklarga sabab boʻladi. Shu bois, biz oʻz hayotimizda, oilamizda va jamiyatimizda tinchlik hamda mehr-muhabbatni istar ekanmiz, salbiy soʻzlardan, ayniqsa qargʻishdan yiroq boʻlishimiz lozim.

Xalq orasida bejizga: **“Har bir gapga farishtalar omin deydi”** degan naql aytilmagan. Demak, har bir soʻz qudratli va masʼuliyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Hadislar toʻplami — Imom Buxoriy, Imom Termiziy rivoyatlari.
2. Odob-axloq qoidalari — islomiy odob va soʻzning kuchi haqida.
3. Oʻzbek xalq maqollari va iboralari — xalq orasida ishlatiladigan yaxshi va yomon qargʻishlar haqida.
4. Islomda ota-onaning duosi va laʼnati — diniy tushunchalar asosida.
5. Alisher Navoiy va boshqa mumtoz adiblarning asarlari — soʻzning qudrati haqida maʼnaviy misollar.

YASAMA SO'ZLARNI O'RGATISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Ergasheva Diyorabonu Oybek qizi

Quysinova O'g'iloy Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ogiloyquysinova@gmail.com

ergashevadiyorabonu@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tog'oymurod Bekturodov

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida yasama so'zlarning tuzilishi, ularning yasalish usullari va o'quvchilarga o'rgatish metodikasi yoritiladi. So'z yasash orqali lug'at boyligi va fikr ifodasi rivojlanishi ta'kidlanadi. Shuningdek, dars jarayonida interaktiv usullardan foydalanishning afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: yasama so'z, affiks, metodika, ona tili, semantika, o'quvchi tafakkuri.

Annotation. This article explores the structure of derived words in the Uzbek language, their formation methods, and effective teaching methodologies for students. It emphasizes how word formation enhances vocabulary and the ability to express thoughts. Additionally, the advantages of using interactive methods in the teaching process are discussed.

Key words: derived word, affix, methodology, native language, semantics, student.

Аннотация. В данной статье рассматриваются структура производных слов в узбекском языке, способы их образования и методика преподавания учащимся. Подчеркивается роль словообразования в обогащении словарного запаса и развитии навыков выражения мыслей. Также обсуждаются преимущества использования интерактивных методов в учебном процессе.

Ключевые слова: производное слово, аффикс, методика, родной язык, семантика, мышление учащихся.

Tilshunoslikda so'z yasash jarayoni leksik qatlamning eng faol va dinamik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aynan shu jarayon tilning o'sishi, yangi tushunchalarni ifodalash va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbek tilida so'z

yasash vositalari yordamida har kuni yangi birliklar yuzaga kelmoqda. Bu hodisa, ayniqsa, ta'lim tizimi, xususan, ona tili darslarida muhim o'rin tutadi. Yasama so'zlar grammatik ko'nikmalarni emas, balki estetik did, axloqiy tushunchalar va ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi.

Yasama so'zlar mustaqil ma'noga ega asosga so'z yasovchi affiks (qo'shimcha) qo'shilishi orqali hosil bo'lgan yangi birlikdir. Bu so'zlar faqat shaklan emas, balki ma'no jihatdan ham boy bo'ladi. Tilshunoslar (S. Madrahimov, T. G'anieva, A. G'ulomov va boshqalar) ta'kidlaganidek, yasama so'zlar uch asosiy yo'l bilan hosil qilinadi:

1. Affiksal yasaliş – eng keng tarqalgan usul: *bilim* → *bilimli* → *bilimdon*; *do'st* → *do'stona* → *do'stlik*.
2. Kompozitsiya (qo'shma so'zlar) – ikki yoki undan ortiq so'zlar birikadi: *kitob+do'st* = *kitobdo'st*, *xalq+dosh* = *xalqdosh*.
3. Konversiya (so'z turkumining o'zgarishi) – so'z shakli o'zgarimasdan, boshqa turkumga o'tadi: *yosh (sifat)* → *yosh (ot)*, *tez (sifat)* → *tezlik (ot)*. Bu yasaliş usullari orqali yangi ot, sifat, fe'l va ravishlar yuzaga keladi. Har bir yangi yasama so'z tilning lug'aviy boyligini kengaytiradi.

Dars jarayonida yasama so'zlarni o'rgatish yondashuvlari. Ona tili darslarida yasama so'zlarni o'rgatish jarayoni o'quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash, til bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratiladi. Ona tili darslarida yasama so'zlarni o'rgatish jarayonida o'quvchilarning til ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va semantik tushunchalarni chuqur anglashda samarali metodik yondashuvlar quyidagilardan iborat:

1. So'zdan so'z yasash zanjiri. So'z yasash jarayoni ona tili o'qitishda o'quvchilarning mustaqil tafakkurini, nutqiy faolligini va til bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Bu usul o'quvchilarni mavjud asosiy (tub) so'zdan yangi yasama birliklar hosil qilishga rag'batlantiradi. Bu orqali o'quvchilar lug'aviy boylikni amalda kengaytiradi, so'zlar o'rtasidagi grammatik va semantik bog'liqlikni tushunib boradi. Bu metodning mohiyati shundaki, o'quvchiga tub so'z (asos) beriladi va undan imkon qadar ko'proq yasama so'zlar hosil qilish vazifasi yuklanadi. Masalan, “**yur**” asosidan quyidagi zanjir hosil bo'ladi:

- **yur** (asosiy fe'l)
- **yurmoq** (harakat bildiruvchi otlangan fe'l)
- **yurgan** (ot yoki sifat vazifasida qo'llanishi mumkin bo'lgan sifatdosh)

- **yuruvchi** (sifatlash, izohlash imkonini beruvchi sifatdosh)
- **yuraverish** (harakatning davomiylik va takroriylik ifodasi)
- **yurmay, yurmaslik** (inkor shakllari)

Bu kabi mashqlar orqali o'quvchi har bir affiks yoki grammatik vosita bilan qanday semantik o'zgarish yuz berishini amalda ko'radi. Bu esa ularning **grammatik tafakkuri** va **semantik sezgirligini** rivojlantiradi. Qolaversa, **didaktik afzalliklari o'quvchilarda ijodiy fikrlashni, tahliliy ko'nikmalarni rivojlantiradi, nutq boyligini oshiradi.**

2. Badiiy matndan tahlil qilish. Tilni o'rganishda badiiy adabiyot eng boy va ifodali manba hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek adabiy tilining boy leksik qatlamini chuqur anglashda badiiy matnlar asosida tahlil ishlari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. **Yasama so'zlarni** o'rgatishda badiiy matndan foydalanish metodikasi o'quvchilarni nafaqat lingvistik, balki estetik va ma'naviy jihatdan ham tarbiyalaydi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi - **badiiy matn orqali yasama so'zlarni kontekstda tahlil qilish**, ularning semantik yukini, tuzilishini va uslubiy vazifasini o'quvchiga anglatishdir. Bunday usul o'quvchilarning o'qigan matnini tushunish, so'z boyligini oshirish, matnga tahliliy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. **Masalan**, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi yozuvchilar va shoirlar asarlarida juda ko'p **yasama so'zlar** uchraydi:

- **Navoiyda:** *saboqdon, g'amxo'r, mehribonlik, ozodlik, quvonchli*
- **Qodiriyda:** *vijdonli, fidoiy, xizmatkorlik*
- **Oripovda:** *vatanparvar, xalqparast, so'zdon*
- **Zamonaviy adabiyotda:** *mobilograf, onlaynlik, bloggerlik*

Ushbu so'zlar o'z mazmuni, uslubiy ifodasi va tildagi funksional yukiga ko'ra o'quvchida chuqur estetik va semantik taassurot uyg'otadi. Masalan, "g'amxo'r" so'zi nafaqat fe'l va qo'shimchalarning birikmasidan iborat, balki u axloqiy tushunchani ifodalaydi.

3. Neologizmlardan foydalanish. Zamonaviy til taraqqiyotida **neologizmlar** (yangi so'zlar) alohida o'rin tutadi. Axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, ilmfan va kundalik turmushdagi o'zgarishlar natijasida tilga ko'plab yangi tushunchalar, atamalar va ifodalar kirib kelmoqda. Ushbu yangi so'zlar - **yasama birliklar sifatida** tilning dinamik va yashovchan tabiatini namoyon etadi. Shu sababli, ularni **ona tili darslarida o'rgatish**, o'quvchining tilga bo'lgan munosabatini zamon ruhiga mos tarzda shakllantiradi. Neologizmlar - bu tilga yaqinda kirgan yoki hozirgi zamonaviy

ehtiyoj asosida yaratilgan yangi soʻzlardir. Ular, odatda, quyidagi yoʻllar bilan yuzaga keladi:

❖ **Soʻz yasash orqali:** mavjud tub soʻzlar va affikslar asosida yangi birliklar hosil boʻladi. Masalan:

○ *mobil + grafiya* → **mobilografiya**

Xulosa qilib aytganda, Yasama soʻzlarni oʻrganish va oʻrgatish masalasi tilshunoslikning nazariy jihatdan muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlishi bilan birga, amaliy jihatdan ham keng qamrovli va samarali vosita sifatida eʼtirof etiladi. Soʻz yasash jarayoni har bir tirik tilning doimiy ravishda yangilanishi, boyishi va taraqqiy etishida asosiy rol oʻynaydi. Ayniqsa, oʻzbek tilida soʻz yasovchi vositalarning faol ishlatilishi yangi tushunchalarni ifodalashda, fikrni boy va aniq ifoda qilishda, ilmiy, badiiy va ommaviy axborot vositalarida til imkoniyatlarining kengayishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy taʼlimda interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, test platformalari va onlayn darsliklardan foydalanish orqali yasama soʻzlarni oʻrgatish jarayonini yanada qiziqarli, samarali va taʼsirchan qilish mumkin. Shu yoʻl bilan oʻquvchi tilni nafaqat oʻrganadi, balki uni faol ravishda yaratadi, tushunadi va hayotiy ehtiyojlariga mos ravishda qoʻllaydi.

Umuman olganda, yasama soʻzlar mavzusi - bu faqat grammatik hodisa emas, balki oʻquvchini tilga muhabbat ruhida tarbiyalovchi, uni tafakkur, maʼnaviyat va zamonaviylik yoʻlida yetaklovchi kuchli pedagogik vositadir. Ona tili oʻqituvchisining bu boradagi chuqur bilimiga, zamonaviy metodikaga va ijodiy yondashuvga ega boʻlishi — til oʻrgatish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) – Toshkent: 2019. -246 b.
2. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. -T.: Choʻlpon nomidagi NMIU, 2017. – 164 b.
3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati. Toshkent.: Turon zamin ziyo, 2015. – 40 b.
4. Rahmatullayev Sh, Oʻzbek tili frazeologik lugʻati – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
5. “Antroposentrik tilshunoslik yoʻnalishlari” moduli boʻyicha oʻquv-uslubiy majmua.// D. Lutfullayeva. D. Xudoyberganova. - Toshkent, 2016. – 215 b.

THE ROLE OF DIGITAL TOOLS IN INCREASING ENGLISH PRONUNCIATION

Ismailova Munajat Qudrat qizi

2nd year student, Chirchik State Pedagogical University

Email: ismailovamunajat1802@gmail.com

Scientific adviser: **Mahmudova Zilola Shukhrat qizi**

EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University

Email: z.mahmudova@cspu.uz

Abstract

Pronunciation is one of the most challenging aspects of English language learning, as it requires not only phonetic knowledge but also consistent practice and exposure to authentic input. With the rapid growth of educational technologies, digital tools have become powerful instruments for enhancing learners' pronunciation skills. This paper examines the role of digital applications, speech recognition software, online platforms, and AI-powered systems in developing English pronunciation. It argues that digital tools provide learners with accessible, flexible, and interactive opportunities to improve articulation, stress, rhythm, and intonation. Furthermore, these tools offer immediate feedback, personalized learning paths, and gamified exercises that increase motivation and learner autonomy.

Keywords: *digital tools, speech recognition, language learning, mobile applications, artificial intelligence, pronunciation practice, oral communication, learner motivation, feedback systems, gamified learning, educational technology.*

Annotatsiya

Ingliz tilini o'rganishda talaffuz eng murakkab jihatlardan biridir, chunki u nafaqat fonetik bilimni, balki muntazam mashq qilish va autentik nutqqa duch kelishni ham talab qiladi. Ta'lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida raqamli vositalar o'quvchilarning talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda kuchli vositaga aylandi. Ushbu maqolada ingliz tili talaffuzini o'rgatishda raqamli ilovalar, nutqni tanish dasturlari, onlayn platformalar va sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli vositalar o'quvchilarga talaffuz, urg'u, ritm va intonatsiyani yaxshilash uchun qulay, moslashuvchan va interaktiv imkoniyatlar yaratishi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, bunday vositalar darhol fikr-mulohaza,

shaxsiylashtirilgan o'quv yo'llari va gamifikatsiyalangan mashqlarni taqdim etib, motivatsiya hamda mustaqil o'rganishni kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: *raqamli vositalar, nutqni tanish, til o'rganish, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, talaffuz mashqlari, og'zaki muloqot, o'quvchi motivatsiyasi, fikr-mulohaza tizimlari, gamifikatsiyalangan ta'lim, ta'lim texnologiyalari.*

Аннотация

Произношение является одним из самых сложных аспектов изучения английского языка, так как оно требует не только фонетических знаний, но и регулярной практики, а также контакта с аутентичной речью. С быстрым развитием образовательных технологий цифровые инструменты стали мощными средствами для совершенствования навыков произношения у изучающих язык. В данной статье рассматривается роль цифровых приложений, программ распознавания речи, онлайн-платформ и систем на основе искусственного интеллекта в развитии английского произношения. Подчеркивается, что цифровые инструменты предоставляют обучающимся доступные, гибкие и интерактивные возможности для улучшения артикуляции, ударения, ритма и интонации. Кроме того, такие инструменты обеспечивают мгновенную обратную связь, персонализированные траектории обучения и игровые упражнения, которые повышают мотивацию и автономию обучающихся.

Ключевые слова: *цифровые инструменты, распознавание речи, изучение языка, мобильные приложения, искусственный интеллект, практика произношения, устная коммуникация, мотивация обучающихся, системы обратной связи, игровое обучение, образовательные технологии.*

In recent years, the importance of English as a global language has continued to grow, especially in academic, professional, and intercultural contexts. Among the four main language skills—listening, speaking, reading, and writing—speaking is often considered the most challenging because it requires accurate pronunciation in addition to vocabulary and grammar knowledge. Pronunciation is not only a matter of producing sounds correctly but also involves stress, rhythm, and intonation, all of which contribute to intelligibility and effective communication.

Learners with poor pronunciation often struggle to be understood, even if their grammar and vocabulary are advanced. This highlights the central role of pronunciation in overall communicative competence. While traditional approaches such as teacher modeling, drilling, and phonetic transcription have long been valuable

in classrooms, they provide limited exposure and individual feedback opportunities. The rapid development of technology, however, has introduced digital tools that create new opportunities for practice, feedback, and learner engagement in pronunciation training.

Language learning apps such as Elsa Speak, Duolingo, Babbel, Hello English, and Rosetta Stone provide structured pronunciation practice. They often include phonetic exercises, minimal pair drills, and interactive activities that allow learners to repeat and record their speech. Mobile apps are widely accessible, affordable, and convenient, making them one of the most popular tools among learners of different levels.

Speech recognition technology analyzes learners' spoken words and compares them with native speaker models. Tools such as Google Speech Recognition, Microsoft Azure Speech Services, and iSpeech provide immediate feedback on accuracy, stress, and intonation. This feature helps learners identify specific pronunciation errors and correct them in real time.

Web-based platforms like BBC Learning English, Forvo, YouTube tutorials, and online MOOCs (Massive Open Online Courses) offer authentic models of English pronunciation. Learners can listen to words and phrases spoken by native speakers, practice repetition, and learn through visual demonstrations. These resources also expose students to different accents, enhancing their listening and speaking adaptability.

AI-powered systems, such as chatbots and virtual tutors, create interactive conversations where learners can practice speaking in real-life scenarios. These tools adapt to the learner's level, provide personalized feedback, and track long-term progress. Advanced AI applications also simulate human-like speech interaction, helping learners practice fluency, rhythm, and natural intonation.

Online dictionaries such as Cambridge, Oxford, and Merriam-Webster provide audio models for correct pronunciation of words in both British and American English. Many of them also include phonetic transcription, which helps learners understand the International Phonetic Alphabet (IPA) and link written symbols to sounds. In conclusion, digital tools for pronunciation come in multiple forms, each with unique benefits. By combining mobile applications, speech recognition systems, online platforms, AI-based tools, and digital dictionaries, learners can gain extensive opportunities for practice and improvement. These tools, when integrated effectively into language learning, contribute significantly to enhancing learners' oral proficiency and confidence in using English.

The integration of digital tools into English pronunciation practice offers valuable opportunities for teachers and learners. While technology cannot replace traditional instruction, it can greatly enhance learning when balanced with classroom interaction. Digital tools support blended learning by combining pronunciation drills, role plays, and peer feedback with apps or online platforms, giving students both personalized practice and collaborative support. They also allow individualized learning through AI-powered feedback, which helps teachers adapt lessons to learners' needs. Moreover, gamified and interactive resources increase motivation and encourage autonomous practice beyond the classroom, while exposure to diverse accents prepares students for real-world communication. However, challenges such as overreliance on technology and inaccurate feedback remain. Overall, digital tools should complement—not replace—traditional methods, extending learning opportunities and improving communicative competence.

Conclusion

Pronunciation is an essential element of English language learning, directly affecting intelligibility, fluency, and confidence. While traditional classroom methods remain valuable, they often lack sufficient practice and feedback opportunities. Digital tools—including mobile apps, speech recognition, online platforms, AI-based systems, and digital dictionaries—offer interactive and accessible ways to improve pronunciation.

Although challenges such as overdependence on technology and inaccurate feedback exist, these tools, when integrated thoughtfully with traditional methods, can significantly enhance learners' oral proficiency. Therefore, the combination of teacher guidance and digital technology is crucial in fostering effective pronunciation learning and communicative competence.

REFERENCES

1. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M . John Benjamins.
2. Gilakjani, A. P. (2016). English pronunciation instruction: A literature review. *International Journal of Research in English Education*, 1(1), 1–6.
<https://doi.org/10.18869/acadpub.ijree.1.1.1>
3. Jones, D. (2011). *Cambridge English pronouncing dictionary* (18th ed.). Cambridge University Press.

4. Lee, J. S., & Lee, K. (2019). The role of digital media in second language pronunciation development: A review. *Journal of Language Teaching and Research*, 10(2), 220–228. <https://doi.org/10.17507/jltr.1002.06>

5. Mahmudova, Z. (2025). THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS AMONG STUDENTS. *Академические исследования в современной науке*, 4(38), 81-83.

6. Rafieyan, V. (2018). The impact of computer-assisted language learning on improving pronunciation among EFL learners. *Journal of Applied Linguistics and Language Research*, 5(3), 95–106.

7. Saito, K. (2012). Effects of instruction on L2 pronunciation development: A synthesis of 15 quasi-experimental intervention studies. *TESOL Quarterly*, 46(4), 842–854. <https://doi.org/10.1002/tesq.67>

8. Sh, M. Z. (2023). Principles Of Development Of Creative Activity Of Primary Class Students In Tashkent Regional Universities. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 1(2), 567-571.

9. Turmamatova, D. N. Q., & Makhmudova, Z. S. Q. (2025). WAYS AND PRINCIPLES OF DEVELOPING PRONUNCIATION SUB-SKILLS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. *Academic research in educational sciences*, 6(NUU Conference Students 1), 181-184.

10. Walker, R. (2010). *Teaching the pronunciation of English as a lingua franca*. Oxford University Press.

ONA TILI TA'LIMIDA ZAMONAVIY METODLAR VA INNOVATSION TEXNALOGIYALAR

Amanbayeva Dilnura Ergashbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

amanbayevad@gamil.com

Ilmiy rahbar: Tog'oymurod Bekmurodov

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili o'qitish metodikasining nazariy asoslari, predmeti, maqsad va vazifalari hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metod va usullar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ona tili ta'limining boshqa fanlar bilan aloqasi, didaktik tamoyillar, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ona tili ta'limi, zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar, interfaol o'qitish, didaktik tamoyillar, pedagogik yondashuv, ijodiy fikrlash, o'quv jarayoni.

Annotation. This article examines the methodology of teaching the mother tongue, focusing on its theoretical foundations, objectives, and practical applications. It highlights the role of didactic principles, the relationship between mother tongue teaching and related sciences, as well as the use of interactive and innovative teaching methods. The paper emphasizes that teaching methodology should develop students' oral and written speech, foster independent and creative thinking, and instill respect for national and universal values.

Keywords: Mother tongue education, modern methods, innovative technologies, interactive teaching, didactic principles, pedagogical approach, creative thinking, learning process.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы, предмет, цели и задачи методики преподавания родного языка, а также методы и приемы, применяемые в учебном процессе. Также анализируется связь преподавания родного языка с другими науками, дидактические принципы, использование интерактивных методов и инновационных педагогических технологий, способствующих повышению эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: Обучение родному языку, современные методы, инновационные технологии, интерактивное обучение, дидактические принципы, педагогический подход, творческое мышление, учебный процесс.

Ona tili o'qitish metodikasi - bu ona tilini maktabda o'qitish jarayonini ilmiy asosda o'rganadigan mustaqil fan. Uning predmeti - ta'lim jarayonidagi qonuniyatlarni, samarali metod va usullarni aniqlash va amalda qo'llashdir. Asosiy maqsadi esa o'quvchilarda til haqidagi bilimlar, nutqiy malakalar va ijodiy qobiliyatlari.

Bugungi globallashtirish davrida ta'lim jarayonini yangilash, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot madaniyatini shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Ona tili ta'limida qo'llanilayotgan metodlar va yangicha texnologiyalar aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Ular orqali o'quvchilar nafaqat grammatik bilimlarni o'zlashtiradi, balki suhbat qurish, tahliliy fikrlash qobiliyati va yozma hamda og'zaki nutqni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Avvalo, an'anaviy metodlar ona tili ta'limida asosiy poydevor sifatida katta ahamiyatga ega. dilar [Yo'ldoshev, 2019.].

Bu metodlar o'quvchida tildan to'g'ri foydalanish va lug'at boyligi oshirishda foydalanishmoqda. Izohli bayon, suhbat, ko'rgazmali vositalardan foydalanish va amaliy mashqlar orqali o'quvchilar savodxonlikka, matn bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lagini kengaytirishda muhim vosita bo'lib qolmoqda. [Xolbekov, 2020].

Shu bilan birga, zamon talabi ta'lim jarayoniga faol hamkorlikka asoslangan metodlarni keng joriy etishni taqozo qiladi. Faol hamkorlik metodlari – g'oya xaritasi, fikrlar oqimi, bahs-munozara, rollarga bo'linib o'ynash, hayotiy vaziyatni tahlil qilish, belgilash usuli kabi yondashuvlar dars jarayonini qiziqarli qiladi, o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi. Masalan, g'oya xaritasi orqali o'quvchilar mavzuga oid tushunchalarni tartibga soladi, fikrlar oqimi metodida esa erkin fikr bildirish va muammoni birgalikda hal qilish ko'nikmasi shakllanadi. Bahs va munozaralar o'quvchilarda nutqiy faoliyatni rivojlantirish, dalillash va isbotlash madaniyatini shakllantiradi.

Bu esa o'z navbatida suhbatga asoslangan yondashuvning amalda qo'llanilishiga zamin yaratadi. Yana bir muhim jihat – o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishdir. Differensial yondashuv asosida dars tashkil etilsa, har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va imkoniyati inobatga olinadi. Shu orqali o'quvchi o'zini namoyon qilish, ijodkorlikni rivojlantirish, bilimini mustaqil ravishda oshirish

imkoniyatiga ega bo'ladi. Yangicha texnologiyalar ham ona tili ta'limida keng qo'llanilmoqda. Ko'p funksiyali axborot vositalari, elektron darsliklar, masofaviy o'qitish tizimlari va sun'iy tajriba muhitlari dars jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi [Qurbonova, 2021].

Masofadan ta'lim olish imkoniyatlari orqali o'quvchilar darsdan tashqarida ham bilim olish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, turli mobil dasturlar, elektron lug'atlar, sun'iy intellekt asosida yaratilgan.

O'quv vositalari o'quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini yengillashtirmoqda. O'yin texnologiyasi ham so'nggi yillarda keng tarqalgan yondashuvlardan biridir.

O'yin asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda til o'rganishga qiziqishni kuchaytiradi, motivatsiyani oshiradi va mustahkam bilim hosil qiladi. Masalan, til o'rganishda ball to'plash, reyting tizimi yoki savol-javoblardan foydalanish jarayonni yanada samarali qiladi. Shuningdek, bilim va ko'nikmaga asoslangan yondashuv ham ona tili ta'limida muhim ahamiyatga ega.

Bu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchi o'rgangan bilimlarini suhbatda, yozma ishlarda va amaliy mashg'ulotlarda qo'llab, mustahkamlaydi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarni hayotga tayyorlaydi. Fanlararo bog'liqlikka asoslangan yondashuv ham e'tiborga molikdir.

Ona tili darslari boshqa fanlar bilan bog'lanib o'tilsa, o'quvchilarda keng qamrovli bilimlar shakllanadi. Masalan, tarix, adabiyot, geografiya yoki axborot texnologiyalari bilan uyg'un holda olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi, mavzuga qiziqishni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytamizki, ona tili o'qitish metodikasi fani kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Sababi, zamonaviy metodlar rivojlanib boryotgani, dars mashg'ulotlari uchun qulay va oson qo'llanmalar, o'quvchilarning bilim olishlari uchun samarali yechim hisoblanadi.

Ona tili ta'limida metod va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi zamon talabi hisoblanadi. An'anaviy metodlar (izohli bayon, suhbat, ko'rgazmali usullar) ta'limning poydevorini tashkil etsa, zamonaviy metod va texnologiyalar esa o'quvchilarning nutqiy va ijodiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Kommunikativ metod orqali o'quvchilar erkin muloqotga kirishadi, muammoli ta'lim metodi esa mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Interaktiv metodlar-klasterni, aqliy hujum, rol o'yinlar, bahs-munozara-o'quvchilarning darsdagi faolligini

oshiradi. Amaliy mashqlar usuli yozma va og'zaki nutqni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar, ya'ni multimedia vositalari, elektron darslik va platformalar, masofaviy ta'lim, gamifikatsiya va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar ona tili darslarini yanada samarali qiladi.

Ular o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil izlanish va o'zini nazorat qilish imkonini beradi, og'zaki va yozma nutqni integratsiyalashga yordam beradi, shuningdek, o'qituvchining vaqtini tejaydi. Shunday qilib, ona tili ta'limida metodik yondashuvlarni takomillashtirish, innovatsion dars samaradorligini oshirishning eng muhim shartidi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) – Toshkent: 2019. -246 b.
2. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. -T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. – 164 b.
3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent.: Turon zamin ziyo, 2015. – 40 b.
4. Rahmatullayev Sh, O'zbek tili frazeologik lug'ati – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
5. "Antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua.// D. Lutfullayeva. D. Xudoyberganova. - Toshkent, 2016. – 215 b.

O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI MAVQEI VA NUTQ MADANIYATINING DOLZARB MASALALARI

Asroyeva Sevinch Izattilla qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

sevinchasroyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya.

Ushbu maqolada davlat tilida ish yuritishda nutq madaniyatining tutgan o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi va uning yangi tahririda belgilangan tamoyillar yoritilgan. Davlat idoralarida hujjat yuritishda uchrayotgan amaliy muammolar, rasmiy uslubdagi kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, nutq madaniyatining nazariy asoslari, rasmiy uslubning xususiyatlari va davlat tilida ish yuritishni takomillashtirishning samarali choralariga e'tibor qaratilgan. Maqolada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asarlarida til siyosati va davlat tilining hayotimizdagi o'rni haqidagi fikrlari ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalarida davlat tilida ish yuritish – bu nafaqat qonuniy talab, balki milliy g'urur va ijtimoiy mas'uliyat ekanligi isbotlab berilgan.

Kalit so'zlar. Davlat tili, ish yuritish, nutq madaniyati, "Davlat tili haqida"gi Qonun, rasmiy uslub, til siyosati, savodxonlik, amaliy muammolar, Shavkat Mirziyoyev asarlari, milliy g'urur, ijtimoiy mas'uliyat

Annotation.

This article analyzes the role and importance of speech culture in conducting business in the state language. In particular, the adoption of the Law "On the State Language" and the principles established in its new edition are highlighted. Practical problems encountered in document management in state agencies, shortcomings in the official style and ways to eliminate them are considered. Attention is also paid to the theoretical foundations of speech culture, features of the official style and effective

measures to improve business in the state language. The article also analyzes the thoughts of President Shavkat Mirziyoyev on language policy and the role of the state language in our lives in the works of our President Shavkat Mirziyoyev. The results of the study prove that conducting business in the state language is not only a legal requirement, but also national pride and social responsibility.

Keywords. State language, business, speech culture, Law "On the State Language", official style, language policy, literacy, practical problems, works of Shavkat Mirziyoyev, national pride, social responsibility

Аннотация.

В статье анализируются роль и значение культуры речи при ведении дел на государственном языке. В частности, освещаются принятие Закона «О государственном языке» и принципы, заложенные в его новой редакции. Рассматриваются практические проблемы документооборота в государственных органах, недостатки официально-делового стиля и пути их устранения. Также уделяется внимание теоретическим основам культуры речи, особенностям официально-делового стиля и эффективным мерам по совершенствованию делового оборота на государственном языке. В статье анализируются размышления Президента Шавката Мирзиёева о языковой политике и роли государственного языка в нашей жизни, отраженные в его трудах. Результаты исследования доказывают, что ведение дел на государственном языке – это не только требование закона, но и национальная гордость и социальная ответственность.

Ключевые слова: Государственный язык, бизнес, культура речи, Закон «О государственном языке», официально-деловой стиль, языковая политика, грамотность, практические проблемы, труды Шавката Мирзиёева, национальная гордость, социальная ответственность.

Til – insoniyat taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biridir. U nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi va milliy o'zligini ifodalovchi eng muhim boylikdir. Shu bois, til siyosati va uning amaliy hayotdagi o'rni har qanday davlat taraqqiyotining asosiy omillaridan hisoblanadi. O'zbek tilining davlat tili sifatida maqom olishi xalqimiz tarixidagi eng muhim voqealardan biridir. 1989-yil 21-oktabrda "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqeini mustahkamladi. 2020-yilda qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi esa til siyosatini yanada rivojlantirish va davlat idoralarida hujjatlarni o'zbek tilida yuritishni majburiy etib

belgilab qo'ydi. Davlat tilida ish yuritishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan nutq madaniyatiga bog'liqdir. Chunki hujjatlarning mazmunan to'g'ri, usluban ixcham va shaklan mukammal bo'lishi xodimlarning savodxonligi hamda nutqiy madaniyatiga bevosita aloqador. Nutq madaniyati esa faqat til qoidalariga amal qilish emas, balki shaxsning madaniy darajasi, ma'naviy olami va ijtimoiy mas'uliyatining ko'zgusidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, davlat tilini to'laqonli joriy etish va uni rivojlantirish masalasi kelgusi avlodlarga milliy meros sifatida sog'lom yetkazish vazifasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, davlat tilida ish yuritishda nutq madaniyatiga rioya qilish nafaqat qonuniy majburiyat, balki jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va milliy g'ururining asosiy tayanchlaridan biridir.

Nutq madaniyati – bu shunchaki to'g'ri yozish va gapirish emas, balki shaxsning ma'naviy darajasi, tafakkuri va madaniyatini ko'rsatib beruvchi mezondir. Olim B. Qosimovning ta'rificha, nutq madaniyati adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilish, nutqni mantiqan asoslash va uni go'zal shaklda ifoda etish san'atidir. Rasmiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari mavjud: aniqlik, ixchamlik, mantiqlilik, betaraflik va lo'ndalik. Masalan, farmoyish, qaror, ma'lumotnoma yoki ariza yozishda har bir so'zning aniq va tushunarli bo'lishi, jumlar ortiqcha bezaklardan xoli bo'lishi talab etiladi. Davlat tilining maqomi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. "Davlat tili haqida"gi Qonun esa bu masalani batafsil tartibga soladi. Davlat tili – bu millatning ruhiyati, xalqning g'ururi va sha'ni ifodasidir" (Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 112). 2020-yildagi yangi tahrirga ko'ra, barcha idora va tashkilotlarda ish yuritish faqat o'zbek tilida olib borilishi shart qilib qo'yilgan. Bu huquqiy asos davlat tilining mavqei mustahkamlash bilan birga, nutq madaniyati masalalarini ham dolzarb qiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yilda davlat tili bayrami munosabati bilan shunday degan edi: "Davlat tili – millat ruhi va ma'naviyatining eng muhim tayanchlaridan biridir. Har bir rahbar va xodim davlat tilida to'g'ri, ravon va savodli yozishi, gapirishi – bu ularning eng katta burchidir." Bugungi kunda davlat idoralarida ish yuritishda bir qator muammolar mavjud: hujjatlarda rus tili va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning ortiqcha qo'llanishi; imlo qoidalariga beparvolik; hujjatlarda ortiqcha jumlar va takrorlarning ko'pligi; yagona elektron standartning yo'qligi. Masalan, ba'zi idoralarda yoziladigan rasmiy hujjatlar o'zbek tilining adabiy me'yorlariga emas, balki tarjima uslubiga asoslangan bo'lib, jumalarda ortiqcha murakkabliklar va chalkashliklarga sabab bo'lmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar muhim hisoblanadi:

1. Davlat xizmatchilari uchun nutq madaniyati va rasmiy uslub bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etish.

2. Yagona elektron hujjat dasturini ishlab chiqish va joriy etish.

3. Matbuot va ta'lim tizimida adabiy til me'yorlarini targ'ib qilish.

4. Nutq madaniyati bo'yicha nazorat va monitoring tizimini yo'lga qo'yish. Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida til masalasiga alohida o'rin berilgan: "Davlat tilini hayotimizning barcha sohalarida to'laqonli joriy etish, uni rivojlantirish va kelgusi avlodlarga sog'lom yetkazish – barchamizning muqaddas burchimizdir." Bu yondashuvdan ko'rinib turibdiki, davlat tilida ish yuritish – nafaqat qonuniy majburiyat, balki milliy g'urur va ma'naviy mas'uliyatdir.

Davlat tilida ish yuritish masalasi, albatta, qonuniy zarurat sifatida qaralishi to'g'ri, ammo uni faqat majburiyat doirasida emas, balki ichki ehtiyoj sifatida anglash zarur. Chunki til — insonning fikrini ifoda etuvchi vosita bo'lish bilan birga, jamiyat ongini shakllantiruvchi kuchdir. Bugungi globallashuv sharoitida davlat tilida mukammal va savodli ish yuritish masalasi faqatgina hujjat rasmiylashtirish darajasida qolmasdan, milliy ma'naviyatni targ'ib qilish, intellektual salohiyatni ko'rsatish va xalqaro maydonda milliy qadriyatlarni himoya qilish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, davlat tilining nufuzi idoralardagi hujjatlar yoki qonun matnlari bilangina emas, balki ilmiy ishlar, axborot texnologiyalari, biznes hujjatlari va xalqaro aloqalarda qo'llanish darajasi bilan belgilanadi. Shu jihatdan qaraganda, nutq madaniyati faqat tilshunoslik yoki madaniyatshunoslikning mavzusi emas, balki davlat boshqaruvi, ta'lim, iqtisod va diplomatiya sohalarida ham o'z ahamiyatiga ega. Demak, davlat tilida ish yuritish nafaqat milliy g'ururni yuksaltiradi, balki xalqaro miqyosda O'zbekistonning o'z ovozigacha ega bo'lishi uchun ham zarur omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, davlat tili masalasida jamiyatning o'zi ham faol bo'lishi zarur. Tilning obro'si faqat hukumat qarorlari bilan emas, balki har bir fuqaroning unga bo'lgan e'tibori bilan mustahkamlanadi. Oddiy fuqaro ariza yozishda, tadbirkor shartnoma tuzishda, jurnalist maqola tayyorlashda yoki dasturchi dastur interfeysini yaratishda davlat tilidan foydalansa, tilning nufuzi nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham ortadi.

Shu bois, **davlat tilida ish yuritish va nutq madaniyatini rivojlantirish** — bu qonuniy majburiyatdan ham ko'ra kengroq tushuncha. Bu jarayon millatning o'zligini saqlash, jamiyat tafakkurini yuksaltirish va O'zbekistonning xalqaro maydondagi qiyofasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat tilida ish yuritishning muvaffaqiyati bevosita nutq madaniyatiga bog'liqdir. Agar hujjatlar adabiy til me'yorlariga to'liq rioya qilgan holda yozilsa, ular aniq, ixcham va tushunarli bo'ladi. Bu esa, bir tomondan, davlat tilining mavqeini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, jamiyatda milliy g'ururni yuksaltiradi. Demak, davlat tilida ish yuritish – qonuniy zarurat, ijtimoiy ehtiyoj va eng avvalo, milliy mas'uliyatdir. Nutq madaniyatini yuksaltirish esa ushbu jarayonning asosiy tayanchlaridan biridir. Nutq madaniyati insonning savodxonligi va tafakkur darajasini belgilovchi asosiy mezondir” (Qosimov B. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – B. 56).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. “Davlat tili haqida”gi Qonun. – Toshkent, 1989 (2020-yilda yangi tahriri).
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Qosimov B. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Jo'rayev M., To'xtasinov A. O'zbek tilida ish yuritish. – Toshkent: Talqin, 2019.
8. Qodirov N. O'zbek tili uslubiyati. – Toshkent: Fan, 2014.
9. Abduazizov A. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Cho'lpon, 2018.

ONA TILIDA SAVOD O'RGATISHDA INNOVATSION METODLAR: FONETIK, GRAFIK VA LEKSIK MASHQLAR TIZIMI

Kelesbekova Aydin Nurdaulet qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

aydinkelesbekova@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada ona tilida savod o'rgatish jarayonida innovatsion metodlardan samarali foydalanish masalasi yoritilgan. Xususan, fonetik, grafik va leksik mashqlar tizimi o'quvchilar nutqini shakllantirishda, ularning tafakkurini rivojlantirishda hamda til kompetensiyalarini mustahkamlashda muhim o'rin tutishi tahlil qilingan. Maqolada ilg'or tajribalar, mavjud muammolar va ularni hal qilish bo'yicha ilmiy-pedagogik tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: ona tili, savod o'rgatish, innovatsion metod, fonetik mashq, grafik mashq, leksik mashq, pedagogik texnologiya.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается применение технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современной лингвистике, их роль в автоматизации научных исследований, а также перспективы развития. Раскрывается эффективность использования ИИ в таких направлениях, как корпусная лингвистика, автоматический перевод, обработка текста, семантический и прагматический анализ, распознавание речи. Кроме того, анализируются научные, технологические и этические проблемы, возникающие при использовании искусственного интеллекта. В работе предлагаются рекомендации и практические выводы по рациональному применению ИИ-технологий для вывода лингвистических исследований на новый этап развития.

Ключевые слова: искусственный интеллект, лингвистика, автоматизация, обработка естественного языка, корпус, перевод, речевые технологии, этические ограничения.

ABSTRACT

The article examines the use of artificial intelligence (AI) technologies in modern linguistics, their role in automating scientific research, as well as future prospects. The effectiveness of AI tools is revealed in such areas as corpus linguistics, machine translation, text processing, semantic and pragmatic analysis, and speech recognition. In addition, the paper addresses scientific, technological, and ethical challenges that may arise when applying artificial intelligence. Recommendations and practical suggestions are provided on the rational use of AI technologies to bring linguistic research to a new stage of development.

Keywords: artificial intelligence, linguistics, automation, natural language processing, corpus, translation, speech technologies, ethical constraints.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning asosiy maqsadi – **yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxs** sifatida tarbiyalashdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *“Yoshlarimizning tafakkuri, dunyoqarashi qanchalik keng bo'lsa, mamlakatimiz kelajagi shunchalik porloq bo'ladi”*[1]. Shu bois, ona tilini mukammal o'rgatish, savodxonlikni shakllantirish va boyitish ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir.

An'anaviy dars jarayonida o'qituvchi ko'proq tayyor bilimlarni berish bilan cheklangan bo'lsa, bugungi kunda innovatsion metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarni mustaqil izlanishga, amaliy mashqlar orqali bilimlarni chuqurlashtirishga jalb etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Savod o'rgatishda fonetik, grafik va leksik mashqlarning tizimli qo'llanilishi ushbu jarayonni yanada samarali qiladi.

ASOSIY QISM

Savod o'rgatishda fonetik mashqlar tizimi. Fonetik mashqlar o'quvchilarni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, so'zlarning fonetik tarkibini anglashga o'rgatadi. Masalan, unli va undosh tovushlarni farqlash, urg'u va intonatsiyani to'g'ri qo'yish, sheva ta'sirini kamaytirish fonetik mashqlarning asosiy maqsadidir.

Pedagog olim A.G'ulomov ta'kidlaganidek: *“Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar fonetik hodisalarni amaliy mashqlar orqali anglasagina, ularning nutqiy malakasi shakllanadi”*[2]. Shu bois, innovatsion darslarda tovushli diktantlar, audio materiallar asosida ishlash, interaktiv o'yinlar orqali fonetik ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Grafik mashqlar tizimi. Grafik mashqlar o'quvchilarni yozuv malakalarini egallashga yo'naltiradi. Harflarni to'g'ri yozish, ularning shakli va o'lchamiga rioya qilish, qo'l yozuvi estetikasi grafik mashqlar yordamida mustahkamlanadi. Zamonaviy o'qitish jarayonida interaktiv doska, raqamli dasturlar, maxsus yozuv daftarlari va virtual ta'lim platformalari bu jarayonni sezilarli darajada yengillashtirmoqda.

Mashhur metodist N.Mahmudovning qayd etishicha: "Grafik mashqlar faqat yozuv malakasini emas, balki o'quvchining intizomi, diqqat-e'tiborini shakllantiradi"[3]. Shundan kelib chiqib, grafik mashqlarni turli innovatsion texnologiyalar asosida uyg'unlashtirish samarali natija beradi.

Leksik mashqlar tizimi. Leksik mashqlar o'quvchilar lug'at boyligini kengaytirish, so'z ma'nolarini to'g'ri tushunish va ularni nutqda qo'llashga o'rgatadi. Bu mashqlar orqali o'quvchilar matn bilan ishlash, sinonim, antonim va omonimlarni farqlashni, iboralar va maqollarni o'z nutqida ishlatishni o'zlashtiradi.

Tilshunos H.Doniyorov fikricha: "Leksik mashqlar o'quvchilar tafakkurini kengaytiradi, ularning ijodkorlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi"[4]. *Innovatsion yondashuvda elektron lug'atlar, multimedia vositalari, onlayn platformalar* yordamida leksik mashqlarni tashkil qilish samaradorlikni yanada oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, taklif va tavsiyalarimiz quyidagilardan iborat:

Fonetik mashqlarni zamonaviylashtirish. Maktablarda tovushlarni o'rgatishda odatdagi talaffuz mashqlaridan tashqari, raqamli texnologiyalarni qo'shish lozim. Masalan, audiokitoblar, mobil ilovalar va interaktiv o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni darsga qiziqtiradi. Bizningcha, agar bola darsdan tashqari vaqtda ham mobil qurilma orqali tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qilsa, natija yanada tezroq ko'rinadi.

Grafik mashqlarni estetik yondashuv bilan boyitish. Odatda yozuv mashqlari bolaga zerikarli tuyuladi. Ammo bizningcha, harfni yozishni faqat texnik jarayon sifatida emas, balki san'at darajasiga olib chiqish kerak. Masalan, harfiy bezaklar, kaligrafiya elementlarini qo'shish, rangli qalamlar bilan mashqlar bajarish o'quvchini ijodiy fikrlashga undaydi. Shunda yozuv mashqi oddiy topshiriq emas, balki ijodiy jarayonga aylanadi.

Leksik mashqlarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish. Lug'at mashqlarida faqat zamonaviy matnlarga tayanish emas, balki xalq og'zaki ijodi namunalaridan – maqol, matal, dostonlardan foydalanish juda foydali. Kuzatuvlarimizdan ko'rinadiki, maqol va iboralar orqali ishlangan mashqlar o'quvchilarda milliy tafakkurni kuchaytiradi, tilni chuqurroq his qilishga yordam beradi.

O'quvchilarni mustaqil mashq qilishga jalb etish. Ko'plab darslarda mashqlar faqat sinf sharoitida bajariladi. Ammo o'quvchini haqiqiy savodli qilish uchun darsdan tashqari mustaqil mashqlar tizimi ham muhim. Masalan, "kunlik lug'at daftar"i yuritish, har kuni yangi 5 ta so'z o'rganish, ularni matnda ishlatib ko'rish foydali bo'ladi. Bu usul o'quvchini o'z-o'zini rivojlantirishga o'rgatadi.

O'yinlashtirish metodini keng qo'llash. O'quvchilar, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'yin orqali tezroq o'rganadilar. Mashqlarni qiziqarli topshiriq yoki musobaqa shaklida tashkil etish darsni jonlantiradi. Masalan, "Kim tezroq to'g'ri talaffuz qiladi?", "So'zlardan hikoya tuzish poygasi" kabi o'yinlar o'quvchilarda motivatsiyani kuchaytiradi.

O'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish. Bizningcha, dars samaradorligi, avvalo, o'qituvchining yangilikka ochiqqligi va metodik tayyorgarligiga bog'liq. Shu sababli muntazam seminarlar, amaliy treninglar tashkil etib, o'qituvchilarni innovatsion metodlar bilan qurollantirish lozim.

Texnologiya va an'anaviy metodlarni uyg'unlashtirish. Yangi texnologiyalar imkoniyatlarini inkor etmasdan, an'anaviy o'qitish metodlarini ham saqlab qolish zarur. Chunki bolalarning yozuv madaniyati faqat **planshet yoki kompyuterda emas**, balki **qalam va daftar bilan ham shakllanishi** kerak. Eng to'g'ri yondashuv – bu texnologiya va an'anani uyg'unlashtirishdir.

XULOSA

Savod o'rgatishda fonetik, grafik va leksik mashqlar tizimini innovatsion metodlar asosida tashkil etish o'quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va ularda adabiy nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'qituvchi ushbu mashqlarni tizimli qo'llash orqali o'z darsini qiziqarli, samarali va mazmunli tashkil qilishi mumkin. Natijada savodxonlik darajasi oshadi, tilni o'zlashtirish jarayoni yengillashadi va o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. G'ulomov A. Ona tili o'qitish metodikasi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. Mahmudov N. Til va tafakkur uyg'unligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
4. Doniyorov H. Ona tili darslarida innovatsion metodlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Qodirova F. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2018.

6. Raxmatullayev Sh. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Fan, 2016.
7. Jo'rayev M. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

O'ZBEK TILIDA HURMAT VA ODOB IFODASIDA GAP QURILISHINING O'RNI

Qulmuroda Farangiz Hasan qizi

Sayfiyeva Dildora O'tkir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari

dildora.98@sayfullayeva.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida hurmat va odobni ifodalovchi gaplarning tuzilishi, ularning grammatik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, nutq madaniyatida hurmat ifodasining o'rni, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatni belgilovchi til birliklarining roli yoritiladi. Tadqiqotda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, til orqali namoyon bo'ladigan odob-axloq me'yorlari misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. hurmat, odob, gap qurilishi, nutq madaniyati, til birliklari.

Annotation. This article analyzes the structure of sentences expressing respect and politeness in the Uzbek language, focusing on their grammatical and stylistic features. It highlights the role of respectful expressions in speech culture and their impact on the relationship between the speaker and the listener. The study also illustrates national values and etiquette norms reflected through language.

Keywords. respect, politeness, sentence structure, speech culture, linguistic units.

Аннотация. В данной статье рассматривается структура предложений, выражающих уважение и вежливость в узбекском языке, а также их грамматические и стилистические особенности. Особое внимание уделяется роли выражений уважения в культуре речи и их влиянию на отношения между говорящим и слушающим. На основе примеров раскрываются национальные ценности и нормы этикета, проявляющиеся через язык.

Ключевые слова. уважение, вежливость, структура предложения, культура речи, языковые единицы.

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti davomida til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyat, axloq va ma'naviyatning muhim ko'rsatkichi sifatida shakllanib kelgan. Har bir xalqning tili uning ruhiy dunyosi, urf-odatlar, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlaridagi nozikliklarni o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan olganda, o'zbek tili nafaqat aloqa quroli, balki xalqning yuksak odobi, hurmat-izzat an'analari ifoda

etuvchi boy madaniy qatlamga ega. O'zbek tili orqali ifodalanadigan so'zlar, gaplar va ularning tuzilishida odob-axloq, hurmat, ehtirom va insoniylik tamoyillari chuqur ildiz otgan. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, har bir til o'zining ichki tizimi - fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis orqali ma'no uzatadi. Biroq aynan sintaktik qurilish, ya'ni gap tuzilishi, insonlar o'rtasidagi hurmat, munosabat va madaniyatni eng nozik tarzda ifodalovchi vositadir. O'zbek tili bu borada nihoyatda boy tizimga ega bo'lib, "hurmat bilan murojaat qilish", "odobli ifoda topish", "munosib so'z tanlash" kabi qadimiy nutq madaniyati unsurlari bilan ajralib turadi.

O'zbek xalqining ijtimoiy hayotida "katta-kichikka hurmat", "ota-onani e'zozlash", "ustozni ulug'lash", "mehmonga izzat" kabi qadriyatlar eng muhim o'rin egallaydi. Bu qadriyatlar nafaqat xulq-atvorda, balki nutq madaniyatida ham o'z aksini topadi. Masalan, oddiy so'rov gap "Sen qayerga ketyapsan?" degan shaklda aytilganda, bu do'stona yoki tengdoshlar o'rtasida tabiiy eshitiladi. Ammo shu fikr "Siz qayerga ketyapsiz?" tarzida aytilganda, unda hurmat ohangi paydo bo'ladi. Bu esa sintaktik darajada, ya'ni gap qurilishi orqali hurmat ifodalanishining yaqqol ko'rinishi hisoblanadi. O'zbek tili grammatik qurilishi jihatidan shunday tizimga ega-ki, u orqali bir fikrni turlicha - oddiy, odobli, rasmiy yoki samimiy ohangda ifodalash mumkin. Bu jarayonda nafaqat so'z tanlovi, balki so'z tartibi, fe'l shakllari, murojaat shakllari va intonatsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Keling, o'tirib dam oling" gapida muloyimlik va mehmondo'stlik aks etsa, "O'tir" shakli buyruqni ifodalab, ba'zan hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun ham o'zbek tili sintaksisida hurmat va odobni ifodalovchi maxsus uslublar, morfologik va leksik vositalar majmuasi mavjud.

Hurmat va odob ifodasining til orqali aks etishi - bu nafaqat tilshunoslik masalasi, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va pedagogika bilan bevosita bog'liq mavzudir. Til orqali hurmat bildirish, insonni qadrlash, munosabatni madaniy ifodalash kabi hodisalar jamiyatning ma'naviy rivojlanish darajasini ham ko'rsatadi. Shu sababli, o'zbek tilida gap qurilishi orqali hurmat va odobning ifodalanish usullarini o'rganish - xalq ruhiyatini, milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv davrida, axborot oqimining tezkorligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot madaniyatining o'zgarishi natijasida, til orqali ifodilangan hurmat va odobning ayrim shakllari yo'qolish xavfi ostida turibdi. Ayniqsa, yoshlar nutqida "siz" o'rniga "sen" qo'llanishi, qisqa, emoji yoki inglizcha aralash gaplarning ko'payishi milliy nutq madaniyatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shunday bir paytda, o'zbek tili orqali hurmat ifodasining o'rni va mexanizmlarini chuqur o'rganish, ularni ta'lim tizimida,

media va kundalik hayotda tiklash dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Hurmat va odobning ifodalanishida xalqaro tajribani ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Masalan, UNESCO tomonidan til va madaniyatning o'zaro bog'liqligiga oid ko'plab tadqiqotlarda aytilishicha, milliy tillar — bu xalqning ruhiy merosi bo'lib, ular orqali yosh avlodga insoniylik, hurmat va bag'rikenglik qadriyatlari singdiriladi. OECD, PISA va PIRLS kabi xalqaro tashkilotlar o'quvchilarning nutq madaniyatini, muloqot madaniyatini baholashda ham til orqali axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ifoda vositalarini inobatga oladi. Bu esa o'zbek tili ta'limida ham xalqaro mezonlarga mos yondashuvni talab etadi.

Shuningdek, O'zbekistonda ona tili ta'limining me'yoriy-huquqiy asoslari ham nutq madaniyatini rivojlantirish, hurmatli muloqot madaniyatini shakllantirishni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlaydi. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "O'zbek tili va adabiyotini rivojlantirish dasturi"da ona tilining jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, til orqali insoniylikni targ'ib qilish kabi masalalarga alohida urg'u berilgan. Shu bois, bugungi kunda o'zbek tilida hurmat va odobni ifodalovchi gap qurilishining o'rni nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki ijtimoiy-madaniy zarurat sifatida ham tahlil etilishi zarur. Mazkur maqola ana shu zaruratdan kelib chiqib, o'zbek tilida hurmat va odob ifodasida gap qurilishining o'rnini chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi. Unda quyidagi asosiy masalalar yoritiladi:

5. O'zbek tilida hurmat va odob tushunchalarining lingvistik asoslari;
6. Gap qurilishida hurmatni ifodalovchi sintaktik va morfologik vositalar;
7. Til madaniyatida hurmat ifodasining milliy va xalqaro tajribalardagi o'rni;
8. Zamonaviy o'zbek jamiyatida hurmatli nutqning saqlanishi va rivoji masalalari.

Bu tadqiqotning maqsadi — o'zbek tili sintaktik tizimi orqali hurmat va odobning qanday ifodalanishini, uning madaniy, pedagogik va axloqiy ahamiyatini yoritishdir. Shuningdek, maqola xalqaro tajribaga tayanib, o'zbek tili ta'limida hurmat ifodasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham taklif etadi.

O'zbek tilida hurmat va odob tushunchalarining lingvistik asoslari. Til — inson tafakkurining, madaniyatining va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarining eng muhim ifoda vositasidir. Har bir tilda xalqning qadimiy urf-odatlar, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari mujassam bo'lgan. O'zbek tili bu jihatdan nihoyatda boy, samimiy va hurmatga asoslangan tildir. "Hurmat" va "odob" tushunchalari o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy tizimida shunchalik chuqur ildiz otganki, ular til orqali ham, nutq ohangi, so'z tanlovi va gap qurilishi orqali ham aniq seziladi. "Hurmat" va

“odob” tushunchalarining mazmun-mohiyati “Hurmat” so‘zi arabcha “ihtiram” ma’nosiga yaqin bo‘lib, “ehtiroim, izzat, qadrlash” mazmunini bildiradi. O‘zbek tilidagi “odob” esa “axloqiy me’yorlar majmuasi, madaniyat, yuksak xulq” degan ma’noni anglatadi. Demak, bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiruvchi, insonning ijtimoiy hayotidagi muvozanatni ta’minlovchi asosiy fazilatlardandir. Til esa bu fazilatlarni ifodalashda vositachilik rolini o‘ynaydi. O‘zbek xalqining qadimiy manbalarida, jumladan, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ham hurmat va odob inson shaxsiyatining eng muhim ko‘rsatkichi sifatida ta’riflanadi. Masalan, Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Odob — insonni inson qiluvchi eng muhim fazilatdir. Odobsiz ilm foydasiz, odobsiz boylik zararli, odobsiz so‘z yurakni og‘ritadi.” Ushbu fikr til orqali ifodalanadigan hurmatning ahamiyatini ochib beradi. Tilshunoslikda esa hurmat va odob pragmatik va sotsiolingvistik kategoriyalar sirasiga kiradi. Chunki bu tushunchalar nafaqat til tizimida mavjud, balki muloqot jarayonida insonlarning o‘zaro ijtimoiy maqomiga, yoshi, jinsi, ijtimoiy roli va munosabat darajasiga qarab shakllanadi. Masalan, bir so‘zni aytish yoki bir gapni tuzishda kim bilan, qanday vaziyatda, qanday ohangda so‘zlayotganlik muhim ahamiyat kasb etadi (To‘xliyev, 2010).

Til orqali hurmat bildirish bir necha darajada ifodalanadi:

5. Leksik daraja – so‘z tanlovi orqali (masalan, “siz” o‘rniga “sen”, “hazrat”, “ustoz”, “domla” kabi murojaatlar);
6. Morfologik daraja – fe’l shakllari va qo‘shimchalarning o‘zgarishi orqali (“kelyapsiz” o‘rniga “kelyapti” emas);
7. Sintaktik daraja – gap tuzilishi, so‘z tartibi, so‘z birikmalarining joylashuvi orqali;
8. Pragmatik daraja – gapning ohangi, nutq muhitiga mosligi, kontekstga qarab ifodalanagan hurmat yoki muloyimlik.

Masalan, “Sizni ko‘rib juda xursand bo‘ldim” va “Seni ko‘rib juda xursand bo‘ldim” gaplarining grammatik tuzilishi o‘xshash, lekin birinchisida hurmat, ikkinchisida samimiylik va tengdoshlik mavjud. Demak, hurmat ma’nosi sintaktik emas, pragmatik qatlamda, lekin gap qurilishida ifodalanadi. Yana bir misol: “Marhamat, o‘tiravering” va “O‘tir” gaplarini taqqoslaymiz. Ikkalasi ham semantik jihatdan bir fikrni bildiradi — o‘tirish harakati, ammo birinchisida mehmondo‘stlik va hurmat mavjud, ikkinchisida esa buyruq ohangi seziladi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, gap tuzilishi orqali hurmat darajasini boshqarish mumkin. O‘zbek tili grammatikasida

hurmatni ifodalovchi shakllar O'zbek tili grammatik tizimida hurmatni bildiruvchi maxsus shakllar mavjud. Ular quyidagicha ifodalanadi: Shaxs-son qo'shimchalari: "siz", "sizlar" shakllari orqali hurmat ifodalanadi. Masalan, "Sen keldingmi?" o'rniga "Siz keldingizmi?" deyiladi. Fe'lning mayl va zamon shakllari: Buyruq maylida "keling", "oling", "marhamat qiling" kabi muloyim shakllar ishlatiladi. "Kiring" degan so'z buyruqni bildirsa-da, aslida bu hurmatli taklif ma'nosini beradi. Modal so'zlar: "Iltimos", "marhamat", "iltifot qiling", "afsuski", "mumkinmi", "ehtimol" kabi so'zlar gapga muloyimlik, yumshoqlik kiritadi. Murojaat birliklari: "Domla", "ustoz", "xonim", "aka", "opa", "jiyan", "do'stim" kabi so'zlar hurmatni belgilovchi leksik birliklar hisoblanadi (Yo'ldashev, 2019).

Bundan tashqari, gap tartibi ham hurmat ifodasiga bevosita ta'sir qiladi. O'zbek tilida odatda subyekt (egasi) oldin, predikat (kesim) oxirida keladi. Ammo hurmat bildiruvchi gaplarda predikat (kesim) oldinga o'tib, yumshoqlik yaratadi:

Masalan:

- "Keling, ustoz, joyingiz tayyor."
- "Sizga aytmoqchi edim, bugun yig'ilish soat to'qqizda."

Bu misollar sintaktik jihatdan o'zgarishning hurmatni ifodalashdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik. Til - madaniyatning oynasi. Har bir tilda xalqning o'ziga xos madaniy kodlari yashiringan. O'zbek xalqining madaniy kodlari esa hurmat, ehtirom, mehmondo'stlik va kamtarlikka asoslangan. Shu boisdan ham o'zbek tili nutqida buyruq, tanbeh, to'g'ridan-to'g'ri rad etish holatlari kam qo'llanadi. Ularning o'rniga yumshoqlik va bilvosita ifodalar tanlanadi. Masalan:

- "Suv olib keling." (buyruq) o'rniga
- "Iltimos, suv olib kelsangiz." (hurmatli, odobli) shakli qo'llanadi.

Bu - pragmatik hurmatning ifodasi. Ya'ni so'zlovchi suhbatdoshning his-tuyg'ularini inobatga olgan holda gapni shunday tuzadi-ki, u muloyim va madaniy eshitiladi (Xolmanova, 2019).

Hurmatning ijtimoiy kontekstdagi o'rne. Hurmatning ifodalanishi har bir jamiyatda ijtimoiy tuzilma bilan chambarchas bog'liq. O'zbek xalqida ota-onaga, ustozga, kattalarga, mehmonlarga, hatto notanish kishilarga ham hurmat bilan murojaat qilish milliy xususiyatdir. Bu xususiyat tilga ham ko'chgan. Masalan:

- Bolalar ota-onasiga "siz" deydi;
- Talaba o'qituvchiga "domla", "ustoz" deydi;

Xizmat ko'rsatuvchi sohada "marhamat, mijoz" shakllari qo'llanadi. Bu holatlar tilning ijtimoiy tabiatini ko'rsatadi. Ya'ni til faqat grammatik tizim emas, balki madaniy me'yorlarni aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. 2-bo'lim: Gap qurilishida hurmat va odob ifodasining grammatik va sintaktik mexanizmlari o'zbek tili o'zining boy morfologik tuzilishi, o'ziga xos sintaktik tizimi va nozik pragmatik qoidalari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, hurmat va odobni ifodalashda tilning morfologik va sintaktik imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Gap qurilishi bu jarayonda markaziy o'rin tutadi, chunki hurmat darajasi, odob ohangi, yumshoqlik yoki talabchanlik aynan gapning tuzilishi, komponentlar tartibi va fe'l shakllari orqali ifodalanadi.

Shaxs-son kategoriyasi va hurmat ifodasi. O'zbek tilida shaxs-son kategoriyasi hurmatni bildiruvchi asosiy grammatik vositalardan biridir. Masalan, "sen" shakli samimiy, yaqin munosabatni ifodalasa, "siz" shakli hurmatni bildiradi. Bu holat nafaqat murojaat, balki butun gap qurilishini o'zgartiradi:

- Sen keldingmi? → Siz keldingizmi?
- Senga aytdim. → Sizga aytdim.
- Sening fikring to'g'ri. → Sizning fikringiz to'g'ri.

Bu misollar orqali shuni ko'rish mumkinki, hurmatli shakl nafaqat olmoshda, balki egalik qo'shimchalari va fe'l shakllarida ham ifodalanadi. Shunday qilib, shaxs-son qo'shimchalari sintaktik darajada hurmatni shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida ba'zan ko'plik shakli orqali yakka shaxsga hurmat bildiriladi. Bu holat grammatik jihatdan "siz" ko'plikni bildirsa-da, semantik jihatdan "hurmatli yakka shaxs" ma'nosini beradi. Masalan:

– Domlalar, marhamat, joy olinglar. Bu yerda "domlalar" bir kishiga nisbatan aytilgan, lekin hurmat bilan.

Fe'lning mayl va zamon shakllarida hurmat. Fe'l kategoriyalari – o'zbek tilidagi hurmat ifodasining eng muhim qatlamlaridan biridir. Ayniqsa, buyruq mayli (imperativ) va istak mayli (optativ) hurmat darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan: Kel! — bu to'g'ridan-to'g'ri buyruq, keskin ohangda. Keling! - bu hurmatli taklif yoki muloyim buyruq. Marhamat, kiring! - bu esa eng yuqori darajadagi odobli, mehmondo'stlik ifodasi. Shu tarzda, fe'lning mayl shakli va unga qo'shimcha so'zlar qo'shilishi bilan nutq ohangi o'zgaradi. Buyruq maylidagi fe'lga "-ing" qo'shimchasining qo'shilishi, ko'pincha hurmat belgisi sifatida ishlatiladi. Yana bir misol: Ber! → Bering! → Iltimos, bering. Bu ketma-ketlik hurmatning grammatik va pragmatik kuchayishini ifodalaydi.

Sintaktik darajadagi ifoda vositalari. Hurmat va odobning gap tuzilishida qanday namoyon bo'lishini tahlil qilar ekanmiz, sintaksisda uchta asosiy jihatni ajratish mumkin:

4. Gap tartibi (so'zlarning joylashuvi);
5. Qo'shimcha gaplar orqali yumshoqlik kiritish;
6. So'z birikmalarining ohangini yumshatish.

Gap tartibi. O'zbek tilida odatda so'z tartibi "Ega – To'ldiruvchi – Kesim" shaklidir. Ammo hurmat ifodasi uchun kesimni oldinga chiqarish, so'zlovchining muloyim ohangini yaratish odat tusiga kirgan. Masalan: Oddiy: Siz bugun darsga keldingiz. Hurmatli: Keldingiz, ustoz, bugun darsga. Bu yerda kesim oldinga o'tgan va murojaat so'zi o'rtada joylashgan - bu ehtirom va muloyimlikni bildiradi.

Qo'shimcha gaplar orqali yumshoqlik. O'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri gapirishdan ko'ra, yumshoqlik bilan ifodalash qadrlanadi. Shuning uchun ko'plab gaplarda qo'shimcha izohlar yoki muloyim kirish so'zlar ishlatiladi. Masalan: Iltimos, agar mumkin bo'lsa, bugun yig'ilishga keling. Sizga bir taklifim bor edi, agar yo'q demasangiz. Bu konstruksiyalar sintaktik jihatdan murakkab gap sanaladi, lekin ularning maqsadi - odobli muloqotni ta'minlash. So'z birikmalarining yumshoqligi o'zbek tilida "iltimos", "marhamat", "mumkinmi", "iltifot qiling" kabi birikmalar hurmatni kuchaytiruvchi pragmatik sintaktik vosita sifatida ishlaydi. Ular gapning boshida, o'rtasida yoki oxirida joylashib, so'zlovchi nutqining madaniyligini oshiradi. Masalan: Marhamat, joy oling joy oling, iltimos. Sizga aytmoqchi edim, iltifot bilan qabul qiling. Bu misollar nutqdagi odobiy yumshoqlik va hurmat grammatikasini yaqqol ko'rsatadi.

Hurmat ifodasining so'z tartibi bilan o'zgarishi. Ba'zan faqat so'z tartibi o'zgarishi bilan ham gapning ma'nosi yoki ohangi butunlay yangilanishi mumkin. Masalan: Siz bugun juda charchagandirsiz, ustoz. Ustoz, siz bugun juda charchagandirsiz. Bir qarashda bu ikki gap o'xshash, ammo ikkinchi variantda murojaat boshda keltirilgani uchun hurmatning intensivligi yuqoriroq bo'ladi.

Hurmat va odob ifodalarining o'zbek tilidagi grammatik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari.

Hurmat va odob ifodasining grammatik vositalari. O'zbek tili — turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, unda hurmat va odobning grammatik ifodasi juda boy. Har bir grammatik birlik, xoh u qo'shimcha bo'lsin, xoh fe'l zamoni yoki olmosh, o'zbek tilida ijtimoiy munosabat va etik madaniyatni ifodalashda bevosita ishtirok etadi. Masalan, "siz" olmoshi faqat ko'plik shaklini bildiruvchi birlik emas, balki hurmat bildiruvchi

grammatik vositadir. Bu shakl orqali so'zlovchi tinglovchiga nisbatan ehtiromni, ijtimoiy masofa va madaniy farqni ifodalaydi. Ayniqsa, o'zbek jamiyatida "sen" va "siz" so'zlarining noto'g'ri qo'llanishi muomala madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'zbek tilida fe'l zamon shakllari orqali ham hurmat ifodalanadi. Masalan:

"Keldingizmi?" — hurmat ifodasi,

"Keldingmi?" — oddiy yoki yaqin munosabatda ishlatiladi.

Demak, *-ingiz/-ingizlar*, *-dingiz/-dingizlar* kabi shakllar faqat grammatik ko'plikni emas, axloqiy-ijtimoiy hurmat darajasini ifodalaydi.

Sifat va qo'shimchalar orqali odob ifodasi. Hurmatni bildiruvchi sifatlar ("aziz", "hurmatli", "e'tiborli", "muhtaram", "ulug'", "qadrli") — odob ifodasining tildagi eng boy qatlamidir. Ular, odatda, so'zlovchi tomonidan tinglovchining mavqeini yuksaltirish, suhbatni samimiy muhitda davom ettirish uchun ishlatiladi. Masalan: "Hurmatli ustozim!", "Aziz mehmonlar!", "Muhtaram domlalar!" Bu so'z birikmalari nafaqat tildagi so'z boyligini, balki o'zbek xalqining madaniy-psixologik xususiyatlarini ham namoyon etadi. Shuningdek, *-jon*, *-xon*, *-oy*, *-aka*, *-opa*, *-bibi* kabi so'ng qo'shimchalar hurmat va yaqinlikni bildiruvchi fonetik-morfologik vositalardir. Masalan: "Farangizxon", "Opa", "Akajon", "Onajon", "Singlim", "Do'stim" kabi so'zlar ma'no jihatidan nafaqat shaxsni ataydi, balki mehr, ehtirom, odob unsurlarini ham o'zida mujassam etadi.

Gap qurilishida odob unsurlari O'zbek tilida gap qurilishi ham madaniyatga bevosita bog'langan. So'zlovchi gap tuzishda avvalo kattalikka hurmat, odob, iltifot, kamtarinlik kabi qadriyatlarni hisobga oladi. Masalan, o'zbek tili sintaksisida: so'zni muloyim, nozik ohangda boshlash, iltimos, iltifot shakllarini ishlatish, buyruq emas, taklif ohangida so'zlash - odobning sintaktik ko'rinishidir. Misollar: "Iltimos, kirib o'ting." (buyruq emas, taklif shakli) "Agar imkon bo'lsa, qarab ko'ring." (so'rovning yumshoq shakli) "Sizga yoqadimi?" (ehtimomli so'rov) Bu shakllar oddiy tilda ham, rasmiy nutqda ham hurmat ohangini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, o'zbek tilida hurmat va odob tushunchalari lingvistik tizimning barcha darajalarida — leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik qatlamlarda o'z ifodasini topadi. Ushbu maqolada til vositalari orqali hurmat ifodalanishining grammatik-morfologik shakllari, gap tuzilishidagi sintaktik usullari hamda kontekstga mos pragmatik yondashuvlari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hurmat va odob nafaqat muloqot madaniyatining, balki o'zbek tilining asosiy pragmatik belgilaridan biridir. Til o'rgatishda ushbu jihatlarni inobatga olish,

o'zbek tilidagi muomala madaniyatini chuqurroq tushunishga, shuningdek, xalqaro til ta'limi tajribalariga mos yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova, O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. – 265 b.
- 2.Xolmanova Z., Yusupova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi, 2019. – 54 b.
- 3.Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 176 b.
- 4.Yoqubov Sh., Yoqubova D. Grammatik o'yinlar. – Termiz. 2009. – 231 b.
- 5.Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021. – 98 b.

GAP TUZILISHI VA TURLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Raxmatullayeva Ruxshona Aktam qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi" uchinchi
bosqich talabasi.

raxmatullayearuxshona889@gmail.com.

Davlatboyeva Xusnida Shermat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi" uchinchi
bosqich talabasi.

xusnidadavlatboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada gap tushunchasining nazariy asoslari, uning asosiy belgilari, ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra turlari haqida ilmiy qarashlar yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida gap mavzusini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan. Tilshunos olimlarning qarashlari asosida gapni o'qitish metodikasining samarali shakllari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: gap, grammatik asos, ifoda maqsadi, tuzilish, sintaksis, innovatsion texnologiya, interfaol metod.

Annotation. The article covers the theoretical foundations of the concept of a sentence, its main features, scientific views on its types according to the purpose of expression and structure. Also, the possibilities of using innovative pedagogical technologies in teaching the subject of a sentence in the modern educational process are analyzed. Based on the views of linguists, effective forms of teaching a sentence methodology have been developed.

Keywords: speech, grammatical basis, purpose of expression, structure, syntax, innovative technology, interactive method.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы понятия предложения, его основные признаки, научные взгляды на его виды по цели выражения и структуре. Также анализируются возможности использования инновационных педагогических технологий в обучении предмету предложения

в современном образовательном процессе. На основе взглядов лингвистов разработаны эффективные формы обучения методике предложения.

Ключевые слова: речь, грамматическая основа, цель выражения, структура, синтаксис, инновационная технология, интерактивный метод.

Til jamiyatning asosiy muloqot vositasi hisoblanadi. Tilshunoslik fanining markaziy bo'g'inlaridan biri sintaksis bo'lib, uning eng muhim birliklaridan biri bu – gapdir. Gap – kishilar o'rtasida muloqot jarayonining tayanch vositasi, tugallangan fikr ifodasi sanaladi. Shu boisdan ham maktab va oliy ta'lim jarayonida gapni chuqur o'rganish o'quvchilar nutqiy savodxonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunos olim N. Mahmudovning ta'kidlashicha, “Gap til tizimining tugun nuqtasi, barcha grammatik birliklarning yakuniy natijasidir.” Shuningdek, Sh. Rahmatullayev esa gapni “fikrning grammatik shaklda ifodalanishi” sifatida izohlaydi. Demak, gapning mohiyati, belgilarini chuqur anglash va uni to'g'ri o'rgatish ta'lim jarayonida katta ahamiyat kasb etadi.

Gapning asosiy belgilari. Gap boshqa sintaktik birliklardan o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadi. Eng avvalo, unda fikrning tugalligi mavjud bo'ladi. Masalan: “Bugun havo juda chiroyli.” Bu gapda voqelik aniq va yakuniy shaklda ifodalangan. Gapning ikkinchi muhim belgisi – grammatik asosdir, ya'ni unda ega va kesim mavjud bo'ladi. Masalan: “Bolalar o'ynayapti.” Bu yerda “bolalar” - ega, “o'ynayapti” - kesim. Shuningdek, gap og'zaki nutqda intonatsiya yordamida tugallanadi. Bu, ayniqsa, his-hayajonli gaplarda yaqqol ko'rinadi: “Voy, bu qanday go'zal manzara!” Gapning yana bir belgisi – kommunikativlikdir. Ya'ni, u muloqotda xizmat qiladigan vositadir: “Dars qachon boshlanadi?” kabi so'rovlar muloqotni boshqaradi.

H. Jamolxonov fikricha, “Gap – tilning muloqot jarayonida voqelanish shakli bo'lib, u orqali inson o'z fikrini ifodalaydi va boshqalar bilan aloqa qiladi.”

Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari. Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra to'rt turga bo'linadi.

❖ Darak gap – voqea-hodisani bayon qiladi. Masalan: “Kecha biz teatrga bordik.” Bu gap oddiy xabar beradi.

❖ So'roq gap – javob talab qiladi: “Siz bugun darsga keldingizmi?”

❖ Buyruq gap – buyruq, iltimos yoki maslahatni bildiradi: “Kitobni oching.” yoki “Iltimos, jim bo'ling.”

❖ Undov gap – his-hayajonni ifodalaydi: “Voy, bu nima bo'ldi?!” yoki “Yashasin mustaqillik!”

Akademik A. Hojiyevning fikricha, "Ifoda maqsadiga ko'ra gaplarni ajratish ularning kommunikativ vazifasini aniqlash imkonini beradi."

Tuzilishiga ko'ra gap turlari. O'zbek tilshunosligida gaplar tuzilishiga qarab quyidagicha farqlanadi:

❖ Sodda gap – bitta grammatik asosga ega bo'ladi. Masalan: "O'quvchilar sinfga kirdi."

❖ Qo'shma gap – ikki yoki undan ortiq sodda gaplardan iborat bo'ladi: "Men maktabga bordim va do'stim bilan uchrashdim."

❖ Murakkab gap – ergash gapli shaklda bo'ladi. Masalan: "Agar u vaqtida kelsa, biz kinoga boramiz."

Tilshunos Rasulov R. bu haqda shunday deydi: "Qo'shma va murakkab gaplar o'quvchida sintaktik tafakkurni rivojlantiradi, murakkab fikrni tuzish ko'nikmasini shakllantiradi." Unda gapni o'qitishda innovatsion yondashuvlar bugungi ta'limda an'anaviy usullar bilan cheklanmasdan, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi, ularni dars jarayoniga faol jalb qiluvchi innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda klaster usuli yordamida o'quvchilar gap turlarini mavzular asosida guruhlariga ajratadilar. Masalan, o'qituvchi "so'roq gap" degan tushunchani doskaga yozadi, o'quvchilar esa unga misollar va bog'liq fikrlarni "shoxlar" ko'rinishida yozadilar. Qolaversa, aqliy hujum (brainstorming) metodida o'quvchilar "Gap nima?" degan savolga tez va ko'p fikrlar bildiradilar. Bu ularda mavzuni kengroq o'rganishga yordam beradi.

Rol o'yinlari orqali o'quvchilar turli kommunikativ vaziyatlarga kirib, gap turlarini hayotiy misollarda qo'llashni mashq qilishadi. Masalan, "do'konda xarid qilish" mavzusida so'roq va buyruq gaplar ishlatiladi: "Bu qancha turadi?", "Iltimos, shokolad bering." Misollardan ko'rinishida turibdiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida gaplar tuzilishini interaktiv taqdimot, videodars yoki onlayn testlar orqali mustahkamlash mumkin.

Xulosa sifatida muammoli ta'lim usulida o'quvchilarga savol beriladi: "Qanday gaplar tugallangan fikr bildirmaydi?" Ular muhokama orqali "gapga o'xshash birliklar" bilan "gap"ning farqini tushunadilar. Demak, zamonaviy texnologiyalar qo'llanganda o'quvchi nafaqat grammatik tushunchani o'zlashtiradi, balki uni amaliy nutqda qo'llashni ham o'rganadi. Shu bilan birga gap – tilning asosiy sintaktik birligi bo'lib, u fikrni tugallangan shaklda ifodalash xususiyatiga ega. Gapning belgilarini, ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra turlarini o'quvchilarga o'rgatishda innovatsion yondashuvlar qo'llanishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlar, AKT

vositalari, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashqlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa gapni o'rgatishda innovatsion yondashuv – bu nafaqat yangi metodlarni qo'llash, balki o'quvchining ijodiy tafakkurini shakllantirish, tilga qiziqishini orttirish va bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2005. – 75 b.
2. Hojiyev A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2002. – 287 b.
3. H. Jamolxanov. Hozirgi adabiy tili. - Toshkent: 2013. – 247 b.
4. Rasulov R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 176 b.

FONETIKA BO'LIMI O'QITISH ORQALI TALAFFUZ QOIDALARI BILAN ISHLASH USULLARI

Utagenova Aynura Janibek qizi

Ochilova Hosilaxon

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabalari

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

aynura06@gmail.com

mustafakuloffff@gmail.com

Annotatsiya. Fonetika bo'limini o'qitish jarayonida talaffuz qoidalarini o'zlashtirish o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada fonetik bilimlarni o'rgatish metodlari, talaffuzni to'g'ri qo'llash usullari va o'quvchi faoliyatini faollashtirishning didaktik asoslari yoritiladi. Shuningdek, fonetik mashqlarning samaradorligi, lingvodidaktik yondashuv hamda pedagogik texnologiyalar vositasida talaffuz qoidalarini mustahkamlash yo'llari ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: fonetika, talaffuz qoidalari, o'qitish metodlari, nutq madaniyati, amaliy mashqlar, didaktik yondashuv, o'quvchi faoliyati, ovoz va tovush tizimi, lingvodidaktika, fonetik tahlil.

Аннотация. В процессе обучения на кафедре фонетики овладение правилами произношения имеет большое значение для формирования речевой культуры студентов. В статье рассматриваются методы обучения фонетическим знаниям, методы формирования правильного произношения и дидактические основы активизации деятельности студентов. Также научно анализируются эффективность фонетических упражнений, лингводидактический подход и способы закрепления произносительных правил с помощью педагогических технологий.

Ключевые слова: фонетика, правила произношения, методика обучения, культура речи, практические занятия, дидактический подход, деятельность студентов, звук и звуковой строй, лингводидактика, фонетический анализ.

Annotation. In the process of teaching the phonetics department, mastering pronunciation rules is of great importance in forming students' speech culture. This article discusses methods of teaching phonetic knowledge, methods of correct pronunciation, and didactic foundations for activating student activity. Also, the

effectiveness of phonetic exercises, linguodidactic approach, and ways to strengthen pronunciation rules using pedagogical technologies are scientifically analyzed.

Keywords: phonetics, pronunciation rules, teaching methods, speech culture, practical exercises, didactic approach, student activity, sound and sound system, linguodidactics, phonetic analysis.

Fonetika tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan biri hisoblanib, uning asosiy tadqiqot obyekti tilning tovush tizimi va nutqning talaffuz jarayonidir. Tilning boshqa sohalari — leksikologiya, morfologiya, sintaksis va stilistika mazmun jihatidan qanchalik boy bo'lmasin, ularning mavjudligi va ishlash jarayoni fonetik asosga ega. Zero, nutq tovushlarsiz bo'lishi mumkin emas, tovushsiz bo'g'in, bo'g'insiz so'z, so'zsiz esa gap va matn mavjud emas. Shu bois fonetika bo'limini chuqur o'qitish, talaffuz qoidalarini ilmiy asosda o'rgatish va amaliy mashqlar yordamida mustahkamlash tilni o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Fonetika bo'limini o'qitish orqali nafaqat tovushlarning shakllanish mexanizmi va akustik xususiyatlari tushuntiriladi, balki o'quvchilarda nutq madaniyati, to'g'ri talaffuz qilish odati va og'zaki nutqda ravonlik shakllantiriladi.[1]

Nutqning tovush tomoni odatda segment va ustsegment birliklarga ajratiladi. Segment birliklarga tovushlar kiradi. Ular ketma-ketlikda talaffuz qilinadi va bir vaqtning o'zida ikki tovushni chiqarish mumkin emas. Shu sababli ular silsilali birliklar sifatida qaraladi. Ustsegment birliklarga esa urg'u va ohang kiradi. Ular segment birliklar ustiga "qo'yilib", nutqqa turlicha tus beradi.[2]. Misol uchun, o'zbek tilida bir xil tovush tarkibiga ega so'zlar turli urg'u tufayli farqli ma'no kasb etishi mumkin. Bu holat fonetika bo'limini o'qitishda ustsegment birliklarning o'quvchilar nutqidagi rolini alohida yoritishni talab etadi.

Har qanday nutq tovushi bir necha xususiyatga ega bo'lib, ular fonetika darslarida bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Avvalo, nutq a'zolari harakati tufayli tovush paydo bo'lgani uchun u fiziologik hodisadir. Ikkinchidan, tovush havo oqimining tebranishi orqali yuzaga kelgani uchun akustik (fizik) xususiyatga ega. Uchinchidan, tovushlar inson ongida ma'no bilan bog'liq holda idrok etilgani uchun psixofonetik jihat mavjud. Nihoyat, har bir nutq tovushi muayyan kommunikativ vazifani bajaradi, shu sababli u funksional qimmatga ega hisoblanadi.[3]. Bu jihatlar fonetikaning ko'p qirrali ilmiy sohaga aylanishiga sabab bo'lgan.

Fonetikaning turli yo'nalishlari mavjud: umumiy fonetika, tarixiy (diaxron) fonetika, tasviriy (sinxron) fonetika, qiyosiy fonetika va eksperimental fonetika.

Umumiy fonetika barcha tillar uchun xos bo'lgan fonetik qonuniyatlarni o'rganadi, masalan, tovushlarning universal tasnifi va ularning birikish qonunlari. Tarixiy fonetika tilning fonetik tizimini uning taraqqiyot jarayonida tahlil qiladi. Tasviriy fonetika muayyan tilning hozirgi holatini o'rganadi. Qiyosiy fonetika ikki yoki undan ortiq tillarning tovush tizimini taqqoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini ochib beradi. Eksperimental fonetika esa nutq tovushlarini maxsus texnik vositalar yordamida ilmiy o'rganadi.[4]. Bu yo'nalishlarning har biri fonetika bo'limini o'qitishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Talaffuz qoidalarini o'rgatishda segment va ustsegment birliklarni amaliy mashqlar yordamida mustahkamlash muhim. Masalan, urg'u va ohang bilan ishlash mashqlari o'quvchilarda intonatsion ravonlikni shakllantiradi. Maxsus fonetik diktantlar orqali o'quvchilarning to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shuningdek, og'zaki nutqiy mashqlar, teatr sahnalashtirish elementlari, she'r va matnlarni to'g'ri urg'u bilan o'qish usullari samarali natija beradi. Interfaol metodlardan "rol o'ynash", "klaster" yoki "aqliy hujum" usullari yordamida fonetika bo'limini o'rgatish yanada qiziqarli bo'ladi.

Fonetika bo'limini o'qitishning samaradorligi o'quvchilar nutqini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri talaffuz nafaqat lingvistik me'yor, balki nutq madaniyatining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Shu sababli fonetik bilimlarni o'rgatishda amaliy jihatga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Masalan, tovushlarning so'z tarkibida qo'llanishi, qo'shimcha qo'shilganda talaffuzdagi o'zgarishlar, so'z birikmalari va gaplarda intonatsiya vositalarini o'rganish o'quvchilarning og'zaki nutqini sezilarli darajada yaxshilaydi.[5].

O'zbek tilshunosligida fonetika masalalari chuqur o'rganilgan. Jumladan, V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, A. G'ulomov, A. Abdullayevlarning fonetika sohasidagi tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning izlanishlari natijasida o'zbek tilining tasviriy fonetikasi mukammal shaklda yoritildi. Eksperimental fonetika yo'nalishida A. Mahmudov va S. Otamirzayevalar samarali izlanishlar olib bordilar. Tarixiy fonetika masalalarida G'. Abdurahmonov, A. Rustamov, Q. Mahmudov, H. Ne'matov, E. Umarovlarning xizmatlari beqiyosdir. Metodik jihatdan esa N. Mahmudov, A. Abduazizov, M. Hakimov kabi olimlarning ishlarini qayd etish lozim. Ular fonetika bo'limini maktab va oliy ta'lim tizimida samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqdilar, talaffuz qoidalarini o'rgatishning ilmiy asoslarini yaratdilar. Ayniqsa, talaffuz me'yorlarini o'rgatishda amaliy mashqlar tizimini ishlab chiqishlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.[6].

Tilshunos olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, fonetika bo'limini o'qitishda nafaqat nazariy ma'lumot, balki amaliy mashqlar ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning talaffuzdagi xatolarini tuzatish, urg'u va intonatsiya ustida ishlash, orfoepik me'yorlarni singdirish orqali ular nutqiy kompetensiyaga ega bo'ladilar. Bu esa zamonaviy ta'lim talablariga mos keladi. [7]. Fonetika bo'limi darslarida texnik vositalardan foydalanish, audio yozuvlar va nutqiy dasturlar yordamida mashqlarni tashkil etish ham yaxshi natija beradi. Shu tariqa o'quvchilar tovushlarning to'g'ri talaffuzini nafaqat o'zlashtiradilar, balki hayotiy muloqotda ham qo'llashga o'rganadilar.

Fonetika o'zining boshqa sohalar bilan aloqasi tufayli darslarda integratsiyalashgan holda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Masalan, fonetik tahlillar morfologiya bilan bog'lanadi, chunki qo'shimchalarning talaffuzdagi o'zgarishlari morfologik jarayonlarga ta'sir qiladi. Sintaksisda esa intonatsiya gaplarning mazmunini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bunday integrativ yondashuv o'quvchilarda fonetika bo'limining til tizimidagi o'rnini haqida mukammal tasavvur hosil qiladi.[8].

Xulosa qilib aytganda, fonetika bo'limini o'qitish orqali talaffuz qoidalarini mukammal o'zlashtirish, o'quvchilarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, ularning nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Fonetika nafaqat nazariy fan, balki tilni amaliy o'rgatishda asosiy vositadir. Talaffuz qoidalarini o'rgatishda interfaol metodlar, amaliy mashqlar, texnologik vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshiriladi, ularning nutqiy faoliyati faollashadi. O'zbek tilshunosligida fonetika va talaffuz bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va ishlab chiqilgan metodikalar bugungi ta'limda o'z samarasini bermoqda. Shu sababli fonetika bo'limini o'qitishda talaffuz qoidalarini bilan ishlash usullarini takomillashtirish doimiy dolzarb masala bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A. Fonetika va fonologiya – Toshkent: Fan, 1981.- 87 b.
2. Abdullayev A. O'zbek tilining nazariy fonetikasi – Toshkent: Fan, 1974.- 165 b.
3. Mahmudov A. Otamirzayeva S. Eksperimental fonetika tajribalari – Toshkent: Universitet, 1985. – 254 b.
4. Abduazizov A. O'zbek tilshunosligi metodikasi – Toshkent: Fan, 1990.- 12 b.
5. Hakimov M. Ona tili ta'limida fonetika – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 28 b.

6. Rustamov A. O'zbek tili fonetikasi bo'yicha tadqiqotlar – Toshkent: Universitet, 1988. – 34 b.
7. Mahmudov N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi asoslari – Toshkent: O'qituvchi, 1992. -235 b.
8. Yusupov S. Nutq madaniyati va talaffuz me'yorlari – Toshkent: Fan, 2005.- 76 b.

O'QUVCHILARDA TO'G'RI YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ORFOGRAFIYA TA'LIMINING O'RNI

Yuldoshova Shahodat Ulug'bek qizi

Qo'shimova Feruza Ergashboy qizi

CHDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari

feruzaqoshimova19@gmail.com

shahodatyuldoshova260@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada o'quvchilarda to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida orfografiya ta'limining o'ri, ahamiyati va metodik asoslari tahlil qilinadi. Imlo qoidalarini puxta o'rgatish, yozuv madaniyatini shakllantirish va til sezgirligini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol usullar va kompetensiyaga asoslangan ta'limning afzalliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: orfografiya, imlo, metodika, ko'nikma, kompetensiya, ta'lim texnologiyasi, to'g'ri yozish, savodxonlik.

Abstract: This article analyzes the role, significance, and methodological foundations of teaching orthography in developing students' correct writing skills. The advantages of modern pedagogical approaches, interactive methods, and competency-based education aimed at mastering spelling rules, fostering writing culture, and enhancing linguistic sensitivity are highlighted.

Keywords: orthography, spelling, methodology, skill, competence, educational technology, correct writing, literacy.

Аннотация: В данной статье анализируется роль, значение и методические основы преподавания орфографии в процессе формирования у учащихся навыков правильного письма. Освещаются преимущества современных педагогических подходов, интерактивных методов и компетентностно-ориентированного обучения, направленных на прочное усвоение правил орфографии, формирование культуры письма и развитие языковой чувствительности.

Ключевые слова: орфография, правописание, методика, навык, компетенция, образовательная технология, правильное письмо, грамотность.

Bugungi ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - o'quvchilarda savodxonlik madaniyatini shakllantirishdir. Til savodxonligining poydevori esa to'g'ri yozuv, ya'ni **orfografik malakadir**. Orfografiya nafaqat yozma nutqning normativ

asosini tashkil etadi, balki tilning estetik ko'rinishini ham belgilaydi. O'quvchilar imlo qoidalarini to'g'ri o'zlashtirgan taqdirdagina ularning yozma nutqi aniqlik va mantiqiylik kasb etadi. Orfografiyani o'rgatish - bu faqat qoidalarni yodlash emas, balki **o'quvchilarda mustaqil fikrlash, til qonuniyatlarini anglash va amaliy qo'llash** ko'nikmasini shakllantirish jarayonidir [1,180b]. Shu bois orfografiya ta'limini tashkil etishda ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar muhim rol o'ynaydi.

Orfografiyani o'rgatishning bosh maqsadi o'quvchilarni to'g'ri, aniq va estetik yozuvga o'rgatishdir. Bu jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- imlo qoidalarini ongli ravishda o'zlashtirishga erishish;
- talaffuz va yozuv orasidagi farqlarni anglashga o'rgatish;
- yozma nutqni to'g'ri shakllantirish;
- mustaqil ishlash va tahlil qilish malakasini rivojlantirish [2, 210b].

O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasallishiga oid materiallarni ma'lum darajada biimasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar „Ot“, „Sifat“, „Son“, „Kishilik olmoshlari“, „Fel“ mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi. Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so'ng o'rganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi o'rganilgach, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiriladi. „Sifat“ mavzusini o'rganish -roq qo'shimchasining va qip-qizil, yum-yumaloq kabi sifatlarning yozilishiga, „Fe'l“ mavzusini o'rganish bo'lishsizlik (-ma) va o'tgan zamon (-di) qo'shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o'rgatishga bunday yondashish boshlang'ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o'rganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishlash — murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o'quvchilarning qoida ifodasini o'rganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Tilning orfografik tizimi fonetika, morfologiya, leksikologiya bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun orfografiyani o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Orfografiyani o'rgatishda quyidagi asosiy **didaktik prinsiplarga** amal qilish zarur hisoblanadi:

- **Onglilik va faollik prinsipi.** O'quvchi har bir imlo qoidasini anglab, mustaqil qo'llay olishi lozim.

- **Tizimlilik va izchillik prinsipi.** Orfografik materiallar oddiydan murakkabga o'tgan holda bosqichma-bosqich o'rgatiladi.

- **Ko'rgazmalilik prinsipi.** Taxtadagi yozuvlar, grafik organayzerlar, ko'rgazmali vositalar orqali o'quvchining idrokini faollashtirish.

- **Amaliy yo'naltirilganlik prinsipi.** Har bir darsda yozma mashqlar, diktantlar, test topshiriqlari orqali bilimlar mustahkamlanadi. Bu prinsiplarga amal qilish orfografik savodxonlikni samarali shakllantirishga yordam beradi [3, 232b].

Orfografiya darslarida **an'anaviy** va **innovatsion** metodlar uyg'un qo'llanadi:

An'anaviy metodlar:

- diktant;
- izohli yozuv;
- tahliliy mashqlar;
- qayta yozish;
- so'z tuzish mashqlari.

Zamonaviy metodlar:

- **interfaol usullar** ("Imlo zanjiri", "So'zlar piramidasi", "Top va to'g'ri" o'yinlari);

- **axborot texnologiyalari** yordamida mashg'ulotlar (interaktiv testlar, elektron diktantlar);

- **kompetensiyaga asoslangan yondashuv**, ya'ni o'quvchini faol sub'ekt sifatida shakllantirish [4, 165b]

So'nggi yillarda orfografiya ta'limida **klaster**, **aqliy hujum**, **insert**, **blits-so'rov**, **assotsiativ xarita** kabi metodlardan foydalanish keng tarqaldi. Bu yondashuvlar:

- o'quvchini faollashtiradi;
- bilimni mustahkamlaydi;
- qoidalarni amaliy qo'llashga yordam beradi.

Interfaol metodlar orqali dars jarayoni qiziqarli va samarali shaklda kechadi. Bu esa o'quvchilarning e'tiborini jamlashga, xotirasini kuchaytirishga va yozuv madaniyatini oshirishga xizmat qiladi [5, 56b]. Orfografik bilimlar fonetika, grammatika, leksikologiya bilan uzviy bog'liq. Masalan:

- fonetik tahlil yordamida talaffuz va yozuv o'rtasidagi farq tushuntiriladi;
- morfologik tahlil orqali qo'shimchalarning yozilishi mustahkamlanadi;
- leksikologik yondashuv esa ma'no va shakl birligini tushuntiradi.

Shuningdek, adabiyot fanida matn tahlili orqali imlo ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bunday integratsion yondashuv **til kompetensiyasini chuqurlashtiradi** va o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, orfografik ta'lim bu faqat imlo qoidalarini o'rgatish emas, balki **shaxsning til va tafakkur madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik jarayondir**. Orfografiya darslari orqali o'quvchi o'z ona tiliga nisbatan hurmat, e'tibor va mas'uliyat bilan qarashni o'rganadi. Shu boisdan o'qituvchi zamonaviy metodik yondashuvlar yordamida orfografiyani o'qitish jarayonini **ijodiy, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan** tarzda tashkil etishi zarur. To'g'ri yozish ko'nikmasi nafaqat grammatika bilimini, balki **lingvistik sezgirlik, mantiqiy tafakkur va nutq madaniyatini** ham shakllantiradi. Shu boisdan orfografiyani o'qitish metodikasiga yondashishda o'qituvchidan **ijodkorlik, metodik tafakkur va innovatsion texnologiyalarni qo'llay bilish** talab etiladi.

Bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan ta'lim tizimida orfografik savodxonlikni rivojlantirish o'quvchining **kommunikativ kompetensiyasining ajralmas qismi** sifatida qaralmoqda. Zero, to'g'ri yozish madaniyati o'quvchini o'z fikrini aniq, lo'nda va grammatik jihatdan to'g'ri ifoda etishga o'rgatadi. Bu esa uning kelajakdagi **kasbiy faoliyati va ijtimoiy muloqotida muvaffaqiyat garovi** bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Qodirova M. Ona tili ta'limida interfaol metodlardan foydalanish. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 180 b.
- 2.Jo'rayeva N. Til o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 210 b.
- 3.Avliyakov N. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 232 b.
- 4.To'xtaboyeva M. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 165 b.

5.Rasulov R. Til o'qitishning innovatsion metodlari. // Til va adabiyot ta'limi jurnali, №3, 2021. – b 57–63.

SHAXSLARARO ONLAYN MULOQOTDA NUTQ ETIKETINING O'ZGARISHI

Axunova Diyora Urunboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazaruyasi va metodikasi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

axunovadiyora22@gmail.com

Annotatsiya : Maqolada shaxslararo onlayn muloqot jarayonida nutq etiketi me'yorlarining o'zgarishi, an'anaviy nutq madaniyatidan farqli jihatlari va zamonaviy kommunikatsiya vositalari ta'siri tahlil qilinadi. Internet tarmoqlarida keng tarqalgan qisqartmalar, emoji va yangi lingvistik vositalarning shakllanishi o'rganiladi. Shuningdek, yoshlar va pedagogik muhitda kuzatilayotgan ijobiy va salbiy oqibatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: onlayn muloqot, nutq etiketi, til madaniyati, kommunikatsiya, internet.

Annotation: The article analyzes the transformation of speech etiquette in interpersonal online communication, highlighting differences from traditional speech culture and the influence of modern communication tools. It examines the use of abbreviations, emojis, and new linguistic elements common in digital platforms. Special attention is given to both positive and negative effects observed among youth and in educational contexts.

Keywords: online communication, speech etiquette, language culture, communication, internet.

Аннотация : В статье рассматриваются изменения норм речевого этикета в межличностной онлайн-коммуникации, отличительные особенности от традиционной речевой культуры и влияние современных средств коммуникации. Анализируются распространённые сокращения, эмодзи и новые лингвистические формы, появляющиеся в интернет-среде. Особое внимание уделено положительным и отрицательным последствиям в студенческой и педагогической среде.

Ключевые слова: онлайн-общение, речевой этикет, культура речи, коммуникация, интернет.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida shaxslararo muloqotning katta qismi internet va mobil texnologiyalar orqali amalga oshmoqda. An'anaviy muloqot vositalari o'rnini ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron pochta va onlayn platformalar egallamoqda. Bu jarayon nutq etiketi — ya'ni muloqotda odob, xulq-atvor va til me'yorlariga amal qilish qoidalarini ham o'zgartirib yubordi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, shaxslararo onlayn muloqot jamiyatning barcha qatlamlariga, xususan, yoshlar, talabalar va o'qituvchilarning nutq madaniyatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu bois bu mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash, hamda kelgusida nutq madaniyatini rivojlantirish yo'llarini belgilash zarur.

ASOSIY QISM

Onlayn muloqot tushunchasi va xususiyatlari:

Onlayn muloqot — bu raqamli texnologiyalar orqali amalga oshadigan axborot almashinuvi bo'lib, u real vaqt rejimida yoki kechiktirilgan shaklda yuz beradi. Uning o'ziga xosligi shundaki, suhbatdoshlar ko'pincha bir joyda bo'lmasalar-da, tezkor aloqa o'rnatishlari mumkin.

Nutq etiketi va an'anaviy shakli:

An'anaviy muloqotda nutq etiketi salomlashish, murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish, xayrlashish kabi qat'iy shakllar bilan ifodalanadi. Bu me'yorlar asrlar davomida shakllangan bo'lib, insonlararo hurmatni ta'minlashga xizmat qilgan.

Onlayn nutq etiketi o'zgarishlari

Internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi natijasida nutq etiketi yangi shakllarni kasb etdi:

Qisqartmalar: masalan, "ok", "brb", "lol", "xayr" o'rniga "xay" kabi variantlar.

Emoji va stikerlar: hissiyotlarni ifodalashda matn o'rnini bosmoqda.

Til aralashuvi: inglizcha so'z va iboralar ("like", "sorry", "hi") o'zbek matnida faol ishlatilmoqda.

Rasmiylik darajasi pasayishi: hatto ilmiy yoki rasmiy yozishmalarda ham norasmiy elementlarning qo'llanishi.

Yoshlar va pedagogik muhitda kuzatilayotgan holatlar:

Talabalar va o'quvchilar orasida onlayn muloqot asosiy aloqa shakliga aylangan. O'qituvchilar ham dars jarayonida elektron platformalar orqali muloqot qilishmoqda. Bu esa nutq madaniyatida quyidagi o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda:

tezkor yozish uchun qisqartmalarni ko'payishi;

rasmiy muloqotda odob qoidalariga rioya qilinmasligi;

Ijobiy jihatlar

- Muloqotning tezkor va qulay shaklga kelishi;
- His-tuyg'ularni ifodalashning yangi vositalari (emodzilar, GIFlar);
- Masofadan turib ham doimiy aloqada bo'lish imkoniyati.

Salbiy jihatlar

- Nutq madaniyatining pasayishi, imlo va grammatik xatolarning ko'payishi;
- Hurmat-izzat tushunchasining zaiflashishi;
- Agresiv yoki nojo'ya ifodalar keng tarqalishi;
- Haqiqiy hayotdagi muloqot ko'nikmalarining sustlashishi
milliy til me'yorlarining buzilishi;
ijobiy jihat sifatida esa tezkor aloqa va fikr almashish imkoniyatlarining kengayishi.

Onlayn muloqotning noto'g'ri shakllari natijasida quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda:

- hurmatsizlik, etiketsizlik holatlarining ko'payishi;
- tilning buzilishi va milliy qadriyatlarning yo'qolishi;
- yoshlarning og'zaki nutqida ham chat tilining kirib kelishi.

Zamonaviy talablar va yechimlar

Nutq madaniyatini saqlash va onlayn etikani rivojlantirish uchun quyidagilar muhimdir:

- til me'yorlariga rioya qilishni targ'ib qilish;
- o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan nazoratni kuchaytirish;
- ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatli muloqotni targ'ib qiluvchi loyihalar ishlab chiqish;
- rasmiy yozishmalarda qat'iy til qoidalarini joriy etish.

Onlayn muloqot zamonaviy jamiyatda muhim o'rin tutadi, ammo uning nutq etiketi me'yorlariga ta'siri ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. Nutq madaniyatini rivojlantirish, yoshlarni muloqot odobiga o'rgatish, internet tarmoqlarida milliy va madaniy qadriyatlarni saqlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Habibullayev O. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

4. Shomahmudova N. O'zbek tilida nutq madaniyati masalalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

5. Yusupov U. Raqamli kommunikatsiya va lingvistika. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF SELF-ASSESSMENT

Mahmudova Zilola Shukhrat qizi

EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University

E-mail: z.mahmudova@cspu.uz

Abstract: Self-assessment has emerged as a significant instrument in education that bridges psychology and pedagogy. This instructional technique promotes learner autonomy, critical thinking, and accountability for individual advancement. This instructional approach fosters learner autonomy, critical thinking, and personal responsibility. This psychological phenomena fosters self-reflection, self-concept, motivation, and emotional regulation. This study examines the educational and psychological dimensions of self-assessment, focusing on its theoretical foundation, practical use, and influence on students' cognitive and emotional growth. The research utilizes established academic literature to assert that self-assessment enhances the comprehensive growth of learners by incorporating cognitive, emotional, and social aspects of learning. Furthermore, the study examines issues like subjectivity, cultural factors, and insufficient student preparedness, while suggesting pragmatic alternatives for effective integration into educational systems.

Keywords: self-assessment, pedagogy, psychology, reflective learning, learner autonomy, metacognition, emotional intelligence, motivation, higher education.

Annotatsiya: O'z-o'zini baholash ta'limda psixologiya va pedagogika o'rtasida muhim vosita sifatida paydo bo'ldi. Ushbu o'quv usuli o'quvchining mustaqilligini, tanqidiy fikrlashini va shaxsiy rivojlanish uchun mas'uliyatni rag'batlantiradi. Bu o'quv yondashuvi o'quvchining mustaqilligini, tanqidiy fikrlashini va shaxsiy javobgarligini rivojlantiradi. Ushbu psixologik hodisa o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tushunish, motivatsiya va hissiyotni boshqarishni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu tadqiqot o'z-o'zini baholashning ta'limiy va psixologik o'lchamlarini, uning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi va talabalar kognitiv hamda hissiy o'sishiga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot mavjud akademik adabiyotlarga tayanib, o'z-o'zini baholash o'quvchilarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlarini o'z ichiga olgan kompleks rivojlanishini yaxshilashini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, tadqiqot mavhumlik, madaniy omillar va talabalar tayyorgarligining yetishmasligi kabi muammolarni ko'rib chiqadi va ta'lim tizimlariga samarali integratsiya qilish uchun amaliy yechimlarni taklif qiladi.

Kalit soʻzlar: oʻz-oʻzini baholash, pedagogika, psixologiya, reflektiv taʼlim, oʻquvchi mustaqilligi, metakognitsiya, emotsional intellekt, motivatsiya, oliy taʼlim.

Аннотация: Самооценка стала важным инструментом в образовании, объединяющим психологию и педагогику. Этот учебный метод способствует автономии учащихся, критическому мышлению и ответственности за индивидуальное развитие. Такой подход в обучении развивает самостоятельность учащихся, критическое мышление и личную ответственность. Это психологическое явление способствует саморефлексии, самоконцепции, мотивации и эмоциональной регуляции. В данном исследовании рассматриваются образовательные и психологические аспекты самооценки, с акцентом на ее теоретическую основу, практическое применение и влияние на когнитивное и эмоциональное развитие студентов. Исследование использует признанную академическую литературу для утверждения, что самооценка способствует всестороннему развитию обучающихся, учитывая когнитивные, эмоциональные и социальные аспекты обучения. Кроме того, исследование рассматривает такие проблемы, как субъективность, культурные факторы и недостаточная подготовленность студентов, предлагая практические решения для эффективной интеграции в образовательные системы.

Ключевые слова: самооценка, педагогика, психология, рефлексивное обучение, автономия учащегося, метакогниция, эмоциональный интеллект, мотивация, высшее образование.

Assessment is now regarded as an essential element of the learning process, rather than merely a mechanism for evaluating learning outcomes. Self-evaluation is a transformative assessment method that necessitates students to critically analyze their performance, identify strengths and weaknesses, and assume responsibility for their academic advancement.

From an educational standpoint, self-assessment facilitates the shift from teacher-centered to learner-centered instruction. It enables students to engage actively in their learning, so augmenting their autonomy and critical thinking abilities.

From a psychological standpoint, self-assessment is intricately linked to learners' self-concept, motivation, metacognitive awareness, and emotional regulation. It is crucial in fostering confidence, resilience, and enduring learning practices. Consequently, self-assessment embodies a significant amalgamation of pedagogy and psychology, rendering it an essential topic for academic inquiry.

The emergence of self-assessment as a concept and practice is rooted in various significant educational and psychological theories. According to constructivist learning theory, learners actively build knowledge via engagement and reflection rather than passively absorbing information. In this context, self-assessment serves as a mechanism for students to reevaluate their comprehension, assimilate new information, and engage actively in their educational pursuits [10, 86]. Flavell's concept of metacognition emphasizes the significance of awareness and regulation of cognitive processes. Self-assessment enables learners to monitor and evaluate their strategies, thereby improving problem-solving and fostering independent learning. Humanistic psychology, as promoted by Rogers and Maslow, advocates for self-assessment by highlighting personal development, intrinsic motivation, and self-actualization.

Additionally, the self-assessment mechanism is identified as a crucial mechanism in Zimmerman's model of self-regulated learning. This mechanism allows learners to independently set goals, monitor their progress, and alter their approaches. Taking all of these theories into consideration, it appears that self-assessment is not merely a superficial evaluative activity, but rather a comprehensive psychological process that incorporates self-development, autonomy, and reflection into the larger learning experience.

Self-assessment is a crucial factor that brings about a transformation in the educational process from a pedagogical point of view. Through the distribution of more responsibility for the students' achievement and the reduction of excessive reliance on the teachers, it enhances the autonomy of the learners. In addition, considering that self-assessment is a formative assessment tool, it fosters continual growth rather than concentrating just on the results of the final evaluation. The ability to critically evaluate one's own experiences and methods is made possible by the practice of reflection, which Schon identifies as an essential professional and academic talent. Self-assessment also incorporates reflection as an inherent component. In addition, the process of self-evaluation helps to foster the development of abilities that are applicable in a variety of contexts, including analytical thinking, decision-making, and conflict resolution. Students are able to compare their performance to criteria, recognize their strengths, and correct their flaws in a methodical manner when they participate in structured self-evaluation activities. Examples of practical applications in higher education include reflective journals and portfolios.

There is a significant impact that self-assessment has on the personal and emotional growth of learners, as demonstrated by the psychological aspects of this

practice. In contrast to Deci and Ryan's Self-Determination Theory, which indicates how autonomy in learning can boost intrinsic motivation, Bandura's concept of self-efficacy demonstrates how frequent self-evaluation can promote confidence and competence. Self-assessment, according to Goleman, is also tied to emotional intelligence because it needs self-awareness, empathy, and the ability to digest feedback in a constructive manner by the individual doing the assessing. Furthermore, learners develop resilience through the engagement in reflective activities. They learn to reframe failure as an opportunity for progress rather than as a danger to their self-esteem, which is a significant step towards building resilience.

Further evidence from empirical study substantiates the numerous advantages of engaging in self-evaluation. The authors Nicol and Macfarlane-Dick (2006) highlight the cognitive benefits of this practice, which include improved metacognition and critical thinking. On the other hand, the affective benefits include increased self-confidence and motivation. When combined with peer evaluation, it contributes to the development of social skills such as teamwork and dialogue. Students gain skills that enable lifetime learning and professional development through the process of self-assessment, which is perhaps the most essential feature of this activity. For instance, Andrade and Du (2007) discovered that students who participated in organized self-assessment displayed a considerable improvement in their writing skills when compared to their classmates.

Nevertheless, self-assessment is not without challenges. One of the most common issues is subjectivity, as students may either underestimate or overestimate their abilities, which leads to discrepancies with teacher evaluations [3, 534]. Cultural values may also affect self-assessment, as in collectivist contexts learners often avoid overly positive self-evaluations due to social modesty. Moreover, without explicit training, students may lack the necessary skills to conduct accurate and meaningful self-evaluations. Finally, some learners experience assessment anxiety when required to judge their own performance, which can negatively impact the reliability of results.

To address these limitations, several strategies have been recommended. Clear rubrics and criteria help guide learners toward objective evaluations. Scaffolding and teacher mediation provide gradual support, while combining self-assessment with peer-assessment balances subjectivity [8, 205]. Reflective tools such as journals, logs, and portfolios enhance the depth of evaluation, and technology-based platforms create more interactive and engaging self-assessment opportunities. By systematically

integrating these strategies, educators can ensure that self-assessment remains reliable, valid, and genuinely beneficial to student learning and development.

Conclusion

In summary, self-assessment is an effective educational and psychological instrument that fosters learner autonomy, metacognitive awareness, and intrinsic motivation. The effective execution in higher education necessitates a balanced strategy, integrating systematic methodologies with avenues for individual contemplation. Self-assessment enhances academic performance and equips students for lifelong learning in a dynamic environment by cultivating critical thinking, emotional intelligence, and accountability.

REFERENCES:

1. Andrade, H., & Du, Y. (2007). Student responses to criteria-referenced self-assessment. *Assessment & Evaluation in Higher Education*, 32(2), 159–181.
2. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7–74.
3. Boud, D., & Falchikov, N. (1989). Quantitative studies of student self-assessment in higher education: A critical analysis of findings. *Higher Education*, 18(5), 529–549.
4. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
5. Kazakhbaeva , A., & Mahmudova , Z. (2025). CHALLENGES AND SOLUTIONS FOR IMPROVING ENGLISH SPEAKING SKILLS AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS .*International Conference on Business Management and Humanities* , 3(2), 73–75.
6. Mahmudova, Z. (2025). THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS AMONG STUDENTS. *Академические исследования в современной науке*, 4(38), 81-83.
7. Mansurbekova, K. M. Q., & Mahmudova, Z. S. Q. (2025). THE ROLE OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING (CLT) IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS: A MULTIMODAL APPROACH. *Academic research in educational sciences*, 6(NUU Conference Students 1), 115-119.
8. Nicol, D. J., & Macfarlane-Dick, D. (2006). Formative assessment and self-regulated learning: A model and seven principles of good feedback practice. *Studies in Higher Education*, 31(2), 199–218.

9. Turmamatova, D. N. Q., & Makhmudova, Z. S. Q. (2025). WAYS AND PRINCIPLES OF DEVELOPING PRONUNCIATION SUB-SKILLS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. Academic research in educational sciences, 6(NUU Conference Students 1), 181-184.

10. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

ONA TILI FANINI MAKTABDA INTEGRATSION O'QITISH TAMOYILLARI

Xudayarova Lazzat Xutlimurat qizi

ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

xudayarova38@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tog'oymurod Bekturodov

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili fanini o'qitishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati, uning ta'lim jarayonidagi roli va samaradorligi yoritilgan. Integratsiya o'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, boshqa fanlardagi bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada adabiyot, tarix, tabiiy fanlar va matematika bilan integratsiya misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fanlararo integratsiya, ona tili, mantiqiy fikrlash, ta'lim samaradorligi, ijodkorlik, interfaol ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассмотрено значение межпредметной интеграции в преподавании родного языка, её роль и эффективность в образовательном процессе. Интеграция способствует развитию логического, критического и творческого мышления учащихся, а также формированию умений применять знания из других предметов на практике. Приведены примеры интеграции с литературой, историей, естественными науками и математикой.

Ключевые слова: межпредметная интеграция, родной язык, логическое мышление, эффективность обучения, творчество, интерактивное обучение.

Annotation. This article discusses the importance of interdisciplinary integration in teaching the native language, its role, and effectiveness in the educational process. Integration helps develop students' logical, critical, and creative thinking, as well as their ability to apply knowledge from other subjects in practice. Examples of integration with literature, history, natural sciences, and mathematics are analyzed.

Keywords: interdisciplinary integration, native language, logical thinking, educational effectiveness, creativity, interactive learning.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarda chuqur bilim, keng dunyoqarash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy

pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, fanlararo integratsiya prinsipi ta'lim tizimiga keng joriy etilmoqda. Integratsiya — bu turli fanlar mazmunini o'zaro bog'lab o'qitish orqali bilimlarni yaxlit tizimda shakllantirish, ularni hayotiy va amaliy ahamiyatga ega qilish demakdir. Ona tili fani, o'z mohiyatiga ko'ra, barcha fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchilarning nutq madaniyatini, tafakkurini, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Fanlararo integratsiya esa ushbu fanni o'qitishda yanada samarali yondashuvni ta'minlaydi. U o'quvchining o'rganayotgan til birliklarini boshqa fanlardagi tushunchalar bilan bog'lash orqali tilni chuqurroq anglash, uni hayotiy jarayonlarda qo'llay olish malakasini shakllantiradi.

Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida o'quvchi faqat til qoidalarini o'zlashtirib qolmay, balki turli fanlar — adabiyot, tarix, biologiya, matematika, geografiya va boshqa sohalardagi bilimlarni uyg'unlashtirib, ularni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, dars jarayoni qiziqarli, mazmunli va samarali bo'lib, o'quvchilarda o'rganishga nisbatan motivatsiya kuchayadi. Integratsiya jarayonini o'rganishda didaktik olim Yan Amos Komenskiy quidagi fikrlarni bildirgan: “Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak”. Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondashib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: “Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak” Xuddi shuningdek, I.V.Pestalossi o'zining didaktik maqolasida o'quv darsliklaridagi fanlararo bog'liqlik masalasiga keng to'xtalib o'tar ekan: “Bir-biri bilan bog'liq fanlarni ongingga keltir. ularni tabiatdagi uzviy bog'liqlik holatida ekanini angla” -deydi. Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi.[1:17]

Fanlararo integratsiya — bu bir fan mazmunini boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish jarayonidir. Ona tili darslarida integratsiya o'quvchining so'z boyligini kengaytirish, fikrlashni rivojlantirish va boshqa fanlarda o'rganilayotgan tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

- O'quvchilarda kompleks fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shadi.
- Turli fanlarda olgan bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatadi.
- Mantiqiy, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- Til va tafakkur birligini mustahkamlashga ham hissa qo'shadai.

○ Faqat qoidalarini yodlatgandan ko'ra matnlar va qiziqarli topshiriqlar orqali fikrlash qobiliyatini va tafakkurni rivojlantiradi.

Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya'ni umuman fanlar, o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o'rganilgan masalaga xos bo'lgan yetakchi g'oyalar hamda hodisalarning izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir.[2:34]

Ona tili fanida integratsiyani amalga oshirish uchun turli sohalar mavjud. Ushbu fan deyarli barcha sohalaridagi yo'nalishlar bilan aloqa qila oladi.

1. Adabiyot bilan integratsiya - Matn tahlilida adabiy asarlardan parchalar bilan ishlash;

“Milliy o'quv dasturi” asosida ishlab chiqilayotgan bugungi kundagi aksariyat ona tili fani yuzasidagi maktab darsliklarida bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida matnli topshiriqlar mavjud. Ularni o'qib tuhsunish o'z-o'zidan tilshunoslik va adabiyotning integratsiyasiga misoldir. Badiiy tasvir vositalarini tahlil qilishda adabiyotdan foydalanish ham adabiyotning ona tili bilan uyg'unlashishiga kiradi. Masalan: “Metafora”, “taqqoslash” tushunchalarini adabiyotdagi misollar orqali tushuntirish.

2. Tarix bilan integratsiya - Tarixiy shaxslar haqidagi matnlar bilan ishlash. Misol uchun 6-sinf ona tili darsligida “Amir”, “Beruniyning dam olish kuni” nomlari ostida tarixiy shaxslar haqida mantlar mavjud. Tarixiy davr til uslublarini solishtirish ham bunga misol bo'la oladi.

3. Tabiiy fanlar bilan integratsiya (biologiya, geografiya, fizika) - Fanlarga oid matnlar asosida yangi so'z va terminlarni o'rganish; misol uchun 6-sinf darsligida “Ekologiya” mavzusida bo'lim mavjud bo'lib, ushbu bo'lim doirasida matn tuzish orqali ilmiy uslub bo'yicha bilimlarni ni mustahkamlash va biologiyaga oid terminlar bilan tanishish mumkin.

4. Matematika bilan integratsiya - Son, miqdor, nisbat ifodalarini to'g'ri yozish va o'qish;

Xullas deyarli har bir soha bilan bog'liqlik mavjud.

Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari adabiy ta'limi jarayonini integratsiyalashni quyidagi tizimda ko'rish mumkin:

- o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi;
- oliy o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi;
- adabiyot o'qitish metodikasi kafedrasi va maktab o'quvmetodik birlashmalari integratsiyasi;

- ilmiy-o'quv va amaliy markazlar integratsiyasi;
- talabalarni ma'lum yo'nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi;
- mutaxassislar va talabalarning ijodiy jamoasi integratsiyasi va hk.[3:91]

Integratsiyalashgan dars o'tish bolada bilimlarni o'zi qiziqqan soha bilan bog'lash orqali yanada mustahkamlaydi. O'quvchilar tildan foydalangan holda boshqa fanlardagi bilimlarni mustahkamlaydilar. Bundan tashqari ularning nutq, tafakkur va yozma madaniyati rivojlanadi. Darslar qiziqarli, interfaol va hayotga yaqin bo'ladi. [4:71]

Xulosa qilib aytganda, ona tili fanini o'qitishda fanlararo integratsiya — bu ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish, o'quvchilarning bilimni tizimli, chuqur va hayotiy mazmunda shakllantirishning samarali usullaridan biridir. Integratsiya jarayonida o'quvchi nafaqat grammatik yoki nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni turli fanlar bilan bog'lab, amaliyotda qo'llashni o'rganadi. Bu esa o'z navbatida tafakkur, mantiqiy va ijodiy fikrlash, nutq madaniyati hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi. Fanlararo integratsiya ta'limning yaxlitligini ta'minlaydi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va atrofdagi hodisalarni chuqurroq anglashga undaydi. Ayniqsa, ona tili darslarida adabiyot, tarix, tabiiy fanlar, matematika kabi sohalar bilan uyg'unlashtirilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda tilga nisbatan qiziqish uyg'otadi hamda ularning nutqiy va ma'naviy dunyosini boyitadi. Shu bois, fanlararo integratsiyani samarali qo'llash o'qituvchidan ijodkorlik, puxta metodika va zamonaviy yondashuvni talab qiladi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayoni orqali o'quvchi bilimni alohida fanlar doirasida emas, balki yagona, uzviy tizim sifatida idrok etadi. Natijada, ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ortadi, bilim esa yanada mustahkam, amaliy va mazmunli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimova R. "Ta'limda fanlararo aloqadorlikning ahamiyati" - T: "Shafoat nur fayz" nashriyoti Toshkent-2020. -17 b.
2. Ne'matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. –Buxoro: Universitet, 2005. -34 b.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. "Adabiyot o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma- -T: "Shafoat nur fayz" nashriyoti Toshkent-2020. -91 b.
4. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.: O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. -71 b.

MODERN PHILOLOGICAL ISSUES

Azamxonova Mohina Mansurxon qizi

Student of Chirchik State Pedagogical University

mohinaa304@gmail.com

Scientific advisor: Isroilova Tursuntosh

Chirchik state pedagogical university, teacher in Tourism faculty

isroilova.tursuntosh@gmail.com

ABSTRACT

This research acquaints you with modern philological issues, their causes and modern scientific and technological methods of their solution. Globalization, expansion of intercultural communication and evolution of technologies are influencing linguistics and translation activities. The article also investigates the combination of philology with other sciences such as psychology, sociology and artificial intelligence and the prospects of language study with new tools.

Keywords: intercultural communication, language and culture, modern philology, language evolution, globalization.

АННОТАЦИЯ

Это исследование информирует о настоящей филологической проблемности нашей эпохи, её причинах и сучасных научных и технических решениях. Глобализация, развития межкультурного общения, внедрения информации и векторное развития технологии влияют на лингвистику и переводную деятельность. В этой статье под охрана интеграция филологии других учений — психологии, социологии, компьютерного искусства также рассматривается. Для анализа языка с использованием современного средства такилология, эволюция языка, глобализация. же возможность рассмотрена.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, язык и культура, современная филология, эволюция языка, глобализация.

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot ishi zamonaviy filologik muammolar, ularning sabablari va zamonaviy ilmiy va texnologik yechimlar haqida ma'lumot beradi. Globallashuv, madaniyatlararo muloqotning ortib borishi va texnologik rivojlanish lingvistika va tarjima jarayonlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada shuningdek, filologiyani

psixologiya, sotsiologiya va sun'iy intellekt kabi boshqa fanlar bilan integratsiyasi va tilni zamonaviy vositalar yordamida tahlil qilish imkoniyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, til va madaniyat, zamonaviy filologiya, til evolyutsiyasi, globallashuv.

INTRODUCTION

Modern philology examines not only language structure and language history but also its function in social cooperation, cultural communication, and the social adjustment of transactions. The process of globalization has multiplied interactions between languages and cultures all over the world. All of these have had a significant impact on linguistics and translation, and particularly the international dissemination of English and its contact with other languages, which have created new linguistic and cultural processes. Globalization has also transformed the practice of translation. González (2013) says that the global spread of English has reshaped translation practice inasmuch as translators have to contend not only with linguistic differences, but with cultural differences too. In the world where cross-cultural communication is the standard, translation becomes one of the leading instruments in maintaining cultural diversity while fostering worldwide understanding. The rise of English has opened doors for translators both in terms of opportunities and challenges since they have to convey meaning accurately across cultures. Language also plays a vital part in the identity construction, particularly against the globalization and intercultural communication backdrop [1]. The contact between different cultures and languages, importantly shapes linguistic processes. The process reaffirms the need to establish new perspectives in linguistics and translation. Together with globalization, intercultural exchanges also influence language and communication development. Another problem is the way technology has influenced the field of philology, particularly in the area of translation. Machine translation and artificial intelligence have become so advanced that texts can now be translated easily at a fast pace, yet such technologies always miss the nuances of language and culture. For example, Google Translate and other translation tools may provide a word-for-word translation, but they often miss the cultural context that is crucial for understanding the meaning of a text [4]. Researchers highlights the importance of considering both linguistic and cultural elements when translating. The difficulties translators face in ensuring that the meaning of a text is preserved across languages. The solution is in adopting a more context-sensitive and dynamic model of translation where translators heed not only words but the cultural imperatives and contexts of which they are a part. Finally, philology today

is how language reflects and upholds social formations. Language is not neuter. Language can serve as an apparatus of support for power formations, discrimination, and social inequality. Critical discourse analysis can be utilized to determine the social effects of language and address issues like class, gender, and race. Similarly, philologists examines ways in which discursive structures support stereotypes and social inequalities. Discourse analyzed on a deeper level can reveal what lies beneath, i.e., the power structure in society [5]. With critical discourse analysis, philologists get a profounder understanding of the social impacts of language and attempt to create more equal and equitable social systems. With increased use of multiple languages and cultures, language instructional strategies should be able to accommodate different student populations. The challenges facing language educators, particularly in a multilingual environment. A successful language education system should integrate theory and practice, considering different backgrounds and needs of students.

While these challenges are real, solutions exist to manage them. Regarding globalization and linguistic preservation, academics like Crystal encourage language policy with linguistic variety support. This can be achieved through supporting bilingualism or giving an incentive towards acquiring less prevalent languages. Regarding translation and technology, the solution lies in complementing the positives of machine translation with human capability. Translators must not only be educated in linguistic skills but also cultural awareness. This would help ensure that translations are not only accurate but also culturally relevant[7]. To counter power and inequality problems in language, scholars can use critical discourse analysis to study how language constructs social structures. By informing individuals about such problems, it is easier to defy destructive social norms and promote more tolerant language behavior. Modern philology is no longer self-sufficient. Nowadays, it converges with sociology, media studies, computer science, and pedagogy. Interdisciplinary cooperation is one of the ways to cope with complex language problems. Through working with experts in other fields, philologists can apply their understanding of language to the world's issues—from improving international diplomacy to developing better language apps. These other solutions refer to the evolving role of the philologist in today's globalized world. As language continues to evolve through digitalization and globalization, the field of philology must continue to be adaptive, open, and rooted in theory and social life. With more widespread machine translation, there are also ethical concerns that arise, such as biased answers or culturally incorrect concepts misrepresented. Ethical AI applied in linguistic processes must assure transparency,

fairness, and responsibility. Philologists, collaborating with computer developers, can help offer ethical standards that make translation technologies less discriminatory and more culturally aware. This is especially needed in legal, medical, and school translation, where misinterpretation can have serious implications.

CONCLUSION

In summary, modern philology is faced with a number of challenges, but it also offers solutions that can be utilized to address these issues. The solution to the ailments of globalization, technology, discourse, and in adopting a more critical, flexible, and context-sensitive approach to studying language. By pursuing this path, we can maintain philology as a living and relevant tool for unraveling the complex dynamics of language, society, and culture. The development of artificial intelligence and machine translation software has made it easy to translate but lacks the necessary human element to completely document cultural meaning. Balanced hybrid model in which human translators and technology are together crucial to providing effective, meaningful communication. Moreover, philology today must resolve issues of social inequality and power because language may reflect and even entrench discrimination. The use of critical discourse analysis to uncover such patterns and foster more inclusive, socially sensitive language use. Interdisciplinary collaboration—among sociologists, educators, and technologists—can help philologists create real-world language solutions to real-world problems. Last but not least, modern philologists need to embrace digital literacy, offer support for endangered language revitalization, and offer input to ethical AI development. In doing so, they will not only be staying in pace with a rapidly changing world but also turning language into an instrument of unity, cultural diversity, and social justice. Thus, the philology of the future is being responsive and reflective—based on linguistic awareness, yet also open to innovation, diversity, and global cooperation.

References

1. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation (2nd ed.). Routledge.
2. Blommaert, J. (2010). The Sociolinguistics of Globalization. Cambridge University Press.
3. Tulaganova, N. F. Q., & Yusupova, S. B. (2022). Madaniyat, san'at va adabiyotning tilga ta'siri: uzbek va ingliz tillarining óziga xos xususiyatlari. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 794-797.

4. Batirovna, Y. S. (2023). COMPARISON OF SPEECH FORMS IN UZBEK AND ENGLISH NOVELS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 12, 65-66.
5. Cook, G. (2003). *Applied Linguistics*. Oxford University Press.
6. Cronin, M. (2006). *Translation and Globalization*. Routledge.
7. Тулаганова, Н., & Юсупова, Ш. (2022). Til o'rganish va o'qitish jarayonida nutq madaniyatining ahamiyati. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(2), 244-246.
8. Batirovna, Y. S. (2022). National Cultural Specificity of Speech Behavior in English and Uzbek. *Eurasian Research Bulletin*, 4, 80-82.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING RIVOJLANISHI

Ortiqova Nafisa

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

nafisaortiqova52@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada globallashuv jarayoni, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, islohatlar, zamonaviy maktablarning ma'no-mazmuni borasida fikrlar berilgan bo'lib, sog'lom fikr va e'tiqodni tarbiyalashda asrlar davomida shakllangan milliy an'analarimizga tayanishimiz nechog'li maqsadga muvofiqligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: renessans, sog'lom e'tiqod, ma'naviy meros, ommaviy madaniyat, milliy an'analar, «yevropalashish» madaniyati, sharqona odob qoidalari

Annotation. The article discusses the process of globalization, the rich spiritual heritage of our ancestors, ongoing reforms, and the meaning and content of modern schools. It also provides information on how appropriate it is to rely on our centuries-old national traditions in fostering sound thinking and belief.

Keywords: Renaissance, sound belief, spiritual heritage, mass culture, national traditions, "Europeanization" culture, oriental rules of etiquette.

Аннотация. В статье рассматриваются процессы глобализации, богатое духовное наследие наших предков, проводимые реформы, а также смысл и содержание современных школ. Освещается вопрос о том, насколько целесообразно опираться на национальные традиции, сформированные на протяжении веков, в воспитании здорового мировоззрения и убеждений.

Ключевые слова: Ренессанс, здоровое мировоззрение, духовное наследие, массовая культура, национальные традиции, «европеизация» культуры, восточные нормы этикета.

Bugun biz davlat va jamiyat hayotini barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'lidamiz. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohatlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirmoqdamiz. Buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog'liq. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli ta'lim tizimi va yosh avlodga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Islohatlar, zamonaviy maktablarning ma'no-mazmuni, ilm-ma'rifat va tarbiya O'zbekistonda Yangi uyg'onish davrini boshlab berdi. Shunday ekan, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik -bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros -bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik -bu bilimsizlikdir!". Bugungi kunda O'zbekistonning istiqloli va istiqboli, buyuk kelajagi, umumjahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini butun dunyo qadrlamoqda, tan olmoqda.

Chunki, tariximiz qancha o'rgansa va ibrat olsa arzigulik rang-barang ma'naviy meros durdonalari bitilgan sahifalarga boy.

Inson mustaqil fikrga, sog'lom e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlarga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuraning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinxona ko'rinishdagi tazyiqlariga bardosh berishi amrimahol. Ayniqsa, butun dunyoda globallashtirish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda bu masalaning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar qancha -qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og'ir kulfatlar olib kelmoqda. G'arazli maqsadlarini amalga oshirmoqchi bo'lgan kimsalar hali ongu tafakkuri shakllanib ulgurmagan bolalarni o'z ota -onasi, vataniga qarshi qo'yib, ularning hayotiga zomin bo'lmoqda. Yoshlarni radikal va zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolmasligi uchun bu boradagi ishlarni yangicha yondashuv asosida olib borishimiz, sog'lom fikr va e'tiqodni tarbiyalashda asrlar davomida shakllangan milliy an'analarimiz va ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanishimiz darkor.

Jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va sog'lom e'tiqod egalari etib tarbiyalash har qachongidan ko'ra ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk ajdodlarim o'zlarining ilmiy va ijodiy kashfiyotlari

bilan dunyoga ustozlik qilishgan. Boshqalarga ergashmagan, balki boshqalarni o'z ortidan ergashtirgan. "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir" -deydi yurtboshimiz.

Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida muqaddas manbalardan, buyuk mutafakkirlarimizning mazmunga boy, keng qamrovga ega bo'lgan tarbiyaviy merosidan to'g'ri va oqilona foydalanish maqsadida uni o'quv-tarbiya jarayoniga

tatbiq etish ilmiy ahamiyatga ega. O'zbek xalqida ham avlodlar tarbiyasiga ta'sir etuvchi, insonlarni odamiylik, ezgulikka yetaklovchi «Xalq dorilfununlari» bo'lganligini e'tirof etmoq kerak. Hozirgi kunda jahon madaniyati bilan maorifining ilg'or g'oyalaridan oqilona va unumli foydalanish bilan birga, bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan qadriyatlardan foydalanish ta'lim tizimida samaradorlikka erishish yo'llaridan biridir. Buyuk allomalarimizning pand-nasihatlari, ota-bobolarimiz o'gitlari, Qur'oni Karim, hadislar mustaqilligimizni mustahkamlash va rivojlantirish davrida yangicha ma'no-mazmun kasb etadi. Hozirgi zamon jahon pedagogikasida tarbiyaga turlicha ta'rif berilayotgan bo'lsa-da, biz uchun Sharq mutafakkirlari qoldirgan meros o'zining hayotiyliigi va mazmunan keng qamrovliligi bilan qimmatlidir. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar chuqur singib borayotgan hozirgi davrda Sharqona odob qoidalarini bilish, ularga amal qilish inson tarbiyasining muhim jihatidir. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Zamonaviy maktablarning ma'no-mazmuni ilm-ma'rifat, tarbiya bilandir. Ayniqsa, butun dunyoda globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi davrda bu masalaning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarni o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylashga o'rgatish lozim. Ma'naviy qadriyatlar o'tmish va bugunni bog'lab turuvchi xalqadir. Avlodlar xalqasi uzilsa, jamiyat parokanda bo'ladi, inson ma'naviyatsizlikka yuz tutadi. Milliy qadriyatlar endilikda yangicha ma'no-mazmun kasb etmoqda. O'quvchi yigit-qizlar qanchalik zamonaviylashmasinlar ular hayo, ibo, nomus bobida, mehr-oqibat, e'tiqod, oila, qarindosh-urug'larga nisbatan munosabat bobida sharqona fazilatlarni tark etmasliklari kerak. Chunki, bu xislatlar avloddan-avlodga o'tib, qon-qonimizga singib ketgan. Hozirda ayrim yoshlarimizda «yevropalashish» ya'ni ikki madaniyat oralig'ida qolish» sifati uchramoqda. Yoshlar umuminsoniy va milliy

qadriyatlarning mushtarak ekanligi, o'z navbatida milliy qadriyatlarni to'la egallash ana shu mushtaraklikning birinchi sharti ekanligini unutmasliklari kerak.

Mustaqillik fan taraqqiyotiga, shu jumladan milliy pedagogika rivojiga ham shart-sharoitlar yaratib berdi. Biz o'zimizning milliy g'urur va g'oyamizga ega bo'lgach, ta'lim-tarbiya tizimini ham mazmunan qayta qurishga to'g'ri keldi. Ta'lim-tarbiya jarayoni davlat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qila oladigan, yoshlarni tarbiyalashga yo'naltira oladigan bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonini tarbiya tamoyillari bilan boyitishga xizmat qiladi.

Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlagan ma'naviy asoslardan biridir. Xalqimizning asrlardan asrlarga meros tarzida kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustivorligi, boshqa xalqlarnikiga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analar bilan tavsiflanadi. O'zbeklarning o'ziga xos, uzoq tarixiy tajribada sinovdan o'tgan ajoyib an'analari bor. O'zbek xalqi farzandlarining oqil, dono, mard bo'lib kamolga yetishi uchun harakat qilgan. Bu an'ana avlodlardan avlodga xalq donishmandchiligining timsoli sifatida milliy madaniyatimizda o'ziga xos o'rin qoldirgan. Ilgari ota-bobolarimiz, momolarimizning pand-nasihatlariga bolalar jon-dildan quloq solishgan, ularni mag'zini chaqishgan. Ota-onalarning purhikmat fikrlari yoshlarga kuchli ta'sir etib, ularning tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ota-bobolarimiz axloq masalalari bilan shug'ullanishni o'zlarining burchlari deb hisoblashgan.

O'zbek xalqi juda boy ma'naviy, axloqiy tarbiya, madaniy qadriyatlarga ega. Anashu qadriyatlar, urf-odat, rasm-rusumlar va tarbiya usullari orqali bobolarimiz, momolarimiz farzandlarini tarbiyalab, voyaga yetkazganlar. Ular tarbiyalagan farzandlar axloqda, aql-zakovatda, mehr-oqibatda, jasurlik va mardlikda nom qozonganlar. Zero, o'zbek xalqining shakllanish tarixi o'ziga xos tomonlarga ega.

Bu holat ularning diniy tasavvurlariga asoslangan turmush tarzlarida ham o'z aksini topgan. Avlod-ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqllar, rivoyat, afsona, hikoyat, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi va unda o'sha davrdagi milliy g'oyalar yorqin ifodalanadi. Marosim, urf-odat, rasm-rusumlar ijtimoiy ahamiyatga molik voqea va hodisalar bilan bog'liq bo'lib, ular ibrat orqali tarbiyalash, ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. O'zbek xalqining

paydo bo'lish tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an'analari, urf-odat, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega.

Bunday qadriyatlar ota-bobolarimiz, momolarimiz tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qat'iy qonunlarga aylantirilganki, ular bizning qon-qonimizga, ongimizga singib ketgan. Biz o'zligimizga qaytib bobolarimiz, momolarimiz merosidan unumli foydalana bilsak, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, tarbiya sohasida muvoffaqiyatga erishishimiz mumkin. Zotan, bu har qanday boylikdan afzaldir. Xalqning turmush tarziga aylanib ketgan an'analarni so'nib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki har bir xalqning turmush tarzidan keng o'rin olgan an'analar u yoki bu millatning madaniyatini namoyon qiladi.

Ulug' donishmandlarimiz tomonidan qoldirilgan boy meros va milliy ta'lim-tarbiya an'alarini yoshlarimiz ongiga muntazam singdirib borishning ahamiyati beqiyos. Biz -pedagoglarning asosiy vazifamiz -yosh avlodni doimo ezgu ishlarni amalga oshirishga, odamlarga yaxshilik qilishga o'rgatish, odatlantirish, ularni yomonlikdan va nomaqbul ishlardan qaytarish ekan, bu yo'lda muqaddas bitiklardan, ibratli hikoyat va rivoyatlardan, milliy ta'lim-tarbiya an'alaridan foydalansak, shubhasiz mehnatimiz unumli va samarali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O.Musurmonova. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1996-yil
2. E.Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T.: «Universitet», 1998- yil
3. D.S.Kambarova. Axloqiy o'zlikni anglash-sog'lom ruhiyat asosi. –T.: "Muharrir nashriyoti", 2018- yil
4. J. Fozilov, R. Sultonov, H.Saidov. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish –T.: «Sharq» nashriyot –matbaa konserni bosh tahririyati, 2000 yil.

AXBOROT ASRIDA NUTQ MADANIYATI VA UNING YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI

Azimboyeva Gulsevar Shuxratjon qizi

Chirchiq davlat pedogogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya. Axborot asrida nutq madaniyati yoshlarning intellektual va ma'naviy kamolotida muhim omil hisoblanadi. To'g'ri, ravon va ta'sirchan nutq jamiyatda muloqotni yengillashtiradi, shaxsning ijtimoiy mavqei belgilaydi hamda bilim va tajribani samarali yetkazishga xizmat qiladi. Yosh avlod nutq madaniyatiga ega bo'lish orqali axborot oqimidan oqilona foydalanadi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ijobiy ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Shu bois nutq madaniyatini oshirish ta'lim jarayonida ustuvor vazifa bo'lishi zarur.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, axborot asri, yoshlar, ta'lim, muloqot.

Аннотация. В информационную эпоху культура речи играет важную роль в интеллектуальном и духовном развитии молодежи. Грамотная, выразительная и убедительная речь облегчает общение в обществе, определяет социальный статус личности и способствует эффективной передаче знаний и опыта. Обладая культурой речи, молодое поколение рационально использует информационные потоки, развивает критическое мышление и укрепляет положительные социальные связи. Поэтому формирование культуры речи должно быть приоритетом в образовательном процессе.

Ключевые слова: культура речи, информационная эпоха, молодежь, образование, коммуникация.

Annotation. In the information age, speech culture is a key factor in the intellectual and moral development of youth. Clear, fluent, and persuasive speech facilitates communication in society, defines social status, and ensures effective transmission of knowledge and experience. By mastering speech culture, young people can use information flows wisely, enhance independent thinking skills, and strengthen

positive social interactions. Therefore, fostering speech culture should be a priority in the educational process.

Keywords: speech culture, information age, youth, education, communication.

Hozirgi davrni bejizga axborot asri deb atashmaydi. Chunki insoniyat hayoti, uning kundalik faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ishlab chiqarish, hatto shaxslararo muloqot ham zamonaviy axborot vositalari bilan bevosita bog'liq holda kechmoqda. Bunday sharoitda yoshlar uchun eng muhim ko'nikmalardan biri nutq madaniyati sanaladi. Nutq madaniyati – bu shunchaki chiroyli gapirish emas, balki to'g'ri, aniq, mazmunli, ta'sirchan va madaniyatli muloqot qila olish qobiliyatidir. Axborot oqimlari tobora ortib borayotgan davrda insonning jamiyatdagi mavqei ko'p jihatdan uning nutqi va so'zlash madaniyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu bois, nutq madaniyatini yoshlarning hayotida alohida o'rin tutuvchi ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish muhimdir.

Avvalo, nutq madaniyati tushunchasini aniqlab olish zarur. Nutq madaniyati til imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, grammatik, fonetik, uslubiy va etik me'yorlarga rioya qilishni anglatadi. U shaxsning intellektual salohiyati va madaniy darajasini namoyon etadi. Nutqi ravon, mantiqan asoslangan, obrazli va ta'sirchan inson jamiyatda o'z o'rnini topa oladi, boshqalar bilan samarali muloqotga kirisha oladi, o'z fikrini aniq ifodalab, boshqalarga yetkaza oladi. Ayniqsa, yoshlar uchun bu fazilatlar ularning ta'limdagi muvaffaqiyati, kasbiy faoliyatdagi yutuqlari va ijtimoiy hayotdagi mavqeini belgilab beradi.

Bugungi axborot asrida nutq madaniyati oldingi davrlarga qaraganda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki inson nafaqat jonli muloqotda, balki internet, telefon, turli onlayn platformalar orqali ham tez-tez fikr almashadi. Ijtimoiy tarmoqlarda yoziladigan fikrlar, videokonferensiyalarda bildiradigan mulohazalar, bloglar yoki maqolalarda qo'llaniladigan til va uslub ham shaxsning nutq madaniyatini ko'rsatadi. Demak, zamonaviy yoshlar uchun nutq madaniyati faqatgina og'zaki so'zlashuv darajasida emas, balki yozma nutqda, elektron muloqotda ham dolzarbdir.

Yoshlarning shaxsiy hayotida nutq madaniyati ularga ko'plab afzalliklarni beradi. Masalan, o'qish jarayonida bilimlarni o'zlashtirishda nutq madaniyati muhim vositadir. O'quvchi yoki talaba darsliklarni o'qib tushunishda, mustaqil ishlarni yozishda, taqdimot qilishda, bahs-munozaralarda ishtirok etishda o'z nutqining to'g'ri va ravon bo'lishiga tayanadi. Shu sababli nutq madaniyati ta'lim tizimida o'quvchining muvaffaqiyat kalitlaridan biri sifatida qoraladi[2].

Kasbiy faoliyatda ham nutq madaniyati yoshlar uchun juda muhimdir. Ishga kirishda suhbatdan muvaffaqiyatli o'tish, jamoada o'z o'rnini topish, rahbarlik lavozimlariga erishish ko'p jihatdan nutq madaniyatiga bog'liq. Xususan, pedagog, huquqshunos, jurnalist, siyosatchi, tibbiyot xodimi kabi kasblarda nutq madaniyatisiz muvaffaqiyat qozonish deyarli imkonsizdir. Shuningdek, oddiy ishchi-xodimning ham boshqalar bilan muloqoti, buyruq va ko'rsatmalarni to'g'ri ifodalashi, hisobotlarni ravon yozishi uchun nutq madaniyati zarur[3].

Nutq madaniyati yoshlarning ijtimoiy hayotida ham o'z ifodasini topadi. Do'stlar bilan muloqot qilish, turli jamoalarda faoliyat yuritish, jamoatchilik tadbirlarida qatnashish, rahbarlar bilan suhbat qurish, hatto oilaviy munosabatlarda ham nutq madaniyatining ahamiyati kattadir. Nutqi chiroyli, odobli va samimiy inson jamiyatda hurmat qozonadi, do'stlar orttiradi va yaxshi ijtimoiy aloqalar o'rnatadi.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, virtual makonda nutq madaniyati bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Ba'zi hollarda yoshlar qisqa yozish, noto'g'ri imlo qo'llash, qo'pol so'zlar ishlatish, hatto bir-biriga hurmatsizlik ko'rsatish kabi odatlarga berilib qolmoqda. Bu esa nafaqat shaxsiy obro'ga, balki jamiyat madaniy muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yoshlarni internet madaniyati, xususan, virtual nutq madaniyatiga o'rgatish dolzarb vazifadir.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab, maktab va oliy ta'limda ham o'quvchilarni to'g'ri, ravon va madaniyatli so'zlashga o'rgatish zarur. Ona tili va adabiyot darslari, tilshunoslik fanlari, nutq madaniyati bo'yicha maxsus mashg'ulotlar bu jarayonda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, nutq madaniyatini oshirish faqat birgina til fanlari doirasida emas, balki barcha ta'lim jarayonida, hatto matematika, tarix yoki biologiya darslarida ham o'z aksini topishi kerak. Chunki har qanday fan o'z natijasini tushunarli va ravon nutq orqali ifodalashni talab qiladi.

Nutq madaniyatini shakllantirishda oilaning ham roli katta. Farzand ota-onadan eshitgan nutqni takrorlaydi, oiladagi muloqot muhitidan o'rnak oladi. Shuning uchun ota-onalar o'z farzandlari bilan toza, adabiy tilda gaplashishi, qo'pol va nomaqbul so'zlardan tiyilishi, bolani kitob mutolaasiga jalb etishi zarur. Mutolaa esa nutqni boyituvchi, so'z zahirasi kengaytiruvchi, fikrni aniq ifodalashga o'rgatuvchi eng samarali vositalardan biridir.

Kitob o'qish, san'at asarlari bilan tanishish, turli madaniy tadbirlarda qatnashish ham yoshlarning nutq madaniyatini shakllantirishda muhimdir. Ayniqsa, milliy

adabiyotimiz va klassik asarlar til boyligini oshirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bois, yoshlarni kitobxonlikka keng jalb qilish bugungi kunda davlat siyosatining ham ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda[4].

Nutq madaniyatini rivojlantirish yo'llari haqida to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda, yoshlarda o'z ona tiliga hurmatni shakllantirish kerak. Ona tiliga e'tibor – bu milliy o'zlikni anglash, madaniyatni qadrlash demakdir. Shuningdek, xorijiy tillarni o'rganish ham nutq madaniyatini rivojlantirishda muhimdir, chunki bu jarayon shaxsga turli uslubiy yondashuvlarni o'rganish imkonini beradi, muloqot doirasini kengaytiradi va dunyoqarashni boyitadi.

Shuningdek, turli notiqlik san'ati mashg'ulotlari, bahs-munozaralar, ijodiy to'garaklar ham nutq madaniyatini rivojlantirishning samarali shakllaridir. Yoshlar auditoriya oldida erkin chiqish qila olishi, o'z fikrini mantiqan asoslab bera olishi, savollarga aniq javob qaytara olishi uchun muntazam mashq qilishi kerak. Bunday ko'nikmalar ularga kelajakda nafaqat o'qishda, balki ish faoliyatida ham katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, axborot asrida nutq madaniyati yoshlarning hayotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. U nafaqat bilimlarni samarali o'zlashtirish, balki jamiyatda o'z o'rnini topish, mustaqil fikrlash, ijobiy ijtimoiy aloqalar o'rnatish va kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishning ham muhim omilidir. Shuning uchun ta'lim tizimi, oila va jamiyat birgalikda yoshlarning nutq madaniyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishi lozim. Nutqi ravon, madaniyatli va ta'sirchan yoshlar esa kelajakda jamiyat taraqqiyotining ishonchli poydevoriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 400 b.
2. Jo'rayev N. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 240 b.
3. G'ulomov A., Qodirova M. Ona tili va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 200 b.
4. Axmedova Z. Yoshlar ma'naviyati va nutq madaniyati. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 168 b.
5. Xudoyberdiyeva M. Axborot jamiyati sharoitida til va nutq masalalari. // O'zbekiston filologiya jurnali. – 2020. – №3. – B. 45–52.

“ZAMONAVIY MANQURTLIK” TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY MAZMUNI

Sharifova Zulfiyxon Shavkatjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

zulfiyaxonsharifova1@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Chingiz Aytmatovning *Asrga tatigulik kun* asarida berilgan manqurtlik tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi. Ushbu tushuncha shaxsning o'z tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlaridan voz kechib, begona mafkura ta'siriga berilishi bilan izohlanadi. Hozirgi davrda esa ushbu hodisa jamiyatimizda ma'lum darajada yangicha ko'rinishida namoyon bo'lib, ayrim fuqarolarning o'z ona tili va madaniyatiga beparvo munosabatida yaqqol sezilmoqda. Shu bois maqolada manqurtlik fenomenining badiiy talqini hamda uning zamonaviy ko'rinishlari o'rtasidagi uzviy aloqalar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: manqurtlik, urf-odatlar, mankurtizm, ijtimoiy tarmoqlar va asar qahramonlari

Annotation

This article examines the concept of mankurtism as presented in Chingiz Aytmatov's novel *Asrga tatigulik kun*. This concept is interpreted as an individual's renunciation of their historical memory and national values under the influence of an alien ideology. In the modern era, this phenomenon manifests itself in a somewhat new form, particularly in the indifferent attitude of some citizens towards their native language and culture. Therefore, the article analyzes both the literary interpretation of the mankurt phenomenon and its contemporary manifestations, as well as the interrelations between them.

Keywords: mankurtism, traditions, social media and novel characters

Аннотация

«В данной статье рассматривается концепция манкурта, представленная в романе Чингиза Айтматова И дольше века длится день. Данная концепция объясняется как отказ личности от своей исторической памяти и национальных ценностей под влиянием чужой идеологии. В современную эпоху это явление проявляется в несколько иной форме, в частности, в равнодушном отношении некоторых граждан к своему родному языку и культуре. Поэтому в статье анализируется как художественная интерпретация феномена манкуртизма, так и его современные проявления и взаимосвязи.»

Ключевые слова: манкуртство, обычаи и традиции, манкуртизм, социальные сети, герои произведения

Bugungi kunda odamlar orasida „manqurt“ soʻzi tez-tez uchraydi. Shunda bir savol yuzaga keladi manqurt kim yoki nima? Oʻzbek tilining izohli lugʻatida ushbu atamaga quydagicha taʼrif beriladi manqurt soʻzi koʻchma maʼnoda oʻz tarixi, nasli va oʻzining tomirlarini unutgan kishiga nisbatan qoʻllanadi. Mazkur atama mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatovning „Asrga tatigulik kun“ asari orqali xalqimizning eʼtiborini tortgan. Romanda ikkita obraz orqali manqurtlik taʼriflanadi. Bular: Sobitjon va Joʻlomon obrazlaridir. Joʻlomon shunday manqurtki odamga xos tashqi koʻrinishga ega, ammo insoniy fazilatlardan yiroq shaxs. Hattoki oʻz onasini, otasini tanimaydi, ismini ham bilmaydi. U qul kabi erkinligini talab qilmaydi va xoʻjayinning buyruqlarini soʻzsiz bajaradi. Natijada esa onasining oʻlimiga sababchi boʻladi. Shu oʻrinda kitobxonni bir savol oʻylantiradi: Joʻlomon qanday qilib bunday holatga kelib qoldi Chingiz Aytmatovning hikoya qilishicha: „Juanjuanlar asirga tushgan tutqunning sochini qirdirib, yangi soʻyilgan tuyaning boʻyin terisini uning boshiga kiydirishadi. Shundan soʻng uning qoʻl-oyogʻi bogʻlanib, boshini tekkiza olmasligi uchun boʻyniga „taxta“ kiydirib, och qoldirishadi. Sahroning jaziramali haroratida tutqunlar oʻlib ketardi yoki xotirasidan butkul mahrum boʻlib haqiqiy qulga aylanib qolardi“ [2..336-337]. Joʻlomon ham shunday asirlardan biri edi. Manqurtlik tushunchasi faqat Chingiz Aytmatovning asarida emas, balki boshqa adabiyotlarda ham keng yoritilgan. Xususan, Alisher Navoiy ijodida ham uchraydi. Shoir quydagi ruboiysida shunday deydi

Falak boshinga qoplab it terisini,
Seni oni jahlidin deb sen kishi sanjob
Ajab yoʻq, odamligʻin unutsang

O'zingni bo'yla it charmida asrab.[3]

Ushbu satrlar orqali insoniy fazilatlarni unutgan insonlar qoralagan. Navoiy talqinida odamning boshiga it terisi qoplangan va u nodonligi tufayli uni sanjob kabi pokiza hayvon terisi deb o'ylaydi. Keyingi misralar orqali: hayratlanarli joyi yo'q, odamiylikni unutsang, yuraver boshinga it terisini o'rab deb yortiladi. Garchi manqurt so'zi ishlatilmagan bo'lsa-da, ruboiy orqali manqurtlik tasvirlanganini inkor etmaymiz chunki odamiylikni unutgan har qanday shaxs manqurt hisoblanadi. Demak, bunday insonlar nafaqat qadimda, balki har bir davrda mavjud bo'lgan

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib kelayotgan davrda "zamonaviy manqurtlik" bugunning dolzarb masalaga aylandi. Dunyo bo'ylab zamonaviy manqurtlarning soni sezilarli darajada oshgan va jamiyatimiz uchun jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda. Asirlikka tushgan Jo'lomon kabi qahramonlar o'z xohishi bilan manqurtga aylanmadi. Biroq oramizda qo'shtirnoq ichidagi ayrim manqurtlar borki, ular o'z tarixini, milliy qadriyatlari va o'z ona tilisini mensimaydi. Aslida biz ularni haqiqiy manqurt deb atashimiz kerak. Bugungi kunda zamonaviy manqurtlikning ko'rinishlari va turlari ko'p. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarga bo'lgan qaramlik jiddiy muammo sifatida ko'zga tashlanadi. Odamlar ko'p vaqtini internetda o'tkazib, real hayotdan uzoqlashib ketmoqda. Yoshlar o'qigan kitoblarni muhokamma qilish o'rniga internetda tomosha qilgan kontentlari haqida suhbatlashishni afzal ko'radi. Yana bir holat ular ko'rayotgan narsalariga taqlid qilishni istashadi yoki begona insonlarning ta'siriga tushib qoladi. Natijada esa yoshlarning shaxsiy hayotida turli muammolar kelib chiqmoqda.

Misol tariqasida ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan **Kvadroberlarni** olsak, ular zamonaviy manqurtlikning g'ayrioddiy ko'rinishlaridan biri. Ular o'zlarini it, mushuk yoki boshqa hayvonlardek tutib to'rt oyoqda yurishga urinayotgan insonlardir. Bunday xatti-harakatlar oddiy narsa yoki hazildek tuyilishi mumkin, lekin bu insoniyat uchun fojia. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Alisher Navoiy ruboiyisida "boshiga it terisin o'rab yuradigan" kishi tasviriga o'xshash tarzda, insoniy fazilatlardan yiroqlashmoqda. Bu holat ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalgan. Ular nafaqat o'zlariga zarar yetkazmoqda, balki boshqalarga ham. Yurtimizda kvadroberlarni soni oshishining asosiy sababi sifatida internet va ota-onalarning e'tiborsizligi deb aytish mumkin chunki bugun ota-onalar farzandi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanyotganda nazorat qilmayapti. Natijada esa ular internet ta'sirida turli videolarga taqlid qilishmoqda. Asrga tatigulik kun asarida ham zamonaviy manqurt obrazi bor. Bu

obraz yozuvchi Sobitjon orqali tasvirlagan. Sobitjon - o'z otasini o'likmi yoki tirikligini ham bilmaydi. Hatto otasini o'ligini ko'mishni ham minnat qiladi. U ota bobolaridan qolgan urf-odatlarini hurmat qilmaydigan inson. Qarindoshlaridan ko'ra obro' e'tiborni birinchi o'ringa qo'yadi. Otasining vasyatini bajarishni istamay; 'Otamni shuncha uzoqqa olib borib yuramizmi? Shunday katta cho'lda bitta odamga joy topiladi',- degan so'zlari Jo'lomondan ham yomon manqurt ekanini ko'rsatadi. Darhaqiqat, bugun jamiyatimizda Sobitjonga o'xshagan zamonaviy manqurtlar yo'q emas. Ular milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlarga 'eskilik sartqi' sifatida qaraydi. Bunday insonlar jamiyatning ma'naviy barqarorligi va kelajak taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asaridagi Soat G'anievni ham zamonaviy manqurt deb atash mumkin, negaki u o'z millatdoshlarini "xalq dushmani" sifatida qamab, ularni o'limiga sabachi bo'ldi. U nafaqat o'z millatni sotdi, balki o'zligini ham. Soat G'aniev el boshiga ish tushganda kurashish o'rniga dushmanlarga qo'shilib xalqni taladi. Xalqimiz orasida bir naql bor: 'O'zingniki o'zagingni kesadi'. Bu naql aynan Soat G'anievga o'xshagan insonlarga aytilgandek. Bugun jamiyatda O'zbekistonda tug'ilib o'sgan, shu yerning non tuzini yegan, ammo o'z dini, tili va buyuk ajdodlarining merosiga bepisandlik bilan qarayotgan insonlar bor. Xususan, manqurtlikni yana bir ko'rinishlaridan biri bu o'zini o'ylashlik. Ayrim insonlar borki, faqat o'z manfaatini o'ylab ish ko'radi. Bunday kishilar o'zining shaxsiy foydasini hamma narsadan ustun qo'yib, mamlakat rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Natijada **mankurtizm** atamasini kirib keldi va bu termin Qozog'iston, Qirg'iziston, Tatariston va Boshqaristonda o'z milliy qadriyatlariga beparvo bo'lganlar uchun haqoratli laqabga aylandi. [4]

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv va axborot asrida zamonaviy manqurtlik-ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, milliy qadriyatlarga befarqlik va ma'naviyatsizlik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Aslida inson uchun berilgan eng katta jazo manqurtga aylanish, negaki u o'zligini, jamiyatdagi o'zni va qadriyatini yo'qotadi. Shunday ekan, har birimiz insoniylikni, milliy meros qadriyatlarini asrab-avaylash orqali bunday illatlardan saqlanishimiz zarur. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: 'Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishini, oqibatda ularning ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan

yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligi tasavvur qilish qiyin emas"[1;15]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom Karimov Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent 2016.
2. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik/Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Toshkent 2019 .336-337 bet.
3. <https://www.xabar.uz/uzmadaniyat/manqurtlar-hozir-ham-bor>

ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA YOSHLAR JARGONI VA UNING TA'SIRI

Bekmurodova Farangiz Sodiqjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

farangiz@bekmurodova.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Yangi grafemalar va skriptlar. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tildagi grafemalar boyib bormoqda. Avvalo, emoji va stikerlarni keltirish mumkin. Ular matnga hissiy boylik qo'shadi, emotsional fonni kuchaytiradi. Misol uchun, oddiy "salom" so'zi yoniga 😊 belgisi qo'shilganda nutqning ma'nosi ijobiy kayfiyat bilan to'ldiriladi.

Aksincha, 😊 belgisi salomlashuvni xafalik kayfiyatida qabul qilishga undaydi. Demak, emoji ham til belgisi sifatida kommunikatsiyaning muhim qismi bo'lib bormoqda.

Bundan tashqari, ingliz tilidan o'zbek yozuviga o'tgan skriptlar ham keng qo'llanmoqda. "LOL" (Laughing out loud), "OMG" (Oh my God), "ASAP" (As soon as possible) kabi qisqartmalar hatto yoshlarning og'zaki nutqida ham paydo bo'lib, ularni oddiy so'zdek qo'llash odat tusiga kirgan. Ba'zi hollarda esa bu skriptlar milliy yozuv elementlari bilan qo'shib ketadi: "ok raxmat", "lol, judayam zo'r" kabi shakllar shundan dalolat beradi.

Yangi grafemalardan yana biri — uzunlik va urg'uni ifodalash maqsadida harflarni takrorlash. Masalan, "zo'r" o'rniga "zo'o'o'rrr", "hayot" o'rniga "hayooooot" shaklida yoziladi. Bu usul lingvistik ijodkorlikning yangi ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin.

Lingvistik tahlil. Ijtimoiy tarmoqlar tilining lingvistik xususiyatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Qisqartmalar. Bu jarayon tilning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, "slm" (salom), "xb" (xabar), "rh" (rahmat). Bular tezkor yozishmalar uchun qulay, ammo uzoq muddatli yozuv madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Transliteratsiya. Lotin va kirill yozuvlari, shuningdek, ingliz va rus tilidagi belgilar aralash qo'llanadi. Masalan: "privet, qalaysan?", "ok, raxmat bro". Bu jarayon ikki yoki undan ortiq yozuv tizimlarining bir paytda qo'llanishini kuchaytiradi.

Fonetik yozuv. Og'zaki talaffuz yozuvga o'tkaziladi: "borvoman", "qalay?", "gapyo'q". Bunday yozuvlar fonetik asoslanganligi uchun o'zbek tilining tabiiy tovush tizimini ifodalashda qulay bo'lsa-da, adabiy til imlosiga zid keladi.

Grafematik ijodkorlik. Harflarni cho'zish, katta-kichik harflarni aralashtirib ishlatish ("SaloomMM"), belgilarni birlashtirish ("<3" = yurak, "^" = ko'z). Bu usullar tilning ifodaviy qirralarini boyitadi.

Tilshunos N. Mahmudov qayd etganidek: "Tilning yangi qatlamlari ijtimoiy muhitda shakllanar ekan, ular me'yoriy tizim bilan muvozanatlashishi zarur" [7].

Transformatsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari. Ijobiy jihatlari:

Ijtimoiy tarmoqlar yosh avlodni ijodiy fikrlashga undaydi. Yangi grafemalar va belgilar orqali ular tezkor muloqotning turli shakllarini kashf etadi.

Globallashuv sharoitida ingliz tilidan kirib kelgan skriptlar xalqaro muloqotni yengillashtiradi. Masalan, "like" va "follow" kabi atamalar allaqachon kundalik nutqqa singib ketgan.

Matnga emotsional ifoda qo'shilishi natijasida kommunikatsiya yanada ta'sirchan bo'lib bormoqda.

Salbiy jihatlar:

Adabiy til me'yorlariga putur yetmoqda. Xususan, qisqartma va fonetik yozuvlar yoshlarning imlo savodxonligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ko'p tillilik natijasida tilning sof milliy ko'rinishi aralash shaklga aylanmoqda.

Yozma nutqda rasmiylik va badiiylilikning pasayishi kuzatilmoqda.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarda tilning transformatsiyasi — zamon talabi. Ammo uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy oqibatlarini ham chuqur tahlil qilish, til siyosatida to'g'ri yo'naltirish zarur.

Ijtimoiy tarmoqlar o'zbek tilining transformatsiyasida muhim maydonga aylandi. Yangi grafemalar va skriptlar tilning emotsional, stilistik qirralarini boyitmoqda. Shu bilan birga, ular rasmiy yozuv me'yorlariga muayyan xavf tug'diradi. Shunday ekan, lingvistlar, pedagoglar va texnologlar hamkorlikda bu jarayonni ilmiy asosda o'rganishi va til siyosatida nazorat mexanizmlarini ishlab chiqishi zarur. Tilning zamonaviy transformatsiyasi — milliy til taraqqiyotining tabiiy bosqichi bo'lsa-da, uni to'g'ri yo'naltirish jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Ruzmetov, Sh. "O'zbek tili va internet lingvistikasi." – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Mamajonov, A. "Virtual nutqning lingvistik xususiyatlari." – O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020, №4.
4. Yo'ldoshev, Q. "Til va jamiyat." – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
5. To'xliyev, B. "Nutq madaniyati va til me'yorlari." – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
6. Ismoilov, N. "Globalizatsiya sharoitida til taraqqiyoti." – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
7. Mahmudov, N. "Til taraqqiyoti va zamonaviy jarayonlar." – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2017.

REKLAMA MATNLARINI LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH USLUBIYATI

Xudoyberdiyeva Go'zal Akmal qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

guzalxudoyberdiyeva1@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada reklama matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning metodik va amaliy jihatlari yoritiladi. Reklama matnlari – bu nafaqat tijorat vositasi, balki til, stilistika va kommunikatsiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Lingvistik ekspertiza yordamida reklama matnlarining mazmuni, leksik, stilistik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada ekspertiza jarayonida qo'llaniladigan metodlar, baholash mezonlari va natijalarni reklama samaradorligi bilan bog'lash masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik ekspertiza, reklama matni, stilistika, leksik tahlil, kommunikativ funksiyalar, mazmuniy tahlil, marketing kommunikatsiyasi.

ABSTRACT

This article explores the methodological and practical aspects of conducting linguistic expertise of advertising texts. Advertising texts are not only a commercial tool but also an important means of language, stylistics, and communication. Linguistic expertise is used to analyze the content, lexical, stylistic, and communicative features of advertising texts. The paper discusses the methods applied during the expertise process, evaluation criteria, and the connection of results with advertising effectiveness.

Keywords: linguistic expertise, advertising text, stylistics, lexical analysis, communicative functions, semantic analysis, marketing communications.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются методические и практические аспекты проведения лингвистической экспертизы рекламных текстов. Рекламные тексты являются не только коммерческим инструментом, но и важным средством языка, стилистики и коммуникации. С помощью лингвистической экспертизы анализируются содержание, лексические, стилистические и коммуникативные особенности рекламных текстов. В статье обсуждаются методы, применяемые в процессе экспертизы, критерии оценки и связь результатов с эффективностью рекламы.

Ключевые слова: лингвистическая экспертиза, рекламный текст, стилистика, лексический анализ, коммуникативные функции, семантический анализ, маркетинговые коммуникации.

KIRISH

Reklama matnlari bugungi zamonaviy kommunikatsiyada mahsulot va xizmatlarni targ'ib qilishning eng samarali vositasi hisoblanadi. U nafaqat tijorat maqsadlarini amalga oshiradi, balki til va stilistika orqali auditoriya bilan interaktiv muloqot o'rnatadi. Shu sababli reklama matnlarining lingvistik jihatdan mukammalligi va mazmuniy aniqligi muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, samarali reklama faqat kreativ yondashuvga emas, balki ilmiy asoslangan tahlil va ekspertizaga ham tayangan holda yaratiladi. Ko'plab matnlarda ishlatiladigan murakkab metaforalar, noto'g'ri tanlangan iboralar yoki stilistik uyg'unlikning yetishmasligi auditoriya tomonidan noto'g'ri tushunilishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, reklama matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning metodik jihatlarini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish zarurligiga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.

ASOSIY QISM

Lingvistik ekspertiza reklama matnlarining leksik va sintaktik to'g'riligi, stilistik uyg'unligi, emotsional va ishontiruvchi kuchini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, u matnning kommunikativ samaradorligini baholash va brend imidjini mustahkamlashga xizmat qiladi[2]. Bizningcha, ekspertiza faqat matnning xatolarini aniqlash bilan cheklanmasligi, balki u reklama matni orqali auditoriyaga yetkazilayotgan mazmun va qiymatni tahlil qilishi kerak.

Bugungi kunda reklama va marketing sohasida raqobatning ortishi, matnlar samaradorligini oshirishni talab qiladi. Shu sababdan reklama matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish uslubiyati, ularni yaratish jarayonida nazariy va amaliy

asoslarni hisobga olish, hamda auditoriyaga moslashtirilgan til va stilistik yondashuvni qo'llash dolzarb masalalardan biridir[3].

Reklama matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish bir nechta asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishlar reklama matnining samaradorligini oshirish, uning kommunikativ, stilistik va persvaziv jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

1. Leksik va semantik tahlil. Lingvistik ekspertiza jarayonida reklama matnlaridagi so'zlarning tanlovi, sinonimik kengligi, metaforik va tasviriy ifodalar o'rganiladi. Reklama matnida ishlatiladigan so'zlar auditoriyaning yoshlik, madaniy kontekst va psixologik xususiyatlariga mos kelishi lozim. Masalan, mahsulotni targ'ib qiluvchi matnda ishlatilgan ijobiy emotsional leksika iste'molchida mahsulotga nisbatan ijobiy kayfiyat uyg'otadi. Shu bilan birga, noto'g'ri yoki mavhum so'zlar auditoriyada tushunmovchilikka olib kelishi mumkin[1].

2. Stilistik va uslubiy tahlil. Ekspertiza reklama matnining stilistik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu yo'nalishda matnning qisqa, aniq va e'tiborni tortuvchi bo'lishi, persvaziv usullar – savol, takror, interaktiv iboralar va metaforalardan foydalanish tahlil qilinadi. Stilistik tahlil matnning ohangini, emotsional kuchini va brend imidjiga mosligini aniqlashga yordam beradi[2].

3. Sintaktik va morfologik tahlil. Matnning grammatik aniqligi va sintaktik strukturasi reklama samaradorligi uchun muhimdir. Lingvistik ekspertiza orqali jumlar tuzilishi, fe'l va otlarning ishlatilishi, iboralar va gaplar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Noto'g'ri sintaksis reklama matnining tushunarligini pasaytiradi, auditoriyada xato tushunishga olib kelishi mumkin. Shu bois, ekspertiza jarayonida matnning sintaktik mukammalligi va grammatik to'g'riligiga e'tibor qaratiladi[3].

4. Kommunikativ va persvaziv funktsiyalar tahlili. Lingvistik ekspertiza reklama matnining auditoriyaga ta'sirini baholashga qaratilgan. Bu jarayonda matnning ishontiruvchi, qiziqtiruvchi, informativ va persvaziv xususiyatlari aniqlanadi. Auditoriya e'tiborini jalb qiluvchi elementlar – **reklama sarlavhalari, sloganlar, vizual va matnli kombinatsiyalar** – ekspertiza natijasida baholanadi [2].

5. Lingvistik ekspertiza metodikasi va amaliy tavsiyalar. Reklama matnlarini ekspertizadan o'tkazishda quyidagi uslubiy jihatlar qo'llaniladi:

Leksik to'g'rilik va auditoriyaga moslik;

Stilistik uyg'unlik, ohang va persvaziv kuch;

Sintaktik aniqlik va grammatik to'g'rilik;

Mazmun va brend imidji bilan uyg'unlik;

Kommunikativ samaradorlik va auditoriya bilan interaktiv muloqot.

6. Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar. Zamonaviy marketing va reklama sohasida lingvistik ekspertizani raqamli vositalar bilan qo'llash samaradorlikni oshiradi. Masalan, sun'iy intellekt va tilni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar reklama matnlaridagi leksik, stilistik va sintaktik xatolarni aniqlash, shuningdek, matnni auditoriya segmentlariga moslashtirish imkonini beradi[4].

7. Amaliy kuzatuvlar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, reklama matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish matnning sifatini oshirish bilan birga, auditoriya bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishning kaliti hisoblanadi. Ekspertiza jarayonida har bir matnni tahlil qilish, uning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, natijalarni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish reklama kompaniyasining muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Leksik va stilistik ekspertizani tizimli qo'llash: Reklama matnlarini yaratish jarayonida lingvistik ekspertiza muntazam ravishda qo'llanilishi, matnning leksik, sintaktik va stilistik jihatlarini chuqur tahlil qilinishi tavsiya etiladi.

Kommunikativ va persvaziv xususiyatlarni baholash: Ekspertiza natijalari asosida matnning ishonitiruvchi, qiziqitiruvchi va interaktiv elementlari optimallashtirilishi lozim.

Amaliy natijalarni tizimlashtirish va saqlash: Ekspertiza natijalari elektron ma'lumotlar bazasida saqlanib, ularni marketing strategiyalari, reklama kampaniyalari va pedagogik tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Pedagogik va amaliy treninglar o'tkazish: Reklama sohasidagi mutaxassislar va talabalarga lingvistik ekspertiza metodlarini o'rgatish, matn tahlili bo'yicha seminarlar va treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.

Ijodiy ishlarni tizimli ekspertiza asosida tahlil qilish: Ona tili va adabiyot darslarida har bir ijodiy ish lingvistik ekspertiza orqali baholanib, leksik, fonetik, grammatik va stilistik jihatlarini chuqur tahlil qilinishi tavsiya etiladi. Bu metod o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekspertiza natijalari hujjatlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi kerak.

Reklama matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish o'quvchilarda va keng auditoriyada til madaniyati va nutqiy didni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik ekspertiza orqali matnning leksik, grammatik, semantik va stilistik jihatlarini tahlil qilinadi, tilning aniqligi, tushunarliqligi va kommunikativ samaradorligi

baholanadi. Shu bilan birga, reklama matnlari orqali ijtimoiy qadriyatlar, ma'naviy va axloqiy me'yorlar targ'ib qilinishi ham nazorat qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

7. G'ulomov A. Lingvistik ekspertiza va reklama matnlarini tahlil qilish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
8. Raxmatullayev Sh. Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
9. Doniyorov H. Reklama va marketing matnlarini lingvistik tahlil qilish usullari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
10. Qodirova F. Tilshunoslik va zamonaviy kommunikatsiya: amaliy qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2020.

INTERNET MEMLARI VA QISQA MATNLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Choriyeva Saliha Shuxrat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

solihachoriyeva6@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada internet memlari va qisqa matnlarning lingvistik ekspertizasi masalalari yoritiladi. Virtual muloqotda keng qo'llaniladigan memlar nafaqat kulgi yoki ijtimoiy hazil vositasi, balki jamiyatdagi lingvistik transformatsiya va madaniy kodlarning ifodasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Qisqa matnlarning fonetik, leksik va pragmatik tahlili ularning kommunikativ qiymatini aniqlash, auditoriyaga ta'sir mexanizmlarini tushunish imkonini beradi. Shu jihatdan, lingvistik ekspertiza internet muhitida yuzaga kelayotgan yangi nutq shakllarini tadqiq qilishda dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: internet memlari, qisqa matn, lingvistik ekspertiza, kommunikatsiya, til transformatsiyasi.

ABSTRACT

This article explores the issues of linguistic expertise of internet memes and short texts. Widely used in virtual communication, memes are not only a means of humor or social satire, but also serve as an important indicator of linguistic transformation and cultural codes within society. Phonetic, lexical, and pragmatic analysis of short texts helps to identify their communicative value and the mechanisms of audience influence. Therefore, linguistic expertise plays a crucial role in examining emerging forms of speech in the online environment.

Keywords: internet memes, short texts, linguistic expertise, communication, language transformation.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы лингвистической экспертизы интернет-мемов и коротких текстов. Мемы, широко используемые в виртуальном общении, являются не только средством юмора или социальной сатиры, но и важным индикатором лингвистической трансформации и культурных кодов общества. Фонетический, лексический и прагматический анализ коротких текстов позволяет определить их коммуникативную ценность и механизмы воздействия на аудиторию. Таким образом, лингвистическая экспертиза является актуальным инструментом в изучении новых форм речи в интернет-пространстве.

Ключевые слова: интернет-мемы, короткие тексты, лингвистическая экспертиза, коммуникация, трансформация языка.

KIRISH

So'nggi yillarda internet kommunikatsiyasi jadal rivojlanib, insonlar o'rtasidagi muloqotning asosiy maydoniga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar, blog platformalari va onlayn forumlarda qisqa matnlar, jumladan, internet memlari alohida mavqe kasb etmoqda. Memlar dastlab hazil va ko'ngilochar vosita sifatida shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda ular ijtimoiy hodisalarga munosabat bildirish, muayyan g'oya va qadriyatlarni targ'ib qilish, hatto siyosiy hamda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish qudratiga ega bo'lib bormoqda.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, **memlar va qisqa matnlar** — bu zamonaviy lingvistik transformatsiyaning yorqin namunalaridan biridir. Ularning shakllanishida fonetik qisqartmalar, leksik yangiliklar, metaforik ifodalar hamda ko'pincha multimodal unsurlar (rasm, grafik, emoji) asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun ham internet memlari va qisqa matnlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish nafaqat ularning mazmun-mohiyatini ochib berish, balki zamonaviy nutq madaniyati, kommunikativ me'yorlar va til taraqqiyotidagi yangi tendensiyalarni anglash imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Internet memlari va qisqa matnlar bugungi kunda virtual kommunikatsiyaning eng faol qatlamini tashkil etadi. Ular dastlab oddiy kulgi va ko'ngilochar vosita sifatida paydo bo'lgan bo'lsa-da, asta-sekin ijtimoiy hodisalarga munosabat bildirish, muayyan g'oya va qadriyatlarni targ'ib qilish hamda jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Memlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilganda, ularning shakllanishida qisqartmalar, metaforik ifodalar, xalq og'zaki ijodi elementlari va ingliz tilidan kirib kelgan qisqa iboralar (LOL, OMG, BRB va boshqalar) faol

qo'llanilayotgani ma'lum bo'lmoqda. Bu esa tilning global muloqotga moslashuvi va yangi qatlamlarning shakllanishidan dalolat beradi[1].

Qisqa matnlar esa asosan ijtimoiy tarmoqlarda, bloglarda, chatlarda qo'llanilib, ixchamligi, tezkorligi va yuqori darajadagi emotsionalligi bilan ajralib turadi. Ularning fonetik jihatdan tovushlarni qisqartirishi, leksik sathda yangi so'zlarni shakllantirishi, pragmatik jihatdan esa gapiruvchi shaxsning hissiyotini ixcham va ta'sirchan tarzda yetkazishi muhim kommunikativ xususiyat hisoblanadi[2]. Shu sababli qisqa matnlar ham til taraqqiyoti va jamiyatdagi kommunikativ me'yorlarning o'zgarishini yorituvchi muhim obyekt sifatida qaraladi.

Lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan memlar va qisqa matnlarni o'rganish ularning mazmun-mohiyatini aniqlash, auditoriyaga ta'sir mexanizmlarini tushunish hamda virtual nutq madaniyatini baholash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi hollarda internet memlari va qisqa matnlar diskriminatsiya, stereotiplar yoki agressiv nutq elementlarini ham o'z ichiga olishi mumkin. Shu bois lingvistik ekspertiza ularni tahlil qilishda nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyat kasb etadi[3].

Shuningdek, bunday tahlillar amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Avvalo, memlar va qisqa matnlar ona tili va xorijiy tillarni o'qitishda yangi didaktik material sifatida qo'llanishi mumkin. Bundan tashqari, ular orqali internetdagi axborot oqimini baholash, manipulyatsion ta'sir usullarini aniqlash, yoshlar nutq madaniyatini tahlil qilish hamda tilning virtual muhitdagi rivojlanish tendensiyalarini kuzatish mumkin[4]. Shu ma'noda internet memlari va qisqa matnlarning lingvistik ekspertizasi nafaqat lingvistika uchun, balki pedagogika, sotsiologiya va kommunikatsiya fanlari uchun ham dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Internet memlari bugungi kunda kulgi vositasi bo'lish bilan birga ijtimoiy hodisalarga munosabat bildiruvchi lingvistik hodisaga aylandi. Masalan, "Gap yo'q!" yoki "Narxi osmonda" kabi memlar odamlarning ijtimoiy-psixologik kayfiyatini aks ettiradi. Qisqa matnlar esa ijtimoiy tarmoqlarda ixcham, ammo emotsional mazmuni kuchli jumlar orqali tezkor muloqot imkonini beradi. "Slm" (salom), "rhм" (rahmat) kabi qisqartmalar, shuningdek, ingliz tilidan o'zlashgan "LOL", "OMG" singari birliklar tilning global muloqotga moslashayotganini ko'rsatadi[5].

Lingvistik ekspertiza bunday birliklarning nafaqat semantik, balki pragmatik ahamiyatini ham ochib beradi. Masalan, pandemiya davrida "Uyda qol!" kabi qisqa matnlar memlar bilan uyg'unlashib, jamoatchilikni safarbar qilishda samarali vosita

bo'ldi. Shu bilan birga, "Qachon stipendiya chiqadi?" kabi talabalarga oid iboralar ham qisqa matnlar jamiyatdagi real ijtimoiy ehtiyojlarni ifodalashini ko'rsatadi[6].

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Internet memlari va qisqa matnlarning lingvistik ekspertizasi bo'yicha olib borilgan kuzatuv va tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur sohani yanada rivojlantirish va amaliyotga joriy etish zarur. Avvalo, ularni tilshunoslikka oid tadqiqotlarda alohida obyekt sifatida muntazam o'rganish lozim. Bu nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. **Birinchidan**, internet memlari va qisqa matnlarni ona tili va chet tillari ta'limida qo'llash talabalar uchun o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. **Ikkinchidan**, lingvistik ekspertiza yordamida ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan diskriminatsion yoki agressiv mazmundagi matnlarni aniqlash hamda ularning jamiyatga salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin. **Uchinchidan**, qisqa matnlar va memlarni sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik kabi boshqa fanlar bilan integratsiyada o'rganish dolzarb ilmiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Shuningdek, tilning internet muhitida o'zgarishini tizimli ravishda monitoring qilish, yangi leksik birliklarning shakllanishini qayd etish va ularni lug'atshunoslik amaliyotiga kiritish tavsiya etiladi. Bu esa til taraqqiyotidagi dinamik jarayonlarni nazorat qilish hamda yosh avlod nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, internet memlari va qisqa matnlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish, ularni o'quv, ilmiy va ijtimoiy jarayonlarga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Internet memlari va qisqa matnlar zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas bo'lagiga aylangan bo'lib, ularning lingvistik ekspertizasi nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy, madaniy va pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, memlar va qisqa matnlar **jamiyatdagi g'oya, qarash va kayfiyatlarni** aks ettiradi, yangi lingvistik birliklar hamda ifoda vositalarining shakllanishiga sabab bo'ladi. Ularni fonetik, leksik, pragmatik va semiotik jihatdan o'rganish virtual nutq madaniyati va kommunikatsiya me'yorlarining rivojlanishini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Lingvistik ekspertiza bu jarayonda zamonaviy tahlil usuli sifatida xizmat qilib, internet muhitidagi ijobiy va salbiy hodisalarni farqlash, ularning jamiyatga ta'sirini baholash hamda yangi nutq shakllarining ilmiy talqinini ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, memlar va qisqa matnlarni ta'lim jarayonida o'quv materiallari sifatida qo'llash, yoshlar nutq madaniyatini rivojlantirishda ham samarali yo'l bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, internet memlari va qisqa matnlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish hozirgi zamon tilshunosligi uchun dolzarb masala bo'lib, bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar tilning virtual muhitdagi transformatsiyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shifman, L. Memes in Digital Culture. MIT Press, 2014.
2. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2011.
3. Karimov, N. "Virtual kommunikatsiya va yangi nutq shakllari." O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020, №3.
4. To'xliyev, B. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
5. Baron, N. Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford University Press, 2008.
6. Shifman, L. Memes in Digital Culture. — MIT Press, 2014.
7. Crystal, D. Language and the Internet. — Cambridge University Press, 2011.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA SAMARADORLIGI

Zokirova Adiba Rustam qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi
kechki ta'lim 1-bosqich talabasi zokirovaadiba@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika iniversiteti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD).

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni va samaradorligi yoritilgan. Unda raqamli vositalarning ta'lim sifati, bilim olish imkoniyatlari va talabalarning XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga alohida e'tibor qaratilib, raqamli platformalar, masofaviy ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning joriy etilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek maqolada raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishning afzalliklari va muammolari ta'kidlanadi. Muallif xulosasiga ko'ra, raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga intwgratsiya qilish zamonaviy davrda nafaqat zarurat, balki global ta'lim makonida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun strategik vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, ta'lim tizimi, masofaviy ta'lim, elektron ta'lim tizimi, O'zbekiston, raqamli savodxonlik, ta'lim islohotlari.

Abstract: This article explores the role and effectiveness of digital technologies in the modern education system. It examines how digital tools influence the quality of education, the accessibility of knowledge, and the development of 21st-century competencies among students. Special emphasis is placed on the reforms carried out in Uzbekistan, including the introduction of digital platforms, distance learning, and the improvement of digital literacy. Furthermore, the article highlights both the advantages and challenges of applying digital technologies in teaching and learning processes. It concludes that the integration of digital technologies is not only a necessity of modern times but also a strategic tool for ensuring competitiveness in the global educational space.

Keywords: Digital technologies, education system, e-learning, distance education, Uzbekistan, digital literacy, educational reforms.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и эффективность цифровых технологий в современной системе образования. Анализируется влияние цифровых инструментов на качество обучения, доступность знаний и формирование компетенций XXI века у студентов. Особое внимание уделяется проводимым в Узбекистане реформам, включая внедрение цифровых платформ, развитие дистанционного обучения и повышение цифровой грамотности. Кроме того, отмечаются преимущества и проблемы применения цифровых технологий в образовательном процессе. Сделан вывод о том, что интеграция цифровых технологий является не только требованием современности, но и стратегическим инструментом для обеспечения конкурентоспособности в мировом образовательном пространстве.

Ключевые слова: цифровые технологии, система образования, электронное обучение, дистанционное образование, Узбекистан, цифровая грамотность, образовательные реформы.

XXI asrda raqamli texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi. Ta'lim tizimi ham bu jarayondan mustasno emas. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish, bilim olish jarayonini yengillashtirish, o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli vositalarning o'rni beqiyosdir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil izlanish, kreativlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, masofaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirish hamda raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rni, samaradorligi, imkoniyatlari hamda mavjud muammolari tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirdi. An'anaviy ta'lim metodlari bilan bir qatorda onlayn kurslar, elektron darsliklar, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar kabi vositalar o'quvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, virtual laboratoriyalar orqali fizika, kimyo yoki biologiya fanlari tajribalarini xavfsiz va arzon shaklda o'tkazish mumkin. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar esa har bir o'quvchining bilim darajasini tahlil qilib, individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ham katta rol o'ynaydi. Nogironligi bo'lgan shaxslar

uchun maxsus mobil ilovalar va onlayn kurslar bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekistonda raqamli ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 2019-yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish, maktab va oliy ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Pandemiya davrida masofaviy ta'limning samaradorligi yaqqol namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, Ziyonet, EduMarket, "Elektron kundalik" kabi platformalar ta'lim jarayonini avtomatlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari xalqaro onlayn kurslar (Coursera, EdX, UdeMy) bilan hamkorlikni kengaytirib, talabalar uchun global ta'lim resurslariga keng yo'l ochmoqda.

Raqamli texnologiyalar samaradorligi bir necha yo'nalishda ko'zga tashlanadi:

1. *Bilim olishda qulaylik – o'quvchilar istalgan joyda va vaqtda bilim olish imkoniga ega.*
2. *Vaqt va resurs tejalishi – elektron darsliklar, onlayn testlar qog'oz sarfini kamaytiradi.*
3. *Indivduallashtirilgan ta'lim – har bir o'quvchi bilim darajasiga mos topshiriqlarni bajaradi.*
4. *Xalqaro tajribaga kirish – dunyoning yetakchi universitetlari ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini beradi.*

Masalan, Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasi 15–20% ga oshgan. O'zbekistonda ham shunga o'xshash ijobiy natijalar kuzatilmoqda.

Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishda ayrim muammolar mavjud:

Texnik infratuzilma yetarli emas – barcha hududlarda yuqori tezlikdagi internet mavjud emas.

O'qituvchilarning raqamli savodxonligi past – ayrim pedagoglar yangi texnologiyalardan foydalanishda qiynalmoqda.

Moliyaviy cheklovlar – zamonaviy kompyuter va dasturiy ta'minot xarajatlari yuqori.

Tengsizlik – shahar va qishloq maktablari o'rtasida imkoniyatlar farqi mavjud.

Bularni bartaraf etish uchun davlat tomonidan o'qituvchilar malakasini oshirish, barcha hududlarni keng polosali internet bilan ta'minlash va xalqaro grantlar hisobidan texnik bazani mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida sifatli o'zgarishlar qilishga qodir kuchli vosita hisoblanadi. U o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda bilim olishda teng imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda raqamli ta'limni keng joriy etish orqali ta'lim sifatini jahon standartlariga moslashtirish, yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish va mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish mumkin.

Demak, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish – bu zamonaviy talabgina emas, balki kelajak taraqqiyotini ta'minlovchi strategik zaruratdir.

Foydalalnilgan adabiyotlar

1. Karimov, I.A. 2020. O'zbekistonning yangi taraqqiyoti bosqichi va raqamli iqtisodiyot. Toshkent; O'zbekiston nashriyoti.
2. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari to'plami.
3. UNESCO. 2019. Digital Literacy in Education .Paris; UNESCO Publishing.
4. Anderson, T., Dron, J. 2014. Teaching Crowds; Learning and Social Media. Athabasca University Press
5. OECD. 2020. The impact of digital Learning .OECD Publishing.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi Raqamli O'zbekiston -2030 strategiyasi to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni.
7. Alimov, R., Xolmamatova, G. 2022. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish muammolari va imkoniyatlari. Toshkent; Fan va texnologiya
8. World Bank. 2021. Digital Transformation of Education in Central Asia. Washington, DC; World Bank.

HUDUDIIY DIALEKTLAR VA ULARNING ADABIY TILGA TA'SIRI

Daminova Shohista Baxtiyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi

shohistadaminova11@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada hududiy dialektlarning o'zbek adabiy tiliga ta'siri, ularning shakllanish omillari, ijtimoiy hayotdagi o'rni va til taraqqiyotidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, dialektlarning adabiy tilni boyitishdagi roli hamda nutq madaniyatiga ta'siri haqida tahliliy mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar. Hududiy dialektlar, adabiy til, til taraqqiyoti, sheva, fonetika, leksika, grammatik qurilish, til birliklari.

Аннотация. В статье рассматривается влияние региональных диалектов на узбекский литературный язык, факторы их формирования, роль в общественной жизни и значение в развитии языка. Также даются аналитические рассуждения о роли диалектов в обогащении литературного языка и их влиянии на культуру речи.

Ключевые слова. Региональные диалекты, литературный язык, развитие языка, диалект, фонетика, лексика, грамматический строй, языковые единицы.

Abstract. This article examines the influence of regional dialects on the Uzbek literary language, the factors that shape them, their role in social life, and their significance in language development. It also provides analytical considerations on the role of dialects in enriching the literary language and their influence on speech culture.

Keywords. Regional dialects, literary language, language development, dialect, phonetics, vocabulary, grammatical structure, linguistic units.

Til – xalqning eng muhim ma'naviy boyligi, milliy o'zligining asosiy ko'rsatkichidir. O'zbek tili ham ming yillik tarix davomida turli jarayonlarni boshdan kechirib, bugungi adabiy til darajasiga yetib kelgan.

Til taraqqiyotining muhim manbalaridan biri hududiy dialektlardir. O'zbek tilida Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo–Surxondaryo, Buxoro–Samarqand, Qoraqalpoq hududlari kabi yirik dialektlar shakllangan. Bu dialektlar fonetik, leksik va grammatik jihatdan bir-biridan farqlanadi. Hududiy dialektlarning adabiy tilga ta'siri, avvalo, xalqning turmush tarzi, madaniyati, tarixiy voqealar va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liqdir. Dialektlarda saqlanib qolgan qadimgi so'zlar adabiy tilning lug'at boyligini kengaytiradi. Shu bois, dialektlar o'zbek adabiy tilining shakllanishida va boyishida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Til – millatning o'zlik belgisi, uning tarixiy taraqqiyoti va madaniy merosini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy hodisadir. Har bir xalqning tili turli bosqichlarni bosib o'tadi va bu jarayonda uning hududiy ko'rinishlari, ya'ni dialektlari shakllanadi. Dialektlar tilning tabiiy rivojlanish mahsuli bo'lib, xalqning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati, madaniy hayoti, hatto geografik joylashuvi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek tili ham ming yillik tarix davomida turli hududlarda shakllangan sheva va lahjalaridan iborat murakkab tizimni hosil qilgan. Masalan, Farg'ona vodiysi, Toshkent, Samarqand–Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo–Surxondaryo va boshqa hududiy dialektlar o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega. Bu dialektlarning ba'zilar qadimgi turkiy til unsurlarini saqlab qolgan bo'lsa, ayrimlari qo'shni xalqlar tili ta'sirida shakllangan. Shu bois, dialektlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki tarixiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiy til esa xalq tilining umumlashgan, me'yoriy shakli hisoblanadi. U rasmiy hujjatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, matbuot va adabiyotda qo'llanadi. Adabiy tilning shakllanish jarayonida hududiy dialektlarning o'rni beqiyosdir. Chunki adabiy til faqatgina grammatik va fonetik me'yorlardan iborat emas, balki xalq nutqidagi boy iboralar, qadimgi so'zlar, obrazli ifodalar ham uning asosini tashkil qiladi. O'zbek adabiy tili shakllanishida, ayniqsa, XIV–XV asrlarda yashagan buyuk mutafakkir va shoirlar – Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab kabi ijodkorlarning xizmatlari benihoya katta bo'lgan. Ularning asarlari orqali xalqning turli hududlarida mavjud bo'lgan so'z va ifodalar adabiy tilga kirib kelgan. Masalan, Navoiyning she'riyatida Xorazm va Movarounnahr shevalariga xos so'zlar uchrasa, Bobur asarlarida Farg'ona va Andijon shevalarining unsurlari kuzatiladi.

Bugungi kunda ham hududiy dialektlarning adabiy tilga ta'siri sezilarli. Televidenie, radio, internet tili, badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi vositasida dialekt so'zlar keng tarqalmoqda. Shu bois, dialektlarni ilmiy asosda o'rganish, ularning adabiy tilni boyitishdagi ijobiy jihatlarini aniqlash va salbiy tomonlarini me'yorlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, hududiy dialektlar – o'zbek tilining tabiiy boyligi, xalqning ruhiyati va madaniyatini ifodalovchi til qatlamidir. Ularni o'rganish, adabiy til bilan taqqoslash va ta'sir doirasini aniqlash o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb masalalardan biridir.

A.Madvaliyev ta'kidlaganidek, hududiy dialektlar milliy tilning boy manbai bo'lib, adabiy til taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [1; 56].

Hududiy dialektlar asrlar davomida o'zbek xalqining turli hududlarda yashashi, turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati va etnolingvistik xususiyatlari asosida shakllangan. Dialektlarning o'ziga xos jihatlarini quyidagicha namoyon bo'ladi:

1. Fonetika: Ba'zi hududiy shevalarda unli va undosh tovushlarning talaffuzi adabiy tilnikidan farq qiladi. Masalan, Farg'ona shevasida "o" unli tovushi ko'pincha "u" tarzida talaffuz qilinadi: "o'qidi" – "uqidi".

2. Leksika: Har bir hududiy dialekt o'ziga xos so'z boyligiga ega. Masalan, Xorazm shevasida "tirsak" o'rniga "tirsek", Qashqadaryoda "palov" o'rniga "osh" ko'proq ishlatiladi. Bu kabi farqlar xalq og'zaki ijodida, maqol va matallarda ham uchraydi.

3. Grammatika: Ayrim dialektlarda fe'llarning qo'llanishi va qo'shimchalar tizimi ham o'ziga xos bo'ladi. Masalan, Surxondaryo shevasida "boradi" o'rniga "borodu" shakli ishlatiladi.

Adabiy tilning shakllanish jarayonida dialektlarning roli nihoyatda katta. Birinchidan, ular xalq tilining tabiiy boyligini adabiy tilga olib kiradi. Ikkinchidan, dialektlarda saqlanib qolgan qadimgi turkiy so'zlar til tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Uchinchidan, shevalarda mavjud bo'lgan xalqona iboralar, metaforalar, maqollar va matallar adabiy tilda badiiylilik vositasi sifatida qo'llanadi. Shu bilan birga, dialektlarning haddan tashqari qo'llanishi adabiy til me'yoriga putur yetkazishi mumkin. Masalan, rasmiy hujjatlarda yoki ommaviy axborot vositalarida hududiy sheva unsurlaridan foydalanish nutqning saviyasini pasaytiradi. Shu sababli, dialektlarni ilmiy o'rganish, ulardagi boy so'z va ifodalarni adabiy til me'yorlari asosida qo'llash zarur.

Natijada, hududiy dialektlar ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi:

Ijobiy ta'sir: adabiy tilni boyitadi, xalqona ifodalarni olib kiradi.

Salbiy ta'sir: me'yor buzilishiga olib kelishi mumkin.

Hududiy dialektlar o'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ular adabiy tilning lug'at boyligini kengaytirib, xalqona iboralar va qadimgi so'zlarni saqlab qoladi. Shu bilan birga, dialektlarning me'yoriy tilga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun adabiy til normalariga qat'iy amal qilish lozim. Demak, hududiy dialektlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki milliy madaniyatni asrab-avaylashda ham beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov Q., "O'zbek dialektologiyasi", Toshkent, 2007.
2. G'ulomov A., "O'zbek adabiy tili tarixi", Toshkent, 2010.
3. Mahmudov N., "Til va madaniyat", Toshkent, 2015.
4. Qilichev M., "O'zbek shevalari va ularning o'rganilishi", Samarqand, 2018.
5. Turg'unpo'latov D.R. Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi. Science time. International journal. 3(1), 90-95-betlar.
6. D.R.Turg'unpo'latov. Ona tili va adabiyot darslarini interfaol metodlar orqali tashkil etish samaradorligi. "O'zMU xabarlarlari" Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022, 1(6), 196-198-b.
7. Д.Р.Турғунпўлатов. О.О.Абдуллаева. Ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишда интернет тармоқлари орқали коммуникатив таълим дарсларни ташкил этишининг ўзига хос хусусиятлари. "O'zMU xabarlarlari" Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022, 1/6/1, 27-29-b.
8. D.R.Turg'unpo'latov, Sh.M.Muxtarova. Ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish. "Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (Andijon), 2023. 347-350-b.
9. D.R.Turg'unpo'latov. Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda yechimlar. "Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda echimlar" (Namangan), 2021, 156-158-b.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Igembayeva Madina Isabek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti, 1-bosqich talabasi

madina6isabekovna@icloud.com

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli ta'lim vositalarining imkoniyatlari, kreativ fikrlashning asosiy belgilarini shakllantirish yo'llari va zamonaviy metodlardan foydalanish usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, raqamli texnologiyalar, interaktiv metod, boshlang'ich ta'lim, innovatsion yondashuv.

Annotation. This article analyzes the importance of using digital technologies in developing creative thinking among primary school students. It examines the potential of digital learning tools, the ways to form the main features of creative thinking, and the methods of applying modern approaches in the educational process.

Keywords: creative thinking, digital technologies, interactive method, primary education, innovative approach.

Аннотация. В данной статье анализируется значение использования цифровых технологий в развитии креативного мышления учащихся начальных классов. Рассматриваются возможности цифровых образовательных средств, пути формирования основных признаков креативного мышления и методы применения современных подходов в учебном процессе.

Ключевые слова: креативное мышление, цифровые технологии, интерактивный метод, начальное образование, инновационный подход.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, raqamli imkoniyatlardan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish ularning keyingi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Kreativ fikrlash – o'quvchining yangicha qarash, noodatiy yechim topish, mustaqil fikrlash qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun kreativlikni shakllantirish juda muhim, chunki bu davrda ular tez qabul qiladi, yangilikka qiziqadi va o'z tasavvurlarini faol rivojlantira oladi.

Ta'limni raqamlashtirishning asosiy elementlaridan biri bu raqamli savodxonlikdir. Raqamli savodxonlik ta'limning asosiy ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tarkibni loyihalash va ulardan foydalanish, kompyuter dasturlash, grafik vizualizatsiya texnikasi, kompyuter grafikasi, onlayn kurslarning multimedia rivojlanishi va boshqalar, ma'lumot qidirish va almashish, boshqa talabalar bilan aloqa qilish. Biz raqamli savodxonlikni rivojlantirish uchun turli mezonlarni tahlil qildik. Misol uchun, Genri Jenkins raqamli savodxonlikni kompyuter bilan ishlash qobiliyatini, "apparat" singari bo'lgani kabi, ya'ni talaba raqamli texnologiya va odamlarning o'zaro qanday munosabatda bo'lishini, qurilmalarni bilishi va tushunishi, raqamli ma'lumotlar qanday taqsimlanishi va onlayn hamjamiyat nima ekanligini, shuningdek, ijtimoiy media xususiyatlarini tushunishi kerak. Dug Belshou kabi olimlarning fikricha, raqamli savodxonlikning sakkizta elementi bor, ular orasida Internet muhitining madaniy konteksti, onlayn ishlash qobiliyati va raqamli ko'nikmalardan o'z-o'zini rivojlantirish uchun foydalanish qobiliyati alohida o'rin tutadi.[1]

Raqamli texnologiyalarning o'quvchilar tafakkuriga ta'siri. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ularni faol fikrlashga undaydi. Mashq qildirish metodi, amaliy mashg'ulot metodi va laboratoriya metodlari singari:[2:358]

- Multimedia vositalari (animatsiya, video, audio) darsni jonlantiradi.
- Interaktiv dasturlar (Kahoot, Quizizz, LearningApps) musobaqa ruhini uyg'otadi.
- Virtual o'yinlar va simulyatsiyalar noodatiy vaziyatlarda yechim topishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinfda raqamli texnologiyalar yordamida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari. Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

- Muammoli vaziyatlar yaratish orqali mustaqil qaror chiqarishga o'rgatish.
- Guruhli ishlarda interaktiv texnologiyalardan foydalanish.
- Gamifikatsiya orqali darsni qiziqarli qilish.
- Tasviriy vositalar yordamida ijodkorlikni rivojlantirish.

Amaliy misollar

Boshlang'ich sinfda raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish quyidagicha namoyon bo'ladi:

- Darsda multimediali slaydlardan foydalanish.
- O'yin elementlari asosida test topshiriqlari tuzish.
- O'quvchilarga ijodiy topshiriqlarni onlayn platformalarda berish.

Bugungi kunda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish — ta'lim sifatini oshirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun innovatsion texnologiyalar, xususan, interaktiv platformalar, raqamli o'yinlar, vizual dasturlar, ta'limiy videolar va simulyatsiyalar orqali bilim olish jarayoni qiziqarli, faol va ijodiy tus oladi. Bu jarayon o'quvchining faqat nazariy bilimni emas, balki amaliy tafakkurini, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini, ijodiy tasavvurini va muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. Raqamli vositalar yordamida o'qituvchi o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Masalan, interaktiv doskalar, "LearningApps", "Kahoot", "Wordwall" "Toontastic 3D", "Stop Motion Studio" kabi onlayn dasturlar o'quvchini o'yin orqali o'qitish metodikasini kuchaytiradi.

"Kahoot" — viktorina va o'yin shaklidagi mashqlar orqali o'quvchilarning tezkor fikrlashini va bilimlarini sinash imkonini beradi.

"Wordwall" — interaktiv topshiriqlar yaratish va guruh ishlari uchun qulay, o'quvchilarda ijodiy fikrlash va mantiqiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"LearningApps" — turli mavzularda onlayn mashqlar yaratish orqali bolalarning mustaqil izlanish va kreativ fikrlash faoliyatini rag'batlantiradi.

Multimediali dasturlar va vizual simulyatsiyalar (masalan, 3D animatsiyalar yoki interaktiv laboratoriyalar) o'quvchilarga mavzuni chuqurroq tushunish va amaliy tajriba qilish imkonini beradi.

Toontastic 3D, Stop Motion Studio - ertak va hikoyalar animatsiyasi[3].

Shuningdek, innovatsion texnologiyalar ta'limni shaxsga yo'naltirish imkonini beradi — har bir o'quvchi o'z tezligi, qiziqishi va individual qobiliyatiga mos tarzda topshiriqlarni bajaradi. Bu esa o'quv jarayonini samarali, kreativ va o'quvchi markazli qiladi.

Natijada, raqamli texnologiyalarni ta'limga to'g'ri integratsiya qilish o'quvchilarda ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, muammolarni yechish, hamkorlikda ishlash va o'z fikrini erkin ifoda etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Amaliyot va tadqiqotlar tahlili kreativ rivojlanish vositasi sifatida raqamli savodxonlikni joriy etishning asosiy natijalarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- O'quvchilar qarorlarning o'ziga xosligi va faolligini namoyish etadilar.

- Vizualizatsiya, improvizatsiya, syujetli fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi.

- Ta'lim motivatsiyasi ortadi, ayniqsa, nostandart tafakkurga ega bo'lgan bolalarda.

- Raqamli etika va hamkorlikning asosiy ko'nikmalari shakllantiriladi.

- O'qituvchilar ta'limni tabaqalashtirishning moslashuvchan vositasiga ega bo'ladi.

Bunday ta'sirlar turli xil loyihalarda ishtirok etadigan o'qituvchilarning tajribasi shuni

tasdiqlashi mumkin. Masalan, Yandex Darslik, Tetrika kabi raqamli platformalardan tizimli foydalanish ijodiy topshiriqlar (o'zingizning vazifangizni o'ylab toping, xato bilan g'ayrioddiy hikoya yarating, matnning muqobil finalini chizing va boshqalar) bilan birgalikda boshlang'ich sinf o'quvchilarida qarorlarning jalb etilganlik darajasi va o'ziga xosligini sezilarli darajada oshiradi [4:46]. Ko'rib chiqilgan nazariy va metodik jihatlar asosida raqamli savodxonlikning boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirishga ta'sirini tavsiflovchi asosiy natijalar va tendensiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Integratsiyalashgan dars namunasi: "Ertak jonivorini yasaymiz" integratsiyalashgan darsi (3-sinf, tasviriy san'at + adabiyot + AKT):

Bosqichlar: Motivatsiya (Jamboard: "Qaysi hayvon boshqa sayyorada yashashi mumkin?")

- Tadqiqot (Wakelet: g'ayrioddiy xususiyatlarga ega hayvonlar)

- Ijodkorlik (Tux Paint / Book Creator: o'ylab top, chiz, tasvirla)

- Taqqimot (ChatterPix yoki Flipgrid)

- Refleksiya (Mentimeter: eng qiziqarli bo'lgan narsa)

Bunday dars raqamli amaliyot orqali kreativlikni g'oyadan tortib uni amalga oshirish va taqdim etishgacha rivojlantirishga imkon beradi. Raqamli texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning eng samarali vositasidir. Ular yordamida bolalarda mustaqil qaror qabul qilish, ijodkorlik, noodatiy yechim topish ko'nikmalari shakllanadi. Kelajakda ushbu metodlarni keng qo'llash ta'lim sifatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.T. Yuldasheva , N.B. Akmalova “Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni”, 2025
2. Hasanboeva O, Ochilov M. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. B.M. Dauletmuratova “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirishda raqamli savodxonlikning tutgan o'rni”, 2025
4. Блинова, Е.Р. Цифровая грамотность младших школьников. - М.: Просвещение, 2020.

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYADA TILNING TRANSFORMATSIYASI (CHAT, SMAYLIK, INTERNET-MEMLAR TILI)

Elmurodova Sadoqat Shermuhammad qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
sadoqatelmurodova708@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya.

Raqamli kommunikatsiya tilni yangi shakl va vositalar bilan boyitmoqda. Chat, smayliklar va internet-memlar muloqot jarayonida hissiyotni ifodalash, fikrni tezkor yetkazish hamda jamiyatdagi madaniy kodlarni aks ettirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon tilning transformatsiyasiga olib kelmoqda.

Kalit so'zlar: raqamli kommunikatsiya, chat, smaylik, internet-mem, til transformatsiyasi, virtual muloqot.

Аннотация.

Цифровые коммуникации являются основным средством, играющую важную роль в нашей жизни сегодня, а также определяет правильность или вред различных современных разговоров и уже устоявшихся стереотипов речи.

Ключевые слова: Цифровые технологии, разговорный язык, трансформация языка.

Kommunikatsiya bugungi kunda insonlar, xususan yoshlar uchun zaruriy ijtimoiy ko'nikmalardan biri hisoblanadi. "Kommunikatsiya" so'zi lotincha communicatio – "aloqa qilish, bog'lanish, xabar almashish" ma'nosini anglatib, uning ildizi communicare – "umumlashtirmoq, baham ko'rmoq" tushunchalariga borib taqaladi.

Raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti insonlar o'rtasidagi muloqotning shaklini, uslubini va mazmunini tubdan o'zgartirdi. An'anaviy yozma nutq o'rnini qisqa, ixcham va tezkor xabarlar egallab, fonetik yozuv, qisqartmalar hamda boshqa tillardan kirib kelgan unsurlar keng qo'llanmoqda. Smaylik va stikerlar muloqotda

hissiy bo'shliqni to'ldirsa, internet-memlar jamiyatdagi voqeliklarga kulgi va kinoya orqali munosabat bildirishning o'ziga xos lingvistik ko'rinishiga aylandi.

Tilning bunday transformatsiyasi ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, u muloqotni ixcham, tezkor va hissiy jihatdan boyitadi, ikkinchi tomondan esa adabiy til me'yorlarining buzilishi va savodxonlik darajasining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi "raqamli davr" sharoitida internet, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi asosiy muloqot maydoniga aylandi. Agar ilgari yozma nutq ko'proq maktublar, rasmiy hujjatlar yoki matbuot orqali amalga oshirilgan bo'lsa, hozirgi kunda chatlar, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa yozishmalar zamonaviy kommunikatsiyaning yetakchi shakliga aylanmoqda.

XXI asr axborot va raqamli texnologiyalar davri sifatida inson hayotining barcha jabhalariga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, mobil aloqa vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangani sababli raqamli kommunikatsiya tushunchasi shakllandi. Raqamli kommunikatsiya insonlar o'rtasida tezkor, global va ixcham muloqotni ta'minlaydi, u ta'lim, ish jarayoni, shaxsiy munosabatlar, madaniyat va siyosiy hayotda muhim o'rin tutmoqda. Shu bois, uning tilga ta'siri lingvistikaning dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli kommunikatsiyaning eng keng tarqalgan shakllaridan biri chat yozishmalari hisoblanadi. Ular o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, qisqartmalar, fonetik yozuv, xorijiy unsurlar va grammatik me'yorlarning buzilishi bilan ajralib turadi. Bunday yozishmalar muloqotni soddalashtiradi va tezlashtiradi, ammo yozma savodxonlikning pasayishi va adabiy til me'yorlarining buzilishiga ham sabab bo'lmoqda. Yozma muloqotda his-tuyg'ularni to'liq ifodalash qiyin bo'lgani uchun smaylik va stikerlardan keng foydalaniladi. Ular emotsional bo'shliqni to'ldiradi, matnga qo'shimcha semantik yuk beradi hamda millat va til chegaralaridan tashqariga chiqib universallik kasb etadi. Shu jihatdan ular zamonaviy kommunikatsiyaning yangi lingvistik vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Internet-memlar esa raqamli davr tilining eng kreativ ko'rinishlaridan biri bo'lib, qisqa va ta'sirchan ifodasi, kulgi va istehzoga boy mazmuni, tez tarqaluvchanligi va zamonaviy folklor sifatida qaralishi bilan ajralib turadi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy voqelikka munosabat bildiruvchi kuchli vosita sifatida yoshlar nutqiga ham singib bormoqda. Tilning bunday transformatsiyasi ikki tomonlama jarayon bo'lib, ijobiy jihatlari sifatida muloqotning tezlashishi, hissiy jihatdan boyishi va global imkoniyatlarning kengayishini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, salbiy tomonlari ham mavjud bo'lib, ular orasida adabiy til me'yorlarining

buzilishi, yozma savodxonlikning pasayishi va soʻz boyligining torayishi alohida taʼkidlanadi. Shunday ekan, raqamli kommunikatsiyaning ijobiy tomonlarini rivojlantirish bilan birga, uning salbiy oqibatlarini yumshatish, yoshlarni adabiy til meʼyorlariga hurmat ruhida tarbiyalash hamda savodxonlik darajasini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Bugungi raqamli davr tilning yangi bosqichini boshlab berdi va chat yozishmalari, smayliklar, stikerlar hamda internet-memlar orqali insoniyat tezkor, ixcham va emotsional muloqot qilish imkoniyatiga ega boʻldi, ammo bu jarayonda milliy tilning pokligi va adabiy meʼyorlarini asrash masalasi doimiy dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida kommunikatsiya inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. U jamiyatning barcha sohalarida – taʼlim, ishlab chiqarish, biznes, texnologiya, internet, shaxsiy munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda muhim vosita sifatida namoyon boʻlmoqda. Kommunikatsiya axborot almashish, odamlar oʻrtasida hamjihatlikni mustahkamlash, taraqqiyotni tezlashtirish va insonlar oʻrtasida oʻzaro tushunishni kuchaytirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. “Transformatsiya” soʻzi lotincha transformare – “oʻzgartirmoq, shaklini almashtirmoq” degan maʼnoni anglatadi. Til transformatsiyasi deganda tilning zamon va texnologiya taʼsirida oʻzgarishi, yangi shakl va vositalar bilan boyib borishi tushuniladi. Hozirgi kunda bu jarayon eng yaqqol chat yozishmalarida kuzatilmoqda.

Raqamli kommunikatsiyada, ayniqsa yoshlar tilida, soʻzlarni qisqartirish, qoʻshib yozish yoki ajratib yozish holatlari keng tarqalgan. Baʼzi hollarda raqam va belgilar orqali harflar almashtiriladi. Masalan, “oʻ” harfi oʻrnida “6” raqami, “sh” harfi oʻrnida “w” belgisi ishlatiladi. Bu holat bir tomondan qulay va tezkor muloqot imkonini bersada, boshqa tomondan yozma til meʼyorlarining buzilishi, savodxonlikning pasayishi kabi muammolarga olib kelmoqda. Qisqartirilgan soʻzlar baʼzan muloqotdagi munosabatning samimiyligi yoki hurmat darajasini ham oʻzgartiradi. Masalan, “OK” soʻzi bir holatda “tushunarli” yoki “yaxshi” degan oddiy maʼnoni anglatasa, boshqa bir vaziyatda u hurmatsizlik yoki sovuqqonlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Xuddi shunday, “Yaxshi” soʻzi ham samimiy javob boʻlishi mumkin, baʼzida esa kinoya yoki norozi ohangini bildirishi ehtimoldan xoli emas. Demak, qisqa va tezkor yozishmalar muloqot jarayonida tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Tilshunos olimlar qadimdan nutq madaniyatiga alohida eʼtibor qaratib kelganlar. Sitseron Mark Tulliy “Yaxshi notiq uch narsaga ega boʻlmogʻi lozim: bilim, chiroyli ifoda va taʼsirchanlik” deya taʼkidlagan. Kvintilian esa notiqlik sanʼatini faqat soʻzlash qobiliyati bilan cheklamay, balki insonning axloqi va odobi bilan chambarchas bogʻlab

ko'rsatgan. Ushbu qadimiy qarashlar bugungi raqamli kommunikatsiya sharoitida ham dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki raqamli muloqotda ham nutqning ifodaviyligi, ta'sirchanligi va madaniy saviyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Smayliklar va stikerlar yozma muloqotdagi hissiy bo'shliqni to'ldiruvchi asosiy vositalardan biridir. Ular matnga qo'shimcha semantik yuk beradi, intonatsiya va mimikani qisman almashtiradi, muloqotni emotsional jihatdan boyitadi. Shu bilan birga, smayliklarning noo'rin ishlatilishi ko'pincha tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Chunki har bir emoji turlicha kayfiyatni bildirishi mumkin va barcha foydalanuvchilar uni birdek qabul qilmaydi. Ba'zan emojilar qisqa javob o'rnida ishlatiladi va bu ham ayrim hollarda hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi ehtimoldan xoli emas.

Internet-memlar esa raqamli davr kommunikatsiyasining eng kreativ shakllaridan biri bo'lib, ular jamiyat voqeligiga hazil, istehzo yoki kinoya orqali munosabat bildirish imkonini beradi. Matn, rasm, gif yoki video shaklida tarqaladigan memlar qisqa vaqt ichida katta auditoriyani qamrab olish qobiliyatiga ega. Shu sababli ular zamonaviy folklor sifatida qaraladi va yoshlar nutqiga ham tez singib boradi. Lingvist Vyvyan Evans emojilarni raqamli muloqotning paralingvistik elementi sifatida baholagan bo'lib, ularning nutqda intonatsiya va tana tiliga o'xshash vazifani bajarishini ta'kidlaydi. Jieun Kiaer esa "emoji speak" atamasini taklif qilib, ularni alohida kommunikatsiya uslubi sifatida ko'radi. O'zbek tadqiqotchilaridan Madaminova M. S. esa smayliklarni internet muloqotida ko'p uchraydigan ifodaviy vosita sifatida baholab, ular his-tuyg'ularni ifodalashda muhim element ekanini qayd etadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli kommunikatsiya tili zamonaviy jamiyatda muhim o'rin egalladi. Chat yozishmalari, smayliklar, stikerlar va internet-memlar muloqotni yengillashtiradi, uni tezkor, ixcham va hissiy jihatdan boy qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon adabiy til me'yorlari va savodxonlik darajasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Har bir inson yozuv uslubini va ramzlarni o'z kayfiyatiga qarab turlicha talqin qilishi sababli, ko'pincha tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Demak, raqamli kommunikatsiyaning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan birga, uning salbiy oqibatlarini yumshatish ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda raqamli kommunikatsiya tilini nafaqat oddiy hodisa, balki ilmiy tadqiqot obyekti sifatida

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Cicero, Marcus Tullius. De Oratore. – Roma, mil. avv. 55-yil. (Qadimgi notiqlik san'ati bo'yicha asar).

2. Quintilian, Marcus Fabius. Institutio Oratoria. – Roma, mil. 95-yil. (Ritorika va notiqlik bo'yicha 12 kitoblik qo'llanma).
3. Evans, Vyvyan. The Emoji Code: The Linguistics Behind Smiley Faces and Scaredy Cats. – New York: Picador, 2017.
4. Kiaer, Jieun. Emoji Speak: Communication and Behaviour on Social Media. – London: Bloomsbury Publishing, 2019.
5. Madaminova, M. S. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. (monografiya).

AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING IMLO AVODXONLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Jumanazarova Maftuna Jahongirovna

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

Bo'shlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

zumanazarovamaftuna1@gmail.com

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdan akademik litsey o'quvchilarining imlo savodxonligini oshirish masalasi tahlil qilinadi. Unda imlo me'yorlariga rioya etishning o'quvchilarning yozma nutq madaniyatini shakllantirishdagi o'rni, imloviy xatolarning sabablari hamda ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: imlo savodxonligi, yozma nutq, imlo me'yori, o'quvchi, ta'lim jarayoni, metod, pedagogik texnologiya.

Annotation. This thesis examines ways to improve the spelling literacy of academic lyceum students. It highlights the importance of adhering to orthographic norms in developing students' written speech culture, analyzes the causes of spelling errors, and discusses methods to eliminate them.

Keywords: spelling literacy, written speech, orthographic norm, student, educational process, method, pedagogical technology.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматриваются пути повышения орфографической грамотности учащихся академических лицеев. Отмечается значение соблюдения орфографических норм в формировании культуры письменной речи учащихся, анализируются причины орфографических ошибок и пути их устранения.

Ключевые слова: орфографическая грамотность, письменная речь, орфографическая норма, учащийся, образовательный процесс, метод, педагогическая технология.

Tilimiz chiroyli bo'lishi bilan bir qatorda bizning yozuvimiz ham chiroyli va xatosiz bo'lishi kerak. Buning uchun esa imloviy savodxonlikni rivojlantirish zarur. Har bir fuqaro davlat tilida to'g'ri so'zlab, to'g'ri yoza olsagina fuqarolik burchini his etgan, yurt qismatiga daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotgan bo'ladi. Qolaversa, bu millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, yuksak ma'naviyatimizning muhim belgisi — savodxonlik darajamizga bog'liq. Savodxonlik esa ikki asosga tayanadi. Bu og'zaki va yozma nutq madaniyatiga to'la va to'g'ri amal qilishdir. Xo'sh, biz har ikkalasi yuzasidan savodxonimiz deya o'z-o'zimizga savol bersak, ijobiy javob berish mushkulligini ham bilamiz. Gap muammolarni e'tirof etishda emas, balki natija uchun kurashishda. Qanday qilsak, tom ma'noda savodxonlik darajamiz oshadi va ma'naviyatimiz yuksaladi? Qanday qilsak, kundalik muloqotlarimizdagi, internet orqali yozishmalarimizdagi qusurlardan, ko'cha-ko'ydagi bitik va peshlavhalardagi, oddiy diktant yozishdagi imloviy nuqsonlardan qutulamiz? Bu fikr har ikkala imloda — lotin va kirill alifbosidagi yozishmalarimizga ham bab-baravar taalluqli. Buni kitob va gazeta mutolaasiga e'tibor chorak asr mobaynida bir muncha susayib kelgani bilan izohlaymiz ham. Sinchiklab o'qish, matn mazmunini uqish, so'z va iboralarning to'g'ri yozilishiga e'tiborimiz pasayib ketganini bilamiz-u, unga chora izlashda esa o'zimizni chekkaga olamiz. [1]

Savodxonlikni rivojlantirish uchun imlo qoidalarini puxta o'rganib chiqish kerak. 1995-yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 339-sonli "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" qaror qabul qilingan. Bu qoidalar jami 82 banddan iborat bo'lib, 7 bo'limda jamlangan. Bular:

1-bo'lim. Harflar imlosi:

a) Unlilar imlosi (1-7 bandlar)

b) Undoshlar imlosi (8-32-bandlar)

2- bo'lim. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37 bandlar)

3-bo'lim. Qo'shib yozish (38-50-bandlar)

4-bo'lim. Chiziqli bilan yozish (51-56-bandlar)

5- bo'lim. Ajratib yozish (57-65-bandlar)

6-bo'lim. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar)

7-bo'lim. Ko'chirish qoidalari (75-82-bandlar) [2]

Tilimizda x va h harflari qatnashgan so'zlar juda ko'p. Bu so'zlar qanday yozilishini alohida lug'at tarzida o'quvchilarga to'la-to'kis yodlatish amrimahol. Bu so'zlar kerakli mavzularda o'z o'rnida ko'proq qo'llanib, imlosi tushuntirib ketilsa, o'quvchilar oson o'zlashtiradi. Yangi nashr qilingan darsliklarda aynan lug'atlar bilan

ishlash uchun mashqlar, matnlar berilganligi foydali bo'ldi. Shunda ham o'quvchilarning dars qilishga bo'lgan xohishi zo'r mazo'raki ekanligi, kitob o'qish madaniyati shakllanmaganligi, darslarga naridan beri tayyorlanishi oqibatida savodxoblik maqtovga loyiq emas.

To'g'ri savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan iqtidorli, zukko o'quvchilarimiz ham bor. Bizning muammomiz yoshlarimizning savodxonligini ta'minlash bo'lganligi sababidan bu masalaga alohida to'xtaldik. Keling "X va H undoshlarining talaffuzi va imlosi" mavzusi 5-sinfda o'tiladi. O'quvchi bu bir soat dars davomida x va h harflari bilan yoziladigan barcha so'zlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lolmaydi. Shunday ekan, bu mavzuni keyingi mavzularda tizimli ravishda o'rgatib borish o'quvchiga ancha yengillik beradi.

Masalan, shu darslikda "Paronimlar" mavzusini o'tishda x va h harflari qatnashgan so'zlarning izohi ko'proq berilishi ham yaxshi natija beradi.[3]

Masalan:

Ahil — totuv, inoq, ittifoq.
 Ahl — biror soha, kasb yoki ma'lum doiradagi kishilar.
 Mahal — vaqt, dam, payt.
 Mahol — amalga oshirish qiyin, mushkul.
 Sohil — daryo, ko'l, dengiz kabilar qirg'og'i, cheti.
 Sohir — ajoyib, antiqa, g'alati.
 Xalal — zarar, nuqson, xalaqit.
 Halol — sof, toza.
 Xalos — ozod, erkin.
 Xolos — faqat, faqatgina.
 Xam — egilgan, bukilgan.
 Ham — gap yoki gap bo'laklarini bog'laydigan, bog'lovchi yoki ko'makchi o'rnida keladigan so'z.
 Xat — yozilgan narsa, maktub kabilar.
 Had — chegara, me'yor.
 Xiyol — sal, biroz.

Xayol — o'y, fikr.
 Hayal — qisqa vaqt, fursat, on.
 Xiyla — anchagina, ko'pgina.
 Hiyla — nayrang, firib.
 Xil-xil — xilma-xil, rang-barang.
 Hil-hil — ortiqcha pishib yetilgan, keragidan ziyod pishgan; yumshoq.
 Xol — badanda tug'ma ravishda bo'ladigan qora bo'rtma, nuqta.
 Hol — hol-ahvol — holat, vaziyat.
 Xo'rlik — tahqirlanish.
 Hurlik — ozodlik, erkinlik.
 Shox — butoq, shox-shabba.
 Shoh — podshoh, hokim.
 Halak — nihoyatda charchagan, qiynalgan azob-lang'an.
 Halok — halok bo'lmoq, o'lmoq, nobud bo'lmoq.

“Sinonimlar” mavzusi bo'yicha: Ahvol, holat, hol. Beixtiyor, ixtiyorsiz, bexosdan, bilmasdan. Yashirin, maxfiy, pinhon, xufiya.

“Juft so'zlar” mavzusi bo'yicha: Ahd-paymon, mehr-muhabbat, huzur-halovat, xotin-xalaj, xatti-harakat, xavf-xatar, hazilmutoyiba, xat-xabar, xilma-xil, bahs-munozara.

“Zid ma'noli so'zlar” mavzusi bo'yicha: Saxiy — baxil, halol — harom, xafa — xursand, alohida — birga, oqil — ahmoq, do'zax — jannat, zehnli — zehnsiz, haq — nohaq, obod — xarob, soxta — chin.

Yuqori sinflarda bu an'anani davom ettirishning eng qulay yo'li — nazorat ishi darslaridir. Yozma nazorat ishlari(diktant, bayon, insho) olingandan so'ng keyingi darsda yozma ish tahlili o'tkaziladi. Bunda o'zini o'zi baholash metodidan foydalanish mumkin. O'qituvchi bu darsda o'quvchilarning nazorat ishidagi xatolar ustida ishlab bo'lgandan so'ng so'zlashuv uslubida nafaol, badiiy uslubda faol qo'llanadigan x va h harfli so'zlarni aytadi. O'quvchilar yozib bo'lganidan so'ng ekranda bu so'zlarning yozilishi ko'rsatiladi. O'quvchilar daftarlariga yozilgan so'zlarni ekranda ko'rib o'zlari tekshiradi va baholarini o'zlari qo'yadi. Masalan: xarxasha, hoynahoy, hihilamoq, haytovur, hijjalamoq, hayhotday, hayfsan, hayhaylamoq, hassos, havoyi, xoxolamoq, xiradmand, xarjlamoq, paxmoq... kabi. X va h harfli so'zlarni adashtirmay yozishi uchun o'quvchilarning yozma nutqiga bunday so'zlarni iloji boricha ko'proq olib kirishimiz kerak. Buyuk pedagog aytganidek, “Takrorlash — bilimning onasidir”.

“Refleksatsiya” metodini qo'llash ham juda samarali usullardan biridir. Bunda doimiy aynan takror bir xil qiyin so'zlardan tuzilgan lug'at diktanti, yoki matn tanlanishi mumkin. Bu ish bir nechta darsda qayta foydalaniladi va o'quvchi esida qoladi. Bu usul bilan d-t, g-k, z-s, v-f, x-h, n-m harflari bilan farqlanadigan, o'quvchilar ko'p xato qiladigan so'zlar tanlanadi.

“Ko'chir va eslab qol” o'yin- metodi ham samarali usullardan biri. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ko'chirish uchun badiiy matn beradi va bu matnda berilgan so'zlarni eslab qolish vazifasi topshiriladi. Masalan, shu matndan diktant olamiz deyish ham mumkin. Matnni o'quvchi diqqat bilan ko'chiradi va xatosiz yozishga harakat qiladi. Bu matndan diktant ham oling. O'quvchilar deyarli 50% i, balki undanam ko'prog'i xatosiz “4” va “5” baholarga yozishadi. Bu noto'g'ri deysizmi? Nega endi xatosiz yozishgani sizning yutug'ingiz emasmi? Biz o'qituvchilar o'quvchilarimiz xatolarini ko'proq topishga harakat qilamiz. Bu xatolar aslida bizniki ekanligini unutimiz. O'quvchilar bizning yuzimiz, bizning mehnatimizni yuzaga chiqaruvchi vosita, xolos. [4]

Xato topishga qaratadigan e'tiborimizni shu xatolarni tuzatishga qarataylik! Shunda natijamiz, albatta, bo'ladi. Bu bizdan sal ortiqcha mehnat talab qiladi. Chunki bu nazoratlardan tashqari kundalik vazifa. Bu vazifa orqali o'quvchi o'qish madaniyatiga ham ega bo'ladi. O'qiyotgan barcha so'zlarni shunchaki ma'nosiga e'tibor beribgina qolmay, balki diqqat bilan yozilishini ham o'rganib oladi.

Bundan zerikkanda esa "Kim savodxon?!" o'yinini o'tkazib turish ham foydali. Sharti: Sinf kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh imloviy xatosiz yozishi kerak bo'lgan so'zni raqib jamoaga og'zaki aytib turadi va doskada jamoa vakillari yozishadi. Juda qiziqarli va foydali o'yin metodi. Bu metod orqali o'quvchilar o'zlari ham o'rganadi, o'rgatadi va diqqatli bo'lishni o'rganadi. Tajribamdan kelib chiqib aniq aytamanki, darsingizdan 1-2 yil davomida haftada bir martadan savodxonlik daqiqalarini ajratib, shu kabi metodlarni qo'llasangiz guruhingiz savodli va zukko bo'ladi. Savodxonlikni oshirib borish, so'zlarni diqqat bilan o'qish, barcha fan darsliklariga ham ko'chadi va boshqa fanlardan ham yaxshi o'qiy oladigan o'quvchilarni tarbiyalaysiz.

O'quvchi olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olmasa, uni uqqan deyolmaymiz. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarini bitirgandan keyin ishga qabul qilish jarayoni suhbat va savodxonlik darajasi (masalan, diktant yoki ish qog'ozlaridan birini yozib berishi) bilan imtihon qilinsa savodxonlikka ko'proq e'tibor berilar edi. Insonga talab qo'yilsagina u shu talabni bajarish uchun qunt bilan harakat qiladi. Shu usul bilan ham o'quvchilarning, qolaversa, bo'lajak kadrlarning yozma savodxonligini oshirish mumkin. Har bir fuqaro davlat tilida to'g'ri so'zlab, to'g'ri yoza olsagina fuqarolik burchini his etgan, yurt qismatiga daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotgan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Umumiy savodxonlik. Savodxonlik so'zining ma'nosi //mywordworld.ru
- 2.E.A.Begmatov, A.P.Madvaliyev. O'zbek tilining imlo lug'ati.–Toshkent: Akademnashr. 2013. – b.10.
- 3.“O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari” Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori asosida. T.1995
- 4.Z.T.Choriyeva. “Ona tili darsida imloviy savodxonlikni oshirishning usullari”

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

Eshpo'latova Laziza Zafar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi bakalavr 2-kurs talabasi

Scientific advisor: Tursuntosh Isroilova

Chirchik state pedagogical university, teacher in Tourism faculty

isroilova.tursuntosh@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilning insoniyat tarixidagi roli, tilshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi, til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar, zamonaviy texnologiyalar va tilshunoslikdagi yangiliklar, shuningdek, milliy tilning madaniyati va uning saqlanishi masalalari yoritilgan. Matnda tilshunoslik fanining ijtimoiy, madaniy va lingvistik jihatlarini hamda tarjima va terminologiya muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Til, tilshunoslik, ijtimoiy hodisa, madaniy meros, globallashtirish, sotsiolingvistika, terminologiya, tarjima, sun'iy intellekt, milliy o'zlik, til madaniyati.

Аннотация: В статье рассматривается роль языка в истории человечества, формирование и развитие лингвистики как науки, взаимосвязь языка и общества, а также влияние современных технологий на лингвистику. Особое внимание уделяется вопросам терминологии, перевода и сохранения национального языка и культуры в условиях глобализации.

Ключевые слова: Язык, лингвистика, социальное явление, культурное наследие, глобализация, социолингвистика, терминология, перевод, искусственный интеллект, национальная идентичность, языковая культура.

Annotation: This article discusses the role of language in human history, the formation and development of linguistics as a science, the relationship between language and society, and the impact of modern technologies on linguistics. Special focus is given to issues of terminology, translation, and the preservation of the national language and culture amid globalization.

Keywords: Language, linguistics, social phenomenon, cultural heritage, globalization, sociolinguistics, terminology, translation, artificial intelligence, national identity, language culture

Til insoniyat tarixida eng qadimiy va muhim ijtimoiy hodisalardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. U nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning milliy o'zligini,

madaniy merosini, tarixiy xotirasini va dunyoqarashini ifodalovchi bebaho boylikdir. Til orqali inson fikrini ifodalaydi, bilimlarini boshqalarga yetkazadi, tajribasini avlodlardan avlodga uzatadi. Shu bois, tilni chuqur o'rganish va uning ijtimoiy, madaniy, lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish qadimdan tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Til nafaqat shaxsaro muloqot vositasi, balki xalqning jamiyatdagi o'rnini, ularning tarixiy taraqqiyotini, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi dinamik vosita hisoblanadi. Shunday ekan, tilni to'g'ri tushunish va uni saqlash – milliy o'zlikni saqlash demakdir.

Tilshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishi. Tilshunoslik, ya'ni lingvistika, mustaqil fan sifatida XIX asr boshlarida shakllana boshladi. Ayniqsa, 1816 yilda tilshunoslik ilmiy fanlar qatoriga kirib, o'zining mustaqil tadqiqot obyektlari va metodlariga ega bo'ldi. Tilshunoslikning rivojlanishi tarixida ko'plab olimlar, maktablar, oqimlar va ta'limotlar ta'siri seziladi. Uzoq vaqt davomida til hodisalariga nisbatan turli xil qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelgan, ammo so'nggi yillarda tilshunoslik dunyo fanlari sistemasida o'ziga xos, mustahkam o'rinni egalladi. Tilshunoslikning rivojlanishi bilan tilni o'rganishning nazariy asoslari yaratildi, tilning fonetik, morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik jihatlari tadqiq qilindi. Shu bilan birga, tilning ijtimoiy-siyosiy va madaniy kontekstdagi o'rni haqida bilimlar kengaydi.[1]

Tilning jamiyatdagi roli va zamonaviy ahamiyati. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari tobora kuchayib borayotgani tufayli, millatlar va xalqlar o'rtasidagi madaniy hamkorlik kengaymoqda. Bunday sharoitda tilning jamiyat hayotidagi o'rni yanada muhimlashmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ilm-fan yutuqlari, yangi terminlarning paydo bo'lishi, ko'p tillilik va bilingvizm hodisalari tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlarini tashkil etmoqda.

Yangi texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, mashina tarjimasi, nutqni avtomatik tanish tizimlari tilshunoslik sohasida inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Korpus lingvistikasining rivojlanishi esa tilni katta hajmdagi matn va nutqlar asosida ilmiy tahlil qilish imkonini berdi. Bularning barchasi tilshunoslikni nazariy fan sifatidan amaliyotga olib chiqdi.[2]

Til va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqalar. Til – ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Sotsiolingvistika fani aynan shu munosabatlarni o'rganadi. U tilni ijtimoiy qatlamlar, yosh, jins, kasb, hududiy farqlar va ijtimoiy mavqega ko'ra tahlil qiladi.[3] Har bir jamiyatda tilning turli shakllari mavjud: adabiy til, dialektlar, jargonlar, sotsiolektlar va boshqalar. Masalan, yoshlar tilida qisqartmalar, internet tili va xorijiy so'zlarning

ko'pligi ko'zga tashlanadi, katta avlod esa ko'proq adabiy til me'yorlariga sodiq bo'ladi. Tilning ijtimoiy muhitga moslashishi, yangi so'zlarning paydo bo'lishi va eski so'zlarning kam ishlatilishi tilning dinamik xususiyatlarini ko'rsatadi. Mustaqillik davrida o'zbek tilida siyosiy, iqtisodiy va huquqiy atamalar ko'plab yangidan shakllandi, bu esa tilning sotsiolingvistik va terminologik jihatlarini boyitdi.

Terminologiya va tarjima muammolari. Terminologiya tilshunoslikning maxsus sohasi bo'lib, ilmiy va texnik atamalarni yaratish, ularni tizimlashtirish va bir xilda qo'llashni o'rganadi. Zamonaviy globallashtirish davrida terminologiya masalalari yanada dolzarb bo'lib, yangi ilmiy va texnik tushunchalarni o'zbek tiliga to'g'ri moslashtirish zaruriyati tug'ildi. Tarjima jarayonida ham ko'plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ayrim atamalar boshqa tillarda bevosita ekvivalenti yo'q, ba'zan so'zlarning tashqi shakli o'xshash bo'lsa-da, ma'nosi farq qilishi "false friends" (soxta do'stlar) deb ataladi va bu tarjimada xatoliklarga olib keladi. Masalan, ingliz tilidagi *actual* so'zi "haqiqiy" degan ma'noni bildiradi, o'zbek tilidagi *aktual* esa "dolzarb" ma'nosida ishlatiladi.[4]

Polisemiya — so'zlarning turli kontekstlarda turlicha ma'noga ega bo'lishi ham tarjimonlar uchun murakkablik tug'diradi. Shu sababli, terminologiyani standartlashtirish va yagona shakllarni belgilash juda muhimdir.

O'zbekistonda davlat miqyosida terminologik qo'mitalar faoliyat yuritib, yangi so'zlarning adabiy til me'yorlariga mos shaklini tasdiqlash bilan shug'ullanmoqda. Bu esa milliy tilning rivojlanishi va boyishi uchun zarur.

Tilshunoslik va yangi texnologiyalar. Zamonaviy tilshunoslik nafaqat nazariy bilimlarga asoslanadi, balki amaliyotga ham keng yo'l ochmoqda. Korpus lingvistikasi, sun'iy intellekt yordamida nutqni avtomatik tanish, mashina tarjimasi texnologiyalari tilshunoslik sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Bular yordamida tilni katta hajmdagi matnlar asosida tahlil qilish, nutq madaniyatini o'rganish va yangi terminlarni tezkor shakllantirish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu jarayonlar tilshunoslik fanining ilmiy va amaliy imkoniyatlarini kengaytirmoqda.[5]

Til madaniyati va milliy o'zlikni saqlash. Tilning madaniyati, nutq madaniyati va til etiketi bugungi globallashtirish sharoitida milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Toza, boy va adabiy me'yorlarga mos til ishlatish, muloqotda odob-axloq qoidalariga rioya qilish shaxsiy va ijtimoiy madaniyatni namoyon etadi. Ayniqsa, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu esa milliy tilning mavqeini mustahkamlash, uning davlat tili sifatidagi o'rnini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ko'p tillilik va bilingvizm jarayonlari zamonaviy jamiyatda ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda, biroq shu bilan birga milliy tilni asrab-avaylash va rivojlantirish masalalari doimiy diqqat markazida bo'lishi lozim.

Xulosa. Tilshunoslik fanining rivojlanishi insoniyat madaniyati va ijtimoiy hayotining tub ildizlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilning ijtimoiy-hayotiy funksiyalarini, uning dinamik va kompleks tabiatini o'rganishda muhim ilmiy platforma vazifasini bajaradi. Til nafaqat kommunikatsiyaning asosiy vositasi, balki milliy identifikatsiya, tarixiy-madaniy xotira va xalq ongining sotsiokultural ko'zgusi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Shu bois tilshunoslik nazariyasi va amaliyotining yuksak ilmiy asoslari tilning ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvi, milliy til siyosati va madaniyatni saqlashdagi roli haqida tizimli va konseptual bilimlarni shakllantiradi.[6]

Zamonaviy tilshunoslikning sotsiolingvistik yo'nalishi tilning ijtimoiy stratifikatsiya, demografik omillar va kommunikativ kontekstga bog'liq o'zgaruvchanligini aniqlashda ilmiy asoslarni mustahkamlab, til fenomenining sotsiokultural aspektlarini chuqur tahlil qiladi. Bu esa tilshunoslikni nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy fanlar doirasida ham integratsiyalashgan tadqiqot sohasiga aylantiradi. Ayniqsa, terminologiya va tarjima nazariyasidagi ilmiy tadqiqotlar globalizatsiya sharoitida milliy tilning funksional boyligini oshirish, lingvistik barqarorlikni ta'minlash hamda ilmiy-texnik sohalarda terminlarning izchilligini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Texnologik inqiloblar natijasida tilshunoslik metodologiyasida yuzaga kelgan inqilobiy o'zgarishlar — korpus lingvistikasi, sun'iy intellektga asoslangan tilni qayta ishlash tizimlari va avtomatik nutqni tanish texnologiyalari — til o'rganish va tadqiq qilishning yangi paradigmasini vujudga keltirdi. Bu jarayon tilshunoslikni nafaqat nazariy, balki amaliy sohada ham yangi yuqori samaradorlik darajasiga ko'tarib, lingvistik ma'lumotlarni aniq va tizimli ravishda tahlil qilish imkonini yaratmoqda. Shunday qilib, tilshunoslik fanining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari lingvistik nazariyalarni chuqurlashtirish, tilning funksional jihatlarini kengaytirish, hamda uning ijtimoiy, madaniy va texnologik kontekstlarda barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonlar milliy tilning madaniy identifikatsiyasini saqlab qolish va uning global miqyosda samarali muloqot vositasi sifatida rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada, tilshunoslik ilmiy tadqiqotlarining ushbu kompleks va ko'p qirrali yo'nalishlari til madaniyati va til siyosatini ilgari surishda asosiy tadqiqiy resurs bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupov, I. (2020). Tilshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.

2. Karimov, M. (2018). Til va jamiyat: ijtimoiy tilshunoslik. Toshkent: Fan va Texnologiya.
3. Rashidov, A. (2019). Sotsiolingvistika va til madaniyati. Toshkent: Akademiya Nashriyoti.
4. Tashkent State University (2021). Terminologiya va tarjima nazariyasi. Toshkent: Universitet Nashriyoti.
5. Nazarov, S. (2022). Zamonaviy tilshunoslikda sun'iy intellektning roli. Toshkent: Ilmiy jurnal.
6. Abdullaev, D. (2023). Tilshunoslik va milliy til siyosati. Toshkent: Davlat Nashriyoti.

O'ZBEK TILINING NUFUZINI OSHIRISHGA OID HUQUQIY- ME'YORI ASOSLAR

Kudaykulova Jasmina Alisherovna

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

Bo'shlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat tili – o'zbek tilining jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash va uning nufuzini oshirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy asoslar tahlil qilinadi. Tadqiqotda til madaniyatini yuksaltirish, yoshlar ongida milliy tilga hurmat tuyg'usini shakllantirish va o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish borasidagi chora-tadbirlar ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: til, terminologiya, termin, milliy til, standartlashtirish, ilmiy uslub, termin tizimi, o'zbek tilshunosligi.

Annotation. This article analyzes the legal and normative foundations aimed at strengthening the status of the Uzbek language as the state language and enhancing its prestige in society. The study also examines measures directed toward promoting language culture, fostering respect for the national language among the youth, and increasing the international reputation of the Uzbek language.

Keywords: language, terminology, term, national language, standardization, scientific style, terminological system, Uzbek linguistics.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые и нормативные основы, направленные на укрепление статуса узбекского языка как государственного и повышение его престижа в обществе. В исследовании также рассматриваются меры по развитию языковой культуры, формированию у молодежи уважения к национальному языку и повышению международного авторитета узбекского языка.

Ключевые слова: язык, терминология, термин, национальный язык, стандартизация, научный стиль, терминологическая система, узбекское языкознание.

O'zbek tili — o'zbek xalqining milliy o'zligini, tarixiy xotirasini, madaniy merosi va ma'naviy dunyosini mujassam etuvchi muqaddas qadriyatdir. Har bir xalqning tili uning o'ziga xosligini, milliy ruhini, asrlar davomida shakllangan tafakkurini ifoda etadi. Shunday jihatdan qaralganda, o'zbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki butun bir xalqning ma'naviy hayotining markazida turadi.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, o'z tilini hurmat qilgan boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi. Sobiq sho'rolar Konstitutsiyasida SSSR dagi barcha elat, xalq, millatlar va ularning tillari teng huquqli ekanligi ta'kidlanadiga bo'lsa ham, lekin amalda rus tili davlat tili edi. Barcha ish qog'ozlari, pochta, telegraf ishlari, turli darajadagi yig'ilishlar, qurultoylar simpoziumlar rus tilida olib borilardi. Rus tilini bilmaydigan shaxslar uzoqdagi qarindosh-urug'lariga tanish-bilishlariga oddiy bir telegramma ham jo'nata olmas edilar. Bunday holat rus tilidan boshqa tillar qo'llanish doirasining cheklamishiga olib keldi va bu til vakillarining haqli ravishda noroziligiga sababchi bo'ldi. 1988-yildan boshlab o'zbek ziyolilari ham matbuotda o'zlarining qator maqolalari bilan tizlimiz haq huquqini tiklash, uni davlat tiliga aylatirish muammosini ko'tarib chiqdilar. Bu masalaga bag'ishlangan bir qancha anjumanlar bo'lib o'tdi. Nihoyat, 1989-yilning 21- oktyabrida o'zbek tili O'zbekistonning Davlat tili sifatida rasman e'lon qilindi. Buning natijasida o'zbek tili respublikamizda o'tkazilayotgan oliy darajadagi davlat anjumanlarida ham qo'llaniladigan, davlatnig rasmiy hujjatlari yuritiladigan, rivojlanish istiqboli qonun bilan belgilangan tilga aylandi. Ana shu nuqtayi nazardan bu qonunning tarixiy ahamiyati kattadir. "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingandan so'ng 2 yil vaqt o'tgach, respublikamiz hayotida katta o'zgarish ro'y berdi. Ajdodlarimizning asriy orzusi ro'yobga chiqdi. Mustaqillik qoidaga kiritildi. Dunyoning 120 dan ortiq davlati mustaqil respublikamizni rasman e'tirof etdi va u bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Qisqa muddat ichida respublikamizning jahon hamjamiyati o'rtasidagi obro'- e'tirofi oshdi.

O'zbek degan millat va uning milliy tili jahon jamaotchiligining diqqatini tortdi. "Davlat tili haqida"gi qonunning ko'p moddalari o'z kuchini yo'qotdi yoki tahrir talab bo'lib qoldi. Shuning uchun ham amaldagi qonunni isloh qilish ehtiyoji paydo bo'ldi. Natijada 1995- yilning 21-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasi "Davlat tili haqida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Yangi tahriridagi Qonunning muhim jihati shundaki, unda o'zbek tilining bugungi jahon hamjamiyatidagi mavqei hisobga olindi. Bu qonunda O'zbekiston Respublikasining demokratik, tinchliksevar siyosati o'zining aniq ifodasini topdi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida tan olinar ekan, bu narsa respublika

hududidagi boshqa tillarning faoliyat ko'rsatishi, rivojlanishi, O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o'z ona tillarida erkin aloqa qilishlari uchun aslo monelik qilmaydi. Qonunning 2-, 4-, 6-, 10-, 14-moddalarida boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoya qilinadi. Bu esa yangi qonunning naqadar xolis ekanligini ko'rsatadi.[1] O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi uning milliy va ma'naviy hayotdagi o'rnini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Bu esa tilning hayotning barcha sohalarida faol va barqaror qo'llanilishini ta'minlash, uni asrash va rivojlantirish borasida muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari, madaniyat markazlari orqali o'zbek tilining jamiyatdagi nufuzi yildan-yilga ortmoqda. Bu til nafaqat o'z hududida, balki xorijdagi o'zbek diasporalari orasida ham milliy o'zlikni saqlash vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Shu jumladan, davlat tili sifatida o'zbek tilining maqomi ham Konstitutsiyada mustahkam belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 4-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir." Bu modda o'zbek tilining mamlakatdagi yuridik maqomini belgilaydi va uning davlat boshqaruvi, qonun chiqarish, sud ish yurituv, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, ish yuritish kabi barcha rasmiy sohalarida asosiy va majburiy aloqa vositasi sifatida ishlatilishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, Konstitutsiyada boshqa millat vakillarining tillariga nisbatan ham hurmat saqlanadi. 4-moddada yana quyidagicha ko'rsatib o'tilgan: "O'zbekiston Respublikasida boshqa tillarning ham hurmat qilinishiga kafolat beriladi." Bu esa ko'p millatli jamiyatda tilga nisbatan bag'rikenglik, inson huquqlari va madaniy xilma-xillik tamoyillariga sodiqlikni bildiradi. Har bir fuqaroga o'z ona tilida so'zlashish, ta'lim olish va madaniy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati yaratiladi.[2]

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat tilining ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, amaliy hayotda to'laqonli qo'llanilishini ta'minlash va xalqaro maydonda nufuzini oshirish borasida muhim yutuqlarga erishildi. Bu yutuqlar davlat siyosati, jamoatchilik faolligi va axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq.

1. Huquqiy asoslarning mustahkamlanishi

- 2019-yilda qabul qilingan PF-5850-sonli Prezident farmoni ("Davlat tilining maqomini oshirish chora-tadbirlari") o'zbek tilini rivojlantirishda tub burilish yasadi.

- 2020-yilda "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinib, tilni himoya qilish mexanizmlari kuchaytirildi.

- Ko'plab normativ hujjatlar va davlat dasturlari til siyosatini huquqiy jihatdan asoslab berdi.

2. Rasmiy ish yuritishda o'zbek tilining joriy etilishi

- Davlat idoralari va muassasalarda rasmiy hujjatlar, murojaatlar, hisobotlar, qarorlar to'liq o'zbek tilida yuritilmoqda.

- “Eng namunalı davlat tili muassasasi” tanlovlari orqali til madaniyati rag'batlantirilmoqda.

- O'zbek tilidagi hujjat aylanishi bo'yicha elektron tizimlar yo'lga qo'yildi (masalan, E-xat, my.gov.uz xizmatlarida o'zbek tili asosiy til sifatida ishlatiladi).

3. Ta'lim tizimida tilni chuqur o'rganish

- Maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili fani mazmunan va metodik jihatdan yangilandi.

- Filologiya, jurnalistika, tarjima yo'nalishlari orqali professional til bilimdonlari yetishtirilmoqda.

- Elektron darsliklar, multimedia vositalari orqali o'zbek tili ta'limi raqamlashtirilmoqda.

4. Media, internet va raqamli texnologiyalarda o'zbek tili

- Ko'pchilik yirik axborot portallari (Kun.uz, Daryo.uz, Qalampir.uz) o'zbek tilida faol ishlamoqda.

- Google Translate, Yandex Translate kabi avtomatik tarjima tizimlarida o'zbek tili qo'shildi.

- YouTube, Telegram, TikTok platformalarida o'zbek tilidagi sifatli kontent (ma'rifiy, badiiy, ilmiy) soni ko'paymoqda.

- Sun'iy intellekt va ovozli yordamchi dasturlar (AI chat, TTS, STT) o'zbek tilini tanimoqda.

5. Xalqaro miqyosda o'zbek tilining e'tirofi

- 2022–2023 yillarda Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining xorijdagi filiali ochildi (masalan, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasida).

- Turkiya, AQSh, Qozog'iston, Koreya, Malayziya, Germaniya kabi davlatlarda o'zbek tilini o'rgatuvchi kurslar ochilmoqda.

- YUNESKO doirasida o'zbek tilining xalqaro madaniy merosga qo'shgan hissasi e'tirof etilmoqda.[3]

O'zbek tilining jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish va uning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Tilni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar milliy qadriyatlarni asrash, yosh avlodda tilga hurmat tuyg'usini shakllantirish hamda o'zbek tilshunosligi sohasida ilmiy izlanishlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, til siyosatini

izchil amalga oshirish va amaliy natijadorlikni ta'minlash mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni "O'zbek tilining yangi qonunlari" – to'plam T: 1998, 20-30 bet.
2. "O'zbek tili to'g'risida"gi Qonun (1995 yil).
3. <https://lex.uz/docs/-6445145>

ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA YOSHLAR JARGONI VA UNING TA'SIRI

G'aybullayeva Ruxshona A'zamxo'ja qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi(kechki) 2-bosqich talabasi

rgaybullayeva17@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy o'zbek tilida yoshlar jargoni va uning ijtimoiy hayotdagi ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Yoshlar jargoni, o'zining o'ziga xos so'zlari va iboralari bilan, nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki ijtimoiy identifikatsiya va madaniyatning bir qismi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Maqolada jargoning tarixi, rivojlanishi va uning yoshlar o'rtasida qanday qabul qilinishi to'g'risida fikrlar yuritiladi. Shuningdek, jargoning ijtimoiy va madaniy ta'siri, uning ijtimoiy munosabatlarga, tilga va madaniyatga qo'shgan hissassi tahlil qilinadi. Yoshlar jargoni orqali yosh avlodning fikrlash tarzi, qiymatlari va ijtimoiy muammolarga bo'lgan munosabati haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar jargoni, o'zbek tili, ijtimoiy ta'sir, madaniyat, kommunikatsiya, identifikatsiya, til rivoji.

Abstract

This article is devoted to the study of youth jargon in modern Uzbek and its influence on social life. Youth jargon, with its unique words and expressions, is important not only as a means of communication, but also as a part of social identification and culture. The article discusses the history, development of jargon and how it is perceived among young people. It also analyzes the social and cultural impact of jargon, its contribution to social relations, language and culture. Youth jargon also provides information about the way of thinking, values and attitudes of the younger generation to social problems.

Keywords: youth jargon, Uzbek language, social influence, culture, communication, identification, language development.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению молодежного жаргона в современном узбекском языке и его влиянию на общественную жизнь. Молодежный жаргон, с его уникальными словами и выражениями, важен не только как средство общения, но и как часть социальной идентификации и культуры. В статье рассматриваются история, развитие жаргона и его восприятие среди молодежи. Также анализируется социальное и культурное влияние жаргона, его вклад в социальные отношения, язык и культуру. Молодежный жаргон также дает информацию о мышлении, ценностях и отношении молодого поколения к социальным проблемам.

Ключевые слова: молодежный жаргон, узбекский язык, социальное влияние, культура, коммуникация, идентификация, развитие языка.

Zamonaviy jamiyatda yoshlar o'rtasida jargonning o'sishi va rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Jargon, asosan, yoshlarning o'zaro muloqotida ishlatiladigan, an'anaviy tilga qaraganda o'ziga xos so'zlar va iboralar to'plamidir. Bu til o'zgarishlari, yoshlarning zamonaviy hayotga moslashishi va o'zaro aloqalarini mustahkamlashida muhim rol o'ynaydi. Yoshlar jargoni tarixiy jihatdan har bir avlodning o'ziga xos tiliga ega bo'lishi bilan bog'liq. O'zbekiston tarixida, o'zbek tilining rivojlanishi va uning turli ijtimoiy qatlamlar orasida tarqalishi, jargonning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali jargonning tez rivojlanishi va yangi iboralar paydo bo'lishi kuzatilmoqda.

Jargon (fr. jargon — safsata) — biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos muloqotida uchraydigan so'zlar va atamalarni ifodalaydigan tushuncha. Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi, turli sheva hamda lahjalardan farq qiladi. Ko'p hollarda, jargon inson ma'naviyatidagi salbiy qusurlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashtirmaslik lozim. Jargon barqaror bo'lmaydi, u ham til, ham uslubiy jihatdan turli-tuman va tezda o'zgaruvchan xususiyatga ega. Yoshlar orasida "ketdim" o'rniga "sirpandim", "pul" o'rnida "soqqa"; san'atkorlar orasida "xizmat uchun haq olmaslik" o'rnida "tom suvoq", "pul" o'rnida "yakan" va shu kabi jargonlar uchraydi. Jargon bazida badiiy ijodda asar qahramoni xususiyati, tabiatini ochib berish uchun xizmat qiladi. Jargonlar turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar vakillarining bir-birlari bilan aloqa qilishida yoki turli xalq vakillari yig'iladigan joylar (masalan, chegara, portlar)da ham paydo bo'ladi. Jargonlar qaysi ijtimoiy guruh orasida yuzaga kelgan bo'lsa, deyarli faqat shu guruh vakillari uchun tushunarli bo'ladi, shu toifadagilarning vaziyat, sharoit taqozosiga ko'ra boshqalardan yashirin tutiladigan maqsadlariga xizmat qiladi. Jargonda keng tarqalgan inqiloblar shartli so'zlashuv so'zi va muayyan ijtimoiy guruhlarda ishlatiladigan ibora.

Bundan tashqari, ulardan paydo bo'lishi, rivojlanishi, o'zgarishi va chekinishi nutq aylanishi jamiyatning aniq ajratilgan qismida sodir bo'ladi. Jargon - bu adabiy tilning faqat ma'lum bir guruhdagi so'zlashuvchi odamlarga tushunarli shaklda takrorlanishi. Bu ob'ektlar, harakatlar va ta'riflarning klassik ta'riflari uchun normativ bo'lmagan, tan olinmagan sinonimlardir. Jamiyatning har bir ijtimoiy bo'linmasining jarangli so'zlari jargon deb ataladigan, tushunilmaganlar tushuna olmaydigan muloqot tilini tashkil qiladi. Kelib chiqishi va farqlari "Jargon" so'zi V. Dahl ("Tirik buyuk rus tilining izohli lug'ati") ga ko'ra, frantsuz jargonidan keladi. Uning adabiy til me'yorlaridan farqlari:

- *Maxsus lug'at va frazeologiya.*
- *Yorqin rangli, ifodali burilishlar.*
- *Devoriy shakllardan maksimal foydalanish.*
- *O'z fonetik tizimlarining yo'qligi.*
- *Grammatika qoidalariga rioya qilmaslik.*

Bugungi kunda jargon nafaqat og'zaki muloqot, balki samarali vosita badiiy ifoda. Hozirgi zamon adabiyotida bu so'zlar atayin metaforalar, sinonimlar, epitetlar bilan birga mazmunni kuchaytirish, o'ziga xos rang berish maqsadida qo'llanadi. Ijtimoiy jargonlar keng tarqalgan so'z va iboralar bo'lib, ular birinchi marta 18- asrda "salon" deb ataladigan zodagonlar doiralarida paydo bo'lgan. Fransuzlarning hamma narsani sevuvchilar va muxlislari ko'pincha bu tilning buzilgan so'zlarini ishlatishgan. Masalan: "zavq" "plaisir" deb atalgan. Jargonning asl maqsadi uzatilgan ma'lumotni sir saqlash, "biz" va "ular" ni kodlash va tan olishning bir turi edi. "Yashirin til"ning bu funksiyasi gangster muhitida asotsial elementlarning nutqi sifatida saqlanib qoladi va "o'g'rilar jarangi" deb ataladi. Masalan, pichoq - bu "qalam", qamoqxona - "teatr", qo'ng'iroq - "raqamlarni terish". Jargonning boshqa turlari - maktab, talaba, sport, professional - bu xususiyatni amalda yo'qotdi. Biroq, yoshlar nutqida u hali ham jamiyatdagi "begona odamlarni" aniqlash funktsiyasini bajaradi. Ko'pincha o'smirlar uchun jargon - bu o'zini o'zi tasdiqlash usuli, ularning "kattalar" soniga mansubligini ko'rsatish va ma'lum bir kompaniyaga qabul qilish sharti. Maxsus jaranglardan foydalanish suhbat mavzusi bilan chegaralanadi: suhbat mavzusi, qoida tariqasida, tor doiradagi odamlarning o'ziga xos manfaatlarini ifodalaydi. Lahjadan jargonning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni ishlatishning asosiy ulushi norasmiy muloqotga to'g'ri keladi. Jargonlarning xilma-xilligi Ayni paytda jargonning yagona, aniq bo'linishi mavjud emas. Faqat uchta sohani aniq tasniflash mumkin: professional, yoshlar va jinoiy jaranglar. Biroq, jamiyatning alohida guruhlariga xos bo'lgan jargonlardan naqshlarni aniqlash va shartli ravishda lug'atni ajratib ko'rsatish mumkin. Quyidagi jargon turlari eng keng tarqalgan va keng lug'atga ega: Professional jargonlar - bu

ma'lum bir professional muhitda maxsus atamalar va tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladigan lug'atni qisqartirish yoki birlashtirish orqali soddalashtirilgan so'zlar. Ushbu so'zlar texnik ta'riflarning ko'pchiligi uzoq va talaffuz qilish qiyin bo'lganligi yoki ularning ma'nolari zamonaviy rasmiy tilda umuman yo'qligi sababli paydo bo'ldi. Jargon so'zlari deyarli barcha professional uyushmalarda mavjud. Ularning so'z shakllanishi hech kimga bo'ysunmaydi maxsus 106 qoidalar jargon uchun. Biroq, jargon aloqa va aloqa uchun qulay vosita bo'lib, aniq funktsiyaga ega. Jargon: dasturchilar va Internet foydalanuvchilari tomonidan ishlatiladigan misollar Bilmaydiganlar uchun kompyuter jarangi juda o'ziga xos va uni idrok etish qiyin.

Mana bir nechta misollar:

- "Vinda" - operatsion tizim derazalar;
- "o'tin" - haydovchilar;
- "Ish" - ishlash
- "muvaqqiyatsiz" - ishlashni to'xtatdi;
- "servak" - server;
- "clave" - klaviatura;
- "progs" - kompyuter dasturlari;
- "xaker" - dasturlarni buzuvchi;
- "foydalanuvchi" - foydalanuvchi.

O'g'rilar jargoni - jinoiy jargon juda keng tarqalgan va o'ziga xosdir

Misollar: • "malyava" - harf;

- "quvur" - mobil telefon;
- "ksiva" - pasport yoki shaxsiy guvohnoma;
- "xo'roz" - mahkum, mahkumlar tomonidan "pastga tushirilgan";

Ingliz leksikologiyasida uchta sinonim atama mavjud: cant, jargo, jargon. Bugungi kunga qadar ular o'rtasida aniq ajratish o'rnatilmagan, ammo ulardan foydalanish sohalari ko'rsatilgan. Shunday qilib, jargon muayyan ijtimoiy guruhlarning shartli lug'atini, masalan, o'g'rilar jargoni yoki maktab jarangini bildiradi. Jargon lug'atlaridagi belgi aniq texnik atamalarni belgilashda mavjud, ya'ni u professional jargonning ruscha kichik turlariga mos keladi. Shuningdek, jargon so'zlashuv iborolari va qo'pol so'zlarni bildiradi. Ular nafaqat o'ziga xos foydalanish muhiti, balki barcha mavjud adabiy me'yorlarning grammatikasi va fonetikasining buzilishi bilan ham ajralib turadi. Ingliz tilida jargonlar jargon va jargon bo'lib, ular alohida so'zlar, iboralar va nutq burilishlarini o'z ichiga oladi. Ular butun ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ham, alohida shaxslar tufayli ham paydo bo'ladi. Ingliz jargonlari ko'pincha xarakterlarning xususiyatlarini etkazishda badiiy uslubdagi

asarlarda mavjud. Odatda muallif qo'llanilgan jarangli so'zlarga izoh beradi. Dastlab faqat so'zlashuv vositalari bo'lgan ko'plab so'zlar endi klassik adabiyotda qo'llanish huquqini qo'lga kiritdi. Zamonaviy ingliz tilida jargon turli kasb vakillarining muloqotida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ularni talabalik sohasida, sport sohasida, harbiylar orasida tez-tez uchratasiz. Shuni ta'kidlash kerakki, jargonning mavjudligi, ularning kundalik muloqotda asossiz ishlatilishi tilni to'sib qo'yadi. Dialektlar va jarangli iboralar ko'plab tilshunoslar va tarjimonlarga tanish bo'lgan tushunchalardir. Garchi ular haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirsa va ilmiy maqolalar Ular juda ko'p, ammo bugungi kunda ushbu leksik birliklarning tarjimasini qanday qilib to'g'ri va adekvat etkazish haqida ma'lumotlarning etishmasligi mavjud. Rus tilidagi analoglarni tanlashda muhim nuqta: jargon ma'lum ijtimoiy qatlamlarga xos ekanligini va ma'lum bir ma'noga ega ekanligini unutmang. Shuning uchun asl manbaga xos bo'lgan his-tuyg'ularni yoki tushunchalarni etkazish uchun ularni talqin qilishning bunday usulini topish muhimdir. Zamonaviy til jargon jamiyatning barcha sohalarida keng tarqaldi, vositalari ommaviy axborot vositalari, filmlar va hatto adabiyotlarda. Ulardan foydalanishni taqiqlash befoyda va samarasiz, lekin o'z nutqiga to'g'ri munosabatni shakllantirish muhim va zarurdir.

Zamonaviy o'zbek tilida yoshlar jargoni, nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki ijtimoiy va madaniy hayotning ajralmas qismidir. Yoshlar jargoni, o'zining o'ziga xosligi bilan, ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi va yosh avlodning fikrlash tarzi, qiymatlari va muammolarga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Ushbu maqola, jargonning ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam berishi va kelgusida bu mavzuda olib boriladigan tadqiqotlarga asos bo'lishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.To'ychiboyev. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. - T.: «O'qituvchi», 1996, 7-b.
2. V.V.Reshetov. Sh.Shoabdirahmonov. O'zbek dialektologiyasi. - T.: «O'qituvchi». 197X. 42 - b.
3. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek lili sistem leksikologiyasi. - T.: «O'qituvchi», 1995, I 1 - 123 - b.
4. Qo'chqor'toyev I. So'zlarning leksik-semantik to'dalari haqida. //ToshDU ilmiy asarlari, 359- chiqishi. - T.: 1969.

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ibraximova Mushtariy Marat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

ibraximovamushtariy@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat tilida ish yuritish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rnini va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, elektron hujjat aylanishi tizimi, raqamli ma'lumotlar bazalari, avtomatlashtirilgan ish yuritish dasturlari hamda til me'yorlarini saqlagan holda elektron muloqotni yo'lga qo'yish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: davlat tili, ish yuritish, axborot texnologiyalari, elektron hujjat, raqamli transformatsiya, elektron imzo.

ABSTRACT

This article analyzes the role and importance of modern information technologies in improving the process of office work in the state language. It also covers issues related to electronic document circulation systems, digital databases, automated office management software, and maintaining linguistic norms in electronic communication.

Keywords: State language, office work, information technology, electronic document, digital transformation, electronic signature.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль и значение современных информационных технологий в совершенствовании процесса делопроизводства на государственном языке. Также рассматриваются вопросы, связанные с системой электронного документооборота, цифровыми базами данных, автоматизированными программами делопроизводства и соблюдением языковых норм в электронном общении.

Ключевые слова: Государственный язык, делопроизводство, информационные технологии, электронный документ, цифровая трансформация, электронная подпись.

Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimida hujjatlar bilan ishlash jarayoni tobora raqamlashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilining nufuzi va qo'llanish doirasini kengaytirish bilan bir qatorda, ish yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Axborot texnologiyalarini ish yuritish jarayoniga joriy etish natijasida hujjatlar aylanishi tezlashadi, inson omili kamayadi, ma'lumotlarning saqlanishi va qayta ishlanishi samaradorligi ortadi.

1. Davlat tilida ish yuritishning mohiyati

Davlat tilida ish yuritish — bu davlat idoralari, tashkilotlar, korxonalarda rasmiy hujjatlarni o'zbek tilida yuritish, hujjatlarning imlo, uslubiy va huquqiy me'yorlariga rioya etgan holda rasmiylashtirish jarayonidir. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunida barcha rasmiy hujjatlar davlat tilida yuritilishi belgilangan.

2. Zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni

- Raqamli texnologiyalar ish yuritish jarayonining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Masalan:

- Elektron hujjat aylanishi tizimlari (E-Hujjat, E-Xat, Document Management Systems) – hujjatlarni qabul qilish, tasdiqlash va yuborishni tezlashtiradi.

- Elektron imzo (E-imzo) – hujjatlarning huquqiy kuchini ta'minlaydi.

- Raqamli arxivlar – hujjatlarning uzoq muddatli saqlanishini ta'minlaydi.

- Bulut texnologiyalari – bir vaqtning o'zida bir nechta xodim tomonidan hujjatlar bilan ishlash imkonini beradi.

3. Til me'yorlariga rioya qilishda texnologiyalarning yordamchi roli

Axborot texnologiyalari yordamida ish yuritish til me'yorlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan:

Imlo tekshiruv dasturlari (Grammarly, LanguageTool, [Imlo.uz](https://imlo.uz)) hujjatdagi grammatik xatolarni aniqlaydi.

Tilshunoslik korpuslari davlat tilidagi so'z boyligini saqlash va to'g'ri ishlatishni o'rganishda foydalidir.

Avtomatik tarjima va tahlil dasturlari turli tillardagi hujjatlarni davlat tiliga to'g'ri tarjima qilish imkonini beradi.

4. Davlat tili va raqamli madaniyat uyg'unligi

Davlat tilini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish — bu nafaqat texnik, balki madaniy va ijtimoiy jarayondir. Har bir xodim davlat tilining rasmiy uslubini chuqur bilishi bilan birga, elektron tizimlarda undan to'g'ri foydalanishni ham o'zlashtirishi lozim.

Davlat tilida ish yuritish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish — bu davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, rasmiy muloqotni soddalashtirish va davlat tilining amaliy nufuzini kuchaytirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Shunday ekan, har bir tashkilotda elektron ish yuritish tizimini joriy etish bilan bir qatorda, xodimlarning davlat tili va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish zarurdir.

Tadqiqotimiz davomida quyidagilarni taklif etamiz:

Davlat idoralarida ish yuritish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, barcha hujjat almashinuvi, arxiv va elektron imzo tizimlarini o'zbek tilida yuritish imkonini beruvchi yagona platformani ishlab chiqish zarur.

Hujjatlarni avtomatik tarjima va til tahlili imkoniyatlariga ega bo'lgan sun'iy intellekt vositalarini ishga tatbiq etish, bu orqali til me'yorlari va imlo xatolarini avtomatik aniqlash tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Davlat tilida ish yurituvchi xodimlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha doimiy o'quv-seminarlar, vebinarlar va onlayn kurslar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Rasmiy hujjatlarda o'zbek tilining me'yoriy, uslubiy va terminologik jihatdan to'g'ri qo'llanishini nazorat qiluvchi elektron monitoring tizimini ishlab chiqish taklif etiladi.

Davlat tili siyosatini raqamli sohada qo'llab-quvvatlash maqsadida "Raqamli til texnologiyalari markazi" kabi ixtisoslashgan muassasani tashkil etish foydali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat tilida ish yuritish jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish — boshqaruv tizimini soddalashtirish, samaradorlikni oshirish va o'zbek tilining raqamli muhitda nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi nafaqat hujjat aylanishini tezlashtiradi, balki til me'yorlarini saqlash, yagona uslubiy standartni shakllantirish hamda fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi. Shu bois, davlat tili siyosatini raqamli transformatsiya jarayonlariga faol tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashri, 1989 (2020 yilda yangi tahriri bilan).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni. – Toshkent: Prezident.uz, 2020-yil 5-oktabr.
3. Karimov A. Ish yuritish va hujjatlarni rasmiylashtirish asoslari. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 216 b.
4. Raximova M. Axborot texnologiyalari va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022. – 184 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlarida ish yuritishni raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2021-yil 12-mart, № 128.
6. Xolmirzayeva N. Raqamli transformatsiya sharoitida davlat tilida ish yuritishning samaradorligini oshirish yo'llari. // Til va jamiyat ilmiy jurnali. – 2023. – №4. – B. 45–52.
7. Rasulova D. Elektron hujjat aylanishi tizimida o'zbek tilining qo'llanish xususiyatlari. // Axborot texnologiyalari va boshqaruv jurnali. – Toshkent, 2022. – №2. – B. 31–38.
8. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. Raqamli davlat konsepsiyasi. – Toshkent, 2023.

ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USHLUBLARI VA YOSH AVLODNI FANGA QIZIQTIRISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

shohsuvormusayev@gmail.com

“Yosh avlodning insoniyat daholari bo'lgan buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lish yo'lida tobora kuchayib borayotgan intilishni ham yangilanishning salmoqli yakuni sifatida alohida ta'kidlab o'tmoq kerak. Davlat va jamiyatning yosh avlod jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishga e'tibori oshganligi islohotlarning sharofatidir”. Ta'lim–tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Interfaol metod- ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metod. Interfaol metod va usullar: “Keys-stadi”, “Blist-so'rov”, “Modellashtirish”, “Sinkveyn”, “BBB”, “Venn diagrammasi”, “T jadvali”, “Klaster”, “Balik skaleti”, “Aqliy hujum”, “Zinama- zina”, “Muzyorar” va hokozox'. “Muzyorar” metodi dars o'tilayotgan sinfda o'quvchilar befarqligining oldini olishga dars jarayonida hosil bo'lgan charchoqni va o'quvchilarga ruhiy bosim bo'lishining oldini olishga mo'ljallangan ma'lum bir xildagi faol faoliyat turidir. Demak, ular sinfda yuzaga kelgan “muzlash” ning oldini olish va agar bunday “Muzlash” hosil bo'lgan bo'lsa, uni eritib, yorib yuborish uchun ishlatilishi mumkin. Ko'pgina o'qituvchilar “muzyorar” larni ta'limni boshlang'ich bosqichidagina ishlatadilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan dars davomida, o'quvchilar bilan yoki o'quvchilararo muloqot ma'lum sabablarga ko'ra qiyinlashganda ham ishlatish mumkin.[2]

XX asrning o'rtalarida AQShda paydo bo'lib, 1940-50 yillar o'rtasigacha "Ta'lim texnologiyasi" deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o'qitishga nisbatan qo'llanilgan. 50-60 yillarda programmashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan, 70- yillarda "pedagogik texnologiya" iborasi qo'llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan. 1979 yilda AQShning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan Pedagogik texnologiyani kompleks, integrativ jarayon deb asoslangan va 80- yillarning boshidan esa pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga Pedagogik texnologiya – Bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov).

Pedagogik texnologiya – o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi;u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachev). Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi. (YuNESKO). Pedagogik texnologiya – bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir.U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.(B.L.Farberman) [3]

“Sinkveyn” metodi fransuzcha “sinq” so'zidan olingan bo'lib, besh degan ma'noni anglatadi. Biror so'zning beshta sifat xususiyati tavsiflanishi zarur. O'quvchilarga mavzuning kalit so'zlari beriladi. Har bir o'quvchi alohida qog'oz varag'iga ushbu so'zning xususiyatlarini yozadi, ular ot ham, fe'l ham, sifat ham bo'lishi shuningdek, ijobiy yoki salbiy jihatni aks ettirishi mumkin. Har bir qatorga yozilgan so'zlar bitta gap hisoblanib, u keng ma'noni o'ziga qamrab oladi.

1-qator mavzu bitta so'z bilan ifodalanadi.

2-qator ikkinchi so'z qo'shilib mavzu mazmuni kengaytiriladi.

3-qator uchinchi so'z kiritilib voqelik ochib beriladi.

4-qator to'rtinchi so'z kiritilib voqelikka shaxsning munosabati bildiriladi.

5-qator bitta so'z bilan umumlashtiriladi. Sinkveyn metodidan ona tili darslarida foydalanish. Masalan 1 – guruh - Ot . 2 – guruh – Ot mustaqil so'z turkumi. 3 – guruh

- Ot mustaqil soʻz turkumi, kim?, nima? soʻrogʻiga javob boʻladi. 4 – guruh - Ot mustaqil soʻz turkumi, kim?, nima? soʻrogʻiga javob boʻladi. Otlar birlik va koʻplikda ifodalanadi. 5 - Ot mustaqil soʻz turkumi, kim?, nima? soʻrogʻiga javob boʻladi. Otlar birlik va koʻplikda ifodalanadi. Ot soʻz turkumiga oid soʻzlar gapda ega vazifasini bajaradi. 1 - Ot mustaqil soʻz turkumi, kim?, nima? soʻrogʻiga javob boʻladi. Otlar birlik va koʻplikda ifodalanadi. Ot soʻz turkumiga oid soʻzlar gapda ega vazifasini bajaradi. Otlardan yasovchi qoʻshimchalar yordamida yangi maʼno mazmunga ega soʻlar hosil qilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. J.Yoʻldoshev, S.Usmonov, “Pedagogik texnologiya asoslari”, T., 2004
2. Xodjieva S. Zamonaviy darsda oʻquvchini faollashtirish metodlari. – Toshkent: Fan, 2021.
- 3.Qodirova D. Yosh avlodda ona tiliga muhabbatni shakllantirishning samarali yoʻllari. – “Taʼlim va innovatsiyalar” jurnali, №2, 2023

SUN'IY INTELLEKT VA INSON: TIL, TAFAKKUR VA TEXNOLOGIYA O'ZARO TA'SIRI

Ibrayimova Gulsevar Ikromjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

gulsevaribrayimova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sun'iy intellektning inson hayoti va turli sohalardagi faoliyatiga ta'siri, uning imkoniyatlari hamda cheklovlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor sun'iy intellektning inson o'rnini bosish ehtimoli, bu jarayonning ijobiy va salbiy oqibatlariga qaratilgan. Shuningdek, maqolada ushbu jarayonni muvozanatli boshqarish, inson mehnatini asrash hamda sun'iy intellektdan oqilona foydalanish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, inson o'rni, innovatsiya, texnologiya, mehnat samaradorligi, kelajak, Amazon, tadqiqot.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется влияние искусственного интеллекта на жизнь человека и различные сферы деятельности, а также рассматриваются его возможности и ограничения. Основное внимание уделяется вероятности замещения человека искусственным интеллектом и возможным положительным и отрицательным последствиям этого процесса. Кроме того, предлагаются пути сбалансированного управления развитием ИИ и рационального его использования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, роль человека, инновации, технологии, эффективность труда, будущее, Amazon, исследование.

ABSTRACT

This article analyzes the impact of artificial intelligence on human life and various fields of activity, discussing its potential opportunities and limitations. The main focus is on the possible replacement of humans by AI and its positive and negative consequences. The paper also proposes strategies for balancing this process, preserving human labor, and ensuring the rational use of artificial intelligence.

Key words: artificial intelligence, human role, innovation, technology, work efficiency, future, Amazon, research.

XXI asr — raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrdir. Bugungi kunda ayrim olimlar inson aqliga taqlid qiluvchi mashinalarning takomillashuvi natijasida ba'zi kasb va faoliyat turlari yo'qolib borishini ta'kidlasa, boshqalar bu qarashlarni asossiz deb hisoblaydi. Asl savol esa shunday: sun'iy intellekt (AI) kasblar samaradorligiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?

Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan hozirgi davrda ko'plab vazifalarni inson aralashuvisiz ham bajarish mumkin — buning zamirida esa sun'iy tafakkur turadi. Masalan, tibbiyot sohasida sun'iy intellektning o'rni tobora ortib bormoqda. Yaqinda Saudiya Arabistonida dunyoda ilk bor to'liq robot tomonidan amalga oshirilgan jigar transplantatsiyasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Xuddi shunday, AQShning Nyu-York shahrida ham robot va AI yordamida donor va qabul qiluvchi o'rtasida jigar ko'chirish amaliyoti samarali o'tkazilgan.

Bu kabi misollar shuni ko'rsatadiki, texnologiya inson faoliyatining eng nozik sohalariga ham kirib bormoqda. Shu bilan birga, AI yordamida kiberjinoyatlarni aniqlash, ma'lumotlarni tahlil qilish kabi ishlar soddalashmoqda. Masalan, Amazon kompaniyasi tomonidan avtomatlashtirish tizimlarining joriy etilishi natijasida 2021-yildan 2024-yilgacha Fulfillment markazlaridagi xodimlar soni 1,61 milliondan 1,56 milliongacha qisqargan.

Bu pasayish faqat robotlar sababmi yoki boshqa omillar ham bor — bu aniq emas. Ammo avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish istagi bu jarayonda muhim rol o'ynagani shubhasiz. Shu bilan birga, ****Jahon iqtisodiy forumi (WEF)****ning “Future of Jobs Report 2023” hisobotiga ko'ra, 2027-yilgacha dunyoda 83 millionga yaqin yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda. McKinsey & Company tahlillariga ko'ra esa, 2030-yilga borib ishlarning 30 foizi avtomatlashtirilishi mumkin, ammo bu to'liq “inson o'rnini bosish” emas, balki mehnat taqsimotining o'zgarishidir.

Sun'iy intellektning afzalliklari bilan bir qatorda, uning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. U insondagi eng muhim fazilatlar — mehr, empatiya, his-tuyg'u va ijodkorlikni to'liq takrorlay olmaydi. Sharof Boshbekovning “Temir xotin” asaridagi Alomatxon hamma ishni uddalay olsa-da, Qumridek shirinso'z va mehribon bo'la olmaydi. Shifokorning samimiyati yoki muallimning mehrini hech bir algoritm qayta tiklay olmaydi. Shuning uchun “Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin” degan xalq naqli bejiz emas — har kim o'z kasbida insoniylikni asrab qolsa, kasblar qadri ham yo'qolmaydi.

Shubhasiz, zamon bilan hamnafas bo'lish bugungi kun talabi. Ammo sun'iy ongning cheksiz rivojlanishi inson salomatligi va tafakkuriga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, AI bilan ishlovchi mobil va kompyuter qurilmalari uzoq muddatda ko'z salomatligiga zarar yetkazadi. Ikkinchidan, sun'iy vositalardan ortiqcha foydalanish natijasida insonlarning fikrlash doirasi torayib borishi mumkin.

AI insonni butunlay almashtira olmaydi — u asosan takroriy, mexanik vazifalarni bajaradi. Ammo ijod, strategik fikrlash, axloqiy qaror qabul qilish kabi sohalarida inson o'zni beqiyosdir. Muammoni hal etish uchun eng avvalo, inson o'z kasbiy ko'nikmalarini yangilashi, texnologiyani boshqarishni, ma'lumot tahlilini, dizayn va psixologiya kabi yo'nalishlarni o'rganishi zarur.

Til va texnologiya chorrahasida

Sun'iy intellektning tez sur'atlarda rivojlanishi zamonaviy lingvistika faniga ham yangi yo'nalishlar olib kirdi. Endilikda tilshunoslik nafaqat inson nutqining tabiiy jarayonlarini, balki mashinalar tomonidan yaratilgan til tizimlarini ham o'rganmoqda. AI asosidagi avtomatik tarjima dasturlari, ovozli yordamchilar, matn tahlil vositalari — bularning barchasi kompyuter lingvistikasi, sun'iy til modellari va nutq texnologiyalari kabi yangi tarmoqlarning shakllanishiga sabab bo'ldi.

O'zbek tiliga so'nggi yillarda “kiberjinoyat”, “chatbot”, “algoritm”, “neyrotarmoq”, “onlayn tizim” kabi ko'plab yangi atamalar kirib keldi. Bu holat tilimizning lug'at boyligini oshirayotgan bo'lsa-da, milliy tilning tabiiy ohangi va me'yorlarini asrash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Lingvistika uchun eng muhim vazifalardan biri — yangi terminlarni to'g'ri, me'yoriy va milliy ruhga mos shaklda qo'llashdir. Zero, til xalq tafakkurining in'ikosidir, u sun'iy tizimlar tomonidan to'liq almashtirilishi mumkin emas.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, u insoniyatning o'ziga xos fazilatlarini almashtira olmaydi. Texnologiyadan oqilona foydalanish, uni inson manfaatiga yo'naltirish har bir fuqaroning burchidir.

Bu buyuk kashfiyotdan faqat ezgulik yo'lida foydalanish lozim, ammo “temir odam” kabi “qalbi temir” bo'lib qolmaslik ham muhim. Insonni mashinadan ajratib turuvchi asosiy xususiyat — ijodkorlik, empatiya, xatodan saboq olish va axloqiy fikrlashdir.

Til va texnologiya chorrahasida turgan bugungi jamiyatning vazifasi — AI imkoniyatlaridan foydalangan holda tilning pokligini, milliyligini va boyligini asrab qolishdir. Shundagina biz sun'iy intellektni raqib emas, balki hamkor sifatida qabul qilgan holda, insoniy qadriyatlar bilan uyg'un kelajak sari intila olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mo'yidinov, Q., & Ikramov, R. (2024). *Tilshunoslik asoslari*. Toshkent: 2024.
2. *The Guardian*. (2023, May 18). *AI could replace the equivalent of 300 million jobs – report*.
3. Qodirova, N. (2021). *Zamonaviy tilshunoslikda sun'iy intellektning o'rni*. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
4. Karimova, S. (2020). *Til va texnologiya: o'zbek tilida yangi terminlar tizimi*. *O'zbekiston filologiyasi jurnali*, №4, 87–94.
5. Boshbekov, Sh. (1993). *Temir xotin*. Toshkent: Sharq nashriyoti.

DEALEKT VA SHEVALARNING NUTQ MADANIYATIGA TA'SIRI

Ismatova Sarvinoz Ortiqboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
jismoilov618@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada dialekt va shevalarning nutq madaniyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Dialektlar va shevalar tilning hududiy o'ziga xos shakllari bo'lib, ular lug'at, grammatik tuzilma, intonatsiya va talaffuz jihatidan farqlanadi. Nutq madaniyati esa toza, ravon va mantiqan izchil so'zlashni ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dialekt va shevalar nutq madaniyatining shakllanishiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi: ular mintaqaviy til merosini saqlash va talaffuz rang-barangligini oshirishga yordam berishi bilan birga, ba'zi hollarda umumiy til normativlariga zid kelishi sababli kommunikatsiyada tushunmovchilikka olib kelishi mumkin. Maqolada pedagogik tavsiyalar va amaliy mashqlar orqali dialekt va shevalarni nutq madaniyati bilan uyg'unlashtirish usullari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: dialekt, sheva, nutq madaniyati, hududiy til, talaffuz, kommunikatsiya.

Аннотация

В данной статье анализируется влияние диалектов и говоров на культуру речи. Диалекты и говоры представляют собой территориальные формы языка, которые отличаются лексикой, грамматическим строем, интонацией и произношением. Культура речи выражается в чистой, плавной и логически последовательной речи. Исследования показывают, что диалекты и говоры оказывают двустороннее влияние на формирование культуры речи: с одной стороны, они способствуют сохранению регионального языкового наследия и обогащают произносительное разнообразие, с другой — могут вызывать недоразумения в коммуникации из-за несоответствия общим языковым нормам.

В статье также рассматриваются педагогические рекомендации и практические упражнения по гармонизации диалектов и говоров с культурой речи.

Ключевые слова: диалект, говор, культура речи, территориальный язык, произношение, коммуникация.

Annotation

This article analyzes the impact of dialects and vernaculars on speech culture. Dialects and vernaculars are region-specific forms of a language that differ in vocabulary, grammatical structure, intonation, and pronunciation. Speech culture, in turn, represents clear, fluent, and logically consistent communication. Research shows that dialects and vernaculars have a dual effect on the formation of speech culture: on the one hand, they help preserve regional linguistic heritage and enrich pronunciation diversity; on the other hand, they may sometimes contradict the general language norms, leading to misunderstandings in communication. The article also examines pedagogical recommendations and practical exercises aimed at harmonizing dialects and vernaculars with speech culture.

Keywords: dialect, vernacular, speech culture, regional language, pronunciation, communication.

Til — millatning asosiy belgisi, uning ma'naviyati va madaniyatini ifodalovchi ijtimoiy hodisadir. Har bir tilning boyligi va xilma-xilligi, avvalo, uning dialekt va shevalarida namoyon bo'ladi. Dialekt va shevalar xalqning tarixiy taraqqiyoti, urf-odatlar, qadriyatlar hamda ijtimoiy hayot tarzining bevosita ifodasi sifatida qaraladi. Shu bois, ularning o'rganilishi nafaqat lingvistik, balki madaniy, etnografik va sotsiologik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy tilning shakllanishi jarayonida dialekt va shevalar o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning nutq madaniyatiga bo'lgan ta'siri murakkab va ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan, adabiy tilni boyituvchi manba, ikkinchi tomondan esa adabiy me'yorlarga zid bo'luvchi hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

1. Dialekt va shevalarning ijobiy ta'siri. Dialekt va shevalar o'zbek tilining tabiiy boyligini ta'minlaydi. Ularning nutq madaniyatiga ijobiy ta'siri quyidagilarda ko'rinadi:

- *Tilning lug'aviy boyishini ta'minlash.* Shevalarda saqlanib qolgan qadimiy so'zlar, unutilayozgan iboralar adabiy til lug'atini boyitadi. Masalan, Farg'ona vodiysi shevalaridagi "zangori", "qumg'on" kabi so'zlar adabiy tilga o'zgacha rang bag'ishlaydi.

- *Badiiy nutqni obrazli qilish.* Shevalardan badiiy adabiyotda foydalanish qahramon nutqini jonli va tabiiy ko'rsatadi. A. Qahhor, O'. Hoshimov, Sh. Rashidov

kabi yozuvchilar o'z asarlarida sheva unsurlaridan xalqona ruh yaratishda samarali foydalanganlar.

- *Madaniy va tarixiy qadriyatlarni saqlash.* Dialekt va shevalarda xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlari ifodasini topadi. Ularni o'rganish madaniy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

- *Lingvistik tadqiqotlar uchun material.* Shevalar fonetika, morfologiya va semantika sohalarida ilmiy izlanishlar uchun muhim manba hisoblanadi [Rahmatullayev, 1990].

2. Dialekt va shevalarning salbiy ta'siri. Dialekt va shevalar nutq madaniyatiga faqat ijobiy emas, balki ayrim hollarda salbiy ta'sir ham ko'rsatadi.

- *Adabiy til me'yoridan chekinish.* Kundalik muloqotda shevaga xos so'z va shakllarning ortiqcha qo'llanishi adabiy nutqning izchilligi va aniqligiga putur yetkazadi. Masalan, "borvotti", "kelvotti" kabi shakllar rasmiy nutqda noo'rin hisoblanadi.

- *Muloqotdagi tushunmovchiliklar.* Shevaga xos ayrim so'zlar boshqa hudud vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Bu esa umumxalq muloqotida qiyinchilik tug'diradi.

- *Rasmiy va ilmiy nutqda noo'rinlik.* Hujjatlarda, ilmiy ishlar va rasmiy chiqishlarda sheva unsurlaridan foydalanish nutq madaniyati talablariga zid hisoblanadi.

- *Adabiy tilning nufuzi pasayishi.* Shevalarning adabiy til me'yorlariga qarama-qarshi qo'yilishi ba'zan yoshlar orasida adabiy tilning o'rnini zaiflashtirishi mumkin [Mahmudov, 2005].

3. Nutq madaniyati va dialektlarning o'zaro munosabati. Nutq madaniyati bilan dialektlarning munosabatini muvozanatda ko'rish lozim. Bir tomondan, shevalardan tilni boyitishda foydalanish kerak; ikkinchi tomondan, adabiy tilning ustuvorligini ta'minlash muhimdir. Bu masalada ta'lim, OAV va adabiy jarayon katta ahamiyat kasb etadi.

- Ta'lim tizimida o'quvchilarga adabiy til me'yorlarini o'rgatish bilan birga, shevalarning boy lug'atidan namunalar berish foydali bo'ladi.

- Ommaviy axborot vositalarida adabiy tilni ustuvor qilib qo'yish zarur, biroq ayrim badiiy dasturlarda sheva unsurlaridan tabiiylik uchun foydalanish mumkin.

- Badiiy adabiyotda shevalardan foydalanish qahramonlarning hududiy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi, ammo muallif nutqi doimo adabiy til me'yorlarida bo'lishi kerak.

Dialekt va shevalar tilning boyligi, tarixiy qatlamlarini saqlovchi muhim unsurlardir. Ularning nutq madaniyatiga ta'siri ikki tomonlama: bir tomondan, adabiy tilni boyitadi va tabiiylik beradi; ikkinchi tomondan esa me'yoriy nutqni buzishi mumkin. Shuning uchun dialekt va shevalardan oqilona foydalanish, ularni o'rganish va ilmiy asosda baholash muhimdir.

Professor A. Madvaliyev ta'kidlaganidek, "Adabiy tilning rivojlanishi shevalardan uzilmagan holda amalga oshadi, ammo uning me'yorlari shevalar ta'siridan himoyalaniishi lozim" [Madvaliyev, 2008: 54]. Demak, nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida shevalarning ijobiy jihatlaridan foydalanish bilan birga, ularning salbiy ta'sirini cheklash zarurdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dialektlar va shevalar nutq madaniyati rivojida muhim rol o'ynaydi. Ular tilning hududiy boyligini saqlash va talaffuz rang-barangligini oshirishga xizmat qilsa, ba'zi hollarda umumiy nutq madaniyati me'yorlariga zid kelishi mumkin. Shu bois, dialekt va shevalarni nutq madaniyati bilan uyg'unlashtirish pedagogik va metodik jihatdan muhimdir. Nutq madaniyatini shakllantirishda hududiy shevalarni e'tiborga olish, ularni to'g'ri kontekstda qo'llash va o'quv jarayonida integratsiyalash orqali muloqotning samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiev A. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Madvaliyev A. Nutq madaniyati va uslubiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1990.
5. Jo'rayev N. O'zbek shevalari va ularning o'rganilishi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2012.

PEDAGOGIK DISKURS EKSPERTIZASI: O'QUVCHI VA O'QITUVCHI NUTQINING LINGVISTIK JIHATDAN BAHOLANISHI

Ismonaliyeva O'g'loy O'ktamjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

usmonaliyvaogloy@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogik diskurs ekspertizasi, xususan, o'quvchi va o'qituvchi nutqining lingvistik jihatdan baholanishi masalalari yoritiladi. Nutqning lingvistik, pragmatik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinib, ta'lim jarayonida samarali kommunikatsiyani ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik diskurs, lingvistik ekspertiza, o'qituvchi nutqi, o'quvchi nutqi, kommunikativ kompetensiya.

ABSTRACT

This article examines pedagogical discourse expertise, focusing on the linguistic evaluation of student and teacher speech. It analyzes lexical, pragmatic, and stylistic features of speech and highlights their significance in ensuring effective communication in the educational process.

Keywords: pedagogical discourse, linguistic expertise, teacher's speech, student's speech, communicative competence.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается педагогическая дискурс-экспертиза, в частности, лингвистическая оценка речи учащегося и учителя. Анализируются лексические, прагматические и стилистические особенности речи, выявляется их роль в обеспечении эффективной коммуникации в образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогический дискурс, лингвистическая экспертиза, речь учителя, речь учащегося, коммуникативная компетенция.

KIRISH

Ta'lim jarayonida nutqiy muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi asosiy kommunikativ ko'prik hisoblanadi. O'qituvchi nutqi ta'limiy maqsadlarni yetkazuvchi, tartibga soluvchi va tarbiyaviy vazifalarni bajaruvchi vosita bo'lsa, o'quvchi nutqi bilimlarni o'zlashtirish, qayta ishlash va ifodalashning bevosita namunasidir. Shu bois pedagogik diskursning lingvistik ekspertizasi ta'lim samaradorligini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik diskurs nafaqat bilim uzatish vositasi, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiylashuv va interaktiv muloqot madaniyatini shakllantiruvchi muhitdir. O'qituvchi nutqining aniq, mantiqan izchil, psixologik jihatdan ta'sirchan bo'lishi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi. O'quvchi nutqining esa ifodali, grammatik jihatdan to'g'ri, mantiqan asoslangan bo'lishi uning bilimlarni qanchalik puxta o'zlashtirganini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

O'qituvchi nutqi ta'lim jarayonida asosiy o'rin tutadi va quyidagi jihatlar bo'yicha baholanadi:

Leksik jihat – ilmiy terminlarning to'g'ri, izchil va o'rinli qo'llanilishi. O'qituvchining keraksiz jargon yoki sheva elementlaridan foydalanishi ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin[1].

Sintaktik jihat – gap tuzilishining soddaligi, murakkab konstruksiyalardan samarali foydalanish. Mantiqiy izchillikning buzilishi o'quvchilarni chalg'itadi[2].

Stilistik jihat – ilmiy-ommabop uslubdan foydalanish, nutqni tinglovchiga moslashtirish. Masalan, yuqori sinf o'quvchilari bilan akademik uslub samarali bo'lsa, kichik sinflarda badiiy-uslubiy vositalar ko'proq ta'sir qiladi[3].

Pragmatik jihat – nutqning rag'batlantiruvchi, ta'sirchan va motivatsion bo'lishi. "Siz buni uddalaysiz" kabi rag'batlantiruvchi ifodalar pedagogik diskursni kuchaytiradi[4].

Demak, o'qituvchi nutqi nafaqat ma'lumot beruvchi, balki **tarbiyaviy, ruhiy qo'llab-quvvatlovchi va ijtimoiylashuvga yordam beruvchi vazifa**ni ham bajaradi.

O'quvchi nutqi bilimlarni qabul qilish va ularni qayta ifodalash jarayonida shakllanadi. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

Til boyligi – lug'at zahirasi kengligi, so'zlardan o'rinli foydalanish. Cheklangan lug'at zahirasi o'quvchining fikrni ifodalash imkoniyatini toraytiradi[5].

Grammatik to'g'rilik – nutqda fonetik, morfologik va sintaktik xatolarning kamligi[6].

Mantiqiy izchillik – fikrlarning aniq, tartibli va uzviy bog'langan bo'lishi. Masalan, dalil va xulosalarning bir-birini mantiqan to'ldirishi[7].

Kommunikativ kompetensiya – nutqni vaziyatga moslashtirish, suhbatdoshni inobatga olish, o'z fikrini erkin himoya qilish qobiliyati[8].

O'quvchilar nutqida ko'pincha “gapning bo'linishi”, keraksiz takrorlar yoki fonetik noaniqliklar uchraydi. Bunday holatlarni lingvistik ekspertiza aniqlab, pedagogik tavsiyalar ishlab chiqadi.

Ko'rsatkich	O'qituvchi nutqidan misol	O'quvchi nutqidan misol	Ekspertiza natijasi
Leksik jihat	“Bugungi mavzuda <i>sifatdosh</i> va <i>ravishdosh</i> shakllarini o'rganamiz.”	“Menimcha, bu so'z <i>qandaydir qo'shimcha</i> bilan tuzilgan...”	O'qituvchi ilmiy terminlardan foydalangan, o'quvchida esa termin yetishmovchiligi bor.
Sintaktik jihat	“Agar gapda kesim oxirida bo'lsa, u sodda gap hisoblanadi.”	“Gap... kesim... oxirida bo'lsa... sodda gap bo'ladi.”	O'qituvchida mantiqiy izchillik saqlangan, o'quvchi nutqida esa pauza va bo'linish bor.
Stilistik jihat	“Siz bu masalani a'lo darajada yechdingiz, tabriklayman!”	“Men buni qilganman, lekin hammasi to'g'rimi yoki yo'q, bilmadim.”	O'qituvchi nutqi rag'batlantiruvchi, o'quvchi nutqi ishonchsiz va noaniq.
Pragmatik jihat	“Sizning fikringiz juda muhim, endi boshqa o'quvchilar ham o'z mulohazasini aytsin.”	“Menimcha, bu javob to'g'ri emas, lekin boshqalar nima deydi?”	O'qituvchi nutqi muloqotni faollashtiradi, o'quvchi esa shubha bilan mulohaza bildiradi.
Kommunikativ vazifa	“Savolni qayta ko'rib chiqamiz va	“Savolni... qaytadan ayting,	O'qituvchi suhbatni boshqaradi, o'quvchi esa

	muhoqama qilamiz.”	men tushunmadim.”	muloqotda faol emas, yordam so‘raydi.
--	--------------------	-------------------	---------------------------------------

1-jadval. Pedagogik diskursda nutqiy misollar tahlili

Pedagogik diskurs ekspertizasi ikki yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Ilmiy ahamiyat – tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika fanlari kesishmasida o‘qituvchi va o‘quvchi nutqining lingvistik tabiatini ochib beradi[9].

Amaliy ahamiyat – ta’lim jarayonini takomillashtirish, nutq madaniyatini rivojlantirish, o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi[10].

Shuningdek, ekspertiza yordamida o‘qituvchining ortiqcha murakkab terminlardan foydalanishi yoki o‘quvchilarning mantiqsiz ifodalaridan kelib chiqadigan muammolar aniqlanadi va ular uchun yechimlar taklif qilinadi.

Pedagogik diskurs ekspertizasi o‘qituvchi va o‘quvchi nutqining lingvistik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. O‘qituvchi nutqi bilim manbai sifatida ta’lim samaradorligini belgilasa, o‘quvchi nutqi o‘zlashtirish jarayonining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Leksik, sintaktik, stilistik va pragmatik jihatlarni ekspertiza asosida o‘rganish ta’lim jarayonini takomillashtirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogik diskurs ekspertizasi ta’lim sifatini oshirishda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Hasanov B. Pedagogik muloqot nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.
- 2.Karimova Z. Nutq madaniyati va uslubiyat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
- 3.Qodirov M. Til va ta’lim: lingvodidaktik yondashuvlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
- 4.Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986.
- 5.Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
- 6.Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. – London: Edward Arnold, 1978.
- 7.O‘rinboyeva S. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
- 8.Bakhtin M.M. Speech Genres and Other Late Essays. – Austin: University of Texas Press, 1986.

9. Shoabdurahmonov Sh. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015.
10. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2014.
11. Azimov I., Ro'ziyev Z., Bobojonov F. O'zbek tilida lingvistik ekspertiza [Matn]: Uslubiy qo'llanma / I. Azimov, Z. Ro'ziyev, F. Bobojonov. - Toshkent. Bookmany print, 2023. - 48 b.
12. Turg'unpo'latov, D.R. Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi. "Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.
13. Turg'unpo'latov, D.R. Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq. "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.

TAHDID, SHANTAJ, TUHMAT YOKI FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ ANONIM XATLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Isroiljonova Jasmina Ilhomjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

jasminaisroiljonova.01@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada tahdid, shantaj, tuhmat va firibgarlik mazmunidagi anonim xatlarning lingvistik ekspertizasi masalalari yoritiladi. Anonim matnlarning lingvistik va stilistik xususiyatlarini aniqlash, ularning mualliflik ehtimolini baholash, kommunikativ maqsadini ochib berish hamda huquqiy jarayonlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan ilmiy yondashuvlar asoslanadi. Shuningdek, kriminalligvistik tahlilning metodlari va amaliy misollari ham keltiriladi.

Kalit so'zlar: anonim xat, lingvistik ekspertiza, tahdid, shantaj, tuhmat, firibgarlik, kriminalligvistika, mualliflik identifikatsiyasi

ABSTRACT

The article explores linguistic expertise of anonymous letters containing threats, blackmail, defamation, and fraud. It highlights the linguistic and stylistic features of such texts, methods of assessing possible authorship, identifying communicative intentions, and applying forensic linguistic findings in legal proceedings. Furthermore, methodologies and practical examples of criminal-linguistic analysis are provided.

Keywords: anonymous letter, linguistic expertise, threat, blackmail, defamation, fraud, forensic linguistics, authorship identification

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы лингвистической экспертизы анонимных писем с содержанием угроз, шантажа, клеветы и мошенничества. Освещаются лингвистические и стилистические особенности анонимных текстов, методы оценки вероятности авторства, выявление коммуникативной

цели, а также возможности применения результатов экспертизы в правовой практике. Приводятся примеры и методы криминалистического анализа.

Ключевые слова: анонимное письмо, лингвистическая экспертиза, угроза, шантаж, клевета, мошенничество, криминалистика, идентификация авторства.

Hozirgi globallashuv davrida axborot almashinuvi jarayoni tezlashib, jamiyat hayotida yozma muloqotning turli shakllari keng tarqalmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan bir qatorda, noqonuniy va salbiy maqsadlarga yo'naltirilgan matnlar ham ko'paymoqda. Xususan, tahdid, shantaj, tuhmat yoki firibgarlik mazmunidagi anonim xatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida tez-tez uchrab turadigan hodisalardan biridir. Bunday matnlar shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazishi, ijtimoiy muhitda salbiy oqibatlarga olib kelishi, hattoki huquqiy jarayonlarni murakkablashtirishi mumkin.

Anonim xatlarning asosiy xususiyati ularning muallifi yashirin qolishga intilishidir. Bu esa matnni tahlil qilish va uning kelib chiqishini aniqlashni murakkablashtiradi. Shuning uchun ham lingvistik ekspertiza bunday holatlarda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida maydonga chiqadi. Ekspertiza orqali nafaqat matnning mazmuniy tomoni, balki uning til vositalari, uslubiy xususiyatlari, nutqiy odatlari va kommunikativ strategiyalari aniqlanadi. Bu jarayon, o'z navbatida, muallifning shaxsiyati haqida ma'lum darajada tasavvur beradi.

Tahdid yoki shantaj mazmunidagi anonim xatlar ko'pincha **psixologik bosim o'tkazish, moddiy manfaat orttirish yoki ijtimoiy obro'ni tushirish** maqsadida yoziladi. Tuhmat va firibgarlikka oid matnlar esa **shaxsga qarshi asossiz ayblovlarni ilgari surish yoki aldatchilik yo'li bilan foyda olishga** qaratilgan bo'ladi. Har ikki holatda ham matnning lingvistik tahlili muallif niyatini anglash va uning huquqiy jihatdan bahosini berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, anonim xatlarning lingvistik ekspertizasi kriminalligvistikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U orqali nafaqat matn muallifining ehtimoliy doirasi aniqlanadi, balki matnda yashirin ma'no, manipulyativ til birliklari va stilistik belgilar ham fosh qilinadi. Shu sababli mazkur mavzu adabiyotshunoslik, tilshunoslik, psixologiya va huquqshunoslik fanlari kesishgan nuqtada tadqiq etilishi zarurdir.

Anonim xatlarning lingvistik ekspertizasi ko'plab ilmiy yondashuvlar bilan boyitilgan bo'lib, ularning markazida matnni tizimli tahlil qilish masalasi turadi. Bunday matnlar odatda o'ziga xos stilistik belgilar, leksik-semantik xususiyatlar va muallifning nutqiy odatlarini aks ettiradi[1]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, har qanday yozma ifoda, hatto muallif yashirinishga uringan holatda ham, o'z egasining individual til xususiyatlarini yashira olmaydi.

Tahdid va shantajga oid xatlarni ekspertiza qilishda asosiy e'tibor muallifning kommunikativ maqsadini ochishga qaratiladi. Masalan, bunday matnlar ko'pincha adresatni qo'rqitish, unga bosim o'tkazish yoki ma'lum bir xatti-harakatni amalga oshirishga majburlashga qaratilgan bo'ladi[2]. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, anonim matnlar nafaqat til vositalari, balki muallifning psixologik kayfiyati va dunyoqarashini ham bevosita ifodalaydi.

Tuhmat mazmunidagi xatlarda esa asosiy diqqat markazi shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga daxl qiluvchi ifodalar tahliliga qaratiladi. Lingvistik ekspertiza yordamida bu kabi matnlarning semantik qatlamida yashiringan bo'hton unsurlarini aniqlash, ularning grammatik shakllanish jarayonini o'rganish va kommunikativ kuchini baholash mumkin[3]. Tuhmat matnlari ko'pincha emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lib, muallifning qarama-qarshi munosabatini kuchli tarzda namoyon etadi.

Ano nim matn turi	Asosiy lingvistik belgilar	Kriminall igvistik tahlil yo'nalishi	Huquqiy ahamiyati	Shaxsiy mulohaza
Tah didli xatlar	Qattiq ohangli so'zlar ("yo'q qilaman", "jazoingni olasan"), shaxsiy hayotga daxldor iboralar	Leksik-semantik tahlil, nutqiy agressiyani aniqlash	Jinoyat ishini qo'zg'atishda asosiy dalil	Bunday xatlar muallifining hissiy portreti ko'pincha keskinlik va agressiya bilan ajralib turadi.
Shan tajli xatlar	Sirlarni oshkor qilish bilan bog'liq jumlar, moddiy manfaatni ko'zlovchi talablar	Sintaktik va pragmatik tahlil, manipulyativ nutqni fosh etish	Shaxs sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishda muhim	Shantaj matnlarida ko'pincha "dalillar" so'zi manipulyativ vosita sifatida ishlatiladi.

Tuhmatli xatlar	Asossiz ayblovlar, salbiy baholovchi sifatlar (“firibgar”, “xoin”)	Semantik qatlam tahlili, emotsional bo‘yoqdorlikni o‘lchash	Sha’ni va obro‘sini himoya qilish jarayonida daliliy ahamiyatga ega	Tuhmat xatlarida kuchli hissiy yuklama mavjud bo‘lib, u muallifning subyektiv qarashlarini ko‘rsatadi.
Firibgarlik xatlari	Va’da beruvchi, lekin yolg‘on ma’lumotli jumlar (“siz yutdingiz”, “pul jo‘nating”)	Pragmatik tahlil, yolg‘on ma’lumotni ajratib ko‘rsatish	Iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha tergovda qo‘llanadi	Bu turdagi xatlar oddiy til vositalari ortiga yashiringan murakkab niyatni aks ettiradi.

1-jadval. Anonim xatlar tipologiyasi va ularning lingvistik ekspertizasi

Firibgarlikka oid xatlarda esa muallif manipulyativ til birliklari orqali o‘quvchini aldanchilikka undashga intiladi. Bunday matnlarning lingvistik ekspertizasi ularning pragmatik maqsadini ochib berish, til vositalaridan foydalanishdagi mantiqsizliklarni aniqlash hamda matndagi yashirin niyatni yuzaga chiqarishga qaratiladi[4]. Yana e’tiborga olsih kerakki, firibgarlik xatlari ko‘pincha “oddiylik” pardasi ostida murakkab til o‘yinlarini yashiradi.

Anonim matnlarni ekspertiza qilishda qo‘llaniladigan metodlar turlicha bo‘lib, ular orasida leksik-semantik tahlil, stilistik differensiatsiya, sintaktik tuzilmalarning qiyosiy o‘rganilishi va mualliflik identifikatsiyasi muhim o‘rin tutadi[5]. Bu usullarni birgalikda qo‘llash natijasida matnning lingvistik “portreti” yaratiladi. Fikrimizcha, matnning individual belgilarini aniqlashda bir metodning o‘zi yetarli bo‘lmay, ko‘p yo‘nalishli yondashuv samarali natija beradi.

Shuningdek, anonim xatlarning lingvistik ekspertizasi faqatgina huquqiy jarayonlarda emas, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatida ham katta ahamiyat kasb etadi[6]. Bu esa, bir tomondan, tilshunoslik fanining amaliy qirralarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, jamiyat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday tadqiqotlar kelajakda kriminalligvistikani ilmiy yo‘nalish sifatida yanada mustahkamlab beradi.

Anonim xatlar mazmunida tahdid, shantaj, tuhmat yoki firibgarlik unsurlarining mavjudligi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy xavf tug'diradi. Shunday matnlarni e'tiborsiz qoldirish oqibatida inson sha'ni va qadr-qimmatiga, hattoki moliyaviy xavfsizlikka ham jiddiy zarar yetishi mumkin. Lingvistik ekspertiza ana shunday yozuvlarning yashirin "niyati"ni ochib berib, ularning huquqiy oqibatlarini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Solihov, A. Tilshunoslik va kriminalistika: lingvistik ekspertizaning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
- 2.Karimova, D. Anonim matnlarning lingvistik tahlili: nazariya va amaliyot. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
- 3.Abdullayev, H. Tuhmat va haqorat ifodalarining lingvistik xususiyatlari. – Buxoro: BuxDU, 2019.
- 4.Yakubov, R. Kriminalligvistika: huquqiy jarayonda matn tahlili. – Toshkent: Adolat, 2021.
- 5.Coulthard, M. & Johnson, A. An Introduction to Forensic Linguistics. – London: Routledge, 2007.
- 6.Olsson, J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language, Crime and the Law. – London: Continuum, 2008.
- 7.Azimov I., Ro'ziyev Z., Bobojonov F. O'zbek tilida lingvistik ekspertiza [Matn]: Uslubiy qo'llanma / I.Azimov, Z.Ro'ziyev, F.Bobojonov.- Toshkent. Bookmany print, 2023. - 48 b.
- 8.Turg'unpo'latov, D. "Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq". "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.
- 9.Turg'unpo'latov, D. "Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi". "Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.

ANONIM VA TAXALLUS OSTIDA YARATILGAN ASARLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Jo'rayeva Muhabbat Jamshid qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

jorayevamuxabbat1@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada anonim va taxallus ostida yaratilgan asarlarning lingvistik ekspertizasi masalalari ko'rib chiqiladi. Matn muallifligini aniqlashda qo'llaniladigan lingvistik usullar, stilometrik tahlil va badiiy uslub xususiyatlarini ekspert baholash jarayonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik ekspertiza, anonim matn, taxallus, mualliflikni aniqlash, stilometrik tahlil, badiiy uslub.

ABSTRACT

This article examines the issues of linguistic expertise of works created anonymously or under a pseudonym. It highlights the methods of authorship identification, the application of stylometric analysis, and expert evaluation of literary and stylistic features.

Keywords: linguistic expertise, anonymous text, pseudonym, authorship identification, stylometric analysis, literary style.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы лингвистической экспертизы произведений, созданных анонимно или под псевдонимом. Раскрываются методы установления авторства, применение стилметрического анализа и экспертная оценка художественно-стилистических особенностей текста.

Ключевые слова: лингвистическая экспертиза, анонимный текст, псевдоним, установление авторства, стилметрический анализ, художественный стиль.

Insoniyat tarixida anonimlik va taxallus ostida ijod qilish qadimdan mavjud bo'lgan hodisa bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Adabiyotda, publitsistikada yoki siyosiy jarayonlarda muallifning shaxsini yashirish turli sabablarga ko'ra yuz bergan. Ba'zan ijodkorlar **o'z hayotini siyosiy bosimdan asrash** uchun anonimlikka murojaat qilgan bo'lsa, ba'zan esa **ijodiy erkinlikni ta'minlash, o'zini turli janr va uslublarda sinab ko'rish yoki jamoatchilikdagi qabul qilinishini sinovdan o'tkazish** maqsad qilingan.

Zamonaviy globallashtirish davrida internet va ijtimoiy tarmoqlar bunday jarayonlarni yanada tezlashtirdi. Endilikda istalgan foydalanuvchi anonim ravishda yoki taxallus ostida matn yaratib, uni keng auditoriyaga taqdim etishi mumkin. Bunday holat esa lingvistik ekspertiza fani oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Avvalgi davrlarda asosan badiiy asarlar misolida olib borilgan mualliflikni aniqlash bugun keng qamrovli tus olib, blog postlari, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar, onlayn maqolalar va boshqa kommunikativ matnlarni ham qamrab olmoqda.

Anonim va taxallusli matnlarning muallifini aniqlashda lingvistik ekspertiza ko'plab usullardan foydalanadi. Ularga stilometrik tahlil, sintaktik tuzilmalarning o'ziga xosligi, leksik-semantik tanlovdagi barqarorlik, so'z birikmalari va frazeologizmlardan foydalanish darajasi kiradi. Har bir ijodkorning nutqiy va uslubiy belgilar majmuasi o'ziga xos bo'lgani uchun matnning lingvistik tahlili orqali muallif shaxsi haqida ilmiy asoslangan xulosa berish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, anonim va taxallus ostida yaratilgan asarlarning lingvistik ekspertizasi nafaqat adabiyotshunoslik va sud-tilshunoslik uchun, balki zamonaviy kommunikatsiya madaniyatini shakllantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda ijtimoiy munosabatlarda xolis baholashni yo'lga qo'yishda ham dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Anonim va taxallus ostida yaratilgan asarlar qadimdan mavjud bo'lib, ular ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ijodiy jarayonlarda muhim rol o'ynagan. Anonimlik muallif shaxsini yashirish orqali asarning mazmuniga e'tiborni qaratadi, taxallus esa muallifga o'zini turli nomlar ostida sinab ko'rish imkonini beradi. Lingvistik ekspertiza nuqtai nazaridan, bunday asarlarning tahlili muallifning til va uslub xususiyatlarini aniqlashni taqozo etadi[1].

Anonim va taxallusli matnlarni baholashda lingvistik ekspertiza quyidagi vazifalarni bajaradi:

mualliflikni aniqlash uchun lingvistik belgilarni izlash;

matnning leksik, sintaktik va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish;

matnshunoslik mezonlari asosida badiiy va publitsistik jihatlarni baholash;

stilometrik ko'rsatkichlar asosida matnni boshqa asarlar bilan qiyoslash[2].

Matnshunoslikda mualliflik masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Lingvistik ekspertiza jarayonida matnning sintaktik tuzilishi, frazeologizmlar qo'llanishi, so'z tanlashdagi barqarorlik kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, stilometrik tahlil matnni kompyuter dasturlari yordamida qayta ishlash imkonini beradi. U orqali matnning so'z chastotasi, jumla uzunligi, fonetik va morfologik belgilar kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi[3].

Anonim matnlarning lingvistik ekspertizasi sud amaliyotida keng qo'llaniladi. Masalan, tahdid, shantaj, tuhmat yoki firibgarlik bilan bog'liq anonim xatlar va onlayn xabarlar muallifini aniqlash uchun lingvistik usullar qo'llanadi. Bu jarayonda ekspertlar shaxsning til odatlarini, uslubiy xususiyatlarini va matndagi lingvistik izlarni o'rganadi. Shunday qilib, lingvistik ekspertiza huquqiy jarayonlarda ishonchli dalil sifatida xizmat qilishi mumkin[4].

Tahlil yo'nalishi	Lingvistik usul	Amaliy qo'llanish misoli
Leksik tahlil	So'z chastotasi, sinonim va antonimlardan foydalanish, dialektizmlar aniqlash	Bir taxallus ostidagi shoir boshqa nom bilan yozganda ham o'ziga xos so'z tanlovini takrorlaydi.
Sintaktik tahlil	Jumla uzunligi, so'z tartibi, bog'lovchilardan foydalanish	Anonim maqoladagi murakkab jumlar muallifning boshqa asarlarida ham kuzatiladi.
Stilistik tahlil	Badiiy tasvir vositalari (epitet, metafora, takror)	She'rlarda bir xil metafora va tashbehtar taxallusni fosh etadi.
Grafik-orfografik belgilar	Imlo, tinish belgilaridan foydalanish, so'z qisqartmalari	Muallif doim vergul o'rniga tire qo'llashi orqali aniqlanadi.
Fonetik va morfologik belgilar	Talaffuz yozuvdagi izlari, affikslar qo'llanishi	Anonim matnda doimiy "-kina", "-gina" qo'shimchalari qo'llangan — bu muallif uslubiga xos.

1-jadval. Anonim va taxallus ostida yaratilgan matnlarning lingvistik ko'rsatkichlari

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va internet anonim yoki taxallus ostida matn yaratish imkonini yanada kengaytirdi. Bu esa lingvistik ekspertiza uchun yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bir tomondan, anonimlik ijodiy erkinlikni oshiradi, boshqa tomondan esa u yolg'on axborot tarqatish, soxta identifikatsiya va ijtimoiy manipulyatsiyalar uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli lingvistik ekspertiza nafaqat ilmiy, balki axborot xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi[5].

Bugungi raqamli davrda anonimlikning imkoniyatlari menga ikki qirrali qilichni eslatadi. Bir tomondan, inson erkin fikrini yashirin tarzda ifodalash, jamiyatdagi turli cheklovlardan holi ijod qilish imkoniga ega bo'ladi. Biroq, boshqa tomondan, bu erkinlik ko'pincha manipulyatsiya, yolg'on yoki salbiy maqsadlarda ham qo'llanadi. Bizningcha, lingvistik ekspertiza ana shu ikki qutb o'rtasidagi muvozanatni topishga yordam beradi: u erkin ijodga yo'l qo'ygan holda, jamiyatni yolg'on va zararli axborotdan himoya qiluvchi vositaga aylanadi.

Anonim va taxallusli asarlarning lingvistik ekspertizasi adabiyotshunoslikda ham katta ahamiyatga ega. Ayrim yozuvchilar bir nechta taxallus ostida ijod qilgan bo'lib, ularning asarlarini qiyosiy-lingvistik jihatdan o'rganish mualliflik masalasini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, anonim asarlarni o'rganish orqali ma'lum davrning ijtimoiy-siyosiy muhitini, badiiy uslub taraqqiyotini ham tahlil qilish mumkin[6].

Anonim va taxallus ostida yozilgan asarlarning adabiyotshunoslikdagi tahlili nafaqat muallif shaxsini aniqlashga, balki o'sha davrning ma'naviy-ma'rifiy manzarasini tushunishga xizmat qiladi, deb o'ylayman. Bizningcha, taxallus — bu ijodkorning o'z ovozi turlicha talqin qilishga bo'lgan urinishidir. U bir nom ostida o'zining badiiy uslubini yashirsa-da, baribir so'z tanlovi, ohangdorlik va uslubiy izlar orqali o'zini fosh etadi. Demak, lingvistik ekspertiza — bu aslida ijodkorning qalbidagi yashirin tovushlarni eshitishga urinadigan sezgir jarayon.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, B. Lingvistik ekspertiza nazariyasi. Toshkent: Fan, 2019.
2. Saidova, N. Tilshunoslik va sud amaliyoti. Toshkent: Adolat, 2020.
3. Johnson, M. Stylometry and Authorship Attribution. Oxford: Oxford University Press, 2018.
4. Ismoilov, A. Sud lingvistikasi va ekspertiza amaliyoti. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.

5. Coulthard, M., & Johnson, A. An Introduction to Forensic Linguistics. London: Routledge, 2017.
6. Qodirova, D. Adabiyotshunoslikda mualliflik masalalari. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022.
7. Turg'unpo'latov, D. "Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq". "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.
8. Turg'unpo'latov, D. "Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi". "Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.

O'ZBEK TILIDA O'ZLASHMA QATLAM

Jumanazarova Madina Alisher qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Jumanazarovaamadina777@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi o'zlashma qatlamning shakllanish jarayoni, asosiy manbalari va til taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilingan. Xususan, arab, fors-tojik, rus va ingliz tillaridan o'zlashgan so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning bugungi kundagi qo'llanish holatlari namunalar bilan yoritilgan. Shuningdek, o'zlashma so'zlarning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy til sof-ligini asrash muammolari ham muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: o'zlashma qatlam, arabcha so'zlar, fors-tojikcha so'zlar, ruscha so'zlar, inglizcha so'zlar, leksikologiya, globallashuv, til taraqqiyoti.

Abstract:

This article analyzes the process of formation of the borrowed lexical layer in the Uzbek language, its main sources, and its role in language development. In particular, it highlights the lexical and semantic features of words borrowed from Arabic, Persian-Tajik, Russian, and English, as well as their usage in modern times, supported with examples. Moreover, the positive and negative aspects of borrowed words and the issues of preserving the purity of the national language are also discussed.

Keywords: borrowed layer, Arabic words, Persian-Tajik words, Russian words, English words, lexicology, globalization, language development.

Аннотация:

В данной статье анализируется процесс формирования заимствованного слоя в узбекском языке, его основные источники и роль в развитии языка. В частности, рассматриваются лексико-семантические особенности слов, заимствованных из арабского, персидско-таджикского, русского и английского языков, а также их современное употребление с приведением примеров. Кроме

того, обсуждаются положительные и отрицательные стороны заимствованных слов и проблемы сохранения чистоты национального языка.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, boy tarixiy taraqqiyot jarayonini bosib o'tgan. Ushbu jarayonda tilimiz boshqa xalqlar va tillar bilan aloqalar qilgan, natijada lug'at tarkibiga ko'plab so'zlar o'zlashgan. O'zlashma qatlam masalasi tilshunoslikda doimo dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Chunki o'zlashmalar tilning lug'at boyligini kengaytiradi, lekin shu bilan bir qatorda tilning sof holda saqlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zlashmalar — bu bir tildan ikkinchi tilga tarixiy, madaniy, diniy, siyosiy yoki ilmiy aloqalar natijasida o'tib, qabul qiluvchi til tizimiga fonetik, morfologik va semantik jihatdan moslashgan hamda uning faol lug'at tarkibida mustahkam o'rin olgan so'zlardir. Ular nafaqat shakl va talaffuzda, hamda ma'no jihatidan ham o'zgarishga uchrashi mumkin. Har bir o'zlashma so'z milliy til tarixida xalqaro madaniy-ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning izini ifodalaydi. Til taraqqiyoti uchun o'zlashmalar tabiiy hodisa bo'lib, ular milliy tilning leksik boyligini kengaytiradi, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi va xalqning ilmiy, texnikaviy hamda madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Arabcha so'zlar asosan islom dini tarqalishi bilan bog'liq holda o'zbek tiliga kirib kelgan. VIII–IX asrlardan boshlab O'rta Osiyoga islom dini kirib kelishi bilan birga arab yozuvi ham joriy qilindi. Shu bilan bir birga arab tiliga oid diniy va ilmiy terminlar o'zbek tiliga singib bordi.

Arabcha o'zlashmalar, avvalo, islom dini, Qur'on va hadis ilmi bilan bog'liq sohalarda keng tarqaldi. Masalan, ilm, adab, ma'naviyat, qalam, maktab, madrasa, vaqt, sabab, hayot, kitob, qoida kabi so'zlar arab tilidan kirib, hozirgi kunda ham faol qo'llanmoqda. Bu so'zlarning aksariyati diniy tushunchalarni ifodalash bilan birga dunyoviy hayotda ham mustahkam o'rinish qolgan.

Masalan, “ilm” so'zi dastlab diniy bilimlar – Qur'on, tafsir, hadis, ilmlarini anglatgan bo'lsa, keyinchalik u umumiy bilim, fan, dunyoviy ta'lim-tarbiya mazmunida ham ishlatila boshlagan. Bugungi kunda “ilm” tushunchasi o'zbek tilida ham diniy, ham dunyoviy fanlarni ifodalashda asosiy termin bo'lmoqda.

Shuningdek, maktab va madrasa kabi so'zlar ham dastlab diniy-ma'rifiy ta'lim muassasalari nomi sifatida qo'llanilgan. Biroq keyinchalik “maktab” umumxalq ta'limini bildiruvchi so'zga aylangan. Ma'naviyat, adab, kitob kabi so'zlar esa nafaqat diniy, balki madaniy-ma'rifiy hayotning ham asosiy tushunchalaridan biridir.

O'zbek tili tarixida fors-tojik tilidan kirib kelgan o'zlashmalar alohida o'rin tutadi. Chunki o'zbek va tojik xalqlari asrlar davomida yonma-yon yashab kelgan, savdo-sotiq, madaniyat va adabiyot sohasida uzviy aloqada bo'lgan. Ayniqsa, IX–XIV asrlarda fors-tojik adabiyoti va madaniyatining taraqqiyoti natijasida bu til orqali ko'plab yangi so'zlar o'zbek tiliga kirib, mustahkam o'rnatilib qolgan.

Fors-tojikcha o'zlashmalar asosan maishiy hayot, madaniyat, san'at, adabiyot, tabiat, ijtimoiy-siyosiy tushunchalar bilan bog'liq. Ularning katta qismi bugungi kunda ham faol qo'llanmoqda.

Masalan: sabzi ko'kat, anor, anjir, gilos, qand shakar, shirin shakarli, mazali,

Non asosiy taom, oyna ko'zgu, parda. Tabiat va vaqt nomlari bahor, yoz, kuz, qish, sahro, daryo, saboh, shom oqshom, oy osmon jismlari.

Ijtimoiy-siyosiy va madaniy tushunchalar podsho, amir, saroy, taxt, toj, adab, she'r, g'azal, bayt, san'at. mehr, sadoqat, vafo, baxil. oshno, yor. Kundalik turmush va kiyim-kechak nomlari doppi, to'n, shalvar, kamzul, hilol, gilam, namat, ko'rpa.

XX asrda o'zbek xalqi rus xalqi bilan yaqin aloqada bo'lganligi sababli rus tilidan ko'plab so'zlar o'zlashgan. Masalan: stol, ruchka, zavod, gazeta, pasport, poyezd, telefon kabi. Bugungi kunda ham "ruchka" so'zi "qalam" so'zining sinonimi sifatida ishlatilmoqda. Globallashuv jarayonida ingliztili orqali yangi tushunchalar tezda kirib kelmoqda. Masalan: internet, kompyuter, fayl, printer, biznes, marketing, bloger, sayt, onlayn kabilar.

O'zlashmalarning ijobiy tomonlari: Til lug'at boyligini kengaytiradi. Ilm-fan, texnika va madaniyat taraqqiyotini yengillashtiradi. O'zlashma so'zlar til taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Avvalo, ular o'zbek tilining lug'at boyligini kengaytirib, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi. Shu orqali fan, texnika, siyosat va madaniyat sohalaridagi yangiliklar tezda tilga kiradi. O'zlashmalar xalqaro aloqalarni mustahkamlaydi, chunki ular ko'plab tillarda umumiy bo'lib, muloqotni osonlashtiradi. Bundan tashqari, ular til uslubini rang-barang qiladi, sinonimik qatorlarni kengaytiradi va nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Alisher Navoiy o'z davrida arabcha va forsha o'zlashmalarni faol qo'llagan. Uning nazarida, bunday so'zlar ilm-fan va adabiyot tilini boyitib, yangi tushunchalarni ifodalashda yordam beradi. Abdulla Qodiriy ham o'zlashmalarning adabiy tilni boyituvchi va rivojlantiruvchi omil ekanligini ta'kidlagan. Oybek esa jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan yangi tushunchalarni ifodalashda o'zlashmalar muhim o'rin tutishini qayd etib, ularni me'yorida qo'llash tarafdori bo'lgan. G'afur G'ulom ham o'zlashmalarni xalq tilining boyish manbai sifatida ko'rgan, biroq ularni ortiqcha ishlatish ona tilining tabiiy go'zalligiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligini alohida

ta'kidlagan. Tilshunos olim Sh. Rahmatullayev esa o'zlashmalarni til taraqqiyotining tabiiy jarayoni sifatida baholab, ularni tarixiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning mahsuli deb hisoblagan.

O'zlashmalarning salbiy tomonlari: O'zlashma so'zlarning haddan tashqari ko'pligi tilning sof qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan ular mavjud o'zbekcha so'zlarni siqib chiqaradi, natijada milliy lug'at boyligi unutilib borishi mumkin. O'zlashmalar ko'p ishlatilsa, nutqda keraksiz ortiqchalik va ma'no chalkashliklari paydo bo'ladi. Shuningdek, ortiqcha o'zlashmalar adabiy til me'yorlariga putur yetkazib, talaffuz va yozuvda qiyinchilik tug'dirishi ham mumkin.

Jadid adabiyoti vakillari milliy tilning sofligini saqlashga alohida e'tibor bergan. Cho'lpon ortiqcha arabcha, forsha va ruscha o'zlashmalar xalq uchun tushunarsizligini ta'kidlab, adabiy tilni sodda va xalq tiliga yaqin bo'lishini istagan. Fitrat ham zarur o'zlashmalarni foydali deb bilgan, biroq ularning haddan tashqari ko'pligi milliy ruhni susaytirishini tanqid qilgan. Shunday qilib, jadidchilar orasida Cho'lpon va Fitrat o'zlashmalarga ehtiyotkorona, salbiyroq qaragan adiblardir.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi o'zlashma qatlam asrlar davomida shakllangan va tilimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Biroq globallashuv davrida o'zlashmalardan oqilona foydalanish, ona tilidagi muqobil so'zlarni targ'ib qilish va til sofligini asrash har bir tilshunos va ziyolining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Rasulov R. O'zbek tili nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Toxliev B., Abdurahmonov X. O'zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2015.
3. Jo'rayev M. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Safarov A. O'zbek tilida o'zlashma so'zlarning semantik ishlatilishi va ularning ahamiyati. – Toshkent: Ilm, 2021.
5. Normurodov O. Globallashuv sharoitida o'zbek tili taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2022.
6. Usmonov M. Hozirgi o'zbek tilida yangi leksik qatlamlar. – Toshkent: Akademnashr, 2023.
7. Hojimatov S. Tilshunoslik va zamonaviy til o'zgarishlari. – Samarqand: SamDU, 2024

TA'SIR SAN'ATI VA TIL QUDRATI: AGITATSION NUTQNI LINGVISTIK EKSPERTIZA NUQTAYI NAZARIDAN TAHLIL QILISH

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Jumayeva Muazzam Abduhamid qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

muazzamjumayeva80@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada agitatsion nutqning lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan tahlili yoritilgan. Unda ishontiruvchi nutqning leksik, sintaktik, pragmatik va uslubiy jihatlari tahlil qilinib, tilning ijtimoiy ong va jamoaviy xulqqa ta'sir ko'rsatishdagi roli ochib berilgan. Agitatsion diskursda hissiy leksika, takror, metafora, baholovchi ifodalar, presuppozitsiya kabi til vositalarining manipulyativ va ishontiruvchi funksiyasi izohlangan.

Kalit so'zlar: agitatsion nutq, lingvistik ekspertiza, ishontirish strategiyasi, pragmatika, manipulyatsiya, ritorika, nutq tahlili.

Аннотация

В статье рассматривается анализ агитационной речи с точки зрения лингвистической экспертизы. Исследуются лексические, синтаксические, прагматические и стилистические особенности убедительного дискурса, а также роль языка в формировании общественного сознания и коллективного поведения. Особое внимание уделяется таким речевым средствам, как эмоциональная лексика, повтор, метафора, оценочные выражения и пресуппозиции, обеспечивающим манипулятивное и убеждающее воздействие.

Ключевые слова: агитационная речь, лингвистическая экспертиза, стратегия убеждения, прагматика, манипуляция, ritorika, анализ речи.

Abstract

This article analyzes agitational speech from the perspective of linguistic expertise. It explores the lexical, syntactic, pragmatic, and stylistic features of persuasive discourse and examines how language functions as a means of influencing

public consciousness and collective behavior. The study highlights the manipulative and persuasive roles of linguistic devices such as emotional vocabulary, repetition, metaphor, evaluative expressions, and presuppositions.

Keywords: agitational speech, linguistic expertise, persuasive strategy, pragmatics, manipulation, rhetoric, discourse analysis.

Zamonaviy global aloqa va raqamli media davrida til insoniyatga ta'sir o'tkazish va ishontirishning eng qudratli vositalaridan biriga aylandi. **Agitatsion nutq** — bu ishontiruvchi nutqning o'ziga xos shakli bo'lib, u nafaqat ma'lumot berish, balki auditoriyani ma'lum mafkuraviy, siyosiy yoki ijtimoiy maqsad sari ruhlantirish, safarbar etish va hissiy jihatdan jalb etishga qaratilgan. Bunday nutq tinglovchilarning his-tuyg'ulari, e'tiqodlari hamda jamoaviy o'zligini uyg'otishga xizmat qiluvchi lingvistik, ritorik va pragmatik vositalardan maqsadli foydalanish bilan ajralib turadi. Shu sababli agitatsion diskursni o'rganish amaliy tilshunoslik, sotsiolingvistika va diskurs tahlilida muhim o'rin egallaydi.

Tilshunoslik ekspertizasi agitatsiya va ishontirish qanday til vositalari orqali ifodalanishini aniqlash hamda talqin etishda muhim rol o'ynaydi. Siyosiy kampaniyalar, ijtimoiy harakatlar va ommaviy axborot vositalaridagi muloqotlarda agitatsion nutq ko'pincha takror, hissiy so'z boyligi, metaforik ifodalar, baholovchi leksika va yashirin manipulyativ usullardan foydalanadi. Bularning barchasi auditoriyada ma'lum kognitiv va hissiy ta'sir uyg'otishga xizmat qiladi. Tilshunos ekspertning vazifasi — ushbu strategiyalar qanday ishlashini tahlil qilish va ularning mo'ljallangan auditoriyaga ta'sir darajasini baholashdir. Bu yondashuv lingvistik nazariyani amaliy tahlil bilan bog'laydi hamda tilning ijtimoiy ta'sir vositasi sifatidagi rolini ob'yektiv baholash imkonini beradi.

Shuningdek, agitatsion nutqni lingvistik ekspertiza nuqtai nazaridan o'rganish faqat lingvistik tavsif bilan cheklanmaydi. U semantik nozikliklar, pragmatik niyatlar, uslubiy tanlovlar va diskursning yaxlitligini o'z ichiga olgan ko'p qirrali tahlilni talab etadi. Bugungi kunda siyosiy va media xabarlar raqamli platformalar orqali tez tarqalayotgan bir paytda, bunday ekspert tahlil yashirin ma'nolar, manipulyativ usullar va axloqan shubhali kommunikativ amaliyotlarni aniqlash uchun zarur vositaga aylangan.

Agitatsion nutq ishontiruvchi muloqotning o'ziga xos shakli sifatida siyosiy va ommaviy diskurs tadqiqotlarida markaziy o'rin egallaydi. U shunchaki ma'lumot yetkazuvchi vosita emas, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, xulq-atvorni yo'naltirish va mafkuraviy qadriyatlarni barpo etish vositasidir[1;3]. Lingvistik

ekspertiza doirasida agitatsion nutqni o'rganish maqsadi — so'zlovchining auditoriyaga hissiy, kognitiv va ijtimoiy jihatdan ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini, ya'ni ochiq va yashirin ishontirish hamda manipulyatsiya elementlarini ilmiy asosda aniqlashdir.

Agitatsion nutq o'zining ifodali-hissiy lug'ati, baholovchi iboralari, sintaktik kuchaytirilgan tuzilmalari va mafkuraviy g'oyani mustahkamlovchi takroriy strategiyalari bilan ajralib turadi. Hissiy leksika voqealar yoki shaxslar haqidagi kerakli tasavvurni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. "Vatanparvarlik", "sadoqat", "adolatlilik" kabi ijobiy so'z birliklari ma'qullash va birlashish hissini uyg'otsa, "xiyonat", "korrupsiya", "befarqlik" kabi salbiy ma'noli birliklar raqib tomonning obro'sini tushirish yoki uni ajratib qo'yish vazifasini bajaradi[4;5]. Tilshunos ekspert bunday leksik birliklarni tahlil qilib, ularning pragmatik salohiyatini va manipulyativ qiymatini aniqlaydi hamda tilning neytral muloqot vositasi emas, balki psixologik ta'sir ko'rsatish vositasi sifatidagi rolini baholaydi.

Agitatsion nutqdagi yana bir asosiy strategiya — bu takrordir. Takror ritorik usul sifatida esda qolarli ifodani kuchaytiradi va nutqning ishontiruvchan ta'sirini oshiradi. So'z, ibora yoki shiorlarning ritmik qaytarilishi orqali so'zlovchi asosiy g'oyaning tinglovchi ongiga chuqur singib borishini ta'minlaydi[2;6]. Masalan, O'zbekiston siyosiy nutq amaliyotida *"Yangi O'zbekiston — yangi imkoniyatlar mamlakati!"* yoki *"Birligimiz — kuchimiz!"* kabi ritmik shiorlar ko'p qo'llanadi. Bu shiorlar jamoaviy o'zlik va optimizm hissini uyg'otadi. Lingvistik ekspert esa takrorni nafaqat badiiy vosita, balki **kognitiv esda saqlashni kuchaytiruvchi va hissiy ta'sirni oshiruvchi nutqiy dizayn** sifatida talqin qiladi.

Shuningdek, metaforik va ramziy tilning qo'llanishi ham muhim ahamiyatga ega. Bu vosita orqali so'zlovchi mavhum siyosiy g'oyalarni aniq, hissiy jihatdan boy obrazlar orqali ifodalaydi. "Yangi kelajakni qurish", "korrupsiyadan poklanish", "taraqqiyot yo'lini yoritish" kabi metaforalar tinglovchida assotsiativ tafakkurni faollashtiradi va mafkuraviy birdamlikni kuchaytiradi[3;5]. Shu nuqtai nazardan, ekspert tahlili bunday obrazli tuzilmalarni shunchaki uslubiy bezak sifatida emas, balki nutqning ishontiruvchi tuzilmasini tashkil etuvchi muhim komponent sifatida baholaydi.

Sintaktik jihatdan qaralganda, agitatsion nutqda ko'pincha buyruq gaplar, parallel tuzilmalar va undovli gaplar ishlatiladi, ular zudlik va jamoaviy ishtirok hissini uyg'otadi. *"Bizga qo'shiling!"*, *"Birgalikda harakat qilaylik!"*, *"Islohotlarni qo'llab-quvvatlaylik!"* kabi chaqiriq gaplar auditoriyani aniq harakatga undash uchun mo'ljallangan[1;7]. Lingvistik ekspert esa bunday tuzilmalarda buyruq kuchining

darajasini aniqlaydi hamda grammatik shaklning umumiy ishtirish strategiyasiga qanday hissa qo'shayotganini tahlil qiladi.

Ishontiruvchi strategiya	Lingvistik vositalar	Kommunikativ funksiya	Misol
Takrorlash	Takroriy so'zlar, shiorlar, ritmik naqshlar	Asosiy g'oyani mustahkamlaydi va eslab qolishni yaxshilaydi	"Yangi O'zbekiston - yangi imkoniyatlar!"
Birdamlikka da'vat	Inklyuziv olmoshlar ("biz," "bizning")	Birdamlik va jamoaviy o'ziga xoslikni yaratadi	Biz bir millatmiz!
Buyruq ohangi	Buyruqlar va harakatga chaqiriqlardan foydalanish	Ishtirok etish va safarbarlikni rag'batlantiradi	"Bizga qo'shiling!," "Islohotni qo'llab-quvvatlang!"
Kontrast strategiyasi	Antonimlar, binar oppozitsiyalar	Guruhlar o'rtasida mafkuraviy bo'linishni o'rnatadi	"Haqiqiy fuqarolar va loqaydlar"
Hissiyotga berilish	ritorik savollar, xitoblar	Hamdardlik, g'urur yoki vatanparvarlikni rag'batlantiradi	Kelajagimizni biz qurmasak, kim quradi?

1-jadval. Agitatsion nutqda ishtirish strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari

Bundan tashqari, **agitatsion diskursning pragmatik qatlamida yashirin ta'sir shakllari** — presuppozitsiyalar, implikatural ma'nolar va baholovchi taxminlar namoyon bo'ladi. Bular bevosita aytilmagan bo'lsa-da, tinglovchining nutqni talqin qilish yo'nalishini boshqaradi. Masalan, so'zlovchi "Haqiqiy fuqarolar hech qachon jim turmaydi" desa, bu ifoda bevosita aytilmagan holda, jim turgan kishilarni "vatanparvar emas" sifatida tasniflaydi. Bunday til birliklari auditoriyani axloqiy toifalarga ajratish va mafkuraviy birdamlikni kuchaytirish vositasi bo'lib xizmat qiladi[2;6]. Shu o'rinda tilshunos ekspertning vazifasi — yashirin ta'sir

mexanizmlarini ochib berish va ularning axloqiy hamda kommunikativ me'yorlarga muvofiqligini baholashdan iborat.

O'zbekistonning zamonaviy sotsiolingvistik manzarasida agitatsion nutq ommaviy axborot vositalari, raqamli kommunikatsiya va davlat ritorikasining ta'siri ostida izchil rivojlanmoqda. Multimedia vositalari va internet asosidagi diskurs platformalarining keng qo'llanilishi ishonitiruvchi strategiyalarning ko'lami va ta'sir doirasini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Shu sababli, agitatsion nutqning lingvistik ekspertizasi endilikda faqat an'anaviy ritorik shakllarni emas, balki ko'p modal unsurlarni — vizual metaforalarni, ohangni, nutqning raqamli kontekstini ham o'rganishi lozim[3;7]. Bularning barchasi birgalikda nutqning kommunikativ samaradorligini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari asosida agitatsion nutqni lingvistik ekspertiza nuqtai nazaridan ilmiy va amaliy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ishontiruvchi va agitatsion diskursni lingvistik ekspertizadan o'tkazish uchun yagona metodologik asos ishlab chiqish, bunda hissiy, pragmatik va axloqiy jihatlar yagona tahliliy tizimda baholanishi lozim.

O'zbek tilidagi siyosiy va agitatsion nutqlarning milliy korpusini yaratish, bu esa obyektiv, ma'lumotlarga asoslangan lingvistik tahlilni amalga oshirish va turli kontekstlarda takrorlanadigan ishonitirish strategiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Filologiya va jurnalistika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun diskurs tahlili va pragmalingvistika modullarini o'quv dasturiga kiritish, bu esa ularni ommaviy muloqotdagi manipulyativ til vositalarini aniqlashga o'rgatadi.

Tilshunoslar, psixologlar va kommunikatsiya mutaxassislari o'rtasida fanlararo hamkorlikni rivojlantirish, bu orqali lingvistik va psixologik mexanizmlarning jamoatchilik ongiga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur tahlil qilish.

Agitatsion nutqni lingvistik ekspertiza nuqtai nazaridan o'rganish shuni ko'rsatadiki, ishonitiruvchi ta'sir nafaqat ochiq ritorik vositalar orqali, balki tilga singdirilgan nozik pragmatik va psixologik mexanizmlar orqali ham amalga oshiriladi. **Agitatsion diskurs** — bu murakkab kommunikativ tizim bo'lib, unda leksik tanlovlar, sintaktik shakllar va hissiy ohang o'zaro uyg'unlashib, auditoriya idrokini va jamoaviy xulqni shakllantiradi. Tadqiqot natijalari tilshunoslik ekspertizasining ishonitirish va manipulyatsiya o'rtasidagi chegarani aniqlashdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmonov, A. Til va jamiyat: tilshunoslikning ijtimoiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2005

- 2.Yo'ldoshev, M. Nutq madaniyati va ta'sir strategiyalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2012.
- 3.Karimova, D. Diskurs va ideologiya: tahlil nazariyalari. – Toshkent: Nodirabegim, 2019.
- 4.Mamatqulova, S. Til va hissiyot: emotsional leksikaning pragmatik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
- 5.Jo'rayev, Sh. Siyosiy nutqning lingvistik tahlili. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
- 6.Tursunova, N. Ommaviy axborot vositalarida manipulyativ diskurs. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
- 7.Hakimov, B. Nutq va ta'sir: kommunikativ strategiyalar nazariyasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
- 8.Fairclough, N. (1995). Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. London: Longman.
- 9.van Dijk, T. A. (2006). Discourse and Manipulation. Discourse & Society, 17(3), 359–383.
10. Chilton, P. (2004). Analysing Political Discourse: Theory and Practice. London: Routledge.
11. Lakoff, G. (2004). Don't Think of an Elephant! Know Your Values and Frame the Debate. White River Junction, VT: Chelsea Green Publishing.
12. Turg'unpo'latov, D. "Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi". *"Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali*, 2025, № 3(1), 90-95-b.
13. Turg'unpo'latov, D.R. "Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq". *"Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari*, 2024. Toshkent, 135-138-b.

TIL — INSON TAFAKKURI VA JAMIYAT TARAQQIYOTINING MAHSULI SIFATIDA

Komiljonova Dono Mansurbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

komiljonovadono9@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilning kelib chiqishi haqida yaratilgan asosiy farazlar yoritilgan. Unda ilohiy hodisa, onomatopeyik farazlar, undov, mehnat nazariyalari hamda ijtimoiy farazlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy qarashlarga ham to'xtalib o'tiladi. Maqola tilning insoniyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: til, paydo bo'lishi, rivojlanishi, farazlar, nazariyalar, insoniyat, aloqa, aloqa vositasi.

Annotation. This article highlights the main hypotheses about the origin and emergence of language. It examines the divine theory, onomatopoeic hypothesis, interjectional theory, labor theory, and social contract hypothesis, analyzing their distinctive features. In addition, modern views are also discussed. The article aims to reveal the role and significance of language in human life.

Keywords: language, origin, development, hypotheses, theories, humanity, means of communication.

Аннотация. В данной статье освещаются основные гипотезы о происхождении и возникновении языка. Рассматриваются божественная теория, оноματοпоэтическая гипотеза, междометная теория, трудовая теория и социальная гипотеза, анализируются их особенности. Также уделяется внимание современным взглядам. Статья направлена на раскрытие роли и значения языка в жизни человечества.

Ключевые слова: язык, происхождение, развитие, гипотезы, теории, человечество, средство общения.

Til insoniyat tarixidagi eng buyuk ixtirolardan biridir. U nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur, madaniyat va jamiyatning taraqqiyoti uchun asosiy omil hisoblanadi. Tilning qanday paydo bo'lgani, uning ilk bosqichlari va rivojlanish jarayonlari qadim zamonlardan beri olimlarni qiziqtirib kelgan. Turli davrlarda olimlar tilning kelib chiqishini turlicha tushuntirishgan va bu borada ko'plab farazlar ilgari surilgan.

Tilning qachon va qayerda paydo bo'lganligi haqida hali ilmiy asoslangan fikrlar aniqlanmagan. Uning kelib chiqish masalasi ko'p davrlardan beri insoniyatni qiziqtirib keladi. Ba'zi olimlarning fikricha, eng dastlabki til (tillar) taxminan bundan yarim million yil ilgari paydo bo'lgan. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo'lgandan oldingi holat biz uchun noma'lum. Qadim zamonlarda til ilohiy hodisa sifatida tushuntirilgan. Masalan, ayrim dinlarda til Xudoning in'omi timsolida qabul qilingan. O'rta asrlarda ham ko'plab faylasuflar tilni insonlarga osmondan berilgan ilohiy ne'mat deb hisoblaganlar. Bu qarashlar diniy e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liq edi. XVIII-XIX asrlarda tilshunoslik fan sifatida shakllana boshlagan davrda tilning kelib chiqishi to'g'risida ilmiy farazlar paydo bo'ldi. Ulardan eng mashhurlari quyidagilardir: Onomatopeyik faraz (taqlidiy nazariya): Bu nazariyaga ko'ra, dastlabki so'zlar tabiatdagi tovushlarga taqlid qilish orqali paydo bo'lgan. Misol uchun "g'uv"(ari tovushi),"shuv" suv oqishi kabi. Nemis olimi Heyman Steyental bu fikrni rivojlantigan.

Undov nazariyasi: Ingliz faylasufi J.Muller fikricha til dastlab,insonning his-tuyg'ularini ifodalovchi undovlardan kelib chiqqan. Masalan, hayrat, qo'rquv yoki quvonch paytida aytiladigan "oh","vay!","eh!",singari tovushlar keyinchalik so'zlarga aylangan. Xususan, fransuz olimi Jan Jak Russo ham shu farazni quvvatlagan.

Mehnat nazariyasi: Bu nazaryani F.Engels va K.Marks rivojlantirgan. Ularning fikricha, til mehnat jarayonida yuzaga kelgan. Odamlar birgalikda ishlash davomida o'zaro aloqa qilishga majbur bo'lgan va shu tariqa til shakllangan. Ijtimoiy farazlar: Ayrim olimlar tilning kelib chiqishini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'lashadi. Insonlar o'zaro munosabatlarga kirishar ekan, ularning ehtiyojlari tildan foydalanishni tobora kengaytirgan va boyitgan. Tilning paydo bo'lishi tafakkur bilan bir vaqtda sodir bo'lgan. Insoniyatga xos bo'lgan bu ikki hodisa bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri ikkinchisiz yashay olmaydi. Shunday qilib, til jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli. Zamonaviy qarashlar: Hozirgi kunda tilning kelib chiqishi bitta nazariya bilan izohlanmaydi. Olimlar til uzoq tarixiy jarayon natijasida, turli omillarning ta'sirida yaralgan deb ta'kidlaydilar. Biologik psixologik va ijtimoiy omillar bir-biriga ta'sir qilib, tilning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Biologik yondashuv: Inson miyasining murakkab tuzilishi,ovoz apparati va nutq organlari rivojlanganligi til paydo bo'lishida

ustuvor omil sanaladi. Evalyutsiya jarayonida boshqa jonzotlarda bo'lmagan nutq qobiliyati odomzotda rivojlangan.

Psixologik yondashuv: Til faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkurning tashqi ifodasidir. Inson o'z fikrini tartibga solish, his-tuyg'ularini ifodalash uchun tilga ehtiyoj sezgan. Bu jarayon psixologik zarurat bilan uzviy bog'liq.

Tilning rivojlanishini o'zbek tili misolida ko'radigan bo'lsak, o'zbek tili tarixan boshqa tillar, ayniqsa fors-tojik va rus tillari bilan o'zaro ta'sirda rivojlanib kelgan. Fors-tojik tilining ta'siri qadimdan boshlangan bo'lib, o'zbek xalqi bu xalq bilan yonma-yon yashagan, shu sababli madaniy-ijtimoiy hayotda ko'plab mushtaraklik elementlari shakllangan. Somoniylar davrida (IX-X asrlar) fors tili "forsiy dariy" nomi bilan rasmiy va adabiy til sifatida keng yoyilgan. Shu tufayli o'sha davrda yaratilgan adabiyotlar fors-tojik tilida yozilgan, ammo ular o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Keyinchalik, XIX asrdan boshlab rus tili va u orqali Yevropa tillarining o'zbek tiliga ta'siri kuchaygan. Bu jarayon Rossiya tomonidan O'rta Osiyoning istilosi davrida yanada faollashgan. Ayniqsa, rus tili o'zbek tili terminologiyasining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Shunday qilib, o'zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida turli tillar bilan aloqada bo'lib, ularning eng yaxshi jihatlari o'zlashtirgan holda boyib borgan.

Xulosa qilib aytganda, tilning kelib chiqishi insoniyatning eng qiziqarli va murakkab muammolaridan biridir. Turli nazariyalar mavjud bo'lsada, ularning barchasi tilning paydo bo'lishini har xil jihatlar orqali tushuntiradi. Eng muhim tomoni shundaki, til jamiyatning muhim belgisi va biz uchun eng buyuk yutug' sifatida qadrlanadi. Har bir inson jamiyatda va o'z yurtida tilining rivojlanishiga yaxshiroq e'tibor qaratib muvafaqqiyatlarga erishishida muhim rol o'ynashi kerak. Tilning rivojlanishi nafaqat jamiyatga balki, insonlarning kelajakdagi yutuqlarga va ilmlarni takomillashtirishga asosiy omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Irisqulov. M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, O'qtuvchi, 1992.
2. O'. Usmonov. Umumiy tilshunoslik - Toshkent: Fan, 2005.
3. F. de Sossyur. Umumiy tilshunoslik kursi - Toshkent, 1990.
4. Rahmatullayev. Sh. Tilshunoslik nazariyasi Toshkent: Universitet, 2015.

OPPORTUNITIES AND RISKS OF AI IN EDUCATION**Kuchkarov Ruslan Komiljon o'g'li**

Student, Chirchik State Pedagogical University

Scientific adviser: Isroilova Tursuntosh Ro'zi qizi

Teacher, Chirchiq State Pedagogical University

Annotatsiya. Ushbu maqola sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi imkoniyatlari va xavflarini tahlil qiladi. AI (sun'iy intellekt) o'qitish va o'rganish jarayonlarini individuallashtirish, samaradorlikni oshirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, noto'g'ri ma'lumotlar, halollikning buzilishi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, ta'lim, innovatsiya, xavf, individual o'qitish

Аннотация. В статье рассматриваются возможности и риски использования искусственного интеллекта в сфере образования. Технологии ИИ способствуют персонализированному обучению, повышению эффективности преподавания и качества образования. Однако использование ИИ вызывает проблемы, связанные с достоверностью данных, академическим мошенничеством и угрозами информационной безопасности.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, образование, инновации, риски, персонализированное обучение

Abstract. This article explores the opportunities and risks associated with the use of Artificial Intelligence in education. AI technologies enhance personalized learning, improve teaching efficiency, and elevate educational quality. However, their integration also raises challenges such as misinformation, academic dishonesty, and data security concerns, emphasizing the need for ethical and balanced implementation.

Keywords: Artificial Intelligence, education, innovation, risk, personalized learning

Role of Artificial Intelligence in Education

Artificial Intelligence (AI) is reshaping the landscape of education by transforming both learning and teaching processes. Through AI-based tools, students can experience personalized learning that adjusts content and pace according to their individual needs. Systems such as intelligent tutors, automated assessment tools, and virtual assistants contribute to improving instructional efficiency while boosting student motivation.

Additionally, AI's capacity to analyze learning behaviors allows educators to detect learners who require assistance, facilitating early and targeted support.

A further significant contribution of AI in education lies in promoting accessibility and inclusiveness. AI technologies provide instant translation, speech recognition, and adaptive educational resources that support students with diverse abilities. Educators also gain advantages from AI's analytical insights into curriculum design and learner outcomes. As innovation progresses, AI has the potential to establish a more inclusive, data-informed, and effective global educational ecosystem [1].

Risks of Artificial Intelligence

Recent research from Study.com has revealed concerning trends about how students are using AI to cheat. Nearly half of the surveyed students—48%—admitted to using ChatGPT to complete at-home tests or quizzes. Meanwhile, 53% had the AI write entire essays for them, and another 22% used it to create paper outlines (which, while less direct, still raises ethical questions). Such practices often lead to plagiarism, academic dishonesty, and hindered learning growth.

The situation appears even more alarming when considering findings reported by *INSIDER*: Researchers asked Chat GPT to take the U.S. Medical Licensing Exam, and it nearly passed. This suggests that, with further refinement, AI could easily achieve professional-level exam results.

Fortunately, many plagiarism detection platforms like Turnitin have integrated AI-detection tools to counter this issue. However, some students have already learned to manipulate or “trick” these systems, creating an ongoing battle between AI misuse and academic integrity [2].

Al-Thkayneh, Alghazo, and Tahat emphasize that the integration of artificial intelligence in education has raised concerns about the decline of human interaction and the potential spread of inaccurate or irrelevant information [3]. Kelleher and Tierney similarly note that AI-generated data can sometimes mislead learners [4]. Gokcearslan, Tosun, and Erdemir argue that AI tools in classrooms come with many challenges, such as students' difficulty in managing technology and understanding AI's mechanical aspects. Furthermore, these tools may produce incorrect results and fail to provide personalized feedback, unlike human teachers.

The growing reliance on AI is also reducing face-to-face communication, leading to weaker interpersonal skills among students [5]. Academic dishonesty, such as cheating and the submission of AI-generated assignments, has increased alongside the rise of these technologies [6]. It is also highlighted that the issue of digital inequality, as not all students have equal access to AI-based tools [7]. Moreover, the introduction

of such tools has heightened the risk of data breaches, identity theft, academic fraud, and other cyber threats

OPPORTUNITIES OF AI

Artificial intelligence (AI) is transforming numerous industries, and the education sector is no exception. The integration of AI in learning environments has introduced remarkable advancements that improve educational experiences, reduce administrative workloads, and assist both learners and teachers in meaningful ways.

Personalized Learning

AI facilitates personalized education by adapting learning materials to each student's specific abilities and preferences. Through adaptive learning algorithms, AI evaluates individual strengths, weaknesses, and learning speeds. This enables the creation of customized lesson plans that align with a student's cognitive style, allowing them to learn at their own pace and enhancing comprehension and knowledge retention.

Immersive Learning Experiences

AI technologies can create dynamic and immersive learning environments that surpass traditional methods. Using **virtual reality (VR)** and **augmented reality (AR)** powered by AI, students can participate in realistic simulations — from exploring ancient civilizations to performing virtual scientific experiments. These experiences make learning interactive and engaging, strengthening students' understanding and long-term memory.

Enhanced Engagement and Motivation

AI-driven learning systems can boost student motivation and participation by making lessons interactive and tailored. Gamified educational tools, enhanced by AI, incorporate features like points, challenges, and leaderboards to make studying enjoyable. Real-time feedback and personalized assistance help maintain focus and encourage consistent engagement, addressing each learner's unique needs effectively.

Cost-Effective Learning

AI contributes to cost-efficient education by automating repetitive administrative processes and offering scalable digital learning solutions. For example, AI can manage grading, scheduling, and record-keeping, freeing teachers to concentrate on instruction. Furthermore, AI-based platforms can serve vast audiences with minimal extra cost, increasing access to affordable, high-quality education worldwide.

Intelligent Tutoring and Integrated Learning Systems

AI-powered tutoring platforms simulate one-on-one mentorship, analyzing student performance to deliver precise guidance and resources. These systems can

detect areas needing improvement, suggest supplementary materials, and adjust difficulty levels dynamically. By offering continuous assessment and feedback, AI enhances student progress and fosters deeper understanding.

Ongoing Evaluation and Continuous Improvement

AI enables continuous assessment by monitoring learning outcomes and identifying areas that need refinement. Through data analytics, educators can track individual progress, adapt teaching strategies, and apply early interventions. This ensures a responsive educational environment where learning effectiveness continually improves.

Elevating Educational Standards and Quality

Incorporating AI in education enhances academic standards and ensures fairness and consistency in grading. It provides teachers with actionable insights, supports curriculum development, and promotes collaboration between educators and students. With AI's analytical and adaptive capabilities, schools can deliver more inclusive and effective educational programs that meet diverse learner needs [1].

Conclusion: Artificial Intelligence continues to redefine the educational landscape by introducing personalized learning experiences, intelligent tutoring systems, and automated administrative functions. These innovations have the potential to improve accessibility, inclusivity, and overall educational quality. Despite this, the growing dependence on AI introduces challenges related to data privacy, academic integrity, and the diminishing role of human interaction. To maximize benefits while mitigating risks, it is essential to establish comprehensive ethical frameworks, strengthen digital literacy among learners and educators, and ensure equitable access to AI technologies. Sustainable integration of AI in education demands a balanced approach that combines technological advancement with human-centered pedagogy.

REFERENCES:

1. University Canada West (21.05.2025), *Advantages and disadvantages of AI in Education*, <https://www.ucanwest.ca/blog/education-careers-tips/advantages-and-disadvantages-of-ai-in-education>
2. Study.com, *Productive teaching tool or innovative cheating?*, <https://study.com/resources/perceptions-of-chatgpt-in-schools>
3. Al-Tkhayneh, K. M., Alghazo, E. M., & Tahat, D. (2023). *The Advantages and Disadvantages of Using Artificial Intelligence in Education*. *Journal of Educational and Social Research*, 13(4), 105–117. <https://doi.org/10.36941/jesr-2023-0094>

4. Kelleher, C and Tierney, B. 2018. *Artificial intelligence in Education: Applications and Prospects*. AI magazine, 39 (3), 45-49
5. Gokcearslan, S., Tosun, C., Erdemir, Z.G. (2024). *Benefits, challenges, and methods of Artificial Intelligence chatbots in education: A systematic literature review*. *International Journal of Technology in Education*, 7 (1), 19-39
6. Ayala-Pazmino, M., (2023). *Artificial Intelligence in Education: Exploring the Potential Benefits and Risks*. *Digital Publisher CEIT*, 8(3), 892-899.
7. Liao, Y., Huang, R., Sun, C., Li, X. (2021). *Artificial Intelligence in Education: Opportunities and challenges from a learning science perspective*. *Frontiers in Education*, 6, 1-7.
8. Eden, C.A., Chisom, O.N., Adeneyi, I.S. (2024). *Integrating AI in education: Opportunities, challenges, and ethical considerations*. *Magna Scientia Advanced Research and Reviews*, 10(02), 006-013.
9. Kwapinska, M. (2024, May 21). *AI in Education: Benefits, Challenges, and Use Cases*. *Nomtek*.
10. Robert, A., Potter, K., Frank, L. (2024). *The Impact of Artificial Intelligence on Students' Learning Experience*. *Wiley Interdisciplinary Reviews: Computational Statistics*, 1-17.

INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARDA O'ZBEK TILINING QO'LLANILISHI

Mahammatova Malika Bekmurza qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

mahammatovamalika692@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining qo'llanish jarayoni, uning imkoniyatlari va muammolari yoritiladi. Raqamli makonda tilning adabiy me'yorlarga mos ishlatilishi, yoshlar nutqiga ta'siri va milliy tilning istiqbollari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, internetning til taraqqiyotidagi ijobiy va salbiy jihatlari ko'rsatilib, muammolarning yechimiga oid takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, internet, ijtimoiy tarmoq, raqamli texnologiya, til madaniyati, globalizatsiya, kommunikatsiya.

Annotation

This article discusses the process of using the Uzbek language on the internet and social networks, highlighting its opportunities and challenges. The analysis focuses on the use of the language in accordance with literary norms in the digital space, its impact on youth speech, and the prospects of the national language from a scientific perspective. In addition, both the positive and negative aspects of the internet in language development are presented, along with suggestions for solving existing problems.

Keywords: Uzbek language, internet, social network, digital technology, language culture, globalization, communication.

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс использования узбекского языка в интернете и социальных сетях, его возможности и проблемы. Анализируется применение языка в соответствии с литературными нормами в цифровом пространстве, его влияние на речь молодежи, а также перспективы

национального языка с научной точки зрения. Кроме того, показаны как положительные, так и отрицательные стороны интернета в развитии языка и приведены предложения по решению существующих проблем.

Ключевые слова: узбекский язык, интернет, социальная сеть, цифровые технологии, культура речи, глобализация, коммуникация.

XXI asr insoniyat tarixida axborot texnologiyalari va raqamli vositalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan ajralib turadi. Bugungi globallashuv jarayonida internet nafaqat aloqa va axborot almashish vositasi, balki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Internetning keng imkoniyatlari tufayli dunyo xalqlari o'rtasida muloqot tezlashdi, axborot olish va tarqatish jarayonlari yengillashdi, ta'lim, fan va ishlab chiqarish sohalarida yangi bosqichlar yuzaga keldi. Shu bilan birga, internetning til va madaniyatlar rivojiga ko'rsatgan ta'siri alohida ilmiy tadqiqotlarni talab etadigan dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas bo'lagiga aylangan. Har bir foydalanuvchi kundalik hayotida Telegram, Instagram, Facebook, TikTok, YouTube kabi platformalardan faol foydalanadi. Ular orqali odamlar nafaqat muloqot qiladi, balki o'z fikrlarini bayon etadi, ijodiy mahsulotlarini e'lon qiladi, yangiliklardan xabardor bo'ladi, bilim oladi va hatto ish faoliyatini ham olib boradi. Shu jarayonlar milliy tillarning, jumladan, o'zbek tilining qo'llanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbek tili bugungi kunda davlat tili sifatida mamlakatimizning barcha rasmiy sohalarida qo'llaniladi. "Davlat tili – davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biridir" [1,45-b]. Mustaqillik yillarida tilning ijtimoiy mavqei, huquqiy asoslari va nufuzi sezilarli darajada mustahkamlandi. Ammo raqamli makon – internet va ijtimoiy tarmoqlar – o'zbek tili uchun yangi vazifalar va sinovlarni yuzaga chiqarmoqda. Bir tomondan, bu jarayon milliy til imkoniyatlarini kengaytirib, uni global miqyosda tanitishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, adabiy me'yorlarning buzilishi, savodxonlikning pasayishi, aralash nutq va jargonlarning ko'payishi kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, internet tilning amaliy qo'llanishiga, yoshlar nutq madaniyatiga, jamiyatdagi umumiy savodxonlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Agar o'zbek tili raqamli makonda to'g'ri va samarali qo'llansa, bu uning xalqaro maydondagi mavqeini oshiradi, sun'iy intellekt va zamonaviy dasturlar orqali imkoniyatlarini kengaytiradi. Aksincha, e'tiborsizlik natijasida tilning nufuzi pasayishi, yoshlarning adabiy til me'yorlariga beparvoligi kuchayishi, milliy qadriyatlardan uzoqlashish xavfi tug'ilishi mumkin. Shu boisdan internet va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining qo'llanishini o'rganish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni hal etish yo'llarini

aniqlash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Ushbu maqolada mazkur masala keng yoritilib, internet makonida o'zbek tilining o'rni, imkoniyatlari, muammolari va istiqbollari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Internetning jadal rivojlanishi milliy tillar, jumladan, o'zbek tili uchun ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. "O'zbek tilining internet makonida keng qo'llanilishi – bu uning global kommunikatsiya jarayoniga qo'shilishidan dalolatdir" [2, 132-b.]. Avvalo, davlat idoralari, ta'lim muassasalari va turli tashkilotlarning rasmiy veb-saytlari o'zbek tilida yuritilishi tilning rasmiy sohadagi mavqeini mustahkamlab bermoqda. Rasmiy hujjatlar, yangiliklar, xabarlar va axborotlarning o'zbek tilida muntazam e'lon qilinishi tilning huquqiy maqomini mustahkamlash bilan bir qatorda, fuqarolarning o'z ona tilida sifatli ma'lumot olishiga imkon yaratmoqda. Shuningdek, elektron kutubxonalar, onlayn gazeta va jurnallar, ta'limiy platformalarning o'zbek tilida faoliyat yuritishi ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko'plab ilmiy maqolalar, darsliklar, badiiy asarlar, elektron qo'llanmalar internet orqali keng jamoatchilikka taqdim etilmoqda. Bu jarayon o'zbek tilining ilmiy va badiiy adabiyot tilidagi imkoniyatlarini kengaytiribgina qolmay, yoshlarning bilim olish jarayonini ham yengillashtirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilida kontent yaratish ham jadal rivojlanmoqda. YouTube, Telegram, Instagram, TikTok kabi platformalarda turli mavzularga bag'ishlangan o'zbek tilidagi sahifalar, kanallar, bloglar va podkastlar soni tobora ortib bormoqda. Bunda nafaqat o'yin-kulgi va ko'ngilochar kontent, balki ta'limiy, ilmiy, ma'rifiy va madaniy mazmundagi materiallar ham keng ommalashmoqda. Bu esa o'zbek tilining xalqaro miqyosda tanilishiga, boshqa millat vakillarining ham tilimizga qiziqish bildirishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda o'zbek tilida mobil ilovalar, elektron lug'atlar va tarjima dasturlari ishlab chiqilishi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, turli onlayn lug'atlar, avtomatik tarjima dasturlari, o'quvchi va talabalar uchun qulay bo'lgan ta'limiy ilovalar yaratilmoqda. Bu holat nafaqat milliy tilning rivojlanishini, balki uning global axborot makoniga integratsiyalashuvini ta'minlamoqda. "Globalizatsiya sharoitida o'zbek tilining rivoji, avvalo, uning raqamli makonda faol ishlatilishiga bog'liq" [3, 88-b.]. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o'zbek tilida she'r, hikoya, maqola, esse va boshqa ijodiy ishlarini e'lon qilmoqda, bu esa tilimizning ijodiy salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Virtual maydon bugungi kunda adabiy jarayonning ham muhim qismiga aylanib bormoqda. Shuni ham ta'kidlash kerakki, internet milliy tilning xalqaro miqyosda tanilishida bevosita vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Xorijdagi vatandoshlarimiz ham ijtimoiy tarmoqlar orqali ona tilda muloqot qilish, turli ilmiy-ma'rifiy kontentlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu holat o'zbek

tilini milliy chegaralardan tashqariga olib chiqmoqda va uni global muloqot maydoniga tatbiq etmoqda. Umuman olganda, internet va ijtimoiy tarmoqlar o'zbek tili uchun yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Rasmiy idoralardan tortib, ta'limiy muassasalar, bloggerlar, ijodkorlar va oddiy foydalanuvchilargacha barchaning ona tilida faoliyat yuritishi tilning rivojlanishi uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda nafaqat axborot almashish, balki nutq madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ularning imkoniyatlari tufayli millionlab foydalanuvchilar o'z fikrini keng auditoriyaga yetkazishi, o'zbek tilida yangicha uslubda muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar nutq madaniyatiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ham kuzatilmoqda. Avvalo, ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlariga to'xtalsak, ular orqali foydalanuvchilar o'zbek tilida qisqa, aniq va ta'sirchan fikr bildirishni o'rganmoqda. Turli bloglar, sahifalar va kanallarda ona tilida ilmiy, ma'rifiy va tarbiyaviy mazmundagi postlar e'lon qilinmoqda. Bu esa yoshlar orasida o'zbek tilining nufuzini oshirish, uning sofligini saqlashga xizmat qilmoqda. Masalan, ta'limga oid sahifalarda savodxonlik, nutq madaniyati, yozuv normalari haqida foydali tavsiyalar berilishi tilimiz rivoji uchun juda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ijodiy jarayonning jonlanishi ham kuzatilmoqda. Yosh ijodkorlar o'zbek tilida she'r, hikoya, esse va maqolalarini keng ommaga taqdim etishmoqda. Bu esa nafaqat tilni boyitadi, balki yangi avlodning ijodiy salohiyatini namoyon qilishiga ham imkon yaratadi. Bunday jarayonlar milliy madaniyatimizni keng targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlar ham yo'q emas. Ayrim foydalanuvchilar o'z postlarida yoki izohlarda adabiy til me'yorlariga rioya qilmaydi, ko'plab xatoliklar, qisqartmalar va chet tillaridan olingan noo'rin so'zlardan foydalanadi. Masalan, inglizcha yoki ruscha so'zlarni aralashtirib yozish holatlari keng tarqalgan. Bu esa yoshlar ongida tilning tozaligiga putur yetkazishi, ularning savodxonlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yana bir muhim muammo shundaki, ijtimoiy tarmoqlarda tezkorlik va qisqa yozishga intilish natijasida ko'pincha imlo va tinish belgilariga e'tibor berilmaydi. Har bir matnning qisqa bo'lishi talab qilinadigan sharoitda foydalanuvchilar tilning grammatik qoidalarini to'liq qo'llashdan chetlanib, oddiylashgan yozuv usulidan foydalanishga odatlanmoqda. Bu esa asta-sekin yozma nutq madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, so'kinish, haqoratli so'zlar yoki odobsiz ifodalardan foydalanish ham muammo hisoblanadi. Bu kabi holatlar internet odobiga zid bo'lish bilan birga, milliy nutq madaniyatimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, yoshlar orasida internet odobi, toza va adabiy til normalariga amal

qilish madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, davlat va jamiyat tomonidan bu borada muayyan choralar ko'rilmogda. Masalan, o'zbek tilining imlo qoidalarini ommalashtirish, savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalar, onlayn lug'atlar, imlo tekshirish dasturlari ishlab chiqilmogda. Turli blogerlar va ta'limiy platformalar ham savodli yozishga undovchi postlar bilan chiqmogda. Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar nutq madaniyatiga ikki yoqlama ta'sir ko'rsatmogda: bir tomondan, o'zbek tilini keng auditoriyaga olib chiqib, uning imkoniyatlarini namoyon etsa, ikkinchi tomondan, noto'g'ri yozish va til me'yorlariga e'tiborsizlik natijasida salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirmogda. Shuning uchun

ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda mas'uliyatli yondashuv, milliy til me'yorlariga hurmat bilan qarash va nutq madaniyatini rivojlantirishga ongli ravishda intilish zarur.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar o'zbek tilining imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa-da, raqamli makonda bir qator muammolar ham mavjud. Bu muammolar tilimizning to'laonli rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun ularni tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Birinchidan, o'zbek tilidagi kontent hajmi hali ham yetarli emas. Internet makonida ko'proq rus, ingliz, turk va boshqa tillardagi ma'lumotlar ustunlik qilmogda. O'zbek tilida sifatli ilmiy, texnik, tibbiy yoki ta'limiy kontent yetishmasligi natijasida foydalanuvchilar ko'pincha boshqa tillarga murojaat qilishga majbur bo'lishadi. Bu esa ona tilining raqamli makonda mavqeini pasaytiradi. Ikkinchidan, imlo va grammatik xatolar keng tarqalgan muammo hisoblanadi. "Ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining fonetikasi va orfoepiyasi me'yoralaridan chetga chiqmogda" [4, 4-b.] . Ko'plab foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqlarda, bloglarda yoki shaxsiy sahifalarida adabiy til me'yorlariga rioya qilmaydi. Bu esa yoshlarning savodxonlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, adabiy tilning tozaligiga putur yetkazadi. Uchinchidan, texnologik muammolar ham sezilarli. Masalan, ayrim xalqaro platformalarda o'zbek tili interfeys sifatida kiritilmagan yoki to'liq ishlamaydi. Bundan tashqari, ko'plab dasturlarda o'zbek tilidagi matnni imlo xatolariga tekshirish imkoniyati mavjud emas. Bu esa foydalanuvchilarga qulaylik yaratmaydi. To'rtinchidan, o'zbek tilidagi terminologiya masalasi ham yechimini kutmogda. Axborot texnologiyalari, fan va texnika sohalarida yangi tushunchalar ko'pincha boshqa tillardan aynan tarjima qilinadi yoki aralash shaklda qo'llanadi. Bu esa yagona terminologik me'yorning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Avvalo, internetda o'zbek tilidagi sifatli kontentni ko'paytirish muhim. Ilmiy maqolalar, elektron darsliklar, ensiklopediyalar, onlayn kutubxonalar, ta'limiy

platformalar o'zbek tilida faol ishlab chiqilishi kerak. Bu nafaqat yoshlarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki tilimizning ilmiy salohiyatini ham kengaytiradi. Shuningdek, davlat darajasida tilning raqamli imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilishi zarur. Masalan, imlo tekshiruvchi dasturlar, avtomatik tarjimonlar, ovozli yordamchilar va mobil ilovalarda o'zbek tilini keng tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ayrim dasturlar yaratilgan bo'lsa-da, ularni yanada takomillashtirish va ommalashtirish kerak. Terminologiya masalasida ham izchil ish olib borish lozim. O'zbek tilida yangi fan va texnika sohalariga oid tushunchalar yagona uslubda, milliy til me'yorlariga mos ravishda ishlab chiqilishi zarur. Tilshunos olimlar, mutaxassislar va texnologlar hamkorlikda maxsus lug'atlar, qo'llanmalar yaratishi kerak. Bundan tashqari, aholining savodxonligini oshirish bo'yicha ham keng targ'ibot ishlari olib borilishi lozim. Ijtimoiy tarmoqlarda savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni ko'paytirish, bloggerlar va ta'limiy platformalar orqali toza va adabiy tilni targ'ib qilish maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilining raqamli makondagi muammolari jiddiy bo'lsa-da, ularning yechimi mavjud. Asosiysi, davlat siyosati, ilmiy jamoatchilik va keng foydalanuvchilar birgalikda harakat qilsa, internetda o'zbek tilining mavqei yanada yuksaladi, uning xalqaro maydondagi salohiyati kuchayadi.

Til va madaniyat bir-biridan ajralmas hodisalar hisoblanadi. Har bir xalqning milliy madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlar til orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, til madaniyatni saqlash, avloddan avlodga yetkazish va uni boyitishda eng muhim vositadir. Internet va ijtimoiy tarmoqlar esa bugungi kunda bu jarayonning yangi maydoniga aylangan. Virtual makonda o'zbek madaniyati va qadriyatlarini targ'ib etishda tilning o'rni beqiyosdir. O'zbek tilida yuritilayotgan veb-saytlar, bloglar, YouTube kanallari va boshqa ijtimoiy platformalar orqali milliy qo'shiqlar, folklor namunalari, maqollar, hikmatli so'zlar, tarixiy voqealar keng ommaga taqdim etilmoqda. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodining turli janrlari — ertak, doston, maqol va matallar internetda keng yoyilmoqda. Shu orqali yosh avlod nafaqat milliy madaniyatdan bahramand bo'ladi, balki ularni xalqaro maydonda ham tanitish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Internetning madaniyat va til rivojiga ijobiy ta'sirlari ko'p. Eng avvalo, raqamli makon o'zbek tilidagi adabiy, badiiy va ilmiy merosni keng yoyish imkonini bermoqda. Elektron kutubxonalar orqali Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi ulug' alloma va adiblarning asarlari keng kitobxonlarga yetkazilmoqda. Bundan tashqari, internet orqali madaniyatlararo muloqot ham rivojlanmoqda. O'zbek tilidagi kontentni chet elliklar o'rganishi, tarjimalar orqali milliy merosimiz bilan tanishishi mumkin. Bu jarayon

o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi mavqeini kuchaytiradi. Biroq internetning salbiy ta'sirlarini ham inkor etib bo'lmaydi. Ayrim hollarda ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek tilining madaniy qadriyatlarga zid shakllarda qo'llanishi kuzatilmoqda. Masalan, qo'pol so'zlashuv, aralash nutq, asossiz jargon va slanglarning ko'payishi milliy madaniyatimizga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, xorijiy madaniyatning internet orqali kuchli kirib kelishi yoshlar ongida milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa o'zbek tilining nafaqat kommunikativ, balki ma'naviy vazifalariga ham xavf tug'diradi.

Madaniyat va tilning raqamli makonda uyg'un rivojlanishi uchun:

O'zbek tilida milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi sifatli kontent yaratish;

Milliy san'at va adabiyot namunalarini internet orqali keng yoyish;

Yoshlar orasida ona tili va madaniyatini qadrlash ruhida loyihalarni tashkil etish;

Internetda qo'pol, beodob va madaniyatga zid kontentlarga qarshi kurashish zarur.

Demak, internet va ijtimoiy tarmoqlar o'zbek tili orqali milliy madaniyatimizni keng yoyish imkonini bersa-da, ehtiyot choralari ko'rilmasa, ma'naviy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Shuning uchun bu jarayonni to'g'ri boshqarish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda yoshlarni til va madaniyat uyg'unligida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda o'zbek tilining rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ular orqali milliy til rasmiy sohada, ta'lim jarayonida, ilmiy va badiiy adabiyotda, shuningdek, keng ommaviy axborot maydonida faol qo'llanilmoqda. Bu jarayon o'zbek tilining global miqyosda tanilishiga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, imlo va grammatik xatolar, aralash nutq, qisqartmalar va jargonlarning ko'payishi, savodxonlikning pasayishi kabi muammolar ham kuzatilmoqda. Agar bu masalalarga e'tibor qaratilmasa, kelajak avlodning nutq madaniyati va milliy tilning mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, o'zbek tilining raqamli makondagi barqaror o'rnini ta'minlash uchun sifatli kontent yaratish, til me'yorlariga rioya qilish va yoshlar orasida til madaniyatini keng targ'ib etish zarur. Faqat shundagina tilimiz nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham munosib mavqe egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Jo'rayev M. Til va jamiyat. – Toshkent: Fan, 2014.
4. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining ijtimoiy hayotdagi o'rnini. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
5. Hojiev A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
6. Qodirov H. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilini rivojlantirish va davlat tilining nufuzini oshirish to'g'risida"gi farmoni. – Toshkent, 2019.
9. Safarov Sh. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Noshir, 2011.
10. Madrahimov A. Axborot texnologiyalari va til. – Toshkent: Fan, 2020.
11. Sodiqova D. Internet va yoshlar nutqi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
12. Abdullayeva N. Globalizatsiya va milliy til. – Toshkent: Universitet, 2018.
13. Normurodov B. Axborot jamiyati va til taraqqiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
14. Jo'rayev A. O'zbek tili va ijtimoiy kommunikatsiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2022.

O'ZBEK TILINING LEKSIK YANGILANISH JARAYONI: NEOLOGIZMLAR MISOLIDA

Mo'ydinova Dinora Roziqjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

moydinovadinora@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilida neologizmlar va yangi so'zlar yaratilish jarayoni tahlil qilinadi. Neologizmlarning til taraqqiyotidagi o'rni ularning paydo bo'lish sabablari va yangi so'zlar yasash usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, neologizmlarning tilga integratsiyasi va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: neologizmlar, yangi so'zlar, so'z yasash, o'zbek tili, til rivoji, integratsiya, taraqqiyot.

ABSTRACT

This article analyzes neologisms and the process of creating new words in the uzbek language. The role of neologisms in language development, reasons for their emergence and methods of word formation are discussed. Furthermore, the integration of neologisms into the language and their significance in social life are examined.

Keywords: neologisms, new words, word formation, uzbek language, language development.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются неологизмы и процесс создания новых слов узбекском языке. Рассматривается роль неологизмов развитии языка причины их появления и методы словообразования. Также обсуждается интеграция неологизмов в язык и их значение в общественной жизни.

Ключевые слова: неологизмы, новые слова, словообразовании узбекский язык, развитие языка.

Til doimo rivojlanib boradigan tirik organizmga o'xshaydi. Har bir jamiyatning ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlari tilga yangi so'zlar, ya'ni neologizmlar

shaklida ta'sir ko'rsatadi. Neologizmlar tilga yaqinda kirib kelgan, yangi yaratilgan yoki avval mavjud bo'lmagan so'zlar bo'lib ular tilning rivojida muhim o'rin tutadi. O'zbek tilida ham neologizmlar paydo bo'lish jarayoni faol kechmoqda. Bu jarayon tilning xalqaro aloqalarga moslashuvi, fan va texnologik sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, madaniy almashinuvlar bilan chambarchas bog'liq. Yangi so'zlar yaratish va tilga kiritish orqali o'zbek tili o'zining boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi o'zbek tilida neologizmlarning paydo bo'lish sabablari, ularning turlari va yangi so'zlar yaratish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, neologizmlarning tilga integratsiyasi va ularning til rivojidagi o'рни ko'rib chiqiladi. Bu tadqiqot tilshunoslik, leksikografiya va madaniyatshunoslik sohalaridagi izlanishlarga yangi qo'shilma bo'lishi kutilmoqda. Neologizm atamasi yunoncha "neo" (yangi) va "logos" (so'z) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, yangi paydo bo'lgan yoki mavjud so'z larning yangi ma'noda qo'llanishini anglatadi. Tilshunoslikda neologizmlar- tilga yaqinda kirib kelgan yoki yaratilgan yangi so'zlar bo'lib ular tildagi leksik fondni boyitadi

Neologizm atamasiga olimlar turlicha ta'rif berishgan. R. Majidova, I. Yo'ldosheva, O'. Sharipov o'zlarining "Tilshunoslik nazariyasi asoslari" darsligida quyidagicha ta'rif beradi: "Neologizm- yangi narsa, yangi tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lug'aviy birlikka aylanib ketmagan so'z yoki iboralaridir". H. Jamolxonovning "Hozirgi o'zbek adabiy til" darsligida quyidagicha ta'riflagan: "Leksik neologizmlar tilde paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan so'zlar: internet, marketing, litsenziya va hokazo". Barchasini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, neologizmlar o'zbek tili leksikasining boyish manbalaridan biri hisoblanadi. Tilimizda yangi kirib kelgan so'zlarda bo'yodqorlik sezilib turadi.

1. Terminologik neologizmlar- ilm-fan, texnika, tibbiyot va boshqa sohalarda paydo bo'lgan yangi atamalar (masalan, "biotexnologiya", "robototexnika")

2. Texnik neologizmlar- texnologiyalar rivojlanishi bilan bog'liq yangi so'zlar (masalan, "dron", "smartfon")

3. Semantik neologizmlar- mavjud so'zlarning ma'nosining o'zgarishi yoki kengayishi

O'zbek tilida neologizmlar paydo bo'lishining asosiy sabablariga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar- jamiyatda yuz berayotgan yangiliklar, yoshlar madaniyati, yangi tendensiyalar tilga yangi so'zlarni olib kiradi.

2. *Texnologik taraqqiyot- yangi texnika va ilm- fan sohalaridagi kashfiyotlar tilni boyitadi.*

3. *Xalqaro aloqalar- chet tillardan olingan so'zlar orqali til yangi iboralar bilan boyitiladi.*

4. *Madaniy almashinuv va globalizatsiya- turli madaniyatlar bilan aloqalar yangi atamalarni tilga kiritadi.*

Yangi so'zlar yaratilishda o'zbek tilida bir nechta asosiy usullar qo'llaniladi:

Qo'shimchalar yordamida so'z yasash- asosiy so'zga turli qo'shimchalar qo'shish orqali yangi ma'noda so'zlar hosil qilinadi. (masalan, kitob----kitobchi, yoz-- --yozuvchi)

Qarama- qarshi so'zlar – antonimlardan yangi so'zlar hosil qilinadi. (masalan, issiq-sovuq noaniq holatni bildiradi)

So'z qisqartirish- yangi so'zlar qisqartmalar orqali hosil qilinadi. (masalan, TV-televizor)

Neologizmlarning o'zbek tiliga integratsiyasi. Neologizmlar dastlab tilga kirib kelganda ko'pincha noaniqlik va qarshiliklarga duch keldi. Ammo vaqt o'tishi bilan ukar adabiy tilga, ommaviy nutqqa va rasmiy hujjatlarga ham integratsiyalandi. Til qonunlar va normativlari ham yangi so'zlarni qabul qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Neologizmlar o'zbek tilini boyitish, uni zamon bilan hamnafas qilishda muhim rol o'ynaydi. Ularning milliy tilga to'g'ri integratsiyasi nafaqat tilning jozibadorligini oshiradi, balki xalqaro maydonda raqobatdosh bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bois yangi so'zlarni ilmiy asoslangan holda qabul qilish, fonetik va grammatik me'yorlarga moslashtirish, ularni lug'atlar orqali tartibga solish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbek tilida neologizmlar va yangi so'zlar yaratish jarayoni tilning jonli rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Neologizmlar til boyligini oshiradi, yangi g'oyalarni ifodalashda imkoniyat yaratadi va jamiyatdagi o'zgarishlarga muhim vosita hisoblanadi. Bu sohani chuqurroq tahlil qilish uchun yangi o'rganish usullari taklif qilinadi. Sh bilan birga, neologizmlarning tilga to'g'ri integratsiya qilinishini ta'minlash uchun bir nechta takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, rasmiy neologizmlar lug'atini yaratish zarur. Bu lug'atda yangi so'zlarning tavsiya etilgan o'zbekcha ekvivalentlari berilishi, ularning qo'llanishiga oid izohlar keltirilishi kerak. Ikkinchidan, yangi atamalarni ta'lim tizimiga joriy etish muhim. O'quv dasturlarida neologizmlarning to'g'ri qo'llanishi bo'yicha maxsus darsliklar va o'quv materiallarni ishlab chiqish lozim. Uchinchidan, tilshunos olimlar tomonidan yangi so'zlarning fonetik va grammatik jihatdan moslashuvini nazorat qilish ularni

normativlashtirish tizimini yo'lga qo'yish lozim. To'rtinchidan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda neologizmlarning noto'g'ri qo'llanilishining oldini olish uchun maxsus qo'llanmalar ishlab chiqilishi, bloggerlar va jurnalistlar uchun tavsiyalar berilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, neologizmlar o'zbek tilining global o'zgarishlarga moslashuvi va boyishi jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ularni ilmiy asosda o'rganish va tilga to'g'ri joriy etish o'zbek tilining rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda neologizmlarni chuqur o'rganish va ularni til tizimiga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev, A. (2018). O'zbek tilining zamonaviy lug'atshunosligi. Toshkent
2. Tilshunoslik asoslari: I. Yo'ldoshev, S. Muhamedova, O. Sharipov, R. Majidova. Toshkent-2013. – 189-190- sahifa.
3. Hozirgi o'zbek tili: Baxtiyor Mengliyev. "Excellent Publication" – Toshkent. 2020 - 182
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili: H. Jamolxonov. Toshkent – "Talqin". 2005. – 204-210- sahifalar
5. Zokirova, N. (2016). Til va madaniyat yangi so'zlar paydo bo'lishi. Toshkent: O'qituvchi.
6. Sobirov, T. (2021). Globalizatsiya va neologizmlar. Jahon tillari va madaniyati, 1(12), 60-67.
7. Crystal, D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Fromkin, V. Rodman & R. Hyams. (2018). An Introduction to Language. Boston: Cengage Learning.

O'ZBEK YOSHLARI NUTQIDA "INTERNET LAHJASI": IJOBIY VA SALBIY JIHATLAR

Mo'minov Aziz Sharof o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

azizbekmuminov109@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jargon tushunchasi, yoshlar jargoni, uning mazmun-mohiyati, zamonaviy o'zbek tilida qo'llanishi va jamiyatning til madaniyatiga ko'rsatadigan ta'siri o'rganilib, uning ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jargon, internet, ijtimoiy tarmoqlar, nutq, til madaniyati, adabiy til, varvarizm.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается понятие жаргона, молодежный жаргон, его сущность, использование в современном узбекском языке и влияние на языковую культуру общества. Анализируются как положительные, так и отрицательные стороны данного явления.

Ключевые слова: жаргон, интернет, социальные сети, речь, языковая культура, литературный язык, варваризмы.

ABSTRACT

This article examines the concept of jargon, youth jargon, its essence, usage in modern Uzbek language, and its impact on the language culture of society. Both positive and negative aspects of this phenomenon are analyzed.

Keywords: jargon, internet, social networks, speech, language culture, literary language, barbarisms.

Til – jamiyatning eng muhim aloqa vositalaridan biri sanaladi. Har qanday xalqning tili uning madaniyati, qadriyatlar va tafakkuri bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi globallashuv davrida til, ayniqsa, yoshlar nutqi, tezkor o'zgarishlarga

uchramoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, kino va musiqalar, xorijiy tillarning ta'siri natijasida yoshlar orasida yangi so'z va iboralar, ya'ni jargonlar keng tarqalmoqda. Jargon esa tilshunoslikda adabiy til me'yorlariga to'la mos kelmaydigan, asosan, muayyan ijtimoiy guruh vakillari tomonidan ishlatiladigan leksik birliklar sifatida izohlanadi. Ular muloqotni qulaylashtiradi, o'zaro yaqinlik va o'ziga xoslikni ifodalaydi. Shu bilan birga, jargonning haddan tashqari ko'p qo'llanishi adabiy tilga befarqlikni kuchaytirishi, aksar hollarda nutq madaniyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, yoshlar jargoni ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi: bir tomondan, u muloqot jarayonini qulaylashtirib, yoshlar o'rtasida o'zaro yaqinlikni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan adabiy til me'yorlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mazkur mavzuni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy hayot nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Jargon (fransuzcha - "safsata") muayyan ijtimoiy guruhlarda vujudga kelib, shular uchun xizmat qiladi. Bu tushuncha leksik jihatdan ham, uslubiy jihatdan ham o'zgaruvchan bo'lib, har doim barqaror bo'lmaydi. Wikipedia saytida jargon so'zi quyidagicha izohlanadi: *"Jargonlar turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar vakillarining bir-birlari bilan aloqa qilishida yoki turli xalq vakillari yig'iladigan joylarda ham paydo bo'ladi. Jargonlar qaysi ijtimoiy guruh orasida yuzaga kelgan bo'lsa, deyarli faqat shu guruh vakillari uchun tushunarli bo'ladi, shu toifadagilarning vaziyat, sharoit taqozasiga ko'ra boshqalardan yashirin tutiladigan maqsadlariga xizmat qiladi"*[1]. O'zbek tilshunosi H. Jamolxonov jargon va unga yondosh tushuncha bo'lgan argo hodisalari haqida quyidagi fikrni bildirgan: *"Jargon va argolar — ma'lum ijtimoiy guruhlariga, masalan, o'g'rilarga, sportchilarga yoki talabalarga xizmat qiladigan yasama til. Bunday «til» elementlari (jargonizm va argotizmlar) adabiy tilda ishlatilmaydi"*[2:5]. Jargonlarning paydo bo'lishi, rivojlanishini tasodifiy deb bo'lmaydi, bu jamiyatdagi til o'zgarishlari va madaniy ta'sirlar natijasidir. Bugungi kunda yoshlar jargonining eng faol manbalari sifatida nafaqat xorijiy so'zlarning nutqda o'rnashishi, balki internet, ijtimoiy tarmoqlar, musiqalar, kino va seriallar, shuningdek yozma muloqotdagi qisqartmalarni ham ko'rsatish o'rinlidir.

So'nggi yillarda internetning rivojlanish sur'atlar jadallik bilan o'sib borar ekan, bevosita yoshlar nutqiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu orqali ko'plab chet so'zlari kirib kelib, tilning ajralmas qismiga aylanib boryapti. Natijada yoshlarning kundalik muloqotida faol ishlatiladigan jargon so'zlar qatlami yuzaga kelmoqda. Ularning ayrimlarini ko'rib chiqish mumkin:

"Ok" - tushunarli, xo'p mayli;

"Lichkasiga yozmoq" - shaxsiy chatiga yozmoq, shaxsiy xabar yubormoq;

"Layk bosmoq" - yoqtirmoq, ma'qul kelmoq;
 "Podpiska tashlamoq" - obuna bo'lmoq;
 "story qo'yimoq" - hikoya joylamoq;
 "trend bo'lib ketmoq" - mashhur bo'lmoq, ommalashmoq;
 "prank qilmoq" - kutilmagan hazil qilmoq;
 "Chat qilmoq" - gaplashmoq, suhbatlashmoq, yozishmoq;
 "Selfi tushmoq" - o'zini suratga olmoq;
 "Feyk" - soxta va hokazo.

Yuqoridagi kabi so'zlar dastlab ingliz tilidan olingan bo'lsa-da, hozirda o'zbek tili bilan aralashib, yoshlar nutqining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu borada "Kun.uz" saytining bosh muharriri — Eldor Asanov ham o'z fikrini bildirib o'tgan: *"Hozir dunyoda so'zlashuv tili adabiy til soyasida qolmasligi kerak, degan tendentsiya o'z isbotini topmoqda. So'zlashuv tili bu — tilning asosiy qismi, har doim rivojlanib, boyib boradigan tirik shaklidir. U xalqning turmushini, ruhiyatini o'zida aks ettiradi. Shunday ekan, adabiy til uni siqib chiqarmasligi kerak, so'zlashuv tili qo'llanadigan sohalarni qoldirish kerak, deb o'ylayman. Bu bilan ijtimoiy tarmoqlarda yozganda hech qanday qoida va me'yorlarga amal qilish shart emas, demoqchimasman. Masalan, o'zim hamma o'qiydigan "post" qoldirsam, albatta sof adabiy tilda yozaman, lekin chat ichidagi suhbatda erkinroq bo'lishga harakat qilaman. Til me'yorlariga amal qilish suhbat mavzusiga ham bog'liq, agar suhbat adabiyot yoki san'atga, ilm-fanga taalluqli bo'lsa, shubhasiz, fikrim adabiy tilda ifodalangani ma'qul"*[3].

Ko'rinadiki, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida o'ziga xos muloqot shaklini yuzaga keltirmoqda. Aniqroq qilib aytganda, yoshlar virtual yozishmalarda qisqartirilgan shakllardan foydalanishni odat qilgan:

"Kk" - kerak(m: Dushanbada o'qishga borishim kk);
 "Bn" - bilan(m: o'rtog'im bn ko'chaga chiqyapman);
 "Plz" - iltimos(m: menga yordam berib yuboringlar, plz);
 "bb" - bo'lib;
 "kv" - kvartira;
 "akk" - akkaunt.

Shuningdek, "ch" harfini "c" shaklida, "sh" harfini "w" qilib, "o" harfini "6" tarzida yozish ham keng urchigan. O'zbek tili alifbosida 6 tagina unli tovush bo'lsa-da, og'zaki va yozma muloqotlarda ularni tushirib qoldirish holatlari uchraydi: "sz", "nma", "yaxshmsz", "ozm" "bordm", "pulm", "oyrn" yoki so'zning umuman buzib ishlatish holatlari, masalan: "nma qvos", "etvomman", "ketvotti", "nma disz" va

boshqa. Yuqoridagi holatlarning bir necha muhim ta'sirlari mavjud: Birinchidan, til me'yorlaridan chetga chiqiladi. Natijada yoshlar adabiy til yozuv qoidalari unutib qo'yishlari mumkin. Ikkinchidan, qisqartmalar va belgilar orqali tez yozishga o'rganish odat tusiga kiradi. Oqibatda rasmiy yozuv, matnlarda ham shu odatni qo'llash ehtimoli tug'iladi. Uchinchidan, turli yosh toifalari orasida tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Kattalar va bunday yozishish usulini bilmaganlar uchun kontekstni tushunish murakkablashadi. Qolaversa, katta avlod qatlami, balki yoshlar o'rtasida ham rus tilidan kirgan so'zlardan foydalanish ham keng tarqalgan:

"Norm" - yaxshi; "Tema" - mavzu;

"Brat" - aka;

"Realno" - chindan, haqiqatan;

"Ponyatno" - tushunarli;

"Vobshe" - umuman;

"Nu" - "xo'sh;

"Srazu" - darhol;

"Uje" - allaqachon;

"Konechno" - albatta;

"Da" - ha;

"Takoy" - shunday.

Bunday so'zlar fan tilida varvarizmlar deb yuritiladi. **"Varvarizm"** — bu bir tilda boshqa tildan olingan so'zlarning qo'pol yoki noto'g'ri shaklda ishlatilishi yoki o'ziga xos ma'noda qo'llanilishi hisoblanadi. Bu so'zlar ko'pincha chet tilidan kelib, o'z shaklini yoki talaffuzini o'zgartirgan holda ishlatiladi. Varvarizmlar tilning rivojlanishi va madaniy almashinuvning bir ko'rinishidir. Varvarizmlar ba'zan tilning boyishiga hissa qo'shsa-da, ularning noto'g'ri ishlatilishi nutqning sifatini pasaytirishi mumkin. Ular adabiyot, ommaviy axborot vositalari va kundalik nutqda uchraydi"[5]. Bunday birliklarning yoshlarning og'zaki va yozma nutqida faol qo'llanishining ta'sirini ikki tomonlama izohlash mumkin. Bir tomondan olib qaraganda, ular muloqotni sodda va erkin qiladi, yoshlar o'rtasida do'stona muhitni shakllantiradi. Biroq ikkinchi tomondan, bunday birliklarning ommalashuvi til va nutq madaniyatining pasayishiga, o'zbek tilining sofligiga putur yetkazishiga olib keladi.

Xulosa qilganda, bugungi kunda yoshlar o'rtasida internet va ijtimoiy tarmoqlar tas'ira natijasida "yoshlar tili" shakllanyapti. Bu orqali fikrni ifodalash qulaylashadi, ammo uni qo'llash natijasida nutq madaniyati buziladi. Shu sababli **"internet lahjasi"**dan imkon qadar foydalanmaslik, adabiy til me'yorlariga rioya qilish va o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wikipedia <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jargon>.
2. Jamolxonov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005. 260 b.
3. Habibullayeva N. Sleng internet shevasimi? <https://uzhurriyat.uz/2016/01/14/sleng-internet-shevasimi/>
4. Javoblar <https://javoblar.com/varvarizm-nima-varvarizm-sozlarga-misollar/>
5. Aminova M. Yoshlar va ijtimoiy media ta'sirida o'zbek adabiy tili me'yorlarining buzilishi. 2024. <https://scientific-jl.org/obr/article/view/42912>
6. Abduvohidov B. Yoshlar nutqida jargonlarning jargonlarning qo'llanilishi. 2023 11 b.
7. Azimov I., Ro'ziyev Z., Bobojonov F. O'zbek tilida lingvistik ekspertiza [Matn]: Uslubiy qo'llanma / I.Azimov, Z.Ro'ziyev, F.Bobojonov.- Toshkent. Bookmany print, 2023. - 48 b.
8. Turg'unpo'latov, D.R. Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq. "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.

ABDULLA ORIPOV IJODIDA FORS-TOJIK SO'ZLARINING ISHLATILISHI

Muhammadova Sevara Madamin qizi

Chirchir davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi talabasi

sevaramuhammadova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Oripov ijodida fors-tojik so'zlarining ishlatilishi tahlil qilinadi. Abdulla Oripov asarlarida bu qatlamning mazmuniy va falsafiy vazifalari yoritilgan. Fors-tojik so'zlari orqali Oripov ijodida lirizm, romantizm va sharqona ohang ko'rsatib beriladi. Bu leksik qatlam shoir ijodini o'zbek adabiyoti bilan uzviy bog'lanib turuvchi omil sifatida baholanadi. Abdulla Oripov ijodi milliy va Sharq adabiy an'analari uyg'unligining yorqin na'munasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Fors-tojik so'zlari, o'zbek adabiyoti, badiiy uslub, sharqona ruh, lirizm, falsafiylik.

Annotation. The article analyzes the use of Persian-Tajik words in the work of Abdulla Oripov. The substantive and philosophical function of this layer in the works of Abdulla Oripov are highlighted. Through Persian-Tajik words, lyricism, romanticism and oriental tone are shown in Oripov's work. This lexical layer is evaluated as a factor that inextricably links the poet's work with Uzbek literature. Abdulla Oripov's work is considered a vivid example of the harmony of national and Eastern literary traditions.

Keywords: Persian-Tajik words, uzbek literature, artistic style, eastern spirit, lyrism, philosophy.

Аннотация. В статье анализируется использование персидско-таджикской лексики в творчестве Абдуллы Орипова. Выделяются содержательные и философские функции этого пласта в произведениях Абдуллы Орипова. Через персидско-таджикскую лексику в творчестве Орипова проявляются лиризм, романтизм и восточный колорит. Этот лексический пласт оценивается как фактор, неразрывно связывающий творчество поэта с узбекской литературой.

Творчество Абдулли Орипова рассматривается как яркий пример гармонии национальных и восточных литературных традиций.

Ключевые слова: персидского-таджикские слова, узбекская литература, художественный стиль, восточный дух, лиризм, философия.

Abdulla Oripov she'riyati milliy o'zlik va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtira olishi bilan ajralib turadi. Uning badiiy nutqida xalqona iboralar, tarixiy til qatlami hamda boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar uyg'unlashib, o'ziga xos badiiy ohang hosil qiladi. Adabiyot tarixida Abdulla Oripovning o'rni beqiyosdir. Abdulla Oripov faqat o'zbek xalq shoiri emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoir sifatida tanilgan. Uning she'rlari, dostonlari va tarjimalari tilimiz boyligini, badiiy uslub rang-barangligini yoritib beradi. Abdulla Oripov ijodidagi e'tibor qaratish kerak bo'lgan muhim jihatlardan biri- unda fors-tojik so'zlarining qo'llanishidir. Bu so'zlar nafaqat shoir tilining nafisligini oshiradi, balki uning asarlarida Sharq adabiy merosi bilan uzviy bog'liqlikni ham bildiradi.

Abdulla Oripov ijodi o'zbek she'riyatining XX asrdagi yuksak bosqichini ifodalaydi. Shoir she'rlarida o'zbek tilining barcha qatlamlari, jumladan, fors-tojik tilidan kirib kelgan boy lug'aviy unsurlardan ham faol foydalanilgan. Bu so'zlar shoir asarlarini yanada jozibador qilgan va estetik ta'sir, falsafiy chuqurlik baxsh etgan. O'zbek adabiyoti tarixida fors-tojik so'zlari qadimdan badiiy nutqning asosiy qatlamlaridan biri bo'lib kelgan. "Umr", "dil", "orzu", "hijron", "taqdir", kabi so'zlar xalqimiz tilida foydalanilgan va she'riyatda alohida poetik vazifani bajargan. Abdulla Oripov shu merosni zamonaviy she'riyat ruhiga uyg'unlashtira olgan.

Fors-tojik so'zlarining she'riy matndagi uslubiy va estetik ahamiyati Abdulla Oripov ijodida muhim o'rin tutadi. Bu so'zlarning yozuvchilik san'atidagi o'rni va funksiyalarini tushunish uchun ularning estetik va uslubiy xususiyatlarini alohida ko'rib chiqish zarur. Fors-tojik so'zlari, asosan, she'riy matnning tovush va she'riy matnning ma'no va tovush boyligini oshirishda, stilistik uslubni kuchaytirishda va milliy madaniyatni ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Avvalo, fors-tojik so'zlarining estetik ahamiyati haqida gapirganda, ularning she'riy yozuvda yaratilgan muhitni yanada boyitishi, tasvirlarni aniqroqva chuqurroq ifodalash imkonini berishi ta'kidlanadi. Bu so'zlar she'riy matnning tovush va ritmi bilan uyg'unlashib, o'quvchida estetik ta'sirni kuchaytiradi. Masalan, Abdulla Oripovning she'rlarida fors-tojik so'zlari, ayniqsa, fonetik va semantik jihatdan boy yozilgan bo'lib, ular matndagi tovushlar uyg'unligini ta'minlaydi va she'riy ritmni muvofiqlashtiradi. Bu so'zlar orqali yozuvchi o'quvchining dilini, ruhiyatini va tasavvurini yanada kuchliroq ta'sir

qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Abdulla Oripov ijodida fors-tojik qo'llanishi, ularning til va adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi bilan ajralib turadi. U o'z she'riyati va yozuvchiligi jarayonida fors-tojik so'zlarini mahorat bilan ishlatib, milliy madaniyat va tilning boyligini namoyish etadi. Bu so'zlar she'riy matnda ayniqsa, tilning estetik va uslubiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Ular, shuningdek, she'riy so'zlashuvda ma'no va uslub jihatidan yangi qirralar ochadi, insonni chuqur fikrlashga undaydi.

Shoir she'rlarida "dil" so'zi Oripov lirikasi markazida turadi. Bu so'z faqat ko'ngilning sinonimi emas, balki insonning butun ichki olami, tuyg'u va hislarning badiiy ramzi vazifasini bajaradi. "Orzu" esa insonning pok niyatlari, baxtga intilishi va hayotdagi maqsadlari timsolida qo'llanadi. Bu kabi fors-tojik so'zlari ijodkorning she'riy matnda bir nechta vazifa bajaradi. Birinchidan, ular she'rning musiqiylikni va ohangdorligini oshiradi. Ikkinchidan, mazmuniy qatlamni boyitib, asarlarni falsafiy teranlik bilan boyitadi. Uchinchidan, Abdulla Oripovning she'riyatini mumtoz adabiyot an'analari bilan bog'laydi. Chunki fors-tojik so'zlari o'zbek mumtoz she'riyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Abdulla Oripov fors-tojik so'zlarini sun'iy ravishda emas, balki tabiiy ohangda qo'llagan. Ularning ishlatilishi she'rning umumiy ruhiyatiga uyg'un keladi. Masalan, "hijronli tunlar", "dil orzusi", "taqdir sinovlari" kabi ifodalar o'zbekcha so'zlar bilan almashtirilsa ham, asarning estetik ta'sir kuchi sezilarli darajada pasayadi. Demak, shoir ijodida fors-tojik so'zlarining qo'llanishi uning badiiy uslubining muhim jihatlaridan biridir. Ular orqali shoir ijodida fors-tojik so'zlaridan foydalanishi uning badiiy uslubining muhim jihatlaridan biridir. Ular orqali shoir milliy adabiyotimizning boy merosini davom ettirgan, zamonaviy o'zbek she'riyatini esa xalqaro adabiy jarayonlar bilan uyg'unlashtira olgan. Shu bois Abdulla Oripovning she'riyati faqat milliy darajada emas, balki butun Sharq adabiyotida ham qadrlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodidagi fors-tojik so'zlarining qo'llanishi uning she'riyatiga o'ziga xos badiiy nafosat, musiqiylik va ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Shoir bu so'zlardan ortiqcha bezak sifatida emas, balki ma'no yukini to'liq ochish, obrazlarni boyitish va o'quvchi qalbiga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida foydalanadi. Shuningdek, fors-tojikcha so'zlarning qo'llanilishi o'zbek tili tarixidagi qadimiy leksik qatlamning badiiy adabiyotdagi yashovchanligini namoyon etadi. Demak, Abdulla Oripov ijodi nafaqat milliy she'riyatimiz taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, balki turkiy va fors-tojik madaniy hamkorligi hamda til aloqalarini ham badiiy shaklda ifodalagan ijodiy merosdir. Bu jihatdan uning asarlaridagi fors-tojikcha madaniy hamkorligi hamda til aloqalarini ham badiiy shaklda ifodalagan ijodiy merosdir. Bu jihatdan uning asarlaridagi fors-tojikcha so'zlar

tilshunoslik va adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Oripov ijodida fors-tojik so'zlarining ishlatilishi muhim madaniy va lingvistik ahamiyatga ega. Oripov ijodida bu so'zlarning ishlatilishi nafaqat til boyligini oshirish, balki milliy madaniyat va til rivojiga qo'shgan hissasi keng yoritilgan. Oripov ijodida fors-tojik so'zlarining ishlatilishi orqali milliy an'analar va madaniy kontekstda qanchalik muhim ekanligi alohida ta'kidlanadi. Oripov ijodida fors-tojik so'zlarining ishlatilishi orqali milliy ongni mustahkamlash va madaniyatni rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fors-tojik so'zlarining she'riy matndagi o'rni, ularning estetik va lingvistik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Abdulla Oripov o'z she'riyatida fors-tojik so'zlarini mahorat bilan qo'llagan ijodkordir. U bu so'zlar orqali milliy adabiyotimizning tarixiy ildizlarini davom ettirib, zamonaviy she'riyatni poetik va falsafiy jihatdan boyitgan. Shoirning ijodida fors-tojik unsurlarining qo'llanishi nafaqat estetik go'zallik, balki ma'naviy chuqurlik, xalqona ruh va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu sababli Abdulla Oripov ijodi o'zbek adabiyotining taraqqiyotida alohida bosqich bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
2. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010.
3. Jo'raeva M. XX asr o'zbek she'riyati. –Toshkent: Fan, 2015.
4. Turg'unpo'latov D.R. Xalq maqollarida uchraydigan qarama-qarshilik xususiyatining o'ziga xos poetik tamoyillari. «Scientific progress», 2021, № 2(1), 1161-1164-b.
5. Turg'unpo'latov D.R. O'zbek bolalar adabiyoti va Turg'unboy G'oyipov. «Образование и наука в XXI веке» (Rossiya), 2021, № 15(2), 1688-1690-b.
6. Turg'unpo'latov D.R. Shuhratning “Mardlik afsonasi” balladasi va Mirkarim Osimning “To'maris” tarixiy hikoyalarida vatanparvarlik, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularining ulug'lanishi. «Scientific progress», 2021, № 2(3), 187-191-b.
7. Turg'unpo'latov D.R. Hakim Nazir ijodi, uning asarlaridagi tarbiyaviy jihatlarning yoritilishi. «Scientific progress», 2021, № 2(3), 192-195-b.

KIBERLINGVISTIKA: SOXTA XABARLARNI ANIQLASHDA LINGVISTIK EKSPERTIZA VA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI

Murodova Sug'diyona Hamdambek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

sugdiyona2608@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kiberlingvistika doirasida soxta xabarlar aniqlash jarayonida lingvistik ekspertiza va sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi tahlil qilinadi. Xususan, matnning leksik-semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlarini aniqlashda lingvistik ekspertiza usullaridan foydalanish hamda ularni sun'iy intellekt algoritmlari bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari axborot xavfsizligini ta'minlash, dezinformatsiyaga qarshi kurashishda samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kiberlingvistika, soxta xabar, lingvistik ekspertiza, sun'iy intellekt, axborot xavfsizligi, dezinformatsiya.

ABSTRACT

This article examines the integration of linguistic expertise and artificial intelligence technologies within the framework of cyberlinguistics for detecting fake news. The study focuses on the application of linguistic analysis methods in identifying lexical-semantic, stylistic, and pragmatic features of texts, and their combination with artificial intelligence algorithms. The findings contribute to enhancing information security and developing effective approaches to counter disinformation.

Keywords: cyberlinguistics, fake news, linguistic expertise, artificial intelligence, information security, disinformation.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается интеграция лингвистической экспертизы и технологий искусственного интеллекта в рамках киберлингвистики для выявления фейковых сообщений. Особое внимание уделяется использованию методов лингвистической экспертизы при анализе лексико-семантических, стилистических и прагматических характеристик текста, а также их сочетанию с алгоритмами искусственного интеллекта. Полученные результаты способствуют обеспечению информационной безопасности и разработке эффективных подходов к противодействию дезинформации.

Ключевые слова: киберлингвистика, фейковые сообщения, лингвистическая экспертиза, искусственный интеллект, информационная безопасность, дезинформация.

KIRISH

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot oqimlari beqiyos darajada tezkorlik bilan tarqalmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilayotgan xabarlarining ishonchliligi masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Xususan, soxta xabarlar (fake news) jamiyatda noto'g'ri qarashlarning shakllanishiga, ijtimoiy beqarorlikning kuchayishiga va hatto siyosiy manipulyatsiyalarga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, soxta xabarlarni aniqlash va ularning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda kiberlingvistika yo'nalishi ushbu masalani hal etishda samarali ilmiy maydon sifatida shakllanmoqda. Kiberlingvistika lingvistik tahlil va sun'iy intellekt algoritmlarining integratsiyasi orqali axborot oqimlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, lingvistik ekspertiza yordamida matnning leksik-semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlari aniqlanadi, sun'iy intellekt esa ushbu belgilar asosida avtomatik tahlil va tasniflashni amalga oshiradi.

ASOSIY QISM

Soxta xabarlar jamiyatda noto'g'ri qarashlarning shakllanishiga, turli ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkinligi bois ularni erta aniqlash va neytrallashtirish zamonaviy ilm-fanning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, "fake news" inson tafakkurini boshqarishning eng samarali vositalaridan biri sifatida turli maqsadlarda qo'llanmoqda"[1]. Shu nuqtayi nazardan, lingvistik ekspertiza va sun'iy intellekt integratsiyasi asosida kiberlingvistik yondashuvlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Kiberlingvistika tushunchasi XX asr oxirlarida tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida shakllanib, hozirda til va texnologiyaning kesishgan nuqtalarini o'rganishda

samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda[2]. Ushbu yo'nalish matnlarni nafaqat grammatik va semantik jihatdan, balki raqamli muhitda axborot oqimlarining o'zaro aloqasi, tarmoqdagi til birliklarining kommunikativ xususiyatlari nuqtayi nazaridan ham tadqiq qiladi. Ayniqsa, soxta xabarlarni tahlil qilishda lingvistik ekspertiza vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Lingvistik ekspertiza matnning shakl va mazmunini chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Uning yordamida soxta xabarlarni aniqlashda quyidagi belgilarni ko'rish mumkin:

ortiqcha emotsional yuklangan so'zlarning ishlatilishi;
tekshirilmagan statistik ma'lumotlarning qo'llanilishi;
senzatsion, haddan tashqari dramatik ifodalar;
umumlashtirish va stereotiplarga tayanish[3].

Masalan, siyosiy mavzulardagi soxta xabarlarda "xalq", "barcha", "hamma biladi" kabi umumlashtiruvchi birliklar ko'p uchraydi. Shuningdek, iqtisodiy yoki ijtimoiy mavzulardagi yolg'on ma'lumotlarda aniq manbaga asoslanmagan raqamlar tez-tez uchraydi. Bu kabi lingvistik belgilar ekspertiza uchun asosiy indikator hisoblanadi.

Biroq faqat lingvistik tahlil yetarli emas. Soxta xabarlar hajmi juda katta bo'lgani sababli ularni inson omili bilan muntazam tekshirish qiyin. Shu bois sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zarurati tug'iladi. Mashinaviy o'rganish va neyron tarmoqlar yordamida matnlar avtomatik ravishda tasniflanadi va "haqiqiy" yoki "soxta" degan belgilar bilan ajratiladi. Ta'kidlanganidek, "faqatgina insoniy omil bilan dezinformatsiyaga qarshi kurashish mumkin emas, avtomatlashtirilgan tizimlar bu jarayonning ajralmas qismiga aylanishi lozim"[4].

Sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) algoritmlari lingvistik ekspertizani kuchaytiradi. Masalan, matnlarda leksik-semantik tahlil yordamida so'zlarning emotsional yuklanishi o'lchanadi, sintaktik tahlil esa gap tuzilishidagi noodatiy elementlarni ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, pragmatik tahlil orqali matnning yashirin maqsadi aniqlanishi mumkin. Bu jarayonlarda sun'iy intellekt yirik hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash imkonini yaratadi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, lingvistik ekspertiza va sun'iy intellekt integratsiyasi bir-birini to'ldiruvchi ikki asosiy kuchdir. Sun'iy intellekt katta hajmdagi axborotni qayta ishlash, statistik model yaratish va tezkor natija berishda ustun bo'lsa, lingvistik ekspertiza matnning kontekstual, madaniy va milliy xususiyatlarini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. Misol uchun, o'zbek tilida uchraydigan "kesatq", "qarg'ish" yoki "istehzo" kabi nutq birliklari noto'g'ri talqin qilinsa, sun'iy intellekt xabarni noto'g'ri

tasniflab qo'yishi mumkin. Demak, texnologiya imkoniyatlarini milliy lingvistik tajriba bilan uyg'unlashtirish lozim.

Shuningdek, milliy manbalar asosida tadqiqotlar olib borish zarur. Qodirovning ta'kidlashicha, "axborot xavfsizligini ta'minlashda lingvistik ekspertizaning milliy xususiyatlarini hisobga olish ijtimoiy muhit barqarorligini saqlashga xizmat qiladi"[5]. Rasulov esa o'zbek tilida lingvopragmatik tahlilning metodologik asoslarini ishlab chiqqan holda, matnlarni milliy kontekstda o'rganishning ahamiyatini ta'kidlaydi[6]. Bu shuni ko'rsatadiki, xalqaro ilmiy yondashuvlar bilan bir qatorda, milliy ilmiy baza ham shakllanishi zarur.

Xabar turi	Matn namunasi	Belgilar
Real xabar	"O'zbekiston Respublikasi SSV ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilda 120 ta yangi shifoxona qurilishi rejalashtirilmoqda".	Aniq manba, raqamlar asosli, ortiqcha emotsiya yo'q.
Soxta xabar	"O'zbekistonda barcha shifoxonalar yopilmoqda, bemorlar yordam ololmayapti, odamlar vahimada!"	Ortib ketgan umumlashtirish, vahimali ifodalar, manba esa yo'q.

1-jadval. Real va soxta xabarni solishtirish

Soxta xabarlarni aniqlashda kiberlingvistika, lingvistik ekspertiza va sun'iy intellektning integratsiyasi nafaqat ilmiy-nazariy jihatdan, balki ijtimoiy-amaliy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dezinformatsiyaga qarshi samarali kurash faqat texnologik vositalar yoki insoniy ekspertiza bilan chegaralanib qolmasligi lozim, balki ularning o'zaro uyg'unligi orqali amalga oshirilishi zarur.

Amaliy tajribalar shuni anglatadiki, o'zbek tilidagi soxta xabarlarni aniqlashda madaniy va lingvopragmatik xususiyatlarni hisobga olmasdan turib, global algoritmlarni qo'llash ko'pincha natija bermaydi. Shu bois milliy tilshunoslik bazasi yaratilishi, o'zbek tiliga mos sun'iy intellekt modellari ishlab chiqilishi muhimdir. Bu esa nafaqat axborot xavfsizligini ta'minlashga, balki o'zbek tilining raqamli makonda mustahkam o'rnini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, kiberlingvistikaning qo'llanish doirasi kengayib bormoqda: u faqat soxta xabarlarni emas, balki reklama matnlarining samaradorligini baholash, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan til birliklarining dinamikasini kuzatish, hatto ta'lim sohasida raqamli resurslarni tahlil qilish kabi yo'nalishlarda ham samarali vosita bo'lishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda, mazkur yo'nalish kelajakda mustaqil fan sifatida shakllanishi va o'zining maxsus metodologiyasiga ega bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allcott, H., & Gentzkow, M. (2017). Social Media and Fake News in the 2016 Election. *Journal of Economic Perspectives*, 31(2), 211–236.
2. Crystal, D. (2006). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.
3. Tandoc, E., Lim, Z., & Ling, R. (2018). Defining “Fake News”. *Digital Journalism*, 6(2), 137–153.
4. Lazer, D. et al. (2018). The science of fake news. *Science*, 359(6380), 1094–1096.
5. Qodirov, M. *Axborot xavfsizligi va lingvistik ekspertiza*. Toshkent: Fan nashriyoti. (2020).
6. Rasulov, B. *O'zbek tilida lingvopragmatik tahlilning metodologik asoslari*. Toshkent: O'zMU nashriyoti. (2021).
7. Azimov I., Ro'ziyev Z., Bobojonov F. *O'zbek tilida lingvistik ekspertiza [Matn]: Uslubiy qo'llanma / I.Azimov, Z.Ro'ziyev, F.Bobojonov.- Toshkent. Bookmany print, 2023. - 48 b.*
8. Turg'unpo'latov, D.R. Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi. “*Akademic journal of educational research (AJER)*” xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.
9. Turg'unpo'latov, D.R. Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq. “*Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida*” mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.

TEACHING LISTENING THROUGH STORYTELLING AND DRAMA

Muxtarova Shaxzoda Mumin qizi

Chirchik State Pedagogical University, Tourism Faculty, student

e-mail: shaxzodamuxtarova24@gmail.com

Yuldasheva Omila Odilovna

Linguistics and English Teaching Methodology, teacher

e-mail: o.o.yuldasheva@cspu.uz

Annotation. This article analyzes the importance of storytelling and drama techniques in teaching listening skills. It explores how interactive and creative methods improve learners' engagement and retention of information. The study also presents innovative pedagogical strategies that enhance the effectiveness of listening lessons and encourage active participation. In addition, it examines the role of communicative competence in language development.

Keywords: Listening, storytelling, drama, language learning, pedagogy, English language, communicative skills

Annotatsiya. Ushbu maqola tinglash ko'nikmalarini o'qitishda hikoya qilish va drama usullarining ahamiyatini tahlil qiladi. Unda interaktiv va ijodiy yondashuvlar o'quvchilarning qiziqishi va ma'lumotni eslab qolish qobiliyatini qanday oshirishi yoritiladi. Tadqiqot, shuningdek, tinglash darslarining samaradorligini oshiradigan va faol ishtirokni rag'batlantiradigan innovatsion pedagogik strategiyalarni taqdim etadi. Bundan tashqari, unda til rivojida kommunikativ kompetensiyaning roli ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tinglash, hikoya qilish, drama, til o'rganish, pedagogika, ingliz tili, kommunikativ ko'nikmalar.

Аннотация. В данной статье анализируется важность использования сторителлинга и драматических методов в обучении навыкам аудирования. Рассматривается, как интерактивные и творческие подходы повышают вовлечённость учащихся и запоминание информации. В исследовании также представлены инновационные педагогические стратегии, которые повышают эффективность уроков по аудированию и стимулируют активное участие. Кроме того, изучается роль коммуникативной компетенции в развитии языка.

Ключевые слова: аудирование, сторителлинг, драма, изучение языка, педагогика, английский язык, коммуникативные навыки.

In modern education, the development of listening comprehension skills plays an important role. Especially when teaching English as a foreign language, innovative methods are required to teach listening effectively. Teaching listening through storytelling and drama immerses learners in a multi-sensory experience that builds concentration, empathy, and critical thinking. Drama activities, such as miming, gestures, and creating soundscapes, make abstract stories tangible and help students connect language to action. Interactive storytelling techniques like pausing for questions, predicting outcomes, and using visual aids ensure active engagement and deeper understanding.

Listening is one of the most essential aspects of language learning, as it facilitates vocabulary acquisition, pronunciation, grammatical awareness, and the recognition of tone and intonation [1: 28].

The importance of listening can be summarized as follows:

- Basis for communication: understanding enables meaningful responses.
- Vocabulary enrichment: new words and phrases are acquired through listening.

- Pronunciation and intonation practice: learners' model correct patterns.

Cultural understanding: listening provides insight into the cultural and contextual aspects of language [2: 56].

However, there are many difficulties in developing listening comprehension:

- Lack of vocabulary – learners are confused when hearing unfamiliar words and phrases.

- Fast speech – native speakers usually talk at a natural rate, which is difficult for beginners.

- Lack of concentration – some students find it hard to focus on longer listening passages.

- Different accents and pronunciations – regional variations can be challenging.

- Lack of methodology – teachers sometimes use only passive methods, which reduces motivation [2: 56].

To overcome these challenges, interactive and creative techniques such as storytelling and drama are essential.

Storytelling and Drama from a Linguodidactic Perspective. Linguodidactics studies the theoretical and practical foundations of language teaching and learning. Storytelling (fairytelling) and drama (acting activities) are considered powerful communicative, contextual, and interactive approaches in language education [3: 81].

Contextual approach: stories provide learners with vocabulary and grammar in meaningful contexts. This makes comprehension more natural and effective.

Communicative approach: storytelling encourages learners not only to hear but also to interpret and discuss content. Asking questions and sharing opinions helps in practical language use.

Motivation and logical thinking: Stories attract attention, develop curiosity, and enhance logical reasoning skills by showing cause-and-effect relationships [4: 111].

Drama, in turn, emphasizes active and interactive learning. Students act out roles, create dialogues, and practice language in real-life contexts. These shifts learning from passive listening to active participation. It also helps develop communicative competence, cultural awareness, emotional intelligence, and self-confidence [5: 116].

Practical Classroom Applications. Story listening comprehension: The teacher reads or plays a short story, and students answer questions (who, what, where, when, why). This strengthens focus and understanding.

Drama role-play activities: students act out real-life conversations (shopping, hotel check-in, school dialogues). The rest of the class listens carefully and analyzes language use.

Storytelling method advantages:

- Increases motivation and interest.
- Expands vocabulary and grammar knowledge in context.
- Improves understanding of cultural aspects.
- Enhances logical thinking and memory [6: 42].

Storytelling method disadvantages:

- Long stories may bore some learners.
- If stories are too difficult, they may cause misunderstanding.
- May encourage passive listening if not interactive enough [6: 42].

Drama method advantages:

- Encourages active participation.
- Simulates real-life situations.
- Develops communicative competence and teamwork.
- Builds confidence and reduces fear of speaking.
- Enhances creativity and emotional skills [7: 89].

Drama method disadvantages:

- Some students may feel shy on stage.
- Activities require more time and preparation.

➤ Managing group work can be difficult, and passive learners may appear [7: 89].

Conclusion

Storytelling and drama techniques are highly effective in developing listening skills. Storytelling is especially useful for young and beginner learners, as it develops vocabulary and comprehension in meaningful contexts. Drama, however, is particularly suitable for adolescents and adults, as it improves communicative competence through real-life practice. Both methods increase motivation, enhance participation, and make language learning more engaging. Therefore, combining storytelling and drama in modern language teaching is strongly recommended.

References:

1. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). Pearson Education, 2017. [1, p.28]
2. Cameron, L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press, 2021. [7, p.89]
3. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Pearson Longman, 2018. [2, p.56]
4. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. Techniques and Principles in Language Teaching (3rd ed.). Oxford University Press, 2021. [3, p.81]
5. Nation, I. S. P., & Newton, J. Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. Routledge, 2019. [4, p.111]
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press, 2014. [5, p.116]
7. Wright, A. Drama Techniques in Language Learning: A Resource Book of Communication Activities for Language Teachers. Cambridge University Press, 2015. [6, p.42]
8. Yuldasheva, O. O. "MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE." *PEDAGOG* 8.1 (2025): 187-190.

IJTIMOIIY TARMOQLARDA TILNING DINAMIK O'ZGARISH JARAYONLARI

Narzullayeva Dinora Jovli qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dostoni,

filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANOTATSIYA:

Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning tilga ta'siri, xususan, neologizmlar, qisqartmalar, grammatik o'zgarishlar va emojilar orqali tilning dinamik evolyutsiyasi tahlil etiladi. Tarmoqlarning tilni boyitish va aloqani osonlashtirish kabi ijobiy tomonlari bilan birga, til buzilishi va savodsizlik xavfi ham ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR: ijtimoiy tarmoqlar, til evolyutsiyasi, neologizmlar, qisqartmalar, grammatika, imojilar, aloqa, internet tili.

АННОТАЦИЯ:

В статье анализируется влияние социальных сетей на язык, в частности, динамическая эволюция, проявляющаяся в неологизмах, сокращениях, грамматических изменениях и использовании эмодзи. Рассматриваются как положительные стороны - обогащение языка и упрощение коммуникации, так и риски, связанные с его искажением и снижением грамотности

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Социальные сети, эволюция языка, неологизмы, сокращения, грамматика, эмодзи, коммуникация, язык интернета.

ANNOTATION:

The article analyzes the impact of social media on language, focusing on its dynamic evolution through neologisms, abbreviations, grammatical changes, and the risks of language distortion and decreased literacy.

KEYWORDS: Social media, language evolution, neologisms, abbreviations, grammar, emojis, communication, internet language.

XXI asrda ijtimoiy tarmoqlar global aloqa makonining markaziga aylandi. Facebook, Instagram, Twitter, Tiktok kabi platformalar nafaqat insonlar o'rtasida muloqotni osonlashtiradi, balki tilning o'zgarishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu

ta'sir, ayniqsa, yosh avlod vakillari nutqida yaqqol seziladi. Ijtimoiy tarmoqlarda yangi so'zlar- neologizmlar paydo bo'lishi odatiy holga aylandi. „SELF“, „хештер“, „лайк“ kabi so'zlar global miqyosda tarqalib, kundalik nutqimizga kirdi. Bundan tashqari, tezkor xabar almashish zarurati qisqartmalarning keng qo'llanilishiga olib keldi. „LOL“, „OMG“, „BRB“ kabi qisqartmalar matnli muloqotning ajralmas qismiga aylandi. Ammo bu jarayonning ham salbiy tomonlari yo'q emas. Tilshunoslar ijtimoiy tarmoqlarda grammatik qoidalarga e'tiborning susayishi, imloviy xatolarning ko'payishi va adabiy til me'yorlarining buzilishi haqida jiddiy xavotir bildirishmoqda. Emojilarning haddan tashqari ishlatilishi esa so'z boyligining qisqarishiga va fikrni to'liq ifodalash qobiliyatining susayishiga olib kelishi mumkin.

O'zbek tilida bu jarayon oziga xos xususiyatlarga ega. Rus va ingliz tillaridan o'zlashgan so'zlar („хайп“, „сторис“, „челленд“) yoshlar nutqida keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, o'zbek tiliga xos bo'lgan qisqartmalar (xo'p, nima gap, tinchmi) ham faol ishlatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda til o'zgarishlari - bu tabiiy jarayon, ammo uning oqibatlarini nazorat qilish zarur. Tilshunoslar, o'qituvchilar va ommaviy axborot vositalari bu borada mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kerak. Yosh avlodni to'g'ri va ravon yozishga o'rgatish, adabiy til me'yorlariga rioya qilish va so'z boyligini oshirish - bu bizning muhim vazifalarimizdan biridir. Til - bu millatning ruhi, madaniyatning asosi. Ijtimoiy tarmoqlarda tilning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, uni asrab-avaylash va rivojlantirish - har birimizning burchimizdir.

XXI asr tilshunosligining - system tilshunoslikning bosh, asosiy mezonlari til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo'ldi. Prof. H. Ne'matovning yozib qoldirgan ma'lumotlariga ko'ra, til va nutq hodisalarini o'zaro farqlash dastlat VII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o'rganish usullarida kuzatish mumkin. Prof. H. Nurmonovning tatqiqotlarida esa temuriylar davri o'zbek tilshunosligining sardori bo'lgan Alisher Navoiy asarlarida til va nutq hodisalari farqlangani, alloma shu masalaga alohida e'tibor bergani qayd etiladi.

Tilning ijtimoiy mohiyati jamiyatda aloqa-aralashuv quroli bo'lishida ko'rinadi. Shunga ko'ra, Prof. S. Usmonov "Insonlar orasidagi munosabat uchun xizmat qiladigan narsa, albatta, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday munosabat, aloqa kollektiv ichida-jamiyatda voqe bo'ladi", deydi. Ijtimoiy- psixik bo'lgan jarayon til o'zining jamiyatdagi kommunikativ, umuman, har qanday vazifasini nutq shaklida, nutq ko'rinishida, nutq orqali amalga oshiradi. Nutq til sistemasining so'zlashuv, fikr almashuv jarayonidagi yoki yozuvdagi- matndagi muayyan ifodasidir, ko'rinishidir holatidir. Shunga ko'ra, S. Usmonov "Til qachon

ma'lum funksiyani bajarishi mumkin? Til nutq sifatida namoyon bo'lgandagina ma'lum funksiyani bajarishi mumkin", deydi.

Miyamizda (ongimizda) obyektiv olamning ta'siri tufayli hosil bo'lgan tushunchalar, tasavvurlar, turli xil fikrlar, demak, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan til (nutq) orqali voqelanadi. Yana ham aniqrog'I, har qanday fikrni ifodalash, boshqalar bilan aloqada bo'lish, faqat til materiali orqali amalga oshadigan real, jonli nutq jarayonida sodir bo'ladi. Til aloqa quroli, insonlar orasidagi munosabat vositasi deb baholanganida til materialiga asoslangan nutq ko'zda tutiladi.

Ichki- psixik jarayon, tashqi- moddiy voqelikka o'tar ekan, aylanar ekan, bu o'tish jarayon faqat nutq asosida, ya'ni hamma vaqt til materialiga suyanadigan nutq orqali amalga oshadi. Nutq uchun esa asos (baza) vazifasini til boyligi, til materiali o'taydi.

1.Psixik material. Bu-so'z, morfema va fonemalarning xotiradagi obrazi (qiyofasi).

2.Moddiy material. Bu- nutq yaratish chog'ida belgili tovush qobig'iga ega bo'lgan, aniq talaffuz qilinayotgan so'zlar, morfemalar va tovushlar.

Demak, real jonli nutqning real jonli birliklaridan, tashkil topishi iosbot talab qilmaydigan haqiqatdir. " Ammo ajratishdan hosil bo'lgan har bir element o'sha nutq o'tib ketganidan keyin o'z material qobig'ini yo'qotib, ma'lum obrazlar sifatida doimiy ravishda xotirada saqlanadi. Xotiradagi bu elementlar endi moddiy hodisa bo'lmay, psixik hodisadir. Psixik xodisadan esa lozim bo'lganida nutq a'zolarining faoliyati tufayli yana moddiy hodisa hosil qilishi mumkin". Demak, xotiradagi til elementlarining obrazlari nutq faoliyati vaqtida real til elementlariga aylanadi. Zotan, real elementlar aslida, birlamchi bo'lib, ularning ongda (xotiradagi) obrazlari ikkilamchidir va ular real elementlar tufayli hosil bo'ladi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar til taraqqiyotining eng faol maydoniga aylanganini inkor etib bo'lmaydi. Insoniyat tarixida har bir davr o'z kommunikatsiya vositalarini yaratgan bo'lsa, XXI asr texnologiyalar asrida bu rolni ijtimoiy tarmoqlar bajarmoqda. Shuning uchun ham, bu sohada sodir bo'layotgan til o'zgarishlarini men tabiiy va zarur jarayon sifatida baholayman. Avvalo, til — bu tirik tizim. U jamiyatdagi har bir ijtimoiy, siyosiy, madaniy o'zgarishlarga mos ravishda o'zgaradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlardagi so'zlashuv, qisqartmalar, sleng, emoji va yangi iboralar tilimizning moslashuvchanligi va ijodkorligini yaqqol namoyon etmoqda. Tilni sun'iy tarzda "muzlatib qo'yish" mumkin emas, aks holda u xalq hayotidan uziladi. Menimcha, ko'plab kattalar yoki tilni "sof saqlash" tarafdorlari internetdagi yangi so'zlar va shakllarni "tilni buzmoqda" deb baholashadi. Aslida esa, bu holat — tilning zamonaviy kommunikatsiya muhitiga moslashuvidir. Masalan, "story

tashlamoq”, “post qilmoq”, “follow bosmoq” kabi gibrid birikmalar grammatik jihatdan yangicha ko‘rinsa-da, ular tarmoqda aniq mantiqiy ma’noga ega. Bu o‘zgarishlar tilning tanazzuli emas, balki uning funksional kengayishidir. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda til faqat aloqa vositasi emas, balki shaxsiy identitetni ifodalash vositasiga ham aylandi. Har bir foydalanuvchi o‘z uslubiga ega: kimdir “rasmiy” yozadi, kimdir “mem”, “emoji” yoki “sleng” orqali fikrini bildiradi. Bu xilma-xillik tilni boyitadi, shaxsning o‘z fikrini erkin ifodalash imkonini kengaytiradi. Ayniqsa, yoshlar orasida tarmoq tili o‘ziga xos “avlod tili”ni shakllantirmoqda.

Biroq, bu o‘zgarishlarga biryozlama qarash to‘g‘ri emas. Tilshunos sifatida (yoki ilmiy kuzatuvchi sifatida) men bu jarayonning ijobiy tomonlarini ham, ehtimoliy xavf jihatlari ham ko‘raman. Masalan:

Orfografik me’yorlarning buzilishi (masalan, “zo‘rraaa”, “bo‘ldeee”) odatiy yozuv madaniyatini pasaytirishi mumkin.

Chet tillar (asosan ingliz tili) ta’sirining kuchayishi milliy tilning mustaqil leksik fondiga bosim keltirishi ehtimoli bor.

Emotsional belgilarning (emoji, sticker) ko‘pligi ba’zan nutqning mantiqiy aniqligini susaytiradi

Ammo bu kamchiliklar taqiqlash orqali emas, balki to‘g‘ri yo‘naltirish orqali bartaraf etilishi kerak, deb hisoblayman. Til o‘qituvchilari, bloggerlar, jurnalistlar va kontent yaratuvchilar o‘z materiallarida madaniyatli onlayn tilni targ‘ib etishlari zarur. Chunki internetdagi nutq madaniyati bevosita butun jamiyat til madaniyatiga ta’sir qiladi. Shaxsan mening fikrimcha, ijtimoiy tarmoqlar til uchun tajriba maydonidir. Bu yerda til o‘zini sinovdan o‘tkazadi: qaysi so‘zlar xalq orasida yashab qoladi, qaysilari esa tezda unutiladi — bularni vaqt ko‘rsatadi. Masalan, “trend” va “kontent” so‘zlari o‘zbek tilida allaqachon mustahkam o‘rnashib bo‘ldi, biroq “stream” yoki “vlog” kabi so‘zlar hali umumxalq tilida to‘liq o‘zlashgani yo‘q. Bu esa tilning tabiiy tanlov mexanizmini ko‘rsatadi. Shuningdek, tilning ijtimoiy tarmoqlarda o‘zgarishi — bu madaniy o‘zgarishlar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiy tarmoqlarda har bir so‘z, har bir post — bu axborot, g‘oya va ta’sir vositasi. Shu sababli, tarmoq tili faqat lingvistik hodisa emas, balki ijtimoiy ongning ifodasidir. Kim qanday yozsa — u o‘z dunyoqarashini, madaniyatini, saviyasini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, men ijtimoiy tarmoqlarda tilning dinamik o‘zgarishini ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismi deb bilaman. Til bu jarayon orqali zamon bilan hamnafas bo‘ladi. Asosiysi — bu o‘zgarishlarni anglash, ilmiy tahlil qilish va madaniyatli shaklda qo‘llashdir. Til — xalqning ruhi, va bu ruh yangi texnologik sharoitda ham yashash, rivojlanish, yangilanish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Shunday

ekan, ijtimoiy tarmoqlardagi tilni “yangi avlod tili”, “ijtimoiy lingvistik hodisa”, “madaniyatlar kesishgan nuqta” sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq. Chunki u bugungi kun fikrlash madaniyatini, muloqot uslublarini va hatto insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofani ham belgilab bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akhmedova, M. (2020). Til evolyutsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarning roli. Toshkent: O‘zbek tilshunoslik nashriyoti.
2. Karimov, B. (2018). “Ijtimoiy tarmoqlarda neologizmlar va ularning nutq madaniyatiga ta’siri.” Til va adabiyot jurnali, 3(12), 45-52.
3. Nazarov, S. (2019). Internet tili: xususiyatlari va rivojlanish yo‘llari. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. R.Rasulov, Q. Mo‘ydinov. Nutq madaniyati va notqlik san’ati-Toshkent 2025.

MADANIY NUTQ — JAMIYAT TARAQQIYOTI VA MA'NAVY YUKSALISH OMILI SIFATIDA

Normo'minova Bahrigul O'rozali qizi

Chirchiq davlat pedagogikauniversiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

bahrigulnormominova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada madaniy nutqning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rnini, uning ta'lim, tarbiya, muloqot va ijtimoiy jarayonlarda tutgan o'rnini keng yoritilgan. Nutq madaniyati insonning nafaqat savodli fikr bildirishida, balki ijtimoiy muhitda to'g'ri munosabat o'rnatishida ham asosiy omil sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: madaniy nutq, jamiyat, yaxshi nutq, axborot, fikrlash

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение культурной речи в жизни личности и общества, её роль в образовании, воспитании, общении и социальных процессах. Культура речи анализируется как важный фактор не только грамотного выражения мыслей, но и установления правильных взаимоотношений в обществе.

Ключевые слова: культурная речь, общество, хорошая речь, информация, мышление.

ABSTRACT

This article explores the significance of cultured speech in the life of an individual and society, highlighting its role in education, upbringing, communication, and social interactions. Speech culture is analyzed as a key factor not only in expressing thoughts clearly but also in establishing proper social relations.

Keywords: cultural speech, society, good speech, information, thinking.

KIRISH

Inson hayotida nutq va muloqot beqiyos ahamiyatga ega. Til xalqning ma'naviy boyligi, milliy o'zligining ramzi bo'lsa, nutq uning amaliy ko'rinishi sifatida namoyon

bo'ladi. Madaniy nutq esa shaxsning intellektual darajasi, odobi va dunyoqarashini belgilovchi mezonlardan biridir. Shu bois, har qanday jamiyat taraqqiyoti bevosita nutq madaniyatining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ham nutq haqida quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: „Nutq-bu vosita emas, bu qudratdir. To'g'ri va haqqoniy aytilgan so'z inson tafakkurini o'zgartiradi“.

ASOSIY QISM

Madaniy nutq- bu to'g'ri talaffuz, so'z boyligidan oqilona foydalanish, fikrni ravon va lo'nda ifodalash hamda muomala odobiga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Har bir insonning nutqi uning tafakkuri va ma'naviy dunyoqarashidan dalolat beradi. Shu sababli, nutq madaniyati shaxs kamolotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotida madaniy nutqning o'ri beqiyosdir. Shu sababli Abdurauf Fitratning quyidagi fikrini keltirishni joiz bildim. Alloma shunday deb ta'kidlaydi: „Har bir millatning kuchi –uning tilida. Til esa-nutq orqali yashaydi. Notiq millat ko'nglini uyg'otadi, jaholatni quvadi“. Bugungi axborot oqimi kuchli bo'lgan davrda, madaniy nutq insonlarni birlashtiruvchi, ularni milliy qadriyatlar va ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi, ota-ona va ziyolilarning nutqi yosh avlodga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, Abu Nasr Farobiy aytganlaridek: „Notiq-bu fikrni ravon, aniq va tushunarli qilib bayon eta oladigan kishidir. Uning nutqi nafaqat aqlni, balki qalbni ham qamrab oladi“. O'quvchilarning fikrlashi, dunyoqarashi va muomala madaniyati ko'p jihatdan ular eshitgan nutq sifati bilan shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, nutq madaniyati nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy burch hamdir. Yaxshi nutq egasi bo'lgan inson o'z fikrini aniq ifodalaydi, muloqotda odob saqlaydi va boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, madaniy nutq jamiyatda sog'lom muhitni yaratadi, insonlar o'rtasida o'zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Notiqning nutqida quyidagi xususiyatlar bo'lmog'i lozim:

- jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);*
- keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi);*
- havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lish);*
- ixchamlik, harakatchanlik;*
- chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish)*
- moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikaning eshitishtirish sharoitiga moslasha olishi);*
- suggestivlik (ovozning hayajon ifodalash va bu orqali, qanday so'z*

aytilayotganidan qat'i nazar, tinglovchining xulqiga ta'sir qilish xususiyati).

Biz nutq haqida gapirar ekanmiz, nutq apparatlariga duch kelamiz. Bular quyidagi qismlardan iborat:

1. Bo'g'izdan quyi qism (o'pka, bronxlar, traxeya);

2. Bo'g'iz boshlig'i (halqasimon, piramidasimon, qalqonsimon, tog'aysimonlar va tovush paychalari);

3. Og'iz bo'shlig'i (til, yumshoq tanglay, qattiq tanglay, kichik til, tishlar, lablar);

4. Burun bo'shlig'i.

Nutq xoh og'zaki, xoh yozma bo'sin, go'zal yoki quruq-qo'pol bo'lishi mumkin. O'tkir teshani qo'lga olgan usta u bilan ajoyib bir quticha yasashi mumkin. Shu teshani qo'lga olgan chala bir havaskor usta bir zumda qo'lini chopishi yoki yaxshi narsani ishdan chiqarishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, madaniy nutq insonning ma'naviy barkamolligi va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismidir. Har bir shaxs o'z fikrini boyitib, uni odob va mantiqiylik bilan shakllantirishi orqali nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy taraqqiyotga ham hissa qo'shadi. Madaniy nutq-bu insonning ruhiy merosi, milliy qadriyatlarining yorqin ifodasi va kelajak avlod uchun bebaho saboqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti,2008
2. Rasulov R, Mo'yidinov Q./Nutq madaniyati va notiqlik san'ati/o'quv qo'llanma.-Toshkent: "Mhamroh media",2025.-232 b.

NUTQ MADANIYATI – YOSHLAR MA'NAVIYATI VA INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI

Norquvvatova Mehribon To'qli qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya. Nutq madaniyati shaxsning ma'naviy kamoloti va intellektual salohiyatini yuksaltirishda muhim omil sanaladi. Ayniqsa, yoshlar uchun to'g'ri, ravon va mantiqiy nutq nafaqat bilimlarni ifodalash, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim va axborot makonida nutq madaniyati yoshlarning tafakkurini boyitadi, ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga zamin yaratadi. Shu sababli nutq madaniyatini rivojlantirish yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Kalit so'zlar: Nutq madaniyati, yoshlar, ma'naviyat, intellektual salohiyat, ta'lim, tafakkur.

Аннотация. Культура речи является важным фактором развития духовности и интеллектуального потенциала личности. Для молодежи грамотная и логичная речь служит не только выражением знаний, но и формированием самостоятельного мышления, творческого подхода и социальной активности. В условиях современного образования и информационного общества культура речи способствует обогащению мышления, укреплению духовных ценностей и активному участию в жизни общества. Поэтому развитие культуры речи считается одним из главных направлений повышения интеллектуального и духовного потенциала молодежи.

Ключевые слова: Культура речи, молодежь, духовность, интеллектуальный потенциал, образование, мышление.

Abstract. Speech culture plays a crucial role in enhancing the spiritual development and intellectual potential of individuals. For young people, accurate and logical speech not only expresses knowledge but also fosters independent thinking,

creativity, and social engagement. In the context of modern education and the information society, speech culture enriches youth's mindset, strengthens moral values, and prepares them for active participation in social life. Therefore, developing speech culture is considered one of the key factors in raising the intellectual and spiritual capacity of the younger generation.

Keywords: Speech culture, youth, spirituality, intellectual potential, education, thinking.

Bugungi globallashuv va axborot asrida yoshlarning ma'naviyati hamda intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Insonning bilim saviyasi, tafakkuri va dunyoqarashini ifodalashda nutq madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, nutq madaniyati faqatgina til qoidalariga rioya qilish emas, balki shaxsning umumiy ma'naviy olami, odobi va intellektual darajasini namoyon qiluvchi asosiy ko'rsatkichdir.

Yoshlarning nutq madaniyatini shakllantirish, ularning ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlash, intellektual salohiyatini yuksaltirish orqali jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash mumkin. Shu nuqtayi nazardan, nutq madaniyatini rivojlantirish masalasi ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida muhim o'rin tutadi.

Nutq madaniyati – bu til boyliklaridan oqilona, o'rinli va samarali foydalanish, fikrni aniq, ravon, mantiqiy va estetik shaklda ifoda etish san'atidir. Inson nutqining madaniyligi, avvalo, uning tafakkuri va ma'naviy saviyasiga bog'liq. Tilning boy imkoniyatlarini o'zlashtirish orqali inson o'z fikrini ta'sirchan, tushunarli va mazmunli tarzda yetkazadi.

Nutq madaniyati quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Til me'yorlariga rioya qilish;

Fikrning mantiqiyligi va izchilligi;

Adabiy tilning boy imkoniyatlaridan foydalanish;

Nutqning odob va ma'naviyat bilan uyg'unligi;

Axborot almashinuvida aniqlik va samimiylilik.

Shu bois nutq madaniyati nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va ma'naviy hodisa sifatida ham qaraladi.

Yoshlarning nutq madaniyati ularning dunyoqarashi, intellektual rivoji va jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Nutqi ravon bo'lgan yosh shaxs boshqalar bilan samarali muloqot qila oladi, bilimlarini aniq ifodalaydi va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etadi.

Ma'naviy rivojlanishda – nutq orqali yoshlar milliy qadriyatlarni o'zlashtiradi, axloqiy tamoyillarni shakllantiradi.

Intellectual rivojlanishda – mantiqiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Ijtimoiy faollikda – jamiyatdagi ishtirokini kuchaytiradi, rahbarlik va yetakchilik sifatlarini yuzaga chiqaradi[2].

Demak, nutq madaniyati yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishida poydevor vazifasini bajaradi.

Ta'lim tizimida nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ona tili va adabiyot darslari, muloqot madaniyati mashg'ulotlari yoshlarning nutqiy savodxonligini oshirishda muhim vositadir. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqda to'g'ri so'zlash, fikrni aniq bayon qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

Bugungi kunda nutq madaniyatini rivojlantirish uchun:

interfaol metodlardan foydalanish;

ijodiy yozma ishlar va munozaralar tashkil etish;

notiqlik san'ati bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;

o'quvchilarni mustaqil o'qishga va o'z fikrini erkin ifodalashga o'rgatish zarur[3].

Ta'lim jarayonida nutq madaniyatiga beriladigan e'tibor yoshlarning keyingi intellektual va ma'naviy rivoji uchun mustahkam zamin yaratadi.

Axborot texnologiyalari rivoji yoshlarning nutqiy faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, sodda jumalardan foydalanish, ayrim hollarda til me'yorlarining buzilishi kuzatiladi. Bu holat yoshlarning nutqiy madaniyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin[4].

Shu bilan birga, internet va elektron manbalar til boyligini kengaytirish, xorijiy tillarni o'rganish va nutqni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Muhimi, yoshlar ushbu imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalana bilishi kerak.

Yoshlarning nutqi ravon va madaniyatli bo'lsa, ular nafaqat ta'lim va ilmiy sohada, balki kasbiy faoliyatda ham yuksak natijalarga erishadi. Ish jarayonida, rasmiy uchrashuvlarda, jamoat oldida nutq so'zlashda ularning savodxonligi va muloqot qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq madaniyati quyidagi shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi:

- *o'ziga ishonch;*
- *ta'sirchan muloqot qobiliyati;*
- *ijodiy yondashuv;*
- *muammolarni hal qilish ko'nikmalari.*

Nutq madaniyatini yuksaltirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- ✓ *Ona tilini chuqur o'rganish va unga hurmatni oshirish;*
- ✓ *Adabiyot o'qishga rag'bat uyg'otish;*
- ✓ *Notiqlik san'atini o'rgatish;*
- ✓ *Ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ri yozish va so'zlash madaniyatini shakllantirish;*
- ✓ *Ommaviy axborot vositalarida sof adabiy tilni keng qo'llash[5].*

Yoshlarning nutq madaniyatiga davlat va jamiyat miqyosida e'tibor qaratish, ular uchun to'g'ri til muhitini yaratish eng samarali yo'llardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati yoshlar ma'naviyati va intellektual salohiyatini yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ravon, mantiqiy va adabiy til me'yorlariga asoslangan nutq yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlaydi va ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Shunday ekan, nutq madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 400 b.
2. Jo'rayev N. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 240 b.
3. G'ulomov A., Qodirova M. Ona tili va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 200 b.
4. To'xliyev B., Yo'ldosheva Sh. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Ilm Ziya, 2020. – 256 b.
5. Axmedova Z. Yoshlar ma'naviyati va nutq madaniyati. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 168 b.

VIRTUAL MULOQOT MUHITIDA NUTQ MADANIYATINING O'ZGARISHI

O'rolova Marjona To'liqin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1- bosqich talabasi

orolovamarjona234@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANONTATSIYA

Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyatining dolzarbligi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy faktlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish statistikasi, yozma nutqdagi asosiy xatolar va til me'yorlariga rioya etish bo'yicha samarali yechimlar keltirilgan. Asosiy e'tibor savodli yozish, odobli muloqot va milliy tilni rivojlantirish masalalariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, adabiy til, savodxonlik, jamiyat, faktlar, yechimlar

ABSTRACT

This article analyzes the relevance of speech culture in social networks, the existing problems, and the ways to eliminate them based on scientific facts. The article examines the statistics of Uzbek youth's use of social networks, highlights the main mistakes in written speech, and suggests effective solutions for complying with language.

Keywords: speech culture, social networks, literary language, literacy, society, facts, solutions

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется актуальность культуры речи в социальных сетях, существующие проблемы и пути их устранения на основе научных фактов. В статье рассматривается статистика использования социальных сетей узбекской молодежью, выявляются основные ошибки в письменной речи и предлагаются эффективные решения по соблюдению языковых норм. Особое

внимание уделяется грамотному письму, вежливому общению и вопросам развития национального языка.

Ключевые слова: культура, речи, социальные сети, литературный язык, грамотность, общество, факты, решения.

So'nggi yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotiga kata ta'sir ko'tsatmoqda. Bugungi kunda yoshlar o'z vaqtining kata makonda o'tkazadi, u yerda ular fikr alamashadi, yangiliklardan xabardor bo'ladi va o'z dunyo qarashini bildiradi. Shu bois, ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyati masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Nutq madaniyati – bu insonning til imkoniyatlaridan onli ravishta foydalanib, fikrni aniq, lo'nda va ta'sirchan ifoda etish qobiliyatidir. U shaxsiy savodxonlik bilan birga, jamiyat madaniyatining darajasini belgilovchi muhim mezonidir.

Ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyati holati O'zbekiston yoshlarining 2024-yilgi so'rovi shu ko'rsatadiki, 18-25 yoshdagi yoshlarning 87 foizi ijtimoiy tarmoqlarda muntazam faoliyat olib boradi. Shu bilan birga, ularning 63 foizi matn yozishda imlo va punktuatsiya xatolariga yo'l qo'yadi, va 45 foiz psida qisqartmalar yoki inglizcha so'zlar ortiqcha ishlatiladi. Bu holatlar yozma nutq madaniyati darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa qisqartmalar va inglizcha so'zlar ortiqcha qo'llanishi matnning tushunarli bo'lishiga xalaqit beradi. Qo'pol va odobsiz ifodalar ijtimoiy muloqot madaniyatini pasaytiradi. Lug'at boyligi cheklangan yoshlar sodda va takroriy so'zlar bilan ifodalaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri yozish odatlari madaniy muloqotga zarar yetkazadi va milliy tilimiz rivojiga salbiy ta'sir qiladi.

Nutq madaniyati darajasini oshirish uchun quydagi yechimlar tavsiya etiladi. Masalan yozma va og'zaki mashqlar orqali adabiy til me'yorlariga rioya qilishni o'rgatish, texnologik vositalaridan foydalanish misol uchun imlo va stil tekshiruvchi dasturlar foydalanuvchilarning yozuv madaniyatini oshirishga yordam beradi, kuzatuv va monitoring ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyati darajasini doimiy tahlil qilish va muammoli holatlarni aniqlab, tezkor yechimlar ishlab chiqish.

Nutq madaniyati insonning shaxsiyati va ma'naviy qiyofasini ifoda etuvchi muhim ko'rsatkichdir. Uni rivojlantirish uchun bir nechta amaliy tavsiyalarga amal qilish lozim. Avvalo, lug'at boyligini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boy so'z zahirasi nutqni ravon va ta'sirchan qiladi, fikrni aniq ifodalashga yordam beradi. Buning ortida to'g'ri talaffuzga e'tibor berish ham zarur. So'zlarni adabiy me'yorlarda talaffuz qilish nafaqat tinglovchiga qulaylik yaratadi, balki nutqqa o'ziga xos joziba ham bag'ishlaydi.

Shuningdek, nutq madaniyatini oshirishda madaniyatni oshirishda adabiy asarlar o'qish va tinglash alohida o'rin tutadi. She'riyat, badiiy adabiyot hamda notiqlik namunalari insonni go'zal ifodalar bilan tanishtiradi, nutq uslubini sayqallaydi.

Yana boshqa muhim masala- muloqot odobiga rioya qilishdir. Nutqda muloyimlik, odob va e'tiborli bo'lish kerak. Bu insonlar o'rtasida hurmat va iliq munosabatlar o'rnatadi.

Nihoyat, amaliy mashq va notiqlikni muntazam mashq qilish nutqni yanada yuksaltiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda axborotning tez tarqalishi va platformalarning keng auditoriyasi sababli nutqning sifati jamiyatdagi munozaralar sifatini belgilaydi. Raqamli madaniyatni oshirish orqali biz nafaqat shaxsiy obro'ni saqlaymiz, balki xolis va hurmatga asoslangan onlayn maydonni qo'llab-quvattlaymiz.

Bundan tashqari yana bir qancha fikrlarni dolzarbligini ilgari surishimiz mumkin. Masalan, onlayn muhitda hurmatni saqlash. Bunda odamlar bir-birini ko'rmaydi, lekin yozgan so'zlari orqali munosabat bildiradi. Qo'pol, haqoratli so'zlar foydalanuvchini ham obro'sizlantiradi, ham salbiy muhit yaratadi. Undan tashqari imlo-ishora va emoji madaniyati – tarmoqlarda hissiyotlar ko'pincha emoji yoki stikerlar orqali ifodalanadi. Bu ortiqcha ishlatish yoki noto'g'ri qo'llash yozishmadagi jiddiyatni buzish mumkin.

Boshqa tarafdin olib qarasak, bir qator masalalar ham yo'q emas. Ularga tilni buzib gapirish. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqartirish, inglizcha va ruscha so'zlarni aralashtirish odatiy hol. Bu o'zaro tezkor muloqot uchun qulay bo'lsa ham, doimiy ravishta shunday yozish nutq madaniyatini pasaytiradi. Qolaversa, feyk xabar va mish-mishlar tarqatmaslik- bu juda uzun, chalkash gaplar o'quvchini charcahtadi. Ayniqsa, tarmoqlarda nutq lo'nda, tushunarli va mazmunli bo'lsa, samarali bo'ladi. Mualliflik huquqiga rioya qilish esa she'r, maqola yoki postni boshqalardan olib, o'zini muallif sifatida ko'rsatish ham madaniyatsizlik. Har bir fikr egasining ismini ko'rsatish – axloqiy burch.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyati bir necha jihatlaridan namoyon bo'ladi. Bular:

- 1. Til me'yorlarga rioya qilish.**
- 2. Axloqiy madaniyat.**
- 3. Axborot ma'sulyati.**
- 4. Netiket qoidalari.**
- 5. Shaxs brend va imij.**
- 6. Multimediya nutqi.**

Jumladan, Internet etiketi yozma va og'zaki muloqotda madaniyatni belgilaydi. Masalan, ortiqcha kata harf ishlatmaslik, mualliflik huquqlariga rioya qilish, boshqalarni fikrni hurmat qilish.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda yozma matn bilan bir qatorda audio va video xabarlar bilan keng tarqalgan. Talaffuz, intonatsiya, so'z boyligi ham nutq madaniyatining ajralmas ko'rinishi sifatida e'tiborga olinadi. Bundan tashqari psixologik omilda ijtimoiy tarmoqlarda odamlar yuzma-yuz emas, anonym ravishda yozgan uchun o'zini erkinroq tutadi. Natijada nutqda keskinlik, salbiy hissiyotlar ko'payadi. Shuning uchun internet muloqotida psixologik o'zini nazorat qilish ham nutq madaniyati tarkibiy qismi hisoblanadi. Yana shuni aytish kerakki, jamoaviy madaniyat ham muhim ro'l o'ynaydi. Masalan, tarmoqda har bir foydalanuvchi nafaqat o'zining, balki butun jamiyatning madaniy darajasini namoyish qiladi. Bir millat vakilining qo'pol yozuvi butun xalq haqida noto'g'ri tasavvur uyg'otishi mumkin.

Nutq madaniyatining virtual va real farqi: Internetdagi muloqot odamlarga real hayotdagi nutqiga ham ta'sir qiladi. Qisqartmalar, inglizcha iboralar kundalik suhbatlarga ham kirib kelmoqda. Shu sababli onlayn va oflayn nutq o'rtasida muvozanatni saqlash zarur.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda axborot almashish va muloqot sifatida keng qo'llanilmoqda. Unda nutq madaniyatini rivojlantirish, odobli va savodli muloqotni targ'ib qilish, yoshlarni adabiy til me'yorlariga rioya qilishga o'rgatish jamiyatimning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar nutq madaniyatiga ijobiy ham, salbiy ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois yoshlar orasida til madaniyatini targ'ib qilish, imlo va uslub qoidalariga amal qilish, etish me'yorlarni mustahkamlash hamda axborotdan ma'sulyatli foydalanishni yo'lga qo'yish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madvaliyev A. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent; fan 2015
2. Nurmanov A. O'zbek adabiy til me'yorlari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
3. Qodirov M. Til va jamiyat. - Samarqand, 2020.
4. O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy tarmoqlarda foydalanish statistikasi, 2024.
5. Pew Research Center- Social Media Use in 2021
6. UNESCO – Guidelines for the Governance of Digital Platforms va maqolalar: Digital madaniyat, media literacy va onlayn fuqorolik haqida tavsiyalar.
7. "Ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyati: muammolar va yechimlar" – Sevinch Normuminova maqolasi.

8. “Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari”
konferensiya materiallari

RAQAMLI MADANIYAT KONTEKSTIDA NUTQ ETIKASI VA NUTQ MADANIYATI MUAMMOLARI

Obidova Nurgul Zohidjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

nurgulobidova07@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya. Internet va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida nutq madaniyati dolzarb masalaga aylanmoqda. Virtual muloqot qisqa jumlar, emodzilar va tahrirsiz matnlar orqali nutqiy savodxonlikka salbiy ta'sir ko'rsa-da, to'g'ri yondashuv yoshlarning til boyligini kengaytirish, ifoda usullarini rivojlantirish va kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Internet, ijtimoiy tarmoqlar, nutq madaniyati, muloqot, til boyligi.

Аннотация. В условиях Интернета и социальных сетей культура речи становится актуальной проблемой. Виртуальное общение часто снижает грамотность из-за сокращений и неформальности, однако при правильном подходе оно способствует расширению словарного запаса, развитию выразительных средств и укреплению коммуникативных навыков молодежи.

Ключевые слова: Интернет, социальные сети, культура речи, общение, словарный запас.

Abstract. In the context of the Internet and social networks, speech culture becomes a pressing issue. While virtual communication with abbreviations and emojis may negatively affect literacy, proper use can enrich vocabulary, enhance expressive abilities, and strengthen youth's communicative competence in modern society.

Keywords: Internet, social networks, speech culture, communication, vocabulary.

Hozirgi globallashuv jarayonida Internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Yoshlar kundalik faoliyatida muloqot, izlanish, bilim olish va o'z fikrlarini ifodalashda aynan shu platformalardan foydalanadi. Biroq virtual olamda shakllanayotgan muloqot uslublari, qisqa va emodzilar bilan to'ldirilgan

jumlalar, shuningdek, tahrirsiz yozuvlar nutq madaniyati oldida yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, Internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish yoshlarning nutqiy savodxonligi, til boyligi va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ham taqdim etadi.

Mazkur maqolada Internet va ijtimoiy tarmoqlarning nutq madaniyatiga ta'siri, bu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, yoshlarning intellektual-ma'naviy rivojida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari atroflicha tahlil qilinadi.

Nutq madaniyati – bu insonning o'z fikrini aniq, ravon, mazmunli va estetik jihatdan chiroyli ifoda etish qobiliyatidir. U nafaqat til me'yorlariga rioya qilish, balki suhbatdoshni hurmat qilish, ijtimoiy-psixologik muhitni to'g'ri yaratish, nutqda aniqlik va mantiqlilikni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Yoshlarning nutq madaniyati esa ularning tafakkur darajasi, ma'naviy olami va intellektual salohiyatining o'lchovi sifatida qaraladi.

Internet tilshunoslikdagi yangi muhitni yaratdi. Elektron pochta, bloglar, forumlar, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot an'anaviy yozma va og'zaki nutqdan farq qiluvchi yangi "virtual nutq"ni shakllantirdi.

Qisqartmalar va inglizcha so'zlarning kirib kelishi. Masalan, "ok", "msg", "btw", "lol" kabi qisqartmalar yoshlar orasida keng qo'llanmoqda.

Emodzilar va stikerlar. So'z o'rnida emodzilarni ishlatish ko'pincha his-tuyg'ularni tez ifodalash imkonini bersa-da, bu nutq boyligini qisqartiradi.

Imlo va punktuatsiyaga e'tiborsizlik. Ko'pchilik yoshlar tezlikka intilib, imlo qoidalariga amal qilmaydi, bu esa yozma nutq sifati pasayishiga olib keladi.

Shunday qilib, Internet nutq madaniyatiga yangi uslubiy o'zgarishlarni olib kirib, uni an'anaviy shakldan sezilarli darajada farqlantirmoqda[1].

Garchi ko'plab muammolar mavjud bo'lsa-da, Internet nutq madaniyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ham ega:

Til boyligini kengaytirish. Online maqolalar, ilmiy manbalar, e-kitoblar yoshlarning lug'at boyligini oshiradi.

Ijodiy ifoda imkoniyatlari. Bloglar, podkastlar va video kontent yaratish jarayonida yoshlar o'z fikrlarini ifodali bayon qilishni o'rganadilar.

Xalqaro muloqot. Turli xalqlarning yoshlari bir-biri bilan tez muloqot qilish imkoniga ega bo'lib, ko'p tillilik rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlash. Internetdagi turli bahs-munozaralar yoshlarni mantiqiy va asosli fikr bildirishga o'rgatadi[2].

Biroq virtual muloqotning salbiy oqibatlari ham yo'q emas:

Nutqiy savodsizlik. Tez yozishga intilish natijasida imlo va grammatik xatolar keng tarqalmoqda.

Til boyligining qisqarishi. Qisqa jumlar va emodzilar tayanish yoshlarning ifoda imkoniyatlarini chegaralaydi.

Agitatsion nutq va tahqir. Tarmoqlarda ba'zan haqoratli, odobsiz so'zlardan foydalanish nutq madaniyatiga putur yetkazadi.

Sun'iy shablonlar. Tarmoqlarda keng tarqalgan tayyor matn va iboralar yoshlarning mustaqil fikrlash va o'z so'zini topish qobiliyatini susaytiradi[3].

Nutq madaniyati yoshlarning jamiyatdagi mavqeini, ilmiy va kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Nutqiy savodxonlik:

ta'limda – fikrni aniq ifoda etishga;

ish faoliyatida – samarali muloqotga;

ijtimoiy hayotda – yetakchilik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot madaniyati ularning real hayotdagi nutq madaniyatini ham belgilab qo'yadi.

Internetni nutq madaniyatini rivojlantirishda to'g'ri yo'naltirish mumkin. Buning uchun:

yoshlarni adabiy tildan foydalanishga rag'batlantirish;

ijtimoiy tarmoqlarda "adabiy til klublari" tashkil qilish;

o'qituvchilar va mutaxassislar tomonidan virtual nutqning ahamiyati haqida muntazam tushuntirishlar berish zarur.

Shuningdek, milliy til me'yorlarini asrab-avaylash va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Virtual o'quv platformalari. Yoshlarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslar yaratish.

Ijtimoiy tarmoqlarda loyihalar. "Savodli yozing!", "Adabiy tilni targ'ib qilaylik!" kabi kampaniyalar o'tkazish.

Raqamli lug'atlar va mobil ilovalar. Yoshlarni til boyligini oshirishga yo'naltirish.

OAV va bloggerlardan foydalanish. Mashhur shaxslarning savodli nutqi yoshlarga o'rnak bo'lishi mumkin[4].

Xulosa qilib aytganda, Internet va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida nutq madaniyati dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Bir tomondan, qisqa jumlar, imlosiz yozuvlar va emodzilar nutq sifati pasayishiga olib kelayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Internet imkoniyatlari yoshlarning lug'at boyligini kengaytirish, ijodiy

ifodani rivojlantirish va kommunikativ salohiyatni mustahkamlash uchun ulkan maydondir. Shuning uchun yoshlarni raqamli muloqotda ham adabiy til me'yorlariga amal qilishga o'rgatish, virtual makonda ham nutq madaniyatini asrab-avaylash zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduazizov A. "Nutq madaniyati va uslubiyat". – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 220 b.
2. Yo'ldoshev M. "Til va jamiyat". – Toshkent: Fan, 2015. – 180 b.
3. Qodirov B. "Axborot texnologiyalari va yoshlar ma'naviyati". – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 200 b.
4. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 272 p.
5. Lunt P., Livingstone S. Mediated Communication and Culture. – London: Routledge, 2016. – 310 p.

SLANG AND INTERNET MEMES AS NEW FORMS OF LEXICAL INNOVATION

Olimjonova Sarvinozbonu Baxtiyorjon qizi

Chirchik State Pedagogical University

3RD year student of the Faculty of Turism,

Foreign Language and Literature

Sarvinozbonuolimjonova02@gmail.com

Scientific adviser: Umarova Dilafruz

EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University

dilafruzumarova91@gmail.com

ABSTRACT

This paper investigates slang and internet memes as central forces of lexical innovation in the 21st century. In traditional linguistics, lexical change usually occurs through long-term processes such as borrowing, compounding, and derivation. However, digital communication has accelerated this process, allowing new terms and expressions to spread globally within hours. Slang expands vocabulary by providing new meanings to existing words (“sick” meaning “cool”) or introducing entirely new words (“sus,” “yeet”). Internet memes, in turn, are cultural and linguistic tools that combine images, text, and humor to create widely recognizable phrases such as “OK, boomer” or “Netflix and chill.” The social and cultural roles of these innovations are significant. Slang and memes act as markers of group identity, creativity, and resistance. They allow communities to build solidarity, share humor, and critique political or social issues. Despite their short lifespan and rapid change, some slang and memes become stable lexical items and are adopted in mainstream discourse. Studying slang and memes not only enhances our understanding of linguistic creativity but also reveals the dynamic relationship between language, culture, and technology in the digital age.

Key words: slang, internet memes, lexical innovation, social media, digital culture, online communication.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются сленг и интернет-мемы как новые формы лексических инноваций в современном английском языке. В отличие от традиционных способов словообразования, новые слова и выражения

распространяются в цифровую эпоху особенно быстро, благодаря социальным сетям. Сленг обогащает лексику, придавая старым словам новые значения или создавая совершенно новые формы. Интернет-мемы выступают в роли культурных символов, которые с помощью юмора, текста и изображения формируют устойчивые выражения, становящиеся частью повседневной речи. Особое внимание уделяется их социальной и культурной роли. Сленг и мемы выражают идентичность, юмор, креативность и служат средством социальной критики. Несмотря на их изменчивость и недолговечность, некоторые формы закрепляются в языке и приобретают статус нормированных выражений.

Ключевые слова: сленг, интернет-мемы, лексические инновации, цифровая культура, онлайн-коммуникация.

ANNOTATSIYA

Maqolada sleng va internet memlari zamonaviy ingliz tilidagi leksik innovatsiyaning muhim manbalari sifatida o'rganiladi. An'anaviy so'z yaslash jarayonlari asta-sekin yuzaga kelsa, raqamli asrda bu jarayon tezlashdi va yangi iboralar global miqyosda qisqa vaqt ichida tarqalmoqda. Sleng eski so'zlarga yangi ma'no berishi (masalan, "sick" — "zo'r" ma'nosida) yoki yangi so'zlarni yaratishi mumkin ("sus," "yeet"). Internet memlari esa kulgi, matn va tasvirni birlashtirib, yangi iboralarni yaratadi (masalan, "OK, boomer" yoki "Netflix and chill"). Sleng va memlarning ijtimoiy-madaniy roli ham katta. Ular guruhni identifikatsiya, kulgi va tanqid vositasi sifatida xizmat qiladi. Tez o'zgarishiga qaramay, ayrimlari barqaror ibora sifatida tilga singib ketadi.

Kalit so'zlar: sleng, internet memlari, leksik innovatsiya, raqamli madaniyat, onlayn muloqot.

MAIN BODY

Language is not a static system but a living and evolving phenomenon. With the rise of the internet and digital communication, the rate of change in vocabulary has increased dramatically. Slang and internet memes are among the most powerful drivers of lexical innovation in contemporary English, reshaping not only the lexicon but also the very nature of communication[1].

1. The nature of slang in digital culture

Slang has always existed as a marker of group identity and creativity. In the past, it often developed within specific subcultures — for example, jazz musicians in the 1920s or hip-hop communities in the 1980s. However, the internet has transformed the scope and speed of slang distribution. A new slang term coined in a single online community, such as Reddit or TikTok, can spread globally within hours [2].

Contemporary slang is characterized by its flexibility and creativity. Words like “lit” (meaning “amazing”), “savage” (meaning “brutally honest”), and “salty” (meaning “angry or upset”) reflect how digital users repurpose existing vocabulary to convey nuanced meanings [3]. Importantly, slang not only enriches language but also reflects cultural attitudes, humor, and generational values.

2. Internet memes as cultural and linguistic tools

Internet memes are often described as cultural “units” that combine text, image, and humor. They serve both entertainment and communication purposes. For example, the meme “OK, boomer” was not just a joke but also a form of generational protest against older people dismissing younger perspectives [4]. Similarly, the doge meme popularized unique grammar patterns (“such wow, much amaze”), which illustrate how memes can create new linguistic norms [5]. Memes function as shared cultural references. When users engage with memes, they participate in collective humor and identity-building. This makes memes powerful instruments of communication — they compress complex social or political ideas into short, humorous formats that spread rapidly [6].

3. Mechanisms of lexical innovation through slang and memes

The processes of innovation can be grouped into several mechanisms:

Semantic shift: Existing words acquire new meanings, such as “ghosting” (originally supernatural, now used to describe ignoring someone in digital communication) [2].

Neologism: Entirely new words are coined, such as “yeet” (to throw with force) or “simp” (someone overly submissive in relationships) [3].

Abbreviation and acronym formation: Short forms like LOL, OMG, FOMO, and TBH dominate online exchanges because they save time and space [7].

Meme templates as idioms: Expressions like “Netflix and chill” or “Thanks, Obama” become idiomatic, spreading beyond their original contexts [5]. These innovations demonstrate that slang and memes follow identifiable linguistic patterns, even if they appear chaotic.

4. Social media as an accelerator of change

Social media platforms such as Twitter (X), Instagram, TikTok, and Facebook play a central role in accelerating the spread of slang and memes. Algorithms prioritize viral content, which amplifies certain terms and phrases. A TikTok video with a trending slang word can receive millions of views, introducing the term to a global audience overnight [7]. Moreover, social media blurs the boundaries between written and spoken language. Hashtags like #TBT (Throwback Thursday) or #NoFilter not

only organize content but also introduce new lexical practices into everyday speech [8]. Emojis and GIFs, often combined with slang, further enrich multimodal communication.

5. Social and cultural functions of slang and memes

Beyond their linguistic impact, slang and memes serve vital social functions:

Identity construction: Young people use slang to distinguish themselves from older generations. Similarly, internet memes create a sense of belonging among online communities [9].

Humor and creativity: Slang and memes allow playful manipulation of language, fostering creativity and humor in everyday exchanges.

Social critique: Political memes often mock leaders or institutions, making criticism more accessible and entertaining [10].

Resistance: Marginalized groups use slang and memes to challenge dominant discourses, asserting their voices in digital spaces [4]. Thus, slang and memes are not trivial; they reflect deeper cultural and social processes.

CONCLUSION

Slang and internet memes are among the most dynamic sources of lexical innovation in contemporary English. They enrich vocabulary, express creativity, and reflect cultural identities. While many are short-lived, others become lasting features of the language. Their study reveals not only linguistic creativity but also the ways in which technology reshapes human interaction and cultural expression in the 21st century.

REFERENCES:

1. Tagg, C., & Seargeant, P. (2019). *Social Media and Language Change*. Routledge.
<https://www.routledge.com/Social-Media-and-Language-Change/Tagg-Seargeant/p/book/9780367331836>
2. Crystal, D. (2019). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.
<https://www.cambridge.org/core/books/cambridge-encyclopedia-of-the-english-language/78CE04C340DAB7C71B07DCC3730E3C56>
3. McCulloch, G. (2019). *Because Internet: Understanding the New Rules of Language*. Riverhead Books.
<https://becauseinternet.com>
4. Shifman, L. (2014). *Memes in Digital Culture*. MIT Press.

<https://mitpress.mit.edu/9780262525435/memes-in-digital-culture/>

5. Dynel, M. (2016). Internet memes as multimodal discourse: Humor, social critique, and intertextuality. *Discourse, Context & Media*, 12, 18–26.

<https://doi.org/10.1016/j.dcm.2016.04.001>

6. McCulloch, G. (2019). *Because Internet: Understanding the New Rules of Language*. Riverhead Books.

<https://becauseinternet.com>

7. Tagg, C., & Seargeant, P. (2019). *Social Media and Language Change*. Routledge.

<https://www.routledge.com/Social-Media-and-Language-Change/Tagg-Seargeant/p/book/9780367331836>

8. Crystal, D. (2019). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.

<https://www.cambridge.org/core/books/cambridge-encyclopedia-of-the-english-language/78CE04C340DAB7C71B07DCC3730E3C56>

9. Shifman, L. (2014). *Memes in Digital Culture*. MIT Press.

<https://mitpress.mit.edu/9780262525435/memes-in-digital-culture/>

10. Dynel, M. (2016). Internet memes as multimodal discourse. *Discourse, Context & Media*, 12, 18–26.

<https://doi.org/10.1016/j.dcm.2016.04.001>

11. Crystal, D. (2019). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge University Press.

<https://www.cambridge.org/core/books/cambridge-encyclopedia-of-the-english-language/78CE04C340DAB7C71B07DCC3730E3C56>

TILSHUNOSLIK VA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI:ONA TILI DARSLARDA LINGVODIDAKTIK YONDASHUV

Pardaboyeva Ruhshona Nazirjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslik va sun'iy intellekt (SI) sohalarining integratsiyasi, ayniqsa ona tili ta'limida lingvodidaktik yondashuvda qo'llanilishi tahlil qilinadi. SI texnologiyalari til o'rgatishda interaktivlikni oshirish, individual o'quv jarayonini tashkil etishva o'quvchilarning til ko'nikmalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Maqola tilshunoslik va ta'lim sohasida SI vositalarining pedagogik ahamiyatini yoritadi hamda ona tili darslarida lingvodidaktik yondashuvda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning istiqbollarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, sun'iy intellekt, lingvodidaktika, ona tili ta'limi, integratsiya, interaktiv o'qitish, individual yondashuv

Abstract: This article analyzes the integration of linguistics and artificial intelligence (AI), especially its use in the linguodidactical approach in native language education. AI technologies allow for increased interactivity in language teaching, the organization of an individual learning process, and the effective development of students' language skills. The article highlights the pedagogical significance of AI tools in linguistics and education and shows the prospects for the use of innovative technologies in the linguodidactical approach in native language lessons.

Keywords: Linguistics, artificial intelligence, linguodidactyly, native language education, integration, interactive teaching, individual approach.

Аннотация: В статье анализируется интеграция лингвистики и искусственного интеллекта (ИИ), в частности, его применение в лингводидактическом подходе к обучению родному языку. Технологии ИИ позволяют повысить интерактивность обучения языку, организовать индивидуальный процесс обучения и эффективно развивать языковые навыки учащихся. В статье подчеркивается педагогическое значение инструментов ИИ

в лингвистике и образовании, а также показаны перспективы использования инновационных технологий в лингводидактическом подходе на уроках родного языка.

Ключевые слова: лингвистика, искусственный интеллект, лингводидактика, обучение родному языку, интеграция, интерактивное обучение, индивидуальный подход.

Kirish

Tilshunoslik fani — insoniyatning eng qadimiy va dolzarb fanlaridan biridir. Til — inson tafakkurining asosiy ifodasi, jamiyat taraqqiyotining bosh omillaridan biri hisoblanadi. Tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri tilning tuzilishi, funksiyalari va uning o'rganish usullarini tadqiq qilishdan iboratdir. Bu fan nazariy jihatdan tilning ichki qonuniyatlarini ochib berar ekan, amaliy jihatdan ta'lim-tarbiya jarayonida tilni samarali o'rgatish metodlarini ishlab chiqadi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'limning barcha jabhalariga kirib kelmoqda. Ona tili o'qitishda SI integratsiyasi, bir tomondan, an'anaviy ta'limning mavjud muammolarini hal etsa, ikkinchi tomondan, lingvodidaktika fanining yangi yutuqlarini hayotga tatbiq etmoqda. Shuning uchun ham tilshunoslik va sun'iy intellektning integratsiyasi nafaqat metodik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega dolzarb masaladir [1].

Tilshunoslik bilimlari SI texnologiyalari yordamida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Masalan, NLP (Natural Language Processing) algoritmlari tilning fonetika, leksika va sintaksis jihatlarini avtomatik tahlil qilish imkonini beradi. Natijada o'quvchilarning yozma ishlari grammatik, imlo va uslubiy jihatdan avtomatik tekshiriladi, og'zaki nutq fonetik jihatdan baholanadi va individual bilim kartalari shakllanadi.

Pedagogik integratsiyaning eng muhim jihati — o'qituvchining yordamchisiga aylangan intellektual dasturlar ta'lim jarayonini yengillashtirishidir. Bu nafaqat vaqtni tejaydi, balki o'quvchiga tezkor va aniq maslahat beradi [4].

Lingvodidaktika nazariyasi til o'rgatishda kommunikativ yondashuvni ustuvor deb hisoblaydi. Interaktiv vositalar esa aynan shu yondashuvni kuchaytiradi. Virtual sinfxona o'quvchilarni onlayn muhitda yozma va og'zaki muloqotga jalb etadi, gamifikatsiya elementlari motivatsiyani oshiradi, virtual realistik simulyatsiyalar esa haqiqiy muloqot sharoitida tilni mashq qilish imkonini beradi. Shuningdek, lingvistik korpuslar orqali real nutq namunalari tahlil qilinib, o'quvchilarga kontekstual bilim beriladi [5].

SI tizimlari o'quvchilarning psixolingvistik xususiyatlarini hisobga olib, individual o'quv rejalarini shakllantiradi. Tez o'zlashtiruvchi o'quvchilarga murakkabroq topshiriqlar, sekinroq o'zlashtiruvchilarga esa qo'shimcha mashqlar beriladi. Bu yondashuv "inklyuziv ta'lim" tamoyillarini ham qo'llab-quvvatlaydi. Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashgan elektron platformalar yaratish SI orqali ancha osonlashadi [3].

Bugungi kunda SI asosida yaratilayotgan lingvistik resurslar ona tili ta'limining ajralmas qismiga aylanmoqda. Elektron lug'atlar nafaqat so'zning ma'nosini, balki uning sinonim, antonim va kontekstini ham taqdim etadi. Korpus lingvistikasi real nutq namunalarini tahlil qilish imkonini bersa, avtomatik tarjima tizimlari o'quvchi uchun boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganish imkonini yaratadi. Nutqni tanish dasturlari esa talaffuz va intonatsiyani mashq qilishda yordam beradi.

Yo'nalish	SI vositasi	Amaliy natija
Grammatikani o'rgatish	Avtomatik tekshiruv dasturlari	Xatolarni aniqlash va tuzatish
Fonetika va talaffuz	Nutqni tanish dasturlari	Talaffuzni mashq qilish
Lug'at boyligi	Interaktiv lug'atlar, Chatbotlar	So'z ma'nosi va qo'llanilishi bilan o'rganish
Matn va uslub	NLP dasturlari	Matnni tahlil qilish va soddalashtirish
Individual ta'lim	Aqlli platformalar	O'quvchiga mos mashqlar berish

Til nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy qadriyatlar, madaniyat va mentalitetni ifodalaydi. Ona tili o'qitishda SI texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantiradi, virtual madaniy muhit yaratadi va milliy tilni global axborot maydoniga olib chiqadi. Masalan, elektron platformalarda o'zbek tilini o'rganayotgan xorijiy talabalar uchun maqollar, iboralar, folklor va madaniy qadriyatlar interaktiv materiallar orqali taqdim etilishi o'quv jarayonini yanada samarali qiladi [2].

Tilshunoslik va SI integratsiyasining istiqbollari kengdir. Aqlli sinfxonalar joriy etilishi, sun'iy intellektli o'quv yordamchilarining yaratilishi, virtual hamroh o'qituvchilar yordamida masofaviy ta'lim sifatining oshishi hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali yangi ilmiy xulosalar olish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu integratsiya ona tili ta'limini xalqaro miqyosga olib chiqadi va O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda yangi metodikalarni shakllantiradi.

Tilshunoslik va sun'iy intellektning integratsiyasi zamonaviy ta'limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. SI texnologiyalari yordamida til o'rganish jarayoni individual va moslashuvchan bo'lmoqda, interaktiv metodlar keng qo'llanmoqda, lingvistik resurslar boyitilmoqda, madaniy qadriyatlar global miqyosda targ'ib qilinmoqda. Bu integratsiya kelajakda ona tili ta'limining samaradorligini oshirish, o'quvchilarni raqamli jamiyat talablariga tayyorlash va milliy tilni xalqaro maydonda targ'ib etishda muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islomov, A. (2022). Sun'iy intellekt va til o'rgatish metodikalari. Toshkent: Ilm-fan.
2. Tursunova, M. (2023). Lingvodidaktika va yangi pedagogik texnologiyalar. Ta'lim va Ilm jurnali, 5-son.
3. Karimov, S. (2021). Tilshunoslik va zamonaviy ta'lim tizimlari. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
4. Rasulova, D. (2023). Sun'iy intellekt asosida individual o'qitish. Innovatsion Ta'lim jurnali, 3-son.
5. Abdullaeva, N. Lingvistik korpuslar va interaktiv ta'lim. Samarqand: Fan nashriyoti, 2024.
6. Qodirov, B. Sun'iy intellekt va raqamli pedagogika. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2024.
7. Hasanov, O. Lingvodidaktikaning yangi paradigmalari. Farg'ona: Ilm Ziya, 2022.
8. Turg'unpo'latov, D.R. Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi. "Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.

BLOG VA VLOGLARDA SHAXSGA QARATILGAN HAQORAT IFODALARINI ANIQLASHNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Primkulova Xumora Ikrom qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

primkulovaxumora74@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada blog va vlog platformalarida uchraydigan shaxsga qaratilgan haqorat ifodalarining lingvistik ekspertizasi masalalari yoritiladi. Internetdagi erkin muloqot maydoni bilan bir qatorda, so'z orqali kamsitish, tahqirlash va sha'nni yerga urish holatlari ham ko'paymoqda. Maqolada shaxsga nisbatan aytilgan haqoratli bayonotlarning leksik-semantik, pragmatik va diskursiv tahlil usullari asosida baholanishi, ularning psixolingvistik ta'siri va huquqiy oqibatlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, blogger va kontent yaratuvchilarning nutq mas'uliyati, "so'z erkinligi" va "so'z mas'uliyati" o'rtasidagi muvozanat masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik ekspertiza, haqorat ifodasi, blog, vlog, internet nutqi, shaxs sha'ni, kommunikativ tajovuz, diskurs tahlili, psixolingvistika.

Аннотация:

В статье рассматриваются вопросы лингвистической экспертизы оскорбительных выражений, направленных на личность, в блогах и влогах. С развитием цифровых платформ свобода слова все чаще сопровождается проявлениями вербальной агрессии, кибероскорблений и унижений человеческого достоинства. Исследование направлено на анализ **лексико-семантических, прагматических и дискурсивных** особенностей речевых актов, содержащих оскорбление, а также на изучение их **психолингвистического воздействия и правовых последствий**. Особое внимание уделяется соотношению между свободой слова и ответственностью блогеров, а также роли лингвистической экспертизы в судебно-коммуникативной практике.

Ключевые слова: лингвистическая экспертиза, оскорбление личности, блог, влог, интернет-коммуникация, речевая агрессия, честь и достоинство, дискурс-анализ, психолингвистика.

Abstract:

This article examines the linguistic expertise of offensive expressions directed at individuals in blogs and vlogs. Alongside the expansion of digital communication and freedom of expression, verbal aggression, cyberbullying, and personal insults have become increasingly prevalent. The study analyzes **lexical-semantic, pragmatic, and discursive** features of abusive speech acts and explores their **psycholinguistic impact** and **legal implications**. It also addresses the relationship between freedom of speech and communicative responsibility among bloggers and content creators.

Keywords: linguistic expertise, verbal insult, blog, vlog, online communication, personal dignity, verbal aggression, discourse analysis, psycholinguistics.

Bugungi raqamli axborot makonida blog va vloglar inson fikrini ifodalash, ijtimoiy masalalar yuzasidan munosabat bildirishning eng qulay shakliga aylandi. Internet foydalanuvchilari o'z sahifalari orqali jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazmoqda, turli mavzularda muhokama yuritmoqda. Shu bilan birga, erkin fikr bildirish imkoniyati ortidan **shaxsga qaratilgan haqorat, kamsitish va masxaralovchi nutq shakllari** ham keng tarqalmoqda.

Bunday holatlar nafaqat ijtimoiy-axloqiy, balki lingvistik va huquqiy jihatdan ham muhim muammo hisoblanadi. Chunki har qanday so'z — ayniqsa omma ko'radi va eshitadi deb aytilgan so'z — ma'lum kommunikativ niyatni bildiradi. Blog yoki vlog muhitida bu niyatlar ba'zan ochiq, ba'zan esa kinoya, istehzo yoki o'ziga xos stilistik vositalar orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham haqorat ifodalarini aniqlash faqat semantik tahlil bilan cheklanmaydi; bu jarayonda pragmatik, stilistik va kontekstual belgilarni ham hisobga olish zarur.

Blog va vloglardagi muloqotlar multimodal xususiyatga ega: ya'ni unda matn, nutq, intonatsiya, mimika va vizual obraz birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli haqorat ifodalarini aniqlash jarayonida lingvistik ekspertiza nafaqat matnli, balki og'zaki va vizual ifodalar tahlilini ham qamrab oladi. Ekspert tilshunos so'zning leksik-semantik ma'nosini, gap tuzilishini, kontekstni hamda nutq subyektining maqsadini hisobga olgan holda, ifodaning haqorat tusini aniqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, blog va vloglarda shaxsga qaratilgan haqorat ifodalarini lingvistik ekspertiza asosida o'rganish hozirgi davr uchun dolzarb ilmiy masaladir. Bu tadqiqot natijalari tilshunoslik, axborot etikasi va huquqiy ekspertiza sohalarining

kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, so'z mas'uliyati va axborot madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Internetdagi blog va vloglarda fikr bildirish jarayonida tilning emotsional, baholovchi va ekspressiv imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Shu sababli so'zlovchining niyatiga qarab, bir xil so'z turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha baho kasb etishi mumkin. Masalan, "ahmoq", "savodsiz", "sen kim bo'lasan?" kabi iboralar ayrim kontekstlarda kinoyali, tanqidiy, ba'zida esa to'liq haqorat ma'nosini bildiradi. Lingvistik ekspertizaning vazifasi shundan iboratki, bu ifodalarning haqiqiy semantik yukini va nutqiy maqsadini aniqlashdir.

Haqorat ifodasi odatda shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini yoki ijtimoiy obro'sini kamsituvchi mazmunni o'z ichiga oladi. Bu mazmun quyidagi lingvistik belgilarda namoyon bo'ladi:

Leksik darajada: so'kinch, salbiy baholovchi sifatlar, kinoyali so'zlar ("tentak", "noloyiq", "yaramas");

Sintaktik darajada: buyruq yoki so'roq shaklida tajovuzkor intonatsiya bilan ishlatilgan gaplar ("Yo'qol ko'z o'ngimdan!", "Sen kim bo'lasan menga aql o'rgatadigan?");

Pragmatik darajada: so'zlovchining niyatida kamsitish, g'azab yoki mensimaslik mavjud bo'ladi;

Diskursiv darajada: ifoda umumiy kontekstdan ajralganda neytral ko'rinsa ham, muloqotning ohangi va oldingi nutq birliklari bilan birgalikda haqorat ma'nosini yuzaga keltiradi.

Blog va vloglarda bu hodisalar multimodal kommunikatsiya shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni, so'zning o'zi bilan birga, intonatsiya, mimika, harakatlar, emojilar, hashtaglar, hatto video montajdagi urg'u ham ifodaning haqorat tusini kuchaytiradi yoki yumshatadi. Masalan, vloger "sening fikring kulgili" deb aytib, bu paytda istehzoli jilmayish yoki qo'l harakati qilsa, bu ifoda oddiy bahodan chiqib, haqorat ohangiga ega bo'ladi.

Lingvistik ekspertiza bunday hollarda semantik, pragmatik va kontekstual tahlilni uyg'un holda olib boradi. Tahlilning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

Matnni aniqlash va delimitatsiya qilish – video yoki postdagi haqorat gumon qilingan segmentlarni ajratib olish;

Leksik va semantik tahlil – so'zlarning asosiy va ko'chma ma'nosini aniqlash, ularning baholovchi tonini o'rganish;

Pragmatik tahlil – nutqning maqsadi, tinglovchi bilan munosabat darajasi, ijtimoiy rol va kontekstni hisobga olish;

Diskursiv baholash – ifoda butun muloqot oqimida qanday ma'no hosil qilganini aniqlash.

Masalan, blogger “Bu odamning bilim darajasi nol!” deb yozsa, bu gap faktik ko'rinishiga qaramay, aslida inson qadr-qimmatini kamsituvchi bahoni bildiradi. Shu bois ekspert tahlilida bunday ibora “haqoratli nutq” sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Yana bir jihat shundaki, ayrim hollarda so'zning shakli yumshoq, ammo mazmuni tajovuzkor bo'ladi. Masalan, “Sizni hurmat qilaman, lekin sizning darajangiz haqida sukut saqlaganim ma'qul”, degan ibora tashqi jihatdan odobli ko'rinsa-da, ichki semantikasida kamsitish ohangi mavjud. Bunday nozik holatlar pragmatik tahlilning eng muhim obyekti hisoblanadi.

Blog va vloglardagi haqorat ifodalarini aniqlash shuningdek madaniy va sotsiologik omillarga ham bog'liq. Chunki ayrim so'zlar bir jamiyatda odobsizlik sanalsa, boshqasida oddiy kinoya yoki hazil tarzida qabul qilinadi. Shu sababli ekspert bahosi har doim kontekstual, madaniy va ijtimoiy sharoitga tayangan holda beriladi.

Umuman olganda, **haqorat ifodalari** — bu tilning destruktiv funksiyasini ifodalovchi hodisa bo'lib, uning lingvistik ekspertizasi nafaqat so'zlarning shaklini, balki inson psixologiyasi va muloqot madaniyatini ham o'rganishni talab etadi.

Tadqiqotimiz davomida quyidagilarni taklif etamiz:

Blog va vloglarda shaxs sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi nutqni aniqlash uchun maxsus lingvistik ekspertiza metodikasi ishlab chiqilishi zarur.

Internet platformalarida axloqiy muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida tilshunolar, psixologlar va yuristlar hamkorligida o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish tavsiya etiladi.

Blogger va kontent yaratuvchilarning faoliyati uchun so'z mas'uliyati va etika kodeksi joriy etilishi, unda haqorat ifodalarini taqiqlovchi aniq me'yorlar belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Onlayn muhitda muloqot madaniyatini oshirish uchun tilshunos ekspertiza markazlari faoliyatini kengaytirish va ularni raqamli monitoring tizimlari bilan integratsiyalash zarur.

Blog va vloglarda shaxsga qaratilgan haqorat ifodalari nafaqat tilning emotsional va baholovchi imkoniyatlarini, balki insoniy munosabatlar madaniyatining darajasini ham aks ettiradi. Lingvistik ekspertiza bunday holatlarda so'zning haqiqiy ma'nosini, kontekstual maqsadini va psixologik ta'sirini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, blog va vlog muhitida haqorat ifodalarining shakllari ko'p qatlamli — matn, ovoz, mimika va vizual belgilar orqali ifodalanadi. Shuning uchun bunday materiallarni baholashda kompleks, multimodal

yondashuv zarur. Natijada lingvistik ekspertiza nafaqat huquqiy, balki axloqiy va madaniy muhitni sog'lomlashtirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Culpeper, J. (2011). *Impoliteness: Using language to cause offence*. — Cambridge: Cambridge University Press.
2. Dynel, M. (2016). *Trolling as a discursive practice: Strategic impoliteness in online communication*. *Journal of Pragmatics*, 91, 32–45.
3. Allan, K., & Burridge, K. (2006). *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language*. — Cambridge: Cambridge University Press.
4. Jo'raev, A. (2022). Tilshunoslikda ekspertiza turlari va ularning huquqiy ahamiyati. — Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Tursunov, U., & Mamatqulova, D. (2020). Internet tili va uning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlari. — O'zbekiston Milliy universiteti axborotnomasi. Filologiya fanlari seriyasi, №2, 75–83-betlar.
6. Abdug'aniyeva, S. (2021). Ommaviy kommunikatsiyada nutq madaniyati va etik me'yorlar. — “Filologiya masalalari” jurnali, №4, 41–47-betlar.
7. Karimova, N. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarda til va muloqot madaniyati. — Toshkent: Turon-Iqbol nashriyoti.
8. Xolmatov, A. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarda so'z mas'uliyati va lingvistik ekspertiza. *Til va adabiyot jurnali*, 2(1), 78–86.
9. Turg'unpo'latov, D. “Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq”. “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.
10. Turg'unpo'latov, D. “Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi”. “Akademic journal of educational research (AJER)” xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.

ZAMONAVIY YOSHLAR NUTQIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI

Qo'chqarova Mashhura Azamat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

mashhura21.0907@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlarning nutqida uchraydigan asosiy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari yoritigan. Xususan, leksik kambag'allik, begona tillar aralashuvi, talaffuzdagi xatoliklar, nutq madaniyatiga befarqlik kabi muammolar tahlil qilinadi. Ushbu muammolarning shakllanishiga oilaviy va ijtimoiy muhit, kitobxonlikning sustligi, axborot texnologiyalarining salbiy ta'siri kabi omillar sabab bo'layotgani ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, nutqni rivojlantirishda kitobxonlikni targ'ib etish, nutq madaniyati mashg'ulotlari, ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va milliy qadriyatlarni o'rganish muhim vosita sifatida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: yoshlar nutqi, nutq madaniyati, leksik muammo, adabiy til, talaffuz, kitobxonlik.

ABSTRACT

The article discusses the problems observed in the speech of young people, the main causes of these issues and possible ways to overcome them. In particular, problems such as lexical poverty, the influence of foreign languages, pronunciation errors, and indifference to speech culture are analyzed. The article emphasizes that factors such as family and social environment, lack of reading habits and the negative impact of information technologies contribute to these problems. Furthermore, it highlights the importance of promoting reading, organizing speech culture trainings, supporting creative activities and learning national values as effective tools for improving youth speech.

Keywords: youth speech, speech culture, lexical problem, pronunciation, reading habit, literary language.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются проблемы, наблюдаемые в речи молодежи, основные причины этих явлений, а также пути их преодоления. В частности, анализируются такие проблемы, как бедность словарного запаса, влияние иностранных языков, ошибки в произношении и безразличие к культуре речи. Отмечается, что на формирование данных недостатков влияют семейная и социальная среда, снижение интереса к чтению, а так же негативное воздействие информационных технологий. Кроме того, подчеркивается важность популяризации чтения, проведения занятий по культуре речи, поддержки творческой деятельности и изучения национальных ценностей как эффективных средств развития речи молодежи.

Ключевые слова: речь молодежи, культура речи, лексическая проблема, произношение, чтение, литературный язык.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning nutqi masalasi dolzarb mavzulardan biridir. Til jamiyatning asosiy aloqa vositasi bo'lib, uning rivojlanishi milliy tafakkur darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Afsuski, so'nggi yillarda yoshlar nutqida so'z boyligining qisqarishi, jargon va begona so'zlarning keng qo'llanishi, nutq madaniyatining pasayishi kuzatilmoqda. Ushbu maqolada ana shunday muammolar tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali vositalar taklif etiladi.

Yoshlarning nutqida kuzatilayotgan muammolardan eng avvalo so'z boyligining qisqarishini ta'kidlash lozim. Kitob o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi natijasida yoshlarning lug'at zaxirasi torayib bormoqda. Nutqda qo'llaniladigan iboralar va so'zlar ko'lamini cheklanib, ularning ifoda imkoniyatlari zaiflashmoqda. Bu holat esa o'z fikrini ravon bayon etishda qiyinchilik tug'diradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi bilan jargon, qo'pol so'zlar va begona iboralar yoshlar nutqiga tobora ko'proq kirib kelmoqda. Masalan, inglizcha yoki ruscha so'zlarning o'zbekcha muqobildan ko'ra tez-tez qo'llanilishi kuzatilmoqda. Bu esa adabiy til me'yoriy asoslariga putur yetkazadi, milliy nutq madaniyatini so'ndiradi.

Nutq madaniyatining pasayishi ham alohida muammo sifatida ko'rinadi. Yoshlar orasida talaffuz xatolari, uslubiy kamchiliklar, jummalarni noto'g'ri qurish holatlari tez-tez uchraydi. Ayniqsa, muloqotdagi yuzaki yondashuv – qisqa jumlar, emoji va belgilar orqali fikr almashish odatga aylanib bormoqda. Bu esa tabiiy ravishda yozma va og'zaki nutqning sayozlashuviga olib kelmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir qator vositalarni qo'llash zarur.

Avvalo, oila tarbiyasida

toza, adabiy tilda muloqot qilish an'anasini yo'lga qo'yish lozim. Bola nutqining shakllanishida ota-onaning nutqi asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida nutq madaniyati mashg'ulotlarini kuchaytirish, notiqlik san'ati fanini joriy etish yoshlar uchun samarali bo'ladi. Kitobxonlikni kengaytirish muammolarni hal etishda muhim omildir. Adabiy asarlar va badiiy nutq namunalarini o'qish yoshlarning lug'atini boyitadi, tafakkurini kengaytiradi, til imkoniyatlarini oshiradi. Ommaviy axborot vositalari ham bu borada katta mas'uliyatga ega. Televizion dasturlar, radio va internet platformalarida adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda kontent tayyorlanishi yoshlarning nutqiy madaniyatini shakllantirishda katta yordam beradi. Bundan tashqari, turli nutqiy treninglar, debatlar, bahslar va adabiy kechalarga yoshlarni jalb etish ham samarali vositalardan biridir. Bunday jarayonlar orqali ularning nutqi nafaqat boyiydi, balki mantiqiy va ravon bo'lishi ta'minlanadi. Shu o'rinda notiqlik san'atini o'qitishning ahamiyati alohida ta'kidlashga loyiqdir. Notiqlik faqat sahnada so'zlash emas, balki kundalik hayotda ham to'g'ri, aniq va mantiqiy fikr bildirishni o'rgatadi. Shunga ko'ra, bu borada milliy qadriyatlarning ham o'rni beqiyosdir. Chunki milliy an'ana va urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish yoshlarning til va tafakkurini boyitadi. Xalq maqollari, matallar, topishmoq va dostonlar orqali nafaqat lug'at boyligi kengayadi, balki nutq mantiq va ifoda uslubi ham shakllanadi. Shu sababli o'quvchilarga va talabalarga xalq og'zaki ijodini o'rgatish nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, tilning estetik qimmatini ham yoshlar nutqini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Go'zal nutq nafaqat ma'no jihatdan to'g'ri bo'lishi, balki ohang, uslub va talaffuzda ham o'z aksini topishi kerak. O'z fikrini tartibli va ravon ifodalash qobiliyati insonning intellektual salohiyatini ko'rsatadi. Shu ma'noda, yoshlar orasida notiqlik san'atini rivojlantirish jamiyatda fikrlash madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda nutqiy muhitning shakllanishida ijtimoiy tarmoqlar va media resurslarining o'rni ham katta. Ammo ularning ta'siri har doim ham ijobiy emas. Masalan, qisqa shakldagi yozishmalar, ortiqcha belgi va qisqartmalar tilning tabiiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etmoqda. Shu sababli, ommaviy axborot vositalarida va internet platformalarida adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya qilish, yoshlar uchun o'rnatilgan bo'ladigan sifatli kontent yaratish muhim vazifa hisoblanadi.

Til madaniyatini rivojlantirish faqatgina ta'lim tizimi yoki oilaning vazifasi emas, balki butun jamiyatning burchidir. Tilni ardoqlash, uni boyitish va rivojlantirish har bir fuqaroning ma'naviy mas'uliyatidir. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning nutqiy

muammolarini bartaraf qilish – ularni ma'naviy barkamol, tafakkuri keng va sog'lom fikrli avlod sifatida tarbiyalashning ajralmas qismidir.

Til - bu nafaqat aloqa vositasi, balki inson qalbi va tafakkurining eng muhim ko'zguvidir. Til orqali shaxs o'z dunyoqarashini, his-tuyg'ularini, orzu-intilishlarini ifodalaydi. Shu bois nutqning ravonligi va boyligi faqatgina lingvistik jarayon emas, balki insonning ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'liqdir. Yoshlarning nutqidagi qashshoqlik esa aslida jamiyatning umumiy ma'naviy qiyofasiga ham ta'sir etadi. Demak, bu masala oddiygina tilda so'zlashish madaniyati emas, balki millatning kelajagini belgilab beruvchi omillardan biridir.

Bugun dunyo ilm-fan va texnologiyalar asriga qadam qo'ygan bir paytda, yoshlarning nutqiy salohiyati yuksak bo'lishi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ilmiy kashfiyotlar, yangi g'oyalar va innovatsion tashabbuslar avvalo fikr sifatida tug'iladi. Fikr esa nutq orqali ifodalanadi. Agar yoshlarimizning nutqi sayoz va cheklangan bo'lsa, ularning fikrlash doirasi ham torayib qolishi tabiiydir. Aksincha, boy nutq keng dunyoqarashni, chuqur tafakkurni va mustahkam irodani yuzaga chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, yoshlarni faqat adabiy til me'yorlariga rioya etishga chaqirish kifoya qilmaydi. Ularning nutqida ma'naviy mazmun, milliy ruh va estetik zavq uyg'otish ham zarurdir. Chunki so'zning kuchi inson qalbini uyg'otishga, unga ilhom va ishonch bag'ishlashga qodir. Shu bois yoshlar nutqida go'zallik, samimiyat va mazmun uyg'unlashsa, bu ularni kelajakda yuksak orzular sari yetaklaydi. Bundan tashqari, nutq madaniyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning shaxsiy faolligi ham katta ahamiyatga ega. Har bir inson o'z nutqi ustida ishlashga intilmog'i, yangi so'zlarni o'rganishga, adabiy matnlarni mutolaa qilishga odatlanmog'i kerak. Faqat tashqi muhit emas, balki ichki ehtiyoj ham nutqiy taraqqiyotining muhim shartidir. Tilni sevgan, so'zning qadriga yetgan yoshgina o'z ma'naviy dunyosini boyita oladi.

Eng asosiysi, nutq orqali inson o'zini namoyon etadi. Bugun yaxshi nutq bilan boshqalarga ta'sir eta olgan yosh ertaga rahbar bo'lishi, jamiyatni ortidan ergashtira olishi mumkin. Demak, yoshlarning nutq madaniyatini yuksaltirish - bu shunchaki tilshunoslik masalasi emas, balki kelajak yetakchilarini tarbiyalash masalasidir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning nutqidagi muammolar bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ularni bartaraf etish uchun oila, ta'lim muassasalari, jamiyat va ommaviy axborot vositalari birgalikda harakat qilishi zarur. Kitobxonlikni kengaytirish, adabiy til me'yorlarini mustahkamlash va notiqlik san'atini o'qitish

yoshlarning nutqini yuksaltirishning eng samarali yo'llaridandir. Nutq madaniyati yuksalgan jamiyatda tafakkur ham, ma'naviyat ham yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qilichev.R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Fan, 2016.
2. G'ulomov, A. Til va jamiyat. – Samarqand: SamDu nashriyoti, 2020.
3. Hojiahmedov, A. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasida nutq madaniyatining o'rni. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2021.
4. Crystal, D. Language and Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

YOSHLAR JARGONI — ZAMONAVIY O'ZBEK TILI LEKSIKASINING YANGILANISH MANBAI SIFATIDA

Qo'chqorova Munisa Jasur qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

mqochqorova8142@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilida yoshlar jargoni hodisasi, uning shakllanish omillari va leksik tizimga ta'siri tahlil qilinadi. Yoshlar orasida keng tarqalgan yangi so'zlar, iboralar va ifodalar tildagi yangilanishning muhim manbalaridan biri sifatida ko'riladi. Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida jargon so'zlarning paydo bo'lishi, ularning adabiy til bilan munosabati ham yoritiladi. Maqola yoshlar nutqidagi lingvistik yangiliklar orqali tilning dinamik rivojlanishini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar jargoni, leksika, o'zbek tili, yangilanish, internet tili, til taraqqiyoti, kommunikatsiya, sleng.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается феномен молодежного жаргона в современном узбекском языке, анализируются причины его формирования и влияние на лексическую систему. Новые слова и выражения, распространенные среди молодежи, рассматриваются как один из главных источников обновления языка. Также освещается роль интернета и социальных сетей в процессе появления жаргонизмов и их соотношение с литературной нормой. Статья направлена на выявление динамики развития узбекского языка через молодежную речь.

Ключевые слова: молодежный жаргон, лексика, узбекский язык, обновление, интернет-язык, развитие языка, коммуникация, сленг.

ABSTRACT

This article examines the phenomenon of youth jargon in modern Uzbek language, analyzing its formation factors and impact on the lexical system. New words and expressions used among young people are considered a major source of linguistic innovation and renewal. The study also explores the influence of the Internet and social networks on the emergence of jargon words and their relationship with the literary norm. The paper highlights the dynamic development of the Uzbek language through linguistic creativity in youth speech.

Key words: youth jargon, lexicon, Uzbek language, linguistic innovation, language renewal, Internet language, communication, slang.

Hozirgi davr o'zbek tili dinamik rivojlanish bosqichida bo'lib, bu jarayon ayniqsa yoshlar nutqida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Yoshlar orasida keng tarqalgan norasmiy so'zlashuv shakllari, ya'ni jargonga xos birliklar, zamonaviy kommunikatsiya madaniyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Jargon, aslida, muayyan ijtimoiy guruh vakillari tomonidan qo'llaniladigan, rasmiy adabiy me'yordan chetga chiqadigan, ammo muloqotni samimiy, erkin va hissiy jihatdan boyroq qiluvchi til qatlamidir. Yoshlar jargoni nafaqat yangi so'z va iboralarni keltirib chiqaradi, balki o'zbek tili leksikasini zamon ruhi, madaniy o'zgarishlar va texnologik yangiliklar bilan uyg'unlashtiradi.

Bugungi kunda yoshlar tili asosan internet, kino, musiqiy subkulturalar, sport va axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq. Global kommunikatsiya va internet madaniyati tufayli yangi so'zlar va ifodalar tez sur'atda kirib kelmoqda. "Like", "ok", "pro", "offline", "online", "game", "challenge", "story" kabi so'zlar ingliz tilidan o'zbek tiliga o'tib, kundalik muloqotda mustahkam o'rnatilib bormoqda. Shuningdek, "prikol", "mem", "skrin", "vidyo" kabi so'zlar rus tili va internet tilining ta'sirida joriy bo'lgan bo'lsa, "follow qilmoq", "story qo'yimoq", "like bosmoq" kabi birikmalar esa yangi turdagi aralash morfologik shakllanishning mahsulidir. Bunday hodisa tilshunoslikda "gibrid birliklar" deb yuritilib, ularning o'zbek tili morfologik tizimiga moslashib borayotgani kuzatiladi.

Yoshlar jargoni ijtimoiy jihatdan birdamlik ramzi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. U ma'lum guruh a'zolari o'rtasida o'ziga xos "til birligi"ni yaratadi, shu orqali ular o'z shaxsiyati, dunyoqarashi va madaniy qarashlarini ifoda etadilar. Masalan, "akae", "bro", "kaka", "zo'r", "kruto", "gap yo'q" kabi so'zlar shunchaki muloqot vositasi emas, balki emotsional yaqinlik, do'stona muhitni ifodalaydi. Shu

tariqa, yoshlar jargoni nutqning faqat leksik emas, balki psixologik va ijtimoiy qatlamlarini ham boyitadi.

Biroq bu hodisaning faqat ijobiy tomonlarini ko'rish biryoqlamalilik bo'lur edi. Yoshlar jargoni tilni yangilash, boyitish, muloqotni erkin va jonli qilishda katta o'rin tutsa-da, uning salbiy oqibatlarini ham mavjud. Eng avvalo, bunday so'zlarning haddan tashqari ishlatilishi adabiy til me'yorlaridan chetga chiqishga, so'z boyligining torayishiga, standart nutq ko'nikmalarining zaiflashishiga olib keladi. Begona til unsurlarining o'ylamay kiritilishi esa milliy tilning fonetik, semantik va stilistik uyg'unligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada yoshlar va kattalar nutqi o'rtasida sezilarli tafovut paydo bo'ladi, bu esa avlodlar o'rtasida til to'sig'ini yuzaga keltiradi. Shu bois jargondan foydalanishda muvozanat, madaniy sezgirlik va til me'yorlarini saqlash juda muhimdir.

Jargon — faqat til hodisasi emas, balki madaniy-ijtimoiy jarayonning ham mahsulidir. Global axborot oqimi, internet platformalari, ommaviy madaniyat, rep va hip-hop musiqasi, TikTok, YouTube, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlar jargonning rivojlanishida kuchli omil sifatida ishtirok etmoqda. Masalan, "trend", "xit", "content", "challenge" kabi so'zlar avval chet tillarida qo'llanilgan bo'lsa, hozir o'zbek tilida ham faol ishlatilib, yangi semantik ma'nolar kasb etmoqda. Bu jarayon o'zbek tilining ochiqqligi va moslashuvchanligini ko'rsatadi, biroq u bilan birga tilning tabiiy ohangi va milliy ruhini saqlab qolish masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoshlar jargoni zamonaviy o'zbek tili leksikasining yangilanish manbai sifatida baholanishi mumkin. U orqali tilning jonli taraqqiyoti, ijtimoiy moslashuvchanligi va yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashish mexanizmi kuzatiladi. Shu bilan birga, til siyosati, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari bu jarayonni nazorat ostida ushlab, jargondan me'yoriy va madaniy maqsadlarda foydalanish yo'nalishini belgilab berishi zarur. Chunki har bir yangi so'z — bu faqat nutqdagi yangilik emas, balki milliy tafakkurdagi o'zgarishning belgisi hamdir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar jargoni o'zbek tili rivojlanishining tabiiy, dinamik va muqarrar bosqichi hisoblanadi. U tilning zamonaviylikka moslashishini ta'minlaydi, yangi kommunikativ ko'rinishlar yaratadi va yosh avlod tafakkurining o'zgarishini aks ettiradi. Shu bilan birga, til madaniyatini asrash, adabiy me'yorlardan chetga chiqmaslik, begona unsurlarni me'yorida qo'llash ham har bir til egasining mas'uliyatidir. O'zbek tili o'z ildizlariga tayanib, zamonaviy jargon va global atamalarni o'zlashtirgan holda, yangi avlod tilining madaniy, ijtimoiy va intellektual salohiyatini ifoda etishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.
2. Eble, C. (1996). Slang and Sociability: In-group Language Among College Students. University of North Carolina Press.
3. Karimov, M. (2019). "Zamonaviy o'zbek tilida yoshlar jargonining xususiyatlari". Til va adabiyot jurnali, №3.
4. Abdullayeva, S. (2021). "Internet slangi va o'zbek yoshlar nutqi". O'zbek tilshunosligi axborotnomasi, №4.
5. Labov, W. (2001). Principles of Linguistic Change. Blackwell Publishing.
6. Saidov, B. (2022). "Jargon va uning til taraqqiyotidagi o'rni". Filologiya masalalari, №2.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2019). Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

NUTQ MADANIYATI VA IFODALI O'QISHNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI O'RNI

Qosimova Intizor Erkin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

renesmeqosimova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya. Nutq madaniyati va ifodali o'qish zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, tafakkurini kengaytirish va mustaqil fikrlashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayon ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, yoshlarning nutqiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Nutq madaniyati, ifodali o'qish, ta'lim, tafakkur, ma'naviyat.

Аннотация. Культура речи и выразительное чтение в современном образовании способствуют обогащению духовного мира учащихся, расширению их мышления и формированию самостоятельности. Эти процессы не только повышают эффективность обучения, но и развивают речевой и интеллектуальный потенциал молодежи.

Ключевые слова: Культура речи, выразительное чтение, образование, мышление, духовность.

Abstract. Speech culture and expressive reading in modern education enrich students' spiritual world, broaden thinking, and promote independence. These processes enhance learning efficiency while fostering the intellectual and communicative potential of youth, making them active participants in educational and social life.

Keywords: Speech culture, expressive reading, education, thinking, spirituality.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitish, tafakkurini kengaytirish, muloqot madaniyatini shakllantirish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi. Shu nuqtayi

nazardan, nutq madaniyati va ifodali o'qish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Nutq madaniyati insonning bilim darajasi, ma'naviy saviyasi va ijtimoiy faolligini ifoda etuvchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Ifodali o'qish esa bu madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib, yoshlarning og'zaki va yozma nutqini, tafakkurini, badiiy-estetik didini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Nutq madaniyati – til vositalaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va ta'sirchan foydalanish san'atidir. U nafaqat tilshunoslik, balki shaxsning intellektual, axloqiy va estetik rivojlanishini ham qamrab oladi. Nutq madaniyati:

so'z boyligidan oqilona foydalanish;
 adabiy til me'yorlariga rioya qilish;
 mantiqiy, izchil va ta'sirchan fikr bildirish;
 ma'naviyat va odob qoidalariga amal qilishni o'z ichiga oladi.

Bugungi ta'limda nutq madaniyatini shakllantirish o'quvchilarning bilim saviyasi va tafakkur darajasini oshirish bilan birga, ularni jamiyatda faol ishtirok etishga ham tayyorlaydi.

Ifodali o'qish o'quvchining matnni nafaqat texnik jihatdan, balki mazmunan tushunib, his-hayajon bilan o'qishi demakdir. Bu jarayon orqali bola:

nutqiy apparatini mustahkamlaydi;
 talaffuz, intonatsiya, pauza va ohang ustida ishlaydi;
 badiiy obrazlarni his qiladi;
 estetik zavq oladi va muloqot qobiliyatini rivojlantiradi.[2]

Ifodali o'qish nafaqat ona tili va adabiyot darslarida, balki boshqa fanlarda ham o'quvchi nutqini boyitishga xizmat qiladi. Masalan, tarix yoki biologiya darslarida matnni ifodali o'qish bilimlarni yanada mustahkamlaydi.

Nutq madaniyati va ifodali o'qish bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Ifodali o'qiy olgan o'quvchi nutqini to'g'ri quradi, ravon gapiradi va fikrini erkin bayon qiladi. Bunday o'quvchi jamiyatda faol, bilimli va yetakchi shaxs bo'lib shakllanadi. Nutq madaniyati va ifodali o'qish bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Chunki ifodali o'qishga o'rgangan o'quvchi:

matn mazmunini chuqur anglaydi;
so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladi;
o'z nutqida badiiy vositalardan unumli foydalanadi.

Aksincha, nutqi boy va ravon bo'lgan o'quvchi badiiy asarni jonli, ta'sirchan o'qiy oladi.

Shuningdek, zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar, multimedia vositalari va teatr metodlari nutq madaniyati hamda ifodali o'qishni rivojlantirishda samarali qo'llanilmoqda.

Zamonaviy ta'limdagi ahamiyati

Hozirgi ta'lim jarayonida nutq madaniyati va ifodali o'qish:

Kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi;

Talabalarda mantiqiy izchillik va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi;

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqotga zamin yaratadi;

Yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalaydi.

Ifodali o'qishning o'quvchilar uchun tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir:

Ma'naviy jihatdan badiiy asarlar orqali o'quvchi ezgulik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni o'zlashtiradi.

Intellektual jihatdan – matnni anglab o'qish tafakkurni kengaytiradi, mustaqil fikrlashni kuchaytiradi.

Estetik jihatdan – ohangdor o'qish, go'zal ifoda estetik didni shakllantiradi.

Ijtimoiy jihatdan – o'quvchining nutqi ravonlashadi, u jamoat oldida chiqish qilishga tayyor bo'ladi.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning nutq madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Qisqa jumlar, noto'g'ri yozuv, til qoidalarining buzilishi ko'p uchraydi. Bu esa nutq madaniyatining pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Ammo to'g'ri yo'naltirilgan holda, ijtimoiy tarmoqlar ifodali o'qish, badiiy asarlarni targ'ib qilish, nutqiy savodxonlikni oshirishning ham samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Nutq madaniyati va ifodali o'qishni rivojlantirish yo'llari

12. Ona tiliga bo'lgan hurmatni kuchaytirish;

13. Kitobxonlik madaniyatini ommalashtirish;

14. Adabiyot va notiqlik san'atiga oid to'garaklar tashkil etish;

15. O'quvchilarda sahna nutqi va teatr elementlaridan foydalanish;

16. Zamonaviy texnologiyalar orqali audio va video materiallar bilan mashg'ulotlar o'tkazish.[4]

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati va ifodali o'qish zamonaviy ta'limda o'quvchilarni ma'naviy barkamol, intellektual salohiyatli va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Ravon va ifodali nutqqa ega yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topadi, bilimlarini samarali ifoda etadi va kelajakda muvaffaqiyatli inson bo'lib yetishadi. Shuning uchun ta'lim tizimida nutq madaniyati va ifodali o'qishni rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 400 b.
2. Jo'rayev N. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 240 b.
3. To'xliyev B., Yo'ldosheva Sh. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Ilm Ziya, 2020. – 256 b.
4. G'ulomov A., Qodirova M. Ona tili va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 200 b.
- Axmedova Z. Ifodali o'qish va nutq madaniyati. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 180 b.

MUSTAQILLIK DAVRIDA DIALEKTOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING ILMIY AHAMIYATI

Qudratova Sevinch

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2- kurs talabasi

sevinchqudratova349@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada mustaqillikdan keyingi davrda o'zbek dialektologiyasi sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Xususan, dialektlarning ilmiy tasnifi, shevalardagi lug'at boyligi, yangi tadqiqot yo'nalishlari va ularning adabiy til taraqqiyotidagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, dialektologik izlanishlarning zamonaviy tilshunoslik va ta'limdagi o'rni haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Dialektologiya, sheva, mustaqillik, adabiy til, lug'at boyligi, tilshunoslik, ilmiy tadqiqot.

ANNOTATION. This article analyzes the research carried out in the field of Uzbek dialectology in the post-independence period. In particular, the scientific classification of dialects, the richness of vocabulary in dialects, new research directions and their significance in the development of the literary language are highlighted. The role of dialectological research in modern linguistics and education is also discussed.

Keywords: Dialectology, dialect, independence, literary language, richness of vocabulary, linguistics, scientific research.

АННОТАЦИЯ.

В статье анализируются исследования, проведенные в области узбекской диалектологии в период после обретения независимости. В частности, освещаются научная классификация диалектов, богатство лексики диалектов, новые направления исследований и их значение в развитии литературного языка. Также рассматривается роль диалектологических исследований в современной лингвистике и образовании.

Ключевые слова: диалектология, диалект, независимость, литературный язык, богатство лексики, лингвистика, научные исследования.

Mustaqillik davrida tilshunoslik sohasida yangi yo'nalishlar paydo bo'lib, ayniqsa, o'zbek dialektologiyasida qator muhim ishlar amalga oshirildi. Chunki milliy tilning rivojlanishida mahalliy shevalarning o'rni beqiyosdir. O'zbek tilining turli hududlarda shakllangan nutqiy variantlari ham adabiy tilning boyishiga, ham xalqning madaniy merosini asrab qolishga xizmat qiladi. O'zbek xalqining boy madaniy merosi, qadimiy tarixi va keng hududlarda shakllangan turli shevalari milliy tilimizning bebaho xazinasi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida davlat tilining mavqeini mustahkamlash, uni ilmiy asosda o'rganish, ta'lim va ilmiy muassasalarda keng qo'llash masalalariga katta e'tibor berildi. Shu jarayonda dialektologiya alohida yo'nalish sifatida rivojlandi. O'zbek tilining hududiy shevalari haqida dastlabki ma'lumotlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qayd etilgan bo'lsa, mustaqillikdan keyingi davrda ularni tizimli o'rganish, to'plash va ilmiy jihatdan qayta ko'rib chiqish ishlari keng ko'lamda davom etdi.

Akademik Sh. Rahmatullaev ta'kidlaganidek: "Dialektologik tadqiqotlar tilning tarixiy ildizlarini ochish bilan birga, uning hozirgi zamon taraqqiyoti uchun ham muhim manba hisoblanadi".[1;67]

1. Mustaqillik davrida dialektologiyaning rivoji

1991 yildan keyin o'zbek tili davlat tili sifatida yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda tilning turli qirralarini, xususan, dialektlarni o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Hududiy shevalar asosida lug'atlar tuzildi, og'zaki nutq materiallari to'plandi va ular elektron bazalarga jamlandi.

2. Dialektologik tadqiqot yo'nalishlari

Leksik qatlam – yangi so'zlar va eskirgan birliklarning tahlili. Masalan, Farg'ona shevasida uchraydigan "chorni" (qozon), "bosma" (qatlama) kabi so'zlar til tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Fonetik xususiyatlar – ayrim hududlardagi talaffuz farqlari, masalan, "ko'z" so'zining ayrim shevalarda "kez" tarzida ishlatilishi.

Grammatik farqlar – qo'shma shakllar, mahalliy qo'shimchalarning qo'llanilishi.

3. Ilmiy ahamiyat. Dialektologik tadqiqotlar quyidagi jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi: Adabiy til lug'at boyligini kengaytiradi.

Tarixiy til manbalarini ochib beradi.

Xalq og'zaki ijodi va madaniy merosini asrashga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida tilning xilma-xilligini o'rgatish imkonini beradi.

Professor N. Mahmudov ta'kidlaganidek: "Shevalar adabiy til uchun begona emas, balki uning tabiiy manbai hisoblanadi".

4. Zamonaviy texnologiya va dialektologiya. So'nggi yillarda dialekt materiallarini to'plashda raqamli texnologiyalardan foydalanilmoqda. Audio va video yozuvlar asosida shevalarning elektron korpuslari yaratilmoqda. Bu esa tadqiqotlarning ilmiy qiymatini yanada oshirmoqda.

5. Leksik tadqiqotlar. Shevalardagi lug'at boyligi juda keng va xilma-xildir. Masalan, Qashqadaryo shevasida "yugan" (ot jilovi), "choponcha" (kichkina chopon), Andijon shevasida "sholi" (guruch), Buxoro shevasida "abgor" (ojiz, kuchsiz) kabi so'zlar qo'llaniladi. Ularning ko'pchiligi adabiy tilda ham ishlatiladi yoki ishlatilishi mumkin.

6. Fonetik va grammatik xususiyatlar

Fonetik jihatdan ayrim shevalarda undoshlarning yumshoq talaffuzi kuzatiladi. Masalan, "bola" so'zi ayrim joylarda "bala" tarzida aytiladi. Grammatik farqlarga kelsak, Samarqand shevasida qo'shma fe'llar o'ziga xos shakllarda ishlatiladi: "borib kelibdi" o'rniga "boripti".

7. Ilmiy va amaliy ahamiyat. Dialektologik tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi: Adabiy tilning lug'aviy boyishini ta'minlaydi; Til tarixini o'rganishda asosiy manba hisoblanadi; Xalq og'zaki ijodini to'plash va nashr etishda yordam beradi; O'quvchi va talabalarni milliy tilimizning boyligi bilan yaqindan tanishtiradi.

Professor N. Mahmudovning so'zlari bilan aytganda: "Shevalarni o'rganish adabiy tilni boyitadi, uni xalqchil qiladi, xalqning ma'naviy dunyosi bilan bog'laydi".

Mustaqillik davrida dialektologik tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Shevalarni o'rganish orqali nafaqat adabiy tilning imkoniyatlari kengaymoqda, balki xalqning madaniy va ma'naviy merosi ham asrab qolinyapti. Shu jihatdan, dialektologik izlanishlarning ilmiy ahamiyati juda kattadir. Ular tilshunoslik, adabiyotshunoslik va ta'lim sohasi uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullaev Sh. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Fan, 1995.
2. Mahmudov N. Adabiy til va uning dialektologik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
3. Jo'rayev G'. O'zbek dialektologiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2010.
4. Hasanov B. Zamonaviy o'zbek tilshunosligi yo'nalishlari. – Toshkent: Fan, 2018.

O'ZBEK ADABIYOTIDA MILLIY QADRIYATLAR VA ULARNING TALQINI

Qurvanboyeva Farangiz Erkin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi

farangizqurvanboyeva@gmail.com

Ilmiy rahbari: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida milliy qadriyatlarining o'rni va talqini tahlil etiladi. Qadimiy og'zaki ijod namunalaridan tortib, Sharq uyg'onish davri, ma'rifatchilik davri va mustaqillik yillarigacha bo'lgan adabiyot namunalari asosida milliy qadriyatlarining ifodalanishi ko'rib chiqiladi. Maqolada milliy qadriyatlarining yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati va zamonaviy adabiyotdagi talqini haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, o'zbek adabiyoti, og'zaki ijod, uyg'onish davri, ma'rifatchilik, istiqloq adabiyoti, vatanparvarlik, ma'naviy meros, axloqiy tarbiya.

Аннотация:

Даётся анализ роли и интерпретации национального материала в узбекской литературе. Рассматривается проявление национального законодательства в литературе от древних устных произведений до эпохи Восточного Возрождения, Просвещения и периода независимости. В статье также рассматривается значение национальных ценностей в воспитании подрастающего поколения и их интерпретация в современной литературе.

Ключевые слова: национальные ценности, узбекская литература, устное творчество, эпоха Возрождения, Просвещения, литература периода независимости, патриотизм, духовное наследие, нравственное воспитание.

Abstract:

Here is an analysis of the role and interpretation of national materials in Uzbek literature. The expression of national legislation based on literature from ancient oral works to the period of the Eastern Renaissance, the Enlightenment, and the years of independence is examined. The article also discusses the importance of national values in educating the younger generation and their interpretation in modern literature.

Keywords: National values, Uzbek literature, oral works, the Renaissance, the Enlightenment, independence literature, patriotism, spiritual heritage, moral education.

Har bir xalqning adabiyoti uning tarixiy xotirasi va ma'naviy hayotini o'zida mujassamlashtiradi. Adabiyot orqali milliy qadriyatlar asrlar davomida avlodlardan-avlodga o'tib keladi. O'zbek xalqining adabiy merosida ham qadriyatlarning badiiy talqini alohida o'rin egallaydi. O'zbek adabiyoti xalqimizning eng qadimiy davrlardan beri shakllanib kelayotgan ma'naviy boyliklar omboridir. U xalq hayoti, turmush tarzi, orzu-umidlari, baxt-saodati va iztiroblarini o'zida aks ettirib, milliy qadriyatlarning eng ishonchli manbasi sifatida xizmat qilib kelgan. Har bir davr o'zining ijtimoiy-siyosiy voqeliklariga ko'ra milliy qadriyatlarga turlicha yondashgan, ammo ularning mohiyati – xalqni birlashtirish, millatni mustahkamlash, insoniylikni ulug'lash – doimiy bo'lib qolgan. Milliy qadriyatlar – bu xalqning o'z tarixida yaratgan urf-odatlar, diniy va ma'naviy qarashlari axloqiy tamoyillari hamda jamiyat hayotini tartibga soluvchi me'yorlar majmuasidir. O'zbek adabiyoti hamisha ana shu qadriyatlarning targ'ibotchisi bo'lib, yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Qadimiy adabiyot va qadriyatlar O'zbek xalq og'zaki ijodi – qo'shiqlar, dostonlar, ertaklar va maqollar – milliy qadriyatlarning dastlabki ko'zgusidir. Ayniqsa, "Alpomish" dostoni xalqimizning asriy orzu-umidlari va ma'naviy dunyosini yorqin ifoda etadi. Unda vatanparvarlik, do'stlikka sadoqat, oilaviy burch, ota-onaga hurmat kabi qadriyatlar asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Qadimiy turkiy bitiklar, jumladan "O'rxun-Enasoy yozuvlari"da ham xalq birligi, vatan himoyasi, adolat va halollik masalalari ko'tariladi. Bu qadriyatlar o'z davrida davlatni boshqarish, jamiyatni uyg'unlikda ushlab turish uchun asos bo'lgan. Demak, qadimiy adabiyot o'zbek milliy qadriyatlarining ildizini tashkil qiladi. Sharq Uyg'onish davri adabiyotida qadriyatlar IX–XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, falsafa va adabiyot yuksak darajada rivojlandi. Bu davr adabiyotida milliy qadriyatlar ilmiy-ma'naviy qarashlar bilan boyidi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari davlat boshqaruvi, adolat, halollik va ilmning ahamiyati haqida hikoya qilib, komil shaxs tarbiyasiga alohida urg'u beradi. Alisher Navoiy ijodi esa milliy qadriyatlarni yangi bosqichga ko'tardi. "Xamsa" dostonlarida insoniy fazilatlar, sevgi va sadoqat, vatanparvarlik, ilm va ma'rifatga intilish kabi qadriyatlar badiiy go'zallik bilan uyg'unlashtirildi. Navoiy asarlarida milliy qadriyatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki butun insoniyatga xos bo'lgan umumiy qadriyatlar bilan boyitilgan. Shuningdek, bu davr shoir va mutafakkirlari – Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Bobur kabi ijodkorlarning asarlarida ham diniy-ma'rifiy qadriyatlar, ruhiy poklanish, insonparvarlik va adolat g'oyalari asosiy o'rin tutadi. Ma'rifatchilik davri adabiyotida qadriyatlar XIX asr oxiri va XX asr

boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hayot keskin o'zgarishlarga yuz tutdi. Mustamlaka davrining qiyinchiliklari adabiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davr adabiyotida milliy uyg'onish g'oyalari va ma'rifat qadriyatlari alohida o'rin oldi. Muqimiy va Furqat kabi shoirlar xalqning og'ir ahvolini tasvirlab, uni jaholatdan qutqarish uchun ilmga intilishga da'vat etdilar. Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yoshlarga axloqiy tarbiya berish, milliy qadriyatlarni singdirishning ahamiyatini yoritib berdi. Ma'rifatchilar uchun milliy qadriyatlarning asosiy maqsadi – xalqni uyg'otish, jaholatdan xalos qilish, millatni ilm-fan va madaniyat orqali taraqqiyot sari yetaklash edi. Mustaqillik davri adabiyotida qadriyatlar 1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, adabiyotda milliy qadriyatlar yangicha ruhda talqin etila boshlandi. Endilikda adabiyotimizda xalqning tarixiy xotirasi, diniy-ma'naviy merosi, qadimiy urf-odatlar qayta tiklanib, mustaqil davlat qurish g'oyalari bilan uyg'unlashdi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdieva kabi shoirlarning she'rlarida istiqloq ruhi, milliy iftixor, vatanparvarlik, o'zligini anglash g'oyalari asosiy o'rinda turadi. Zamonaviy nasrda esa tarixiy shaxslar va voqealar orqali milliy qadriyatlarga qaytish, o'zbek xalqining azaliy an'analarini qadrlash masalalari keng yoritilmoqda. Shuningdek, bugungi yosh ijodkorlar asarlarida ham milliy qadriyatlar zamonaviy g'oyalar bilan uyg'unlashib, global muammolar fonida o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek milliy qadriyatlari xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, urf – odatlari, diniy e'tiqodi va ma'naviy dunyoqarashini o'zida mujassam etadi. Bu qadriyatlar nafaqat o'tmish merosimizning yodgorligi, balki bugungi kunimizni ma'naviy jihatdan boyituvchi, kelajakka yo'l ko'rsatuvchi omildir. Milliy qadriyatlarning talqini – ularning mazmunini anglash, zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish, yosh avlod ongiga singdirish jarayonidir. Urf – odatlar, xalq o'zaki ijodi, milliy bayramlar, mehmondo'stlik, kattaga hurmat, kichikka mehr kabi qadriyatlar o'zbek jamiyatining ijtimoiy hayotini barqarorlashtiradi, insonlar o'rtasida birdamlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, qadriyatlarning talqini doimo yangilanib boradi, chunki zamon ularni qayta anglash, turmush tarziga moslashtirishni taqazo etadi. Demak, milliy qadriyatlar xalqning o'zligini anglashida, mustaqil davlatni barpo etishda va milliy g'ururni yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi. Ularni qadrlash, asrab-avaylash va yoshlar ongiga singdirish kelajak avlodning barkamol, vatanparvar va ma'naviy yetuk inson bo'lib voyaga yetishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyoti xalqimizning ruhiy va ma'naviy tarixi bo'lib, milliy qadriyatlarning targ'ibotchisi sifatida qadrlanadi. Qadimiy davr dostonlaridan tortib, zamonaviy she'riyat va nasrgacha bo'lgan asarlar milliy birlik, vatanparvarlik, ilmga intilish, ota-

onaga hurmat, adolat va insonparvarlik kabi qadriyatlarni tarannum etib kelmoqda. Bugungi globallashuv davrida ham o'zbek adabiyoti milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarni ma'naviy barkamollikka yetaklash va xalqimizning milliy o'zligini saqlashda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, o'zbek adabiyoti nafaqat badiiy-estetik, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham bebahomerosdir. Demak, o'zbek milliy qadriyatlari va adabiyoti bir –biridan ajralmastushunchalardir. Adabiyot qadriyatlarni badiiy obrazlar orqali avloddan-avlodga yetkazdi, qadriyatlar esa adabiyotning mazmuniy ildizlarini mustahkamlaydi. Shunday ekan, qadriyatlarni qadrlash vaularga tayanish xalqimizning o'zligini anglashida, yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashda hamda adabiyotimizni rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. "Xamsa". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. "Alpomish" dostoni. Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1988.
4. Erkin Vohidov. "Ruhlar isyoni". Toshkent: Sharq, 1999.
5. Abdulla Oripov. "Saylanma". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.
6. O'zbekiston adabiyoti tarixi. 4 jildlik. Toshkent: Fan, 2010.

O'ZBEK NUTQ MADANIYATIDA NOO'RIN SO'ZLARNING QO'LLANILISHI VA ULARNING OQIBATLARI

Raxmonova Iroda Isroil qizi,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti 1-kurs talabasi
irodar408@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida nutq madaniyatining ahamiyati, noo'rin so'zlardan foydalanish muammosi va uning oqibatlari tahlil qilinadi. Maqolada nutqiy mahorat tushunchasi, adabiy me'yorlar, shuningdek, Alisher Navoiy, Bobur, Gulxaniy, Nodira kabi ijodkorlarning nutq madaniyatiga qo'shgan hissalari haqida so'z yuritiladi. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda begona so'zlarning noo'rin qo'llanishi misollar yordamida yoritiladi va til tozaligini saqlash yo'llari taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, adabiy me'yor, noo'rin so'zlar, OAV, til tozaligi.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение культуры речи в узбекском языке, проблема употребления неуместных слов и их последствия. Анализируются понятия литературной нормы, речевого мастерства, а также вклад Алишера Навои,

Бабура, Гулханий, Нодир и других авторов в развитие речевой культуры. Освещается использование заимствованных слов в СМИ и социальных сетях, предлагаются пути сохранения чистоты языка.

Ключевые слова: культура речи, литературная норма, неуместные слова, СМИ, чистота языка.

Annotation: This article examines the importance of speech culture in the Uzbek language, the problem of using inappropriate words, and their consequences. It analyzes the concepts of literary norms and speech skills, as well as the contribution of Alisher Navoi, Babur, Gulkhani, Nodira and other authors to the development of speech culture. The misuse of borrowed words in the mass media and social networks is highlighted, and practical ways to preserve the purity of the language are proposed.

Keywords: speech culture, literary norm, inappropriate words, mass media, language purity.

Bugungi globallashuv davrida til va nutq madaniyatiga e'tibor masalasi nihoyatda dolzarbdur. Til – millatning ma'naviy boyligi, madaniyatining ifodasi, xalqning o'zligini ko'rsatib beruvchi eng muhim vositadir. Ayniqsa, yosh avlod nutqida noo'rin so'zlarning ko'payib borishi, internet va OAVda begona so'zlarning adabiy til me'yorlarini siqib chiqarayotgani nutq madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Nutq madaniyati va uning mohiyati

Nutq madaniyati – bu insonning o'z fikrini aniq, ravon, tushunarli va ifodali tarzda yetkazish mahoratidir. Nutq madaniyatiga ega shaxs nafaqat adabiy me'yorlarga amal qiladi, balki mavjud variantlar ichidan mazmun jihatidan eng to'g'ri, uslubiy jihatdan eng mosini tanlay oladi. Masalan, “aka — oka — ako” yoki “kelyapti — kelopti — kevotti” kabi variantlardan faqat adabiy tilga xos bo'lgan shakllarni qo'llash nutqiy madaniyatni namoyon etadi.

Yuksak nutq madaniyati insonning fikrlash darajasi, madaniyati va ma'naviyatidan dalolat beradi. Shuning uchun nutq madaniyati faqat til masalasi emas, balki shaxsning umumiy dunyoqarashi bilan ham bog'liqdir.

Nutq madaniyatining tarixiy ildizlari

O'zbek xalqida nutq madaniyatiga qadimdan katta e'tibor qaratilgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayoti va ijodi bilan nutq odobiga, adabiy til me'yorlariga mislsiz hissa qo'shgan. Keyingi davrlarda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Muqimiy, Furqat kabi shoirlarning asarlarida ham nutq madaniyatining yorqin izlari ko'rinadi.

Xalq maqollari ham nutq madaniyatiga bo'lgan yuksak e'tibor ifodasidir. Masalan:

“Yaxshi so'z — jon ozig'i”,

“Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin”,

“O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir”,

“Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi.”

Bu hikmatli so'zlar xalqimiz orasida nutq odobi qadimdan muhim qadriyat bo'lib kelganidan dalolat beradi.

Noo'rin so'zlarning sabablari

Hozirgi davrda noo‘rin so‘zlarning nutqda ko‘payishiga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

1. OAV va internet ta‘hiri – reklama, serial, ijtimoiy tarmoqlarda begona so‘zlarning ortiqcha ishlatilishi. Masalan, “like bosish”, “subscribe qilish” kabi iboralar.

2. Sheva va og‘zaki nutq ta‘hiri – adabiy til me‘yoriga zid bo‘lgan “aka — oka”, “ketdi — keldi” kabi variantlarning ishlatilishi.

3. O‘zini zamonaviy ko‘rsatishga intilish – inglizcha yoki ruscha so‘zlarni keraksiz qo‘shib gapirish (“oke, bye”, “privet brat”).

4. Tilga e‘tiborsizlik – ba‘zi yoshlar uchun to‘g‘ri talaffuz va adabiy me‘yorga rioya qilish ikkinchi darajaga tushib qolgan.

5. rasmiy joyda oddiy , ogzaki sozlarni ishlatish yoki aksincha , oddiy suhbatda ortiqcha kitobiy sozlarni qo‘llash noorin boladi. Masalan : Rasmiy nutqda: “ Hurmatli yigilish qatnashchilari , gapni chozmayman , shunaqa qilib qoya qolaylik “.

Noo‘rin so‘zlarning oqibatlari

Noo‘rin so‘zlarning ko‘payishi bir qancha salbiy oqibatlarga olib keladi:

Adabiy til qoidalari buziladi.

Yoshlar orasida so‘z boyligi kambag‘allashadi.

Tilning milliy xususiyati zaiflashadi.

Sheva va jargonlar tilning rasmiy, ilmiy, badiiy uslublariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy muhitda noqulayliklar tugdiradi.

Kelajak avlod uchun sozlarning mohiyati tushunarsiz boladi va natijada ularga bo‘lgan hurmat pasayishiga olib keldi.

Yechimlar va takliflar

Nutq madaniyatini yuksaltirish va noo‘rin so‘zlardan saqlanish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhimdir:

1. Ta‘lim muassasalarida nutq madaniyati bo‘yicha dars va amaliy mashg‘ulotlarni kuchaytirish.

2. OAV va internetda adabiy til me‘yorlariga amal qilinishini nazorat qilish.

3. Mashhur adiblar, shoirlarning asarlarini keng targ‘ib qilish.

4. Yoshlar o‘rtasida “Toza so‘z – sof qalb belgisi” kabi shiorlar ostida targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish.

5. Nutq madanyatini oshirish , aniq va to‘g‘ri ifodalash.

6. Adabiy til me'yoriga rioya qilish va so'z boyligini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda nutq madaniyati– millatning madaniy darajasi va ma'naviy boyligini ko'rsatuvchi asosiy mezondir. Bugungi kunda noo'rin so'zlarning ko'payishi yoshlarning tilga bo'lgan e'tiborini pasaytirib, adabiy me'yorlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli nutq madaniyatini rivojlantirish, adabiy til me'yorlariga rioya qilish va tilni begona ta'sirlardan asrash har birimizning burchimizdir. Nutq-kishining tafakkuri hisoblanar ekan undan oqilona foydalanish bizning ham burchimiz ham vazifamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Rasulov R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent, 2015.
3. Jo'rayev M. O'zbek tilida nutq madaniyati. Samarqand, 2019.

CHET TILI O'QITISHDA ONLAYN RESURLAR VA PLATFORMALAR MAZMUNINING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Rozumova Nafisa Anvar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

nafisarozumova06@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada chet tili o'qitishda onlayn resurslar va platformalar mazmunini lingvistik ekspertizadan o'tkazishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Unda o'quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirishda elektron ta'lim vositalarining roli, matnlarning lingvistik aniqligi, uslubiy mosligi hamda madaniy kontekstdagi dolzarbligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: chet tili o'qitish, lingvistik ekspertiza, onlayn resurslar, elektron ta'lim, lingvokulturologiya, kommunikativ kompetensiya

ABSTRACT

This article explores the theoretical and practical aspects of conducting linguistic expertise of online resources and platforms in foreign language teaching. It analyzes the role of digital learning tools in developing learners' language competence, focusing on linguistic accuracy, stylistic appropriateness, and cultural relevance of texts.

Keywords: foreign language teaching, linguistic expertise, online resources, e-learning, linguoculturology, communicative competence.

АННОТАЦИЯ В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты проведения лингвистической экспертизы онлайн-ресурсов и платформ при обучении иностранным языкам. Анализируется роль электронных образовательных средств в формировании языковой компетенции обучающихся, уделяется внимание лингвистической точности, стилистической уместности и культурной актуальности текстов. Кроме того, разрабатываются критерии оценки качества ресурсов, используемых в онлайн-обучении.

Ключевые слова: обучение иностранным языкам, лингвистическая экспертиза, онлайн-ресурсы, электронное обучение, лингвокультурология, коммуникативная компетенция.

KIRISH

Onlayn ta'limning asosiy ustunligi — o'quvchilar uchun mustaqillik va qulaylik yaratishidir. Warschauer qayd etganidek, “raqamli iqtisodiyot davrida ingliz tilini o'rganish global ehtiyoj sifatida qaralmoqda”[1]. Shu nuqtayi nazardan, internet platformalari o'quvchilar til kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Lingvistik ekspertiza — bu matn va nutq materiallarini ilmiy asosda tahlil qilish jarayoni bo'lib, unda leksik-semantik aniqlik, grammatik normativlik, uslubiy moslik va madaniy kontekst e'tiborga olinadi. Chapelle fikricha, “ikkinchi tilni o'rganishda kompyuter vositalarining samaradorligi ko'p jihatdan materiallarning lingvistik sifatiga bog'liq”[2].

Bu shuni anglatadiki, o'quv materiallari tahririy jihatdan puxta va lingvistik normalarga mos bo'lmas ekan, o'quvchilarda to'g'ri til ko'nikmalari shakllanishi qiyinlashadi.

Onlayn platformalarni lingvistik ekspertizadan o'tkazishda quyidagi mezonlar ishlab chiqilgan:

Leksik-semantik aniqlik – noto'g'ri yoki ortiqcha iboralardan holi bo'lishi.

Grammatik normativlik – gap tuzilishi, zamon, fe'l shakllarining to'g'riligini ta'minlash.

Uslubiy moslik – materialning rasmiy yoki norasmiy uslubga mos kelishi.

Madaniy moslik – o'quvchilar uchun neytral va madaniyatlararo tushunarli ifodalar qo'llanishi.

Kommunikativ samaradorlik – til o'rganuvchilarda amaliy nutq kompetensiyasini shakllantirish.

Levy va Stockwell ham bu masalaga e'tibor qaratib, “ta'lim platformalari faqat texnologik jihatdan emas, balki lingvistik nuqtayi nazardan ham ekspertizadan o'tkazilishi shart” deya ta'kidlaydi[3].

Amaliyotda ayrim onlayn resurslarda lingvistik muammolar uchraydi. Masalan, Duolingo'da ingliz tilidagi “I am cold” jumlasini o'zbekchaga “Men sovuqman” deb tarjima qilinadi, aslida esa “Menga sovuq” bo'lishi kerak. Bu semantik xatolik o'quvchilarda noto'g'ri tushuncha shakllanishiga olib keladi.

Quyidagi jadvalda ayrim mashhur platformalarning lingvistik ekspertiza bo'yicha bahosi keltiriladi:

Platforma	Kuchli jihatlar	Zaif jihatlar (ekspertiza natijasi)	Takliflar
Duolingo	Interaktiv mashqlar, tezkor javoblar	Tarjimalarda semantik xatoliklar	Til mutaxassislarini jalb etish
BBC Learning English	Madaniy kontekstga boy materiallar	Ba'zi materiallar yuqori daraja talab qiladi	Bosqichma-bosqich tabaqalashtirish
Coursera	Akademik sifatli kurslar	Texnik terminlar murakkabligi	Lug'at qo'shimchalari kiritish

1-jadval. platformalarning lingvistik ekspertiza bo'yicha bahosi (ijodiy)

Blakening fikricha, "raqamli sinfda ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan materiallarning sifatiga bog'liq"[4]. Demak, lingvistik ekspertiza onlayn resurslardan samarali foydalanishning kafolati hisoblanadi. O'qituvchilar uchun bu resurslarni tanlashda aniq mezonlar ishlab chiqadi, o'quvchilar uchun esa sifatli va puxta tayyorlangan materiallar bilan ishlash imkonini yaratadi.

Chet tili o'qitishda onlayn resurslar va platformalar o'quv jarayonini interaktiv, qulay va moslashuvchan qiladi. Biroq, ularning mazmunida lingvistik xatoliklar, stilistik nomuvofiqliklar va madaniy moslik muammolari uchrashi mumkin. Shu sababli, lingvistik ekspertiza nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki ta'lim sifatini oshirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, onlayn resurslarni lingvistik ekspertizadan o'tkazish ta'limiy platformalarni yanada mukammallashtirish, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ta'lim jarayonining sifatini oshirish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Warschauer, M. (2000). The changing global economy and the future of English teaching. *TESOL Quarterly*, 34(3), 511–535.
2. Chapelle, C. A. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition*. Cambridge University Press.

3. Levy, M., & Stockwell, G. (2013). *CALL Dimensions: Options and Issues in Computer-Assisted Language Learning*. Routledge.
4. Blake, R. J. (2013). *Brave New Digital Classroom: Technology and Foreign Language Learning*. Georgetown University Press.
5. Azimov I., Ro'ziyev Z., Bobojonov F. O'zbek tilida lingvistik ekspertiza [Matn]: Uslubiy qo'llanma / I. Azimov, Z. Ro'ziyev, F. Bobojonov. - Toshkent. Bookmany print, 2023. - 48 b.
6. Turg'unpo'latov, D.R. Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi. "Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.
7. Turg'unpo'latov, D.R. Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq. "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.

RAQAMLI DETOKS: TEXNALOGIYADAN VAQTINCHA VOZ KECHISHNING FOYDALI TOMONLARI

Saidova Dildoraxon Otabek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushlibu maqolada "raqamli detoks" - ya'ni texnologiyadan voz kechish hodisasining foydali tomonlari haqida tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli asrda texnologiyalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Natijada jadal rivojlangan texnologiyalar inson salomatligiga ta'sir o'tkazmay qo'ymadi. Maqola yozuvchisi muvoznatli yondashuvning muhimligini ta'kidlab, raqamli vositalardan to'liq voz kechish o'rniga, ulardan oqilona va maqsadli foydalanish usullarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: raqamli detoks, texnologiya, muvozanat.

ABSTRACT

This article examines the beneficial aspects of the "digital detox" phenomenon, namely the practice of abstaining from technology. In today's digital era, technologies have become inseparable from our daily existence. As a result, rapidly evolving technologies have had an undeniable impact on human health. The author underscores the significance of a balanced approach, proposing strategies for mindful and intentional use of digital tools rather than their complete elimination.

Keywords: digital detox, technology, balance.

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье рассматриваются благоприятные аспекты феномена «цифрового детокса», а именно практики воздержания от использования технологий. В современную цифровую эру технологии превратились в неотъемлемую составляющую нашей повседневной жизни. Вследствие этого бурно развивающиеся технологии неизбежно повлияли на состояние здоровья человека. Автор акцентирует внимание на значимости сбалансированного

подхода, предлагая методы осознанного и целевого применения цифровых инструментов взамен полного отказа от них.

Ключевые слова: цифровой детокс, технология, баланс.

Hozirgi vaqtda texnologiya iste'molining haddan tashqari ko'payishi global muammoga aylangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'rtacha inson kuniga 150 martadan ortiq smartfonini tekshiradi va bu jarayon ko'pincha ongsiz amalga oshiriladi (Alter, 2017). Zamonaviy psixologiya fanining asoschisi Z.Freyd ta'kidlaganidek, "Inson o'z xatti-harakatlarining atigi 10 foizinigina ongli ravishda boshqaradi, qolgan 90 foizi esa ongsiz ravishda sodir bo'ladi" (Freyd, 1923). Doimiy bildirishnomalar, ijtimoiy tarmoqdagi yangilikalar va raqamli muhit insonning diqqatini doimiy ravishda chalg'itadi. Raqamli bog'liqlik belgilari quyidagilar:

Telfonni doimiy tekshirish ehtiyoji - qurilma yonida bo'lmaganda nomofobiya, ya'ni mobil telefonsiz qolish qo'rquvi paydo bo'ladi. Professor M. Mahmudov "Psixologiya asoslari" kitobida ta'kidlashicha, "Zamonaviy texnologiyalarga haddan tashqari bog'lanish shaxsning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi va real hayotdagi munosabatlarni zaiflashtirishga olib keladi" (Mahmudov, 2019). Keyingisi esa bu virtual muloqotni real muloqotdan ustun qo'yish, odamlar bilan aloqani haqiqiy hayotda uzib qo'yishdek gap va oxirgisi uxlashdan oldin va uyg'onganda birinchi navbatda telefonga qarash. Aslini olganda raqamli detoks o'zi nima? Raqamli detoks – bu odamning barcha raqamli qurilmalar va texnologiyadan ma'lum vaqt mobaynida ongli ravishda voz kechishi yoki ulardan foydalanishni sezilarli darajada cheklashdir. Bu atama "detoksifikatsiya" (zaharlanishdan tozalash) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, raqamli texnologiyalarning haddan tashqari iste'mol qilinishini ta'sirlardan "tozalanish" ma'nosida qo'llangan. Hozirgi paytda ijtimoiy tarmoqqa mukkasidan ketgan insonlarga qo'l keladigan usullardan desa ham bo'ladi. Bu usul hozirgi O'zbekiston mentalitetiga endi kirib kelayotgan ko'nikmalardan biridir. Hamda shuni aytish joizki raqamli detoksni ham o'ziga xos turlari bor va ular quyidagilar:

To'liq detoks – barcha raqamli qurilmalardan (tелефон, компьютер, планшет) butunlay voz kechish. Odatda bir necha kun davom etadi va bu usul eng qattiq, ammo samarali tur hisoblanadi. Keyingisi esa qisman detoks, endi bu detoksda siz texnologiyalardan emas balkim faqat ijtimoiy tarmoqlardan voz kechishingiz kerak. Uchinchi turi bo'lsa ma'lum vaqtlardagi detoks (masalan, kechqurun) qurilmalarni uxlashdan bir yoki ikki soat oldin o'chirib uyquga yotish. Yoki shuni faqat dam olish kunlarida texnologiyalardan foydalanmaslik. Matthew Walker "Why We Sleep" kitobida ta'kidlaydi: "Uxlashdan oldin ekranlarga qarab o'tirish melatonin ishlab chiqarilishini to'xtatadi va uyqu sifatini keskin pasaytiradi" (Walker, 2017). Va oxirgisi

vaqtli detoks, bu kabi detoksning turida kunning ma'lum soatlarida qurilmalarni o'chirish hamda "digital sabbath" – haftaning istalgan bir kunida butunlay offline bo'lish. Agar bu toifadagi detoks turlaridan birini kundalik hayotda sinab ko'rsak ruhiy salomatligimizga ijobiy ta'sir qilishi mumkin ayniqsa uyqu sifatining yaxshilanishida, stress va anksiyetalikni kamaytirish shu bilan birga diqqat va konsentratsiyaning oshishiga sabab bo'ladi. Shuningdek O'zbekistonga endi kirib kelayotgan ko'nikmalardan biri bo'lgani uchun juda ko'pchilik bu detoksni qanday qo'llash haqida umumiy bir tushunchaga ega emas. Shu sababli raqamli detoksni qanday amalga oshirilishi haqida ham tushuntirib ketaman.

Boshlang'ich pog'onada turgan bosqichdagilar uchun quyidagicha amlaga oshiriladi:

1. O'zingizni raqamli odatlaringizni nazorat qilib boring bunda telefonga necha soat kiryapsiz kun davomida, shularni kuzatib boring.

2. Telfoningizda qaysi qurilma ko'p vaqt olishini aniqlang bu sizga vaqtingizni to'g'ri taqsimlashingizga yordam beradi.

3. Aniqlang maqsad qo'ying (masalan, "uyqu sifatini yaxshilash") bu sizga maqsadingizga tezroq yetib borishga turtki bo'ladi.

Psixologlardan biri B.F. Skinner operant konditsionlash nazariyasida ta'kidlaganidek, "Ijobiy mustahkamlash xatti-harakatni takrorlash ehtimolini oshiradi" (Skinner, 1953). Keyinchalik har bir raqamli detoksni amalga oshirganingizdan keyin o'zingizni rag'batlantiring nimadilar bilan masalan yoqtirgan muzqaymoq yokida kitob bilan bular sizga ko'nikmani uzoq muddat davom etishingizga motivatsiya beradi.

Raqamli detoks davomiyligi esa o'zingizdan kelib chiqqan holda tanlaysiz. Qisqa muddatli detoks yetti kuni o'zingizni tilda aytganda bir hafta davom etadi, asosan endi boshlaganlar uchun ideal vaqtdir. O'rta muddatli esa chuqurroq ta'sir ko'rsatadi, bu muddat to'rt haftani o'z ichiga oladi hamda katta matonatni ham. Endi navbat uzoq muddatlisiga ya'ni 1 oyni va undan ko'pini qamrab oladi va turmush tarzini butunlay o'zgartiradi.

Shuni aytishim lozimki raqamli detoks jamiyatimizdagi yoshlarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash muvozanatini bir maromda olib borishiga biroz bo'lsa ham yordam beradi. Ushbu usul hozirgi paytda pomodoro 25/5 texnikasi kabi sekin asta yoshlar orasida ommalshyapti hamda telefondagi qurilmalarda vaqtni to'g'ri taqsimlash kabi bir qancha kichik ammo dolzarb muammolarga yaqinlashib kelayotgan muammolardan biri desak bejizgamas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov M. (2019). Psixologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
2. Alter A. (2017). Irresistible: The Rise of Addictive Technology and the Business of Keeping Us Hooked. New York: Penguin Press.
3. Freyd Z. (1923). The Ego and the Id. Vienna: Internationaler Psychoanalytischer Verlag.
4. Walker M. (2017). Why We Sleep: Unlocking the Power of Sleep and Dreams. New York: Scribner.
5. Skinner B.F. (1953). Science and Human Behavior. New York: Macmillan.

INSON TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHDA TILNING O'RNI

Saidvaliyeva Sevinch Nazirjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

sevinchsaidvaliyeva44@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Maqolada til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinib, til nafaqat muloqot vositasi, balki kognitiv vosita ham ekanligi ta'kidlanadi. Unda lingvistik nisbiylik bo'yicha global tadqiqotlar ko'rib chiqiladi va milliy tilning dunyoqarashni qanday kodlashi, aqliy toifalarga ta'sir etishi, madaniy o'ziga xoslik va intellektual o'sishni qo'llab-quvvatlashi ko'rsatilishi uchun o'zbek tilshunoslik asarlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Til, tafakkur, bilish, lingvistik nisbiylik, dunyoqarash, o'zbek tilshunosligi, madaniy o'ziga xoslik.

Annotation

The article analyzes the interrelation between language and thought, arguing that language is not only a medium of communication but also a cognitive instrument. It reviews global research on linguistic relativity and examines Uzbek linguistic works to show how national language encodes worldview, influences mental categories, and supports the development of cultural identity and intellectual growth.

Keywords: Language, thought, cognition, linguistic relativity, worldview, Uzbek linguistics, cultural identity.

Аннотация

В статье анализируется взаимосвязь языка и мышления, утверждается, что язык — это не только средство коммуникации, но и когнитивный инструмент. В ней рассматриваются мировые исследования теории лингвистического релятивизма и рассматриваются работы по узбекской лингвистике, чтобы показать, как национальный язык кодирует мировоззрение, влияет на

ментальные категории и способствует развитию культурной идентичности и интеллектуальному росту.

Ключевые слова: Язык, мышление, познание, теория лингвистического релятивизма, мировоззрение, узбекская лингвистика, культурная идентичность.

Til inson mavjudligining eng asosiy hodisalaridan biri bo'lib, nafaqat aloqa vositasi, balki fikrni shakllantirish va shakllantirishning kuchli quroli sifatida ham xizmat qiladi. Ilk falsafiy munozaralardan tortib zamonaviy kognitiv ilm-fangacha tilning inson tafakkuriga qanday ta'sir etishi masalasi markaziy o'rinni egallab kelmoqda. Sapir-Uorf gipotezasi, shuningdek, lingvistik nisbiylik printsiplari sifatida ham tanilgan, tilda kodlangan toifalar va tuzilmalar odamlarning voqelikni qanday idrok etishi, tasniflashi va sharhlashiga rahbarlik qiladi. Garchi zamonaviy tadqiqotlar qat'iy lingvistik determinizm g'oyasini ko'pincha rad etsa-da, ko'plab tadqiqotlar til xotirani tashkil qilish, diqqatni yo'naltirish va fikrlash jarayonlarini shakllantirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. O'zbek tilshunosligida til va tafakkurning o'zaro munosabati ham olimlarning diqqat markazida bo'lgan. O'zbek darsliklari, ilmiy risolalari va madaniy tahlillarida tilning dunyoqarash va milliy o'zlikni anglash bilan chambarchas bog'liqligi, jamoaviy tajribani aks ettirishi, individual idrokni shakllantirishi alohida ta'kidlanadi (Yo'ldoshev va Sharipova 2007, 45-bet). O'zbekistonning ko'p tilli muhiti moslashuvchan va moslashuvchan fikrlash shakllarini shakllantirishda til tizimlarining o'zaro ta'sirini o'rganish muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Shunday ekan, fikrni shakllantirishda tilning rolini o'rganish nafaqat nazariy vazifa, balki amaliy zaruratdir. Bu bizga tillar xilma-xilligining madaniy va kognitiv ahamiyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi va globallashtirilgan dunyoda ta'lim, ikki tillilik va milliy o'zlikni saqlab qolish haqida tushuncha beradi.

Til va tafakkur o'rtasidagi munosabat dunyo tilshunosligi va falsafasida azaldan bahs mavzusi bo'lib kelgan. 20-asr boshlarida ishlab chiqilgan Sapir-Uorf gipotezasi tilning grammatik va leksik tuzilmalari odatiy fikr va idrokga ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Uning kuchli deterministik shakli tanqid qilingan bo'lsa-da, zamonaviy kognitiv tilshunoslik til turkumlashtirish, xotirani kodlash va kontseptual fikrlash kabi jarayonlarni sezilarli darajada shakllantirishini tasdiqlaydi. O'zbek stipendiyasida ham bu masalaga katta e'tibor berilgan. Masalan, Y.Yusupov o'zining "Tilshunoslik nazariyasi asoslari" asarida o'zbek tilining leksik va grammatik tuzilmalari nafaqat kommunikativ maqsadlarga xizmat qilishini, balki so'zlovchilarning konseptual tizimini tashkil etishini, ularning mantiqiy fikrlash va dunyoqarashiga bevosita ta'sir etishini ta'kidlaydi. Xuddi shunday, O.Sharipova "Til va tafakkur" asarida o'zbek

leksikasi ko'p asrlik madaniy tajribani o'zida aks ettirgani, bu yerda qarindoshlik, tabiat, axloq atamaları milliy mentalitetni o'zida mujassam etgani haqida gapiradi. O'zbek jurnalining so'nggi maqolalarida ham lingvistik nisbiylik mahalliy kontekstda ko'rib chiqiladi. A. Majitova (2022) til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, o'zbek iboralari o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimini qanday kodlashini ko'rsatadi. Yana bir tadqiqot "Lingvistik nisbiylik nazariyasi va uning badiiy adabiyotdagi ifodasi adabiy matnlarning lingvistik kategoriyalarning kognitiv ta'sirini qanday tasvirlashini tahlil qiladi. O'zbekistonda olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlar bu istiqbolni yanada mustahkamlaydi. "Ona tili darslarida grammatik vositalar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish" kabi tadqiqotlar talabalar orasida mantiqiy fikrlashni kuchaytirishda til o'qitishning rolini ta'kidlaydi. Grammatika va semantika orqali analitik ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'zbek ta'lim tizimi til va fikr munosabatlarining amaliy tomonini ko'rsatadi. Shunday qilib, global nazariyalar ham, o'zbekshunoslik ham tilning neytral aloqa idishi emas, balki insonning idroki, dunyoqarashi va madaniy o'ziga xosligini shakllantirishdagi faol vosita ekanligi haqidagi g'oyaga birlashadi.

Til nafaqat kommunikativ vosita, balki odamlarning dunyoni qanday idrok etishini tartibga soluvchi kognitiv asosdir. Kognitiv lingvistikaga ko'ra, so'zlar va grammatika bilan ifodalangan kategoriyalar odamlarning nimani ko'rishini, solishtirishini va eslab qolishini belgilaydi. Misol uchun, rang atamalarining tillararo tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, rang farqlari kamroq bo'lgan tillarda so'zlashuvchilar rang-barang lug'atga ega bo'lgan tillarda so'zlashuvchilarga qaraganda soylarni boshqacha guruhlashga moyildirlar. O'zbek sharoitida qarindoshlik atamaları ("aka", "opa", "tog'a", "amma") kabi til kategoriyalari tilning batafsil ijtimoiy munosabatlarni qanday kodlashini ko'rsatadi. So'z boyligidagi bu aniqlik oila tuzilishi, hurmat va ierarxiya – o'zbek madaniyatida chuqur ildiz otgan qadriyatlarga e'tiborni kuchaytirish orqali fikr yuritadi. Grammatik tizimlar kognitiv jarayonlarni ham shakllantiradi. Sapir-Uorf an'anasi grammatikadagi majburiy kategoriyalar diqqatni tajribaning ma'lum jihatlariga yo'naltirishini ta'kidlaydi. Misol uchun, ingliz tilida zamon belgisi ma'ruzachilardan voqea sodir bo'lganda aniq aytishlarini talab qiladi. O'zbek tilida fe'l tomonlarning boy tizimi ("kelayotgan edi", "kelibdi", "kelmoqda") nozik zamon va isbotiy farqlarni aks ettiradi. Natijada, o'zbek tilida so'zlashuvchilar muloqotda axborotning vaqtiga ham, manbasiga ham e'tibor qaratishadi, bu esa o'z navbatida voqealar haqida fikr yuritishga ta'sir qiladi. O'zbek leksikasi va frazeologiyasi ko'p asrlik madaniy tajribani o'zida mujassam etgan. "Til qalbning tarjimoni" ("Til – dil tarjimoni") kabi maqollar (maqollar) tilning bevosita ichki tafakkur va odob-axloqni

ifodalashi, degan ishonchni namoyon etadi. Xuddi shunday “Ko‘ngil ko‘zi ochiq” (“Ko‘ngil ko‘zi ochiq”) kabi iboralar fikrni ichki qarash sifatida tasavvur qilib, o‘zbek majoziy tili bilishni vizual-ma’naviy jihatdan qanday ramkalashini ko‘rsatadi. Bu iboralar til nafaqat aks ettirishini, balki voqelikni anglash orqali kontseptual modellarni ham shakllantirishini ta’kidlaydi. O‘zbekistonning ko‘p tilli muhiti — o‘zbek tili rus va ozchilik tillari bilan birga yashab, o‘ziga xos kognitiv moslashuvchanlik uchun sharoit yaratadi. Ikki tilli shaxslar ko‘pincha nuqtai nazarni o‘zgartirish, muammolarni hal qilish va metallingvistik xabardorlikni oshirish qobiliyatini rivojlantiradilar. O‘zbek ta’lim sharoitlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va rus tillarini yaxshi biladigan o‘quvchilar analitik va qiyosiy fikrlash ko‘nikmalarini oshiradilar, chunki ular qo‘llanilayotgan tilga qarab tushunchalarni turlicha tuza oladilar. Bu ko‘p tillilik kognitiv ufqlarni kengaytiradi va fikrlash jarayonlarini boyitadi, degan global da’voni qo‘llab-quvvatlaydi. Pedagogika sohasida o‘zbek pedagoglari mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda grammatika va lug‘at mashqlarining ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Grammatik mashqlar shunchaki mexanik takrorlash sifatida emas, balki ongini o‘rgatish, tizimli tahlil qilish odatlarini, sabab-oqibat asoslarini va ifodalashda aniqlikni rivojlantirish sifatida qaraladi. Bir qancha o‘zbek uslubiy tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan bu fikr tilni o‘zlashtirish bevosita intellektual o‘sishga yordam beradi, degan azaliy ishonchni aks ettiradi.

Global nazariyalar va o‘zbek tilshunosligining tahlili tilning inson tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Birinchidan, leksik kategoriyalar oila va hurmatning madaniy qadriyatlarini mustahkamlovchi o‘zbek tilining batafsil qarindoshlik terminologiyasida ko‘rinib turganidek, idrok va turkumlashtirishni tuzadi. Ikkinchidan, zamon, jihat va dalillik kabi grammatik kategoriyalar ma’ruzachilarni vaqtinchalik va informatsion nuanslarga e’tibor berishga, hodisalar haqidagi fikrlarini shakllantirishga yo‘naltiradi. Uchinchidan, o‘zbek maqol va iboralar kognitiv modellarni aks ettiradi va mustahkamlaydi, tilning dunyoqarash va madaniy o‘ziga xoslik bilan chuqur bog‘langanligini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, O‘zbekistonning ko‘p tilli konteksti ikki tillilik kognitiv moslashuvchanlikni va qiyosiy fikrlashni qanday rivojlantirayotganini ko‘rsatadi, bu xalqaro psixolingvistikaning xulosalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Nihoyat, pedagogik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, tilni tizimli o‘rgatish, ayniqsa grammatika orqali, o‘quvchilarda mantiqiy va analitik fikrlashni kuchaytiradi. Birgalikda bu topilmalar shuni ko‘rsatadiki, til shunchaki oldindan mavjud bo‘lgan fikrni ifoda etmaydi, balki odamlarning voqelikni idrok etish, fikr yuritish va o‘zaro ta’sir qilish usullarini faol ravishda tuzadi va takomillashtiradi.

Topilmalar shuni tasdiqlaydiki, til inson tafakkurini aks ettirishdan ko'ra, sezilarli darajada shakllantiradi. Bu Sapir-Uorf gipotezasining mo'tadil talqini bilan mos keladi, bu esa bilish til tomonidan mutlaqo aniqlanmagan bo'lsa-da, lingvistik toifalar va tuzilmalar diqqat, xotira va fikrlash shakllariga ta'sir qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi dalil fe'l shakllari (-mish, -di, -kan) axborotning manbasi va ishonchliligini ta'kidlab, muloqotda aniqlik va mas'uliyat madaniyatini oshirishi mumkin. Tillararo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har xil grammatik va leksik toifalarga ega bo'lgan tillarda so'zlashuvchilar vaqt, makon va munosabatlar kontseptsiyasida farqlanadi. Bu bashoratni o'zbek qarindoshlik terminologiyasi qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ma'ruzachilardan avlodlar va munosabatlar ierarxiyasiga e'tiborli bo'lishni, shu orqali oila va ijtimoiy tuzumga asoslangan jamoaviy dunyoqarashni mustahkamlashni talab qiladi. O'zbekistondagi ikki tillilik til va tafakkurning o'zaro faol ta'sirini yanada ko'rsatadi. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki yoki undan ortiq til tizimlarini boshqarish metallingvistik xabardorlikni va kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi. Amalda o'zbek-rus ikki tilli til kontekstiga qarab madaniy doiralar o'rtasida almashinib, ko'proq moslashuvchan fikrlash strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin. Bu o'zbek ko'p tilli muhiti nafaqat ijtimoiy voqelik, balki kognitiv afzallik ham ekanligini anglatadi. Ta'limning ta'siri ham bir xil darajada muhimdir. Agar grammatika va lug'at o'rgatish mantiqiy tafakkurni mustahkamlasa, o'zbek maktablarida o'quv dasturlarini loyihalashda til o'rganishni tanqidiy va analitik fikrlash bilan bog'laydigan mashg'ulotlar ustuvor bo'lishi kerak. Bu til ta'limi kengroq intellektual o'sishni ta'minlaydigan xalqaro xulosalarga mos keladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbek misoli lingvistik nisbiylikning global nazariyalarini qo'llab-quvvatlaydi va shu bilan birga noyob madaniy tushunchalarga hissa qo'shadi. Dalillar shuni ko'rsatadiki, til ham ko'zgu, ham fikrning qolipi - madaniy merosni aks ettiruvchi va individual idrokni faol shakllantiradi. Kelgusi tadqiqotlar o'zbek tilining o'ziga xos tuzilmalarining psixik jarayonlarga qanday ta'sir qilishini chuqurroq o'rganish uchun eksperimental usullarni o'zbek lingvistik tahlili bilan uyg'unlashtirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Hasanova, D. (2023). O'zbek tilida kasbiy ifodaning leksik birliklarining leksikografik talqini. "Til va madaniyat: amaliy filologiya masalalari", (126).
2. Sapir, E. (1929). Tilshunoslikning fan sifatidagi maqomi. "Til", (207–214).
3. Whorf, B. L. (1956). "Til, fikr va haqiqat: Benjamin Li Uorfning tanlangan yozuvlari". Kembrij, MA: MIT matbuoti.

4.Vygotskiy, L. S. (1987). “Tafakkur va nutq”. R. V. Riber va A. S. Kartonda (Tahrirlar), “ L. S. Vygotskiyning to‘plangan asarlari”(1-jild). Nyu-York: Plenum matbuoti.

5.Yo‘ldoshev, I., & Sharipova, O. (2007). “Tilshunoslik asoslari”. Toshkent: Iqtisod-moliya. (192 b.)

6.”Konferentsiya hujjati” Anonim. (2021). Sifat-so‘z turkumi mavzusini o‘tganda “So‘z o‘rnini top” o‘yini. In “Raqamli iqtisodiyotda ilm-fan va ta’limning rivoji” (1–3-betlar). Toshkent: SamDAQI.

7.Turg‘unpo‘latov, D. “Ta’limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o‘qitishning yangi eposi”. “Akademic journal of educational research (AJER)” xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.

8.Turg‘unpo‘latov, D.R. Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq. “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.

TEZ O'ZGARAYOTGAN SO'Z BOYLIGI (YOXUD BA'ZI ARXAIZM VA NEOLOGIZM BIRLIKLARI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR)

Saminova Mohlaroy Ravshan qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

saminovamohlaroy7@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada tilning so'z boyligi doimiy o'zgarib borishi, xususan, arxaizmlar va neologizmlar jarayoni tahlil qilingan. Arxaizmlar tilning tarixiy marosimini, o'tmish madaniyatini saqlovchi vosita sifatida, neologizmlar esa zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va texnologik ehtiyojlarga moslashuvchi til hodisasi sifatida ko'rib chiqiladi. Tilning yangilanish jarayonida arxaizm va neologizmlarning jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy ahamiyati hamda o'zaro aloqadorligi yoritildi.

Kalit so'zlar: arxaizm, neologizm, tilning yangilanishi, leksik o'zgarishlar, madaniy meros, zamonaviy til.

ABSTRACT:

In this article, the constant change of the vocabulary of the language, in particular, the process of archaisms are considered as a means of preserving the historical heritage and past culture of the language, while neologisms are regarded as a linguistic phenomenon adopting to modern social-political scientific and technological needs. In the process of language renewal, the socio-cultural significance of archaisms and neologisms, as well as their interrelation, is highlighted.

Key words: archaisms, neologisms, language renewal, lexical changes, cultural heritage, modern language.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье анализируется постоянное изменение словарного запаса языка, в частности процесс архаизмов и неологизмов. Архаизмы рассматриваются как средство сохранения исторического наследия и прошлой культуры языка, тогда как неологизмы определяются как языковое явление,

адаптирующееся к современным социально-политическим, научным и технологическим потребностям. В процессе обновления языка раскрывается социокультурное значение архаизмов и неологизмов, а также их взаимосвязь.

Ключевые слова: архаизм, неологизм, обновление языка, лексические изменения, культурное наследие, современный язык.

Hozirgi kunda hech qaysi sohani rivojlanmayapti doimo turg'un holatda turibdi deya olmaymiz. Ilm-fan, texnologiya, madaniyat yoki jamiyatning rivojlanishidan tilshunoslik (lingvistika) ham chetda qolmaydi. Odamlarning bilim darajasi oshgan sari yangi tushunchalar, va ixtirolar o'ylab topa boshlaydilar, bu esa o'z navbatida tilga yangi termin va so'zlarning kirib kelishi ma'lum eskirgan va iste'moldan chiqqan so'zlarning odamlar nutqidan chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Shuningdek globallashuv jarayoni natijasida tilimizga chet tillaridan yangi so'zlar kirib kelishini kuzatishimiz mumkin[1].

Kundalik hayotimizdagi yangi narsalarni, ularning belgilarini, umuman yangi tushunchalarni ifoda etish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan so'zlar yoki yangi ma'noda qo'llangan eski so'zlar neologizmlar deyiladi. Neologizm grekcha so'z bo'lib, neos- "yangi" degan ma'noni bildiradi. Neologizm yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan: startap, menejment, marketing, investment, agrobiznes, internet, kontent kabi. Neologizmlar yangi paydo bo'lgan paytda, ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralangan leksikaga kiradi. Neologizmning ma'nosi tushunarlik kasb etsa, xalq orasida ommalashib ketishi mumkin. Bunda u yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va umumxalq so'ziga aylanadi. Masalan: brigada, televizor, traktor, kosmos, kosmonavt kabi so'zlar bugungi kunda oddiy va tushunarli hisoblanadi [2].

So'nggi yillarda tilimizda faol qo'llanayotgan neologizmlardan biri — "startap" atamasidir. O'zbek tilida ushbu so'z ko'pincha asl shaklda, ya'ni "startap" tarzida ishlatiladi, chunki uning qisqa va mazmunan to'liq qamrab oluvchi muqobili mavjud emas. Mazkur atama, odatda, innovatsion biznes g'oyasiga asoslangan, tez rivojlanishga yo'naltirilgan va ko'pincha texnologik yechimlarga tayanadigan yangi loyiha yoki tashabbusni anglatadi. Shuningdek, "startap" bozorga ilgari taklif qilinmagan mahsulot yoki xizmatni taqdim etish orqali yangi imkoniyat yaratishni ham o'z ichiga oladi. O'zbek tilida ko'proq "startap" so'zini "yangi innovatsion biznes loyihasi" yoki "yangi biznes korxonasi" ma'nolarida ishlatilishi kuzatiladi. Adabiy tilda unga "yangi korxona", "yangi biznes loyiha" kabi muqobil variantlar berilishi mumkin. Lekin bu variantlar ushbu terminning ayni o'z ma'nosini ifodalay olmasligi tufayli "startap" shaklida qo'llanishi barcha uchun tushunarli bo'ladi [10].

Zamonaviy tilimizda keng qo'llanayotgan yana bir neologizm bu — “content” (o'zbekchada “kontent”) so'zidir. Ingliz tilidan kirib kelgan ushbu atama aslida “mazmun”, “tarkib” ma'nolarini anglatadi. Internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida “content” termini ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, onlayn platformalar va raqamli mahsulotlarda foydalanuvchilarga taqdim etiladigan matn, rasm, video, audio yoki boshqa axborot shakllarini ifodalash uchun ishlatiladi [4].

Bugungi kunda “content” atamasi faqat texnik ma'noda emas, balki iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan ham chambarchas bog'langan. Zero, kontent ishlab chiqarish va uni samarali taqdim etish nafaqat kommunikatsiya jarayonini, balki marketing va biznesni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli “content” so'zi ham tilimizda mustahkam o'rinish bormoqda va keng qo'llanish doirasiga ega bo'lmoqda. Zamonaviy tilshunoslik va media tadqiqotlarda “kontent” tushunchasi ko'pincha “mazmun” atamasi bilan izohlanadi, chunki u o'zbek tilining milliy lug'at boyligiga mos keladi va ilmiy uslubda aniqroq qo'llanadi.

Hozir mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan nomlari arxaik so'zlar deyiladi. Arxaik so'zlar yig'indisi arxaizmlar deb nomlanadi. Arxaizm- grekcha so'z bo'lib, archaios- “qadimgi” degan ma'noni bildiradi.

Eskirgan so'z ifoda etayotgan narsa-hodisalar hozirgi hayotda bor bo'lgani uchun uning eskirgan nomini almashtira oladigan zamonaviy qatlamga oid so'z mavjud bo'ladi. Aslida bir narsaning birdan ortiq nomi bo'lsa, ulardan til taraqqiyoti qonuniyatlariga javob bera oladigani tilda saqlanib qoladi, javob bera olmaydigan eskilik bo'yog'iga ega bo'lib, ishlatilmay qolib ketadi. Masalan, sekretar – kotib, mirzo, kotiba. Ular ichidan kotib so'zi hozirgi kunda kishilar tomonidan keng qo'llanilyapti. Sekretar so'zi eskirib, arxaiklashib qolgan. Arxaik so'zlar so'zlovchining ko'z oldida iste'moldan chiqib ketayotgan so'zlardir: revolyutsiya (inqilob), tuman (rayon), viloyat (oblast), baynalmilal (internatsional), bitik (kiyob), ulus, budun (xalq), o'miz (ko'krak) kabi.

So'zlar butun holda arxaiklashishi yoki uning biror ma'nosi arxaiklashishi mumkin. Shunga ko'ra ular: a) leksik arxaizmlar, b) semantik arxaizmlar tarzida ikki xil bo'ladi.

Leksik arxaizmda so'z eskiradi: gulgun, siymo(obraz).

Semantik arxaizmda ma'no eskirdi: chechak- “gul” ma'nosida, bekat- karvonlar to'xtaydigan joy ma'nosida, bag'ir-“jigar” ma'nosida eskirgan [2].

Arxaizmlar asosan davlat boshqaruvi, lashkar tuzilishi, saroy hayoti va diniy hamda badiiy ifodalar bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunda ular tarixiy asarlar, mumtoz adabiyot namunalarida yoki she'riy uslubda uchrab turadi.

Masalan, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida keng qo'llanilgan sipoh (askar), lashkar (qo'shin), dargoh (saroy) kabi so'zlar bugungi kunda "askar", "armiya", "saroy" kabi yangicha shakllar bilan almashtirilgan. Ogahiy tarixiy dostonlarida uchraydigan bek (hokim), amir (rahbar, sarkarda), parvonachi (kotib, farmon yetkazuvchi) so'zlari ham zamonaviy adabiy tilda deyarli ishlatilmaydi.

XX asr boshidagi Cho'lpon ijodida esa arabcha-forscha qatlamga oid arxaizmlar ko'proq uchraydi. Masalan, oshub (g'alayon), tal'at (yuz, chehra), tavorix (tarixlar), husn (go'zallik) so'zlari hozirgi kunda passiv qatlamga o'tib, faqat she'riy yoki badiiy uslubda qo'llanmoqda. Shuningdek, ko'ngul so'zi Navoiy tilida keng qo'llanilgan bo'lsa-da, bugungi adabiy tilimizda ko'ngil shaklida saqlanib qolgan.

Tilning so'z boyligi jamiyat hayoti va madaniy taraqqiyotining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Insoniyat tarixi davomida til doimiy o'zgarish va yangilanish jarayonini boshdan kechiradi. Shu jarayonda arxaizmlar tildan asta-sekin chiqib boruvchi, ammo milliy xotira va tarixiy merosni saqlovchi unsurlar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular tilning o'tmishini, qadimiy davrlarning dunyoqarashi, urf-odati va tafakkur tarzini yodda saqlashga xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, neologizmlar tilning zamonaviy bosqichdagi rivojlanishini ifodalaydi. Ular yangi ilmiy kashfiyotlar, texnologik yangiliklar, siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar va madaniy jarayonlarni ifodalashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Neologizmlar tilning dinamik va moslashuvchan tabiatini namoyon etadi.

Mazkur tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, arxaizmlar va neologizmlar bir-biriga qarama-qarshi emas, balki tilning barqarorligi va yangilanishi jarayonida uzviy bog'liq hodisalardir. Arxaizmlar tilda davomiylik va tarixiylikni ta'minlasa, neologizmlar uni hozirgi davr talablariga moslashtiradi. Shu jihatdan, har ikki hodisa tilning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini yanada boyitadi.

Shuningdek, arxaizm va neologizmlarni lingvistik nuqtai nazardan chuqur o'rganish nafaqat til taraqqiyotining qonuniyatlarini ochib beradi, balki jamiyatdagi madaniy, ilmiy va ijtimoiy jarayonlarni ham yoritishga xizmat qiladi. Tilshunoslikda ushbu yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar milliy tilni saqlash, uni rivojlantirish va zamon bilan hamnafas qilishda muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zaynabiddinova A. "O'zbek tilida neologizmlar va arxaizmlarning leksik-semantik tahlili". "Global lingvistika: yangi yondashuvlar va tadqiqotlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2025. Toshkent,
2. Hamroyev M. Ona tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / M.Hamroyev, D.Muhamedov, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva;
O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007
3. O'zbek tilshunosligida leksikologiya bo'yicha qo'llanma. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2018.
4. Raqamli kommunikatsiya va media leksikasi bo'yicha izohli lug'at. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
5. Polvannazirova, S. Kh. A corpus-based analysis of neologisms from English into Uzbek in social media and online corpora. Journal of Foreign Languages and Literature, 2025.
6. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
7. Bobur, Z. M. Boburnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
8. Ogahiy, M. R. Tarixi Firozshohiy. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1961
9. Cho'lpon, A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
10. <https://share.google/RlPZaI887MsZ9NfHv>

NAVOIY MEROSI VA O'ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTI

Sattorova Shaxnoza Patillo qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

shaxnozasattorova004@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatidagi o'rni va faoliyati tahlil etiladi. Unda Navoiy ijodining tarixiy ahamiyati, turkiy tilda badiiy adabiyot yaratishdagi xizmatlari hamda uning asarlari orqali o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, Navoiy asarlarining o'zbek milliy adabiyoti va madaniyati taraqqiyotidagi o'rni, til me'yorlarini shakllantirishdagi roli keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, o'zbek adabiy tili, "Xamsa", turkiy til, adabiy meros, insonparvarlik, ma'naviyat, til me'yorlari.

Annotation

This article analyzes the role and activities of the great thinker, poet, and statesman Alisher Navoi as the founder of the Uzbek literary language. It explores the historical significance of Navoi's creative work, his contribution to the development of artistic literature in the Turkic language, and the linguistic richness of his writings. The article also highlights Navoi's role in shaping literary norms and his influence on the development of the Uzbek national literature and culture.

Keywords: Alisher Navoi, Uzbek literary language, "Khamasa", Turkic language, literary heritage, humanism, spirituality, linguistic norms.

Аннотация

В статье рассматриваются роль и деятельность великого мыслителя, поэта и государственного деятеля Алишера Навоий как основателя узбекского литературного языка. Анализируется историческое значение его творчества, вклад в развитие тюркоязычной художественной литературы и раскрывается языковое богатство его произведений. Особое внимание уделено роли Навоий в

формировании литературных норм и его влиянию на развитие узбекской национальной литературы и культуры.

Ключевые слова: Алишер Навоий, узбекский литературный язык, «Хамса», тюркский язык, литературное наследие, гуманизм, духовность, языковые нормы.

O'zbek adabiyoti va madaniyati tarixida Alisher Navoiy nomi beqiyos ahamiyatga ega. XV asrda yashab ijod etgan bu buyuk zot nafaqat o'z davrining eng yirik adibi, balki milliy adabiyotimizning asoschisi, o'zbek adabiy tilining me'mori sifatida tan olingan. O'sha davrda fors va arab tillari ilm-fan hamda adabiyotning asosiy tillari hisoblanar edi. Shunday bir sharoitda Navoiy o'zbek tilida yuksak badiiy asarlar yaratish orqali milliy tilning kuchi va go'zalligini isbotlab berdi.

Navoiy davrining ijtimoiy va madaniy sharoiti

XV asrda Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy va madaniy hayot jonlanish davri kechgan. Temuriylar sulolasi davrida ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyat yuksak darajada rivoj topdi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro davrida Hirot shahri Sharqning ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi.

Alisher Navoiy ana shu muhitda voyaga yetgan, u davrning eng ilg'or bilimlariga ega bo'lgan mutafakkir sifatida shakllangan. Navoiy Husayn Boyqaro saroyida yuqori lavozimlarda ishlagan, lekin davlat ishlaridan bo'sh vaqtida ilm, adabiyot va madaniyat bilan shug'ullangan. U o'z davrida adabiyot, me'morchilik, tilshunoslik, tasavvuf, musiqa va falsafa sohalarida chuqur bilimga ega edi.

Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili

Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilini yaratish va uni badiiy tilda mustahkamlash yo'lida ulkan xizmat qildi. U o'z asarlarini arab yoki fors tilida emas, balki xalq tili — turkiy (eski o'zbek) tilida yozdi. Uning fikricha, har bir xalqning o'z tili — uning ma'naviy boyligi, tarixiy xotirasi va milliy g'ururidir. Shu bois, Navoiy turkiy tilda ijod qilish orqali xalqni o'z tiliga hurmat ruhida tarbiyalagan. Navoiy o'zining mashhur “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida turkiy tilning fors tilidan kam emasligini, hatto ayrim jihatlarda ustun ekanligini isbotlab berdi. U fors tilida ifodalab bo'lmaydigan ko'plab nozik ma'nolarni turkiy tilda aniq ifodalash mumkinligini misollar bilan keltiradi. Bu asar nafaqat lingvistik, balki milliy o'zlikni anglashda ham tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Navoiy asarlarining badiiy va til xususiyatlari

Navoiy asarlari o'zbek tilining lug'aviy boyligini, so'z ohangdorligini va grammatik mukammalligini namoyon etadi. U o'z asarlarida xalq og'zaki ijodi

unsurlaridan — maqollar, matallar, xalqona iboralardan keng foydalangan. Shu tariqa adabiy tilni xalq tili bilan boyitgan. Uning “Xamsa” turkumiga kiruvchi besh dostoni o‘zbek tilining go‘zalligi va badiiy imkoniyatlarini to‘la ko‘rsatadi:

“Hayrat ul-abror” – axloqiy-falsafiy doston bo‘lib, inson fazilatlarini madh etadi.

“Farhod va Shirin” – mehnat, fidoyilik, muhabbat va sabr timsoli.

“Layli va Majnun” – sof sevgi, insoniy iztirob va ilohiy muhabbat ramzi.

“Sab‘ai sayyor” – hayot, adolat va inson taqdiriga bag‘ishlangan asar.

“Saddi Iskandariy” – adolatli hukmdor, bilim va ma‘rifat targ‘ibotchisi Iskandar shaxsiga bag‘ishlangan.

Bu dostonlarda Navoiy nafaqat badiiy obrazlar yaratadi, balki turkiy tilda chuqur falsafiy fikrni ifoda etish mumkinligini amalda isbotlaydi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” – tilshunoslikdagi inqilobiy asar

Navoiy bu asarida turkiy tilning fors tilidan hech bir jihatdan kam emasligini ilmiy asosda dalillaydi. U tilni millatning ruhi sifatida talqin etadi va shunday yozadi:

“Turkiy tilda shunday so‘zlar borki, ular bilan forsiyda biror ma‘noni ifoda etish mushkul.” Bu fikrlar o‘zbek tilining o‘ziga xos tizimi va boyligiga bo‘lgan chuqur ishonchni ifodalaydi. Shu bois “Muhokamat ul-lug‘atayn” o‘zbek tilshunosligi tarixida birinchi milliy-lingvistik traktat hisoblanadi.

Navoiy ijodida insonparvarlik va ma‘naviyat

Navoiy asarlarining asosiy g‘oyasi inson, uning baxti, komillikka intilishi va axloqiy poklikdir. U “Hayrat ul-abror” dostonida insonni ezgulikka, halollikka, mehnatsevarlikka da‘vat etadi. “Mahbub ul-qulub” asarida esa jamiyatdagi adolat, insoniylik va saxovat masalalari yoritilgan. Navoiy uchun inson ma‘naviy kamolot sari intilishi kerak. Uning asarlaridagi bu g‘oyalar nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan

Navoiy an‘analari va keyingi avlod adiblari

Alisher Navoiydan keyingi asrlarda yashagan shoirlar – Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Munis, Nodira, Uvaysiy, Mashrab kabi ijodkorlar Navoiy an‘analarini davom ettirdilar. Ularning barchasi o‘z asarlarida turkiy tilda yozish, xalq tilini qadrlash va uni rivojlantirish g‘oyalarini ilgari surgan. Bobur o‘z “Boburnoma” asarida Navoiy haqida shunday deydi:

“Turkiy tilda Navoiydek nazm aytgan kishi yo‘qdir.” Bu e‘tirof Navoiy ijodining o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘lmas o‘rnini tasdiqlaydi.

Navoiy merosining bugungi kundagi ahamiyati

Bugungi kunda Alisher Navoiy merosi nafaqat adabiyotshunoslar, balki tilshunoslar, pedagoglar va ma‘naviyat targ‘ibotchilari uchun ham bebaho manbadir.

O'zbekiston Respublikasida 9 fevral – Alisher Navoiy tavallud kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, ko'plab madaniyat markazlari, muzeylar va ilmiy institutlar uning nomi bilan atalgan. Bu esa buyuk shoir merosiga xalqimizning chuqur hurmatini bildiradi.

Alisher Navoiy o'zbek adabiy tili tarixida beqiyos o'rin egallaydi. U turkiy tilni ilm-fan va adabiyot darajasiga ko'tardi, xalq tili asosida adabiy tilni shakllantirdi. Navoiy ijodi nafaqat badiiy mahorat namunasi, balki milliy o'zlikni anglash, ma'naviyat va insonparvarlik timsolidir.

Uning asarlari o'zbek tilining boyligi, badiiy imkoniyatlari va ifoda kuchini namoyon etib, kelajak avlodlar uchun ham milliy g'urur va ilhom manbai bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Navoiy, A. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983. – 156 b.
2. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 624 b.
3. Qayumov, A. Navoiy dahosi. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1991. – 240 b.
4. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2008. – 176 b.
5. Zohidov, P. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015. – 312 b.
6. Shodmonov, A. Alisher Navoiy va o'zbek adabiyoti taraqqiyoti. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2019. – 198 b.
7. Abdurahmonov, G'. Alisher Navoiy tilining leksik boyligi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1990. – 205 b.
8. Quronov, D. Navoiy asarlari tilining stilistik xususiyatlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 190 b.

NUTQ MADANIYATI – SHAXS MA'NAVIYATI VA MADANIYATINING KO'ZGUSI

Saydivaliyeva Mohira Odil qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

mohirasaydivaliyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada insonlar o'rtasida nutq madaniyatining o'rni va ahamiyati, uning jamiyat hayotidagi ta'siri hamda shaxsiy muloqotdagi roli haqida so'z yuritiladi. Nutq madaniyati shaxsning ma'naviy qiyofasini belgilovchi muhim omil bo'lib, u jamiyatda o'zaro hurmat, hamjihatlik va totuvlikni ta'minlaydi. Chiroyli va adabiy me'yorga mos nutq shaxsiy muvaffaqiyatga, balki ijtimoiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Nutq madaniyati, muloqat odobi, adabiy til, jamiyat, hurmat, insoniylik, ma'naviyat.

ABSTRACT

The article discusses the role and importance of speech culture among people. Speech culture is a key factor that defines a person's spiritual image and ensures mutual respect, unity, and harmony in society. Beautiful and norm-compliant speech serves not only personal success but also contributes to social development.

Key words: Speech culture, communication etiquette, literary language, society, respect, humanity, spirituality.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются роль и значение культуры речи среди людей. Культура речи является важным фактором, определяющим духовный облик личности, обеспечивающим взаимное уважение, единство и согласие в обществе. Красноречивая и соответствующая нормам речь служит не только личному успеху, но и способствует общественному развитию.

Ключевые слова: Культура речи, этика общения, литературный язык, общество, уважение, человечность, духовность.

Nutq madaniyati inson hayotining eng muhim unsurlaridan biridir. Zero, inson o'z fikrini anglatishda, his-tuyg'ularini ifoda etishda va ijtimoiy munosabatlarga kirishda nutqdan foydalanadi. Nutqning ma'daniy darajada bo'lishi shaxsning nafaqat savodxonligini, balki ma'naviy qiyofasini ham belgilaydi. Jo'raev va Halimov ta'kidlaganidek, nutq madaniyati avvalo adabiy til me'yorlariga asoslanadi, ya'ni fonetika, leksika, grammatika va uslubiy qoidalarga rioya etishni taqazo qiladi. Bunday nutq ijtimoiy hayotda o'zaro hurmat, totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Shuni alohida qayd etish joizki, nutq madaniyati nafaqat og'zaki muloqotda, balki yozma nutqda ham beqiyos ahamiyatga ega. Mahmudov, Rafiyev va Yo'ldoshevning izohlariga ko'ra, yozma nutq grafik shaklda ifodalanib, qat'iy grammatik va imloviy qonun-qoidalarga bo'ysunadi. Ayniqsa rasmiy hujjatlarni tuzishda, davlat tilida ish yuritishda, nutq madaniyatiga rioya qilish shaxsning savodxonligi va mas'uliyatini ko'rsatadi. Shu bois yozma nutqda aniqlik, ixchamlik, mantiqiy izchillik va uslubiy moslik tamoyillariga qat'iy amal qilish talab etiladi.

Og'zaki nutq esa o'z tabiatiga ko'ra jonli muloqotga tayangan holda shakllanadi. U muomala jarayonida tinglovchi va vaziyatga moslashuvchanlikni taqozo qiladi. Jo'raev va Halimov "Nutq madaniyati" qo'llanmasida nutqning kommunikativ sifatlariga alohida urg'u berib, unda aniqlik, ta'sirchanlik va tushunarlik asosiy mezon sifatida qayd etishini ta'kidlaydilar. Zero, mantiqsiz yoki chalkash nutq tinglovchida tushunmovchilikni yuzaga keltiradi, bu esa o'zaro muloqot samaradorligini pasaytiradi. Nutq madaniyatining yana bir muhim jihati uning axloqiy mazmuni bilan bog'liq. Til imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, muloqot odobiga rioya qilish, o'rinsiz so'z va iboralardan tiyilish shaxsning madaniyati va insoniy fazilatlarini namoyon etadi.

Bugungi globallashuv zamonda nutq madaniyati masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va turli aloqa vositalarida tezkor muloqotning kengayishi til va nutq me'yorlarini saqlashni qiyinlashtirmoqda. Shunday sharoitda yoshlarning og'zaki va yozma nutqida savodxonlikni oshirish, ularni adabiy til qoidalariga qat'iy rioya etishga o'rgatish muhim vazifa sifatida maydonga chiqmoqda. Nutq orqali inson o'z bilim va tajribalarini boshqalarga yetkazadi, hamkorlik aloqalarini rivojlantiradi, o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy sharoitda nutq madaniyatiga e'tibor qaratish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, olimlar tomonidan ilgari surilgan ushbu fikrlar bugungi zamonaviy hayotda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot jarayonida ham nutq madaniyati beqiyos o'rin tutadi. Talabalarga bilim berishda o'qituvchining nutqi ravon, aniq ta'sirchan bo'lsa, u nafaqat o'quv jarayonini samarali tashkil etadi, balki shaxsiy namunasi orqali yoshlarni chiroyli so'zlash va odobli muloqot qilishga o'rgatadi. Shu bois bugungi ta'lim tizimida nutq madaniyatini rivojlantirish dars jarayonlarining ajralmas qismiga aylanish lozim.

Xalqimizning boy adabiy merosi ham nutq madaniyati uchun bebaho manba hisoblanadi. Maqollar, hikmatlar, mumtoz adabiyot namunalarida nutq odobi va so'zning qudrati keng yoritilgan. "So'z - qalb kalitidir" degan hikmatni yodda tutgan holda, yoshlarni tilimizning boy imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga, o'z fikrini go'zal va adabiy tarzda ifodalashga o'rgatish milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq madaniyati shaxsning bilim darajasi, ma'naviy olami, dunyoqarashi va madaniyatining eng yorqin ko'rsatkichlaridan biri sanaladi. Har bir insonning jamiyatdagi o'rni va obro'-e'tibori ko'p jihatdan uning nutqi, muloqot madaniyati va so'zlash uslubiga bog'liqdir. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari va tarixiy xotirasini ifodalovchi beqiyos boylik hisoblanadi. Shu bois, nutq madaniyatini yuksaltirish masalasi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv davrida, xususan, internet va axborot texnologiyalarining keng yoyilishi nutqiy me'yorlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar nutqida jargon, qisqartmalar, inglizcha yoki boshqa tillardan kirib kelayotgan so'zlar ko'paymoqda. Bu jarayon til taraqqiyoti uchun tabiiy bo'lsa-da, milliy nutq madaniyatini asrash va rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi. Shuning uchun ta'lim jarayonida, ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida nutq madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Nutq madaniyatining asosiy talablari – adabiy til me'yorlariga rioya qilish, so'z boyligidan o'rinni foydalanish, uslubiy rang-baranglikni hisobga olish, muloqot odobini saqlash va tinglovchi bilan samarali aloqa o'rnatishdir. Shu jihatdan qaraganda, nutq madaniyati faqatgina filologlar yoki tilshunoslarning emas, balki jamiyatning har bir a'zosi uchun zaruriy ehtiyojdir. Chunki ravon, lo'nda, aniq va madaniyatli nutq insonning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligida nutq madaniyati masalalari bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Davlat tilining ijtimoiy hayotdagi mavqei oshirish, nutq madaniyati darslarini ta'lim tizimiga kiritish, til me'yorlarini belgilash

va targ'ib qilish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Biroq jarayonning o'zi doimiy va dinamik bo'lgani uchun, nutq madaniyati bo'yicha izlanishlar yanada chuqurlashtirilishi, yangi sharoitlarga mos yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyatini yuksaltirish – bu milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni asrab-avaylash va kelajak avlodga boy til xazinasini sog'lom, toza va mukammal holda yetkazish demakdir. Har bir o'zbek fuqarosi, xoh u ziyoli, xoh oddiy o'quvchi bo'lsin, o'z nutqiga e'tiborli bo'lishi, adabiy til me'yorlarini hurmat qilishi va muloqot madaniyatini rivojlantirishi zarur. Zero, so'z – qudrat, nutq – madaniyat, nutq madaniyati esa millatning ma'naviy yuksalish darajasidir.

Insonlar o'rtasida nutq madaniyati jamiyat taraqqiyotining, milliy qadriyatlarimizning va shaxsiy muvaffaqiyatning eng muhim omillaridan biridir. Olimlar ta'kidlaganidek, nutqning aniq, ravon va ta'sirchan bo'lishi muloqot samaradorligini ta'minlaydi, yozma nutqdagi me'yorlarga rioya qilish esa tartib-intizom va savodxonlik belgisi sanaladi. Ayniqsa, bugungi globallashuv va texnologiyalar asrida yoshlarning nutq madaniyatiga e'tibor qaratish, ularni ona tilining boy foydalanishga o'rgatish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Nutq madaniyati nafaqat insonning bilimi va dunyoqarashini, balki uning axloqiy fazilatlarini--hurmat, samimiyat va odobini ham aks ettiradi. Shuning uchun oilada, ta'lim muassalarida va jamiyatning barcha sohalarida nutq madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Zero, chiroyli va odobli so'zlash, to'g'ri muloqot qilish orqali insonlar o'rtasida o'zaro ishonch, totuvlik va hamjihatlik mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raev T.T. , Halimov S.G. Nutq madaniyati. –Samarqand, 2021.
2. Mahmudov N. , Rafiyev A. , Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. –Toshkent : Cho'lpon, 2013.
3. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent. : Idea 2020.
4. <https://kitob.uz>

TIL ME'YORLARI VA LINGVISTIK EKSPERTIZA: JURNALISTIKA BILAN INTEGRATSION TAHLIL

Shamsiddinova Sevinch Nuriddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

sshamsiddinova810@gmail.com

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada til me'yorlari va lingvistik ekspertizaning jurnalistika sohasi bilan o'zaro aloqasi yoritiladi. Jurnalistik matnlarda adabiy til me'yorlariga rioya etish, leksik va stilistik uyg'unlikni ta'minlash hamda matnlarning obyektivligi lingvistik ekspertiza yordamida aniqlanishi mumkin. Integratsion tahlil usuli jurnalistik nutqda yuzaga keladigan me'yor buzilishlarini baholash, ularning ijtimoiy ta'sirini o'rganish va tahrir jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv jurnalistika sohasida tilning madaniy, kommunikativ va huquqiy ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: til me'yorlari, lingvistik ekspertiza, jurnalistika, integratsion tahlil, matnshunoslik.

ABSTRACT

This article examines the relationship between language norms and linguistic expertise in the field of journalism. Compliance with literary standards, lexical and stylistic coherence, as well as the objectivity of journalistic texts can be assessed through linguistic expertise. The integrative analysis method makes it possible to identify violations of language norms in journalistic discourse, evaluate their social impact, and improve the editing process. This approach contributes to a deeper understanding of the cultural, communicative, and legal significance of language in journalism.

Keywords: language norms, linguistic expertise, journalism, integrative analysis, text linguistics.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается взаимосвязь языковых норм и лингвистической экспертизы с журналистикой. Соблюдение литературных норм, лексическая и стилистическая целостность, а также объективность журналистских текстов могут быть определены с помощью лингвистической экспертизы. Интеграционный анализ позволяет выявить нарушения языковых норм в журналистской речи, оценить их социальное воздействие и совершенствовать процесс редактирования. Такой подход способствует более глубокому пониманию культурной, коммуникативной и правовой роли языка в сфере журналистики.

Ключевые слова: языковые нормы, лингвистическая экспертиза, журналистика, интеграционный анализ, текстоведение.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalarining ta'siri tobora ortib bormoqda. Jurnalistika sohasi jamiyat hayotida axborot yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va ijtimoiy qadriyatlarni targ'ib qilishda muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, jurnalistik matnlarda til me'yorlariga amal qilish, adabiy tilning tozaligi va aniqligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Chunki jurnalist yozgan har bir so'z, ishlatgan ibora keng ommaga ta'sir ko'rsatadi va til madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida xizmat qiladi.

Tilshunoslikda til me'yorlari tushunchasi so'zlashuv va yozma nutqda qabul qilingan umumiy qoidalar, grammatik, leksik hamda stilistik birliklarning me'yoriy qo'llanilishiga asoslanadi. Bu me'yorlardan chetlanish, ayniqsa jurnalistik matnlarda, nafaqat uslubiy xatolarga, balki ma'no buzilishiga, hatto ijtimoiy-madaniy qarama-qarshiliklarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, lingvistik ekspertiza jurnalistik materiallarni baholash, tahlil qilish va ularning ijtimoiy ta'sirini aniqlashda samarali metod hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Jurnalistik matnlarda til me'yorlariga amal qilish masalasi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki ommaviy axborot vositalarida chop etiladigan materiallar keng auditoriya tomonidan qabul qilinadi va ularning til madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Adabiy til me'yorlariga rioya qilmaslik jurnalistikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan obyektivlik va aniq ifoda talablariga ziddir[1].

Masalan, ayrim gazetalar va internet portallarida uchraydigan "xalqimizning qariyb 90 foizi bundan norozi" kabi jumlar statistik ishonchlilikni ifoda etmaydi. Til me'yorlari nuqtayi nazaridan "qariyb 90 foiz" iborasining qo'llanilishi ham

noaniqlikka olib keladi, ham ijtimoiy fikrni noto'g'ri shakllantirish xavfini tug'diradi. Lingvistik ekspertiza bunday matnlarda semantik aniqlikni ta'minlashni talab qiladi va "aksariyat fuqarolar" kabi neytralroq variantlardan foydalanishni tavsiya etiladi[2].

Yana bir amaliy misol sifatida, ayrim yangilik portallarida ishlatiladigan "shov-shuvli voqea", "dahshatli hodisa", "sensatsion yangilik" kabi so'z birikmalarini keltirish mumkin. Bu iboralar jurnalistik uslubning hissiyotga boy qatlamini ifodalaydi, biroq lingvistik ekspertiza nuqtayi nazaridan ular me'yoriy xolislikni buzadi va matnning obyektivligini pasaytiradi[3]. Shunday ekan, bunday so'z birikmalarini qo'llash jurnalistning professional mas'uliyati doirasida baholanadi.

Til me'yorlari buzilishining yana bir ko'rinishi sintaktik qurilishdagi xatolarda ko'zga tashlanadi. Masalan: "Hukumat tomonidan yangi qaror ishlab chiqildi va taqdim qilindi" jumlasida "tomonidan" ortiqcha yuklama bo'lib, rasmiy uslubdagi qo'pol xato hisoblanadi. Bunday jumlaning "Hukumat yangi qaror ishlab chiqib, taqdim qildi" shaklida ifodalash me'yoriy jihatdan to'g'ri bo'ladi. Lingvistik ekspertiza bunday holatlarni aniqlash orqali jurnalistik matnlarni uslubiy va grammatik jihatdan mukammallashtirishga yordam beradi[4].

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, jurnalistik matnlarda leksik va sintaktik me'yorlarning buzilishi o'quvchi auditoriya ongida salbiy taassurot uyg'otishi, ishonchlilik darajasini pasaytirishi va hatto ijtimoiy muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois tilshunos olimlar til me'yorlariga rioya etish va ularni lingvistik ekspertiza orqali nazorat qilish jurnalistikaning sifatini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi[5].

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Jurnalistik matnlarda til me'yorlariga rioya qilish va ularni lingvistik ekspertiza orqali nazorat qilish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. **Birinchi navbatda**, ommaviy axborot vositalari tahririyatlari huzurida maxsus lingvistik ekspertiza bo'limlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bu bo'limlar jurnalistik matnlarda leksik, grammatik va uslubiy me'yorlarga amal qilinishini muntazam ravishda tekshirishi lozim.

Ikkinchidan, jurnalistlar uchun til madaniyati va adabiy me'yorlarga oid maxsus treninglar o'tkazilishi zarur. Chunki matnni faqat informatsion jihatdan emas, balki lingvistik jihatdan ham toza va aniq yetkazish ularning kasbiy mas'uliyati hisoblanadi.

Uchinchidan, OAV materiallarida hissiyotlarga berilib, "sensatsion" mazmun kasb etuvchi iboralardan cheklangan holda foydalanish, o'quvchiga neytral va xolisona axborot yetkazishga ko'proq e'tibor qaratilishi kerak.

Shuningdek, jurnalistik faoliyatda ishlatiladigan elektron platformalarda til me'yorlarini avtomatik tekshiruvchi sun'iy intellekt asosidagi dasturlarni joriy etish samarali bo'lar edi. Bu nafaqat xatoliklarni kamaytiradi, balki jurnalistlarning tezkor va sifatli matn tayyorlash jarayonini ham yengillashtiradi.

Umuman olganda, til me'yorlari va lingvistik ekspertizaning jurnalistika bilan integratsiyasi soha nufuzini oshirish, o'quvchi ishonchini mustahkamlash va milliy til madaniyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Matnlarda grammatik, leksik va uslubiy aniqlikni ta'minlash jurnalistikaning asosiy tamoyillari — xolislik va ishonchlilikni mustahkamlaydi. OAV materiallarida til me'yorlariga amal qilinmasligi esa auditoriya ongida salbiy ta'sir uyg'otishi, hatto ijtimoiy muammolarga sabab bo'lishi mumkinligini yana bir bor qayd etish lozim. Shu bois lingvistik ekspertizani jurnalistik amaliyotga keng joriy etish, jurnalistlarning til madaniyati bo'yicha malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni bu jarayonga qo'shish zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xliyev, B. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
2. Karimov, N. "Jurnalistik matnlarda til me'yorlariga rioya etish masalalari." O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020, №2.
3. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2011.
4. Fairclough, N. Language and Power. Routledge, 2014.
5. Shomahmudov, Sh. O'zbek tilining adabiy me'yorlari. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. Azimov I., Ro'ziyev Z., Bobojonov F. O'zbek tilida lingvistik ekspertiza [Matn]: Uslubiy qo'llanma / I.Azimov, Z.Ro'ziyev, F.Bobojonov.- Toshkent. Bookmany print, 2023. - 48 b.
7. Turg'unpo'latov, D.R. Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi. "Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.
8. Turg'unpo'latov, D.R. Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq. "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.

SUN'IY INTELLEKT VA NUTQ MADANIYATI: YANGI DAVRNING KOMMUNIKATIV MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

Shokirjonova E'zoza Sherzod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya. Sun'iy intellektning jadal rivojlanishi nutq madaniyati masalalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Yangi davr sharoitida inson va texnologiya o'rtasidagi kommunikativ jarayonlar tilning tozaligi, ifoda uslubi va ma'no aniqligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt vositalari muloqotni yengillashtirishi, bilim almashinuvini tezlashtirishi bilan birga, nutqdagi odob, axloqiy mezonlar va madaniy me'yorlarga ham sinov bo'lmoqda. Shu bois nutq madaniyati va sun'iy intellektning uyg'unlashuvi zamonaviy jamiyatning dolzarb vazifalaridan biridir.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, nutq madaniyati, kommunikatsiya, texnologiya, jamiyat.

Аннотация. Стремительное развитие искусственного интеллекта выводит вопросы культуры речи на новый уровень. В современных условиях коммуникативные процессы между человеком и технологией напрямую влияют на чистоту языка, стиль выражения и точность смысла. Средства ИИ упрощают общение, ускоряют обмен знаниями, но одновременно испытывают на прочность нормы вежливости, этики и культуры речи. Поэтому гармонизация искусственного интеллекта и культуры речи становится одной из актуальных задач современного общества.

Ключевые слова: искусственный интеллект, культура речи, коммуникация, технология, общество.

Annotation. The rapid development of artificial intelligence brings speech culture to a new stage. In today's world, communicative interactions between humans and technology directly affect language purity, style of expression, and clarity of meaning. While AI tools facilitate communication and accelerate knowledge exchange,

they also challenge norms of politeness, ethics, and cultural standards of speech. Thus, integrating artificial intelligence with speech culture has become one of the pressing issues of modern society.

Keywords: artificial intelligence, speech culture, communication, technology, society.

Hozirgi davrda insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalariga texnologiyalar chuqur kirib kelmoqda. Ayniqsa, **sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining** rivojlanishi natijasida muloqot va nutq madaniyati masalalari mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Ilgari nutq madaniyati faqat insonlararo muloqotda muhim hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda u inson va texnologiya o'rtasidagi kommunikatsiya sifatini ham belgilab bermoqda. Demak, sun'iy intellekt nutq madaniyati bilan bevosita uzviy bog'liq hodisaga aylanmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt va nutq madaniyati o'rtasidagi o'zaro aloqalar, yangi davrning kommunikativ muammolari va imkoniyatlari atroflicha yoritiladi.

Nutq madaniyati deganda, avvalo, insonning til me'yorlariga rioya etib, aniq, ravon, ifodali va madaniyatli tarzda muloqot qila olish qobiliyati tushuniladi. Bu tushuncha qadimdan mavjud bo'lib, notiqlik san'ati, yozma va og'zaki nutq, so'z boyligi, mantiqiylik kabi elementlarni o'z ichiga olgan. Lekin XXI asrda nutq madaniyati endi nafaqat insonlararo munosabatlarda, balki inson va texnologiya o'rtasidagi aloqalarda ham ko'rinmoqda. Masalan, insonning sun'iy intellekt bilan o'zaro muloqoti, chat-botlar orqali yozishmalari, ovozli yordamchilar bilan ishlashi nutq madaniyatiga yangi qirralar olib kirmoqda[1].

Sun'iy intellekt inson nutqini qayta ishlash, tarjima qilish, matn yaratish, ovozli buyruqlarni tushunish kabi imkoniyatlarni beradi. Lekin bu jarayonlarda bir qator muammolar ham yuzaga chiqmoqda:

Tilning soddalashuvi. Yoshlar SI yordamida tezkor muloqot qilishar ekan, qisqa, soddalashtirilgan gaplardan foydalanishga odatlanmoqda. Bu esa til boyligining yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Imlo va uslubiy xatolar. Matnni avtomatik tarjima qilish yoki yaratishda SI ba'zan noaniqlik va xatolarga yo'l qo'yadi. Agar foydalanuvchi bu xatolarni sezmasa, ular nutq madaniyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Axloqiy me'yorlarning buzilishi. Sun'iy intellekt ayrim hollarda nojo'ya so'zlarni filtrlashda ojiz bo'lib qoladi. Bu esa odob va madaniyat me'yorlariga zid bo'lgan muloqotlarning ko'payishiga olib keladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt nutq madaniyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ham ega:

Til o'rganishdagi yordamchi vosita. SI asosidagi tarjimon dasturlar, ovoz tanish tizimlari, intellektual lug'atlar yoshlarning nutq boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Notiqlikni rivojlantirish. Onlayn platformalar, nutqni tahlil qiluvchi dasturlar insonning nutq tezligi, ravonligi, ohangini o'rgatib, uni takomillashtirish imkonini beradi.

Axborotga tezkor kirish. SI yordamida kerakli ma'lumotlarni tez topish, ularni qayta ishlash, tizimlashtirish yoshlarning fikrlash va nutq madaniyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Inklyuziv imkoniyatlar. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun SI vositalari muloqotda teng imkoniyat yaratadi. Masalan, eshitish imkoniyati cheklanganlar uchun ovozni matnga aylantirish, ko'rish imkoniyati cheklanganlar uchun matnni ovozga aylantirish texnologiyalari mavjud.[2]

Yoshlar bugungi kunda axborot oqimining markazida turibdi. Ular SI vositalaridan eng faol foydalanuvchi qatlamdir. Shu bois, nutq madaniyatini rivojlantirishda SI ular uchun ikki tomonlama ta'sirga ega. Bir tomondan, u o'qish, yozish, til o'rganish, ijod qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, noto'g'ri foydalanish oqibatida tilning buzilishi, muloqotning soddalashuvi, madaniy me'yorlarning zaiflashishi kabi xavflar tug'iladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda qisqartmalar, emoji va stikerlar orqali fikr almashish odatiy holga aylangan. Bu esa yoshlarning og'zaki va yozma nutqiga ham ta'sir qiladi.

Sun'iy intellekt tilni qayta ishlash jarayonida lingvistika fanidan keng foydalanadi. Kompyuter lingvistikasi soha sifatida grammatik tahlil, semantik aniqlik, uslubiy moslik masalalarini o'rganadi. Bu esa nutq madaniyatiga bevosita ta'sir qiladi. Agar dasturiy ta'minotlar til me'yorlarini to'g'ri o'rgansa, u foydalanuvchilar nutqini ham ijobiy tomonga o'zgartiradi. Shu bois, SI texnologiyalarini yaratishda tilshunolar va madaniyatshunolarning ham ishtiroki muhimdir.

Nutq madaniyati faqat texnik jihatlar bilan emas, balki axloqiy-me'yoriy tomonlar bilan ham bog'liq. SI vositalari inson o'rniga matn yaratganida, mualliflik masalasi, javobgarlik, odob me'yorlariga rioya qilish kabi savollar yuzaga keladi. Yoshlar SI yordamida ilmiy ish yoki maqola yozganda, uni o'z fikri sifatida ko'rsatmasligi kerak. Aks holda, bu nafaqat axloqiy, balki huquqiy muammo ham keltirib chiqaradi[3].

Yangi davrda muloqot jarayonlari quyidagi muammolar bilan to'qnashmoqda:

Axborotning haddan tashqari ko'pligi. Bu holat insonning diqqatini bo'lib, fikrni aniq ifodalashga xalaqit beradi.

Virtual muloqotning ustunligi. Jonli suhbatlar kamayib, yozma va onlayn muloqot ko'paymoqda. Bu esa nutq ohangi, intonatsiya, hissiyotlarni yetkazishda muammolar tug'diradi.

Sun'iy intellektga haddan tashqari ishonch. Insonning mustaqil fikrlashi va ijodkorligi zaiflashib, texnologiyaga qaramlik ortmoqda.

Shu bilan birga, yangi davrda SI yordamida nutq madaniyati quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi mumkin:

O'quv dasturlarini avtomatlashtirish orqali har bir talaba uchun individual nutq mashqlarini ishlab chiqish.

Onlayn konferensiyalar, virtual treninglar yordamida yoshlarni notiqlik san'atiga o'rgatish.

Sun'iy intellekt vositalari orqali dunyo tillarini o'rganishni ommalashtirish.

Madaniy merosimizdagi nutq namunalari raqamlashtirib, keng jamoatchilikka yetkazish[4].

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt va nutq madaniyati o'rtasidagi aloqalar yangi davrning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ular o'zaro uyg'unlashganda, insoniyat uchun ulkan imkoniyatlar ochiladi: tilni boyitish, madaniyatni rivojlantirish, muloqotni yengillashtirish. Shu bilan birga, noto'g'ri foydalanilganda muammolar ham yuzaga chiqadi: tilning soddalashuvi, madaniy me'yorlarning zaiflashuvi, texnologiyaga qaramlik. Shuning uchun yoshlar SI vositalaridan foydalanishda mas'uliyatli bo'lishi, nutq madaniyatini saqlash va rivojlantirishni doimo diqqat markazida tutishi lozim. Faqat shundagina yangi davrning texnologik imkoniyatlari va insoniy qadriyatlari uyg'unlashadi, jamiyat taraqqiyoti barqaror bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xudoyberdiyeva M. Axborot jamiyati sharoitida til va nutq masalalari. // O'zbekiston filologiya jurnali. – 2020. – №3. – B. 45–52.
2. Jo'rayev N. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 240 b.
3. G'ulomov A., Qodirova M. Ona tili va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 200 b.
4. To'xlijev B., Yo'ldosheva Sh. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020. – 256 b.
5. Turg'unpo'latov D.R. Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi. Science time. International journal. 3(1), 90-95-betlar.

6. D.R.Turg'unpo'latov. Ona tili va adabiyot darslarini interfaol metodlar orqali tashkil etish samaradorligi. "O'zMU xabarlar" Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022, 1(6), 196-198-b.
7. Д.Р.Турғунпўлатов. О.О.Абдуллаева. Ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишда интернет тармоқлари орқали коммуникатив таълим дарсларни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. "O'zMU xabarlar" Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022, 1/6/1, 27-29-б.
8. D.R.Turg'unpo'latov, Sh.M.Muxtarova. Ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish. "Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (Andijon), 2023. 347-350-b.
9. D.R.Turg'unpo'latov. Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda yechimlar. "Globallashuv jarayonida talaba-yoshlarning intellektual imkoniyati: muammo, taklif hamda echimlar" (Namangan), 2021, 156-158-b.

STRENGTHENING THE ROLE OF EDUCATION IN THE CONTEXT OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

To'raboyeva Shahnoza Elbek qizi

2nd year student, Chirchik State Pedagogical University

Scientific adviser: **Mahmudova Zilola Shukhrat qizi**

EFL teacher, Chirchik State Pedagogical University

E-mail: z.mahmudova@cspu.uz

Abstract

This article explores the pivotal role of education in achieving the United Nations' Sustainable Development Goals (SDGs) by 2030. It highlights how education, particularly SDG 4 (Quality Education), serves as a fundamental enabler for all other SDGs, fostering knowledge, skills, values, and attitudes necessary for sustainable development. The discussion covers key aspects of education for sustainable development (ESD), including environmental literacy, social justice, economic stability, and global citizenship. The article also addresses the necessary transformations within education systems to integrate ESD principles, emphasizing interdisciplinary approaches, critical thinking, and lifelong learning. Ultimately, it argues that robust investment in education and the widespread adoption of ESD are crucial for building a more equitable, prosperous, and sustainable future.

Keywords: *Sustainable Development Goals (SDGs), education, UNESCO, environmental education, inclusive education, digital skills, global citizenship, lifelong learning, curriculum development.*

Annotatsiya

Ushbu maqola 2030-yilga qadar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (SDG) erishishda ta'limning muhim o'rnini yoritadi. Unda ta'lim, xususan, SDG 4 (Sifatli ta'lim) barcha boshqa SDGlar uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi, barqaror rivojlanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qadriyat va munosabatlarni shakllantirishga yordam berishi ta'kidlanadi. Muhokamada barqaror rivojlanish uchun ta'lim (ESD)ning asosiy jihatlari – ekologik savodxonlik, ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va global fuqarolik qamrab olinadi. Shuningdek, maqolada ta'lim tizimlarida ESD tamoyillarini joriy etish uchun zarur bo'lgan transformatsiyalar, jumladan, fanlararo yondashuv, tanqidiy fikrlash va uzluksiz ta'limning ahamiyati ko'rsatilgan. Yakunda, maqola ta'limga kuchli sarmoya kiritish

va ESDni keng joriy etish adolatliroq, farovon va barqaror kelajakni qurishda hal qiluvchi omil ekanini asoslaydi.

Kalit so'zlar: *Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs), ta'lim, UNESCO, ekologik ta'lim, inklyuziv ta'lim, raqamli ko'nikmalar, global fuqarolik, uzluksiz ta'lim, o'quv dasturi ishlab chiqish.*

Аннотация

В данной статье рассматривается ключевая роль образования в достижении Целей устойчивого развития (ЦУР) Организации Объединённых Наций к 2030 году. Подчёркивается, что образование, особенно ЦУР 4 (Качественное образование), является фундаментальным условием для реализации всех остальных ЦУР, формируя знания, навыки, ценности и установки, необходимые для устойчивого развития. Обсуждаются основные аспекты образования для устойчивого развития (ОУР), включая экологическую грамотность, социальную справедливость, экономическую стабильность и глобальное гражданство. Также поднимается вопрос о необходимых трансформациях в образовательных системах для интеграции принципов ОУР, уделяется внимание междисциплинарным подходам, критическому мышлению и непрерывному обучению. В конечном итоге делается вывод, что значительные инвестиции в образование и широкое внедрение ОУР являются ключевыми условиями для построения более справедливого, процветающего и устойчивого будущего.

Ключевые слова: *Цели устойчивого развития (ЦУР), образование, ЮНЕСКО, экологическое образование, инклюзивное образование, цифровые навыки, глобальное гражданство, непрерывное обучение, разработка учебных программ.*

The United Nations' 2030 Agenda for Sustainable Development, embodied in its seventeen Sustainable Development Goals (SDGs), represents a comprehensive and universal call to action to eradicate poverty, safeguard the planet, and ensure that all individuals across the globe can live in peace, dignity, and prosperity. This ambitious framework seeks to address the complex and interrelated challenges faced by humanity—environmental degradation, social inequality, economic instability, and conflict—by fostering inclusive and sustainable development that leaves no one behind.

Central to achieving these interconnected goals is education. Beyond the simple transmission of knowledge and skills, education shapes worldviews, fosters critical thinking, and empowers individuals to become proactive and responsible global citizens. Education is not only highlighted explicitly in SDG 4, which calls for

inclusive and equitable quality education and lifelong learning opportunities for all, but it is also widely recognized as a foundational pillar that underpins the attainment of all other SDGs.

Education for Sustainable Development (ESD) extends the traditional purpose of education by aiming to equip learners of all ages with the knowledge, skills, values, and attitudes necessary to understand and address the complex dimensions of sustainability—environmental stewardship, social justice, and economic viability. Unlike conventional education models, ESD emphasizes participatory learning approaches, multidisciplinary perspectives, critical thinking, collaboration, and problem-solving skills. It fosters a holistic awareness that sustainability challenges are interconnected and require integrated solutions that transcend disciplinary and geographical boundaries.

Through education, individuals gain a deeper understanding of pressing global environmental issues such as climate change, resource depletion, pollution, and biodiversity loss. This heightened awareness encourages the adoption of sustainable practices and nurtures a sense of responsibility towards the environment among younger and older generations alike. Moreover, education plays a crucial role in advancing social equity by promoting inclusive policies that guarantee quality education for marginalized groups, including children with disabilities, refugees, and those living in poverty or conflict-affected regions. This commitment to inclusivity directly supports goals related to poverty eradication, gender equality, reducing inequalities, and fostering peaceful, just societies.

In addition to its social and environmental dimensions, education serves as a critical driver of economic development. By imparting relevant competencies—digital literacy, entrepreneurial skills, creativity, and adaptability—education prepares individuals to thrive in rapidly evolving labor markets. Vocational training and higher education institutions are instrumental in equipping the workforce with the capabilities needed to drive innovation, sustainable economic growth, and the transition towards green economies. This economic empowerment aligns with SDGs focused on decent work, economic growth, and sustainable industrialization.

On a broader societal level, education nurtures the values and skills necessary to build inclusive, peaceful, and just communities. It fosters intercultural understanding, respect for human rights, and ethical global citizenship, reinforcing SDG 16 (Peace, Justice, and Strong Institutions) and SDG 17 (Partnerships for the Goals). Education encourages active engagement in democratic processes and collective problem-solving, strengthening social cohesion and global solidarity.

To realize the transformative potential of education in achieving sustainable development, systemic reforms within educational frameworks are essential. Curricula must be redesigned to integrate sustainability concepts across all subjects and educational levels—from early childhood through tertiary and vocational education. Teachers and educators require continuous professional development and training in innovative ESD methodologies. The strategic use of technology can enhance access and inclusivity, enabling lifelong learning opportunities that adapt to changing societal needs.

Furthermore, robust policy support and adequate funding are necessary to sustain these changes, ensuring equitable resource distribution and inclusive educational environments worldwide. By fostering collaboration among governments, educational institutions, civil society, and the private sector, education can be a powerful catalyst for achieving the comprehensive vision of the 2030 Agenda, building a more just, resilient, and sustainable future for all.

Conclusion

Education stands as one of the most vital pillars in the global effort to achieve the Sustainable Development Goals. It does far more than simply equip the next generation with knowledge and skills; it fundamentally transforms individuals into empowered agents of change, capable of shaping a better world. By fostering critical thinking, creativity, and a sense of global responsibility, education inspires learners to actively engage in addressing the social, economic, and environmental challenges that define our time.

Continued investment in education—coupled with the widespread adoption of Education for Sustainable Development (ESD) principles—forms the foundation for building a future that is more just, prosperous, and environmentally resilient. When education systems embrace these principles, they nurture not only informed individuals but also collaborative global citizens who are prepared to work together across borders and disciplines to find innovative solutions. Ensuring universal access to high-quality education is not merely an aspirational target; it is an indispensable prerequisite for confronting the complex and interconnected challenges facing humanity today. Without such inclusive and transformative education, efforts to eradicate poverty, reduce inequalities, protect the environment, and promote peace will remain incomplete and unsustainable.

In essence, education is the key to unlocking humanity's collective potential to create a thriving planet and equitable societies, both now and for generations to come.

It is through this powerful tool that we can secure a sustainable future and realize the full promise of the 2030 Agenda for Sustainable Development.

REFERENCES:

1. Hickman, R. (2018). The Routledge Handbook of Education for Sustainable Development. Routledge.
2. Mansurbekova, K. M. Q., & Mahmudova, Z. S. Q. (2025). THE ROLE OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING (CLT) IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS: A MULTIMODAL APPROACH. *Academic research in educational sciences*, 6(NUU Conference Students 1), 115-119.
3. Sh, M. Z. (2023). Principles Of Development Of Creative Activity Of Primary Class Students In Tashkent Regional Universities. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 1(2), 567-571.
4. Sterling, S. (2001). Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. Green Books.
5. Toychiyeva, M. O. Q., Ergasheva, G. B. Q., & Qizi, M. Z. S. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA CHET TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference 1 Part 1), 709-711.
6. UNESCO. (2017). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. UNESCO Publishing.

O'QUVCHILARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA LINGVISTIK EKSPERTIZANING TA'SIRI

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Arashova Sakina Otajonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

sakinaarashova07@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirish jarayonida lingvistik ekspertizaning ahamiyati tahlil etiladi. Tilshunoslik nazariyalari va amaliy tajribalar asosida lingvistik ekspertiza vositalari o'quvchi nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, xatolarni aniqlash va to'g'ri muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Shuningdek, lingvistik ekspertizaning ta'lim jarayoniga tatbiqi, o'quvchilar tafakkuri va shaxsiy fazilatlariga ta'siri haqida mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, lingvistik ekspertiza, o'quvchi shaxsi, kommunikativ kompetensiya, ta'lim jarayoni, nutqiy xatolar, til tarbiyasi.

ABSTRACT

This article analyzes the importance of linguistic expertise in the development of students' speech culture. Based on linguistic theories and practical experience, the role of linguistic expertise tools in enhancing students' communicative competence, identifying speech errors, and fostering proper communication skills is examined. The paper also discusses the application of linguistic expertise in the educational process and its impact on students' thinking and personal qualities.

Keywords: speech culture, linguistic expertise, student personality, communicative competence, educational process, speech errors, language education.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется значение лингвистической экспертизы в процессе развития речевой культуры у учащихся. На основе лингвистических теорий и практического опыта рассматривается роль средств лингвистической экспертизы в формировании речевой компетенции школьников, выявлении ошибок и развитии навыков правильной коммуникации. Также излагаются размышления о применении лингвистической экспертизы в образовательном процессе, её влиянии на мышление и личностные качества учащихся.

Ключевые слова: культура речи, лингвистическая экспертиза, личность ученика, коммуникативная компетенция, образовательный процесс, речевые ошибки, языковое воспитание.

KIRISH

Nutq madaniyati har qanday jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilovchi omillardan biridir. O'quvchi shaxsini shakllantirishda to'g'ri va ravon so'zlashish, fikrni aniq ifodalash, muloqot odobiga amal qilish muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda nutq madaniyatini rivojlantirish masalalari keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, uni o'quvchilarda samarali shakllantirishda lingvistik ekspertizaning imkoniyatlari alohida e'tibor talab qiladi.

Lingvistik ekspertiza – bu matnni lingvistik jihatdan chuqur tahlil qilish, adabiy til me'yorlariga mosligini tekshirish va kommunikativ qiymatini aniqlash jarayoni bo'lib, u o'quvchilar nutqini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Tilshunos olim A. Madvaliyevning ta'kidlashicha: “Nutq madaniyatini shakllantirish – shaxsning kommunikativ qobiliyatini tarbiyalashning eng asosiy yo'li hisoblanadi”[1; 56].

ASOSIY QISM

O'quvchilar nutq madaniyatini rivojlantirish zarurati. Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqi nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri, balki mazmunan boy, usluban mos, muloqot talablariga javob berishi zarur. Nutq madaniyati o'quvchida quyidagi fazilatlarni shakllantiradi:

fikrni izchil va aniq ifodalash;

muloqotda hurmat, odob va estetik didni namoyon etish;

ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish uchun zarur kommunikativ kompetensiyani egallash.

Lingvistik ekspertizaning o'quvchilar nutqiga ta'siri. Lingvistik ekspertiza yordamida o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqi tahlil qilinib, xatolar aniqlanadi va tuzatish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Uning ta'sir mexanizmlari quyidagilardan iborat:

Bilimga ta'siri: o'quvchilar adabiy til me'yorlarini chuqurroq o'zlashtiradilar.

Amaliy ta'sir: xatolarni tuzatish orqali o'z nutqini mustaqil tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Tarbiyaviy ta'sir: o'quvchilarda nutqiy intizom, muloqot madaniyati va mas'uliyat hissi shakllanadi.

Tilshunos olim N.Mahmudov bu borada shunday yozadi: "Lingvistik tahlil va ekspertiza – til madaniyatini ko'tarishning samarali vositasidir" [2, 104-b.].

Amaliy qo'llash imkoniyatlari. O'quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirishda lingvistik ekspertizadan quyidagi shakllarda foydalanish mumkin:

dars jarayonida o'quvchilarning insholari va og'zaki javoblarini ekspertiza asosida tahlil qilish;

adabiy va publitsistik matnlardagi nutqiy xatolarni topish, ularni muhokama qilish;

o'quvchilarni mustaqil ravishda matnni lingvistik tahlil qilishga o'rgatish;

interaktiv mashg'ulotlarda o'quvchilar nutqiy xatolarini ko'rsatib, adabiy me'yorlarga rioya qilishga yo'naltirish.

Sh.Shukurovning fikricha: "Nutqiy tarbiya tafakkur tarbiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Tilni ongli o'zlashtirish orqali shaxsning dunyoqarashi kengayadi"[3;78].

TAKLIF VA TAVSIYALAR

O'quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirishda lingvistik ekspertizani samarali qo'llash uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

O'quv jarayonida lingvistik ekspertizani tizimli joriy etish. O'quvchilar yozma va og'zaki nutqlarini muntazam ravishda lingvistik ekspertiza asosida tahlil qilish, natijalarni shaxsiy rivojlanish xaritasi sifatida qayd etish kerak. Bu usul o'quvchilarda o'z nutqini baholash va xatolarini tuzatish madaniyatini shakllantiradi.

Nutq madaniyatiga oid mustaqil mashg'ulotlarni tashkil etish. Maktab va kollejlarda miqyosida "Nutq madaniyati haftaligi", "Xatosiz nutq" kabi loyihalarni o'tkazish, o'quvchilarni o'z nutqi ustida ishlashga undaydi.

Zamonaviy matnlar asosida tahlil ishlari olib borish. O'quvchilar internetdagi bloglar, ijtimoiy tarmoq yozuvlari, reklama matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazib, ulardagi nutqiy xatolarni aniqlashga jalb etilishi maqsadga muvofiq. Bu orqali o'quvchilar zamonaviy kommunikatsiya tilining ijobiy va salbiy jihatlarini farqlashni o'rganadilar.

O'qituvchilar malakasini oshirish. Pedagoglar nutq madaniyati va lingvistik ekspertiza bo'yicha maxsus seminar va treninglarda ishtirok etib, o'quvchi nutqini baholashning zamonaviy metodlarini o'zlashtirishlari lozim.

Interaktiv metodlardan keng foydalanish. Rol o'ynash, munozara, debat va "matn tahlili" mashg'ulotlari o'quvchilarni faol muloqotga undaydi va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Nutq madaniyatini tarbiyalashda lingvistik ekspertiza beqiyos ahamiyatga ega. U o'quvchilarda to'g'ri, ravon va adabiy me'yorlarga asoslangan nutqiy malakalarni shakllantiradi. Shuningdek, o'quvchining tafakkuri, dunyoqarashi va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida lingvistik ekspertiza nafaqat tilni, balki milliy ma'naviyatni asrab-avaylash vositasi sifatida ham muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madvaliyev A. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Mahmudov N. O'zbek tilining taraqqiyoti va nutq madaniyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
3. Shukurov Sh. Til va tafakkur munosabati. – Toshkent: Universitet, 2008.
4. Karimov H. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
5. Abdullayev F. Til va jamiyat: lingvistik tahlillar. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Jo'rayev B. Nutq madaniyatini o'rgatish metodikasi. – Toshkent: NMIU, 2016.
7. Xolbekov M. O'zbek tilshunosligida lingvistik ekspertiza. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
8. Azimov I., Ro'ziyev Z., Bobojonov F. O'zbek tilida lingvistik ekspertiza [Matn]: Uslubiy qo'llanma / I.Azimov, Z.Ro'ziyev, F.Bobojonov.- Toshkent. Bookmany print, 2023. - 48 b.
9. Turg'unpo'latov, D.R. Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq. "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.

YOSHLAR ORASIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Turobova Bahora Yigitali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

turobovabahora018@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar orasida nutq madaniyatini shakllantirishdagi muammolar tahlil qilingan. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri, kitobxonlikning sustligi hamda ta'lim-tarbiyadagi kamchiliklar asosiy omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Yoshlar nutq madaniyatini rivojlantirish uchun ta'limda nutqiy kompetensiyani mustahkamlash va kitobxonlikni targ'ib qilish zarurligi haqida fikr bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nutq, yoshlar, madaniyat, muammolar, ijtimoiy tarmoq, til, shaxs, mutolaa, faoliyat.

Аннотация

В данной статье проанализированы проблемы формирования речевой культуры среди молодежи. В качестве основных факторов отмечены негативное влияние интернета и социальных сетей, слабый уровень чтения, а также недостатки в системе образования и воспитания. Подчеркивается необходимость укрепления речевой компетенции в образовательном процессе и пропаганды чтения для развития речевой культуры молодежи.

Ключевые слова: речь, молодежь, культура, проблемы, социальная сеть, язык, личность, чтение, деятельность.

Annotation

This article analyzes the problems of developing speech culture among young people. The negative impact of the Internet and social networks, the decline in reading habits, and shortcomings in education and upbringing are identified as the main factors.

The article emphasizes the necessity of strengthening speech competence in education and promoting reading in order to develop the speech culture of youth.

Keywords: speech, youth, culture, problems, social network, language, personality, reading, activity.

Nutq madaniyati — shaxsning fikrini ravon, aniq, o'z o'rnida, odobli va tushunarli ifoda etish san'ati. Yoshlar bosqichida nutq madaniyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir, chunki bu ularning ijtimoiy munosabatda, ta'limda, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, bugungi kunda yoshlar orasida nutq madaniyatining yomonlashuvi, so'z boyligining cheklanishi, ijtimoiy tarmoqlarda "slang" tilining keng tarqalishi kabi muammolar uchramoqda.

Maqolaning maqsadi — yoshlar orasida nutq madaniyati shakllanishidagi muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va yechim takliflarini ilgari surish.

Til va nutq insoniyatning ijtimoiy mohiyatini belgilovchi asosiy vositalardan biridir. Har bir millatning madaniyati, ma'naviyati va intellektual darajasi, eng avvalo, uning nutqida o'z ifodasini topadi. Nutq madaniyati shaxsning tafakkur darajasi va dunyoqarashini belgilashda muhim mezon hisoblanadi. Shuning uchun ham yoshlar orasida nutq madaniyatini shakllantirish masalasi zamonaviy tilshunoslik, pedagogika va sotsiologiya ning dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Professor N. Mahmudov ta'kidlaganidek, "Nutq madaniyati bu tilning imkoniyatlaridan eng samarali, eng to'g'ri va eng ta'sirchan tarzda foydalanish san'atidir" [Mahmudov, 2005: 17]. Demak, nutq madaniyati nafaqat til qoidalariga amal qilish, balki estetik va muloqot me'yorlarni ham o'z ichiga oladi.

1. Nutq madaniyatining mohiyati. Nutq madaniyati lingvistik va ijtimoiy nuqtayi nazardan qaraladigan murakkab hodisadir. Lingvistik jihatdan u til me'yorlariga amal qilishni (fonetik, leksik, grammatik me'yorlar), ijtimoiy jihatdan esa madaniyatli muloqotni o'z ichiga oladi. O'zbek tilshunosligida nutq madaniyatining nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlardan A. Hojiev, A. Madvaliyev, N. Mahmudov, Sh. Rahmatullayevlarni alohida ta'kidlash mumkin. Ularning izohicha, nutq madaniyati shaxsning ijtimoiy faolligi, kommunikativ kompetensiyasi hamda ma'naviy qiyofasini belgilaydi [Hojiev, 1996; Madvaliyev, 2008].

2. Yoshlar nutqida uchrayotgan muammolar. Bugungi globallashtirish sharoitida yoshlarning nutqida quyidagi salbiy tendensiyalar kuzatilmoqda: Aralash til hodisasi

(kode-switching). O'zbek tilidagi nutqda ruscha va inglizcha so'zlarning haddan ortiq ishlatilishi milliy tilning imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. Bu holat ba'zan nutqning tabiiyligini buzadi. Internet tilining ta'siri. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqartmalar, jargonlar va emojilarning keng qo'llanilishi yozma va og'zaki nutqning me'yoriyligini pasaytirmoqda [Karimov, 2019].

- So'z boyligining kamayishi. Kitobxonlik darajasining pasayishi natijasida yoshlar sinonimlar, maqol va iboralardan kam foydalanmoqda, bu esa nutqning bir xillashuviga olib kelmoqda.

- Orfoepiya va orfografiya xatolari. Talaffuz me'yorlariga rioya qilinmasligi, imlo qoidalariga e'tiborsizlik ko'plab yoshlarning nutqida uchraydi. Notiqlik ko'nikmalarining sustligi. Yoshlar rasmiy chiqishlarda nutqni izchil va mantiqli qurishda qiynalmoqda.

3. Muammolarning sabablari. Mazkur muammolarni yuzaga keltiruvchi bir necha omillar mavjud:

17. Globalizatsiya va ommaviy madaniyat. Xorijiy tillarning kuchli ta'siri va internet madaniyati yoshlarning milliy tilga bo'lgan munosabatini zaiflashtirmoqda.

18. Ta'lim jarayonidagi kamchiliklar. Nutq madaniyati faniga oid mashg'ulotlarning yetarli emasligi va ko'proq nazariy xarakter kasb etishi.

19. Axborot makonining ta'siri. Blogerlar va OAV vakillarining nutqida uchraydigan xatolar yoshlar uchun "namuna"ga aylanmoqda [Ismoilova, 2020].

20. Oilaviy va ijtimoiy muhit. Ota-onalarning va yaqin atrofdagilarning nutqiy madaniyatga befarqligi yoshlarning til madaniyatiga ham salbiy ta'sir qiladi.

4. Nutq madaniyatini shakllantirish yo'llari. Yoshlar orasida nutq madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiqdir:

- Ta'lim tizimi doirasida. Nutq madaniyati bo'yicha mustaqil kurslar joriy etish, amaliy mashg'ulotlarda interaktiv usullardan foydalanish, notiqlik mashg'ulotlarini kengaytirish.

- Ommaviy axborot vositalarida. Til me'yorlariga amal qilinishini ta'minlash, madaniyatli nutqqa ega shaxslarni ommalashtirish. Yoshlar faoliyatida. Kitobxonlik tadbirlari, notiqlik tanlovlari, debat klublari tashkil etish orqali nutqiy faollikni oshirish.

- Ilmiy tadqiqotlarda. Yoshlar nutqini muntazam monitoring qilish, lingvistik tahlil asosida muammolarni aniqlash va yechimlar ishlab chiqish. Shunday qilib nutq madaniyati yoshlarning intellektual salohiyati va ma'naviy barkamolligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Hozirgi sharoitda yoshlar nutqidagi muammolarni bartaraf etish ta'lim, OAV va ijtimoiy muhitning hamkorlikdagi

faoliyatini talab qiladi. Faqat shu yo'l bilangina yosh avlod nutqi toza, boy, izchil va ta'sirchan bo'lishi mumkin. Professor A. Madvaliyev qayd etganidek, "Nutq madaniyati jamiyatning ma'naviy ko'zgusi bo'lib, uning darajasi xalqning madaniy saviyasini belgilaydi" [Madvaliyev, 2008: 42]. Demak, yoshlar orasida nutq madaniyatini shakllantirish — millatning kelajagini belgilovchi strategik vazifadir.

Yoshlar orasida nutq madaniyatini shakllantirish masalasi zamonaviy jamiyatda o'ta muhim va dolzarb muammolardan biridir. Nutq madaniyati shaxsning ma'naviy saviyasi, dunyoqarashi, tafakkuri va ijtimoiy faoliyatini ifoda etuvchi eng muhim vositalardan hisoblanadi. Nutq madaniyati yetarli bo'lmagan yoshlar o'z fikrini aniq, mantiqiy va ravon tarzda ifodalay olmaydi, bu esa ularning bilim olish jarayoniga, jamiyatdagi muloqot madaniyatiga va kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, yoshlarni to'g'ri, madaniyatli, ta'sirchan va mazmunli nutqqa o'rgatish ularning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bugungi globallashtirish davrida yoshlarning nutq madaniyatiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar ham mavjud. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri yozish va so'zlash odati, begona so'zlar va jargonlarning keng qo'llanishi, adabiy til me'yorlariga loqayd munosabat kabi holatlar yoshlar orasida nutq madaniyatining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, ko'ngilochar kontentning ko'pligi ham mutolaa madaniyatini susaytirib, yoshlarning so'z boyligini cheklab qo'yimoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda ta'lim tizimi, oila, ommaviy axborot vositalari hamda keng jamoatchilikning roli beqiyosdir. O'qituvchilar dars jarayonida adabiy til me'yorlariga rioya etishga o'rgatishi, oilada esa farzandlarning to'g'ri va go'zal so'zlashuviga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bundan tashqari, kitobxonlikni targ'ib qilish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, yoshlarni nutqiy madaniyatni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga jalb etish ham samarali natija beradi. Shunday qilib, yoshlar orasida nutq madaniyatini shakllantirish uzluksiz jarayon bo'lib, bunda ham ta'limiy, ham tarbiyaviy, ham ijtimoiy omillarni uyg'un holda amalga oshirish talab etiladi. Faqat shundagina jamiyatimizda o'z fikrini aniq, mantiqiy, adabiy me'yorlarga mos va madaniyatli tarzda ifodalashga qodir, ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlovchi, zamonaviy tafakkurga ega yosh avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiev A. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Madvaliyev A. Nutq madaniyati va uslubiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

4. Karimov S. Ijtimoiy tarmoqlar va til madaniyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
5. Ismoilova D. Yoshlar nutqida me'yor buzilishi muammolari. – Toshkent: O'zMU ilmiy maqolalar to'plami, 2020.
6. Turg'unpo'latov D.R. Nutq tovushlarining o'zgarishidagi terminlarni "Tushunchalar tahlili" metodi asosida o'rganish. «O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali» (O'zbekiston), 2021, № 2(2), 183-187-b.
7. Турғунпўлатов Д.Р. Неологизмлар (Янги пайдо бўлган сўзлар) мавзусини илғор педагогик технологиялар асосида ўргатиш. «Academic Research in Educational Sciences» (Ўзбекистон), 2022, №3 (5), 495-499-б.
8. Turg'unpo'latov D.R. Ona tili va adabiyot darslarini interfaol metodlar orqali tashkil etish samaradorligi. «O'zMU xabarлари» Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022, 1(6), 196-198-b.
9. Turg'unpo'latov D.R., Mo'ydinov Q.A. Maktab o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda o'ziga xos uslub hamda imkoniyatlar (sodda va qo'shma gap mavzusi (9-sinf) misolida). «Central Asian academic journal of scientific research». 2022, 2(7), 93-97-b.
10. Турғунпўлатов Д.Р., Абдуллаева О.О. Ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишда интернет тармоқлари орқали коммуникатив таълим дарсларни ташкил этишининг ўзига хос хусусиятлари. «O'zMU xabarлари» Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2022, 1/6/1, 27-29-б.
11. Turg'unpo'latov D.R., E.F.Abduvaitov. Maktab o'quvchilarining esse yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda o'ziga xos pedagogik yondoshuvlar (6-sinf misolida). «Til va adabiyot ta'limi» ilmiy-metodik jurnali. 2023, 7-son

TIL VA MADANIYAT INTEGRATSIYA: XALQ RUHIYATINING IFODASI

Tursunmuhammedova Soraxon Sayfullo qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunoshligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Mazkur maqolada til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Xususan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, diniy e'tiqodlar, ijtimoiy munosabatlar va mentalitet unsurlarining til tizimidagi ifodalanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada turli xalqlarning til – madaniyati, integratsiyasi holatlari—ingliz, yapon, arab va o'zbek tillari misolida –qiyosiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, nutq, mentalitet, etiket, integratsiya, til, madaniyat, tilshunoslik.

Annotation

This article analyzes the inextricable link between language and culture from a linguoculturological perspective. In particular, the expression of national values, customs, religious beliefs, social relations and elements of mentality in the language system is analyzed. The article also examines the cases of linguistic and cultural integration of different peoples using the examples of English, Japanese, Arabic and Uzbek.

Keywords: linguistic culture, speech, mentalitet, label, integration, language, culture, linguistics.

Аннотация

В статье анализируется неразрывная связь языка и культуры с лингвокультурологической точки зрения. В частности, анализируется выражение в языковой системе национальных ценностей, обычаев, религиозных верований, социальных отношений, элементов менталитета. В статье также рассматривается

языковая культура и интеграция разных народов в сопоставительном плане на примере английского, японского, арабского и узбекский языков.

Ключевые слова: лингвистическая культура, речь, менталитет, этикетка, интеграция, язык, культура, лингвистика.

Til va madaniyat insoniyat taraqqiyotida ajralmas tushunchalardir. Har bir jamiyat o'zining tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlari va qadriyatlarini avloddan avlodga asosan til orqali yetkazadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning ma'naviy merosi va madaniy o'zligining ifodasidir. Har bir millat tili o'ziga xos madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda xalq ruhiyati, tafakkuri va hayot tarzi mujassam bo'ladi. Shu bois til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish zamonaviy lingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbek tilida xalq ruhiyati, jamiyatga xos axloqiy me'yorlar va milliy tafakkur turli shakllarda namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar lingvokulturologik yondashuvning ahamiyatini ko'rsatib, tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki madaniy fenomen sifatida o'rganish zarurligini asoslab beradi. Til xalq tafakkuri, qadriyatlar tizimi va madaniy hodisalarning in'ikosi sifatida talqin etiladi. Har bir tilda mavjud bo'lgan iboralar, maqollar, e'tibor shakllari, nutq etiketi va boshqa elementlar orqali xalq madaniyati, ruhiy olami va ijtimoiy munosabatlar tizimi aniq namoyon bo'ladi. Globalizatsiya jarayonida esa til va madaniyat munosabatlarini o'rganish yanada dolzarb tus olmoqda. Xalqaro misollarda ham bu bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi: yapon tilidagi keigo (hurmat shakllari) ierarxiyaga asoslangan madaniyatni aks ettirsa, o'zbek tilida hurmat "sizlash" va ko'plikda murojaat qilish orqali ifodalanadi, arab tilida esa kundalik muloqotda "Insha'Allah", "Bismillah", "Alhamdulillah" kabi iboralar keng qo'llanib, dinning madaniy hayotdagi o'rnini ko'rsatadi. Demak, milliy tilni asrash va rivojlantirish faqat til siyosatiga oid masala emas, balki madaniy va ruhiy mustaqillikni saqlash vositasidir. Shu nuqtai nazardan, til va madaniyat integratsiyasini chuqur tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki sotsiokultural jarayonlarni ham kengroq tushunishga xizmat qiladi.

Xalq ruhiyati — muayyan millat yoki etnik guruhning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayoti, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va madaniy merosi orqali shakllangan jamoaviy ong va his-tuyg'ular majmuasidir. U xalqning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, estetik didi hamda hayotga munosabatida o'z ifodasini topadi va milliy identitetning ajralmas qismi hisoblanadi.

Xalq ruhiyati uzoq tarixiy jarayonlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy meros natijasida shakllanadi. Tarixiy tajriba — bosqinlar, mustaqillik uchun kurashlar, ijtimoiy siljishlar va boshqa muhim voqealar — ruhiyatga chuqur iz qoldiradi. Diniy

va ma'naviy qadriyatlar (masalan, islom, xristianlik va boshqa e'tiqod tizimlari) ham xalq ongida mustahkam o'rin oladi va axloqiy hamda ma'naviy mezonlarni belgilaydi.

Adabiy va og'zaki ijod — xalq qo'shiqlari, dostonlar, ertaklar, maqollar va og'zaki ijodning boshqa namunalari — xalq ruhiyatining eng ko'zga ko'ringan ifoda vositalaridir. Ushbu ijod namunalarida xalqning qadriyatlari, dunyoqarashi va tarixiy xotirasi aks etadi.

Xalq ruhiyati milliy o'zlikni anglashda, madaniy merosni asrashda va yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Uni ilmiy asosda tadqiq etish va ommalashtirish orqali milliy madaniyatni chuqur anglash, ma'naviy merosni saqlash va kelajak avlodga yetkazish imkoniyati oshadi.

Til bu jaraynda faqat aloqa vositasi emas; u xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va ma'naviy dunyosini saqlovchi madaniy fenomen hisoblanadi. O'zbek tili misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq hayoti, e'tiqodi, qadriyatlari va mentaliteti til orqali o'z aksini topadi. Lingvokulturologik yondashuv asosida til va madaniyat munosabatlarini tahlil qilish har bir tildagi madaniy qatlamlarni tan olish, xalqaro miqyosda madaniy tafovut va o'xshashliklarni anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
2. Abdulazizov A. Til va madaniyat: muammolar va yechimlar. – Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Qodirova D. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri. – O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2018, 45–50-betlar.
4. To'xtasinov M. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. Xudoyberganova D. Madaniyatshunoslik va til. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
6. www.ziyonet.uz
7. uz.m.wikipedia.org

MADANIY NUTQ TAMOIYILLARI VA ME'YORIY ASOSLARI

Tursunova Gullola G'iyos qizi

Chirchir davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasida dostoni,
filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya:

Ushbu maqolada nutqning jamiyat hayotidagi o'rni, shaxsning nutq madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati hamda adabiy til me'yorlariga rioya qilish zaruriyati yoritiladi. Unda so'zlashuv jarayonida Grammatik, leksik, fonetik va uslubiy me'yorlarga amal qilishning ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Nutq, me'yor, madaniy, til, adabiy, noadabiy, yozma me'yor, og'zaki me'yor, talaffuz me'yor, imlo me'yor.

Abstract:

This article discusses the role of speech in social life, its importance in the formation of person's speech culture, and the need to adhere to the norms of the literary language. It shows the importance of adhering to grammatical, lexical, phonetic and stylistic norms in the process of speech.

Keywords: Speech, norm, cultural, language, literary, non-literary, written norm, oral norm, pronunciation norm, of speech.

Аннотация:

В статье рассматривается роль речи в общественной жизни, её значение в формировании речевой культуры человека, необходимость соблюдения норм литературного языка. Показывается важность соблюдения грамматических, лексических, фонетических и стилистических норм в процессе речевой деятельности.

Ключевые слова: Речь, норма, культурный, язык, литературный, нелитературный, письменная норма, устная норма, произносительная норма, орфографическая норма.

Nutq madaniyati haqida gap ketganda, avvalo qaysi soʻz va qoʻshimchalarni qoʻllash toʻgʻri yoki notoʻgʻriligi, nutqimizda uchraydigan xatoliklar va ularning oldini olish masalalari muhokama qilinadi. Bu holat maʼlum mezonlar asosida baholanadi. Mazkur oʻlchov adabiy nutq meʼyorlari deb ataladi.

Adabiy nutq meʼyori – bu nutqda til unsurlarining koʻpchilikka maʼqul boʻlgan, jamiyat tomonidan qabul qilingan shaklidir. Meʼyor haqida koʻplab olimlar oʻz fikrlarini bildirgan. Shulardan biri B.N. Golovin shunday deydi:

“**Meʼyor** – tilning xalq tomonidan oʻzaro yaxshi tushunish zarurati tufayli yaratilgan amaliy jihatidir. Bu zarurat tilning yagona shakliga erishish yoʻlida odamlarda biror variantni maʼqul koʻrish, boshqasidan voz kechish istagini uygʻotadi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka intilishi tufayli til meʼyori milliy adabiy tilda yuqori darajaga koʻtarilib, mustahkamlanib boradi”.

Mustaqillikning ilk yillarida jumhuriyat, nohiya, viloyat, shohbekat, jarida, roʻznoma kabi soʻzlardan foydalanishga urinishlar kuzatilgan. Bu, albatta, til meʼyorini shakllantirish jarayonida ayrim ziyolilar faoliyatida yaqqol namoyon boʻldi. Biroq jamiyat bunday soʻzlarni ommaviy ravishda qabul qilmadi. Bu esa til meʼyorini belgilash ayrim kishilarning xohish-irodasiga bogʻliq emasligini koʻrsatadi. Zero, meʼyorni oʻrganishda esda tutish lozimki, tilning taraqqiyot qonunlari obyektiv boʻlib, ular alohida shaxslarning irodasidan mustaqil ravishda amal qiladi.

Adabiy nutq meʼyorlarining oʻziga xos turlari mavjud boʻlib, ular talaffuz, imlo, grammatik, leksik va uslubiy qoidalar orqali namoyon boʻladi. Shu bois, adabiy nutq meʼyorlariga amal qilish nafaqat tilning umumxalq darajasida rivojlanishini taʼminlaydi, balki milliy madaniyat va savodxonlik darajasini ham belgilab beradi. Bular:

1.Fonetik meʼyor- tovushlarni adabiy talaffuzga mos aytish. Masalan: *kitob* soʻzini “*kitop*” demasdan, toʻgʻri talaffuz qilish.

2.Leksik meʼyor- soʻzlarni oʻrinli ishlatish, maʼnosini aralashtirmaslik. Masalan: *xalq* va *elat* soʻzlari oʻxshash, lekin farqli maʼnoga ega.

3.Grammatik meʼyor- gaplarni Grammatik qoidalarga mos tuzish, soʻz shakllarini toʻgʻri qoʻllash. Masalan: *men bordim, u keldi*.

4.Imlo va punktuatsiya meʼyori- soʻzlarni adabiy yozuv qoidalariga koʻra yozish, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻyish.

5.Uslubiy meʼyor- qaysi vaziyatda qanday soʻzlardan foydalanishni bilish. Masalan: ilmiy maqolada oddiy soʻzlashuv uslubidagi iboralardan qochish.

6.Nutq odobi meʼyori- suhbatda hurmat, madaniyat, odobni saqlash. Masalan: kattalarga murojaatda muloyim soʻzlar ishlatish.

Tilning nafaqat adabiy shakli, balki noadabiy shakllari ham ma'lum me'yorlarga ega. Aslida me'yor hodisasi tilning barcha shakllariga xos bo'lib, ular o'z qonuniyatlari asosida shakllanadi va qo'llanadi. Noadabiy shakllar xalq tilining turli ko'rinishlarini ifodalaydi. Ular adabiy tildan talaffuz, grammatik qurilish, so'z qo'llash yoki uslubiy jihatdan farq qiladi. Bunday shakllar, odatda, kundalik hayotda, og'zaki nutq jarayonida ko'proq uchraydi.

Noadabiy shakllarning asosiy xususiyati shundaki, ular adabiy til qoidalaridan chetga chiqishi mumkin. Shu bilan birga, ular hududiy va ijtimoiy farqlarga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, shevalar hududiy farqlarni, jargon va boshqa ijtimoiy til unsurlari esa ijtimoiy tabaqalanishni ifodalaydi. Rasmiy ravishda adabiy til sifatida tan olinmagan bo'lsa-da, ular xalq nutqida keng qo'llanadi va til tizimining ajralmas qismi sifatida yashab keladi.

Tilning noadabiy shakllari jamiyat hayotida keng o'rin egallaydi. Ular adabiy nutq me'yoridan farq qilsa-da, xalq tilining tabiiy boyligini, rang-barangligini namoyon etadi. Shu jihati bilan noadabiy shakllar adabiy tilning boyishida, yangilanishida va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Demak, noadabiy nutq shakllari til taraqqiyotining zaruriy bosqichi va xalq tilining jonli, tabiiy ko'rinishidir.

Yozma me'yor tilning yozuvdagi shakli bo'lib, adabiy til qoidalariga asoslanadi. Yozma nutqda imlo, tinish belgilari, grammatik va uslubiy qoidalarga qat'iy amal qilish talab etiladi. Chunki odamlar yozma ravishda bir-biriga murojaat qilganda, matnni hamma to'g'ri tushunishi uchun umumiy qoidalarga rioya qilish zarur. Yozma me'yorning ahamiyati katta: u tilning barqarorligini va yagona qo'llanishini ta'minlaydi, fan, adabiyot, matbuot hamda rasmiy hujjatlar kabi sohalarida umumiy aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, yozuvchi va o'quvchi orasida aniq, ravon va tushunarli muloqotni ta'minlaydi, til madaniyati va savodxonlik darajasini namoyon etadi. Qisqacha aytganda, yozma me'yor tilni to'g'ri, izchil va umumiy qoidalarga asoslanib ifodalash imkonini beruvchi asosiy vositadir. U jamiyatning ilmiy, badiiy va rasmiy hayotida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Adabiy nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjud bo'lgani kabi, nutqda ham imlo va talaffuz me'yorlari farqlanadi. Talaffuz me'yori so'z va qo'shimchalarni to'g'ri aytish, so'z urg'usini joyida qo'llashni o'z ichiga oladi. Adabiy tilning og'zaki shakllarida me'yor asosan talaffuz va nutqiy ohangda namoyon bo'ladi.

Imlo me'yori esa so'zlarni adabiy til qoidalariga muvofiq, yagona shaklda yozishni anglatadi. Imlo tilning yozma shaklida bir xillik va barqarorlikni ta'minlaydi. Uning ahamiyatlari quyidagilardan iborat: yozma nutqda bir xillik va tushunarlilikni

ta'minlaydi, tilning savodxonligi va madaniyatini ko'rsatadi, yozuvchi va o'quvchi orasida aniq muloqot bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, fan, matbuot, adabiyot va rasmiy hujjatlarda yagona yozuv shaklini beradi. Imlo me'yorlariga qat'iy amal qilish savodxonlikning eng muhim belgisi bo'lib, yozma nutqni aniq, ravon va yagona qiladi, til madaniyatini yanada yuqori darajaga ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raupova L. Nutq madaniyati. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021.
2. Ona tili – davlat tili. – Toshkent: “Adolat”, 2004.
3. Jo'rayev M. O'zbek tilida nutq madaniyati va uslubiyat. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
4. G'ulomov A., G'ulomova H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
5. Ahmedov A. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2017.

**INGLIZ VA O'ZBEK TARJIMASIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR:
NAZARIY VA AMALIY TAHLIL****Dilafruz Razzakberdiyevna Umarova**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

E-mail address: dilafruz.umarova91@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarining tarjimasida onomastik birliklar (antroponimlar, toponimlar, ergonimlar)ning tarjima strategiyalari va pragmatik-sotsiolingvistik omillarini tahlil qiladi. Transliteratsiya, mahallilashtirish va begonlashtirish, nominativ moslashuv va izoh berishning qo'llanishi ko'rsatiladi. Deixsis va referensiya muammolari, murojaat shakllari hamda madaniy konnotatsiyalar amaliy misollar bilan yoritiladi. Nazariy asoslar va tarjimon qarorlarining normativ jihatlarini muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *Onomastika, antroponim, toponim, ergonim, transliteratsiya, mahallilashtirish, moslashtirish, begonlashtirish.*

Annotation. This article examines the translation of onomastic units (anthroponyms, toponyms, ergonyms) from English into Uzbek, focusing on pragmatic and sociolinguistic factors. It explores strategies such as transliteration, domestication/foreignization, nominative adaptation, and explanatory notes. Issues of deixis, reference tracking, address forms, and cultural connotations are illustrated with practical examples and discussed normatively.

Keywords: *Onomastics, anthroponyms, toponyms, ergonyms, transliteration, domestication, foreignization.*

Аннотация. Статья анализирует перевод онимических единиц (антропонимы, топонимы, эргонимы) в паре английский и узбекский с учетом прагматических и социолингвистических факторов. Рассматриваются стратегии транслитерации, доместикации/форенизации, номинативной адаптации и комментария. Освещаются проблемы дейксиса и референции, формы обращения и культурные коннотации на материале практических примеров, обсуждаются нормативные решения переводчика.

Ключевые слова: *Ономастика, антропоним, топоним, эргоним, транслитерация, доместикация, форенизация.*

Onomastik birliklar hisoblanmish antroponimlar (shaxs ismlari), toponimlar (joy nomlari) va ergonimlar (tashkilot va mahsulot nomlari) matnning muhim qismi bo'lib, ularni tarjima qilish alohida e'tibor talab etadi. Taniqli tilshunos olim E.Begmatov

antroponim, toponim kabi nomlar qatoriga ergonimlarni ham onomastik birlik sifatida kiritadi [3:216]. Onomastik birliklar odatda predmet yoki hodisalarni nomlash, identifikatsiya qilish vazifasini bajaradi va nominativ funksiyaga ega bo'ladi [2: 361]. Shu bois, bunday nomlar ko'pincha bevosita tarjima qilinmaydi, balki transliteratsiya yoki transkripsiya yo'li bilan maqsad tilga o'tkaziladi. Darhaqiqat, bir qarashda ism-sharif va joy nomlarini tarjima qilish qiyinchilik tug'dirmaydi odatda ular shunchaki tovushiga moslashtirib ko'chirib yoziladi [2:361]. Biroq, tarjima jarayonida onomastik birliklar bilan ishlash pragmatik va sotsiolingvistik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ingliz va o'zbek tillaridagi nomlash an'analari hamda madaniy fonlardagi tafovutlar tarjimon uchun qator savollarni yuzaga keltiradi. Masalan, ba'zi nomlar ma'no yoki konnotativ yukga ega bo'lib, asl matnda muhim pragmatik vazifani bajaradi. Tarjimon bu hollarda nomni shunchaki transliteratsiya qilish bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha izoh yoki mos ekvivalent topishga majbur bo'ladi.

Ushbu maqolada inglizcha-o'zbek tarjimada onomastik birliklarni tarjima qilishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

- antroponimlar, toponimlar va ergonimlar tarjimasidagi asosiy pragmatik va sotsiolingvistik muammolar.
- ingliz va o'zbek tillaridagi nomlash an'analari (ism qo'yish va ishlatish urf-odatlarini) o'rtasidagi farqlar.
- tarjimada "domestikatsiya" va "foreignizatsiya" strategiyalarining qo'llanilishi (matndagi nomlarni moslashtirish yoki asl holicha saqlash).
- deiksis, sotsiolingvistik me'yorlar va referensiya (anorifik murojaat, olmoshlar orqali ishora qilish) masalalari.

Avvalo, onomastik birliklarning til tizimidagi o'rni va xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Tilshunoslik nazariyasida ismlar va otlar o'rtasida muhim farqlar mavjud. A.V.Superanskaya ta'kidlaganidek, ismlarning bosh vazifasi nominativ funksiyani bajarish, ya'ni bir xil turkumdagi obyektlarni farqlash uchun nomlashdir [2:363]. Boshqacha aytganda, ismlarning lingvistik tabiati asosan denotativ, ya'ni nomlanuvchi predmetni alohida ko'rsatishga qaratilgan bo'lsa, appellativlarning vazifasi semasiologik, ya'ni ma'no anglatish va konnotatsiya berishdan iborat. Natijada, shaxs nomlari va geografik nomlar kabi onomastik birliklar ko'pincha o'z kelib chiqishi jihatidan appellativlardan yasalgan bo'lsa-da, kundalik nutqda ular uchun asosiy ahamiyat mazmun emas, identifikatsiyadir [2: 363].

Antroponimlar ya'ni inson ismlari tizimi tarkibiy jihatdan murakkab bo'lib, u o'z ichiga shaxsning ismi, ota ismi va familiyasini oladi. N.V.Podolskaya antroponim

tushunchasi doirasiga ism, otasining ismi, familiya, laqab, taxallus singari birliklarni kiritadi [7]. Bu shuni anglatadiki, tarjimada antroponimlar bilan ishlashda nafaqat oddiy ism, balki mumkin bo'lsa, uning ortidagi tarixiy yoki madaniy ma'lumotni ham e'tiborga olish lozim. Masalan, ingliz tilidagi Elizabeth ismi uchun o'zbek tilida bevosita ekvivalent yo'q, tarjimon uni "Elizabet" tarzida transkripsiya qiladi. Biroq ba'zi holatlarda antroponimlarning ma'nosi yoki kelib chiqishi muhim rol o'ynashi mumkin. Masalan, *Pilgrim's Progress* asaridagi Giant Despair kabi allegorik nomlar bevosita ma'no tashiydi, bunday hollarda, Peter Newmarkning qayd etishicha, milliy xususiyatni saqlash bilan birga ma'noviy ekvivalentni izlash lozim bo'ladi [9:92]. Umuman olganda esa, odatda shaxs nomlari tarjimada asl shaklda ko'chiriladi, chunki bu usul ularning milliy-identifikatsion xususiyatini saqlashga xizmat qiladi [9:90].

Toponimlar esa ya'ni geografik nomlar tarjimasida ham o'ziga xos nazariy yondashuv zarur. Ko'plab tillarda toponimlarning ekzonim deb ataluvchi an'anaviy shakllari mavjud. Masalan, *London* shahri o'zbek tilida ham London tarzida ishlatiladi, *United Kingdom* esa Buyuk Britaniya yoki Birlashgan Qirollik deb yuritiladi. Ba'zan toponim tarkibidagi umumiy otlar tarjima qilinadi: *Pacific Ocean* atamasi Tinch okeani shaklida, *Yellow River* esa Sariq daryo shaklida ishlatiladi bu yerda "okean" va "daryo" so'zlari tarjima qilingan, xolos. Yevropa tillarida qadimdan shakllangan ayrim tarixiy nomlar ham bor: misol uchun, *Germany* davlat nomi uchun o'zbek tilida Germaniya shakli qo'llanadi. Bu holatlar ko'pincha tarixiy va madaniy an'analarga asoslangan bo'lib, tarjimon bunday an'anaviy ekvivalentlarni yaxshi bilishi va qo'llashi lozim. Christina Nord ta'kidlaganidek, geografik nomlarning tarjimasida agar maqsad til madaniyatida ekzonim shakli bo'lsa, odatda o'sha shakldan foydalanish odat tusiga kirgan [9:94]. Demak, toponimlarni tarjima qilish jarayonida normativ variantlar va qoida istisnolari mavjud bo'lib bu holaatda tarjimon matnning janri va kontekstiga qarab eng ma'qul yo'lni tanlaydi.

Ergonimlar hisoblanmish firmalar, tashkilotlar, mahsulotlar nomlari tarjimada alohida nazariy masalalarni keltirib chiqaradi. Odatda, xalqaro brendlar nomi tarjima qilinmaydi, balki asl aytilishiga yaqinlashtirilib yoziladi (masalan, Microsoft so'zi aynan Microsoft tarzida qoladi). Ammo rasmiy tashkilotlar yoki unvonlar nomi ko'pincha tarjima qilinadi: *British Council* -Britaniya Kengashi, *Ministry of Foreign Affairs* - Tashqi ishlar vazirligi va hokazo. Bunday hollarda tarjimon funksional ekvivalent topishga intiladi, ya'ni tashkilotning maqsad tilidagi rasmiy nomini qo'llaydi. Ergonimlarni tarjima qilishda pragmatonimlar (savdo belgilari, brendlar)ga alohida yondashuv talab etiladi va ularni ko'pincha tarjima qilmaslik, balki belgilangan yozuv qoidalariga muvofiq ifodalash maqsadga muvofiqdir. Masalan, *Coca-Cola*

brendi o'zbek tilida Coca-Cola (yoki ayrim matnlarda Koka-Kola) tarzida yoziladi; bunda nom begonalashtirish usuli bilan, ya'ni asl shaklini saqlagan holda berilgan. Aksincha, ayrim holatlarda nomlar mahalliyashtirish ya'ni mahalliy madaniyatga moslashtirilishi mumkin. XX asr tarjimachilik amaliyotida ba'zan mashhur shaxslar nomlari mahalliyashtirilgan: masalan, *William Shakespeare* ismi eski o'zbekcha manbalarda Uilyam Shekspir shaklida, *Karl Marx* ismi esa Karl Marks tarzida uchragan. Bunday moslashuvlar tarixiy konventsionalarga bog'liq bo'lib, bugungi globalashuv davrida nomlarni asliga yaqin holda qoldirish tamoyili kuchayganligi kuzatiladi [9:94].

Shunday qilib, nazariy nuqtai nazardan, onomastik birliklarni tarjimada asosan saqlash (transfer) tamoyili ustunlik qiladi va bu ular ortidagi identifikatsion vazifani buzmaslikka qaratilgan. Shu bilan birga, bu nomlarning matndagi aloqadorligi va funksional yuki ham hisobga olinadi. Albert Vermesning tadqiqotlari ham ko'rsatadiki, nomlarning tarjimadagi xatti-harakati kutilgan darajada izchil agar nom matnda alohida semantik yukga ega bo'lsa, tarjimon uning mazmuniy jihatlarini maqsad til o'quvchisiga yetkazishga intiladi, aks holda, nomni o'ziday ko'chiradi [9:94]. Demak, nazariyada tarjimon doimo adekvatlik (aslga sodiqlik) va qabul qiluvchanlik (maqsad madaniyat me'yorlariga moslik) o'rtasidagi muvozanatni ko'zda tutadi.

Har bir til va madaniyatning nomlash an'analari o'ziga xos bo'lib, bu tarjima jarayonida hisobga olinishi zarur bo'lgan muhim omildir. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, G'arb va Sharq jamiyatlarida shaxs nomlarining funksiyasi va ishlatilishi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud bo'lishi mumkin [6]. Masalan, ingliz madaniyatida kishi ism-sharifining tuzilishi: ismi + familiya (ba'zan oraliq ismlar) shaklida bo'lsa, o'zbek nomlash an'anasida tarixan ismi + otaning ismi + familiya (yoki laqab) uchligi shakllangan (masalan: *Olimjon* - ismi, *Karim o'g'li* - ota ismi, *Ahmedov* - familiya). Ingliz tilida esa patronimik tizim mavjud emas, ya'ni otasining ismi rasmiy ism tarkibiga kirmaydi.

Sotsiolingvistik me'yorlar ham muhim o'rin tutadi, ingliz tilida muloqotda kishilar ko'pincha ismlariga Mr./Mrs. kabi unvonlarni rasmiy holatdagina qo'shadilar va norasmiy muhitda esa yoshidan qat'i nazar ism bilan murojaat qilish oddiy holdir. O'zbek madaniyatida esa kattalarga yoki hurmat talab qilinadigan shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri ism bilan murojaat qilish odobsizlik sanalishi mumkin. Shuning uchun tarjimada ba'zan inglizcha matndagi murojaatlar o'zbekchaga aka/opa, hola, domla kabi hurmat ifodalaydigan so'zlar qo'shib qayta ifodalanadi. Masalan, inglizcha dialogda kichik yoshdagi shaxs kattaga shunchaki "John" deb murojaat qilgan bo'lsa,

uni o'zbek tarjimasida "Jon aka" tarzida berish mantiqiy bo'lishi mumkin hamda bu o'quvchi uchun muloqot ohangini to'g'ri tushunishga xizmat qiladi.

Ismlarning gender va yosh haqida signal berishi ham har xil tillarda turlicha. Ingliz tilida ko'pchilik ismlar jinsni aniq bildiradi (masalan, *Michael* erkak ismi, *Michelle* ayol ismi), o'zbek ismlari ham shunga o'xshash xususiyatga ega (masalan, Alisher - erkak, Gulnora - ayol). Biroq tarjimada muammo shundaki, olmoshlar tizimi boshqacha: ingliz tilidagi *he/she* aniq jinsni ko'rsatsa, o'zbek tilida "u" olmoshi jins farqlamaydi. Bu referensiya masalasiga olib keladi ya'ni matnda *he* va *she* orqali izchil tutashib borayotgan referentlar o'zbekcha tarjimada doim ham aniq anglashilmasligi mumkin. Shuning uchun tarjimon ayrim hollarda pronominal referensiyani ism bilan almashtiradi yoki qo'shimcha izoh beradi. Ba'zi tillar matnda shaxsni kuzatishda takroran ismni qo'llashni afzal ko'radi, ingliz tilida esa xuddi shu vaziyatda olmosh ishlatiladi. O'zbek tilida ham, ayniqsa bir nechta shaxs ishtirok etgan sahnalarda, *u* olmoshi noaniqlik keltirib chiqarmasligi uchun tarjimon nomni qayta zikr etishi mumkin. Bu nafaqat deiksis (ko'rsatish vositasi) muammosini hal qiladi, balki matnning silliqiligi va mantiqiy bog'liqligini ham ta'minlaydi.

Yana bir muhim tafovut nomlarning konnotatsiyasi va madaniy yuki. Ingliz tilida ayrim ismlar yoki joy nomlari ma'lum bir madaniy informatsiyani o'zida olib yuradi. Masalan, *Wall Street* atamasi oddiy geografik tushunchadan tashqari AQSh moliya dunyosining ramziy nomi hisoblanadi; *Hollywood* esa kino industriyasini anglatadi. Bunday atamalarni tarjima qilganda, agar o'zbek o'quvchisi uchun yetarlicha tushunarli bo'lmasa, tarjimon izoh qo'shishi mumkin (masalan, "Wall-strit (AQSh moliya markazi)" kabi). Aksincha, o'zbek madaniyatiga xos *Chorsu*, *Registon* kabi toponimlar inglizchaga tarjima qilinsa, ingliz o'quvchisi uchun begona tushuncha bo'lib qolishi mumkin va tarjimon bu holatda qisqa tushuntirish yoki ekvivalent analogiya keltirishi lozim bo'ladi.

Tarjima amaliyotida onomastik birliklar bilan ishlash strategiyalari bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi:

Transliteratsiya: Bu eng keng tarqalgan usul bo'lib, nom asl talaffuziga mos holda maqsad tilga ko'chiriladi. Masalan, *Christopher* - Kristofer, *London* - London, *Google* - Google. Ushbu usul Venuti ta'kidlagan begonalashtirish tamoyiliga muvofiq bo'lib, asl matn o'ziga xosligini saqlashga yo'naltirilgan. Natijada o'quvchi chet til unsurlarini sezadi, lekin nomning milliy identifikatsiyasi yo'qolmaydi. Tarjimon uchun bu eng xavfsiz yo'l, ayniqsa nom ma'no anglatuvchi bo'lmasa. Newmark qayd etganidek, agar nom asar mazmuniga bevosita bog'lanmagan bo'lsa, uni o'zgartirmay ko'chirish maqsadga muvofiq [6].

Mahalliyashtirish: Ba'zi hollarda nomni maqsad madaniyatiga moslashtirish talab qilinadi. Bu strategiya, ayniqsa, bolalar adabiyoti yoki satirik asarlar tarjimasida uchraydi. Masalan, ertaklarda *Cinderella* ismi rus tarjimasida Zolushkaga aylanganidek, o'zbek tilida ham shunga o'xshash mahalliy variant tanlanishi mumkin. O'zbek tilida bunday to'g'ridan-to'g'ri moslashtirishlar kamroq uchrasa-da, tarjimon matn janriga qarab bu uslubni qo'llashi mumkin. Mahalliyashtirish shuningdek madaniy tushuntirish zarur bo'lgan paytda qo'llanishi mumkin masalan, *Arsene Lupin* fransuz adabiy qahramoni bo'lib, ingliz o'quvchisi uchun notanish, ingliz tarjimon bu nomni "fransuzcha Sherlok Xolms" kabi ta'rif bilan keltirishi mumkin. Darhaqiqat, Mona Baker keltirgan misolda ingliz tarjimoni *Arsène Lupin* nomini o'quvchiga tushunarliroq qilish uchun Boris Karloffga qiyoslagan ya'ni o'quvchiga tanish timsol orqali tushuntirgan [9:92]. Bu madaniy tarjimaning bir ko'rinishi bo'lib, maqsad auditoriyaga begona bo'lgan nomni qabul qilishni osonlashtiradi [7:184]. Mazkur misolda ma'lum kamchilik (Lupin va Karloff qiyosining unchalik mos emasligi) bo'lsa-da, strategiyaning o'zi xuddi mahalliyashtirish tamoyiliga asoslangan edi.

Izohlash va qo'shimcha ma'lumot berish: Tarjimada ba'zan nomning o'zi yetarli bo'lmay, qo'shimcha izoh talab etiladi. Bu uslub ayniqsa tarixiy shaxslar, geografik atamalar yoki madaniy realiyalar uchun qo'llanadi. Masalan, *the House of Commons* atamasi oddiy o'quvchi uchun notanish bo'lishi mumkin va tarjimada "Commons (Angliya parlamentining quyi palatasi)" kabi izoh berilishi mumkin. Yoki *Thanksgiving* bayrami tarjimada "Minnatdorchilik bayrami (har yili noyabr oyining oxirgi payshanbasida AQShda nishonlanadi)" deb tushuntiriladi. Bu uslub matn izchilligini saqlagan holda, o'quvchiga zarur tushunchani yetkazadi va referensial noaniqlikning oldini oladi [7:184]. Izoh berish ham qo'shimcha kiritish strategiyasi sifatida ma'lum bo'lib, Lincoln Fernandes tasnifida onomastik birliklarni tarjima qilishning muhim yo'llaridan biri sanaladi [6].

Nominativ moslashuv: Ba'zi nomlar tarkibida ma'noli elementlar bo'ladi (masalan, joy nomlaridagi tog', daryo, ko'l kabi so'zlar). Tarjimon bunday hollarda nominativ komponentni tarjima qilib, qolgan qismini transliteratsiya qiladi. Masalan, *Everest Peak* - Everest cho'qqisi, *Amazon River* - Amazonka daryosi. Shuningdek, rasmiy nomlarni tarjima qilishda mos ravishda umumiy nomli komponent atamalarni o'zgartirish talab etiladi: *National Library* - Milliy kutubxona, *University of Cambridge* - Kembrij universiteti. Natijada nomning identifikatsion qismi saqlanib, funksional qismi o'zbek tiliga tarjima qilinadi.

Olib tashlash yoki almashtirish: Juda kam holatlarda, agar nom matn mazmuni uchun ahamiyatsiz bo'lsa, tarjimon uni tushirib qoldirishi yoki umumiy atama bilan

almashtirishi mumkin. Bu tushirib qoldirish deb ataladi [6]. Masalan, agar asarda tilga olingan bir martalik personaj ismi o'quvchi uchun mutlaqo hech qanday axborot bermasa va chalkashlikka sabab bo'lsa, tarjimon uni "bir odam", "tanish" kabi so'z bilan almashtirishi mumkin. Biroq, bunday yondashuv faqat matn birligiga zarar yetkazmaydigan holatdagina maqullanadi. Aksincha, muhim nomlarni tushirib yuborish ekvivalentlikka putur yetkazishi mumkin, shuning uchun bunday choralar juda ehtiyotkorlik bilan qo'llanadi.

Tarjima amaliyotida onomastik birliklar bilan ishlash ko'p jihatdan matn janri va auditoriya ehtiyojlariga bog'liq. Ilmiy yoki hujjatli matnlarda iloji boricha aniqlik va aslga sodiqlik talab etiladi, masalan manbalarda keltirilgan tarixiy shaxs va joy nomlari rasmiy transkripsiya qoidalariga binoan aynan keltiriladi. Badiiy tarjimada esa, stilistik va pragmatik ekvivalentlik ko'proq e'tiborga olinadi. Shu bois, tarjimon ba'zan ijodkorlik bilan nomlarni o'zgartirmay turib, ularning matndagi rolini aks ettiruvchi figural vositalardan foydalanadi. Misol uchun, asliyatda biror personaj ismi atrofida so'z o'yini bo'lsa, tarjimon uni saqlab qolish uchun boshqa usul topishi mumkin. Yoxud asliyatda biror personaj ismi uning xulqiga ishora qilsa, tarjima matnda xuddi shu personajni tavsiflovchi qo'shimcha sifat bilan bu ma'no berib ketilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inglizcha-o'zbek tarjimada onomastik birliklar bilan ishlash ko'p qirrali yondashuvni talab etadi. Bir tomondan, ismlar va boshqa nomlar tarjimada ko'pincha o'z shaklini saqlaydi va bu ularning identifikatsion vazifasi buzilmasligi uchun zarur. Haqiqatan ham, to'g'ri tanlangan transliteratsiya matnning sodiqligini ta'minlaydi va nom ortidagi milliy rangni saqlaydi. Boshqa tomondan esa, har bir nom matn konteksida yashaydi va muayyan pragmatik yukni olib yuradi. Agar bu yuk maqsad til o'quvchisi uchun tushunarsiz bo'lib qolsa, tarjimon bu bo'shliqni to'ldirishi lozim, bu orqali u kommunikativ ekvivalentlikka erishadi. Shunday ekan, tarjimon har bir onomastik birlikni nafaqat so'z sifatida, balki belgi sifatida ham qabul qiladi va ularning orqasida turgan madaniy, tarixiy va emotsional ma'nolarni hisobga oladi. Tarjima nazariyasida mahalliyashtirish va begonalashtirish strategiyalari aynan shu nuqtada kesishadi. Tarjimon nomni mahalliy o'quvchiga yaqinlashtirish evaziga ba'zan asl matn xorijiy koloritini yumshatadi yoki tushuntiradi, yoki aksincha, aslga xos begonalikni atay saqlab, o'quvchini yangi madaniyat bilan yuzlashtiradi. Bu tanlovda eng to'g'ri yondashuv matnning janri, funksiyasi va mo'ljallangan auditoriyasidan kelib chiqadi. Masalan, ilmiy maqolada aniqlik birlamchi bo'lsa, badiiy asarda ta'sir va ohang afzal qo'yiladi. Deixis va referensiya masalalarini hal qilishda esa tarjimon til tizimlarining farqlarini hisobga olib, matnni bog'lanish jihatidan qayta quradi.

Yakunda aytish mumkinki, onomastik birliklarning tarjimasi oddiy transkripsiyadan tortib murakkab pragmatik moslashuvgaicha ijodiy jarayon sanaladi. A.K.Matveyev ta'kidlaganidek, onomastika faqat ismlar jamlanmasi bo'lib qolmay, balki ularning qo'llanish qonuniyatlarini ham o'rganadi shu bois tarjimon bu qonuniyatlarni bir tildan ikkinchi tilga adekvat tarzda ko'chirish vazifasini bajaradi. Inglizcha-o'zbek tarjimada antroponimlar, toponimlar va ergonimlar bilan ishlashda erishilgan muvaffaqiyat bu tarjimonning til bilimdonligi va madaniyatlararo sezgirligi natijasidir. Shunday qilib, har bir nom tarjimada o'z aks-sadosini topadi va ikki til o'rtasida ma'no ko'prigi sifatida xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Наука, 1988. - 300 с.
2. Суперанская А.В. Имя собственное: Вопросы теории. - М.: Наука, 1973. - 367 с.
3. Бегматов Э. Ўзбек онимастикаси терминларининг изоҳли луғати. - Наманган: Наманган давлат университети нашриёти, 2006. - 215 б.
4. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. - London; New York: Routledge, 2011 (1992). - 332 p.
5. Newmark, P. A Textbook of Translation. - New York: Prentice Hall, 1988. - 292 p.
6. Мизани С. Proper Names and Translation [Текст] / С. Мизани // Translation Studies Journal. – Fars Science and Research Azad University, Iran, 2018.
7. Kiviniemi, E. Personal Names in Cultural Context. - Helsinki: Finnish Academy of Science, 1982. - 184 p.
8. Fernandes, L. Translation of Names in Children's Fantasy Literature // Translation Journal. - 2006. - Vol. 10, No. 3.
9. Vermes, A.P. Proper Names in Translation: Theory and Practice // Studies in Translation Theory. - 2003. - Vol. 8. - P. 89–105.

TIL VA SUN'IY INTELLEKT: TABIIY TILNI QAYTA ISHLASH (NLP)TEXNOLOGIYALARI

Vosidjonova Layloxon Avazbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

vosidjonovalaylo07@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kofedrasi dotsenti

filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTTATSIYA:

Maqolada tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining mazmuni, ularning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy hayotdagi o'zni tahlil qilinadi. Avvalo, tilshunoslik, informatika va matematika fanlari kesishgan nuqtada shakllangan NLPning nazariy asoslari muhokama qilinadi. Shuningdek, dastlabki tarjima dasturlaridan boshlab, bugungi kunda keng qo'llanilayotgan Google Translate, ChatGPT, Siri va boshqa tizimlargacha bo'lgan rivojlanish jarayonlari yoritiladi. NLPning ta'limdagi ahamiyati ham ko'rsatib o'tiladi: yozma matnlarni avtomatik tekshirish, chet tillarini o'rganish uchun interaktiv vositalar yaratish, talaffuz va ifodali o'qishni rivojlantirishdagi imkoniyatlari keltiriladi. Bundan tashqari, avtomatik tarjima, lingvistik tadqiqotlar hamda kundalik muloqot jarayonlarida NLPning qo'llanishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: tabiiy tilni qayta ishlash, NLP, sun'iy intellekt, lingvistika, avtomatik tarjima, nutqni tanish, nutq yaratish, raqamli ta'lim, interaktiv dasturlar.

ABSTRACT:

The article analyzes the essence of Natural Language Processing (NLP) technologies, their stages of development, and their role in modern life. First, the theoretical foundations of NLP, which emerged at the intersection of linguistics, informatics, and mathematics, are discussed. Furthermore, the stages of progress from the earliest translation programs to widely used systems such as Google Translate, ChatGPT, Siri, and others are highlighted. The importance of NLP in education is also shown, including automatic checking of written texts, the creation of interactive tools for learning foreign languages, and the development of pronunciation and expressive

reading. In addition, the application of NLP in automatic translation, linguistic research, and everyday communication is emphasized.

Keywords: natural language processing, NLP, artificial intelligence, linguistics, machine translation, speech recognition, speech synthesis, digital education, interactive tools.

Аннотация:

В статье анализируется сущность технологий обработки естественного языка (NLP), этапы их развития и роль в современной жизни. Вначале рассматриваются теоретические основы NLP, возникшие на пересечении лингвистики, информатики и математики. Далее освещаются этапы развития – от первых переводческих программ до современных систем, таких как Google Translate, ChatGPT, Siri и другие. Показано значение NLP в образовании, включая автоматическую проверку письменных текстов, создание интерактивных средств для изучения иностранных языков, развитие произношения и выразительного чтения. Кроме того, подчеркивается применение NLP в автоматическом переводе, лингвистических исследованиях и повседневном общении.

Ключевые слова: обработка естественного языка, NLP, искусственный интеллект, лингвистика, машинный перевод, распознавание речи, синтез речи, цифровое образование, интерактивные программы.

Bugungi kunda dunyo taraqqiyoti raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar bilan bevosita bog'liq bo'lib qoldi. Ularning eng muhim yo'nalishlari tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) hisoblanadi. NLP texnologiyalari tilshunoslik va kompyuter fanining kesishgan nuqtasida paydo bo'lgan bo'lib, inson nutqini mashina tomonidan avtomatik tushunish, tahlil qilish va qayta ishlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada NLP texnologiyalarining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, imkoniyatlari, ta'lim va tarjima ahamiyati hamda kelajakdagi istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Til – insoniyatning eng muhim aloqa vositasidir. Kompyuterlar esa dastlab faqat matematik hisob-kitoblarni amalga oshirgan bo'lsa, keyinchalik ular tabiiy tilni ham qayta ishlashga qodir bo'ldi. Bu jarayon tilshunoslik (lingvistika), matematika va informatika fanlarining birlashuvidan paydo bo'lgan. NLP asosan quyidagi vazifalarni bajaradi: matnni tahlil qilish va morfologik ajratish; so'z va gaplarning ma'nosini aniqlash; avtomatik tarjima qilish; matndan nutq yaratish (speech synthesis); nutqni matnga aylantirish (speech recognition)[1].

XX asrning ikkinchi yarmida dastlabki tarjima dasturlari yaratilgan bo'lsa ham, ular ko'p xatolarga yo'l qo'ygan. 1990-yillardan boshlab kompyuter quvvatining oshishi, internetning ommalashishi va mashinani o'qitish algoritmlarining rivojlanishi natijasida NLP sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bugungi kunda Google Translate, ChatGPT, Siri, Alexa kabi tizimlar NLP asosida ishlaydi. NLP bugungi kunda kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, ta'lim, biznes, tibbiyot, huquq va hatto ijodiy sohalarida ham keng qo'llanilmoqda[2].

Raqamli ta'lim jarayonida tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari juda katta ahamiyatga ega. Masalan: o'quvchilarning yozma matnlarini avtomatik tekshirish; ona tili va chet tillarini o'qitishda interaktiv dasturlar yaratish; ifodali o'qish va talaffuzni mashq qilishda va ovozli tizimlardan foydalanishda. NLP yordamida talabalarning nutq madaniyati ham rivojlanib, ularni erkin muloqotga tayyorlash imkoniyati kengaymoqda. Shuningdek, ona tili va chet tillarini o'qitishda interaktiv dasturlar katta rol o'ynaydi. Ular yordamida talaba virtual muhitda mashq qiladi, yangi so'zlarni o'rganadi, til qoidalarini takrorlaydi. Ingliz tili kabi chet tillarini o'rganishda NLP asosida yaratilgan chat-botlar suhbatdosh rolini bajarib, o'quvchilarga haqiqiy muloqot sharoitini yaratadi[3].

Avtomatik tarjima dasturlari bugungi kunda kundalik hayotimizning bir qismiga aylangan. Ingliz, rus, arab va boshqa tillardan o'zbek tiliga tezkor tarjima qilish imkoniyati ham NLP samarasi hisoblanadi. Shuningdek, lingvistik tadqiqotlarda, ayniqsa katta hajmdagi matnlarni tahlil qilishda NLP dasturlari muhim yordamchi vositaga aylanmoqda. NLP asosidagi avtomatik tarjima nafaqat insonlarning kundalik turmushini yengillashtirmoqda, balki ilmiy izlanishlarda ham muhim yordamchi vosita sifatida o'z o'rnini topmoqda. Alan Turing bu borada shunday deydi: "Agar kompyuter insonni o'zini inson deb ishontira olsa, u holda uni aqlli deb atash mumkin"[4].

Kelajakda tabiiy tilni qayta ishlash yanada mukammallashadi. Avtomatik tarjima deyarli inson darajasiga tenglashadi, ovozli yordamchilar tabiiy so'zlashishni boshlaydi, matnlarni tahlil qilish va ijodiy jarayonlarda mashinalarning ishtiroki kuchayadi. Lekin, shu bilan birga, muammolar ham yo'q emas; semantik noaniqlik, madaniy kontekstni tushunish qiyinligi, tilning dialekt va uslublaridagi farqlar. NLP texnologiyalari kelajakda hayotimizni yanada qulay va samarali qilishi shubhasiz, biroq ularni mukammallashtirish uchun tilning chuqur semantik va madaniy qatlamlarini o'rganish kerak bo'ladi[5].

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) bugungi davrning eng dolzarb va istiqbolli ilmiy-texnik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U tilshunoslik, informatika va sun'iy intellekt

fanlarining uzviy birlashuvi mahsuli bo'lib, inson va kompyuter o'rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqmoqda. NLP texnologiyalari yordamida kompyuterlar inson nutqini tushunish, tahlil qilish, qayta ishlab chiqish va hatto ijodiy jarayonlarda ishtirok etish darajasiga yetmoqda. Bugungi kunda NLP avtomatik tarjima, nutqni tanish, matnni tahlil qilish, talaffuzni o'rgatish, ifodali o'qishni mashq qilish kabi ko'plab jarayonlarda keng qo'llanmoqda. Xususan, ta'lim sohasida yozma matnlarni avtomatik tekshirish, interaktiv dasturlar yaratish, chet tillarini samarali o'rgatish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu esa o'quvchilar va talabalar bilimini mustahkamlash, ularning nutq madaniyatini rivojlantirish va erkin muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tarjima sohasida ham NLP juda katta qulayliklar yaratmoqda. Turli tillardan tezkor va aniq tarjima qilish imkoniyatlari xalqaro aloqalar, ilmiy izlanishlar va kundalik hayotda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, lingvistik tadqiqotlarda ham katta hajmdagi matnlarni avtomatik tahlil qilish imkoniyati ilm-fan rivojiga hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, NLPning kelajakdagi rivoji yanada ulkan istiqbollarga ega. Avtomatik tarjimalar inson darajasiga tenglashishi, ovozli yordamchilar tabiiyroq muloqot qilishi va mashinalarning ijodiy jarayonlardagi roli kuchayishi kutilmoqda. Shuningdek, NLPning rivojlanishi milliy tillarning saqlanishi va targ'ib etilishiga, chet tillarini o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishga ham katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jurafsky, D., Martin, J. H. Speech and Language Processing. – Stanford University, 2020.
2. Manning, C. D., Schütze, H. Foundations of Statistical Natural Language Processing. – Cambridge: MIT Press, 1999.
3. Bird, S., Klein, E., Loper, E. Natural Language Processing with Python. – O'Reilly Media, 2009.
4. Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – Pearson, 2021.
5. Vaswani, A. va boshq. Attention is All You Need. – NeurIPS Conference Proceedings, 2017.
6. Hochreiter, S., Schmidhuber, J. Long Short-Term Memory. – Neural Computation, 1997.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.

8. Xayitov, A. Kompyuter lingvistikasi va NLP asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021.
9. Google AI Blog. Recent Advances in Machine Translation and NLP. – 2023.
(<https://ai.googleblog.com>)
10. OpenAI. ChatGPT va tabiiy tilni qayta ishlash istiqbollari. – 2023.
(<https://openai.com>)

JURNALISTIK MATNLARDA TIL ETIKASI ME'YORLARINING BUZILISHI VA ULARNING LINGVISTIK TAHLILI

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Xabibullayeva Shaxlo Doniyor qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1- bosqich talabasi

shahlokhayibullayeva915@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jurnalistik materiallarda til etikasi buzilishi holatlari lingvistik ekspertiza nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ommaviy axborot vositalarida muallifning nutq madaniyati, axloqiy me'yorlarga rioya etish darajasi hamda so'z tanlash mas'uliyati muhim omil sifatida baholanadi. Tadqiqot davomida matbuot materiallarida uchraydigan etik me'yorlardan chetga chiqish holatlari, ularning ijtimoiy ta'siri va tilshunoslik jihatidan baholash mezonlari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, til etikasi buzilishining ijtimoiy-madaniy sabablarini aniqlash va jurnalistik nutqda axloqiy mas'uliyatni kuchaytirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: til etikasi, jurnalistik material, lingvistik ekspertiza, nutq madaniyati, axloqiy me'yor, OAV tili.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются случаи нарушения языковой этики в журналистских материалах с позиции лингвистической экспертизы. Оценивается уровень речевой культуры автора, соблюдение этических норм и ответственность за выбор языковых средств в средствах массовой информации. В ходе исследования выявлены основные типы отклонений от норм речевой этики, их социальное воздействие и критерии лингвистической оценки. Также предлагаются рекомендации по укреплению моральной ответственности журналистов в процессе публичной коммуникации.

Ключевые слова: языковая этика, журналистский материал, лингвистическая экспертиза, речевая культура, этические нормы, язык СМИ.

ANNOTATION

This article examines the violations of language ethics in journalistic materials through the lens of linguistic expertise. The author's speech culture, adherence to ethical standards, and responsibility in word choice are analyzed as key factors in mass communication. The study identifies common types of ethical breaches in media texts, their social implications, and linguistic evaluation criteria. Furthermore, the paper provides recommendations for strengthening journalists' moral responsibility and promoting ethical language use in public discourse.

Keywords: language ethics, journalistic material, linguistic expertise, speech culture, ethical norms, media language.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyatda ijtimoiy fikrni shakllantirish, axborot tarqatish, jamoatchilikni muayyan hodisalarga nisbatan yo'naltirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois jurnalistning tili, uslubi, muloqot madaniyati va axloqiy mas'uliyati keng jamoatchilik uchun namuna bo'lishi lozim. Ammo hozirgi davr axborot oqimida ayrim jurnalistik materiallarda til etikasi buzilishi, ya'ni haqorat, kamsitish, stereotipga asoslangan ifodalar, salbiy konnotatsiyali so'zlardan foydalanish holatlari kuzatilmoqda.

Til etikasi buzilishi nafaqat axborot sifati va ishonchliligiga, balki jamiyatdagi madaniy muhitga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, jurnalistik materiallardagi til etikasi buzilishini lingvistik ekspertiza asosida o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Lingvistik ekspertiza bu — matnda til birliklarining ma'no, uslubiy, pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning axloqiy, huquqiy va ijtimoiy jihatdan bahosini berish jarayonidir.

Mazkur maqolaning maqsadi — jurnalistik materiallarda til etikasi buzilishining turlarini aniqlash, ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish va bunday holatlarni oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

1. Til etikasi va jurnalistik nutq o'rtasidagi bog'liqlik

Til etikasi – bu muloqot jarayonida shaxsning so'z tanlovi, ohang, murojaat shakli va ifoda vositalarida axloqiy me'yorlarga rioya etishini bildiradi. Jurnalist uchun bu me'yorlar yanada muhim, chunki uning nutqi keng auditoriyaga ta'sir etadi. Jurnalistik etikada nafaqat haqiqatni yetkazish, balki axborotni hurmat, neytrallik va madaniyat bilan ifodalash ham zarur.

Jurnalistning har bir so'zi ijtimoiy oqibatga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun etik me'yorlarga amal qilinmagan holatlarda tahririyat obro'siga, muallif ishonchliligiga va o'quvchining psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Til etikasi buzilishining asosiy turlari

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, OAV materiallarida quyidagi holatlar eng ko'p uchraydi:

Haqoratli va kamsituvchi so'zlardan foydalanish – shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi ifodalar (masalan, “nodon”, “soxta”, “ahmoq” kabi).

Stereotip va kamsituvchi tasvirlar – jins, yosh, millat yoki ijtimoiy maqom asosida kamsituvchi mazmundagi jumlar.

Emotsional manipulyatsiya – axborotni subyektiv tarzda berish, o'quvchini hissiy jihatdan bir tomonga yo'naltirish.

Axloqiy me'yorlarga zid sarlavhalar – klikbeyt (e'tibor jalb qiluvchi, lekin mazmunan noetik) sarlavhalar.

So'z tanlashdagi beparvolik – uslubiy noaniqlik, kinoya, yoki salbiy ohangdagi iboralar orqali xolislikning yo'qolishi.

3. Lingvistik ekspertiza nuqtai nazaridan tahlil

Lingvistik ekspertiza til etikasi buzilgan materiallarda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi:

Leksik tahlil – salbiy konnotatsiyali so'zlar, baholovchi birliklar, kinoyali yoki ijtimoiy jihatdan nojoiz so'zlarning aniqlanishi;

Sintaktik tahlil – gap tuzilishidagi ohang, agressiv konstruksiyalar, sarlavha va matn uyg'unligining tekshirilishi;

Pragmatik tahlil – muallifning niyati, matnning ijtimoiy ta'siri va o'quvchiga nisbatan hurmat darajasi baholanadi.

Ekspertiza natijasida matndagi so'z, ibora va ohanglar jamiyatdagi axloqiy me'yorlar bilan solishtiriladi. Zarur hollarda ekspert xulosalari sud yoki tahririyat qarorlarini asoslashda dalil sifatida foydalaniladi.

4. Til etikasi buzilishining ijtimoiy oqibatlari

Til etikasi buzilishi ommaviy fikrga bevosita ta'sir qiladi. U jamiyatda salbiy stereotiplar, ishonchsizlik va madaniy parokandalikka sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, bu holatlar jurnalistikaning axloqiy qadriyatlarini zaiflashtiradi, so'z erkinligi va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni buzadi.

Shuning uchun jurnalistlar uchun lingvistik va axloqiy savodxonlikni oshirish, tahririyatlarda til etikasi bo'yicha ichki standartlar ishlab chiqish zarur.

Jurnalistik materiallarda til etikasi buzilishi — bu nafaqat tilshunoslik, balki axloq, huquq va ijtimoiy ong bilan bog'liq muhim masaladir. OAV matnlarida so'z tanlashdagi beparvolik, kamsituvchi yoki hissiy jihatdan og'ir ifodalarning ishlatilishi axborot sifatini pasaytiradi, auditoriyada ishonchsizlikni kuchaytiradi va madaniy muloqot me'yorlarini buzadi.

Lingvistik ekspertiza jarayoni bunday holatlarni aniqlash, matnning semantik va pragmatik jihatlarini tahlil qilish orqali muallifning maqsadini va etik pozitsiyasini aniqlash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, til etikasi buzilishi ko'pincha hissiy ohangga berilish, subyektiv fikrni fakt sifatida berish yoki auditoriyani manipulyatsiya qilish natijasida yuzaga keladi.

Jurnalistik axborotning ishonchliligi va madaniy darajasini oshirish uchun:

tahririyatlarda til etikasi bo'yicha ichki standartlar joriy etilishi;

jurnalistlar uchun nutq madaniyati va etik muloqot bo'yicha muntazam seminarlar o'tkazilishi;

axborot materiallarini chop etishdan oldin lingvistik ekspertiza filtrlaridan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yilishi zarur.

Shunda jurnalistik matnlar nafaqat axborot manbai, balki madaniy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi kuchli ijtimoiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamolxonov, H. (2005). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: "Talqin" nashriyoti.
2. O'rinboev, B. (1991). Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
3. Bultakova, D. (2022). O'zbek yoshlari nutqidagi slenglar. Problems of Research and Education of the Uzbek Language, Toshkent.
4. Abdullayeva, N. (2019). Jurnalistik axborotning etik-me'yoriy xususiyatlari. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, №5.
5. G'ulomov, A. (2020). Ommaviy axborot vositalarida so'z madaniyati va mas'uliyat. Filologiya masalalari, №2.
6. Fairclough, N. (1995). Media Discourse. London: Edward Arnold.
7. Van Dijk, T. A. (2006). Discourse and Manipulation. Discourse & Society, 17(3), 359–383.
8. Turg'unpo'latov, D.R. "Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq". "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.
9. Turg'unpo'latov, D.R. "Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi". "Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.

LINGVISTIK EKSPERTIZA — TIL VA QONUN O'RTASIDAGI ILMIY KO'PRIK SIFATIDA

Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

d.turgunpolatov@cspu.uz

Xakimova Sevinch Xalim qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

xakimovas741@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada lingvistik ekspertizaning huquqiy sohada tutgan o'rni va uning tilshunoslik bilan qonunchilik o'rtasida ilmiy ko'priklar vazifasini bajarishi tahlil qilinadi. Lingvistik ekspertiza — bu matn, nutq yoki axborot materiallarini tilshunoslik mezonlari asosida o'rganib, ularning huquqiy ahamiyatini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy faoliyat turidir. Tadqiqotda lingvistik ekspertizaning asosiy yo'nalishlari, sud jarayonlarida qo'llanilishi, so'z erkinligi va mas'uliyati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasida lingvistik ekspertizaning huquqiy mexanizmlari va rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik ekspertiza, tilshunoslik, huquq, qonun, nutq tahlili, sud lingvistikasi, ekspert xulosasi.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль лингвистической экспертизы в правовой сфере и её функция как научного моста между языком и законом. Лингвистическая экспертиза представляет собой исследование текстов и высказываний на основе лингвистических критериев с целью определения их юридического значения. В работе анализируются направления применения лингвистической экспертизы, её значение в судебной практике, а также роль в обеспечении баланса между свободой слова и ответственностью. Кроме того, освещаются вопросы развития института лингвистической экспертизы в Узбекистане и его перспективы.

Ключевые слова: лингвистическая экспертиза, языкознание, право, закон, анализ речи, судебная лингвистика, экспертное заключение.

ANNOTATION

This article analyzes the role of linguistic expertise in the legal field and its function as a scientific bridge between language and law. Linguistic expertise is defined as the scientific analysis of texts or speech based on linguistic criteria to determine their legal significance. The study highlights the main directions of linguistic expertise, its application in court proceedings, and its role in maintaining the balance between freedom of speech and legal responsibility. The paper also discusses the development and prospects of linguistic expertise within the legal system of Uzbekistan.

Keywords: linguistic expertise, linguistics, law, legal language, speech analysis, forensic linguistics, expert opinion.

Har qanday jamiyatda huquqiy tizimning mustahkamligi va adolatli qarorlar qabul qilinishida tilning roli beqiyosdir. Chunki qonun, qaror, shartnoma, sud xulosasi yoki tahririy bayonot — bularning barchasi tilda, ya'ni so'z, ibora va ifoda vositalari orqali shakllanadi. Shu bois til inson tafakkurining ijtimoiy-huquqiy ifodachisidir.

Til — bu nafaqat muloqot quroli, balki huquqiy isbot vositasi hamdir. Qonun hujjatlarining mazmuni, ularning talqini, matn shaklida berilgan dalillar va nutqdagi niyat — barchasi lingvistik birliklar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan til bilan qonun o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganish, ularning uyg'unligini ta'minlash lingvistik ekspertiza fanining asosiy maqsadlaridan biridir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida til siyosati, nutq madaniyati va huquqiy ongni oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda lingvistik ekspertiza fani alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki u tilshunoslik bilimlari bilan huquqiy tahlilni uyg'unlashtiruvchi ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Shunday ekan, **lingvistik ekspertizani “til va qonun o'rtasidagi ilmiy ko'prik” sifatida o'rganish** bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Chunki har bir so'zning huquqiy oqibati bo'lishi, ba'zi hollarda esa birgina iboraning noto'g'ri talqini inson huquqlariga, sha'niga yoki erkinligiga ta'sir qilishi mumkin.

1. Lingvistik ekspertizaning mohiyati va shakllanish jarayoni

Lingvistik ekspertiza — bu tilshunoslik va huquqshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan tarmoq fanidir. U matn, nutq yoki axborot materiallarini lingvistik metodlar yordamida o'rganib, ularning huquqiy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Lingvistik ekspertizaning paydo bo'lishi XX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. G'arb mamlakatlarida “forensic linguistics” (sud lingvistikasi) atamasi keng qo'llanila boshlagan. Bu yo'nalish dastlab jinoyat ishlari bo'yicha yozishmalar, tovush yozuvlari

va bayonotlar tahlilida qo'llangan. Keyinchalik esa u kengayib, siyosiy nutq, reklama, jurnalistik materiallar va internetdagi axborotlar tahlilida ham muhim vositaga aylandi.

O'zbekistonda esa lingvistik ekspertiza mustaqillikdan keyingi yillarda shakllanib, bugungi kunda **sud, prokuratura va adliya tizimlarida** amaliy ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi ekspertiza markazlarida **tilshunos ekspertlar** faoliyat yuritmoqda.

2. Lingvistik ekspertizaning vazifalari va asosiy yo'nalishlari

Lingvistik ekspertizaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Matn yoki nutqda haqorat, tuhmat, kamsitish, manipulyatsiya, yolg'on axborot mavjudligini aniqlash;

Shaxsning nutqdagi niyati va ifodaning maqsadini talqin qilish;

Mualliflikni aniqlash (avtorlik ekspertizasi);

Matnning ijtimoiy ta'siri, axloqiy me'yorlarga muvofiqligi va qonuniy bahosini aniqlash.

Bu vazifalarni bajarish uchun lingvistik ekspertiza quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

Sud lingvistikasi – jinoyat, ma'muriy yoki fuqarolik ishlari bo'yicha bayonot, e'lon, ijtimoiy tarmoq posti yoki maqola matnini tahlil qilish;

Avtorlik ekspertizasi – noma'lum matn muallifini aniqlash uchun uslubiy, leksik va grammatik belgilarni solishtirish;

Semantik-pragmatik ekspertiza – matndagi ma'no, baholovchi ohang va yashirin niyatni aniqlash;

OAV va reklama tili ekspertizasi – reklama, maqola, sarlavha yoki ijtimoiy xabarlar orqali auditoriyani manipulyatsiya qilish holatlarini fosh etish.

3. Til va qonun o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Til va qonun o'rtasidagi aloqani “so‘z — dalil” tamoyili orqali tushunish mumkin. Qonuniy hujjatning kuchi uning tildagi aniqligiga, semantik tozaligiga bog'liq. Shu sababli qonun matnlarida ikki ma'nolilik, kinoya, baholovchi so'zlar yoki emotsional ifodalardan qochiladi.

Lingvistik ekspertlar huquqshunoslarga yordam berib, hujjatlarda semantik aniqlik, mantiqiy izchillik va normativ tozalikni ta'minlashadi. Masalan, “tahdid”, “haqorat”, “tuhmat”, “provokatsiya” kabi tushunchalar sud amaliyotida lingvistik jihatdan aniq belgilanmasa, noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin.

Demak, lingvistik ekspertiza tilshunoslikda so'zning ma'nosini, huquqshunoslikda esa so'zning oqibatini o'rganadi. Shu bois u ikkala fan o'rtasida ilmiy ko'priq vazifasini bajaradi.

4. Lingvistik ekspertiza metodlari

Lisoniy tahlilning chuqurligini ta'minlash uchun bir necha ilmiy metodlar qo'llaniladi:

Semantik tahlil – soʻz va iboralarining toʻgʻri, koʻchma, metaforik maʼnolarini aniqlash;

Pragmatik tahlil – soʻzlovchining maqsadi, nutqdagi niyat va yashirin ifodani talqin qilish;

Diskurs tahlili – matnning konteksti, ijtimoiy vazifasi va auditoriyaga taʼsirini baholash;

Korpus tahlili – statistik usulda leksik birliklarning takrorlanish chastotasini oʻrganish;

Uslubiy tahlil – matnning avtorlik uslubini, ritmini, leksik boyligini aniqlash.

Bu metodlar yordamida ekspert matnni nafaqat lingvistik, balki psixologik, ijtimoiy va huquqiy nuqtai nazardan ham baholaydi.

5. Lingvistik ekspertizaning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati

Lingvistik ekspertiza bugungi kunda jamiyatdagi axborot xavfsizligi, soʻz erkinligi va masʼuliyati, shaʼn va qadr-qimmatni himoya qilish masalalarida muhim ahamiyatga ega.

Internet tarmoqlarida va ijtimoiy media platformalarida tez tarqalayotgan axborotlar ichida yolgʻon, kamsituvchi yoki provokatsion mazmundagi matnlar sonining ortishi lingvistik ekspertizaning zaruratini yanada oshirmoqda.

Lingvistik ekspertiza natijasida tuzilgan ekspert xulosalari bugungi kunda sud qarorlarini asoslashda, tahririyat siyosatini shakllantirishda, hamda axborot siyosatini tartibga solishda muhim dalil sifatida qabul qilinmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida lingvistik ekspertiza yoʻnalishida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, hamda Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti huzurida lingvistik ekspertlar tayyorlash, metodik qoʻllanmalar ishlab chiqish ishlari yoʻlga qoʻyilgan.

Shuningdek, Oʻzbekiston qonunchiligida “soʻz erkinligi” bilan “axborot masʼuliyati” oʻrtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun lingvistik ekspertlarning xulosalari tobora koʻproq eʼtiborga olinmoqda.

Lingvistik ekspertiza — tilshunoslik va huquqshunoslik kesishgan nuqtadagi eng muhim amaliy yoʻnalishlardan biridir. U til vositalarining huquqiy mazmunini ochib berish, bahsli matnlarning maʼno, niyat va taʼsir doirasini aniqlash orqali adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Til — qonunning asosiy ifoda vositasi ekan, uning toʻgʻri, aniq va etik qoʻllanilishi jamiyatdagi huquqiy madaniyatning koʻzgusidir. Shu bois

lingvistik ekspertiza bugungi kunda huquqiy tizimda ishonchli ilmiy tayanch, til va qonun o'rtasidagi mustahkam ko'prik sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

10. Jamolxonov, H. (2005). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin nashriyoti.
11. O'rinboev, B. (1991). Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi. Toshkent: Fan.
12. To'ychiboev, M. (2019). Tilshunoslik va huquqshunoslik kesishmasidagi tadqiqotlar. Toshkent: TDSHU nashriyoti.
13. Bultakova, D. (2022). O'zbek yoshlari nutqidagi slenglar. // Problems of Research and Education of the Uzbek Language. Toshkent.
14. Karimov, S. (2020). Sud lingvistikasi asoslari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
15. Shirinova, N. (2021). "Til etikasi va lingvistik ekspertiza: zamonaviy yondashuvlar". // Filologiya masalalari, №4, 56–63-betlar.
16. Solihov, R. (2018). Ommaviy axborot vositalari tilida etik me'yorlar. Toshkent: Universitet nashriyoti.
17. Turg'unpo'latov, D.R. "Lingvistik ekspertiza: mazmun, tahlil va tadqiq". "Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida" mavzusidagi IX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2024. Toshkent, 135-138-b.
18. Turg'unpo'latov, D.R. "Ta'limning raqamli transformatsiyasi: ilm va texnologiya asosida o'qitishning yangi eposi". "Akademic journal of educational research (AJER)" xalqaro ilmiy jurnali, 2025, № 3(1), 90-95-b.

AXBOROT ASRIDA NUTQ MADANIYATINING AHAMIYATI

Xalmuratova Xolida Shirinboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

xolidaxolmurodova51@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada axborot asrida nutq madaniyatining o'rni va ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Axborot oqimining kuchayishi, raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi sharoitida inson nutqining madaniy darajasiga bo'lgan talab ortmoqda. Maqolada nutq madaniyatining ijtimoiy, psixologik va axborot texnologiyalari bilan bog'liq jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot asri, nutq madaniyati, kommunikatsiya, axborot texnologiyalari, madaniy nutq, axborot madaniyati.

АННОТАЦИЯ: В данной статье с научной точки зрения рассматривается роль и значение культуры речи в информационную эпоху. Усиление потоков информации и расширение цифровых средств коммуникации повышают требования к культурному уровню человеческой речи. В статье освещены социальные, психологические и технологические аспекты, связанные с развитием культуры речи в условиях информационного общества.

Ключевые слова: информационная эпоха, культура речи, коммуникация, информационные технологии, речевая культура, информационная культура.

ABSTRACT: This article scientifically analyzes the role and significance of speech culture in the information age. The intensification of information flows and the expansion of digital communication tools have increased the demand for the cultural level of human speech. The paper highlights the social, psychological, and technological aspects related to the development of speech culture in the context of the information society.

Keywords: information age, speech culture, communication, information technologies, linguistic culture, information culture.

Bugungi kunda insoniyat axborot texnologiyalari va raqamli aloqa vositalari tez sur'atlarda rivojlanayotgan davrda yashayapti. Axborot asrida insonning ma'naviy va madaniy darajasi uning nutqida, fikr ifoda etish uslubida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu boisdan nutq madaniyati nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik muammolar bilan uzviy bog'liqdir. Har bir insonning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyati uning nutq madaniyati darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Axborot asrining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari

XXI asr — axborot va kommunikatsiya asri sifatida tarixga kirgan. Bu davrda insoniyat hayotining deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalar yetakchi o'rinni egalladi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ta'lim, sun'iy intellekt va media madaniyat kabi tushunchalar jamiyatning har bir a'zosining hayotiga chuqur kirib keldi. Axborot oqimi nihoyatda tez bo'lib, insonning tafakkur jarayoni va nutq shakllanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborot asrining eng muhim jihatlaridan biri — bu tezkorlik va qisqa ifoda uslubining kengayishidir. Ko'plab yoshlar qisqa xabarlar, emoji, ramzlar orqali muloqot qilishni afzal bilishmoqda. Bu esa so'z boyligi, fikrni to'liq ifoda etish, nutq madaniyatiga rioya qilish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Nutq madaniyatining mohiyati va zamonaviy talqinlari

Nutq madaniyati — bu insonning o'z fikrini aniq, to'g'ri, estetik va ta'sirchan shaklda ifoda etish mahoratidir. U faqat grammatik to'g'rilik bilan emas, balki mazmuniy boylik, so'z tanlash madaniyati, uslubiy moslik va muloqot etikasi bilan ham belgilanadi. O'zbek tilshunosligida nutq madaniyatining nazariy asoslari A. Madvaliyev, A. G'ulomov, N. Mahmudov kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Zamonaviy davrda nutq madaniyatiga bo'lgan talab o'zgardi. Endilikda insonning kommunikativ kompetensiyasi, ya'ni turli vaziyatlarda mos, ta'sirli va etik tarzda muloqot qilish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunda texnologik savodxonlik, raqamli muloqot etikasi, onlayn madaniyat kabi tushunchalar nutq madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Axborot texnologiyalari davrida nutq madaniyatining o'zgarishi

Axborot texnologiyalari taraqqiyoti natijasida insonlar orasidagi muloqot shakllari o'zgardi. Avvallari yuzma-yuz suhbatlar asosiy muloqot shakli bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda onlayn suhbatlar, matnli xabarlar va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot turlari yetakchilik qilmoqda. Bu jarayon nutqning madaniyligiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy jihatdan, axborot texnologiyalari orqali insonlar o'z fikrini tez, ommaviy va global tarzda yetkazish imkoniga ega bo'lishdi. Salbiy jihatdan

esa, so'z boyligi, grammatik to'g'rilik, muloqot etikasi, hatto tilning o'z tabiati buzilmoqda. Yozishmalar tili og'zaki nutqqa kuchli ta'sir ko'rsatib, ba'zida noaniq, kesik yoki begona so'zlarga boy shaklni olmoqda.

Nutq madaniyatini saqlab qolish va rivojlantirish uchun ta'lim tizimi, OAV, ijtimoiy tarmoqlar va oilaning ahamiyati beqiyos. Ayniqsa, yosh avlodni to'g'ri yozish, aniq fikrlash va madaniyatli muloqotga o'rgatish — axborot asrida milliy madaniyatni asrashning muhim omillaridan biridir.

Axborot texnologiyalarining rivoji natijasida insonlar o'rtasidagi muloqotning shakl va uslublari o'zgardi. Internetdagi tezkor yozishmalar, ijtimoiy tarmoqlar va turli axborot platformalarida qisqa, lo'nda, ba'zan esa til me'yorlaridan chetga chiqib yozish holatlari ko'paymoqda. Bu esa ona tilining boy imkoniyatlari va nutq madaniyati uchun muayyan xavf tug'diradi. Shunday ekan, zamonaviy sharoitda tilni asrab-avaylash, so'zlashuv va yozma nutqni adabiy me'yorlar asosida shakllantirish dolzarb vazifadir.

Nutq madaniyatining yana bir muhim jihati shaxsning ma'naviy darajasini belgilashidir. To'g'ri, ravon va odobli nutq insonning bilim darajasidan dalolat beradi, jamiyatda hurmat qozonishiga zamin yaratadi. Shu bois ta'lim muassasalarida "nutq madaniyati" fani yosh avlodni so'zga e'tiborli, muloqotda madaniyatli bo'lishga o'rgatadi.

Bundan tashqari, axborot asrida davlatlararo aloqalar kuchayib ko'p millatli jamoalarda muloqot qilish ehtiyoji oshmoqda. Bunday vaziyatda ona tilidagi nutq madaniyatini rivojlantirish bilan birga, chet tillarda ham to'g'ri va madaniyatli so'zlashish qobiliyatini shakllantirish zarur.

Nutq madaniyati har qanday kommunikativ vaziyatda, engavvalo, xatosiz gapirishni anglatadi. To'g'ri fikrlash, to'g'ri so'zlash madaniyat belgisi sifatida tan olinmoqda [10, B.21]. Xatosiz yoza olish, ya'ni "imlo, bu — savodxonlik demak. Savodxonlikesamadaniylikbelgisidir"[9, B.32].

Hozirda nutq madaniyatining zamonaviy konsepsiyasi haqida ko'p fikr bildirilmoqda. "Kultura russkoy rechi" darsligida nutq madaniyatining uch aspekti-me'yoriy, etik, kommunikativlik haqida to'xtalib o'tilgan [4, B.15]. Ba'zitadqiqotlarda ularning to'rtaspekti (me'yoriy, etik, kommunikativ, ritorik) ko'rsatilgan.

Nutq madaniyatining kommunikativ aspekti eshituvchi tomonidan to'la anglab olinishi uchun muloqot amaliyotida nutqning kommunikativ muvofiqlik shartlariga amal qilishini taqazo etadi. Bu esa, o'z navbatida, to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, tozalik, boylik, ta'sirchanlik, o'rnlilik, tushunarlik kabi sifatlar bilan o'lchanadi.

Nutq madaniyatida kommunikativlik to'g'ri va mazmunli nutq tuza olish bilan bog'liq.

Bu xususdagi dastlabki qarashlar Aristotelga tegishli. U notiqlikni san'at sifatida tan olgan holda, avval yaratilgan nazariya va kuzatuvlarini umumlashtirib nutq sifatlari haqidagi ta'limotni yaratdi. Mazkur ta'limot asosan tushunarliklik prinsipiga tayanadi. "So'z orqali ifodalanishdagi eng asosiy yutuq bu–

tushunarli bo'la olishlikdir", [2, B.58] deya ta'kidlaydi Aristotel "Poetika" asarida. U yana shuni ham e'tirof etadiki, yaxshi nutqdagi zarur sifatlar – to'g'rilik, aniqlik, o'rinlilik, hammaboplik, quloqqa

yoqimlilik, soflik kabilar aynan tushunarliklikka bo'ysunadi va uning maksimal darajada namoyon bo'lishiga olib keladi.

Nutqning aniqligi auditoriya tomonidan OAV matni to'g'ri tushunilishini ta'minlovchi yana bir mezondir. OAV matnlarida nutq aniqligiga amal qilish uchun jurnalist so'z va so'z birikmalarini ma'noga mos holda qo'llashi lozim. U nutqni shunday tuzishi kerakki, auditoriya uni noto'g'ri anglamasin. OAV matnlarida aniqlikning ikki turi kuzatiladi: faktik; nazariy. Faktik aniqlik deganda jurnalistikada berilayotgan ma'lumotning to'g'ri bo'lishi, buzib talqin etilmasligi nazarda tutiladi. Aniqlikning mazkur turi OAV matnlarining afzalligi sifatida tan olinadi. Juda ko'p faktik materiallar shuni ko'rsatib turibdiki, axborot tarqatish va yetkazish sur'ati oshgani sari uni ifodalash saviyasi yomonlashmoqda. Axborot texnikasi har qanday boshqa texnik vosita kabi insonni nutqiy faoliyatda ham juda passiv, dangasa va yalqov qilib qo'yimoqda.

Axborotning ulkan ummoniga g'arq bo'layozgan insoniyat u haqdagi o'z fikrlarini aytishga ulgura olmayotganligi ham umumiy nutqiy madaniyat saviyasining pasayib ketishiga olib keldi. Jurnalistning yozma va og'zaki nutqida aniqlikning buzilishi quyidagi holatlarda kuzatilmoqda. Mantiqiy jihatdan voqyelikka zid tushunchani ifodalovchi so'zlarning ishlatilishi. Masalan: "Endi e'tiboringizni mana bu xatlarga qaratsak" (R. Yoshlar.); "Navbatni kuy va qo'shiqqa bersak mm-mm- endi qo'shiq va raqslar tinglab dam olishingizni tilagan holda siz bilan..." (R. Mash'al

Xulosa qilib aytganda, axborot asrida nutq madaniyati insonning intellektual darajasi, ma'naviy yetukligi va ijtimoiy faolligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Raqamli texnologiyalar davrida nutq madaniyatini yuksaltirish uchun har bir inson o'z ustida ishlashi, o'qish, yozish va fikrlash madaniyatini rivojlantirishi lozim. Ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va internet makonida to'g'ri so'zlash va yozish madaniyatini rag'batlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madvaliyev A. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
2. G'ulomov A. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan, 2017.
3. Mahmudov N. O'zbek tili madaniyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
4. To'xliyev B. Axborot madaniyati va kommunikatsiya. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
5. Internet manbalari: www.lex.uz, www.ziynet.uz, www.edu.uz

O'ZBEK TILI TOPONIMIKASIDA QASHQADARYO VILOYATI O'RNI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Xasanova Muxlisa Asror qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbrk tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

muxlisaxasanova484@gmail.com

Ilmiy rahbar: Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining geografik joy nomlarini tabiiy geografik jihatdan o'rganish, ularni kelib chiqishini tahlil qilish yoritilgan, ularni yig'ish, tabiiy geografik nuqtai nazardan tahlil qilish va guruhlashtirish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Komponent, etnografiya, oronimlar, gidronimlar

ABSTRACT: This article covers the natural geographical place names of Kashkadaryo region, their collection, analysis and grouping from a natural geographical point of view.

Key words: Component, ethnonym, oronym, hydronym

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается естественно-географическое изучение географических топонимов Кашкадарьинской области, их происхождение, сбор, анализ и группировка с естественно-географической точки зрения.

Ключевые слова: Компонент, этнография, оронимы, гидронимы

Qashqadaryo viloyati maydoni jihatidan Respublikada yirik viloyatlardan biri. Viloyat Respublikaning janubi-sharqida, Qashqadaryo havzasida joylashgan, sharqidan Hisor va Zarafshon tizmalari o'rab turadi. O'z tarkibida **12ta shahar** (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Yangi Nishon, Talimarjon, Chiroqchi, Yakkabog', Qamashi, Shahrisabz, G'uzor, Qarshi) **5ta shaharcha** (Eski Yakkabog', Qashqadaryo, Dehqonobod, Miroqi, Nuriston) **13ta qishloq tumani** (Kasbi, Kitob, Dehqonobod, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor) **1041 ta qishloq** bor. Ma'muriy markazi- Qarshi shahri.

Ilk o'rta asrlarda Qashqadaryo vohasining yuqori qismi Kesh, quyi qismi Naxshab deb atala boshlangan. Milodning VI-VII asrlarida eski shaharlar inqirozga

yuz tutib yangi shaharlar vujudga keladi. 1220-1221 yillarda Qashqadaryo vohasidagi shahar va qishloqlar mo'g'ullar istilosi natijasida vayron qilindi. 1318-1326 yillarda mo'g'ul xonlaridan Kepakxon barpo etgan saroy yaqinida Qarshi shahriga asos solindi. XIV-XV asrlarda Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davrlarida Shahrisabz bir qancha binolar-saroy, masjidlar, maqbara va boshqalar qurildi.[1,128-b]

Qashqadaryo vohasi qadimgi madaniyat markazlaridan biridir. Kitob shahridan 30km shimoli-sharqda Hazrati Bashir qishlog'i yaqinidagi g'orda paleolit davrida odam yashaganini ko'rsatuvchi topilmalar aniqlangan. Chimqo'rg'on suv omborining janubiy sohilidagi Bo'rijarsoyning quyulish joyida so'nggi bronza davri (miloddan avvalgi IX-VIII asrlar)ga oid qadimiy dehqonlar manzilgohi topilgan. Miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalaridayoq sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Yirik dehqonchilik vohalari, shuningdek, shaharsozlik madaniyati (miloddan avvalgi III asrda) mavjud bo'lgan.

Har bir hudud o'zining tabiiy shroiti, iqtisodiyoti, aholisining urf-odati, etnografiyasi va boshqa jihatlar bilan bir-biridan ajralib turadi. Tabiiyki, bu joy nomlarida aks etadi. Viloyatning relyefi murakkab tuzulishga ega bo'lib, bu joy nomlarida o'z aksini topgan. Geografik joy nomlari tarkibida oronimlarning va u bilan bog'liq gidronimlarning ko'pligi shundan dalolatdir. Shunisi diqqatga sazovarki, oronimlar orasida asosiy oronomik termin hisoblangan tog', tepa termini ko'p marta takrorlanadi. Shu bilan birga, tog'da yashovchilar ko'proq tosh so'zidan foydalanadi. Bundan tashqari past tog'larga nisbatan tepa termini qo'llaniladi. Dovonda esa bel, oshuv terminlari ko'proq ishlatiladi. Shuningdek, viloyatida zov, dapsan, oshuv kabi mahalliy terminlar ko'proq foydalaniladi, baland tog'larga nisbatan oq, past tog'larga nisbatan qora so'zlari ko'p qo'llaniladi.

Toponimlar bir qancha hollarda adabiy til normasiga bo'ysunmaydi, shevaviy shakllarda talaffuz qilinadi, masalan, adabiy tildagi tog' termini tov shaklida talaffuz qilinadi: Yetimtov (Qamashi tumani), Kakliktov (Koson tumani), Oqboshtov, Oqqo'ltov, Oqrabottov, Sakintov (Dehqonobod tumani), Qirqtov (Kitob tumani), Qo'ng'irtov (Chiroqchi tumani); tog' termini faqat ikki oronim-Qoratog' va Qo'rg'ontog' (Shahrisabz tumani) tarkibida uchraydi. Ayrim turgan «tog' yoki qoya» ma'nosidagi tosh termini Tuyatosh (Dehqonobod tumani), Uguntosh (Chiroqchi tumani), Yaktosh (Kitob tumani) oronimlarini hosil qilgan; So'rigaza, Qizilgaza, (Qamashi tumani) oronimlari tarkibida gaza so'zi "tog' qirradi" ma'nosida respublikada ko'p uchraydi.

"Kemtik" ma'nosidagi kam termini tog' tizmasining yo'l o'tadigan pastroq qismini bildiradi: Darvozakom dovoni, Egarkam tog'i (Shahrisabz tumani), shu

tumandagi kam tog'lari. Bel termini "dovon" ma'nosida bir necha marta takrorlanadi: Muzbel, Qorabeltov (dovon, Shahrisabz tumani), O'rtabel (dovon, Mirishkor tumani). Aqba arabcha so'z bo'lib "dovon", "tog' yo'li" demakdir: Kalonaqba katta dovon (Kitob tumani), Oqbaykalon dovoni (Qamashi tumani) ham aynan o'sha ma'noda, bunda faqat oldin termin, keyin sifat kelgan: Aqban kalon. Oronim indektorlaridan "tog' orasi", "tog' yelkasi" ma'nosidagi sirt (Qorasirt tog'i, Dehqonobod tumani), "pastroq tog'larning chag'irtoshli oftobro'y yonbag'ri" ma'nosidagi chagat (Qorachag'at tog'i, Dehqonobod tumani), "uzunasiga cho'zilgan balandlik"ni bildirgan qir (Qoraqir tog'i, Nishon tumani), "tog' tarmog'i", "dara" ma'nosidagi Oqqo'ltov tog'i, Dehqonobod tumani, Uchqo'lsoy jarligi – G'uzor tumani terminlarini aytib o'tish mumkin.

Viloyat oronimlarini hosil qilgan terminlardan biri qoq indektoridir. Geografik adabiyotda qoq deganda ko'pincha cho'llarning yog'in suvi to'planadigan ko'lmaklar nazarda tutiladi. To'larda ham qoya bo'shliqlarida, o'yiqlarida qor-yomg'ir suvlari to'lib qoladigan chuqurlik qoq (tosh qoq) deyiladi; chuqurroq qoqlarning suvi yozning yarmigacha turushi mumkin (tevarak atrofdagi jonivorlar shunday qoqlardan suv ichishadi).

Viloyatning shimoliy, shimoli-sharqiy va sharqiy qismi tog'lar bilan o'ralganligi bu yerda daryolar, jilg'alar, soylar va buloqlar ko'pligini bildiradi. Bu holat joy nomlari tarkibida gidronimlarning o'rni salmoqli ekanligini ko'rsatadi. Gidronimlar joyning tabiiy holati, xosiyati, suvning xususiyatlari, shu joyning o'simlik turi hayvonot dunyosini aks ettiradi.

Qashqadaryo viloyati tekislik bilan birga tog' va tog'oldi hududlardan iborat bo'lganligi sababli gidronimlarga boy. Viloyatning eng katta daryosi Qashqadaryo, uning irmoqlari-Oqsuv, Jinnidaryo, Tanxozdaryo, G'uzordaryo, Qoratepa tog'ining janubiy yonbag'ridan yigirmaga yaqin soy oqib tushadi (Sho'robsoy, Makritsoy, Qalqamasoy va h.k). Suv nomlari haqida gap ketganda birinchi galda Qashqadaryo gidronimining etimologiyasi esga keladi. Qashqa komponentli toponimlar bir-biridan farq qiladi. Qashqaqum – o'simliklarsiz baland qum tepaliklar; qashqasuv- tiniq tog' suvi; qashqayo'l –tik tog' yo'li. Shahrisabz tumanidagi bir soy Qashqabuloq deb ataladi. Zominda tumanida ham qashqabuloq degan chashmalar bor.

Qashqadaryo gidronimining kelib chiqishini mutaxassislar boshqacharoq izohlaydilar. V.V.Bartold "Qashqadaryo gidronimi qadimgi Kesh (to'g'rirog'i-Kash) hozirgi Shahrisabz nomining fonetik jihatdan o'zgarishi oqibatidir", - deb yozgan edi. Demak, bu daryo avval Kesh(Kash)daryosi deb, Amir Temur davrida Xashqa

(Xashqarud) deb atalgan va keyinchalik Qashqarud, nihoyat Qashqadaryo bo'lib ketgan.

Gidronimlar tarkibida qashqa terminidan tashqari achchi, sho'r, taxir (Achchisoy, Dehqonobod tumani), buloq, daryo, ko'l, soy, chashma, quduq kabi gidronimik indikatorlar ko'plab takrorlanadi.

